Sayyoramizda (56 ta davlatda) 2,5 milliardga yaqin odamlar toza ichimlik suvini tuyib ichishmaydi (rivojlangan davlatlarda suv resurslaridan ko‘r-ko‘rona foydalanib, suvni isrof qilish holatlari uchraydi), 3 milliard odamlar tegishli gigiyena-sanitariya sharoitiga ega emas, har yili 2 million bolalar toza suv yetishmasligi va zarur sanitariya- gigiyena xizmatlaridan foydalanish imkoniyati yo‘kligi sababli vafot etadi. Kelajakda suv tanqisligi yanada kuchayadi, 2030-yilga borib, suv ta’minoti dunyo ehtiyojlarining atigi 60%ini qondiradi xolos, ya’ni har ikki kishidan biriga suv yetishmaydi.

- Dunyodagi don va boshoqli mahsulotlarni ishlab chiqaruvchilarning 20% gachasi suv resurslaridan to‘la foydalana olishmaydi, bu holat kelajakda qishloq xo‘jaligida suv tanqisligi yuz berib, hosildorlik pasayib ketishiga sabab bo‘ladi.
- Sayyorada o‘rmonlarni kesib tijorat maqsadida ishlatilishi keskin o‘sadi va 2030–2040-yillarda o‘rmon maydoni 12%ga qisqarishi ehtimoli bor.
- Yer aholisining uchdan bir qismi istiqomat qilayotgan lalmi-hosildor yerlar cho‘llanish xavfi ostida bo‘ladi.
- Iqlim o‘zgarishi, havoni isib ketishi natijasida dengiz va okean qirg‘oqbo‘yi hududlarida 2 milliardga yaqin odamlarni turmush tarziga, atrof-muhit ifloslanadi va insonlar salomatligiga salbiy ta’sir qiladi.
- Dunyoda 2040-yilga kelib, aholi 8 milliarddan 9 milliardga ko‘payadi, o‘rta daromadli iste’molchilar esa keyingi 20 yil ichida 3 milliardga ko‘payadi, resurslarga bo‘lgan talab 2 barobardan oshadi.

2040-yilga borib, dunyoning oziq-ovqatga bo‘lgan ehtiyoji 50-60%ga, oziq-ovqat narxlari 50% ga oshadi, energiya resurslari 50%ga va suvga bo‘lgan ehtiyoji 30-35% oshadi[5].

- Is gazlarining (dunyoda CO, emissiyasi) atmosferaga chiqarilishi 65 milliard tonnaga boradi, bu holat O‘zbekistonda yillik hajmi 45 million tonnani tashkil etadi va sayyorada chiqindilar inkirozi yuz beradi.

Yuqoridagilarning barchasi ekologik suv, yer, iqlim inkirozga olib kelib, (YAIM) iqtisodiy usishga yangi cheklovlar ko‘payadi. Yana bir holat ekologik omillarni hisobga oladigan makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar kiymatlari to‘la hisobga olinmaydi. Chunki YAIM o‘sishi energiya ishlab chiqarish, metall eritish, o‘rmonlarni kesish, tabiiy boyliklarni sotish, eng muhimi neft, gaz narxining oshishiga asoslangan bo‘ladi.

Atrof-muhitning ifloslanish darajasi va iqtisodiy o‘sishlar o‘rtasidagi nomutanosiblik ekologik inqirozga olib keladi. Atrof-muhtning buzilishi va tabiiy resurslarning tugatishga asoslangan iste’molchilik jamiyatida barqaror iqtisodiy rivojlanish uzoq muddatga kutilgan natijani bermaydi. Dunyo mamalakatlari yashil iqtisodiyotga o‘tishga harakat qilishadi. O‘zbekistonda so‘nggi besh-o‘n yil ichida qabul qilingan qarorlar (chiqindilarni qayta ishlashni 12% dan 50% gacha yetkazish rivojlantirishgo to‘g‘risida) chiqindilarni qayta ishlash sanoatini rivojlantirishga asos bo‘ladi.

Chiqindilarni yoqishga ixtisoslashgan korxonalarni barpo qilish ko‘plab munozaralar tug‘diradi, chunki atrof-muhit ifloslanadi, kasallik turlari ko‘payadi.

Ko‘pincha yashil iqtisodiyot o‘z mohiyatiga ko‘ra faqat yashil biznesni rivojlantirish, u har xil turdagi tozalash uskunalarini ishlab chiqarishni, ikkilamchi resurslarni, ekologik mahsulotlarni, xizmatlarni chiqindilarni yashil biznes me’yorlari va standartlarini amaliyotda qo‘llash demakdir, tadqiqotchilar va ekspert xulosasiga ko‘ra Yevropa xalqlarining (Shvetsiya, Finlandiya, Shvetsariya va Gollandiya) 91% va Rossiyaliklarning 74% biznesdan ekologik mas’uliyatni talab qiladi. Shu o‘rinda jamiyatimizda biznesni ko‘kalamzorlashtirishga bo‘lgan talabi aholida ekologik tovar ishlab chiqarishda va xizmatlar ko‘rsatishda menejerlarni rag‘batlantirishi mumkin. Oshxonalarda ekologik jihatdan samarali texnologiyalarni, aqlli filtrlardan (is gazini ushlab qoluvchi) foydalanishni rag‘batlantirish lozim bo‘ladi.

- Ekologik me’yor va standartlar ekologik toza materiallar yashil biznesning me’yoriga aylanib boradi[6].

Shundan kelib chiqib, “biznes-atrof-muhitning bir-biriga bog‘liqligi va o‘zaro ta’sir qilish mexanizmlarini tahlil qilamiz. Inson faoliyati tabiat bilan bog‘langan, o‘rmon, suv, dala, ekinzorlarda mehnat qilgan. Masalan, paxta, pilla ishlab chiqarish va uning sanoat asosida qayta ishlab mahsulot olish, mahsulotni sotish, eksport qilish va farmasevtika va mebel sanoatiga xom ashyo yetkazib berish natijasida bir vaqtda iqtisodiy va ekologik samaradorlikka erishiladi.

YAIM – (SE) + PI+YAM + TEM [7]

Bu yerda:

1. YAIM – yashil ichki mahsulot.
2. SE – sof eksport.
3. PI provard iste’mol.
4. YAM yashil moliya.
5. TEM-toza ekologik mahsulot.

Shuningdek, paxta, bugdoy, pilla va meva-sabzovot mahsulotlarini yetishtirishga sarflangan yashil moliya iqtisodiy va ekologik samara beradi.

Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (IXRT) va Osiyo- Tinch okean iqtisodiy hamkorlik (OTIX) tashkiloti 200 turdagi ekologik tovarlarga talab darajasini tahlil kilgan

1. Atmosfera tozaligini nazorat qiluvchi dastgohlar.
2. Chiqindilarni qayta ishlash va monitoring qilish.
3. Elektroavtomobillar, svetodiot lampa energiyalar, ko‘mirni qayta ishlovchi yashil texnologiyalar.
4. Organik mahsulotlar, mevalar, poliz ekinlari va sabzovotlari.
5. Kalava ip, jun, ipak-shoyilar, tabiiy matolar, kiyimlar, oziq-ovqatlar.
6. Hamma turdagi qog‘ozlar, taxta-yog‘ochlar, daraxtlar, chorvachilik hayvonlari.
7. Un, sut mahsulotlari, konditer va asal mahsulotlari, yog‘-moy mahsulotlari va hakozolar.

Inson tabiat ta’sirida yashaydi, mehnat qiladi va mahsulotlarni ishlab chiqaradi. Ishlab chiqarish jarayonida resurslardan foydalanadi va mahsulotlar ishlab chiqardi, chiqindilar yaratadi, shu bilan birga, atrof-muhitta salbiy ta’sir qiladi, havoni ifloslantiradi suv xavzalari ifloslanadi. Shunday ekan, “biznes-atrof-muhit” doimo ziddiyatlar bilan rivojlanadi. Sivilizatsiyaning hozirgi davrida biznes faoliyati rivojlanib borgan sari atrof-muhitga ko‘proq salbiy ta’sir qilish tendensiyasi namoyon bo‘lmoqda va natijada biznes va atrof-muhit dialektikasi jamiyatda iqtisodiy o‘sish va ekologik barqarorlik o‘rtasida nomutanosiblikni vujudga keltirmoqda.

5 Зелёная экономика. Монография. Авторский коллектив. Северо-Западный институт управления. –2023 г. с. –98-201.
6 Ekologik biznesda tozalik mezoni Moskva, 2018, 17-21 b.
7 В А. Ваганова и др. Основы зелёной экономики. Учебно-методические пособие. –Санкт-Петербург. –2023. –с. 74-77.

XX asrda bo‘lib o‘tgan ishlab chiqarishdagi ziddiyatlar, avariyalar (falokatlar), katastrofalar (ijtimoiy fojialar) va favqulotda vaziyatlar; Leningrad (hozirgi Sankt-Peterburg) shahridagi AES (1975-yil) avariya (falokat) oqibatida atmosferaga chiqib ketgan radioaktiv zaharli gazlar, Chernobil AES (1986-yil) avariyasi (fojiasi), Fukusuma-1(Yaponiya 2011 yil) avariyasi (fojiasi), Angliyada (1974 yil) kimyo zavodini (korxonasini) portlashi, Xindistonda “Yunion Karbid” zavodidagi (1984-yil) portlashda 5 ming odamlar zaharlanib o‘ldi, Shvetsariyada “Sandos” kimyo zavodidagi (1986-yil) pojar (yengin) Reyn atrofidagi faunallarga katta zarar yetkazdi, Shotlandiyadagi “Payper Alfa” (1988-yil) neft mahsulotlari platformasida yong‘in bo‘lib, 150 nafar odam vafot etdi, atrof-muhit ifloslandi va Meksikada “British Petroleum” (2010-yil) neft platformasida yong‘in bo‘ldi va suv havzalari to‘la zaharlandi. Yuqoridagi hodisalar, avariyalar (falokatlar), katastrofalar (fojialar) global iqlim o‘zgarishiga, atrof-muhit ifloslanishiga sabab bo‘ldi va keltirilgan iqtisodiy zarar 1,4 trln dollor, deb baholandi.

Shu bilan birga, 1970-yillarda bir martalik plastik idishlar, bankalar, qutilarni ishlab chiqarish, ommaviy tus oldi, ularni chiqindilari dengiz va okeanlarda to‘planib, orolchalarni vujudga keltiradi. Natijada dengiz va okean jonivorlari plastiklarni suv meduzalari, kichik okean jonivorlari deb iste’mol qilishdi. Buning oqibatida fojealar yuz berdi, qushlar va baliqlar ommaviy qirilib ketdi.

Bu ekologik fojeaning oldini olish maqsadida Yevropa ittifoqi bir martalik foydalaniladigan plastik idishlarni ishlab chiqarish va sotishni ta’qiqlab qo‘ydi.

Inson faoliyati ta’sirida atrof-muhit o‘zgaradi. Dalalarda hosil yig‘ib olindi, yangi yo‘llar qurildi, shaharlar, fabrika va zavodlar paydo bo‘ldi, o‘rmonlar kesildi, neft-gaz ko‘mir qazib olindi, hayvonlar turi kamaydi, tuproq va suv inqirozi vujudga keldi. Dunyo aholisi 1950-yilda 2,5 mlrd. edi va 2022-yilga kelib, 8 mlrd. bo‘ldi. Gavay universiteti professori Robert Koun ta’kidlashicha, “biosferani buzilishiga, atrof-muhitning ifloslanishiga faqat insonlar sababchidir”.

Demak, oxirgi 500 yil ichida bioxilmaxillikning 850 turi yo‘q bo‘lib ketgan bo‘lsa, keyingi 30-yil ichida inson faoliyatini tabiatga salbiy ta’siri o‘n ikki barobarga oshgan[8].

Kelajakda tabiiy resurslardan oqilona, samarali foydalanishida makroiqtisodiyotni rivojlanishi bu nomutanosiblikka yechim topadi. Iqtisodiy va ekologik ekspertlar (YUNESKO va YUNEP) fikricha, tabiiy kapital tarkibiga: biologik xilmaxillik, ekotizim xizmatlari, yerning tuzilishi, tuproq unumdorligi, suv resurslaridan foydalanish, ekin yerlar maydoni, o‘rmonlar va h.k.), biologik turlar (oziq-ovqat mahsulotlari) va gena (sog‘liqni saqlash, kasallikka chidamlilik, dori-darmonlar, iqlimga moslashish va h.k.) kirishi mumkin.

An’anaviy iqtisodiyot va atrof-muhit muvozanatini saqlash uchun ekologik mahsulotlar bozorini jadal rivojlantirish zarur.

Agar milliy iqtisodiyot tarmoqlar va sohalar ishlab chiqarayotgan tovar va xizmatlar bozori 75-80% bo‘lsa, bu holda ekologik mahsulotlar bozori 20% bulib, quyidagicha shakllanadi.

- shahar va qishloq aholisini toza ichimlik suvi bilan ta’minlash, suv tozalash texnologiyalaridan samarali foydalanish,
- qattiq jismlar va radioaktiv zaharli chiqindilarni qayta ishlashni yo‘lga qo‘yishi,
- chiqindilardan ikkilamchi mahsulotlarni ishlab chiqarishni rivojlantirish,
- energiya tejamkor, yashil texnologiyalardan foydalanish,
- ekologik toza mahsulotlarni ishlab ishlab chiqarish va oziq-ovqat industriyasini barpo qilish;
- yerdagi transport sanoatiga muqobil yoqilg‘i turlarini joriy qilish.

Shu bilan bir qatorda yangi sohalarni rivojlantirish zarurati tug‘iladi:

- ekologik turizm;
- organik dehqonchilik;
- ekologik mashinasozlik;
- ekologik farmatsevtika va kosmetika;
- ekologik qurilish.

Xulosa qlib aytganda, bu ishlarning amalga oshishi natijasida iqtisodiy o‘sish va ekologik xavfsizlik mezonlari bir-biriga mos kelishini ta’minlaydi. Bu jamiyatda iqtisodiy va ekologik muvozanatni shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

N.Maxmudov va boshqalar-Ekologiya. Darslik. –T.: 2021-y., –21 bet.
М.Бутабоев ва бошқалар. Зелёная экономика – как основа устойчивого развития. –Монография. –Т.:2019 год.
N.Maxmudov. “Yashil iqtisodiyot – muhim hayotiy zaruriyat” maqola. –Xalq so‘zi gazetasi. –2022 yil, 23 dekabr. –№274.
В.А.Ваганова. “Основы зеленой экономики”. Учебное пособие. –Санкт Петербург, –2023 г.
С.Н.Бобылев. Зеленая экономика. Монография. –Москва. –2022 год.

8 Голованов. Г., Новое массовое вымирание. За 500 лет планета потеряла до 260 тысяч всех видов. https, //hiatech plus 2022 г.

YASHIL BUDJETLASHTIRISH VA UNI O‘ZBEKISTONDA JORIY ETISH ISTIQBOLLARI

Meyliev Obid Raxmatullayevich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc),
Toshkent moliya instituti dotsenti

Gofurova Kamola Xayrulla qizi
Toshkent moliya instituti moliya fakulteti talabasi

Annotatsiya: Maqolada respublika iqtisodiyotida olib borilayotgan yashillashtirish va yashil budjetlashtirish sohasidagi ishlar tadqiq qilingan. Asosan, mamlakat Prezidenti tomonidan qabul qilingan qarorlarning amaldagi ijrosi va natijasi, rivojlangan davlatlar tomonidan joriy etilgan amaldagi xalqaro tajribalarni o‘rganish va uni yurtimizda tatbiq qilish istiqbollari yoritilgan. Bundan tashqari, maqolada so‘nggi yillarda yurtimizda davlat budjetining tarkibi va yashil budjet, yashil budjetlashtirishga oid amalga oshrilgan tadbirlar tasnifi va budjet xarajatlari haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, yashil budjet, davlat budjeti, budjet daromadlari, budjet daromadlarini optimallashtirish.

Abstract: The work in the field of greening and green budgeting in our republic’s economy is discussed in this article. The real execution and results of the president’s decisions, the study of practical worldwide experiences introduced by developed countries, and the reforms of their implementation in our country are emphasized. Furthermore, this essay discusses the makeup of the state budget as well as the current optimization of budget income and expenses in our country.

Key words: green economy, green budget, state budget, budget revenues, budget revenue optimization.

Аннотация: В статье исследована работа в области экологизации и зеленого бюджетирования в экономике республики. В основном освещены фактическое исполнение и результат решений, принятых президентом страны, изучение текущего международного опыта, привнесенного развитыми странами, и перспектив его внедрения в нашей стране. Кроме того, в статье представлена информация о составе государственного бюджета и зеленого бюджета, классификации мероприятий, связанных с зеленым бюджетированием, и бюджетных расходах за последние годы в нашей стране.

Ключевые слова: зеленая экономика, зеленый бюджет, государственный бюджет, доходы бюджета, оптимизация доходов бюджета.

KIRISH

Insoniyat so‘nggi o‘n yillik davomida iqtisodiy global muammolar va inqirozlarning, jumladan tabiiy ofat va boshqa stixiyali kuchlar ta’sirida vujudga keladigan iqtisodiy-moliyaviy hamda ijtimoiy zararlarning ortishi, tabiiy resurslarning, bioxilma-xilliklarning haddan tashqari kamayib ketishi va ijtimoiy tabaqalanishning oshishi kabi muammolarga duch kela boshladi. Bu keltirilgan ekologik muammolarga birgina yo‘l bilan yechim topishning iloji yo‘q. Shu sababdan ham ekologik, ham iqtisodiy jihatdan yondashgan holda bu tizimli muammolarni hal etish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan “yashil iqtisodiyot”, “yashil budjet” kabi atama va boshqa terminlar iqtisodiyot va moliya sohasiga kirib keldi. “Yashil iqtisodiyot” deganda ekologik xavf-xatarlarni minimallashtirish, resurslardan muqobil hamda tabiiy resurslardan samarali foydalanish va atrof-muhit, tabiatga minimum zarar yetkazgan holda iqtisodiy faoliyat olib borish nazarda tutiladi.

Hozirgi kunda yashil iqtisodiyotga o‘tish rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar tomonidan urg‘u berilmoqda, natijada tabiiy resurslardan unumli foydalanish va atrof-muhitga salbiy ta’sirini kamaytirishga erishish maqsad qilingan. Rivojlangan mamlakatlarda yashil budjetlashtirishni amalga oshirish uchun bir necha yo‘nalishlar belgilangan bo‘lib, ular quyidagilardir:

- Budjet mablag‘lari xarajatlari va davlat sektori subyektlarining atrof-muhitni muhofaza qilish maqsadlarini qamrab olishi;
- Fiskal siyosatning ekologik maqsadlarga muvofiqligini baholash uchun foydalanilgan metodologiya;
- Jarayonning shaffofligi va hisobdorligi;
- Boshqaruv, davlatning har bir sektor ustidan ekologik nazorati [1].

Jumladan, mamlakatimizda 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish, O‘zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi doirasida yashil va inklyuziv iqtisodiy o‘sishni ta’minlash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish hamda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida resurslarni tejashni yanada kengaytirish maqsadida 2022-yil 2-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-436-son qarori qabul qilindi [2].

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

“Yashil iqtisodiyot” atamasi birinchi marta ingliz iqtisodchisi (Pierce) tomonidan 1989-yilda “Green Economy Blue Book” nomli kitobida qayd etilgan. Muallifning ta’kidlashicha, tabiiy resurslarning kamayishi, agar iqtisodiy kengayishi mavjud tabiiy resurslar chegarasidan oshib ketsa, iqtisodiy o‘sish doimiy turg‘unlikda bo‘lishidir [3].

“Yashil iqtisodiyot” tushunchasining keng tarqalgan nisbatan to‘liq ta’rifi BMTning Atrof-muhitni muhofaza qilish dasturi (UNEP) tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, “Yashil iqtisodiyot” – bu “odamlar farovonligi va ijtimoiy tengligining yaxshilanishi, ekologik risklar va ekologik taqchillikni sezilarli darajada kamaytirish”ga olib keluvchi iqtisodiyotdir [4].

Daniel Fiorino o‘zining “Cheksiz yer yuzida yaxshi hayot: Yashil o‘sishda iqtisodiy siyosat” [5] nomli kitobida atrof muhitni himoya qilishimiz kerakligi uchun emas, balki iqtisodiyot ekologik rivojlanishsiz mavjud emasligi tufayli iqtisodiyot va ekologiyani birgalikda rivojlantirish kerakligini ta’kidlaydi. Bu orqali “yashil iqtisodiyot” ning hozirgi global ekologik va iqtisodiy inqirozlar kuchaygan davrda muhimligini isbotlaydi.

Yuqorida xorijiy iqtisodchi olimlar tomonidan ta’kidlangan fikrlardan shuni xulosa qilamizki, “Yashil budjet”, “Yashil budjetlashtirish” atamalari davlatning moliyaviy siyosatini mamlakatning ekologik ahvoliga va aholining ijtimoiy-iqtisodiy holatini yaxshilagan holda amalga oshirishdir. Yashil budjetlashtirishning universal ta’rifi yo‘q hisoblanib, hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlar budjetlashtirish siyosati rahbarlari va iqtisodchi olimlar tomonidan turlicha fikrlar bildirilgan.

Yevropa Komissiyasiga ko‘ra, “Yashil budjetlashtirish ijobiy iqlim sharoitiga erishishga yordam berish uchun budjet siyosatini ishlab chiqish vositalaridan foydalanishni anglatadi” [6] deb qisqacha ma’lumot berilgan.

Ronni Dauns OECD budjetlashtirish va Davlat xarajatlari bo‘limi boshlig‘ining o‘rinbosari fikricha, “Yashil budjetlashtirish” budjetdan foydalanishni maqsad qilgan – soliqlar, xarajatlar va siyosat koordinatsiyasi-ekologik maqsadlarga erishish uchun zarur bo‘lgan muvofiqlikni baholash va targ‘ib qilishdan iborat. Masalan, yashil budjetlashtirish iqlim o‘zgarishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan moliyaviy xarajatlarni ko‘rsatadi va yoqilg‘i sifatida duch kelishi kerak bo‘lgan, “dekarbonizatsiya qilingan”, davlat daromadlarini yo‘q qilish soliq siyosati tanlovi ekanligini ta’kidlaydi.

Iqtisodchi olimlar David Wilkinson, David Benson va Andrew Jordan qarashlariga ko‘ra, “Yashil budjetlashtirish” turli moliyaviy institutlar va vositalarni o‘z ichiga olgan qulay stenokdan iboratdir. Bunda xarajatlarning ustuvor yo‘nalishlarini ishlab chiqish, yillik xarajat dasturlarini qabul qilish va amalga oshirish, ularning samaradorligini monitoring qilish va baholash hamda daromadlarini ko‘paytirish jarayoni o‘ziga xos budjet “hayot sikli” ni tashkil etadi. Har bir bosqich potensialga muhim ekologik ta’sirga ega bo‘lganligi sababli, ularning barchasi har qanday yashil budjet amaliyotida birlashtirilishi kerak” [7], deb o‘z fikrini berib o‘tadi. Biroq bu jarayonda siyosiy sektorlarni va ko‘p tizimli boshqaruv tizimlarini darajalarini bosib o‘tuvchi qadamlarni qo‘yishni o‘z ichiga oladi. Bundan xulosa qiladigan bo‘lsak, rivojlangan davlatlarda ham yashil budjet siyosatini amalda qo‘llash murakkab jarayonligini anglatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda “budjet” va “yashil budjetlashtirish” bo‘yicha xorijiy mamlakatlarning amalga oshirgan loyiha dasturlari nazariy jihatdan chuqur tahlil qilingan hamda O‘zbekistonda bu amaliyotlarni joriy etish bo‘yicha xulosalar statistik tahlil natijasida berilgan. Shuningdek, xalqaro tadqiqot va sohaga oid tashkilotlar olib borayotgan ilmiy nazariyalari o‘rganilgan. Tadqiqotda ilmiy tahlil, mulohaza yuritish, mantiqiy fikrlash, jadval va boshqa bir qator usullardan keng foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatimiz iqtisodiyotining barqaror o‘sishini ta’minlash va aholi ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini yanada yaxshilash davlatning operatsion va strategik moliyaviy rejasiga bog‘liq. Bunda davlat budjeti davlatning asosiy moliyaviy rejasi hisoblanib turli iqtisodiy mohiyatga egadir. T. Malikov va N. Haydarovlarning “Davlat budjeti” o‘quv qo‘llanmasida davlat budjetiga quyidagicha ta’rif bergan bo‘lib, davlat budjeti kishilik jamiyatining ma’lum bir bosqichida namoyon bo‘lgan bo‘lib, asosan uning kelib chiqishi davlatning siyosiy tashkilot sifatida shakllanishi bilan bevosita bog‘liqdir. Har bir davr ijtimoiy tuzumga tegishli bo‘lgan ishlab chiqarish munosabatlarining asosiy belgilari davlat faoliyatining va budjetining taqsimlash mexanizmi sifatidagi mazmunini belgilab beradi [8].

Bugungi kunda davlat budjetidan davlat qarzi, tashqi qarzlarini kamaytirishda, uning daromadlari hajmini oshirish va xarajatlari bilan mutanosibligini saqlashda hamda mamlakat aholisining ekologik va iqtisodiy muhofazalanish ham davlat budjetining asosiy maqsadi va aynan davlat yashil siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirishda yetakchi rol o‘ynaydi.

Shu sababdan, xalqaro tashkilotlar tomonidan va rivojlangan mamlakatlarda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish va yashil o‘sishga o‘tish holatini baholash maqsadida turli ko‘rsatkich majmualari yaratilgan bo‘lib, amalda qo‘llanilmoqda. Asosan, hozirgi kunda dunyo bo‘yicha yashil iqtisodiyot samaradorligini baholaydigan yashil iqtisodiyot indeksi (Global Green Economy Index – GGEI) va yashil o‘sish indeksi (Green Growth Index – GGI) kabi xalqaro reyting ko‘rsatkichlari keng qo‘llanilmoqda. 2010-yildan boshlab GGEI reyting ko‘rsatkichi e’lon qilina boshlangan, 2022-yilda jami 160 mamlakat miqyosida 18 ta indikatorlar bo‘yicha baholash natijalariga erishilganligi taqdim qilingan. Bu indeksda boshqaruv va iqlim o‘zgarishi (leadership & climate change); samaradorlik sektorlari (efficiency sectors); bozor va investitsiyalar (market & investment); atrof-muhit (environment) kabi 4 ta o‘lchov kategoriyalari bo‘yicha baholanadi.

“Yashil” o‘sish indeksi (GGI) ham bugungi kunda keng qo‘llanilib kelinmoqda. Ushbu indeks barqaror rivojlanish maqsadlari (Sustainable Development Goals), Parij iqlim bitimi majburiyatlari, Aichi bioxilma-xillik maqsadlari (Aichi Biodiversity Targets), bundan tashqari, resurslardan samarali va barqaror foydalanish, tabiat mulklarini himoyalash, yashil iqtisodiy imkoniyatlar, mamlakatdagi “yashil o‘sish” bo‘yicha ijtimoiy holatni baholaydi. yashil o‘sish indeksi 4 ta maqsadli yo‘nalish, 16 ta kategoriyalar hamda 36 ta indikatorlardan iborat bo‘lib, deyarli barcha davlatlarni o‘z ichiga olgan holda faoliyat yuritib kelmoqda. “GGI” indeksiga ko‘ra, eng yuqorida Shvetsiya, Fransiya, Daniya, Chexiya va Germaniya kabi mamlakatlar hamda Zimbabve, Jazoir, Nigeriya singari Afrika mamlakatlari eng past yashil o‘sish ko‘rsatkichiga ega. MDH davlatlari ichida Gruziya, Markaziy Osiyo mintaqasida Qirg‘iziston mazkur reyting bo‘yicha yuqori o‘rindagi ko‘rsatkichlarni qayd etgan.

1-jadval: “Yashil budjetlashtirish” tizimidan foydalanuvchi davlatlar [9]

Davlatlar	Izoh
Daniya	Bu mamlakatning budjet tavsifiga ko‘ra, iqlim o‘zgarishi va iqlim oqimi bilan bog‘liq ishlar rasmiy ravishda budjet sikliga kiritilmagan bo‘lib, ikki jarayon parallel ravishda ishlaydi. Bundan tashqari, Daniya yashil budjetlashtirishda o‘zining “Greenreform” iqtisodiy siyosatning atrof-muhit va iqlimga ta’sirini integratsiyalashgan va izchil baholash imkonini beruvchi tahliliy vositani 2015-yildan 2100-yilgacha ishlab chiqqanligi sababli yetakchi o‘rinda.
Fransiya	Fransiya 40 foizgacha uglerod chiqindilarini kamaytirish uchun Parij bitimini yaratdi va bunga erishdi. Frantsiya hukumati atrof-muhitni baholash uchun oltita ekologik maqsadni qo‘ydi. Yashil budjet siyosati doirasida davlat xarajatlarining ta’sirini izohladi, bularga: “iqlim o‘zgarishini aks ettirish, iqlim o‘zgarishiga moslashish va tabiiy xavflarning oldini olish, suv resurslarini boshqarish, aylanma iqtisodiyot, chiqindilar; texnologik xatarlarning oldini olish, ifloslanishga qarshi kurash, biologik xilma-xillikni saqlash va tabiiy hududlarni muhofaza qilish, qishloq xo‘jaligi yerlari va o‘rmonlar”.
Shvetsiya	Shvetsiyada 1999-yildan beri ekologik o‘zgarishlarni kuzatib borish uchun maqsadli tizim mavjud, ya’ni muntazam ishlashni budjetlashtirish jarayoniga kiritilgan. Bu umumiy ekologik maqsadni o‘z ichiga oladi va 16 ta ekologik sifat maqsadlarining har biri o‘ziga xos bosqichga, ishlash ko‘rsatkichlariga ega va natijalar har yili taqdim etiladigan baholash mezonlari orqali tekshirib boriladi. 2018-yildan boshlab Shvetsiyadagi iqlim to‘g‘risidagi qonun, mamlakatga erishish yo‘lidagi taraqqiyot to‘g‘risida alohida iqlim hisoboti iqlim maqsadlari budjet hisobiga ilova qilindi.
Irlandiya	Irlandiya 2011-yildan ba’zi iqlim elementlarini o‘z ichiga olgan budjetni o‘tkazmoqda. Bu kengaytirilgan rejalar va iqlim bilan bog‘liq ishlash ko‘rsatkichlarining bir doirada integratsiyalashuvi.

Mamlakatimizda ham yashil budjetlashtirish va yashil iqtisodiyotga asosiy e’tibor qaratilib, birinchi martda 1993-yilda BMT ning iqlim o‘zgarish konvensiyasiga qo‘shilgan hamda 2017-yilda Parij bitimi imzolangan.

O‘zbekistonda, 2021-yilda qabul qilingan majburiyatlarga muvofiq, iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish bo‘yicha chora-tadbirlarni kuchaytirish, keyingi 5-yilda iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 foizga oshirish, shuningdek, qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini 25 foizgacha oshirish, va bu orqali 2030-yilga qadar havoga chiqariladigan issiqxona gazlari hajmini 2010-yil darajasidan 35 foizga kamaytirish rejalashtirilgan [10].



1-rasm: Davlat budjet xarajatlari [11]

2022-yil davomida davlat budjet xarajatlari 236,7 trln.so‘mni tashkil etib, 13 foizi iqlim o‘zgarishiga ta’sir ko‘rsatadi deb baholandi, qolgan xarajatlari iqlim o‘zgarishiga ta’sir qilmaydigan xarajatlar sirasiga kiritilgan yoki bu ko‘rsatkichni aniqlashni imkoni mavjud emas deb respublikamiz rasmiy saytlarida izoh berilgan.

2-jadval: Iqlim o‘zgarishlariga ijobiy ta’sir xususiyatlariga ega bo‘lgan xarajatlar, mlrd.so‘mda [12]

Vazifa jihatdan tasnif bo‘yicha		2022-yil
Guruhlar	**Kichik guruhlar**	
Umumiy davlat xizmatlari	Qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat, davlat boshqaruvi, moliyaviy va fiksal munosabatlar, tashqi ishlar	4233,7
Iqtisodiy masalalar	Qishloq va o‘rmon xo‘jaliklari, baliqchilik va ovchilik	13397,6
	Transport	4204,6
	Boshqa iqtisodiy masalalar	1723,9
Atrof-muhitni himoya qilish	Atrof-muhitni himoya qilish	143,1
Uy-joy kommunal xizmatlari	Suv xo‘jaligi	3605,9
	Ko‘chalarni yoritish	216,4
	Boshqa uy-joy kommunal xizmatlari	822,8
Jamoat tartibi va xavfsizligi	Orolbo‘yi mintaqasini rivojlantirish xarajatlari	12,2
	Boshqa jamoat xavfsizligi masalalari	535,6
Jami		**28998,5**

Keltirilgan jadval ma’lumotlaridan shuni ta’kidlaymizki, sohalar kesimida iqlim o‘zgarishlariga ijobiy ta’sir xususiyatiga ega bo‘lgan xarajatlarning 73 foizi qishloq va suv xo‘jaligi (irrigatsiya) hamda transport sohalari hissasiga to‘g‘ri keladi.

Orol bo‘yi mintaqasini rivojlantrish, atrof muhitni himoya qilish va ko‘chalarni yoritish maqsadida qilingan xarajatlar mos ravishda 12.2 mlrd.so‘m, 143,1 mlrd.so‘m va 216,4 mlrd.so‘mni tashkil etadi. Ko‘rsatilgan statistik ma’lumotlardan xulosa qiladigan bo‘lsak, atrof muhitni himoya qilish va mamlakatimizda joylashgan orolbo‘yi hududlariga ajratilgan budjetdan mablag‘lar boshqa xarajatlarga nisbatan sezilarli darajada kam miqdorni egallaydi. Buning natijasida, ekologik muammolarni bartaraf etishda yetarlicha e’tibor berilmaganligidan iqlim o‘zgarishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

3-jadval: Iqlim o‘zgarishlariga salbiy ta’sir xususiyatlariga ega bo‘lgan xarajatlar, mlrd.so‘mda [13]

Vazifa jihatdan tasnif bo‘yicha		2022-yil
Guruhlar	Kichik guruhlar	
Iqtisodiy masalalar	Qazib olish, qayta ishlash va qurilish	989,8
Jamoat tartibi va xavfsizligi	Qutqaruv xizmati	27,9
Jami		**1017,7**

Iqlim o‘zgarishlariga salbiy ta’sir xususiyatiga ega bo‘lgan xarajatlarning asosiy qismi qazib olish, qayta lashtirish va qurilish sohasiga to‘g‘ri keladi. Yuqorida keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, yashil iqtisodiyot va “yashil o‘sish” ga oid turli shartnoma va bitimlar imzolanishiga hamda turli qonun, farmonlar qabul qilinishiga qaramasdan, “yashil budjetlashtirish” ga oid statistik manbalar rasmiy saytlarda yetarlicha mavjud emas.

XULOSA

Global iqtisodiy inqirozlar va dunyo bo‘ylab turli ekologik muammolar hozirgi kunda avj olmoqda. Rivojlangan davlatlar tomonidan bu kabi muammo va dolzarb masalalarga yechim topish maqsadida iqtisodchi olimlar tomonidan yashil iqtisodiyot tushunchasi fanga kirib keldi. Yashil iqtisodiyot deb, ekologik xavf-xatarlarni minimallashtirish, tabiiy resurslardan samarali foydalanish va atrof-muhitga minimum zarar yetkazgan holda iqtisodiy faoliyat olib borish nazarda tutiladi.

Rivojlangan mamlakatlarda yashil budjetlashtirishga o‘tish va bu orqali iqtisodiy barqarorlikni hamda aholining ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini yanada yaxshilashga erishish uchun turli loyihalar ishlab chiqilib, amalda qo‘llanilmoqda. Yevropa Ittifoqi a’zolarining 2/3 qismi yashil budjetlashtirishdan foydalaniladi, jumladan, Fransiya, Daniya va boshqa davlatlar o‘z iqtisodiy siyosatining ekologiya bilan integratsiyalashuvida yuqori natijalarga ega bo‘lib, bu ko‘rsatkichlarni baholash imkoniga ham ega.

Respublikamizda mavjud bir qator ekologik muammolar va iqtisodiy sektorda ularning ta’siriga asoslanib, iqtisod va moliya sektorlarida yashil iqtisodiyot, yashil budjetlashtirishni amalga oshirish va rivojlantirish uchun quyidagi takliflarni berib qolamiz:

- Alternativ energiya manbalarini rivojlantirish uchun zamonaviy yashil texnologiyalarni olib kirish;
- Issiqxona va uy isitish tizimlarida yashil energiyalardan foydalanishni oshirish va natijada gaz emissiyalarining kamayishiga sabab bo‘ladi;
- Elektr mobil transport vositalarining respublika hududiga olib kirish uchun mahalliy va xorijiy investitsiyalarni jalb etish va rag‘batlantirish;
- Energiya sarfini isrof qilmaslik va kamaytirish maqsadida yashil budjetlashtirish qo‘llanmalarini joriy etish;
- Iqtisodiyotning rivojlanishida turizmning o‘rni katta bo‘lganligi sababli yashil turizmni rag‘batlantirish, ekologik turizm obyektlarini rivojlantirish;
- Budjet xarajatlarining shaffofligi hamda ekologiyani asrab-avaylashga yo‘naltirilganligini ta’minlash maqsadida statistik ma’lumotlarning ochiqligi;
- Ijtimoiy aholi o‘rtasida, xususan, bolalar va o‘spirin yoshdagi qatlamlar orasida yashil iqtisodiyotning muhim va afzalligi haqida tushuntirish, profilaktika ishlarini olib borish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. https://cyberleninka.ru/article/n/yashil-budjetlashtirish-va-uni-o-zbekistonda-joriy-etish-istiqbollari/viewer
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-436-sonli qarori.
3. https://www.researchgate.net/publication/39015804_Blueprint_for_a_Green_Economy
4. Штайнер А., Айрис Р., Бэсса С /Навстречу “зелёной” экономике: пути к устойчивому развитию и искоренению бедности /. И др: ЮНЕП/ГридАрендаль. –2011. –С. 17.
5. Daniel Fiorino, A Good Life on a Finite Earth: The Political Economy of Green Growth (Oxford University Press, New York City, New York, 2018). –272 pp.
6. OECD. (2021c). Green Budgeting in OECD Countries. OECD Publishing. https://doi.org/10.1787/acf5d047-en
7. https://books.google.co.uz/books
8. Malikov T.S, Haydarov N.H. Davlat budjeti. O‘quv qo‘llanma.–T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2007. –84-bet.
9. Muallif ishlanmasi
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yichachora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PQ-436-son qarori.
11. O‘zbekiston Respublikasi Ochiq budjet portali ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.
12. O‘zbekiston Respublikasi Ochiq budjet portali ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.
13. O‘zbekiston Respublikasi Ochiq budjet portali ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

IQTISODIYOTDA TA’LIM VA FAN INTEGRATSIYASINING ASOSIY YO‘NALISHLARI

Yormatov Ilmidin Toshmatovich
Iqtisodiyot fanlari nomzodi,
Farg‘ona politexnika instituti Menejment kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada iqtisodiyotni muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun ta’lim va fan o‘rtasidagi hamkorlikning ahamiyati o‘rganilgan. Muallif iqtisodiyotda ta’lim va fan integratsiyasining o‘zaro ta’siri innovatsiyalarga, barqaror iqtisodiy rivojlanish va iqtisodiy bilimlarni shakllantirish kabi turli jihatlarini ko‘rib chiqadi. Shuningdek, maqolada O‘zbekistonning bu boradagi tajribasi ko‘rib chiqilib, ta’lim va ilm-fan muvaffaqiyatli integratsiyalashuvining asosiy omillari aniqlangan.

Kalit so‘zlar: innovatsiya, barqaror rivojlanish, yashirin iqtisodiyot, hamkorlik, ta’lim, fan, iqtisodiyot, integratsiya, muvaffaqiyat, tajriba.

Abstract: In this article, the article explores the importance of cooperation between education and science for successful economic development. The author considers various aspects of the interaction of the integration of education and science in the economy, such as innovation, sustainable economic development and the formation of economic knowledge. Also, the article examines the experience of Uzbekistan in this regard and identifies the main factors of successful integration of education and science.

Key words: innovation, sustainable development, hidden economy, cooperation, education, science, economy, integration, success, experience.

Аннотация: В данной статье исследуется значение сотрудничества образования и науки для успешного экономического развития. Автор рассматривает различные аспекты взаимодействия интеграции образования и науки в экономике, такие как инновации, устойчивое экономическое развитие и формирование экономических знаний. Также в статье рассматривается опыт Узбекистана в этом отношении и определяются основные факторы успешной интеграции образования и науки.

Ключевые слова: инновации, устойчивое развитие, скрытая экономика, сотрудничество, образование, наука, экономика, интеграция, успех, опыт.

KIRISH

Zamonaviy dunyoda ta’lim va ilm-fanning integratsiyalashuvi iqtisodiyot hamda jamiyat taraqqiyotida tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ta’lim va ilm-fan har qanday davlatning muvaffaqiyati va raqobatbardoshligini belgilovchi ikkita asosiy komponentdir. Ularning o‘zaro ta’siri innovatsiyalar, iqtisodiy o‘sish va ijtimoiy taraqqiyot uchun qulay muhit yaratishi mumkin. Ta’lim mehnat bozorining tez o‘zgaruvchan sharoitlariga moslasha oladigan va innovatsion rivojlanish jarayonida faol ishtirok eta oladigan malakali mutaxassislarni shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Fan, o‘z navbatida, taraqqiyotning dvigateli bo‘lib, yangi texnologiyalarni yaratish, mavjudlarini takomillashtirish va hozirgi davrning dolzarb muammolariga javob topish imkonini beradi [1; 81-86].

Iqtisodiyotda ta’lim va fanning integratsiyasi faoliyatning turli sohalarida yuqori natijalarga erishishning qudratli vositasidir. Ta’lim muassasalari va ilmiy muassasalar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik bilim, tajriba va innovatsiyalar almashinuviga yordam beradi, bu esa ta’lim sifatini oshirish, ilmiy tadqiqotlarni takomillashtirish va iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ta’limda integratsion yondashuvning zarurati: O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish to‘g‘risidagi “Harakatlar strategiyasi”ning “Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari” deb nomlangan 4-qismining 4.1. bandida yaqin besh-yilda aholini ish bilan bandligi va real daromadlarini izchil oshirish, buning uchun esa

“yangi ish o‘rinlarini yaratish hamda aholining, eng avvalo, o‘rta maxsus va oliy o‘quv yurtlari bitiruvchilari bandligini ta’minlash”[2] kabi vazifalar belgilab qo‘yilgan edi.

Sh.M.Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” nomli asarida sifatli ta’lim – inson kapitalini rivojlantirishning hal qiluvchi omili to‘g‘risida gapirib, bunda uzluksiz ta’lim tizimi uchun milliy o‘quv dasturini joriy etish, ta’lim sifatini oshirish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash masalalariga alohida e’tibor berib o‘tgan [3; 464 b.]. Bu masalalarni bugungi mehnat bozori tamoyillari asosida hal etishda “fan-ta’lim-ishlab chiqarish” innovatsion hamkorligini amalga oshirish muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Xususan, davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev raisligida joriy yilning 16-iyun kuni oliy ta’lim tizimidagi ustuvor vazifalarga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishida 4 ta ustuvor vazifani ko‘rsatib o‘tdi:

Birinchisi – oliy ta’irn muassasalari boshqaruv kengashlarining rolini oshirish va kafedralar vakolatlarini kengaytirish.

Ikkinchisi – o‘quv jarayonini bozor talablariga moslashtirib, ishlab chiqarish bilan uzviyligini ta’minlash va talabaning o‘z ustida ishlashi uchun muhit yaratish.

Uchinchisi – oliy ta’lim muassasalarining ilmiy salohiyatini oshirish, ilm-fan va innovatsiyani rivojlantirish.

To‘rtinchisi – professor-o‘qituvchilar va talabalar uchun qog‘ozbozlikni kamaytirish, sohani raqamlashtirish orqali byurokratiya va korrupsiyani keskin qisqartirish. Bu vazifalarni samarali bajarish uchun oliy ta’lim muassasalariga akademik va tashkiliy-boshqaruv bo‘yicha mustaqil qaror qabul qilish vakolati berilishi ta’kidlandi va amalyotga tatbiq etilmoqda.

Shuningdek, integratsiyalashgan ta’lim-tarbiya, fanlararo aloqalarning ayrim jihatlari mashhur pedagoglarning (Y. Komenskiy, O. Lokk, I. Gerbart, M. Pestalossi, K. Ushinskiy va boshq.), didaktiklarning (Zverev, MA Oanilov, V.N. Maksimova, S.P. Baranova, M.N. Skatkin va boshq.), psixolog olimlarning (E.N. Kabanova, Meller, N.F. Talizina, Y.A. Samarina, G.I. Vergeles), medist olimlarning (M.R. Lvov, V.G. Goreskiy, N.N. Svetlovskaya, Y.M. Kolagin, G.N. Pristupova) ishlarida ko‘rib chiqilgan [4, 215-217].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotni amalga oshirishda ilmiy mushohada, statistik jadvallardan, qiyosiy tahlil, ma’lumotlarni guruhlash, abstrakt-mantiqiy fikrlash, induksiya va deduksiya usullaridan foydalangan holda iqtisodiyotni muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun ta’lim va fan o‘rtasidagi hamkorlikning ahamiyati va boshqa ularning asosiy jihatlarini aks ettirish bo‘yicha fikr va mulohazalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ta’limning fan bilan integratsiyadagi roli. Ilmiy tadqiqotlar olib borish, innovatsiyalarni ishlab chiqish va amaliyotda qo‘llashga qodir malakali mutaxassislarni shakllantirishning asosi hisoblanadi. Ta’lim talabalarga nafaqat nazariy bilimlarni, balki ilmiy sohada muvaffaqiyatli ishlashlari uchun zarur bo‘lgan amaliy ko‘nikmalarni ham beradi.Ta’limning fan bilan integratsiyalashuvidagi muhim rollaridan biri fanlararo yondashuvga ega bo‘lgan mutaxassislarni tayyorlashdir. Zamonaviy ilm-fan olimlardan bilimlarning turli sohalarida ishlashni va murakkab muammolarni hal qilish uchun turli fanlarni birlashtira olishni talab qiladi. Ta’lim o‘quvchilarga o‘z sohasi bo‘yicha nafaqat chuqur bilim, balki keng dunyoqarash, tanqidiy fikrlash, axborotni tahlil qilish ko‘nikmasini shakllantirishi kerak [5; 118-124].

Bundan tashqari, ilmiy tadqiqotlarni rag‘batlantirishda ta’lim muhim rol o‘ynaydi. Universitetlar va boshqa o‘quv muassasalari ko‘pincha ilmiy tadqiqot markazlarida talabalar va professor-o‘qituvchilar yangi loyihalar ustida ishlaydi, innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqadi va kashfiyotlar qiladi. Ta’lim ilmiy ijodkorlik, fikr va tajriba almashish uchun qulay muhit yaratishga yordam beradi, bu esa ilm-fan rivojiga xizmat qiladi. Demak, ta’limning fan bilan integratsiyadagi o‘rni malakali mutaxassislarni tayyorlash, ilmiy izlanishlarni rag‘batlantirish va fanlararo yondashuvni rivojlantirishdan iborat. Ta’lim ilm-fan bilan muvaffaqiyatli hamkorlik qilishning asosi bo‘lib, zamonamizning dolzarb muammolarini hal qilishga qodir innovatsion jamiyatni yaratishda muhim rol o‘ynaydi.

O‘zbekistonda ilmiy tadqiqot faoliyati va ularni ishlab chiqarishga joriy qilish bilan faol shug‘ullanayotgan bir qancha oliy o‘quv yurtlari va boshqa ta’lim muassasalari mavjud:

1. Toshkent davlat texnika universiteti – axborot texnologiyalari, informatika, elektronika va boshqa turdosh sohalarda ilmiy tadqiqot markazlari mavjud.
2. O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti – universitet tilshunoslik, tarjima, madaniyatlararo muloqot va boshqa til fanlari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib boradi.
3. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti – iqtisod, moliya, biznes va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy fanlar bo‘yicha markaz va laboratoriyalar mavjud.

Farg‘ona politexnika institutida ham texnika va texnologiyaning turli yo‘nalishlarida ko‘plab ilmiy-tadqiqot va ishlanmalar olib borilmoqda. Institutda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotning asosiy yo‘nalishlari qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- Energetika va elektrotexnika: energiya tejovchi texnologiyalarni, muqobil energiya manbalarini, elektr energetika tizimlarini ishlab chiqish.
- Mashinasozlik va materialshunoslik: yangi materiallarni ishlab chiqish, metallni qayta ishlash texnologiyalari, zamonaviy asbob-uskunalar yaratish.
- Axborot texnologiyalari: dasturiy ta’minotni ishlab chiqish, axborot tizimlari, kompyuter tarmoqlari, kiberxavfsizlik.
- Qurilish va arxitektura: qurilish materiallari, qurilish texnologiyalari, arxitektura dizayni sohasidagi tadqiqotlar.
- Ekologiya va atrof-muhitni boshqarish: suv va havoni tozalash, chiqindilarni yo‘q qilish, tabiiy resurslardan barqaror foydalanish usullarini ishlab chiqish.

Shuningdek, Ishlab chiqarishda boshqaruv fakulteti qoshida “Hudud ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ko‘maklashish ilmiy markazi” faoliyat olib bormoqda. Ushbu markaz oliy ta’lim muassasalari, ayniqsa, olimlar va tadqiqotchilarni mamlakat va mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish bo‘yicha milliy maqsadlarga erishishda ishtirok etishiga qaratilgan. Hozirgi kunda iqtisodiyot, ijtimoiy hayot va atrof-muhitning turli yo‘nalishlari bo‘yicha tadqiqotlar olib borilmoqda, amaliyotda qo‘llash uchun innovatsion yechimlar tavsiya qilishmoqda. Shuningdek, Markaz mahalliy kompaniya va tadbirkorlarni o‘z mahsulot va xizmatlarini sotish uchun tovar birjalari hamda elektron tijoratdan foydalanish orqali realizatsiya qilishni rag‘batlantirish, qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini ishlab chiqish bo‘yicha tadqiqotlar olib borish va ularni amaliyotda qo‘llash yuzasidan tavsiyalar berilmoqda.

Iqtisodiyotda ilmiy tadqiqotlarning ahamiyati. Ilmiy tadqiqotlar zamonaviy iqtisodiyotda muhim o‘rin tutadi, chunki u innovatsiyalar rivojlanishiga, mehnat unumdorligini oshirishga, hayot sifatini yaxshilashga va barqaror iqtisodiy o‘sishga yordam beradi. Iqtisodiyot sohasidagi ilmiy tadqiqotlar iqtisodiy hodisalarning sabablarini aniqlashga, tahlil va prognozlashning yangi usullarini ishlab chiqishga, innovatsion mahsulot va xizmatlarni yaratishga yordam beradi. Iqtisodiyotdagi ilmiy tadqiqotlarning asosiy qadriyatlaridan biri iqtisodiy jarayonlarning rivojlanish qonuniyatlari va tendensiyalarini aniqlash qobiliyatidir. Ilmiy tadqiqotlar ma’lumotlarni tahlil qilish, eksperimentlar o‘tkazish, modellar yaratish va prognozlar qilish imkonini beradi, bu esa iqtisodiy rivojlanish dinamikasini aniqroq tushunishga va asoslangan qarorlar qabul qilishga yordam beradi [6; 45-52].

Iqtisodiyotdagi ilmiy tadqiqotlarning yana bir muhim roli innovatsiyalarni rag‘batlantirishdir. Ilmiy tadqiqotlar yangi texnologiyalar, boshqaruv usullari, mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqishga ko‘maklashadi. Bu esa korxonalar va umuman mamlakatning raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi. Ilmiy izlanishlar natijasida yaratilgan innovatsiyalar iqtisodiy o‘sish, yangi ish o‘rinlari yaratish, turmush darajasini oshirish va mahsulot sifatini yaxshilashning dvigateliga aylanishi mumkin .

Bundan tashqari iqtisodiyot sohasidagi ilmiy izlanishlar mehnat unumdorligini oshirishga yordam beradi. Ilmiy izlanishlar tufayli biznesni boshqarishning samarali usullari ishlab chiqiladi, ishlab chiqarish jarayonlari optimallashtiriladi, xarajatlar kamayadi va resurslardan foydalanish samaradorligi oshiriladi. Bu kompaniyalarga bozorda raqobatbardosh bo‘lish imkonini beradi va ularning daromadlarining barqaror o‘sishini ta’minlaydi [7].

Shunday qilib, ilmiy izlanishlar zamonaviy iqtisodiyotda muhim o‘rin tutib, innovatsiyalarni rivojlantirish, mehnat unumdorligini oshirish va turmush sifatini yaxshilashga hissa qo‘shmoqda. Ular iqtisodiy jarayonlarning qonuniyatlarini aniqlashga yordam beradi, yangi texnologiyalar va boshqaruv usullarini ishlab chiqishni rag‘batlantiradi, shuningdek, barqaror iqtisodiy o‘sishga hissa qo‘shadi. Ilmiy tadqiqotlarga investitsiyalar iqtisodiyot va butun jamiyat kelajagiga kiritilgan investitsiyalardir.

Ta’lim va fan integratsiyasi muammolari. O‘zbekistonda ta’lim va fan integratsiyasi milliy ta’lim, fan va innovatsiya tizimini rivojlantirishga qaratilgan muhim strategik vazifadir. Biroq bu jarayon kerakli natijalarga erishish uchun bartaraf etilish kerak bo‘lgan bir qator muammolar va to‘siqlar mavjud. O‘zbekistonda ta’lim va fan integratsiyasining asosiy muammolari va ularni bartaraf etishning mumkin bo‘lgan yo‘llarini ko‘rib chiqamiz.

Birinchi muammo moliyaviy cheklovlardir. Ilmiy tadqiqotlar, ta’lim dasturlari, texnologik innovatsiyalar uchun yetarli mablag‘ ajratilmaganligi mamlakatda ta’lim va fanning rivojlanish sur’atlarini sekinlashtirishi mumkin [10; 45-51]. Muvaffaqiyatli integratsiya uchun ta’lim va fanga investitsiyalarni ko‘paytirish, ilmiy tadqiqotlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish mexanizmlarini yaratish zarur.

Ikkinchi muammo – olimlar va o‘qituvchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning yetarli emasligi. Muvaffaqiyatli integratsiya olimlar, o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasida faol hamkorlikni talab qiladi. Bilimlarni almashish uchun platformalar yaratish, qo‘shma loyihalar va tadqiqotlarni tashkil etish, o‘quv seminarlari va mahorat saboqlari ko‘rslarini o‘tkazish ta’lim va ilm-fan o‘rtasidagi hamkorlikni yaxshilashga xizmat qiladi.

Uchinchi muammo – kadrlarning yetarli darajada emasligi. Muvaffaqiyatli integratsiya akademik bilimlarni amaliy tajriba bilan birlashtira oladigan yuqori sifatli mutaxassislarni talab qiladi. Pedagoglar, o‘qituvchilar, ilmiy xodimlarni kasbiy tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini rivojlantirish, shuningdek, o‘qitish va o‘qitish uchun malaka oshirish va almashinuv dasturlarini yaratish zarur.

To‘rtinchi qiyinchilik – normativ hujjatlar va tashkiliy to‘siqlar. O‘zbekistonda litsenziyalashning murakkab tizimi, universitetlar va ilmiy institutlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning moslashuvchan qoidalarining yo‘qligi, ta’lim tizimidagi o‘zgarishlarga yetarli darajada tayyor emasligi bo‘lishi mumkin. Mavjud me’yoriy-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish, ta’lim va fan integratsiyasi jarayonini soddalashtirishga qaratilgan o‘zgartirishlar kiritish zarur.

O‘zbekistonda ta’lim va ilm-fanning muvaffaqiyatli integratsiyasi moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish, olimlar va o‘qituvchilarning o‘zaro hamkorligini yaxshilash, shuningdek, normativ hujjatlar va tashkiliy to‘siqlarni bartaraf etishni o‘z ichiga olgan kompleks yondashuvni talab qiladi. Bu jarayon milliy ta’lim va ilm-fan tizimini rivojlantirish, shuningdek, jahon miqyosida mamlakat raqobatbardoshligini oshirishdagi ahamiyatini anglash muhim ahamiyatga ega [11; 12].

Ta’lim va fanning iqtisodiyotga integratsiyalashuvi zamonaviy dunyoda muhim o‘rin tutadi, chunki bu mamlakatning barqaror rivojlanishi hamda raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Ta’lim va ilm-fanni muvaffaqiyatli integratsiyalashuvining muhim omili moliyaviy qo‘llab-quvvatlashdir. Moliyalashning yetarli emasligi tadqiqot, ta’lim dasturlari va innovatsiyalarni rivojlantirishga to‘sqinlik qilishi mumkin. Shu bois ta’lim va ilm-fanga sarmoyalarni ko‘paytirish, ilmiy tadqiqotlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish mexanizmlarini yaratish zarur.

Yana bir muhim jihat – olimlar, o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasidagi faol hamkorlikdir. Bilim almashish uchun platformalar yaratish, qo‘shma loyihalar va tadqiqotlarni tashkil etish, o‘quv seminarlari va mahorat saboqlarini o‘tkazish ta’lim va fan o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni yaxshilashga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, kadrlar tayyorlashga ham e’tibor qaratish lozim. Akademik bilimlarni amaliy tajriba bilan uyg‘unlashtira oladigan yuqori malakali mutaxassislar ta’lim va fanni muvaffaqiyatli integratsiyalashuvida muhim ahamiyat kasb etadi. O‘qituvchilar, pedagoglar va ilmiy xodimlarning kasbiy tayyorgarligi hamda malakasini oshirish tizimini rivojlantirish ko‘zlangan natijalarga erishishga yordam beradi.

Normativ va tashkiliy to‘siqlar ham ta’lim va fanni integratsiyalashuvini qiyinlashtirishi mumkin. Shu bois, mavjud me’yoriy-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish, integratsiya jarayonini soddalashtirishga qaratilgan o‘zgartirishlar kiritish hamda universitetlar va ilmiy – tadqiqot institutlarning o‘zaro hamkorligi uchun yanada moslashuvchan qoidalarni yaratish zarur. Umuman olganda, ta’lim va ilm-fanning samarali hamkorligi iqtisodiyotni rivojlantirish va aholi turmush darajasini oshirishning asosiy omili hisoblanadi. Shu bois mamlakatlar ta’lim va fan integratsiyasiga, ta’lim va ilmiy muassasalar o‘rtasida muvaffaqiyatli hamkorlik qilish uchun shart-sharoit yaratishga, shuningdek, innovatsiyalarni rag‘batlantirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratishlari zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kozlov, A. I. (2015). Fan va ta’limning o‘zaro ta’siri iqtisodiy rivojlanish omili sifatida. G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universitetining axborotnomasi, (3), 81-86.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. (2017). 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi PF-4947-son farmoni. Xalq so‘zi.
3. Sh.M.Mirziyoyev (2022) Yangi O‘zbekiston Strategiyasi”. –Toshkent. –“O‘zbekiston” nashriyoti. –464 bet.
4. Yo‘ldoshev, A. (2022). Uyg‘onish davri va uchunchi renessans poydevori: vorisiylik va o‘ziga xoslik. Markaziy Osiyo uyg‘onish davri ilm-fan va madaniyatini tadqiq etishning dolzarb muammolari xalqaro ilmiy anjumani.
5. Abdurahmonov, Sh.X.(2018). Ta’lim va fan integratsiyasi O‘zbekiston iqtisodiyotini samarali rivojlantirishning asosi sifatida. “Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy-amaliy jurnali, (4), 118-124.
6. Aliev, A. X. (2019). O‘zbekiston iqtisodiyotiga ta’lim va fanning integratsiyalashuvi tajribasi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Axborotnomasi, (1), 45-52.
7. Temirov, U. A. (2018). Ta’lim va fan integratsiyasi Rossiya iqtisodiyotining innovatsion rivojlanishining asosi sifatida. “Innovatsiya va sarmoya” ilmiy jurnali, (2), 96-102.
8. Sharipova, G. A. (2017). Raqamli iqtisodiyotda ta’lim va fan integratsiyasini rivojlantirish. Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti Axborotnomasi, (3), 112-118.
9. Gavrilova, E. N. (2019). Ta’lim va fanning o‘zaro ta’siri barqaror iqtisodiy rivojlanishning asosiy omili sifatida. Iqtisodiy strategiyalar, 4(1), 27-33.
10. Yermatov, I. T. (2019). К проблеме качества образования в висшем образователном учреждении. Сборник материалов,1, 541-544.
11. Yermatov, I. T. (2021). Ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan ma’yoriy huquqiy hujjatlar va ularni ta’limda ilg‘or pedagogik texnologiyalarni qo‘llashning ayrim masalalari.– 227-229.
12. Yormatov I. . (2022). Sifatli kadrlar tayyorlashdagi ayrim muammolar. Евразийский журнал социалних наук, философии и культури, 2(11), 83–86. извлечено отhttps://www.in-academy.uz/index.php/ejsspc/article/view/4629.

TRANSPORT VOSITALARI VA YO‘LLAR TURIZM TRANSPORT INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING MUHIM OMILIDIR

Agzamov Shaxboz Akmalovich
Samamarqand iqtisodiyot va servis instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada turizm sohasining rivojlanish holati, turizm transport infratuzilmasining vazifalari va transport vositalari hamda yo‘llar turizm transport infratuzilmasini rivojlantirishning muhim omili ekanligi bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: turizm, iqtisodiyot, infratuzilma, transport, mexanizm, turist, strategiya, firma, samardorlik, “Buyuk Ipak Yo‘li”, elektromobil.

Abstract: This article describes the state of development of the tourism sector, the tasks of tourism transport infrastructure, and the fact that vehicles and roads are an important factor in the development of tourism transport infrastructure.

Key words: tourism, economy, infrastructure, transport, mechanism, tourist, strategy, firm, management, “Great Silk Road”, electric car.

Аннотация: В данной статье описывается состояние развития туристической отрасли, задачи туристско-транспортной инфраструктуры, а также то, что транспортные средства и дороги являются важным фактором развития туристско-транспортной инфраструктуры.

Ключевые слова: туризм, экономика, инфраструктура, транспорт, механизм, турист, стратегия, фирма, менеджмент, “Великий шелковый путь”, электромобиль.

KIRISH

Turizm sohasini rivojlantirishda transport xizmatlari – bog‘lovchi vazifasini bajaradi va o‘ziga xos xususiyatga ega. Shunigdek, transportning samarali faoliyatida yo‘llar muhim ko‘rsatkich hisoblanadi va ularning o‘rni beqiyos, undagi xizmat turlarini zamonaviylashtirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, qabul qilingan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyada turizm sohasi transport infratuzilmasini rivojlantirishda bir qator ustuvor vazifalar belgilangan. Bular:

- elektromobillar ishlab chiqarish va ulardan foydalanishni rag‘barlantirish bo‘yicha alohida dasturlar qabul qilish;
- 2022-yilda Toshkent shahrida jamoat transporti yo‘nalishlarida 320 ta elektrobus qatnovini yo‘lga qo‘yish;
- “Yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirish bo‘yicha maxsus jamg‘armani tashkil etish;
- avtomobil yo‘llari holatini yaxshilash va yo‘l-transport infratuzilmasini rivojlantirish;
- turistlarning ehtiyojlari va talablarini hisobga olgan holda, mamlaktning barcha hududlarida turizm infratuzilmasi va yondosh infratuzilmani rivojlantirish belgilab o‘tilgan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi prezidentining 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi dasturida Avtomobil sanoatida kooperatsiyani yanada rivojlantirish orqali ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga, eksport hajmini 2 baravarga ko‘paytirish va mahalliylashtirish darajasini oshirish.

MUAMMONING O‘RGANILGANLIK DARAJASI

Turizm sohasining transport infratuzilmasini rivojlantirish hamda uning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish muammolari T.D.Burmenko [1], M.A.Vaxrushina, V.P.Bichkov [2], D.A.Dubrovskiy [3], V.Ye.Ribalkin [4], M.E.Nemolyayeva[5], kabi Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi davlatlari iqtisodchi olimlari tomonidan atroflicha o‘rganilgan.

Mustaqillik yillarida mamlakatimiz olimlari tomonidan ham ushbu soha bo‘yicha qator ilmiy izlanishlar olib borildi. Turizm sohasi muammolari bo‘yicha N.Tuxliyev [6], M.M.Muxammedov [7], I.S.Tuxliyev, M.Q.Pardayev [8], B.Sh.Safarov [9], O.X.Xamidovlar [10] ning ishlarida tadqiq qilingan, ammo mazkur ilmiy ishlarda turizm transport infratuzilmasini rivojlantirish va tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish muammolari, transport xizmatlari ko‘rsatishga ta’sir etuvchi omillar tahlili va uning istiqbollari yetarlicha o‘z aksini topmagan. Bu holat esa mazkur sohada chuqur ilmiy izlanishlar olib borish zarurligini taqozo etmoqda.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida turizm xizmatlari sohasi jahon iqtisodiyotining jadal rivojlanib borayotgan, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasiga kuchli ta’sir o‘tkazuvchi eng muhim tarmoqlaridan biri sifatida qaralmoqda. Chunki sohaning jadal rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotining boshqa tarmoqlariga hamda barcha makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning o‘sish sur’atlariga multiplikativ ta’sir ko‘rsatadi. Jahon sayyohlik va turizm tashkilotining ma’lumolariga ko‘ra, 2022-yilda turizm xizmatlari sohasining jahon yalpi ichki mahsulotidagi ulushi oldingi yilga nisbatan 22% ga o‘sib, 7,6% ni tashkil qilgan. Turizm sohasida yaratilgan yangi ish o‘rinlari soni esa 2022-yilda oldingi yilga nisbatan 7,9% ga oshib, jami 2,2 mln.tani tashkil etgan. Bu bir tarafdan turizm xizmatlari sohasining global pandemiyadan oldingi faol holatiga asta-sekinlik bilan qaytayotganidan dalolat bersa, ikkinchi tarafdan sohaning jahon YAIMning shakllanishidagi roli toboro ortib borayotganini ko‘rsatadi.

Mamlakatimizda turizm sohasi rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlariga e’tibor bersak, kiruvchi tashrif buyuruvchilar soni 2022-yilda 16,5 mln. kishidan iborat bo‘lib, ushbu ko‘rsatkich 2018-yilga nisbatan 101,8 %ni tashkil etgan. Keyingi yillarda turizm strategik ahamiyatga ega soha bo‘lganligi sababli 2022-yilda oilaviy mehmon uylari soni ham 3100 tani tashkil etib, o‘tgan yilga nisbatan 3,5 martaga oshgan. Respublikamiz YAIMda turizmning ulushi 2018-2022-yillarda 0,1 baravarga oshgan, buning asosiy sababi 2020-yilda butun dunyoda bo‘lib o‘tgan pandemiya tufayli turizm sohasidagi inqirozli holat hisoblanadi. Respublikamiz turizm sohasida band bo‘lganlar soni tahlil qilinayotgan davrlar oralig‘ida 37,0 %ga oshgan holda, ichki turizm 5,0 martaga o‘sgan (1-jadval).

1-jadval: O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasi rivojlanishining dinamikasi[1]

№	Ko‘rsatkichlar	Yillar					2018-2022-yillarda o‘zgarish%
		2018	2019	2020	2021	2022	
1.	Tashrif buyuruvchilar soni jami, mln. kishi	16,2	17,7	4,6	6,2	16,5	101,8
2.	Kiruvchi turizm, ming kishi	5346,2	6748,5	1504,1	1881,3	5232,8	97,9
3.	Joylashtirish vositalari, birlik	916	1051	1156	1085	5010	5,5 marta
4.	Oilaviy mehmon uylari, birlik	-	106	886	897	3100	-
5.	YAIMda turizmning ulushi, %	2,5	2,6	2,3	2,4	2,6	-
6.	Turizm sohasida band bo‘lganlar, ming kishi	201,0	260,1	201,3	215,6	275,3	137,0
7.	Ichki turizm, ming kishi	2255,5	2480,8	1069,2	4162,7	11300,7	5,0 marta

Turizm transport infratuzilmasining ham aniq maqsad va vazifalari bor. Quyidagi 1-rasmda turizm transport infratuzilmasining asosiy vazifalarini ko‘rishimiz mumkin.



1-rasm: Turizm transport infratuzilmasining asosiy vazifalari[2]

1 O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida tuzilgan.
2 Tadqiqotchi tomonidan ishlab chiqilgan.

Turizm transport infratuzilmasini rivojlantirishning ahamiyati shundaki, transport infratuzilma –turistik sektorga xizmat qiladigan inshotlar, muhandislik va kommunikatsion tarmoqlar majmuasi, shu jumladan telekommunikatsiyalar, yo‘llar, turizm sanoatining tegishli korxonalari (qayta ishlash, maishiy, energetika), turistlarning sayyohlik obyektlariga kirish-chiqish uchun qulay sharoitlar yaratish va ulardan turizm uchun maqsadli foydalanishni, shuningdek, turizm industriyasi korxonalarining ishlash imkoniyatlarini ta’minlaydi.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 28-noyabr kuni Ashxobod shahrida o‘tgan Iqtisodiy hamkorlik tashkilotining (IHT) 15-sammiti ishida mintaqadagi mavjud transport yo‘laklaridan unumli foydalanish va yangilarini yaratish to‘g‘risida fikr yuritdilar. Davlat rahbari mintaqalararo tranzit xablarini tashkil etish, zamonaviy transport va yo‘l infratuzilmalarini rivojlantirish, transport va tranzit tariflarini optimallashtirish hamda qo‘shimcha chegirmalarni taqdim etish, xalqaro yuk va yo‘lovchi tashish shartlarini yengillashtirish, transport sohasini raqamlashtirish masalalariga aniq yechimlar topish muhim ekanini ta’kidladi. Bu rejalarni ro‘yobga chiqarish uchun mamlakatimizning transport-kommunikatsiya aloqalarini rivojlantirish va tranzit salohiyatini kengaytirishga qaratilgan mintaqaviy strategiyani ishlab chiqish maqsadga muvofiqligi to‘g‘risida gapirib o‘tdi.

2021-yilda avtomobil transportining ulushi 90,3 % ni, temir yo‘l, quvur yo‘li va havo transportlarining ulushi esa 9,7 % ni tashkil etgan. 2020 yilning mos davrida bu ko‘rsatkich 90,6 % ga 9,4 %, 2019-yilda 89,2 % ga 10,8 % ni, 2018-yilda esa 88,7 % ga 11,3 % ni tashkil etgan.

2022-yil yanvar-dekabr oylarida barcha transport turlarida yo‘lovchi tashish 6 170,8 mln. yo‘lovchini tashkil etib, bu 2021-yilga nisbatan 2,3 % ga ko‘pdir. 2020-yilda koronavirus pandemiyasi bilan bog‘liq cheklovlar yo‘lovchi tashish hajmining qisqarishi va ayrim hollarda butunlay to‘xtatilishiga ta’sir ko‘rsatdi. Natijada, bu shu-yilda barcha transport turlari bo‘yicha o‘sish sur’atlarining sekinlashuvida namoyon bo‘ldi.

Avtomobil transporti yo‘lovchi va yuklarni tashishda ham muhim rol o‘ynaydi. 2022-yilning yanvar-dekabr oylarida yuk aylanmasi hajmi 1 178,8 mln. t-km.ga ko‘payib, 20 241,1 mln. t-km yoki 2021-yilning mos davriga nisbatan 6,2 % ga oshgan.

Qadimdan “Buyuk Ipak Yo‘li”da Movarounahr hududi yetakchi rolni bajarib kelgan. Respublikamizning “Buyuk Ipak Yo‘li”da joylashgan Samarqand, Buxoro, Xiva, Termiz, Toshkent, Jizzax, Andijon kabi qator shaharlari asosiy manzillar bo‘lgan. “Buyuk Ipak Yo‘li” bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Xitoy hukumati tomonidan oldinga surilayotgan “Bir makon – bir yo‘l” (BRI) loyihasi asosida “Buyuk Ipak Yo‘li”ni qayta tiklashning zamonaviy loyihasi taklif etilmoqda. Ushbu loyiha Osiyo va Yevropa o‘rtasidagi qadimiy “Buyuk Ipak yo‘li”ning qayta tiklanishi sifatida ishlab chiqilgan. BRI loyihasi besh qit’ani dengiz va quruqlik yo‘laklari bilan bog‘lashi nazarda tutilgan. 2013-yildan beri unda umumiy aholisi 4,6 milliard kishi va jahon YAIM qarib 30%ga teng bo‘lgan 65dan ortiq mamlakatlar ishtirok etmoqda. Respublikamiz bu loyiha orqali Markaziy Osiyodagi transport salohiyatini maksimal darajada oshirish va “Xitoy-Markaziy Osiyo-G‘arbiy Osiyo” iqtisodiy yo‘lagini shakllantirish-dan manfaatdor. Ushbu maqsadda 2016-yilda Farg‘ona vodiysini respublikamizning boshqa hududlari bilan bog‘lovchi “Angren-Pop” elektrlashtirilgan temir yo‘li barpo etildi. Mazkur liniya Xitoygacha bo‘lgan masofani 270 kilometr qisqartirish imkonini berdi. Bundan tashqari, Xitoy-Qirg‘iziston-O‘zbekiston temir yo‘li qurilishi natijasida O‘zbekistondan Xitoy va Janubiy Osiyoga to‘g‘ridan to‘g‘ri chiqish imkoniyati yuzaga keladi, yuk tashish vaqti 5-6 sutkaga qisqarishi ko‘zlandi. Loyihaga asosan ikki yo‘nalish kuruqlik va dengiz yo‘li loyihasi ishlab chiqilgan. Bu kabi loyihalar ishtirokchisiga aylanish O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun loyihada O‘zbekiston ham faol ishtirok etmoqda. Sababi O‘zbekiston quruqlikdan o‘tadigan yo‘lning markazida joylashganligi uchun mamlakatimiz iqtisodiyotining mintaqadagi davlatlar bilan integratsiyasiga katta ta’sir ko‘rsatadi, shu singari turizmni rivojlantirishga va madaniyatlar almashinuviga ham katta hissa qo‘shadi (2-rasm).

2-rasm: “Buyuk Ipak Yo‘li”ning hozirgi zamonaviy taklif etilayotgan loyihasi[3]

Mamlakatimizda turistlarga xizmat ko‘rsatishni rivojlantirishda ilgari surilayotgan yangi loyihaning imkoniyatlaridan foydalangan holda turizmni yangi bosqichga ko‘tarish, ichki imkoniyatlardan oqilona foydalanish, eng avvalo, ko‘hna madaniy va me’morchilik yodgorliklariga boy bo‘lgan Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Toshkent, Qo‘qon, Termiz kabi turistik markazlarimiz transport infratuzilmasini yaxshilashimiz zarur. Bu shaharlarda jahon ahlini hayratga soluvchi va lol qoldiruvchi tarixiy-madaniy yodgorliklar mavjud.

3 Xarita Google internet tarmog‘i ma’lumotlari asosida tadqiqotchi tomonidan tuzib chiqildi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Infratuzilmaning takomillashib borishi natijasida uni tashkil qiluvchi vositalar va uning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar ham yuzaga kelmoqda. Bu omillar ichida tabiiy-geografik va ijtimoiy-iqtisodiy omillar yetakchilik qilishini ko'rsatdi. Bu omillardan tashqari infratuzilmani tashkil qilish vositalari ham sohaning rivojlanishida asosiy omillardan biri hisoblanadi. Bularning barchasi turistlarga xizmat qilish imkoniyatlarini beradi.

Bizning fikrimizcha "Turizm infratuzilmasi –bu turistlarning o'sib borayotgan talablarini qondirish uchun xizmat ko'rsatadigan tashkilotlar va obyektlar majmuasidir".

Dunyodagi turizm infratuzilmasi rivojlangan mintaqalar va davlatlar bo'yicha olib borilgan izlanishlarimiz ko'rsatishicha Yevropa mintaqasi va davlatlari turizm bozori eng rivojlangan hudud ekanligini ko'rsatdi. Shu bilan birga istiqbolli mintaqalarga Janubiy Amerika, Janubiy Afrika mintaqalarining imkoniyatlari kattaligi aniqlandi.

Turizm infratuzilmasining shakllanishidagi ko'rib o'tilgan omillarning har biri hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, har bir davlat o'zining imkoniyati darajasida bu sohani rivojlantirish va iqtisodiyotini yuksaltirishda foydalanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Бурменко Т.Д. Сфера услуг: экономика. Учебное пособие / Т.Д.
2. Бычков В.П. Предпринимательская деятельность на автомобилном транспорте. – СПб.: Питер, 2004. – 448 с.
3. Дубровский Д.А. Прибылный автосервис. Советы владельцам и управляющим. –СПб.: Питер, 2010. – 256 с.
4. Рыбалкин В.Е. Международные экономические отношения. Учебник / М.: Юнити, 2012. – 312 с.
5. М.Э.Немоляева Международный туризм: вчера, сегодня, завтра. –М.:, 1985. – 175 с.
6. Тухлиев Н. Абдуллаева Т. Национальные модели развития туризма. Т.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2006. – 424 с.
7. Muxammedov M. va boshqalar "Xizmat ko'rsatish sohasi va turizmni rivojlantirishning nazariy asoslari"- S.: Zarafshon 2017.–299 b.
8. Tuxliyev I., Qudratov F., Pardayev M. Turizmni rejalashtirish. Darslik. T.: "Iqtisod va moliya".– 2008.–262 b.;
9. B.Sh.Safarov Milliy turizm xizmatlar bozorini innovatsion rivojlantirishning metodologik asoslari. – T.: Fan va texnologiya. –2016. –184 b.;
10. O.X.Xamidov "Transport servisini tashkil etish" fani bo'yicha ta'lim texnologiyasi. Toshkent – "TDIU". – 2006.
11. www.roadvay.uz, www.uzavtoyul ("O'zavtoyo'l" DAK)
12. Шоназарова Н.Б. (2019). Перспективы развития логистических систем в сфере пассажирских перевозок. Достижения науки и образования, (7 (48)), 10-13.Шоназарова Н.Б., & Кенжаева Б.О. (2020). Сущность логистических затрат и пути их оптимизации. Проблемы науки, (5 (53)), 32-33.

BANK XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISH ORQALI SAMARADORLIGINI OSHIRISH

A. X. Salamov
“O‘zmilliybank” AJ Registon bank xizmatlari markazi boshqaruvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada muallifning mintaqada raqamli bank xizmatlarini takomillashtirish bo‘yicha olib borgan izlanishlari, raqamli bank xizmatlarini xorij tajribasi, infratuzilmasi, bank xizmatlari sifatini oshirishda raqamli texnologiyalarni o‘rni va qo‘llash bo‘yicha fikrlari keltirilgan hamda taklif-tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: bank, xizmat, servis, raqamli iqtisodiyot, raqamli texnologiya, banking, raqamli bank, samara, takomillashtirish, “TBC bank”, “Anorbank”, tijorat banklar.

Abstract: This article presents the author’s research on improving digital banking services in the region, foreign experience in digital banking services, infrastructure, the role and application of digital technologies in improving the quality of banking services, as well as suggestions and recommendations.

Key words: bank, service, digital economy, digital technologies, banking, digital banking, efficiency, improvement, TBS Bank, Anorbank, commercial banks.

Аннотация: В данной статье представлены авторские исследования по совершенствованию цифровых банковских услуг в регионе, зарубежный опыт цифровых банковских услуг, инфраструктура, роль и применение цифровых технологий в повышении качества банковских услуг, а также предложения и рекомендации.

Ключевые слова: банк, сервис, цифровая экономика, цифровые технологии, банковское дело, цифровой банкинг, эффективность, совершенствование, “ТБС банк”, “Анорбанк”, коммерческие банки.

KIRISH

Raqamli iqtisodiyotga o‘tish sharoitida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar mamlakat rivoji uchun ozining muhim hissasini qo‘shib, aholi farovonligini yuksaltirishiga xizmat qilmoqda. Ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning rivojlanishida asosiy lakomotivlarning biri sifatida bank tizimi keltirib o‘tish maqsadga muvofiqdir. Mamlakatimizda bank tizimi faoliyatini tashkil etish, uni rivojlantirishga alohida imtiyozlar hamda e’tibor qaratilib kelinmoqda. Bank tizimi faoliyati hozirgi vaqtda iqtisodiy jarayonlarning barcha jabhalariga tobora kuchliroq kirib bormoqda. Ammo uning milliy iqtisodiyotdagi samaradorligi ko‘p jihatdan yangicha ijtimoiy mehnat munosabatlarini shakllantirish, texnologik modernizatsiyalash va rivojlantirishga bog‘liq bo‘lib qolmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev “….iqtisodiyotning barcha sohalarini raqamli texnologiyalar asosida yangilanishini ko‘zda tutadigan “Raqamli iqtisodiyot milliy konsepsiyasi”ni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish kerak” [1]. deb ta’kidlaganlari, mamlakatimiz iqtisodiyot tarmoqlarini bosqichma-bosqich raqamli texnologiyalar dasturiga o‘tkazishni hamda 2030-yilga kelib yalpi ichki mahsulotda uning ulushini kamida 30 foizga o‘stirish kabi ustuvor maqsadlarni belgilab berilganligi hamda ushbu maqsadni amalga oshirishimiz uchun ustuvor vazifalarni bajarishimizni oldimizga qo‘ymoqda. Bunday vazifalarni amalga oshirish iqtisodiy islohotlarning ustuvor vazifalari qatoridan joy olib, bank tizimini rivojlantirish zamonaviy ko‘rinishga keltirishni taqozo etmoqda. Buning samarali yechimi sifatida raqamli banklar faoliyatini rivojlantirish orqali aholi turmush farovonligini ta’minlash asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Bu holat o‘z navbatida ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonlarini yangi iqtisodiy tartiblarga o‘tishni jadallashtirib, insonlar ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatining ichki va tashqi jarayonlarini keskin o‘zgartiradi, tizimda korrupsiya holatlarini oldini oladi hamda ijobiy siljishlar vujudga kelishiga zamin yaratadi.

Fikrimiz tasdig‘i sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5296-sonli Farmoni imzolangach, bank tizimiga chakana bank xizmatlariga ixtisoslashgan “raqamli” banklar va bank bo‘linmalarini tashkil etish hamda innovatsion bank texnologiyalaridan foydalangan holda mijozlarga xizmat ko‘rsatish

sifatini yanada kengaytirish vazifasi yuklatilgan [2]. Shunga ko‘ra, O‘zbekistonda 2020-yilda “Anorbank” va “TBC bank”lar raqamli bank sifatida ro‘yxatga olindi. Bugungi kunda raqamli bank sanalmish “Anorbank” o‘z mijozlariga mobil ilovalar yoki statsionar kompyuterlar orqali to‘liq raqamli xizmatni taqdim etmoqda.

Yuqorida keltirilgan fikrlarga tayanib faoliyat ko‘rsatyotgan an’anaviy banklar faoliyatini diversifikatsiya qilishni takomillashtirish, raqamli banklar faoliyatini keng targ‘ib qilish bugungi davrning dolzarb muammolaridan biri bo‘lib qolmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Raqamli banklar faoliyati tahlili va uni takomillashtirish yo‘llari mavzusidagi tadqiqotlarimiz doirasi, adabiyotlar tahlilida M.K.Avezovning ‘‘Raqamli bank xizmatlari va uning afzalliklari’’ nomli ilmiy maqolasida “ANOR BANK” AJ faoliyati misolida “Raqamli bank” tushunchasiga ta’rif berib o‘tilgan, hamda raqamli bank xizmatlarining holati va bankning faoliyati tahlil etilgan. Shuningdek, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan an’anaviy banklar va raqamli banklarning faoliyatini taqqoslash natijasida mamlakatimizdagi bank xizmatlarini rivojlantirish borasida xulosalar shakllantirilgan [3].

M.I.Madraximovning “Tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish istiqbollari” nomli ilmiy maqolasida masofaviy bank xizmatlarining bank faoliyatidagi ahamiyati, ularni ko‘rsatish kanallari va buni yanada kengaytirish imkoniyatlariga oid ilmiy-nazariy qarashlar o‘rganib chiqildi. O‘zbekiston tijorat banklari amaliyotida masofaviy bank xizmatlarining rivojlanish holati to‘plangan statistik ma’lumotlar asosida tahlil qilingan [4].

G.SH.Umirovaning “Raqamli iqtisodiyot sharoitida bank tizimini yanada isloh qilish” nomli ilmiy maqolasida Raqamli iqtisodiyotni hozirgi kundagi o‘rni hamda raqamli iqtisodiyot sharoitida bank tizimini yanada isloh qilish yo‘llari haqida ma’lumotlar berilgan [5].

S.B.Boboqulov, M.B.Boymurotovalarning “Mamlakatimizda raqamli banklar faoliyatini takomilashtirish yo‘llari” mavzusidagi ilmiy maqolasida mualliflar tamonidan raqamli iqtisodiyoti sharoitida raqamli banklar faoliyati tatbiq etilgan bo‘lib, soha faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha tahlillar, nazariy qarashlar va banklar faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha izlanishlar olib borilgan. Shuningdek, mamlakatimizda raqamli banklar faoliyatini rivojlantirishga oid taklif va tavsiyalar berilgan [6].

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolaning tadqiqot jarayonida raqamli iqtisodiyoti sharoitida banklar va raqamli banklar faoliyatini rivojlantirish, uni tashkil etish bo‘yicha izlanishlar tahlil etilib o‘rganilgan. Shuningdek, bir qator usullardan foydalanish asosida o‘rganilgan, jumladan, xorijiy tajribalarni monografik tahlillar natijalarini monografik tadqiqot, analiz va sintez, tizimli tahlil kabi iqtisodiy usullar asosida mamlakatimizda banklar faoliyatini raqamlashtirish, raqamli banklar faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha imkoniyatlarni ochib berishda ahamiyat kasb etgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekistonda bank xizmatlari bozorini rivojlantirish va banklararo raqobat sharoitida mijozlarga ko‘rsatiladigan bank xizmatlarining samaradorligini oshirishda jahon banklari tajribasidan foydalanish, tashkil etilgan bank xizmatlari bozorini rivojlantirish muhim omilga aylanishi lozim. Bunga bog‘liq bo‘lgan holatlar quyidagilar:

- xorij tajribasidan foydalanish samaradorligi banklarimizning yevropa kliring to‘lov tizimi doirasida hisob-kitoblarni o‘tkazishning zamonaviy shartlariga moslashish darajasi;
- raqamli bank xizmatlarini yaratish uchun zarur internet tezligi, uzluksizligi va foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish;
- “investitsion electron” bank xizmatlarini rivojlantirish;
- korporativ moliya sohasi, aktivlarni boshqarish, ssuda kapitallari bozorida raqamli bank xizmatlarining rivojlanishi uchun xalqaro kredit tarixini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi [7].

Yuqorida aytib o‘tilgan fikrlarga tayangan holda bank xizmatlarining xorij tajribasidan unumli foydalanib, namunaviy to‘plamlarni mamlakatimiz bank tizimi va mijozlar uchun unumli xizmatlar paketini shakllantirishni taqozo etmoqda.

Yurtimizdagi har bir tijorat banki uchun rivojlangan davlatlardagi banklar amaliyotini o‘rganish va zamonaviy xizmat ko‘rsatish texnologiyalariga ega bo‘lish muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqaro munosabatlarga kirishar ekan, har bir bank xorijiy banklar orqali hisob-kitoblar o‘tkazishi va xalqaro standartlarga rioya qilishi talab etiladi. Jahon iqtisodiyoti globalizatsiyasi sharoitida tashqi iqtisodiy faoliyatga xizmat ko‘rsatish ahamiyati ortib bormoqda, bu holat investitsion, konsultatsion, informatsion xizmatlar, aktivlarni boshqarish kabi xizmat turlari hajmi ortib borayotganligi bilan izohlanadi. Xizmat ko‘rsatishda turli telekommunikatsion vositalar: telefon, faks, internetdan foydalanilmoqda. Bu esa o‘z navbatida banklar tomonidan IT, raqamli texnologiyalar va personalga ajratayotgan mablag‘lar hajmining ortib borishiga olib kelmoqda. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, bank sohasini raqamlashtirishga sarflanayotgan mablag‘lar jami bank xarajatlarining 17% ini tashkil etayotganligi bu sohaga katta e’tibor berilyotganligini bildirmoqda.

Innovatsion iqtisodiyoti sharoitida raqamli banklar faoliyati muhim va ahamiyatli bo‘lib soha va tarmoqlar rivoji, shuningdek, jismoniy shaxslarga arzon, sifatli hamda qulay xizmat ko‘rsatish bilan ajralib turadi [6].Masalan, ma’lumotlar omborini boshqarish, to‘lov tizimlarini ta’minlash, moliyaviy kreditlar berish va boshqa xizmatlarni masofadan turib “online” shaklda amalga oshirishi mumkin. Bunday banklar yordamida o‘zining hisob raqamini boshqarish, pul o‘tkazish va qabul qilish, kartalarni ishlatish, hamda elektron mablag‘ o‘tkazish mumkin bo‘ladi.

Ana shunday jarayonlarda banklar o‘z faoliyatini gibrit shaklda amalga oshirish jarayoniga alohida e’tibor berishmoqda.



1-rasm: Hozirgi davrda raqamli banking shakllari [8]

Yuqorida keltirilgan 1-rasm ma’lumotlaridan shunday xulosa qilishimiz mumkinki, raqamlashtirish natijasida bank xizmatlari ko‘rsatish turlari va shakllari ko‘payib bormoqda. Ayniqsa raqamli bank shakllari o‘zining tezkorligi, shaffofligi, qulayligi hamda samaradorligi bilan ajralib turmoqda. Ayniqsa hozirgi vaqtda an’anaviy banklar faoliyatini integratsiyalashuv natijasida mobil banking raqamli xizmatlari aholi orasida ishonch qozonib kelmoqda. Bu esa asta sekinlik bilan an’anaviy banklarning ham kelajakda to‘laqonli raqamli ko‘rinishga o‘tishiga zamin bo‘ladi [9]. Buning natijasida an’anaviy banklar faoliyati xizmat ko‘rsatish xarajatlari keskin sur’atlarda qisqarishi, xizmat ko‘rsatish sifatining yuksalishi, keng miqyosda xizmatlarni tashkil etishi, 100 % “bank-mijoz”ning “online” rejimida o‘zaro hamkorligi, 24/7 rejimida tezkor, qulay, ishlaydigan aloqa markazi va kapitallashuvning kengayishga olib keladi. Shu bilan birgalikda ta’kidlab o‘tish joizki raqamli banklar faoliyatiga ham kiberhujumlarning soni ortishi, “fizshing”, “Shellcoders & Reverser”, “spam” xakerlik hujumlarining tizimda qotish holatlarini vujudga kelishi kabi salbiy holatlar ham ko‘payishi mumkin. Ammo shu bilan birgalikda ularning hujumlariga qarshi aks ta’sir etuvchi himoya tizmlari ham takomillashib boraveradi. Xulosa qilib salbiy oqibatlaridan ko‘ra ijobiy oqibatlari ko‘proq ekanligini ko‘rishimiz mumkin [10].

Community Bank Competitiveness Survey ma’lumotlariga ko‘ra Amerikadagi internet banking sezilarli qismi (92%) bankga hisob bo‘yicha ko‘chirma olish uchun internetdan murojaat qilishadi. Qariyb shuncha foydalanuvchilar (91%) hisoblarining holati va amalga oshgan o‘tkazmalarni kuzatadilar. Internet orqali to‘lovni (83%)ni foydalanuvchilar amalga oshirishadi, lekin baribir kredit mavjud tarmoqlarda 6% amerikalik tomonidan olinadi [11] (1-jadval).

1-jadval: AQSHda turli internet banking xizmatlarining qo‘llanilishi faolligi (2022-yil, foizda)

1	Hisob bo‘yicha ko‘chirma	92 %
2	Davrdagi o‘tkazmalarni ko‘rish	91 %
3	Hisoblar to‘lovi	83 %
4	Moliyaviy kalkulyator	79 %
5	Chek buyurtmasi	61 %
6	To‘lovni bekor qilish	59 %
7	Kreditga ariza	39 %
8	Hisob raqami ochilishi	29 %
9	Internet-treyding	10 %
10	Hisobni yopish	9 %
11	Kredit olish	6 %

Fikrimizcha, raqamli bank tizimida ishlashga o‘zgarishi bu – yangi axborot texnologiyalarini rivojlanishi va butun dunyo bo‘ylab faol tarqalishiga javob hisoblanadi hamda raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi. Boshqacha aytadigan bo‘lsak, raqamli bank xizmatlarni rivojlantirish mamlakat bank-moliya tizimi ravnaqining muhim yo‘nalishi bo‘lib xizmat qiladi.

Yuqoridagi keltirilgan fikrlar shundan darak beradiki, bank jadal rivojlanish va mijozga yo‘naltirilganlik tamoyili asosida taklif etayotgan sifatli xizmatlari mijozlar tomonidan keng qabul qilinmoqda va bank mijozlari soni kundan kunga ortib bormoqda. Bu esa mamlakatimiz bank-moliya tizimida yangi raqamli bank tendensiyasi boshlanganligidan darak beradi. Shu sababli hozirda an’anaviy faoliyat yuritayotgan banklar ham raqamli bank xizmatlarini rivojlantirishga katta e’tibor qaratishlari zamon talabiga aylanib bormoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida keltirilgan fikrlarga tayangan holda bank xizmat ko‘rsatish faoliyati samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalangan holda, erishishimiz mumkin. Yuqorida keltirilgan fikrlar va xulosalardan kelib chiqib banklar faoliyatini raqamlashtirish maqsadida quyidagi taklif va tavsiyalar berdik:

Birinchidan, mamlakatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan raqamli banklar faoliyatini yanada muvofiqlashtirish, ya’ni, xizmat ko‘rsatishini erkinlashtirish, davlat tamonidan qo‘llab-quvvatlash, institutsional islohotlarni keng joriy etish;

Ikkinchidan, mamlakatimizda raqamli banklar faoliytatini rivojlantirish maqsadida kadrlar islohatini amalga oshirish, bank xodimlarini raqamli bank faoliyati rivojlangan xorij mamlakatlarida malaka hamda ko‘nikma darajasini oshirish hamda xorij tajribasini samarali usullarini respublikamizda keng targ‘ib qilish;

Uchinchidan, masofaviy bank xizmatlarini rivojlanishi mijozlarni identifikatsiya qilishga bo‘lgan zaruriyatni yuzaga chiqarishi tabiiy holat. Shuni inobatga olgan holda, barcha mobil bank xizmatlariga mijozga xizmat ko‘ratishda xodimni identifikatsiya qilish zaruriyati yuzaga kelganda Ichki ishlar vazirligi ma’lumotlar bazasidan integratsiya qilish imkoniyatlarini yaratib berish;

To‘rtinchidan, raqamli banklar filiallarini ko‘paytirish va aholining raqamli banklar xizmatlaridan foydalanish savodxonligini oshirish, chunki raqamli banklarning jadal rivojlanishiga avval mamlakat aholisi tayyor bo‘lishi kerak.

Ushbu takliflarning amaliyotda tatbiq etilshi natijasida mamlakatimizda raqamli banklarning rivojlanishi, an’anaviy banklarni esa bosqichma-bosqich raqamlashtirish ishlarini amalga oshirishimiz hamda aholi, tadbirkorlarning yashash va rentabelligini yuksalishiga erishishimiz mumkin bo‘ladi.

Foydalanilgan Adabiyotlar Ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston–2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida Farmoni. www.lex.uz
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Murojaatnoma 2020-yil 25-yanvar. www.lex.uz
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “2020–2025-yillarga mo‘ljallangan o‘zbekiston respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida” PF-5992-son Farmoni. Toshkent. 12.05.2020 y. www.lex.uz
4. Khudoykulov, H. A., & Sherov, A. B. “Economy development in corporate governance of joint stock company”. Экономика и бизнес: теория и практика, (2021). (3-2), 217-219.
5. Маткулиева, С., & Атабаева, К. “Роль цифровых банковских услуг в развитии отраслей и отраслей экономики”. Scientific progress, (2022). 3(2), 360-363.
6. Шеров А. “Олий таълим муассасаларига бюджетдан ташкари маблагларни жалб этишни такомиллаштириш” “Biznes-Эксжрт”, (2017) (3 (111)), 3.
7. Gontar A.A. “Digital banking as one of the components of the economic security of a credit organization” // Bulletin of the Volzhskiy University im. VN Tatishcheva. –2017. –T.1. –no. 4
8. Murodov F.H. “Raqamli bank xizmatlari va uning afzalliklari” https://cyberleninka.ru/article/n/raqamli-bank-xizmatlari-va-uning-afzalliklari
9. Boboqulov S. B. et al. O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyoti sharoitida elektron biznesni rivojlantirish yo‘llari //Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. – 2023. – T. 1. – №. 10. – C. 524-529. https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/2023/11/20/o-zbekistonda-raqamli-iqtisodiyoti-sharoitida-elektron-biznesni-rivojlantirish-yo-llari/
10. Boboqulov Sanjar Baxronkulovich, Qadamboyeva Dilso‘z Doniyor Qizi Raqamli iqtisodiyoti sharoitida innovatsion texnologiyalar asosida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish istiqbollari // JMBM. 2023. №7. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/raqamli-iqtisodiyoti-sharoitida-innovatsion-texnologiyalar-asosida-tadbirkorlik-faoliyatini-rivojlantirish-istiqbollari (дата обращения: 10.01.2024).
11. Bobokulov S.B. Diversifying the service field under digitalization //American Journal of Interdisciplinary Research and Development. – 2022. – V. 11. – ISSN Online: 2771-8948. – P. 218-224.
12. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.
13. www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Prezident huzuridagi Statistika agentligi.

BIZNES-REJA BALIQCHILIK XO‘JALIGI RIVOJLANISHI UCHUN ASOS SIFATIDA

Dosmuratova Shaxista Kengashovna
Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Maqolada biznes-reja baliqchilik xo‘jaligi rivojlanishi uchun asos sifatida o‘rganilgan. Biznes-reja tushunchasi nazariy jihatdan tadqiq qilingan va mualliflik yondashuvi shakllantirilgan. Biznes-reja tuzilishi bo‘yicha iqtisodiy manbalardagi yondashuvlar tadqiq va tahlil qilingan, ular asosida baliqchilik xo‘jaligi uchun biznes-reja tuzilishi tavsiya etilgan.

Kalit so‘zlar: biznes-reja, baliqchilik xo‘jaligi, biznes-reja tuzilishi, baliqchilikni rivojlantirish.

Abstract: The article examines a business plan as the basis for the development of fisheries. The concept of a business plan is theoretically explored and the author’s approach is formed. Approaches from economic sources to the structure of a business plan were studied and analyzed, on the basis of which the structure of a fisheries business plan was recommended.

Key words: business plan, fisheries, business plan structure, fisheries development.

Аннотация: В статье рассматривается бизнес-план как основа развития рыбного хозяйства. Теоретически исследовано понятие бизнес-плана и сформирован авторский подход. Исследованы и проанализированы подходы из экономических источников к структуре бизнес-плана, на основании которых рекомендована структура бизнес-плана рыбного хозяйства.

Ключевые слова: бизнес-план, рыболовство, структура бизнес-плана, развитие рыболовства.

KIRISH

So‘nggi yillarda baliqchilik sohasida biznesni tashkil etish va rivojlantirish bo‘yicha hukumatimiz tomonidan bir qator qarorlar qabul qilindi. Bular O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-maydagi “Baliqchilik tarmog‘ini boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2939-son [1], 2018-yil 6-apreldagi “Baliqchilik tarmog‘ini jadal rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3657-son [2], 2018-yil 6-noyabrdagi “Baliqchilik sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4005-son [3] qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 13 sentyabrdagi “Baliqchilik tarmog‘ini kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 719-son [4], 2018-yil 31-iyuldagi “Baliqchilik sohasidagi ilmiy faoliyatni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 606-son [5] qarorlaridir. Mazkur qarorlarda belgilangan vazifalarni bajarish juda muhim hisoblanadi. Baliqchilik xo‘jaliklarini rivojlantirishda biznes reja asos bo‘ladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Tadqiqotning asosi biznes reja va uning tuzilishini shakllantirish masalalari bo‘lib, mazkur masalalar xorijlik iqtisodchi olimlar B.Gustav, P.Kirshner, R.Abrams, E.Blekvell, V.P.Gruzinova, M.V.Charayeva, A.V.Paleyev va boshqalarning asarlarida muhokama qilingan.

Xorijlik iqtisodchi olim Gustav Berl, Pol Kirshnerlarning “Mgnovenniy biznes-plan” asarida “muayyan biznes-rejada qo‘yilgan masalalarning ko‘lami va ahamiyatiga qarab, uni ham korxonani rivojlantirishning strategik rejasi, ham kengroq harakatlar rejasining alohida elementi sifatida talqin qilish mumkin. Bunday rejalar, birinchi navbatda, rivojlanishning qandaydir yangi yo‘nalishini oqlash uchun kerak, shuning uchun ular ko‘pincha muntazam emas, balki bir martalikdir. Bunday holda biznes-reja – bu kompaniya faoliyatining taklif etilayotgan yangi yo‘nalishining mohiyatini aniq va vizual tarzda ochib beradigan, ma’lum bir loyihani amalga oshirishning maqsadga muvofiqligini asoslaydigan asosiy ko‘rsatkichlarni jamlangan shaklda aks ettiruvchi

hujjat. Bunday hujjatning yo‘qligi cheklangan moliyaviy va boshqa resurslarning samarasiz taqsimlanishiga olib keladi; barcha xodimlarning sa’y-harakatlarini eng istiqbolli muammolarni hal qilishga jamlashga imkon bermaydi; haqiqiy erishilgan natijalarning rejalashtirilganidan og‘ish darajasini baholashga imkon beradigan boshqa umumlashtiruvchi hujjat yo‘qligi sababli samarali nazoratni amalga oshirishda qiyinchiliklar tug‘diradi” [10], degan fikrni bildiradi.

Xorijlik soha mutaxassisi R.Abrams “Biznes-plan na 100 %: Strategiya i taktika effektivnogo biznesa” kitobida “Biznes-reja rasmiy hujjatdir. Yaxshi biznes g‘oya, ayniqsa kuchli jamoa tomonidan taqdim etilgan, o‘zini potensial kreditor yoki investorga “sotadi”, deb hisoblaydi ko‘plab rossiyalik tadbirkorlar. Amalda aynan shu yondashuv biznes-rejani loyiha va uni moliyalashtirish o‘rtasidagi “so‘nggi mil”ga aylantiradi. Ko‘rinishidan, g‘oya yaxshi, bozor o‘sib bormoqda va jamoa “bilib turibdi” – lekin loyihani amalga oshirish uchun mablag‘larni jalb qilishning iloji yo‘q” [15] deb ta’kidlaydi. Shuningdek, biznes rejaning mazmun va mohiyati, tarkibi, ishlab chiqish tartibi hamda uning ahamiyatini aynan iqtisodchi olimlarimizdan B.Yu.Menglikulov, I.R.Davletov, B.K.Uralov, O.R.Fayziyev kabi olimlarimizning o‘z ilmiy tadqiqot ishlarida [11, 12, 13, 16] yetarlicha yoritib berilganligini ko‘rishimiz mumkin.

Mazkur tadqiqot ishimizning ikkinchi bir qismida baliqchilik xo‘jaliklarini rivojlantirish masalalariga bag‘ishlangan bo‘lib, respublikamizning yana bir qator, jumladan O.R.Fayziyev, A.K.Aitimbetov, D.Saidova kabi olimlarimiz tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlarida [18, 20, 22] qishloq xo‘jaligida aholini go‘sht va go‘sht mahsulotlari bilan ta’minlashda baliqchilik xo‘jaliklarining hozirgi holati tahlil qilinib baliqchilikning o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berishgan.

Shuningdek, I.Yunusov, I.S.Ochilov kabi yana bir guruh olimlarimiz tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlarida [17, 19, 21, 23] esa, nafaqat baliqchilik xo‘jaliklarida biznes reja tuzish amaliyotini yo‘lga qo‘yish balki, sohada ish yuritishning yangi bozor mexanizlaridan biri va makroiqtisodiy barqarorlikka erishishning zamonaviy usuli hisoblangan klasterlashtirish orqali sinergetik samaradorlikka yetishish imkoniyati mavjud ekanligi o‘rganilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Biznes-reja tushunchasining mazmun-mohiyatini tadqiq qilish va baliqchilik xo‘jaliklarida biznes-reja tuzilishini tadqiq qilish jarayonida kuzatish, monografik tadqiq qilish, mantiqiy va taqqolama tahlil qilish kabi usullardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Iqtisodiy manbalarda biznes-reja mazmun-mohiyati bo‘yicha juda ko‘plab ta’riflar, fikr-mulohazalar va yondashuvlar keltirilgan. Shulardan ayrimlariga to‘xtalib o‘tamiz. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasida biznes-rejaga quyidagicha ta’rif berilgan, “Biznes reja – aniq tanlangan tadbirkorlik ishining barcha bosqichlari tavsiflangan va taxminiy hisob-kitob qilingan loyiha. Unda aniq tanlangan tadbirkorlik ishining hamma tomonlari o‘z aksini topadi” [9]. Shuningdek, “Biznes-reja – bu tadbirkorning rejalashtirilgan biznes sxemasining yozma qisqacha mazmuni, uning moliyaviy va samarali tafsilotlari, imkoniyatlar, strategiya va uning rahbarlarining malaka va ko‘nikmalari, uni ilgari surish. Biznes-rejani yaratish juda muhim, chunki tadbirkor muvaffaqiyatga erishish imkoniyatini oshirish uchun yaxshi o‘ylangan, aniq yaratilgan biznes-rejaga ega bo‘lishi kerak” degan fikr-mulohazalar keltirilgan [9].

Vikipediyada “Biznes-reja (ing. biznes-reja) – korxona, mahsulot, uni ishlab chiqarish, sotish bozorlari, marketing, operatsiyalarni tashkil etish va ularning samaradorligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan xo‘jalik operatsiyalarini, kompaniyaning harakatlarini amalga oshirish rejasi. Biznesni rejalashtirish – bu har qanday rejalashtirilgan va ishlab chiqilgan harakat dasturlari orqali maqsadlar va ularga erishish yo‘llarini aniqlash, ularni amalga oshirish jarayonida o‘zgargan sharoitlarga muvofiq tuzatish mumkin” deb keltirilgan [24].

Xorijlik iqtisodchi olimlar Gustav Berl va Pol Kirshner “Bir lahzada tayyorlanuvchi biznes-reja” asarida “biznes-reja korxonangiz gullab-yashnashi uchun kerakli yo‘lni tanlab olishingizga xizmat qiluvchi hujjatdir. Biznesingiz bilan bog‘liq bo‘lgan eng ahamiyatli holat bu menejmentdir. Qisqasi bu – siz” [8] degan fikrni bildirgan. Xorijlik soha mutaxassisi Edvard Blekvellning “Kak sostavit biznes-plan” asarida keltirilishicha: “Biznes-reja bank yoki boshqa moliyaviy muassasalardan pul olish kerak bo‘lganda, shuningdek, aksiyalar emissiyasida foydalaniluvchi rejadir” [6]. Xorijlik professor V.P. Gruzinova muharrirligi ostida nashr qilingan “Korxona iqtisodiyoti” darsligida: “biznes-reja biron-bir tijorat loyihasini amalga oshirish yoki yangi korxona yaratish uchun mo‘ljallangan asoslangan hatti-harakatlar yig‘indisini ifodalovchi hujjatdir”, shuningdek, “Korxona biznes-rejasi – yangi korxona yaratishni ko‘zda tutuvchi hujjatdir” kabi fikr-mulohazalarni bildirganlar [7].

“Biznes-reja – bu butun jamoaga to‘g‘ri yo‘nalishda harakat qilishda yordam beradigan yo‘l xaritasi. Qoida tariqasida, Biznes-reja biznesning o‘ziga xos xususiyatlariga va bozor xususiyatlariga qarab bir-yildan uch yilgacha ishlab chiqiladi. Biroq rejani har yili o‘zgartirish (tuzatish) kerak degan nuqtayi nazar mavjud, chunki

tashqi omillar va iqtisodiy o‘zgarishlarning mavjudligi kompaniyaning maqsadlari va moliyaviy ko‘rsatkichlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi mumkin” [15].

Diskussiya. Biznes-rejaning maqsadi biznesni amalga oshirishning haqiqiy imkoniyatlarini ko‘rsatish, shuningdek, tashqaridan investitsiyalarni jalb qilish zarurligini (yoki yetishmasligini) ko‘rsatishdir. Shundan kelib chiqib, biznes-reja ikki guruh foydalanuvchilarni qabul qiladi:

- ichki – biznes g‘oyaning asoschilari, xodimlari va tashabbuskori;
- tashqi – potensial investorlar, hamkorlar, kreditorlar.

TACIS metodikasi bo‘yicha ishlab chiqilgan biznes-rejaning tuzilishi keng tarqalgandir [14]:

“1. Rezyume
2. Korxona maqsadlari
3. Mavjud korxona faoliyati
4. Boshqaruv
5. Bozor
6. Mahsulotlar
7. Narxlash
8. Yetkazib beruvchilar
9. Moddiy resurslar
10. Binolar
11. Xodimlar
12. Foyda va prognozlar
13. Moliyaga ehtiyoj” [25].

Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki hamkorlar uchun metodikaning soddalashtirilgan variantni ishlab chiqdi:

1. Sarlavha sahifasi
2. Maxfiylik memorandumi
3. Rezyume
4. Kompaniya
4.1. Korxonaning rivojlanish tarixi va biznes-rejani tuzish vaqtidagi holati, joriy faoliyat tavsifi
4.2. Korxonaning egalari, boshqaruv xodimlari, xodimlari
4.3. Joriy faoliyat
4.4. Moliyaviy holat
4.5. Kreditlar
5. Loyiha
5.1. Loyiha haqida umumiy ma’lumot
5.2. Loyiha investitsiya rejasi
5.3. Bozor tahlili, raqobatbardoshlik
5.4. Ishlab chiqarish jarayonining tavsifi
5.5. Moliyaviy reja
5.6. Atrof-muhitni baholash
6. Moliyalashtirish
6.1. Kredit mablag‘larini olish va to‘lash jadvallari
6.2. Garov va kafillik
6.3. Kredit mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladigan uskunalar va ishlar
6.4. SWOT tahlili
6.5. Xatarlar va ularni kamaytirish choralari
7. Ilovalar” [14].

“YevrAzESga a’zo mamlakatlarning sanoat integratsiyasini qo‘llab-quvvatlash” nomli YUNIDO proyekti 2-qismi “Strategik boshqaruv va biznesni rejalashtirish”da biznes-reja tuzilishiga quyidagicha yondashuvni keltirganlar:

“1. Rezyume.
2. Taklif etilayotgan loyihaning g‘oyasi (mohiyati):
2.1. Umumiy dastlabki ma’lumotlar va shartlar;
2.2. Yangi mahsulot namunasining tavsifi;
2.3. Biznes tajribasini baholash;
2.4. Bozorni baholash;
2.5. Yangi mahsulot iste’molchilarining tavsifi;
2.6. Raqobatchilarni baholash;
2.7. Raqobatchilarga nisbatan o‘zingizning kuchli va zaif tomonlaringizni baholash.

3. Marketing rejasi:
3.1. Marketing maqsadlari;
3.2. Marketing strategiyasi;
3.3. Marketing rejasini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash.
4. Ishlab chiqarish rejasi:
4.1. Yangi mahsulot ishlab chiqaruvchisi;
4.2. Mavjudligi va talab qilinadigan ishlab chiqarish quvvati;
4.3. Ishlab chiqarishning moddiy omillari;
4.4. Ishlab chiqarish jarayonining tavsifi.
5. Tashkiliy reja:
5.1. Korxona mulkchiligining tashkiliy-huquqiy shakli;
5.2. Kompaniyaning tashkiliy tuzilishi;
5.3. Vazifalarni taqsimlash;
5.4. Hamkorlar haqida ma’lumot;
5.5. Tashqi biznes muhitining tavsifi;
5.6. Korxonaning mehnat resurslari;
5.7. Boshqaruv jamoasi a’zolari haqida ma’lumot.
6. Moliyaviy reja:
6.1. Daromad va xarajatlar rejasi;
6.2. Naqd pul tushumlari va to‘lovlar rejasi;
6.3. Kompaniya aktivlari va passivlarining konsolidatsiyalangan balansi;
6.4. Zararsizlik jadvali;
6.5. Moliyalashtirish strategiyasi (mablag‘lar manbalari va ulardan foydalanish);
6.6. Xatarlarni baholash va sug‘urta qilish.
7. Ilova” [25].

XULOSA

Biznes-reja tushunchasiga berilgan ta’riflar va yondashuvlarni e’tiborga molik deb hisoblagan holda mazkur tushunchaga o‘z yondashuvimizni shakllantirdik: “Biznes-reja – bu baliqchilik xo‘jaligining batafsil tavsifini beruvchi, maqsad va vazifalarni shakllantiradigan, biznesni rivojlantirish yo‘nalishlarini belgilaydigan, shuningdek, moliyaviy xarajatlarni asoslaydigan va biznes g‘oyasini amalga oshirishda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavflarni hisoblaydigan hujjat. Biznes-rejani ishlab chiqishning asosiy maqsadi baliqchilik xo‘jaligi faoliyatini bozor ehtiyojlari va zarur resurslarni olish imkoniyatlariga muvofiq yaqin davrga rejalashtirishdir”.

Biznes-reja tuzilishi bo‘yicha iqtisodiy manbalardagi yondashuvlarni o‘rganish asosida hamda baliqchilik xo‘jaliklarining xususiyatlarini inobatga olgan holda biznes-reja tuzilishi quyidagi bo‘limlarni o‘z ichiga olishi kerak degan, o‘z yondashuvimizni shakllantirdik:

“1. Rezyume
2. Xo‘jalik tavsifi
3. Mahsulot tavsifi
4. Bozor va tarmoq tahlili
5. Marketing rejasi
6. Ishlab chiqarish rejasi
7. Tashkiliy reja
8. Risk tahlili
9. Moliyaviy reja
10. Ilova”.

Rezyumega quyidagi ma’lumotlar kiritilishi kerak:

- loyihaning barcha xususiyatlarini ochib berish, shu jumladan: xo‘jalik maqsadlari;
- mahsulotlarning o‘ziga xos xususiyatlari;
- sotish bozorlari va raqobat;
- xo‘jalikni tashkil etish va boshqarish;
- xo‘jalik haqida moliyaviy ma’lumotlar;
- xo‘jalik uchun potensial foyda.

Xo‘jalik tavsifi bo‘limida xo‘jalikning umumiy tavsifi bo‘lishi kerak. Bo‘limning asosiy elementlari quyidagilar bo‘lishi lozim:

- xo‘jalik haqidagi asosiy ma’lumotlar;
- xo‘jalikning qisqacha tarixi;

- asosiy faoliyati bo‘yicha biznes turi;
- xo‘jalikning joylashgan joyi;
- xo‘jalik faoliyatiga ta’sir etuvchi omillar;
- biznes maqsadlari va strategiyalari.

Mahsulot tavsifi bo‘limida xo‘jalik mahsulotlari tavsifi berilgan va ularga har tomonlama baho beriladi. Mahsulotni tanlash u qanoatlantiradigan iste’molchi fazilatlari nuqtayi nazaridan amalga oshirilishi kerak (“istak – qoniqish” zanjiri). Asosiy savol: mahsulotingizning o‘ziga xos xususiyati nimada, ular nima uchun uni sizdan sotib olishadi? Buning uchun quyidagi ma’lumotlar taqdim etilishi lozim:

- mahsulot bilan qondirilgan ehtiyojlar;
- sifat ko‘rsatkichlari;
- iqtisodiy ko‘rsatkichlar;
- boshqa shunga o‘xshash mahsulotlar bilan taqqoslash;
- patent muhofazasi;
- eksport ko‘rsatkichlari va uning imkoniyatlari;
- mahsulotni takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari;
- muvaffaqiyatning asosiy omillari.

Bozor va tarmoq tahlili bo‘limi biznes-rejani tayyorlashning eng muhim bosqichlaridan biri bo‘lib, u quyidagi savollarga javob berishi kerak: xo‘jalikning mahsulotlarini kim, nima uchun va qanday miqdorda sotib oladi. Materialni taqdim etayotganda, ayniqsa, xo‘jalik va uning rahbariyatiga ishonchni susaytirmaslik uchun o‘z imkoniyatlaringizni oshirib yubormasdan va raqobatchilarning imkoniyatlarini kamsitmasdan realizmni ko‘rsatish lozim. Biznes-reja quyidagi masalalarni aks ettirishi kerak:

- tarmoq xususiyatlari;
- baliqchilikni rivojlantirish tendensiyalari va istiqbollari;
- xo‘jalikning tarmoqdagi roli;
- xo‘jalik faoliyat yuritmoqchi bo‘lgan bozor turini aniqlash; bozor tuzilishini aniqlash;
- bozor sharoitlarini baholash;
- maqsadli segmentlarni tanlash;
- bozorda joylashish;
- sotish hajmining prognozi (jismoniy va pul ko‘rinishida);
- xo‘jalik va uning asosiy raqobatchilarining kuchli va zaif tomonlarini tahlil qilish;
- mahsulotlarning raqobatbardoshligini baholash;
- xo‘jalikning raqobatdosh ustunligi.

Marketing rejasi bo‘limida biznes-rejaning maqsadlaridan kelib chiqqan holda xo‘jalikning rejalashtirilgan marketing faoliyatining asosiy nuqtalarini ko‘rsatish tavsiya etiladi. Bo‘limning tuzilishi quyidagicha bo‘lishi lozim:

- marketing strategiyasi;
- mahsulot siyosati;
- narx siyosati;
- sotish siyosati;
- aloqa siyosati;
- marketing budjeti.

Ishlab chiqarish rejasi bo‘limi faqat ishlab chiqarish bilan shug‘ullanmoqchi bo‘lgan xo‘jalik tomonidan tayyorlanadi. Bo‘lim xo‘jalikning kerakli miqdorda mahsulot ishlab chiqarishni talab qilinadigan muddatda va kerakli sifatda ishlab chiqarishga qodirligini ko‘rsatishi kerak. Shuningdek, ishlab chiqarish jarayonini yanada kengaytirish, modernizatsiya qilish, moslashuvchanlik va harakatchanlik imkoniyati ham berilishi lozim. Bo‘lim tarkibi quyidagi shaklga ega bo‘lishi kerak:

- xo‘jalikning joylashgan joyi;
- uzoq muddatli aktivlarga (kapital qo‘yilmalarga) ehtiyoj;
- ishlab chiqarish quvvatlari va ularning rivojlanishi;
- aylanma mablag‘larga bo‘lgan ehtiyoj;
- ishlab chiqarish texnologiyasi;
- ishlab chiqarish jarayoni va operatsiyalari;
- mehnatni tashkil etish;
- sifat nazorati va atrof-muhitni muhofaza qilish;
- xarajatlar prognozi.

Tashkiliy bo‘lim xo‘jalikning boshqaruv tizimi va uning kadrlar siyosatiga bag‘ishlangan bo‘lishi kerak. Bo‘limning tuzilishi quyidagi shaklga ega bo‘lishi lozim:

- faoliyatni huquqiy ta’minlash;
- tashkiliy tuzilma;

- asosiy boshqaruv xodimlari;
- kompaniyaning kadrlar siyosati;
- kalendar rejasi.

Risk tahlili bo‘limining maqsadi xo‘jalik faoliyatini amalga oshirishdagi asosiy xavflarni aniqlash, ularning manbalari va sabablarini tahlil qilish, mumkin bo‘lgan zararni baholash va xavflarni kamaytirish choralarini ko‘rishdan iborat bo‘lishi lozim. Ushbu bo‘lim quyidagi komponentlarni o‘z ichiga olishi kerak:

- xavf tahlili, loyiha riskini baholash;
- xavf yo‘qotishlari, loyihaning xavf sohasi turi;
- xavflarni oldini olish va zararsizlantirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar;
- xavflarni sug‘urta qilish dasturi.

Moliyaviy reja bo‘limi biznes-reja bo‘limlarining barcha oldingi materiallarini umumlashtiradi va ularni moliyaviy formulalar va xarajatlar ko‘rsatkichlari shaklida taqdim etadi, shuningdek, investitsiyalarni olish va taklif etilayotgan loyihaning samaradorligini aniqlash rejasini o‘z ichiga olishi kerak. Bo‘lim uchta yo‘nalishni birlashtirishi lozim:

1. Xo‘jalik faoliyatining moliyaviy-iqtisodiy natijalari:
- xo‘jalikning moliyaviy hisoboti;
- xo‘jalikning moliyaviy-iqtisodiy holatini tahlil qilish;

2. Asosiy moliyaviy ko‘rsatkichlarni rejalashtirish:
- xo‘jalik balansining asosiy prognozi;
- aktivlar moliyaviy va passiv foyda va zararlar prognozi;
- pul oqimi prognozi;
- loyihani moliyaviy baholash;
- moliyaviy xavfsizlik marjasi prognozi;

3. Xo‘jalikning moliyaviy strategiyasi:
- investitsiya ehtiyojlari va ularni moliyalashtirish manbalari;
- umuman xo‘jalikning samaradorligini baholash;
- xo‘jalik faoliyatida ishtirok etish samaradorligini baholash;
- xo‘jalikni tahlil qilish.

Ilovada odatda asosiy matnda ko‘rsatilmasligi kerak bo‘lgan materiallar berilishi kerak. Biznes-rejaga qo‘shimchalar biznes-reja ishlab chiqilgan ma’lumotlarning to‘g‘riligini tasdiqlovchi turli xil hujjatlarni taqdim etishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida tavsiya etilayotgan tuzilishdagi biznes-reja baliqchilik xo‘jaliklarini rivojlantirish uchun asos bo‘ladi. Mazkur biznes-reja asosida ishlab chiqarishni tashkil etish va unga amal qilish baliqchilik xo‘jaligining ko‘zlangan asosiy maqsadiga, ya’ni biznes-rejada ko‘rsatilgan sof foyda olishini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-maydagi “Baliqchilik tarmog‘ini boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2939-son qarori. https://lex.uz/docs/3188263.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 6-apreldagi “Baliqchilik tarmog‘ini jadal rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3657-son qarori. https://lex.uz/docs/3642735?otherlang=1.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 6-noyabrdagi “Baliqchilik sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4005-son qarori. https://lex.uz/docs/4046069.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 13-sentyabrdagi “Baliqchilik tarmog‘ini kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 719-son qarori. https://lex.uz/docs/3343140.
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-iyuldagi “Baliqchilik sohasidagi ilmiy faoliyatni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 606-son qarori. https://lex.uz/docs/3844512
6. Эдвард Блэквелл. Как составить бизнес-план. Издательство: –М.: Инфра-М. Переплет: мягкий.–160 страниц; 1996 г. ISBN: 5-86225-056-5; Формат: стандартный.
7. Экономика предприятия. Под ред. проф. Грузинова В.П.–М.: “ЮНИТИ”, –1998.
8. Густав Берл, Пол Киршнер. Мгновенный бизнес-план. –М.: ИНФРА –М. –2001.
9. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2001. 2-jild. 20-b.
10. Густав Берл, Пол Киршнер. Мгновенный бизнес-план. –М.: ИНФРА –М. –2001.
11. B.Menglikulov. Biznes-reja uni tuzishda nimalarga e’tibor qaratish lozim? “O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi” jurnali. – Toshkent, 2004. -№ 9. Sentyabr. – B. 12-13.
12. B.Menglikulov. Biznes-reja / “O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi” jurnali. – Toshkent, 2005. –№ 3. Mart. – B. 7.
13. B.Menglikulov. Qishloq xo‘jaligi korxonalari faoliyatini moliyaviy rejalashtirish / “Bozor, pul va kredit” jurnali. – Toshkent, 2006. –№ 4. – B. 38-40.
14. Обзор методик формирования инвестиционного бизнес-плана. М.В.Чараева, А.В.Палеев // Финансы и кредит. –2014. –№ 18. –С. 2-8.

15. Бизнес-план на 100 %: Стратегия и тактика эффективного бизнеса / Р. Абрамс, пер. с англ. 3-е изд. М.: Альпина Паблишер.–2016.
16. B.Y.Menglikulov, I.R.Davletov, B.K. Uralov O.R.Fayziyev Biznes reja: mazmuni, tarkibi, ishlab chiqish tartibi va ahamiyati / “Agrar tarmoq iqtisodiy salohiyatini oshirishda institutsional islohotlar va agroklasterlarni rivojlantirishning o‘rni: muammo va yechimlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plami. – Toshkent, 2021. – B. 346-351.
17. I.S. Ochilov, S.K. Haydarov. Clusters in the economy of Uzbekistan and their issues of economic efficiency / Asian Journal of Research in Business Economics and Management 11 (10), 106-110, 2021.
18. O.R.Fayziev. A.H.Yo‘ldoshboev. Food security issues in the digital economy / Web of Scientist: International Scientific Research Journal (June, 2022). – Indonesia, 2022. – Volume 3. – Issue 6. – P. 807-810 (ISSN: 2776-0979).
19. O.R.Fayziyev, S.A.Abdug‘anieva, A.H.Yo‘ldoshboev. Issues of improving the organizational and economic framework for the organization of agro-clusters / Galaxy international interdisciplinary research journal (GIIRJ) (June 2022). – India, 2022. – Volume 10. – Issue 6. – P. 573-576 (ISSN (E): 2347-6915).
20. O.Fayziyev, D.Saidova, S.Sheraliyeva / Qishloq xo‘jaligida go‘sht va go‘sht mahsulotlari ishlab chiqarishning hozirgi holati tahlili / Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук 2 (13), 2022, 280-284.
21. I.Yunusov, U.Sangirova, U.Ahmedov, O.Fayziev, U.Kholiyorov. Clustering of agriculture in the republic of Uzbekistan / E3S Web of Conferences 381, 02002 (2023) Aquaculture 2022 (https://doi.org/10.1051/e3sconf/202338102002);
22. O.Fayziyev, A.Aitimbetov. Baliqchilik tarmog‘ida samaradorlikni baholash masalalari. / “Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot”. – Toshkent, 2023. –№ 11-12. – B. 1380-1388.
23. I.S. Ochilov. Improving the analysis of the mezzanine financing in Uzbekistan clusters / The American Journal of Management and Economics Innovations 5 (09), 25-29, 2023.
24. ВикипедиЯ (свободная энциклопедия). Бизнес-планирование. https://ru.wikipedia.org/wiki.
25. Экономические основы модернизации и технологического развития промышленных предприятий. Стратегическое управление и бизнес-планирование. Центр международного промышленного сотрудничества ЮНИДО в Российской Федерации. https://unido.ru/upload/files/d/documenti.

MAMLAKATNING INVESTITSIYAVIY JOZIBADORLIGI VA UNING LIZING MUNOSABATLARI RIVOJLANISHI BILAN BOG‘LIQLIGI

Axmediyeva Aliya Toxtarovna
DSc, Makroiqtisodiy tahlil va prognozlashtirish kafedrasi professori v.b.

Annotatsiya: Ushbu maqolada lizing tarkibiy qismlarini hisobga olgan holda mamlakat investitsion muhitini shakllantirishga omilli yondashuv va investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini baholash usullari, lizing faoliyatini rivojlantirish asosida investitsiyaviy xavflarni kamaytirish usullari ilmiy jihatdan tadqiq etilgan, lizing amaliyotlari hisobini yuritishga nisbatan uslubiy yondashuvning o‘ziga xos xususiyatlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: investitsion muht, lizing, omil, uslubiy yondashuv, investitsiya, xususiyat, samaradorlik, baholash, risk.

Abstract: Analysis of the experience of foreign countries allows us to identify common trends and features that contribute to the successful development of regional economies and social structures. The study provides a basis for the development and implementation of effective strategies for the socio-economic development of national territories.

Key words: socio-economic development, strategy, territorial transformation, foreign experience, methodology, practical, theory.

Аннотация: В данной статье исследован факторный подход к формированию инвестиционного климата страны и методы оценки экономической эффективности инвестиций с учетом лизинговых составляющих, методы снижения инвестиционных рисков на основе развития лизинговой деятельности, раскрыты особенности методического подхода к учету лизинговых операций.

Ключевые слова: инвестиционный климат, лизинг, фактор, методический подход, инвестиции, особенность, эффективность, оценка, риск.

KIRISH

Bugungi kunda innovatsion texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va sanoat ishlab chiqarish tarmoqlarining raqobatbardoshligini ta’minlash, asosiy kapitalni texnologik qayta ishlab chiqarishga investitsiyalarni jalb etish, tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

O‘zbekistonda investitsiya mexanizmlarini takomillashtirishning makroiqtisodiy masalalariga alohida e’tibor qaratilib, bu borada quyidagi maqsad qo‘yilmoqda: “Mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh-yilda 120 milliard AQSH dollari, jumladan, 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralarini ko‘rish”[1]. Bu maqsadning izchil va samarali amalga oshirilishi mamlakatimiz iqtisodiyotiga sarmoya kiritishning lizing mexanizmining ulushini sezilarli darajada oshiradi. Lizing kompaniyalari tomonidan investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun investitsiyalarni jalb qilishda lizing vositasining ulushini oshirish muhim ahamiyatga ega. Lizing investitsiyalari bilan bog‘liq lizing faoliyatini qo‘llab-quvvatlashning maxsus fondini tashkil qilish va uning ishlash mexanizmlarini shakllantirish hamda qiymat zanjiri bo‘ylab klaster lizingni joriy etish, ixtisoslashtirilgan virtual savdo maydoni, lizing xizmatlari bozori ishtirokchilari uchun interaktiv platformalar va lizing aktivlarini sekyuritizatsiya qilish orqali erishiladi.

ADABIYOT SHARHI

Iqtisodiy adabiyotlarda xorijiy tadqiqotchilar sarmoyaviy muhitni quyidagicha ta’riflaydilar: J.Dauns va G.Elliotlar investitsiya muhitini “investitsiyalar samaradorligiga ta’sir etuvchi iqtisodiy, moliyaviy va boshqa shart-sharoitlar” deb ta’riflaydilar[2].

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarda Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida”gi, PF-60-son Farmoni. www.lex.uz.

2 Доунс Дж., Гудман Дж. Э. Финансово – инвестиционный словарь. 3-е изд. –М.: Инфра-М, 2017. –с. 255

M. Mur va X. Shmitzning ta'rifi investitsiya muhitini investorlarning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashga bo'lgan ishonchi sifatida baholash investitsiya muhitini tadqiq qilish sohasidagi eng nufuzli nashrlardan biriga mos keladi[3].

Rivojlanayotgan mamlakatlarda investitsiya muhitini yaxshilash yo'llarini o'rganishga bag'ishlangan World Development Report jurnalida siyosiy noaniqlikni biznes yuritishdagi eng og'ir to'siq deb atagan tadbirkorlar o'rtasida o'tkazilgan so'rov natijalari keltirilgan[4].

Jahon banki tomonidan World Development Report berilgan "investitsiya muhiti" ta'rifi ilmiy jamoatchilik tomonidan tanqid qilinadi, Jahon bankining fikriga ko'ra, "investitsiya muhiti har bir hudud uchun individual omillar to'plami bo'lib, ular kompaniyalarning imkoniyatlarini belgilaydi va ularni samarali investitsiyalar qilish uchun rag'batlantiradi, ish o'rinlarini yaratish va ularning faoliyatini kengaytirishdir"[5].

Boshqacha qilib aytganda, investitsiya muhiti – bu investitsiyalar bog'liq bo'lgan barcha narsalar. Ko'pgina tadqiqotchilar „investitsion jozibadorlik" va „investitsiya muhiti" toifalarini aniqlaydilar, xuddi shu tarzda investitsiya muhiti investitsiya jozibadorligini uzoq muddatli kuzatishdan iborat. Kompaniyalar duch keladigan asosiy cheklovlarni bartaraf etish, ularni sarmoya kiritishga undash, shuningdek, transformatsiya jarayonini doimiy qo'llab-quvvatlash orqali sezilarli yutuqlarga erishish mumkin[6].

Bizning fikrimizcha, investitsiya muhitining eng aniq ta'rifi A. A. Burkovning nashrlarida keltirilgan: "investitsiya muhiti – bu milliy iqtisodiyotga xos bo'lgan boshqariladigan omillar va xavflarning o'zaro bog'liqligi"[7].

Ushbu ta'rifning afzalligi, birinchi navbatda, investitsiya muhitining tarkibiy qismlari nafaqat o'zaro bog'liq, balki tartibga solinishini ham ko'rsatadi.

Ilmiy adabiyotlarni tizimlashtirish va umumlashtirish shuni ko'rsatadiki, hozirgi vaqtda lizing investitsiya siyosatining samarali vositasi sifatida ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun katta ahamiyatga ega[8].

Ilmiy adabiyotlarni tizimlashtirish va umumlashtirish shuni ko'rsatadiki, hozirgi vaqtda lizing investitsiya siyosatining samarali vositasi sifatida ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun katta ahamiyatga ega[9].

Kredit, investitsiya va moliyaviy operatsiyalar elementlarini birlashtirgan o'ziga xos iqtisodiy tabiati tufayli ushbu faoliyat turi ichki iqtisodiyotning real sektori tarmoqlarini modernizatsiya qilishga va uning investitsion jozibadorligini oshirishga muhim hissa qo'shishi mumkin.

ASOSIY QISM (METODOLOGIYA, NATIJALAR)

1-rasm: O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari (joriy narxlarda, mlrd. so'm)[10]

3 World Development Report 2015 A Better Investment Climate for Everyone
4 World Development Report 2015 (A Better Investment Climate for Everyone). B WDR 2021.
5 World Development Report 2015 (A Better Investment Climate for Everyone). B WDR 2021.
6 Обзор. Доклад о мировом развитии 2015. – Нью- Йорк и Женева: ЮНКТАД, 2021. –с. 19.
7 Бурков, А.А. Госрегулирование инвестиций в условиях глобализации [Текст]: автореф. дис. на соиск. учен. степ. канд. экон. наук: 08.00.01. –Москва, 2012.
8 Ляшенко В.И. Использование лизинга в развитии предпринимательства и инвестиционной сферы за рубежом. / В.И. Ляшенко, В.В. Бережной / НАН Украины. Ин-т экономики промышленности. – Донецк.–2017. – 84 с
9 Ляшенко В.И. Использование лизинга в развитии предпринимательства и инвестиционной сферы за рубежом. / В.И. Ляшенко, В.В. Бережной / НАН Украины. Ин-т экономики промышленности. – Донецк. –2017. – 84 с.
10 Статистический сборник "Промышленность Узбекистана". – Ташкент, 2022.

O‘zbekiston Respublikasi rivojlanishining makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, investitsiyalar va iste’mol hajmi oshishi yalpi ichki mahsulotning 2018-yilda 426614,0 mlrd so‘mdan 2022-yilda 888341,7 mlrd so‘mgacha o‘sdi, 2021-yilda ushbu ko‘rsatkich aholi jon boshiga 21149,1 ming so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa 2022-yilda 24919,7 ming so‘mgacha oshdi (1-rasm).

Koronavirus pandemiyasi sharoitida, aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va iqtisodiyot tarmoqlari faoliyati barqarorligini ta’minlash maqsadida, lizing xizmatlari, ayniqsa, iqtisodiyotning COVID-19 ta’siriga uchragan: transport, sayyohlik, umumiy ovqatlanish, qurilish va boshqa tarmoqlarida talab kamaydi[11].

Lizing munosabatlarining rivojlanishiga yordam beruvchi omillarni aniqlab bergan tahlil o‘tkazildi. Uslubiy yondashuvning asosini ahamiyati bo‘yicha o‘xshash ko‘rsatkichlardan iborat makro-, mezo- va mikrodarajalarga ta’sir etuvchi omillar tashkil etadi (2-rasm).



2-rasm: Lizing munosabatlarini rivojlantirishning omilli tahlil qilish uslubiyoti[12]

11 Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 3 апрелдаги ПФ-5978-сонли “Коронавирус пандемияси даврида аҳоли, тадбиркорлик субъектлари ва иқтисодиёт тармоқларини қўллаб-қувватлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Фармони. lex.uz›docs/4780475

12 Ilmiy adabiyotlarni umumlashtirish asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Lizing kompaniyalari mutaxassislari o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rov natijalari shuni ko‘rsatdiki, lizing xizmatlari bozorini rivojlantirish uchun barqaror iqtisodiy o‘sish omillari ustuvor ahamiyatga ega (so‘rovda qatnashganlarning 38,5 foizi). Respondentlarning fikriga ko‘ra, bozorni rivojlantirishning navbatdagi muhim shartlari lizing kompaniyalari uchun qarz mablag‘lari qiymatini pasaytirish (21,3 foiz) va moliyaviy resurslardan foydalanishni osonlashtirish (15,6 foiz) bo‘lishi kerak[13].



3-rasm: Lizing to‘lovlarini hisoblash usullarining qiyosiy tavsifi (afzallik va kamchiliklarni baholash)[14]

13 O‘zbekiston Respublikasi lizing kompaniyalari mutaxassislari bilan 2019-yilda o‘tkazilgan intervyu asosida tuzilgan.
14 Ilmiy adabiyotlarni umumlashtirish asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Lizingning funksiyalari xo‘jalik yurituvchi subyekt darajasida ham, makro va mezo darajada ham iqtisodiy salohiyatni oshirishga yordam beruvchi investitsiyalarni moliyalashtirish shakli sifatida belgilangan; uslubiy yondashuvning asosini lizing bozorini rivojlantirishning ishlab chiqilgan makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari tashkil etdi. Investitsiyalarning quyidagi lizing sig‘imi makroiqtisodiy ko‘rsatkichlaridan foydalanish maqsadga muvofiq:

- lizingning YAIMdagi solishtirma ulushi;
- lizingning asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalardagi solishtirma ulushi;
- uskunalar, transport vositalari lizingining uskunalar va transport vositalariga kiritilgan investitsiyalardagi solishtirma ulushi.

Lizingning investitsiya jarayonlaridagi o‘rni va ahamiyatini, shu jumladan, lizing shartnomasi amalda bo‘lgan butun muddat uchun lizing mulkining amortizatsiyasini, lizing beruvchining u foydalangan qarz mablag‘lari uchun kompensatsiya to‘lovining qoplab berilishini, lizing beruvchiga vositachilik haqini, lizing shartnomasi bo‘yicha lizing beruvchining qo‘shimcha xizmatlari uchun to‘lovni, sotib olinadigan mulkning qiymatini, agar u shartnomada va uni to‘lash tartibida nazarda tutilgan bo‘lsa, lizing mulki uchun hisoblangan soliq summasini hisobga olgan holda lizing to‘lovlari usullarini qiyosiy tahlil qilish taklif etiladi (3-rasm).

Shu munosabat bilan tashqi tabiiy-iqlim va bozor omillarining salbiy ta’sirini hisobga olgan holda qishloq xo‘jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilari natijadorlik va samaradorlik ko‘rsatkichlari asosida lizing shartnomasi shartlarini moslashuvchan qayta ko‘rib chiqish imkoniyatini nazarda tutuvchi lizing to‘lovlarini to‘lash jadvalini hisoblab chiqishning yangi uslubiy vositalari taklif etiladi (qishloq xo‘jaligi misolida).

Lizing samaradorligini baholash va investitsiya loyihalari samaradorligini quyidagi baholash usullari investor sifatida lizing beruvchi uchun juda muhim bo‘lishi mumkin: sof joriy qiymatni aniqlash usuli; investitsiyalar rentabelligini hisoblab chiqish usuli; daromadning ichki normasini hisoblab chiqish usuli; investitsiyalarning o‘zini oqlash muddatini hisoblab chiqish usuli; investitsiyalarning buxgalteriya rentabelligini aniqlash usuli. Lizing oluvchi uchun lizing samaradorligini baholashning barcha usullarida asosiysi lizing uchun sarflar yoki xarajatlarni hisoblab chiqish bo‘lib, u lizing oluvchi tomonidan lizing to‘lovlarini aniqlab olishni nazarda tutadi.

Masalan, O‘zbekiston Respublikasida lizing munosabatlarini rivojlantirishda lizing to‘lovlarining qaytarilmasligi bilan bog‘liq xavflarni sug‘urtalash segmentini rivojlantirish; lizing beruvchining tavakkalchilik bilan bog‘liq xavflarini, shu jumladan lizing va garov obyektini yo‘qotish xavfini yoki kredit xavflarini qoplash uchun “universal sug‘urta”ni ishlab chiqish; “muammoli mijozlar” (lizing bitimlari tarixi byurosi) to‘g‘risida ma’lumot almashish;

O‘zbekistonning xorijiy kreditorlari va lizing kompaniyalari xavflarini sug‘urta qilish masalalarini hal etish hozirgi kunda juda muhim ahamiyat kasb etadi. Lizing kompaniyalari mutaxassislari o‘rtasida o‘tkazilgan ijtimoiy so‘rov natijalariga ko‘ra, xavflarni pasaytirish ustuvorligining quyidagi natijalariga erishildi: so‘ralgan bozor respondentlarining 32,1 foizi kompaniyalarning xavflarni boshqarishda garov miqdoriga qo‘llaniluvchi joriy talablarni yumshatish kerak, deb hisoblaydi, so‘rov ishtirokchilarining 24,2 foizi bo‘nak to‘lovining minimal darajasini pasaytirish imkoniyati bor, deb hisoblaydi, respondentlarning 10,4 foizi o‘z mablag‘larining yetarlilik darajasiga nisbatan talablarni yumshatish mumkin, 14,0 foizi esa lizing oluvchining moliyaviy barqarorligiga qo‘yiladigan talablarni kamaytirish mumkin deb hisoblaydi.

Moliyaviy-iqtisodiy ko‘rsatkichlarning ma’lum tarkibidan foydalanilgan holda xavflarni baholash bo‘yicha ekspert usullariga asoslangan va quyidagi guruhlarga bo‘lingan iqtisodiy tahlil usulini taklif qiladi[15]: lizing oluvchining umumiy xususiyatlari, moliyaviy barqarorligi, lizing oluvchining investitsiya loyihasi sifati; lizing bitimining sifati va bitimning xavf darajasini umumiy baholash (1-jadval).

1-jadval: Lizing oluvchi bilan tuzilgan bitimning xavflilik darajasini aniqlash usuli[16]

№	Nomi	Mezon	Norma (ballar)	Olingan (ballar)	Og‘irlik koeffitsiyentlari	Reyting raqami
1	**I. Lizing oluvchining xususiyatlari**					
1.	Tranzaksiya tarixi	Muvaffaqiyatli	100	100	0,05	5,0
		Yo‘q	0			
2.	Korxona boshqaruvi	Rahbar yuqori malakali va tajribali	60	60	0,05	3,0
		Rahbariyatda tajriba yo‘q	0			

15 Mazkur yondashuv lizing kompaniyalarida muhokama qilindi.
16 Muallif hisob-kitobi.

№	Nomi	Mezon	Norma (ballar)		Olingan (ballar)	Og‘irlik koeffitsiyentlari	Reyting raqami
3.	Ishlab chiqarishni tashkil etish darajasi	Yuqori	100		60	0,2	12,0
		O‘rta	60				
		Past	0				
4.	Kompaniyaning bozordagi o‘rni	Monopolist	100		60	0,4	24,0
		Bozorning muhim segmenti	60				
		Bozordagi ulushi sezilarsiz	0				
5.	Tarmoq xususiyatlari	Dinamik rivojlanish	100		60	0,3	18,0
		Barqarorlik	60				
		Pasayish	0				
	Jami	-	-		-	1,0	62,0
2	**II.Moliyaviy barqarorlik**						
2.1.	Rentabellik	Yuqori	60		60	0,2	12,0
		Past	0				
2.2	Likvidlik	Yuqori	100		100	0,5	50,0
		Past	0				
2.3	Aylanib turishligi	Yuqori	100		100	0,3	30,0
		Past	0				
	Jami					1,0	92,0
3	**III. Lizing oluvchining investitsiya loyihasi sifati**						
3	Loyihaning iqtisodiy samaradorligi						
3.1	ChDD	<0	0		100	0,3	30,0
		>0	100				
3.2	Ichki daromad me’yori	Maqbul	100		100	0,1	10,0
		Nomaqbul	0				
3.3	Qoplanish muddati (chegirmali)	<lizing muddati	100		100	0,3	30,0
		>lizing muddati	0				
3.4	To‘lov qobiliyati	To‘lashga qodir	100		60	0,3	18
		To‘lashga qodir emas	0				
	Jami	-	-		-	1,0	88,0
4	**IV. Lizing shartnomasining sifati**						
4.1	Lizing obyektining likvidligi	Yuqori	100		60	0,3	18,0
		O‘rta	60				
		Past	0				
4.2	Qo‘llab-quvvatlash sxemasi	Mavjud emas	0		60	0,3	18,0
		Ishonchli	60				
4.3	Lizing beruvchi uchun tranzaksiya samaradorligi	Maqbul	100		100	0,4	40,0
		Nomaqbul	0				
	Jami					1,0	76,0

№	Nomi	Mezon	Norma (ballar)	Olingan (ballar)	Og‘irlik koeffitsiyentlari	Reyting raqami
5	**V. Bitimning xavf darajasini umumiy baholash**					
5.1	Lizing oluvchining tavsifi		100,0	62,0	0,2	12,4
5.2	Moliyaviy barqarorlik		100,0	92,0	0,3	27,6
5.3	Lizing oluvchining investitsiyaviy loyihasi sifati		100,0	88,0	0,2	17,6
5.4	Lizing shartnomasining sifati		100,0	76,0	0,3	22,8
	Jami		100,0		1,0	80,4
6	**VI. Xavf toifalarini baholash va qaror qabul qilish**					
6.1	Ishtirok etish mumkin		100 va undan yuqori	80,4		
6.2	Ishtirok etish mumkin, ammo qo‘shimcha asoslash talab etiladi		70-100			
6.3	Ishtirok etish mumkin emas		50 dan kam			

Shunday qilib, tavsiya etilgan xavflarni baholash tizimi lizing kompaniyasida xavflarni boshqarish jarayonini ifodalaydi, shu bilan birga loyiha doirasida ham, butun portfelda ham daromadlilik, likvidlik va xavfning talab qilinuvchi nisbatlari, shuningdek, dastlabki ma’lumotlar, tahlil usullari va boshqaruv natijalarini o‘lchash qobiliyatini uslubiy jihatdan ta’minlaydi.

Lizingdan investitsiyalarning muhim muqobil manbayi sifatida, birinchi navbatda, ishlab chiqarishni texnik va texnologik modernizatsiya qilish dasturlarini amalga oshirish uchun foydalanish, shuningdek, lizing beruvchilarning resurs bazasini ko‘paytirish uchun moliyalashtirish manbalaridan keng foydalanish imkoniyatini ta’minlash uning mamlakat rivojlanishining makroiqtisodiy parametrlariga ta’siri oshishiga muhim hissa qo‘shadi. Omilli tahlil natijalari ko‘rsatishicha, uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi investitsiya muhitining sifati va lizing faoliyati institutlarining rivojlanish darajasiga bog‘liq. Tahlillar natijasida ma’lum bo‘lishicha, bugungi kunda lizingning asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalardagi ulushi ahamiyatsiz bo‘lib qolmoqda.

Shu bilan birgalikda lizing kompaniyalarini moliyaviy barqarorligini ta’minlashda quyidagilarga e’tibor berish kerak:

- bozor konyunkturasini hisobga olish, avtonomlik koeffitsiyentlari, likvidlik, moliyaviy leverij, o‘z aylanma mablag‘lari bilan ta’minlanganlik, investitsiyalarni qoplash, qisqa muddatli qarzlar bilan ta’minlanlashdagi ehtimoliy o‘zgarishlarga nisbatan ta’sirchanlik tahlili asosida lizing kompaniyalar moliyaviy barqarorligining reyting bahosini aniqlash uchun stress-test usullaridan foydalanish;
- lizing munosabatlarini rivojlantirishni tartibga solishning institutsional mexanizmlari lizing aktivlarini sekyuritizatsiya (securitization) qilish asosida takomillashtish.

TADQIQOTNING XULOSALARI VA KEYINGI ISTIQBOLLARI

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini rivojlantirishning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari asosida O‘zbekiston Respublikasi lizing bozorini rivojlantirishning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari va mintaqalar bo‘yicha investitsiyalarning lizing intensivligi ko‘rsatkichlari aniqlandi. Tadqiqotlar doirasida lizing tashkilotlari tomonidan ularning ishbilarmonlik faoliyati va hisobot yilidagi faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan omillarni baholash tahlili o‘tkazildi (sotsiologik so‘rov orqali).

Lizing tarkibiy qismlarini hisobga olgan holda investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini baholash usullari o‘rganildi. Lizing to‘lovlarini hisoblashning turli usullari umumlashtiriladi va ko‘rib chiqiladi, tahlil asosida lizing oluvchilar va lizing beruvchilarning imkoniyatlarini hisobga olgan holda lizing to‘lovlarini hisoblash usullari taklif etiladi.

Lizing faoliyatini rivojlantirish asosida investitsiya xatarlarini kamaytirish usullari, lizing operatsiyalarini hisobga olishga uslubiy yondashuvning xususiyatlari ochib berilgan. Lizing bitimi ishtirokchilarining har biri faoliyatida mavjud bo‘lgan umumiy va ma’lum bir subyektning operatsiyalari tabiati bilan belgilanadigan o‘ziga xos kabi lizing xatarlarini ikkita katta xavf guruhiga bo‘lingan holda tasniflash ishlab chiqilgan.

Lizing munosabatlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi omillar aniqlanib, milliy iqtisodiyotning investitsion jozibadorligini baholashning uslubiy yondashuvlari o‘rganildi. Uslubiy yondashuvning asosini o‘xshash ko‘rsatkichlardan tashkil topgan makro-, mezo- va mikrodarajalarga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar tashkil etdi.

Lizing munosabatlarini rivojlantirishni tartibga solishning institutsional mexanizmlari lizing aktivlarini sekyuritizatsiya (securitization) qilish asosida takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan;

Lizing xavflarini tasniflash mezonlari tavsiya etildi va lizing kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta’minlash usullari tizimlashtirildi. Ta’sirchanlik tahlili, avtonomiya koeffitsiyentlari, likvidlik, moliyaviy leverej, o‘z aylanma mablag‘lari bilan ta’minlash, investitsiyalarni qoplash, qisqa muddatli qarzlar asosida kompaniyaning moliyaviy barqarorligini stress-testdan o‘tkazish bo‘yicha takliflar berildi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarda Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida”gi, PF-60-son Farmoni. www.lex.uz.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-apreldagi PF-5978-sonli “Koronavirus pandemiyasi davrida aholi, tadbirkorlik subyektlari va iqtisodiyot tarmoqlarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni.
3. Бурков, А.А. Госрегулирование инвестиций в условиях глобализации: автореф. дис. на соиск. учен. степ. канд. экон. наук: 08.00.01 – Москва, 2016
4. Доунс Дж., Гудман Дж. Э. Финансово – инвестиционный словарь. 3-е изд. М.: Инфра-М, 2017. – с. 255
5. Ляшенко В.И. Использование лизинга в развитии предпринимательства и инвестиционной сферы за рубежом. / В.И. Ляшенко, В.В. Бережной / НАН Украины. Ин-т экономики промышленности. – Донецк, 2017. – 84 с
6. Тимофеев, Р.А. Разработка стратегии устойчивого регионального развития на основе реализации ресурсного потенциала: Дис. д-ра. экон. наук: 08.00.05 / Тимофеев Роман Андреевич. – Казань, 2015. – 484 с.
7. World Development Report 2021 A Better Investment Climate for Everyone
8. Обзор. Доклад о мировом развитии 2021. – Нью- Йорк и Женева: ЮНКТАД, 2021. –с. 19.
9. Статистический сборник “Промышленность Узбекистана”. – Ташкент, 2022.
10. O‘zbekiston Recpublikasi lizing kompaniyalari mutaxassislari bilan 2019-yilda o‘tkazilgan intervyu asosida tuzilgan.

TURIZMNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

Ziyadullayev Ilhom Narkabilovich
TDAU “Biznesni boshqarish” kafedrasi assistenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada respublikamizda turizmni rivojlantirish omillari hamda bu borada amalga oshirilayotgan natijalar to‘g‘risida ma’lumotlar yoritilgan. Undan tashqari turizmni rivojlantirish uchun infratuzilmani ahamiyati va turizm yo‘nalishidagi infratuzilma obyektlari tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: turizm, texnologiya, infratuzilma, integratsiya, globallashuv, shartnoma, islohot, transformatsiya, samaradorlik.

Abstract: This article contains information about the factors of tourism development in our republic and the results realized in connection with this. In addition, the importance of infrastructure for the development of tourism and infrastructure facilities in the direction of tourism was analyzed.

Key words: tourism, technology, infrastructure, integration, globalization, contract, reform, transformation, efficiency.

Аннотация: В данной статье содержится информатsiя о факторах развития туризма в нашей республике и реализованных в связи с этим результатах. Кроме того, проанализировано значение инфраструктуры для развития туризма и объектов инфраструктуры в направлении туризма.

Ключевые слова: туризм, технологии, инфраструктура, интеграtsiя, глобализатsiя, контракт, реформа, трансформатsiя, эффективность.

KIRISH

Hozirgi kunda turizmning jahon xo‘jaligidagi hissasi yil sayin oshib, u muhim makroiqtisodiy tarmoqlar qatorida rivojlanmoqda. Mazkur soha dunyodagi ko‘pgina davlatlarning daromad manbayi sifatida ularning milliy iqtisodiyotida asosiy o‘rin tutmoqda. Shu jihatdan O‘zbekistonda mazkur tarmoqqa e’tiborni kuchaytirish muhim masalalardan biridir. Butunjahon turizm tashkilotining (UNWTO) prognozi bo‘yicha turizm industriyasida 2020-yilgacha xalqaro turizmda o‘sish tendensiyasi saqlanib qolinadi. Binobarin, barqaror o‘sish dinamikasi Osiyo va Tinch okeani regionidagi bir qancha mamlakatlarda ijobiy rivojlanishi xalqaro ekspertlar tomonidan e’tirof etilmoqda. Bunga o‘z navbatida bugungi kundagi turizmga berilayotgan keng ko‘lamli investitsiyalar va turistik salohiyatning yuqoriligidir.

Bugungi kunda jahonda yuz berayotgan globalizatsiya jarayonlarining tezlashib borishi davlatlardan turizm tarmog‘ini rivojlantirish orqali muhim masalalarni yechish imkoniyatini yaratishni taqozo etmoqda. Shu jumladan, respublikamizda olib borilayotgan islohotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri turizm sohasini rivojlantirish eng dolzarb vazifalardan biri sifatida belgilandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil uchun mo‘ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida turizmni rivojlantirish, sohaga investitsiyalar jalb etish, kadrlar salohiyatini oshirish bo‘yicha kompleks choralar ko‘rishimiz lozim. Bizda turizm ko‘pincha qadimiy shaharlarimiz, tarixiy-madaniy yodgorliklar doirasida cheklanib qolmoqda. O‘zbekiston zamonaviy turizm industriyasini rivojlantirish uchun barcha zarur manbalarga ega. Buyuk Ipak yo‘lida joylashgan Vatanimiz qulay tabiiy-iqlim sharoitlariga boy tarixiy, madaniy merosga va ayni paytda ham ichki, ham xalqaro turizmni rivojlantirish uchun yuqori salohiyatga ega.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sh. Omonov Turistik xizmatlarni rivojlantirish imkoniyatlarida asosiy e’tiborni turistik xizmatlarni rivojlantirish imkoniyatlariga va marketing tizimini rivojlantirish samaradorligiga e’tibor berganligini ko‘rishimiz mumkin [2].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Turizmni rivojlantirish imkoniyatlarini tadqiqot jarayonida statistik taqqoslash va ilmiy amaliy jihatlari tahlil etilib, bu jarayon bo‘yicha tizimlashtirish imkoniyatlar kabi uslublardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy turistik tashkilot va korxonalar bugungi kunda yangi axborot tizimlari, kompyuter texnologiyalaridan foydalanuvchi texnika bilan ta'minlangan yuqori texnologiyali ishlab chiqarishga ega. Hozirgi zamon turzm xizmatlarida mijoz sifatli xizmatlarni olishi zarur. Bu davr talabi bo'lib qolmoqda Ushbu omillarni amalga oshirishda texnologiyalardan foydalanish hamda Respublikamizda infratuzilmani yaxshilash hal qiluvchi rol o'ynaydi. Buni rivojalangan davlatlar misolida ham ko'rishimiz mumkin. Fransiyada 1960-1970-yillarda avtomobil yo'llarning sifatini yaxshilashi turistlar sonini oshishiga olib kelgan [3]. Shuning uchun ham yo'l va boshqa infratuzilma sohalarini yaxshilash turistlar oqimini oshishiga imkonyat yaratadi.

1-jadval: Respublikamizda 2021-yilda turizm infratuzilmasini rivojlantirish ko'rsatkichlari

№	Turizm infratuzilmas obyektlari	birlik	soni
1	WiFi	birlik	3450
2	Turistik yo'l ko'rsatkichlar	birlik	1747
3	Axborot markazlari	birlik	115
	Jami	**birlik**	**5312**

Respublikamizda 2021-yilda turizm infratuzilmasi obyektlari soni WiFi 3450 birlikni tashkil etgan bo'lsa axborot markazlari 115 birlikni tashki etgan, albatta, bu turdagi infratuzilma obyektlarni sonini oshrilishi turistlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirishga xizmat qiladi[1].

Bugungi kunda jahonda yuz berayotgan globallashuv jarayonlarining tezlashib borishi davlatlardan turizm tarmog'ini rivojlantirish orqali muhim masalalarni yechish imkoniyatini yaratishni taqozo etmoqda [3].

Shu jumladan, respublikamizda olib borilayotgan islohotlarning muhim yo'nalishlaridan biri turizm sohasini rivojlantirish eng dolzarb vazifalardan biri sifatida belgilandi. Ma'lumki, turizmning rivojlanishini infratuzilma, ya'ni boshqa sohalarning rivojlanishidan ayri holda tasavvur qilib bo'lmaydi, jumladan, turizm obyektlari, joylashtirish muassasalari, umumiy ovqatlanish, transport xizmati va boshqa xizmat ko'rsatish sohalariga bog'liq. Shuning uchun ham Respublikamizda turizm infratuzilmasini yaxshilash hamda bu boradagi ishlarning samaradorligini oshirish maqsadida 2021-yilda ichki va ziyorat turizmini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilindi[2].

Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ayni xo'jalik yuritish yoki tadbirkorlikni amalga oshirilishi bo'ladimi barcha jarayonlarda shaffoflikni ta'minlash maqsadida e-auksion orqali xizmat ko'rsatish maqsadida yer maydonini ajratish yoki bino inshootlarni sotib olish aynan mana shu axborot tizimi orqali amalga oshirilishi xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishga asos bo'lib xizmat qiladi.



1-rasm: O'zbekiston Respublikasiga tashrif buyurgan xorijiy sayyohlarning soni

1 https://uzbektourism.uz
2 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 24.02.2021-yildagi 100-son.

Respublikamizda tashrif buyurgan xorijiy syyohlarni 2018-2022-yillar oralig‘ini tahlil etadigan bo‘lsak 2018-yilda 5 346 219 kishi tashrif buyurgan bo‘lsa 2020-yida pandemiya sababli xorijiy sayyohlar soni keskin kamaydi hamda 1 504 126 kishi tashrif buyurdi, 2022-yilda esa bu ko‘rsatkich 5 232 780 kishini tashki etdi[3]. Aynan xorijdan tashrif buyuruvchi turistlar sonini oshishiga ta’sir ko‘rsatadigan omillarni e’tiborga olishimiz maqsadga muvofiq. O‘zbekistonda eng dolzarb muammolardan biri turistik sohani qayta tashkil qilish, uning rentabelligini, birinchi navbatda, yuqori texnologiyali komplekslar va tegishli infrastrukturaga ega turistik markazlarni tashkil qilish evaziga oshirish hisoblanadi.



2-rasm: Respublikamizda 2018-2022-yilda kiruvchi, chiquvchi va ichki turizmning asosiy ko‘rsatkichlari

Iqtisoiy munosabatlarning transformatsiyalashuvi sharoitlarida turizmni rivojlantirishni boshqarish samaradorligini oshirishning muhim omili xo‘jalik yuritishning yangi shakllarini izlash hisoblanadi. Mamlakatimizdagi turistik xizmatlar bozorida hozirgi vaqtda asosan an’anaviy shakllar faoliyat ko‘rsatmoqda.

Ichki turizmni rivojlantirish, yoshlar, aholining kam ta’minlangan qatlamlari, urush va mehnat veteranlari o‘rtasida turistik-ekskursiya faoliyatini yaxshilash, taqdim etiladigan ijtimoiy qatlamlarning sifatini oshirish masalalari ham turizmni rivojlantiruvchi omillardan hisoblanadi shuning uchun ham 2021-yilda O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qilish xarajatlarining bir qismini qoplash bo‘yicha 52 nafar tadbirkorlarga 451,6 mln. so‘m miqdoridagi subsidiya mablag‘lari ajratildi. 2021-yilda turizm sohasidag barcha investitsiya loyihalari doirasida umumiy qiymati 6,9 trln.so‘m (shundan: tashabbuskor mablag‘lari 3,5 trln.so‘m, bank kreditlari – 737,5 mlrd.so‘m, xorijiy investitsiyalar – 238,7 mln. dollar, xorijiy kredit liniyalari – 15,6 mln.dollar.) bo‘lgan mablag‘lar o‘zlashtirilib, yil yakuniga qadar 490 ta loyiha amalga oshirilishi va 6 850 ta yangi ish o‘rinlari yaratilishi rejalashtirilgan edi[4] barcha rejalashtirilgan ishlarni belgilangan reja sosida va o‘z vaqtida bajarilishi turizmni rivojlantirish strategiyasini belgilashda muhim vazifa sifatida xizmat qiladi. 2021-yil davomida mamlakatimizga tashrif buyurgan xorijiy turistlar soni 1 881 345 nafarga yetib, turistik xizmatlar eksporti 422,1 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida 8 025,2 ming nafar mahalliy aholi shundan, ayollar daftariga kiritilgan 124,4 ming nafar ayollar sayohati tashkil etildi.



3-rasm: Respublikamizda 2022-yilda turistik firma va tashkilotlar faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari

Hududlarda 133 ta yangi mehmonxona (xonalar soni 3 384 ta) va 210 ta hostel (xonalar soni 1 946 ta)lar faoliyati yo‘lga qo‘yilib, jami joylashtirish vositalari soni 1 442 ta ulardagi o‘rinlar soni 71 247 taga yetkazildi.

3 https://uzbektourism.uz/
4 https://uzbektourism.uz/

Aholini xizmat ko‘rsatish tizimga jalb qilinishi va oilaviy tadbirkolikni rivojlantirishi natijasida 1 096 ta oilaviy mehmon uy (xonalar soni 3 952 ta)lari tashkil qilinib, ularning umumiy soni 2 458 ta o‘rinlar soni 21 018 taga yetdi.

Turistlar uchun xizmat ko‘rsatuvchi 137 ta yangi turistik tashkilotlar faoliyati yo‘lga qo‘yilishi natijasida ularning soni 1 483 taga yetkazildi. Barcha bajarilgan ishlarni tahlili va natijasi turizmni rivojlantirish orqali xizmat ko‘rsatish tizimida samarali faoliyat olib borish imkoniyatlariga qaratilganligini ko‘rishimiz mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xalqaro turistik bozorlarga integratsiyalashda quyidagi yo‘nalishlar samarali integratsion tadbirlarligini inobatga olib Respublikamizda turizmni rivojlantirish omillari bo‘yicha quyidagi xulosa rivojlantirish uchun ximat qiladi:

- Respublikamizda turistik tashkilotlarning xalqaro turistik tashkilotlariga a’zo bo‘lishi bilan birga xalqaro darajada faoliyatini amalga oshirilishi;
- Respublikamizda rivojlangan davlatlar turizm firmalari asosida turoperatorlar integratsion faoliyatni amalga oshirishi;
- Respublikamizda faoliyat olib borilayotgan turistik tashkilotlar bilan rivojlangan davlatlarda faoliyat olib borayotgan turistik tashkilotlar bilan shartnomaviy munosabatlarni amalga oshirilishi;
- Turistlarga joylarni band qilish bo‘yicha elektron tizimni takomillashtirish;
- Transport xizmatlari infratuzilmasini yaxshilash hamda turistik mavsumida xizmat sonini oshirish.
- Transport tizimida yo‘lovchi tashish muammosini kamaytirish imkoniyatlarini ishlab chiqish mavsum davrida qo‘shimcha yolovchi tashish xizmatlar sonini ko‘paytirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 24.02.2021-yildagi 100-son.
2. Sh. Omonov Turistik xizmatlarni rivojlantirish imkoniyatlari; journal of marketing, business and management(jmbm)/sjif factor: 5.57.
3. Usmanov M.R. Turizm geografiyasi: o‘quv qo‘llanma. –Samarqand, “SamDU”.–2020. –281 b.

Internet saytlari.

1. https://uzbektourism.uz
2. https://Stat.uz

TIJORAT BANKLARI DEPOZIT OPERATSIYALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH YO‘LLARI

Shamsiyev Nodir Muratovich
TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada depozit operatsiyalari samaradorligini oshirish tijorat banklari uchun barqarorlik va raqobatbardoshlikni ta’minlashning asosiy vazifasi hisoblanishi, depozit operatsiyalari samaradorligini oshirishda banklar duch kelishi mumkin bo‘lgan asosiy muammolarni o‘rganishdan iborat.

Kalit so‘zlar: tijorat bank, depozit operatsiyalari, startap, depozit bozori, risklar.

Abstract: In this article, improving the efficiency of deposit operations is considered as the main task of ensuring the stability and competitiveness of commercial banks, the main problems that banks may face when improving the efficiency of deposit operations are studied.

Key words: commercial banking, deposit operations, startup, deposit market, risks.

Аннотация: В данной статье повышение эффективности депозитных операций следует рассматривать как основную задачу обеспечения стабильности и конкурентоспособности коммерческих банков, изучить основные проблемы, с которыми банки могут столкнуться при повышении эффективности депозитных операций.

Ключевые слова: коммерческий банкинг, депозитные операции, стартап, рынок депозитов, риски.

KIRISH

Xalqaro va mahalliy bank amaliyotida tijorat banklari moliyaviy barqarorligidan nafaqat tijorat banklari, balki Markaziy banklar ham kuchli va tabiiy jihatdan manfaatdordirlar. Biroq keyingi yillarda xalqaro moliya institutlarida har 5-10-yilda ro‘y beradigan moliyaviy-iqtisodiy inqirozlar dunyoning barcha mamlakatlari banklari moliyaviy munosabatlarida qator muammolarni keltirib chiqarmoqda. Xususan, “dunyo miqyosida global moliyaviy inqirozdan oldin, 93 mamlakatda chorak asr mobaynida moliyaviy muassasalarda 117 marta tizimli va 50 dan ortiq jiddiy moliyaviy muammmolar yuz bergan” [1]. Mazkur inqiroz holatlari milliy va xalqaro darajada tijorat banklari moliyaviy barqarorligini ta’minlash, ularning resurs salohiyatini yanada mustahkamlash yuzasidan aniq talablar qo‘yishni taqozo etadi.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlari Markaziy banklari, yirik tijorat banklari, Bazel qo‘mitasi, Xalqaro valyuta jamg‘armasi kabi qator moliya muassasalari tomonidan tijorat banklari depozit operatsiyalari samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur ilmiy tadqiqot ishlarida tijorat banklari moliyaviy resurslari manbalari, moliya bozori instrumentlari, depozitlarni barqaror manbalar hisobidan shakllantirish masalalari ochib berilgan. Biroq tadqiqotlarda tijorat banklarida muddatli depozitlarni jalb qilish va hajmini oshirish, omonatchilarga to‘lanadigan foiz to‘lovlarining “jalb qiluvchanlik” darajasi zaifligi, banklarning resurslari tarkibida va mamlakat YAIMga nisbatan depozitlar ulushining pastligi kabi masalalar yetarlicha yoritib berilmagan. Xususan, tijorat banklari depozit bazasi mustahkamligini ta’minlashda aholi qo‘lidagi vaqtinchalik bo‘sh pul mablag‘larini banklarga to‘liq jalb qilish, muddatli depozitlarning asosiy summasi va ularga hisoblangan foizlarni to‘liq va o‘z vaqtida qaytarish bilan bog‘liq masalalar dolzarbligini saqlab turibdi. Bularning barchasi tijorat banklari depozit operatsiyalari samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borishni talab etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yildagi PF-158-son O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, Bank tizimi islohotlarini jadallashtirish bank xizmatlari bozori hajmini oshirish va sohada raqobatni rivojlantirish asosida Bank va moliya tizimida yillik kreditlash hajmini 40 milliard dollarga yetkazish, bank omonatlari hajmini 4 barobarga oshirish taraqqiyot strategiyasida va boshqa ushbu sohadagi normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish zarur.

ADABIYOT SHARHI

Xorijlik iqtisodchi olimlar Ye.F. Jukova va N.D. Eriashvililar fikricha, ko‘plab banklarda qarz mablag‘larining asosiy qismi – depozitlar (omonatlar) hisoblanadi. Bank amaliyotida “depozit” atamasi birinchidan, jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan bank depozit shartnomasida qayd etilgan muayyan shartlar asosida bankka qo‘yilgan mablag‘lar, ikkinchidan, bankdagi omonat egalarining pul talablarini tasdiqlovchi bank kitoblariga kiritilgan yozuvlaridir [2].

N.M. Rozanovaning fikriga ko‘ra, “Depozitlar yoki omonatlar bank majburiyatlarining katta qismini tashkil etadi. Depozitlar aholi va firmalarning pul mablag‘lari sifatida tushuniladi, ular muayyan sharoitlarda va muayyan davrda bank hisob raqamiga o‘tkaziladi” [3].

Taniqli xorijlik iqtisodchi olimlardan O.I. Lavrushin va N.I. Valensevalarning fikricha: “dunyo bank amaliyotida depozit deganda pul yoki qimmat baho qog‘oz ko‘rinishida bank va boshqa moliyaviy tashkilotlarga saqlash uchun topshirilgan mablag‘lar tushuniladi” [4].

Xususan, xorijlik iqtisodchi olimlardan biri V.L. Kireevning fikriga ko‘ra: “depozit – bu mablag‘ egasi tomonidan bankka saqlash uchun topshirgan va shartlariga ko‘ra alohida hisobvaraqda saqlanadigan mablag‘dir” [5].

Xorijlik taniqli iqtisodchi olimlardan biri E.F. Jukovning fikricha, “depozit – bu mijoz tomonidan saqlash muddati va rasmiylashtirish shartlaridan qat’iy nazar bank tasarrufiga topshirilgan pul mablag‘laridir” [6].

Sh.Sh. Saipnazarov o‘z tadqiqotlarida banklararo raqobatni shakllantirishning konseptual asoslariga to‘xtalib o‘tgan. Xususan, bank xizmatlari bozorida resurslarni jalb etish, mablag‘larni joylashtirish va boshqa barcha bank xizmat turlarini amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlarni banklararo raqobatning asosi sifatida ko‘rsatib o‘tgan [7]. Demak, tijorat banklari depozit operatsiyalarining nazariy va amaliy jihatlarini to‘liq o‘rganish, tahlil etish va undan tegishli xulosalar chiqarish banklarning barqarorligiga ta’sir etuvchi muhim omil bo‘lib hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada tijorat banklarining depozit operatsiyalari, bank xizmatlari va mahsulotlari ta’sirchanligini baholash hamda statistik usullardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Bank resurslari tarkibida aholining omonat qo‘yilmalari muhim ahamiyat kasb etadi. Ular to‘liq summada yoki taqsimlab qo‘yilishi va berilishi mumkin. Omonatchi va bank o‘rtasidagi mablag‘ qo‘yish bilan bog‘liq munosabat omonat daftarchasini berish bilan tasdiqlanadi. Banklar to‘lovchilik asosida turli maqsadli qo‘yilmalarni, muddatli yoki talab qilish hamda olish mumkin bo‘lgan jamg‘armalarni qabul qiladilar.

Iqtisodiy tarkibi bo‘yicha depozitlarni uch guruhga bo‘lish mumkin:

1. Muddatli depozitlar;
2. Talab qilib olinguncha depozitlar;
3. Jamg‘arma depozitlar;

Bu guruhlarning har biri o‘ziga xos xususiyatlari bo‘yicha tasniflanadi.

1-jadval: Depozit turlarining tavsiflanishi [8]

Depozitlar		
Muddatli depozitlar	**Talab qilib olinguncha**	**Jamg‘arma depozitlar**
3 oygacha	LORO	Muddatli
	Kontokorrent	Muddatli (qo‘shimcha qo‘yilmalar bilan)
3–6 oygacha	Overdraft	Shartli
6–9 oygacha		Shaxsiy talab qilib olinguncha
9–12 oygacha	NOSTRO	Talab qilib olinguncha
		Joriy hisob raqamda

Muddatli depozitlar o‘zlarining muddatlariga bog‘liq ravishda quyidagicha tasniflanadi:

- 3 oygacha bo‘lgan muddatli depozitlar;
- 3 oydan 6 oygacha muddatli depozitlar;
- 6 oydan 9 oygacha muddatli depozitlar;
- 9 oydan 12 oygacha muddatli depozitlar;

- 12 oydan oshiq muddatli depozitlar.

Talab qilib olinguncha depozitlari mablag‘larning xarakteri va egasiga bog‘liq ravishda tasniflanadi.

Mamlakatimiz tijorat banklari depozit bazasi mustahkamligini ta’minlashga qaratilgan dissertatsiya tadqiqotimiz natijasida respublikamiz tijorat banklarining depozit operatsiyalari bilan bog‘liq quyidagi muammolar aniqlandi:

1. Mamlakatimiz tijorat banklari majburiyatlari tarkibida depozit mablag‘larining pasayish tendensiyasiga ega ekanligi.

Tadqiqotimizning ikkinchi bobida amalga oshirilgan tahlil natijalariga ko‘ra, respublikamiz tijorat banklarining majburiyatlari tarkibida depozitlarning ulushi keskin kamayish tendensiyasiga ega bo‘lgan. Tahlil qilingan 2016–2023-yillar mobaynida bank majburiyatlari tarkibida depozitlarning ulushi 53 foizdan 37 foizgacha pasayganligini ko‘rish mumkin. Bu holat, tijorat banklari depozitlar jalb qilish amaliyotining rivojlanmaganligidan dalolat beradi. Chunki xalqaro tajribaga ko‘ra, dunyoning sanoati rivojlangan davlatlarida bank majburiyatlari tarkibida depozitlarning ulushi 50-70 foizni tashkil qilmoqda.



1-rasm: Tijorat banklarining depozit operatsiyalari bazasini mustahkamlashdagi muammolar [10]

Tadqiqot ishining ikkinchi bobida amalga oshirilgan tahlillarga ko‘ra, mamlakatimiz tijorat banklari depozit bazasining zaiflashuviga quyidagi omillar o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda:

- tijorat banklarining davlat dasturlarini moliyalashtirishda haddan ziyod ko‘p jalb etilishi;
- tijorat banklarining tranzaksion depozitlardan to‘g‘ridan to‘g‘ri resurs sifatida foydalanilayotganligi;
- tijorat banklarining moliyaviy xizmatlari soni va sifatini oshirish faoliyati talab darajasida emasligi.

Tijorat banklari depozitlarining majburiyatlari tarkibida pasayish tendensiyasiga ega bo‘lganligi banklar uchun quyidagi salbiy holatlarni olib keladi:

- bankning barqaror moliyalashtirish manbalari hajmi keskin kamayadi;
- tijorat banklari talab qilib olinguncha depozitlardan resurs sifatida foydalanishga majbur bo‘ladi;
- banklarda likvidlilik bilan bog‘liq muammolar ortib boradi;
- bank daromadlari hajmi pasayadi;
- bankning resurs bozoridagi raqobatbardoshlik darajasiga salbiy ta’sir qiladi;
- yangi bank xizmatlarini yaratish va mijozlarga taklif qilish darajasi pasayadi.

Hozirgi kunda mamlakatimiz bank amaliyotida kreditlashning zamonaviy shakllaridan to‘liq foydalanilmayotganligi, bank kredit qo‘yilmalarining mamlakat YAIMdagi ulushini keskin oshirish imkonini bermayapti. Mazkur muammolarning bartaraf etilishi natijasida tijorat banklari tomonidan qo‘shimcha mablag‘larni jalb etish bo‘yicha talabi ortadi.

2. Mamlakatimiz tijorat banklarida bir-yildan ortiq muddatga jalb qilingan depozitlar va kreditlar o‘rtasidagi nomuvofiqlik yuqori ekanligi.

Mamlakatimiz bank amaliyotida tijorat banklari tomonidan iqtisodiyot subyektlariga ajratilayotgan kreditlarning 90-95 foizi uzoq muddatli, ya’ni 1-yildan ortiq muddatga berilgan kreditlar tashkil qilmoqda. Banklarimiz tomonidan jalb qilingan uzoq muddatli kreditlarning qariyb 20-25 foizi 1-yildan ortiq muddatga jalb qilingan depozitlardan iborat. O‘tgan 2023-yil yakunlariga ko‘ra, tijorat banklari tomonidan iqtisodiyot subyektlariga ajratilgan kreditlarning umumiy miqdori 167 trln. so‘mdan ortiq bo‘lgan bo‘lsa, ushbu davrda banklarning jami depozitlari atigi 70 trln. so‘mni tashkil qilgan.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini tubdan isloh qilish jarayonida xo‘jalik yurituvchi subyektlarning uzoq muddatli pul mablag‘lariga ehtiyoji ortib boradi. Bu, o‘z navbatida, tijorat banklaridan uzoq muddatli va barqaror resurs manbalarga ega bo‘lish zaruratini yanada oshiradi.

3. Tijorat banklari tomonidan aholi va xo‘jalik yurituvchi subyektlarning depozitlariga to‘lanayotgan o‘rtacha foizlarning mamlakatdagi inflyatsiya darajasiga nisbatan past ekanligi.

Banklar kredit resursining yarmidan ko‘pini depozitlar hisobiga shakllantirayotgan bo‘lsa, davlat banklarida bu ko‘rsatkich atigi 10 foiz atrofida. Shuningdek, davlat banklari kredit portfelining yarmidan ko‘pi 5 ta yirik davlat korxonasi hissasiga to‘g‘ri keladi. Hanuzgacha eskirgan dasturiy ta’minotlardan foydalanayotgani uchun bank xizmatlari sifati talab darajasida emas. Tizimda sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish maqsadida banklar faoliyatida davlat ishtiroki bosqichma-bosqich qisqartirilmoqda” [9].

Bundan tashqari, mamlakatimizda kapital bozorining yaxshi shakllanmaganligi tijorat banklari uchun depozitlardan boshqa mablag‘larni jalb etish imkoniyatini cheklamoqda. Natijada kichik banklar tomonidan yuqori resurs salohiyatiga ega banklardan qimmatroq foizlar hisobiga resurs jalb qilish holatlari yuzaga kelmoqda. Bu esa, banklarning likvidliligini ijobiy hal qilsa-da, mamlakatimiz tijorat banklari depozit bazasi mustahkamligini ta’minlash darajasini oshirmaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Respublikamiz tijorat banklari majburiyatlari tarkibida depozitlarning salmog‘ini oshirish lozim. Mamlakatimiz tijorat banklarining depozit operatsiyalarini ta’minlash maqsadida:

1. O‘zbekiston bank amaliyotida talab qilib olinguncha depozitlardan resurs sifatida foydalanishga qat’iy chek qo‘yish lozim.
2. Tijorat banklarining muddatli depozitlari o‘sish sur’atlarini kredit qo‘yilmalarining o‘sish sur’atlaridan pasayishiga yo‘l qo‘ymaslik zarur.
3. Respublikamiz aholisining real daromadlari o‘sish tendensiyasiga ega ekanligidan kelib chiqib, bo‘sh pul mablag‘larini tijorat banklarining jozibador omonat turlariga jalb qilish bo‘yicha marketing tizimini rivojlantirishi lozim.
4. Raqamli texnologiyalar va innovatsiyalar: mobil va onlayn-banking tobora ommalashib borayotgani yangi omonatchilarni jalb qilish uchun katta imkoniyatlarni taqdim etadi. Raqamli xizmatlarning qulayligi depozitlar hajmini oshirishga yordam beradi.

5. Xususiylashtirish va mijozlar tajribasini yaxshilash: banklar xusisiylashtirilgan jamg‘arma va depozitlarni boshqarish takliflarini taklif qilish uchun ma’lumotlar, tahlillardan foydalanishlari mumkin, bu esa ko‘proq mijozlarni jalb qilishi hamda mavjudlarini saqlab qolishini ta’minlashi mumkin.
6. Optimallashtirilgan depozit stavkalari va shartlari: raqobatbardosh stavkalar va moslashuvchan depozit shartlarini taklif qilish, ayniqsa, tobora raqobatbardosh bozorda mijozlardan ko‘proq mablag‘ jalb qilishi mumkin.
7. Marketingga sarmoya kiritish va yangi mijozlarni jalb qilish: yangi mijozlarni jalb qilish va depozit mahsulotlarini ilgari surish uchun marketing strategiyasini ishlab chiqish depozit bazasining o‘sishiga hissa qo‘shishi mumkin.
8. Risk va foiz stavkalarini boshqarish: risk va foiz stavkalarini boshqarishning zamonaviy usullaridan foydalanish banklarga omonatlarni samarali boshqarish, barqarorlik va rentabellikni ta’minlash imkonini beradi.
9. Ekologik va ijtimoiy mas’uliyatli investitsiyalar: barqaror va ijtimoiy mas’uliyatli investitsiyalarga bo‘lgan qiziqishning ortishi ekologik va ijtimoiy yo‘naltirilgan depozit mahsulotlarini taklif qilish orqali depozit bazasini rivojlantirish uchun imkoniyatlar ochadi.
10. Ma’lumki, tijorat banklari depozit bazasi ularning riskli aktivlari bilan bevosita bog‘liqlikda bo‘lib, ushbu bog‘liqlikni, ya’ni muvozanatni buzilishi transfarmotsion riskni vujudga kelishiga olib keladi. Shu bois banklarning uzoq muddatli kreditlari va muddatli depozitlari o‘rtasidagi muvofiqlikni ta’minlash orqali banklardagi transformatsiya riski bilan bog‘liq muammolarni bartaraf etish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Крупнов Ю.С. О природе банковского кредита / Ю.С. Крупнов. //Бизнес и Банки, – 2009. –№ 8. –С. 1-3.
2. Кузнецова Л.А. Лояльность клиентов и управление рекомендациями. //Организация продаж банковских продуктов. – 2008. – № 1
3. Метель Ю. Формирование и развитие клиентской политики в региональных коммерческих банках. Дисс. К.э.н. Ставрополь – 2018. 172 ст. https://www.ncfu.ru/export/uploads/doc/disser-metel.pdf
4. Муршудли Ф.Ф. Инновационные тренды международного банковского бизнеса (на примере Азербайджана). Азербайджанский государственный экономический университет. Вестник МГИМО-Университета. 2018. 1(58). С. 186-212, DOI 10.24833/2071-8160-2018-1-58-186-212
5. Saipnazarov Sh.Sh. Moliya va investitsiyalar o‘quv qo‘llanmasi. Innovatsiyalar matba uyi. – T.:, –2022.
6. Ortiqov O.A. Banklararo raqobat sharoitida bank xizmatlari va ularni takomillashtirish yo‘llari. Iqtisod fanlari nomzodi dissertatsiya avtoreferati – T., 2009.
7. Платонова Ю.Ю. Современные аспекты удержания клиентов в банке [Электронный ресурс] /Ю.Ю. Платонова, С.Е. Зайченко //Научный журнал КубГАУ. – 2012. – №76 (02). – Режим доступа: https://cyberleninka.ru/article/v/sovremennye-aspekty-uderzhaniya-klientov-v-banke
8. Руднев А.Ю. Социальное управление крупным банком: дис. ... канд. социол. наук: 22.00.08 / Руднев Андрей Юрьевич. – М.:, 2011. – 171 с.
9. Смулов А.М. Комплексная методика построения сбалансированной процентной политики коммерческого банка в сфере кредитных отношений /А.М. Смулов, Э.И. Абдюкова //Банковское дело. – 2014. – № 48 (624). – С. 2-13.
10. Титова, Л.Г. Управление мотивациями клиента в розничной торговле. /Л.Г. Титова //Российское предпринимательство. – 2014. – №22. – С. 138-145.

HUDUDLARNI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY INVESTITSIYALARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI

Shagazatov Oybek bahodirovich
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
“InterForum” DUK direktor o‘rinbosari

Annotatsiya: Ushbu maqolada mintaqaviy rivojlanishda xorijiy investitsiyalar o‘rni va ahamiyati hamda samaradorligi tahlil qilinadi. Adabiyotlar tahlili, qiyosiy misollarni o‘rganish orqali maqola investitsiya ta’sirini kuchaytirish uchun asosiy muammolar va imkoniyatlarni aniqlaydi. Tadqiqot yakunida barqaror hududiy rivojlanishni ta’minlashda xorijiy investitsiyalarning jozibadorligi va samaradorligini oshirishga qaratilgan islohotlar va strategik tashabbuslar bo‘yicha maqsadli takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: xorijiy investitsiyalar, hududiy rivojlanish, barqaror o‘sish, to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar.

Abstract: This article analyzes the role and importance and effectiveness of foreign investments in regional development. Through literature analysis, comparative case studies, the article identifies the main challenges and opportunities to enhance investment impact. At the end of the study, targeted proposals for reforms and strategic initiatives aimed at increasing the attractiveness and effectiveness of foreign investments in ensuring sustainable regional development were developed.

Key words: foreign investments, regional development, sustainable growth, direct foreign investments.

Аннотация: В данной статье анализируется роль, значение и эффективность иностранных инвестиций в региональном развитии. На основе анализа литературы и сравнительных тематических исследований в статье определены основные проблемы и возможности повышения инвестиционного эффекта. По итогам исследования были разработаны адресные предложения по реформам и стратегические инициативы, направленные на повышение привлекательности и эффективности иностранных инвестиций в обеспечении устойчивого регионального развития.

Ключевые слова: иностранные инвестиции, региональное развитие, устойчивый рост, прямые иностранные инвестиции.

KIRISH

Rivojlanayotgan jahon iqtisodiyotida xorijiy investitsiyalarning hududiy rivojlanishni jadallashtirishdagi roli tobora ortib bormoqda. Katta iqtisodiy o‘zgarishlar chorrahasida turgan O‘zbekiston kabi davlatlar uchun xorijiy investitsiyalar samaradorligini optimallashtirish nafaqat strategik, balki barqaror o‘sish zarurati hisoblanadi.

Markaziy Osiyodagi strategik joylashuvi, boy madaniy merosi va boy tabiiy resurslariga ega O‘zbekiston xorijiy investitsiyalar uchun jozibali mamlakat hisoblanadi. 2016-yilda yirik iqtisodiy islohotlar boshlanganidan buyon mamlakatda ochiqroq iqtisodiy siyosat yuritish, valyuta kursini liberallashtirish va ishbilarmonlik muhitini yaxshilash natijasida to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar ko‘paydi. Biroq ushbu investitsiyalarning uning hududlari bo‘ylab taqsimlanishi va samaradorligi notekis bo‘lib, xorijiy kapitalning mintaqaviy rivojlanishga samarali hissa qo‘shishini ta’minlash uchun optimal strategiyalar haqida savollar tug‘dirdi.

Bu masalaning ahamiyati O‘zbekiston mintaqalari bo‘yicha iqtisodiy rivojlanishdagi nomutanosiblik bilan ta’kidlanadi, ba’zi hududlar sarmoya va innovatsiya markazlari sifatida gullab-yashnamoqda, boshqalari esa ishsizlik va rivojlanmaganlik bilan kurashib, ortda qolmoqda. Shu bois, xorijiy investitsiyalar samaradorligini oshirish ushbu nomutanosibliklarni bartaraf etishda, iqtisodiy ochiqlik afzalliklaridan butun mamlakat bo‘ylab adolatliroq taqsimlanishini ta’minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ladi.

Ushbu maqola O‘zbekistonning hududiy rivojlanishiga xorijiy investitsiyalar samaradorligiga ta’sir qiluvchi ko‘p qirrali masalalarni o‘rganishga qaratilgan. Unda mamlakatimizga xorijiy sarmoyalarning joriy holati o‘rganiladi, samarali investitsiyalar yo‘lidagi to‘siqlar aniqlanadi va mavjud investitsiya siyosatning mintaqaviy taraqqiyotga ta’siri tahlil qilinadi. Muvaffaqiyatli xorijiy investitsiyalar strategiyasiga ega bo‘lgan mamlakatlarning qiyosiy tushunchalariga tayangan holda maqola O‘zbekiston uchun hududiy iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda xorijiy kapital samaradorligini oshirish uchun asos yaratishni taklif qiladi.

ADABIYOT SHARHI

Xorijiy investitsiyalar va hududiy rivojlanish o‘rtasidagi bog‘liqlik har tomonlama o‘rganilib, ushbu investitsiyalar samaradorligi va ta’siriga ta’sir etuvchi omillarning murakkab o‘zaro ta’siri aniqlandi. Vu Vang 2023-yilda Xitoyning 2009-yildan 2021-yilgacha bo‘lgan tajribasiga e’tibor qaratgan holda barqaror rivojlanish kontekstida mintaqaviy ekologik samaradorlikdagi to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalar va atrof-muhitni tartibga solishning rolini o‘rganishdi. Xitoyning sharqiy mintaqasida buning ta’siri keng, boshqa mintaqalarda esa uning ta’siri unchalik katta emas edi. Ushbu tadqiqot mintaqaviy eko-samaradorlikni oshirishda to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalarning muhimligini va turli mintaqalarda turli xil ta’sirlarni ta’kidlaydi.

Fraymovich va Kolosova 2023-yilda xorijiy investitsiyalarning ikki tomonlama xususiyatini muhokama qilib, ularning tashqi iqtisodiy aloqalarni yaratish, raqobatbardoshlikni oshirish va innovatsiyalar orqali iqtisodiy rivojlanishdagi muhim rolini e’tirof etishdi. Shu bilan birga, ular xorijiy investitsiyalar sifati va tijorat va ijtimoiy manfaatlarni muvozanatlash uchun xorijiy pul oqimlarini boshqarishdagi qiyinchiliklarga oid davom etayotgan munozaralarni ham ta’kidladilar.

Chen 2018-yilda Xitoyning tashqi to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalarining viloyat iqtisodiy o‘sishiga ta’sirini o‘rganib chiqdi, bilimlarning teskari tarqalishi, ishchi kuchi harakati va sanoat aloqalari orqali iqtisodiy o‘sishga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Ushbu tadqiqot uy firmalarining mahsuldorligi va samaradorligini oshirish orqali mamlakat iqtisodiyotining o‘sishiga hissa qo‘shish uchun tashqi to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar salohiyatini ko‘rsatadi.

2021-yilda Xitoyning viloyat ma’lumotlaridan foydalangan holda mintaqaviy innovatsiyalar orqali to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalarning yashil iqtisodiy samaradorlikka ta’sirini o‘rganib chiqdi. Ularning xulosalari shuni ko‘rsatadiki, to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalar yashil iqtisodiy samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi, uning ta’sirida sezilarli mintaqaviy notekislik mavjud. Tadqiqot mintaqaviy innovatsiyalarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri innovatsiyalar va yashil iqtisodiy samaradorlik o‘rtasidagi munosabatlarda vositachi sifatidagi rolini ta’kidlab, to‘g‘ridan-to‘g‘ri innovatsiyalar mintaqaviy innovatsiyalar orqali yashil iqtisodiy samaradorlikni oshirishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Qabul qiluvchi mamlakatlardagi institutlarning sifati to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar samaradorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. 2008-yilda Dunning va Lundan tomonidan olib borilgan tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, institutsional asoslar, jumladan, huquqiy tizimlar, tartibga soluvchi organlar va boshqaruv mexanizmlari barqaror rivojlanishga hissa qo‘shadigan sifatli to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalarni jalb qilishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ularning ta’kidlashicha, kuchli institutlar nafaqat investitsiyalarni jalb qiladi, balki ushbu investitsiyalar qabul qiluvchi mamlakatning rivojlanish maqsadlariga mos kelishini ta’minlaydi va shu bilan ularning mintaqaviy rivojlanishga ta’sirini kuchaytiradi.

To‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalar va mintaqaviy rivojlanish o‘rtasidagi munosabatlarning muhim jihati to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalar mintaqaviy nomutanosiblikni kuchaytirishi mumkin. Rodriguez-Pose va Crescenzining 2008-yilda to‘g‘ridan to‘g‘ri infratuzilma, malakali ishchi kuchi va rivojlangan institutlar kabi mavjud raqobatbardosh afzalliklarga ega bo‘lgan hududlarda qanday qilib klasterlashish tendensiyasini o‘rganadi, bu boy va kam rivojlangan hududlar o‘rtasidagi tafovutni kengaytirishi mumkin. Ularning tahlili shuni ko‘rsatadiki, to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar foydasini tengroq taqsimlash bo‘yicha maqsadli siyosatsiz investitsiyalar muvozanatli mintaqaviy rivojlanishga emas, balki tengsizlikning kuchayishiga yordam berishi mumkin.

Xorijiy investorlardan texnologiya va bilimlarni mahalliy firmalarga o‘tkazish to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalar mintaqaviy rivojlanishga yordam beradigan asosiy mexanizmdir. 1998-yilda Borenszteyn, De Gregorio va Li to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalar texnologik tarqalish orqali iqtisodiy o‘sishga hissa qo‘shishini ko‘rsatdi, ammo bu imtiyozlar darajasi qabul qiluvchi mamlakatning yangi texnologiyalarni o‘zlashtirish qobiliyatiga bog‘liq. Ularning xulosalari to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalarning mintaqaviy rivojlanishga ijobiy ta’sirini maksimal darajada oshirish uchun inson kapitali va innovatsion salohiyatga sarmoya kiritish muhimligini ta’kidlaydi.

Adabiyotlar tahlili xorijiy investitsiyalarning ko‘p qirraliligi va ularning mintaqaviy rivojlanishga ta’sirini ta’kidlaydi. Unda institutsional sifatning muhim roli, mintaqaviy nomutanosiblikni kuchaytirishi uchun to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalar salohiyati, texnologik tarqalishning ahamiyati va barqaror rivojlanishni ta’minlash uchun e’tiborga olinishi lozim bo‘lgan ekologik masalalar ko‘rsatilgan. Bu tushunchalar shuni ko‘rsatadiki, xorijiy investitsiyalar samaradorligiga ta’sir etuvchi turli omillarni hisobga olgan holda mintaqaviy rivojlanishga ko‘maklashishda ularning imkoniyatlaridan to‘liq foydalanish uchun muhim yondashuv zarur.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqola O‘zbekistonga alohida e’tibor qaratgan holda, mintaqaviy rivojlanishda xorijiy investitsiyalar samaradorligi bilan bog‘liq muammolarni tahlil qilishga qaratilgan kompleks yondashuvni o‘z ichiga oladi. Ushbu maqolada ma’lumotlarni to‘plash, natijalarni tahlil qilish va hududiy rivojlanishda xorijiy investitsiyalar samaradorligini oshirish bo‘yicha takliflar olish uchun foydalaniladigan usullar ko‘rsatilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekistonning mintaqaviy rivojlanish sari yo‘lida xorijiy investitsiyalar sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatib, ko‘plab muammolarga duch kelmoqda. Ushbu tahlil O‘zbekistonning mintaqaviy rivojlanish borasidagi sa’y-harakatlarida duch keladigan umumiy muammolarni o‘rganadi va kengroq istiqbolni ta’minlash uchun xorijiy mamlakatlar tajribasi bilan o‘xshashlik olib, yechimlarni taklif qiladi.

1-jadval: O‘zbekistonning hududiy rivojlanishidagi muammolar

Mavjud muammolar	Muammo tavsifi
Iqtisodiy o‘sishning notekisligi	Iqtisodiy faoliyat va xorijiy investitsiyalar boshqa hududlarni ortda qoldirib, muayyan hududlarda jamlangan.
Infratuzilmadagi kamchiliklar	Infratuzilmaning, xususan, transport va kommunal xizmatlarning yetarli emasligi iqtisodiy faoliyat va investitsiyalarga to‘sqinlik qiladi.
Ish kuchi malakalarining mos kelmasligi	Mavjud ishchi kuchi ko‘pincha xorijiy investorlarning talablarini qondirish uchun zarur bo‘lgan malaka va ta’limga ega emas.
Normativ to‘siqlar	Murakkab va ko‘p vaqt talab qiluvchi tartibga solish tartiblari potensial xorijiy investorlarni to‘xtatadi.
Cheklangan bozorga kirish	Logistika va tartibga solish to‘siqlari tufayli mahalliy va xalqaro bozorlarga kirishdagi qiyinchiliklar.

Manba: Muallif ishlanmasi

Jadvalda O‘zbekistonning hududiy rivojlanishiga to‘sqinlik qilayotgan ko‘p tomonlama muammolar ko‘rsatilgan. Iqtisodiy o‘sish va investitsiyalarning muayyan sohalarda kontsentratsiyasi mintaqaviy nomutanosiblikni kuchaytiradi. Infratuzilmadagi kamchiliklarni bartaraf etish va ishchi kuchi malakasini bozor talablariga moslashtirish xorijiy investitsiyalar uchun yanada qulay muhit yaratish yo‘lidagi muhim qadamdir. Tartibga solish tartib-qoidalarini soddalashtirish va bozorga kirishni yaxshilash O‘zbekiston hududlarining xorijiy investorlar uchun jozibadorligini yanada oshirishi mumkin.

Mintaqaviy rivojlanishni yaxshilash uchun yechimlar

Ushbu muammolarni hal qilish uchun O‘zbekiston bir qator strategik yechimlarni ko‘rib chiqishi mumkin:

- **Iqtisodiy faoliyatni markazsizlashtirish:** Muvozanatli o‘sishni ta’minlash uchun iqtisodiy faoliyatni turli mintaqalar bo‘ylab taqsimlashni rag‘batlantirish.
- **Infratuzilmani rivojlantirish:** Iqtisodiy faoliyatni qo‘llab-quvvatlash va investitsiyalarni jalb qilish uchun transport va kommunal xizmatlarga e’tibor qaratib, muhim infratuzilmaga sarmoya kiritish.
- **Ta’lim va kasbiy tayyorgarlik:** Ta’lim dasturlari va kasbiy ta’limni jahon bozori va xorijiy investitsiyalar uchun mo‘ljallangan muayyan sektorlar ehtiyojlariga moslashtirish.
- **Normativ islohot:** Xorijiy investitsiyalarni yanada shaffof va investorlar uchun qulay qilish uchun tartibga solish jarayonlarini soddalashtirish.
- **Bozorga kirishni yaxshilash:** Logistikani yaxshilash va mahalliy va xalqaro bozorlarga chiqishni yaxshilash uchun savdo bitimlari muzokaralarini olib borish.

Xorijiy davlatlar qo‘llayotgan strategiyalarni o‘rganish O‘zbekiston uchun qimmatli tushunchalarni berishi mumkin. Quyidagi jadvalda tanlangan mamlakatlarning shu kabi muammolarni hal qilish bo‘yicha tajribasi keltirilgan.

2-jadval: Xorijiy rivojlanish tajribasidan olingan saboqlar

Mamlakat	Qabul qilingan strategiya	Asosiy natijalar
Janubiy Koreya	Ta’lim va yuqori texnologiyali sanoatga yo‘naltirilgan investitsiyalar	Texnologiya va innovatsiyalar sohasida jahon yetakchisiga aylandi.
Chili	Iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va savdoni erkinlashtirish	Iqtisodiyotning barqaror o‘sishi va xorijiy investitsiyalar ko‘payishiga xizmat qildi
Estoniya	Raqamli transformatsiya va elektron boshqaruv	Davlat xizmatlarini yaxshilash va texnologik investitsiyalarni jalb qilishga katta hissa qo‘shdi

Manba: Muallif ishlanmasi

Janubiy Koreyaning ta’lim va yuqori texnologiyali sanoatga e’tibor qaratilishi inson kapitali va kelajakka yo‘naltirilgan sektorlarga sarmoya kiritish muhimligini ta’kidlaydi. Chilining iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va savdoni liberallashtirish tajribasi turli iqtisodiy bazani yaratish va xorijiy sarmoyalarni jalb qilish uchun ochiq savdo siyosatining afzalliklarini ta’kidlaydi. Estoniyaning raqamli transformatsiyasi tartibga solish jarayonla-

rini soddalashtirish va biznes muhitini yaxshilash uchun elektron boshqaruv salohiyatini namoyish etadi. Bu misollar O‘zbekistonning mintaqaviy rivojlanish va xorijiy investitsiyalarni ko‘paytirishga intilishi borasida amaliy tushunchalar beradi.

Ushbu muammolarni bartaraf etish bo‘yicha quyidagi strategik yondashuvlar maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- **Markazsizlashtirish va iqtisodiy diversifikatsiya:** O‘zbekiston uchun muhim qadam – iqtisodiy faoliyatni Toshkent va boshqa yirik shaharlardan qishloq va kam rivojlangan hududlarga markazsizlashtirishdir. Bu agrobiznes, qayta tiklanadigan energiya va turizm kabi mintaqaviy ixtisosliklar va potensial o‘sish sektorlarini aniqlash va targ‘ib qilishni o‘z ichiga oladi.
- **Infratuzilmani modernizatsiya qilish:** Infratuzilmani nafaqat jismoniy ulanish, balki raqamli infratuzilmani ham modernizatsiya qilish muhim ahamiyatga ega. Bu elektron tijorat va raqamli tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash uchun keng polosali internet va raqamli xizmatlar bilan bir qatorda yo‘llar, temir yo‘llar va aeroportlarni rivojlantirishni ham o‘z ichiga oladi.
- **Inson kapitalini rivojlantirish:** Ta’lim tizimini zamonaviy iqtisodiyot ehtiyojlariga moslashtirish hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bu nafaqat ta’lim sifatini oshirish, balki ishchi kuchini rivojlanayotgan bozor talablariga mos keladigan ko‘nikmalar bilan jihozlash uchun kasbiy ta’lim va umrbod ta’lim dasturlariga e’tiborni qaratishni ham o‘z ichiga oladi.
- **Normativ va ma’muriy islohotlar:** Biznesni ro‘yxatdan o‘tkazish jarayonlarini soddalashtirish, byurokratik qog‘ozbozlikni kamaytirish va me’yoriy-huquqiy bazaning shaffofligini oshirish sarmoyaviy muhitni sezilarli darajada yaxshilash imkonini beradi. Barcha tartibga soluvchi tasdiqlar uchun investorlar uchun yagona oyna markazini yaratish o‘yinni o‘zgartirishi mumkin.
- **Bozorga kirishni kengaytirish:** Logistika va ta’minot zanjiri infratuzilmasini takomillashtirish, erkin savdo kelishuvlari bo‘yicha muzokaralar olib borish bilan bir qatorda ichki va xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatini oshirishi mumkin. Bu, ayniqsa, O‘zbekiston kabi dengizga chiqish imkoniga ega bo‘lmagan davlatlar uchun muhim.

XULOSA

O‘zbekistonning hududiy rivojlanishida xorijiy investitsiyalar samaradorligini oshirish yo‘li murakkab va ko‘p qirrali. Ushbu tahlil shuni ko‘rsatdiki, notekis iqtisodiy o‘sish, infratuzilma taqchilligi, ishchi kuchi malakasining mos kelmasligi, tartibga soluvchi to‘siqlar va bozorga kirishning cheklanganligi kabi muammolarni hal qilish har tomonlama va muhim yondashuvni talab qiladi. Boshqa xalqlarning muvaffaqiyatli strategiyalariga tayanib, bu saboqlarni o‘zining kontekstiga moslashtirib, O‘zbekiston o‘zining mintaqaviy rivojlanishida o‘zgarishlar davrining cho‘qqisida turibdi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonning xorijiy sarmoyalarni jalb etish orqali mintaqaviy rivojlanish yo‘li ham murakkab, ham istiqbolli. O‘zbekiston ilg‘or xalqaro tajribalarni qo‘llash va rivojlanishning strategik yo‘nalishlariga e’tibor qaratish orqali xorijiy investitsiyalar samaradorligini oshirishi, muvozanatli va barqaror o‘sishga erishishi mumkin. Bu yo‘l nafaqat siyosiy islohotlarni, balki O‘zbekiston mintaqalari salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish, ularni Markaziy Osiyo markazida o‘sish va innovatsiyalarning jonli dvigateliga aylantirish uchun umumiy qarash va sa’y-harakatlarni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Wu, Y., Wang, R., & Wang, F. (2023). Exploring the Role of Foreign Direct Investment and Environmental Regulation in Regional Ecological Efficiency in the Context of Sustainable Development. Sustainability, 15(11), 9104. https://dx.doi.org/10.3390/su15119104.
2. Fraymovich, D., & Kolosova, M. (2023). Foreign Investments As the Most Important Resource of Economic Development and the Object of Management. Journal of International Economic Affairs, 12(2), 4-8. https://dx.doi.org/10.12737/2306-627x-2023-12-2-4-8.
3. Chen, C. (2018). Impact of China’s Outward Foreign Direct Investment on its Regional Economic Growth. China & World Economy, 26(3), 1-21. https://dx.doi.org/10.1111/cwe.12240.
4. Wu, Y.-Q., Lu, H.-X., Liao, X., Liu, J.-B., & Zhu, J.-M. (2021). Foreign Direct Investment, Regional Innovation, and Green Economic Efficiency: An Empirical Test Based on the Investigation of Intermediary Effect and Threshold Effect. Complexity, 2021, Article ID 7348599. https://dx.doi.org/10.1155/2021/7348599.
5. Dunning, J.H., & Lundan, S.M. (2008). Multinational Enterprises and the Global Economy. Edward Elgar Publishing.
6. Rodríguez-Pose, A., & Crescenzi, R. (2008). “Research and Development, Spillovers, Innovation Systems, and the Genesis of Regional Growth in Europe.” Regional Studies, 42(1), 51-67. https://doi.org/10.1080/00343400701654186
7. Borensztein, E., De Gregorio, J., & Lee, J.-W. (1998). “How Does Foreign Direct Investment Affect Economic Growth?” Journal of International Economics, 45(1), 115-135. https://doi.org/10.1016/S0022-1996(97)00033-0.
8. Gallagher, K.P., & Zarsky, L. (2007). The Enclave Economy: Foreign Investment and Sustainable Development in Mexico‘s Silicon Valley. MIT Press.

HUDUDLAR BIZNES MUHITINI RIVOJLANTIRISH VA SAMARALI BOSHQARISH YO‘NALISHLARI

Davlatov Sanjar Abdimannonovich
Toshkent davlat agrar universiteti “Biznesni boshqarish” kafedrasi assistenti

Annotatsiya: Maqolada hududlar biznes muhitini rivojlantirish va samarali boshqarish yo‘nalishi bo‘yicha Republikamizda amalga oshirilayotgan ishlar, maxsus iqtisodiy zonalar, kichik sanoat zonalari, klasterlar va texnoparklar faoliyati samaradorligi ko‘rsatkichlari tahlili hamda rivojlantirish imkoniyatlari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Biznes muhit, samaradorlik, samara, maxsus iqtisodiy zona, kichik sanoat zonasi, klaster, texnopark.

Abstract: The article discusses the analysis of performance indicators of special economic zones, small industrial zones, clusters and technology parks, as well as development opportunities in the direction of development and effective management of the regional business environment in the Republic.

Key words: Business environment, efficiency, effectiveness, special economic zone, small industrial zone, cluster, technology park.

Аннотация: В статье рассматривается анализ показателей деятельности специальных экономических зон, малых промышленных зон, кластеров и технопарков, а также возможностей развития в направлении развития и эффективного управления региональной бизнес-средой в Республике.

Ключевые слова: Деловая среда, эффективность, результативность, специальных экономическая зона, малая промышленная зона, кластер, технопарк.

KIRISH

Biznes va tadbirkorlik bozor iqtisodiyotining asosiy tayanchi hisoblanadi. Biznesni tashkil etish, uni boshqarish va samarali yuritish uchun muayyan bilim va ko‘nikmalar, tahliliy va mantiqiy fikrlash, kreativlikka ega bo‘lish lozim [4]. Ayni paytda respublikamizda biznes muhitni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar va islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu vazifalarni samarali va tizimli tashkil etish uchun aholining tadbirkorlik tashabbuslarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, birinchi navbatda, mahallalarda kichik biznes va tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilash, yoshlar va xotin-qizlarni daromadli mehnat bilan band qilish borasidagi tadbirlarni tizimli ravishda davom etirilishi maqsadida agrar tarmoqda o‘z biznesini tashkil etishga ko‘maklashish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishda dehqon xo‘jaliklarining ulushini oshirish maqsadida uzoq muddatga qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer maydonlarini ijaraga olib, belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tgan dehqon xo‘jaliklari va kichik tadbirkorlik subyektlariga 50 mln so‘mgacha garovsiz kredit berilishi tadbirkorlik subyektlarining mahallalarda, shu jumladan, tashkil etilgan mikromarkazlarda ishlab chiqarishni, xizmat ko‘rsatish sohasini va hunarmandchilikni hamda aholi bilan kooperatsiya va kasanachilikni kengaytirishga yo‘naltirilgan loyihalari uchun hokim yordamchilarining tavsiyanomasi asosida ajratiladigan kreditlar miqdori amaldagi 225 million so‘mdan 300 million so‘mgacha oshirilishi nazarda tutilmoqda[1]. Albatta, bu boradagi olib borilayotgan ishlar biznes muhitini samarali rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ashurov M. M. “Kichik sanoat zonalari: qulay biznes muhitini yaratish va hududni rivojlantirishda muhim omil sifatida” ilmiy izlanishlarida kichik sanoat zonalarini tashkil etish va kichik sanoat zonalarining faoliyati samaradorligini oshirish masalalari ko‘rilgan [5].

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 31.01.2023-yildagi PQ-39-son Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida aholining biznes tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashni yangi bosqichga olib chiqishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Hududlar biznes muhitini rivojlantirish va samarali boshqarish yo‘nalishlarini tadqiq qilish jarayonida Kichik sanoat zonalari, maxsus iqtisodiy zonalar, klasterlar va texnoparklarning faoliyatini statistik tahlil va taqqoslama usullardan foydalangan holda samarali tadqiq etildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Respublikamizda sanoat zonalarining tashkil etilishi biznes muhitni rivojlantirilishi bilan birga imkoniyatlar samarasi sifatida qaraladi. Kichik sanoat zonalari faoliyatini samarali tashkil etish va boshqarish – hududlarda va sanoatda shiddatli iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishga, ko‘p ukladli iqtisodiyot, shu jumladan, institutsional asoslari, subyektlarda ishlab chiqarish infratuzilmasini shakllanishiga tovar, mehnat va kapitalning umumdavlat va hududiy bozorlari hamda infratuzilmaviy tizimlarni rivojlantirish, aholi bandligi, ijtimoiy himoya, kichik biznesni rivojlantirish, sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulot ishlab chiqarish faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga ijobiy turtki beradi. Shu sababdan ham hozirgi kunda kichik sanoat zonalari faoliyatini samarali boshqarish yo‘nalishlariga qaratilgan tadqiqotlarga ehtiyoj yuqoridir.

Kichik sanoat zonasi (KSZ) – hududni ijtimoiy soha hamda sanoatni rivojlantirishga mamlakat va xorij investitsiyalarini, innovatsion texnologiya va boshqaruv tajribasini jalb etish maqsadida tuziladigan, alohida huquqiy tartibga ega bo‘lgan maxsus ajratilgan joydir. Kichik sanoat zonasi hududida yuridik va jismoniy shaxslar moliyaviy, xo‘jalik va O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa istalgan faoliyat turlari bilan shug‘ullanishlariga imkon beradi. Kichik sanoat zonalari faoliyatining huquqiy asoslarini, avvalo, “Kichik sanoat zonalari to‘g‘risida”gi Nizom va boshqa qonun hujjatlari tashkil etadi.

Mamlakatimizda KSZ faoliyatining shakllanishi va kelgusi taraqqiyoti uchun ilk qadam O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 31 dekabrdagi 378-sonli “Kichik sanoat zonalarini barpo etish va ularning faoliyatini tashkil qilish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi Qarori bilan qo‘yildi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda kichik sanoat va erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etilishi shuningdek, ular faoliyatini tartibga soluvchi mustahkam normativ-huquqiy asosni shakllantirish, erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalarini rivojlantirishga xorijiy hamda mahalliy kapitalni jalb etish imkonini beradigan bojxona yengilliklari va soliq imtiyozlari yaratish borasida aniq maqsadga yo‘naltirilgan ko‘pgina ishlar amalga oshirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2017-yil 10-avgustdagi PQ-3194-sonli qaroriga muvofiq Toshkent viloyati, tumanlarda 17 ta kichik sanoat zonalari tashkil etildi. Qarorga ko‘ra, kichik sanoat zonalari hududida joylashgan ko‘chmas davlat mulkidan foydalanganlik uchun ijara to‘lovi nol stavkasida belgilanadi va import uskunalar va butlovchi qismlar xaridiga yo‘naltirish uchun O‘zbekiston rekonstruksiya va rivojlanish fondidan 50 million AQSh dollari hajmdagi kredit liniyasini ochish ko‘zda tutilgan. Buxoro viloyatida 20 ta kichik sanoat zonalari tashkil etish uchun yer maydonlarini ajratish bo‘yicha tanlov e’lon qilingan. Xuddi shunday mamlakatimizning boshqa viloyatlarida ham bo‘sh maydonlarda va binolar o‘rnida kichik sanoat zonalarini tashkil etishga katta e’tibor qaratilmoqda. Xususan, Toshkent shahrining Yunusobod, Sergeli va Yakkasaroy tumanlaridagi foydalanilmayotgan korxonalar negizida barpo etilgan kichik sanoat zonalar muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. Ularda kimyo, to‘qimachilik, elektrotexnika mahsulotlari, mebel, qurilish materiallari, oziq-ovqat hamda boshqa yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqaruvchi 513 ta kichik korxonalar faoliyat olib bormoqda. 2016-yilning o‘zida ushbu korxonalar tomonidan 1,1 trln so‘mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan, 140 million AQSh dollaridan ortiq qiymatdagi tovarlar eksport qilingan, 11 mingdan ortiq ish o‘rinlari yaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.06.2019-yildagi "Kichik sanoat zonalari faoliyatini muvofiqlashtirish va boshqarishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-4363-son qarori asosida ularning ishtirokchilari uchun faoliyat yuritish sharoitlarini sifat jihatidan yaxshilash va mahsulotlarni sotishga ko‘maklashish, investitsiyalar ko‘lamini oshirish, shu asosda yangi turg‘un ish o‘rinlari tashkil etilishi va aholi daromadini ko‘paytirish asosiy maqsad hisoblanadi. Bu borada kichik sanoat zonalari hamda erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini jadallashtirish, tadbirkorlarga imkoniyat va imtiyozlarni yanada ko‘paytirish, ishlab chiqarish hajmini bir necha barobar oshirib, eksportga keng yo‘l ochish kabilar muhim vazifalar hisoblanadi.

Yangi O‘zbekiston va uning porloq kelajagi iqtisodiy asoslarini barpo etish jarayonida hududlar sanoat imkoniyatlarini oshirish, jumladan, ishlab chiqarish sohasida aholini ish bilan ta’minlash, yangi raqobatbardosh ishlab chiqarishlarni zarur infratuzilmaga ega bo‘lgan va muhandislik kommunikatsiyalari mavjud yakka joylarda yig‘ish yo‘li bilan tashkil etishda investitsiya hamda innovatsion texnologiyalarni joriy etish masalasiga alohida e’tibor berilmoqda. “Biz iqtisodiyotimizga sarmoya kiritishga intiladigan investorlar uchun hududlar va tarmoqlar bo‘yicha investitsiya loyihalarini puxta shakllantira olsak, bu masalada ijobiy natijaga erishish mumkin. Bu borada erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarida biznes subyektlarini joylashtirish, ularga imtiyoz va preferensiyalar berishni tashkiliy va huquqiy jihatdan tartibga solish lozim”[2]. Bulardan kelib chiqib, xususan,

2 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga murojaatnomasi. – Toshkent, 2018-yil 28-dekabr.

kichik sanoat zonalari faoliyati natijadorligini oshirish, sifatli va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishga imtiyozlar berish, aholini ish bilan ta'minlashga qaratilgan tadqiqotlarni ko'paytirishga imkoniyat berish maqsadga muvofiq.

Klaster – meva-sabzavot va qishloq xo'jaligi resurslarini yetishtirish va chuqur qayta ishlash, chorvachilik, baliqchilik va boshqa komplekslarni yaratish, raqobatbardosh yuqori texnologiyali va eksportbop to'qimachilik, oziq-ovqat va boshqa turdagi mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etish shakli. 2023-yilda ishtirokchisi mavjud jami 21 ta maxsus iqtisodiy zona (keyingi o'rinlarda – MIZ), 328 ta kichik sanoat zonasi (keyingi o'rinlarda – KSZ), 23 ta texnopark hamda 437 ta klasterlar (keyingi o'rinlarda – klaster) mavjud bo'lib, ularning tarkibidagi korxonalar soni MIZda 768 tani, KSZda 2 494 tani, texnoparklarda 1 694 tani va klasterlarda 440 tani tashkil etdi (1-rasm).



1-rasm: MIZ, KSZ, texnopark va klasterlar va ularning ishtirokchilari soni, 2023-yil (birlik)

Maxsus sanoat zonasi – boshqaruv, xo'jalik va moliyaviy faoliyatning alohida rejimi joriy etiladigan hudud. Maxsus sanoat zonalari zarur ma'muriy, ilmiy-texnologik, ishlab chiqarish, muhandislik-kommunikatsiya, yo'l-transporti va ijtimoiy infratuzilmani barpo etish uchun yer uchastkalarini ajratish orqali shakllantiriladigan xizmat ko'rsatish va ishlab chiqarish zonalarini o'z ichiga oladi.

Shulardan kelib chiqib hozirgi vaqtdagi eng asosiy uslubiy vazifalardan biri bu bilimlar majmuasi hamda kichik sanoat zonalari faoliyati bilan bog'liq bo'lgan yangicha yondashuvni ishlab chiqishdir. Shubhasiz, universal terminologiyani taklif qilish, shuningdek, uning izchilligini isbotlash, o'z navbatida, ilmiy doiralarda, so'ngra keng jamoatchilik o'rtasida jiddiy bahs-munozaralarni taxmin qilish oson ish emas. Shuning uchun kiritilgan terminlarning to'g'riligini asoslash o'z-o'zidan asosiy maqsad sifatida qaralmasligi lozim.

Respublikamizda Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi jami – 79 979,6 mlrd. so'mni tashkil qildi, shundan: MIZda – 37 769,2 mlrd. so'mni, KSZda – 9 505,6 mlrd. so'mni, texnopark – 910,4 mlrd. so'mni va klasterlarda – 31 794,5 mlrd. so'mni tashkil qildi. Eng yuqori sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi maxsus iqtisodiy zona hissasiga to'g'ri kelgan bo'lib, 37 769,2 mlrd. so'mni tashkil etgan. Albatta bu darajalarga erishish uchun Respublikamizda bu turdagi tarmoqlarning qo'llab quvvatlanishi natijasi sifatida rivojlanish darajalari belgilanmoqda (3-rasm).

3-rasm: Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, 2023-yil (mlrd, so'mda)

Albatta, bu korxonalarda rivojlanish bilan birga debitor va kreditor qarzdorliklar ham yuzaga kelganligini ham inobatga olib rivojlantirish va boshqarish tizimini samarali tashkil etilishi maqsadga muvofiqligini ko‘rishimiz mumkin. Birgina 2023-yilda debitor qarzdorlik miqdori jami – 19 701,6 mlrd. so‘mni tashkil qildi, shundan: MIZda – 9 754,6 mlrd. so‘mni, KSZda – 1 760,3 mlrd. so‘mni, texnopark – 2 272,6 mlrd. so‘mni va klasterlarda – 5 914,1 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Kreditor qarzdorlik miqdori jami – 23 793,3 mlrd. so‘mni tashkil qildi, shundan: MIZda – 10 759,5 mlrd. so‘mni, KSZda – 2 518,6 mlrd. so‘mni, texnopark – 2 731,7 mlrd. so‘mni va klasterlarda – 7 783,4 mlrd. so‘mni tashkil etdi. 2023- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, debitor qarzdorlik miqdori jami – 16 377,9 mlrd. so‘mni tashkil qildi, shundan: MIZda – 6 950,7 mlrd. so‘mni, KSZda – 1 212,7 mlrd. so‘mni, texnoparklar – 1 004,1 mlrd. so‘mni va klasterlarda – 7 210,4 mlrd. so‘mni tashkil qilgan. Kreditor qarzdorlik miqdori jami – 9 121,2 mlrd. so‘mni tashkil qildi, shundan: MIZda – 4 995,7 mlrd. so‘mni, KSZda – 696,8 mlrd. so‘mni, texnoparklar – 65,8 mlrd. so‘mni va klasterlarda – 3 362,9 mlrd. so‘mni tashkil qilgan.

Hozirgi kunda kichik sanoat zonalarini tashkil etish va rivojlantirishga kiritilgan investitsiyalardan samarali foydalanish uchun mavjud muammolarni aniqlash va ularni ijobiy hal etish uchun ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish – kichik sanoat zonalari faoliyati samaradorligini baholashga ta’sir etuvchi omillarni tahlil qilishni va o‘zaro bog‘lanishlarni aniqlashni taqozo etadi. Shu boisdan tadqiqotimizning mazkur qismida kichik sanoat zonalarini tashkil etish va samarali boshqarish hozirgi zamon amaliyotining tahliliga e’tibor qaratiladi. Bu jarayonlarda asosiy xom ashyo yetkazib beruvchi fermer xo‘jaliklarning ham o‘rni beqiyos [6].

Respublikamizda kichik sanoat zonalari faoliyati samaradorligini baholash xalqaro maydonda yetakchi va nufuzli tashkilotlar, moliya institutlari, ilmiy-tadqiqot tashkilotlari tomonidan har yili e’lon qilinib boriladigan sohalar bo‘yicha xalqaro reytinglar va indekslarda tobora yuqori pog‘onalarga ko‘tarilish orqali mamlakatga xorijiy investorlarning ishonchini yanada mustahkamlash, xalqaro reytinglarga yuqori o‘rinlarga intilish barobarida kichik sanoat zonalariga investitsiyalar oqimini yanada oshirishga qaratilgan muhim tarkibiy islohotlarni o‘tkazishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Hududlar biznes muhitini rivojlantirish va samarali boshqarish yo‘nalishlari sifatida kichik sanoat zonalarini samarali boshqarish yo‘nalishlari yuzasidan quyidagi xulosa va takliflar ishlab chiqish maqsadga muvofiq:

1. Kichik sanoat zonalarini barpo etish va rivojlantirishning barcha bosqichlarini e’tiborga oluvchi yagona, ilmiy jihatdan asoslangan konseptual modeli ishlab chiqildi. Modelga ko‘ra, kichik sanoat zonalarini barpo etish bo‘yicha birinchi taklif hududlarning mahalliy davlat hokimiyat organlari tomonidan berilishi mantiqan to‘g‘ri bo‘lishi ishda ko‘rsatib o‘tildi.
2. Qashqadaryo viloyatida ko‘p mahsulot turlarini ishlab chiqaruvchi kichik sanoat zonalarida (Chiroqchi tumani “Paxta tozalash zavodi” KSZ, “Konserva zavodi” KSZ, “Ayritom” KSZ larida har xil tarmoqqa qarashli mahsulot turlari ishlab chiqariladi) bir sanoat tarmog‘iga qarashli mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashgan KSZlarni barpo etish va ularni klasterlash mumkinligi izohlab berildi.
3. Sanoat ishlab chiqarish imkoniyati bo‘lgan shahar chetlarida va tuman hududlarida grinfild (obyektlar qurilmagan bo‘sh yer maydoni) kichik sanoat zonalarini barpo etishni yo‘lga qo‘yish taklifi ishlab chiqildi va zonaning bino va inshootlarini qurish va qimmatbaho, ilg‘or xorijiy uskuna va texnologiyani sotib olishda davlat-xususiy sheriklikdan foydalanish mexanizmlari ishlab chiqildi va uning samarali tomonlari izohlab berildi. Ma’lumki, ayrim hududlarda foydalanilmaydigan davlat mulki obyektlari cheklangan, deyarli mavjud emas. Bu joylarda grinfild KSZlarni barpo etish KSZlarini miqyosi kengayishiga, sanoat ishlab chiqarish hajmini oshirish va hududni iqtisodiy rivojlanishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlariga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 31.01.2023 yildagi PQ-39-son. Кучга кириш санаси. 31.01.2023.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari to‘plami. 2017 y. 6-son.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 1-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-5495-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 02.08.2018-y., 06/18/5495/1611-son.
4. Samanov A.A. Biznes muhiti: nazariya va amaliyot. Darslik. –T.: “Universitet”, –2022. –248 bet.
5. Ashurov M. M “Kichik sanoat zonalari: qulay biznes muhitini yaratish va hududni rivojlantirishda muhim omil sifatida” Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences volume 1 | issue 8 issn 2181-1784 2021 yil.
6. Мирзаев М.У. Анализ потенциала сельско хозяйственных производителей в Республике Узбекистан. 2017 г. С. 1021-1024. EDN: ZTKLEF
5. www.stat.uz

IJTIMOIY RIVOJLANISH XULQ-ATVOR PARADIGMASIDA YOSHLARNING TADBIRKORLIK FAOLIYATINI TARTIBGA SOLISHNING NAZARIY ASOSLARI

Mirzatov Baxtiyor Toxirovich
Namangan muhandislik-texnologiya instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada yoshlar bandligini ta'minlashda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning tutgan o'rni, tadbirkorlik faoliyati asosiy tushunchalariga nazariy yondoshuvlar, ijtimoiy rivojlanishning xulq-atvor paradigmasida yoshlarning tadbirkorlik faoliyati va uni tartibga solishning muhim jihatlari, milliy qadriyatlarning asosiy yo'nalishlaridan kelib chiqib, yoshlarning iqtisodiy faolligini oshirish masalalari to'g'risida bayon qilingan.

Kalit so'zlar: yoshlar, bandlik, kichik biznes, tadbirkorlik, qadriyat, ijtimoiy rivojlanish, iqtisodiy faollik, xulq-atvor, tartibga solish.

Abstract: In this scientific article, the role of small business and private entrepreneurship in ensuring youth employment, theoretical approaches to the main concepts of entrepreneurship, the important aspects of youth entrepreneurship and its regulation in the behavioral paradigm of social development, based on the main directions of national values, issues of increasing the economic activity of young people are described.

Key words: youth, employment, small business, entrepreneurship, value, social development, economic activity, behavior, regulation.

Аннотация: В данной научной статье рассмотрены роль малого бизнеса и частного предпринимательства в обеспечении занятости молодежи, теоретические подходы к основным понятиям предпринимательства, важные аспекты молодежного предпринимательства и его регулирования в поведенческой парадигме общественного развития, исходя из основных направлений описаны национальные ценности, вопросы повышения экономической активности молодежи.

Ключевые слова: молодежь, занятость, малый бизнес, предпринимательство, ценность, социальное развитие, экономическая деятельность, поведение, регулирование.

KIRISH

Iqtisodiyot nazariyasida "tadbirkorlik" iborasi ikki xil nuqtai nazardan qo'llaniladi: butun ilmiy intizomning belgisi sifatida, korxonalar (kompaniyalar, korporatsiyalar va boshqalar) faoliyatini o'rganuvchi nazariy pozitsiyadan va shu kabi, ushbu guruh korxonalarning tabiati, xulq-atvori, evolyutsiyasi yoki faoliyatining boshqa jihatlarini ochib beruvchi muayyan qarashlar tizimi. Ushbu maqolada tadbirkorlik nazariyasi (modeli) o'ziga xos qarashlar tizimi sifatida ko'rib chiqiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiy adabiyotlarda tadbirkorlik nazariyasi (modeli) deganda u yoki bu guruh shaxslarining mohiyati, xulq-atvori va evolyutsiyasiga oid qarashlarning yaxlit tizimi tushunilsa, ikkinchi tomondan, vaqtinchalik, tarmoq xususiyatlariga, hajmiga, ma'lum bir tashkiliy-huquqiy shaklga mansubligi, ma'lum bir mulkchilik tuzilmasining mavjudligi va boshqalarga ko'ra shakllanib borishi nazarda tutiladi. Har bir aniq tadbirkorlik faoliyati turli guruhlarga tegishli bo'lganligi sababli, hatto bitta korxonaning turli nazariyalari haqida gapirish mumkin.

Iqtisodiyot nazariyasida tadbirkorlik faoliyatining bir qator asosiy nazariyalari ajralib turadi. Ularning har birida korxona ma'lum nuqtai nazardan, o'rganilayotgan obyektning muayyan xususiyatlariga urg'u berilgan holda yoki mamlakatning iqtisodiy holatini hisobga olgan holda ko'rib chiqiladi. Tadbirkorlikning qancha nazariyalari va modellari borligini aytish mumkin emas, chunki har bir muallif o'z fikrlarini keltiradi.

MAVZUNING METODOLOGIYASI

Ma'lumki, mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning eng ustuvor yo'nalishlaridan biri aholining juda katta qismini tashkil qilayotgan yoshlarning ish bilan faol bandligini ta'minlash, bu borada ularni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilish, yoshlarning biznes g'oyalarini qo'llab-quvvatlash hisoblanadi. Shu maqsadda O'zbekistonda yoshlar tadbirkorligi, uni qo'llab-quvvatlash borasidagi imkoniyatlarni yanada kengaytirish va faol bandligini ta'minlash bo'yicha yangi mexanizm joriy etish vazifasiga alohida e'tibor qaratilgan.

Mazkur tadqiqotda mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar, tadbirkorlik faoliyati asosiy tushunchalari hamda milliy qadriyatlarning asosiy yo'nalishlaridan kelib chiqib ijtimoiy rivojlanishning xulq-atvor paradigmasida yoshlarning tadbirkorlik faoliyati va uni tartibga solishning muhim jihatlari o'rganilgan.

TAHLIL VA NATIJADORLIK

Klassik iqtisodiy nazariyaga ko'ra, bu nazariyada korxona va tadbirkorning o'rni unchalik katta emas edi, chunki u faqat ishlab chiqarish funksiyasiga tushirilgan edi. Yaratilgan mahsulotni (tovar va xizmatlarni) realizatsiya qilish jarayoni J.B.Seyning asosiy iqtisodiy qonuniga muvofiq amalga oshiriladi, unga ko'ra "yalpi talab yalpi taklifga tengdir" [1]. A.Smitning fikricha, tadbirkorlarning erkin faoliyat yuritishiga qanchalik erkinlik berilsa, iqtisodiy rivojlanish shunchalik jadallashadi [2]. Smit iqtisodiy faoliyatga to'siq bo'luvchi asosiy kuch bu – davlat, deb hisoblaydi. Smitning liberal qarashlari Yevropada, xususan, Angliyada keng ommalashgan va o'sha davr hukumatlari tomonidan liberal qonunlar va qarorlar qabul qilinishiga ilmiy asos bo'lgan.

Neoklassik tadbirkorlikni xomashyo resurslarini mahsulotga aylantiruvchi va bu resurslardan ishlab chiqarishda foydalanadigan yaxlit obyekt sifatida qaraydi. Ushbu tadbirkorlik modelining asosiy g'oyasi ishlab chiqarish funksiyasi bo'lib, u ishlab chiqarish natijalarining sarflangan resurslarga bog'liqligiga asoslanadi. Tadbirkorlikning xatti-harakati foydalaniladigan resurslarning hajmi va tuzilishini, shuning uchun foydalaniladigan mahsulotlarni tanlash bilan belgilanadi. Tadbirkorlikning neoklassik tushunchasi – bu resurslarni jamiyat uchun zarur bo'lgan tayyor mahsulotga aylantirish va ularni bozorda erkin sotishdan iborat bo'lib, bu hozirgi vaqtda iqtisodiyot fanida umume'tirof etilgan tushunchadir.

Tadbirkorlikka oid neoklassik namoyondalarining o'z nazariyalari mavjud. Ushbu nazariyalar umumlashtirilgan mukammal ratsionallik va tadbirkorlik funksiyasining o'ziga xosligi va zarurligini tushuntirish uchun to'liq ma'lumotlarga xarajatsiz kirish haqidagi taxminlarni qisman rad etadi. Ular mukammal ratsionallikni ayrim shaxslar bilan chegaralanishini va bozorda qimmatga tushishi mumkin bo'lgan foyda imkoniyatlari haqida to'liq ma'lumotni taxmin qiladilar. Shu tarzda, tadbirkorlik funksiyasi mahsulot innovatsiyasini, noaniqlikni, ishlab chiqarish funksiyalariga to'liqlik berishni foyda olish imkoniyatlarini tashkil qilishni jamoaviy ishlab chiqarish, bozorni yaratish, yetakchilik yoki ularning kombinatsiyasini o'z ichiga olishini ta'kidlashadi [3].

Neoklassik yondashuvlar tadbirkorlikning o'ziga xosligini aholi o'rtasida umumlashgan xususiyat o'rniga mukammal ratsionallikni tanlab olish, to'liq ma'lumotlarning erkin foydalanish o'rniga qimmatga tushishi bilan tushuntiradi. Ammo agar ma'lumot to'liq va ratsionallik mukammal bo'lib qolsa, foyda olish imkoniyatlarining paydo bo'lishi, xabardorligi va ulardan foydalanish ekzogen tarzda berilganligi sababli tushuntirilmaydi. Neoklassik nazariya qoidalari va tadbirkorlik faoliyatining amaldagi nomuvofiqligi muammoni hal qilishda yangi yondashuvlarni izlash zaruratini keltirib chiqardi.

I. Ansoffning strategik rejalashtirish konsepsiyasiga ko'ra tadbirkorlik faoliyati boshqaruv obyekti, strategik rejalashtirish esa uning funksiyalaridan biri sifatida qaralgan.

O'zining korxona modelida u quyidagi asosiy fikrlarni aniqladi:

1) prinsipial jihatdan yangi vazifalarning paydo bo'lishi tufayli boshqaruv tajribasining qadrsizlanishi;
2) bozorlarning geografik chegaralarining kengayishi munosabati bilan vazifalar sonining ko'payishi bilan bog'liq boshqaruv muammolarining murakkablashishi;
3) bir tomondan, vazifalarning murakkabligi va yangiligi, ikkinchi tomondan, o'tmishda olingan mavjud boshqaruv ko'nikmalari o'rtasidagi tafovutning paydo bo'lishi va ortishi;
4) yangi vazifalar chastotasining ortishi bilan bog'liq bo'lgan strategik kutilmagan hodisalar ehtimolining oshishi.

Ushbu konsepsiyaga ko'ra, tadbirkorlik faoliyati resurslardan foydalanishning optimal kombinatsiyasini izlamaydilar, lekin cheklangan miqdordagi variantlarni taqqoslashlariga qaramay, eng samarali variantni tanlaydilar (umuman olganda optimal bo'lmasligi mumkin).

Tadbirkorlik faoliyatining institutsional nazariyasi. Institutsional nazariyaga ko'ra, korxona odamlar tomonidan o'z imkoniyatlaridan samaraliroq foydalanish uchun yaratilgan tadbirkorlik subyekti sifatida qaraladi.

Kerakli materiallar va asbob-uskunalarni sotib olish bilan bog‘liq holda, korxona tashkil etilgan taqdirda muomala xarajatlari korxona tashkil etmasdan bir xil mahsulotni ishlab chiqarishga qaraganda kamroq bo‘ladi, bu korxonalar mavjudligini tushuntiradi.

Tadbirkorlik faoliyati nazariyasining institutsional versiyasi, neoklassikdan farqli o‘laroq, ishlab chiqarish omillari xarajatlari va maksimal qiymat o‘rtasidagi texnologik bog‘liqlikni ifodalash shakli sifatida mavjud ishlab chiqarish funksiyasiga muvofiq xo‘jalik yurituvchi subyektni xarajatlarning tegishli kombinatsiyasi bilan mumkin bo‘lgan mahsulot ishlab chiqarish xatti-harakatlarini bashorat qilishga e’tibor qaratmaydi.

Evolyutsiya nazariyasida tadbirkorlik faoliyati o‘ziga xos muhitdagi subyektlardan biri sifatida qaraladi. Tadbirkorning xulq-atvori, birinchidan, jamiyat a’zolari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar, ikkinchidan, uning ba’zi ichki xususiyatlari, xususan, muayyan ichki va tashqi omillarning ta’sirini hisobga olgan holda qaror qabul qilish qoidalari bilan belgilanadi. Tadbirkorlikning faoliyati va uning kontragentlar bilan o‘zaro munosabatlari jarayonida tegishli an’analar shakllantiriladi va qarorlar qabul qilish tartiblari, ichki va tashqi muhitdagi o‘zgarishlarga javob berish algoritmlari ishlab chiqiladi.

Evolyutsion konsepsiyaga ko‘ra, bu qoidalar odatda korxonalarni tavsiflaydi va raqobatda bir korxonani boshqasidan ajratib turadi [4]. “Evolyutsiyachilar” fikriga ko‘ra, qabul qilinadigan qarorlarning mohiyatini har qanday sharoitda foydani maksimal darajada oshirishga bo‘lgan ko‘r-ko‘rona istagi emas, balki belgilangan qoidalardir. Ushbu qoidalar tadbirkorning ishbilarmonlik muhitidagi o‘zgarishlarga muvofiq o‘zgaradi va korxona menejerlarining shaxsiyatini, ularning sheriklar bilan munosabatlarining xarakterini aks ettiradi.

Evolyutsion konsepsiyaning o‘ziga xos xususiyati korxonani bir tomondan, u biznes jamiyatining a’zosi bo‘lib, uning evolyutsiyasi ta’sirida to‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomondan, u o‘z an’analarini boshqaradi. faoliyat yo‘nalishlarini, resurslarni jalb qilish hajmlari va nisbatlarini aniqlash kabi ikki pozitsiyadan qabul qilishda namoyon bo‘ladi.

Tadbirkorlik subyektining tadbirkorlik modeli korxonaning tadbirkorlik tashabbusi sohasi sifatidagi g‘oyasiga va tadbirkor uchun mavjud resurslarga asoslanadi [5]. Albatta, hamma korxonalar ham tadbirkor emas va shu ma’noda tadbirkorlik nazariyasi boshqa turdagi korxonalar nazariyasiga qaraganda ancha cheklangan o‘rganish obyektiga ega. Tadbirkorlik konsepsiyasiga ko‘ra, xatti-harakatlari korxona faoliyatiga ta’sir qiladigan tadbirkorlarning uch turi mavjud:

- makro tadbirkorlar kompaniyaning tashqi aloqalarini boshqaradi;
- mezo-tadbirkorlar korxonaning ichki faoliyatidagi moddiy va moliyaviy oqimlarni, shu jumladan innovatsion tadbirlarni boshqaradi;
- mikro tadbirkorlar – korxonaning mikro bo‘g‘ini darajasida, ish o‘rinlarini tashkil etishgacha faoliyat yuritadi.

Shuni ta’kidlash kerakki, korxona nazariyasining tadbirkorlik versiyasida tadbirkorlik subyektining rahbari har qanday sharoitda tadbirkor bo‘lib qoladi – uning maqsadi va kasbiy hayoti mavjud ehtiyojlarni qondirish uchun ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish hisoblanadi.

1912-yilda J.Shumpeterning “Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi” kitobida keltirilgan konsepsiyasi tadbirkor”ni – “innovator” bilan, tadbirkorlikni innovatsiyalar faoliyatini tahlil qilish bilan bog‘ladi [6]. Tabiiyki, bunday nuqtai nazar innovatsion faoliyat ixtirolar va yangi texnologiyalarda yetarlicha aniq namoyon bo‘lgandagina shakllanishi mumkin edi.

Shumpeterning so‘zlariga ko‘ra, “tadbirkorlik – bu yangi kombinatsiyalarni amalga oshirishdan iborat bo‘lgan va uning faol elementi bo‘lgan iqtisodiy subyektlardir” – deb ta’riflaydi [7]. Agar joriy qilingan kombinatsiyalar va ular yordamida amalga oshirilgan ishlab chiqarish asosida ishlab chiqarilgan tovarlarning o‘zgarmagan to‘plami, miqdori va iste’mol usullari bilan tavsiflangan sikl doirasida ishlay boshlasa, jismoniy shaxs tadbirkor deb hisoblanmaydi. Shuning uchun juda kam sonli shaxslarni o‘nlab yillar davomida tadbirkor deb hisoblash mumkin.

Shunday qilib, yuqoridagi tushunchalarning har biri korxonani ma’lum bir jihatda ko‘rib chiqadi. Ba’zi tushunchalar (nazariyalar, modellar) allaqachon o‘z vaqtidan o‘tib ketgan. Buning o‘rniga, ularning har birini e’tiborsiz qoldirib bo‘lmaydi, chunki ularning har biri o‘zining ijobiy va salbiy tomonlariga ega.

Shu sababli, iqtisodiy adabiyotlarda tadbirkorlikning umumlashtirilgan nazariyasini yaratish to‘g‘risida fikrlar bildirilgan bo‘lib, u tadbirkorlikning o‘ziga xos tizim integratori – vaqt va makonda turli xil ijtimoiy-iqtisodiy obyektlarni birlashtirgan yaxlit iqtisodiy obyekt sifatida tushunchasi bo‘lishi kerak va bu orqali tizimli multiplikativ samaradan foydalanish yordamida qayta ishlaydi hamda samaradorlikka erishadi.

Tadbirkor va tadbirkorlik tushunchasini tahlil qilib, shaxsning tadbirkorlik faoliyatini boshqa faoliyat turlaridan ajratib turadigan asosiy xavfning mavjudligi, xususan, yo‘qotish xavfi, rejalashtirilgan foydani olmaslik, aktivlarning yo‘qolishi va boshqa xususiyatlarni ajratib ko‘rsatish mumkin. Albatta, tadbirkor foyda olishga intiladi. Foyda nafaqat tadbirkorning mehnatini mukofotlash, balki biznesni rivojlantirish, ishlab chiqarishni mod-

ernizatsiya qilish, ishlab chiqarishni kengaytirish manbayi bo‘lib, tadbirkorlik faoliyati cheklangan resurslardan foydalanish asosida amalga oshirilishi kerak. Shuningdek, tadbirkorlik faoliyati davlatning tovarlarga, ishlarga va xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan bo‘lib, tadbirkorlik innovatsiyalarga asoslanadi.

Yuqorida keltirilgan mutaxassis olimlarning fikr-mulohazalarni umumlashtirgan holda bizningcha, “Tadbirkorlik – jismoniy shaxs yoki jismoniy shaxslar guruhining (tadbirkor sifatida ro‘yxatdan o‘tgan yoki yuridik shaxs sifatida tashkil etilgan) mahsulot, ishlarni, xizmatlarni o‘zgartirishga bo‘lgan davlat ehtiyojlarini qondirish asosida, moddiy va nomoddiy resurslarni jalb qilishni hamda kontragentlar bilan o‘zaro munosabatlarni talab qiladigan ijtimoiy mas’uliyatga va tavakkalchilikka asoslangan faoliyat” – deb ta’riflash mumkin.

Ushbu berilgan ta’rif tadbirkorlik faoliyatining mustaqil shaxslar guruhi amalga oshirishi va bu esa ushbu guruh a’zolarining tadbirkorlik faoliyatida teng ishtirok etish belgilariga e’tibor qaratish imkonini beradi. Chunki ushbu faoliyatda tadbirkor ish beruvchi sifatida xodim bilan mehnat munosabatlarida ish beruvchi buyruq beradi va xodim ularni bajaradi. Bu mehnat munosabatlarini birgalikdagi tadbirkorlik faoliyati doirasidagi kishilarning o‘zaro munosabatlaridan ajratib turadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadbirkorlik jihatlari tadbirkorlik faoliyatiga ta’sir etuvchi tarkibiy qismlardan (subyektlar, obyektlar, jarayonlar) tashkil topgan tadbirkorlik faoliyatining alohida tarkibiy qismidir. Tadbirkorlik faoliyatining barcha jihatlari tadbirkorlikka ta’sir qiladi va o‘z navbatida tadbirkorlik ham tadbirkorlik faoliyatining tomonlariga ta’sir qilishi mumkin. Tadbirkorlik va tadbirkorlikning o‘zgaruvchan jihatlarining o‘zaro ta’siri xavf va noaniqlikning mavjudligini nazarda tutadi.

Davlat iqtisodiy munosabatlarning kuchli ishtirokchisidir, chunki aynan u iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish dasturlari orqali kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, davlat banklari pul-kredit siyosatini shakllantirish, davlat korxonalari hisobidan davlat iqtisodiyotida ishtirok etish va boshqa iqtisodiy munosabatlarga ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Umuman olganda, tadbirkorlik faoliyati jihatlari doirasidagi siyosat nafaqat davlat aralashuvining natijasi, balki tadbirkorning boshqa kontragentlar bilan o‘zaro munosabati, tadbirkorlar hamjamiyatining davlat bilan o‘zaro hamkorligidir. Bir tomondan, tadbirkorlik davlat siyosatiga bog‘liq, chunki davlat qonunchilikni tartibga solish shaklida qoidalarni shakllantiradi va davlat siyosatiga ta’sir qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Say, J.-B. (1803), TraitÈ díÈconomie politique ou simple exposition de la maniËre dont se forment, se distribuent ou se consomment les richesses, CalmannLÈvy …diteur, Paris, 1972.
2. Smith, A. (1976 [1776]-a). An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations, Volume 1, vol. Vol. 2/1, The Glasgow Edition of the Works and Correspondence of Adam Smith. Clarendon Press, Oxford.
3. Baumol, W.J., 2010. The Microtheory of Innovative Entrepreneurship (The Kauffman Foundation series on innovation and entrepreneurship). Princeton, NJ: Princeton University Press.
4. Клейнер Г.Б. От теории предприятия к теории стратегического управления / Российский журнал менеджмента. – 2003. – № 1. – С. 31-56.
5. Schumpeter, J.A. The theory of economic development: an inquiry into profits, capital, credit, interest, and the business cycle //New York: OUP. – 1961. – P. 53-57.
6. В.Филюк. Инновационная теория предпринимательства Й.А.Шумпетера / Актуальные проблемы развития предпринимательской деятельности в Украине Сборник научных трудов студентов, аспирантов и молодых ученых, выпуск 8 (под. ред. проф. А.В.Шегды) университет”, 2008. – С. 117 – 124.
7. Й.Шумпетер. Теория экономического развития. –М.: – “Эксмо”, 2007.

KORXONALAR INNOVATSION FAOLIYATIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING MUHIM YO‘NALISHLARI

Yuldasheva Kamola Miraliyevna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Maqolada mamlakatimiz ishlab chiqarish korxonalarining raqamli transformatsiyasini boshqarish masalalari, uning rivojlanish yo‘nalishlari, raqamli transformatsiyani amalga oshirishning korxona innovatsion faoliyatini takomillashtirishdagi afzalliklari ochib beriladi, korxonalarda raqamli transformatsiyani amalga oshirish bo‘yicha yo‘nalishlar taklif qilinadi.

Kalit so‘zlar: raqamlashtirish, innovatsion faoliyat, innovatsion infratuzilma, boshqaruv samaradorligi, raqamli egizaklar.

Abstract: The article reveals the issues of managing the digital transformation of the production enterprises of our country, its development directions, the advantages of the implementation of the digital transformation in improving the innovative activity of the enterprise, the directions for the implementation of the digital transformation in the enterprises are proposed.

Key words: digitization, innovative activity, innovative infrastructure, management efficiency, digital twins.

Аннотация: В статье раскрываются вопросы управления цифровой трансформацией производственных предприятий нашей страны, направления ее развития, преимущества реализации цифровой трансформации в повышении инновационной активности предприятия, направления реализации цифровой трансформации. предложены преобразования на предприятиях.

Ключевые слова: цифровизация, инновационная деятельность, инновационная инфраструктура, эффективность управления, цифровые двойники.

KIRISH

“Raqamli O‘zbekiston–2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-sonli Farmonining eng asosiy vazifasi “Raqamli O‘zbekiston–2030” konsepsiyasini amaliyotga tatbiq etish bo‘lib, unda barcha soha va tarmoqlarni kompleks transformatsiya qilish masalasi qamrab olingan [1]. Zamonaviy iqtisodiy sharoitlar, raqamli texnologiyalarning iqtisodiyotning barcha sohalariga jadal kirib kelishi natijasida xo‘jalik yurituvchi subyektlar an’anaviy ishlab chiqarish jarayonlari va modellarini o‘zgartirishga majbur bo‘lmoqdalar. Shu sababli korxonalarning boshqaruv tizimi ham raqamli transformatsiya sharoitida innovatsion yondashuv va texnologiyalarga asoslangan o‘zgarishlarga duch kelmoqda. Aynan xo‘jalik yurituvchi subyektlar boshqaruv faoliyatidagi raqamli innovatsiyalar korxonaning strategik istiqbolda omon qolishi va rivojlanishini ta’minlaydi.

Raqamli transformatsiya ishlab chiqarishning turli darajalarida innovatsion texnologik yechimlarni faol ishlab chiqish va joriy etishni oldindan belgilab berdi. Raqamli innovatsiyalar korxonalarning o‘zgaruvchan biznes muhitida ishlashi uchun asosiy (qo‘llab-quvvatlovchi) vositalarga aylanmoqda. O‘zgarishlar boshqaruv tizimlariga, raqobat qoidalari va mexanizmlariga, qo‘shimcha qiymat zanjirlarini shakllantirish jarayonlariga va boshqalarga ta’sir ko‘rsatdi. Tarmoqlar va faoliyat turlari strukturasining o‘zgarishi va chegaralarining yo‘qolishi – o‘zaro ta’sir jarayonlarining o‘zgarishi, an’anaviy tamoyillar va yondashuvlar va ularni yangilari bilan almashtirish, lekin raqamlilashtirish sharoitida innovatsion rivojlanish imkoniyatlarining paydo bo‘lishi va ularning mavjudlari bilan integratsiyalashuviga olib keldi. Korxonani strategik boshqarish kompleks strategiyani ishlab chiqishni taqozo etadi, uning maqsadi mahalliy sanoat mahsulotlarining global raqobatbardoshligini ta’minlashdan iborat. Ayni paytda kun tartibida strategiyaning yangi mazmuni – raqamli strategiya bo‘lib, uni ishlab chiqish uchun bir qator shartlar – internet tarmog‘ining mavjudligi, raqamli xizmatlar, mobil qurilmalar va boshqa raqamli texnologiyalardan foydalanish mavjud. Ushbu o‘zaro ta’sirlarda raqamli texnologiyalarga asoslangan standartlar va algoritmlar tobora muhim rol o‘ynay boshladi. Sanoat korxonalarini raqamlashtirish faoliyat samaradorligini oshirishga, ya’ni ishlab chiqarish hajmining oshishi, mahsulot tannarxining pasayishi, mehnat unumdorligining oshishi va boshqaruv xatolarining kamayishiga olib keladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ishlab chiqarishdagi innovatsion faoliyat va sanoatdagi raqamli transformatsiyalar bilan bog‘liq masalalar ko‘plab mahalliy va xorijiy mualliflarning tadqiqot mavzusiga aylangan. Jumladan, fanga ilk marotaba innovatsiya tushunchasini kiritgan Y.Shumpeterning ilmiy tamoyillariga ko‘ra, innovatsiya tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan ishlab chiqarish omillarining yangi tashkiliy-boshqaruv birikmasidir [7].

B.Tvissning fikricha, “Innovatsiyani yangi ixtiro yoki yangi g‘oyaning iqtisodiy ma’no kasb etishi jarayoni” [9] hisoblanadi.

Oslo qo‘llanmasining (2018-yil) 4-nashrida (OECDning innovatsion faoliyatni rejalashtirish va hisobga olish uslubiy vositasi) innovatsiya “avvalgisidan sezilarli darajada farq qiladigan yangi yoki takomillashtirilgan mahsulot (jarayon)” [11] sifatida tavsiflanadi.

Shuningdek, MDH mamlakatlarida ushbu masalani tadqiq qilgan S.Agarkovning fikricha esa innovatsion faoliyatni rivojlantirish va boshqarish vositalari to‘plami innovatsion siyosat bo‘lib, u davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari va xo‘jalik yurituvchi subyektlarning fan va texnika sohasidagi maqsadlari, yo‘nalishlari, faoliyat turlarini belgilaydi [2].

Mahalliy iqtisodchi olimlarimizdan Sh.Otajonov tomonidan ham iqtisodiyotni innovatsion rivojlanish yo‘liga o‘tkazish, xususan, sanoat korxonalarini innovatsion boshqarishda inson omilining ahamiyatini oshirishga qaratilgan tadqiqotlar olib borilgan [4].

Zamonaviy innovatsion siyosatning asosiy elementi bu raqamlashtirishdir. Raqamli iqtisodiyotning jamiyat, sanoat va jamiyat hayotiga ta’sirini baholash uchun raqamli iqtisodiyot, raqamlashtirish va raqamli texnologiyalarning ta’riflarini berish kerak.

“Raqamli iqtisodiyot” atamasi olim N.Negroponte tomonidan 1990-yillar boshida barcha jarayonlar raqamli shaklda amalga oshiriladigan yangi rivojlanish paradigmasining innovatsion xarakteristikasi sifatida kiritilgan [6].

Shuningdek, P. Parviainen raqamlashtirish analog ma’lumotlarni (ayniqsa, rasm, video va matndan so‘nggi foydalanishda) raqamli shaklga aylantirish harakati yoki jarayoni ekanligini ta’kidlaydi [5].

D.Terrarning ta’kidlashicha, raqamlashtirish jarayoni tashkilot boshqaruvidagi o‘zgarishlarni o‘z ichiga oladi, turli fikrlashni o‘z ichiga oladi, innovatsiyalarni va yangi biznes modellarini ishlab chiqishni rag‘batlantiradi, shu jumladan, aktivlarni raqamlashtirish va foydalanuvchi tajribasini yaxshilash uchun texnologiyalardan foydalanishni ko‘paytirish, tashkilot xodimlari, mijozlar, tovar yetkazib beruvchilar, hamkorlar va aksiyadorlar [10].

Mamlakatimizda bu masalada tadqiqot olib borgan J.Tuxtabayevning fikrlariga ko‘ra raqamli iqtisodiyotda innovatsion faoliyat sanoat korxonalarida ishlab chiqarish munosabatlari, xo‘jalik yuritish mexanizmi, shakllari va mehnatni tashkil etishning intellektual jarayonlarida namoyon bo‘ladi [8].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Raqamlashtirishning innovatsion jarayonlardagi ahamiyatini ochib berish uchun maqolada iqtisodchi olimlarning ilmiy tadqiqotlarni o‘rganish, qiyosiy solishtirish, statistik ma’lumotlarni o‘rganish va iqtisodiy jihatdan taqqoslash va tahlil qilish usullaridan keng foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Globallashuv sharoitida dunyoning aksariyat davlatlarining ishlab chiqarish va iqtisodiy tizimlari transformatsiya va modernizatsiyani boshdan kechirmoqda. Bu borada yetakchi xalqaro tendensiyalaridan biri bu raqamlashtirish bo‘lib, uni jahon iqtisodiyoti yetakchilari iqtisodiy faoliyatning barcha sohalarida innovatsion o‘zgarishlarning asosiy yo‘nalishi deb bilishadi. Raqamlashtirish raqamli shaklda taqdim etilgan barcha ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. Mamlakatdagi sanoat korxonalarini raqamlashtirish deganda boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun axborot va raqamli texnologiyalar, reinjiniring, katta ma’lumotlarni tahlil qilish usuli orqali mavjud ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish tushuniladi. Raqamli transformatsiya, o‘z navbatida, korxonalarning biznes-jarayonlarini ularni amalga oshirish uchun raqamli vositalardan foydalangan holda keng qamrovli qayta tashkil etishni talab qiladi, bu esa ularning xususiyatlarini rivojlantirish va takomillashtirishga hamda tubdan yangi sifatlarga ega mahsulotlar ishlab chiqarishga olib keladi.

Korxonalarda raqamli transformatsiyani amalga oshirish turli loyihalar va turli tadbirlarni o‘z ichiga oladi:

- ichki ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, shuningdek, korxona arxitekturasi, ma’lumotlar va IT aktivlarini boshqarishni joriy etishga qaratilgan raqamlashtirishni an’anaviy joriy etish;
- raqamli jarayonlar amalga oshiriladigan korxona arxitekturasining yangi tarkibiy qismlarini ishlab chiqish va shakllantirish (raqamli xizmatlar, murakkabroq arxitektura);
- raqamli aloqa almashinuv uchun tashqi ishtirokchilar va hamkorlarni jalb qilish;
- ishlab chiqarish jarayonlarini raqamlashtirishni doimiy ravishda oshirish, raqamli infratuzilmani rivojlantirish, korxonalarni raqamli tarmoqqa ulash va boshqalar.

Korxonalarning raqamli strategiyalari quyidagi transformatsion va boshqa loyihalarni amalga oshirishni ustuvor vazifa sifatida belgilab olishi kerak:

- raqamli axborotni joriy etish;
- raqamli infratuzilmani tashkil etish;
- kadrlarni rivojlantirish, o‘qitish va qayta tayyorlash institutlarini shakllantirish uchun raqamlashtirish va hokazo.

Raqamli transformatsiya sanoat sohasini innovatsion rivojlantirishning asosiy tendensiyasi bo‘lib, faqat zamonaviy sanoat ishlab chiqarishi faoliyatning barcha sohalarida raqamli texnologiyalardan foydalanishiga asoslanadi. Bugungi kunda korxonalarda ishlab chiqarishni nazorat qilish va boshqarishdan biznes-reja va raqamli hujjat aylanishigacha bo‘lgan jarayonlar raqamli texnologiyalar, ma’lumotlar va raqamli infratuzilma yordamida amalga oshiriladi (1-rasm).



1-rasm: Sanoat korxonalarining raqamli transformatsiyasi yo‘nalishlari1

Bugungi kunda sanoat korxonalari texnologik jarayonlarni boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimlarini joriy etish muammosini muvaffaqiyatli hal qildi. Bu tizimlar ishlab chiqarish jarayonlarini muayyan algoritmlar yordamida boshqarish, shuningdek, zamonaviy boshqaruv tizimlari yordamida ishlab chiqarishni boshqarish va avtomatik rejimda operatsiyalarni bajarish imkonini beradi. Agar ishlab chiqarishda texnologik boshqaruv vazifalari jarayonlarni boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimlarini joriy etish orqali amalga oshirilsa, ishlab chiqarishni to‘liq boshqarish ko‘p jihatdan hali avtomatlashtirilmagan. Ushbu vazifalar ro‘yxatiga quyidagilar kiradi: rejalashtirish, ishlab chiqarish rejalarining bajarilishini nazorat qilish, ishlab chiqarish faoliyatini optimallashtirish va nazorat qilish, ishlab chiqarish fondlaridan foydalanish samaradorligini nazorat qilish, texnologik uskunalarning xavfsizligi va ishonchliligi, xodimlarning xavfsizligi, ekologiya va boshqalar.

Ma’lumki, hozirda ishlab chiqarishdagi deyarli barcha vazifalar turli xil dasturiy vositalar yordamida korxona xodimlari tomonidan hal qilinadi. Ushbu vazifalarni biznes jarayonlarini avtomatlashtirishda hal qilinayotgan masalalarga qiyosan o‘rganib chiqsak, ishlab chiqarishni boshqarish vazifalarining asosiy qismi qo‘lda bajariladi, deb aytishimiz mumkin. Raqamli transformatsiya ushbu muammolarni hal qilishni avtomatlashtirilgan tarzda tashkil etish imkonini beradi. Haqiqiy vaqtda ishlab chiqarish ma’lumotlarining mavjudligi, axborot arxivi va

1 Muallif ishlanmasi.

oldingi tajribaga ega bo‘lgan korxona rahbariyati boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish uchun ushbu tahliliy ilovalardan foydalanish imkoniyatiga ega.

Bundan kelib chiqadiki, raqamli transformatsiya ishlab chiqarish faoliyati va ish joylariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi, xavfli hududlarda bajariladigan ishlar sonini kamaytiradi, xodimlarni katta hajmdagi kundalik ishlardan ozod qiladi, ularga xavfsizlik, samaradorlik va ishonchlilikni oshirishga e’tibor qaratish imkonini beradi.

Tadqiqot doirasida “raqamli egizak” (digital twin) ni yaratish asosida sanoat sektorini raqamli transformatsiya qilish usuli ham samara beradi, degan xulosaga keldik. Raqamli texnologiyalarning joriy etilishi bilan raqamli shaklda tobora ko‘proq ma’lumotlardan foydalanilmoqda va buning natijasida korxona faoliyatini raqamli shaklda to‘liq aks ettirish imkoniyati paydo bo‘ladi – biz raqamli ko‘rinishda (raqamli egizak) raqamli nusxani olamiz. Ushbu raqamli nusxani shakllantirish uchun raqamli texnologiyalarni joriy etish ishlab chiqarishni raqamlashtirish jarayonlarini ifodalaydi. Raqamli nusxalar ishlab chiqarish hayotiy jarayonning barcha bosqichlari uchun, dizayndan foydalanish va ta’mirlashgacha yaratiladi. Bunda korxonaning barcha biznes-jarayonlari qog‘oz hujjat va dasturiy ta’minot o‘rniga raqamli nusxa ma’lumotlaridan foydalangan holda tezlashtiriladi va avtomatlashtiriladi. Haqiqiy jarayonlarni raqamli nusxalar bilan ko‘rsatish yanada aniq va to‘liq bo‘lishi bilan yangi samarali biznes jarayonlari shakllantiriladi va amalga oshiriladi. (2-jadval)

2-jadval: Sanoat korxonalarida raqamli egizakdan foydalanishning iqtisodiy samardorligi2

Samaradorlik ko‘rsatkichi	Raqamli egizakdan foydalanish samaradorligi
Boshqaruv jarayoni	- ishlab chiqarish jarayonlari haqidagi ishonchli ma’lumotlar orqali korxona umumiy boshqaruv modelini yaxshilash; - faol va samarador boshqaruv qarorlarini qabul qilish; - ishlab chiqarish tannarxining pasayishi.
Mahsulot sifati	- mahsulot umumiy sifatining yaxshilanishi; -mahsulot nuqsonlarini barvaqt aniqlash va prognozlashtirish; - virtual sinovlar orqali tovar zaxirasining ishonchliligi, miqdori, natijadorligini tekshirish.
Loyihalash	- loyihalashdagi xatoliklarni oldindan aniqlash orqali xarajatlarni kamaytirish; - loyiha yaratuvchilari va bajaruvchilar o‘rtasidagi samarali integratsiyani ta’minlash;
Sinovdan o‘tkazish	- innovatsiyalarni virtual sinovdan o‘tkazish hisobiga xarajatlarni kamaytirish; - ekspluatatsiya qilishning virtual ssenariylarini ishlab chiqish; - innovatsion yechimlarning natijasini bozor talablariga mos tarzda real vaqt rejimida virtual sinovdan o‘tkazish; - mahsulotning bozordagi istiqbollarini oldindan aniqlab olish.
Foydalanish	- ekspluatatsiya ma’lumotlariga asoslangan dasturlarni yangilash asosida takomillashtirishni samarali amalga oshirish; - ehtiyot qismlar va xom ashyoni raqamli ro‘yxatga olish orqali ular haqidagi izoh va kafolatlangan e’tirozlarni kuzatib boorish; - ishonchlilikni oshirish orqali kafolatlangan to‘lovlar miqdorini kamaytirish

Shunday qilib, raqamli transformatsiya ma’lumotlarni raqamli hujjatlashtirishdan raqamli egizaklar va dasturiy ta’minotdan olingan ma’lumotlarga tayanadigan yangi biznes jarayonlarni shakllantirishgacha bo‘lgan butun jarayonni qamrab oladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Fan-texnika taraqqiyotining eng muhim yutuqlarini, jahon tajribasining eng ilg‘or shakldagi usul va texnologiyalarni ishlab chiqarishga yuqori darajada joriy etish orqali sanoatning barcha tarmoqlarini takomillashtirish bugungi kunning dolzarb talabidir. Shu sababli, raqamli ishlab chiqarishning rivojlanishi masalasi nafaqat nazariy jihatdan tadqiq etilishi, balki tizimli ravishda hal qilinishi kerak bo‘lgan ko‘plab boshqaruv masalalarini yuzaga keltirmoqda. Biz ham tadqiqotimiz doirasida sanoat sektorini raqamli o‘zgartirish jarayonlarini o‘rganish natijalariga ko‘ra quyidagi xulosa va takliflarni bildiramiz:

- sanoatni strategik boshqarish uchun kompleks strategiyani ishlab chiqish zarur, uning maqsadi mahalliy sanoat sektorining global raqobatbardoshligini shakllantirish, mazmuni esa raqamli transformatsiya bo‘lib, uni amalga oshirish uchun bir qator shartlar mavjud: Internet mavjudligi, raqamli xizmatlar, raqamli texnologiyalardan foydalanish, mobil qurilmalar va boshqalar;
- hozirgi bosqichda sanoat sektorini raqamli transformatsiya qilish yo‘nalishlari aniqlanib, sanoat sektorini raqamli transformatsiya qilishda “raqamli egizaklar” modelining iqtisodiy samaradorligi ochib berildi.

2 Muallif ishlanmasi.

Xulosa qilib aytganda, agar korxonalarda ilmiy asoslangan va puxta o‘ylangan raqamli muhit yaratilsa, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, xarajatlarni kamaytirish, texnologiya va uskunalarni tabiiy, iqlim va resurs xususiyatlariga maksimal darajada moslashtirish, boshqaruv qarorlarini qabul qilish tizimini takomillashtirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-sonli Farmoni.
2. Агарков С.А., Кузнецова Е.С., Грязнова М.О. Инновационный менеджмент и государственная инновационная политика: учеб. пособие. Москва: Академия естествознания, 2011. – Б.156.
3. Machekhina O. Digital of education as a trend of its modernization and reforming / O. Machekhina // Revista Espacios, 2017. –№38(40). -pp. 26–31.
4. Отажонов Ш.И. Инновация фаолияти инфратузилмасини бошқаришнинг ташкилий-иқтисодий механизмлари самарадорлигини ошириш: и.ф.д. (DSc) дисс. авторефер. –Т.: ТДИУ, 2018, -Б.95;
5. Parviainen, P. Tackling the digitalization challenge: how to benefit from digitalization in practice. / P. Parviainen, M. Tihinen, J. Kääriäinen, S.Teppola // IJISPM, 2017. –№5(1) – pp.63–77
6. Прохоров А., Коник Л. Цифровая трансформация. Анализ, тренды, мировой опыт. Москва: ООО “Альянс Принт”, 2019. – Б.368.
7. Schumpeter J. A. Theory of economic development. –M.: Progress, 1982.– p. 105.
8. Тухтабаев Ж.Ш. Ракамли иктисодиётни ривожлантириш шароитида саноат корхоналарда меҳнат самарадорлигини оширишнинг ташкилий-иктисодий механизми. Монография. –Т., 2020. – Б.170.
9. Twiss B. Management of innovations. – M.: Economics, 2009. – p. 57.
10. Terrar D. What is Digital Transformation? [Электронный ресурс] / D. Terrar// Режим доступа: http://www.theagileelephant.com/what-is-digital-transformation.
11. European Commission. URL: https://ec.europa.eu.

O‘ZBEKISTONDA AGROTURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH (BUXORO VILOYATI MISOLIDA)

Yoriyeva Farangiz Murodillayevna
Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot Buxoro viloyatida agroturizmni rivojlantirishga bag‘ishlangan bo‘lib, u bir qancha ilmiy tadqiqotlar va statistik ma’lumotlarga asoslangan. Buxoro viloyati O‘zbekistonning yirik viloyatlaridan biri va ushbu hudud tabiiy resurslarga juda boy. Bu qishloq xo‘jaligi va turizm sohasi faoliyati uchun katta imkoniyatdir. Agroturizm fermerlarning daromadlarini oshirish va qishloqlarni rivojlantirish uchun foydali muqobil faoliyat sifatida tilga olinadi.

Kalit so‘zlar: Buxoro, qishloq xo‘jaligi, qishloq hududi, fermer xo‘jaliklari, turizm, agroturizm.

Abstract: This study is devoted to the development of agrotourism in Bukhara region, based on several scientific studies and statistical data. Bukhara region is one of the largest regions of Uzbekistan and this area is very rich in natural resources. This is a great opportunity for agriculture and tourism. Agrotourism is cited as a viable alternative activity for increasing farmers’ incomes and rural development.

Key words: Bukhara, agriculture, rural area, farms, tourism, agrotourism.

Аннотация: Данное исследование посвящено развитию агротуризма в Бухарской области на основе ряда научных исследований и статистических данных. Бухарская область является одним из крупнейших регионов Узбекистана и эта территория очень богата природными ресурсами. Это прекрасная возможность для сельского хозяйства и туризма. Агротуризм упоминается как жизнеспособная альтернативная деятельность для увеличения доходов фермеров и развития сельских районов.

Ключевые слова: Бухара, сельское хозяйство, сельская местность, фермерские хозяйства, туризм, агротуризм.

KIRISH

XX asrning dastlabki yillaridan boshlab butun insoniyat hayotida ulkan o‘zgarishlar namoyon bo‘lgan. Bunday katta o‘zgarishlar fan-texnika taraqqiyotida, zamonaviy texnologiyalar yaratilishida hamda boshqarish sohalarida o‘z aksini ko‘rsatmoqda. So‘nggi yillarda xalqaro turistlar oqimi yiliga o‘rtacha 7-10 foizga o‘sayotganligi kuzatilmoqda, bu esa turizm sanoatini jahon yalpi ichki mahsulotining qariyb 10 foizdan ortiqrog‘ini tashkil etuvchi eng yirik va tez suratlarda o‘sib borayotgan iqtisodiy tarmoqlarning biriga aylandi va mazkur sohaga 2020-yilda xalqaro turistlar soni 900 million kishidan oshganligini ko‘rsatmoqda. Jahon miqyosida turizm sanoatining bandlik imkoniyatlarini oshirish, chet el valyutasini olib kelish, to‘lov balansi afzalliklarini ta’minlash va infratuzilmani rivojlantirish vositasi sifatida qaraladi hamda u dunyodagi xizmatlar eksportining taxminan 35 % va rivojlanayotgan mamlakatlarda 70 %dan ortig‘ini tashkil qilmoqda.

XX asrga kelib insonlarning sayyohlik sohasiga intilishlari kuchaydi va turizm sanoatining rivojlanishiga sezilarli turtki bo‘ldi. Shu sababli ham, uni iqtisodiy faoliyat sifatida ko‘proq jalb qilishga e’tibor o‘tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlangan [1] va butun dunyo bozorida jadal rivojlanayotgan tarmoqlardan biri ham turizm tarmog‘i hisoblanadi [2]. Xalqaro turizm oqimlari va daromadlari so‘nggi yillarda barqaror o‘sishini ko‘rsatmoqda. Shuningdek, xizmat ko‘rsatish sohasi O‘zbekiston iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishning eng muhim manbayi va omili hisoblanadi [3].

Bu esa turizm sohasining qanchalik darajada mamlakatlar iqtisodiyoti tizimida hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi. Shunisi ahamiyatliki, turizm rivojlanishi natijasida qishloq xo‘jaligi, sanoat, transport, bozor infratuzilmasi, savdo-sotiq, oziq-ovqat tarmoqlari, qurilish, hunarmandchilik, qishloq hududlari va boshqa

xizmat ko‘rsatish tarmoqlari ham rivojlanib boradi. Turizm sohasi bilan hamkorlik qilish iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini faollashtiradi, mintaqalardagi mavjud resurslardan samarali foydalanishga, qishloq hududlarining zamonaviy rivojlanishiga, odamlarning yashash darajasi va farovanligini yaxshilashga hamda xizmat ko‘rsatish sohasi xodimlarining malakasi oshib borishiga ijobiy ta’sir qiladi. Bu albatta, iqtisodiy taraqqiyotning asosiy omillaridan hisoblanadi. Taraqqiyot – rivojlangan yoki rivojlanayotgan mamlakatlarda ham inson hayoti va atrof-muhit sifati barqarorligini belgilaydigan omil hisoblanadi. Turizm iqtisodiyotning bevosita o‘ziga xos sohasi bo‘lib, u mamlakat iqtisodiyotiga salmoqli hissasini qo‘shuvchi sohadir [4].

So‘nggi yillarda dunyoning rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarida yangi avlod uchun agroturizm tushunchasi paydo bo‘lmoqda. Bugungi kunda fermer xo‘jaligining egasi faqat rahbari bo‘lib qolmasdan, agrobiznes sohasidagi agroturistik korxonaning egasi ham bo‘lishi muhim. Qishloq hududlarida agroturizmni rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlarini nazariy jihatdan tadqiq qilish uchun ushbu tushunchaning umumiy jihatlarini qarab chiqish maqsadga muvofiq deb topildi. Chunki umumiy tushunchalarni va qishloq hududlarida rivojlantirishning obyektiv zaruratini tahlil qilmasdan agroturizm xizmatlarining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini ochib berish murakkab bo‘ladi. Agroturizm nazariy jihatdan tahlil qilinganda uning ta’rifiga katta e’tibor qaratiladi. Hozirgi vaqtda jahon va mahalliy adabiyotlarda “Agroturizm” atamasini ko‘plab uchratishimiz, uning amaliy tahlillarini ko‘rishimiz mumkin.

Agroturizm atamasiga xorijiy va mahalliy adabiyotlarda bir qancha ta’riflar soha olimlari tomonidan e’tirof etilgan. Garchi, hozirgi vaqtga qadar agroturizm atamasiga mukammal va iqtisodiyotni diversifikatsiyalash asosida bozor munosabatlariga xos bo‘lgan ta’rifi yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Mavjud atamalarni tahlil qilish asosida, agroturizm asosan agroturistlarga qishloq xo‘jaligiga asoslangan turistik xizmatlarni taqdim etadigan turizm faoliyatidir. Tadqiqotimizda turizmning bunday shakldagi turlari rivojlanishi hududga keluvchi turistlarning ehtiyojiga mos barcha tadbirlarni tashkil etish va ularning muddatini uzaytirishni talab etadi. Shuning uchun agroturistik xizmatlarni ko‘rsatuvchi subyektlar faoliyatini rivojlantirish muhim. Agroturizm bilan bog‘liq mehmonxona xizmatlari turi sifatida mavjud qishloq uylarini; fermer xo‘jaliklarining dala uylarini, mavsumiy barpo etiladigan o‘tovlar, ekologik toza mahsulotlardan turistlarga oziq-ovqat va ichimliklar tayyorlash, qishloq xo‘jaligi tadbirlaridan hordiq chiqarish va boshqalarni hisobga olish ahamiyati o‘rganildi.

O‘zbekiston iqtisodiyoti va yalpi ichki mahsulotining yildan-yilga o‘sib borishida bevosita qishloq xo‘jaligi va turizm sohalari muhim o‘ringa ega. Shu boisdan qishloq xo‘jaligi va qishloq hududlarini barqaror rivojlantirishda turizm sohasining ulushi bugungi kunda chet el mamlakatlari tajribasida ham o‘z isbotini ko‘rsatmoqda. Turizmning juda ko‘p turlari mavjud bo‘lib, ularni bir qancha belgilari bo‘yicha tasniflash mumkin. Mazkur tadqiqotda qishloq hududlarini barqaror rivojlantirishda agroturizmning ahamiyatini o‘rganishga qaratilgan. Turizmning bu shaklini rivojlantirish uchun O‘zbekiston yetarli darajada potensial imkoniyatlar mavjud.

MATERIAL VA METODLAR

Mamlakatmizda esa aynan agroturizmni rivojlantirish bo‘yicha mustaqil tadqiqot ishlari amalga oshirmaganligi bizga ushbu mavzuni tadqiqot obyekti sifatida tanlashimizga sabab bo‘ldi. Avvalambor, agroturizm tushunchasiga olimlar va shu soha mutaxassislari tomonidan berilgan ta’riflarni tahlil qilamiz.

Agroturizm assotsiatsiyasi (Agro tourism association) mutaxassislari tomonidan agroturizm tushunchasiga quyidagicha ta’rif beradi. Agroturizm – qishloq joylarda tashkil etiladigan faoliyat bo‘lib, mehmonlarga kompleks xizmat ko‘rsatish, ya’ni yashash, dam olish, ovqatlanish, ekskursiya xizmatlari, bo‘sh vaqtni va sport tadbirlarini samarali tashkil etish, turizmning faol ko‘rinishlari baliq ovi, hayvonlarni ovlash bilan shug‘ullanish hamda bilim va yangiliklarga ega bo‘lish demakdir.

Rossiyalik olim A.B. Zdorov tomonidan agroturizm tushunchasi quyidagicha ta’riflanadi, ya’ni agroturizm – qishloq xo‘jaligiga yo‘ldosh tarmoq bo‘lib, dam olishni tashkil etish orqali qishloq aholisini ish bilan ta’minlash va kontingentni jalb etish orqali fuqarolarning daromadlari va asosiy ishlab chiqarish hajmini oshirishdir [5].

O.A. Nikitina va Ye.P. Kusharenkolar agroturizmga geodemografik nuqtai nazardan qarab, shahar tashqarisida joylashgan aholisi zich bo‘lmagan territoriyadagi turizmdir deb atagan. Rekreatsion nuqtai nazardan esa agroturizm – qishloq uylarida yashashdan boshlanib, tabiat qo‘ynida dam olishga mo‘ljallangan, sarguzashtli sayohat va mahalliy aholi mashg‘ulotlarida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishtirok etish bilan shug‘ullanadigan turli xizmatlar majmuasidir [6].

Ushbu tadqiqot ma’lumotlarini tahlil qilishda, asosan, fermer xo‘jaliklarida olib borilgan so‘rovlar asosida birlamchi ma’lumotlar to‘plandi. Mazkur ma’lumotlarni to‘plash uchun qishloq xo‘jaligi sohasida asosiy mahsulot ishlab chiqaruvchi xo‘jalik shakllaridan biri – fermer xo‘jaliklarida tanlab olindi. Tadqiqotning obyekti sifatida Buxoro viloyatida agroturizmni barqaror rivojlantirish borasidagi vazifalarni aniqlash maqsadida fermerlar bilan asosiy suhbatlar o‘tkazildi. Bundan tashqari, tanlagan hududdagi agroturizm faoliyati bo‘yicha ma’lumotlar to‘plandi va tahlil qilindi. Keyingi yillarda Buxoro viloyatiga xalqaro va mahalliy sayyohlar tashrifi sezilarli darajada oshgan. 2019-yilda viloyatga jami ikki million sayyoh, jumladan, 650 ming xalqaro va 1,5 million

mahalliy sayyohlar tashrif buyurgan. Bu hudud o‘zining go‘zal tabiati, tarixi, boy tabiiy resurslari, rang-barang geografiyasi va boy madaniy-merosi bilan mashhur. Buxoro shahri O‘zbekistonning eng mashhur sayyohlik yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, ushbu viloyatning poytaxti hisoblanadi. Viloyatning Peshku, Qorako‘l, G‘ijduvon va Buxoro tumanlari diqqatga sazovor joylari, ziyoratgohlari, agroturizm resurslari va sport turizmi bilan mashhur sayyohlik maskanlari hisoblanadi. Shuningdek, turizm sohasi Buxoroda asosiy daromad keltiruvchi sohalardan biri hisoblanadi.

TADQIQOTNING NATIJALARI

So‘nggi o‘n yillikda O‘zbekiston iqtisodiyoti tarmoq balansi nuqtai nazaridan tarkibiy o‘zgarishlarni boshdan kechirdi. O‘zbekiston, asosan, qishloq xo‘jaligiga asoslangan iqtisodiyotga ega mamlakat bo‘lib, ammo bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotining jadal taraqqiyotini ta’minlash uchun tarkibiy islohotlarni amalga oshirish va qishloq xo‘jaligi sohasini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Olib borilgan tadqiqot natijalarida Buxoro viloyatidagi qishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullanmaydigan fermer xo‘jaliklarining umumiy xususiyatlari, tadqiqot yo‘nalishida agroturizmni rivojlantirish bo‘yicha umumiy tanlovlar, agroturizm istiqbollari va mintaqadagi fermerlarda agroturizmni barqaror rivojlantirish muammolari ko‘rib chiqildi.

Buxoro viloyati o‘zining qadimiyligi va betakror tabiati bilan O‘zbekistonning mashhur viloyatlaridan biri bo‘lib, xalq xo‘jaligidagi muhim mintaqalardan biridir. Mamlakatimiz iqtisodiyotida qishloq xo‘jaligi, sanoat va xizmat ko‘rsatish sohasi ustunlik qiladi. Bularning orasida ikki asosiy tarmoq qishloq xo‘jaligi va xizmat ko‘rsatish sohasi muhim hisoblanadi. Qishloq aholisi o‘z daromadlarini bevosita qishloq xo‘jaligidan oladi. Shahar aholisining asosiy qismi turizm bilan shug‘ullanadi va ularning asosiy daromad manbayi turizm sanoati hisoblanadi. 2023-yilning yanvar–mart oylarida Buxoro viloyatining qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) lari umumiy hajmi 3 766,5 mlrd. so‘mni yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 103,1 %ni tashkil qilgan va unda qishloq xo‘jaligi, meva-sabzavotchilik, bog‘dorchilik, chorvachilik, parrandachilik, asalarichilik, baliqchilik sohalari bilan bir qatorda sanoat, oziq-ovqat sanoati, kimyo sanoati, mashinasozlik sohalari, qurilish va metallni qayta ishlash, metallurgiya, qurilish materiallari, qog‘oz ishlab chiqarish, turizm sohalari ham yaxshi rivojlangan. Buxoro viloyati mamlakatimiz iqtisodiyotida qishloq xo‘jaligi va turizm sohasida yuqori salohiyatga ega hudud hisoblanadi. Shu boisdan ham viloyat O‘zbekistonning ikkinchi yirik hududi sifatida tan olingan.

Buxoro viloyati boshqa hududlar orasida mavjud turli imkoniyatlariga ko‘ra O‘zbekistonning mashhur sayyohlik yo‘nalishlaridan biri sifatida tanilgan. Turizm sohasida bir qancha turistik xizmatlarga asoslangan turizm faoliyati muhim o‘rin tutadi, bu esa turizmning boshqa turlarini rivojlantirish uchun qulay imkoniyatdir. Bunday imkoniyatlar agroturizmni rivojlantirish uchun yanada qulay shart-sharoit yaratadi. Viloyatning boy tabiati, betakror tog‘li manzilgohi, milliy asosdagi qishloq hududlari, turli qishloq xo‘jaligi ishlari, mashhur va qadimiy sayyohlik maskanlari, hunarmandchilik va arxeologik muzeylar agroturizmni rivojlantirish uchun istiqbolli zamin bo‘lmoqda.

Buxoro viloyatidan tanlash asosida o‘rganilgan fermer xo‘jaliklarining 64,7 foizi agroturizm tushunchasiga ega ekanligi aniqlandi. Ularning ko‘plari bu faoliyat haqida eshitgan, ammo tassavurga ega emas (1-rasm).



1-rasm: Fermerlarning agroturizm haqidagi bilish darajasi

Bugungi kunda fermer xo‘jaliklari rahbarlarining 80 foizdan ortiqrog‘i erkak va ularning asosiy qismi o‘rtacha 40-50 yosh oralig‘ini tashkil etmoqda. Tadqiqot hududi bo‘yicha to‘plangan ma’lumotlarga ko‘ra, fermer xo‘jaliklari rahbarlarining 75 foizdan ko‘prog‘i bakalavr darajasiga va fermerlarning 12 foizi esa magistr va undan keyingi darajalarga ega (1-jadval).

1-jadval: Fermer xo‘jaliklari rahbari haqida umumiy ma’lumotlar

Jinsi	Erkak	72
	Ayol	28
Yoshi	24 yoshdan kichik	0
	25-30 yosh	3
	31-40 yosh	24
	41-50 yosh	30
	51-60 yosh	23
	61 yoshdan katta	20
Ma’lumoti	Kollej darajasi	25
	Bakalavr darajasi	71
	Magistr darajasi	3
	Boshqa	1

Buxoro viloyati agroturizmni barqaror rivojlantirish uchun yuqori va xilma-xil salohiyatga ega bo‘lib, u barcha xo‘jalik faoliyati uchun tabiiy, tarixiy, madaniy, iqtisodiy va an’anaviy obyektlarga asoslangan. Turli agroturizm obyektlarini joylashtirishdagi tartibsizliklar hududda agroturizm faoliyatining ayrim turlarini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash uchun asos bo‘ladi.

XULOSA

Mazkur maqolada Buxoro viloyatida agroturizmni barqaror rivojlantirish yo‘llari o‘rganilgan. Bu borada ko‘plab ilmiy, nazariy va amaliy xulosalar chiqarilib, tavsiyalar ishlab chiqilgan. Agroturizm konsepsiyasi barqaror rivojlanish zarurati tufayli rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda qishloq turizmining kichik tarmog‘i sifatida ishlab chiqilgan. Agroturizm konservativ uslubga asoslangan mahalliy rivojlanish yondashuvi orqali rivojlanadi. Chunki hozirgi kunda qishloqni rivojlantirish muammosi mamlakatlarning shahar va qishloq geografiyalari o‘rtasidagi o‘zgarishlar iqtisodiyotning nomutanosibligini oshirishdagi eng muhim muammolaridan biri bo‘lib, agroturizm mahalliy dinamikaga bog‘liq bo‘lgan tuzilishi bilan jozibador o‘rin egallaydi. Sektor mintaqaning o‘z manbalari orqali rivojlanish imkoniyatlarini taqdim etadi va shahar va qishloq aholisi o‘rtasida yangi kommunikativ hududni tashkil etadi. Agroturizm konsepsiyasi shahar aholisining qishloq joylaridagi turizmga bo‘lgan talablarini va umuman tabiiy hayot sharoitlarini oshirish orqali qishloqni rivojlantirish vositasi sifatida ishlab chiqilgan. Biroq qishloq aholisining qishloqdan shaharga migratsiya tendensiyasi davom etmoqda. Mazkur soha umumiy turizmni rivojlantirish siyosatining yoki mamlakatning qishloq hududlarini rivojlantirish siyosatining ajralmas qismi sifatida baholanishi kerak. Shu o‘rinda qishloq taraqqiyoti va turizmni rivojlantirish o‘rtasidagi bog‘liqlikni ajratib ko‘rsatish juda muhim, chunki qishloq taraqqiyoti uchun agroturizm sektori mamlakatning turizm sektori xilma-xil bo‘lishida muhim o‘rin tutadi. Umuman, agroturizm mamlakatlarning butun rivojlanish strategiyalarining bir qismi bo‘lgan umumiy turizm rejalarining bir qismi sifatida baholanadi. Qishloq turizmi konsepsiyasi rivojlanish strategiyasi sifatida ushbu ikki tendensiyaning kesishmasida ommaviy turizmga alternativ sifatida muqobil turizmning parallel yondashuvi orqali ishlab chiqilgan. Vaqt o‘tishi bilan qishloq turizmi faoliyati faoliyat turi va faoliyat sohalariga ko‘ra diversifikatsiyalanadi.

Nihoyat, mamlakatda agroturizm rivojlanishiga oid ilmiy adabiyotlar yetishmaydi va ba’zi tadqiqotchilar bu borada tadqiqot olib borgan. Shuning uchun agroturizm bo‘yicha keng ko‘lamli tadqiqotlarni tashkil etish jamoatchilik orasida ko‘proq ma’lumot va tushunchalarni yaratish kerak. Agroturizmga oid tadqiqot natijalariga ko‘ra, fermerlarning viloyatda agroturizm bilan shug‘ullanishiga qiziqishini oshirish asosiy turtki bo‘lib xizmat qiladi, degan umiddamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Matias A. 2004. Economic Geography, Gravity and Tourism Trade: The Case for Portugal. Sustainable Tourism, WIT Press, UK. 3(9), ISBN: 1-85312-724-8.
2. Ana M. (2017): Ecotourism, agro-tourism and rural tourism in the Europe Union. Conference Paper. CACTUS 2017.– Contemporary Approaches and Challenges of Tourism Sustainability At: Predeal, Romania.
3. Elbek Togaymurodov (2022). Agritourism And Fermers Diversification In Samarkand Region. Academic research in educational sciences, 3 (Speical Issue 1), 28-34.
4. Togaymurodov, E., Islomova, R., & Botirov, A. (2016). Theoretical issues of formation of eco-agro tourism in Uzbekistan. Europaische Fachhochschule, (4), 51- 53.
5. Здоров А.Б. Организационно-экономические основы развития аграрного туризма. Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора экономических наук. –М., 2011.
6. Никитина О.А., Кушаренко Е.П. Уточнение понятийного аппарата в развитии теории и практики регионального сельского туризма. //Вестник Чувашского университета. -Чувашия, изд-во ЧГУ им. И.Н. Ульянова, 2010. – С. 400-405.
7. Косенчук О.В., Блинов О.А., Новиков Ю.И., Рабканова М.А. (2015). Понятие агротуризма в теории и практике управления сельскими территориями. /Современные проблемы науки и образования, (2-2), 387-387.

INNOVATSION TADBIRKORLIK MUHITINI KOMPLEKS BAHOLASHDA XALQARO TASHKILOTLAR TAJRIBASI

Nazarova Umida Avazovna
Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti

Annotatsiya: Muallif ushbu maqolada respublikaning agrar sektorida innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish imkoniyatlarini ochib beradi. Innovatsion tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashning tashkiliy-huquqiy istiqbolli yo‘nalishlari taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: innovatsiya, tadbirkorlik, raqobatbardoshlik, texnopark, prognoz.

Abstract: The author in this article describes the possibilities of developing innovative entrepreneurship in the agricultural sector of the republic. It offers promising areas of organizational and provincial support for innovative entrepreneurship.

Key words: innovation, entrepreneurship, competition ability, technopark, forecast.

Аннотация: Автор в данной статье расскрывает возможности развития в аграрном секторе республики инновационного предпринимательства. Предлагает перспективные направлении организационно-прововой поддержки инновационного предпринимательства.

Ключевые слова: инновавация, предпринимательство, конкуренция способность, технопарк, прогноз.

O‘zbekistonda olib borilayotgan islohotlar natijasida innovatsion faoliyatni rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash orqali raqobatbardoshlik darajasini oshirida innovatsion tadbirkorlik muhtini yaratish, asosiy elementlardan biri sifatida qayd etilmoqda. Innovatsion tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishni samarali mexanizmlarini yaratish hamda sifat mezonlari hamda boshqaruv usullarini o‘ziga xos tizimini shakllantirish dolzarb masala hisoblanadi.

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida raqobatning keskinlashib, jahon bozorlarida innovatsion mahsulotlarga bo‘lgan talab keskin ortib bormoqda. Xususan, O‘zbekistonda ham fan-texnika sig‘imi yuqori bo‘lgan mahsulotlarga ehtiyojning ortib borishi mamlakatimiz milliy iqtisodiyoti tarkibida yuqori texnologiyali mahsulotlar ulushini ko‘paytirishga bo‘lgan intilish iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini innovatsion rivojlantirish zaruriyatini yanada kuchaytirdi.

2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirishda intellektual salohiyat va innovatsiyalarning ahamiyati yuqori hisoblanadi. Chunki intellektual salohiyat evaziga raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga qodir yuqori texnologiyalar, ilm-fanning eng so‘nggi yutuqlariga asoslangan texnika va asbob-uskunalarni milliy iqtisodiyotga keng qo‘llashga erishiladi.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-maydagi “Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3698-sonli hamda 2018-yil 14-iyuldagi “Ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalarini tijoratlashtirish samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3855-sonli qarorlarni alohida ta’kidlashimiz mumkin.

Bu vazifalarni amalga oshirish uchun tashkiliy – iqtisodiy jihatlari bilan shug‘ullanuvchi innovatsion tadbirkor menejerlar zarur bo‘lmoqda. Shuning uchun texnoparklar shaklidagi texnologiyalarni uzatish markazlari, innovatsion g‘oyalarni tijoratlashtirish agentliklari orqali ilmiy tadqiqot elementlari va innovatsion infratuzilmani yaratish va rivojlantirishni talab etilmoqda. Texnologik innovatsiyalardan, ya’ni ishlab chiqarish uchun texnologiyalarni sotib olish va ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy etishda mavjud ilmiy salohiyatini shakllantirish strategiyasiga o‘tish shartlari yaratiladi. Bunga yordam beruvchi omillarga innovatsion sohaning qonunchilik bazasini yanada rivojlantirish va takomillashtirish, jumladan, innovatsiya tizimini yanada takomillashtirish, ushbu tizimda yangi unsurlar yaratish, ilm-fan va ishlab chiqarish o‘rtasidagi aloqani mustahkamlashni rag‘batlantirish, inno-

vatsion faoliyatni moliyalashtirishni oshirish kabi masalalar va yakuniy mahsulotga yo‘naltirilgan sanoat ishlab chiqarishini texnik va texnologik yangilash, keng miqyosda modernizatsiyalashni amalga oshirishda innovatsion tadbirkorlik muhitini yaratish muhim.

Davlat qayta ishlash sanoatida innovatsion o‘sish uchun zarur bo‘lgan yangi muhim texnologiyalarni aniqlashga yo‘naltirilgan yagona texnologiya siyosatini ishlab chiqadi va amalga oshiradi. Dastlabki bosqichda rangli metallurgiya, kimyo va sanoat materiallari (sement, o‘g‘itlar, metallar ishlab chiqarish va boshqalar) kabi energiyani tejaydigan korxonalarga energiya samaradorligi standartlari va ekostandartlarni joriy etiladi (takomillashtiriladi), bu resurslarni tejash va yangi texnologiyalarni rivojlantirish uchun samarali rag‘batlantiruvchi turtki bo‘ladi.

Bunday sharoitda fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini ta’minlashga yo‘naltirilgan innovatsion tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashning samarali infratuzilmani yaratish muhim deb bilamiz. Shu bois ushbu faoliyat subyektlari uchun moliyaviy, moddiy va intellektual resurslardan foydalanish imkoniyatini ta’minlash va bu sohani davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi muhim o‘rin tutmoqda. Innovatsion tizimni rivojlantirishda xo‘jalik yurituvchi subyektlar ishlab chiqarish faoliyati va ijtimoiy sohada innovatsiyalarni yaratish, tarqatish va ulardan foydalanish orqali iqtisodiyotni rivojlantirish orqali mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy kompleksi elementlari o‘rtasidagi rivojlanib borayotgan aloqalar deb hisoblaymiz.

Shuning uchun hozirgi vaqtda innovatsion tizimlarning rivojlanishi davlat, ilm-fan va biznes o‘rtasidagi gorizontal aloqalarni kuchaytirish yo‘nalishida yuz bermoqda. Innovatsion tizimning asosiy institutsional ishtirokchilari o‘zaro aloqada bo‘lib, uchlangan spiralni tashkil qiladi. Fan davlat va xususiy sektor bilan o‘zaro munosabatda bo‘ladi, ular bir-biriga ta’sir ko‘rsatadi va birgalikda iqtisodiy rivojlanishning yo‘nalishi va tezligini belgilaydi. Innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirishda, albatta, kompleks yondashuv muhim masala. Sababi innovatsion biznes rivojlanishi uchun buxgalteriya hisobini xalqaro amaliyotini o‘rganish talab etiladi va bu soha bilimlari iqtisodiyotini shakllantirish, innovatsiyalarning tarqalishini tezlashtirish hamda ilm-fan va biznes sohasidagi hamkorlikni mustahkamlash ta’siri ostida rivojlanadi.

O‘zbekistonda hozirgi sharoitda innovatsion biznes rivojlanishini oqilona boshqarish, uni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlarni baholash uchun innovatsion tadbirkorlik faoliyati xususiyatlari va ularni takomillashtirish bo‘yicha ko‘plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Globalizatsiya sharoitida xalqaro tashkilotlar turli integral indekslarni hisoblash usullaridan foydalanadilar. Masalan innovatsion rivojlanish indeksi ko‘rsatkichlari qatoriga tadbirkorlikning innovatsion faoliyatini aks ettiruvchi indikatorlar ham kiritiladi, masalan, “ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik ishlari va tijorat xarajatlarining YAIMdagi ulushi “, “Yetkazib berilayotgan mahsulotning umumiy hajmida ilmiy-tadqiqot bilan bog‘liq innovatsiyalar uchun sarf-xarajatlar ulushi”, “mahsulot ishlab chiqarish va innovatsiyalar bilan shug‘ullanuvchi kichik va o‘rta korxonalar ulushi”, “marketing va tashkiliy innovatsiyalar bilan shug‘ullanuvchilar ulushi “, “qo‘shma innovatsion loyihalarda ishtirok etuvchilar ulushi” kabi indikatorlarni keltirishimiz mumkin.

Yevropa Ittifoqining innovatsion rivojlanish indeksida biznes innovatsiyalariga katta e’tibor beriladi, uni hisoblash uchun ko‘rsatkichlari to‘plami Yevropa innovatsion tablosi – European Innovation Scoreboard ko‘rinishida taqdim etiladi va u “Innovatsiyalar Ittifoqi tablosi” (Innovation Union Scoreboard) deb nomlangandi. Shu bilan birga korxonalarning innovatsion faolligini davlat tomonidan o‘rganish natijasida olingan ma’lumotlar nafaqat tegishli idoralarning rasmiy veb-saytlarida taqdim etiladi, balki milliy va ular qatoridan Innovation Union Scoreboard (Yevropa Ittifoqi), Regional Innovation Scoreboard (Yevropa Ittifoqi), Global Innovation Index (INSEAD), Global Competitiveness Report (WEF), Portfolio Innovation Index (AQSH) larni ko‘rsatib o‘tishimiz mumkin. Tabloga innovatsion rivojlanish darajasi to‘g‘risidagi ma’lumotlarga ega bo‘lish Yevropa Ittifoqi rahbariyatida qiziqish uyg‘otadigan Yevropa Ittifoqiga a’zo mamlakat va boshqa davlatlar uchun innovatsion rivojlanishning miqdoriy baholari kiritiladi.

Yevropa Ittifoqining innovatsion rivojlanish indeksining tarkibi doimiy ravishda qayta ko‘rib chiqiladi va takomillashtiriladi. Innovatsion rivojlanish bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa xalqaro integral indekslar yoki ularning tarkibiy qismlari asosan innovatsion tadbirkorlik darajasini emas, balki umuman mamlakatning innovatsion rivojlanish darajasini aks ettiradigan ko‘rsatkichlardan foydalanadi. Bunday ko‘rsatkichlar qatoriga cheklov shartlari, inson resurslari, jozibador tadqiqot tizimlari, innovatsiyalar uchun qulay muhit, investitsiyalar moliyalashtirish va qo‘llab-quvvatlash, kompaniyalar investitsiyalari, faoliyatning innovatsion turlari, innovatorlar, aloqalar va intellektual aktivlarni o‘z ichiga oladi. Shu bois bandlikka va sotuvlarga ta’siri chuqur tahlil etiladi.

Shu bilan birga, ko‘rsatkichlar va mamlakatning ushbu reytinglarda tutgan o‘rni tahlil qilinayotgan mamlakatda tadbirkorlikning innovatsion rivojlanishidan bilvosita dalolat beradi. Ushbu xalqaro indekslarning afzalliklari qatoriga innovatsion rivojlanishni baholashda foydalaniladigan metodologiyaning yagonaligini va keng doiradagi mamlakatlarni o‘z ichiga olishni kiritish mumkin. Bunday indekslar Global innovatsiyalar indeksi, Elektron hukumat rivojlanish indeksi, Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish indeksi, Bilimlar iqtisodiyoti indeksini o‘z ichiga oladi. Innovatsiyalar global indeksi innovatsiyalarning gullab-yashnashi uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlarni belgilab beradi va uning mamlakatlarning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishidagi

rolini ajratib ko‘rsatadi. U 2007-yildan buyon Kornel universiteti, INSEAD Biznes maktabi va Butunjahon intellektual mulk tashkiloti (BIMT) tomonidan hisoblanadi. 2018-yilda Indeks 127 mamlakat uchun hisoblangan.

Innovatsilar global indeksi quyidagilarni baholovchi ikkita kichik indekslarga asoslanadi:

- mavjud resurslar va innovatsiyani o‘tkazish sharoitlari;
- har biri bir nechta tarkibiy qismlardan iborat bo‘lgan innovatsiyalarning amalga oshirishdan erishilgan amaliy natijalari.

Mavjud resurslar va innovatsiyalar o‘tkazish sharoitlarini baholaydigan kichik indeks (InnovationOutput Sub-index) innovatsion faoliyatni amalga oshirish imkonini beruvchi milliy iqtisodiyot komponentlarini o‘z ichiga oladi, ya’ni: tarkibiy qismlarini qamrab oladi: institutlar, inson kapitali va tadqiqotlar, infratuzilma, bozorning rivojlanish darajasi va biznesning rivojlanish darajasi. Bu ko‘rsatilgan komponentlarning oddiy o‘rtachasidir. Innovatsiyalarni amalga oshirishda erishilgan amaliy natijalarni baholaydigan kichik indeks (Innovation Output Sub-index) ikkita komponentning: bilim va texnologiya sohasidagi natijalar va ijodiy faoliyat natijalarining oddiy o‘rtachasidir.

Innovatsiyalar umumiy global indeksi – bu innovatsiyalarga qilingan xarajatlar va innovatsiyalarni ishlab chiqarish subindekslarining oddiy o‘rtachasidir. Shunday qilib, yakuniy indeks bu xarajatlar va samaralar nisbati bo‘lib, mamlakatda innovatsiyalarni rivojlantirishga qaratilgan harakatlar samaradorligini obyektiv baholashga imkon beradi.

Innovatsiyalar global indeksida mamlakatlarga 1 (eng past) dan 100 gacha (eng yuqori) ball beriladi.

Elektron hukumatni rivojlantirish indeksi – milliy hukumatlarning davlat xizmatlarini ko‘rsatishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish istagi va qobiliyatini o‘lchaydigan umumlashtirilgan ko‘rsatkichdir. Ushbu Indeks Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan nashr etiladi va tashkilotga a’zo bo‘lgan 193 ta mamlakatning elektron ishtirokini keng tadqiq qilishga asoslangan. Birinchi sharhda – “Benchmarking E-government: A Global Perspective” – 2001-yilda nashr etilgan. Keyinchalik, BMTning shu kabi tahliliy sharhlari 2003-yildan 2005-yilgacha har yili, keyin esa har ikki-yilda bir marta nashr etiladigan bo‘ldi. Tahlil davomida milliy saytlarning texnik xususiyatlari, shuningdek, elektron hukumat sohasidagi siyosat va asosiy xizmatlarni taqdim etish strategiyasini baholanadi.

Indeks uchta ko‘rsatkichning: elektron xizmatlarning qamrovi va sifati, telekommunikatsiya infratuzilmasi rivojlanish darajasi va inson kapitalining o‘rtacha tortilgan qiymatidir. Indeks 0 dan 1 gacha (maksimal qiymat) shkala bo‘yicha o‘lchanadi. Elektr aloqasi xalqaro ittifoqining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivojlanishi indeksi[1] o‘n bitta ko‘rsatkichdan iborat. Ular ichida: AKTdan foydalanish (simli va mobil aloqa abonentlari soni, tashqi Internet shlyuzining kengligi), ulardan foydalanish darajasi (mobil aloqa va Internetning faol foydalanuvchilari soni), mamlakat aholisining AKTdan foydalanish ko‘nikmalari. Jahon banki tomonidan hisoblanadigan “Bilimlar iqtisodiyoti indeksi” muhit iqtisodiy rivojlanish uchun bilimlardan samarali foydalanishga yordam beradimi yoki yo‘qligini aniqlaydi va mamlakatning bilimlar iqtisodiyotiga tayyorlik darajasini ko‘rsatadi. Bu mamlakatning bilimlar iqtisodiyoti sohasidagi rivojlanishining umumiy darajasini xarakterlovchi umumlashtirilgan indeksdir. Bu to‘rt indeksning o‘rtachasi hisoblanadi, bunda iqtisodiy rag‘batlar va institutsional rejim, ta’lim, innovatsiyalar va AKTlardir.

Shunday qilib, dunyoning ko‘plab mamlakatlarini, shu jumladan bizni mamlakatimizda ham qamrab olgan xalqaro reytinglar dunyo mamlakatlarining innovatsion rivojlanishini qiyosiy tahlil qilishga imkon beradi. Shu bilan birga, yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, ularning deyarli hech biri innovatsion tadbirkorlikni alohida tadqiqot obyekti sifatida ajratib ko‘rsatmaydi, balki umuman mamlakatning innovatsion rivojlanishini baholaydi.

Xususiy biznes iqtisodiyotning asosini tashkil etadigan ko‘pchilik davlatlar uchun bu muammo emas, ammo tadbirkorlik xususiy biznes bilan tenglashtiriladigan, xalqaro reytinglar va ularning tarkibiy qismlari faqat mamlakat innovatsion rivojlanishining umumiy darajasini baholashda foydalanilishi mumkin. Yuqorida qayd etilgan reytinglar foydali bo‘lishi mumkin va mamlakatda innovatsion tadbirkorlikni rivojlanish darajasini dunyoning boshqa mamlakatlari bilan taqqoslashga asoslangan qo‘shimcha bilvosita baholash sifatida foydalanish mumkin. Aynan innovatsion tadbirkorlikning rivojlanish darajasini baholaydigan konkret ko‘rsatkichlari qatoriga Yevropa innovatsion tablosining faqat ayrim ko‘rsatkichlarini kiritish mumkin. Shu bois mamlakatda innovatsion tadbirkorlikni qiyosiy tahlil qilishda ilmiy asoslangan tadqiqotlar olib borish kerak bo‘ladi.

Xulosa qilib biz O‘zbekistonda innovatsion tadbirkolikni muvaffaqiyatli amalga oshirishda quyidagi masalalarini yanada takomillashtirish lozim deb topdik:

- mamlakatda innovatsiyalarni rivojlantirishga qaratilgan harakatlar samaradorligini obyektiv baholashga imkon beradigan reytinglar va ularning tarkibiy qismlari hamda umumiy darajasini baholovchi indekslarni ishlab chiqishni;
- o‘rta va uzoq muddatli innovatsion tadbirkorlikni muhitini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish;

- innovatsion texnologiyalarni joriy qilishda alohida tadbirkorlik muhitini yaratib berish;
- innovatsion texnologiyalarni joriy etishga yo‘naltirilgan mahalliy korxonalar mahsulotini jahon bozorida raqobatbardoshligini oshirish muhtini shakllantirish;
- texnologiyalarini joriy etish yo‘li bilan erishiladigan iqtisodiy o‘sishni bosqichma-bosqich oshirish;
- bilim, innovatsiya va inson kapitali rivojiga asoslangan yangi sifatli raqamli iqtisodiyotni shakllantirish;
- iqtisodiyotning ijtimoiy va ekologik yo‘nalishini mustahkamlash, milliy iqtisodiyot tizimini ishlab chiqarishning integral iqtisodiy rejimiga asoslangan boshqa davlatlar tizimi bilan hamkorlik qilish.
- innovatsion jadal rivojlanishda tadbirkorlik muhitini yaratish orqali respublikamizni jahon miqyosidagi yetakchi davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy natijalari darajasiga tenglashtirish.

O‘zbekistonni innovatsiya va intellektual hissaning yuqori ulushi bo‘lgan barqaror bozor iqtisodiyotiga, zamonaviy va global bozorda raqobatbardosh sanoatga, shuningdek, qulay investitsiyaviy va ishchanlik muhitiga ega jadal rivojlanayotgan mamlakatga aylantirishimiz lozim. Qo‘yilgan maqsadlarda mamlakatda innovatsion tadbirkorlik faoliyati natijalarini iqtisodiyotdagi ustuvor tarmoqlar va ijtimoiy sohaga joriy qilishda yaxlit tizim muhtini yaratish zaruratini taqozo etilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi to‘g‘risida” 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2017-yil 29-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-maydagi “Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3698- sonli qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-iyuldagi “Ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalarini tijoratlashtirish samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3855-sonli qarori.
5. Davlat bloshqaruvi masalalari bo‘yicha BMT tarmog‘i sayti materiallari bo‘yicha. Kirish rejimi: https://publicadministration.un.org/egovkb/en-us/reports/un-e-government-survey-2016.
6. Elektr aloqasi xalqaro ittifoqi sayti materiallari bo‘yicha. Kirish rejimi: http://www. itu.int/net4/ITU-D/idi/2016.
7. Gumanitar texnologiyalar markazi materiallari bo‘yicha. Kirish rejimi: http://gtmark.et.ru/ratings/knowledge-economy-index/knowledge-economy-index-info
8. Integrated Business Planning. Unlocking business value in uncertain times. – Ernst & Young LLP, Canada, 2015. – URL:http://www.ey.com
9. Publication/vwLUAssets/EY-Integrated-Business-Planning/$FILE/EYIntegra

TURIZM FAOLIYATINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING AYRIM USULLARI

Mirzaxodjayev Alisher Botirovich
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti katta o‘qituvchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada turizmni davlat tomonidan tartibga solishning mazmuni, turizm sohasida davlat siyosatini amalga oshirishning ustuvor yo‘nalishlari, vositalari va usullari, sohani samarali rivojlantirishning asosiy tamoyillari va qulay raqobatchilik muhitni shakllantirish yo‘nalishlari tahlil qilingan. Turizmni davlat tomonidan tartibga solish vositalari va bosqichlar hamda turizm industriyasi rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash darajalari bo‘yicha omillari tadqiq qilingan.

Kalit so‘zlar: turizm, tartibga solish, tartibga solish vositalari, usullari, davlat siyosati, turizm industriyasi, raqobat, turistik mahsulot, turistik xizmatlar.

Abstract: This article examines the main factors of economic activity in tourism infrastructure and its specific features, classification of tourism costs by period and characteristics, the process of production of tourist goods and services, production capacity in tourism and methods of determining gross tourism product.

Key words: tourism, tourism infrastructure, tourism industry, tourism costs, alternative costs, tourism products, tourist services, hotels, gross tourism product.

Аннотация: В статье рассматриваются основные факторы экономической деятелности в туристической инфраструктуре и ее специфические особенности, классификасия туристских затрат по периодам и характеристикам, процесс производства туристических товаров и услуг, производственные мощности в туризме и методы определения валового туристического продукта.

Ключевые слова: туризм, туристическая инфраструктура, индустрия туризма, расходы на туризм, альтернативные затраты, туристические продукты, туристические услуги, отели, валовой туристический продукт.

KIRISH

Hozirgi bosqichda turizm mamlakat, mintaqa va alohida turistik xo‘jalik yurituvchi subyekt iqtisodiyotiga ta’sir ko‘rsatadigan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hodisaga aylandi. Zamonaviy turizm mamlakat tarixi, madaniyati, urf-odatlari, ma’naviy va diniy qadriyatlari bilan yaqindan tanishish imkonini beruvchi, mamlakat budjetiga katta daromad keltiruvchi tizim sifatida rivojlanmoqda. Turistik mahsulotlarni eksportini oshirish har bir milliy iqtisodiyotda qo‘shimcha talabni paydo qiladi va aholining ish bilan bandligi darajasi oshishi va xorijiy valyuta tushumlari ko‘payishini ta’minlaydi. Shuning uchun milliy iqtisodiyotlarda turizmni rivojlantirish qo‘shimcha qiymat oshish, iqtisodiy rivojlanishga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu esa respublikamiz turizm sohasida davlat siyosatini amalga oshirishning ustuvor yo‘nalishlari, vositalari va usullarini tadqiq etish orqali barqaror rivojlanishining strategik yo‘nalishlarini aniqlash va turistik mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirishning ilmiy-uslubiy va amaliy jihatlarini tadqiq etish dolzarb hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Turizm sohasini rirojlantirish va tartibga solish mexanizmlariga bag‘ishlangan ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lib, ularda turizmni rivojlantirish bo‘yicha davlat siyosatini amalga oshirish bo‘yicha turli xil qarashlar va yondashuvlar ishlab chiqilgan. Turizm xizmatlari bozorida talab va taklif o‘rtasida muvofiqlikni ta’minlash hamda turistik mahsulotlar va xizmatlar raqobatbardoshligini oshirish muhim ahamiyatga ega. Shunga ko‘ra, biz ushbu yo‘nalishda ba’zi mualliflarning fikr va mulohazalarini o‘rganib, ularning ilmiy yondashuvlarini umumlashtirib, turizm sohasida davlat siyosatini amalga oshirishning ustuvor yo‘nalishlari, vositalari va usullari bo‘yicha fikrlarimizni qisqacha bayon qilamiz. MDH olimlari S.G.Surkov va V.I.Krivoruchkolarning “Международный туризм в России: проблемы развития и управления” nomli asarida Rossiyada xalqaro

turizm bozori rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari va integratsion jarayonlar, turizm industriyasi subyektlari faoliyati, xalqaro turizmni tartibga solish mexanizmlari, xalqaro turistik siyosatning maqsadlari, vazifalari va ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha tadqiqotlar olib borganlar [8]. Mualliflar o‘z asarida xalqaro turizm rivojlanishining omillari, globallashuv jarayonlarining turistik faoliyatga ta’siri, turizm destinatsiyasi rivojlanish xususiyatlariga alohida e’tibor qaratganlar. M.M.Ramadonova va M.A.Makarchenkolarning “Государственное регулирование туристической деятелности” nomli asarida turistik faoliyatni tartibga solish usullari, vositalari va shakllari yoritib berilgan. Bunda turizm sohasini tartibga solishda davlatning roliga ham alohida e’tibor qaratilgan. Biroq asarda turistik faoliyatni tartibga solish usullari va vositalari tasnifi ishlab chiqilmagan [6]. Shuningdek, I.S.Tuxliyev, R.Hayitboyev, B.Sh.Safarov, G.R.Tursunovalarning tadqiqotlarida mamlakatimizda turizm sohasini va industriyasini rivojlantirish, turistik-rekratsion xizmatlarni kengaytirishga qaratilgan bo‘lib, unda turizmda rekratsion xizmatlarning shakllanishi masalalariga atroflicha e’tibor qaratilgan [9]. Bunda turizm sohasini davlat tomonidan tartibga solish va uning infratuzilmasini rivojlantirish masalalariga atroflicha e’tibor qaratilmagan. V.I.Novichkov, M.Yu.Polozkovlar o‘zlarining “Анализ опыта государственного регулирования туризма в развитых странах” nomli maqolasida rivojlangan mamlakatlarda turizmni davlat tomonidan tartibga solish tajribalari tahliliga e’tibor qaratganlar bo‘lib, unda sohada tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha bir qator takliflarni ishlab chiqqanlar [5]. Bunda MDH davlatlarida turizmni davlat tomonidan tartibga solish tajribalari bo‘yicha masalalar keltirilmagan. Ta’kidlash kerakki, hozirgi vaqtda turizmni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini yoritib berish va turizm industriyasini rivojlantirish, turizm sohasida davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari, omillari, sohani samarali rivojlantirishning asosiy tamoyillari va qulay raqobatchilik muhitni shakllantirish yo‘nalishlari, turizmni davlat tomonidan tartibga solish vositalari va bosqichlari doirasidagi tadqiqotlar ko‘plab iqtisodchi olimlar o‘rtasida to‘liq bayon etilmagan. Shuning uchun, bizningcha, hozirgi vaqtda turizmni rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha davlatning roli keng bo‘lib, sohada realizatsiya qilinayotgan davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari bilan bog‘liq muammolarga e’tiborni qaratish muhim ahamiyatga ega.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ishida keyingi yillarda respublikamiz iqtisodiyotning transformasiyalashuvi jarayonlarini hisobga olish, turizm sohasini kompleks rivojlantirish, turizm sohasida davlat siyosatini amalga oshirishning ustuvor yo‘nalishlari hamda tartibga solish vositalari va usullarini tadqiq etishning muhim jihati sifatida o‘rganish metodologiyasi qo‘llanilib, mazkur yo‘nalish bo‘yicha iqtisodchi olimlar va mutaxassislarning fikrlariga tayangan holda dialektik va tizimli yondashuv, qiyoslash kabi usullari orqali turizm sohasi rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlarini belgilash usuli taklif etilgan. Shuningdek, turizm sohasida davlat siyosatini amalga oshirishning ustuvor yo‘nalishlari va vositalari, sohani samarali rivojlantirishning asosiy tamoyillari va turistik mahsulotlar raqobatbardoshligini ta’minlash yo‘nalishlari, turizmni davlat tomonidan tartibga solishning bosqichlari hamda turizm industriyasi rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash darajalari bo‘yicha omillariga oid aniq tavsiyalar ishlab chiqilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Turizmning rivojlanishi, ayniqsa zamonaviy beqaror iqtisodiy vaziyatda mintaqalarda turistik kompleksning bir xil emasligini ko‘rsatadi, bu esa davlatni qo‘llab-quvvatlash modelini ishlab chiqish va iqtisodiy mexanizmni tartibga solishga turlicha yondashishga olib keladi.

Turizmning samaradorligi dam olish va madaniy obyektlar mavjud hududlarda ijtimoiy-siyosiy vaziyatni barqarorlashtiradigan va mintaqalarda turizmni barqaror rivojlanishiga zamin yaratadigan muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, boshqaruv tizimining hamda davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning nomukammalligi turizmga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Turizmni takomillashtirishning asosiy maqsadi – noyob turistik va rekreasion resurslardan, ichki urf-odatlardan, turizm sohasi tadqiqotlarining ilmiy yutuqlaridan foydalangan holda hamda asosiy vazifalar yechimini ta’minlash asosida zamonaviy va raqobatdosh turistik kompleksni yaratishdir.

Belgilangan maqsadlarga erishish uchun bir qator asosiy tamoyillarni ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Ular quyidagilardan iborat:

- xususiy turizm sohasidagi obyektlarning to‘liq inventarizasiyasini o‘tkazish, ushbu obyektlarni ro‘yxatdan o‘tkazish tizimini ishlab chiqish va joriy etish hamda xususiy turistik obyektlarning reyestrini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar va mulkchilik turining barcha turdagi turistik tashkilotlarining muvaffaqiyatli ishlashi maqsadida, turizmni rivojlantirish uchun me’yoriy-huquqiy bazasini takomillashtirish;
- hududlarda turistik tashkilotlarning rivojlanishini rag‘batlantirish uchun oqilona soliq siyosati va iqtisodiy mexanizmlarni shakllantirish;

- davlat kafolatlari va mahalliy qo‘llab-quvvatlashning boshqa choralari bilan turizmga investitsiyalarni jalb qilish;
- tabiiy resurslar va dam olish maskanlarini saqlash, ulardan oqilona foydalanish va muhofaza qilish;
- turistik xizmatlarning yuqori texnologik va raqobatbardosh ichki bozorini shakllantirish maqsadida transport, qishloq xo‘jaligi, sanoat, bank va investitsiya tuzilmalari, sug‘urta kompaniyalari va reklama agentliklari bilan turistik tashkilotlarning hamkorligi uchun sharoit va imkoniyatlarni yaratish;
- xizmatlarni sertifikatlashning xalqaro tizimi orqali sohani davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash va tartibga solishni kuchaytirish;
- turizm sohasida rahbarlar va mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish, sertifikatlash tizimi orqali yagona kadrlar siyosatini amalga oshirish.

Turizm sohasini davlat tomonidan tartibga solish shakllari turistik mahsulotlar va xizmatlarga talab va taklif o‘rtasida dinamik mutanosiblikk erishish maqsadida sohani barqaror rivojlantirishga ta’sir etishning asosiy yo‘nalishlarini nazarda tutadi. Iqtisodiyotning transformasiyalashishi sharoitida turizm sohasini tartibga solishning barcha usullari va vositalari uzviy o‘zaro bog‘liq bo‘lishi kerak. Ulardan kompleks foydalanish turizm industriyasida amalga oshadigan munosabatlar ishtirokchilari oldida yuzaga keladigan masalalarni samarali yechish imkonini beradi.

Turizmni tartibga solish ham bevosita, ham bilvosita tartibga solishning davlat va bozor mexanizmlarining sintezidan iborat. Turizmni tartibga solish tizimi muayyan konsepsiyaga asoslangan umumiy va maxsus, qisqa va uzoq muddatli choralar, usullar, tamoyillar va vositalar majmuyini o‘z ichiga oladi. Ushbu holatda, bizning fikrimizcha, turizm bozori rivojlanishiga ta’sir etishning bozor va davlat mexanizmlari o‘ratsida o‘zaro mutanosiblikni shakllantirishi zarur.

Hozirgi kunda turistik xizmatlar bozori samarali rivojlanishining asosiy maqsadi – sohada iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish orqali ushbu bozor rivojlanishini ta’minlovchi qulay raqobatchilik muhitni shakllantirish nazarda tutilib, quyidagi vazifalar yechimiga qaratilgandir:

1. Turistik xizmatlar bozorida talab va taklif o‘rtasida bozor muvozanatiga erishish;
2. Turistik xizmatlar bozorida uning subyektlari o‘rtasida o‘zaro ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni tashkil qilish va tartibga solish dastaklarini takomillashtirish;
3. Turistik xizmatlar bozorida raqobatchilik muhitini shakllantirish asosida turizm sohasin rivojlantirishning strategik konsepsiyasini ishlab chiqish va realizatsiya qilish.

Turizmni rivojlantirish vazifalarini amalga oshirish turizmni davlat tomonidan tartibga solish mazmuniga ilmiy yondashuv asosida amaliy takliflar ishlab chiqishni talab etadi.

Iqtisodiyotni ijtimoiy sohasi sifatida turizmni davlat tomonidan tartibga solish, bozor mexanizmlarining ishlashi uchun sharoitlarni ta’minlash maqsadida davlat organlarining xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyati va bozor sharoitlariga ta’siri sifatida tavsiflanishi mumkin [7]. Davlat tomonidan tartibga solish jarayoni murakkab vazifa bo‘lib, u iqtisodiy siyosatni ishlab chiqish, uning qoidalarini asoslash, ushbu siyosatni amalga oshirish vositalari va usullarini tanlashni o‘z ichiga oladi.

Ta’sir obyekti bo‘yicha turizmni davlat tomonidan tartibga solish deganda uchta o‘zaro bog‘liq qismlarni tartibga solish bo‘yicha tadbirlar tushuniladi, ya’ni: turistik resurslar, ushbu sohadagi turistik va moliyaviy oqimlarni ishlab chiqish.

Turizmni davlat tomonidan tartibga solishning mazmuni davlat organlari oldida turgan maqsadlar, shuningdek, mintaqadagi davlat turizm idoralari iqtisodiy siyosat olib borishda ularning ixtiyorida bo‘lgan vositalar bilan belgilanadi [1]. Bozor iqtisodiyoti sharoitida bular quyidagilardan tashkil topadi:

- turizm bozori ishtirokchilariga mamlakat iqtisodiyotining umumiy holati va ushbu tarmoq, uning rivojlanish istiqbollari to‘g‘risida ma’lumot berish;
- davlat organlari mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishning ushbu bosqichida turizm sohasida amalga oshirilishi kutilayotgan iqtisodiy siyosatning eng muhim nuqtalarini asoslash;
- mamlakatdagi iqtisodiy jarayonlarga davlat ta’sirining muhim vositalaridan biri sifatida turistik kompleksning davlat sektorini rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirish.

Turizmni davlat tomonidan tartibga solish obyekti bo‘lib, bozor iqtisodiyoti sharoitida faoliyati yetarli darajada bo‘lmagan turistik xizmatlarni ta’minlash uchun shart-sharoitlar, jarayonlar va munosabatlardir [2]. Bularga quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

- iqtisodiy sikl, pul muomalasi, narxlar, bandlik, investitsiyalar, ilmiy-tadqiqot ishlari kabi umumiy biznes jarayonlari;
- hududiy maqsadli dasturlarni amalga oshirish orqali o‘ziga xos bazaviy turizm sohalarini rivojlantirish;
- alohida ahamiyatga molik yirik sayyohlik markazlari va dam olish maskanlari;
- mamlakatning turli hududlarida turizmni har tomonlama va mutanosib ravishda rivojlantirish.

Iste’molchilarning huquqlari va manfaatlarini himoya qilish nuqtai nazaridan turistik faoliyatni tartibga solishning samarali vositasi turistik xizmatlarni sertifikatlash hisoblanadi. Sertifikatlangan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) ning belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlovchi hujjat butun mamlakat bo‘ylab amal qiluvchi muvofiqlik sertifikati hisoblanadi.

Hududlarda turizmni davlat tomonidan tartibga solishni bosqichma-bosqich quyidagi yo‘nalishda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq:

- turistik xizmatlar sifatini boshqarish bo‘yicha davlat xalqaro standartlari va qoidalari;
- turizm sohasining barcha darajalari va sohalari rahbarlari va mutaxassislarini sertifikatlash va attestatsiyadan o‘tkazish uchun tartib va qoidalar;
- har bir turistik tashkilotga ichki va xalqaro sayyohlik bozorida munosib o‘rin egallashiga imkon beradigan guruhlarga ajratish asosida “Turistik tashkilotlarning davlat reyestri” ni shakllantirish;
- soha rahbarlari va mutaxassislarini tayyorlash, qayta tayyorlash, ilmiy yuksaltirishning yagona integratsiyalashgan ilmiy va o‘quv tizimini yaratish;
- iqtisodiyot, marketing, reklama va boshqa muhim sohalarni ilmiy asosda rivojlantirish va yangi texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha me’yoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va idoralararo muvofiqlashtiruvchi kengashni tashkil etish.

Ushbu tadbirlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish turizmni iqtisodiyotning samarali rivojlanayotgan tarmog‘i darajasiga ko‘tarish, kasalliklarning oldini olish, individual va aholining sog‘lig‘ini mustahkamlash, ishchi kuchining takror barpo bo‘lishi va ish bilan bandlik darajasini oshirish shaklida real natijalarga olib kelishi va dinamik rivojlantirish imkonini beradi.

Turizm industriyasi rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash xalqaro, milliy va hududiy darajalarda amalga oshirilib, ular turizm bozorini samarali shakllantirish va resurslardan optimal foydalanish imkoniyatlarini kengaytiruvchi omillar tizimini o‘z ichiga qamrab oladi.

Shu bilan birga, turizmni rivojlantirish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat bo‘lishi maqsadga muvofiqdir:

- mulkchilik shaklidan qat’iy nazar barcha turistik tashkilotlar tarmog‘i faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish va muvofiqlashtirish;
- mehnatga layoqatli aholini, urush nogironlarini, aholining ehtiyojmand guruhlarining boshqa toifalarini, bolalarni sog‘lomlashtirish uchun mo‘ljallangan sanatoriyalarni saqlab qolish va ko‘paytirish bo‘yicha choralarni amalga oshirish;
- kurort va rekreatsiya resurslarining davlat va hududiy reyestrlari asosida mamlakat tabiiy dorivor resurslarini hisobga olish va nazorat qilishning qat’iy tizimini joriy etish.

Turistik xizmatlar bozorini rivojlantirishning muhim vositasi raqobat muhitini yaratish, monopoliyaga va adolatsiz raqobatga qarshi kurashga asoslangan monopoliyaga qarshi siyosatdir.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan monopoliyaga qarshi tartibga solish o‘zaro bog‘liq bo‘lgan ikkita yo‘nalishni o‘z ichiga oladi: maxsus monopoliyaga qarshi qonunchilikni ishlab chiqish hamda qabul qilish va monopoliyaga qarshi tartibga solish uchun mas’ul organlar tizimini shakllantirish.

Mamlakatning turistik hududlarida investitsiya faoliyatini rag‘batlantirishning asosiy usullari quyidagilardan iboratdir:

- investitsiya faoliyatini soliq bilan tartibga solish;
- sanoat guruhlarini yaratish bilan bog‘liq iqtisodiyotni institutsional o‘zgartirish;
- mulk huquqining real himoyasini ta’minlash.

Turizmni davlat tomonidan tartibga solish investitsiya faolligini rag‘batlantirish, ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish va aholining salomatligini yaxshilash nuqtai nazaridan ijtimoiy muammolarni hal qilishning

samarali vositasidir. Shu bilan birga, davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari turistik kompleksning barqarorligi va raqobatbardoshligi bo‘lishi kerakligini hisobga olishi muhim hisoblanadi.

Turizmni rivojlantirishda davlatning o‘rni muhim ahamiyatga ega bo‘lib, sohada yuzaga keladigan huquqiy, iqtisodiy, tashkiliy, ijtimoiy va axborot mexanizmlarini samarali amal qilish uchun shart-sharoitlarni yaratishni nazarda tutadi. Bunda mamlakat miqyosida turizm industryasini rivojlantirish va turistik xizmatlar bozorining raqobatbardoshligini oshirish bo‘yicha munosabatlar hamda jarayonlarni o‘zaro bog‘liq tashkiliy tizim orqali tartibga solish maqsadga muvofiq hisoblandi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning ma’lum chegaralari ham mavjud bo‘lib, ular davlatning ishlab chiqarish samaradorligiga ta’siridan kelib chiqadi. Iqtisodiyotga davlatning har qanday aralashuvi ma’lum xarajatlarni taqozo etadi. Ularga eng avvalo tartibga solishni tashkil etish va amalga oshirish bo‘yicha xarajatlarni kiritish mumkin. Shuningdek, tartibga solishning u yoki bu shakli bozor muvozanati, ishlab chiqarish hajmi, resurslarning qayta taqsimlanishiga ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan ta’sirni ham hisobga olish lozim. Bunda tartibga solishni amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan sarf-xarajatlarning miqdori davlatning iqtisodiyotni tartibga solishi natijasida olinadigan samaradan kam bo‘lishi lozim. Ularning nisbati davlatning iqtisodiyotga aralashuvi chegaralarini belgilab beradi.

Shuni ta’kidlash kerakki, iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarida bozor mexanizmining samarali amal qilishi uchun davlat turli xil usullar va vositalar asosida ularni barqaror rivojlanishiga shart-sharoitlar yaratishi zarur.

Bizning fikrimizcha, turizm sohasini davlat tomonidan tartibga solishning asosiy jihatlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- davlatning iqtisodiy siyosati va turizmni rivojlantirish bo‘yicha joriy va istiqboldagi strategik maqsad va vazifalarni belgilashda o‘zaro muvofiqlikni ta’minlsh;
- turizmni rivojlantirishga oid davlat siyosatini realizatsiya qilish uchun markaziy va mahalliy hokimiyat organlari hamda turizm infratuzilmasi subyektlarining mas’uliyatini oshirish;
- sohada erkin raqobatni rag‘batlantirish maqsadida bozor tizimining samarali amal qilishiga imkon tug‘diruvchi huquqiy asos va ijtimoiy-iqtisodiy muhitni ta’minlash;
- turistik xizmatlar bozorida raqobatni himoya qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Демченко Д.Н. Взаимодействие государства и бизнеса: принципи, инструменти, институсионалная трансформасия в посткризисной экономике. Автореф. дис. канд. экон наук. Ростов-на-Дону. – 2005. – С. 15.
2. Карманов А. О некоторих положениях правового регулирования туристического бизнеса в Краснодарском крае / А. Карманов, А. Трифонов // Кубан-бизнес. – 2010 – № 42. – С. 4-6.
3. Криворучко В.И. Профессионалниие стандарти и сертификасия специалистов службы гостеприимства санаторно-курортных и гостиничних комплексов: Част 1 / В.И. Криворучко, В.А. Кудря, М.В. Александрова. – Сочи: Академия повишения квалификасии г. Сочи. – Сочи, 2005. – 172 с.
4. Лебедев К.А. Совершенствование государственного регулирования в сфере туризма //Стратегия устойчивого развития регионов России. – 2014. – №. 24. – С. 139-141.
5. Новичков В. И., Полозков М. Ю. Анализ опита государственного регулирования туризма в развитих странах // Жоурнал оф нew эсономй. – 2008. – №. 3 (22).– С. 46-49.8.
6. Рамадонова М.М., Макарченко М.А. Государственное регулирование туристической деятелности //Алманах научних работ молодых ученых университета ИТМО. – 2016. – С. 211-213.
7. Рыночные механизмы управления санаторно-курортной сферой / Л.В. Криворучко, В.И. Криворучко. – М: Финансы и статистика, 2003. – 176 с.
8. Сурков С.Г. Международный туризм в России: проблемы развития и управления / С.Г. Сурков, В.И. Криворучко. – М.: Советский спорт, 2009. – 214 с.
9. Tuxliyev I.S., Hayitboyev R., Safarov B.Sh., Tursunova G.R. Turizm asoslari. Darslik. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. – T.: “Fan va texnologiya”, 2014. 151-b.
10. https://lex.uz/docs/4770761
11. https://lex.uz/docs/5031869

GLOBALLASHUV SHAROITIDA TRANSCHEGARAVIY SUV RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISHNI BOSHQIRISH

Mirzayev Musurmon Umidullayevich
TDAU “Biznesni boshqarish” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada qishloq xo‘jaligida globallashuv sharoitida transchegaraviy suvlardan samarali foydalanishni boshqarish, suv resurslaridan foydalanish samaradorligi, suv tanqisligini yumshatish bo‘yicha amalga oshirilishi lozim bo‘lgan chora-tadbirlar, suv resurslarini yetkazib berish xizmatini samarali tashkil qilish yoritilgan.

Kalit so‘zlar: samaradorlik, suv resurslari, tomchilab sug‘orish, transchegaraviy, agromeliorativ, irigatsiya, strategiya, sug‘orish rejasi, limit.

Abstract: The article deals with the issues of managing the effective use of transboundary waters in the context of globalization in agriculture, the efficiency of water resources use, measures to mitigate water scarcity, effective organization of water delivery services.

Key words: efficiency, water, drip irrigation, transboundary, agromelioration, irrigation, strategy, irrigation plan, limit.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы управления эффективным использованием трансграничных вод в условиях глобализатsii в сельском хозяйстве, эффективности использования водных ресурсов, мер по смягчению дефицита воды, эффективной организатsii служб доставки водных ресурсов.

Ключевые слова: эффективность, водные ресурсы, капельное орошении. трансграничный, агромелиоратив, ирригация, стратегия, план орошения, лимит.

KIRISH

Jahon mamlakatlarida globallashuvni yuzaga kelishi va aholi sonining sezilarli darajada ko‘payib borayotganligi va iqtisodiyot tarmoqlarining jadal sur’atlarda rivojlanayotganligi transchegaraviy suvlarga bo‘lgan talabning keskin ortishiga sabab bo‘lmoqda. Buning natijasida dunyoning ko‘plab mintaqalarida suv tanqisligi kuzatilmoqda. Olimlarning ta’kidlashicha, “2030-yilga borib jahon aholisining 47 foizi suv tanqisligi sharoitida yashashga majbur bo‘ladi”[1]. Hozirgi kunda jahon bo‘yicha iste’mol qlinadigan suvning 70 foizi qishloq xo‘jaligi hissasiga to‘g‘ri keladi. Aksariyat rivojlangan xorijiy davlatlarda suv ta’minotini tashkil etish, moliyalashtirish va boshqarishda bozor mexanizmlarini qo‘llash ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda suv xo‘jaligini boshqarish tizimi tubdan isloh qilindi, suv resurslaridan maqsadli va oqilona foydalanish ishlari amalga oshirildi hamda sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holati yaxshilandi. Buning natijasida suvdan limit bo‘yicha foydalanishga o‘tilganidan keyin so‘nggi 15 yil davomida bir gektar hisobiga suvni yo‘qotish hajmi 10-12 foizga kamaydi[2], suv xo‘jaliklari faoliyatining miqdor va sifat ko‘rsatkichlari yaxshilandi. Ushbu tadbirlar qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligi o‘sishi va mazkur tarmoqning barqaror rivojlanishga asos yaratdi. Shu bilan birga, bugungi kunda qishloq xo‘jaligida suv resurslaridan foydalanishni tashkil etish bo‘yicha o‘z yechimini kutayotgan muammolar ham mavjud bo‘lib, jumladan, suvni yetkazib berish, suvdan foydalanish ishlarini samarali boshqarish va bozor mexanizmlarini qo‘llash, suvga haq to‘lash tartib-qoidalari hamda shartnoma majburiyatlarini bozor munosabatlariga moslashtirish dolzarb masalalardan hisoblanadi. 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash, melioratsiya va irrigatsiya obyektlari tarmoqlarini rivojlantirish, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish sohasiga intensiv usullarni, eng avvalo, suv va resurslarni tejaydigan zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish”[3] bo‘yicha ustuvor vazifalar

1 www. un. org- Birlashgan Millatlar Tashkilotining rasmiy sayti.
2 www.agro.uz.- O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining rasmiy sayti.
3 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonining I ilovasi “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta

belgilangan [1]. Ushbu vazifalarni samarali yechim topishi qishloq xo‘jaligida transchegaraviy suv rerurslaridan samarali foydalanishni boshqarishda bozor mexanizmlarini qo‘llash yo‘llarini takomillashtirishni taqozo etadi.

Jahon amaliyotida to‘plangan ilg‘or xorijiy tajribalardan kelib chiqqan holda respublikamiz qishloq xo‘jaligida suv resurslaridan oqilona foydalanishning ilmiy asoslarini takomillashtirish talab qilmoqda. Shu jihatdan xorijiy mamlakatlar tajribalari asosida mamlakatimiz qishloq xo‘jaligida transchegaraviy suv rerurslaridan samarali foydalanishni boshqarishda bozor mexanizmlarini qo‘llash yo‘llarini takomillashtirish yuzasidan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mazkur mavzu doirasida ko‘plab xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilgan. Professor V.A Duxovniy “Markaziy Osiyo misolida suv va globallashuv”da asoiy e’tiborni globallashish jarayoni hamda moliyaviy institutlarga qaratilgani e’tiborga olganligini ko‘rishimiz mumkin. Bundan kelib chiqib globallashuvning natijadorligi va samaradorligi aynan davlatlararo hamda xalqaro tashkilotlar darajasida ya’ni Birlashgan Millatlar Tashkiloti bilan hamkorlikda yagona konvensiyani qabul qilinishida namoyon bo‘lmoqda [4]. Duxovniy V. A., Sokolov V. Suv resuruslarini integratsiyalashgan holda boshqarish bo‘yicha taklif hamda loyihalarida Markaziy Osiyoda suv-energetika resurslarini hamkorlikda boshqarish sohasida ikki tomonlama va ko‘p tomonlama bitimlar va boshqaruv tuzilmasi bo‘yicha ma’lumotlar keltirgan [5].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Markaziy Osiyo hamda Mamlakatimizda globallashuv sharoitida transchegaraviy suv resurslardan samarali foydalanishni boshqirishda xalqaro konsepsiya va boshqarish tuzilmasini qayta ko‘rib chiqish hamda integratsion masalalarini ilmiy va amaliy jihatdan o‘rganishda statistik ma’lumotlar, tanlanma usulda belgilash, nazariy falsafiy, obyektiv yondashuv, iqtisodiy tahlil usullaridan foydalanish asosida ilmiy xulosalar shakllantirildi. To‘plangan ma’lumotlar asosida tizimli hamda taqqoslama yondashuv kabi uslublardan samarali foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Markaziy Osiyoda transchegaraviy suv resurslardan foydalanishda davlatlararo qabul qilingan hujjatlar muhim ahamiyat kasb etadi, shuning uchun ham hozirgi davrda markaziy osiyo davlatlarida transchegaraviy suv resurslardan foydalanishda Birlashgan Millatlar Tashkiloti doirasida transchegaraviy suv resurslardan foydalanish bo‘yicha xalqaro darajada konvensiya ishlab chiqilishiga ehtiyoj sezilmoqda. Xalqaro darajadagi konvensiyani ishlab chiqishda barcha Markaziy Osiyo davlatlari bilan kelishilgan holda Afg‘onistonni ham bu konvensiyaga qo‘shilishini nazarda tutilish maqsadga muvofiq. Lekin hozirgi paytdagi Afg‘onistondagi vaziyat to‘laligicha yaxshilanmaganini hisobga oladigan bo‘lsak kelishuvni amalga oshirishda muammoli vaziyat juda ham ko‘p. Aynan muammoni samarali echimi sifatida Markaziy Osiyo davlatlari ya’ni Afg‘oniston ham xalqaro darajada ya’ni Birlashgan Millatlar Tashkiloti bilan birgalikda transchegaraviy suvlardan samarali foydalanish uchun konvensiya ishlab chiqishlari va kelishilgan holda bu konvensiyani qabul qilish orqali transchegaraviy suv resurslardan maqsadli foydalanish imkoniyatlarini amalga oshirish maqsadga muvofiq. Chunki Markaziy Osiyo davlatlarining iqtisodiy o‘zish jarayonlari bir biriga bog‘liq ligi aynan birgalikda faoliyat olib borish tizimini yaratilishi maqsadga muvofiq. Birlashgan Millatlar Tashkiloti doirasida qabul qilingan konvensiya barcha davlatlar belgilangan konvensiya doirasida faoliyat olib borishi natijasida suv transchegaraviy suv resurslardan foydalanish hamda har bir respublika uchun limit asosida taqsimlanishi samaradorligi oshadi.

Hozirgi paytda, Markaziy Osiyo davlatlararo suv resurslarni muvofiqlashtiruvchi komissiya tuzilmasi quyidagicha. (1-rasm)

Birlashgan Millatlar Tashkiloti bilan birgalikda konvensiya ishlab chiqilib, bu konvensiya me’yorlariga rioya etilishi hamda Afg‘oniston Islom Amirligini bu konvensiyaga jalb etish hamda Markaziy Osiyo davlatlararo suv resurslarni muvofiqlashtiruvchi komissiya tuzilmasi tarkibiga qo‘shishni nazarda tutish maqsadga muvofiqligi zaruriyati tug‘ilmoqda, albtta, bu konvensiyani shkllantirish orqali bu davlatlarda mahsulot etishtirish hajmi va samaradorligini oshirishga erishiladi, chunki samarali boshqarishning asosi integratsiya asosida yuzaga keladi.

Markaziy Osiyo davlatlararo suv resurslarni muvofiqlashtiruvchi komissiya ta’sis organiga Afg‘oniston Islom Amirligini va ijro etuvchi organlariga ham vakillarni qo‘shish nazarda tutilishi maqsadga muvofiq.(2-rasm) Bugungi globallashuv va mintaqaviy integratsiyalashuv sharoitida O‘zbekiston transchegaraviy suv resurslaridan oqilona foydalanish, bu borada qo‘shni davlatlar bilan umumiy konsensusga erishish siyosatini yuritmoqda. Markaziy Osiyo davlatlari hamkorligi nuqtai nazaridan mintaqadagi tabiiy suv resurslaridan oqilona foydalanishni tashkil etish maqsadida har bir davlat qo‘shni davlatlar bilan o‘zaro manfaatli hamkorlikni yo‘lga qo‘yishga intiladi.

ustuvor yunalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi”. lex.uz



1-rasm: Markaziy Osiyo davlatlararo suv resurslarni muvofiqlashtiruvchi komissiya ta’sis organlari



2-rasm: Markaziy Osiyo davlatlararo suv resurslarni muvofiqlashtiruvchi komissiya ta’sis organlari (muallif ishlanmasi)

Asosiy suv resurslarimiz transchegaraviy bo‘lgan Amudaryo va Sirdaryo daryolarining zimmasiga to‘g‘ri kelishi va ularning yuqori oqimida joylashgan qo‘shni davlatlarning suvni boshqarishdagi bir tomonlama xatti-harakatlari respublikamiz suv ta’minotiga jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Jumladan, Tojikistonda va Qirg‘izistonda qurilgan To‘xtagul, Nurek va Qayroqum yirik suv omborlarining irrigatsiya rejimidan energetik rejimga o‘tkazilishi daryolar suv oqimining o‘zgarishiga sabab bo‘ldi.

Qo‘shni davlatlarning suv omborlarini energetik rejimda ishlashini quyidagi misollarda aniq ko‘rishimiz mumkin. Sirdaryo havzasi bo‘yicha: To‘xtagul suv ombori Norin daryosida joylashgan bo‘lib, 19,5 mlrd.m^3 umumiy suv sig‘imiga ega. Bu mazkur suv omborining suv sig‘imi Norin daryosining yillik oqimidan 1,5 baravar ortiqligini ko‘rsatadi.

To‘xtagul suv ombori avvallari irrigatsion rejimda ishlagan, suv omboridan suv chiqarish sug‘orish mavsumida, ya’ni yoz oylarida 73 foiz (8,5 mlrd.m^3), kuz va qish oylarida esa 27 foiz (3,2 mlrd.m^3) ni tashkil qilib, daryoning tabiiy rejimiga to‘la mos kelgan. Biroq 1992-yildan boshlab, To‘xtagul suv omborining ishlashini energetik rejimga o‘zgartirilishi, natijada, sug‘orish mavsumida suv omboriga tabiiy ravishda o‘rtacha 9,4 mlrd.m^3 suv kelgan bo‘lsa, suv omboridan bor-yo‘g‘i, 5,3 mlrd.m^3 suv chiqarilgan.

Suv resurslardan samarli foydalanishda tejamkor texnologiyalarni qo‘llash orqali qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirishni ko‘paytirish imkoniyatlari judayam keng. Tomchilatib hamda yomg‘irlatib sug‘orishni lalmi yerlarda joriy etish orqali intensiv bog‘lar va chorvachilikni tashkil etish, ozuqa bazasini yaratish lozim. Bu aholini oziq-ovqatga bo‘lgan talabini qondirishga ham xizmat qiladi. Respublikamizda qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarishning 2016-yilgacha bo‘lgan ko‘rsatkichlar asosida ko‘rishimiz ham mumkin [6].

Bundan tashqari fermer xo‘jaliklar va dehqon xo‘jalilarining qishloq xo‘jaligida tutgan o‘rni hamda suv resurslaridan foydalanish muammolari mahsulot yetishtirishdagi ahamiyatida ham ko‘rishimiz mumkin [7].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Hozirgi vaqtda yuz berayotgan suv muammosini quyidagi uchta yo‘l bilan hal qilish mumkin:

Birinchidan, Markaziy Osiyo davlatlari va Birlashgan Millatlar Tashkiloti birgalikda transchegaraviy suv resurslardan foydalanish bo‘yicha konvensiya qabul qilinishi kerak. Daryo suvini to‘la tartibga solish kerak. Daryo suvi suv omborlari qurish yo‘li bilan tartibga solinadi. Suv omborlari qurish ko‘p maqsadlarni ko‘zlaydi. Bu qurilish suv ta’minotini yo‘lga qo‘yishi, daryolar suvini tartibga solishi, energiya resurslaridan foydalanishni ta’minlashi, sug‘orish va suv chiqarishni rivojlantirish, transport magistrallarini yaratilishi, baliq xo‘jaligini rivojlantirish hamda suv toshqinlari oldini olish kerak.

Ikkinchidan, bu qurilish suv havzalari o‘rtasida suvni qayta taqsimlash yo‘li bilan suv resurslari haddan ziyod bo‘lgan rayonlardan ularning anchagina qismini suv xo‘jalik rayonlarga olib borish imkonini beradi. Suv resurslarini hudud bo‘yicha qayta taqsimlash ishlari mamlakatimizda ko‘p vaqtdan buyon o‘tkazib kelinadi. Hozirgi vaqtda Amudaryo suvining bir qismi Buxoro, Navoiy, Qashqadaryo viloyatlariga yetkazib berilmoqda.

Uchinchidan, har bir havza ichida suvni tejab sarflashga qaratilgan suv xo‘jaligi va tashkiliy-iqtisodiy tadbirlar amalga oshiriladi. Bu tadbirlarga suv xo‘jaligi tizimlarini qayta tuzish, oqova suvlardan takroran foydalanish, yangi texnikani, suv xo‘jaligi tashkilotlari bilan suv iste’molchilari o‘rtasida bozor munosabatlarini joriy qilish kiradi.

To‘rtichidan, suvga limit asaosida haq to‘lashni bozor mexanizmlarini qo‘llagan holda amalga oshirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoniga ShARH. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 07.02.2017 yildagi PF-4947-son. Кучга кириш санаси. 08.02.2017.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida”gi qonuni. Toshkent shahri. 1993 y. 2 sentyabr.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 21-iyuldagi “Suv resurslarini boshqarishni tashkil etishni takomillashtirish to‘g‘risida”gi 320-sonli qarori.
4. Духовный В.А. Вода и глобализатсія: пример центральной Азии. –Т.: 2006.–27 с
5. Duxovniy V. A., Sokolov V. Suv resurslarini integratsiyalashgan holda boshqarish. –T.:2006. –35 b.
6. Мирзаев М.У. Оптимальное использование водных ресурсов и улучшение мелиоративного состояния земель в сельском хозяйстве Республики Узбекистан. 2017 г. С. 295-296. EDN: ZTKHRB
7. Мирзаев М.У. Анализ потенциала сельско хозяйственных производителей в Республике Узбекистан. 2017 г. –С. 1021-1024. EDN: ZTKLEF
8. www.agro.uz
9. www.stat.uz
10. http://www.cawater-info.net

SURXONDARO VILOYATI IQTISODIYOTIDA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNING O‘RNI VA AHAMIYATI

Fayziyeva Aziza Azamat qizi
Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ma’lumki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik jahon mamlakatlari tajribasida o‘zining yuksak natija va muvaffaqiyatlari bilan mustahkam o‘rin egallagan bo‘lib, aksariyat xalqlarda uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 60-70 foizni tashkil etadi. Kichik biznesning rivojlanishi iqtisodiyotdagi jo‘shqinlik va samarali raqobat muhiti uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish, iste’mol sektorini kengaytirish orqali talabni rag‘batlantirish, iste’mol bozorini tovar va xizmatlar bilan to‘ldirish, atrof-muhitni muhofaza qilish, budjet tushumlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Shunga ko‘ra, ko‘plab rivojlangan davlatlar kichik biznes faoliyatini har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga intiladi. Eng avvalo, iqtisodiyotning yetakchi soha va tarmoqlarida kichik tadbirkorlik ulushining oshishi iqtisodiy o‘sish va ijtimoiy barqarorlik ta’minlanishining mustahkam poydevori hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: Iqtisodiyot, kichik biznes subyektlari, mikrofirmalar, investitsiya, xorijiy investitsiya, xorijiy kapital ishtirokidagi qo‘shma korxona, innovatsiya, qonuniy-me’yoriy hujjatlar.

Abstract: It is known that small business and private entrepreneurship has a strong place in the experience of world countries with its high results and successes, and in most countries its share in the gross domestic product is 60-70 percent. The development of small business is aimed at creating favorable conditions for economic vitality and an effective competitive environment, stimulating demand by expanding the consumer sector, filling the consumer market with goods and services, protecting the environment, and expanding budget revenues. serves. Accordingly, many developed countries strive to fully support small business activities. First of all, the increase in the share of small businesses in the leading sectors and sectors of the economy is a solid foundation for ensuring economic growth and social stability.

Key words: Economy, small business entities, micro-firms, investment, foreign investment, joint venture with foreign capital, innovation, legal and regulatory documents.

Аннотация: Известно, что малый бизнес и частное предпринимательство занимает прочное место в опыте стран мира своими высокими результатами и успехами, а в большинстве стран его доля в валовом внутреннем продукте составляет 60-70 процентов. Развитие малого бизнеса направлено на создание благоприятных условий для жизнеспособности экономики и эффективной конкурентной среды, стимулирование спроса за счет расширения потребительского сектора, наполнение потребительского рынка товарами и услугами, охрану окружающей среды, расширение доходов бюджета. Соответственно, многие развитые страны стремятся полностью поддерживать малый бизнес. Прежде всего, увеличение доли малого бизнеса в ведущих отраслях и секторах экономики является прочной основой обеспечения экономического роста и социальной стабильности.

Ключевые слова: Экономика, субъекты малого предпринимательства, микрофирмы, инвестиции, иностранные инвестиции, совместное предприятие с иностранным капиталом, инновации, нормативно-правовые документы.

KIRISH

Yurtimizda ushbu yo‘nalishni qo‘llab-quvvatlash va barcha zarur sharoitlarni yaratib berish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida kichik tadbirkorlik subyektlarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi tobora ortib boryapti. Aniq raqamlarga to‘xtaladigan bo‘lsak, 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida 3 804 ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 24,8 foizga kam demakdir. Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha eng ko‘p kichik korxona va mikrofirmalar savdoda (43,9 %), sanoatda (16,1 %), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida (10,8 %), qurilishda (6,8 %) yashash va ovqatlanishda (7,9 %) tashish va saqlashda (2,5 %) tashkil etgan [1].

Kichik biznesga xuddi iqtisodiyotga yangi kuch, yangi quvvat baxsh etuvchi soha sifatida qarash mumkin. Yangidan tashkil etiluvchi korxonalar keyingi paytda vujudga kelgan talabni, so‘nggi texnologik yangilik va yutuqlarni ma’lum darajada o‘zida jamlaydi va amaliyotga joriy etadi. Shunga ko‘ra, korxonalarning yangilanish darajasi o‘ziga xos ko‘rsatkich hisoblanadi.

Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida, qoida tariqasida, kichik va o‘rta biznes katta ulushni egallaydi [2].

2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasining 29-maqsadida, tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va doimiy daromad manbasini shakllantirishga sharoitlar yaratish, tadbirkorlikning YaIMdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish belgilangan. Hududlarda 200 ta yangi sanoat zonalarini ochish va biznes-inkubatorlat tizimini rivojlantirish, hududlarda tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, ishsizlik va kambag‘allikni kamaytirish kabi masalalar alohida belgilab qo‘yilgan [3].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Kichik biznes va tadbirkorlikning milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o‘rni va ahamiyati hamda kichik biznesni boshqarish haqida respublikamizdagi iqtisodchi olimlaridan Shodibekova D.A., Boltaboyev M.R., Qosimova M.S., Ergashxodjayeva Sh.J., G‘oyibnazarov B.K., Samadov A.N., Xodjayev kabi olimlar ilmiy izlanishlar olib borishgan.

Xorijlik iqtisodchi olimlardan esa V. Ya. Gorofinklya, V. A. Shvandara, L. E. Morozova, O. A. Bortnik, I. S. Kravchuk, Wayne M. Morrinson [4]; Kurt N. Schacht, James C. Allen [5]; Benjamin Graham [6]; Uilyam F. Sharp, Gordon D. Alexander; V.F. Sharov [7]; D.A. Sorokin; L.I. Yuzvovich, S.A.Degtyareva Ye.G.Knyazevoy kabi olimlar kichik biznesning mamlakat iqtisodiyotidagi ahamiyati haqida ilmiy izlanishlar olib borishgan.

NATIJALAR VA MUNOZARA

1-jadval: Yanvar-dekabr oylarida Surxondaryo viloyatidagi kichik tadbirkorlikning asosiy ko‘rsatkichlari [8]

	O‘lchov birligi	2022-y.	2023-y.	Farqi (+;-)
Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni	birlikda	27368	20589	-6779
Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni	birlikda	4083	3804	-279
Kichik tadbirkorlikning ulushlari:				
YAHM	%	76,1	75,9	- 0,2
Sanoat	%	42,4	47,3	+ 4,9
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	%	96,1	94,1	- 2,0
Investitsiya	%	49,5	57,9	+ 8,4
Qurilish	%	92,2	91,3	- 0,9
Chakana savdo	%	96,6	97,2	+ 0,6
Xizmatlar	%	64,5	64,4	- 0,1
Yuk tashish	%	84,0	93,4	+ 9,4
Yuk aylanmasi	%	88,7	95,3	+ 6,6
Yo‘lovchi tashish	%	97,7	97,7	0,0
Yo‘lovchi aylanmasi	%	98,3	98,6	+ 0,3
Eksport	%	64,0	72,4	+ 8,4
Import	%	72,6	88,2	+ 15,6

2-jadval: Viloyat bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda [9]

	2022-yil yanvar-dekabr	2023-yil yanvar-dekabr	Farqi (+;-)
Surxondaryo viloyati	**4083**	**3804**	**-279**
shaharlar:			
Termiz sh.	677	698	+21
tumanlar:			
Angor	226	189	-37
Bandixon	150	104	-46
Boysun	225	135	-90
Denov	467	425	-42
Jarqo‘rg‘on	316	293	-23
Qumqo‘rg‘on	270	195	-75
Qiziriq	160	242	+82

Muzrabot	205	168	-37
Oltinsoy	184	249	+65
Sariosiyo	219	212	-7
Termiz	189	166	-23
Uzun	183	150	-33
Sherobod	352	337	-15
Sho‘rchi	260	241	-19

2023-yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar tumanlar bo‘yicha eng ko‘p Termiz shahri – 698 ta, Denov tumani – 425 ta, Sherobod tumani – 337 ta, Jarqo‘rg‘on tumani – 293 ta, Oltinsoy tumani – 249 ta, Qiziriq tumani – 242 ta, Sho‘rchi tumani – 241 ta va Sariosiyo – 212 tani tashkil etgan. Eng past ko‘rsatkich Muzrabot tumani – 168 ta, Uzun tumani – 150 ta, Boysun tumani – 135 ta va Bandixon tumani – 104 tani tashkil etgan.

3-jadval: Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda [10]

	2022-y. yanvar-dekabr	2023-y. yanvar-dekabr	farq. (+;-)
Jami	**4083**	**3804**	**-279**
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	820	411	-409
Sanoat	678	611	-67
Qurilish	310	260	-50
Savdo	1479	1666	+187
Tashish va saqlash	112	97	-15
Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	253	299	+46
Axborot va aloqa	66	108	+42
Sog‘likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	58	58	+/-
Boshqa faoliyat turlari	307	294	-13

2023-yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga hududlar bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Termiz tumanida 19,0 birlik, Termiz shahrida 18,9 birlik, Boysun tumanida 10,7 birlik, Bandixon tumanida 10,4 birlik, Sherobod tumanida 10,0 birlik, Oltinsoy tumanida 9,0 birlik, Angor tumanida 8,9 birlikni tashkil etgan. Qumqo‘rg‘on tumanida esa ushbu ko‘rsatkich eng past bo‘lib 7,2 birlikka to‘g‘ri keldi.



1-diagramma: 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida hududlar bo‘yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda. Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarini qo‘shgan holda) [11]

2023-yilning yanvar-dekabr oylarida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga nisbatan 9,5 birlikni tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yilda bu ko‘rsatkich 12,6 birlikni tashkil etdi va 2022-yilga nisbatan 3,1 birlikka kamaydi.

2023-yilning yanvar-dekabr oylarida iqtisodiyot tarmoqlarida kichik tadbirkorlik (biznes)ning sanoatdagi ulushi – 47,3 %, qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi – 94,1 %, qurilishda – 91,3 %, investitsiyada – 57,9 %, savdoda – 97,2 %, xizmatlar sohasida – 64,4 %, eksportda – 72,4 % va importda – 88,2 % ni tashkil etdi

2023-yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 75,9 % ni tashkil qildi. (2022-yilning yanvar-dekabrida 76,1 %). YAHMdagi ulushini o‘tgan yilga nisbatan kamayishi yirik tadbirkorlik subyektlarida qo‘shilgan qiymat hajmining ko‘payishi bilan ifodalanadi.

4-jadval: 2023-yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlikning hududlar kesimida iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridagi ulushi, (%) da [12]

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiya
Surxondaryo viloyati	**47,3**	**91,3**	**64,4**	**57,9**
shaharlar:				
Termiz sh	46,7	86,1	52,1	33,2
tumanlar:				
Angor	56,7	100,0	75,7	86,7
Bandixon	100,0	94,8	83,5	87,1
Boysun	96,2	100,0	79,5	18,0
Denov	42,7	100,0	61,9	74,1
Jarqo‘rg‘on	21,2	94,7	70,4	57,2
Qumqo‘rg‘on	25,1	95,9	46,5	82,6
Qiziriq	17,7	99,6	78,5	88,3
Muzrabot	90,1	100,0	79,8	91,0
Oltinsoy	86,8	100,0	78,6	83,0
Sariosiyo	40,5	61,1	67,6	28,2
Termiz	54,4	100,0	64,7	50,2
Uzun	58,0	100,0	76,3	81,3
Sherobod	43,8	100,0	74,3	98,4
Sho‘rchi	64,6	100,0	72,0	74,2

Hududlar bo‘yicha sanoat sohasining yuqori ulushini Bandixon (100,0 %), Boysun (96,2 %), Muzrabot (90,1 %), Oltinsoy (86,8 %) va Sho‘rchi (64,6 %) tumanlari tashkil etadi. Qurilishda Angor (100,0 %), Boysun (100,0 %), Denov (100,0 %), Muzrabot (100,0 %), Termiz (100,0 %), Sherobod (100,0 %), Sho‘rchi (100,0 %), Oltinsoy (100,0 %) va Uzun (100,0 %) tumanlari tashkil etadi. Xizmatlar sohasida Bandixon (83,5 %), Muzrabot (79,8 %), Boysun (79,5 %), Oltinsoy (78,6 %), Qiziriq (78,5 %) va Uzun (76,3 %) tumanlari tashkil etadi. Investitsiyada Sherobod (98,4 %), Muzrabot (91,0 %), Qiziriq (88,3 %), Bandixon (87,1 %), Angor (86,7 %), Oltinsoy (83,0 %) va Qumqo‘rg‘on (82,6 %) tumanlari tashkil etadi.



2-diagramma: Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jami eksportdagi ulushi, %da [13]

2023-yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko‘p ulushi Qiziriq tumanida – 100,0 %, Bandixon tumanida – 100,0 %, Muzrabot tumanida – 100,0 %, Sariosiyo tumanida – 100,0 %, Oltinsoy tumanida – 97,2 %, Angor tumanida – 92,4 %, Termiz shaharda – 83,8 % va Sherobod tumanida – 82,9 % ni eng past ko‘rsatkich Boysun tumanida – 20,4 % ni tashkil etdi



4-diagramma: 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o‘sish sur’ati [14]

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Termiz shahri (1835,9 mlrd. so‘m), Denov (729,9 mlrd. so‘m), Jarqo‘rg‘on (514,9 mlrd. so‘m), Boysun (473,6 mlrd. so‘m), Sariosiyo (465,5 mlrd. so‘m), Termiz (423,7 mlrd. so‘m), Sherobod (377,0 mlrd. so‘m), Angor (318,3 mlrd. so‘m) va Muzrabot (300,8 mlrd. so‘m) tumanlarida qayd etildi.

XULOSA

2023-yil IV chorak yakunlariga ko‘ra, kichik korxona va mikrofirmalar o‘rtasida tanlanma kuzatuvlar o‘tkazildi. Ushbu so‘rovnomada 1 053 ta kichik korxona va mikrofirmalar ishtirok etdi. Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi savdoda – 40,9 % (431 ta), xizmatlar sohasida – 27,5 % (290 ta), qurilishda – 13,6 % (143 ta), sanoatda – 11,5 % (121 ta), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – 6,5 % (68 ta) ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning 2023-yilning IV choragida o‘tkazilgan kuzatuv natijalariga ko‘ra joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha eng ko‘p ulushi sanoatda 38,0 % ni, xizmatda 37,2 % ni, savdoda 34,1 % ni va qurilishda 33,6 % ni tashkil etdi. Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko‘p ulushi qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 80,9 % ni, savdoda 58,0 % ni va xizmatlar sohasida 57,3 % ni va tashkil etdi.

Qo‘llanilgan manbalar ro‘yxati:

1. www.surxonstat.uz Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi
2. Bahodirov Sh., Jaxonova O. “Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlanishini ta’minlashda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o‘rni. Milliy Iqtisodiyotni Isloh Qilish va Barqaror Rivojlantirish istiqbollari. Respublika Ilmiy-amaliy konferensiyasi Materiallari to‘plami., 51–54. Retrieved from https://conference.tsue.uz/index.php/article/article/view/333
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-sonli “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi farmoni. 28.01.2022-yil. https://lex.uz.
4. China’s economic raise: History, Trends, Challenges and implications for the United States, 2015 https://sgp.fas.org.
5. Kurt N. Schacht, James C. Allen “Elements of an investment policy statement for individual investors” 2020. https://www.scribd.com
6. Benjamin Graham “The intelligent investor” 2017. https://dspace.vnbrims.org.
7. В.Ф.Шаров “Управление инновационно-инвеститсионным поведением промиышленных компаниях в условиях меняющецся институциональной среды Москва” 2015 https://www.dslib.net
8. www.surxonstat.uz Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi
9. www.surxonstat.uz Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi
10. www.surxonstat.uz Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi
11. www.surxonstat.uz Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi
12. www.surxonstat.uz Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi
13. www.surxonstat.uz Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi
14. www.surxonstat.uz Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi

TA’LIM MUASSASALARIDA XARAJATLARNI MOLIYAVIY NAZORAT ETISHNING SAMARADORLIGI TAHLILI

Eshonqulov Davlatjon Rajabboyevich
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti “Bank ishi va buxgalteriya hisobi” kafedrasining mustaqil ilmiy izlanuvchisi

Annotatsiya: Maqolada oliy ta’lim muassasalarida xarajatlarni moliyaviy nazorat etish samaradorligini tahlil etishning dolzarbligi va uning asosiy yo‘nalishlari, moliyaviy oqimlarni va davlat mulkini boshqarish samaradorligini ta’minlash uchun tegishli moliyaviy nazorat mexanizmlarini yaratish, oliy ta’lim sohasidagi davlat siyosatini tashkil etish, davlat moliyaviy nazoratini samarali va keng qamrovli tashkil etish, moliyaviy operatsiyalarda inson faktorini kamaytirish, tizimli yo‘l qo‘yilayotgan moliyaviy xato-kamchiliklarning oldini olish masalalariga doir tadqiqot natijalari aks ettirilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim muassasasi, davlat moliyaviy nazorati, ichki audit, davlat moliyasini boshqarish, moliyaviy oqimlar, nazorat mexanizmlari, moliyaviy nazorat samaradorligi, moliyaviy mexanizmni shakllantirish, ta’lim sohasidagi davlat siyosati.

Abstract: In the article, the relevance of the analysis of the effectiveness of financial control of expenses in higher education institutions and its main directions, the creation of appropriate financial control mechanisms to ensure the effectiveness of financial flows and the management of state property, the organization of state policy in the field of higher education, the effective and comprehensive organization of state financial control, the results of the research on the issues of reducing the human factor in financial transactions and preventing systematic financial errors and deficiencies are reflected.

Key words: educational institution, state financial control, internal audit, state financial management, financial flows, control mechanisms, effectiveness of financial control, formation of a financial mechanism, state policy in the field of education.

Аннотация: В статье показана актуальность анализа эффективности финансового контроля расходов в высших учебных заведениях и его основных направлений, создания соответствующих механизмов финансового контроля для обеспечения эффективности финансовых потоков и управления государственным имуществом, организации отражены государственная политика в сфере высшего образования, эффективная и комплексная организация государственного финансового контроля, результаты исследований по вопросам снижения человеческого фактора в финансовых операциях и предотвращения систематических финансовых ошибок и недостатков.

Ключевые слова: образовательное учреждение, государственный финансовый контроль, внутренний аудит, государственное финансовое управление, финансовые потоки, механизмы контроля, эффективность финансового контроля, формирование финансового механизма, государственная политика в сфере образования.

KIRISH

Oxirgi yillarda mamlakatimiz davlat moliyasini boshqarish tizimining barcha bosqichlarida, xususan, davlat moliyaviy nazorati va ichki auditini amalga oshirishda keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilayotgan bo‘lsa-da, tizimda qator kamchiliklar mavjud. Bizga ma’lumki, hozirgi kunga qadar Davlat moliyaviy nazorati tizimi hamda uni ishlash prinsipi mustaqillik davridan avvalgi yillardagi davlat moliyaviy nazorat tizimidan keskin farq qilmasdan kelmoqda. Chunki o‘sha davrda budjetdan ajratilgan mablag‘larni sarflanishida faqatgina qonun va qonun osti hujjatlar talablari to‘g‘ri bajarilishi, budjet mablag‘larini talon-taroj va o‘zlashtirishlarga yo‘l qo‘yilmasligi tekshirishning asosiy maqsadi bo‘lgan bo‘lsa, hozirda ham moliyaviy nazoratni amalga oshirishda ushbu maqsadlarga ko‘proq urg‘u berilmoqda, ya’ni barcha operatsiyalar amalga oshirilganidan so‘ng qonun hujjatlariga zid bo‘lmagan holda budjet mablag‘laridan oqilona foydalanilganligi, o‘zlashtirish, kamomad, rejadan ortiqcha xarajatlar amalga oshirilmaganligiga baho berish bilan cheklanib qolinmoqda.

Hozirgi sharoitda O‘zbekiston iqtisodiyoti moliyaviy, budjet va soliq intizomining pastligi tufayli katta zarar ko‘rmoqda. Budjet mablag‘lari va moddiy resurslardan boshqa maqsadlarda foydalanish O‘zbekiston Respublikasining har bir budjet tashkilotlarida va hududlarida amalda mavjudligini kuzatish mumkin. Natijador va samarali moliyaviy nazorat kuchli davlat mavjudligining asosiy sharti, davlat ravnaqi va barqarorligining muhim omilidir. Davlatning iqtisodiy sohadagi nazorat funksiyasi davlat va hududiy (munitsipal) darajada moliyaviy huquqbuzarliklarning oldini olish, aniqlash va ularga chek qo‘yish, shuningdek, budjet mablag‘laridan foydalanish samaradorligini oshirish tizimini tashkil etishdan iborat. Davlatning davlat moliyaviy nazorati mexanizmlarini takomillashtirish imkoniyatlari, eng avvalo, umumiy iqtisodiy vaziyat va iqtisodiyot oldida turgan vazifalar bilan belgilanadi.

Moliyaviy oqimlarni va davlat mulkini boshqarish samaradorligini ta’minlash uchun tegishli moliyaviy nazorat mexanizmlarini yaratish dolzarb bo‘lib qoladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xorijlik va Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi davlatlarining yetakchi iqtisodchi olimlari tomonidan mavzuga oid ilmiy tadqiqotlar o‘tkazilgan va uning mohiyati haqida qimmatli fikrlar bildirilgan. Xususan, davlat moliyaviy nazorati mohiyati va vazifalarini tadqiqotchi L.N.Ovsyannikovning fikricha: “Davlat moliyaviy nazorati – davlatning moliyaviy manfaatlarini va fuqarolarning moliyaviy huquqlarini qonunlar, tashkiliy, boshqaruv, huquqni himoya qilish vositalari orqali amalga oshiriladigan tadbirdir” [1].

V.D.Larichev ta’kidlaydiki, davlat moliyaviy nazoratining maqsadi moddiy resurslardan foydalanish jarayonida ro‘y beradigan, ya’ni huquqiy talablarning buzilishi, budjet mablag‘larining noqonuniy sarflanishi bilan bog‘liq bo‘lgan qonunbuzarliklarni oldini olish, shuningdek, qonunbuzarliklarga sabab bo‘lgan shaxslardan davlatga yetkazilgan zararni undirish va ularga nisbatan qonuniy choralarni ko‘rish, shuningdek, kelajakda bunday qonunbuzarliklarga yo‘l qo‘ymaslikka qaratilgan chora tadbirlarni ishlab chiqishdan iboratdir [2].

Tadqiqotchi E.A.Voznesenskiy qayd etadiki, davlat moliya nazoratidan ko‘zlangan maqsad mikro va makro darajada moliyaviy xarajatlar haqida tezkor ma’lumotga ega bo‘lish, qonunbuzarliklarning oldini olish uchun mo‘ljallangan, moliyaviy resurslar boshqarilishini ta’minlaydigan qarorlar qabul qilib, yangi vazifalarni belgilashdan iboratdir [3].

Shunday qilib, davlat moliya nazorati organlari faoliyati aksariyat iqtisodchi olimlar tomonidan ijobiy baholangan. Ushbu fikrlarning davlat moliya nazoratining muayyan tomonlarini, elementlarini tadqiq qilgan bo‘lsa, ba’zi olimlar uning keng imkoniyatga egaligini e’tirof etadi. Iqtisodiy mavzuda nashr qilingan ilmiy adabiyotlarda hozirgacha, davlat moliya nazorati qaysi metodlardan foydalanib amalga oshirilishi haqida yagona fikr shakllanmagan.

Davlat moliya nazorati vazifalari va mohiyati bo‘yicha yagona metodika mavjud bo‘lmaganligi uchun, iqtisodchi olimlar orasida turli munozarali fikrlar mavjud. Eng muhimi yagona ilmiy asosga ega bo‘lmagan yondashuvlar amaliyotda ham uchraydi.

Mamlakatimizda davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatini yanada takomillashtirishga oid vazifalarni D.Pulatov umumlashtirishga harakat qilgan [4]. Tadqiqotchilar A.K.Ibragimov, R.M.Abdualimov ishlarida yangi taraqqiyot bosqichida davlat moliyaviy nazoratini yanada takomillashtirish muammolari tahlil qilingan. O‘zbekistonda davlat moliyaviy nazoratini tashkil qilishning nazariy, metodologik asoslari, bozor iqtisodiyoti sharoitidagi tashkiliy va uslubiy jihatlari, uni takomillashtirish masalalari iqtisodchi olima M.Tulaxodjayeva dissertatsiyasida ham o‘rganilgan [5].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada ilmiy abstraksiyalash, qiyoslash usuli, ekspert baholash, monografik tadqiqotlar, sotsiologik kuzatishlar va ularning natijalarini tahlil qilish, dinamik tahlil va chiziqli bog‘lanishlar usullaridan foydalanilgan.

NATIJA VA MUHOKAMA

Davlat sektori har doim quyidagi xususiyatlar bilan ajralib turadi:

- rejaga muvofiq mablag‘lardan maqsadli foydalanishning ustuvorligi;
- funksional va batafsil iqtisodiy tasnifning ustuvorligi;
- xarajat ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda rejalashtirish;
- qarorlar qabul qilishda markazlashuvning yuqori darajasi;
- faoliyati ustidan tashqi nazoratning ustuvorligi.

Cheklangan resurslardan foydalanishning eng samarali usullarini aniqlash, qabul qilingan qarorlarning samarali bajarilishini, faoliyat va ularning natijalari uchun javobgarlik va javobgarlikni ta'minlash moliyaviy nazorat e'tiborini davlat (shahar) muassasalarida sodir bo'ladigan ichki jarayonlarga qaratishga olib keladi. Shu munosabat bilan davlat moliyasini boshqarishni takomillashtirishning asosi va omili sifatida budjet muassasalarida ichki moliyaviy nazoratni rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib, oliy ta'lim muassasalarida xarajatlarni moliyaviy nazorat etish samaradorligi tahlil etishning dolzarbligi va uning asosiy yo'nalishlarini tanlash quyidagilar bilan belgilanadi:

1. Budjet muassasalarining moliyaviy nazoratini amalga oshirish uchun iqtisodiyotdagi global o'zgarishlar va davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish munosabati bilan yangicha yondashuvlar va ish turlarini ishlab chiqish zarur.
2. Budjet muassasalarida amaliy nazorat tizimini tashkil etish va qo'llash bo'yicha takliflar, shuningdek, budjet va budjetdan tashqari mablag'lar sarflanishi ustidan nazorat faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish zarur.

Tadqiqot ishi muammosining rivojlanish darajasi davlat moliyaviy nazorati bilan bog'liq bo'lib, shuni ta'kidlash kerakki, budjet muassasalarida ichki moliyaviy nazoratni takomillashtirish masalalari faqat bilvosita va qisman ko'rib chiqilgan. Budjet muassasalarida ichki moliyaviy nazoratni tashkil etish va metodologiyasi, nazorat faoliyati samaradorligini oshirish yo'llari bilan bog'liq muammolarning aksariyati ilmiy izlanishlarga muhtoj. Davlat moliyaviy nazorati organlarining shakllanishi va faoliyati bilan bog'liq ayrim masalalar bo'yicha xorijiy olimlar tomonidan taklif qilingan yechimlar siyosiy haqiqatga mos kelishi kerak va bu O'zbekistonda sodir bo'layotgan o'zgarishlar sharoitida juda qiyin.

Moliyaviy nazorat tizimida davlat moliyaviy nazorati alohida o'rin tutadi. Bu davlat moliyaviy nazorati tizimini rivojlantirish va takomillashtirish muammolarini o'rganishga e'tiborni kuchaytiradi.

Budjet kodeksida ichki audit vazifalari, funksiyalari, bo'ysunish darajasi, hisobdorligi va boshqa huquqiy ahamiyatlari belgilab berilmagan. Bir so'z bilan aytganda, shu kunga qadar Davlat moliyaviy nazorati va ichki auditida yagona siyosat yuritish, moliyaviy nazorat organlarini uslubiy ta'minlash, faoliyatini muvofiqlashtirish uchun mas'ul organ belgilanmagan. Hozirgi vaqtda amalda bo'lgan davlat moliyaviy nazorati tizimi to'liq samaraliyatda natijasini bergani yo'q.

Tahlil natijalaridan ko'rish mumkinki, budjet qonunchiligini buzilishi holatlari-yildan-yilga ortib bormoqda. Ortib borishiga esa bir nechta omillar ta'sir qilishi mumkin: tekshirishlar soni ko'payganligi, budjet xarajatlari oshganligi, davlat moliyaviy nazorati xodimlar soni ko'payganligi, ularni malaka ko'nikmalari oshganligi va boshqalar. Ammo, bizning nazarimizda bu omillar yuqoridagi ko'rsatkichlarni ortishiga bu darajada ta'sir qilmaydi. Bizning fikrimizcha bunga asosiy sabablardan biri moliyaviy operatsiyalarda IT texnologiyalarni yetarli tatbiq qilinmaganligi, kadrlarning malakasini oshirish yuzasidan maxsus o'quv seminarlar tashkil qilinmaganligi, har bir nazoratchi nazorat obyektida o'zi malakasi yetganicha moliyaviy nazorat tadbirini amalga oshirayotganligi, moliyaviy nazorat tadbiri davrida daromadlar va xarajatlar nazorati to'liq qamrab olinmasligi, hududiy davlat moliyaviy nazorati boshqarmalarida mutaxassislarni oylik maoshi kamligi, ular faoliyati mahalliy hokimiyat organlari nazoratidaligi, to'liq mustaqil emasliklari va boshqalar.

Shu bilan birga, oliy ta'lim muassasalarini o'zgartirish jarayoni bilan bog'liq holda oliy ta'limning moliyaviy mexanizmini shakllantirish xususiyatlarini va uning asosiy tarkibiy qismlarini har tomonlama o'rganish zarurati tug'iladi (1-rasm).

Bugungi kunda ta'limning me'yoriy-huquqiy asoslari allaqachon shakllantirilgan, oliy ta'lim muassasalarining avtonomligi oshirilgan, yangi ta'lim standartlari joriy etilgan. Shu bilan birga, oliy ta'lim muassasalarini boshqarish va moliyaviy ta'minlash, moliyalashtirishning budjet va nobudjet manbalarini maqbul uyg'unlashtirish, ulardan foydalanishning samarali modelini ishlab chiqish muammolari mavjud. Bu borada oliy ta'lim muassasalari tomonidan moliyaviy resurslarni shakllantirish va ulardan samarali foydalanish muammolarini o'rganish, ayniqsa, dolzarbdir.

Oliy ta'lim muassasalarining barqaror faoliyat yuritishi va rivojlanishi, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatining oshishi bevosita yetarli moliyaviy resurslarga bog'liqligini isbotlashning hojati yo'q. Shuning uchun ham, oliy ta'lim muassasalarini boshqarish tizimida moliyaviy mexanizm muhim o'rin tutadi.

Biz oliy ta'limning moliyaviy mexanizmi umumiy moliyaviy mexanizmning bir qismi sifatida oliy ta'lim sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirishning elementi deb hisoblaymiz.

Zamonaviy sharoitda oliy ta'limning moliyaviy mexanizmining muhim xususiyati oliy ta'lim va davlatning o'zaro ta'siri muammosidir. Davlat va oliy ta'lim muassasalari o'rtasida rivojlanadigan iqtisodiy munosabatlar mulkchilik, boshqaruv, oliy ta'lim muassasalarining avtonomiya darajasi, moliyalashtirish mexanizmi va boshqalar bilan bog'liq munosabatlarning ma'lum bir majmuasini o'z ichiga oladi. Binobarin, bunday mexanizmning samarali faoliyat ko'rsatishi uchun oliy ta'limni rivojlantirishning davlat dasturi (strategiyasi) ishlab chiqilishi kerak, unda oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishda strategik ustuvor yo'nalishlar nazarda tutiladi.



1-rasm: Oliy ta'limning moliyaviy mexanizmi sxemasi[1]

Bizning fikrimizcha, oliy ta'lim sohasidagi davlat siyosati quyidagilardan iborat bo'lishi kerak:

- oliy ta'lim muassasalarini davlat budjeti mablag'lari hisobidan ta'minlash tamoyilidan amalda mumkin bo'lgan miqdorlarda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashga o'tish, kadrlar tayyorlash bo'yicha, lekin ularning sonini cheklamagan holda davlat buyurtmalari tizimini ishlab chiqish;
- oliy ta'lim muassasalarining, birinchi navbatda, moliya sohasida mustaqilligini takomillashtirish va chuqurlashtirish;
- qator ilmiy-tadqiqot muassasalarini yetakchi oliy ta'lim muassasalariga o'tkazishni amalga oshirish. Bu o'quv, ilmiy, shuningdek, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim jarayonining moddiy-texnik bazasini yaxshilash, professor-o'qituvchilar tarkibi darajasini oshirish, oliy ta'limning moddiy, moliyaviy va kadrlar resurslaridan samaraliroq foydalanish imkonini beradi;
- resurslarni, shu jumladan, budjet mablag'larini boshqarishda, daromad keltiruvchi faoliyatning turli taraflarini amalga oshirishda moliyaviy mustaqillikni kengaytirish;
- budjet mablag'larining sarflanishi oliy ta'lim muassasalari tomonidan budjet tasnifi moddalariga muvofiq o'quv jarayoni ehtiyojlaridan tashqari mustaqil ravishda amalga oshirilishi kerak. Budjet tasnifining barcha bandlari bo'yicha ta'lim organlariga budjet mablag'larining sarflanishi to'g'risidagi hisobot taqdim etilishi kerak. Bu ta'lim statistikasining moliyaviy qismi uchun asos bo'lishi mumkin.

Taklif etilayotgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi tashabbuskorlikni rivojlantirish va oliy ta'lim muassasalarining mustaqilligini, iqtisodiy mustaqilligini kengaytirishga xizmat qilishi kerak.

Oliy ta'limning moliyaviy mexanizmini takomillashtirishda budjetdan tashqari manbalar, jumladan, ta'lim xizmatlarini ko'rsatish uchun mo'ljallangan mablag'lar, xo'jalik shartnomalari mavzularini amalga oshirishdan tushadigan mablag'lar, homiylik mablag'lari va boshqalar rolini faollashtirish muhim ahamiyatga ega.

Davlat bunday manbalarni quyidagi yo'llar bilan rag'batlantirishi kerak:

- korxonalar va tashkilotlarga mahsulot, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlarni sotishdan tushgan tushumning ma'lum foizida ushbu mablag'lardan yoshlarning akkreditatsiyadan o'tgan oliy ta'lim muassasalarida o'qishi uchun haq to'lash maqsadida soliq imtiyozlari berish;
- oliy ta'limni kreditlash va sug'urtalash mexanizmini takomillashtirish;

1 Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

- birinchi navbatda universitet fanlari sohasida homiylik va homiylikni rivojlantirishni rag‘batlantirish;
- o‘qituvchilar va talabalar uchun grantlar shaklida xorijiy investorlarning mablag‘larini jalb etishga ko‘maklashish;
- oliy ta’lim muassasalariga ko‘rsatayotgan ta’lim xizmatlarini (mahsulotlarni) sotishdan olingan daromadlar bo‘yicha soliq imtiyozlari berish, shu jumladan, mulkni ijaraga berish va boshqalar.

Oliy ta’lim muassasalari faoliyatining moliyaviy mexanizmini takomillashtirishning yana bir yo‘li – oliy ta’lim muassasalarini ilmiy-tadqiqot markazlariga aylantirish orqali milliy innovatsion tizimni shakllantirishda ularning ishtirokini rag‘batlantirishdir.

Bizning fikrimizcha, oliy ta’lim muassasalarining innovatsion faoliyatidan (o‘z ilmiy tadqiqotlarini, shu jumladan, xorijda amalga oshirishdan) olingan daromadlar oliy ta’lim muassasalari uchun muhim qo‘shimcha moliyaviy manbaga aylanishi mumkin. Bu, birinchi navbatda, boshqa tarmoqlar bilan o‘zaro aloqada bo‘lish uchun barcha imkoniyatlarga ega bo‘lgan, fundamental tadqiqotlarni tarmoqqa yo‘naltirilgan (idoraviy ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan hamkorlikda) va o‘zini-o‘zi ta’minlovchi (xo‘jalik yurituvchi subeektlar buyurtmasi bo‘yicha) ilmiy tadqiqotlar bilan birlashtirgan klassik universitetlarga taalluqlidir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, hozirda davlat moliyaviy nazorati tizimidagi aniq muammolar mavjudligi hamda ularni zamon talabiga mos ravishda bosqichma-bosqich takomillashtirish talab etilmoqda. Ushbu muammolar esa quyidagilar:

- Hisob palatasi, davlat moliyaviy nazorati departamenti, ichki audit va moliyaviy nazorat xizmatlari vazifalari va javobgarlik chegaralari, o‘zaro ma’lumotlar almashinishi, huquq tartibot idoralari bilan hamkorliklari, huquqlari, moliyaviy nazorat tadbirlarini o‘tkazishda bir birlarini takrorlanmaslik chegarali qonun hujjati bilan to‘liq belgilanmagan;
- Ichki audit tizimi huquqiy mavqeyi, vazifalari, funsiyalari Budjet kodeksida o‘z aksini topmagan;
- yagona siyosat yuritish, moliyaviy nazorat organlarini uslubiy ta’minlash, faoliyatini muvofiqlashtirish uchun mas’ul organ belgilanmagan;
- Hisob palatasi xodimlarining mehnat faoliyatini mustaqilligi qonun bilan ta’minlanmagan;
- Tizimli kadrlarni malakasini oshirish va qayta tayyorlash instituti mavjud emas;
- Oliy ta’lim muassasalarida, tizimda ish faoliyatini boshlagan xodimlarga o‘zbek tilida nashr etilgan davlat moliyaviy nazoratidan nazariy va amaliy bilim olishlari uchun o‘quv qo‘llanmalar yetarli emas;
- Moliya vazirligining Davlat moliyaviy nazorati departamenti huquqiy maqomi teng bo‘lgan ikkinchi bir vazirlikda moliyaviy nazorat tadbirini amalga oshirish amaliyoti zamonaviy moliyaviy nazorat amaliyotida mavjud bo‘lmagan. Shu sababli ham, Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentiga o‘tkazilishi belgilanmoqda. Departament va Hisob palatasi birgalikda ishlab, yashirin iqtisodiyotni jilovlash va budjet mablag‘larini to‘g‘ri sarflanishi uchun javobgar bo‘ladi.

Budjet tizimida davlat moliyaviy nazoratini shunday tashkil etish lozimki, budjet mablag‘lari hisobidan amalga oshirilayotgan noqonuniy harakatlarga texnik jihatdan yo‘l qo‘ymaslik yoki bunday xarajatlar amalga oshirilganda xavf tahlili orqali real vaqt rejimda oshkor bo‘lishi lozim. Va albatta, aybdorlarga nisbatan doimo qonuniy chora ko‘rilishi lozim.

Shu munosabat bilan 2021-yil 27-avgustda “Davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6300-son Farmoni qabul qilingan edi. Davlat moliyaviy resurslarini samarali boshqarish hamda budjet mablag‘laridan maqsadli va oqilona foydalanish ustidan davlat moliyaviy nazorati tizimini takomillashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining Hisob palatasi tomonidan amalga oshiriladigan nazorat shakllari va turlariga qo‘shimcha quyidagilar amaliyotga joriy etildi:

- buxgalteriya (budjet) hisobi yuritilishini, moliyaviy hisobotlarning haqqoniyligini, moliyaviy resurslardan maqsadli va qonuniy foydalanilganligini hamda daromadlarning to‘liqligini, shuningdek, moliyaviy operatsiyalarning qonuniyligini baholashni nazarda tutuvchi moliyaviy audit;
- konsolidatsiyalashgan va jalb qilingan budjet mablag‘laridan foydalanishda, davlat xaridlarini amalga oshirishda, shuningdek, daromadlarning to‘liqligini ta’minlash va biznes jarayonlarida normativ-huquqiy hujjatlar talablariga rioya qilinganligini va ularning davlat dasturlariga muvofiqligini tekshirish va baholashni nazarda tutuvchi muvofiqlik auditi;
- nazorat obyektida xarajatlar, subsidiyalar, imtiyozlar va preferensiyalarning samaradorligi va natijadorligini, ajratilgan mablag‘lardan foydalanishning tejamkorligini, belgilangan maqsadli ko‘rsatkichlarning bajarilishini, konsolidatsiyalashgan budjet va jalb qilingan mablag‘lar hisobidan amalga oshirilayotgan loyihalarning maqsadga muvofiqligi va natijadorligini, shuningdek, davlat va hududiy dasturlarning moliyalashtirish manbalari bilan ta’minlanganligini baholash va tahlil qilishni nazarda tutuvchi samaradorlik auditi.

Shu bilan birga, yuqoridagilardan kelib chiqib, Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti vakolatiga o‘tkazilayotgan Davlat moliyaviy nazoratini samarali va keng qamrovli tashkil etish, moliyaviy operatsiyalarda inson faktorini kamaytirish, tizimli yo‘l qo‘yilayotgan moliyaviy xato-kamchiliklarni oldini olish maqsadida quyidagilarni joriy etish maqsadga muvofiq deb o‘ylaymiz.

1. “Davlat moliyaviy nazorati va auditi to‘g‘risida” Qonun qabul qilish, Qonunda davlat nazorat organlari va ichki audit xizmatlarining vazifalarini aniq belgilash;
2. Hisob palatasi tizimida Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti vakolatiga o‘tkazilayotgan Davlat moliyaviy nazorati tizimidagi xodimlarni malakasini oshirish va qayta tayyorlash institutini tashkil etish;
3. Oliy ta’lim muassalari hamda tizimda ish faoliyatini boshlagan xodimlarga nazariy va amaliy o‘quv qo‘llanmalarni ishlab chiqish;
4. Hisob palatasi xodimlari mehnat faoliyatini mustaqilligini qonuniy ta’minlash;
5. Barcha budjet hisobi moliyaviy operatsiyalari informatsion texnologiyalar, maxsus avtomatlashtirilgan dasturlar orqali elektron tarzda amalga oshirilishini inobatga olgan holda, davlat budjeti mablag‘larini hisob kitobi bilan bog‘liq dasturiy majmualarni nazorat qilish auditi sho‘basini tashkil etish.

Ushbu sho‘ba xodimlariga yuklatiladigan aniq vazifalar quyidagilardan iborat bo‘lishi lozim:

- Davlat moliyaviy nazorati yakuni bilan mavjud avtomatlashtirilgan dasturiy majmualarda tizimli aniqlanayotgan xato va kamchiliklarni aniqlash va bartaraf etish;
- Inson faktori bilan yo‘l qo‘yilayotgan moliyaviy xato kamchiliklarni tizimli aniqlash hamda avtomatlashtirilgan dasturlar bilan to‘liq qamrab olishni tashkillashtirish;
- Vazirliklar, idoralar va boshqa yuridik shaxslar nazoratida mavjud bo‘lgan avtomatlashtirilgan dasturlarning elektron bazalaridan foydalangan holda, budjet mablag‘lari sarflanishi jarayonida moliyaviy xavflarni baholovchi hamda xabar berib boradigan tizimni yaratish, doimiy nazorat qilib borish va boshqalar.

XULOSA

Yuqorida shakllantirilgan fikr va mulohazalar asosida ta’lim muassasalarida xarajatlarni moliyaviy nazorat etishning samaradorligi tahlili bo‘yicha quyidagi ilmiy-nazariy xulosa va tavsiyalar shakllantirildi hamda tizimni takomillashtirish uchun berilayotgan takliflar amalga oshgan taqdirda quyidagi ijobiy natijalarga erishilishi mumkin bo‘ladi.

1. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat moliyaviy nazorati va auditi to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilinishi orqali davlat moliyaviy nazorat organlari va ichki audit xizmatlarining vazifalari aniq belgilanadi;
2. Barcha moliyaviy nazorat organlari uchun yagona ma’lumotlar bazasi yaratilib, kameral nazorat, risk-tahlil asosida keng qamrovli nazorat tizimi tashkillashtiriladi;
3. Davlat moliyaviy nazorati xodimlarini malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimi yaratilib, xodimlarning saviyasi va amaliy ko‘nikmalari oshiriladi, tizim uchun yaratilgan o‘quv qo‘llanmalar ish faoliyatini samarasini oshiradi.
4. Tekshirishlarni takrorlanishi oldi olinadi, korrupsiya holatlari kamayadi, budjet tashkilotlarining budjet intizomiga qat’iy rioya etilishi ta’minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Овсянников Л.Н. Государственный финансовый контроль: подходы к стандартизации. // Финансы, –2010. –с.5.
2. Ларичев В.Д. Теоретические основы предупреждения преступлений в сфере экономики: Моногр. –М.: Юрлитинформ. –2010. –с.19.
3. Вознесенский Э.А. Финансовый контроль за деятельностью промышленных предприятий. –М.: Изд-во ЛГУ, 2013. –с.27.
4. Пулатов Д. Вопросы совершенствования государственного финансового контроля в узбекистане. Perspectives of Innovations, Economics and Business. 2009. –Т. 2. –№ 2. –С. 49-50.
5. Тулаходжаева М. организация и методы финансового контроля в Республике Узбекистан. Диссертация на соискание ученой степени доктора экономических наук.–Москва, 1998.
6. Artikov K.A. Oliy ta’lim muassasalari faoliyati moliyaviy ta’minoti hisobi va nazoratini takomillashtirish masalalari. –“Moliya” ilmiy jurnali, 2019 yil 3-son. –104-112 b.

TA’MINOT ZANJIRINI BOSHQARISHDA TRANSPORT LOGISTIKASI USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH



Zoxidova Nazokat Berdimurot qizi
O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqola O‘zbekiston ta’minot zanjiri boshqaruvida transport logistikasini yaxshilash strategiyalarini ko‘rib chiqadi. Adabiyotlarni o‘rganish, ma’lumotlarni tahlil qilish va amaliy tadqiqotlar orqali u eskirgan infratuzilma va samarasiz bojxona tartib-qoidalari kabi muammolarni aniqlaydi. Singapur va Xitoy kabi mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib, u infratuzilmaga sarmoya kiritish va ishchi kuchini rivojlantirish kabi yechimlarni taklif qiladi. Ushbu strategiyalarni amalga oshirish O‘zbekiston ta’minot zanjirida samaradorlik, raqobatbardoshlik va iqtisodiy o‘sishni yaxshilash imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: Transport logistikasi, ta’minot zanjiri boshqaruvi, infratuzilma, bojxona tartiblari, ishchi kuchini rivojlantirish.

Abstract: This article examines strategies to enhance transport logistics in Uzbekistan’s supply chain management. Through literature review, data analysis, and case studies, it identifies challenges like outdated infrastructure and inefficient customs procedures. Drawing from experiences in countries like Singapore and China, it proposes solutions such as infrastructure investment and workforce development. Implementing these strategies can improve efficiency, competitiveness, and economic growth in Uzbekistan’s supply chain.

Key words: Transport logistics, supply chain management, infrastructure, customs procedures, workforce development.

Аннотация: Данная статья рассматривает стратегии улучшения транспортной логистики в управлении цепочками поставок в Узбекистане. Через обзор литературы, анализ данных и изучение случаев из практики она выявляет проблемы, такие как устаревшая инфраструктура и неэффективные таможенные процедуры. Основываясь на опыте стран, таких как Сингапур и Китай, предлагаются решения, такие как инвестиции в инфраструктуру и развитие кадрового потенциала. Внедрение этих стратегий может повысить эффективность, конкурентоспособность и экономический рост в цепочке поставок Узбекистана.

Ключевые слова: Транспортная логистика, управление цепочками поставок, инфраструктура, таможенные процедуры, развитие кадрового потенциала.

KIRISH

Ta’minot zanjiri boshqaruvi sohasida transport logistikasi usullarining samaradorligi nafaqat operatsion samaradorlik masalasi, balki biznes muvaffaqiyatining hal qiluvchi omilidir. Tovarlarni o‘z vaqtida yetkazib berish, resurslarni maqbul taqsimlash va bozor dinamikasiga moslashish transport logistikasi strategiyalarining samaradorligiga bog‘liq.

Ta’minot zanjirlarining zamonaviy strukturasi globallashuv, texnologik taraqqiyot va rivojlanayotgan iste’molchilarning talablari bilan bog‘liq bo‘lgan murakkablikda tavsiflanadi. Ta’minot zanjirlari turli xil transport usullari va ko‘plab manfaatdor tomonlarni o‘z ichiga oladi. Bunday sharoitda transport logistikasining roli katta ahamiyatga ega, chunki u ta’minot zanjirining turli tugunlarini bir-biriga bog‘laydigan, jahon savdosining murakkabliklari bo‘ylab harakatlanayotganda tovarlarning uzluksiz aylanishini ta’minlaydigan asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Samarali transport logistikasi nafaqat operatsion samaradorlikni oshiribgina qolmay, balki strategik afzalliklarni ham beradi, bu esa korxonalarga ta’sirchanlikni oshirish, xarajatlarni optimallashtirish va mijozlarning qoniqishini oshirish orqali raqobatdosh ustunlikka erishish imkonini beradi. Biroq transport logistikasining

optimal usullariga erishish o‘zining qiyinchiliklaridan holi emas. Murakkab ta’minot zanjiri tarmoqlari, o‘zgaruvchan bozor sharoitlari va tartibga soluvchi cheklovlar barchasi yetkazib berish zanjirini boshqarishda transport logistikasining to‘liq salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun yengib o‘tilishi kerak bo‘lgan katta to‘siqlarni keltirib chiqaradi.

Shu nuqtai nazardan, ushbu maqola ta’minot zanjirini boshqarishda transport logistikasi usullarini takomillashtirish zarurligini ko‘rib chiqadi. Mavjud amaliyotlarni, paydo bo‘layotgan tendensiyalarni va innovatsion yechimlarni chuqur o‘rganish orqali u korxonalar uchun transport logistika operatsiyalarining samaradorligi, tezkorligi va barqarorligini oshirish uchun tushuncha va strategiyalarni taqdim etishga intiladi. Ta’minot zanjirini boshqarishning kengroq kontekstida transport logistikasining ahamiyatini yoritib, takomillashtirish bo‘yicha amaliy takliflar berish orqali ushbu maqola tashkilotlarga zamonaviy tijoratning murakkabliklarida ishonch va malaka bilan harakat qilish imkoniyatini berishga qaratilgan.

ADABIYOT SHARHI

Maykl Kristoferning kitobi logistika va ta’minot zanjirini boshqarish tamoyillarini tushunish uchun akademik va sanoatda keng qo‘llaniladigan keng qamrovli manbadir. U turli mavzularni, jumladan, transportni boshqarish, inventar nazorati va tarqatish tarmog‘ini loyihalashni o‘z ichiga oladi. Kristofer ta’minot zanjirlari doirasida transportning strategik ahamiyatini ta’kidlaydi va logistika va transportni boshqarish qanchalik samarali bo‘lishini biznes uchun raqobatdosh ustunliklarga olib kelishini muhokama qiladi [1].

Chopra va Meindlning darsligi ta’minot zanjiri boshqaruvining yaxlit ko‘rinishini taqdim etadi, transport qarorlarini umumiy ta’minot zanjiri strategiyasiga integratsiya qiladi. Ularning izlanishlarida transport usullari, tarmoq dizayni va ta’minot zanjiri sezgirligi va iqtisodiy samaradorlikka erishishda transportning roli muhokama qilinadi. U mijozlar talablarini samarali qondirish uchun transport strategiyalarini kengroq ta’minot zanjiri maqsadlariga moslashtirish zarurligini ta’kidlaydi [2].

Li, Padmanabhan va Whangning maqolasi ta’minot zanjirlarida talabning buzilishi fenomenini ta’kidlaydi. Yuk tashish tovarlarning yaxshi oqimini ta’minlash va yetkazib berish vaqtlarini qisqartirish orqali uning ta’sirini yumshatishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Maqolada ta’minot zanjiri barqarorligi va ta’sirchanligini ta’minlashda transport boshqaruvining ahamiyati ta’kidlangan [3].

Mollenkopf va Klossning maqolasida Qo‘shma Shtatlardagi logistika infratuzilmasi holati va infratuzilma muammolarini hal qilishda hukumatning roli ko‘rib chiqiladi. Maqolada ta’minot zanjiri samaradorligini oshirish, transport xarajatlarini kamaytirish va raqobatbardoshlikni oshirish uchun transport infratuzilmasiga sarmoya kiritish muhimligi ta’kidlangan. Unda transport tarmoqlarini modernizatsiya qilish uchun davlat-xususiy sheriklik va strategik investitsiyalar zarurligi ta’kidlangan [4].

Tan, Lyman va Wisnerning tadqiqotlari ta’minot zanjiri maqsadlariga erishishda transportning rolini ta’kidlab, ta’minot zanjirini boshqarish bo‘yicha strategik istiqbolni taqdim etadi. Maqolada mijozlar talablarini samarali qondirish uchun xarajat, tezlik va moslashuvchanlikni muvozanatlash uchun transport strategiyalari muhokama qilinadi. U umumiy ta’minot zanjiri maqsadlariga muvofiqlashtirish va raqobatbardoshlikni oshirishda transport qarorlarining strategik ahamiyatini ta’kidlaydi [5].

Soni va Kantning tadqiqoti logistika sektoriga e’tibor qaratgan holda barqaror ta’minot zanjiri boshqaruvi uchun integratsiyalashgan optimallashtirish yondashuvini o‘rganadi. Tadqiqot iqtisodiy samaradorlikni saqlab, ekologik va ijtimoiy maqsadlarga erishish uchun transport qarorlariga barqarorlik nuqtai nazarini kiritish muhimligini ta’kidlaydi. U ta’minot zanjirlarida barqarorlik samaradorligini oshirish uchun transport operatsiyalarini optimallashtirish strategiyalari haqida tushuncha beradi [6].

Ushbu turli xil adabiyot manbalaridan olingan ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan holda korxonalar va amaliyotchilar ta’minot zanjiri boshqaruvida transport logistikasining strategik ahamiyatini chuqurroq tushunishlari va transport operatsiyalarini optimallashtirish va umumiy ta’minot zanjiri faoliyatini yaxshilash uchun samarali strategiyalarni amalga oshirishlari mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada qo‘llaniladigan tadqiqot metodologiyasi ta’minot zanjirini boshqarishda transport logistikasi usullarini keng qamrovli tahlil qilishga qaratilgan bo‘lib, muammolarni aniqlash, yechimlarni o‘rganish va xorijiy rivojlanish mamlakatlari tajribasidan tushunchalar olishga qaratilgan qiyosiy sifat metodidan foydalaniladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ta’minot zanjirini boshqarishda transport logistikasi usullarini takomillashtirish samaradorlikni oshirish, xarajatlarni kamaytirish va tovarlarni o‘z vaqtida yetkazib berishni ta’minlash uchun juda muhimdir.

1-jadval: O‘zbekistonda transport logistikasidagi muammolar va ularga xos yechimlar

Muammolar	Yechimlar
Eskirgan infratuzilma	- transport infratuzilmasini, jumladan, avtomobil yo‘llari, temir yo‘llar va portlarni modernizatsiya qilishga sarmoya kiritish. - infratuzilma loyihalariga sarmoya jalb etish uchun davlat-xususiy sheriklikni yo‘lga qo‘yish.
Samarasiz chegara protseduralari	- bojxona tartib-qoidalarini soddalashtirish va transchegaraviy savdoda byurokratik to‘siqlarni kamaytirish. - tovarlarni tezroq rasmiylashtirishni osonlashtirish uchun elektron hujjatlashtirish tizimini joriy etish.
Cheklangan intermodal ulanish	- samaradorlikni oshirish va tranzit vaqtlarini qisqartirish uchun intermodal transport tarmoqlarini yaxshilash. - yuklarning uzluksiz harakatlanishini osonlashtirish uchun logistika markazlari va multimodal terminallarni ishlab chiqish.
Malakali ishchi kuchining yetishmasligi	- logistika va transport sohasida malakali ishchi kuchini rivojlantirish uchun o‘qitish va ta’lim dasturlariga sarmoya kiritish. - malakalardagi kamchiliklarni bartaraf etish uchun sanoat birlashmalari va ilmiy muassasalar bilan hamkorlik qilish.

Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan

O‘zbekistonda transport logistikasi sektori ta’minot zanjiri samaradorligi va raqobatbardoshligiga to‘sqinlik qiluvchi bir qancha muammolarga duch kelmoqda. Eskirgan infratuzilma, chegaradagi tartib-qoidalarning samarasizligi, intermodal aloqaning cheklanganligi va malakali ishchi kuchining yetishmasligi hal qilinishi kerak bo‘lgan asosiy muammolardandir. Taklif etilgan yechimlarni hayotga tatbiq etish orqali O‘zbekiston bu qiyinchiliklarni yengib o‘tishi va transport logistika imkoniyatlarini yaxshilashi mumkin. Infratuzilmani modernizatsiya qilish va intermodal ulanishga sarmoya kiritish mamlakat ichida va chegaralar orqali yuk tashish samaradorligini oshiradi. Bojxona tartib-qoidalarini soddalashtirish va malakali ishchi kuchini rivojlantirish tranzit vaqtlarini qisqartirish va ta’minot zanjiri faoliyatini yaxshilashga yanada hissa qo‘shadi.

2-jadval: Rivojlanayotgan xorijiy mamlakatlar tajribasi

Mamlakat	Asosiy tashabbuslar
Singapur	- jahon darajasidagi port inshootlari va savdoni osonlashtirish uchun samarali bojxona tartib-qoidalari ishlab chiqilgan. - ta’minot zanjiri samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirish uchun texnologiya va avtomatlashtirishga sarmoya kiritilgan.
Xitoy	- keng infratuzilma loyihalari, jumladan, tezyurar temir yo‘llar va zamonaviy portlar amalga oshirildi. - investitsiyalarni jalb qilish va savdoni rivojlantirish maqsadida maxsus iqtisodiy zonalar va logistika parklari tashkil etildi.
Amerika Qo‘shma Shtatlari	- avtomobil yo‘llari, ko‘priklar va temir yo‘llar kabi transport infratuzilmasi loyihalariga sarmoya kiritiladi - yuk tashishni optimallashtirish va logistika xarajatlarini kamaytirish uchun ta’minot zanjirini boshqarish amaliyoti joriy etildi.

Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Singapur, Xitoy va Amerika Qo‘shma Shtatlari kabi xorijiy rivojlanish mamlakatlari transport logistika tizimini takomillashtirish va ta’minot zanjiri samaradorligini oshirish bo‘yicha turli tashabbuslarni amalga oshirdi. Singapurning jahon darajasidagi port inshootlari va samarali bojxona tartib-qoidalarini rivojlantirishga qaratilgani uni global logistika markaziga aylantirdi. Xitoyning infratuzilma loyihalariga sarmoya kiritishi va maxsus iqtisodiy zonalar tashkil etishi savdo-sotiqni osonlashtirib, xorijiy sarmoyani jalb qildi. Qo‘shma Shtatlarning transport infratuzilmasi va ta’minot zanjirini boshqarish amaliyotiga e’tibor qaratilishi yuk tashishni optimallashtirish va logistika xarajatlarini kamaytirish imkonini berdi. O‘zbekiston ushbu tajribalarni o‘rganishi va transport logistikasi imkoniyatlarini oshirish va global ta’minot zanjiridagi o‘z o‘rnini mustahkamlash uchun ilg‘or tajribalarni moslashtirishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘zbekistonda ta’minot zanjiri boshqaruvini takomillashtirish va iqtisodiy o‘sishni ta’minlash uchun samarali transport logistikasi usullari muhim ahamiyatga ega. Eskirgan infratuzilma, samarasiz chegara tartib-qoidalari, cheklangan intermodal aloqalar va ishchi kuchi malakalaridagi kamchiliklar kabi muammolarni hal qilish orqali O‘zbekiston savdo, sarmoya va rivojlanish uchun yangi imkoniyatlarni ochib berishi mumkin.

Infratuzilmaga strategik sarmoya kiritish, bojxona tartib-qoidalarini isloh qilish, intermodal aloqani yaxshilash va ishchi kuchini rivojlantirish tashabbuslari orqali O‘zbekiston ta’minot zanjiri samaradorligi va raqobatbardoshligi uchun qulay muhit yaratishi mumkin. Singapur, Xitoy va AQSH kabi xorijiy rivojlangan mamlakatlar tajribasiga tayangan holda, O‘zbekiston qimmatli tajribalarni o‘rganishi va transport logistikasi imkoniyatlarini yaxshilash uchun ilg‘or tajribalarni o‘zlashtirishi mumkin.

Tavsiya etilgan strategiyalarni amalga oshirish va hukumat, sanoat va ilmiy doiralar o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish orqali O‘zbekiston o‘zini mintaqaviy logistika markazi sifatida ko‘rsatishi va mintaqaviy integratsiya va iqtisodiy farovonlikka hissa qo‘shishi mumkin. Birgalikda sa’y-harakatlar va istiqbolga intiluvchi yondashuv bilan O‘zbekiston global ta’minot zanjiri asosiy ishtirokchi sifatida o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Christopher, M. (2016). Logistics & Supply Chain Management. Pearson UK.
2. Chopra, S., & Meindl, P. (2019). Supply Chain Management: Strategy, Planning, and Operation. Pearson.
3. Lee, H. L., Padmanabhan, V., & Whang, S. (1997). Information Distortion in a Supply Chain: The Bullwhip Effect. Management Science, 43(4), 546-558. doi:10.1287/mnsc.43.4.546
4. Mollenkopf, D. A., & Closs, D. J. (2005). The Hidden Crisis in US Logistics Infrastructure: The Role of Government in the Development of America’s Freight Transportation System. Transportation Journal, 44(1), 5-16. doi:10.5325/transportationj.44.1.0005
5. Tan, K. C., Lyman, S. B., & Wisner, J. D. (2002). Supply Chain Management: A Strategic Perspective. International Journal of Operations & Production Management, 22(6), 614-631. doi:10.1108/01443570210429216
6. Soni, G., & Kant, R. (2020). An Integrated Optimization Approach for Sustainable Supply Chain Management: A Case Study in the Logistics Sector. International Journal of Logistics Research and Applications, 23(3), 315-332. doi:10.1080/13675567.2018.1538836

BLOKCHEYN TEXNOLOGIYASIDA XAVFSIZLIK MASALALARI

Mamadiyarov Zokir Toshtemirovich
I.f.d., Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Moliya bozori va sug‘urta ishi” kafedrasi mudiri, professor

Annotatsiya: Inqilobiy innovatsiya sifatida e’tirof etilgan blokcheyn texnologiyasi markazlashtirilmagan va o‘zgarmas tabiati tufayli turli sohalarning katta e’tiborini tortdi. U Bitcoin va Ethereum kabi kriptovalyutalar uchun asosiy texnologiya bo‘lib xizmat qiladi, shaffoflik, markazsizlashtirish va xavfsizlikni ta’minlaydi. Biroq blokcheyn texnologiyasi xavfsizlik muammolaridan huquqiy himoyalanmagan va blokcheyn texnologiyasi bilan bog‘liq xavfsizlik muammolarini hal qilish uchun potensial yechimlarni muhokama qilinmoqda. Umuman olganda, ushbu maqola blokcheyn texnologiyasi va undagi xavfsizlik masalalari haqida ma’lumot beradi.

Kalit so‘zlar: Blokcheyn, xavfsizlik, kiber hujumlar, raqamli valyuta, autentifikatsiya, Bitkoin.

Abstract: Hailed as a revolutionary innovation, blockchain technology has attracted a lot of attention from various industries due to its decentralized and immutable nature. It serves as the underlying technology for cryptocurrencies such as Bitcoin and Ethereum, providing transparency, decentralization and security. However, blockchain technology is not legally protected from security issues, and potential solutions to address security issues related to blockchain technology are being discussed. In general, this article provides information about blockchain technology and its security issues.

Key words: Blockchain, security, cyber-attacks, digital currency, authentication, bitcoin.

Аннотация: Провозглашенная революционной инновацией, технология блокчейна привлекла большое внимание в различных отраслях благодаря своей децентрализованной и неизменной природе. Он служит базовой технологией для таких криптовалют, как bitcoin и ethereum, обеспечивая прозрачность, децентрализацию и безопасность. Однако технология блокчейна не защищена законом от проблем безопасности, и обсуждаются потенциальные решения для решения проблем безопасности, связанных с технологией блокчейна. В целом в этой статье представлена информация о технологии блокчейн и проблемах ее безопасности.

Ключевые слова: Блокчейн, безопасность, кибератаки, цифровая валюта, аутентификация, bitcoin.

KIRISH

Blokcheyn texnologiyasi moliya va ta’minot zanjiri boshqaruvidan tortib sog‘liqni saqlash va boshqa sohalargacha bo‘lgan ko‘plab sohalarni inqilob qilish potensialiga ega kuch sifatida paydo bo‘ldi. Uning markazlashtirilmagan, shaffof va o‘zgarmas tabiati an’anaviy markazlashtirilgan tizimlar duch keladigan turli muammolarning yechimi sifatida e’tiborni tortdi. Bugungi dunyoda blokcheyn texnologiyasining dolzarbligini o‘rganib, uning tarmoqlarga o‘zgartiruvchi ta’sirini va butun dunyo bo‘ylab iqtisodiyotning turli jabhalarini kuchaytirish potensialiga ega.

Blokcheyn bu tizim ishtirokchilari vositachisiz bir-biriga aktivlarini ishonchli tarzda uzatish imkonini beruvchi texnologiya. Masalan, blokcheynda pul ko‘chirmalari haqidagi yozuvlarni saqlash mumkin. Kriptovalyutalarda aynan blokcheyndan kim, kimga va qancha virtual pul o‘tkazganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni qayd qilish uchun foydalaniladi. Biroq blokcheynda boshqa aktivlarni ham saqlasa bo‘ladi. Umuman olganda, nimani qog‘ozda yozishning imkoni bo‘lsa, o‘sha narsalarning barchasini blokcheynda ham yozish mumkin bo‘ladi, faqat birgina farq bilan – blokcheyn da yozuvlarni almashtirish va soxtalashtirishning imkoni yo‘q.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Blokcheyn texnologiyasi, markazlashtirilmagan va xavfsiz raqamli kitob, turli sohalarda keng ko‘lamli ilovalarga ega[1]. U ma’lumotlarning o‘zgarmasligi va xavfsizligini ta’minlaydigan noyob xesh kodlari bo‘lgan taq-

1 Mahmood, Z. (2021). Blockchain Technology. Advances in Data Mining and Database Management.

simlangan bloklar to‘plamiga asoslangan[2]. Texnologiyaning salohiyati uning arzon narxlardagi markazlashtirilmagan taqsimlangan ma’lumotlarni boshqarishni qo‘llab-quvvatlash qobiliyatida yaqqol namoyon bo‘ladi, bu esa uni AKTning keyingi avlodida asosiy yutuqga aylantiradi[3]. Biroq miqyoslilik va energiya iste’moli kabi cheklovlar mavjud[4]. Ushbu qiyinchiliklarga qaramay, blokcheyn texnologiyasining kelajagi istiqbolli ko‘rinadi, bu muammolarni hal qilish bo‘yicha doimiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Blokcheyn texnologiyasi inqilobiy bo‘lsa-da, xavfsizlik va maxfiylik muammolaridan xoli emas. Oksiiuk[5] va Huynh[6] ikkala olim ham ushbu muammolarni hal qilish zarurligini ta’kidlaydilar, ikkinchi olim esa potensial yechim sifatida guruh imzosi va nol bilim sxemalaridan foydalanishni taklif qiladi. Alsuhaimi[7] bank, sog‘liqni saqlash va narsalar interneti kabi blokcheynning turli ilovalarida ushbu muammolarni ko‘rib chiqish muhimligini ta’kidlaydi. Gupta[8] shuningdek, blokcheyn tizimlarida xavfsizlik tahdidlari va real hujumlarni tizimli tekshirish va ushbu xavflarni yumshatish uchun yaxshilanishlarni ishlab chiqish zarurligini ta’kidlaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Blokcheyn g‘oyasining yorqin namunasi bu Ethereum kompaniyasidir. Unga Rossiyaning Kolomna shaharchasida tug‘ilgan, hozirda Kanadada yashovchi 19 yoshli dasturchi Vitaliy Buterin asos solgan. Platforma blokcheyn da ilovalar yaratish uchun mo‘ljallangan. Bugungi kunda Ethereum kompaniyasi $703 mlrd ga baholanmoqda.

Blokcheyn texnologiyasining tuzilishi quyidagi yetti tamoyildan tashkil topadi (1-rasm):



1-rasm: Blokcheyn texnologiyasini tashkil etishning yetti tamoyili[9]

- **Tarmoq yaxlitligi:** Ishonch tizimning ichida paydo bo‘ladi, u tashqaridan uqtirilmaydi. Ishtirokchilar so‘zida ham, ishida ham rostgo‘y bo‘lishadi, boshqalarning manfaatlarini hurmat qilishadi, o‘z harakatlarining oqibatlari uchun javob berishga tayyor turishadi, ularning qarorlari shaffof bo‘ladi. Yaxlitlik jarayonning har bir bosqichida kodlangan va barcha ishtirokchilar orasida taqsimlangan bo‘ladi, ya’ni bir kishiga tegishli bo‘lmaydi.
- **Yuklanishlarni taqsimlash:** Yagona o‘chirish yo‘li mavjud emas. Energoxarajatlar butun piring tarmog‘i bo‘yicha taqsimlangan. Ishtirokchilarning hech qaysisi tizimni o‘chira olmaydi. Agar markaziy organ birorta odam yoki guruhni bloklab qo‘ysa, tizim o‘z ishini davom ettiraveradi. Agar tarmoqning taxminan yarmi tarmoq ustidan nazoratni qo‘lga kiritmoqchi bo‘lsa, qolganlar nima bo‘layotganini ko‘rib turishadi.

2 Rahmani, M.K. (2022). Blockchain Technology. Blockchain Technology and Computational Excellence for Society 5.0.
3 Kogure, J., Kamakura, K., & Shima, T. (2017). Blockchain Technology for Next Generation ICT.
4 Sharma, S., Rosmin, P., & Bhagat, A. (2021). Blockchain Technology. Blockchain Applications in IoT Security.
5 Oksiiuk, O., & Dmyrieva, I. (2020). Security and privacy issues of blockchain technology. 2020 IEEE 15th International Conference on Advanced Trends in Radioelectronics, Telecommunications and Computer Engineering (TCSET), 1-5.
6 Huynh, T.T., Nguyen, T.D., & Tan, H. (2019). A Survey on Security and Privacy Issues of Blockchain Technology. 2019 International Conference on System Science and Engineering (ICSSE), 362-367.
7 Alsuhaimi, A.H., & Alzahrani, S. (2021). Security and Privacy Issues of Block-Chain Technology.
8 Gupta, N. (2019). Security and Privacy Issues of Blockchain Technology. Studies in Big Data.
9 Muallif tomonidan tuzildi.

Tizim barcha manfaatdor tomonlarni teng ko‘radi. Satoshi Nikamoto ilovani shunday dasturlaganki, unda dasturni rivojiga hissa qo‘shganlar rag‘batlantirib boriladi. Tarmoqning faol foydalanuvchisi 4 yil o‘tishi bilan har bir yakunlangan blok uchun 50 bitkoindan oladi. Yana 4-yildan so‘ng – 25 bitkoin, keyin 12,5 va h.k.

- **Xavfsizlik:** Tarmoqning har bir ishtirokchisi shifrlashdan foydalanishi zarur. Xavfsizlik choralari tarmoqqa o‘rnatilgan. Ular maxfiylikni va asl nusxaning saqlanishini ta’minlaydi. Foydalanuvchida ikkita kalit bo‘ladi: bittasi shifrlash uchun, yana bittasi shifrni ochish uchun. Bu usul “ochiq kalitlar infrastrukturasi” (PKI) nomini oldi.
- **Shaxsiy ma’lumotlar daxlsizligi:** Odamlar shaxsiy ma’lumotlarini nazorat qilishlari zarur. Ularda o‘ziga tegishli bo‘lgan aynan qaysi ma’lumotni, qachon, qanday va qaysi hajmda tarqatish huquqi bo‘lishi lozim.
- **Huquqlarning himoyalanganligi:** Mulkdorlarning huquqlari shaffof va mustahkamlangan. Tranzaksiya vaqtining qayd etilishi va PKI nafaqat ikki karra xarajatning oldini oladi, balki tarmoqdagi har bir bitkoinga bo‘lgan mulkiy huquqni qayd qiladi. Biz faqat o‘zimizga tegishli bo‘lgan narsalar bilan savdo qilishimiz mumkin bo‘ladi. Bitkoindan tashqari bu har qanday qimmatbaho narsa bo‘lishi mumkin, shu jumladan, intellektual huquq ham.
- **Jalb etilganlik:** Iqtisodiyot barcha uchun ishlasa, yaxshiroq ishlaydi. Bu kirish to‘siqlarining kamayishini anglatadi. Uyali telefoni bo‘lgan har qanday kishi bozorda ishlab chiqaruvchi yoki iste’molchi sifatida ishtirok etishi mumkin. Satoshi “to‘lovlarning soddalashtirilgan verifikatsiyasi” usulini taklif qildi (SPv).

Xo‘sh, blokcheyn texnologiyalarining axborot xavfsizligini ta’minlash borasidagi imkoniyatlari qay darajada? Ushbu savolga quyida imkon qadar batafsil javob berishga urinib ko‘ramiz.

Blokcheyn va axborot xavfsizligi masalalari: Blokcheyn ning yangi texnologiyalari axborot xavfsizligi sohasida inqilob qilishga hissa qo‘shmoqda. Bundan tashqari, blokcheyn texnologiyalarining ishga tushirilishi shaxsiy xabarlardagi, biznes va foydalanishda ommalashgan veb-saytlardagi hamda ilovalardagi ma’lumotlarni himoyalashga yordam beradi.

Blokcheyn – o‘zining ilk muvaffaqiyatli tajribasi – bitkoin orqali mashhur bo‘lgan nisbatan yangi texnologiya. Uning takrorlanmas xususiyatlari bir nechta startaplar paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi, ular blokcheyn texnologiyalariga ixtisoslashgan bo‘lib, axborot xavfsizligi sohasini mutlaqo yangi darajaga ko‘tardi.

Blokcheyn – bu fayl yoki obyekt bilan bajariladigan harakatlarni faylga xos bo‘lgan kodga shifrlashga yordam beradigan texnologiya. Ushbu shifrlashni o‘chirib, o‘zgartirib yoki aylanib bo‘lmaydi, bu esa fayllarning yozuvlarini butunlay shaffof qilib turadi: u bilan qanday tranzaksiyalar qachon va kim tomonidan amalga oshirilganligi har doim ma’lum bo‘ladi. Bunday nomarkazlashtirilgan axborot xavfsizligini ta’minlashga bo‘lgan avtonom yondashuv ko‘p sohalar biznesdan boshlab, to ijtimoiy tarmoqlargacha bo‘lganlar allaqachondan beri kutilyotgan, Internet-xavfsizligi sohasidagi yangi imkoniyatlarni ochib beradi.

Birinchidan, va eng asosiysi, blokcheyn shaxsiy xabarlar himoyasi uchun imkoniyat taqdim qiladi. Obsidian kabi startaplar chatlarda, messenjerlarda va ijtimoiy tarmoqlarda shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish uchun blokcheyn texnologiyasidan foydalanishga mo‘ljallangan. Hozirgi paytda messenjerlardan nafaqat muloqot qilish uchun, balki to‘lovlarni amalga oshirish uchun ham foydalanilayotganligi barchaga ma’lum. Facebook Messenger va WhatsApp dagi zaifliklar shundan iboratki, ular siyrak shifrlash usulini qo‘llaydilar va metama’lumotlarning yetarli darajadagi himoyasini ta’minlamaydilar, shu jumladan xabar yuborayotgan odamning shaxsi, uning elektron pochtasining manzili va tizimga kirish uchun zarur bo‘lgan boshqa qayd ma’lumotlarining ham.

- **Himoyalangan xabarlar:** Obsidian messenjeri foydalanuvchilarning metama’lumotlarini blokcheyn dan foydalangan holda himoyalashni rejalashtirishmoqda. Foydalanuvchi messenjerni ishlatishi uchun elektron pochta yoki autentifikatsiyalashga oid har qanday boshqa ma’lumotdan foydalanishi zarur bo‘lmaydi. Metama’lumotlar butun hisob-kitob bo‘yicha tasodifiy tarzda taqsimlangan bo‘ladi va shu sababli, buzilish ehtimoli bo‘lgan bitta nuqtada to‘planishiga imkon bo‘lmaydi. Shuningdek, Obsidian ichida to‘lov vositasi sifatida foydalanish uchun o‘z tokenini joriy qilish rejalashtirishmoqda. Ushbu loyiha hali ishlab chiqish jarayonida, biroq boshqa messenjerlar ushbu sxemaga rioya qilishlari va o‘z foydalanuvchilarining ma’lumotlarini shunga o‘xshash tarzda himoyalashlari mumkin.

Ayni paytda foydalanuvchilarni har qanday tizimga qo‘shishning umumiy usuli bo‘lib login va parollarni ishlatgan holda yagona yondashuvni qo‘llash hisoblanadi. Ammo REMME kabi kompaniya – qurilmalar va foydalanuvchilarni aniqlash va ularni o‘zgartirish harakatlarini bloklovchisidan foydalanishga yo‘naltirilgan yangi ishlanma bo‘lib hisoblanadi.

Bloklovchilarning asosiy kuchi bo‘lib tizimlarni va fayllar hamda umuman ma’lumotlarning orasidagi tasodifiy aloqalarni nomarkazlashtirish hisoblanadi. Buning ustiga, parollar odamlar tomonidan o‘ylab topiladi, saqlanadi va kiritiladi, bu holat esa odamlar tomonidan xatoga yo‘l qo‘yilishiga imkon yaratadi. REMME foydalanuvchi tomonidan qurilma va foydalanuvchining autentifikatsiyasi vaqtida yo‘l qo‘yish mumkin xatoliklarning oldini olishga urinadi.

Ushbu kompaniya qurmoqchi bo‘layotgan xavfsiz autentifikatsiya mexanizmlarining tamoyillari tarqoq ochiq kalitlar infratuzilmasidan foydalanishga asoslangan. Ochiq kalitlarni nomarkazlashtirish ularning hujumlar

uchun zaiflik darajasini pasaytiradi, parollarni boshqarishning markazlashtirilgan tizimi bu ishni qilolmaydi. Har bir qurilmaga blokcheyn texnologiyasiga asoslangan o‘zining SSL-sertifikati beriladi, bu qonunbuzarlar tomonidan soxta sertifikatlarning ishlatilishining oldini oladi.

REMME kabi startaplar, korxonalarga ma’lumotlarni boshqargan va o‘z xodimlariga kirish huquqiga ega bo‘lgan holda, o‘z tijorat ma’lumotlarini ancha yaxshiroq himoyalashga imkon beradi. Ichki qoidabuzarliklar sodir bo‘lgan holatlarda blokcheyn texnologiyasi kompaniyaga ushbu qoidabuzarlikni sodir etgan xodimni bexato topishga yordam beradi. REMME ham xuddi Obsidian kabi ishlab chiqish jarayonida, biroq bunday korxonalar hali ko‘p paydo bo‘lishi turgan gap.

- **Kiber hujumlarni qaytarish:** Nihoyat, blokcheyn markazlashgan serverlardagi asosiy veb-saytlarga uyushtirilgan xakerlik hujumlarini aniqlash va ularni qaytarish bo‘yicha ko‘p imkoniyatlarni taqdim qiladi.

Bunday hujumlar oqibatida PayPal, Twitter va Spotify kompaniyalarining veb-saytlariga foydalanuvchilarning kirishi to‘sib qo‘yildi. Muammo shundaki, hozirda mavjud bo‘lgan DNS-serverlarga xavfsizlik yetishmaydi, chunki ular kirish kalitini bitta serverda saqlaydi va keshlashga haddan ziyod ishonch bildiradi. Guardian va Nebulis kabi startaplar blokcheyn asosidagi kalitlarning tarqoq tarmog‘i va kalit so‘zlardan foydalangan holda bu holatni o‘zgartirishga niyat bildirishmoqda.

Oxir-oqibatda, blokcheyn serverlarni xakerlar hujumlaridan himoyalaydi va ularni zabt etib bo‘lmas qal’adek bo‘lishini ta’minlaydi.

Blokcheyn – shubhasiz bu oxirgi o‘n yillikning axborot xavfsizligini ta’minlash sohasidagi eng istiqbolli kashfiyotidir. Bu, axborot xavfsizligi tizimlarining rivojlanishida inqilobiy o‘zgarishlarni sodir etib, uzoq yillarga xavfsiz Internetni ta’minlashidan umidlarimiz katta.

Xavfsizlik tadbirlari tarmoqqa shunday joriy qilinganki, uning umumiy inkor etish nuqtasi bo‘lmaydi, nafaqat maxfiylik, balki har qanday harakat bekor qilinmasligi va autentifikatsiya ham ta’minlanadi. Tizimda ishtirok etishni istagan har bir shaxs shifrlashdan foydalanishi lozim – bu muhokama qilinmaydi va o‘ylamasdan qilingan harakatlar oqibatlarini faqat shu harakatlarni amalga oshirgan shaxsgina his qiladi.

Xakerlik hujumlari, shaxsiy ma’lumotlarni o‘g‘irlash, firibgarlik, kiberqo‘rqitish, fishing, spam, ziyon keltiruvchi dasturlar, virustovlamachilar – bularning barchasi insonning jamiyatdagi xavfsizligiga tahdid soladi. Internetning ilk davri, ko‘plab jarayonlarni shaffof qilish va inson huquqlari buzilishini qiyinlashtirish o‘rniga, xusuiy shaxslar, institutlar va iqtisodiy faollik xavfsizligini oshirmas edi. O‘rtacha internetdan foydalanuvchi ko‘pincha electron pochta va hisob qaydlarini oddiy parollar himoya qiladi deb umid qilardi, chunki provayderlar yoki ish beruvchilar ishonchliroq parollarni talab qilmasdi. Shuni ham aytish kerakki, raqamli valyuta oddiy faylda saqlanmaydi. U kriptografik xesh bilan belgilangan tranzatsiyalarda aks ettiriladi. Foydalanuvchilar o‘z pullari uchun kriptokalitlarga ega bo‘ladi va tranzaksiyalarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri bir-biri bilan birgalikda amalga oshiradi. Bunday xavfsizlik uchun ularning har biri mas’uliyatli bo‘lishi – shaxsiy kalitlarni ishonchli himoya qilishi zarurligidir. Bu yerda xavfsizlik standartlari muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Bitkoin blokcheyni AQSH Standartlar va texnologiyalar milliy instituti tomonidan chiqarilgan va axborotni qayta ishlash federal standarti sifatida qabul qilingan mashhur va puxta ishlab chiqilgan SHA-256 shifrlash standartida ishlaydi. Blok yechimini topish uchun zarur bo‘lgan ko‘p martalik matematik hisob-kitoblarni takrorlash murakkabligi hisoblash qurilmasidan masalani yechish va yangi bitkoinlar ishlab topish uchun ko‘p elektr energiyasi sarflashni talab qiladi. Ba’zi bir boshqa algoritmlar esa ancha kamroq energiya sarflaydi.

Bizningcha, har qanday iqtisodiyot hamma uchun ishlaganda eng yaxshi tarzda ishlaydi. Bu unda ishtirok etish uchun to‘siqlarni pasaytirish lozimligini anglatadi. Bu kapitalni qayta taqsimlash emas, balki qayta taqsimlangan kapitalizm uchun platforma yaratish kerakligini anglatadi. Ilk internet davri ko‘plab odamlar uchun ko‘plab mo‘jizalar yaratdi. Biroq yuqorida aytib o‘tilganidek, dunyo aholisining katta qismi na texnologiyalarga, na moliya tizimiga va na iqtisodiy imkoniyatlarga ulanish imkoniga ega bo‘lmagan holda, avvalgidek, tizimga ulanmasdan qolib ketmoqda. Boz ustiga, yangi kommunikatsiya vositasi hamma uchun farovonlik keltirishiga umid oqlanmadi. Ha, Internet rivojlangan mamlakatlardagi kompaniyalarga, rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda, millionlab odamlarga ish taqdim etishga imkon berdi. U ko‘plab tadbirkorlar uchun bozorga kirishga bo‘lgan to‘siqlarni pasaytirdi va aholining kam ta’minlangan qatlamlariga yangi imkoniyatlar va bazaviy axborotga ulanish imkoniyatlarini taqdim etdi[10].

O‘ylaymizki, blokcheyn texnologiyasi har har bir kishining huquqlari va insoniylikni saqlash va qodir bir texnologiyadir. Moliya xizmatlari butunjahon tarmog‘i hozirgi kunda ko‘plab muammolarga to‘lib-toshib yotibdi. U ancha eskirib qolgan, chunki yuqori dinamikali raqamli dunyodan ortda qolib ketayotibdi va shu sababli ham sekin va ishonchsiz ishlaydigan, o‘tgan asrdan qolgan texnologiyalarga asoslanadi. U monopol bo‘lib, milliardlab odamlarga bazaviy moliyaviy vositalarga ulanish imkonini bermaydi. U markazlashtirilgan bo‘lib, shu sababli axborotning sizib chiqishi va boshqa hujumlar hamda inkor qilishlarga uchraydi. U monopollashtirilgan bo‘lib, shu sababli status-kvoni qo‘llab-quvvatlashga intiladi va innovatsiyalarga to‘sqinlik qiladi. Blokcheyn

10 Zokir Toshtemirovich Mamadiyarov. 2022. Risk Management in the Remote Provision of Banking Services in the Conditions of Digital Transformation of Banks. In The 5th International Conference on Future Networks & Distributed Systems (ICFNDS 2021). Association for Computing Machinery, New York, NY, USA, 311–317. https://doi.org/10.1145/3508072.3508119

novatorlar va tadbirkorlarga ushbu kuchli platformada qiymat yaratishning yangi usullarini topgan holda shu va boshqa ko‘plab muammolarni hal qilishga imkon beradi.Jahon moliya mutaxassislari blokcheyn bilan bog‘liq bo‘lgan quydagi g‘oyalar haqida puxta o‘ylab ko‘rishlari lozim:

- **Tekshirish.** Tarixda birinchi marta, turli subyektlar bir-birini bilmagan va bir-biriga ishonmagan holda bitim tuzishi va ishlarini yuritshi mumkin. Shaxsni tasdiqlash va ishonch o‘rnatish moliyaviy vositachining huquqi va imtiyozi bo‘lmay qo‘ydi. Boz ustiga moliyaviy xizmatlar nuqtai-nazaridan ishonch bayonnomasi yangi ma’noga ega bo‘ladi. Blokcheyn zarur bo‘lgan paytda tranzaksiyalar tarixi (blokcheynda), nufuz qiymati (agregatsiyalangan fikrlar asosida) va boshqa umumiqtisodiy ko‘rsatkichlar asosida har bir tomonning aynan o‘xshashligi va to‘lov layoqatini tasdiqlab, ishonchli munosabatlar o‘rnatishi mumkin.
- **Qiymat.** Blokcheynda tarmoqda qiymatni pirringli P2P uzatish kliringini amalga oshiradi va ularni tartibga soladi, buni doimiy bajaradi, shunday ekan, uning registri doimo dolzarb bo‘ladi. Agar banklar o‘zining biznes-modelini o‘zgartirmagan holda bunday imkoniyatdan avvalboshdan foydalanganlarida edi, yiliga 20 mlrd dollar atrofida operatsion xarajatlarni tejab qolgan bo‘lar edilar – bu hisob-kitoblar Ispaniyaning Santander bankiga tegishli bo‘lib, real raqamlar bundan ancha yuqori. Qiymatni keskin pasaytirish tufayli banklar bank xizmatlari ko‘rsatish bilan yetarli darajada qamrab olinmagan jamiyatlarda xususiy va korporativ mijozlarga moliyaviy xizmatlar, bozorlar va kapitalga ulanish uchun kengroq imkoniyatlar taqdim eta olgan bo‘lar edi. Bu nafaqat bozor yetakchilari uchun, balki butun dunyo bo‘ylab endi ish boshlayotgan tadbirkorlar uchun ham foydali hisoblanar edi. Istalgan kishi istalgan joydan turib, faqat smartfonga va internetga ulanish imkoniga ega bo‘lgan holdagina jahon moliyaviy oqimlariga qo‘shilish imkoniga ega boladi.
- **Tezlik.** Hozirgi paytda pul oqimini tartibga solish yetti kun, birja bitimini tartibga solish – ikki-uch kun, bank ssudasi uchun esa naqd 23 kun talab qilinadi. SWIFT tarmog‘i butun dunyo bo‘ylab o‘n minglab moliyaviy institutlar o‘rtasida kuniga o‘n besh million to‘lovni o‘tkazadi, lekin ularni tartibga solish va kliringga bir necha kun sarflaydi. Xuddi shu narsa AQSHda kuniga trillionlab dollarlik to‘lovlar o‘tkazadigan ACH (Automated Clearing House) tizimida ham ro‘y beradi. Bitkoin tarmog‘ida bu vaqtda amalga oshirilgan barcha tranzatsiyalarni tartibga solish va kliringga o‘rtacha 10 daqiqa vaqt ketadi. Boshqa blokcheynlar yanada tezroq bo‘lib, Bitcoin Lightning Network kabi zamonaviy novatorlik yechimlari tartibga solish va kliring vaqtini soniyaning ulushiga teng bo‘lgan vaqtgacha qisqartirib, bitkoin blokcheyni hajmini oshirishga intiladi. “Pul jo‘natuvchi bir tarmoqda, oluvchi esa boshqa tarmoqda bo‘ladigan bank tizimida pul ko‘plab registrlar, vositachilar, tranzit maydonlar orqali o‘tib, tom ma’noda yo‘lda yo‘qolib qolishi mumkin. Aslida ham qiymatni uzatishning bir onda ro‘y beradigan va xarajatlar bilan bog‘liq bo‘lmagan turiga o‘tish uzoq vaqt davomida oraliq holatda turib qoladigan kapitalni ozod qiladi; Bu esa “yo‘ldagi” pul mablag‘laridan foyda oladigan vositachilarni xursand qilmaydi, albatta.
- **Risklarni boshqarish.** Blokcheyn texnologiyasi bir necha xil moliyaviy risk turlarini bartaraf qilishga va’da beradi. Birinchidan, tartibga solish riski to‘lovning bitimni tartibga solish jarayonida bironta xato natijasida o‘tmaslik riski. Ikkinchidan, kontragentlik riski – ikkinchi tomon bitimni tartibga solish ro‘y bermagunga qadar defolt e’lon qilish riski. Nihoyat, eng jiddiy tizimli risk, tizimdagi barcha yirik kontragentlik risklari yig‘indisi.
- **Qiymat innovatsiyasi.** Bitkoin blokcheyni Bitkoinlar uzatish uchun yaratilgan, boshqa moliyaviy aktivlar bilan ishlash uchun emas. Biroq buochiq boshlang‘ich kodli, tajribalarni rag‘batlantiradigan texnologiyadir. Ayrim novatorlar Bitkoin to‘lovlari uchun emas, balki boshqa maqsadlar uchun mo‘ljallangan alohida blokcheynlar, ya’ni altkoynlar yaratadi. Saydcheynlar – imkoniyatlari va funksiyalari bo‘yicha Bitkoin blokcheynidan farq qiladigan, lekin uning xavfsizligini pasaytirmagan holda Bitkoin kompyuter infratuzilmasi va rivojlangan tarmog‘idan foydalanadigan blokcheynlardir. Saydcheynlar blokcheyn bilan ikki kanalli shtift – aktivlarni uchinchi tomon ishtirokisiz blokcheynga va blokcheyndan berish kriptografik vositasi yordamida aloqa qiladi. Xususiy blokcheynlarda savdo platformalari yaratib, umuman Bitkoin va boshqa tokenlardan foydalanishni istisno qilishga intiladigan novatorlar ham bor. Moliyaviy institutlaraktivlar va majburiyatlarni yozish, almashinish va sotish uchun blokcheyn texnologiyasidan foydalanmoqda, vaqt o‘tishi bilan esaan’anaviy birjalar va markazlashtirilgan bozorlarni u bilan almashtirishi mumkin, bu esa bizning qiymat haqidagi va u bilan savdo mexanizmlari haqidagi tasavvurlarimizni o‘zgartirib yuborishi mumkin.
- **Ochiq boshlang‘ich kod.** Moliyaviy xizmatlar tarmog‘i bu – eskirib qolgan tizimlar ulkan texnologikto‘plami bo‘lib, istalgan payt qulashi mumkin. Uni texnologik jihatdan takomillashtirish qiyin, chunki har bir innovatsiya uchun qaytuvchan bo‘la olishlik talab qilinadi. Blokcheyn esa, ochiq boshlang‘ich kodli tizim bo‘lgani holda, doimiy ravishda o‘zgarishi, rivojlanishi va tarmoq murosasi asosida takomillashishi mumkin.

Bu afzalliklar – attestatsiya, ancha past qiymat, bir lahzali tezlik, risklarning pasayishi, katta innovatsiya, moslashuv qobiliyati – istiqbolda nafaqat to‘lovlarni, balki qimmatli qog‘ozlar bilan operatsiyalarni, investitsion bank xizmatlari ko‘rsatishni, buxgalteriya hisobi va auditni, venchurli investitsiyalarni, sug‘urtalashni, tadbirkorlik risklarini boshqarishni, xususiy shaxslarga bank xizmatlari ko‘rsatish va tarmoqning boshqa asoslarini o‘zgartirishi mumkin.

Odamlar o‘z ma’lumotlarini o‘zlari nazorat qilishlari kerak. Har bir kishi o‘z shaxsiyati haqida nimani, qachon, qayerda va qanchalik batafsil gapirib berish haqida o‘zi qaror qabul qilishga haqlidir. Shaxsiy ma’lumotlarning daxlsizlik huquqini hurmat qilish va shaxsiy ma’lumotllarning xavfsizligini himoya qilish – ikkalasi bir xil narsa emas. Bizga unisi ham, bunisi ham kerak. Bir-biriga ishonish zaruratini bartaraf qilib, Satosi Nakomoto shu tariqa u bilan o‘zaro aloqa qilish uchun ikkinchi tomon shaxsini yaxshi bilish zaruratini yo‘qqa chiqardi. Xususiy hayot daxlsizligi – insonning asosiy huquqi va erkin jamiyatning negizidir. Internet paydo bo‘lgandan keyingi oxirgi yigirma yil davomida davlat miqyosida ham, xususiy sektorda ham ma’lumotlar markaziy to‘plamlari xususiy shaxslar va tashkilotlar haqida, jumladan, ularga ma’lum qilmagan holda, xilma-xil maxfiy axborotlar to‘plagan. Hamma joyda odamlar korporatsiyalar axborot izlash asnosida butun raqamli dunyoni titib tashlagan holda qandaydir kiberklonlar yaratishidan xavfsiraydi. Blokcheynda esa qatnashchilar istagan holda ma’lum darajagacha noma’lumlikni saqlashi mumkin – ular qandaydir qo‘shimcha ma’lumotlar xabar qilish yoki bu axborotlarni ma’lumotlar markaziy to‘plamida saqlashga majbur emas. Bu holatning muhimligiga noto‘g‘ri baho berib bo‘lmaydi. Blokcheynda shaxsiy ma’lumotlar ombori yo‘q. Blokcheyn protokollarihar bir muayyan tranzaksiya yoki vaziyat uchun kerakli bo‘lgan noma’lumlik darajasini tanlashga imkon beradi. Shu tariqa biz o‘zimizning elektron nusxalarimizni va ularning dunyo bilan o‘zaro aloqalarini yaxshiroq boshqaramiz.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, blokcheyn texnologiyasi bugungi dunyoda juda dolzarb bo‘lib, an’anaviy markazlashtirilgan tizimlar duch keladigan turli muammolarga transformativ yechimlarni taklif etadi. Uning markazlashmagan tabiati, kengaytirilgan xavfsizlik, samaradorlik va moliyaviy inklyuzivlik potensiali unning imkoniyatlarini kengaytirish va innovatsiyalarni sanoat bo‘ylab rivojlantirish uchun kuchli vositaga aylantiradi. Blokcheyn rivojlanishda davom etadi va asosiy oqimga ega bo‘ladi, uning ahamiyati o‘sib boradi va butun dunyo bo‘ylab markazlashmagan va shaffof ekotizimlarning kelajagini shakllantiradi.

Blokcheyn texnologiyasi bilan bog‘liq xavfsizlik muammolarini o‘rganishda mavjud muammolarni hal qilish uchun potensial yechimlar taklif etamiz:

- PoW va PoS zaifliklarini kamaytiradigan yangi konsensus algoritmlarini ishlab chiqish va qabul qilish blokcheyn xavfsizligini oshirishi mumkin. Proof of Authority (PoA) va Delegated Proof of Stake (DPoS) kabi konsensus mexanizmlari kengayish va xavfsizlik muammolarini hal qiluvchi muqobil yondashuvlarni taklif qiladi;
- Smart shartnomani ishlab chiqishda puxta kod tekshiruvlarini o‘tkazish va rasmiy tekshirish usullarini qo‘llash zaifliklarni aniqlashi va yumshatishi mumkin. Bundan tashqari, standartlashtirilgan xavfsizlik protokollari va aqlli shartnomani ishlab chiqish uchun eng yaxshi amaliyotlarni o‘rnatish ekspluatatsiya xavfini minimallashtirishi mumkin.
- Blokcheyn texnologiyasiga xos me’yoriy muvofiqlik asoslarini ishlab chiqish markazlashtirilmagan tizimlarning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda mavjud qoidalarga rioya qilishni osonlashtirishi mumkin. Nazorat qiluvchi organlar, sanoat manfaatdor tomonlari va texnologlar o‘rtasidagi hamkorlik aniq ko‘satmalar yaratish va tartibga solishning aniqligini ta’minlash uchun muhim ahamiyatga ega;
- Blokcheynning o‘zgarmasligini saqlab qolgan holda ma’lumotlarni tanlab o‘chirish yoki shifrlashni ta’minlaydigan dinamik ma’lumotlarni boshqarish yechimlarini integratsiyalash ma’lumotlarni saqlash va GDPR kabi maxfiylik qoidalariga rioya qilish bilan bog‘liq muammolarni hal qilishi mumkin.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mahmood, Z. (2021). Blockchain Technology. Advances in Data Mining and Database Management.
2. Rahmani, M.K. (2022). Blockchain Technology. Blockchain Technology and Computational Excellence for Society 5.0.
3. Kogure, J., Kamakura, K., & Shima, T. (2017). Blockchain Technology for Next Generation ICT.
4. Sharma, S., Rosmin, P., & Bhagat, A. (2021). Blockchain Technology. Blockchain Applications in IoT Security.
5. Oksiiuk, O., & Dmyrieva, I. (2020). Security and privacy issues of blockchain technology. 2020 IEEE 15th International Conference on Advanced Trends in Radioelectronics, Telecommunications and Computer Engineering (TCSET), 1-5.
6. Huynh, T.T., Nguyen, T.D., & Tan, H. (2019). A Survey on Security and Privacy Issues of Blockchain Technology. 2019 International Conference on System Science and Engineering (ICSSE), 362-367.
7. Alsuhaimi, A.H., & Alzahrani, S. (2021). Security and Privacy Issues of Block-Chain Technology.
8. Gupta, N. (2019). Security and Privacy Issues of Blockchain Technology. Studies in Big Data.
9. Zokir Toshtemirovich Mamadiyarov. 2022. Risk Management in the Remote Provision of Banking Services in the Conditions of Digital Transformation of Banks. In The 5th International Conference on Future Networks & Distributed Systems (ICFNDS 2021). Association for Computing Machinery, New York, NY, USA, 311–317. https://doi.org/10.1145/3508072.3508119

РАЗВИТИЕ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ БАНКОВСКОГО СЕКТОРА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Абдурахманова Матлуба Махамадаминовна
Профессор кафедры “Банковское дело и инвестиции” Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация: В статье исследованы вопросы развитие цифровой трансформации банковского сектора республики Узбекистан. А также выявлены существующие проблемы связанные с развитием цифровой трансформации, на основе выявленных проблем разработаны практические предложения и научные рекомендации по совершенствоанию трансформации коммерческих банков в республике Узбекистан.

Ключевые слова: трансформация, финансовые технологии, цифровая трансформация, банк, клиент, банковские услуги, мобильность, дистанционное банковское обслуживание.

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekiston Respublikasi bank sektorining raqamli transformatsiyasining rivojlanishi ko‘rib chiqiladi. Raqamli transformatsiyani rivojlantirish bilan bog‘liq mavjud muammolar ham aniqlanib, aniqlangan muammolar asosida O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha amaliy takliflar va ilmiy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: transformatsiya, moliyaviy texnologiya, raqamli transformatsiya, bank, mijoz, bank xizmatlari, mobillik, masofaviy banking.

Abstract: The article examines the development of digital transformation of the banking sector of the Republic of Uzbekistan. Existing problems associated with the development of digital transformation have also been identified; based on the identified problems, practical proposals and scientific recommendations have been developed to improve the transformation of commercial banks in the Republic of Uzbekistan.

Key words: transformation, financial technology, digital transformation, bank, client, banking services, mobility, remote banking.

ВВЕДЕНИЕ

Современный этап экономического развития характеризуется не только внутренней технологической модернизацией, но и необходимостью эффективных трансформации и адаптации к глобальным вызовам мира. Направление развития коммерческих банков определяет совокупность факторов внешней среды, характеризующейся на данном этапе нестабильностью и повышенными рисками. В условиях глобализации политические события и их экономические последствия, переход к новому технологическому укладу, жесткая регуляторная нагрузка и повышенная конкуренция бросают вызов всем финансово-кредитным организациям. Ключевым фактором, определяющим смену парадигмы деятельности банков, становятся изменившиеся потребности клиентов.

На сегодняшний день наблюдается активная трансформация инновационной деятельности коммерческих банков в условиях глобальной цифровизации экономики. Цифровая трансформация предоставляет банкам беспрецедентные возможности для повышения рентабельности и улучшения обслуживания клиентов. Для того, чтобы банку оставаться конкурентоспособным необходимо производить модернизацию внутриорганизационных инновационных процессов. В настоящее время одним из основных факторов успешной банковской деятельности выступает политика постоянных нововведений. Цифровизация требует пересмотра традиционных бизнес-практик и методов. Искусственный интеллект и связанные с ним технологии (машинное обучение, обработка естественного языка, нейронные сети) потенциально могут способствовать повышению эффективности и увеличению доходов финансового сектора.

АНАЛИЗ ЛИТЕРАТУРЫ ПО ТЕМЕ

Проблемы трансформации банковского сектора рассмотрены в исследованиях зарубежных учёных, А. Канканхалли, Н. Фенвик Р. Клейнханс и др. [3; 4]

Вопросы, связанные с организацией цифровой инновационной деятельности в коммерческих банках изучены в научно-практических исследованиях, Б. Кинга, М.А. Гальпера, Л.В. Коха, Л.Р. Магомаевой, О.А. Поповой и других ученых. [5;7]

Автор Digital Banking Report, специалист в области цифрового банкинга, Джим Марус цитирует “пять истин” нового поколения банков. Он обосновывает свои идеи следующим образом:

- необходимо инвестировать в развитие “цифровых” отраслей, а не в автономные сферы услуг. За последние пять лет количество посетителей офисов банков США сократилось на 60%. Эта тенденция также наблюдается во всем мире. Инвестиции в открытие новых банковских офисов сегодня кажутся неоправданными, учитывая вероятность того, что завтра туда никто не придет;
- клиенты банка хотят открывать и вести онлайн-счета. Не стоит полагаться на исследования, которые показывают, что большинство банковских клиентов хотят ходить в офисы и стоять в очередях. Действительно, клиенты должны идти в офис, потому что у них нет альтернативы. Если появятся хорошие банковские приложения, которые позволят им открыть счет, нажав на несколько телефонных кнопок, они, безусловно, воспользуются этим;
- со стороны банков постоянно действует система привлечения новых клиентов. Это дает эффект, когда банк использует адресную, массовую, мобильную и онлайн-рекламу для привлечения новых клиентов;
- потребители хотят особого внимания. Если клиенту уделяется особое внимание в кафе, авиакомпании или отеле, куда он едет, он имеет право ожидать такого же внимания в банке, где он хранит свои сбережения. Организации, которые не предоставляют финансовые услуги, уделяют больше внимания своим клиентам, чем банкам;
- простота всегда побеждает. В новую эру развития цифровых банков победителями становятся организации, которые могут предлагать клиентам самые простые способы предоставления банковских продуктов и услуг. Если обратить внимание на самые популярные программы, то все они позволяют добиться результатов всего несколькими нажатиями кнопок. Это, например, Uber, Amazon, Google, PayPal. Банковские приложения должны быть такими же простыми и понятными, как и эти.

Джим Марус считает, что имеет смысл говорить о начале эры цифровых банков, если эти “пять истин” не будут приняты со стороны банковского сообщества [15].

В дополнение к размышлениям Джима Маруса было бы уместно процитировать высказывание Билла Гейтса в 1994 году о том, что “нам нужны банковские услуги, а не банки” [6].

По мнению российского учёного Алексеева, Д. А. Трансформация банковского сектора подразумевает, что банки используют цифровые технологии, для того чтобы усовершенствовать уже существующие бизнес-модели, а также чтобы повысить эффективность деятельности банков [8].

Научными исследованиями вопросов связанные с развитием трансформации коммерческих банков в условиях развития цифровых технологий проведены исследованы отечетвенными учеными, такими как Таймухамедов И.Р., Аликориев, А.О. Мамадияров З.Т., М. Азларова А.А и др. в своих исследованиях они считают что трансформация банковской деятельности это внедрение современных способов оказания банковских услуг, и это приводит к сокращению количества филиалов банков, большинство услуг переводится в сферу онлайн [9].

МЕТОДОЛОГИЯ ИССЛЕДОВАНИЯ

В качестве теоретической и методологической основы данной статьи использованы общеэкономическая литература и научные статьи, научные труды экономистов, экономические взгляды ученых и представителей сферы на улучшение развития цифровизации банковских услуг, анализ их мнений, экспертные оценки, мониторинг процессов, системный подход к экономическим явлениям и процессам. Автор путем проведения сравнительного анализа своего опыта разработал выводы и предложения, рекомендации по совершенствованию мобильного банкинга.

АНАЛИЗ И РЕЗУЛЬТАТЫ

Цифровизация является основным из драйвером развития банковской системы и повышает взаимное доверие и прозрачность между банком и клиентом. Если еще несколько лет назад банкам для обслуживания своих клиентов требовались разного рода бумажная волокита, то сегодня клиент пользу-

ется услугами банка, даже не зная, где находится здание банка.

Термин “цифровизация”, по сути, является новым термином и подразумевает широкое применение информационных технологий во всех системах, начиная от электронных платежей и заканчивая удаленными банковскими услугами и электронным правительством, в результате внедрения и эффективного использования ИТ-программ в инновационном управлении и делопроизводстве [10].

В 1983 году в Великобритании была создана система Homelink, которая позволяла клиентам банка проверять свои депозиты, осуществлять платежи и переводы с банковского счета, подключенного к компьютеру по телефону. В том же году аналогичная система Pronto была запущена и в США. К сожалению люди скептически относятся к системам Homelink и Pronto, но с распространением интернета эти системы стали широко использоваться. В 2001 году Bank of America предоставившим онлайн-услуги на сумму $ 1 млрд. долларов США и стал первым передовым банком в области электронного банкинга. В 2017 году данный банк открыл 3 цифровых (необанк) филиала [11].

По данным портала Payments Industry Intelligence, в 2018 году в мире было 60 цифровых необанков, а к 2021 году их стало 319, причем 90% используемых ими денег составляют электронные деньги [12].

Учитывая большое количество конкурирующих бизнес-приоритетов, усилия по контролю затрат, текущие технологические инициативы и множество вариантов предоставления услуг, финансовым директорам следует инвестировать в трансформацию, искусственный интеллект и автономные цифровые проекты. Это сделает финансовую организацию более экономичной и обеспечит ускоренный рост. Для достижения трансформации необходимо определить правильные приоритеты и задействовать специалистов в нужных сферах [11].

Таким образом, можно перечислить следующие различия между цифровыми банками и традиционными банками.



Рисунок 1: Основные характеристики цифровых банков[1]

Цифровизация Узбекистана началась около 10 лет назад. В 2012 году правительство республики утвердило “Комплексную программу развития национальной информационно-коммуникационной системы”. Исполнение документа было рассчитано на период 2013–2020 годов.

Ushbu talablardan munozarali bo‘lganlari kechki vaqtda yoki umumiy foydalanishdagi transport mavjud bo‘lmagan taqdirda tashkilot rahbariga xodimlar uchun yengil avtotransport vositalarida tashish faoliyati litsenziya varaqasiga ega taksida yurganlik uchun haq to‘lash huquqi berilishi va tashkilot rahbarining ruxsati bilan havo, temir yo‘l, suv va umumiy foydalanishdagi avtomobil transportida bagajni olib o‘tish bilan bog‘liq xarajatlardir.

6 O‘zbekiston Respublikasi hududida xizmat safarlari to‘g‘risidagi NIZOM. https://lex.uz/ru/docs/6139423

Ya’ni, birinchidan, litsenziyasi bor taksiga yurganda ham qancha to‘lov qilinganligi, masofasi va aynan xizmat safari bilan bog‘liq jarayonda yurganligini isbotlovchi hujjatni olish amrimahol. Shu bois, mazkur normani ham alohida hisobga olish hamda xodimga qulayroq bo‘lgan boshqa normadan foydalanish imkoniyati berilishi lozim.

Ikkinchi munozarali masala, tashkilot rahbarining ruxsati bilan havo, temir yo‘l, suv va umumiy foydalanishdagi avtomobil transportida bagajni olib o‘tish bilan bog‘liq xarajatlar qoplanishi, rahbarga bog‘lab qo‘yilib, qaysi hollarda va kimga bunday xarajatlarga rahbar ruxsat berishi mumkin degan haqli savolni keltirib chiqaradi.

Munozaraning davomi esa, yo‘lda ko‘rpa-to‘shak buyumlaridan foydalanganlik uchun xarajatlarning tasdiqlovchi hujjatlarsiz haq to‘lashga qabul qilinishidir. Bu xarajatlarning miqdori biror joyda belgilanmagan. Aytaylik mehmonxona hujjatlari mavjud bo‘lmaganda bazaviy hisoblash miqdorining 20 foizi (bugungi kunda 68 ming so‘m) belgilangan bo‘lsa, yo‘lda ko‘rpa-to‘shak uchun bundan ko‘p xarajat qilingan bo‘lsa ham qabul qilinishi va to‘lab berilishi kerak bo‘ladi.

Fikrimizcha, mazkur xarajat bo‘yicha ham jamoa shartnomasida yoki boshqa ichki hujjatlarda maksimal me’yorni, qanday holatlardagi xizmat safarlarida bu xarajatlar qabul qilinishi belgilab qo‘yish lozim.

Yo‘l hujjatlari mavjud bo‘lmaganda budjet tashkilotlari xodimlari uchun xizmat safari yo‘lkirasiga haq to‘lash har bir kilometrga bazaviy hisoblash miqdorining 0,1 foizi miqdorida, boshqa tashkilotlar xodimlari uchun jamoa kelishuvi (shartnomalari), mehnat shartnomasida ko‘zda tutilgan, biroq har bir kilometrga bazaviy hisoblash miqdorining 0,1 foizidan kam bo‘lmagan miqdorlarda qoplab berilishi keltirib o‘tilgan.

Demak, mazkur bandda budjet tashkiloti va boshqa tashkilotlar ajratib ko‘rsatilgan, biroq unda ham aynan yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, tadbirkorlik subyektlari uchun taalluqli emas.

Transport xarajatlarini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo‘lmaganda, Internet jahon axborot tarmog‘idagi elektron xaritalardan foydalangan holda masofalarni aniqlashga ruxsat etiladi.

Shu bilan birga yuqoridagi hujjatda xizmat safarida bo‘lgan xodimga u yuborilgan tashkilotdagi ish vaqti rejimi va dam olish vaqtlari taalluqli bo‘lishi, xizmat safari vaqtida foydalanilmagan dam olish kunlari xizmat safaridan qaytganda tiklanmasligi belgilab qo‘yilgan.

Bizning fikrimizcha, mazkur holat ham munozarali bo‘lib, xizmat safari yashab turgan joyidan uzoqda bo‘lganligi bois, dam olish xodimning ixtiyorida bo‘lmaydi. U odatdagi dam olishini o‘tkaza olmaydi. Jumladan, oilaviy qisqa muddatli sayohatga chiqish, uyda oilaviy ovqatlanish yoki boshqa turli oilaviy, do‘stlar bilan bo‘ladigan tadbirlarda qatnashish, bemor qarindoshlarini ko‘rishga borish va boshqalar.

O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 201-moddasiga ko‘ra, dam olish vaqti xodim mehnat majburiyatlarini bajarishdan ozod bo‘lgan va o‘z ixtiyoriga ko‘ra foydalanishi mumkin bo‘lgan vaqtdir deya e’tirof etilgan. Demakki, o‘z hududidan tashqarida xizmat safarida bo‘lgan xodim uchun dam olish vaqtidan o‘z ixtiyoriga ko‘ra foydalana olmaydi. O‘z-o‘zidan uning ixtiyori cheklanib, xizmat safariga borgan hududida bor sharoitda dam olishga majbur.

Faqatgina tartibga ko‘ra, agar xodim xizmat safari davomida dam olish yoki bayram kunlarida xizmat safariga yuborilgan joyda ishlagan bo‘lsa, ushbu kunlarda ishlagani uchun amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq kompensatsiya to‘lanadi.

Kundalik xarajatlar uchun haq jamoa shartnomalari, jamoa kelishuvlari va mehnat shartnomalarida ko‘zda tutilgan miqdorlarda, lekin quyidagi miqdorlardan kam bo‘lmagan holda belgilanadi (bazaviy hisoblash miqdoriga nisbatan koeffitsiyentlarda), jami 0,35 gacha:

- xodimning xizmat safari davrida ovqatlanish (alkogol va tamaki mahsulotlari bundan mustasno) xarajatlarini tasdiqlovchi hujjatlar (cheklar) taqdim etilganda – 0,25 gacha;
- boshqa xarajatlari uchun – 0,1.

Bunda umumiy ovqatlanish obyektlarida xaridni amalga oshirganligini tasdiqlovchi hujjatlarni (cheklarni) xizmat safari uchun ishlab chiqilgan maxsus mobil ilovada xarid chekining fiskal belgisini matritsali shtrix kod (QR-kod) yordamida skanerlash orqali ro‘yxatdan o‘tkazish imkoniyati mavjud bo‘lmaganda, ushbu hujjatlarni (cheklarni) taqdim etishga ruxsat etiladi.

Umumiy ovqatlanish obyektlarida xarid amalga oshirilganligini tasdiqlovchi hujjatlar (cheklar) xizmat safari davrining har bir kuni uchun alohida-alohida rasmiylashtiriladi.

Turar joyda yashaganligi bo‘yicha xarajatlarni tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo‘lmagan hollarda har bir sutka uchun belgilangan bazaviy hisoblash miqdorining 20 foizi miqdorida qoplanadi

Xodim xizmat safaridan qaytgan kundan e’tiboran uch ish kuni mobaynida avans hisobotini taqdim qilishi shart. Ushbu hisobotga belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan xizmat safari guvohnomasi va xizmat safarida haqiqatda qilingan xarajatlarni tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinadi.

Endi aynan soliq qonunchiligida bu masalada qanday holatlar borligini ko‘rib chiqamiz.

1. O‘zbekiston Respublikasi soliq kodeksiga ko‘ra, xizmat safarlariga oid quyidagi kompensatsiya to‘lovlari jismoniy shaxslarning jami daromadiga kiritilmaydi va jismoniy shaxslarning daromad solig‘iga tortilmaydi:

- tasdiqlovchi hujjatlar asosida xizmat safari joyiga borish va u yerdan qaytib kelish uchun, shu jumladan joy band qilish uchun haq to‘lashni qo‘shgan holda haqiqatda amalga oshirilgan to‘lovlar. Yo‘l hujjatlari bo‘lmagan taqdirda, temir yo‘l transportidagi (agar temir yo‘l qatnovi bo‘lmasa, shaharlararo avtobusdagi) yo‘l haqi qiymati miqdorida, lekin aviachipta qiymatining 30 foizidan oshmaydigan miqdorda;
- uy-joyni ijaraga olish bo‘yicha haqiqatda amalga oshirilgan to‘lovlar. Yashaganligini tasdiqlovchi hujjatlar bo‘lmagan taqdirda qonunchilikda belgilangan normalar doirasida;
- qonunchilikda belgilangan normalar doirasida xizmat safarida bo‘lingan vaqt uchun to‘lanadigan kundalik xarajatlar uchun haq (sutkalik pullar).

Biz tomonimizdan yuqorida mamlakatimizda tadbirkorlik subyektlari uchun tavsiyaviy xususiyatga ega xizmat safari xarajatlarini qoplashga oid yagona me’yoriy hujjatning munozarali joylarini keltirib o‘tdik.

XULOSA VA TAKLIFLAR

1. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda xizmat safari bilan bog‘liq xarajatlar tarkibi jamoa shartnomasida va uning me’yori hisob siyosatida belgilab qo‘yilishi hamda bu hisob yuritish, xarajatlarni tan olish hamda soliq solish maqsadida ham inobatga olinishi lozim.
2. Xizmat safari xarajatlari tarkibiga: kundalik, mehmonxona, transport xarajatlari bilan birga, doimiy yashash joyida uzoq muddat bo‘lmaganligi uchun to‘lov (bir oydan uzoq muddat), dam olish kunlari va bayram kunlari uchun qo‘shimcha kompensatsiya to‘lovlari, boshqa maishiy-ijtimoiy xizmatlar uchun to‘lovlarni kiritish maqsadga muvofiq.
3. Qonunchilik normasidan ko‘rishimiz mumkinki, xizmat safari xarajatlarining tarkibi va uni qoplash hamda hisobdan aks ettirish uchun yagona asos mavjud emas. Shu bois, bizning fikrimizcha, xo‘jalik yurituvchi subyektlar uchun xizmat safari xarajatlarining tarkibi, uni qoplash hamda hisobdan aks ettirish bo‘yicha tavsiyaviy tartib ishlab chiqish maqsadga muvofiq.
4. O‘zbekiston Respublikasi soliq kodeksiga ko‘ra, uy-joyni ijaraga olish bo‘yicha haqiqatda amalga oshirilgan to‘lovlar jismoniy shaxslarning jami daromadiga kiritilmaydi va jismoniy shaxslar daromad solig‘iga tortilmaydi. Yashaganligini tasdiqlovchi hujjatlar bo‘lmagan taqdirda qonunchilikda belgilangan normalar doirasida soliqqa tortilmasligi keltirib o‘tilgan. Ammo mana shu norma belgilangan qonunchilik xo‘jalik yurituvchi subyektlar uchun mavjud emas. Yuqorida biz tomonimizdan o‘rganilgan tartiblar esa xo‘jalik yurituvchi subyektlar uchun tavsiyaviy ahamiyatga ega.
5. Xizmat safariga borgan xodim dam olish kunlari uchun o‘rtacha bir kunlik ish haqi to‘lash, agar dam olish kunlari ishlasa ikki barobardan kam bo‘lmagan haq to‘lash va xizmat safaridan qaytgandan so‘ng qo‘shimcha dam olish kuni berish lozim. Shu bilan birga bayram kunlari xizmat safarida bo‘lgan xodimga uyidan uzoqda, oilasi va yaqinlari bilan birga bayram nishonlamaganligini inobatga olib, dam olish kuni singari haq to‘lash, shu bilan birga yana bir kunlik qo‘shimcha ish haqi miqdorida ma’naviy kompensatsiya haqi to‘lash maqsadga muvofiq.

ИНКЛЮЗИВНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ И ЕГО ОСОБЕННОСТИ

Зайнутдинова Умида Джалоловна
Ташкентский финансовый институт, доцент кафедры “Экономика”

Аннотация: В этой статье рассматривается вопрос инклюзивного образования и его особенности. Выделяются направления инклюзивного образования для детей с ограниченными возможностями здоровья. Рассматриваются программы по улучшению качества инклюзивного образования в Узбекистане.

Ключевые слова: Образование, инклюзивное образование, дети с ограниченными возможностями здоровья, адаптация образовательной программы, инклюзивная культура и атмосфера, участие сообщества, специализированное образовательное учреждение.

Annotatsiya: Ushbu maqolada inklyuziv ta’lim masalasi va uning xususiyatlari muhokama qilinadi. Imkoniyati cheklangan bolalar uchun inklyuziv ta’lim yo‘nalishlari alohida ta’kidlangan. O‘zbekistonda inklyuziv ta’lim sifatini oshirish dasturlari ko‘rib chiqilmoqda.

Kalit so‘zlar: Ta’lim, inklyuziv ta’lim, imkoniyati cheklangan bolalar, ta’lim dasturini moslashtirish, inklyuziv madaniyat va muhit, jamoatchilik ishtiroki, ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasasi.

Abstract: This article discusses the issue of inclusive education and its features. The areas of inclusive education for children with disabilities are highlighted. Programs to improve the quality of inclusive education in Uzbekistan are being considered.

Key words: Education, inclusive education, children with disabilities, adaptation of the educational program, inclusive culture and atmosphere, community participation, specialized educational institution.

ВВЕДЕНИЕ

В последнее время проблемы с развитием детей наиболее часто связаны с нарушением когнитивных функций, проблемами с вниманием и поведением, а также с различными физическими и психическими отклонениями. Эти проблемы могут быть вызваны различными факторами, включая генетические и экологические причины, а также недостаток качественного образования и медицинского обслуживания. Важно отметить, что каждый ребенок уникален, и его развитие должно рассматриваться в индивидуальном порядке. Поэтому для решения этих проблем необходимо разрабатывать и применять персонализированные стратегии и методы, которые помогут обеспечить оптимальное развитие каждого ребенка.

В этом случаи нам может помочь инклюзивное образование. Инклюзивное образование – это подход к образованию, который стремится включить всех учащихся, включая тех, кто имеет особые образовательные потребности, в общую систему образования. Это означает, что дети с ограниченными возможностями здоровья (ОВЗ) должны иметь возможность учиться вместе со своими сверстниками без ограничений. Инклюзивное образование предполагает создание специальных условий для обучения и поддержки таких детей, а также изменение отношения общества к людям с ОВЗ.

ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ

Инклюзивное образование и его особенности рассматривались многими учёными. Так, например, О.В.Улыбина, У.В.Хахалкина, Д.Ю.Домничев, Э.Ф.Фаизова, Ю.А.Беляева отмечают что образование для человека, это инструмент, который позволяет не только приобрести теоритический и практический опыт в разных сферах, но и обрести стабильный доход, социальные блага и новые возможности, поэтому вопрос получения образования всеми детьми можно назвать важным [1].

Н.Н.Малофеев в своих исследованиях отмечает, что в основе положительной инклюзивной образовательной системы находится качественная структура. Структура должна быть основана на принципах психологической, медицинской и педагогической поддержки детей, у которых есть ряд образовательных потребностей [2]. То есть, Н. Н. Малофеев считает, что к процессу адаптации детей с ограниченными возможностями необходимо подключить не только педагогов, но и разные социальные службы. Для того, чтобы жизнь детей была полноценной, им требуется постоянная поддержка в лице компетентных лиц, способных помочь сразу по нескольким направлениям.

С.В. Алехина считает, что в центре инклюзивного образования находится человеческое право, то есть право ребенка вне зависимости от своих физиологических и психологических особенностей получать образование наравне с другими детьми [3].

Н.А. Борисова считает, что инклюзивное образование должно основываться на индивидуальном подходе, а точнее, каждый ребенок должен получить образование в соответствии со своими индивидуальными особенностями, но не в рамках социального разделения, а, наоборот, в рамках активной общественной коммуникации с педагогом и сверстниками.

По мнению Н.А. Абрамовой, первостепенная задача инклюзивного образования состоит в наборе педагогов, имеющих теоритические и практические знания в сфере работы с детьми с уникальными психологическими и физическими особенностями [4].

Так, просмотрев эти литературы мы выводим заключение, что изучение инклюзивного образования и его особенностей наиболее важное для нашей страны.

МЕТОДОЛОГИЯ ИССЛЕДОВАНИЯ

Методология исследования включает анализ литературных источников, сбор данных, а также применение качественных и количественных методов анализа для достижения поставленных целей.

АНАЛИЗ И РЕЗУЛЬТАТЫ

Понимание и обучение детей с ОВЗ инициировало появление различных концепций по их обучению. Для них обучение – это отстранение барьеров между специальными учреждениями и обычными классами в массовой школе, а также между и той же массовой школой, куда доступ некоторым категориям детей-инвалидов прежде не был.

Прежде всего, нужно изучить мировую – практику по инклюзивному обучению, узнать виды отклонений ОВЗ. Их можно разделить на две категории – это с отклонение психики и с нарушениями развития. Отклонения психики, такие как аутизм, синдром Аспергера, детское дезинтегративное расстройство, синдром Ретта, неспецифическое первазивное нарушение развития и т.п. Среди них самым распатроненным является аутизм.

На сегодняшний день аутизм диагностируется примерно у 2 процентов населения в зависимости от качества особенностей диагностики в каждой стране [5]. В последние время обучение детей с аутизмом встаёт в первичный план, поэтому задуматься об инклюзивной школе для аутистов нужное действие для образовательного процесса.

У детей с нарушениями развития происходит отклонение от нормы психических функций вследствие врожденных или приобретенных поражений опорно-двигательного аппарата, органов речи, слуха и зрения или из-за недостаточности центральной нервной системы. Существует несколько категорий детей с такими нарушениями развития:

- с нарушениями зрения;
- с нарушениями слуха;
- с нарушениями речи;
- с нарушениями опорно-двигательного аппарата;
- с нарушениями поведения;
- с нарушениями эмоционально-волевой сферы;
- умственно отсталые дети;
- с задержкой психического развития;
- с комплексными нарушениями развития [6].

Стоит отметить, что в двух вышеперечисленных группах инклюзивное образование является инструментом к нормальной и полноценной общественной жизни. К сожалению, инклюзивное образование ранее не практиковалось так отрыто, как сейчас, и более того, использующийся по текущий момент дифференцированный подход наоборот отдалял детей от полноценной социализации.

Прежде всего надо вывести конкретные направления по инклюзивному обучению. Выделяют следующие направления инклюзивного образования:

- **адаптация образовательной программы.** Инклюзивное образование предполагает, что все ученики, включая детей с особыми образовательными потребностями, учатся по одной и той же программе, но адаптированной под их индивидуальные потребности.
- **поддержка и услуги сопровождения.** Школы предоставляют услуги поддержки, такие как помощь в передвижении, поддержка в обучении, консультирование и другие услуги, которые помогают ученикам с ограниченными возможностями успешно учиться.
- **инклюзивная культура и атмосфера.** Создание инклюзивной среды, где все ученики чувствуют себя комфортно и включены в образовательный процесс, является одним из ключевых принципов инклюзивного образования.
- **междисциплинарное сотрудничество.** Инклюзивные школы работают вместе с другими специалистами, такими как психологи, логопеды, физиотерапевты и социальные работники, чтобы обеспечить необходимую поддержку ученикам с особыми потребностями.
- **работа с родителями.** Родители играют ключевую роль в поддержке инклюзивного образования, и школы активно сотрудничают с ними, чтобы обсудить потребности и ожидания их детей.
- **участие сообщества.** Школы стремятся привлечь ресурсы и поддержку местного сообщества для обеспечения инклюзивного образования, и поддержки учащихся с ограниченными возможностями.

Инклюзивное образование применяется в разных странах мира, и Узбекистан не является исключением. В нашей стране есть много школ и детских садов, которые работают по принципам инклюзивного образования. Это позволяет детям с ограниченными возможностями здоровья получать качественное образование и развиваться в обществе. В 2015 году в Узбекистане был принят Приказ Министра народного образования Республики Узбекистан “Об утверждении положения о порядке перевода учащихся с отклонениями в физическом или психическом развитии из одного специализированного образовательного учреждения в другое специализированное образовательное учреждение или в общеобразовательное учреждение для обучения в условиях инклюзивного (интегрированного) образования”, но он потярал силу 2021 году. На сегодняшний день разрабатывается программа по его улучшению.

Мы знаем, что разные программы по улучшению качества инклюзивного образования закладывает основу для более инклюзивной системы образования и помогает развивать базовые навыки ее учащихся, в том числе учащихся с ограниченными возможностями.

В Республике Фонд поддержки социальных инициатив с 2007 года реализует проект “Инклюзивное образование в Узбекистане”. Основная цель проекта – создание равных возможностей в получении образования для детей и подростков с ограниченными возможностями здоровья. Проект “Инклюзивное образование в Узбекистане” направлен на продвижение модели непрерывного инклюзивного образования в республике путем поэтапного внедрения в систему начального, среднего, среднего специального и высшего образования, а также на создание условий для повышения качества инклюзивного образования. В рамках этого проекта разработана концепция “Национальная модель инклюзивного образования”, которая внедряется в систему дошкольного и школьного образования путем создания смешанных групп и классов на базе пилотных детских садов и школ в г. Термезе, Карши, Навои, Самарканде, Джизаке, Гулистане, Ташкенте, Андижане, Фергане, Коканде, Ургенче и Нукусе. Особенность национальной модели инклюзивного образования заключается в том, что оно строится с учетом отечественного и зарубежного опыта. По данным ФОПСИ, в настоящее время в пилотных детских садах, школах, лицеях и колледжах этих городов в смешанных группах и классах обучается и воспитывается свыше 600 детей [7].

Также в Узбекистане действует проект “Инклюзивное образование для всех”, который был запущен в 2018 году. Этот проект направлен на создание условий для включения детей с особыми потребностями в общеобразовательные школы. В рамках проекта проводятся тренинги для учителей, создаются специальные учебные материалы и оборудование, а также оказывается поддержка семьям, имеющим детей с особыми потребностями.

В 2024 году 20 февраля был подписан проект с USAID о “Все дети добиваются успеха”. Проект USAID “Все дети добиваются успеха” поддерживает три важных направления, связанных с инклюзивным образованием: учебно-методические материалы, подходящие для инклюзивного образования, практика для учителей и создание школьной среды, в соответствии с разработкой устойчивой политики, разработанной совместно с учителями и людьми с ограниченными возможностями. инвалидность. В котором также было подчеркнуто что сотрудничество и самопожертвование играют важную роль в обеспечении успехов студентов в высшем и профессиональном образовании.

Особенности преподавания в инклюзивной образовательной среде включают:

- **индивидуальный подход:** учителя должны учитывать индивидуальные особенности каждого ученика, чтобы обеспечить успешное обучение;
- **адаптация учебного материала:** учебный материал должен быть адаптирован для каждого ученика с учетом его возможностей и потребностей. Это может включать в себя упрощение или усложнение заданий, использование различных методов обучения и т.д [8];
- **сотрудничество с родителями:** учителя должны активно сотрудничать с родителями, чтобы помочь им понять особенности своего ребенка и поддержать их в процессе обучения;
- **профессиональное развитие:** учителя должны постоянно повышать свою квалификацию и изучать новые методы и подходы к обучению, чтобы быть готовыми к работе с детьми с разными образовательными потребностями;
- **создание комфортной среды:** школа должна быть местом, где каждый ученик чувствует себя комфортно и безопасно. Учителя должны создавать дружелюбную атмосферу и поддерживать каждого ученика в его обучении;
- **работа в команде:** учителя должны работать вместе, чтобы обеспечивать эффективное обучение всех учеников.

ВЫВОДЫ

В Узбекистане инклюзивное образование является одним из приоритетов государственной образовательной политики. В стране действует ряд программ и проектов, направленных на поддержку детей с особыми образовательными потребностями.

Инклюзивное образование имеет множество преимуществ как для детей с особыми образовательными потребностями, так и для их сверстников. Оно способствует созданию более толерантного и инклюзивного общества, помогает детям развивать социальные навыки и улучшает их академические результаты. Однако для успешного внедрения инклюзивного образования необходимы изменения на всех уровнях образовательной системы, включая подготовку учителей, адаптацию учебных материалов и создание комфортной среды для всех учащихся.

Использованная литература:

1. Улыбина О.В., Хахалкина У.В., Домничев Д.Ю., Фаизова Э.Ф., Беляева Ю.А. Инклюзивное образование и его особенности // Московский экономический журнал. 2022 № 10. URL: https://qje.su/ekonomicheskaya-teoriya/moskovskij-ekonomicheskij zhurnal-10-2022-57/.
2. Malofeev, N.N. Laudable word of inclusion, or speech in defense of oneself / N.N. Malofeev // Education and training of children with developmental disabilities. – 2012. – No. 1. – pp. 3-15.
3. Alyokhina S.V. Inclusive education: history and modernity: studies.- method. manual. M., 2013.
4. Abramova N.A. Training of pedagogical personnel to ensure inclusive education in the Republic of Sakha (Yakutia) // Inclusive education: methodology, practice, technology: materials of the International Scientific and Practical Conference (June 20-22, Moscow) / Moscow City. psychol.-ped. un-T. M., 2011. pp. 225-227.
5. Каждые два ребенка из ста – аутисты – Наука (kommersant.ru).
6. Душка А.Л. Основные причины и виды психофизических отклонений у детей.
7. Мелиева Ш.М. Инклюзивное образование в Узбекистане. https://cyberleninka.ru/article/n/inklyuzivnoe-obrazovanie-v-uzbekistane.
8. Хасанхонова, Н. И. (2017). Рациональное мышление при государственных расходах. Экономика и предпринимательство, (8-3), 102-104.

JISMONIY SHAXSLARNING MOL-MULK VA YER SOLIQLARINI HISOBLASH VA UNDIRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI

Qurbonov Muxiddin Abdullayevich
PhD, O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi huzuridagi Fiskal instituti
“Soliqlar va soliqqa tortish” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Soliqlar davlat moliyaviy siyosatining asosiy vositalaridan birini anglatadi va soliqqa tortish muammolari jamiyat rivojlanishining ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy muammolarini hal qilish bilan bevosita bog‘liqligi tufayli an’anaviy ravishda eng ziddiyatli bo‘lganlar ro‘yxatiga kiritilgan. Soliq tizimida mulk solig‘i alohida o‘rin tutadi, ulardan biri bu maqolada ko‘rib chiqilgan yer solig‘i. Ko‘chmas mulkka soliq solishning tub islohotlari fonida yerga soliq solishni o‘rganish ayniqsa dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu islohotlarning natijalari yuridik va jismoniy shaxslarga birdek ta’sir ko‘rsatadi. Shunga qaramay, islohotning har qanday natijalari haqida gapirishga hali erta, chunki u uzoq muddatli istiqbolga yo‘naltirilgan.

Kalit so‘zlar: Yer solig‘i, mol-mulk solig‘i, kadastr qiymati, bozor qiymati, ko‘chmas mulk solig‘i, mahalliy budjetlar.

Abstract: Taxes are one of the main instruments of state fiscal policy and are traditionally included in the list of the most controversial ones, since tax issues are directly related to the solution of social, economic and political problems of the development of society. Property tax occupies a special place in the tax system, one of which is the land tax, which is discussed in this article. The study of land taxation is especially relevant against the background of radical reforms in real estate taxation. The results of these reforms will affect both legal entities and individuals. Nevertheless, it is too early to talk about any results of the reform, since it is oriented towards the long term.

Key words: land tax, property tax, cadastral value, market value, real estate tax, local budgets.

Аннотация: Налоги представляют собой один из основных инструментов государственной фискальной политики и традиционно входят в список самых противоречивых, поскольку налоговые вопросы напрямую связаны с решением социальных, экономических и политических проблем развития общества. Налог на имущество занимает особое место в налоговой системе, одним из которых является земельный налог, о котором идет речь в этой статье. Изучение земельного налогообложения особенно актуально на фоне радикальных реформ налогообложения недвижимости. Результаты этих реформ коснутся как юридических, так и физических лиц. Тем не менее, о каких-либо результатах реформы говорить рано, поскольку она ориентирована на долгосрочную перспективу.

Ключевые слова: земельный налог, налог на имущество, кадастровая стоимость, рыночная стоимость, налог на недвижимость, местные бюджеты.

KIRISH

Yer soliq solish obyekti sifatida vizual aniqlik, barqarorlik, uzoq muddatli mavjudlik, majburiy davlat ro‘yxatiga olish, shuningdek, erkin bozorda shakllanadigan yuqori qiymat parametrlariga ega. Ko‘chmas mulk solig‘i bejizga – dunyoning rivojlangan mamlakatlaridagi asosiy tarixiy soliqlardan biri va mahalliy budjetlarni to‘ldirishning asosiy manbalaridan biridir. Mamlakatimizning ulkan yer maydoniga egaligi ushbu yerdan daromad olish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Bu davlatning yer resurslariga bo‘lgan qiziqishi ortishi bilan belgilanadi.

Yer solig‘i mahalliy budjetlarning asosiy daromad manbalaridan biri hisoblanadi, ammo undan tushadigan budjet daromadlari juda ozdir. Shu sababli, davlat oldida yerlardan samarali foydalanishni ta’minlash, yer solig‘ini optimal hisoblashni ta’minlash, uning yig‘ilishini ko‘paytirish vazifalari turibdi.

Shuni esda tutish kerakki, yerlarni soliqqa tortish sohasidagi yangiliklar, muammolar va ularning batafsil o‘rganilmasligi aholining zaif qatlamlarining ijtimoiy ahvolini jiddiy ravishda yomonlashtirishi mumkin. Shuningdek, mahalliy soliqlar va yig‘imlarning ma’muriyatchiligi mexanizmlarining samarasizligi oqibatida ularni yig‘iluvchanlik darajasi yetarli emasligi, shuningdek, ko‘chmas mulk va yer uchastkalarini to‘liq hisobga olish va qiymatini obyektiv aniqlashning mavjud emasligi tizimli muammolarni bartaraf etish zarurligini anglatadi.

Shuning uchun kadastr qiymatidan soliq bazasi sifatida foydalanish oqibatlari, yerlarni kadastr bilan baholash metodologiyasini takomillashtirish hamda boshqa muammolar yaxshilab o‘rganilishi va yechilishi kerakligi bugungi kunda soliq tizimining dolzarb vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Yer solig‘idagi muammolarning yechimi ikkita soliqni birlashtirish (yer solig‘i va mol-mulk solig‘i) va ularni yangi soliq – ko‘chmas mulk solig‘i bilan almashtirish bo‘lishi mumkin. Yagona soliqni joriy etish ko‘chmas mulk obyektlarini ro‘yxatdan o‘tkazish va ularning kadastr qiymatini aniqlash bo‘yicha mashaqqatli jarayonni talab etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Yer solig‘i bo‘yicha tadqiqotlarning nazariy bazasi va konseptual asoslarini yaratishda soliq munosabatlarini va soliq tizimining masalalarini huquqiy tartibga solishga ta’sir ko‘rsatadigan qoidalar va xulosalari bo‘yicha bir qator xorijiy iqtisodchi olimlar ilmiy izlanishlar olib borgan.

Xususan, buyuk klassik iqtisodchi Adam Smit fikricha, “Shaharda yer rentasi qanday bo‘lsa, oddiy yer rentasi ham xuddi shunday, – shu turdagi daromad beradi, qachonki mulkdor ko‘pchilik holatlarda hech qanday mehnatsiz va tashvishsiz yerdan o‘zi uchun foydalanadi. Agar u mulkdorning ushbu daromadining bir qismini davlat xarajatlarini qoplash uchun olinsa, bu hech bir sanoat tarmog‘ining rivojlanishini kechiktirmas edi. Mana nima uchun shahar yer rentasi va oddiy yer rentasi o‘rtasida paydo bo‘ladigan bunday turdagi daromadlarga balkim maxsus soliq joriy qilish kerakdir”.

T.Maltus rentada muhim jihatni ko‘radi va u uni yer unumdorligi bir xil bo‘lmaganda yerlarga sarflangan kapital har xil foyda berishida va o‘rtacha unumdor yerdan olingan foyda bilan unumdorroq yerdan olingan foyda o‘rtasidagi farq (difference) rentaning maxsus kategoriyasi – differensial rentani tashkil qilishida ko‘radi.

D. Rikardo o‘zining yer rentasi nazariyasida renta shakllanishida har qanday tabiiy omilning ishtirokini inkor qiladi. Uning fikricha, renta aholining o‘sishi natijasida eng past sifatdagi yoki eng yomon joylashgan yerdan ham foydalanishga majbur bo‘lgan paytda vujudga keladi. Renta yaxshi yerlarning kamyobligi va yomon sifatli yerlarni o‘zlashtirpish zaruratidan vujudga keladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolaning nazariy va uslubiy asoslari dialektik tahlil usuli bo‘lib, uning ilmiy va bilim qobiliyatlari yer solig‘i to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini o‘rganishga imkon beradi. Maqolada qo‘llanilgan usullar ba’zi hollarda daliliy kuchga ega bo‘lgan va o‘rganilayotgan masalaning xususiyatlarini ochib beradigan zarur dalillarni oddiy bayon qilish imkoniyatini istisno etmaydi.

Tadqiqot iqtisodiy va boshqa fanlarning yutuqlari, moliya, soliq, yer qonunchiligi bo‘yicha xorijiy va o‘zbekistonlik olimlarning asarlari, yerlarni soliqqa tortishning tarixiy tajribasini tahlil qilish, uning qo‘llanilishi soliqlar va yig‘imlar to‘g‘risidagi amaldagi qonunchilik va amaliyotga asoslangan.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Ma’lumki, soliq solish tamoyillari soliq munosabatlarini amalda tashkil etish, soliq solish, uni undirish amaliyotining mazmunini ochib beradi. Shunday ekan samarali soliq tizimini ifodalovchi tamoyillardan biri, bu – uning soliqlarni yig‘ish jarayonini imkon qadar arzonlashtirish tamoyilidir. Ushbu tamoyil davlat va soliq to‘lovchilar tomonidan soliqlarni yig‘ish uchun ketadigan xarajatlarni mumkin qadar kamaytirishni ko‘zda tutadi. Biroq mamlakatimizdagi amalda bo‘lgan ayrim soliqlar, xususan, yer solig‘ining budjet daromadlaridagi salmog‘i juda kam bo‘lgani holda ularni hisoblab chiqish va undirish bilan bog‘liq ma’murchilik xarajatlari ancha ko‘p hisoblanadi.

Foydalanilmaydigan daromad salohiyati va yerga soliq solish bilan bog‘liq ko‘plab muammolarning hal qilinmaganligi (hozirgi kungacha) ko‘p jihatdan tarixga bog‘liq.

Amaldagi Soliq kodeksiga ko‘ra mulk huquqi, egalik qilish, foydalanish yoki ijara huquqlari asosida yer uchastkalariga ega bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslar yer solig‘i to‘lovchilardir.

Yer uchastkalaridan foydalanganlik uchun budjetga to‘lovlar yer solig‘i yoki yer uchun ijara to‘lovi tarzda amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan ijaraga berilgan yer uchastkalari uchun to‘lanadigan ijara to‘lovi yer solig‘iga tenglashtiriladi. Yer uchastkalarini ijaraga olgan yuridik shaxslarga yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ini to‘lovchilar uchun belgilangan soliq stavkalari, soliq imtiyozlari, soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisobotini taqdim etish va soliqni to‘lash tartibi tatbiq etiladi.

Ko‘chmas mulk ijaraga berilgan taqdirda, ijaraga beruvchi soliq to‘lovchi hisoblanadi. Bunda moliyaviy ijara (lizing) shartnomasiga muvofiq moliyaviy ijaraga (lizing) berilgan (olingan) ko‘chmas mulk obyektlari bo‘yicha ijaraga oluvchi (lizing oluvchi) soliq to‘lovchi deb aytiladi.

Yer uchastkasidan bir nechta yuridik shaxs birgalikda foydalangan taqdirda, har bir yuridik shaxs yer uchastkasining foydalanilayotgan maydonidagi o‘z ulushi uchun soliq to‘lovchi bo‘ladi.

Mamlakat milliy boyligining eng muhim elementi bu har qanday jamiyat hayotida alohida o‘rin tutadigan yer, resursidir. U quyidagicha asoslanadi:

- geografik nuqtayi nazardan, bu inson yashaydigan makon asosidir;
- siyosiy ma’noda, bu davlat ma’lum bir huquqiy tizimni tashkil etadigan hududdir;
- iqtisodiy jihatdan bu qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining asosiy vositasi va iqtisodiyotning boshqa barcha tarmoqlarini joylashtirish va rivojlantirish uchun asosdir.

Jamiyat uchun yerning bunday katta roli insonning turli xil ehtiyojlarini qondirishga imkon beradi: fiziologik, ekologik, xavfsizlik, psixologik, ijtimoiy, ishlab chiqarish.

Buning sababi yerning o‘ziga xos iste’mol xususiyatlariga bog‘liqligidir. Gap yerdan ko‘p maqsadli foydalanish (ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish makoni, mehnat vositalari, mehnat predmeti sifatida) yerni boshqa manbalar bilan almashtirishning muqobil variantlarining yo‘qligi haqida ketmoqda. Yer binoning ajralmas qismi, har qanday inshootning tuzilishi, shuningdek, mustaqil, alohida obyekt bo‘lishi mumkin. Yerning teng bo‘lmagan sotish qobiliyati bor, shuning uchun uning savdo oborotida ba’zi cheklovlar mavjud.

Tarixiy jihatdan mulk solig‘i, ayniqsa, yer solig‘i, daromad solig‘idan oldin paydo bo‘lgan. Bu majburiy to‘lovni qaytarib olishning birinchi shakllaridan biridir.

Yer mulk sifatida boshqa soliq solish obyektlari – daromadlar, qo‘shilgan qiymat va boshqalar bilan taqqoslaganda eng barqaror soliq solish obyektlaridan biri hisoblanadi. Yerga soliq solishda shaxs – soliq solish obyekti egasi yoki egasi undan samarali foydalanishga intiladi. Bunday mol-mulkni soliqqa tortishdan yashirish qiyinroq, uning qiymati soliq solish uchun egalarining xohish-istaklaridan qat’i nazar belgilanadi.



Mamlakatimiz soliq tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar zamirida bir qator kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, soliq solish maqsadida yer va ko‘chmas mulkning kadastr hisobi va qiymatini baholash bilan to‘liq qamrab olish chora-tadbirlarini amalga oshirish uchun kadastr va soliq organlari ma’lumotlar bazalarini integratsiyalashtirish barobarida 2021-yildan mol-mulk va yer solig‘i o‘rniga ko‘chmas mulk solig‘ini joriy qilish belgilab qo‘yildi.

Shuningdek, yer hisobi va davlat kadastrlarini yuritish tizimida yangi bosqich boshlandi, sohani ilg‘or tajriba asosida isloh qilish, yangicha boshqaruv tizimini joriy etish, yerning hisobini to‘liq yuritish va raqamlashtirish bo‘yicha komleks vazifalar belgilandi. 2021-yildan boshlab davreestr.uz – ko‘chmas mulk obyektlari davlat reyestri, ygk.uz – O‘zbekiston Respublikasi soliq qo‘mitasi huzuridaga kadastr agentligi portallari qatorida, Kadastr agentligining Milliy geoaxborot tizimiga integratsiya qilinadigan onlayn geoportal ochilishi hamda barcha tadbirkorlik subyektlari, shu jumladan oboroti (tushumi) 1 milliard so‘mgacha bo‘lgan yuridik shaxslar uchun yuridik shaxslarning mol-mulk solig‘i, yer solig‘ini joriy etish orqali soliq bazasi kengayishi oqibatida budjetga ko‘proq mablag‘lar tushishiga olib keladi.

Mamlakatimizda mol-mulk va yer soliqlarini ko‘chmas mulk (bino, inshoot va yer uchastkalari) obyektlarining bozor bahosiga yaqin bo‘lgan kadastr qiymati asosida hisoblash tizimini ikki bosqichda joriy etiladi:

- birinchi bosqichda (2021–2023 yillar) – ko‘chmas mulk bo‘lgan turar joy fondi obyektlari (kvartira, yakka tartibdagi uy-joylar, dala-hovli), shuningdek, ushbu obyektlar egallagan yer uchastkalariga nisbatan;
- ikkinchi bosqichda (2022–2024 yillar) – yashash uchun mo‘ljallanmagan alohida ko‘chmas mulk obyektlari, shuningdek, ushbu obyektlar egallagan yer uchastkalariga nisbatan.

Shuningdek:

a) ko‘chmas mulkni ro‘yxatdan o‘tkazish va kadastr tizimini modernizatsiya qilish uchun Jahon bankidan imtiyozli kreditlar jalb qilinadi;

b) 2021-yil 1-aprelga qadar xalqaro moliya institutlari ekspertlari bilan birgalikda ko‘chmas mulk obyektlariga soliq solishni yanada takomillashtirish bo‘yicha yer solig‘i va mol-mulk solig‘ini o‘rniga ko‘chmas mulk solig‘ini kiritishni nazarda tutuvchi “Yo‘l xaritasi” ishlab chiqiladi;

d) ko‘chmas mulk obyektining (bino, inshoot va yer uchastkalari) yuridik yoki jismoniy shaxs egaligida bo‘lishi emas, balki ularning kadastr qiymatidan va obyektning foydalanish maqsadidan kelib chiqqan holda soliq solish tartibi bir xillashtirilishi va yer solig‘i bo‘yicha advalor stavka kiritiladi;

e) belgilangan tartibda quyidagi loyihalar ishlab chiqiladi:

2021-yil 1-avgustga qadar – kadastr qiymatini maksimal darajada bozor bahosiga yaqinlashtirishga alohida e’tibor qaratgan holda, turar joy fondi ko‘chmas mulki obyektlaring kadastr qiymatini aniqlash tartibini takomillashtirish hamda yakka tartibdagi uy-joy qurish va uy-joyga xizmat ko‘rsatish obyektlari bilan band bo‘lgan yer uchastkalarining kadastr (bozor) qiymatini aniqlash tartibini kiritish bo‘yicha hukumat qarori;

2021-yil 1-noyabrga qadar – yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk obyektlari va ushbu obyektlar bilan band bo‘lgan yer uchastkalarining bozor bahosiga maksimal darajada yaqinlashtirilgan kadastr qiymatini aniqlash mexanizmini kiritish to‘g‘risida hukumat qarori;

2021 yil 1 dekabrga qadar – foydalanishga ruxsat etilgan yer uchastkalari turlari klassifikatorlari va ularga bo‘lgan huquqlarni tugatish uchun asoslarni nazarda tutuvchi Yer kodeksining yangi tahriri;

f) 2021-2022-yillarda respublikaning quyidagi “tajriba-sinov” hududlarida yer uchastkalaridan foydalanilishiga va kapital qurilish obyektlarining belgilangan maqsadiga qarab ko‘chmas mulk obyektlarining bozor qiymatiga asoslangan kadastr qiymatini aniqlash bo‘yicha eksperiment o‘tkaziladi:

turar va noturar (tijoriy) joylarga mo‘ljallangan ko‘chmas mulk obyektlari – Toshkent shahri Mirzo Ulug‘bek tumani; sanoat obyektlari – Navoiy viloyati Navoiy shahri; rekreatsion zonalar va alohida qo‘riqlanadigan hududlar obyektlari – Toshkent viloyati Bo‘stonliq tumani; qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan obyektlar – Buxoro viloyati Romitan tumani.

Moliya vazirligi 2021-2024-yillar davomida yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan ko‘chmas mulklarni baholashni o‘tkazish uchun soliq qo‘mitasining asoslantirilgan hisob-kitoblariga ko‘ra budjetidan mablag‘ ajratib boradi.

Bugungi kunda yer va mol-mulk solig‘ini optimallashtirish juda muhimdir, chunki O‘zbekiston iqtisodiyoti ushbu daromadlarga bog‘liq.

Agar ushbu soliqlar to‘g‘ri optimallashtiriladigan bo‘lsa, ya’ni yer va mol-mulk solig‘i birlashtirilib yagona ko‘chmas mulk solig‘i joriy etilsa, unda mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga erishish mumkin.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, o‘rganilayotgan soliq mahalliy toifaga kiradi, shu sababli u mahalliy hokimiyat vakillik organlari tomonidan belgilanishi, kiritilishi va bekor qilinishi shart.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mamlakatimizda yer solig‘ini undirishda bir qator muammolarga duch kelamiz.

Xususan, yer solig‘i yerdan foydalanish darajasi va tabiatiga unchalik ta’sir qilmaydi, dehqonchilikning eng samarali usullaridan foydalanishni rag‘batlantirmaydi. Suvni tejaydigan (tomchilatib, yomg‘irlatib, diskret va boshqa) sug‘orish texnologiyalari joriy etilgan yerlarni vaqtinchalik soliqdan ozod etish kabi turli imtiyozlarning qo‘llanilishi ushbu muammo yechimi bo‘la oladi.

Yer solig‘ining soliq to‘lovchi moliyaviy ahvoliga bog‘liq emasligi. Soliq to‘lovchining to‘lov qobiliyati bor-yo‘qligidan qat’i nazar, soliqlar undirilishi kerak. Soliqning ushbu jihati budjet mablag‘larini barqarorligini ta’minlasada, kezi kelganda soliq to‘lovchilarning imtiyozga muhtoj qatlamlari uchun og‘irlik qiladi.

Yer uchastkalaridan foydalanish bo‘yicha ma’lumotlar bazasida ba’zi yer egalari to‘g‘risidagi ishonchli ma’lumotlarning yo‘qligi yerni unumdorligini pasayishiga hamda yer maydonlaridan hujjatlarsiz yoki hujjatlarda ko‘rsatilganidan kattaroq hajmda foydalanishga olib keladi.

Umumiy mulk huquqida bo‘lgan qishloq xo‘jaligi yerlariga egalik huquqini ro‘yxatdan o‘tkazish bilan bog‘liq muammo, ayniqsa, dolzarbdir.

Ko‘chmas mulk davlat kadastrida to‘liq bo‘lmagan ma’lumotlar soliq solish obyektlarini shakllantirishga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Davlat reyestr ma’murlari va mahalliy hokimiyat organlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar samarali tarzda o‘rnatilmagan.

Hozirgi vaqtda mahalliy soliqqa tortishning past samaradorligining sabablaridan biri yer solig‘i bo‘yicha soliq bazasining nomukammalligidir.

Mintaqadagi yerlardan foydalanishda nazoratning yo‘qligi yer solig‘ini undirishga to‘sqinlik qilmoqda. Yerlarni soliqqa tortishning ushbu va boshqa bir qator muammolari ushbu sohadagi qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlarni yanada rivojlantirishni talab qiladi.

Mahalliy budjetlar daromad manbayi sifatida yer resurslarining rolini oshirish, shuningdek, yerlarni muhofaza qilish va yerdan oqilona foydalanishni rag‘batlantirish zarur.

Yuqoridagi muammolarning yechimi sifatida, hamda yer solig‘ining budjet daromadlaridagi ulushini oshirish maqsadida quyidagi tavsiyalar va takliflarni ishlab chiqdik:

- yerlarni kadastr qiymati asosida baholashni amalga oshirish, bosqichma-bosqich yer uchastkalarining kadastr qiymatini bozor qiymatiga yaqinlashtirish;
- yer solig‘i tushumlaridan kelib chiqadigan zararlarni kamaytirish maqsadida kadastrda ro‘yxatdan o‘tgan yer uchastkalari to‘g‘risida ishonchli va to‘liq ma’lumot bazasini shakllantirish;
- yer uchastkalari egalarini aniqlash;
- yer uchastkalariga bo‘lgan mulk huquqini ro‘yxatdan o‘tkazishda yordam ko‘rsatish;
- yerlarni davriy ravishda qayta baholash orqali soliq solinadigan bazani oshirish;
- foydalanilmayotgan yerlarni aniqlash yoki uning unumdorligini pasaytirish, shu bilan birga soliq organlari tomonidan yer uchastkalarini suiiste’mol qilish faktlari ustidan nazoratni va noqonuniy foydalanganlik uchun jazo choralari qo‘llashni kuchaytirish;
- yer solig‘i imtiyozlari ro‘yxati va ularni berish tartibini o‘zgartirish hamda qonunchilikda muayyan soliq imtiyozlari va imtiyozlarni taqdim etishning maqsadga muvofiqligi va samaradorligini tizimli va har tomonlama tahlil qilish mexanizmini yaratish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Зозуля В.В., Зуйков А.В., (2015). Классификация имущества для целей налогообложения. Международный бухгалтерский учет, 14(356), 41-50.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 29 iyundagi 5468-sonli “O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi farmoni.
3. Савина О.Н., (2013). Барьеры в нормативном правовом обеспечении механизма предоставления и применения налоговых льгот и преференций в России. Международный бухгалтерский учет, 19, 44-60.
4. Tulakov U.T., Ismoilov Sh.Sh., (2020). Bases of real estate taxation in Uzbekistan. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(6), 2109–2114. https://doi.org/10.37200/IJPR/V24I6/PR260200
5. Смит А., (1992) “Исследования о природе и причинах богатства народов” т.2. Пер. с англ. – М.: – 612с
6. Жид Ш., (1995) История экономических учений. – М.:Экономическое наследие, 120-124.
7. Черник Д.Г., (1996) Налоги: Учеб. Пособие, – М.: Финансы и статистика, – 312 с.
8. Altiyev A.S., (2018). Yer resurslaridan foydalanish tizimini tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish. i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 29 iyundagi 5468-sonli “O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi farmoni.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 3 dekabrdagi 6121- sonli “Resurs soliqlari va mol-mulk solig‘ini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi farmoni
11. Xudoyqulov S. K., To‘lakov U.T., (2020). O‘zbekistonda ko‘chmas mulkni soliqqa tortish tizimini takomillashtirish. Moliya va bank ishi ilmiy jurnali, 1(6), 151- 160.

MAMLAKATDA SOLIQ QARZDORLIGI VUJUDGA KELISHINING ASOSIY SABABLARI VA ULARNI QISQARTIRISH YO‘LLARI

Hakimov Ulug‘bek Furqat o‘g‘li
I.f.f.d. (PhD), Toshkent Kimyo xalqaro universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada soliqlarning iqtisodiyotidagi ahamiyati hamda bugungi kunda, mamlakatda soliq qarzdorligi qisqartirish dolzarb masalalardan biri ekanligi, shuningdek, soliq qarzdorligi paydo bo‘lishining asosiy sabablari tadqiq etilgan hamda mamlakatda soliq qarzdorligi vujudga kelishi yuzasidan xorijiy iqtisodchi olimlarning fikr-mulohazalari o‘rganilgan. Yuqorida qayd etilgan holatlardan kelib chiqib, mamlakatimizda soliq qarzdorligini qisqartirish, shu jumladan, uni samarali undirish amaliyotini yanada takomillashtirish borasida takliflar shakllantirilgan.

Kalit so‘zlar: Soliq organi, soliq to‘lovchilar, yuridik shaxslar, yakka tartibdagi tadbirkorlar, soliq yuki, soliq madaniyati, soliqlar va yig‘imlar, soliq qarzdorligi, davlat, budjet.

Abstract: This article examines the importance of taxes in the economy and the fact that tax debt reduction is one of the most urgent issues in the country today. So examines the main causes of tax debt. The opinions of foreign economists regarding the occurrence of tax debt in the country were also studied. Specific features of tax debt recovery in developed countries have been studied. Based on the above-mentioned circumstances, proposals and recommendations have been formulated to reduce tax debt in our country, including improving the practice of its effective collection.

Key words: Tax authority, tax payers, legal entities, individual entrepreneurs, tax burden, tax culture, taxes and fees, tax debt, state, budget.

Аннотация: В данной статье рассматривается значение налогов в экономике и то, что сокращение налоговой задолженности является одним из самых актуальных вопросов в стране на сегодняшний день. А также изучены основные причины возникновения налоговой задолженности и были изучены мнения зарубежных экономистов относительно возникновения налоговой задолженности в стране. Изучены особенности взыскания налоговой задолженности в развитых странах. На основании вышеизложенных обстоятельств внесены предложения по сокращению налоговой задолженности в нашей стране, в том числе по дальнейшему совершенствованию практики ее эффективного взыскания.

Ключевые слова: Налоговый орган, налогоплательщики, юридические лица, индивидуальные предприниматели, налоговое бремя, налоговая культура, налоги и сборы, налоговая задолженность, государство, бюджет.

KIRISH

Mamlakatimiz iqtisodiyotini yanada rivojlantirish va makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash bilan bir paytda soliq tizimini, xususan, soliq ma’muriyatchiligini isloh etish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etadi. Hammaga ma’lumki, soliq tizimini isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlari, mamlakatimizda soliq ma’muriyatchiligini samarali tashkil etishning zamonaviy usul va shakllardan keng foydalangan holda rivojlantirish hamda ilg‘or xorij tajribasidan respublikamizda foydalanish masalalari hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Xususan, soliq yukini izchillik bilan kamaytirish, soliq solish tizimini soddalashtirish va soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish iqtisodiyotni jadal rivojlantirish hamda mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini yaxshilashning eng muhim shartlari hisoblanadi [1]. Shuningdek, respublikada “...soliq yukini kamaytirish va soliqqa tortish tizimini soddalashtirish siyosatini davom ettirish, soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish va tegishli rag‘batlantiruvchi choralarni kengaytirish” ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilab berilgan [2]. Mazkur vazifa ijrosini ta’minlashda yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning soliq qarzdorligini to‘lash muddatini kechiktirish imkoniyatini berish tartibini takomillashtirish, soliq yukini pasaytirish yo‘li bilan tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash, jismoniy shaxslarning soliq qarzdorligini uning mol-mulki hisobidan undirish tartibini soddalashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalarni asoslash hamda soliq qarzdorligini undirish mexanizmini takomillashtirish soliq organining eng muhim vazifalaridan biri sifatida belgilab qo‘yilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mamlakatda soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari, shu jumladan, soliqlar va yig'imlar bo'yicha qarzdorlik summalari, ularni qisqartirishning ayrim masalalari qator xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan ilmiy ishlarida tadqiq qilingan. Jumladan, xorijiy iqtisodchi olim M. Orlovaning fikriga ko'ra, "Soliq qarzdorligi tushunchasiga har xil manbalarda turli xil ta'rif berilgan. Bugungi kunda soliq qarzdorligiga soliqlar va yig'imlar, sug'urta to'lovlari hamda ular bo'yicha hisoblangan foiz (penya)lar, soliq to'g'risidagi qonunchilik normalarini buzganlik uchun qo'llaniladigan moliyaviy jarimalar bo'yicha bajarilmagan majburiyatlar kiradi. Agar Rossiya Federatsiyasi Soliq kodeksida keltirilgan normalardan kelib chiqadigan bo'lsak, soliq qarzdorligi 2 guruhga bo'linadi:

- joriy soliq qarzdorligi;
- soliq tekshiruvlari natijasida aniqlangan soliq qarzdorligi [3].

Xorijlik olim Michael Brostek esa o'z tadqiqotida soliq qarzini undirilishining samaradorligini oshirish bo'yicha quyidagi omillarini ko'rsatib o'tadi, xususan:

- mamlakatda soliq qarzi summalarining paydo bo'lishiga yo'l qo'yishni oldini olishda soliq yukini pasaytirish kelajakda soliq qarzdorliklari kamayishiga olib keladi;
- muddatida to'lanmagan soliqlar va yig'imlarni undirish strategiyasi faqat belgilangan davr mobaynida o'z ijobiy natijasini beradi [4].

Bundan tashqari, I.G. Vinoxodova ham o'zining ilmiy ishida soliq qarzlarini undirishda soliq qarzi mavjud xo'jalik yurituvchi subyektlardan mol-mulklarini xatlash jarayonini ko'paytirish samarali natija berishini aytib o'tadi [5].

Mazkur masala bo'yicha ilmiy tadqiqot olib borgan xorijiy iqtisodchi olim A. Podkolzinning fikriga ko'ra, quyidagi omillar ta'siri natijasida soliq qarzdorligi vujudga kelishi mumkin:

- ijtimoiy-siyosiy va tarixiy;
- tashkiliy-huquqiy;
- iqtisodiy [6].

Mahalliy iqtisodchi olimlarimiz A. Tangriqulov va Sh. Toshmatovlar fikricha, soliq qarzlarining nazariy jihatdan vujudga kelish sabablari quyidagilardan iborat:

- o'zaro moliya-xo'jalik munosabatlarida bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan to'lov intizomiga rioya qilmaslik va buning oqibatida debitorlik, kreditorlik qarzlarining oshib ketishi;
- moliya-xo'jalik faoliyatini rejalashtirish va bu faoliyatni noto'g'ri boshqarish;
- xo'jalik yurituvchi subyektning mahsulotiga (bajarilgan ish va xizmatlarga) iste'mol talabining keskin o'zgarishi;
- ishlab chiqarilgan mahsulotning (bajarilgan ish va xizmatlarga) sifati buyurtmachining yoki bozor talabiga javob bermasligi [7].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotni amalga oshirishda ilmiy mushohada, statistik kuzatish, statistik grafiklardan foydalanilgan holda qiyosiy tahlil, ma'lumotlarni guruhlash, absrakt-mantiqiy fikrlash, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi. Ushbu tadqiqot usullari soliq ma'murchiligini, xususan soliq qarzdorligini qisqartirish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha xulosa va takliflarni shakllantirishda xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yuqorida qayd etilgan iqtisodchi olimlarning soliq qarzdorligi hamda uni paydo bo'lishi yuzasidan bildirgan fikr-mulohazalariga qo'shilgan holda yana shuni aytib o'tish kerakki, soliq qarzdorligini vujudga kelishida har bir davlatning tarixi, dini, mentaliteti va boshqa bir-biridan farq qiladigan o'ziga xos xususiyatlari ham sabab bo'lishi mumkin. Shuningdek, davlatdagi siyosiy beqarorliklar uning iqtisodiyotini izdan chiqarish, qolaversa iqtisodiyotning sikllarida "iqtisodiy tushish" yoki inqiroz davrida ham soliq qarzdorligini o'sish ehtimoli katta bo'ladi. Bundan tashqari, tadbirkorlik faoliyatini yuritishni yaxshi bilmaslik va korporativ soliq menejmentini tushunmaslik, tadbirkorlardagi uquvsizlik va bilimsizlik tufayli ham soliq qarzdorligi paydo bo'lishi tabiiy hol. Muallif fikricha, quyidagi bir nechta omillarga asosan soliq qarzdorligi paydo bo'lishi mumkin:



1-rasm: Soliq qarzdorligining paydo bo'lishiga sabab bo'luvchi omillar

Soliq madaniyati – bu soliq munosabatlari sohasida soliq to'lovchilar va soliq organlarini o'zini tutishining belgilangan normalari, qoidalari va tamoyillari majmuyi sifatida belgilanishi mumkin. Soliq to'lovchilarning soliq madaniyati esa ularning davlat va jamiyat uchun soliq to'lash muhimligini anglashidan shakllanadi.

Soliq to'lovchida soliq madaniyati shakllanishida 2 ta muhim omil ta'sir ko'rsatadi:

- soliq qonunchiligi to'g'risida yetarli darajada ma'lumotga ega bo'lish;
- soliq to'lashni majburiyat deb qabul qilish.

Agar soliq to'lovchi o'z faoliyati uchun zarur bo'lgan soliq qonunchiligini yetarli darajada bilsa, u o'z soliq majburiyatlarini oqilona bajaradi. Shuningdek, soliq to'lovchi soliq majburiyatlarini bajarishni davlat oldidagi o'zining qarzdorligi deb tan olsa, bu ham soliq to'lovchining soliq madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda ko'pgina soliq to'lovchilar soliq, soliq tizimi va soliqqa tortish asoslari bo'yicha yetarli bilimga ega bo'lmaganliklari soliq qarzlarini vujudga kelishiga sabab bo'lmoqda.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy munosabatlarining har qanday jarayonlari sezilarli darajada savodxonlik va iqtisodiy madaniyatni, xususan, jamiyatning soliq madaniyatini egallashini talab qiladi. Ammo bu juda murakkab va ko'p bosqichli jarayon bo'lib, uni bir vaqtning o'zida amalga oshirib bo'lmaydi. Uni amalga oshirishga turli omillarni hisobga olgan holda rejali yondashish kerak.

Soliq to'lovchilar tomonidan ma'lum bir davr oralig'ida to'lagan soliqlar va yig'imlar summasining o'sha davrda realizatsiya qilingan tovarlar (bajarilgan ish, ko'rsatilgan xizmatlar) summasiga bo'lish orqali aniqlanadi. Soliq yuki qancha yuqori bo'lsa, mamlakatda soliq qarzdorligining ko'payishi barobarida yashirin iqtisodiyotning ulushi ortishiga, shuningdek, xorijiy investorlarning mamlakatga investitsiya kiritishida ham salbiy ta'sir ko'rsatishiga sabab bo'ladi, aksincha, agar soliq yuki juda past bo'ladigan bo'lsa, budjetga tushum kamayib ketishi hamda buning oqibatida davlat o'zining zaruriy xarajatlarini moliyalashtira olmasligi mumkin. Shuning uchun, soliq yukini optimal "nuqtada" ushlab turish har bir davlatning siyosiy-iqtisodiy muammolaridan biri hisoblanadi. Soliq to'lovchilarga tushayotgan soliq yukini soliq to'lovchilarda o'tkazilgan sayyor soliq tekshiruvi misoli tariqasida quyida ko'rib chiqamiz:

1-jadval: Soliq to'lovchilarda o'tkazilgan sayyor soliq tekshiruvlarida Soliq kodeksining 221-moddasi qo'llanilishi tahlili [8]

Yillar	Sayyor soliq tekshiruvi		shundan:				Jami soliq qarzdorligi	
			Undirilgan		Undirilmagan			
	soni	summasi	soni	summasi	soni	summasi	soni	summasi
2020-y.	2 307	7,8	1 872	6,2	435	1,6	435	1,6
2021-y.	13 240	42,3	12 218	36,6	1 022	5,7	1 022	5,7

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2020 va 2021-yillarda soliq organlari tomonidan o'tkazilgan sayyor soliq tekshiruvlarida Soliq kodeksining 221-moddasiga asosan qo'llanilgan moliyaviy jarima summalarining o'rtacha 82 foizi undirilgan. Undirilmay qolgan summa esa, albatta, soliq qarzdorligi oshishiga olib kelgan.

Ushbu undirilmay qolgan summa hududlar kesimida tahlili qilinganida, undirilmay qolgan moliyaviy jarima summasining asosiy qismi ya'ni 77 foizi tumanlar (boshqa aholi punktlariga)ga, 21 foizi viloyat markazlariga hamda 2 foizi Toshkent shahriga to'g'ri kelmoqda. Bundan xulosa qilish mumkinki, bir turdagi jarima ya'ni soliq yuki hududlar kesimida har xil ta'sir qilmoqda.

Sababi Toshkent shahrida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektiga 5 mln. so'mlik moliyaviy jarima iqtisodiy jihatdan sezilmasligi mumkin, biroq tumanlar (boshqa aholi punktlari)da faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlari uchun mazkur summaning qo'llanilishi uning faoliyatini to'xtatishi darajasigacha olib kelishi mumkin.

Soliq qonunchiligi bu – davlatning soliq huquqini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlari majmuyidir. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq "Soliq to'g'risidagi qonunchilik ushbu Kodeksdan va qabul qilinishi ushbu Kodeksda to'g'ridan to'g'ri nazarda tutilgan boshqa normativ-huquqiy hujjatlardan iborat" – ekanligi ko'rsatilgan. Soliq qonunchiligida, soliq majburiyatlari, ularning vujudga kelishi, o'zgarishi va bekor qilinishi bilan bog'liq munosabatlar tartibga solinadi. Shuningdek, unda soliq turlarini, soliq stavkalarini, soliqlarni undirish, shu jumladan majburiy undirish va soliq imtiyozlarni berish tartibi belgilanadi [9].

Agar mamlakatda soliq qonunchiligi mukammal ishlab chiqilmagan bo'lsa, soliq to'lovchilar tomonidan soliq qonunchiligini chetlab o'tish holatlari ko'payadi va buning natijasida soliq qarzdorligi paydo bo'lishni boshlaydi.

Soliq nazorati soliq organi tomonidan soliq to'lovchilarning soliq qonunchiligiga rioya qilinishida soliqlar va yig'imlarni belgilangan muddatda hamda to'liq hajmda kelib tushishini ta'minlashda yoxud soliq qarzdorligi mavjud soliq to'lovchilarning qarzdorlik summalarini majburiy undirishda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar tushuniladi. Soliq nazorati soliq organi tomonidan yetarli darajada amalga oshirilmasligi ham mamlakatda soliq qarzdorligi ulushini ko'payishiga olib keladi.

Soliq to'lashdan qochadigan yoki soliq to'lashdan qasddan bo'yin tovlaydigan tadbirkorlik subyektlari deyarli har bir davlatda amaliyotda uchrab turadi. Bugungi kunda soliq organi tomonidan berilgan ma'lumotga ko'ra, soliq to'lamaslik xavfi yuqori bo'lgan korxonalar soni 3688 tani tashkil etmoqda [10]. Har xil g'ayriqonuniy yo'llar orqali soliq to'lashdan bo'yin tovlaydigan soliq to'lovchilar sonining oshishi mamlakatda soliq qarzdorligi ulushining oshishiga hamda buning oqibatida davlat budjetga tushadigan soliq tushumning keskin kamayishiga olib kelishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Muallif fikricha mamlakatda soliq qarzdorligi ulushi qisqartirishda quyidagi takliflar o'z samarasini beradi:

- soliq to'lovchilar tomonidan budjetga to'lanadigan soliqlarni "online" (respublika, viloyatlar va tumanlar kesimida) kuzatish imkoniyatini yaratish maqsadga muvofiq. Bu soliq to'lovchilarning soliq madaniyatini rivojlantirishiga, shuningdek, soliq organiga ishonchni oshirishga va soliqlarni o'z vaqtida to'lanishiga sabab bo'ladi;
- soliq nazoratini yanada kuchaytirish, kelgusida soliq qarzdorligi paydo bo'lishini oldini oladi;
- soliq to'lashdan bo'yin tovlayotgan shaxslarga nisbatan keskin choralar ko'rilishi ham mamlakatda soliq qarzdorligi ulushini qisqartirishda xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yildagi "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida"gi PF-5468-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni.
3. Orlova M.E., Nasyrova V.I. and Salmina S.V. Tax debt and ways of reducing it. // 3C TIC. Cuadernos de desarrollo aplicados a las TIC. – 2019.
4. Michael Brostek (2009). Tax debt collection IRS needs to better manage the collection notices sent to individuals. // United States government Accountability office. P-27.
5. Vinoxodova I.G. (2019) Sovershenstvovanie praktiki vzыskaniya zadoljennosti organizaцiy po nalogam i sboram. // Nauchnoe statya.-c.22.
6. Podkolzin A.G. (2016) Jurnal "Rossiyskoe predprinimatelstvo". –№2. –c. 74.
7. Tangriqulov A va boshq. (2010) Soliq qarzi va uni undirish. O'quv qo'llanmasi. – T.: "Yangi asr avlodi" nashriyoti. –b. 51.
8. U.F. Hakimov. Soliq qarzini undirish amaliyoti va uni takomillashtirish yo'nalishlari. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati 2023-yil.
9. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 2-moddasi. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020-yil.
10. https://www.soliq.uz/activities/tax-risk-analysis.

MULK QIYMATINI BAHOLASH TUSHUNCHASI, BAHOLASH OBYEKTLARI, BAHOLANADIGAN QIYMAT TURLARI

Izbosarov Boburjon Bahriddinovich
I.f.d, professor

Yoqubboyev Ilhomjon G‘ulomjon o‘g‘li
Toshkent moliya instituti, budjet hisobi va g‘aznachilik fakulteti, 3-kurs BBI-90 guruh talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada mulk qiymatini baholash tushunchasi, baholash obyektlari (ko‘chmas mulk, ko‘char mulk, qimmatli qog‘ozlar, zargarlik buyumlari, biznes baholash va hokazolar), baholanadigan qiymat turlari va shu bilan birga baholash mulkka qo‘yiladigan baholar haqida ma’lumotlar keltirib o‘tilgan. Ushbu maqolada hozirgi kunda rivojalanayotgan sohalardan biri – baholash ishi yo‘nalishiga mos keluvchi ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Kalit so‘zlar: baholash, baho, ashyolar, intellektual mulk obyektlari, bozor qiymati, adolatli qiymat, investitsiya qiymati, sinergetik qiymat, tugatish qiymati, yo‘q qilish qiymati, almashtirishning qoldiq qiymati, takror ishlab chiqarish qoldiq qiymati, maxsus qiymat, sug‘urtaga oid qiymati, soliqqa oid qiymat.

Abstract: This article provides information on the concept of property value assessment, objects of assessment (real estate, movable property, securities, jewelry, business valuation, etc.), types of value to be assessed, and, therefore, assessments to be made on the property. This article has been carried out scientific research corresponding to the direction of the assessment work, which is considered one of the areas that are currently developing.

Key words: valuation, valuation, items, intellectual property objects, market value, fair value, investment value, synergistic value, termination value, disposal value, replacement residual value, reproduction residual value, special value, insurance-related value, tax-related value.

Аннотация: В данной статье приводится понятие оценки стоимости имущества, информация об объектах оценки (недвижимость, движимое имущество, ценные бумаги, ювелирные изделия, оценка бизнеса и т.д.), о видах оцениваемой стоимости, а вместе с тем и об оценках, по которым проводится оценка имущества. Настоящая статья посвящена научным исследованиям, соответствующим направлению оценочной работы, которое в настоящее время считается одной из развивающихся областей.

Ключевые слова: оценка, предметы, объекты интеллектуальной собственности, рыночная стоимость, справедливая стоимость, инвестиционная стоимость, синергетическая стоимость, ликвидационная стоимость, ликвидационная стоимость, остаточная стоимость замены, остаточная стоимость воспроизводства, специальная стоимость, страховая стоимость, налоговая стоимость.

KIRISH

Mamlakatimizda bozor iqtisodiyoti islohotlari bosqichma-bosqich olib borilishi, mulk shakllari o‘zgarishi jarayonida shakllangan mulk bozorida baholash faoliyatining shakllanishi va rivojlanishiga bozor munosabatlari taraqqiyoti sabab bo‘ldi. Demak, davlat bozor iqtisodiyoti tizimiga o‘tishi bilan tasaruffidagi mol-mulkni xalqqa, jamoalarga, hamda individual shaxslarga bera boshladi. Buning negizida esa ushbu mulkni baholash va uni xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish zarurati paydo bo‘ldi. Ayni damda ushbu zarurat mulk qiymatini baholash faoliyatining rivojlanishiga asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Baholash tushunchasi keng qamrovli tushuncha bo‘lib, mulkni, ya’ni bino va inshootlarni, mashina va uskunalarni, transport vositalarini, qolaversa, insonning salohiyatidan tortib, yer yuzidagi barcha narsalarga baho berishdan iborat.

Metod. Vatanimiz olimlaridan I.Yu. Abduraxmanov, R.X. Alimov, B.B. Berkinov, K.B. Ganiyev, G.I. Ganiyeva, A.N. Kravchenko, B.Yu. Xodiyev, N. To‘ychiyev, A.Mirxoshimov, K. Plaxtiy, Sh. Shoha’zamiy [4] va boshqalarning ishlarida ko‘chmas mulk qiymatini baholashning nazariy-metodologik asoslari va baholashning daromadli, xarajatli va qiyosiy yondashuvlari tahlil qilingan va baholash haqida hisobot tayyorlashning metodologik asoslari ko‘rib chiqilgan. Iqtisodchi olimlarning tahlillariga ko‘ra, ko‘chmas mulk obyekti narxlari dinamikasi talab va taklifning o‘zaro nisbati va shu kabi boshqa bozor qonunlari ta’siri ostida shakllanadi. Turli toifadagi ko‘chmas mulk, xususan, noturar joylar qiymatini aniqlash baholanayotgan obyektning o‘ziga xos xususiyatlari ko‘pligi, shu bilan birga mulkni baholashga ta’sir ko‘rsatuvchi turli omillar bilan belgilanuvchi g‘oyat murakkab va ko‘p mehnat talab qiluvchi jarayon hisoblanadi [7].

Natijalar. Hozirgi kunda baholash sohasini rivojlantirish hamda uni yanada takomillashtirish ishlari olib borilmoqda. Project.gov.uz saytidagi (23.12.2023 holatiga ko‘ra) e’longa ko‘ra “Baholash faoliyati to‘g‘risida”gi qonun tahrirlanib, hozirda 9-bob (avvalgi tahrirda boblarga ajratilmagan edi), 57-moddani (avvalgi tahrirda 22-moddadan iborat edi) tashkil qilmoqda. Xususan, bu qonunning 6-bobi, 29, 30 va 31- moddalarida baholash obyektlari, baholash obyektlarining qiymat turlari hamda baholash obyektining bozor qiymati to‘g‘risida tegishlicha ma’lumotlar keltirib o‘tilgan[1].

“Baholash” (appraise) fe’li, bir necha xil ma’noga ega. U narxni aniqlash, qiymatni belgilash, miqdorni baholash, biror bir narsaning sifati qadr-qimmati haqida xulosa chiqarish kabi ma’nolarni anglatadi.

Baholovchilar amal qiladigan baholash jarayoni barcha ma’nolarni qamrab olishi tufayli baholovchi nafaqat baholanayotgan obyektning qimmatini aniqlaydi, balki qiymatni aniqlash uchun miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlarini belgilaydi.

“Baho” (appraisal) atamasi ham qo‘yilgan shart va maqsad mazmuniga qarab bir necha ma’noga ega bo‘lishi mumkin. U baholash bo‘yicha harakatni, yoki qiymat haqidagi xulosani yoxud tadqiqotlar natijalari taqdim etilgan hisobotni anglatishi mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, baholash faoliyatida qo‘llaniladigan baho va baholash atamasiga quyidagi ta’rif qabul qilindi:

Baholash – umumiy qabul qilingan tartiblarga mos keluvchi va baholashning umumiy qabul qilingan tamoyillarining qo‘llanilishi bilan bajariladigan, tegishli tadqiqot yo‘li bilan qiymatni belgilash san’atidir;

Baho – bu obyektni batafsil o‘rganishga asoslangan qiymat haqidagi fikrdir.

Baholash obyektlari jumlasiga quyidagilar kiradi:

- alohida moddiy obyektlar (ashyolar);
- shaxsning mol-mulkini tashkil etuvchi ashyolar majmuyi, shu jumladan muayyan turdagi (ko‘char yoki ko‘chmas) mol-mulk;
- mol-mulkka yoki mol-mulk tarkibidagi ayrim ashyolarga mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlar;
- talab qilish huquqlari, majburiyatlari (qarzlar);
- ishlar, xizmatlar, axborot;
- intellektual mulk obyektlari va qonunchilikka fuqarolik muomalasida bo‘lishi mumkinligi belgilangan boshqa fuqarolik huquqlari obyektlari.

Ashyolar (mulk) – baholash maqsadlari uchun ko‘chmas va ko‘char mulk (ashyolar)ga ajratiladi.

Ko‘chmas ashyolar (ko‘chmas mulk) jumlasiga yer uchastkalari, yer osti boyliklari, alohida ajratilgan suv obyektlari va yer bilan uzviy bog‘langan barcha narsalar, ya’ni yerga birlashgan hamma obyektlar, yer usti va yer osti qurilmalari, inshootlarga uzoq muddatga birlashtirib qo‘yilgan, biriktirib qurilgan, belgilangan maqsadiga nomutanosib zarar yetkazmagan holda joyidan ko‘chirish mumkin bo‘lmagan obyektlar, shu jumladan o‘rmonlar, ko‘p yillik dov-daraxtlar, binolar, inshootlar kiradi.

Ko‘chmas mulkka kirmaydigan ashyolar, shu jumladan qimmatli qog‘ozlar ko‘char mulk, deb tan olinadi.

Intellektual mulk jumlasiga quyidagilar kiradi:

1. Intellektual faoliyat natijalari:

- fan, adabiyot va san’at asarlari;

1 project.gov.uz

- ijrolar, fonogrammalar va namoyish etuvchi tashkilotlarning ko‘rsatuvlari;
- elektron hisoblash mashinalari uchun dasturlar va ma’lumotlar bazalari;
- ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari;
- seleksiya yutuqlari;
- oshkor etilmagan axborot, shu jumladan ishlab chiqarish sirlari (nou-xau);

2. Fuqarolik muomalasi qatnashchilari, tovarlar, ishlar va xizmatlarni shaxsiylashtirish vositalari:

- firma nomlari;
- tovar belgilari (xizmat ko‘rsatish belgilari);
- tovar chiqarilgan joylar nomi;

3. Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda boshqa intellektual faoliyat natijalari va fuqarolik muomalasi qatnashchilari, tovarlar, ishlar va xizmatlarni shaxsiylashtirish vositalari.

Ashyoviy huquqlar (mulk huquqi) – ashyoviy huquqlarga ko‘char va ko‘chmas mulk huquqlari, shu jumladan: mulk huquqi, xo‘jalik yuritish huquqi, operativ boshqarish huquqi, ishonchli boshqarish huquqi, merosga umrbod egalik qilish huquqi, doimiy (muddatsiz) foydalanish huquqi, ijara, ipoteka, servitutlar kiradi. Ko‘chmas mulkka huquqlarni baholash maqsadi uchun faqat ularning yuzaga kelishi, boshqa shaxsga o‘tishi va bekor qilinishi davlat ro‘yxatidan o‘tishi sharti bilan qayd etiladi. Ko‘char ashyolarga huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish talab etilmaydi, qonun hujjatlarida maxsus belgilangan hollar bundan mustasno.

Majburiyatlar – shartnomadan kelib chiqqan holda zarar yetkazilganligi oqibatida yoki fuqarolik qonunchiligida belgilangan boshqa asoslar tufayli muayyan harakatlarni sodir etish yoki sodir etmaslik bo‘yicha, shu jumladan mulkni berish, ishlarni bajarish, pul berish, shuningdek, mulkni berish (mulkni yollash) bo‘yicha bir shaxsning majburiyati yoki boshqa shaxsning talab huquqi baholash obyekti bo‘lishi mumkin.

Baholash maqsadida korxona (biznes) – tadbirkorlik faoliyatini, odatda, tashkilot (yuridik shaxs) faoliyati doirasida amalga oshirish uchun foydalaniladigan mulkiy majmuani anglatadi.

Korxona (biznes) tarkibiga uning faoliyati uchun mo‘ljallangan barcha mulk turlari, shu jumladan, ko‘char, ko‘chmas mulk, nomoddiy aktivlar, mulk huquqlari, talab huquqi, majburiyatlar va kapital kiradi.

Ko‘char va ko‘chmas ashyolar, shuningdek, ashyoviy huquqlar hamda talab huquqi basharti avvalgi voqea-hodisalar natijasida ular tashkilot boshqaruvida bo‘lsa hamda kelajakda ulardan tashkilot uchun iqtisodiy foydalar oqimi kutilayotgan bo‘lsa, tashkilot aktivlari hisoblanadi va tashkilotning moliyaviy (buxgalteriya) hisobotida aks ettiriladi.

Baholash obyekti qiymatining turlari baholash maqsadlariga qarab baholash obyekti xususida bozor qiymati yoki bozordan farqlanuvchi qiymat qo‘yiladi. Baholash obyekti qiymati turlarining qo‘llanish sohasi va ularning farqlanuvchi xususiyatlarini baholash standartlari bilan belgilanadi. Baholash obyektini baholash pul shaklida amalga oshiriladi.

Qiymat turlariga quyidagilar kiradi:



1-rasm: Qiymat turlari[2]

2 Qiymat turlari.

“Bozor qiymati” tushunchasiga O‘zbekiston Respublikasining “Baholash faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunida quyidagicha ta’rif berilgan: “Baholash obyektining bozor qiymati asosida ehtimoliy narx tushunilib, unga ko‘ra mazkur baholash obyektining ochiq bozorda raqobat sharoitida, bitimning taraflari barcha zarur axborotga ega bo‘lgan holda o‘z manfaatlari yo‘lida oqilona va ixtiyoriy ravishda harakat qiladi, bitim narxining baland-pastligida esa biron-bir favqulodda holatlar, shu jumladan taraflardan birining ushbu bitimga qo‘shilish majburiyati aks etmaydi” [1].

Agar biron-bir baholash obyektini baholashda majburiy o‘tkazish talabi mavjud normativ hujjatda yoki baholash obyektini baholash to‘g‘risidagi shartnomada qiymatning aniq turi ko‘rsatilgan bo‘lmasa, mazkur obyektning bozor qiymati belgilanishi lozim. Mazkur qoida normativ hujjatda baholash obyekti qiymatining turini aniqlovchi O‘zbekiston Respublikasining “Baholash faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunida yoki O‘zbekiston Respublikasining Yagona milliy baholash standartida nazarda tutilmagan atamalarda foydalanilgan taqdirda ham qo‘llanishi kerak [5].

Adolatli qiymat deganda aktiv, aniq belgilangan va barcha zarur axborotga ega bo‘lgan manfaatdor taraflar o‘rtasida ayirboshlanganda (mulk sotilganda yoki qarzdorlik hisobdan chiqarilganda) ushbu taraflarning manfaatlarini aks ettiradigan, hisoblab chiqiladigan – baholanadigan pul miqdori tushuniladi.

Adolatli qiymatni aniqlash qat’iy belgilangan taraflar o‘rtasida ushbu taraflarning har biri bitimdan ko‘radigan afzalliklari yoki salbiy tomonlarini hisobga olganda adolatli bo‘ladigan xuddi shunday pul miqdorini baholashni talab qiladi.

Bunda bozor qiymatini aniqlashda, odatda, umumiy hisobda bozor ishtirokchilariga xos bo‘lmaydigan yoki ular foydalana olmaydigan barcha afzalliklar yoxud salbiy holatlar hisobga olinmaydi.

Adolatli qiymat bozor qiymatiga qaraganda ancha kengroq tushuncha bo‘lib, garchi taraflar o‘rtasidagi bitimda adolatli baho bozordagi ehtimoliy bahoga teng bo‘lsa-da, shunga qaramay, shunday vaziyatlar yuzaga kelishi mumkinki, adolatli qiymatni aniqlashda bozor qiymatini aniqlashda e’tiborga olinmaydigan jihatlar, masalan, moddiy manfaatdorlikni uyg‘unlashtirganda yuzaga keladigan sinergetik qiymatning ba’zi bir jihatlari e’tiborga olinishi zarur bo‘ladi.

Investitsiya qiymati deganda aktivning aniq egasi yoki potensial egasi uchun ularning xususiy investitsiyaviy yoki operatsion (xo‘jalik) maqsadlari hisobga olinadigan qiymat tushuniladi.

Investitsiya qiymati subyektiv o‘ziga xos baholash bazasidir. Aktiv qiymati sohibi uchun uni boshqa tarafga sotganda ehtimoliy olinuvchi miqdorga teng bo‘lsa-da, ushbu baholash bazasida iqtisodiy subyekt aktivga egalik qilishdan va tegishlicha aktiv bilan hech qanday almashuv mo‘ljallanmasdan erishiladigan foydalar aks ettiriladi.

Investitsiya qiymatida iqtisodiy subyektning moliyaviy holati va baholashni bajarishdan moliyaviy maqsadlari aks ettiriladi. Bu qiymatdan ko‘pincha investitsiyalar samaradorligini aniqlash uchun foydalaniladi.

Sinergetik qiymat ikki va undan ortiq aktivlar yoki ishtirokchilikdagi ulushlarning birlashtirilishi natijasida qiymatning umumiy yig‘indisi summasi ularning alohida-alohida olingan qiymatlari summasidan ortiq bo‘lib chiqqanda hosil bo‘ladi.

Faqat aniq xaridor sinergik samarani qo‘lga kiritsa, sinergik qiymat bozor qiymatidan farqlanadi, chunki sinergik qiymatda aktivning faqat aniq xaridor uchun qimmatga ega bo‘lgan aniq tavsiflari aks etadi.

Tugatish qiymati deganda aktiv yoki aktivlar guruhini qismlarga bo‘lib-bo‘lib sotib yuborganda olinishi mumkin bo‘lgan summa tushuniladi. Tugatish qiymatida aktivlarni sotishga tayyorlash xarajatlari hamda sotish bo‘yicha xarajatlarini hisobga olish kerak.

Tugatish qiymatini baholashni o‘tkazishning quyidagi shartlaridan foydalanib aniqlash mumkin:

- odatiy marketing davrida tartibga solingan bitim;
- marketing davrini qisqartiruvchi majburiy bitim.

Baholovchi baholash amaliyotining mo‘ljallanayotgan shart-sharoitlarini ko‘rsatishi shart.

Yo‘q qilish qiymati – baholash obyektining uni tashkil etgan materiallarning bozor qiymatiga teng qiymatini anglatadi. Bu qiymat yalpi yoki sof qiymat (sotish xarajatlarini chegirgan holda) shaklida ifodalanishi mumkin.

Almashtirishning qoldiq qiymati deganda baholash obyektiga o‘xshash obyektni yaratish xarajatlarini baholash sanasida mavjud bozor narxlaridagi baholash obyektining eskirishini hisobga oluvchi qiymati tushuniladi.

Takror ishlab chiqarish qoldiq qiymati deganda baholash obyekti bilan bir xil obyektni bir xil materiallar va texnologiyalardan foydalangan holda yaratishga sarflanuvchi, baholashni o‘tkazish sanasida mavjud bozor narxlarida o‘lchanadigan, baholash obyektining eskirishini hisobga oluvchi xarajatlar summasi tushuniladi.

Maxsus qiymat bozor qiymatidan ortiq summa bo‘lib, faqat maxsus xaridor (alohida manfaatga ega bo‘lgan) uchun qiymatga ega bo‘lgan aktivlarning muayyan tavsiflarini aks ettiradigan qiymat tushuniladi.

Sug‘urtaga oid qiymat mulkning shartnoma yoki sug‘urta polisi qoidasida nazarda tutiladigan qiymatni anglatadi. Bunda shartnoma yoki sug‘urta polisi imzolangan kundagi sug‘urta maqsadlari uchun mulkning haqiqiy qiymati aniqlanadi.

Soliqqa oid qiymat deganda amaldagi soliq qonunchiligi asosida hisoblab chiqiladigan qiymat tushuniladi.

Bozor qiymatidan farqlanuvchi baholash bazalari asosida bajarilgan barcha baholash natijalari har xil farazlarni talab qiladi. Ular baholovchi tomonidan aniq identifikatsiya qilinishi va baholash haqidagi hisobotga kiritilishi lozim. Ba'zi holatlarda baholashning tegishli muqobil bazasini ta'minlashning imkoni bo'lmaydi, bunday hollarda baholovchi baholashga oid vazifani o'zgartirishi lozim.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Mulk qiymatini baholash, bir mulkning moliyaviy, iqtisodiy, ilmiy, ijtimoiy va boshqa ko'rsatkichlaridan kelib chiqqan qiymatlarini aniqlash jarayoni hisoblanadi. Bu baholash jarayoni moliya vaziri, moliyaviy institutlar, moliyaviy maslahatchilar, ekspertlar va boshqa mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi. Baholash obyektlari, moliyaviy, iqtisodiy va boshqa moliyaviy resurslarni o'z ichiga olgan mulk bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, moliyaviy baholash jarayonida biznes, transport, kommunikatsiya, energiya va boshqa sohalardagi infratuzilma obyektlari ham baholashga kiradi. Xususan, mulk qiymatini baholash usullari va kriteriyalari mamlakatlar, moliyaviy organlar va O'zbekistonning qonun hujjatlari asosida belgilanadi. Baholash jarayonida obyektivlik, nizomni buzmaslik, ma'lumotlarga kirish, qiymatni to'g'ri belgilash va boshqa tamoyillarga asosan baholanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Baholash to'g'risida"gi qonuni. 19.08.1999-yildagi 811-I-son. https://lex.uz/ru/docs/-24703.
2. Shoha'zamiy Sh.Sh. "Bozor asoslari" darslik. –T.: "Fan-texnologiya", 2012.
3. Shoha'zamiy Sh.Sh. "Mulk nazariyasi, qiymati va narxi". Monografiya. –T.: "Fan-texnologiya", 2012. – 264 bet.
4. Shoha'zamiy Sh.Sh. "Mulk nazariyasi, qiymati va narxning nazariy asoslari," tanlangan ma'ruzalar –T.: "Iqtisod-moliya", 2015.
5. O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi direktorining buyrug'i, 04.06.2020-yilda ro'yxatdan o'tgan, ro'yxat raqami 3239. https://lex.uz/ru/docs/-4842496.
6. Yoqubboyev Ilhomjon G'ulomjon o'g'li. Models and methods for increasing the efficiency of innovative research: xalqaro ilmiy konferensiyaning ilmiy ishlari to'plami (11 October, 2023). – Berlin., -2023. 27-soni. –215 bet. https://interonconf.org/index.php/ger/article/view/7299.
7. Xasanova Shaxnoza Toxir qizi. Noturar joylar qiymatini baholashning metodologik va amaliy masalalari nomli dissertatsiyasi. –Toshkent-2017. –108 bet.

O‘ZBEKISTONDA SUG‘URTA XIZMATLARINING ZAMONAVIY TRANSFORMATSIYASI

G. Adilova
TMI “Sug‘urta va pensiya ishi” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Maqolada sug‘urta kompaniyalarining xizmat ko‘rsatishning innovatsion va motivatsion yondashuv tizimi orqali aniq maqsadli rejalar asosida o‘z faoliyatini yuritib borilishi hamda xizmat ko‘rsatishda takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: sug‘urta bozori, agent, ixtiyoriy sug‘urta, sug‘urta mukofoti, sug‘urta qoplamasi.

Abstract: In the article, the operation of insurance companies on the basis of specific target plans through the system of innovative and motivational approach to service provision and suggestions for service provision are given.

Key words: insurance market, agent, voluntary insurance, insurance premium, insurance coverage.

Аннотация: В статье даны предложения по работе страховых компаний на основе четких целевых планов через систему инновационного и мотивационного подхода к оказанию услуг.

Ключевые слова: страховой рынок, агент, добровольное страхование, страховая премия, страховая защита.

1. KIRISH

Sug‘urta xizmatlari iqtisodiyotni turli xil moliyaviy xatarlardan himoya qiluvchi vositalardan biri hisoblanib, ushbu sohaning mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 0,8 foizni tashkil etmoqda. Jamiyat faoliyatining deyarli barcha sohalarida sug‘urta faoliyatining muhim shartlari uning iqtisodiy mazmuni bilan belgilanadi, uning xususiyati – bu favqulodda vaziyatlar oqibatida yetkazilgan zararni qoplash uchun daromad va resurslarni qayta taqsimlashda ishtirok etadigan asosiy moliyaviy vositalaridan biri bo‘lib, ishlab chiqarish jarayonlarni uzluksizligini ta’minlaydi.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, mamlakatimizda sug‘urta faoliyatiga oid qonunchilikni muntazam takomillashtirishga alohida e’tibor berib borilmoqda. O‘zbekiston Respublikasining “Transport vositalari egalarining fukorolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish to‘g‘risida”gi qonuni, “Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urtalash to‘g‘risida”gi qonuni va “Tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urtalash to‘g‘risida”gi qonunlari qabul qilingan. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sug‘urta bozorini raqamlashtirish va hayot sug‘urtasi sohasini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi[1] 2021-yil 23-oktyabrdagi PQ-5265-son qarori ijrosini ta’minlash hamda sug‘urta faoliyati klassifikatorini kengaytirish va shu orqali hayot sug‘urta sohasi va shaxsiy sug‘urta bozorida sug‘urta xizmatlari turlarini ommalashtirish, aholi va iqtisodiyotning ehtiyojlariga xizmat qiladigan sug‘urta mahsulotlarini ishlab chiqish maqsadida, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 9-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirishlar kiritish, shuningdek, ba’zilarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblash to‘g‘risida”gi 323-son Qarori qabul qilindi.

Qarorga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-fevraldagi 80-son qarori bilan tasdiqlangan “Maxsus elektron tizim orqali ayrim faoliyat turlarini litsenziyalash tartibi to‘g‘risida”gi yagona nizomning 6-ilovasiga asosan tasdiqlangan Sug‘urta faoliyati klassifikatoriga qo‘shimcha sug‘urta klasslarini qo‘shish orqali kengaytirildi. Jumladan, hayotni sug‘urta qilish sohasiga V-klass “Majburiyatlarni ta’minlash uchun hayotni sug‘urtalash”, VI-klass “Uzoq muddatli ixtiyoriy pensiya sug‘urtasi” hamda VII-klass “Kapitalni qaytarish bilan hayotni sug‘urtalash” klasslari kiritilgan bo‘lsa, umumiy sug‘urta sohasiga 18-klass “Tibbiy sug‘urta” klassi kiritildi. Sug‘urta klassifikatoriga kiritilgan ushbu qo‘shimchalar mamlakatimiz sug‘urta bozoridagi xizmatlar turini kengayishiga va aholi turmush darajasini oshirishga xizmat qiladi.

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 23-oktyabrdagi PQ-5265-son “Sug‘urta bozorini raqamlashtirish va hayot sug‘urtasi sohasini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori. https://lex.uz/docs/5692504.

2. ADABIYOTLAR SHARHI

Sug‘urta xizmatlarining iqtisodiy xarakterini o‘rganish, sug‘urta xizmatlarini shakllanishi, tarixi va iqtisodiy mazmuni bo‘yicha fikrlar va mulohazalar, nazariy, amaliy va uslubiy jihatlari xorijiy olimlar ilmiy ishlarida tadqiq qilingan.

I.L. Logvinovaning fikriga ko‘ra, sug‘urta bozori bozor iqtisodiyoti munosabatlarining umymiu tarkibiy qismi hisoblanadi. Sug‘urtaning asosiy maqsadi ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonlarining uzluksizligini ta’minlashdan iborat. Bozor muhiti, sug‘urta maqsadlari va funksiyalari mamlakatning moliyaviy mustaqilligini ta’minlash sharoitida sug‘urta xizmatlari bozorini tashkil etishning asosiy tamoyillarini belgilaydi.

Xorijiy adabiyotlarda “sug‘urta xizmatlari” tushunchasining aniq ta’rifi yo‘q. Sug‘urta xizmatlari deganda o‘ta turli-tuman risklar bo‘yicha sug‘urta qoplamasini taqdim etish xizmatlarning keng majmyasini tushunish mymkin[2].

A. Zybes sug‘urta xizmatlariga quyidagicha ta’rif bergan: sug‘urta xizmatlari boshqa moliyaviy xizmatlar kabi, “moliyaviy xizmatlar” tushunchasining bir qismi hisoblanadi, u esa, o‘z navbatida, “xizmatlar” tushunchasiga uning tarkibiy qismlari sifatida qabul qilinadi.

3. TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada, sug‘urta bozorida sug‘urtalovchilarning xizmat ko‘rsatish sohasini raqobatbardoshligini ta’minlashda agentlikning roli, uning huquqiy va nazariy asoslari, iqtisodchi olimlarning fikr-mulohazalarini o‘rganish, va iqtisodiy holatlar tahlillaridan foydalanilgan.

4. TADQIQOT NATIJALARINING MUHOKAMASI

Mamlakatimizda sug‘urta bozori rivojlanishida sug‘urta xizmatlarining raqobat bozorini yanada takomillashtirilib tarmoqlarni rivojlantirish yangi ish o‘rinlarini yaratishga xizmat qiladi, sug‘urta faoliyatini rivojlantirishni usullaridan biri sug‘urtaning majburiy tartibda kiritilishi, bir tomondan sohaning asosiy muommolaridan biri bo‘lgan aholi sug‘urta madaniyatining ko‘tarilishiga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan yetkazilgan zararning sug‘urta mexanizmi orqali kafolatli qoplanishi tizimini yaratdi, natijada jabrlanuvchilarga to‘lanadigan sug‘urta qoplamalarining hajmi keskin ortdi. Bu esa aholini ijtimoiy himoyasining yanada mustahkamlanishiga xizmat qiladi.



1-rasm: Sug‘urta mukofotlarning sug‘urta turlari bo‘yicha o‘zgarish dinamikasi (mlrd. so‘mda)[3]

Sug‘urta bozorida sug‘urtalovchilarning keng ko‘lamli qatlami yuzaga kelganligi, ular tomonidan to‘lov qobiliyatiga ega mijozlarni sug‘urta himoyasiga jalb etishda ushbu subyektlarning manfaatiga mos keladigan yangi sug‘urta xizmatlari taklif etilayotganligi, ular o‘rtasida raqobat muhiti kuchayayotganligi sug‘urta jarayoni rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. O‘zbekistonda sug‘urta sohasini rivojlantirish yuzasidan qabul qilinayotgan qator farmon va qarorlar sug‘urta xizmatlarini sifat jihatdan yangi bosqichga chiqishida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Buni quyidagi rasmlarda ko‘rishimiz mumkin.

2 Abdukayumovich, K. R. (2022). The role of the state in increasing the impact of institutional changes on real sector development. International Journal of Management IT and Engineering, 12(1), 30-36.

3 Ўзбекистон Республикаси суғурта компаниялари маълумоти асосида муаллиф томонидан тузилган.

1-jadval: O‘zbekiston sug‘urta bozori tarkibi[4]

Sug‘urta bozori tarkibi	31.12.2021	31.12.2022	O‘zgarish, foizda
Jami sug‘urta kompaniyalari	42	41	-2,4
Umumiy sug‘urta sohasi kompaniyalari	34	33	-2,9
Hayot sohasi kompaniyalari	8	8	0
Sug‘urta kompaniyalarining jami ustav kapitali (mln.so‘m)	1 589 808	1 884 111	+18,5
Sug‘urta brokerlar soni	5	7	+ 40,0
Sug‘urta aktuariylari soni	5	5	0
Sug‘urta agentlari soni	9581	9155	-4,4
To‘lovlarni kafolatlash fondi ishtirokchilari soni	23	25	+8,7

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, 2023-yil milliy sug‘urta xizmatlar bozorida asosiy ko‘rsatkichlardan ayrimlarida kamayish sodir bo‘lgan. Umumiy sug‘urta tarmog‘i sug‘urta kompaniyalari (“Garant insurance group”) bittaga kamaygan. Shuningdek, sug‘urta vositachilari bo‘lgan sug‘urta agentlarining soni 2022-yilda 2021-yilga nisbatan 426 taga kamayganligini ko‘rishimiz mumkin. Yana bir ijobiy o‘zgarish bu to‘lovlarni kafolatlar jamg‘armasida ishtirok etayotgan sug‘urta kompaniyalari soni o‘tgan 2021-yilga nisbatan 2022-yilda 2 taga oshganligi ham majburiy sug‘urta turlarini keng targ‘ib etish uchun ijobiy holat hisoblanadi. Statistika agentligining ma’lumotiga ko‘ra 2023-yilning yanvar-sentyabr oylarida sug‘urta xizmatlari hajmi 5,3 trln so‘mni tashkil etgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davri bilan solishtirilganda 25,6 foizga oshgan. 2023-yilning yanvar-sentyabr oylarida sug‘urta xizmatlarining eng katta hajmi Toshkent shahrida 3,8 trln so‘m qayd etilganligi ta’kidlab o‘tilgan.

O‘zbekistonda sug‘urta bozorining rivojlanishi tobora ko‘proq raqamli iqtisodiyotning sug‘urta texnologiyalariga ta’sir ko‘rsatuvchi texnologiyalarni joriy etishga bog‘liq, ammo uning iqtisodiy mohiyatini o‘zgartirmaydi. Raqamli texnologiyalardan sug‘urta faoliyatida foydalanish natijasida:

- sug‘urta faoliyatining samaradorligi va rentabelligini oshirish;
- o‘zaro va tijorat sug‘urtasining birlashishi;
- sug‘urta munosabatlarining ijtimoiylashuvi yuz beradi;
- yangi sug‘urta xizmatlari va mahsulotlari yuzaga keladi;
- sug‘urta sohasida mehnat bozori o‘zgaradi (avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari va ba’zi sug‘urta agentlari, quyi va o‘rta menejerlarni robotlari bilan almashtirish).

Umuman olganda O‘zbekiston sug‘urta bozorini raqamlashtirish hozirda davr talabidir va ushby jarayonni jadallashtirish mamlakat sug‘urta bozorini global sug‘urta bozorida o‘z o‘rnini topishini kafolatlaydi.

5. XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘zbekistonda sug‘urta xizmatlari bozorini takomillashtirishga doir quyidagi takliflarni ishlab chiqishga muvaffaq bo‘ldik:

Milliy sug‘urta bozorini modernizatsiya qilish va rivojlantirishda nazorat organlari faoliyatini ya’ni Davlat sug‘urta nazorati organining sug‘urta bozoridagi rolini yanada kuchaytirish:

- sug‘urta faoliyatini rivojlantirish va ular o‘rtasida sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish;
- sug‘urtada xizmat ko‘rsatishning online tarzda ko‘proq olib borilishi va potensial sug‘urtalanuvchilarga sug‘urta xizmatlarini kengroq tushuntirib berish lozim;
- sug‘urta faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha vazifalarni amalga oshirishda o‘zaro manfaatli hamkorlikning samarasini oshirishga qaratilgan xalqaro sheriklikning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish.

Mijozlarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta’minlash:

- fuqarolar (mijoz) larning murojaatlarini o‘z vaqtida hal etish, murojaatlarni ko‘rib chiqishda sansalorlik, rasmiyatchilik va loqayd munosabatda bo‘lish holatlariga yo‘l qo‘yilmaslik bo‘yicha kompaniyalar rahbariyati tomonidan barcha zarur choralarini ko‘rish;

4 Хамраева Ф.нинг“Ўзбекистонда мажбурий суғурта турларини такомиллаштириш истиқболлари” мавзуси иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (doctor of philosophy) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертациясидан фойдаланилди.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

- sug‘urta tashkilotlarining boshqaruv apparati tomonidan fuqarolar (mijoz) larning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta’minlash yuzasidan tegishli me’yoriy-hujjatlar yoki chora-tadbirlarni ishlab chiqish;
- fuqarolarning sug‘urtaga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash;
- fuqarolarning ko‘rgan zararlari yuzasidan belgilangan sug‘urta qoplamalarini o‘z vaqtida olinishini ta’minlash.

Moliyaviy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlariga erishish:

- sug‘urta xizmatlarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushini o‘sishini ta’minlash;
- rivojlangan davlatlar tajribasi asosida har 2-yilda bir marotaba ustav kapitalining minimal miqdorlarini oshirib borilishini ta’minlash kerak.

Ta’kidlab o‘tish joizki keltirilgan muammo va yechimlardan kelib chiqib, ushbu berilgan takliflar sug‘urta xizmatlarini yanada rivojlanishida yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi 4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.
2. Abdukayumovich, K. R. (2022). The role of the state in increasing the impact of institutional changes on real sector development. International Journal of Management IT and Engineering, 12(1), 30-36.
3. Белых В.С. Страховое право. – М: Инфра-М, – 2001.
4. Shennaev X.M., O‘zbekiston sug‘urta bozori. O‘quv qo‘llanma. –T., –2013-y.
5. Van Winssen, K. P. M., van Kleef, R. C., & van de Ven, W. P. M. M. (2016). The demand for health insurance and behavioural economics. The European Journal of Health Economics, 17(6), 653-657. doi:10.1007/s10198- 016-0776-3.
6. Müller H. Der Versicherungsverein auf Gegenseitigkeit: Chancen und Risiken aus der Sicht eines Versicherungsaufsehers / H. Müller. Karlsruhe: Verl. Versicherungswirtschaft, 2000.
7. Cockrell H.A.L., Green Edwin, The British Insurance Business. – London: Heinemann Educational Books, 2016.
8. https://www.thebalancesmb.com/insurance-company-ratings, A.M.Best, Moody S, Standart&Poors, Insurance Company Ratings.
9. https://www.mf.uz.
10. http://www.insur-info.ru.

BIZNES SUBYEKTLARIDA SAMARADORLIK MASALALARINI O‘YINLAR NAZARIYASI USULI BILAN BAHOLASH

Mardiyev Nurali
Toshkent davlat agrar universiteti dotsenti

Annotatsiya: Maqolada biznes subyektlarida samaradorlik masalalarini o‘yinlar nazariyasi asosida baholash qaralgan bo‘lib, unda iqtisodiy-matematik model va fermer xo‘jaliklariga yer maydonlarini taqsimlash algoritmi belgilangan normalarga muvofiq berilgan. Bunda hududlarning mehnat resurslari bilan ta’minlanganligi, fermer xo‘jaliklarining shakllangan ishlab chiqarishga ixtisoslashuvi va boshqa omillar hisobga olinadi.

Kalit so‘zlar: iqtisodiy-matematik model, algoritm, yer uchastkalari, fermer xo‘jaligi, dasturiy ta’minot, o‘yinlar nazariyasi, paxta, g‘alla, yutuqlar matritsasi, hosildorlik, samaradorlik, tahlil, tabiat o‘yini, mezonlar, qaror qabul qilish.

Abstract: The article discusses the assessment of issues of the efficiency of economic entities based on game theory, in which the economic and mathematical model and algorithm for the distribution of land areas to farms are given in accordance with established standards. It takes into account the availability of regional labor resources, the specialization of farms in established production and other factors.

Key words: economic-mathematical model, algorithm, land plots, farm, software, game theory, cotton, grain, winning matrix, productivity, efficiency, analysis, natural game, criteria, decision making.

Аннотация: В статье рассматривается отсенка вопросов эффективности хозяйствующих субъектов на основе теории игр, в которой экономико-математическая модел и алгоритм распределения земелных площадей фермерским хозяйствам даны в соответствии с установленными нормами. Он учитывает наличие трудовых ресурсов регионов, спесиализатсию ферм на налаженном производстве и другие факторы.

Ключевые слова: экономико-математическая модел, алгоритм, земелные участки, ферма, программное обеспечение, теория игр, хлопок, зерно, матрица выигрышей, продуктивност, эффективност, анализ, естественная игра, критерии, принятие решений.

KIRISH

Mamlakatimiz qishloq xo‘jaligida bosqichma-bosqich amalga oshirilgan islohotlar natijasida shirkat xo‘jaliklarini fermer xo‘jaliklariga o‘zgartirishga hamda ularning yer uchastkalari o‘lchamini optimallashtirish jarayoni amalga oshirildi. Bunda mamlakat hududlarining mehnat resurslari bilan ta’minlanganligi, fermer xo‘jaliklarining shakllangan ishlab chiqarishga ixtisoslashuvi va boshqa omillar hisobga olindi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Yerdan foydalanish o‘lchamiga ko‘ra eng kichik bo‘lgan fermer xo‘jaliklari, asosan, sabzavotchilik va meva-sabzavotchilikka ixtisoslashgan bo‘lsa, yirik fermer xo‘jaliklari g‘alla va paxtachilikka ixtisoslashtirildi. Yirik fermer xo‘jaliklarining Respublika bo‘yicha o‘rtacha o‘lchami 87,1 gektarni tashkil etmoqda [1].

Ushbu ko‘rsatkich viloyatlar kesimida ishlab chiqarish yo‘nalishi bo‘yicha fermer xo‘jaliklarining o‘lchamlari muayyan chegaralarda o‘zgarib turadi [1]. Masalan, Andijon viloyatida fermer xo‘jaliklarining o‘rtacha o‘lchami 41 gektarni, Toshkent viloyatida o‘rtacha 76,7 gektarni, Buxoro viloyatida esa 87,7 gektarni tashkil etadi.

Iqtisodiy tadqiqotlar va masalalarni yechishda o‘yinlar nazariyasi usullaridan kundan-kunga keng foydalanib kelinmoqda. Hozirgi paytda iqtisodiy jarayonlarni rejalashtirish va boshqarishda o‘yinlar nazariyasi usullari samarali qurol vositasiga aylanib bormoqda.

Odatda, o‘yinlar nazariyasi matematikaning konfliktli, qarama- qarshilikli holatlariga taalluqli bo‘limi hisoblanadi. Shuning uchun tomonlarning konfliktli holatidan chiqib ketishining optimal strategiyasi qoidalari ishlab chiqilgan [2]. Shuning bilan birga o‘yinlar nazariyasining “Tabiat bilan o‘yin” – deb ataluvchi alohida yo‘nalishi mavjudki, unda “Ona – tabiat” o‘zining harakatlari bilan qarama-qarshi tomonni optimal strategiyasini bajarilishini ta’minlaydi.

Tabiat bilan o‘yinning o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, unda ko‘pincha birinchi o‘yinchi deb nomlanuvchi tomon ongli ravishda harakat qiladi. Ikkinchi o‘yinchi (tabiat) esa birinchi o‘yinchiga atayin xalaqit bermaydi, hech qanday maqsadsiz harakatlarni bajaradi, raqibining yutug‘iga sharoit yaratib beradi. Tabiat bilan o‘yinning yaqqol misoli sifatida shaxmat murabbiyining o‘z shogirdi bilan poddavka o‘yinini misol qilib ko‘rsatish mumkin. Murabbiy ataylab shogirdi uchun qulay holatlarga figuralarni qo‘yib berib, uning yutug‘ini ta’minlaydi, malakasini oshiradi [3].

Tabiat bilan o‘yinda qaror qabul qilish usullari noaniqliklarni xarakteridan, aniqrog‘i, tabiatni holati ehtimolligi (strategiyasi) ma’lum va noma’lumligiga bog‘liqdir. Bu holatlarda eng yaxshi yechimlarni topish uchun maksimaks, Valda, Sevidj, Gurvis mezonlaridan foydalaniladi [2].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ilmiy abstraksiyalash, o‘yinlar nazariyasi, guruhlash, qiyoslash, empirik tahlil va boshqa usullardan foydalanildi. Maqolada tabiat bilan o‘yinda qaror qabul qilish usullari noaniqliklarning xarakteridan, aniqrog‘i, tabiatni holati ehtimolligi (strategiyasi) ma’lum va noma’lumligiga asoslanib qabul qilindi va tegishli xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yer uchastkalarini fermer xo‘jaliklariga optimal o‘lchamlar miqdorida taqsimlash usuli. Qishloq xo‘jaligida amalga oshirilayotgan islohotlar uzluksiz innovatsion jarayon bo‘lib, mamlakat iqtisodiyotining strategik rivojlanishiga mos ravishda o‘zgarishi mumkin. Har qanday holatda ham yer resurslaridan oqilona foydalanib fermer xo‘jaliklari faoliyatini optimallashtirish o‘zaro bog‘liq bo‘lgan ikkita masalani yechilishiga bog‘liqdir:

-yer uchastkalarini fermer xo‘jaliklariga optimal o‘lchamlar normasida taqsimlash (makrodarajada);

-fermer xo‘jaligi yer maydonlariga ekin turlarini optimal joylashtirish (mikrodarajada).

Ikkinchi masala o‘yinlar nazariyasi usuli bilan yechilgan bo‘lib [2], bu yerda birinchi masalani modelini ko‘rib chiqaylik. Yer uchastkalarini fermer xo‘jaliklariga taqsimlash masalasi iqtisodiy-matematik modelini yaratish uchun ba’zi bir belgilashlarni kiritamiz.

S_i – i-yer uchastkasi (konturi) maydoni, gektarda (i=l,2,...,n);

F_j – j-fermer xo‘jaligiga biriktirilishi lozim bo‘lgan yer maydoni hajmi (“optimallashtirish” normasi), gektarda (j=l,2,...,m);

Xij – buleva o‘zgaruvchi bo‘lib, uning qiymati:

Xij =1, agar i-yer uchastkasi j-fermer xo‘jaligiga taqsimlangan bo‘lsa;

Xij =0, agar i-yer uchastkasi j-fermer xo‘jaligiga berilmagan bo‘lsa.

Yuqoridagi belgilashlar asosida masalani sharti quyidagicha ifodalanadi.

Har qanday yer uchastkasini faqat bitta fermerga berilishi mumkin

$$\sum_{j=1}^{m} x_{ij} = 1, \quad i = 1,2,\dots,n.$$

Har qanday fermer xo‘jaligiga hech bo‘lmaganda bitga yer uchastkasi berilishi kerak

$$\sum_{i=1}^{n} x_{ij} \geq 1, \quad j = 1,2,\dots,m.$$

Har qanday fermer xo‘jaligiga ajratilgan yer maydoni optimallashtirish normasiga teng bo‘lishi kerak

$$\sum_{i=1}^{n} S_i x_{ij} = F_j, \quad i = 1,2,\dots,m.$$

Masalani maqsad funksiyasi quyidagi formula bilan ifodalanib

$$F(x) = \sum_{i=1}^{m} (F_j - \sum_{i=1}^{n} S_i x_{ij})^2 \rightarrow min$$

fermer xo‘jaliklariga ajratilgan yerlar qajmlarini optimallashtirish normalaridan og‘ishi kvadratlari yig‘indisi minimal bo‘lishini nazarda tutadi.

Agar barcha fermer xo‘jaliklariga bir xil hajmda yer ajratish kerak bo‘lsa

$$F_1=F_2=F_3=...=F_m=(\sum_{i=1}^{n} S_i):m=\bar{\bar{F}}$$

bo‘lib (bu erda – har bir fermerga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha yer miqdori), maqsad funksiyasi quyidagi ko‘rinishni oladi:

$$F(x) = \sum_{j=1}^{m}(\bar{\bar{F}} - \sum_{i=1}^{n} S_i x_{ij})^2 \rightarrow min.$$

Yuqorida keltirilgan masalani yechimini topishni umumiy usuli barcha variantlarni to‘la tanlash usuli bo‘lib (metod polnogo perebora variantov), ba’zi bir sabablarga ko‘ra bizni masalamizni yechishda foydalanish imkoniyati yo‘qdir. Birinchidan, yerlarni fermer xo‘jaliklariga taqsimlashda barcha yer uchastkalari (n) miqdorlaridan barcha fermer xo‘jaliklari miqdori (m) bo‘yicha gruppalashlar (S_n^m) variantlarida masalani barcha shartlarini bajarilishini tekshirib, masalani maqsad funksiyasini minimal qiymatini aniqlash kerak bo‘ladi. Buni hisoblash n va m larning yetarlicha katta qiymatlarida, hattoki, zamonaviy kompyuter uchun ham muammolidir.

Ikkinchidan, maqsad funksiyasining minimal qiymatini topish uchun qilingan harakat fermer xo‘jaliklariga ajratilgan yer maydonlarida uzilishlar paydo bo‘lishiga olib kelishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, birorta fermer xo‘jaligi yer maydonlari orasida boshqa bir fermer xo‘jaligiga taalluqli bo‘lgan yer maydoni (anklav) joylashib qolishi mumkin, bu holat yer taqsimlash qoidasiga ziddir.

Masalani yechishni amalga oshiradigan yuqoridagi kamchiliklardan holi bo‘lgan [4] algoritm tamoyillaridan foydalanamiz.

Fermer xo‘jaliklariga taqsimlanadigan yer maydonlarini (konturlarini) yer uchastkasini bir chetidan boshlab l,2,3,...,i,...,n raqamlari bilan belgilab chiqamiz. Ularning maydonlari yuzasi (hajmi) S_i (i = 1,2,...,n) gektardan iborat. Har bir F_1, F_2,..., F_j,..., F_m (m<n) fermer xo‘jaligiga bittadan i1- chi yer maydonini biriktirib qo‘yamiz F_{i1j}, (j = l,2,...,m). (Bu yerda Fi1j- i1 yer maydoni j – fermer uchun biriktirilgan asosiy (bazis) yer bo‘ladi). So‘ngra har bir fermer xo‘jaligi uchun bazis yeriga tutash bo‘lgan yerlarni ham fermer xo‘jaligiga biriktiramiz. Undan so‘ng biriktirilgan yer maydonlari yuzalari Si – larni yig‘indisini hisoblab, fermer uchun optimallashtirish normasi bo‘lgan F_j bilan solishtiramiz. Agar fermer xo‘jaligiga biriktirilgan yerlarni umumiy maydoni optimallashtirish normasi F_j dan kichik yoki teng bo‘lsa, fermer xo‘jaligiga biriktirilgan yerlarga tutash bo‘lgan yerlarni ham fermer xo‘jaligiga biriktiramiz. Ushbu jarayonni fermer xo‘jaligiga biriktirilgan yerlarning umumiy maydoni F_j miqdoridan katta bo‘lguncha davom ettiraveramiz.

Shuning bilan yer maydonlarini fermer xo‘jaliklariga dastlabki taqsimlash bosqichi tugaydi. Keyingi bosqichda fermer xo‘jaliklari yer uchastkalari o‘lchamini optimallashtirish jarayoni amalga oshiriladi.

2. Algoritmning bu bosqichida fermer xo‘jaliklariga taqsimlanadigan yerlarni hajmini optimallashtirish normasi bilan balanslashtirishga harakat qilinadi. Ma’lumotlaridan foydalangan holda avvalo har bir fermer xo‘jaligi uchun ajratilgan yerlarni umumiy miqdori F1j ni aniqlaymiz. So‘ngra ushbu miqdorlardan fermer xo‘jaliklarini yer uchastkalarini optimallashtirish normasi miqdorlarini ayiramiz

$$DF_j = F^1_j - F_j,\ j = 1, 2,...,t.$$

Bu yerda DFj – j-uchun “ortiqcha” ajratilgan yer maydonini ko‘rsatadi.

DF_j ni maksimal qiymatiga mos kelgan fermer nomeri j ni 1-jadvalni oxirgi ustuni elementlaridan qidirib topib, uni o‘chiramiz. Agar qaralayotgan ustunda bir necha j-nomer uchrasa, yer maydoni Si ni maksimal qiymati bo‘lgan qatorga mos kelgan j ni o‘chiramiz. j- nomer jadvalni oxirgi ustuni elementlari ichida topilmasa, uni oxirgi ustundan avvalgi ustun elementlari ichidan topib o‘chiramiz. Jadval elementlari ichidan j – fermer nomerini o‘chirganimizdan keyin yana yangidan F^1_j va DF_j larni aniqlab, j ni o‘chirishni davom ettiramiz. Bu jarayon 1-jadvalning har bir qator va ustunida bittadan element qolguncha davom etadi.

Misol. Tuman hududidagi 10 ta yer maydonlarini uchta fermer xo‘jaliklariga bo‘lib berish kerak bo‘lsin. Shundan fermer xo‘jaliklari ixtisoslashuviga qarab birinchisiga 120 ga atrofida, ikkinchisiga 85 va uchinchisiga 95 ga yer tegsin (raqamlar shartli).

Fermerlar uyushmasi ekspertlari yer maydonlarini bo‘lib berish mumkin bo‘lgan variantlarini 1-jadvaldagidek belgilab bergan bo‘lsin. Jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatib turibdiki, birinchi fermer uchun to‘rtinchi yer maydoni, ikkinchi fermer uchun birinchi yer maydoni, uchinchi fermer xo‘jaligi uchun esa sakkizinchi yer maydoni asosiy (bazis) ekan. Qolgan 7 ta yer maydonini u yoki bu fermer xo‘jaligiga berilishi mumkin ekan. Har bir fermer xo‘jaligiga berilishi mumkin bo‘lgan yer maydonlarini yig‘indisini hisoblab chiqamiz.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

$F_1^1 = 35 + 25 + 46 + 50 + 38 + 20 = 214,$
$F_2^1 = 20 + 16 + 24 + 25 + 46 = 131,$
$F_3^1 = 15 + 24 + 50 + 27 + 38 + 20 = 175.$

1-jadval

i	S_i	F_{ij}
1	20	2
2	16	2;3
3	24	3;2
4	35	1
5	25	2;1
6	46	1;2
7	50	1;3
8	27	3
9	38	1;3
10	209	3;1

Hosil bo‘lgan raqamlardan har bir fermer xo‘jaligi uchun mo‘ljallangan optimallashtirish normasi qiymatini ayirib tashlaymiz

$DF_1 = -F_1^1 = 214 – 120 = 94,$
$DF_2 = –F_2^1 = 131 – 85 = 46,$
$DF_3 = -F_3^1 = 175 – 95 = 80$

DF_j lar qiymatlari ichida eng kattasi 94 bo‘lib, birinchi fermer xo‘jaligiga to‘g‘ri kelayapti. Demak, yuqorida yer maydonlarini taqsimlash variantlaridan (1- jadvalni oxirgi ustunidan) birinchi fermerga to‘g‘ri keladigan yer maydonini jadvaldan o‘chirib, chiqarib tashlashimiz kerak ekan. Qidirilayotgan yer maydonini nomeri beshinchi bo‘lib, uning maydoni 25 gani tashkil qiladi. Uni hisobdan chiqarib tashlasak, ni qiymati 25 ga qisqarib, DF_1 ni qiymati 94 – 25 = 69 teng bo‘ladi. Endi DF_j larni qiymati

$$DF_j = 69; 46; 80 \ (j = 1,2,3)$$

bo‘lib, maksimal qiymat 80 j=3 bo‘lgan fermer xo‘jaligiga to‘g‘ri kelayapti. Endi 3- fermerga to‘g‘ri keladigan yer maydonini jadvaldan chiqaramiz va hokazo. Ushbu jarayonni yetti marta takrorlaganimizdan so‘ng 1-jadvalni oxirgi ustunini har bir qatorida bittadan element (fermer nomeri) qoladi.

Shunday qilib birinchi fermer xo‘jaligiga 4, 6 va 7 yer uchastkalari, ikkinchi fermerga 1, 2, 3 va 5, uchinchi fermerga esa 8, 9, 10 yer uchastkalari taqsimlanadi. Fermerlarni yer maydonlari o‘lchamlari mos ravishda 35+46+50=131, 20+16+24+25=85 va 27+38+22=87 gektardan to‘g‘ri kelib, fermer xo‘jaliklariga yuqorida o‘rnatilgan normalarga mos kelmoqda.

Xulosa yakunida shuni ta’kidlash joizki, algoritm ekspertlarni fikrlarini hisobga olgan holda yer maydonlarini fermer xo‘jaliklariga belgilangan optimal miqdorlarda taqsimlash imkonini beradi.

Fermer xujaliklari davlat buyurtmasini o‘yinlar – nazariyasi usullari bilan optimal joylashtirish. Maksimaks mezoni orqali tabiatni har bir holati uchun mos keladigan maksimal yutuqlardan maksimallashtiriladigan strategiya aniqlanadi. Ushbu usul – o‘ta optimistik mezondir. Eng yaxshi yechim, maksimal yutuqni ifodalovchi quyidagi formula bilan aniqlanadi [5]:

$$M = \max\{b_{ij}\} = \max_i \max_j \{b_{ij}\}, \ i = \overline{1, m}; \ j = \overline{1, m}.$$

Bu yerda – A to‘lov (yutuklar) matritsasi elementi.

Valda kriteriyasi bo‘yicha qaror qabul qilinganda barcha omadsiz yechimlar ichidan yaxshisi tanlanadi. U quyidagi formula bilan ifodalanadi:

$$V = \max_i \min_j \{b_{ij}\}, \ i = \overline{1, m}; \ j = \overline{1, m}.$$

Sevidj mezoni bilan strategiya tanlashni Valda kriteriyasi tanlashdan farqi shundaki, Sevidj mezonida o‘yinchi yutuqlar matritsasi o‘rniga xatarlar (risklar) matritsasidan foydalanib, maksimal risklar ichida minimalini tanlaydi:

$$V = \max_i \min_j \{r_{ij}\}, \ i = \overline{1, m}; \ j = \overline{1, m}.$$

Bu yerda R = {r_{ij}} – risklar matritsasi.

Gurvis mezoni pessimistik – optimistik mezondir. Ushbu mezon bilan yechim tanlayotganda quyi pessimistik va yuqori optimistik holat orasidagi qandaydir o‘rtacha miqdor tanlanadi. Yutuqlar A – matritsadan strategiya tanlash quyidagi miqdor orqali aniqlanadi:

$$G = \max_i \{p \min_j + (1- p) \max_j\},$$

Bu yerda R – pessimistik koeffitsiyent 0<r<1. Yuqorida keltirilgan mezonlardan foydalanib tabiat bilan o‘yinda optimal strategik yechimlar topish mumkin.

Fermer xo‘jaliklariga davlatning paxta va g‘alla yetishtirish bo‘yicha buyurtmasini xo‘jalik yer maydonlarini hosildorligini hisobga olgan holda joylashtirish masalasini ko‘rib chiqaylik. Ma’lumki mamlakatimizda dehqonchilik uchun foydalanadigan yerlarni hosildorligi mintaqalar, tumanlar, xo‘jaliklar bo‘yicha turlicha bo‘lib, hosildorlik darajasi tabiiy – iqlim sharoiti, yerlarning sho‘rlanganlik darajasi, yer osti suvlaring joylashuvi va boshqa omillarga bog‘liqdir. Shuning uchun dehqonchilik qilinadigan yerlarni kadastri tuzilib, ular 100 banitet ballari bo‘yicha sinflarga ajratilgan. Banitet bali 40 dan past bo‘lgan yerlarga paxta ekish tavsiya etilmaydi. Ayrim tadqiqotlarni ko‘rsatilishi bo‘yicha [6] paxta hosildorligi erning sho‘rlangan darajasiga qarab 5,3-14,28 s/ga oralig‘ida, bug‘doy hosildorligi esa 5,8- 28,65 s/ga oralig‘ida o‘zgarib turar ekan.

Shuning uchun fermer xo‘jaliklarining mavjud yer maydonlarining qaysi qismlariga paxta ekish, qaysi maydonlarga bug‘doy ekish kerakligini aniqlash zarur bo‘ladi. Buning uchun avval yutuqlar matritsasini tuzib olamiz.

$P_1, P_2,..., P_n$ – fermer xo‘jaligi i – nchi yer maydoniga paxta ekilganda olishi mumkin bo‘lgan hosil (so‘mda) bo‘lsin. U quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$P_i = R_1 \cdot r_i \cdot m_i$$

Bu yerda r_i -i- nchi yer maydoniga paxta ekilgandagi hosildorlik s/ga, t_i – yer maydoni yuzasi, gektarda; R_1 -bir sentner paxtaning shartnomaviy bahosi.

Xuddi shuningdek, $V_1, V_2,....,V_p$ – yer maydonlariga g‘alla ekilganda olish mumkin bo‘lgan hosil bo‘lib, quyidagicha aniqlanadi:

$$V_j = R_2 \cdot r_j \cdot m_j$$

Bu yerda – V_j -j-nchi yer maydoniga g‘alla ekilgandagi hosildorlik, s/ga;

R_2 -bir sentner g‘allaning shartnomaviy bahosi. Yutuqlar matrsasi elementlari $a_{ij} = B_i – P_j$ (i, j =) formula bilan hisoblanib, yer maydonlariga paxta yoki bug‘doy ekishni samaradorligini tahlil qilish imkonini beradi. Ayniqsa, matritsa diagonali elementlari qiymatlari katta ahamiyatga ega. Agar $b_{ij} > 0$ bo‘lsa i-nchi yer maydoniga g‘alla; $b_{ij} < 0$ bo‘lsa, i- yer maydoniga paxta ekish samaraliroqdir. $b_{ij} = 0$ bo‘lgan holda paxta yoki g‘alla ekish bir xil samara berishini ko‘rsatadi.

Jadvalning oxirgi ustuni va qatoridagi b_i va v_j -lari o‘yinlar nazariyasi usullarining parametrlari bo‘lib, ular quyidagicha aniqlanadi.

$$b_i = \min_j \{b_{ij}\};\ v_j = max_i\{b_{ij}\},\ i = \overline{1, n};\ j = \overline{1, n}.$$

2-jadval: O‘zbekiston mintaqalarida g‘alla va paxta hosildorligin ko‘rsatkichlari, 2019-y.*

№	Mintaqalar	Hosildorlik, s/ga		V_j	P_j	b_i
		b_i	r_i			
1	Qarqalpogisgon Respublikasi	26,5	20,5	132,5	184,5	-52,0
2	Andijon	63,5	31,5	317,5	283,5	34,0
3	Buxoro	60,0	32,5	300,0	292,5	7,5
4	Jizzax	23,0	22,3	115,0	200,4	-85,4
5	Qashqadaryo	45,5	24,8	227,5	223,2	4,3
6	Navoiy	49,0	30,0	245,0	270,0	-25,0
7	Namangan	49,4	28,2	247,0	253,8	-6,8
8	Samarqand	56,5	25,2	282,5	226,8	55,7
9	Surxondaryo	50,4	29,2	252,0	262,8	-10,8
10	Sirdaryo	45,1	22,8	225,5	205,2	20,3
11	Toshkent	42,8	24,0	214,0	216	-2,0
12	Farg‘ona	57,9	28,9	289,5	260,1	29,4
13	Xorazm	46,2	23,4	231,0	210,6	20,4

* Hosildorlik qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi ma’lumotlari. G‘alla va paxtaning shartnomaviy narxi 5:9 nisbatida hisoblangan

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Ma'lumotlar bilan to'ldirilgan yutuqlar matritsasini yuqorida keltirilgan mezonlar bilan tahlil qilib turlicha maqsadlarga javob beradigan yechimlarni topishimiz mumkin. Misol uchun mamlakatimiz mintaqalarining 2019-yildagi paxta va g'alla hosildorligi bo'yicha ma'lumotlari asosida qaysi viloyatlarga paxta yoki bug'doy ekish samarali ekanligini tahlil qilib ko'raylik.

2-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, Qaraqalpog'iston Respublikasi, Jizzax, Navoiy, Namangan, Surxondaryo va Toshkent viloyatlarida g'allaga qaraganda paxta yetishtirish samaralirogi; Andijon, Buxoro, Qashqadaryo, Samarqand, Sirdaryo, Farg'ona va Xorazm viloyatlarida esa g'alla yetishtirish samarali ekan. Yer uchastkalarini fermer xo'jaliklariga optimal o'lchamlar miqdorida taqsimlash, mahsulot hosildorligini oshirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish masalalari ham ko'rib chiqilgan [8-11].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida keltirilgan model va algoritmlar yordamida mamlakat hududlarining mehnat resurslari bilan ta'minlanganligi, fermer xo'jaliklarining shakllangan ishlab chiqarishga ixtisoslashuvi va boshqa omillarni hisobga olingan holda fermer xo'jajaliklari yer uchastkalari o'lchamini optimallashtirish jarayonini amalga oshirish mumkin bo'ladi.

Shuni ta'kidlash joizki, keltirilgan algoritm ekspertlar fikrlarini hisobga olgan holda yer maydonlarini fermer xo'jaliklariga belgilangan optimal miqdorlarda taqsimlash imkonini beradi.

Biznes subyektlaridagi iqtisodiy tadqiqotlar va masalalarini yechishda o'yinlar nazariyasi usullaridan foydalanib yechish taklif qilinmoqda. Keltirilgan usullar tomonlarning konfliktli holatidan chiqib ketishining optimal strategiyasi qoidalari asosida amalga oshiriladi. Shuning bilan birga o'yinlar nazariyasining "Tabiat bilan o'yin" – deb ataluvchi alohida yo'nalishidan foydalanib "Ona – tabiat"ning harakatlari bilan qarama – qarshi tomonning optimal strategiyasi bajarilishini ta'minlash imkonini beradi.

Tabiat bilan o'yinda qaror qabul qilish usullari noaniqliklarning xarakteridan, aniqrog'i, tabiatni holati ehtimolligi (strategiyasi) ma'lum va noma'lumligiga bog'liq bo'lib, bu holatlarda eng yaxshi yechimlarni topish uchun maksimaks, Vald, Sevidj, Gurvis mezonlaridan foydalanib, muammoni yechish taklif etilgan.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, ma'lumotlar bilan to'ldirilgan yutuqlar matritsasini yuqorida keltirilgan mezonlar bilan tahlil qilib turlicha maqsadlarga javob beradigan yechimlarni topishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdug'afarov A., Uzoqov J. Fermer xo'jaliklari davlat buyurtmasini o'yinlar nazariyasi usullari bilan optimal joylashtirish // "Hisoblash va amaliy matematika masalalari" ilmiy izlanishlar to'plami, 128-son, Toshkent-2012.137-142-betlar.
2. Дубров А.М., Лагоша Б.А. и др. Моделирование рисковых ситуатсий в экономике и бизнесе: Учебное пособие. Ф М.: Финансы и статистика, 2001.–244 с.
3. Абдугафаров А., Насретдинова Ш.С., Мирзаев Х.М. Методы теории игр и задачи сокращения взаимной задолженности предприятий // Вопросы кибернетики: Сб. науч. тр. – Ташкент, ИМИТ АН РУз, 2006. – вып. –173. – с.101-105.
4. Абдугафаров А., Султонов Б., Саидхўжаев П.Ш. Алгоритм распределения строителных объектов с учетом их территориалного расположения // сб. "Вопросы РАСУ", вып. 15 Труды Института Кибернетики, Ташкент. 1978. Стр.76-80.
5. Abdugafarov A., Mardiev N., Siddiqov Z.T. Moliyaviy jarayonlarni baholash modellari va amaliy masalalarini yechish usullari. Monografiya. Toshkent. "FAN ZIYOSI" nashriyoti. ISBN 978-9943-708-93-8. 2021.–132 b.
6. Sauxanov J.K. Agrar sektorda tashqi samara (ekstrnaliy)lar ta'sirini optimal tarzda tartibga solish: I.f.n. avtoref. – Toshkent, 2011.-26 b.
7. Abdugafarov A., Saidxodjaev P.Sh. Algoritm formirovaniya perechnya obyektov. //"Voprosы RASU", vыp.7, Tashkent, RISO AN UzSSR, 1977.–str. 152-156.
8. A J Toshboyev, N M Mardiyev, I N Ziyadullayev, R B Azimov, A M Zakimov. Assessment of the competitiveness of agricultural production enterprises. IOP Conf. Series: Materials Science and Engineering 919(2020) 042006 IOP Publishing. PAPER • OPEN ACCESS.
9. Muminov B. O., Mardiev N., Bustonov K. K., Siddikov Z. T.. Territorial Specialization And Location Of Agricultural Production – Adaptation To Market Relations//EPRA International Journal of Research and Development (IJRD). Volume: 5 | Issue: 11 | November 2020 – Peer Reviewed Journal. SJIF Impact Factor: 7.001| ISI I.F.Value:1.241| Journal DOI: 10.36713/epra 2016. Volume: 5, Issue:11, November 2020. P. –141-145.
10. Galimova F.R., Dekhkanova N. S., Mardiev N., Gaybullaev O. B.. The current state of world agriculture and trends in its development. // International Journal For Innovative Research In Multidisciplinary Field. ISSN: 2455-0620 Volume – 6, Issue – 11, Nov – 2020. Impact Factor: 6.719. Publication Date: 30/11/2020. –P.157-163.
11. Ochilov I.S., Mardiev N.M., Bostonov K.K. Issues for improving analysis of agricultural sectors and cluster activities in the Uzbekistan economy// Journal of Hunan University Natural Sciences. Vol. 48. No. 11. November 2021. P.1136-1144. (https://johuns.net/index.php/abstract/194.html).

YENGIL SANOATDA “LEAN PRODUCTION” KONSEPSIYASINI TATBIQ ETISHNING AMALIY JIHATLARI

Yaxyayeva Inobat Karimovna
Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti

Annotatsiya: Maqolada yengil sanoatda “lean production” konsepsiyasini tatbiq etishning amaliy jihatlari empirik tahlillar asosida tadqiq etilib, maqola yakunida ilmiy xulosalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: tejamkor ishlab chiqarish, xarajat, ishlab chiqarish xarajatlari, mahsulot, yengil sanoat.

Abstract: In the paper have been researched the practical aspects of the implementation of the concept of “lean production” in light industry on the basis of empirical analysis, and scientific conclusions are presented at the end of the article.

Key words: lean production, cost, production costs, product, light industry.

Аннотация: В статье на основе эмпирического анализа исследованы рактические аспекты реализации концепции “бережливого производства” в легкой промышленности, а в конце статьи представлены научные выводы.

Ключевые слова: бережливое производство, себестоимость, себестоимость продукции, продукция, легкая промышленность.

KIRISH

To‘qimachilik sanoati keyingi yillarda O‘zbekiston milliy iqtisodiyotining eng jadal rivojlanayotgan tarmog‘iga, xorijiy sarmoyalarni jalb etish va mahsulot eksport qilish bo‘yicha yetakchiga aylandi. Mamlakatimiz iqtisodiyotida yengil sanoatning o‘rni sezilarli darajada oshdi: uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 8,8 foizni, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida 14,8 foizni, nooziq-ovqat iste’mol tovarlari ishlab chiqarish hajmida 44 foizdan ortiqni tashkil etdi. Bugungi kunda soha korxonalarida 500 mingdan ortiq kishi mehnat qilmoqda.

Respublikada ishlab chiqarilayotgan paxta tolasini 100 foiz qayta ishlash imkoni yaratildi. Eksport geografiyasi doimiy ravishda kengayib bormoqda. Bugungi kunda o‘zbek to‘qimachilik mahsulotlari dunyoning deyarli barcha qit’alariga – 70 dan ortiq davlatga yetkazib berilmoqda. O‘zbekiston to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati korxonalari o‘z mahsulotlarini MDH, Yevropa Ittifoqi, shuningdek, Xitoy, AQSH, Kanada, Janubiy Amerika, Afrika, Janubiy-Sharqiy Osiyo va boshqalar bozorlariga jo‘natadi.

Sohani rivojlantirish maqsadida O‘zbekistonda klaster tizimi joriy etilgan bo‘lib so‘nggi 3-yilda paxta-to‘qimachilik klasterlariga 30 trln. so‘mga yaqin investitsiya kiritilgan. Natijada ishlab chiqarish hajmi 2016-yilga nisbatan 5 barobarga, eksport – 4 barobarga o‘sib, qariyb 3 milliard dollarga yetdi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Yengil sanoatda “tejamkor ishlab chiqarish” zamonaviy holatining uslubiy apparatini tizimlashtirishda xorijiy va MDH tadqiqotchilarining Scopus, ProQuest, e-Library axborot manbalaridagi bibliografik ma’lumotlar bazalarida e’lon qilingan ilmiy ishlari va maqolalaridan foydalanilgan.

Ishlab chiqarishda tejamkorlik tushunchasini birinchi bo‘lib Jon Krafchik (John Krafcik) [1] joriy etgan. “Tejamkorlik” (Lean) deganda muallif yangi tipdagi ishlab chiqarishda ortiqcha narsa umuman bo‘lmasligini tushungan. “Lean” atamasi “mehnat va samarali ishlashga qodir bo‘lish” ma’nosida tushuniladi (J. Vumek va Dn. Jons) [2]. Operatsion menejment bo‘yicha kitoblarda tejamkor ishlab chiqarish o‘zbek tilida “to‘g‘ri”, “tekis” yoki “tejamkor” ishlab chiqarish degan variantlarga ega.

Ko‘pchilik mualliflar (Dennis P. Xobbs [3], Stefan Ruffa, Djordj Alukal [4], Lauri Koskela [5] va boshqalar) tejamkor ishlab chiqarishni tejamkor ishlab chiqarish prinsiplariga asoslangan korxonani boshqarish falsafasi sifatida tavsiflaydilar.

MDH tadqiqotchilari (Berezovskiy E.E. [6], Adler Yu.P. [7] va Shper V.L., Lapidus E.A. [8]) “Lean production” ni korxona uchun omon qolish vositasi va ishlab chiqariladigan mahsulotning raqobatbardoshliligini oshirish omili sifatida tavsiflaydilar.

TAHLIL VA NATIJALAR

2021-yil yakuniga ko‘ra, paxta sohasida tolani qayta ishlash 2,5 barobar oshib, 100 foizga, ip-kalava ishlab chiqarish 2 barobarga, tayyor mahsulot ishlab chiqarish 3 barobarga, eksport hajmi 3 milliard dollarga yetdi. Fermerlarning qiziqishi ortib borayotgani, tadbirkorlarning klaster doirasidagi munosabatlari va natija uchun to‘liq mas’uliyat bilan ishlash paxtachilikning yangi samaradorlik cho‘qqilariga ko‘tarilishiga olib keldi. Paxta hosildorligi sezilarli darajada oshib bormoqda. 2021-yilda aksariyat klasterlarda har gektardan 35-40 sentnerdan hosil yig‘ib olindi, ba’zilarida esa bu ko‘rsatkich 60 sentnerga yetdi.

Mamlakatimiz iqtisodiyoti jadal sura’tlarda rivojlanib borayotgan bir paytda sanoat tarmog‘ining o‘rni bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etadi. Sanoat sohasini innovatsion rivojlantirish, jahon talablariga mos keladigan darajada texnika va texnologiyalar bilan ta’minlash, ushbu sohada eksport mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini kengaytirish zamon talablaridan biridir.

Sanoat korxonalarida mahsulot raqobatbardoshligini oshirishning izchil va barqaror rivojlanishini ta’minlashda kelgusi davr uchun puxta va har tomonlama asoslangan chora-tadbirlar, muhim vazifa va yo‘nalishlar, turli darajalardagi iqtisodiy taraqqiyot dasturlarning ishlab chiqilishi va aniq belgilab olinishi muvaffaqiyat garovi hisoblanadi. Respublikada olib borilayotgan jadal islohotlar natijasida sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish va raqobatdoshligini ta’minlash bo‘yicha bir qator ijobiy natijalarga erishilgan.

Tahlil qilinayotgan 2012-2020-yillarda sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish tarkibida to‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishning o‘sish sur’ati 109,6-115,5 foizni tashkil etdi. Mazkur holat to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati rivojlanishining har tomonlama tahlili, raqobatning kuchayishi sharoitida jahon bozorining o‘zgaruvchan konyunkturasini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, jadal rivojlanish mexanizmini ishlab chiqish hamda korxonalarda samarali korporativ boshqaruv tizimida zamonaviy uslublarni keng joriy etish hisobiga yuz bergan.

Ma’lumki, sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi tarkibiga korxona tomonidan ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlar, yarimtayyor, chetga sotishga mo‘ljallangan, nosanoat bo‘linmalarga va kapital qurilishga mo‘ljallangan mahsulotlar hajmini o‘z ichiga oladi, ya’ni ishlab chiqarilishi hisobot davrida tugallanmagan uzoq muddatli mahsulotlarni ishlab chiqarish bo‘yicha ishlar hamda sanoat tusidagi ishlar (xizmatlar) kiradi.

Respublikamizda so‘nggi yillarda, sanoat korxonalari orasida to‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish korxonalarining ulushi ham ortib bormoqda. Quyidagi jadval ma’lumotlaridan mamlakat YAIM o‘sish sur’ati va uning tarkibida to‘qimachilik mahsulotlarini o‘sish sur’atini ko‘rish mumkin.

Tadqiqot natijalari ko‘rsatishicha, 2019-yilda sanoat ishlab chiqarish hajmi 322535,8 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2018-yilga nisbatan taqqoslangan bu ko‘rsatkich 137,0 % ga oshgan. Shuningdek, sanoat sohasida qayta ishlash sanoati va to‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish tarmog‘i ham o‘z o‘rniga ega bo‘lib, 2019-yilda mamlakatimizda qayta ishlash sanoatida 254860,9 mlrd. so‘mlik (2012-yilga nisbatan 5,8 barobarga ko‘p yoki 2018-yilga nisbatan 34,4% ga oshgan) mahsulot yaratildi hamda 29946,6 mlrd. so‘mlik to‘qimachilik mahsulotlari (2012-yilga nisbatan 3,9 barobarga ko‘p yoki 2018-yilga nisbatan 20,6 % ga oshgan)ishlab chiqarildi.

Mazkur holat yuqori sifatli tayyor to‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish va eksportini kengaytirish, milliy brendlarni jahon bozorlariga ilgari surish maqsadida ishlab chiqarish jarayoniga ilg‘or innovatsion texnologiyalar, nou-xau, dizaynerlik ishlanmalarini keng joriy etish, furnitura va aksessuarlarning zamonaviy namunalarini ishlab chiqarishni mahalliylashtirish, paxta xom ashyosini yetishtirishdan boshlab, unga dastlabki ishlov berish, mahsulotni paxta tozalash korxonalarida keyingi qayta ishlash va yuqori qo‘shilgan qiymatli tayyor to‘qimachilik mahsuloti chiqarish bosqichigacha bo‘lgan ishlab chiqarishni integratsiya qilishni nazarda tutuvchi rivojlanishning klasterlarini tashkil etish hisobiga yuz bergan.

Bundan tashqari 2019-yilda sanoat ishlab chiqarish hajmi 322535,8 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2018-yilga nisbatan taqqoslangan, bu ko‘rsatkich 137,0 % ga oshgan. Shuningdek, sanoat sohasida qayta ishlash sanoati va to‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish tarmog‘i ham o‘z o‘rniga ega bo‘lib, 2019-yilda mamlakatimizda qayta ishlash sanoatida 254860,9 mlrd. so‘mlik (2012-yilga nisbatan 5,8 barobarga ko‘p yoki 2018-yilga nisbatan 34,4% ga oshgan) mahsulot yaratildi hamda 29946,6 mlrd. so‘mlik to‘qimachilik mahsulotlari (2012-yilga nisbatan 3,9 barobarga ko‘p yoki 2018-yilga nisbatan 20,6 % ga oshgan) ishlab chiqarildi.

Respublikamizda so‘nggi yillarda sanoat korxonalari orasida to‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish korxonalarining ulushi ham ortib bormoqda. Statistik ma’lumotlarga e’tibor qaratar ekanmiz, 2020-yilning yanvar-noyabr oylarida sanoat sohasida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 11,3 % ni, fizik hajmi indeksi 14,4 % ga oshganining ishlab chiqarish hajmi esa 30342,0 mlrd.so‘mni tashkil etganining guvohi bo‘lamiz.

1-jadval: To‘qimachilik sanoati ulushi hamda fizik hajm indeksi to‘g‘risida ma’lumot [11]

	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
Ishlab chiqariladigan (qayta ishlanadigan) sanoatda to‘qimachilik mahsulotlarining ulushi, % da	16,9	14,6	13,9	13,1	11,8	10,7	10,1	10,8
Sanoatda iishlab chiqarish tarkibida to‘qimachilik mahsulotlarining ulushi, % da	17,2	14,9	14,2	13,1	9,3	9,2	9,1	9,3
To‘qimachilik sanoatining fizik hajm indeksi, % da	110,5	109,0	100,5	107,4	105,3	103,6	102,4	101,2

Statistik tahlillar shuni ko‘rsatadiki, 2019-yilda sanoat sohasi tarkibida to‘qimachilik mahsulotlarining ulushi (9,3 %) o‘tgan davrlarga nisbatan pasayganligi kuzatildi. Sanoat sohasi tarkibida to‘qimachilik mahsulotlarining eng yuqori ulushga ega bo‘lgan davri 2012-yildan (17,6 %) 2015-yilgacha (17,2 %) bo‘lgan davr oralig‘iga to‘g‘ri kelmoqda (2.3-jadval).

Shuningdek, 2020 yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko‘ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,3 % ni, fizik hajmi indeksi esa 102,9 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 8774,6 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

Ma’lumotlarga e’tibor qaratar ekanmiz (2.4-jadval), mamlakatimizda 2019-yilda to‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi sanoat korxonalari tomonidan jami 29946,6 mlrd. so‘mlik (2018-yilga nisbatan 20,6 % ga oshgan) mahsulot yaratilgan bo‘lsa, kiyim ishlab chiqaruvchi sanoat korxonalari tomonidan esa 9165,8 mlrd. so‘mlik (2018-yilga nisbatan 18,5 % ga oshgan) mahsulot tayyorlangan. Bu ko‘rsatkichlar 9 yil davomida, ya’ni 2011-yilga nisbatan to‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish 4,4 barobarga hamda kiyim ishlab chiqarish 11,5 barobarga oshganligini ko‘rish mumkin.

2-jadval: Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat mahsulotlari hajmi

Yillar	To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati korxonalari		Kiyim ishlab chiqarish sanoati korxonalari	
	mlrd. so‘m	foizda %	mlrd. so‘m	foizda %
2011	6 736,9	101,3	795,2	119,6
2012	7 672,9	107,6	996,8	100,1
2013	8 898,3	113,2	1 165,8	106,1
2014	10 839,5	107,2	1 308,7	113,1
2015	13 241,7	110,5	1 585,3	111,5
2016	13 335,3	109,0	4 318,5	108,9
2017	16 763,3	100,5	6 108,2	110,5
2018	24 835,2	107,4	7 732,2	103,3
2019	29 946,6	105,3	9 165,8	108,7
2020	30 447,4	101,6	10 041,4	109,5
2021	31 567,9	103,6	10 847,1	108,0

Tahlil natijalaridan ko‘rinib turibdiki, bugungi kunda mamlakatimizda sanoat sohasida kiyim ishlab chiqarish korxonalariga nisbatan to‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi sanoat korxonalarining ulushi hamda yaratgan mahsulotlari hajmi boshqalarga nisbatan yuqori ko‘rsatkichga ega.

Respublikada sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o‘sish sur’atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 1 082 ta loyiha bo‘yicha 9,5 trln. so‘mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliylashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 107,4 mln. AQSH dollari miqdorida eksport qilindi.

Mamlakatimiz eksport salohiyatini kengaytirish, eksport qiluvchi tashkilotlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, raqobatbardosh eksport mahsulotlari ishlab chiqarishning ko‘paytirilishini rag‘batlantirish maqsadida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2018-yil 29-noyabrda “Mahalliy ishlab chiqaruvchilarning eksport salohiyatini yanada rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5587-son Farmoni [9] qabul qilindi. Ushbu farmon ijrosini ta’minlash maqsadida mamlakatimizda 2019-yilda jami 1626,9 mln. AQSh dollari miqdorida to‘qimachilik va to‘qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirildi. Bu ko‘rsatkich o‘tgan 2018-yilga nisbatan 25,1 % ga ko‘pligini bildiradi. 2013-yilga nisbatan taqqoslanganda mamlakatimizda 1,9 barobar ko‘p miqdorda to‘qimachilik va to‘qimachilik mahsulotlari eksport qilinganligini ko‘rish mumkin.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Bundan tashqari sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni yanada kengaytirish, kichik biznes subyektlarini sanoat faoliyatiga keng jalb etish, sanoat kooperatsiyasini mustahkamlash va rivojlantirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar tannarxini kamaytirish maqsadida Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2019-yil 1-mayda “Sanoat kooperatsiyasini yanada rivojlantirish va talab yuqori bo‘lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4302-son qarorining [10] qabul qilinishi hududlarda eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish darajasini oshirdi.

2020-yilning yanvar-noyabr oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatiga kiritilgan investitsiyalarning asosiy moliyalashtirish manbayidan biri xorijiy investitsiyalar va kreditlar bo‘lib, ular 5522,1 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Shundan, 1521,3 mlrd. so‘m to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hisobidan jalb qilingan.

To‘qimachilik sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarish bo‘yicha tahlil etilgan statistik ko‘rsatkichlarga ko‘ra, O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatining raqobatda zaif tomonlari sifatida to‘quvchilik dastgohlarining ma’naviy eskirganligi, malakali muhandis-texnik xodimlarning yetishmasligi, gazlama, mato mahsulotlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashuvning pastligi, tikuv va trikotajga yo‘naltirilgan mahalliy matolar ishlab chiqarish rivojlanmaganligi, ayrim hududlarda tolani o‘zlashtirish darajasining pastligi, xalqaro standartlarga muvofiq sifat menejmentini joriy etgan korxonalar sonining kamligi aniqlandi.

Ushbu masalalar o‘zaro bir-biriga bog‘liq, tolani o‘zlashtirish darajasining pastligi to‘qimachilikka, mato ishlab chiqarish rivojlanmaganligi kiyim-kechak va trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarishga, zamonaviy texnika bilan jihozlanish darajasining pastligi xalqaro standartlarga muvofiq sifat menejmentini joriy etilmaganligiga kuchli ta’sir etmoqda. Ushbu muammolar yechimini topishda to‘qimachilik korxonalarida “lean production” konsepsiyasini tatbiq etish va shu bo‘yicha korxonalardagi muhandis-texnik xodimlarni muntazam o‘qitish tizimini (kouching) rivojlantirishga e’tibor qaratish tavsiya etiladi. Tejamkor ishlab chiqarish mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishning barcha bosqichlarida yo‘qotishlar bilan kurashishga qaratilgan. Tizim samarali ishlashini ta’minlash uchun tejamkor ishlab chiqarish vositalarini to‘g‘ri tanlash zarur. Mahsulot va xizmatning qiymatini har bir bosqichda kompaniya xodimlari yaratadi, shunday ekan kompaniyaga sodiq va foydali bo‘ladigan soha mutaxassislarini puxta tayyorlash zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Krafcik, J. Triumph of the Lean Production System / J. Krafcik. Sloan Management Review, MIT. 1988. Vol. 30 # 1.
2. Womack, J., Jones, D., Roos, D. The machine that changed the world: The story of Lean Production. How Japan’s Secret Weapon in the Global Auto Wars will Revolutionize Western Industry / J. Womack, D. Jones, D. Roos. – New York: Rawson Associates. 1990.
3. Hobbs, Dennis P. Lean Manufacturing implementation: A complete execution manual for any size manufacture / Dennis P. Hobbs. – Fort Lauderdale, FL: J. Ross Publishing. 2003. – 264 p.
4. Alukal, G. Create a Lean, mean machine / G. Alukal // Quality progress. – Volume 36, –No.4. – April 2003. – p. 29–35.
5. Koskela, L. Lean production in construction. Proceedings of the 10th ISARC / L. Koskela. Houston, Texas. – 1993. – May 24–26. – p. 47–54.
6. Березовский, Э.Э. Инструменты и методы управления промышленными предприятиями на основе Lean-концепции: автореф. дис. … канд. экон. наук: 08.00.05 / Березовский Эдуард Эдуардович. – Краснодар, 2014. – 26 с.
7. Адлер, Ю.П. Бережливость не роскошь, а средство выживания [Электронный ресурс] / Ю.П. Адлер, В.Л. Шпер // Ассоциации Деминга. – Режим доступа: http://deming.ru/Statyi/BerNeRosk.htm, свободный − Загл. с экрана.
8. Лапидус В.А. Основы всеобщего менеджмента качества – TQM / В.А. Лапидус // Методическое пособие к учебному курсу TQM-1. – Н.Новгород: СЦМ “Приоритет”, –2007. – 126 с.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 29-noyabrda “Mahalliy ishlab chiqaruvchilarning eksport salohiyatini yanada rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5587-son Farmoni. www.LexUZ.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 1-maydagi “Sanoat kooperatsiyasini yanada rivojlantirish va talab yuqori bo‘lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4302-son qarori. www.LexUZ.
11. O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasi rasmiy sayti www.stat.uz sayti ma’lumotlari.
12. https://uza.uz/uz/posts/toqimachilik-sanoati-ozbekiston-milliy-iqtisodiyotining-zhadal-rivozhlanayotgan-tarmogi_380751?q=%2Fposts%2Ftoqimachilik-sanoati-ozbekiston-milliy-iqtisodiyotining-zhadal-rivozhlanayotgan-tarmogi_380751.

SOLIQ SALOHIYATINI BAHOLASH USULLARI VA ULARNING TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATIGA TA'SIRI TAHLILI

Borotov Sharofiddin Jumaqul o'g'li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Maqolada soliq salohiyatini baholash usullari va ularning hududlardagi amaldagi tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga ta'siri tahlil qilindi. Mavzu yuzasidan xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy-nazariy qarashlari o'rganildi. Sohaga oid bir qancha muammolar o'rganilib ular asosida tegishli tarzda xulosa va takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: davlat, budjet, mahalliy budjet, iqtisodiyot, tushum, rivojlanish, soliq, soliq ta'sirchanligi, baholash, ishlab chiqarish, rag'batlantirish, aholi, investitsiya.

Abstract: The article analyzed the methods of assessing tax potential and their impact on the activities of existing business entities in the regions. The scientific-theoretical views of foreign and local scientists on the topic were studied. A number of problems related to the field were studied and appropriate conclusions and proposals were developed based on them.

Key words: state, budget, local budget, economy, income, development, tax, tax sensitivity, assessment, production, incentives, population, investment.

Аннотация: В статье проанализированы методы оценки налогового потенциала и их влияние на деятельность действующих субъектов хозяйствования в регионах. По данной теме были изучены научно-теоретические взгляды зарубежных и отечественных ученых. Изучены проблемы, связанные с данной областью, и на их основе сделаны выводы и разработаны предложения в решениях этих проблем.

Ключевые слова: государство, бюджет, местный бюджет, экономика, доходы, развитие, налоги, эффективность налогообложения, оценка, производство, стимулы, население, инвестиции.

KIRISH

Soliqlarning muhim vazifalaridan biri bu milliy iqtisodiyotda hududlarning bir maromda rivojlanishini ta'minlash vazifasidir. Bu esa ma'lum bir moliyaviy instrumentlar orqali amalga oshiriladi. Aslida moliyaviy instrumentlar turlicha vazifalarni bajarib, ular davlatning iqtisodiyotni tartibga solishda katta rol o'ynaydi. Hududlarni rivojlantirishda soliq tizimining samaradorligini oshirish investitsiyalarni jalb etish, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va hududlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Bu o'z o'zidan sodir bo'lmaydi. Bu esa, soliq qonunchiligini tahlil qilish va soddalashtirish, amaldagi soliq qonunchiligini tahlil qilish va uni soddalashtirish va takomillashtirish imkoniyatlarini aniqlash, hududlarga sarmoya kiritayotgan kompaniyalar uchun soliq imtiyozlari va imtiyozlarini joriy etish, masalan, soliq stavkalarini pasaytirish, soliqlarning ayrim turlaridan ma'lum muddatga ozod qilish masalalarini ko'rib chiqish, asosiy tarmoqlarga investitsiyalarni jalb qilish uchun sharoit yaratish, mahalliy biznesni rivojlantirish, kichik va o'rta biznesni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan soliq chora-tadbirlarini joriy etish, ya'ni o'z faoliyatini boshlagan tadbirkorlarni rag'batlantirish, aylanmasi cheklangan korxonalar uchun soliq majburiyatlarini kamaytirish kabi choralarni ko'rishni taqozo etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolani tayyorlashda analitik tahlil, induksiya, deduksiya, ma'lumotlarning qiyosiy va staistik tahlili, abstraksiya usullaridan foydalanildi. Maqolada Hududlarda soliq tizimining samaradorligini oshirishda soliq salohiyatini aniqlash va tahlil qilishning hozirgi holati analitik va qiyosiy tahlillardan kengroq foydalanildi. Tadqiqot obyekti sifatida soliq tizimi misol qilib olindi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Soliq tizimi orqali hududlarning rivojlanishiga ta’sir qilish masalalari bo‘yicha ko‘pgina ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Shunday olimlardan biri S.Chujmarova ham soliqlar va hududiy muammolarni tadqiq qiladi. U soliqlarni budjetlararo munosabatlar bilan bog‘liqlikda tadqiq qiladi, ularni muvofiqlashtirish bo‘yicha o‘zining uslubiy yondoshuvlarini izohlaydi, tadqiqot jarayonida hududning soliq salohiyatini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish hamda mintaqaviy soliq siyosatini amalga oshirishni baholashning uslubiy vositalarini, federal va mintaqaviy soliqning ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini oshirishning asosiy yo‘nalishlarini ko‘rsatib beradi. Shuningdek, mintaqada tabiiy resurslardan foydalanishga ixtisoslashgan shimoliy hududlar sharoitlari uchun soliq siyosatini tahlil qilgan holda, bu bilan bog‘liq hududiy soliq siyosatini shakllantirish va amalga oshirishga nazariy va uslubiy yondashuvini ishlab chiqqan, soliq siyosatini amalga oshirishning hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga ta’sirini baholashning uslubiy qoidalarini va mintaqaviy darajada soliq boshqaruvini rivojlantirishga oid mualliflik yondashuvini keltirgan[1].

Yana bir o‘zbek olimlaridan biri i.f.d. I.Niyazmetovning ilmiy tadqiqotlarida soliq tizimining barqarorligini ta’minlash masalalari yoritilgan bo‘lib, unda qo‘shilgan qiymat solig‘i (QQS) mexanizmining to‘laqonli ishlashini ta’minlash uchun ushbu soliqni barcha tadbirkorlik subyektlariga tatbiq qilish orqali uning qamrovini kengaytirish va stavkasini pasaytirish orqali hududlardagi soliq to‘lovchilarning faoliyatini rag‘batlantirish asosida hududlarning iqtisodiy rivojlanishiga ta’sir qilish masalasi ko‘tarilgan va uning ilmiy asoslarini ko‘rsatib bergan. Shuningdek, I.Niyazmetovning fikricha, hududlardagi yirik korxonalarda soliqlar sonini qisqartirish va ularning soliq yukini kamaytirish maqsadida davlat maqsadli jamg‘armalariga majburiy ajratmalarni unifikatsiyalash, stavkasini pasaytirish va bosqichma-bosqich bekor qilish orqali ham hududlarlagi soliq to‘lovchilarda qo‘shimcha mablag‘lar qoldirish ularning rivojlanishini ta’minlash mumkin. Uning QQSga tortilmaydigan oborotlar va faoliyat turlarini shakllantirish, shuningdek, ijtimoiy tovarlar uchun uning pasaytirilgan stavkasini joriy etish taklifi ham hududlarning rivojlanishiga soliq tizimining ta’sirini ifodalaydi, fikrimizcha, I.Niyazmetov tomonidan ilgari surilgan ilmiy takliflarning mohiyatan o‘z mohiyatiga ega bo‘lsa-da, ammo, mamlakatimizdagi hududlarning rivojlanish darajasi turlicha bo‘lganligi sababli ularning rivojlanishiga soliq tizimining ta’sirida ham umumiy yondoshuv bilan bir qatorda alohida yondoshuvlarni ham talab qiladi, bundan tashqari ushbu olimning taklifi asosida foyda solig‘i bilan (obyekti hamda bazasini unifikatsiyalash hamda yagona foyda solig‘iga birlashtirish) hududlarning mahalliy budjetlariga tushadigan obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i bo‘yicha tushumlar respublika budjetiga tushishi esa, hududlarning rivojlanishiga moliyaviy jihatdan salbiy ta’sir qilganligini ham ta’kidlash mumkin[2].

Dorjdeyev (2000) fikriga ko‘ra, tartibga soluvchi soliqlardan ajratmalar bir xil yoki differensial meyorlarda belgilanishi masalasi bo‘yicha, barcha hududlarga bir xil miqdordagi ajratmalar emas, balki ularni hisoblanishidagi yagona usulda amalga oshirilishi lozim deb biladi. Tartibga soluvchi daromadlardan barcha hududlar uchun bir xil miqdordagi ajratmalarni o‘rnatilishi, to‘liq tartibga solish funksiyasini to‘la qonli bajarishga to‘sqinlik qiladi. Differensiyalangan me’yorlar har bir hududni xususiyatlarini hisobga olish va nafaqat vertikal, balki gorizontal tenglashtirishni ta’minlash imkoniyatini beradi. Biroq tartibga soluvchi soliqlarning differensial meyorlarni obyektiv asoslarda amalga oshiradigan usul zarur[3].

Xayriddinov (2018) davlat budjetni shakllantirishda mahalliy budjetni o‘rnini oshirish lozimligini ta’kidlagan va har bir hududdagi soliq tizimi tomonidan undirilishi lozim bo‘lgan umumdavlat soliqlari bo‘yicha soliq summalarining ma’lum bir qismini bevosita mahalliy budjetlarning ixtiyorlariga biriktirilgan daromadlar ko‘rinishida qat’iy hissada va doimiy asosda qoldirilishi oldindan belgilanib qo‘yilishi kerakligini, bunda asosiy urg‘u daromadlarni budjet tizimi bo‘g‘inlari o‘rtasida qayta taqsimlashning asosiy kombinasion variantlaridan biri bo‘lgan me’yoriy ajratmalar tizimini takomillashtirishga qaratilmoqda, bozor iqtisodiyotining talablaridan kelib chiqqan holda, mahalliy budjetlar daromad bazalari barqarorligini ta’minlashda ularning biriktirilgan daromadlariga ustuvorlik berish maqsadga muvofiqligini ta’kidlaydi[4].

A.V.Vahobov, T.S. Malikovlar “Davlat bor ekan, davlat budjetiga to‘lovlar ham mavjud bo‘ladi. Lekin budjetga to‘lovlarning shakli ma’lum bir bosqichda jamiyatning oldiga qo‘yilgan vazifalarga muvofiq ravishda o‘zgarib boradi”[5], deb ta’kidlashgan.

1 Чужмарова Светлана Ивановна. Методология формирования и реализации налоговой политики в северных регионах россии Специальность: 08.00.10 – Финансы, денежное обращение и кредит Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора экономических наук. Екатеринбург – 2014. стр.28.

2 Niyazmetov Islambek Masharipovich. Soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish orqali soliq tizimi barqarorligini ta’minlash. 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi AVTOREFERATI Toshkent – 2018 yil 70 b.

3 Дорждеев А. Межбюджетные отношения в РФ: обеспечение единства интересов центра и регионов // Проблемы теории и практики управления. – № 4. – 2000. – С. 75.

4 Xayriddinov A.B. Mahalliy budjetlar daromad bazalarining barqarorligini ta"minlash yo„llari. I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan diss. avtoreferati. –T.: 2011. –b. 13.

5 Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya. Darslik /2012. 712-bet(289b).

TAHLIL VA NATIJALAR

Hududlarda soliq tizimining samaradorligini oshirishda soliq salohiyatini aniqlash va tahlil qilishning hozirgi holati iqtisodiyotning barqarorligi va rivojlanishini ta'minlashning muhim vazifasidir. Hududlardagi soliq salohiyatini tahlil qilishda quyidagi jihatlarni hisobga olish kerak, ya'ni umumiy soliq salohiyatini baholash hisoblanadi. Bunda birinchidan, mavjud vaziyatni tahlil qilish va hududdagi soliq tushumlarining mumkin bo'lgan umumiy miqdorini aniqlash kerak. Foyda solig'i, savdo solig'i, aksiz solig'i va boshqa soliq manbalarini hisobga olish muhimdir. Soliq yig'ish samaradorligini aniqlash borasida asosiy qadam amaldagi soliq yig'ish tizimining samaradorligini baholashdir. Bunga soliq tushumlarini yig'ish darajasini baholash, yig'ish jarayonidagi muammolarni aniqlash, aylanmalarni yashirish va soliqlarni to'lamaslik kiradi. Ushbu ma'lumotlarga asoslanib, soliq yig'ish samaradorligini oshirish strategiyasini ishlab chiqish mumkin. Budjet ehtiyojlarini tahlil qilishda soliq tizimining samaradorligini aniqlash uchun hududning budjet ehtiyojlarini ham tahlil qilish kerak bo'ladi. Bu bizga joriy soliq tushumlari hududning turli dastur va xizmatlarni moliyalashtirishdagi ehtiyojlarini qanday aniqlash kerakligi imkonini beradi. Bu borada strategiyani ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda tahlil asosida soliq tizimining samaradorligini oshirish strategiyasini ishlab chiqish kerak. Hududlarning soliq salohiyatini rivojlantirish 2 ta asosiy yo'nalishni o'z ichiga olishi kerak ya'ni birinchisi soliq salohiyatini rivojlantirish maqsadida hududning investitsion jozibadorligini oshirish va soliq tushumlarini ko'paytirish maqsadida soliq bazasini kengaytirish (1-rasmga qarang)

1-rasm: Hududlarning soliq salohiyatini rivojlantirish yo'nalishlari[6]

6 Muallif tomonidan tayyorlandi.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Yuqoridagi 1-rasmda hududlarning soliq salohiyatini rivojlantirish bir necha asosiy jihatlarga qaratilishi mumkin. Bunda asosan, investitsiyalarni jalb qilish hisoblanadi. Hududlar qulay investitsiya muhitini yaratish, korxonalar va venchur investorlarni jalb qilish uchun imtiyozlar berish bo‘yicha faol ish olib borishi mumkin. Bu ish o‘rinlari sonini va aholi daromadlarini, natijada soliq tushumlarini ko‘paytiradi. Biznesni rivojlantirish bo‘yicha esa kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash soliq to‘lovchilar sonini ko‘paytirishga yordam beradi. Hududiy hokimiyat organlari ro‘yxatga olish jarayonini osonlashtirish, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash va biznes infratuzilmasining mavjudligini oshirish orqali tadbirkorlarga imtiyozlar berishlari mumkin. Turizm va xizmatlarni rivojlantirish borasida esa boy madaniy va tabiiy merosga ega bo‘lgan hududlar, shuningdek, noyob sayyohlik joylari turizm sohasini faol rivojlantirishi mumkin. Bu turistik tashriflardan qo‘shimcha daromad jalb qiladi va soliq bazasini oshiradi. Infratuzilmani rivojlantirishda yuqori sifatli infratuzilma yangi investitsiyalarni jalb qiladi va hududning iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo‘shadi. Bunga transport kommunikatsiyalari, energetika, kommunal infratuzilma va boshqa sohalarni rivojlantirish kiradi, bu esa hududning biznes va rentabelligini oshirishga yordam beradi. Korrupsiyaga qarshi kurash va nazoratni kuchaytirish bo‘yicha esa korrupsiyaga qarshi samarali siyosat va soliq majburiyatlarining bajarilishini qat’iy nazorat qilish soliq mablag‘lari yig‘ilishini ko‘paytirishga yordam beradi. Buning uchun elektron buxgalteriya tizimlari va axborot almashinuvi joriy etilishi, davlat organlari faoliyatining shaffofligi va mansabdor shaxslarning mas’uliyatini oshirish talab etiladi. Ta’lim tizimini rivojlantirish va kadrlar tayyorlash borasida hudud iqtisodiyotning turli sohalarida yuqori malakali mutaxassislar bilan ta’minlash uchun ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimiga sarmoya kiritishi kerak. Bu iqtisodiyotning innovatsion va yuqori texnologiyali tarmoqlarini rivojlantirishni rag‘batlantiradi, bu esa o‘z navbatida soliq tushumlarini ko‘paytiradi. Ushbu sohalar hududlarning soliq salohiyatini rivojlantirishga va budjetlarga soliq tushumlarini ko‘paytirishga yordam beradi, bu hudud iqtisodiyotning barqarorligi va rivojlanishiga yordam beradi.

Hududlarning soliq salohiyatini baholashning bir necha usullari mavjud. Ulardan ba’zilari:

1. Statistik tahlil usulida aholining daromadlari va xarajatlari, hududning iqtisodiy rivojlanishi, tadbirkorlik faoliyati hajmi va boshqa omillar to‘g‘risidagi statistik ma’lumotlarni tahlil qilishga asoslangan. Tahlil natijalariga ko‘ra hududning soliq salohiyati to‘g‘risida xulosalar chiqarish mumkin.
2. Modellashtirish usulida soliq tushumlarini YAIM, ishsizlik darajasi, investitsiyalar va boshqalar kabi turli xil o‘zgaruvchilar asosida bashorat qilish uchun ekonometrik modellardan foydalanadi. Modellar statistik ma’lumotlar yoki ekspert baholari yordamida tuzilishi mumkin.
3. Ma’muriy resurslarni baholash usuli yordamida soliq tushumlarining salohiyatini soliq xodimlarining soni, ularning malakasi, soliq yig‘ish samaradorligi va ma’muriy ishning boshqa jihatlari kabi ma’muriy resurslarni tahlil qilish asosida hisoblanadi.
4. Benchmarking usuli bo‘lib, unda bir hududning soliq tushumlarini o‘xshash xususiyatlarga ega bo‘lgan boshqa hududlar bilan taqqoslaydi. Bunday taqqoslash hududning soliq salohiyatidagi potensial muammolar yoki afzalliklarni aniqlash imkonini beradi.

Bu usullarning barchasi hududlarning soliq salohiyatini baholash uchun ishlatilishi mumkin. Biroq har bir usul o‘ziga xos xususiyatlarga ega va aniq natijalarga erishish uchun tegishli ma’lumotlarni to‘plash va tahlil qilishni talab qiladi.

Hududlarning soliq salohiyatini baholashning statistik tahlili muayyan hududlarning iqtisodiy holati va moliyaviy holatini tushunishning muhim vositasidir. Ushbu usul hududning soliq salohiyatiga ta’sir qiluvchi turli omillarni batafsil tahlil qilish va uning soliq yig‘ish imkoniyatlarini aniqlash imkonini beradi. Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda iqtisodiyotni rivojlantirish asosida budjetning daromadlar tushumi qonun hujjatlariga muvofiq yuridik hamda jismoniy shaxslarning to‘lagan soliq va yig‘imlar sosida to‘planadi. Respublika bo‘yicha viloyatlarning jami Respublikada undirilgan davlat budjeti daromadlardagi ulushi turli-tumandir. Respublikaning viloyatlar kesimida budjetga undirilgan daromadlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy salohiyati yuqori shahar va tumanlarda budjetga tushumlar miqdori ham yuqori bo‘lmoqda. Qolaversa, shahar va tumanlar iqtisodiyotini yanada rivojlantirish hisobiga YAHMni miqdor jihatdan ko‘paytirishga yo‘naltirilgan islohotlar natijasida soliq bazasinining kengayishi hisobiga yuqorida tilga olingan hududlarda davlat budjetiga tushumlar miqdori ortib borgan.

Davlat budjeti daromadlari 2023-yil 164,8 trln so‘mni tashkil qildi va 2022-yildagi tushumlarga (132,9 trln. so‘m) nisbatan 24 foizga yoki 31,9 trln. so‘mga oshdi. Davlat budjeti daromadlarining 77,7 foizi soliq tushumlaridan (Davlat soliq qo‘mitasi nazorati ostidagi), 20,2 foizi qismi bojxona (Davlat bojxona qo‘mitasi nazorati ostidagi) va boshqa soliqsiz tushumlar hisobiga shakllantirildi. 2023-yilda Davlat soliq qo‘mitasi bo‘yicha belgilangan prognoz ko‘rsatkichlari 14,8 trln. so‘m ortig‘i bilan (113,1 %) bajarildi yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 24,4 trln. so‘mga (23,6 %) oshdi. Yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasi bo‘yicha belgilangan prognoz esa 8 trln. so‘m ortig‘i bilan (110,8 %) bajarildi. Mahalliy budjetlar ixtiyorida jami 9,1 trln. so‘m mablag‘lar qoldirildi.

Davlat budjeti daromadlari tarkibiga so‘nggi uch-yildagi soliq siyosati choralarining o‘zgartirilishi, ilgari berilgan soliq imtiyozlarining bekor qilinishi, iqtisodiyot sektorlarida olib borilayotgan islohotlar hisobiga soliq

bazasining kengaytirilishi, shuningdek, xom ashyo tovarlari narxlarining dinamikasi ta'sir ko'rsatdi. O'zbekiston hududlarida soliq tizimining samaradorligini oshirishda soliq salohiyatini aniqlash va tahlil qilishning hozirgi holatini bir qator ko'rsatkichlarda ifodalash mumkin. Hududlarda mahalliy davlat hokimiyati organlarining mahalliy budjet mablag'larini boshqarish bo'yicha mustaqilligini oshirish, budjet ijrosini markazga bog'liqligini keskin kamaytirish jarayonlarini chuqurlashtirish, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish Dasturlarini kafolatlangan moliyalashtirish manbalari bilan ta'minlash, mahalliy hokimliklarni mahalliy budjetlarni shakllantirishda va mablag'lardan samarali foydalanishda mas'uliyati va javobgarligini oshirish bo'yicha 2023-yil davomida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Buni 1-jadvalda ko'rishimiz mumkin.

1-jadval: 2023-yillarda hududlar bo'yicha soliq tushumlarining hududlar salohiyatiga ta'siri tahlili[7]

№	Hududlar nomi	Reja	Ijro	Foizda
	Jami	**58,9**	**65,5**	**111,2%**
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	4,1	4,4	107,4%
2	Andijon viloyati	4,7	4,9	104,7%
3	Buxoro viloyati	3,7	4,1	111,2%
4	Jizzax viloyati	2,7	2,9	107,6%
5	Qashqadaryo viloyati	5,8	6,1	105,9%
6	Navoiy viloyati	2,4	2,6	109,3%
7	Namangan viloyati	4,6	5,0	107,3%
8	Samarqand viloyati	5,2	5,7	109,0%
9	Surxondaryo viloyati	4,6	4,8	105,0%
10	Sirdaryo viloyati	2,0	2,1	105,1%
11	Toshkent viloyati	4,2	4,9	117,1%
12	Farg'ona viloyati	5,3	5,9	110,3%
13	Xorazm viloyati	3,2	3,3	105,3%
14	Toshkent viloyati	6,6	8,9	135,2

Yuqoridagi jadvalda 2023-yilda mahalliy budjetlarning daromadlar qismi prognozga nisbatan 119 foizga bajarildi yoki 35,2 trln so'mni, xarajatlar qismi esa rejaga nisbatan 111 foizga ijro etilib, 65,5 trln so'mni tashkil etdi. Mahalliy budjetlar mustaqilligini oshirish bo'yicha Hukumat tomonidan amalga oshirilgan amaliy chora-tadbirlar natijasida 2021-yil davomida mahalliy budjetlarning daromad ko'rsatkichi 5,7 trln so'm ortig'i bilan ijro etildi.

2022-yil 1-yanvardan boshlab avtotransport vositalarini sotib olganlik va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig'im bekor qilindi. Umumiy ovqatlanish korxonalariga mahalliy davlat hokimiyati organlariga ariza yubormasdan turib, soliq organlarini xabardor qilgan holda aylanmadan olinadigan soliq, foyda solig'i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq va yig'imlar bo'yicha 2021-yil 15-avgust holatiga ko'ra mavjud qarzdorlikni, shuningdek, barcha soliqlar bo'yicha jarima va penyalarni 2022-yil 1-yanvardan 1-iyulga qadar foizlarni undirmasdan teng miqdorlarda kechiktirib (bo'lib-bo'lib) to'lash huquqi berildi. 2022-yil 1-yanvardan boshlab tadbirkorlik subyektlariga (bundan davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo'lgan korxonalar, yer qa'ridan foydalanuvchilar va aksiz osti mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar mustasno) umumiy maydoni 1 000 kvadrat metrdan ortiq bo'lgan yer uchastkalariga va (yoki) bino va inshootlarga nisbatan huquqini ro'yxatdan o'tkazib, qo'lga kiritganda mol-mulk solig'i va yer solig'i bo'yicha hisoblangan soliqlarni to'lashni olti oy muddatga kechiktirish huquqi berildi. 2021-yilda soliq imtiyozlari summasi 42,1 trln. so'mni, shu jumladan Soliq kodeksiga muvofiq – 33,0 trln. so'mni (78,4 %) tashkil qildi. Qayd etish lozimki, 2021-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va Hukumatining 46 ta qarorlarida nazarda tutilgan soliq imtiyozlari amal qilish muddati tugadi, ular bo'yicha imtiyozlar summasi 1,2 trln so'mni tashkil qildi. Soliq "imtiyozlari" umumiy hajmida QQS hisobiga 35,7 trln so'm, shu jumladan 15,3 trln. so'm QQS bo'yicha nol darajali stavkasiga (eksport, xalqaro tashishlar, qimmatbaho metallar realizatsiyasi) to'g'ri keladi. Ta'kidlash joizki, QQSning nol darajali stavkasi qo'llanilishi imtiyoz deb hisoblanmaydi, balki QQSning ishlash prinsipidir.

7 Soliq qo'mitasining ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, soliq salohiyatini oshirish choralari nafaqat tadbirokrlik subyektlarining mavjud zaxiralari hisobiga soliq bazasini kengaytirishni, balki investitsiya salohiyatini rivojlantirish orqali yangi soliq bazasini yaratishni ham o‘z ichiga olishi mumkin. Soliq salohiyatiini oshirish bo‘yicha biz tomonimizdan taklif qilingan chora-tadbirlarni amalga oshirish soliq tushumlarini maksimal darajada oshirishga yoki (birinchi navbatda) iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini rivojlantirish uchun imtiyozli shart-sharoitlarni yaratish bilan investitsiya salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishi mumkin.

Hududlardagi soliq salohiyatini tahlil qilishda quyidagi jihatlarni hisobga olish kerakligini xulosa qildik:

1. Umumiy soliq potensialini baholash bilan birinchidan mavjud vaziyatni tahlil qilish va mintaqadagi soliq tushumlarining mumkin bo‘lgan umumiy miqdorini aniqlash kerak. Foyda va daromad solig‘i va boshqa soliq manbalarini hisobga olish muhimdir.
2. Soliq yig‘ish samaradorligini aniqlashda keyingi qadam amaldagi soliq yig‘ish tizimining samaradorligini baholashdir. Bunga soliq tushumlarini yig‘ish darajasini baholash, yig‘ish jarayonidagi muammolarni aniqlash, soliqlarni to‘lamaslik kiradi. Ushbu ma’lumotlarga asoslanib, soliq yig‘ish samaradorligini oshirish strategiyasini ishlab chiqish mumkin.
3. Budjet ehtiyojlarini tahlil qilishda soliq tizimining samaradorligini aniqlash uchun hududning budjet ehtiyojlarini ham tahlil qilish kerak. Bu bizga joriy soliq tushumlari mintaqaning turli dastur va xizmatlarni moliyalashtirishdagi ehtiyojlarini qanday qondirishini aniqlash imkonini beradi.
4. Strategiyani ishlab chiqishda tahlil asosida soliq tizimining samaradorligini oshirish strategiyasini ishlab chiqish kerak. Bunga soliq yig‘ish mexanizmlarini takomillashtirish, yangi soliq bazalarini jalb qilish, soliq to‘lashdan bo‘yin tovlaganlarga qarshi kurash va me’yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish kiradi.

Hududlarni rivojlantirishda soliq tizimining samaradorligini oshirish soliq salohiyatini aniqlash va hozirgi holatini tahlil qilish iqtisodiyotning barqarorligi va rivojlanishini ta’minlashning muhim vazifasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Чужмарова Светлана Ивановна. Методология формирования и реализации налоговой политики в северных регионах россии Специальность: 08.00.10 – Финансы, денежное обращение и кредит Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора экономических наук. Екатеринбург – 2014. стр.28.
2. Niyazmetov Islambek Masharipovich. Soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish orqali soliq tizimi barqarorligini ta’minlash. 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi AVTOREFERATI Toshkent – 2018-yil 70 b.
3. Дорждеев А. Межбюджетные отношения в РФ: обеспечение единства интересов центра и регионов // Проблемы теории и практики управления. – № 4. – 2000. – С. 75.
4. Xayriddinov A.B. Mahalliy budjetlar daromad bazalarining barqarorligini ta’minlash yo‘llari. I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan diss. avtoreferati. –T.: 2011. –b. 13.
5. Федорова Е.А., Левина В.В., Печникова Т.В. Межбюджетные трансферты как инструмент Финансового регулирования доходов муниципальных бюджетов в Тульской области. Финансы и кредит. 29 (233) – 2006. ст. 18-25.
6. Мишина С.В. Налоговое регулирование доходов местных бюджетов. Бухгалтерский учет в бюджетных и некоммерческих организациях. 4(244)-2010. Ст.35-40.;
7. Т. К. Говорушина. Формирование доходов бюджетов муниципальных образований.
8. Ваҳобов А.В., Маликов Т.С. Молия. Дарслик /Тошкент Молия институти. – Тошкент: “Ношир”, 2012. 712-бет(289б).
9. O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksi. http://www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi qonunlari bazasi sayti.
10. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 25.12.2023-yildagi O‘RQ-886-son
11. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo‘mitasi

KO‘CHMAS MULK BOZORINI BAHOLASHNING INSTITUTSIONAL ASOSLARI

Ishonqulov Nizamjon Fayzullayevich
Iqtisodiyot fanlari nomzodi,
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti dotsenti

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekistonda ko‘chmas mulk bozorini baholashning institutsional asoslari aks ettirilgan. Jumladan, raqamli iqtisodiyot sharoitida ko‘chmas mulk bozorini baholash faoliyatida IT texnologiyalari va sun’iy intellektdan foydalanish, baholash faoliyatini tartibga solish mexanizmi, baholash faoliyatining subyektlari va tartibga solishning asosiy instrumentlari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: ko‘chmas mulk, baholash, ko‘chmas mulk bozorini baholash, raqamli iqtisodiyot, mexanizm, tartibga solish mexanizmi, tartibga solish instrumentlari, baholash faoliyatining subyektlari.

Abstract: The article reflects the institutional basis of real estate market evaluation in Uzbekistan. In particular, the use of IT technologies and artificial intelligence in the evaluation of the real estate market in the conditions of the digital economy, the mechanism of regulation of evaluation activities, the subjects of evaluation activities and the main instruments of regulation were considered.

Key words: real estate, evaluation, real estate market evaluation, digital economy, mechanism, regulatory mechanism, regulatory instruments, subjects of evaluation activity.

Аннотация: В статье отражены институциональные основы оценки рынка недвижимости в Узбекистане. В частности, были рассмотрены вопросы использования IT-технологий и искусственного интеллекта при оценке рынка недвижимости в условиях цифровой экономики, механизм регулирования оценочной деятельности, субъекты оценочной деятельности и основные инструменты регулирования.

Ключевые слова: недвижимость, оценка, оценка рынка недвижимости, цифровая экономика, механизм, механизм регулирования, инструменты регулирования, субъекты оценочной деятельности.

KIRISH

Jahonda ko‘chmas mulk bozorini rivojlantirish, ko‘chmas mulkni baholash amaliyotini bozor iqtisodiyoti shartlariga ko‘ra takomillashtirish bo‘yicha ilmiy izlanishlarga e’tibor qaratilmoqda. Raqamli iqtisodiyot sharoitida ko‘chmas mulk bozorini baholash faoliyatida IT texnologiyalari va sun’iy intellektdan foydalanish, ko‘chmas mulkni baholash jarayonida shaffoflikni ta’minlash borasida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Lekin ko‘chmas mulkni qiyosiy yondashuv asosida baholashda solishtiriladigan elementlar bo‘yicha yagona ma’lumotlarni to‘plash zarurligi, investitsiya maqsadlari uchun ko‘chmas mulkni baholashda pul oqimlarini diskontlash uchun kapitallashtirish stavkasini hisoblash, baholash yondashuvlari bo‘yicha vazni koeffitsiyentlari bo‘yicha ustuvorlik berishning uslubiy jihatlarini takomillashtirish ilmiy tadqiqotlarda yetarlicha tadqiq etilmagan.

O‘zbekistonda ko‘chmas mulkni baholash orqali mulkning haqiqiy bozor qiymatini aniqlash, ko‘chmas mulkka bo‘lgan qonuniy huquq-manfaatlarni himoya qilish maqsadida ko‘chmas mulkning bozor qiymatini baholash, ko‘chmas mulkni baholash xizmatlari bozorida professonal ishtirokchilar ishtirokini kengaytirishga e’tibor qaratilmoqda. Respublikada “xususiy mulk daxlsizligi va tadbirkorlik faoliyati erkinligini kafolatlash borasidagi institutsional va ma’muriy islohotlarni davom ettirish hamda bu borada qonun ustuvorligini ta’minlash” [1] vazifalari belgilab berilgan. Mazkur vazifa ijrosini ta’minlashda ko‘chmas mulkning haqiqiy adolatli qiymatini aniqlash, ko‘chmas mulk obyektlari bo‘yicha tuzilmagan bitimlar bo‘yicha yagona ma’lumotlar bazasini shakllantirish, xorijiy tajribalar asosida ko‘chmas mulkning kadastr qiymatini aniqlash asosida mulkni soliqqa tortish amaliyotini takomillashtirish, baholashning xalqaro standartlarini mulkni baholash yagona milliy standartlariga moslashtirish kabilar ustuvor masalalardan biri sifatida qaralmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Baholash faoliyatini ilmiy-nazariy jihatlarini tadqiqot etish, shu jumladan, ko‘chmas mulk bozorini baholashning institutsional asoslarini yanada takomillashtirishning ilmiy-nazariy asoslari qator xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar, amaliyotchi mutaxassislar tomonidan tadqiq etilgan.

Xususan, Amerikalik iqtisodchilar J.Fridman hamda N.Ordvey tomonidan yozilgan “Daromad keltiruvchi ko‘chmas mulkni tahlil qilish va baholash” nomli qo‘llanmasida mualliflar ko‘chmas mulk bozorini ko‘chmas mulkni yaratish, uzatish, faoliyat yuritish va moliyalashtirishni ta’minlaydigan bozor mexanizmlarining o‘zaro bog‘langan tizimi sifatida tushuntiradi [2].

MDH iqtisodchi olimlaridan hisoblangan S.N.Goveyko: “Ko‘chmas mulk bozorini baholash faoliyatiga raqamli iqtisodiyot elementlarini joriy etish, shu jumladan, baholash uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash, ularga kirish, yangilash uchun zamonaviy IT-texnologiyalar (bulutli texnologiyalar, blokcheyn texnologiyalari, ma’lumotlarni qazib olish) va baholash obyektlarining xususiyatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan ma’lumotlar bazalari, BigData, sun’iy intellekt texnologiyalardan foydalanish zarur[3] ekanligini ta’kidlagan.

Rossiyalik iqtisodchi L.V.Slezko o‘zining ilmiy-tadqiqot ishlarida “Rossiya Federatsiyasida ko‘chmas mulk bozorini baholashga oid bo‘lgan baholash yondashuvlari korporatsiyaning ko‘chmas mulkini biznes qiymatini oshirish nuqtayi nazaridan baholashda daromadli yondashuv (pul oqimlarini diskontlash) usuli eng mos kelishini ta’kidlagan” [4].

Mamlakatlarda ko‘chmas mulk bozorining rivojlanish darajasini va uning o‘zgarish dinamikasini hisobga olgan holda shuni ta’kidlash kerakki, bu masalada ushbu masalani ma’muriy tartibga solish, xususan, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash choralari muhim rol o‘ynaydi. Demak, har bir mamlakatda ko‘chmas mulk bozorini, shu jumladan, uy-joy sektorini rivojlantirishda u yoki bu darajada davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi kutilmoqda. Shu bilan birga, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning faollik darajasi mamlakatlarga qarab har xil bo‘lib, bu keyinchalik rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda uy-joy tizimini shakllantirishda farqlarning mavjudligini keltirib chiqaradi [5].

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan A.Nabixodjayev o‘z tadqiqotlarida ko‘chmas mulkni daromadli yondashuv asosida baholashda qo‘llanilayotgan kapitallashtirish stavkasini hisoblash uchun inflyatsiya indeksidan foydalanishni taklif etadi. Bunda inflyatsiya indeksi hisoblash uchun tanlangan valyutaga muvofiq bo‘lishi lozimligini qayd etadi.

Bazaviy inflyatsiya – bu inflyatsiyaning bir qismi bo‘lgan va o‘zida ma’muriy hamda mavsumiy omillarning narxlardagi ta’sirini hisobga olmagan holda tovar va xizmatlar narxlarining erkin o‘zgarishini (dinamikasini) aks ettiruvchi ko‘rsatkich ekanligini ko‘rsatib o‘tadi [6].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada ilmiy abstraksiyalash, qiyoslash usuli, ekspert baholash, iqtisodiy kuzatish, monografik tadqiqotlar, sotsiologik kuzatishlar va ularning natijalarini tahlil qilish, dinamik tahlil va chiziqli bog‘lanishlar usullaridan foydalanilgan.

NATIJA VA MUHOKAMA

Bozor iqtisodiyoti mulkchilikning turli shakllariga asoslanishi bilan ko‘chmas mulk bozori bilan chambarchas bog‘liqdir. Shuningdek, ko‘chmas mulk bozori dunyo mamlakatlari yalpi boyligining asosiy qismini tashkil etadi. Iqtisodiyotning yirik tarmog‘i sifatida ko‘chmas mulk bozorining ahamiyati shundan iboratki, iqtisodiy faoliyatni tashkil etish, sanoat tarmoqlari faoliyatini yuritish, aholini uy-joylar bilan ta’minlash bilan bog‘liq iqtisodiy munosabatlarning zamirida ko‘chmas mulk bozori va u bilan bog‘liq bo‘lgan moliyaviy-iqtisodiy munosabatlar yotadi.

Shu bois ko‘chmas mulk bozorining ilmiy-nazariy asoslarini tadqiq etish orqali mulk bozorining rivojlanishi haqida tegishli gipotezalarni shakllantirish, nazariy asoslari orqali ko‘chmas mulk bozori faoliyatiga oid baholash va investitsion qarorlar qabul qilishni tahlil etish zaruriyati yuzaga keladi.

Bugungi kunda baholash faoliyatini tartibga solish, ushbu faoliyatni davlat tomonidan muvofiqlashtirish, uning uslubiy ta’minotini, novmativ-huquqiy bazasini takomillashtirib borish, baholash faoliyati ishtirokchilari, xususan, professional ishtirokchilari faoliyatini litsenziyalash, baholovchilarga malaka serfitikatlarini berish, umuman olganda mazkur faoliyatni baholash xizmatlari bozori bilan yaxlit holda tartibga solish murakkab bir mexanizmni tashkil etadi, albatta. Ushbu faoliyat xizmatlar bozori segmentining muhim bir tarmog‘i hisoblangan, baholash xizmatlari bozorida doimiy harakatda bo‘lishini inobatga olsak, baholash faoliyatini tartibga solish ham muhim o‘rin egallaydi.

Baholash faoliyatini tartibga solish mexanizmi tuzilmasining instrumental, institutsional va funksional tarkiblarini ko‘rib o‘tishdan oldin “mexanizm” tushunchasiga aniqlik kiritib olish, uni nazariy jihatdan ko‘rib chiqish muammosi mavjud.

Shuningdek, ko‘chmas mulk bozorini baholashning ilmiy-nazariy va tashkiliy asoslarini tadqiq etish jarayonida hamda ko‘chmas mulkni baholash faoliyati va uni tartibga solish mexanizmini tadqiq etish orqali uning institutsional asoslari va funksional tarkiblarini tavsiflashda bir qator muammoli masalalar amalda mavjud.

Mazkur ilmiy tadqiqotning asosiy xususiyati shundan iboratki, ko‘chmas mulk bozorining ilmiy-nazariy asoslarini tadqiq etish orqali mulk bozorining rivojlanishi haqida tegishli gipotezalarni shakllantirish, nazariy asoslar orqali ko‘chmas mulk bozori faoliyatiga oid baholash va investitsion qarorlar qabul qilinishini tahlil etishdan iboratdir.

N.V.Gorodnova va N.Mavrina tomonidan ko‘chmas mulk bozorini boshqarishning iqtisodiy jihatlari borasida olib borilgan ilmiy-tadqiqotlarda quyidagicha ta’kidlanadi: “Ko‘chmas mulk bozori tarixidan ma’lumki, turar-joylar bilan bog‘liq munosabatlarni o‘zid aks ettirgan ko‘chmas mulk bozoriga oid huquqiy yondashuvlar bozorga ta’rif beriladigan iqtisodiy yondashuvlardan oldin mavjud bo‘lgan. Ya’ni “ko‘chmas mulk” kategoriyasi qadimgi Rim imperiyasi davridayoq huquqiy talqin etilib, ushbu davlatda mulklar yirik ikkita toifaga, jumladan, ko‘char va ko‘chmas mulklarga ajratishgan. Bu borada, roman-german huquq oilasi ilmiy tadqiqot ishlarida rim huquqi – davlatdagi mavjud yer uchastkalari (maydonlari), yer osti tabiiy boyliklari, mulkdorga taalluqli bo‘lgan yerlar hisobidan boshqalarning mehnati orqali yaratilgan barcha narsalar “ko‘chmas mulk” sifatida baholangan. Bu borada yer uchastkasi asosiy ko‘chmaslik xususiyatiga ega hisoblangan. Ular tomonidan quruqlikda mavjud bo‘lgan barcha narsalar yer yuzasining tabiiy yoxud sun’iy qismi, ya’ni “res soli” deya atalgan. Ahamiyatlisi, ularning fikricha, yer bilan bog‘liq bo‘lgan, uning yuza qismiga mustahkamlangan (tabiiy yoki sun’iy) narsalar yerning ajralmas tarkibiy qismi, ekanligi e’tirof etilgan”.[7]

“Mexanizm” tushunchasi iqtisodiyot sohasiga keng miqyosda tatbiq etilmoqda va “moliyaviy mexanizm”, “boshqaruv mexanizmi”, “ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot mexanizmi” kabi tushunchalarga bo‘lib ifodalanmoqda. “Mexanizm” tushunchasi ayrim paytlarda tizimdagi holatning majmuasini (masalan, “moliyaviy mexanizm” – moliyaviy tizim holatining umumiy ko‘rinishini), boshqa paytda esa, taraqqiyotning asosiy harakat manbasi, tizimning asosiy elementi, uning boshqa elementlar bilan o‘zaro ta’sir etish xususiyatlarini anglatadi.[8]

Ushbu tushuncha yuqorida ta’kidlaganidek, iqtisodiyot tarmoqlaridan biri bo‘lgan baholash xizmatlari bozorida hosil bo‘lishi bevosita, uning “iqtisodiy mexanizm” tushunchasini bilan bog‘liqlikda talqin etilishini taqozo etadi. Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, iqtisodiy mexanizm tushunchasi “iqtisodiy tizim”lar bilan bevosita bog‘liq.

Iqtisodiy tizim – ma’lum bir davr va makonda jamiyatdagi turli xo‘jalik yurituvchi subeektlar o‘rtasida iqtisodiy munosabatlar, aloqalar, jarayonlarni bir butun holda, muayyan tarzda tarkib topishi va tartibga solinishini ifodalaydi. Shuningdek, u “ishlab chiqarish, daromad va uni taqsimlashga doir qarorlar qabul qilish va uni amalga oshirish mexanizmlari va institutlari (tartiblari) majmuyidir”.[9] Keyingi paytlarda, “iqtisodiy mexanizm” xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining bozor iqtisodiyoti talabi asosidagi boshqaruvning, hukumat vazifalariga mos ravishda tartibga keltirilish holati ko‘rinishida ham tasavvur qilinmoqda.[10]

Avvalombor shuni ta’kidlash joizki, baholovchi baholash yondashuvlari va usullarini asosli ravishda tanlash va qo‘llash baholovchining malakasidan kelib chiqqan holda o‘zi mustaqil tanlaydi va bu jarayonga mulk huquq egasi, buyurtmachi va uchinchi shaxslar aralashishi mumkin emas. Mustaqil baholovchi baholash yondashuvlari va usullarini asosli ravishda tanlash va qo‘llash uchun zarur va yetarli bo‘lgan hajmda baholash obyekti haqida axborot va bozorga oid axborotni yig‘ish va tahlil qilishi kerak.[11]

Ayni vaqtda baholovchi tashkilotlarning amaliy faoliyati o‘sib borayotgan zamonaviy talablarni qoniqtirmayapti. Baholash ishlari bir qator hollarda yuzaki va past professional darajada o‘tkazilmoqda.

“Baholash faoliyati to‘g‘risida”gi qonunga muvofiq va mustaqil baholash tizimini yanada rivojlantirish, baholash xizmatlarining malakasi hamda sifatini oshirish, baholovchi tashkilotlar faoliyatini tartibga solishning samarali usullarini tatbiq etishni taqozo etmoqda.



1-rasm: O‘zbekistonda baholash tashkilotlarini tashkil etishdagi ustav kapitalini shakllantirishga oid talablar[1]

1 Muallif ishlanmasi. Manba: https://lex.uz/docs/1347811

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Yuqoridagi rasm ma'lumotlarida mamlakatda baholash tashkilotlarini tashkil etishda ularning ustav kapitalini shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan talablar aks ettirilgan.

Yuqorida ko'rib chiqilganlar asosida ta'kidlash o'rinliki, baholash faoliyatini tartibga solish mexanizmi – bu baholash xizmatlari bozorida ushbu faoliyatni davlat yoki o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan nazorat qilish usullari, shakllari va asosiy vositalari hisoblanib, unda mazkur faoliyat ishtirokchilari (davlat, baholash kompaniyalari, baholovchilar, baholash tashkilotlarining professional birlashmalari va h.k) mazkur faoliyat davomida o'zaro munosabatlarini ifoda etuvchi va muvofiqlashtirib turuvchi tizimlar majmuasidir (2-rasm).



2-rasm: Baholash faoliyatini tartibga solish bilan bog'liq bo'lgan mexanizmlar[2]

Baholash faoliyatini tartibga solish mexanizmining obyekti – baholash faoliyati ishtirokchilari (suybektlari) o'rtasida vujudga keluvchi munosabatlardir. Shu sababli, ushbu faoliyat ishtirokchilari bo'lgan baholash faoliyati subyektlari faoliyatini ko'rib o'tish maqsadga muvofiq (3-rasm).



3-rasm: Baholash faoliyatining subyektlari [12]

Ko'chmas mulk obyektlarining mohiyatini aniqlovchi ko'rsatkichlar umumiy va ma'lum obyektga tegishli bo'lgan turlarga bo'linadi. Masalan, yer qishloq joylarda insonlarning yashashlarini va millatning ijtimoiy-hududiy rivojlanishini ta'minlovchi manfaat bo'lib xizmat qiladi. Daromad manbayi bo'lgan yer – qishloq xo'jalik ishlab

2 Muallif tomonidan tadqiqot natijalari asosida tuzilgan.

chiqarishining asosi, mustaqil murakkab (qurilgan binolar, inshootlar va h.k.lar bilan iqtisodiy aloqada) investitsiyalash obyekti, milliy boylikning bir qismi, soliqqa tortish obyekti, tabiat boyliklari manbayi (ko‘chmas mulk obyektlari orasida yagona) hisoblanadi.[13]

Yuqorida ko‘rib chiqilgan baholash faoliyatini tartibga solish va ushbu faoliyatni muvofiqlashtirish borasidagi ishlarni davlat tomonidan amalga oshirilishida bir qancha instrumentlardan keng foydalaniladi. Baholash faoliyatini tartibga soluvchi asosiy instrumentlarni quyidagi rasmdagi chizmaga ko‘ra tasvirlash mumkin (4-rasm).

4-rasm: Baholash faoliyatini tartibga solishning asosiy instrumentlari[3]

Keltirilgan chizmada baholash faoliyatini tartibga solish davomida davlat tomonidan foydalaniladigan asosiy unsurlar ifodalangan. Mazkur instrumentlar orqali, masalan faoliyatni litsenziyalash bilan birgalikda davlat baholovchi tashkilotlarning faoliyatini nazorat ham qiladi. Sababi, ular tomonidan qonun buzilishi holatlariga yo‘l qo‘yilgan taqdirda, mazkur instrument orqali baholash tashkilotlari faoliyatini to‘xtatiladi yoxud tugatiladi.

Mazkur instrumentlardan foydalangan holda baholash faoliyatini mamlakatimizda davlat tomonidan tartiblashtirish bo‘yicha bir qancha davlat organlari, tashkilotlarining tegishli vakolatlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Baholash xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 14-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarorlari va 2019-yil 14-yanvardagi PF-5630-son “Davlat aktivlarini boshqarish, monopoliyaga qarshi kurashishni tartibga solish tizimini va kapital bozorini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlarida belgilab berilgan (1-jadval).

1-jadval: Baholash faoliyatini tartiblashtirish bo‘yicha davlat organlari, tashkilotlarining tegishli vakolatlari taqsimoti[4]

Davlat organlari, tashkilotlarining nomi	Baholash faoliyatini tartiblashtirish bo‘yicha vakolatlari
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi qoshidagi Akkreditatsiya markazi	Baholash tashkilotini akkreditatsiya qilish tartib-taomillarini joriy qilish
Korporativ boshqaruv ilmiy-ta’lim markazi	Baholovchining malaka sertifikatini berish
O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi	Baholash faoliyatida davlat tomonidan tartibga solish va mulkni baholash standartlarini tasdiqlash bo‘yicha huquqiy vorislik qilish

3 Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.
4 Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Baholash faoliyatini tartibga solishning institutsional tuzilmasi yuqorida ko‘rib o‘tilganidek, baholash faoliyatini tartibga solishda bevosita ishtirok etuvchi davlat organlari, tashkilotlari va o‘zini-o‘zi boshqarish mexanizmidagi baholovchi tashkilotlar uyushmalari, baholovchilar jamiyatlarining baholash obyektiga nisbatan faoliyat ko‘rsatishi quyidagi sxemada ko‘rsatilgan bo‘lib, uning mazmunini ijtimoiy-iqtisodiy sistemologiyaga asoslangan zamonaviy mulk to‘g‘risidagi multifan qoidalariga muvofiq o‘rganish va talqin qilish mumkin.

Aytish joizki, sxemada baholashning jahon amaliyotidagi turli mulkni baholash faoliyati va uni tartibga solishning barcha mavjud modellari mujassamlashgan.



5-rasm: Baholash faoliyatini tartibga solishning funksional – tuzilmaviy sxemasi [14]

Ushbu sxemada: VT – holis baholovchi tashkilot (firma); O – baholash obyekti va uning egasi; D – turli mulkni baholash faoliyatini tartibga solish (muvofiqlashtirish va nazorat qilish)ga vakolatli bo‘lgan davlat regulyativ organlari; N – baholovchilarning o‘zini o‘zi tartibga soluvchi (muvofiqlashtiruvchi) nodavlat notijorat tashkilotlari.

Baholash faoliyatini davlat tomonidan muvofiqlashtirish ishlari ikki shaklda olib boriladi (6-rasm).

6-rasm: Baholash faoliyatini davlat tomonidan muvofiqlashtirishning asosiy shakllari

Baholash faoliyatini davlat tomonidan muvofiqlashtirishning asosiy shakllaridan biri hisoblangan, baholash standartlari o‘zaro bog‘liq norma va qoidalar majmuyidan iborat bo‘lib, ular o‘zida baholash tushunchalari va prinsiplarini, baholash faoliyatida qo‘llaniladigan atamalar va ta’riflarni, qiymat turlariga qo‘yiladigan talablarni, boshlang‘ich axborotga qo‘yiladigan talablarni, baholash o‘tkazish tartibini, baholash usullarining qo‘llanish xususiyatlari, baholash natijalarini rasmiylashtirishga qo‘yiladigan talablarni va boshqa talablarni aks ettiradi.

O‘zbekiston Respublikasining “Baholash faoliyati to‘g‘risida”gi qonuniga muvofiq baholash faoliyati litsenziya asosida amalga oshiriladi. Baholash faoliyatini litsenziyalash tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. Baholash faoliyatini litsenziyalashni amalga oshiruvchi organ baholovchi tashkilotning qonun hujjatlarida belgilangan litsenziya talablariga va shartlariga rioya etishi ustidan nazoratni amalga oshiradi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 1-iyundagi “Baholash xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq, baholash xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish, baholovchilarning professionallik darajasi va ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish, mazkur sohada bajariladigan ishlarning xolisligi va sifati ustidan nazoratni kuchaytirish maqsadida baholash faoliyatini litsenziyalash va baholash tashkilotlari ustav kapitali (ustav jamg‘armasi)ning eng kam miqdoriga bo‘lgan talabni bekor qilindi. Qolaversa, baholovchi tashkilotlarni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi qoshidagi Akkreditatsiya markazida akkreditatsiya qilish tartib-taomillarini joriy qilish belgilab olindi.

Baholash faoliyatini davlat tomonidan muvofiqlashtirish bir nechta yo‘nalishlarda olib boriladi (7-rasm).

7-rasm: Baholash faoliyatini tartibga solishning asosiy yo‘nalishlari[5]

Mazkur yo‘nalishlar mulk qiymatini baholash xizmatlari bozori mexanizmidan kelib chiqqan holda baholash faoliyatini yanada takomillashtirish va rivojlantirish, pirovardida mulk qiymatining adolatli baholash jarayonining shakllanishini nazarda tutadi.

Baholash faoliyatini tartibga solishdagi umumiy mexanizmlar ko‘rib o‘tilganda, faoliyatni o‘zini-o‘zi tartibga solish va muvofiqlashtirish borasidagi mexanizm ifodalangan edi. Baholash faoliyatini tartibga solishning funksional – tuzilmaviy sxemasiga asosan, o‘zini-o‘zi tartibga solish mexanizmi baholash faoliyatini tartiblashtirishdagi muhim institutsional tuzilma hisoblanadi. Quyida, aynan, baholash faoliyatini o‘zini-o‘zi tartibga solish mexanizmiga doir rasm keltirilgan (8-rasm).

Ushbu mexanizmdagi faoliyat baholovchi tashkilotlarning professional birlashmalari, baholovchilarning jamiyatlari va assotsiatsiyalari orqali amalga oshiriladi.

8-rasm: Baholash faoliyatida o‘zini-o‘zi tartibga solishning asosiy shakllari

Boshqa sohalar singari, baholash faoliyatini tartibga solish bilan bog‘liq bo‘lgan institutsional asoslar mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatiga chambarchas bog‘liqdir. Sababi, institutsional tartibni tashkil etuvchi davlat organlari, tashkilotlari hamda jamoat birlashmalarining faoliyatini rivojlantirish aynan davlatning asosiy funksiyalaridan biri hisoblanadi.

5 Muallif tomonidan tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan.

XULOSA

Yuqorida shakllantirilgan fikr va mulohazalar asosida baholash faoliyatini tartibga solish mexanizmi tuzilmasining instrumental (instrumentlari), institutsional va funksional tarkiblari mulk qiymatini baholash xizmatlari bozori faoliyatini rivojlantirishga qaratilgandir va ular o‘zaro bog‘liq ravishda tavsiflanadi. Bundan tashqari baholash faoliyatining institutsional tuzilmasi mavjud bo‘lib, uning mazmunini ijtimoiy-iqtisodiy sistemologiyaga asoslangan zamonaviy mulk to‘g‘risidagi multifan qoidalariga to‘g‘ri keladi.

Ko‘chmas mulk bozorini baholashning institutsional asoslari va ularning tahlili bo‘yicha quyidagi ilmiy-nazariy xulosa va tavsiyalar shakllantirildi:

birinchidan, ko‘chmas mulk bozorini baholashning institutsional asoslarini o‘rganishda “mexanizm”, “iqtisodiy mexanizm” va “iqtisodiy tizim” kabi tushunchalar va ularning o‘zaro bog‘liqligi ilmiy va amaliy jihatdan asoslandi;

ikkinchidan, ko‘chmas mulk bozorining tuzilishini tavsiflashda uchta asosiy yondashuvdan ya’ni, institutsional yondashuv, obyekt turi bo‘yicha yondashuv va reproduktiv yondashuvdan foydalanish tavsiya etildi;

uchinchidan, baholash faoliyatini tartibga solish va ushbu faoliyatni muvofiqlashtirish borasidagi ishlarni davlat tomonidan amalga oshirilishida foydalaniladigan asosiy instrumentlar va mexanizmlar tavsiya etildi;

to‘rtinchidan, baholash faoliyatini tartibga solishning asosiy yo‘nalishlari belgilab berildi va mazkur yo‘nalishlar mulk qiymatini baholash xizmatlari bozori mexanizmidan kelib chiqqan holda baholash faoliyatini yanada takomillashtirish va rivojlantirish, pirovardida mulk qiymatining adolatli baholash jarayonining shakllanishini nazarda tutishi asoslab berildi;

beshinchidan, baholash faoliyatini tartibga solishning funksional – tuzilmaviy sxemasiga asosan o‘zini-o‘zi tartibga solish mexanizmi baholash faoliyatini tartiblashtirishdagi muhim institutsional tuzilma ekanligi ilmiy asoslandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o‘sish uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi navbatdagi islohotlar to‘g‘risida”gi 2022-yil 8-maydagi PF-101-sonli Farmoni. lex.uz›docs/-5947775
2. Фридман, Дж. Анализ и оценка приносящей доход недвижимости. –М; 1995. –189 с.
3. Говейко С.Н. Технология блокчейн: новые возможности // Достижения науки и образования, 2018. –№15(37). –С. 17.
4. Слезко Леонид Вячеславович. Оценка недвижимого имущества в системе корпоративного управления собственностью. АВТОРЕФЕРАТ диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Москва–2020.
5. Tsertseil J.S., Kookueva V.V. Problems of property market development in Russia in the modern context // Espacios. 2017. –T.: 38. –№ 47. –p. 41.
6. Набиходжаев А. Инфляция: ташқи омиллар таҳлили. Iqtisodiyot va ta’lim / 2022-yil 5-son.
7. Городнова Н.В., Маврина И.Н. Экономические аспекты управления рынком недвижимости: учебное пособие; Мин-во науки и высш. обр. РФ.– Екатеринбург : Изд-во Урал. 2020.– 104 с.
8. Navruzov N.E., “Turistik xizmatlarning holati va uni rivojlantirish muammolari (Samarkand viloyati misolida)” Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. 2014 y.
9. Jo‘rayev T., Tojiboyeva D. Iqtisodiyot nazariyasi. O‘quv qo‘llanma. (Qayta nashr). 1-qism. –T.: “Fan va texnologiya”, –2014, –44-bet.
10. Полянский А., Соловьев М. Систематизация механизмов государственного регулирования на рынках недвижимости //Недвижимость и инвестиции. Правовое регулирование. –№4(9), 2012.
11. O‘zbekiston Respublikasining “Baholash faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni.
12. D.R.Abdikarimova, G.M.Bekimbetova. Ko‘chmas mulkni baholash. O‘quv qo‘llanma. –Toshkent. –2017 yil. –13-bet.
13. https://fayllar.org/1-mavzu-kchmas-mulk-obektlari-va-ulardan-fojdalanishni-tashkil.html
14. Sh.Sh.Shoxa’zamiy —Mulk qiymat va narxning nazariy asoslari. Tanlangan ma’ruzalar/O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.–T.: Iqtisod-moliya, –2015 yil.–460 bet.

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TURIZM XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI

Amriyeva Shaxzoda Shuxratovna
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,
“Raqamli iqtisodiyot” kafedrasi assistent-stajyori

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida turizm xizmatlari tashkil qilish amalga oshirish yo‘llari va uning yo‘nalishlari ochib berilgan. Shuningdek, bu yo‘nalishni rivojlantirish uchun takliflar berib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: turizm, milliy iqtisodiyot, raqamli iqtisodiyot, bozor, resurslar, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, iqtisodiy kategoriya, turizm bozori, iste’molchi, sotuvchilar.

Abstract: This article describes the ways and directions of organizing tourism services in the digital economy. Also proposals were given for the development of this direction.

Key words: tourism, national economy, digital economy, market, resources, socio-economic relations, economic category, tourism market, consumer, sellers.

Аннотация: В трех статьях раскрываются способы организации услуг экономического туризма и их части. Внесены предложения по развитию этого направления.

Ключевые слова: туризм, национальная экономика, цифровая экономика, рынок, ресурсы, социально-экономические отношения, экономическая категория, туристический рынок, потребитель, продавцы.

KIRISH

Xalqaro turizm xizmatlarini zamonaviy texnologiyalarni jalb qilgan holda yanada rivojlantirishga bog‘liq ilmiy izlanishlarning ortishiga sabab, turizm sohasining yuqori daromadliyligi hamda ulkan salohiyatga ega ekanligi iqtisodiy jihatdan asoslanib borilayotganligi bilan bog‘liq jahon iqtisodiyotining eng zarur tarmog‘i sifatida turizm sohasining “Jahon YaIMdagi ulushi mos tarmoqlardagi multiplikativ samarani hisobga olgan holda 6 %ni tashkil etmoqda. Iqtisodiyotning turizm tarmog‘i jahonda ish bilan bandlikning 6-7 %ini ta’minlovchi ish joylarini yaratishda yetakchilik qilmoqda. Xalqaro turistik tashkilot (UNWTO) ma’lumotlariga ko‘ra, turizm dunyo bo‘yicha xizmatlar eksportining 30 %ini ta’minlaydi”[1].

Jahonda turizm xizmatlarini jadallik bilan rivojlantirish hamda turizm sohasida AKTdan unumli foydalanish va yangicha turistik xizmatlarni joriy qilish orqali turizm sohasiga raqamlashtirish bilan bog‘liq mexnazimlarni jalb qilish va turizm xizmatlari bozoriga raqamli vositalarni ta’siriga qaratilgan ilmiy uslubiy tadqiqotlar keng miqyosda olib borilmoqda. Bu vaziyatda turizm sohasini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlarini aniqlab olish hamda iqtisodiyotda turizmni rolini oshirishning yangicha modellarini yaratishga katta e’tibor berilmoqda. Jahonda turizm sohasida raqamli texnologiyalardan foydalanish shartlari va ularning samarali yechimlarini izlashga qaratilgan tadqiqotlarini o‘tkazish hozirgi davrda ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Bugun butun dunyo nazari yangi O‘zbekistonning 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy 7 ta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishga qaratilgandir. “Strategiyaning “Milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, uning o‘sish sur’atlarini zamon talablari darajasida ta’minlash”ga bag‘ishlangan uchinchi ustuvor yo‘nalishida raqamli iqtisodiyotni asosiy “drayver” sohaga aylantirib, uning hajmini kamida 2,5 baravar oshirishga qaratilgan ishlarni olib borish”[2]. Dasturiy mahsulotlar industriyasi hajmini 5 marta, ularning eksportini esa 10 marta oshirib, 500 mln. dollarga yetkazish[3] vazifasi

1 https://www.unwto.org/
2 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-sonli “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. 28.01.2022-yil.
3 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-sonli “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. 28.01.2022-yil.

qo‘yilgan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda kelgusi besh-yilda turizm xizmatlarini kamida 5 barobarga oshirish[4] kabi aniq maqsadlar kelirilganligi ushbu mavzuning dolzarbligi belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 2-dekabrdagi PF-4861-son “O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2019-yil 5-yanvardagi PF-5611-son “O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2020-yil 28-maydagi PF-6002-son “Koronavirus pandemiyasining salbiy ta’sirini kamaytirish uchun turizm sohasini qo‘llab-quvvatlashga doir kechiktirib bo‘lmaydigan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2021-yil 9-yanvardagi PF-6165-son “O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur maqolaning tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Turizm xizmatlar bozorini rivojlantirishning nazariy-metodologik masalalari I.Endjeychik, F.SHerer, D.Ross, F.Kotler, Dj.Bouen, Dj.Meykenz, M.Enrayt kabi xorijlik olimlarning ilmiy ishlarida investitsiyalarni jalb qilishning umumiy jihatlari o‘rganilgan. MDH mamlakatlarida turizm bozorining ayrim jihatlariga bag‘ishlangan tadqiqotlarni V.I.Azar, I.T.Balabanov, A.I.Balabanov, M.A.Jukova, N.I.Kabushkin, M.B.Birjakov, V.I.Nikiforov, V.S.Novikovlarning ilmiy ishlarida kuzatish mumkin. O‘zbekistonda turizm sohasining turli masalalari bo‘yicha K.X.Abduraxmonov, N.T.Tuxliev, G‘.X.Qudratov, M.Q.Pardaev, I.S.Tuxliev, M.E.Po‘latov, J.R.Zaynalov, M.M.Muxammedov, I.Ivatov, D.X.Aslanova, B.X.To‘raev, O.X.Xamidov, E.V.Golisheva, A.A.Eshtaev, M.R.Boltabaev, M.T.Alimova, I.I.Ergashev, B.Sh.Safarov kabi iqtisodchi olimlar ilmiy-tadqiqot ishlarini olib bormoqdalar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada mavzu doirasidan kelib chiqqan holda ilmiy va nazariy yondashuvlar o‘rganilib, mushohada qilingan. Tadqiqotda qo‘yilgan maqsadga erishish uchun yo‘nalish tanlab olingan. Birlamchi hamda ikkilamchi ma’lumot manbalarini chuqur o‘rganish va asoslash uchun tadqiqot strategiyasi belgilab olingan. Maqolani yozishda tadqiqot metodologiyasining qiyoslash, umumlashtirish kabi usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi paytda turizm sohasining o‘sishi boshqa turdosh tarmoqlarni ham rag‘batlantiradi va ularda investitsion faoliyat, yangi ish joylarining yaratilishi, savdo aylanmasining kengayishi hamda o‘z navbatida foydaning ortishiga olib keladi. Olingan daromadlarning bir qismi davlat budjetiga soliqlar sifatida kelib tushadi. Shu tarzda ushbu mablag‘larni kelgusida turizm sohasni moliyalashtirish, aholining kam ta’minlangan qatlamlariga moddiy yordam sifatida hamda turizm sohasiga malakali kadrlarni tayyorlash uchun yo‘naltirish mumkin.

Turizmni milliy iqtisodiyotning mavjud turistik resurslardan samarali foydalanish orqali aholining bo‘sh vaqtlarida turistik va rekreatsiya shaklidagi turli ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilgan o‘zaro aloqador tarmoqlari majmuyini ifodalovchi iqtisodiy kategoriya sifatida olib qaralishi maqsadga muvofiq.

“O‘zbekistonning bozor munosabatlariga o‘tishi qator iqtisodiy jarayonlarning paydo bo‘lishi hamda ilgari keng qo‘llanilmagan xo‘jalik yuritishning yangi shakllari, nazariya va amaliyotining shakllanishiga olib keldi. Turizm bozori”[5] marketing tadqiqotlari, ishlab chiqarish, ayirboshlash va taqsimlash jarayonidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni o‘zida aks ettiruvchi iqtisodiy kategoriya sifatida qaralmoqda. Mazkur sharoitlarda mamlakatimizda turizm bozori rivojlanishi va shakllanishining zamonaviy tendensiyalarini tahlil qilish obyektiv zarurat hisoblanadi.

Bizni mamlakatimizda 2016-yilgacha turizmni salohiyatidan to‘laqonli foydalanishga qaratilgan ishlar yetarli darajada e’tiborga olinmadi. 2016-yilning oxirida turizmga strategik sektor maqomini berilishi ushbu sohada ilmiy izlanishlarning kengayishiga sabab bo‘ldi.

O‘zbekison Resublikasida 2026-yilgacha turizmni rivojlantirishga quyilgan aniq maqsadlarga qaraydigan bo‘lsak, turizmda hukumatning asosiy e’tibori ichki va kiruvchi turizmni yanada rivojlantirish orqali turistik xizmatlar eksportini bir necha marta oshirishni ta’minlashga qaratilgan.

Turizm xizmat bozori turistik xizmatlarning xaridori (talabni taqdim etuvchilar) va sotuvchilarni (mahsulot bilan ta’minlovchi) birlashtiruvchi institut sifatida qaraladi. Boshqa tovar bozorlaridan farqli o‘laroq, turizm xizmat bozorida tovarning sotuvchidan xaridorga ko‘chishi kuzatilmaydi, balki xaridorlar, ya’ni turistlar tayyorlangan xizmatlarni, turmahsulotni olish uchun belgilangan manzilga qarab harakat qilishadi. Turizm xizmat bozori subyektlari, ya’ni turistik mahsulot ishlab chiqaradigan va iste’mol qiladigan jismoniy va yuridik shaxslarning mavjudligi bilan tavsiflanadi.

4 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-sonli “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. 28.01.2022-yil.

5 Institutional development of socio-economic and financial systems: national economy in a global environment https://core.ac.uk/download/pdf/300244125.pdf

Shuni alohida ta’kidlab o‘tish lozimki, turizm xizmat bozorining iqtisodiy mohiyati ko‘p jihatdan turizmda keng qamrovli bo‘lgan multiplikativ samara ta’siriga asoslanadi. Turizm nazariyotchilaridan biri bo‘lgan Irena Endjeychikning ta’kidlashicha, “multiplikativ samaraning ta’siri natijasida turizmda yaratilgan bitta ishchi o‘rni turizm bilan hamkorlik tizimi orqali bog‘langan boshqa soha va tarmoqlarda yettita yangi ishchi o‘rnini yaratadi” .

Turistik xizmatlar eksportini ortishi respublikamiz iqtisodiy rivojlanishining samarasi sanalib, turizm sohasining mamlakatimiz iqtisodiyotidagi ulushini hamda aholining turmush darajasiga ta’sirini ijobiy tomonga ortishini ta’minlash lozim. Respublikamizda turistik xizmatlar bozorining shakllanishi uchun qator shartlarni amalga oshirish zarur. Bular tabiiy-geografik, madaniy-tarixiy, tashkiliy-iqtisodiy va ijtimoiy-iqtisodiy shartlar sanaladi (1-jadval).

1-jadval: Turizm xizmatlarini yaralishi hamda shakllanish shart-sharoitlari[6]

Tabiiy-geografik	Madaniy-tarixiy	Tashkiliy-iqtisodiy	Ijimoiy-iqtisodiy
mamlakat yoki hududning tabiiy-geografik joylashuvi	diniy, madaniy, tarixiy va diqqatga sazovor joylarning mavjudligi	me’yoriy-huquqiy baza	aholi soni va tarkibi
tabiiy, inson qo‘li bilan yaratilmagan turistik-rereatsion resurslarning mavjudligi	yangi bilim va sayohatga undovchi madaniy qadriyatlarning mavjudligi	soliq-kredit siyosati	
iqlm sharoiti, tabiiy tog‘lar daryolar va cho‘larning mavjudligi		innovatsion-investitsiya muhiti	aholining daromadlar darajasi
	ekologik madaniyatning o‘sishi	dotatsiya va subsidiyalar, faoliyatni litsenziyalashtirish	xududlarning ijtimoiy xavfsizligi

Hozirgi sharoitda sayohatchilar uchun quyidagi turistik distinatsiyalar ommabop bo‘lmoqda (misol uchun Tashkent viloyati yoki Farg‘ona kabilar). Qiyin iqlimiy sharoit hamda joylashgan manzilning uzoqligi bo‘lsa ikkinchi tarafdan odamlarni diqqatini tortadigan joylarning ko‘pligiga qaramasdan barqaror sayyohlar oqimini ta’minlash qiyin masala.

Madaniy hamda tarixiy sharoit turizm sohasini rivojlanishiga ikki yo‘nalishda ta’sir qiladi.

Birinchidan, tarixiy qadamjolar hamda qadimgi inshootlar (Samarqand, Toshkent, Surxandaryo, Buxoro va Xiva) va inshootlarning o‘z holicha saqlanib qolganligi bilan turstik mashrutlarga sayyohlar oqimini oshirishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, sayyohlarning oqimini ortishi o‘sha hudud aholisining savodini oshirib madaniyatini yanada yuksaltirishi, aholining yangi tillarni o‘rganioshiga turtki bo‘ladi. Keyingi sharoitlarga tashkiliy iqtisodiy mexanizmlarni joriy qilish orqali erishiladi. Bunda asosiy vazifani davlat bajaradi.

Turistik xizmatlarni rivojlanishi jahon iqtisodiyotiga judayam katta ta’sir qilmoqda bularga ITT, aholi daromadlarining o‘sishi, turizm moddiy-texnik bazasining rivojlanishida aks etadi. Natijada moddiy ishlab chiqarishning nomoddiy ishlab chiqarishga transformatsiyasi kuzatiladi va xizmatlar iste’moli, jumladan, turistik xizmatlar iste’moli ham ortib boradi.

“Zamonaviy kompyuter texnologiyalarining rivojlanishi xizmat ko‘rsatishning yangi yo‘nalishlarining paydo bo‘lishiga, internet tarmog‘i bo‘ylab turizm infratuzilmasining rivojlanishiga olib keldi (Onlayn bronlash tizimlari, internet marketing)”[7].

Ijtimoiy omillar – bu insonlarning turmush sharoiti bilan bog‘liq omillardir. Jahon turizmini rivojlanishiga mehnat ta’tili hamda bayram kunlariga berilgan ta’tillar judayam katta ta’sir qilmoqda.

Me’yorlovchi omillarni xalqaro va mahalliy omillarga bo‘lish mumkin. Xalqaro omillarga mavsumiylik, siyosiy vaziyat, iqtisodiy va tabiiy shart-sharoitlar kiradi. Turizm bozorining muhim xususiyatlaridan biri turistik talab va taklifning mavsumiyligidir.

Keyingi o‘n yillikda xorijiy olimlarning ilmiy ishlarida turizmning mavsumiylik masalalariga yetarlicha to‘xtalib o‘tilgan, chunki bu omil hududlarda turistik bozorning rivojlanishiga imkon beradi, uning ta’sir darajasi esa turizmni boshqarish sohasiga oid davlat dasturlari asosida tartibga solinadi.

Vaqt hamda fasillar almashinuvi bilan bog‘liq jihatlar ham sayyohlar oqimining ma’romiyligini buzuvchi asosiy salbiy omillarda biri sanaladi. Turdosh tarmoqlar ham mazkur muammodan katta aziyat chekadi, chunki ular ushbu muammodan xalos bo‘lish maqsadida doimiy yashash joyini o‘zgartirish imkoniyatiga ega emas.

6 Muallif ishlanmasi

7 Прогнозирование социально-экономичес ких параметров рынка услуг как способ снижения угроз развития предпринимательства. http://elibrary.ru/item.asp?id=30607017

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Respublikamizda turizm sohasining faoliyatida fasillar almashinuvi mamlakatimizning iqlimiy sharoitlari va turistik mahsulotni shakllantirishda, asosan, mavsumiylik kabi salbiy omillar muhimlik kasb etadi (2-rasmga qarang).



	Yanvar	Fevral	Mart	Aprel	May	Iyun	Iyul	Avgust	Sentabr	Okatbr	Noyabr	Dekabr
Ichki turizm	14	24	6.9	8.2	9	19	8.7	15.1	7.8	6.5	4.8	4.5
Chiquvchi turizm	8.4	5	2.4	1.9	13.8	3.7	13.5	3.7	1.1	34.7	16.8	2.4
Kiruvchi turizm	1.1	1.6	5.8	15.6	19.3	13.4	3.1	14.8	15.4	16.9	13.5	1.8

2-rasm: O‘zbekistonda sayohat qilish oylar kesimiga ko‘ra 2021-yilda xizmat ko‘rsatilgan sayohatchilar soni[8]

Mamlakatimiz turistlarining o‘z imkoniyatlaridan kelib chiqib, dam olishni asosan yoz oylarida amalga oshirishlarining turg‘un holati shakllangan bo‘lib, bu oylarda sayohatlar hajmi 42,8% (iyun, iyul va avgust oylari) ga to‘g‘ri keladi. Bunda, asosan, oilaviy dam olishga e’tibor beriladi – sentyabrda sayohatlar sonining 2 karra (avgust oyida 15,1 % dan sentyabr oyida 7,8% ga tushgan) tushib ketishi o‘quv yilining boshlanishi bilan izohlanadi, o‘rtacha oilaviy sayohat 3 kishidan iborat bo‘lgan oila bilan amalga oshiriladi.

Xorijlik sayyohatchilarning kelish dinamikasi umumiy xizmat istimolchilarining soniga qaraganda aprel, may va iyun oylarida 48,3 %, oktyabr va noyabr oyida 30,4 % ga yetgan, asosan, oylarning mutadil iqlim paytiga to‘g‘ri keladi hamda uning o‘zgarish sur’ati asosan mavsumiy ko‘rsatilgan oylarni tashkil qiladi.

2021-yilda va boshqa yillarda ham yanvar, fevral va dekabr oylarida sayyohlar sonining judayam kamayib ketishi turoperator orqali tayyorlangan turistik tahlillarning ta’sirchanligining kamligi hamda ushbu oylarda turistlarni jalb qiladigan ommaviy tadbirlarning yo‘qligi orqali hisoblanadi, bundan kelib chiqqan holda oilaviy hamda guruh bo‘lib keladigan turistlarning turizm xizmatlari bozoridagi ahamiyatini pasayishiga asos bo‘ladi.

“O‘zbekiston turistik xizmatlar bozorida xalqaro hamjamiyat tomonidan “turistik inqilob”, deya tariflanadigan turmahsulotlarga o‘sib borayotgan talab ayniqsa”[9] “turistik mavsum” ya’ni (mart-iyun, sentyabr-noyabr) oylarida 100 % ga to‘ladi va mavjud joylashtirish vositalari mavsum davrida ushbu talabni qondirish imkoniyatiga ega bo‘lmaydi, natijada turistlarga past sifatli xizmatlar taklif qilinadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagilardan xulosa qilgan holda turizm xizmatlarini rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishda eng avvalo so‘nggi yillarda boshlangan ishlarni davom ettirishni ko‘zda tutgan holda alohida e’tibor qaratilishi lozim bo‘lgan quyidagi yo‘nalishni belgilab olish maqsadga muvofiq bo‘lib, ular:

- joylashtirish vositalari bo‘yicha, zamonaviy va brend mehmonxonalar hamda hostel, oilaviy mehmon kabi hamyonbop joylashuv vositalarida innovatsion texnologiyalarni qo‘llashni tezlashtirish, shuningdek, AirB&B tizimi bo‘yicha kvartiralar berish mexanizmlarini tatbiq qilish;

8 O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasining “O‘zbekistonda turizm”statistik to‘plami (2020-y) ma’lumotlari asosida tayyorlandi.

9 Современное состояние и тенденции развития туризма в мировом сообществе и в Узбекистане. http://elibrary.ru/item.asp?id=32438712

- zamonaviy texnologiyalarni transport logistikasiga olib kirish, turistik oqimni oshirish va diversifikatsiyalash uchun bir-birini o‘zaro to‘ldirib turuvchi ichki va tashqi transport turlarini hisobga olgan holda, yagona, xavfsiz va innovatsion transport logistikasini rivojlantirish;
- amaliy axborot-ma’lumotnomalar orqali madaniy meros subyektlari bo‘yicha, sayyohlar uchun tizimni yaratish, smart-turizm texnologiyalarini tatbiq qilish, turniketlar va videokuzatuvlar tizimlarini o‘rnatish orqali madaniy meros subyektlari, muzeylar, teatrlar, badiiy galereyalar faoliyati samaradorligini oshirish;
- turizm “monetizatsiyasi” bo‘yicha, eng avvalo aviatashuvlar, joylashuv vositalari xizmatlari, sayyohlarning ovqatlanishini tashkillashtirish, madaniy-ko‘ngilochar tadbirlar va ishlab chiqarilayotgan suvenir mahsulotlar uchun moslashuvchan narx siyosatini o‘rnatish orqali turizm “monetizatsiyasi”ni oshirish;
- turizmda raqamli innovatsion texnologiyalarni samarali qo‘llash masalalarini o‘rganish bo‘yicha respublika guruhini tuzish va yil davomida mahalliy vazirlik va idoralar mutaxassislariga turistik sektor ekspertlari hamda vakillari bilan birga vaziyatni yaxshilab o‘rganish va turizmda innovatsiyalarni qo‘llashga to‘sqinlik qilayotgan muammolar yechimini topishga doir aniq takliflar aks etgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish lozim.

Jahon turizmida qo‘llanilayotgan raqamli texnologiyalardan kutilayotgan yangiliklarga va joriy qilinayotgan o‘zgarishlarga biz ham tayyor turishimiz lozim. Bugungi kunda raqobat shu darajada rivojlanmoqdaki, unda yengib chiqish uchun stategik rejalar ishlab chiqishda yuqoridagi kabi axborotlardan to‘g‘ri yo‘nalish olishimiz lozim bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining qonunlari, Prezident farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari.
3. Monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to‘plamlar, kitob va risolalar.
4. Statistik to‘plamlar va internet resurslari.
5. “Zarafshon milliy bog‘i” 2018–2022-yil hiobot ma’lumotlari.
6. Samarqand viloyati turizm va madaniy meros boshqarmasi hisobot ma’lumotlari.
7. Samarqand tumani passporti.
8. “O‘zbekturizm” MK materiallari.
9. https://uz.wikipedia.org/wiki/Qizil_kitob-internet ensklopediya.
10. http://www.wellbeingwizard.com/index.php?option=com_content&task=view&id=570- iqtisodiy formulalar va atamalar sayti.
11. https://www.ecosystemvaluation.org – Ekotizimni baholash bo‘yicha sayt.
12. Norchaev A. Xalqaro turizmni rivojlantirishning iqtisodiy o‘sishga ta’siri. Iqt. fan. nomz. ...diss. 2004. –B. 120.;
13. Ro‘ziyev S. O‘zbekiston madaniy turizm bozori va uning istiqbollari. Iqt. fan. ...diss. –T:, 200912.
14. Usmanova D. Osobennosti formirovaniya turistskogo produkta i perspektivnыe napravleniya ego razvitiya. Iqt. fan. ...diss. – Samarqand, 2009. –B. 25.;
15. Mikołaj Czajkowski, Marek Giergiczny, Jakub Kronenberg, Jeffrey Englin “The Individual Travel Cost Method with ConsumerSpecific Values of Travel Time Savings” Environmental and Resource Economics (2019) 74:961–984
16. Sims R (2009) Food, place and authenticity: local food and the sustainable tourism experience. Journal of Sustainable Tourism 17(3):321-336. doi: 10.1080/09669580802359293.
17. Susan Snyman “The impact of ecotourism employment on rural household incomes and social welfare in six southern African countries” January 2014 Tourism and Hospitality Research 14(1-2):37-52
18. Печеритса, Э.В., Шевченко, М.И. Мировой опыт развития агротуризма [Текст] // Националные интересы: приоритеты и безопасност. 2012. № 41. – С. 44-53.
19. Po‘latov M.E. Biznes faoliyatini baholash integral mezonini hisoblab chiqishning zamonaviy modellari. O‘zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. –T.:, 2011. №4. –B. 23-26.;
20. Тарасенок А. “Виды экологического туризма”, Туризм и отдых. –№47 2010-170с.
21. Boboqulov S. KOMMUNAL XIZMAT KO‘RSATISHDA XARAJATLARNI OPTIMALLASHTIRISH //THE INNOVATION ECONOMY. – 2023. – T. 1. – №. 02. – C. 92-100.
22. Boboqulov S. B. et al. O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTI SHAROITIDA ELEKTRON BIZNESNI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI //YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT. – 2023. – T. 1. – №. 10. – C. 524-529.
23. Bobokulov S.B. Diversifying the service field under digitalization //American Journal of Interdisciplinary Research and Development. – 2022. – V. 11. – ISSN Online: 2771-8948. – P. 218-224.
24. Bobokulov S. B. et al. Methods of increasing efficiency of the public utilities //International Journal on Economics, Finance and Sustainable Development. – 2019. – V. 1. – №. 1. – P. 7-10.
25. Бобокулов С. Б. Роль модернизации в повышении эффективности системы коммунальных услуг //Экономика и предпринимательство. – 2020. – №. 7. – С. 820-822.
26. Baxronkulovich, Boboqulov Sanjar, and Qadamboyeva Dilso‘Z. Doniyor Qizi. “RAQAMLI IQTISODIYOTI SHAROITIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.” Journal of marketing, business and management 2.7 (2023): 9-15.

O‘ZBEKISTONNING BANK-MOLIYA TIZIMI HAMDA UNDA ISLOM MOLIYASI INSTRUMENTLARINI JALB ETISHDAGI JORIY TENDENSIYALAR

Eshimov Alisher Dusmurodovich
“O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy-tadqiqot markazi mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bank-moliya tizimida islom moliyasi instrumentlarini joriy etish imkoniyatlari, O‘zbekiston bank-moliya tizimining statistik tahlillari, ko‘rsatkichlari, islom moliyasi instrumentlarini joriy etishda xorijiy olimlarning ilmiy-nazariy qarashlari o‘rganilgan. Tahlillar asosida islom moliyasi instrumentlarini joriy etish muammolar ochib berilib, ularni bartaraf etish yo‘nalishlari taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: bank, moliya, islom moliyasi, instrument, amaliyot, kapital, investitsiya, tadbirkorlik, portfel, kredit, xizmatlar, samaradorlik, islohot, xarajat, daromad, foiz.

Abstract: This article explores the possibilities of introducing instruments of Islamic finance in the banking and financial system, statistical analysis, indicators of the banking and financial system of Uzbekistan, scientific and theoretical views of foreign scientists in the introduction of instruments of Islamic finance. On the basis of the analysis, the introduction of instruments of Islamic Finance revealed problems and proposed directions for their elimination.

Key words: banking, finance, Islamic finance, instrument, practice, capital, investment, entrepreneurship, portfolio, credit, services, efficiency, reform, cost, income, percentage.

Аннотация: В данной статье рассмотрены возможности внедрения исламских финансовых инструментов в банковско-финансовую систему, статистический анализ, показатели банковско-финансовой системы Узбекистана, научно-теоретические взгляды зарубежных ученых на внедрение исламских финансовых инструментов. На основе анализа были выявлены проблемы внедрения исламских финансовых инструментов и предложены пути их преодоления.

Ключевые слова: банк, финансы, исламские финансы, инструмент, практика, капитал, инвестиции, предпринимательство, портфель, кредит, услуги, эффективность, реформа, стоимость, доход, процент.

KIRISH

Bozor munosabatlarining muhim bo‘g‘inlaridan biri bo‘lgan bank tizimini isloh qilish va erkinlashtirish zamirida iqtisodiyotni rivojlantirish, xalqaro bank tizimi talablariga mos keluvchi mahalliy banklar faoliyatini tashkil qilish va ular faoliyatini yanada takomillashtirish shu kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi. Jamiyat yaxshi taraqqiy qilgan bank tizimi va banklar faoliyatiga ega bo‘lmasdan sog‘lom taraqqiy qilishi mumkin emas.

Iqtisodiyotni samarali boshqarish uning muhim subyekti bo‘lgan banklar faoliyatini o‘rganishni, ularning ishlash usullari, funksiya va operatsiyalarini bilishni taqazo qiladi[1]. Xalqaro bank amaliyotida bank ustav kapitalining minimal miqdori 5 mln. AQSh dollari atrofidagi miqdorni tashkil etadi. Shu sababli, bank kapitalini xalqaro andozalar bo‘yicha yetarli bo‘lishi uchun 5 mln. AQSh dollari miqdorida shakllantirish lozim.

Kredit qo‘yilmasi tadbirkorlar, fuqarolar va boshqa tashkilotlar o‘rtasida moliyaviy omonatlarni oshirishning muhim vositasidir. Har qanday tijorat banki kredit siyosatining maqsadi odatda quyidagilardan iborat bo‘ladi: kredit qo‘yilmalari hajmining o‘sishi, risk yuqori bo‘lgan operatsiyalarning oqilona diversifikatsiyasini, o‘rta va uzoq muddatli kredit qo‘yilmalari hajmini keskin oshirish va ularning samaradorligini ta’minlashga yo‘naltirilgan bo‘ladi[2].

1 Sh. Abdullayeva. Bank ishi. Darslik. Toshkent moliya instituti. 2003-yil. 3-bet.
2 Sh. Abdullayeva. Bank ishi. Darslik. Toshkent moliya instituti. 2003-yil. 211-bet.

Tijorat banklari kreditlarni berish orqali kredit portfeli hajmini o‘sishga intilishadi. Bu, bankning moliyaviy tarmoqda rivojlanishini va moliyaviy islohotlarni oshirishini ta’minlash imkonini beradi. Tijorat banklari riskni kamaytirish va tarmoq hodisalarini o‘zaro bog‘lash maqsadida kredit portfelini diversifikatsiya qilishga intilishadi. Bu, bir nechta sohalar bo‘yicha kredit bermoq orqali riskni taqsimlash va umumiy risk darajasini kamaytirish imkonini beradi.

Banklar o‘rta va uzoq muddatli kreditlarga qiziqish ko‘rsatadi, chunki ular kredit darajasi va bankning samaradorligi uchun muhimdir. O‘rta va uzoq muddatli kreditlarning hajmini oshirish, bankning uzluksiz ravishda moliyaviy tuzilmalarni rivojlantirishini ta’minlashiga qo‘shimcha imkoniyat yaratadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

G.F. Gresh Markaziy Osiyoda Islomiy bank va moliya o‘sib bormoqda. Sovet Ittifoqi qulaganidan va 1991-yilda yangi milliy davlatlar tashkil topganidan beri mintaqadagi musulmon respublikalari Islomiy moliya institutlarining sezilarli darajada ko‘payishiga guvoh bo‘lishdi. Bundan tashqari, Islomiy bank va moliya Islom olimlari tomonidan ushbu mintaqaning tashqarisidagi boshqa Islomiy davlatlar bilan iqtisodiy blokni shakllantirishning innovatsion usuli sifatida qaralmoqda. Jahon bozorlariga kirishning kalitlaridan biri bu milliy va mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va liberal iqtisodiy islohotlarga homiylik qilishdir, deb keltiradi[3].

A. Sharipov va N. Yuldashevlar aholisi va an’anaviy Islomiy ildizlari bo‘lgan O‘zbekiston, ehtimol, Markaziy Osiyoda Islomni moliyalashtirish uchun eng istiqbolli bozorlardan biri hisoblanadi. Ammo shuni aytish joizki, yaqin vaqtgacha O‘zbekistonda bank-moliya xizmatlari sohasi va biznesi Islomiy moliyani tushunish va tushuntirish bilan cheklangan edi. O‘zbekistonda Islomiy moliya vositalariga bo‘lgan tabiiy va o‘sib borayotgan talab, Islomiy moliya va shariatga mos investitsiyalarni joylashtirish uchun tartibga soluvchi platformaning yo‘qligidan farq qiladi. O‘zbekiston asosan Islomiy aholiga ega dunyoviy davlatdir va shariatga asoslangan tamoyillarni qabul qilish bilan bog‘liq har qanday islohoti bank-moliya sohasini rivojlantirishga asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin, deb ta’kidlaydi[4].

J. Imamnazarov Islomiy bank tizimi deganda barcha moliyaviy faoliyat Islom qonunlari asosida amalga oshiriladigan bank tizimi tushuniladi. U odatdagi banklar singari maqsad va operatsiyalarga ega, ya’ni iqtisodiy faoliyatni kuchaytirish uchun iqtisodiyot ichidagi pul oqimini yengillashtirishdan iboratdir. Biroq odatdagi banklardan farqli o‘laroq, Islomiy banklarni boshqarish tamoyillari har qanday bitim va biznes operatsiyalarida adolatni ta’minlash bilan birga tomonlar o‘rtasida xavf va foydani o‘zaro taqsimlashdir. Islom Moliya institutlarining muvaffaqiyati hozirda ko‘plab an’anaviy banklarning e’tiborini tortmoqda[5].

A. S. Tursunov tijorat banklari va Islom banklari bajaradigan funksiyalariga ko‘ra umumiy va o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. Tijorat bankidagi asosiy maqsad foydani ko‘paytirish, Islom bankida esa shariat qoidalariga qat’iy rioya qilgan holda foydani ko‘paytirishdir. Islomiy banklarning an’anaviy banklardan asosiy farqi shundaki, an’anaviy banklarda pul sotiladi va birjadan tashqari daromad olinadi, Islomiy banklarda esa tovarlar sotiladi va daromad olinadi[6].

B.A. Malik Islom shunchaki din emas, balki e’tiqod mazmunidan tashqarida bo‘lgan umumiy xulq-atvor me’yorlarini ratsionalizatsiya qilishdir. Iqtisodiyot, siyosat, ijtimoiy jihatlar va din bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘sababli hayotga yaxlit yondashuvni tasdiqlaydi. Islom e’tiqodining yaxlit yondashuvi bilan bog‘liq holda, shaxs Islom qonunlarining buyruqlarini aniqlashga rozi bo‘ladi. Ushbu shartnoma iqtisodiy va moliyaviy ishlarga ham murojaat qiladi deb keltirib o‘tgan[7].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ishimizni yoritishda, tahlil, sintez iqtisodiy tahlil usullaridan foydalanildi. Tahlillar mamlakatimizda bank-moliya tizimida islom moliyasi instrumentlarini joriy etishning imkoniyatlari, bu boradagi muammolar va sohaga oid boshqa bir qator muammolar aniqlandi. Ma’lumotlarni analiz tahlil va statistik tahlil usullaridan foydalanib bank-moliya tizimida islom moliyasi instrumentlarini joriy etishning ahamiyatini ochib berishga harakat qilindi. Natijada muammolar aniqlanib, muammolarga tegishli ilmiy asoslangan takliflar berildi va ilmiy asoslangan xulosalarga kelindi. Tadqiqot obyekti sifatida mamlakatimiz bank-moliya tizimi o‘rganildi.

3 Gresh G. F. The rise of Islamic banking and finance in Central Asia //Al Nakhlah. – 2007. – T. 9.

4 Atabek Sharipov and Nodir Yuldashev Islamic finance and markets in Uzbekistan October 1 2019 https://www.lexology.com/library/detail.aspx?g=9aaf1dd8-417e-408c-ba8f-79e069edf65c

5 J. Imamnazarov Development opportunities of Islamic finance in Uzbekistan // SAI. 2023. №A1. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/development-opportunities-of-islamic-finance-in-uzbekistan (дата обращения: 24.02.2024).

6 Tursunov A. S. et al. Establishment Of Islamic Banking In Uzbekistan //European Proceedings of Social and Behavioural Sciences. – 2021.

7 Malik B. A. Halal banking in post-soviet central Asia: Antecedents and consequences //Marketing and Branding research. – 2015. – T. 2. – C. 28-43.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tijorat banklarining asosiy maqsadi moliyaviy ravishda samaradorlikni ta'minlashdir. Ular kredit berish jarayonlarini samarali boshqarish, to'qish va boshqa texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash orqali samaradorlikni oshirishga intilishadi. Tijorat banklari moliyaviy tizimning tarmoq bo'yicha o'zaro bog'lanishini kuchaytirish, kredit so'rovlari va qaytarishlarni avtomatlashtirish yoki maxsus xizmatlar taklif qilish orqali kredit qo'yishning moliyaviy tuzilma uchun samarador bo'lishiga intilishadi.



1-rasm: 2024-yil 1-yanvar holatiga 2023-yilga nisbatan tijorat banklari kredit qo'yilmalarining tarmoqlar bo'yicha ulushi o'zgarishi (foizda)[8].

1-rasmda avvalgi yilga nisbatan tijorat banklari kredit qo'yilmalarining tarmoqlar bo'yicha ulushi o'zgarishi (foizda) tasvirlangan. Hamda eng ko'p o'sish jismoniy shaxslar uchun 47 foiz, uy-joy kommunal xizmati 24 foiz, hamda qurilish va transport va kommunikatsiya sohalarida mos ravishda 18 va 16 foizni tashkil qilgan. Yuqorida ta'kidlanganidek, bu holat ijobiy hisoblanib mamlakatning moliyaviy islohotlarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Ma'lumki, bank tizimi daromadlilik darajasi tahlil qilinayotganda bir qator ko'rsatkichlar inobatga olinadi. Masalan, foizli va foizsiz daromadlar, foizli va foizsiz xarajatlar. Yuqoridagi iboralarga ta'rif beradigan bo'lsak, fozili daromadlar bu pul mablag'lari yoki ularning ekvivalentlaridan foydalanganlik uchun olingan daromaddir. Shuningdek, foizli daromad har qanday diskont, mukofot yoki qarz qimmatli qog'ozlari yoxud ssudalarning boshlang'ich balans qiymati bilan ularning so'ndirish summalari o'rtasidagi boshqa farqlarning amortizatsiya summasini o'z ichiga oladi[9].

Foizlar bo'yicha xarajatlar talab qilib olingungacha bo'lgan depozitlar hisobvaraqlari, muddatli omonatlar, Markaziy bank va boshqa tijorat banklariga to'lovlar, shuningdek, to'lanadigan kreditlar bo'yicha xarajatlar nazarda tutiladi.

Umuman olganda foizli xarajatlar – bu barcha majburiyatlar bo'yicha to'plangan foiz summasi demakdir. Foizsiz xarajatlarga esa komission xarajatlar va xizmatlar uchun xarajatlar (masalan, bank reklamasi yoki tadbirlarni o'tkazish), xorijiy valyuta kursining salbiy o'zgarishlaridan yo'qotishlar, investitsiyalar va boshqalar kiradi. Shuningdek, ba'zi olimlar bank operatsiyalari bilan to'g'ridan to'g'ri bog'liq bo'lgan xarajatlar – operatsion xarajatlar ham tavsiflanadi.

Shu o'rinda bank tizimi daromadlilik ko'rsatkichlarini tahlil qilib o'tish o'rinli bo'ladi. Quyidagi jadvalda mazkur sohaning 2023-2024-yillardagi holati aks ettirilgan (1-jadval).

8 O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi. https://cbu.uz/uz/statistics/bank-stats/1569298/

9 Sh. Abdullayeva. Bank ishi. Darslik. Toshkent moliya instituti. –2003-y. –131-b.

1-jadval: Bank tizimi daromadlilik ko‘rsatkichlari (mlrd. so‘mda)[10]

Bank tizimi daromad va xarajatlari	01.01.2023-y.	01.01.2024-y.
Foizli daromadlar	61 728	86 679
Foizsiz daromadlar	33 182	42 054
Foizli xarajatlar	37 566	57 683
Foizsiz xarajatlar	11 812	13 273
Soliq to‘langunga qadar sof foyda (zarar)	12 579	15 155
Foyda solig‘ini to‘lash xarajatlari	2 587	2 775
Sof foyda (zarar)	9 993	12 380

So‘nggi yillar bank tizimi, moliyaviy sohalarda ko‘plab o‘zgarishlar yuzaga keldi. 2023-yilda (1-yanvar holatiga ko‘ra) mamlakatimiz bank tizimi 9 trillion 993 milliard so‘m sof foyda bilan, 2024-yilning xuddi shu davriga esa 12 trillion 380 milliard sof foyda bilan o‘tgan. Moliyaviy siyosat, moliyaviy vaziyatning o‘zgarishi, qonun hujjatlari va boshqa faktorlar, banklarning daromadlilik ko‘rsatkichlarini oshiriadi.

2024-yilda banklarning daromadlilik ko‘rsatkichlarining ko‘p oshishiga olib kelgan omil iqtisodiy rivojlanish hamdir. Agar mamlakatimizda iqtisodiy ko‘rsatkichlar o‘ssa, odamlar katta miqdorda pul o‘tkazishga qodir bo‘lishadi. Bu esa banklar uchun moliyaviy mablag‘larni kengroq jalb etish imkoniyatini yaratadi.

Quyidagi 2-rasmda 2023-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra O‘zbekiston tijorat banklarining jami aktivlari qiymati, jami kredit qo‘yilmalari, shuningdek, jami depozitlar va jami kapital hajmi (milliard so‘mda) aks ettirilgan. Unga ko‘ra mazkur davrda jami bank aktivlari 556 trillion 746 milliard so‘mni, kredit qo‘yilmalari esa 390 trillion 49 milliardni, jami depozitlar 216 trillion 738 milliard so‘mni, shuningdek, jami kapital 79 trillion 656 milliard so‘mni tashkil qilgan.



2-rasm: 2023-yilda bank tizimi faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari (mlrd. so‘mda)[11]

2023-yilga nisbatan 2024-yilda avvalgi davrga nisbatan o‘sishda pasayish bo‘lgan. 2024-yilda mamlakatimizda bank aktivlari o‘tgan davrga nisbatan 45 foizga oshgan bo‘lsa 2023-yilda bu ko‘rsatkich 48 foizni tashkil qilgan. 2024-yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra jami kredit qo‘yilmalari o‘tgan yilga nisbatan 49 foizga ortgan bo‘lsa, 2023-yilda mazkur sohada 49 foiz o‘sish kuzatilgan.

Tijorat banklarining jami depozitlari va jami kapitalning yillik o‘sishi borasida ham shu tendensiya saqlanib qolgan bo‘lib, 2024-yilda bu ko‘rsatkichlar, mos ravishda, 30 va 0,4 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, 2023-yilning xuddi shu davrida bu ko‘rsatkichlar, mos rabishda, 39 va 0,5 foizni tashkil qilgan (3-rasm).

10 O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi. https://cbu.uz/uz/statistics/bank-stats/1569298/

11 O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi. https://cbu.uz/uz/statistics/bank-stats/1569298/

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS



3-rasm: 2024-yilda bank tizimi faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari (mlrd. so‘mda).

Tijorat banklari, boshqa xo‘jalik subyektlari kabi o‘zining xo‘jalik va tijorat faoliyatini ta’minlash uchun ma’lum miqdorda pul mablag‘lariga, ya’ni resurslariga ega bo‘lishlari lozim. Iqtisodiyot rivojlanishining zamonaviy talablarida bank resurslarini tashkil etish muammosi bank faoliyatini bir maromda olib borish uchun birinchi darajali hisoblanadi. Buni shunday izohlash mumkin, ya’ni iqtisodiyotning bozor modeliga o‘tishi bilan bank ishida davlat monopoliyasi tugatiladi, ikki bosqichli bank tizimini shakllanishida bank resurslari xarakteri ijobiy tomonga o‘zgaradi.

Undan tashqari, uning aktiv operatsiyalari obyekti orqali aniqlanadigan bank faoliyatining ko‘lami, ular joylashtiradigan resurslar hajmi, miqdori, jalb qilingan mablag‘lar summasiga bog‘liq bo‘ladi. Bunday holat resurslarni jalb qilish bo‘yicha banklar o‘rtasida raqobatni keltirib chiqaradi.

Bankning asosiy vazifalaridan biri bo‘sh pul mablag‘larini mumkin qadar ko‘proq jalb qilish va ularni boshqa foyda keltiruvchi optimal aktivlarga joylashtirishdan iborat. Ma’lumki, banklarni ustav kapitalining minimal miqdorini belgilanishi banklarni har xil risklardan saqlash maqsadida belgilanadi. Chunki bank ustav fondi qancha katta bo‘lsa, uning resurslari ham shuncha ko‘p bo‘ladi.

Hozirgi vaqtda dunyo miqyosida 80dan ortiq mamlakatda bir ming to‘rt yuzga yaqin islom moliya muassasalari mavjud bo‘lib, Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi ma’lumotiga ko‘ra, so‘nggi 10 yil ichida bank tizimida islom moliya muassasalarining muhim o‘rni borligini ko‘rsatib berdi. E’tiborlisi, islom moliya muassasalari nafaqat musulmon o‘lkalarda, balki Yevropa davlatlarida, Kanada, Filippin va Singapur kabi musulmonlar hamjamiyati ozchilikni tashkil qiladigan mamlakatlarda ham mavjud.

Global islom moliya sanoati 2020-yilda barqaror rivojlanib borayotganligini isbotladi. Pandemiyaning birinchi yili, uning jami aktivlari hajmi oshib ketdi 14%, lekin keyingi-yilda u yanada ko‘proq ko‘rsatdi 17% o‘sish Koviddan oldingi darajadan yuqori bo‘lgan xarakterga ega aktivlarini 4 trillion AQSH dollariga ko‘tardi.

Mazkur tendensiyani O‘zbekistonda ham joriy etish yuzasidan allaqachon qadam tashlangan bo‘lib, 2021-yil sentyabrda Toshkentda o‘tkazilgan Islom Taraqqiyot Bankining yillik sammitida “Iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish jamg‘armasi” tuzildi. Boshlang‘ich kapitali 100 million AQSh dollariga teng bo‘lgan jamg‘arma mablag‘larining 35 mln AQSh dollari O‘zbekiston hukumati, 20 mln AQSh dollari ITB va qolgan 45 million AQSh dollari saudiyalik investorlar tomonidan moliyalashtiriladi. Sinov bosqichi muvaffaqiyatli o‘tgandan so‘ng boshlang‘ich fond miqdori asta-sekin 500 million AQSh dollariga yetkazilishi rejalashtirilgan.

“Obod qishloq” dasturi doirasida Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Xorazm, Buxoro va Navoiy viloyatlarining qishloq infratuzilmasini modernizatsiya qilish bo‘yicha jami 200 million AQSh dollarlik qarz shartnomasi tuzildi. Bunga qo‘shimcha ravishda Xalqaro Islom savdo-moliya korporatsiyasi va “Trastbank” 15 mln AQSh dollarlik savdo-moliya linyasini ochish to‘g‘risida kelishuvga erishdi.

Shuningdek, O‘zbekistonda onkologik xizmatlarni rivojlantirish loyihasini qo‘llab-quvvatlash uchun 80 million AQSh dollar qarz shartnomasi imzolandi.

Islom taraqqiyot banki tomonidan O‘zbekistonda Islom banki va moliya sohasining huquqiy asoslarini ishlab chiqishni qo‘llab-quvvatlash uchun texnik yordam granti ajratilishiga kelishib olindi.

4-rasmda islom banklarining bank va investorlar o‘rtasida omonatlar, investitsiyalar bilan, shuningdek, bank va mijoz o‘rtasida moliyalashtirish yoki investitsiyalash qanday operatsiyalar orqali amalga oshirilishi tasvirlangan.



4-rasm: Islom banklarining ishlash mexanizmi[12]

An'anaviy banklardan farqli o'laroq (5-rasm) islom banklari faqatgina foiz asosida ish yuritmaydi, balki bank va investor o'zaro vadia, vakala, mudoraba shartlari yoki qarz asosida munosabatga kirishadi.



5-rasm: An'anaviy banklarning ishlash mexanizmi[13]

Mijozga esa murobaha, salam, ijara, istisna, mudoraba va mushoraka shartlari asosida munosabatga kirishadi. Tadqiqotning birinchi bobida bu nazariyalar keng yoritilgani bois, islom banklari sherikchilik va foydani taqsimlash prinsipiga, unga ters ravishda an'anaviy banklar faqatgina foiz asosida moliyaviy munosabatlarni yo'lga qo'yishi ikkala bank tizimlari uchun berilgan eng umumiy ta'rif deyish mumkin.



6-rasm: 2015-2021-yillarda (2026-yil prognozi) dunyo bo'ylab islom moliyasi aktivlari qiymati (trillion AQSH dollarida)[14]

12 Muallif tomonidan ishlandi.
13 Muallif tomonidan ishlandi.
14 ICD – Refinitiv Islamic Finance development report 2022: Embracing change, p-8.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

6-rasmda Islom moliyasi aktivlarining dunyo bo‘ylab 2015-2021-yillardagi o‘sish tendensiyasi tasvirlangan bo‘lib, 2018-yildagi ko‘rsatkichni hisobga olmaganda faqat o‘sishga erishilgan. Shuningdek, 2019-yildan keyin, hatto pandemiya davrida ham yillik 10 foizdan kam bo‘lmagan. Tahlilchi iqtisodchi olimlarning 2026-yilga berayotgan prognozlari islom moliyasi olami aktivlarining yillik o‘sishi o‘sha davrga borib 5,9 trillion AQSh dollarini tashkil qilishini ta’kidlamoqda.



7-rasm: 2021-yilda dunyo bo‘ylab islom moliyasi aktivlari qiymati (Milliard AQSH dollarida)[15]

7-rasmda dunyo bo‘ylab islom moliyasi aktivlarining eng katta qismi – 2 trillion 765 millard (AQSh dollari) islom banklariga oid ekanligini, shuningdek, 713 milliardi (AQSh dollari) islom obligatsiyalari – sukukga, 238 milliard (AQSh dollari) islom fondlariga, 169 milliardi (AQSh dollari) boshqa islom moliyasi institutlari va 73 milliardi (AQSh dollari) takoful – islom su’g‘urta sanoati aktivlari ekanligi tasvirlangan.

Ushbu ma’lumotlar islom moliya sektorida aktivlarning sezilarli darajada mavjudligi va taqsimlanishidan dalolat beradi. Aktivlarning eng katta ulushi islom banklariga tegishli bo‘lsa, ikkinchi o‘rinda sukuk (islom obligatsiyalari), islom fondlari va boshqa moliya institutlari turadi. Islomiy sug‘urtaga ishora qiluvchi “Takaful” aktivlarning kichikroq, ammo baribir sezilarli qismiga egadir. Bu taqsimot islomiy moliyaning xilma-xilligi va o‘sishini ta’kidlab, an’anaviy moliyaviy tizimlarga munosib alternativ bo‘lib, butun dunyo bo‘ylab musulmon investorlarning ehtiyojlarini qondira olishidan dalolat beradi.

Yuqoridagi fikrlarning isboti sifatida quyidagi 8-rasmda islom moliyasining bugungi kundagi eng katta qismi, ya’ni 70 foizi islom banklariga oid ekanligini, islom obligatsiyalariga keying ulush 18 foiz to‘g‘ri kelishini anglab olish mumkin bo‘ladi. So‘nggi yillarda shiddat bilan o‘sib kelayotgan boshqa sohalar takoful va boshqa moliyaviy sanoat turlari butun islom moliyasi tarkibida 10 foizdan kamroq ulushga ega ekanligini quyidagi rasm ko‘rsatib turibdi.



8-rasm: 2021-yilda dunyo bo‘ylab islom moliyasi aktivlari qiymati (foizda)[16]

15 ICD – Refinitiv Islamic Finance development report 2022: Embracing change, p-8.
16 ICD – Refinitiv Islamic Finance development report 2022: Embracing change, p-8.

Islom banklari haqida o‘tgan asrning ikkinchi yarmidan keng jamoatchilikka ma’lumot berila boshlandi, islom qoidalari asosida boshqariladigan islom moliya institutlari ham o‘sha davrlardan keng ommalashib bordi. Ancha boy tarixga ega bo‘lgan an’anaviy bank tizimiga muqobil bo‘lgan bu yangi tizim hozirga qadar faqat rivojlanib, aktivlari esa faqat o‘sib kelmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, mazkur tendensiyani O‘zbekistonda ham davom ettirish uchun avvalo islom darchalarini joriy etishga to‘g‘ri keladi. Islom darchasi ko‘p hollarda mamlakatlarda islom moliya tizimi yoki islom moliyasi bo‘yicha qonunchilik mavjud bo‘lmaganda tashkil etiladi. Chunki islom darchasi ma’lum mamlakatning mavjud qonunlari va huquqiy bazasi asosida chegaralangan miqdordagi xizmatlar va mahsulotlarni an’anaviy bankning tarkibiy bo‘linmasining mahsuloti sifatida taklif etadi. To‘laqonli islom bankchiligi xizmatlari va mahsulotlari esa, odatda o‘sha mamlakatda tegishli qonunlar ishlab chiqilganidan keyin taqdim etiladi. Shu sababli, ko‘pincha islom darchalari tashkil qilishdan quyidagi maqsadlar ko‘zlash maqsadga muvofiq bo‘lar edi:

1) Mamlakatda islom moliya xizmatlariga talab darajasini o‘rganish;
2) Ortiqcha xarajatlarsiz banklardagi mavjud infratuzilma (binolar, xodimlar va hokazo) asosida islom moliya xizmatlarini taklif qilish;
3) Tashkil etilgan islom darchalari faoliyatini o‘rganish va chuqur tahlil qilish orqali, mamlakatda islom moliyasi va bankchiligiga oid qonun ishlab chiqilishi yuzasidan amaliy takliflar berish;
4) Aholi va xususiy tarmoq vakillarining moliyaviy savodxonligini oshirish orqali ularning mamlakat iqtisodiyotidagi ishtirokini oshirish;
5) Islom darchasi faoliyati natijasi tahlili asosida banklarning kelajakdagi rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sh. Abdullayeva. Bank ishi. Darslik. Toshkent moliya instituti. –2003-yil. 3-bet.
2. Gresh G. F. The rise of Islamic banking and finance in Central Asia //Al Nakhlah. – 2007. – T. 9.
3. Atabek Sharipov and Nodir Yuldashev Islamic finance and markets in Uzbekistan October 1 2019 https://www.lexology.com/library/detail.aspx?g=9aaf1dd8-417e-408c-ba8f-79e069edf65c.
4. J. Imamnazarov Development opportunities of Islamic finance in Uzbekistan // SAI. 2023. №A1. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/development-opportunities-of-islamic-finance-in-uzbekistan (дата обращения: 24.02.2024).
5. Tursunov A. S. et al. Establishment Of Islamic Banking In Uzbekistan //European Proceedings of Social and Behavioural Sciences. – 2021.
6. Malik B. A. Halal banking in post-soviet central Asia: Antecedents and consequences //Marketing and Branding research. – 2015. – T. 2. – C. 28-43.
7. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi. https://cbu.uz/uz/statistics/bankstats/1569298.
8. Muallif tomonidan ishlandi.
9. ICD – Refinitiv Islamic Finance development report 2022: Embracing change, p-8.

TASHQI SAVDODA NOTARIF USULLARNI QO‘LLASHNING IQTISODIY OQIBATLARINI ANIQLASH METODOLOGIYASI (RIVOJLANGAN DAVLATLAR TAJRIBASI)

Norqobilov Akobir Iso o‘g‘li
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
“Raqamli iqtisodiyot”kafedrasi doktoranti

Annotatsiya: Tashqi savdoda notarif usullardan foydalanishning iqtisodiy oqibatlari rivojlangan mamlakatlar sharoitida keng o‘rganilgan. Kvotalar, subsidiyalar va tartibga solish kabi notarif usullar savdo oqimlari, bozor raqobati va iste’mol narxlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ushbu tadqiqotda notarif usullarni o‘lchash uchun turli xil metodlar hamda jahon savdosida ushbu usullarning ko‘lami keltirilgan va tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari bo‘yicha umumiy xulosalar qilingan va rivojlangan davlatlar tajribalariga asoslanib turli takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: Tashqi savdo, chastotalar indeksi, savdoni qoplash koeffitsiyenti, narxlar ta’siri indeksi, notarif usullar, iqtisodiy natijalar, rivojlangan davlatlar, iqtisodiy modellar.

Abstract: The economic consequences of using non-tariff methods in foreign trade have been widely studied in developed countries. Non-tariff measures such as quotas, subsidies, and regulations can significantly affect trade flows, market competition, and consumer prices. This study presents and analyzes various methods for measuring non-tariff methods and the scope of these methods in world trade. Based on the results of the research, general conclusions were made and various suggestions were made based on the experiences of developed countries.

Key words: Foreign trade, frequency index, trade coverage ratio, price impact index, non-tariff methods, economic results, developed countries, economic models.

Аннотация: Экономические последствия использования нетарифных методов во внешней торговле широко изучаются в развитых странах. Нетарифные меры, такие как квоты, субсидии и регулирование, могут существенно повлиять на торговые потоки, рыночную конкуренцию и потребительские цены. В данном исследовании представлены и анализируются различные методы измерения нетарифных методов и сфера применения этих методов в мировой торговле. По результатам исследования были сделаны общие выводы и высказаны различные предложения, основанные на опыте развитых стран.

Ключевые слова: внешняя торговля, индекс частоты, коэффициент торгового покрытия, индекс влияния цен, нетарифные методы, экономические результаты, развитые страны, экономические модели.

KIRISH

Rivojlangan mamlakatlarda tashqi savdoda notarif usullardan foyalanish tobora kengayib bormoqda, bunga sabab hukumatlar mahalliy sanoatni himoya qilishga, bozor raqobatini tartibga solishga va savdodan tashqari vazifalarni hal qilishga intilmoqda. Kvotalar, subsidiyalar va shunga o‘xshash savdo to‘siqlarini o‘z ichiga olgan ushbu usullar savo oqimlari, bozor dinamikasi va iste’molchilar farovonligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi va jiddiy iqtisodiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Notarif choralarning iqtisodiyotga ta’sirini tushunish siyosatchilar, biznes va iste’molchilar uchun juda muhimdir. Ushbu tadqiqotda rivojlangan mamlakatlar tajribasiga e’tibor qaratgan holda tashqi savdoda notarif usullardan foydalanishning iqtisodiy oqibatlarini aniqlash metodologiyasi o‘rganiladi, miqdoriy ma’lumotlar, iqtisodiy modellar va sifatli ma’lumotlarni tahlil qilish orqali xalqaro savdo kontekstida notarif choralar iqtisodiy natijalarga qanday ta’sir qilishini to‘liq tushunishga maqsad qilingan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili: Tashqi savdoda notarif usullardan foydalanishning iqtisodiy oqibatlari bo‘yicha keng qamrovli adabiyot tahlilini o‘tkazish uchun tadqiqotchilar ushbu mavzuni o‘rganish uchun turli xil usullarni qo‘llangan turli tadqiqotlarni o‘rganishlari mumkin. Misol tariqasida, Baccini[1] va boshqa tadqiqotchilar

1 Leonardo Baccini, Anreas Dur, Manfred Elsid. The Politics of Trade Agreement Design, 2012-yilda Xalqaro tashkilotlarning siyosiy iqtisodiga bag‘ishlangan konferentsiya uchun tayyorlangan ilmiy maqola.

tomonidan olib borilgan tadqiqotda notarif to‘siqlarning xalqaro savdoga ta’sirini o‘rganish uchun ekonometrik tahlildan foydalangan. Tadqiqotchilar tartibga solishdagi farqlar va texnik standardlar kabi notarif choralar mamlakatlar o‘rtasidagi savdo oqimiga sezilarli darajada to‘sqinlik qilishi mumkinligini aniqladilar. Ekonometrik modellar va savdo ma’lumotlaridan foydalangan holda, tadqiqot notarif to‘siqlar savdo hajmi va samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishini keltirib o‘tdi. Ba’zi adabiyotlarda tashqi savdoda notarif usullarning iqtisodiy oqibatlarini sifatli tahlil qilish uchun amaliy tadqiqotlar qo‘llanilgan. Misol uchun Naim[2] va boshqalarning tadqiqotida Yevropa Ittifoqi va rivojlanayotgan mamlakatlar o‘rtasidagi qishloq xo‘jaligi savdosiga sanitariya va fitosanitariya qoidalarining ta’siri o‘rganilgan. Chuqur amaliy tadqiqotlar va soha mutaxassislari bilan suhbatlar orqali tadqiqotchilar eksportchilar tomonidan qattiq sanitariya me’yorlariga rioya qilishda duch keladigan qiyinchiliklar va buning natijasida kelib chiqadigan iqtisodiy natijalarni ta’kidladilar. Qiyosiy tadqiqotlar mamlakatlar va sektorlar bo‘yicha notarif choralarning differentsial ta’sirini tushunishda foydali bo‘ldi. Hoekman va Nicita[3] tomonidan olib borilgan qiyosiy tahlilda tadqiqotchilar qishloq xo‘jaligi mahsulotlari savdosiga turli notarif to‘siqlarning ta’sirini o‘rganib chiqdilar. Turli mamlakatllar tajribasini solishtirgan holda, tadqiqot tartibga solish choralari, kvotalar va texnik to‘siqlarning savdo raqobatbardoshligi va bozorga kirishga turli xil ta’sirini aniqladi. Ba’zi tadqiqotlar tashqi savdoda notarif usullardan foydalanishning iqtisodiy oqibatlarini baholash uchun simulyatsiya modellaridan foydalangan. Masalan, Kee[4] va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqotda notarif to‘siqlarning savdo va farovonlikka ta’sirini simulyatsiya qilish uchun hisoblangan umumiy muvozanat modeli ishlab chiqildi. Tadqiqotchilarning aniqlashicha, notarif choralar savdo tartibini buzishi, bozorga kirishni qisqartirishi va eksport qiluvchi va import qiluvchi mamlakatlarning farovonligini yo‘qotishiga olib kelishi mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbuda ilmiy izlanishda miqdoriy va sifatli tadqiqot metodologiylaridan foydalanildi bunda tashqi savdoda notarif usullardan foydalanishning iqtisodiy oqibatlari har tomonlama tahlil qilindi va kerakli tushunchalar berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tashqi savdoda tarifsiz usullardan foydalanishning iqtisodiy oqibatlarini aniqlash ushbu chora-tadbirlarning iqtisodiyotning turli jihatlariga, masalan, savdo hajmi, narxlar, daromadlar, bandlik, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligi va boshqalarga ta’sirini baholashni o‘z ichiga oladi.



1-rasm: Tashqi savdoda notarif usullardan foydalanishning iqtisodiy oqibatlarini aniqlash ketma-ketligi[5]

Tashqi savdoda tarifsiz usullardan foydalanishning iqtisodiy oqibatlarini aniqlash uchun turli usullar va yondashuvlar qo‘llaniladi, jumladan:

- **Statistik ma’lumotlarni tahlil qilish:** savdo hajmi, narxlari, umumiy savdodagi import va eksport ulushi, eksport va importdagi aniq tovarlar ulushi va ulardan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin bo‘lgan boshqa ko‘rsatkichlar bo‘yicha statistik ma’lumotlarni to‘plash va tahlil qilish.
- **Iqtisodiy ta’sirlarni modellashtirish:** tarifsiz usullarni qo‘llashning iqtisodiyotning turli jabhalariga ta’sirini baholash uchun iqtisodiy modellardan foydalanish. Masalan, kvotalar savdo hajmi, narxlar va daromadlarga ta’sirini baholash uchun modellardan foydalanish mumkin.
- **Empirik tadqiqotlar:** kompaniya ma’lumotlarini tahlil qilish, biznes va iste’molchilar so‘rovlari va boshqa tadqiqot usullarini o‘z ichiga olishi mumkin bo‘lgan empirik tadqiqotlar o‘tkazish.
- **Kompyuter modellashtirish:** tarifsiz usullardan foydalanishning iqtisodiy ko‘rsatkichlarga ta’sirini baholash uchun kompyuter modellaridan foydalanish.

Bu usullar va yondashuvlarning barchasi tashqi savdoda tarifsiz usullardan foydalanishning iqtisodiy oqibatlarini aniqlash uchun ishlatilishi mumkin. Biroq ta’sirni baholash qiyin bo‘lishi mumkin, chunki bu usullar boshqa iqtisodiy siyosatlar bilan o‘zaro ta’sir qilishi va kutilmagan natijalarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun iqtisodiy oqibatlarni baholash aniq bo‘lmasligi mumkin.

2 Naim Huruglica (the consultant), Report on Non-Tariff Measures in CEFTA (Support to regional economic integration), GIZ, 2022.
3 Hoekman B, Nicita A. The Unseen Impact of Non-tariff Measures: Insights from a new database, United Nations Conference on Trade and Development and The World Bank, Geneva, 2018.
4 Hiau Looi Kee, Alessandro Nicita. Trade Frauds, Trade Elasticities and Non-Tariff Measures, World Bank, 2016.
5 Aleksey Kireev. “Международная Экономика”, 2015, darsligi ma’lumotlariga asoslanib muallif tomonidan tuzildi.

Notarif usullarni o‘lchash uchun odatda quyidagi indekslardan biri qo‘llaniladi:

- **Chastotalar indeksi** – tarif bo‘lmagan cheklovlar bilan qamrab olingan tarif liniyalarining ulushini ko‘rsatadigan indeks. Odatda tarifsiz cheklovlar darajasini aniqlash uchun foydalaniladi, lekin alohida importga cheklovlarning nisbiy ahamiyatini va ularning iqtisodiyot uchun samaradorligini ko‘rsatmaydi.
- **Savdoni qoplash koeffitsiyenti** – tarifsiz cheklovlar bilan qoplanadigan eksport yoki importning qiymat ulushini ko‘rsatadi. Ushbu indeksning zaif tomoni shundaki, u eng kuchli tarifsiz to‘siqlarning ta’sirini kam baholaydi.
- **Narxlar ta’siri indeksi** – import yoki eksport notarif cheklovlari qo‘llaniladigan mahsulotning jahon bozoridagi narxi va ichki narxining nisbatidir. Indeksning kamchiliklari shundaki, tovarlarning ichki va jahon narxlari o‘rtasidagi barcha farqlar tarifsiz cheklovlarga bog‘liq emas.

Odatda, taqqoslash maqsadida sanab o‘tilgan indekslardan birini qo‘llagan holda tarifsiz to‘siqlar qiymati advalor boj ekvivalenti (tovarning bojxona qiymatining foizi) shaklida hisoblanadi. 1970-yillarning o‘rtalarida AQSHda 15 ta rivojlangan davlat tomonidan 90 ta turli tovarlar importiga bo‘lgan tarifsiz cheklovlarni o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, masalan, Yaponiya go‘sht mahsulotlarini import qilganda, nominal tarifi bor-yo‘g‘i 13% bo‘lsa, u 1900 dan ortiq bo‘lmagan go‘sht importidagi tarif cheklovlari uning Yaponiya bozoridagi narxini dunyoga nisbatan yana 161% ga oshiradi. AQShda meva importiga nominal boj 7% bo‘lgan, qo‘shimcha ravishda qo‘llaniladigan tarifsiz cheklovlar mevaning ichki narxini yana 128% ga oshirdi. Lekin bu yerda ham bir mahsulotga bojxona to‘lovlari ham, tarifsiz cheklovlar ham qo‘llanilishi mumkinligi bilan bog‘liq muammo yuzaga keladi/ Shu bilan birga, agar bojxona to‘lovi har doim cheklash chorasi bo‘lsa, unda tarifsiz to‘siqlar faqat ma’lum shartlar ostida bo‘ladi. Masalan, agar tovar importiga boj va kvotalar solingan bo‘lsa, unda import qilinadigan tovarlar miqdoridan qat’i nazar, boj har doim o‘zining cheklovchi funksiyasini bajaradi. Kvota faqat import vakolatli organlar tomonidan belgilangan hajmga yetgandan keyingina cheklovchiga aylanadi. Ko‘pincha hukumat muqobil variantga duch keladi: qaysi savdo siyosati vositasi – tarif yoki tarifsiz – muayyan vaziyatda foydalanish. Ko‘pincha tarifsiz usullarga ustunlik beriladi, chunki ular siyosiy jihatdan maqbulroq hisoblanadi, chunki tariflardan farqli o‘laroq, ular aholi uchun qo‘shimcha soliq yuki emas.

Bundan tashqari, notarif choralar ma’lum ma’noda istalgan natijaga erishishda qulayroqdir. Misol uchun, importni kerakli qiymatga kamaytiradigan import tarif stavkasini hisoblashdan ko‘ra, 3 million tonna miqdoriy import cheklovini o‘rnatish orqali po‘lat importini 3 million tonnagacha cheklash ancha osondir. Va nihoyat, tarifsiz cheklovlar xalqaro shartnomalar bilan deyarli tartibga solinmaydi va hukumatlar Jahon Savdo Tashkiloti (JST) tomonidan tartibga solinadigan tarif cheklovlari bilan solishtirganda, ularni savdo siyosatida erkinroq his qiladilar. Aksariyat hollarda tarifsiz usullardan, ayniqsa intensiv miqdoriy usullardan foydalanish, hatto, nisbatan liberal bojxona rejimi bilan bir qatorda, umuman olganda, cheklovli davlat savdo siyosatiga olib keladi.



2-rasm: Jahon savdosida turlari va keng mahsulot toifalari bo‘yicha notarif chora-tadbirlarning tarqalish ko‘rsatkichlari (%da)[6], 2023-yil.

6 UNCTAD secretariat calculations based on UNCTAD TRAINS I-TIP data, 2023. https://www.wto.org



3-rasm: Turlari va keng mahsulot toifalari bo‘yicha notarif chora-tadbirlarning tarqalish ko‘rsatkichlari (%da)[7], 2023-yil.

Yuqoridagi rasmlardan ko‘rish mumkinki, jahon savdosida turlari va keng mahsulot toifalari bo‘yicha notarif chora-tadbirlarning tarqalish ko‘rsatkichlari chastota indeksi va qamrab olish nisbati bo‘yicha texnik to‘siqlar hamda eksport ustunlarida yuqori foizlarni ko‘rsatmoqda. Chastotalar hamda qamrab olish nisbatidagi eng kichik ko‘rsatkichlar ulushi moliyaviy sohalarga to‘g‘ri kelganligini ko‘rishimiz mumkin.



4-rasm: Turlari va keng mahsulot toifalari bo‘yicha notarif chora-tadbirlarning tarqalish ko‘rsatkichlari (%da)[8], 2023-yil.

7 UNCTAD secretariat calculations based on UNCTAD TRAINS I-TIP data, 2023. https://www.wto.org
8 UNCTAD secretariat calculations based on UNCTAD TRAINS I-TIP data, 2023. https://www.wto.org

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS



5-rasm: Turlari va keng mahsulot toifalari bo‘yicha notarif chora-tadbirlarning tarqalish ko‘rsatkichlari (%da)[9], 2023-yil.

Ushbu rasmlardan ham shuni tushunish mumkinki, mamlakatlar iqtisodiyotning qishloq xo‘jaligi hamda ishlab chiqarish sohalarida ham notarif to‘siqlarning texnik ko‘rinishi hamda eksport uchun qo‘yilgan to‘siqlar eng yuqori foiz ko‘rsatkichlarini ko‘rsatgan. Aynan qishloq xo‘jaligi sohasida sanitariya va fitosanitariya kabi notarif to‘siqlar chastotalar indeksi bo‘yicha 80% ni, qamrab olish nisbati bo‘yicha 96%ni tashkil etgan.

AQSH va Xitoyning tashqi savdoda tarifsiz usullardan foydalanishning iqtisodiy oqibatlarini aniqlash metodologiyasi ushbu mamlakatlar tomonidan ko‘rilgan aniq chora-tadbirlar va maqsadlarga qarab farq qilishi mumkin. Biroq har ikki davlatda qo‘llaniladigan umumiy yondashuv va usullarni ajratib ko‘rsatish mumkin.

AQSHda tashqi savdoda tarifsiz usullardan foydalanishning iqtisodiy oqibatlarini aniqlash uchun turli usullar va vositalar, jumladan statistik tahlil, empirik tadqiqotlar, modellashtirish va boshqa yondashuvlardan foydalaniladi.

Masalan, kvotalarning savdo hajmi, narxlari va daromadlariga ta’sirini baholash uchun iqtisodiy modellardan foydalanish mumkin. Shuningdek, Qo‘shma Shtatlarda Federal Xalqaro Savdo Komissiyasi (USITC)[10] mavjud bo‘lib, u savdo choralarining iqtisodiyotning turli jabhalariga, jumladan, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligiga ta’sirini baholaydi.

Xitoy tashqi savdoda tarifsiz usullarning iqtisodiy ta’sirini aniqlash uchun turli usullar va vositalardan, jumladan, statistik tahlil, modellashtirish va ekonometrikadan ham foydalanadi. Bundan tashqari, Xitoyda XXR Savdo vazirligi (MOFCOM)[11] va XXR Milliy Statistika Byurosi (NBS)[12] kabi savdo chora-tadbirlarining iqtisodiyotga ta’sirini baholovchi davlat idoralari mavjud.

Ikkala davlat ham savdo chora-tadbirlarining iqtisodiyotga ta’sirini baholovchi maslahat organlari va qo‘mitalari, shuningdek, ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilar kabi manfaatdor tomonlar bilan maslahatlashishlari mumkin.

Angliyada tashqi savdoda tarifsiz chora-tadbirlarning iqtisodiy oqibatlarini aniqlash metodologiyasiga statistik tahlil, modellashtirish va ekonometriya ham kiradi. Xalqaro savdo departamenti kabi savdo uchun mas’ul bo‘lgan mamlakat hukumat idoralari ham sanoat manfaatdor tomonlari bilan maslahatlashuvlar o‘tkazishi mumkin.

Umuman olganda, Amerika Qo‘shma Shtatlari, Angliya va Xitoy tomonidan tashqi savdoda tarifsiz usullardan foydalanishning iqtisodiy oqibatlarini aniqlashda qo‘llaniladigan metodologiya bir qator miqdoriy va sifat usullarini o‘z ichiga oladi va ular tomonidan ko‘rilgan aniq chora-tadbirlar va maqsadlarga qarab farq qilishi mumkin.

Tashqi savdoda tarifsiz usullardan foydalanishning iqtisodiy oqibatlarini aniqlashda AQSH tomonidan qo‘llaniladigan metodologiya statistik tahlil, modellashtirish va empirik tadqiqotlarni o‘z ichiga olgan bir qator miqdoriy va sifat usullarini o‘z ichiga oladi.

Savdo siyosati uchun mas’ul bo‘lgan AQSH davlat idoralari, masalan, Qo‘shma Shtatlar Savdo Vakilligi

9 UNCTAD secretariat calculations based on UNCTAD TRAINS I-TIP data, 2023. https://www.wto.org
10 https://www.usitc.gov/ – Amerika Qo‘shma Shtatlari Federal Xalqaro Savdo Komissiyasi
11 http://english.mofcom.gov.cn/ – Xitoy Xalq Respublikasi Savdo Vazirligi
12 http://www.stats.gov.cn/english/ – Xitoy Xalq Respublikasi Milliy Statistika Byurosi

idorasi (USTR)[13] va AQSh Xalqaro Savdo Komissiyasi (USITC) notarif choralarining AQSh iqtisodiyotiga iqtisodiy ta'sirini baholash uchun turli usullardan foydalanadi.

Yondashuvlardan biri – iqtisodiy modellardan maxsus notarif choralarining savdo hajmlari, narxlar va boshqa iqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'sirini baholash uchun foydalanish. Ushbu modellar muayyan tovarlarga bo'lgan talab va taklif, tarifsiz chora-tadbirlarning ishlab chiqarish xarajatlari va narxlariga ta'siri va ta'sirlangan savdo hamkorlari tomonidan savdoni o'zgartirish yoki qasos olish potensiali kabi bir qator omillarni hisobga olishi mumkin.

Yana bir yondashuv – ta'sirlangan firmalar va tarmoqlarni o'rganish kabi empirik tadqiqotlar o'tkazish, notarif choralarining savdo va iqtisodiyotga ta'siri haqida ma'lumot to'plash. Masalan, USITC savdo siyosati va kelishuvlarining AQSh iqtisodiyotining turli tarmoqlariga ta'siri bo'yicha tergov va tadqiqotlar olib boradi.

Bundan tashqari, AQSh hukumati notarif choralarining ularning biznesi va kengroq iqtisodiyotga ta'sirini yaxshiroq tushunish uchun sanoat manfaatdor tomonlari, jumladan ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar bilan maslahatlashuvlar o'tkazishi mumkin.

Umuman olganda, Qo'shma Shtatlar tomonidan tashqi savdoda tarifsiz usullardan foydalanishning iqtisodiy oqibatlarini aniqlash uchun qo'llaniladigan metodologiya miqdoriy va sifat usullarining kombinatsiyasiga asoslanadi va savdo siyosatining mumkin bo'lgan ta'sirini har tomonlama tushunish uchun mo'ljallangan.



6-rasm: Mamlakat turi bo'yicha notarif usullar, 2023 yil (Sanitariya va fitosanitariya to'siqlar ulushi chora-tadbirlar va importga bog'liq bo'lmagan notarif choralarda texnik to'siqlar)[14]

Yuqoridagi rasmdan ko'rinib turibdiki, notarif to'siqlarning aynan texnik hamda sanitariya va fitosanitariya to'siqlari rivojlangan davlatlarda rivojlanayotgan davlatlarnikiga qaraganda yuqoriroqdir, mos ravishda 74.4% va 49.4% tashkil etgan. Aksincha, notarif to'siqlarning boshqa turlari rivojlanayotgan mamlakatlarda rivojlangan davlatlarnikidan deyarli ikki barobar yuqoriroq ekanligini ko'rishimiz mumkin, ya'ni 50.6% va 25.6% mos ravishda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, tashqi savdoda notarif usullardan foydalanishning iqtisodiy oqibatlariga oid tadqiqotlar jahon bozorlarida tartibga solish choralari bilan bog'liq muammolar va imkoniyatlarni yoritib berdi. Ushbu mavzuni qat'iy tadqiqot metodologiyalari va fanlararo yondashuvlar orqali o'rganishni davom ettirish orqali siyosatchilar va manfaatdor tomonlar notarif choralarning ta'sirini tushunishlarini kuchaytirishlari va yanada inklyuziv, shaffof va samarali global savdo tizimini ilgari surish yo'lida ishlashlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Leonardo Baccini, Anreas Dur, Manfred Elsid. The Politics of Trade Agreement Design, 2012-yilda Xalqaro tashkilotlarning siyosiy iqtisodiga bag'ishlangan konferentsiya uchun tayyorlangan ilmiy maqola.
2. Naim Huruglica (the consultant), Report on Non-Tariff Measures in CEFTA (Support to regional economic integration), GIZ, 2022.
3. Hoekman B, Nicita A. The Unseen Impact of Non-tariff Measures: Insights from a new database, United Nations Conference on Trade and Development and The World Bank, Geneva, 2018.
4. Hiau Looi Kee, Alessandro Nicita. Trade Frauds, Trade Elasticities and Non-Tariff Measures, World Bank, 2016.
5. https://www.wto.org
6. https://www.usitc.gov
7. http://english.mofcom.gov.cn
8. http://www.stats.gov.cn/english
9. https://ustr.gov

13 https://ustr.gov/ – Qo'shma Shtatlar Savdo Vakili

14 Jahon Savdo Tashkiloti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi. (Xalqaro savdo markazi tomonidan o'tkazilgan biznes so'rovlari asosida. Namuna 11 ta rivojlanayotgan va kam rivojlangan mamlakatlar misolida olingan). https://www.wto.org

REKLAMA XIZMATLARI VA UNING SUBYEKTLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI IMKONIYATLARI

Rabbimov Elbek Abdulloyevich
I.f.f.d. (PhD), TDIU Samarqand filiali
“Buxgalteriya hisobi va statistika” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur tadqiqot ishida respublikamizdagi korxona va tashkilotlar – subyektlar samaradorligini oshirishda eng muhim iqtisodiy asos sifatida reklama xizmatlarini rivojlantirish tadqiq etilgan hamda uning nazariy asoslari va amaliy jihatlari asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: reklama, xizmatlar, raqamli iqtisodiyot, samaradorlik, daromad, tahlil, marketing, model.

Abstract: This research work examines the development of advertising services as the most important economic basis for increasing the efficiency of enterprises and organizations – subjects of our republic and substantiates its theoretical foundations and practical aspects.

Key words: advertising, services, digital economy, efficiency, revenue, analysis, marketing, model.

Аннотация: В данной научно-исследовательской работе исследовано развитие рекламных услуг как важнейшей экономической основы повышения эффективности предприятий и организаций – субъектов нашей республики и обоснованы его теоретические основы и практические аспекты.

Ключевые слова: реклама, услуги, цифровая экономика, эффективность, выручка, анализ, маркетинг, модель.

KIRISH

Respublikamiz iqtisodiyotini jadal rivojlantirishda ishlab chiqarilayotgan va sotilayotgan mahsulotlardan olinadigan daromadni oshirishda reklama xizmatlarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Bugungi milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirishda va uni yuqori o‘sish suratlarini ta’minlashda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” da belgilab berilgan vazifalardan kelib chiqib, Mamlakatimiz “iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o‘sish suratlarini ta’minlash orqali kelgusi besh-yilda aholi jon boshiga YaIMni 1,6 barobar va 2030-yilga borib, aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadni 4 ming AQSH dollaridan oshirish hamda “daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar” qatoriga kirish uchun zamin yaratish”[1] maqsadi belgilangan. Mazkur maqsadni bajarishda reklama xizmatlarini rivojlantirish asosida korxona va tashkilotlar (subyektlar) samaradorligini yuqori natijadorlikka erishish imkoniyati yaratiladi.

TADQIQOTNING O‘RGANILGANLIK DARAJASI

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Amerika Marketing Assosiasiyasi (AMA) (2016), reklama “ommaviy axborot vositalarida pullik yoki xayr-ehson qilingan vaqt yoki makonda aniqlangan shaxs, kompaniya yoki tashkilot tomonidan joylashtirilgan har qanday e’lon yoki ishontiruvchi xabar”[2] deb ta’riflaydi. Beyerli va Santana (1999) reklama samaradorligini “reklama kompaniyasi yoki ma’lum bir reklama natijalarini o‘lchash, bu, o‘z navbatida, reklama beruvchining o‘z kampaniyasi reklama uchun qo‘ygan reklama maqsadlariga erishish nuqtai nazaridan belgilanishi kerak”[3]. Agar reklama mijozning e’tiborini jalb qilsa, xaridorga unutilmas ta’sir ko‘rsatsa, xaridorning sotib olish niyatlarini rag‘batlantirsa va mijozning hissiyotlariga ta’sir etsa, reklama samarali hisoblanadi[4] (Adibi, 2012).

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022-yildagi PF-60-son “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risida. Lex.uz
2 https://www.ama.org/
3 A. Beerli, J.D.M. Santana. 1999. Design and validation of an instrument for measuring advertising effectiveness in the printed media. Journal of current issues and research in advertising.
4 Adibi, R. (2012). Signs of semantics: three questions about visual meaning. Tehran, Iran: SAMT Publication.

Ramalingam va boshqalarning fikriga ko‘ra. (2006), samarali reklama ikkita asosiy xususiyatga ega. Birinchidan, reklama beruvchi xaridorni mahsulot va xizmat ko‘rsatish tajribasiga jalb qilish va mijozga tegishli reklama xabarini yuborish orqali iste’molchining maqsadlarini qondirishi kerak. Ikkinchidan, reklama reklama beruvchining maqsadlariga muvofiq bo‘lishi kerak. Samarali reklama uchta keng o‘lchovga ega, ya’ni strategiya, ijodkorlik va ijro (Ramalingam va boshq., 2006). Samarali reklamalarga ega bo‘lish uchun firmalar ushbu uchta elementni birlashtirishi kerak (Ramalingam va boshq., 2006)[5].

Tadqiqotlar natijasiga ko‘ra amalga oshirilgan hisob-kitoblar bo‘yicha reklama samaradorligini o‘lchash uchun savdo hajmi va aloqa effektlaridan foydalanish mumkin. Garchi savdo hajmiga reklama bilan bevosita bog‘liq bo‘lmagan turli xil omillar ta’sir qiladi, shu jumladan, narxlash, qadoqlash va tarqatish sifati bilan cheklanmagan bo‘lsa ham reklama samaradorligini o‘lchash uchun mos mezon sifatida qaraladi (Huang va boshq., 2011)[6]. Aloqa effektlarini o‘lchash mumkin bo‘lganligi sababli ular reklama samaradorligini o‘lchash mezonlari sifatida ham foydalanishlari mumkin (Fridman va Fridman, 1979)[7]. Reklama uchun pul resurslarining cheklanganligi, mijozlarning munosabatlari va ularning taxminlari o‘rtasidagi ziddiyatlar va yuqori raqobatdosh bozorlar natijasida reklama samaradorligi ko‘plab tashkilotlar uchun muhim muammoga aylandi (Riasi, 2015)[8].

Soha mutaxassislari reklama xizmatlari va ularning samarali faoliyati bo‘yicha korxona va tashkilotlar natijadorligi bo‘yicha o‘z ilmiy xulosalariga kelishdi. Ularning fikricha, “reklama adabiyotlarini baholash mezonlarini uch guruhga yoki ularning ahamiyatiga ko‘ra (ma’lum darajadagi konsentratsiya bilan) uchta daraja mezonlariga bo‘lish mumkin bo‘lgan model ishlab chiqildi. Birinchisi, reklama adabiyotlarining ijtimoiy javobgarligini belgilaydigan va qonunlarda va professional reklama kodekslarida belgilab qo‘yilgan mezonlardan iborat. Ikkinchi guruh mezonlari reklama murojaatining marketing izchilligini baholashga imkon beradi va reklama adabiyotlarining tipologik xususiyatlari bilan bevosita bog‘liqdir. Va nihoyat, uchinchi guruh reklama matnlarining yozma nutq madaniyatining to‘g‘riligi, aniqligi, izchilligi, pokligi, ifodaliligi, boyligi va dolzarbligini o‘z ichiga olgan umumiy talablariga muvofiqligi mezonidir”[9].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Respublikamizda reklama xizmatlarini rivojlantirish va uning ishlab chiqarish, savdo va boshqa sohalardagi subyektlar samaradorligini oshirish imkoniyatlarini ochib berishda iqtisodiy tahlilning monografik, taqqoslama tahlil, ekspert baholash, induksiya-deduksiya, ilmiy abstraksiya usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalariga ko‘ra reklama xizmatlarini rivojlantirish va uning samaradorligini oshirishga bir qator omillar ta’sir qiladi. Jumladan:

- reklama joylashtirishning marketing konteksti (maqsadli auditoriyaga reklama mavzusiga hamda bozordagi kommunikatsion vaziyatga bog‘liqligi);
- media-reja parametrlari (ommaviy axborot vositalarining turi va tarkibiy xususiyatlari hamda ma’lum reklama xabarlari oldidan yoki uning atrofidagi kontent);
- reklama xabarining turi, mazmuni, tuzilishi va boshqa xususiyatlari.

Bizning fikrimizcha, reklama samaradorligiga ta’sir etuvchi barcha omillarni, avvalo, ikki guruhga bo‘lish kerak: Birinchi guruhga – reklama yaratuvchilari tomonidan nazorat qilinmaydigan va shu asosida ma’lum natijadorlikni ta’minlaydigan omillar. Ikkinchi guruhga esa reklama xizmatlarini yaratuvchilarining to‘liq nazoratida bo‘ladigan hamda uning oqibatini doimo nazorat qilish mumkin bo‘lganlar kiradi. Shu bilan birga, har bir omilni hisobga olish reklamaning yakuniy samaradorligiga bevosita ta’sir qiladi. Shunisi e’tiborga loyiqki, ba’zida boshqariladigan omillar nazoratsiz bo‘lib qolishi mumkin. Bu agar reklama matni buyurtmachisi biron bir sababga ko‘ra mustaqil ravishda reklama yaratuvchisi uchun, masalan, qaysi reklama vositasidan foydalanilishini, matnga qanday g‘oya kiritilishini, qanday his-tuyg‘ular, qahramonlar va boshqalarni belgilashi kerakligi to‘g‘risida qaror qabul qilsa ishlatilishi kerak.

5 V.Ramalingam, B.B. Palaniappan, P.Natarajan, S.Palanivel. Measuring advertisement effectiveness- A neural network approach. Expert Systems with Applications 31 (1).
6 W.Huang, T. Hsieh, H.S.Chen. The advertisement effectiveness of animated spokes-characters. Journal of business management. 2011.
7 Friedman, H. H., & Friedman, L. (1979). Endorser effectiveness by product type. Journal of Advertising Research, 19(5), 63–71.
8 Riasi, A. (2015). Competitive Advantages of Shadow Banking Industry: An Analysis Using Porter Diamond Model. Business Management and Strategy, 6(2), 15-27.
9 http://www.nazaykin.ru/AD/effect/factory.htm#_edn3

Umuman olganda, yakuniy samaradorlik nuqtai nazaridan ham reklama xizmatlariga ta'sir etuvchi omillar tizimli guruhlangan. Bunda eng muhim kriteriy sifatida ularni tashkil etish va boshqaruviga qarab boshqariladigan va boshqarib bo'lmaydigan omillarga ajratiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki boshqariladigan omillar har doim ikkinchi darajali bo'ladi, chunki agar marketing samaradorligi bo'lmasa, unda mahsulot har qanday shaklda o'ralgan bo'lsa, iste'molchi uni sotib olmaydi.

Tahlillar natijasiga ko'ra reklama xizmatlarini rivojlantirish va u asosida ma'lum natijadorlikka erishishni omilli tahlil usullaridan foydalangan holda amalga oshirildi. Bunda subyektlar faoliyatiga reklama xizmatlari samaradorligini oshirishga ta'sir etuvchi omillarni o'rganishda SWOT tahlili hamda PEST tahlili usullaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida Samarqand viloyati Tayloq tumanidagi "Siyob grup" kompaniyasining imkoniyatlari chuqur tahlil qilish asosida o'rganildi. Hisob-kitoblarga ko'ra Samarqand viloyati Tayloq tumanidagi "Siyob grup" kompaniyasining yuqori iqtisodiy samaradorlikka erishishida reklama xizmatlarini rivojlantirish muhim hisoblanib, quyidagi bir qator yangi iqtisodiy imkoniyatlarni ochib beradi. (1-jadval).

1-jadval: Samarqand viloyati Tayloq tumanidagi "Siyob grup" kompaniyasida reklama xizmatlarini rivojlantirish asosida SWOT tahlili usulidan foydalanib samaradorlikni oshirish imkoniyatlari

S	Kuchli tomonlar	1. Ichki bozorda hamkorlari kupligi oqibatida kompaniyaning reklama xizmatlariga bo'lgan ehtiyojning yuqoriligi. 2. Kompaniya mustaqil mahsulotlarni eksport qilishi natijasida reklamaga bo'lgan alohida talabning mavjudligi. 3. Kompaniyaning mahsulotlarini ichki bozorda sotish va tashqi reklama xizmatlari uchun rahbariyat tomonidan me'yoriy -huquqiy hujjatlar bilan asoslanganligi.
W	Kuchsiz tomonlar	1. Kompaniya binolarini reklama shitlariga mos qayta rekonstruksiya qilish zarurligi. 2. Reklama xizmatlarini ko'rsatish uchun kompaniya yetarlicha mablag' ajratmaganligi. 3. Kompaniyada reklama xizmatlarini amalga oshiruvchi (agentliklar, firmalar va boshqalar) xizmat ko'rsatishi bo'yicha raqobat muhitini yetarli darajada shakllanmaganligi. 4. Bu yo'nalishda soha mutaxassislarining kompaniyada yetarli emasligi.
O	Imkoniyatlar	1. Kompaniya mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishlash, saqash, qadoqlash va sotish bo'yicha alohida reklama xizmatlariga bo'lgan talabni mavjudligi. 2. Kompaniya alohida yuridik shaxs sifatida reklama xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatini mavjudligi. 3. Kompaniyada o'sib borayotgan yuqori ehtiyojga mos reklama xizmatlari uchun moliyaviy mablag'larning mavjudligi. 4. Kompaniya rahbariyatining reklama xizmatlarini rivojlantirishga ijobiy munosabatda ekanligi.
T	Xavf-xatar	1. Kompaniyada mahsulotlarni yetishtirish va sotishning oziq-ovqat bilan bog'liqligi turli tabiiy-iqtisodiy, iqlim shart-sharoitlariga mos reklama xizmatlarini ko'rsatishdagi qiyinchiliklar. 2. Zamonaviy raqamli reklama xizmatlarini tashkil etish bo'yicha malakali mutaxassislarning yetishmasligi. 3. Kompaniyaning reklama xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha aniq narx me'yorlarining mavjud emasligi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, Samarqand viloyati Toyloq tumanidagi "Siyob grup" kompaniyasi reklama xizmatlari samaradorligini oshirishdagi omillar ta'sirini PEST usuli 10 dan keng foydalanib yangi imkoniyatlari ochib berildi. PEST usuli bu- u yoki bu kompaniya faoliyatiga ta'sir etuvchi siyosiy, iqtisodiy, sotsial hamda texnologik jarayonlar bo'yicha samarali biznesga ta'sir etuvchi tashqi muhit aspektlari hisoblanadi. Shunday ekan kompaniyaning yuqori biznes faoliyatida muhim hisoblangan reklama xizmatlari bo'yicha omillar ta'sirini ishlab chiqarish va sotish jarayonini natijadorligi bo'yicha tahlil qilindi. Tahlil natijalariga ko'ra Tayloq tumanidagi "Siyob grup" kompaniyasi reklama xizmatlari rivojlantirilishiga mos yangi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va texnologik imkoniyatlar yaratiladi. (2-jadval).

10 https://upr.ru/article/pest-analiz-chto-eto-takoe-i-kak-ego-provesti-na-primerah/

2-jadval: Samarqand viloyati Tayloq tumanidagi “Siyob grup” kompaniyasining PEST tahlili[11] asosida tizimlashtirilgan omillarning reklama xizmatlari samaradorligini oshirishga ta’siri.

Omillar		Izoh
P	Siyosiy	1. “Siyob grup” kompaniyasida reklama xizmatlarining tizimli rivojlanishi davlat tomonidan belgilangan me’yoriy-huquqiy hujjatlarga mosligi. 2. Kompaniyaning reklama xizmatlari bo‘yicha faoliyati ichki me’yoriy-huquqiy hujjatlar bilan mustahkamlangan. 3. Kompaniyaning raqamli xizmatlarini amalga oshirish jarayoni aholi va ishchi xodimlarning manfaatlari, tabiiy ekologik muhitni salbiy ta’sir etmaslik talablariga mos kelishi.
E	Iqtisodiy	1. Kompaniyada investitsion muhitning reklama xizmatlari asosida shakllanganligi. 2. Kompaniya biznes muhiti hamda bozor talab va taklif o‘zgarishlariga mos reklama xizmatlarini amalga oshirilishi. 3. Reklama xizmatlarining kompaniya bo‘yicha soliq imtiyozlarini olishlarida, inflyatsiya darajasini pasaytirish bo‘yicha belgilangan strategiyaga mosligi. 4. Reklama xizmatlarining kompaniyaning tashqi iqtisodiy munosabatlarini yaxshilashga va mahsulotlarni eksport qilish bo‘yicha yangi imkoniyatlarni ochishga yo‘naltirilganligi 5. Kompaniyada tizimli reklama xizmatlarini turli korrupsion holatlar va “yashirin iqtisodiyot” bo‘lishiga yo‘l qo‘ymasligi.
S	Ijtimoiy	1. Reklama xizmatlari asosida ishchi va xodimlarning daromadlari va xarajatlari bo‘yicha shaffof ma’lumotlarni bayon qilish imkoniyatini mavjudligi. 2. Reklama xizmatlari asosida kompaniyadagi turli toifadagi ijtimoiy yordamga muhtoj xodimlarga amaliy yordam berish imkoniyatining mavjudligi. 3. Kompaniyaning kelajagini belgilovchi ijtimoiy hayot bilan bog‘liq reklama banerlarini va OAVlarining munosabatlarini bayon qilish imkoniyatining mavjudligi. 4. Kompaniyaning reklama xizmatlari asosida brendi, ijtimoiy imidji va reputatsiyasini oshirishni tizimli yo‘lga qo‘yilganligi.
T	Texnologik	1. Reklama xizmatlari bo‘yicha kompaniyada yangi raqamli innovatsion texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha shart-sharoitlarning yaratilganligi. 2. Kompaniya tomonidan reklama xizmatlari asosida yangi texnologiyalar bo‘yicha investitsiyalarni jalb etilishida bayon qilinganligi. 3. Qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha kompaniyaga mahsulot ishlab chiqarish, sotish, qayta ishlash va iste’molchiga yetkazib berish borasida yangi texnologiyalarga asoslangan reklama xizmatlarini yo‘lga qo‘yilganligi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Samarqand viloyati Tayloq tumanidagi “Siyob grup” kompaniyasi natijadorligiga asoslangan holda mamlakatda reklama xizmatlarini rivojlantirish va samaradorligini oshirishda muhim bo‘lgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hamda texnologik omillar boshqa korxonalar, tashkilotlar kompaniyalarda ham o‘z ijobiy natijasini beradi.

XULOSA

Umuman, yuqoridagilardan kelib chiqib respublikamizda reklama xizmatlarini rivojlantirish asosida subyektlar samaradorligini tizimli oshirib borish quyidagi yangi imkoniyatlarni yaratadi:

Birinchidan, Respublika ichki bozoridagi iste’molchilarning tovar va xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojini qondirishda reklama xizmatlarini zamonaviy shakl va vositalaridan keng foydalanish;

Ikkinchidan, reklama xizmatlarini rivojlantirishga to‘siq bo‘layotgan barcha xavf-xatarlar hamda salbiy tomonlarini tizimli bartaraf etish;

Uchinchidan, iqtisodiyotdagi barcha subyektlar reklama xizmatlaridan foydalanish bo‘yicha mavjud imkoniyatlaridan yuqori darajada foydalanish o‘zlarining ichki va tashqi bozordagi ustunliklaridan tizimli foydalanish.

11 Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

To‘rtinchidan, reklama xizmatlarini rivojlantirish har bir tashkilot va korxonada yangi iqtisodiy imkoniyatlarni vujudga keltirish (soliq imtiyozlari, eksport qilish imkoniyatlari, biznes muhitini yaratish va boshqalar) dan unumli foydalanish.

Beshinchidan, reklama xizmatlarini rivojlantirish asosida yangi texnologik imkoniyatlardan, ayniqsa, raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish.

Oltinchidan, respublikada reklama xizmatlari asosida ijtimoiy shaffof muhit yaratish, ishchi xodimlar daromadlari va xarajatlari bo‘yicha reklama imkoniyatlarini tizimli yo‘lga qo‘yish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022-yildagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risida. Lex.uz
2. A. Beerli, J.D.M. Santana. 1999. Design and validation of an instrument for measuring advertising effectiveness in the printed media. Journal of current issues and research in advertising.
3. Adibi, R. (2012). Signs of semantics: three questions about visual meaning. Tehran, Iran: SAMT Publication.
4. Rabbimov Elbek Abdulloevich. Economical analysis of increasing the efficiency of digitalization of advertising services – The Journal of Economics, Finance and Innovation, 2023
5. Rabbimov Elbek Abdulloevich. Main directions of development of advertising services in the digital economy – World Economics and Finance Bulletin, 2022
6. V.Ramalingam, B.B. Palaniappan, P.Natarajan, S.Palanivel. Measuring advertisement effectiveness- A neural network approach. Expert Systems with Applications 31 (1).
7. W.Huang, T. Hsieh, H.S.Chen. The advertisement effectiveness of animated spokes-characters. Journal of business management. 2011.
8. Friedman, H. H., & Friedman, L. (1979). Endorser effectiveness by product type. Journal of Advertising Research, 19(5), 63–71.
9. Riasi, A. (2015). Competitive Advantages of Shadow Banking Industry: An Analysis Using Porter Diamond Model. Business Management and Strategy, 6 (2),
10. http://www.nazaykin.ru/AD/effect/factory.htm#_edn3
11. https://upr.ru/article/pest-analiz-chto-eto-takoe-i-kak-ego-provesti-na-primerah/
12. https://www.ama.org/

IJTIMOIY SIYOSATNI AMALGA OSHIRISHDA SOG‘LIQNI SAQLASH TIZIMINI MOLIYALASHTIRISH ASOSLARI

Imonqulov Nuriddin Qo‘shmon o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi xodimi

Annotatsiya: Maqolada sog‘liqni saqalsh tizimini moliyalashtirishning nazariy asoslari va uni rivojlantirish orqali ijtimoiy siyosatni ta’minlashning o‘ziga xos xususiyatlari tahlil etilgan. Xorijiy olimlarning qarashlari va ilmiy xulosalari tizimlashtirilgan. Tadqiqotlar asosida sog‘liqni saqlash tizimini moliyalashtirishning nazariy masalalarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va xulosalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: tibbiy xizmat, ijtimoiy siyosat, sog‘liqni saqlash, davlat budjeti.

Abstract: The article analyzes the theoretical basis of financing the health care system and the specific features of providing social policy for its development. The views and scientific conclusions of foreign scientists are systematized. Based on the research, scientific proposals and conclusions aimed at improving the theoretical issues of financing the healthcare system were developed.

Key words: medical service, social policy, healthcare, state budget.

Аннотация: В статье анализируются теоретические основы финансирования системы здравоохранения и особенности обеспечения социальной политики ее развития. Систематизированы взгляды и научные выводы зарубежных учёных. На основе исследования разработаны научные предложения и выводы, направленные на совершенствование теоретических вопросов финансирования системы здравоохранения.

Ключевые слова: медицинское обслуживание, социальная политика, здравоохранение, государственный бюджет.

KIRISH

Sog‘liqni saqlash tizimi aholi turmush farovonligini ta’minlashdagi roli muhim elementlardan biri bo‘lib hisoblanadi. Mamlakatda tibbiy xizmatlarning sifatli ta’minlanishi fuqarolarda kasal bo‘lishdan xavotir olishning vujudga kelmasligini ta’minlashi zarur hisoblanadi. Sog‘liqni saqlash tizimi aholini ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlashda muhim omil bo‘lib hisoblanadi. Birinchidan, aholining barcha qatlami uchun tibbiy xizmatlarni bepul va pulli shakllarda yetkazib berishni tartibga solish. Ikkinchidan, aholining kam ta’minlangan qatlami uchun tibbiy xizmatlar paketini shakllantirishdan iborat hisoblanadi.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti tadqiqotlariga ko‘ra, aholining kambag‘al qatlami yuqori daromadli qismiga qaraganda 5 yoshgacha o‘lim ko‘rsatkichlari 5 barobarga, 15-59 yosh oralig‘ida 2,5 barobarga ko‘proq o‘lim ehtimoli bilan hayot kechirishlari qayd etiladi [1].

Sog‘liqni saqlash tizimini moliyalashtirish va uning iqtisodiyot fundamental ahamiyati to‘g‘risida ko‘plab olimlar o‘zlarining ilmiy xulosalarini berishgan. Bunda iqtisodiy o‘sishning asosiy omili bo‘lgan inson kapitali kategoriyasi hisoblanishi ko‘plab tadqiqotlar va davlatlarning tajribasidan ma’lum hisobalanadi. Iqtisodiyot nazariyasida resurslarning cheklanganligi cheklanmagan ehtiyojlarning ta’minlanishidagi muvozanatni ta’minlashi zarurati doimiy aksioma tarzida ishlatiladi. Shunday bo‘lsa-da, inson kapitali kategoriyasining iqtisodiyotga kirib kelishi bilan ushbu qarashga nisbatan bir muncha munozarali fikrlar vujudga kelishiga olib keldi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

XX asrning 50-60-yillarida iqtisodiy o‘sish va yuqori daromadni shakllantirib berishda inson kapitali kategoriyasi muhim ekanligi tadqiq etila boshlandi. Bu borada bir qator tadqiqotlar hozirgi kunga qadar amalga oshirilib kelinmoqda. Inson kapitali va daromadlar barqarorligi o‘rtasidagi ijobiy bog‘liqlik T.Shuls tomonidan tadqiq etiladi [2]. Inson kapitali insonning yuqori daromad olishga bo‘lgan imkoniyati va salohiyatini vujudga keltiruvchi

omil ekanligi qayd etiladi. Uning fikricha, inson kapitalini shakllantirib beruvchi omillar qatorida sog‘liqni saqlash elementi muhim ekanligi sanab o‘tiladi. T.Shuls inson kapitali rivojlantirilmasa, jamiyatda kambag‘allik o‘sishi va yuqori texnologiyalarning rivojlanmasligi ta’kidlab o‘tiladi.

Inson kapitali kategoriyasini tadqiq etgan olimlardan yana biri G.Bekker bo‘lib, u inson kapitaliga investitsiyalar yo‘naltirishning mohiyatini ochib berganligi uchun 1992-yil iqtisodiyot yo‘nalishida Nobel mukofotiga loyiq ko‘rilgan. Uning fikricha, sog‘liq insonning mehnat qobiliyati va qiymat yaratishdagi asosiy omil ekanligi qayd etiladi. Insonlar tibbiy xizmat xarajatlariga ulardan bo‘ladigan investitsiyaviy qaytimi nuqtayi nazaridan qarashlarini asoslab beradi [3].

Fikrimizcha, sog‘liqni saqlash tizimi insonning salohiyatining yaroqli tarzda saqlab turadigan va unga mos ravishda daromad keltirishga imkon beruvchi elementdir. Mazkur kategoriyaning barqaror tashkil etilmaganligi insonlarning kambag‘allik tuzog‘iga tushib qolish ehtimolini oshirishga olib keladi. Shu boisdan, davlat sog‘liqni saqlash tizimini budjet mablag‘lari hisobidan moliyalashtirishni amalga oshirishi moliyaviy siyosatning markaziy masalasidan biri hisoblanadi.

O‘tgan asrning 50-60-yillarida inson kapitalini tadqiq etish jadal rivojlangan bo‘lsa-da, tibbiyotni moliyalashtirishga nisbatan yondashuvlar keng tus olmadi. Shunday bo‘lsa-da, S.J.Mushkin sog‘liqni saqlash tizimi iqtisodiyotini tadqiq etgan olimlardan biri hisoblanadi [4]. U o‘z ilmiy xulosasida, sog‘liqni saqlash iqtisodiyotida pul muomalasi mavjud bo‘lsa-da, pul asosiy kategoriya bo‘lib xizmat qilmaydi, degan fikrni ilgari suradi. Tibbiyotni moliyalashtirish resurslar tanqisligi sharoitida, ulardan oqilona foydalanishni nazarda tutadi. Bunda ikki asosiy muammo mavjudligini qayd etadi. Birinchidan tibbiy xizmatlar bozorini shakllantirish, ikkinchidan insonlarning tibbiy xizmatlarga yalpi investitsiya qilishini rag‘batlantirish ekanligini ta’kidlab o‘tadi. Bunda individning qarorlari tibbiy xizmatlarni aniq baholashga imkon bermasligi va ushbu holat samarasizlikka olib kelishini asoslab beradi. Shu boisdan, davlat sog‘liqni saqlash tizimini moliyalashtirishda asosiy rolni o‘ynashi lozimgini xulosa qiladi.

Shu boisdan ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda budjet siyosatining ahamiyati sezilarli bo‘lib, davlat aholini bepul tibbiy xizmatlar ta’minlashga intiladi. Bu esa, mamlakatda inson kapitalini barqaror shakllanishiga va iqtisodiy o‘sishda uzoq muddatli ijobiy ta’sir etishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Tadqiqotimiz davomida sog‘liqni saqlash tizimini yuqorida ta’kidlab o‘tilgan jihatlarni inobatga olgan holda moliyalashtirishga nisbatan olim va tadqiqotchilarning yondashuvlarini tizimlashtirishga harakat qilamiz. IHRT (OECD) a’zo mamlakatlarda davlat budjetidan tibbiy xizmatlarni moliyalashtirish ulushi 71 foizni tashkil etmoqda [5]. Mazkur raqamning shakllanayotganligi davlat budjetining ahamiyati nechog‘liq muhim bo‘lib qolayotganligini o‘zida aks ettirib beradi. Bu esa, davlatning roli doimiy dolzarblikka ega ekanligini ifodalashga xizmat qiladi. O‘zbekiston sharoitida esa, davlat budjeti xarajatlarining 60 foizi miqdorida esa sog‘liqni saqlash va ta’lim uchun xarajatlarni qoplashga yo‘naltirilayotganligi budjetning ahamiyati muhim ekanligini anglatadi.

Prof. D.Raxmonov o‘zining nomzodlik dissertatsiyasida sog‘liqni saqlash tizimini moliyalashtirish tendensiyalarini tahlil etadi. Uning asosiy e’tibori budjet mablag‘lari hisobidan moliyalashtirish yo‘nalishlari ekanligini qayd etish lozim. Uning fikricha, “sog‘liqni saqlash tizimi, tibbiy xizmatlar darajasi aholi turmush darajasini belgilovchi omillar tizimi tarkibiga kiradi” deb qayd etiladi. Shuningdek, “Respublikamiz sog‘liqni saqlash muassasalarini moliyalashtirish jarayonlarida moliyaviy mablag‘lardan foydalanish samaradorligini oshirish, maqsadliligini ta’minlash uchun “Natijaviylikka yo‘naltirilgan budjetlashtirish” uslubiyatini qo‘llash lozim” deb taklif etib o‘tadi [6].

Jumladan, M.Umurzakova [7] davlat mablag‘lari hisobidan tibbiy xizmatlarni moliyalashtirishda davlat tomonidan kafolatlangan bepul tibbiy xizmatlar hajmini aniq belgilash va aholining kasallanish darajasi va kasalliklar tarkibiga mosligini ta’minlash muhim ekanligini ta’kidlab o‘tadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotni amalga oshirishda nazariy qarashlar tizimlashtiriladi. Ular empirik tadqiqotlarning nazariy xulosalarini qiyosiy baholashga imkon beruvchi metodlar asosida shakllantiriladi. Tadqiqotlar asosida nazariy-ilmiy xulosalar shakllantiriladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Statsionar tibbiy xizmatlar o‘irn-kun koyka miqdoridan kelib chiqib moliyalashtirilsa, birlamchi bo‘g‘in biriktirilgan aholi jon boshiga qarab moliyalashtirish metodidan foydalangan holda amalga oshiriladi. Umuman olganda, budjetdan mablag‘lar ajratish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 3-sentyabrdagi “Budjet tashkilotlarini mablag‘ bilan ta’minlash tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 414-sonli qarorining qabul qilinishi bilan xarajatlar smetasi kategoriyasi asosida budjet mablag‘larini rejalashtirish qoidalari belgilab berildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2005-yil 28-sentyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash muassasalarini moliyalashtirish va boshqarish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 217-sonli qarori bilan BTSYOlarning xarajatlarini aniqlash tartibi belgilab berilgan.

Mazkur qarorda indeksatsiya koeffiitsenti ham qo‘llanilishi belgilangan. Qayd etib o‘tganimizdek, yosh va jins nuqtayi nazaridan tibbiy xizmatlarga nisbatan ehtiyoj turli chastota bilan shakllanishi tabiiy tendensiya hisoblanadi. Bu esa, o‘zgargan aholi sonini aniqlashga imkon beradi.

Masalan, biz 1-jadvalda keltirilgan raqamlarni ko‘rishimiz mumkin. Mazkur raqamlarda shartli ravishdagi keys keltirilgan bo‘lib, real va o‘zgargan aholi sonini o‘zaro nisbatini aniqlashga imkon beradi. Boshqacha aytganda, o‘zgargan aholi soni tuzatish koeffitsiyentiga real aholi sonini ko‘paytirish orqali topiladi.

1-jadval: BTSYOni moliyalashtirish jarayoni keysi

Yosh va jins bo‘yicha guruhlar	Tuzatish koeffitsiyenti	Shartli hudud aholi soni	O‘zgargan aholi soni
Jami		**1401**	**1733,7**
0-12 oy	2,66	210	558,6
13 oy – 14 yosh	0,83	243	201,7
Erkaklar 15-49 yosh	0,45	364	163,8
Ayollar 15-49 yosh	1,88	372	699,4
50 va undan katta yoshlilar	0,52	212	110,24

Manba: BTSYO muassasalari rahbarlari uchun amaliy qo‘llanma (USAID, Toshkent, 2005) ma’lumotlaridan foydalanib tadqiqotchi tomonidan tuzildi.

Fikrimizcha, aholi tarkibida 1 yoshgacha bo‘lgan bolalar va 15-49 yosh oralig‘idagi ayollarning bo‘lishi xarajatlarning oshishiga asosiy ta’sir etuvchi omil bo‘lib xizmat qilmoqda. 1.1-jadvalda shartli hudud aholi soni 1401 ta bo‘lishiga qaramasdan, birlamchi tibbiy xizmatlar uchun budjet mablag‘lari 1733,7 birlikka asoslanib moliyalashtirilishi vujudga kelmoqda. Shu boisdan, tibbiy xizmatlarni to‘g‘ridan to‘g‘ri moliyalashtirishni amalga oshirish imkoni bo‘lmas ekan. Birlamchi tibbiy xizmatlar budjet mablag‘lari orqali moliyalashtirishda manzillilik tamoyilinii amalga oshirishda tuzatish koeffitsiyenti muhim ahamiyatga ega bo‘lmoqda.

Statsionar tibbiy xizmatlarni moliyalashtirishda koyka-kun metodidan foydalanishi belgilangan bo‘lib, unda kasallik turining 365 kun ichida necha kun band bo‘lishi bilan bog‘liq hisoblanadi. Biz uni quyidagi 1-rasmda yanada aniqroq ifodalashga harakat qilamiz.



1-rasm: Davlat tibbiyot muassasalarida davlat budjeti mablag‘lari hisobidan moliyalashtirish mohiyati
Manba: Tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan

Fikrimizcha, statsionar tibbiy xizmatlarni budjetdan moliyalashtirishda ma’lum toifadagi fuqarolarning xarajatlarini qoplab berish nazarda tutiladi. Bu esa, ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘lgan aholi qatlami uchun tibbiy xizmatlarni lozim darajada ta’minlab berishni nazarda tutiladi.

2-jadval: 2019–2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash tizimini moliyalashtirishni takomillashtirish maqsad ko‘rsatkichlari

№	Ko‘rsatkich nomi	2018	2025
1	Umumiy davlat xarajatlariga nisbatan sog‘liqni saqlash bo‘yicha davlat xarajatlari foizda	15,4	15,4
2.	YAIMga nisbatan sog‘liqni saqlashga davlat xarajatlari, foizda	2,9	5,0
3.	Umumiy sog‘liqni saqlash xarajatlarida dori vositalari va tibbiyot buyumlari sotib olish uchun xarajatlar ulushi, foizda	9,6	12,0
4.	Hududlardagi birlamchi tibbiy-sanitariya muassasalarida (ambulator-poliklinika bo‘g‘ini) aholi jon boshiga moliyalashtirish, foizda	0	100
5.	Davolanganlik holati bo‘yicha statsionar muassasalarni moliyalashtirish, foizda	4,5	100
6.	Majburiy tibbiy sug‘urta dasturi bo‘yicha respublika fuqarolarini qamrab olish, foizda	0	90,0
7.	Majburiy tibbiy sug‘urta dasturi bo‘yicha tibbiy yordam ko‘rsatishda xususiy tibbiyot tashkilotlarining ishtiroki, foizda	0	30,0
8.	Aholining to‘g‘ridan to‘g‘ri to‘lovlari darajasini kamaytirish, foizda	45,3	30,0

Manba: 2018-yil 7-dekabr, PF-5590-son farmon ma’lumotlari

Fikrimizcha, tibbiy xizmatlarni moliyalashtirishda tibbiy sug‘urtaning o‘ziga xos roli mavjud bo‘lmoqda. Hozirgi kunda davlat budjeti rivojlanayotgan mamlakatlar uchun asosiy moliyalashtirish manbasi bo‘lsa-da, sug‘urta mexanizmlaridan foydalanish ustuvorlik kasb etishi tabiiy hol hisoblanadi. Shuningdek, tibiiy xizmatdan foydalanuvchilarning to‘g‘ridan to‘g‘ri mablag‘lari asosida ham to‘lovlarni amalaga oshirish rivojlanayotgan mamlakatlarga xos tajriba hisoblanadi.

Umuman olganda, tibbiy xizmatlarni moliyalashtirishda istiqbolli yo‘nalishlar sifatida majburiy tibbiy sug‘urta va xususiy tibbiyot muassasalarning ishtirokini jadallashtirish kabi jihatlar ustvorlik kasb etmoqda. Bu borada, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5590-sonli farmoni yangi tibbiy xizmatlar ko‘rsatilishida tub burilishlarni boshlab berdi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Mazkur hujjatning qabul qilinishi bilan 2025-yilga qadar sog‘liqni saqlash tizimini moliyalashtirishni takomillashtirishda 2-jadvalda keltirilgan maqsad ko‘rsatkichlari belgilab berilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash tizimini moliyalashtirishda mablag‘larning YAIMga nisbatan ulushini oshirish nazarda tutilganligi davlat budjetidan tashqari xususiy manbalarning ham ulushini oshirishni taqozo qiladi, desak maqsadga muvofiq bo‘ladi.

E’tiborli jihati aholining to‘g‘ridan to‘g‘ri to‘lovlari ulushini kamaytirishga qaratilgan maqsadli ko‘rsatkichlarni belgilanishi insonlarning kasal bo‘lish xavfidan xadiksiramasliklarini o‘zida aks ettirib beradi. Ushbu tendensiyaning vujudga kelishi o‘z-o‘zidan sug‘urta mexanizmini rivojlantirishni taqozo etadi. Fikrimizcha, sug‘urta mexanizmining rivojlantirilishi insonlarning kasal bo‘lish riskidan xavotir olmasliklarini anglatadi.

Shu nuqtayi nazardan, tibbiy xizmatlarni moliyalashtirishni tizimlashtirish alohida ahamiyatga ega hisoblanadi. Bu esa sog‘liqni saqlash tiimini moliyalashtirishni tartibga solish va ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda aniq chora-tadbirlarni amalga oshirishga imkon beruvchi qarorlarni qabul qilishga xizmat qiladi.



2-rasm: Sog‘liqni saqlash tizimini moliyalashtirish manbalarining aholi qatlami bo‘yicha nazariy asoslari

Manba: Tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan

Bizningcha, tibbiy xizmatlarni moliyalashtirishda ijtimoiy siyosatni ta’minlanishi davlat budjeti mablag‘lariga bog‘liqlik kasb etishini kuzatish mumkin. Bunda davlat budjeti mablag‘laridan aholining barcha, ayniqsa ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘lgan qatlamini qamrab olish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Fikrimizcha, sog‘liqni saqlash tizimini moliyalashtirishda majburiy tibbiy sug‘urta amaliyotining joriy etilishi statsionar tibbiy xizmatlarni ham davlat, ham xususiy tibbiyot muassasalarida olishga imkon beradi. Ushbu holatning joriy etilishi quyidagilarni shakllanishiga xizmat qiladi, deb o‘ylaymiz:

- davlat budjeti mablag‘laridan foydalanishda individual manzillilik ta’minlanadi;
- aholining tibbiy xizmat uchun “cho‘ntak” xarajatlarini qisqartirishga yordam beradi;
- aholining tibbiy xizmatlarni olishda moliyaviy risklardan himoya qilishga imkon beradi va kasal bo‘lish xavotiri sezilarsiz ahamiyatga ega bo‘lishiga olib keladi.

Tibbiy xizmatlarni moliyalashtirish manbasi bitta bo‘lishi natijasida davlat va xususiy tibbiyot muassasalari o‘rtasida sog‘lom raqobat vujudga kelishiga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. World Health Organization (1999) World Health Report 1999, World Health Organization, Geneva.
2. Schultz, T. W. (1961). Investment in human capital. The American economic review, 51(1), –1-17.
3. Becker, G. S. (1964). Human capital: A theoretical and empirical analysis. University of Chicago Press.
4. Mushkin S.J. “Toward a Definition of Health Economics,” Public Health Reports, U. S. Dept. of Health, Educ. and Welfare, Sept. 1958, 73, 785-93.
5. Public funding of health spending. https://www.oecd-ilibrary.org/sites/9343bbdd-en/index.html?itemId=/content/component/9343bbdd-en
6. Raxmonov D.A. O‘zbekiston Respublikasida sog‘liqni saqlash muassasalarini moliyalashtirishni takomillashtirish. I.f.n. .... avtoreferati. – T., BMA. 2012-y. – 25 b.
7. Umurzakova M.N. Sog‘liqni saqlash tizimini davlat budjeti mablag‘lari bilan moliyalashtirish .muammolari//Iqtisod va moliya. – T., 2017. – №7. – B. 10-16.

TIJORAT BANKLARI BIZNES EKOTIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Shoymardonov Orziqul Jo‘ra o‘g‘li
Toshkent moliya instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimizdagi tijorat banklari ekotizimini rivojlantirishning nazariy asoslari samaradorligini oshirish tahlili hamda rivojlantirish istiqbollarini takomillashtirish haqida so‘z boradi. Shuningdek, iqtisodiy munosabatlarning o‘zgarishi va globallashuv jarayoni ortib borayotgan sharoitda, milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda banklarning raqamli platformalari va ekotizimlari faoliyatini kengaytirish, insonlar va kompaniyalarni moliyaviy xizmatlarni ko‘rsatuvchilar bilan bog‘lovchi mobil aloqa telekommunikatsiya vositalari va internetning rivojlanishi orqali xizmatlarni tashkil etish, katta hajmdagi raqamli ma’lumotlarning saqlash qayta ishlash (bulutli texnologiyalar, Big data) tizimlarini rivojlantirish, banklarda mijozlarga xizmat ko‘rsatishni robotlashtirish, biometrik texnologiyalar bilan bog‘liq bo‘lgan mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha muallif yondashuvlari va takliflari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: tijorat banklari, bank ekotizimi, kredit, depozit, foizli va foizsiz xarajatlar, bank daromadi va xarajati, foyda, sof foyda, bank tizimi.

Abstract: This article examines the analysis of improving the effectiveness of the theoretical foundations of the development of the ecosystem of commercial banks in our country, as well as improving the prospects for development. Also, in the context of changing economic relations and the growing process of globalization, with the sustainable development of the national economy, it is necessary to expand the activities of digital platforms and ecosystems of their banks, organize services through the development of mobile telecommunications and the Internet, connecting people and companies with financial service providers, implement systems for storing and processing large amounts of digital data (cloud technologies, big data). development, robotization of customer service in banks, current problems related to biometric technologies, as well as author’s approaches and suggestions for their elimination are presented.

Key words: commercial banks, banking ecosystem, loan, deposit, interest and interest-free expenses , bank income and expenses, profit, net profit, banking system.

Аннотация: В данной статье рассматривается анализ повышения эффективности теоретических основ развития экосистемы коммерческих банков в нашей стране, а также совершенствование перспектив развития. Также в условиях изменения экономических отношений и нарастающего процесса глобализации, при устойчивом развитии национальной экономики необходимо расширять деятельность цифровых платформ и экосистем своих банков, организовывать услуги посредством развития мобильных телекоммуникационных средств и интернета, связывающих людей и компании с поставщиками финансовых услуг, внедрять системы хранения и обработки больших объемов цифровых данных (облачные технологии, big data) развитие, роботизация обслуживания клиентов в банках, представлены текущие проблемы, связанные с биометрическими технологиями, а также авторские подходы и предложения по их устранению.

Ключевые слова: коммерческие банки, банковская экосистема, кредит, депозит, процентные и беспроцентные расходы, банковские доходы и расходы, прибыль, чистая прибыль, банковская система.

KIRISH

O‘zbekistonda an’anaviy to‘lov usullaridan foydalanish jarayonlari hanuzgacha davom etayotganligi hamda ushbu jarayon ko‘p bosqichlardan iborat ekanligi natijasida to‘lov tizimida noqulayliklar kuzatilmoqda. Mustaqil bank tizimiga ega bo‘lgandan boshlab tijorat banklari to‘lov tizimlaridagi so‘nggi texnologiyalarni qo‘llash orqali to‘lov jarayonini samarali, xavfsiz va shu bilan birga tez, arzon va soddalashtirishga harakat qilmoqda. Shuning uchun, zamonaviy banklar va to‘lov xizmatlari raqobatbardosh to‘lovlar sohasida o‘z mijozlarining

so‘nggi talablarini qanoatlantirish uchun yangi imkoniyatlar yaratish ustida izlanishlar olib bormoqda. Respublikada “bank tizimiga zamonaviy servis yechimlari asosida axborot texnologiyalarini, moliyaviy texnologiyalarni keng joriy etish, axborot xavfsizligini lozim darajada ta’minlash, shuningdek, moliyaviy xizmatlar ko‘rsatishda inson omili ta’sirini kamaytirish bo‘yicha tezkor chora-tadbirlar ko‘rish talab etilmoqda”[1] kabi vazifalar belgilab berilgan. Banklarda axborot texnologiyalari mahsulotlari, aktivlar va passivlarni boshqarish, mijozlar bilan aloqasi bo‘yicha zamonaviy usullarni joriy qilish tizimini ilmiy jihatdan asoslab berish dolzarbdir.

Banklarning muhim vazifalari pul aylanmasi va kapital aylanmasini uzluksiz ta’minlash, milliy iqtisodiyotning jamg‘armalarini to‘plash uchun mablag‘larni investitsiyalash uchun keng imkoniyatlarni taqdim etishdir. Zamonaviy iqtisodiyotda ekotizim biznes modellari keng tarqalmoqda, ularning salohiyati moliya institutlari tomonidan tobora ko‘proq tushunilmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Bank biznesi ekotizimlarining asosiy maqsadlaridan biri mijozlar tajribasini yaxshilashdir. Ular mijozlarga yagona platforma orqali keng ko‘lamli moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkonini beradi. Bunga onlayn-banking, mobil ilovalar, to‘lov tizimlari va boshqa vositalar kirishi mumkin.

Bank biznesi ekotizimlari – moliyaviy xizmatlar ko‘rsatish uchun birgalikda ishlaydigan o‘zaro bog‘liq tashkilotlar, xizmatlar va texnologiyalar tarmog‘idir. Ular mijozlar uchun innovatsion va samarali yechimlarni yaratish uchun banklar, moliya institutlari, texnologiya provayderlari va bozorning boshqa ishtirokchilarini birlashtiradi.

Bugungi kunda ko‘plab olimlar va tadqiqotchilar tijorat banklarining biznes ekotizimi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borganlar. Jumladan, “gollandiyalik iqtisodchi olima Marta Szymanowska bank ekotizimlarining turli jihatlarini, shu jumladan moliyaviy innovatsiyalarning ta’siri va banklarning iqtisodiyotdagi rolini o‘rganib chiqqan”[2].

Turli tadqiqotlarga ko‘ra, global tendensiyalardan biri – bank ekotizimi klassik ma’noda mijozlar va xizmat ko‘rsatuvchi provayderlarni moliyaviy va moliyaviy bo‘lmagan ehtiyojlarini qondirish uchun birlashtirgan turli xizmatlarga ega bir yoki bir necha raqamli platformalarga asoslangan integratsiyalashgan biznesni olib borish usulidir.

R.K. Nurmuxametov, L.N. Voskresenskaya, Ye.B. Myasnikovalarning qarashlaricha: “bank ekotizimlarining paydo bo‘lishiga yordam beradigan asosiy omillar yangi raqamli texnologiyalarni joriy etish va bank biznesida raqobatning o‘sishi bo‘lib, asosiy tarkibiy qismlar yagona raqamli platforma, mijozlarga yo‘naltirilgan biznes va sheriklik shakllari hisoblanadi”[3].

Tijorat banklarining tranzaksion xarajatlarni kamaytirish va xizmat ko‘rsatish tezligini oshirish istagi, ularning narxi xizmat ko‘rsatishning barcha sohalarida moliya institutlari bilan “uzluksiz” hamkorlik qilish istagi asosida mijozlar tajribasi o‘zgarishi banklarning biznes modellari yangilanishiga va moliyaviy xizmatlar zanjiri elementlarining o‘zgarishiga yordam beradi.

Ekotizim biznes modelining shakllanishini J.A. Shumpeter konsepsiyasiga ko‘ra: “ekotizim texnik, kommunikatsiya va moliyaviy texnologiyalarning maxsus kombinatsiyasi tufayli shakllanadi, ular birgalikda biznesni tashkil etishning alohida holatini tashkil qiladi va biznesni tashkil etishning innovatsion shakli sifatida qaralishi mumkin”[4].

F. Allen, E.Carletti D.Galelar o‘z ilmiy ishlarida “tijorat banklari ekotizimlarini tashkil etish va uning barqarorligiga, shu jumladan, tartibga solish siyosatining ta’siriga alohida e’tibor qaratganlar”[5].

N. Allen Berger “bank ekotizimidagi bank raqobati, samaradorligi va xatarlarni boshqarish yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borgan”[6]. Xaver Freixas “bank nazariyasi va moliyaviy barqarorlik, shu jumladan banklarni tartibga solish va bank ekotizimlaridagi tizimli tavakkalchilik”[7] mavzuda tadqiqot olib borgan.

Tijorat banklarining biznes ekotizimi, odatda, iste’molchiga turli mahsulot va xizmatlar ko‘rsatiladigan bir nechta platforma tashkilotlari – xizmatlarning kombinatsiyasidan iborat.

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son “2020-2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmon. Qonun hujjatlari ma’lumotlar milliy bazasi, 13.05.2020-y., 06/20/5992/0581-son.

2 Szymanowska M. Et al. An anatomy of commodity futures risk premia //The Journal of Finance, 2014. – T. 69. – №. 1. – C. 453-482

3 Нурмухаметов Р.К., Воскресенская Л.Н., Мясникова Е.Б. Банковские экосистемы в России: сущность, виды, регулирование. // Финансовые рынки и банки, 2021. – №8. – С. 33–38.

4 Шумпетер Й. Теория экономического развития. – М., 2021. – 455 с.

5 Allen F., Carletti E., Gale D. Interbank market liquidity and central bank intervention //Journal of Monetary Economics, 2009. – T. 56. – №. 5. – C. 639-652.

6 Berger A. N., Humphrey D. B. Efficiency of financial institutions: International survey and directions for future research //European journal of operational research, 1997. – T. 98. – №. 2. – C. 175-212.

7 Freixas X., Martin A., Skeie D. Bank liquidity, interbank markets, and monetary policy //The Review of Financial Studies, 2011. – T. 24. – №. 8. – C. 2656-2692.

Ekotizimlarni moliyaviy va bank xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni oshirishning yangi vositasi sifatida tahlil qilishda “ekotizim” atamasini ilmiy nuqtai nazardan uning tuzilishi va turli xil xususiyatlariga ko‘ra mohiyatini anglash lozim. Shunday qilib, hozirgi vaqtda ilmiy asarlarda ekotizim mohiyatining bir qancha ta’riflari mavjud bo‘lib, ular, birinchi navbatda, kompaniyalarning yo‘nalishi, maqsadlari va ularni o‘rganish sohasi bilan farq qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy maqolni yozish jarayonida abstraksiyalash, guruhlash, qiyoslash, retrospektiv va istiqbolli, empirik tahlil va boshqa uslublardan foydalanildi. Maqolada qiyosiy taqqoslash usulida jahon amaliyotida tijorat banklarining biznes ekotizimi, odatda, iste’molchiga turli mahsulot va xizmatlar ko‘rsatiladigan bir nechta platforma tashkilotlari – xizmatlari samaradorligini oshirishda tijorat banklarining biznes ekotizimi asoslarini mamlakatimizdagi mavjud asoslar bilan taqqoslab, tegishli xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda bank biznesiga raqamli texnologiyalarni joriy etish, uni o‘zgartirish va mijozlarga xizmat ko‘rsatish turlarini takomillashtirish masalalariga alohida e’tibor berilmoqda. Ko‘pgina mualliflar banklar uchun biznes ekotizimlarini yaratishning ahamiyati, ularning afzalliklari, shuningdek, moliya bozorining rivojlanishiga ta’siri haqida fikrlar bildirishmoqdalar. Xususan, bank biznesi atrofida ekotizimlarni tashkil etish zarurati, ularning banklar uchun xususiyatlari va afzalliklari, bank biznesini tubdan ko‘rib chiqish, ekotizimda ishlash sharoitida uning biznes modelini o‘zgartirish masalalariga alohida e’tibor qaratilishiga qaramay, banklar uchun biznes ekotizimida duch keladigan muammolar haligacha to‘lig‘icha o‘rganilmagan.

Shunday qilib, tijorat banklari biznes ekotizimlarining rivojlanishi mijozlar guruhlari uchun qiymat taklifini yaratish modeliga asoslangan xo‘jalik yurituvchi subyektlarning rivojlanishiga tizimli yondashuv ekanligini ko‘rsatmoqda. Ushbu yondashuv maqsadli bozorlarni egallash imkoniyatiga ega bo‘lgan kuchli raqobatdosh ustunlikni shakllantirishga imkon beradi. Bugungi kunda tijorat banklari biznes ekotizimini yaratish va uni rivojlantirish uchun tizimli, puxta o‘ylangan bosqichma-bosqich dasturni shakllantirishi zarur.

Yuqorida keltirilgan fikrlarni inobatga olgan holda, birinchi navbatda, banklar tomonidan biznes ekotizimlarni shakllantirish zarurati va istiqbollarini rivojlantirishning maqbul yo‘llarini amaliyotga joriy etish lozimligini ko‘rishimiz mumkin. Ushbu jarayonda ekotizimlar biznes modellari sifatida endigina rivojlana boshlaganligi va ushbu biznes modeli bank ekotizimlari manfaatlarini ro‘yobga chiqarish uchun qo‘shimcha imtiyozlar imkoniyatlarini o‘rganib chiqish bugungi kundagi dolzarb masalalardan biri ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Biroq iqtisodiy faoliyatning boshqa modellari bilan bir nechta o‘xshashliklarga qaramay, bank biznes ekotizimlari deb ataladigan narsa shunchaki sheriklik va hamkorlikning rivojlangan shakli emas. Raqamlashtirish sharoitida ular mustaqil ma’noga ega bo‘lib, tashqi va ichki muhitda yangi raqobat sharoitlarini shakllantiradilar. Bu tizimni tashkil etuvchi va uni haqiqiy, bozorga mos va raqobatbardosh qiladigan maxsus texnologiyalar, raqamli platforma munosabatlarini amalga oshirish, hamkorlikdagi sherikliklarning keng tarqalishi va moliyaviy munosabatlar mavjudligi bilan belgilanadi.

Bank biznesi ekotizimining mazmuni va mohiyatini tushunish moliya sanoatining murakkabliklarini boshqarish, asosli qarorlar qabul qilish va keng iqtisodiyot doirasida bank sektorining barqarorligi va o‘sishini ta’minlash uchun juda muhimdir. Aynan tijorat banklari bank biznesi ekotizimidagi asosiy subyektlardir. Ular jismoniy shaxslarga ham, korxonalarga ham turli xizmatlarni taklif qilib, moliya sanoatining asosi bo‘lib xizmat qiladi. Agar rivojlangan mamlakatlarda biznes ekotizimlarining rivojlanishi, odatda, yuqori texnologiyali kompaniyalar (BigTech) bilan bog‘liq bo‘lsa, unda mamlakatimizda ularni yaratish turli, ya’ni ko‘pincha bir-biriga bog‘liq bo‘lmagan tarmoqlar va hududlarning bizneslarini birlashtirgan taniqli brendga ega bo‘lgan tizim shakllantiruvchi banklar asosida boshlanadi.

Tijorat banklari biznes ekotizimining shakllanishi va rivojlanishiga ta’sir qiluvchi omillar 1-rasmda keltirilgan.

Mamlakatdagi eng yirik banklar ekotizimlarni yaratish uchun eng munosib poydevor hisoblanadi, chunki ular keng mijozlarga ega, maksimal foyda olish uchun zamonaviy biznes haqiqatlariga moslashishga tayyor va mijozlar haqida batafsil ma’lumotlar mavjud.

Mamlakatimizdagi yuqori texnologiyali tijorat banklarining raqamli platformalari va ekotizimlari (foydalanuvchi identifikatori, shaxsiylashtirilgan takliflar, aqlli qurilmalar va robotli ilovalar) raqobatbardoshlikning asosiy omillari hisoblanadi. Mikro darajadagi raqamlashtirishga va makro darajadagi bozorlarni sifat jihatidan o‘zgartirishga sezilarli ta’sir ko‘rsatadigan amaliy raqamli texnologiyalarni rivojlantirish doirasidagi yechimlar tijorat banklari uchun alohida ahamiyatga ega. Ekotizim integratsiyasi milliy loyiha yo‘nalishlarini amalga oshirishda va muhim texnologiyalarni jadal almashtirishda biznesning yetarli darajada qiziqishi muammosini hal qilishning potensial yechimi sifatida xizmat qiladi.



1-rasm: Tijorat banklari biznes ekotizimining shakllanishi va rivojlanishiga ta’sir qiluvchi omillar[8]



2- rasm: Tijorat banklari biznes ekotizimi modelining huquqiy jihatlari[9]

8 Muallif ishlanmasi.
9 Muallif ishlanmasi.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Raqamli ekotizimning “eskrou” tizimi funksiyalari bajarilishi munosabati bilan bitta shaxsiy hisobvaraqdan hisob-kitoblar va to‘lovlar hamda tomonlarning shartnoma majburiyatlari kafolati bajarilishini ta’minlash lozim. 2024-yil 1-yanvarga qadar Raqamli ekotizimga integratsiyalashgan elektron tijorat platfomalari operatorlari uchun foyda solig‘i stavkasi 50 foizga kamaytiriladi.

Shuningdek, milliy iqtisodiyotni raqamlashtirishni rivojlantirishning huquqiy asosi ham takomillashtirilib borilmoqda, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-son “Raqamli O‘zbekiston–2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”[10]gi Farmoni asosida “mijozlarni masofadan identifikatsiya (lifeness check) qilishga ruxsat berildi, natijada, bankka kelmasdan, hech qanday shartnomaga imzo chekmasdan turib, bank xizmatlari va mahsulotlaridan foydalanish imkoniyati yaratildi”[11] ushbu tizim mijozlarga kelgusida qulayliklar beradi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-noyabrdagi “Elektron tijorat ma’murchiligini takomillashtirish va uni yanada rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish to‘g‘risida”[12]gi PQ-14-sonli Qarori imzolandi. Mazkur Qarorga ko‘ra, 2022-yil 1-iyuldan boshlab elektron tijorat bo‘yicha “Ochiq raqamli ekotizimi”[13] axborot tizimlari majmuasi ishga tushirildi. Endi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi Elektron kooperatsiya portali markazi o‘rniga Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi qoshidagi Raqamli transformatsiya markazi tashkil etildi.

Markaz quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

- raqamli ekotizimni shakllantirish va uning operatori funksiyalarini bajarish;
- elektron tijorat platformalariga o‘zining mijozlar bazasidan teng foydalanishi hamda ularga xizmatlar ko‘rsatishi uchun sharoitlar yaratish.

O‘zbekiston startaplari ularning rivojlanishini qo‘llab-quvvatlaydigan yoki to‘sqinlik qiladigan ekotizimda rivojlanadi. Ushbu ekotizim ko‘plab milliy elementlarni o‘z ichiga oladi, ammo mintaqaviy va xalqaro omillar ham muhimdir, ayniqsa, iqtisodiyot tobora ochiq va globallashib bormoqda. Moliya va malakali kadrlarga, shu jumladan texnologik mutaxassislar va tadbirkorlarga kirish ekotizimning muhim qismidir.



1.5-rasm: Tijorat banklari raqamli biznes ekotizimning tashkiliy tuzilishi[14]

Ekotizimga kirish foydalanuvchilarni shaxsiy hisobda ro‘yxatdan o‘tkazish bilan boshlanadi, bu ochiq portaldagi dasturlar va loyihalar natijalarini hisobga olish va iste’molchilarni aniqlash uchun raqamli xizmat bilan ifodalanadi. Tizimning barcha ishtirokchilari (foydalanuvchilar va tijorat banklari) ma’lumotlari bitta ma’lumotlar omborida saqlanadi.

10 https://lex.uz/docs/5030957 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 05.10.2020-y. PF-6079-s.
11 https://review.uz/oz/post/raqamli-iqtisodiyot-sohasida-qanday-ozgarishlarroy-berdi .
12 https://lex.uz/docs/5732739 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 17.11.2021-y. PQ-14-son
13 https://lex.uz/docs/5732739 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 17.11.2021-y. PQ-14-son
14 Muallif ishlanmasi.

Foydalanuvchi umumiy tizimdan kerakli xizmatlarni tanlash imkoniyatiga ega, bu esa qulaylik va ochiqlikni ta'minlaydi. Tizimga birlashtirilgan muassasalar tashkiliy va operatsion tizimlarni hisobga olgan holda ishlaydi, ularning faoliyati dasturiy ta'minot bilan jihozlangan, bu esa xarajatlarni kamaytiradi va xizmatlar sifatini yaxshilaydi.

Yagona tartibga soluvchi ma'lumotnoma tizimini ishlab chiqish, tematik ma'lumotlar registrlariga kirishni ta'minlash, bilim almashish ijtimoiy va davlat institutlari samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ekotizim muammolarni o'z vaqtida aniqlash, boshqaruv qarorlarini qabul qilish, biznes jarayonlarini rivojlantirish va vazifalarni topshirish uchun to'planishi va tahlil qilinishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni saqlaydi. Fayllarni saqlash yuqori darajadagi tashkilotlar tomonidan monitoring va tahlil uchun loyiha guruhlarining hisobotlarini to'playdi. Ekotizim uchun minimal modullar to'plami operatsion jarayonlar ko'lami va tizim foydalanuvchilari soniga qarab kengaytirilishi mumkin. Bundan tashqari, ijtimoiy-davlat institutlari uchun barcha biznes jarayonlarini tartibga solish va avtomatlashtirish modeli yaratilgan bo'lib, bu ularning xulq-atvor strategiyasini belgilaydi. Raqamli ekotizim tarkibiy tuzilishi bilan belgilanadigan yuqori ixtisoslashgan xizmatlarni birlashtirish mumkin. Ekotizimning uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun davriy investitsiyalar talab qilinadi, bu yerda to'lov muddati dasturlar va loyihalar doirasiga qarab o'zgaradi.

Yaxshi raqamli infratuzilma va qo'llab-quvvatlovchi hukumat siyosati ham juda muhimdir. Startaplar o'z tovarlari va xizmatlari bozorlari katta va faol bo'lganda yaxshi rivojlanadi.

XULOSA

Umuman olganda, tijorat bank biznesi ekotizimlari bank sektorining samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirishga, shuningdek, mijozlar tajribasini yaxshilashga qaratilgan. Ular banklarga o'zgaruvchan bozor talablariga moslashishga va moliya sektorining raqamli transformatsiyasida yetakchi bo'lishga imkon beradi.

Amalga oshirilgan izlanishlarga ko'ra, global tendensiyalardan biri bo'lgan bank ekotizimi klassik ma'noda mijozlar va xizmat ko'rsatuvchi provayderlarni moliyaviy va moliyaviy bo'lmagan ehtiyojlarini qondirish uchun birlashtirgan turli xil xizmatlarga ega bo'lgan bir yoki bir nechta raqamli platformalarga asoslangan integratsiya-lashgan biznesni olib borish usulidir.

Ko'pgina mamlakatlar iqtisodiyotida ekotizimlarning o'sib borayotgan ta'siri butun dunyo bo'ylab tijorat banklarining e'tiborini tortmoqda. Qoida tariqasida, tartibga solish zarurati shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, joylashtirilgan tarkibning mazmuni, monetizatsiya qilingan ma'lumotlarga teng kirish, monopoliyaga qarshi qonunchilikka rioya qilish, ikkala kompaniyaning va umuman iqtisodiyotning moliyaviy barqarorligini nazorat qilish zarurati bilan bog'liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992 son "2020–2025- yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi Farmon. Qonun hujjatlari ma'lumotlar milliy bazasi, 13.05.2020 y., 06/20/5992/0581-son.
2. Szymanowska M. Et al. An anatomy of commodity futures risk premia //The Journal of Finance, 2014. – T. 69. – №. 1. – C. 453-482.
3. Нурмухаметов Р.К., Воскресенская Л.Н., Мясникова Е.Б. Банковские экосистемы в России: сущность, виды, регулирование. //Финансовые рынки и банки, 2021. – №8. – с. 33–38.
4. Шумпетер Й. Теория экономического развития. -М., 2021. –455 с.
5. Allen F., Carletti E., Gale D. Interbank market liquidity and central bank intervention. //Journal of Monetary Economics, 2009. – T. 56. – №. 5. – C. 639-652.
6. Berger A.N., Humphrey D.B. Efficiency of financial institutions: International survey and directions for future research. //European journal of operational research, 1997. – T. 98. – №. 2. – C. 175-212.
7. Freixas X., Martin A., Skeie D. Bank liquidity, interbank markets, and monetary policy. //The Review of Financial Studies, 2011. – T. 24. – №. 8. – C. 2656-2692.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 05.10.2020-y PF-6079-s. https://lex.uz/docs/5030957
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 17.11.2021-y. PQ-14-son. https://lex.uz/docs/5732739

MAJBURIY TIBBIY SUG‘URTANING VUJUDGA KELISHI VA O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Kenjayev Soxib Sayfiyevich
O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi xodimi

Annotatsiya: Maqolada majburiy tibbiy sug‘urtaning nazariy asoslari va uni joriy etish orqali ijtimoiy himoyani ta’minlashning o‘ziga xos xususiyatlari tahlil etilgan. Xorijiy olimlarning qarashlari va ilmiy xulosalari tizimlashtirilgan. Tadqiqotlar asosida majburiy tibbiy sug‘urtani joriy etishga qaratilgan ilmiy taklif va xulosalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: majburiy tibbiy sug‘urta, tibbiy xizmat, ijtimoiy himoya, sog‘liqni saqlash, davlat budjeti.

Abstract: The article analyzes the theoretical foundations of compulsory medical insurance and the specific features of social protection after its introduction. The views and scientific conclusions of foreign scientists are systematized. Based on the research, scientific proposals and conclusions aimed at the introduction of compulsory medical insurance were developed.

Key words: compulsory medical insurance, medical service, social protection, healthcare, state budget.

Аннотация: В статье анализируются теоретические основы обязательного медицинского страхования и особенности социальной защиты после его введения. Систематизированы взгляды и научные выводы зарубежных учёных. На основе исследования разработаны научные предложения и выводы, направленные на внедрение обязательного медицинского страхования.

Ключевые слова: обязательное медицинское страхование, медицинское обслуживание, социальная защита, здравоохранение, государственный бюджет.

KIRISH

Mamlakatda tibbiy xizmatlarning yetkazib berilishi va ulardan qulay foydalanish yuzasidan ko‘plab iqtisodiyotlar o‘zgarishlarni boshdan kechirishdi. Bunda dastlab davlat budjeti mablag‘larining tibbiy xizmatlarni aholining barcha qatlamlari uchun yetkazib berilishidagi ahamiyati sezilarli rol o‘ynagan bo‘lsa, keyinchalik davlat budjeti mablag‘laridan foydalanishga nisbatan turli yondashuvlar vujudga kela boshladi. O‘z navbatida, sug‘urta mexanizmining budjet mablag‘laridan foydalanish borasidagi tendensiyalarida g‘arb davlatlarining tajribalari alohida ahamiyatga ega. Shu boisdan, tibbiy xizmatlar moliyalashtirilishida sug‘urta amaliyotidan foydalanish alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon amaliyotida ham birlamchi tibbiy xizmatlar davlat tomonidan to‘liq moliyalashtirilishi lozim bo‘lgan xizmatlar tasnifiga kiritildi. Bu esa, soliqlar hisobidan moliyalashtiriladigan birinchi navbatdagi, zaruriy bo‘lgan vazifaga aylandi. Shu nuqtayi nazardan, sug‘urta mexanizmi tibbiy xizmatlarni moliyalashtirish transformatsiyasida faol foydalanila boshlandi. Natijada, ko‘plab mamlakatlar tajribasida tibbiy sug‘urtaning majburiy va ixtiyoriy shakllari rivojlana boshladi.

Fikrimizcha, majburiy tibbiy sug‘urtani tadqiq etish orqali davlat budjeti mablag‘laridan samarali foydalanish imkoniyatlarini yuzaga chiqarish va aholi salomatligini yanada mustahkamlashda alohida ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan, biz tadqiqotlarimizni majburiy tibbiy sug‘urtaning vujudga kelishi va unda davlat budjeti mablag‘larini boshqarish bilan bog‘liq holatlarni o‘rganishga e’tibor qaratamiz.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Tibbiy sug‘urtaning turli shakllari mamlakatlar tomonidan XIX asrdan boshlab joriy etila boshlagan. Masalan, 1883-yilda Germaniya kansleri Otto fon Bismark tomonidan ijtimoiy islohotlar doirasida ijtimoiy tibbiy sug‘urta dasturi asosida amalga oshirila boshladi. Bu o‘z navbatida, jahon iqtisodiyotida dastlabki tajribalardan biri desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Mazkur ijtimoiy tibbiy sug‘urta modeli dastlab sanoat va qo‘l mehnati tarmog‘i

ishchilari sog‘ligini tiklash va turli shikastlanishlarni davolash bilan bog‘liq holatlarni inobatga olgan holda joriy etildi. Keyinchalik mazkur model tibbiy xizmatlarning ko‘plab sohalariga tatbiq etila boshlandi. Natijada, mazkur tajriba jahon iqtisodiyotidagi namunaviy model sifatida tarqala boshladi. Biz tadqiqotimizning keyingi qismlarida ushbu tajribaga nisbatan atroflicha yondashishga harakat qilamiz.

1916-1917-yillarda AQSH Tibbiyot Assotsiatsiyasi Prezidenti sifatida faoliyat olib borgan L.B.Rupert o‘zining nutqlarida tibbiy sug‘urta ijtimoiy islohotlarning keyingi bosqichi asosiy omili bo‘lib xizmat qilishini qayd etib o‘tadi [1]. Bu bilan u o‘zining rahbarligi davrida tibbiy sug‘urta bo‘lgan yondashuvlarni shakllantirishga xizmat qilgan edi.

AQSHda majburiy tibbiy sug‘urtani joriy etish va uni yanada rivojlantirishga qaratilgan turli yondashuvlar ham Ikkinchi jahon urushi davrida ham shakllana boshlaydi. Jumladan, 1945-yil 6-7-may kunlari Kaliforniya Tibbiyot Assotsiatsiyasi forumida S.Lovel va M.Goin tomonidan tibbiy sug‘urtani rivojlantirishda vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlarga nisbatan yondashuvlar bayon etiladi. Jumladan, tibbiy sug‘urtani rivojlanishi sotsializm elementini rivojlantirmasligi lozim degan g‘oyani ilgari surishadi [2].

Umuman olganda, Germaniyada vujudga kelgan tibbiy sug‘urta mexanizmlari ko‘plab g‘arb davlatlari tomonidan ijobiy baholandi. Mazkur tajribaning bunday bahoga ega bo‘lishi jahon iqtisodiyotining ko‘plab mamlakatlarida yangilanishlarni shakllanishiga ta’sir ko‘rsatdi. 1911-yilga kelib Yevropaning 11ta mamlakati tibbiy sug‘urta amaliyotini joriy etishga ulgurgan edi [3]. Natijada, tibbiy sug‘urtaga nisbatan qiziqishlar kengaya boshladi. Ushbu tendensiyalarni ham nazariy, ham amaliy jihatdan kuzatish mumkin.

1846-1938-yillarda yashab ijod qilgan, amerikalik ijtimoiy islohotchi, jurnalist J.G.Bruks majburiy tibbiy sug‘urta to‘g‘risida ilk ilmiy asarni e’lon qiladi. Uning 1893-yilda nashr etilgan ilmiy asarida Germaniyada joriy etilgan ijtimoiy sug‘urta kategoriyalarini baholashga harakat qilingan [4]. Majburiylik xususiyatini tahlil qilishga bo‘lgan o‘zining va ilmiy tadqiqotlar borasidagi ilk ilmiy xulosalarni shakllantirib beradi. U o‘zining asari bilan ijtimoiy sug‘urtaning mohiyatini ochib berishga va AQSHda tibbiy sug‘urtaning majburiy shakllari rivojlanishiga katta xizmat qiladi.

Majburiy tibbiy sug‘urtani rivojlanishi davlat mablag‘lari doirasida tibbiy xizmatlarni taqdim etishda faqat davlat tibbiyot muassasalari emas, balki xususiy tibbiyot subyektlari ham ishtirok etishi bilan ajralib turdi. Davlat tomonidan aholiga bepul asoslarda yetkazib beriladigan tibbiy xizmatlar bozorida raqobat muhitini shakllantirishda ham sug‘urta mexanizmidan foylanishga bo‘lgan e’tibor kuchayib bordi.

Fikrimizcha, davlat budjeti mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladigan tibbiy xizmatlar aholining barcha qatlamini qamrab olish bilan birga, aholini ijtimoiy himoya qilish nuqtayi nazaridan ham ahamiyatli hisoblanadi. Bunda birlamchi va ikkilamchi tibbiy xizmatlarni tasniflash bilan tibbiy sug‘urta mexanizmlarini ham tizimlashtirishga imkon tug‘ila boshlandi. Shuningdek, davlatning ayrim moliyaviy majburiyatlarini ish beruvchilar zimmasiga o‘tkazishga imkon beruvchi namunali tajribalar ham mavjud ekanligi ko‘plab mamlakatlar tomonidan qayd etila boshlandi.

Majburiy tibbiy sug‘urta jamg‘armasi to‘g‘risidagi ayrim nazariy masalalarni ko‘rib chiqishga harakat qilamiz.

Rus olimlaridan P.R.Paykovich o‘zining ilmiy maqolasida federal darajadagi majburiy tibbiy sug‘urta jamg‘armasi to‘g‘risida fikrlarni ilgari suradi [5]. Uning fikricha, jamg‘arma daromadlari soliqlar, sug‘urta badallari va homiylik yordamlari asosida shakllanishini qayd etib o‘tadi. Xarajatlari tarkibi esa umumdavlat vazifalari, aholini sug‘urtaviy ta’minoti va aholini ijtimoiy ta’minlash (ambulator xizmatlar) dan iborat tarzda tashkil etishini ta’kidlab o‘tadi. Uning fikricha, mazkur jamg‘armani boshqarishda budjet kodeksining roli va ularga ta’sir etuvchi nomoddiy ko‘rsatkichlarning o‘zgarishi muhim ahamiyat kasb etishi bilan ifodalab beriladi.

N.I.Lyaxova va Yu.S.Aslanyan hammuallifligidagi ilmiy maqolada ham majburiy tibbiy sug‘urta jamg‘armasi borasidagi mustaqil fikrlar asoslab beriladi [6]. Ular mazkur federal jamg‘armaning mablag‘larini tasarruf etishda hududiy filiallarning rolini oshirishni taklif etishadi. Bunda ma’muriy jarayonlarning kamaytirilishi va moliyaviy tranzaksiyalarning sonini qisqartirish jamg‘arma mablag‘laridan foydalanish bo‘yicha vaqt va xarajatlarni tejashda ijobiy ta’sir etishini ta’kidlab o‘tishadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotni amalga oshirishda nazariy qarashlarni tizimlashtiriladi. Ular empirik tadqiqotlarning nazariy xulosalarini qiyosiy baholashga imkon beruvchi metodlar asosida shakllantiriladi. Tadqiqotlar asosida nazariy-ilmiy xulosalar shakllantiriladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ko‘plab ilmiy adabiyotlarda majburiy tibbiy sug‘urtaning moliyalashtirish manbasi sifatida davlat budjeti va ish beruvchilar mablag‘lari ekanligi ta’kidlanganligini kuzatish mumkin. Bu esa, ixtiyoriy tibbiy sug‘urtadan farqli jihatlarni ifodalab beruvchi asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Shu boisdan, majburiy tibbiy sug‘urtani boshqarish va uni takomillashtirib borish davlat moliyaviy siyosati nuqtayi nazaridan ham dolzarb hisoblanadi.

Majburiy tibbiy sug‘urta rivojlanayotgan mamlakatlarda yoki uni rivojlantirishning dastlabki bosqichlarida daromadlarni shakllantirish va xarajatlarni amalga oshirish bilan tendensiyalar shakllana boshladi.

Biz tadqiqotlarimiz natijasida majburiy tibbiy sug‘urta jamg‘armasi kategoriyasiga ham to‘xtalib o‘tishni maqsadga muvofiq, deb o‘ylaymiz. Mazkur jamg‘armaning daromadlari va xarajatlarini boshqarishda tibbiy xizmtlar nomenklaturasini shakllantirish va ularni tizimlashtirish muhim hisoblanadi. Jamg‘arma daromadlarini shakllantirishning asosiy manbayi sifatida davlat budjetining mablag‘lari hisoblanadi. Davlat budjetidan ajratiladigan mablag‘lardan tashqari fuqarolarning boshqa daromad manbalari egalari tomonidan ham sug‘urta badallari to‘lanishi mumkin. Bunda asosiy o‘rinda fuqarolarning ish beruvchilari mablag‘lari ahamiyatli hisoblanadi. Shu boisdan, davlat ish haqi tarkibini tartibga solishda majburiy tibbiy sug‘urta siyosati omillarini inobatga olishi o‘ziga xos xususiyat kasb etadi.

Majburiy tibbiy sug‘urta ilk rivojlanish tarixida ham mamlakatda turli sharoitlarda mehnat qiluvchilarning mehnatga layoqatliligini saqlab turishda asosiy omil ekanligi sifatida qaralgan. Bu esa majburiy tibbiy sug‘urta jamg‘armasini shakllantirish va unga doir bo‘lgan moliyaviy siyosatni davlat tomonidan tartibga solishga bo‘lgan zarurat rivojlandi.

Olib borilgan tadqiqotlarimiz davomida majburiy tibbiy sug‘urta borasidagi quyidagi ilmiy xulosalarni shakllantirishga harakat qildik:

- Majburiy tibbiy sug‘urta to‘g‘risidagi ma’lumotlarni aholining moliyaviy savodxonlik dasturlariga kiritish. Bunda sug‘urta dasturlarining moliyaviy va sog‘liq saqlash jihatidan afzalliklarini sodda va qulay axborot shaklida taqdim etish;
- Aholining cho‘ntak xarajatlarini qisqartirishi uchun reimbursatsiya jarayonlarini ham vaqt. ham ma’muriy soddalashtirilgan shakllarini ishlab chiqish va joriy etish. Bunda sug‘urtaning moliyaviy afzalliklarini ro‘yobga chiqarishga alohida e’tibor qaratish;
- Biz tadqiqotlarimiz davomida majburiy tibbiy sug‘urtaning xususiyatlari to‘g‘risida ilmiy asarlarni o‘rganib boramiz. Shunday bo‘lsa-da, majburiy va ixtiyoriy tibbiy sug‘urtaning o‘zaro farqli va bir-birini to‘ldiruvchi xususiyatlarini tizimlashtirgan holda asoslashga harakat qilamiz.

1-jadval: Majburiy va ixtiyoriy tibbiy sug‘urtaning o‘ziga xos xususiyatlari

Ko‘rsatkich nomi	Majburiy tibbiy sug‘urta	Ixtiyoriy tibbiy sug‘urta
Qamrov darajasi	Aholining barcha qatlami	Aholining ayrim qatlami
Moliyalashtirish maqsadi	Ijtimoiy	Tijoriy
Daromadlar manbasi	Davlat budjeti	Ish beruvchi, fuqarolar mablag‘lari
Xarajatlar yo‘nalishi	Birlamchi tibbiy xizmatlar	Shartnomaga muvofiq tibbiy xizmatlar
Statsionar tibbiy xizmatlarni moliyalashtirish	Aholining ayrim toifalari uchun	Sug‘urta polisiga ega bo‘lganlar uchun
Tibbiy xizmatlarni ta’minlash darajasi	Tibbiy xizmat sifati minimal chegarasini ta’minlash	Tibbiy xizmat sifati maksimal chegarasini ta’minlash
Amal qilish davri	Doimiy	Shartnoma muddati doirasida

Manba: Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Majburiy tibbiy sug‘urta umumdavlat miqyosidagi tibbiy xizmatlarni moliyalashtirishni nazarda tutishi 1-jadval ma’lumotlaridan ko‘rish mumkin. Unda aholining barcha qatlami davlat budjeti mablag‘lari hisobidan doimiy ravishda tibbiy sug‘urta polisi bilan ta’minlanishi aks ettirib berilmoqda. Birlamchi tibbiy xizmatlar jahon mamlakatlarida ham davlat tomonidan bepul asoslarda yetkazib berilishi barchaga ma’lum bo‘lgan tendensiya hisoblanadi. Bu esa, uning ijtimoiy ahamiyatga ega ekanligini ifodalab berishga xizmat qiladi. Ma’lumki, davlat ijtimoiy, xususan tibbiy xizmatlarni yetkazib berishda tijorat yoki moliyaviy manfaatdorlik maqsadlarini ko‘zda tutmaydi. O‘z navbatida, asosiy maqsad mamlakatda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashdan iborat bo‘ladi.

Bizningcha, majburiy tibbiy sug‘urta davlatning sug‘urtasi kategoriyasi sifatida aks etib, davlatning ma’lum ijtimoiy maqsadlarini ifoda etish va ularga erishish nuqtayi nazaridan amalga oshiriladi. Ixtiyoriy tibbiy sug‘urta esa tijoriy maqsadlarni ifoda etishi bilan davlat sug‘urta tizimidan farqlanadi.

1-jadval ma’lumotlarida ixtiyoriy tibbiy sug‘urta aholining ma’lum qatlamini belgilangan sug‘urta badallari asosida kelishilgan muddatda tibbiy xizmatlarni ta’minlashga xizmat qilishi ko‘rsatib o‘tildi. Ixtiyoriy tibbiy sug‘urta xizmatlari nodavlat shaklda, sug‘urta kompaniyalari tomonidan individual kelishilgan shartlar asosida tibbiy-moliyaviy risklarni o‘z zimmasi olishi bilan ifodalanadi. Shu nuqtayi nazardan, ixtiyoriy tibbiy sug‘urta tijorat maqsadida taklif etiladi va undan ko‘zlangan asosiy maqsad moliyaviy manfaatdorlikni oshirishga qaratilgan bo‘ladi.

Bizningcha, davlat tibbiy sug‘urtasini ommalashtirishda nafaqat uning komponentlariga balki unga parallel ravishda ixtiyoriy tibbiy sug‘urtani rivojlantirishga e’tibor qaratish davlatning ijtimoiy va moliyaviy yukini kamaytirish bilan birga ijtimoiy himoyani samarali ta’minlashga yordam berishi mumkin ekan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Majburiy tibbiy sug‘urta jamg‘armasi borasida rus olimlari tomonidan ta’kidlab o‘tilgan fikrlar sohani rivojlantirish borasida ayrim imkoniyatlarni yaratishga yordam beradi, deb o‘ylaymiz. Shu boisdan biz quyidagi ilmiy xulosalarni shakllantirishga harakat qildik:

Majburiy tibbiy sug‘urta jamg‘armasini boshqarishda daromadlar va xarajatlarning aniq tasnifini ishlab chiqish lozim;

1. Daromadlarni shakllantirish manbalarining asosiy ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi o‘zaro nisbatni belgilash orqali moliyaviy yukni tekis taqsimlashga erishish.

O‘z navbatida, daromadlar kesimida davlat budjeti va aholi mablag‘larining o‘zaro nisbatini belgilashga e’tibor qaratish. Jon boshiga to‘lanishi lozim bo‘lgan sug‘urta badalining hajmini manfaatdorlar tomonidan to‘lanishi lozim bo‘lgan o‘zaro ulushni belgilash.

2. Jamg‘armaning xarajatlari yo‘nalishlarini tibbiy xizmatlar va aholining tibbiy xizmatlarga bo‘lgan ehtiyoji nuqtayi nazaridan tasniflarga ajratish.

Mazkur tasnifni ishlab chiqishda aholining tibbiy xizmatlarga doimiy va vaqtinchalik ehtiyojlari vujudga kelishini inobatga olish muhim hisoblanadi. Surunkali kasalliklarga tibbiy xizmat ko‘rsatish bilan mehnatga layoqatsizlikni tiklash uchun tibbiy xizmatlarni moliyalashtirishda xususiy omillarni inobatga olish imkonini joriy etish.

3. Jamg‘armaning mablag‘laridan hududiy jihatdan foydalanishda hududlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan mezonlarni ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Bunda nomoddiy ko‘rsatkichlar, jumladan tibbiy xizmatlarning notekis taqsimlanish ehtimolini inobatga olish. Geografik va boshqa nuqtayi nazardan kasalliklarni ko‘p uchraydigan hududlarda xarajatlarni markaziy jamg‘armadan moliyalashtirish shartlarini belgilash. Bir hududda ko‘rsatilgan tibbiy xizmatni boshqa hududning moliyaviy mablag‘laridan moliyalashtirish shartlarini ishlab chiqish. Bunda mazkur tibbiy xizmat boshqa hududda ko‘rsatilishiga sabab bo‘ladigan omillarni tahlil etib borish.

4. Aholini ijtimoiy himoya qilish dasturlarini amalga oshirishda majburiy tibbiy sug‘urtadan foydalanish ustuvorligini ta’minlash uchun aholini daromadlarga asoslangan holda tasniflarga ajratish asosida tibbiy sug‘urtaning rolini oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Aholining kam ta’minlangan qatlamini statsionar tibbiy xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojini moliyalashtirishni ta’minlash. Bunda aholining daromadlarini inobatga olishda tibbiy xizmatlarni sotib olish qobiliyati (daromad pariteti)ni hisobga olish mexanizmini joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Natijada, majburiy tibbiy sug‘urtaning ijtimoiy himoya institutidagi ishtirokini yanada takomillashtirishga bo‘lgan shart-sharoit vujudga keladi.

5. Majburiy tibbiy sug‘urta jamg‘armasiga moliyaviy yukni kamaytirish uchun ixtiyoriy tibbiy sug‘urta modelini ham parallel ravishda rivojlantirishga urg‘u berish.

Ixtiyoriy tibbiy sug‘urtani rivojlantirishda nodavlat tibbiy sug‘urtani rivojlantirishning huquqiy va moliyaviy asoslarini ishlab chiqish va joriy etish. Bunda tibbiy xizmatlardan maksimal qoniqish hosil qilish omiliga keng imkoniyatlar ochib berish bilan aholini keng jalb etish. Bunda shaxsiy manfaatdorlikni ham tibbiy jihatdan, ham moliyaviy jihatdan ahamiyatli bo‘lishiga e’tibor qaratish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

Rupert Blue, “Some of the Larger Problems of the Medical Profession,” Journal of the American Medical Association, 66 (June 17, 1916), 1901. Rupert Blue was surgeon general of the United States Public Health Service

Goin LS. The Philosophical Background of Compulsory Health Insurance. Cal West Med. 1945 May;62(5):247-9. PMID: 18747036; PMCID: PMC1780969.

Arthur P. Miles, An Introduction to Public Welfare (Boston, 1949), –152-71.

Brooks, J. G. (1893). Compulsory Insurance in Germany Including an Appendix Relating to Compulsory Insurance in Other Countries in Europe (No. 4). US Government Printing Office.

Пайкович П. Р. Анализ бюджета федерального фонда обязательного медицинского страхования РФ //Инновационная экономика: перспективы развития и совершенствования. – 2017. – №. 2 (20). – С. 137-142.

Ляхова Н. И., Асланян Ю. С. Пути реформирования фонда обязательного медицинского страхования в России // Russian Journal of Education and Psychology. – 2015. – №. 5 (49). – С. 653-664.

Русакова О. И. Состояние и проблемы обязательного медицинского страхования в Российской Федерации //Baikal Research Journal. – 2017. – Т. 8. – №. 1. – С. 3.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ZAMONAVIY SOLIQ MA’MURCHILIGINI JORIY ETISH ORQALI BUDJET-SOLIQ SIYOSATI SAMARADORLIGINI YANADA OSHIRISH

Yuldasheva Shaxnoza Xojiakbar qizi
Soliq qo‘mitasi huzuridagi Yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada budjet tushumlari barqarorligini ta’minlashda zamonaviy soliq ma’murchiligini joriy etishning muhimligi tadqiq etilgan. Shuningdek, soliq ma’murchiligining bugungi kun holati tahlil qilingan, budjet barqarorligiga salbiy ta’sir qiluvchi omillar hamda rivojlangan mamlakatlarning ilg‘or tajribalari o‘rganilgan. Yuqorida qayd etilgan holatlardan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasida zamonaviy soliq ma’murchiligini soliq organlari faoliyatini transformatsiyasi orqali amalga oshirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: zamonaviy soliq ma’murchiligi, deklaratsiya, yuqori daromadga ega jismoniy shaxslar, soliq inspeksiyasi, soliq qarzdorligi inspeksiyasi, hududlararo soliq inspeksiyasi, mahalla soliq inspektori, o‘ta yirik soliq to‘lovchilar ma’murchiligi, inson resurslari tizimi, korrupsiyaga nisbatan immunitet.

Abstract: This article discusses the importance of introducing modern tax administration in ensuring the stability of budget revenues. The current state of tax administration is also analyzed, factors that negatively affect fiscal stability, and the best practices of developed countries are studied. Taking into account the above circumstances, proposals and recommendations have been developed for the introduction of modern tax administration in the Republic of Uzbekistan by transforming the activities of tax authorities.

Key words: Modern tax administration, declaration of individuals with high incomes, verification of tax debt, interregional tax inspectorate, district tax inspector, administration of especially large taxpayers, personnel system, immunity from corruption.

Аннотация: В данной статье рассматривается значение внедрения современного налогового администрирования в обеспечении стабильности доходов бюджета. Также анализируется современное состояние налогового администрирования, изучаются факторы, негативно влияющие на бюджетную стабильность, и передовой опыт развитых стран. С учетом вышеизложенных обстоятельств разработаны предложения и рекомендации по внедрению современного налогового администрирования в Республике Узбекистан путем трансформации деятельности налоговых органов.

Ключевые слова: Современное налоговое администрирование, декларация физических лиц с высокими доходами, проверка налоговой задолженности, межрегиональная налоговая инспекция, районный налоговый инспектор, администрирование особо крупных налогоплательщиков, кадровая система, иммунитет от коррупции.

KIRISH

Bugungi kunda, budjet daromadlari barqarorligini ta’minlash, soliq ma’murchiligining shaffof tizimini yo‘lga qo‘yish, yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish hamda sohadagi korrupsiya holatlarini bartaraf etish soliq xizmati organlari oldidagi eng dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda. Mazkur yo‘nalishlarda hukumatimiz tomonidan tizimli islohotlar olib borilmoqda.

Xususan, tadbirkorlik subyektlariga soliq yukini kamaytirish maqsadida soliq turlari 16 tadan 9 taga kamaytirildi. O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi qabul qilindi, 2019 yil 1 yanvardan boshlab majburiy ajratmalar (3,2%) bekor qilindi. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i stavkasi tijorat banklari uchun – 22 foizdan 20 foizga, dividendlar va foizlar ko‘rinishidagi daromadlar bo‘yicha to‘lov

manbayidan ushlab qolinadigan foyda solig‘i stavkasi 10 foizdan 5 foizga, mol-mulk solig‘i stavkasi 5 foizdan 2 foizga, yagona soliq to‘lovi stavkasi 5 foizdan 4 foizga va yagona ijtimoiy to‘lov stavkasi 15 foizdan 12 foizga pasaytirildi.

Shuningdek, jismoniy shaxslarning ish haqidan olinadigan 8 foizli sug‘urta badali bekor qilindi hamda soliq stavkasi 22,5 foizgacha bo‘lgan 4 pog‘onali daromad solig‘ining yagona stavkasi 12 foiz etib belgilandi.

Budjetdan tashqari jamg‘armalarga mazkur yig‘imlarni bekor qilish hisobiga 7 mingga yaqin korxonalar har yili o‘rtacha 6 trln so‘m soliq to‘lashdan ozod etildi.

Bundan tashqari, iqtisodiyotga soliq yukini adolatli taqsimlash hamda qo‘shilgan qiymat solig‘i zanjiri uzluksizligini ta’minlash maqsadida tovar aylanmasi 1 mlrd so‘mdan oshgan soliq to‘lovchilar QQS to‘lashi belgilandi va mazkur soliq stavkasi 20 foizdan 12 foizga tushirildi hamda qo‘shilgan qiymat solig‘ini qoplab berish amaliyoti joriy etildi.

Shu bilan birgalikda soliq yukini kamaytirish orqali tadbirkorlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash borasida amalga oshirilgan bir qator ijobiy ishlar natijasida umumbelgilangan soliq to‘lovchilar soni 23 barobarga (178 ming) ortdi. Rasmiy band bo‘lgan xodimlar soni 130 foizga (5,1 mln nafar) ko‘paydi. Yuridik shaxs sifatida mol-mulk solig‘ini to‘lovchi korxonalar soni 8,4 barobarga (77,3 mingta) oshdi.

Shuningdek, tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan umumiy tarzda berilgan yengillik va imtiyozlar natijasida ularning ixtiyorida 2017-2023-yillarda 281,3 trln.so‘mga yaqin mablag‘ qoldirildi.

Yuqorida keltirib o‘tilgan islohotlar shuningdek, milliy iqtisodiyotning barqaror o‘sishi, tadbirkorlik subyektlari sonining oshishi hamda faoliyatlarning kengayishiga qaramasdan soliq xizmati organlari samaradorlik ko‘rsatkichlarini yanada oshirish bo‘yicha bir qator imkoniyatlar mavjud.

ADABIYOTLAR SHARHI

Zamonaviy soliq ma’murchiligini joriy etish orqali mamlakatning budjet-soliq siyosati samaradorligini oshirish bo‘yicha bir qator xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar tadqiqot olib borishgan. Xususan, g‘arb olimlari K.Taufik[1], S.Fabrizio, S.Kalestine va O.Oyebolalar[2] zamonaviy soliq ma’murchiligini joriy etishda raqamli texnologiyalarning muhimligi, normativ-huquqiy bazani soddalashtirish, institutsional strategiyani amalga oshirish hamda inson resurslariga alohida e’tibor qaratish zarurligini ta’kidlab o‘tganlar.

Bundan tashqari, rus tadqiqotchi olimlari Ye.Gorshenina[3], Ye.Noyeva va V.Yevseyevlar[4] budjet soliq siyosati samaradorligiga bevosita soliq ma’murchiligini takomillashtirish orqali erishish mumkinligini aytib o‘tishgan. Bunda, soliq ma’murchiligini takomillashtirishda birinchi navbatda soliq stavkalarining tadbirkorlik subyektlari uchun qulay bo‘lgan me’yorlarda bo‘lishi (Laffer egri chizig‘i misolida) shuningdek, soliqqa tortish mexanizmining sodda ekanligi muhim ahamiyat kasb etishi ta’kidlangan.

Shu bilan birgalikda, Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotining 2022-yilgi hisobotida rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda soliq ma’murchiligining joriy holati hamda uni isloh qilish bo‘yicha tegishli taklif va tavsiyalar keltirib o‘tilgan. Mazkur takliflarda asosan inson omilini maksimal qisqartirish, biznes jarayonlarni raqamlashtirish hamda soliq yukini tegishli maromda saqlab turish keltirib o‘tilgan[5].

Shuningdek, mahalliy tadqiqotchi olimlar Sh.Tashmatov[6] transfert narxlarni belgilashda soliq nazoratini takomillashtirish, I.Niyazmetov[7] soliq siyosatidagi bo‘shliqlarni istiqbolli soliq mexanizmlarini joriy etish orqali to‘ldirish, S.Voronin zamonaviy soliq islohotlarida soliqqa tortishning ilmiy asoslariga mos kelishiga alohida e’tibor qaratib o‘tgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot doirasida “O‘zbekiston Respublikasida zamonaviy soliq ma’murchiligini joriy etish orqali budjet-soliq siyosati samaradorligini yanada oshirish” mavzusiga doir empirik ma’lumotlar tahlili o‘tkazildi. Shu bilan birgalikda, “kontent” tahlil, “SWOT” tahlil, “Pattern” metodi, ekspert so‘rovi hamda dala so‘rovlaridan foydalanildi.

1 “Modernization of the Tax Administration System: A Theoretical Review of Improving Tax Capacity” E3S Web of Conferences 73, (2018)
2 “The promise and limitations of information technology for tax mobilization” World bank blogs march 15, 2023.
3 “Бюджетно-налоговая система государства” Экономическая теория. Учебное пособие. – Тверь: ТвГУ, 2012.
4 “Реализация бюджетно-налоговой политики государства” УДК 336.02 DOI 10.23672/t0403-6841-8028-e.
5 “Перечень инициатив в области налоговых технологий” ОЭСР (2022 г.), https://www.oecd.org/tax/forum-on-tax-administration/tax-technology-tools-and-digital-solutions/.
6 “Transfert narxlarni belgilashda soliq nazoratini takomillashtirish” Toshkent moliya instituti Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallar to‘plami Toshkent – 2022.
7 “Soliq siyosatidagi bo‘shliqlar” O‘zbekiston Respublikasida soliq ma’muriyatchiligi samarali faoliyatini ta’minlash: nazariykonseptual asoslar va amaliyot muammolari mavzusidagi konferensiya to‘plami. –Toshkent – 2022.

Yuqori daromadga ega bo‘lgan jismoniy shaxslarni maxsus deklaratsiya asosida soliqqa tortish tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha

Hozirda, jismoniy shaxslar tomonidan olingan daromadlarni soliq xizmati organlarida deklaratsiya asosida rasmiylashtirish amaliyoti joriy etilgan bo‘lsa-da, ayrim fuqarolar tomonidan soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash hamda olingan daromadlarni yashirish holatlari kuzatilmoqda.

Ma’lumot o‘rnida: 2022-yilda jami 1 399 nafar jismoniy shaxslar tomonidan 4 639,2 mlrd.so‘m miqdoridagi xarajatlar amalga oshirilgan bo‘lib, mazkur fuqarolarning 44 foizi (yoki 612 nafari) rasmiy ish joyiga ega bo‘lmagan Biroq daromadi 4 591,2 mlrd.so‘mni, 56 foizi (yoki 787 nafari) rasmiy ish joyiga ega Biroq daromadi 47,9 mlrd.so‘mni tashkil qilgan.

Mazkur amaliyot bo‘yicha bir qator ilg‘or xorijiy mamlakatlar (Shveysariya, Norvegiya, Ispaniya, Niderlandiya, Italiya, Argentina) tajribalari o‘rganib chiqilganda, yuqori miqdordagi daromadga va mol-mulkka ega bo‘lgan jismoniy shaxslarga nisbatan “majburiy deklaratsiya” asosida soliqqa tortish tartibi joriy etilganligi ma’lum bo‘ldi. Bundan tashqari, “Capgemini” menejment va axborot texnologiyalari bo‘yicha maslahat kompaniyasi tomonidan yuqori daromadga ega bo‘lgan shaxslar daromad miqdoridan kelib chiqib, 5 ta guruhga segmentlangan[8].

Yuqorida keltirilgan holatlarni bartaraf etish shuningdek, budjet daromadlarining barqarorligini ta’minlash maqsadida amalga oshirilgan xarajatlardan kelib chiqqan holda yuqori daromadga (5 mlrd so‘mdan ortiq) ega bo‘lgan jismoniy shaxslarni (Nigh Net Worth Individuals) maxsus deklaratsiya asosida soliqqa tortish tizimini joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Soliq ma’murchiligida yagona soliqqa tortish rejimini joriy etish bo‘yicha so‘nggi yillarda milliy iqtisodiyotning barqaror o‘sishi, tadbirkorlik subyektlari sonining oshishi hamda faoliyatlarning kengayishiga qaramasdan hududiy soliq xizmati organlarining ish samaradorligi ko‘rsatkichlari turg‘un holatda saqlanib qolmoqda. Mazkur muammoni keltirib chiqaruvchi bir qator omillar mavjud.

Xususan, soliq qonunchiligida soliqqa tortishning yagona rejimi mavjud emas. Ya’ni tadbirkorlik subyektlari aylanma hajmidan kelib chiqib, 3 xil turdagi tabaqalashtirilgan soliq rejimlari asosida soliqqa tortiladi. Shuningdek, bugungi kunda fuqarolar yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro‘yxatdan o‘tmasdan, 100 dan ortiq faoliyat turi bilan o‘zini o‘zi band qilish bilan shug‘ullanishi mumkin. Bunda, mazkur shaxslar tomonidan mehnat staji hisoblanishi uchun budjetdan tashqari pensiya jamg‘armasiga ijtimoiy soliq to‘lanadi. Ushbu soliqqa tortish rejimlarining rang barangligi tadbirkorlik subyektlari tomonidan olgan daromadlarini soliqdan bo‘yin tovlash maqsadida yashirish uchun imkoniyat sifatida foydalanib kelinmoqda (1-jadval).

1-jadval: 2023-yilda tadbirkorlik subyektlari tomonidan to‘langan soliqlar hamda soliq rejimlari bo‘yicha soliq yukining qiyosiy-tahliliy jadvali[9]

	O‘zini-o‘zi band qilganlar	Qat’iy soliq to‘lovchi YATTlar*	AOS to‘lovchilar (YATT, Yuridik shaxslar)*	Umumbelgilangan tartibda soliq to‘lovchilar (YATT, Yuridik shaxslar (yirik soliq to‘lovchilardan tashqari))*
Soni (ming nafar)	2 500,0	195,0	356,5	211,1
To‘laydigan soliqlari	Ijtimoiy soliq (ixtiyoriy)	Daromad solig‘i, ijtimoiy soliq	Aylanmadan olinadigan soliq	Foyda solig‘i, QQS, Ijtimoiy soliq, yer va mol-mulk solig‘i
Soliqlar summasi (mlrd.so‘m)	90,5	399,0	2 407,3	24 435,9
O‘rtacha soliq yuklamasi (ming.so‘m)	36,4	2 046,1	6 752,6	115 755,0

*Izoh: YATTlar soni – 240,7 mingta, yuridik shaxslar soni – 501,7 mingtani tashkil etgan.

Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, bugungi kunda tadbirkorlik subyektlari tomonidan soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash maqsadida olingan daromadlarini yashirish, tovar-aylanmalarini kamaytirib ko‘rsatish orqali soliq rejimlarida imkoniyati mavjud. Bundan tashqari muammoni keltirib chiqaruvchi omil sifatida hududiy soliq xizmati organlarining soliq to‘lovchilar bilan o‘zaro hamkorlikdagi munosabatlari (til biriktirish) orqali soliq to‘lovchining soliqdan bo‘yin tovlashga bo‘lgan harakatini keltirish mumkin.

8 Fransiya davlati Global va innovatsion konsalting kompaniyasining 2023-yilgi hisoboti https://www.capgemini.com/us-en/about-us/who-we-are/our-brands/capgemini-engineering/

9 O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi 2023-yilgi hisoboti hamda Soliq qo‘mitasining “Factbook 2023” jurnali.

Soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash holatlarini bartaraf etish, soliq to‘lovchilarga teng raqobat muhitini yaratish hamda davlat budjeti barqarorligini ta’minlash maqsadida biznes uchun yagona tartibdagi soliq rejimini joriy etish. Mazkur rejimda tadbirkorlik subyektlari tovar-aylanmalari hajmidan qat’iy nazar bir xil miqdordagi soliq yukini (soliq stavkalarini) belgilash zarur.

Korrupsiyadan holi bo‘lgan hududlararo soliq inspeksiyalari faoliyatini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha.

Hozirda, soliq ma’murchiligidagi mavjud bo‘lgan turli xildagi soliqqa tortish rejimlari tadbirkorlik subyektlari hamda hududiy soliq xizmati organlarining o‘zaro hamkorlikdagi faoliyatini kuchaytirishga imkoniyat yaratmoqda. Xususan, tadbirkorlik subyektlari tovar-aylanmalarini oshib ketmasligi maqsadida yashirin faoliyat yuritsa-da ushbu holatlarga manfaat evaziga loqayd bo‘lish uchun soliq xizmati organlari xodimlari bilan munosabatga kirishmoqdalar.

Mazkur munosabatlarni bartaraf etish, tizimda korrupsiya holatlarini oldini olish, shaffof soliq ma’murchiligini yo‘lga qo‘yish hamda yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish maqsadida hududiy soliq inspeksiyalari samaradorligi va joylashgan joyning xususiyatlaridan kelib chiqib, ularni optimallashtirgan holda 2 – 3 ta hududni qamrab oladigan tumanlararo soliq inspeksiyalari faoliyatini bosqichma-bosqich joriy etish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi (1-rasm).



1-rasm: Eksterritoriallik prinsipi asosida hududlararo soliq inspeksiyasi faoliyatini yo‘lga qo‘yish

Soliq xizmati organlarida markazlashtirilgan yagona murojaatlar bilan ishlash tizimini joriy etish bo‘yicha

Bugungi kunda, soliq xizmati organlarida soliq to‘lovchilar tomonidan yuborilgan murojaatlarni (xat, telefon, telegram, ijtimoiy tarmoqlar orqali) hisobga yurituvchi yagona platforma, shuningdek, mazkur murojaatlarni ko‘rib chiqilishi holati bo‘yicha qayta aloqa (feedback) tizimi yo‘lga qo‘yilmagan. Natijada, soliq to‘lovchilar tomonidan noroziliklarning bildirilishi fonida soliq xizmati organlarining salbiy imidjini shakllanishiga sabab bo‘lmoqda.

Ma’lumot o‘rnida: 2023-yilda jami soliq xizmati organlariga kelib tushgan murojaatlar soni 1276,8 ming.ta (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 64,1 mingtaga ko‘p)ni tashkil etib, shundan, 429,7 mingtasi (yoki 33,6 foiz) bevosita soliq xizmati organlari tomonidan 847,1 mingtasi (yoki 66,3 foiz) Soliq qo‘mita huzuridagi “Soliq servis” DUK tomonidan ko‘rib chiqilgan. Murojaatlarda o‘tgan yilning mos davriga nisbatan quyidagi yo‘nalishlarda o‘sish dinamikasi kuzatilgan. Xususan,

1) Soliqqa oid tushuntirishlar berish – 18 foizga,
2) Soliqlardan ozod qilish va imtiyozlar berish – 48 foizga,
3) Tadbirkorlik subyektlari faoliyatidagi qonunbuzarliklar – 25 foizga,
4) Tizim xodimlari ustidan shikoyat – 2 foizga hamda boshqa yo‘nalishlardagi murojaatlar – 18 foizga o‘sgan[10].

Shu bilan birgalikda, Soliq qo‘mitasida ijtimoiy tarmoqlarda soliq xizmati organlari imidjiga putur yetkazadigan maqolalar, izohlar va ma’lumotlarni real vaqt rejimida monitoring qilish hamda operativ tarzda choralarni ko‘rish xususiyatiga ega bo‘lgan tizim yoki tuzilma faoliyati yo‘lga qo‘yilmagan.

10 O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo‘mitasining 2023 yil yakunlari bo‘yicha hisoboti “Factbook 2023”

Ma'lumot o'rnida: hozirda ko'plab ijtimoiy tarmoqlarda kontent tahlil olib borish imkoniyati yo'lga qo'yilgan. Xususan, "Telegram" ilovasi orqali soliq qo'mitasi faoliyatiga oid barcha maqola, repost, izohlar to'g'risidagi ma'lumotlarni "TGStat" internet sayti orqali aniqlash mumkin. Bunda, "Soliq qo'mitasi" so'zlari ishlatilgan barcha kontentlar bir interfeysda yig'iladi hamda ijobiy va salbiy guruhlarga ajratiladi.

Soliq to'lovchilarga qulaylik yaratish, soliq bo'yicha murojaatlarning yagona bazasini shakllantirish, mazkur murojaatlarning hal qilinishi bo'yicha qayta aloqani yo'lga qo'yish orqali soliq xizmatining imidjini yanada oshirish shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarda soliq xizmati organlari to'g'risidagi kayfiyatdan xabardor bo'lish hamda o'z vaqtida chora ko'rish maqsadida Soliq qo'mitasida Yagona murojaatlar hamda situatsion markaz faoliyatini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiqdir.

Soliq qarzdorligini qisqartirish maqsadida yangi institutsional tizim hamda mexanizmni joriy etish bo'yicha

So'nggi yillarda olib borilgan islohotlar natijasida soliq ma'murchiligi soddalashtirilgan, soliq turlari qisqartirilgan hamda soliq stavkalari pasaytirilgan bo'lishiga qaramasdan, tizimda soliq to'lovchilarning boqimandaligi dinamikasi oshib bormoqda (2-jadval).

2-jadval: Soliq qarzdorligining o'sishi dinamikasi to'g'risidagi jadval[11], mlrd.so'mda

Soliq turlari	01.01.2023	01.01.2024	Farqi	
			So'mda	Foizda
Foyda solig'i	965,4	2 121,1	1 155,6	119,7
Yer solig'i	887,4	1 496,2	608,8	68,6
Suv solig'i	262,6	370,3	107,7	41,0
QQS	4 355,4	5 864,3	1 508,8	34,6
Mol-mulk solig'i	273,5	340,4	66,9	24,5
Daromad solig'i	810,3	966,2	155,9	19,2
Aylanmadan soliq	426,1	403,8	-22,3	-5,2
Aksiz	273,6	204,4	-69,2	-25,3
Nedra	288,7	58,1	-230,6	-79,9
Jami	**8 543,0**	**11 824,7**	**3 281,7**	**38,4**

Soliq qarzdorligining o'sish dinamikasi bevosita soliq qarzini undirish mexanizmining yetarli darajada takomillashmaganligi, soliq qarzini qisqartirish bo'yicha olib borilayotgan faoliyat samaradorligining past ekanligidan dalolat beradi.

Yuqorida kuzatilgan salbiy tendensiyani oldini olish shuningdek, soliq nazorati va soliq qarzini undirish bo'yicha amalga oshiriladigan ishlarni takomillashtirish hamda markazlashtirilgan nazorat tizimini joriy qilish maqsadida Soliq qo'mitasi huzurida Soliq nazorati va soliq qarzi bilan ishlash bo'yicha hududlararo soliq inspeksiyasi faoliyatini tashkil etish hamda inspeksiyasining quyidagi asosiy vazifalarini belgilash maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- tadbirkorlik subyektlarida yagona prinsip asosida soliq tekshiruvlarini o'tkazish;
- doimiy ravishda soliqqa oid huquqbuzarliklarni oldini olish hamda profilaktik tadbirlarni o'tkazish;
- yuzaga kelgan soliq qarzini undirish va unga oid sud va soliq organlari qarorlari ijrosini ta'minlash.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, ilg'or mamlakatlar tajribalari, xalqaro miqyosdagi iqtisodchi olimlar ilmiy ishlari hamda mamlakatda soliq ma'murchiligi bo'yicha tahlillar natijasi zamonaviy soliq ma'murchiligini joriy etishda bir qator tizimli islohotlarni amalga oshirishni taqozo etmoqda.

Yuqorida sanab o'tilgan muammolarni bartaraf, soliq ma'murchiligidagi biznes jarayonlarni optimallashtirish, soliq xizmatlari sifatini yanada oshirish shuningdek, soliq xizmatida professional kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish maqsadida, quyida keltirib o'tilganlarni joriy etish zarurdir:

1. 2024 – 2030-yillarda soliq ma'murchiligi va soliq organlarini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish hamda mazkur strategiya doirasida maqsadli ko'rsatkichlarni belgilash;

11 Soliq qo'mitasining rasmiy veb sayti "https://soliq.uz/page/elektron-broshyuralar-2"

2. Soliq to‘lovchilarga ko‘rsatilayotgan xizmat sifatini yanada oshirish shuningdek, soliq qonunchiligi bo‘yicha yagona yondashuv asosida maslahatlar berish tizimini yo‘lga qo‘yish (bunda, Soliq qo‘mitasi markaziy apparati tarkibiy tuzilmasida murojaatlar bilan ishlash bo‘yicha alohida tuzilma faoliyatini tashkil etish);
3. Soliq organlari tomonidan tadbirkorlik subyektlariga (ariza beruvchilarga) muayyan bitim bo‘yicha soliqqa tortish va uning yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan soliq oqibatlarini dastlabki baholash to‘g‘risida “Tax rulling” tamoyili asosida xizmatni yo‘lga qo‘yish;
4. Soliq organlari xodimlari faoliyatining samaradorligini baholash (KPI) tizimini joriy etish. Bunda, har bir soha yo‘nalishlari bo‘yicha strategik, taktik va operativ baholash indikatorlarini ishlab chiqish. Mazkur tizim asosida xodimlarning samaradorlik ko‘rsatkichlaridan kelib chiqib, rag‘batlantirish mexanizmini joriy etish;
5. Soliq nazorati va soliq qarzini undirish bo‘yicha amalga oshiriladigan ishlarni takomillashtirish hamda markazlashtirilgan nazorat tizimini joriy qilish maqsadida Soliq qo‘mitasi huzurida Soliq nazorati va soliq qarzi bilan ishlash bo‘yicha hududlararo soliq inspeksiyasini tashkil etish.
6. Soliq organlarida korrupsiya holatlarini bartaraf etish shuningdek, soliq to‘lovchi va soliq organlari xodimlari o‘rtasida til biriktirish holatlarini oldini olish maqsadida hududlararo soliq inspeksiyalari faoliyatini yo‘lga qo‘yish.
7. Soliq qo‘mitasi tarkibiy tuzilmasida soliq tizimining joriy holatini, soliq ma’murchiligidagi muammo va kamchiliklarni tizimli ravishda tahlil qilish, soliq tizimini takomillashtirish hamda zamonaviy soliq ma’murchiligini joriy etish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar markazi faoliyatini yo‘lga qo‘yish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Горшенина Е.В Экономическая теория. Учебное пособие “Бюджетно-налоговая система государства” – Тверь: ТвГУ, 2022. – 185 с.
2. Taufik Kurniawan Modernization of the Tax Administration System: A Theoretical Review of Improving Tax Capacity.
3. Ноева Е.Е, Евсеев В.А, Саакянь С.А Реализация бюджетно-налоговой политики государства в условиях пандемии covid-19. УДК 336.02 DOI 10.23672/t0403-6841-8028-e.
4. Власенко М.Г. Бюджетно-налоговая политика // Международный журнал гуманитарных и естественных наук. 2021. № 3-2. С. 108–123.
5. Zotikov N.Z. Features of the formation of federal budget revenues / N.Z. Zotikov, M.V. Lvov, O.I. Arlanova // Bulletin of Eurasian Science. 2023. № 1. Vol. 11. P.1–19.
6. Federal Tax Service of the Russian Federation. Official site. URL : https://www.nalog.ru (date of application 28.11.2020).
7. Номазов Б.Б О задачах модернизации налоговой системы Узбекистана // “Экономика и социум” №5(108)-1 2023.
8. Samiyeva G. T. (2022). Concepts of Poverty, Inequality and Social Exclusion. International Journal on Economics, Finance and Sustainable Development, 4(3), 122-126.
9. Dustova M. X. Improving the Mechanism of Financial Lending to Agricultural Enterprises //EUROPEAN MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF MODERN SCIENCE. https://emjms. academicjournal. io/index. php. – 2022. – T.
10. Khamraeva S. N., Alimova M. Y. Scientific and Theoretical Foundations of Social Infrastructure Development //Journal of Marketing and Emerging Economics. – 2022. – T. 2. – №. 5. – C. 155-160.
11. Kurbanov A. B., Jalilova N. M. The Role Of Small Business In The National Economy //The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research – 2020. – T. 2. – №. 07. – C. 95.

JAHON IQTISODIYOTINING BARQAROR RIVOJLANISHIDA DERIVATIVLAR BOZORINING ROLI

Shokirov Mirkamol Mirolim o‘g‘li
Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada derivativlarning jahon iqtisodiyotiga tasiri, ularning turlari ko‘llanilishi kabi masalalar ochib berilgan. Xalqaro derivativlar bozori tahlili statistik ma’lumotlar asosida ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Derivativlar, hosilaviy qimmatli qog‘ozlar, fyuchers, forvard, opsion, brent, yalpi ichki mahsulot, svop.

Abstract: In this article, issues such as the impact of derivatives on the world economy, their types of use are revealed. The analysis of the international derivatives market was considered on the basis of statistical data.

Key words: Derivatives, derivative securities, futures, forward, option, brent, GDP, swap.

Аннотация: В данной статье раскрываются такие вопросы, как влияние деривативов на мировую экономику, виды их использования. Анализ международного срочного рынка рассмотрен на основе статистических данных.

Ключевые слова: деривативы, производные ценные бумаги, фьючерс, форвард, опцион, Брент, ВВП, своп.

KIRISH

Derivativlar, yoki hosilaviy qimmatli qog‘ozlar, bu – asosiy aktivlarning kelajakdagi narxlariga bog‘liq bo‘lgan shartnomalardir. Ularning qiymati bevosita biror bir aktivning (masalan, aksiyalar, obligatsiyalar, ko‘rsatkichlar, valyutalar yoki xomashyolar) qiymatiga bog‘liq. Ushbu maqolada ushbu moliyaviy instrumentlar, ularning tarixi va turlari, qo‘llanilishi, shuningdek, jahon iqtisodiyotidagi roli haqida tadqiqotlarning qisqacha tasnifi keltirilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Jahon hosilaviy qimmatli qog‘ozlar bozorining nazariy asoslari ko‘plab xalqaro iqsitisodchilarning ilmiy tadqiqotlarida o‘rganilgan va tahlil qilingan: A.A. Afanaseva, V.Ye. Barbaumova, A.N. Burenina, L.F. Ibragimovoy, D.M. Mixaylova, B.B. Rubsova, G.G. Salicha, T.Yu. Safonovoy, A.B. Feldmana, Ye.D. Xalevinskoy, R. Gilferdinga, R.U. Kolba, D.F. Marshalla, V.K. Bansala, M. Tomsetta, G. Shinazi, G. Xoslera va boshqalar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqola tizimli yondashuv, ilmiy abstraksiyalash, tahlillar va sintez usullari, qiyosiy va tizimli tahlil , iqtisodiy statistik va boshqa metodlar asosida yozilgan. Tadqiqot mavzusi jahon iqtisodiyoti barqaror o‘sishida naqadar muhim omil ekanligi tarixiy faktlar asosida ko‘rsatib o‘tilgan. Tadqiqotning axborot bazasi sifatida “Xalqaro hisob kitoblar banki” (BIS), Xalqaro valyuta fondi kabi tashkilotlar ma’lumotlaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tom manoda moliya tizimini iqtisodiyotning tomiri deya tariflashimiz mumkin. Bu tarif bejiz berilmadi, insoniyat sog‘lom yashashi uchun tomirlar faoliyati qanchalik muhim bo‘lsa mamlakat iqtisodiyoti barqaror o‘sishi uchun moliya tizimi faoliyati ham shunchalik muhim hisoblanadi. Moliya tizimi – resurslarni jalb qilish, ularni taqsimlash va nazorat qilish funksiyalarini o‘zida jamlagan bir katta mexanizm hisoblanadi. Albatta biz moliya tizimini moliya bozorlarisiz tasavvur qila olmaymiz. Mexanizmning birinchi bosqichi, yani resurslarni jalb qilish aynan moliya bozorlari orqali amalga oshiriladi. Moliya bozorlari bir necha turga bo‘linadi:

- Fond bozori

- Valyuta bozori
- Tovar va xom ashyo bozori
- Hosilaviy qimmatli qog‘ozlar bozori
- Sug‘urta bozori
- Kriptoaktivlar bozori

Yuqorida keltirilgan bozorlarning barchasi o‘ziga xos xususiyatlarga, tarixga va moliya tizimida o‘z o‘rniga ega. Keltirilgan moliyaviy bozorlar orasida eng qadimiylaridan biri bo‘lgan va hozirda kapitalizatsiyasi bo‘yicha birinchi o‘rinda turuvchi hosilaviy qimmatli qog‘ozlar yani derivativlar bozori hisoblanadi. Derivativlar bu- bazaviy aktivni oldindan kelishilgan muddatda, narxda va shaklda kelajakda sotish yoki sotib olish bo‘yicha tuzilgan shartnomalardir. Derivativlar moliyaviy instrumentlarning ilk ko‘rinishi bo‘lib, ularning tarixi millioddan avvalgi XVIII asr qadimiy Mesopotamiya hukmdori Xamurapi joriy qilgan svod shartnomalarda hamda o‘sha davrning savdogarlari o‘rtasida riskni taqsimlash maqsadida tuzilgan karvonlarni yetkazib berish shartnomalarida namoyon bo‘ladi. Keyinchalik ushbu shartnomalar yunon faylasufi Arestotel asarlarida keltiriladi. O‘rta asrlarga kelib iqtisodiy yuksalish va savdo darajasining o‘sishi savdo faoliyatini huquqiy tartibga solishga turtki bo‘ldi. O‘z navbatida bu “lettredefaire” deb nomlangan hujjat joriy qilinishiga sabab bo‘lib, ushbu hujjat belgilangan muddat tugagandan so‘ng tovarlarni yetkazib berish shartini o‘z ichiga olgan shartnoma hisoblanib, forvard shartnomasining ilk ko‘rinishiga aylandi. 17-asrga kelib Gollandiya va Angliyada lola maniyasi paydo bo‘ldi. Lola sotuvchilari va xaridorlari mahsulot sifati va narxi o‘zgarishidan o‘zlarini sug‘urtalash maqsadida muddatli (derivativ) shartnomalardan foydalana boshladilar. 17-asrning boshlarida Amsterdamda lola piyozlariga opsionlar sotila boshladi 1930-yillarga kelib esa Angliyaning Qirollik birjasida forvard shartnomalari sotuvga chiqarilgan. Derivativlardan foydalanish tarixidagi ilk holatlardan yana biri Osakadagi (Yaponiya) guruch bozori bilan bog‘liq. Kontragentlar sifatida dehqonlar va savdogarlar ishtirok etgan. Dehqonlar hosil yetishtirishdagi ma’lum xarajatlarni qoplash maqsadida savdogarlarga kelajakdagi ma’lum muddatda kelishilgan miqdorda va sifatda guruchni olish huquqini beruvchi kuponlarni sotgan. Natijada dehqonlar o‘zlarining ma’lum xarajatlari uchun mablag‘ga ega bo‘lishgan, savdogarlar esa uzluksiz guruch yetkazib berish va kuponlarni qayta sotishdan foyda olish imkoniyatiga ega bo‘lishgan. O‘sha paytdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi dehqonlar hosilni yig‘ib olishdan oldin hosilni kelishilgan narxda kelajakda sotish bo‘yicha shartnomalar tuzgan.

Vaqt o‘tishi bilan moliyaviy instrumentlar rivojlana boshladi va 1790-yilda AQSHda Nyu-York birjasi ochilgandan so‘ng, derivativ shartnomalar uchun uyushgan bozor tizimini ishlab chiqish zarurati paydo bo‘ldi. O‘shanda “Wall-street” investitsion kompaniyalari derivativlar haqida ommaga tushunchalar va axborotlar berishni boshladi. 1848-yilgi fuqarolar urushidan so‘ng Chikago tovar birjasi (hozirda mavjud bo‘lgan eng qadimiy birjalardan biri) derivativlar savdosining asosiy markaziga aylandi. Uning ishtirokchilari amerikalik fermerlar bo‘lib, ular qishloq xo‘jaligi mahsulotlari narxini xedjirlashardi. 1929-yilda AQSH Kongressi fond va derivativlar bozorlaridagi operatsiyalarni nazorat qilish uchun Fond Birjasi Qo‘mitasini tuzadi. 1973-yilda Chikagodagi opsionlar birjasi va “Opsion shartnomalari kliring kompaniyasi” tashkil etilganidan keyin derivativ shartnomalarining bozordagi ulushi o‘sishi kuzatildi. Oradan o‘n yil o‘tgach, 1983-yilda yangi indeks derivativlari paydo bo‘ldi. Birinchi bunday shartnoma S&P100 indeksida qo‘llanildi. Keyin esa obligatsiya va foiz stavkalari derivativlari vujudga keldi. Shunday qilib, bozor iqtisodiyoti o‘sishi bilan derivativlar turlari ham kengayib boravergan va hozirgi kunga kelib, birjaviy derivativ turlarining umumiy miqdori 1250 taga yetgan.

Derivativlarning asosiy 4 ta turi mavjud:

- Forvardlar;
- Fyucherslar;
- Opsionlar;
- Svoplar.

Forvard shartnomasi bu- kelajakda asosiy aktivni oldindan belgilangan narxda sotish yoki sotib olish majburiyati. Forvardning barcha parametrlari tomonlar tomonidan individual ravishda muhokama qilinadi, ushbu format tufayli u deyarli uyushgan bozorda ishlatilmaydi, chunki birjalarda savdoning xususiyatlari standartlashtirilgan bo‘ladi va birja tomonidan belgilanadi. Hozirgi kunga qadar jahon birjadan tashqari bozorida forvardlar eng ommabop moliyaviy instrument sifatida qo‘llaniladi – ular bilan kunlik operatsiyalar trillionlab dollarni tashkil etadi. O‘z navbatida forvard shartnomalari ham bir necha turga bo‘linadi:

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

TARAQQIYOT PROGRESS

1-rasm: Forvard shartnoma turlari[1]

Fyucherslar forvardlarga juda o‘xshash bo‘lgan instrumentlar bo‘lib, ularni ba’zi farqlar ajratib turadi. Fyuchers shartnomasi – bu oldindan belgilangan narxda asosiy aktivni kelajakda yetkazib berish bo‘yicha kelishuv. Faqat ushbu shartnoma birjalarda tuziladi. Fyuchers shartnomasining forvard shartnomasidan asosiy farqi uni birja orqali tuzilishi va bajarilishinig nazorati ham birja orqali amalga oshirilishidadir. Fyucherslar birjada sotilganligi sababli ular oldindan belgilangan xususiyatlarga ega standartlashtirilgan instrumentlar hisoblanadi. Albatta, bu yondashuvning ijobiy tomonlari bo‘lganidek uning bir qator kamchiliklari ham mavjud. Birinchi ijobiy jihatida sifatida katta likvidlikni ta’kidlash kerak. Operatsiyalarni amalga oshirish uchun qo‘yilgan talablarning hamma uchun bir xilligi tufayli ular keng doiradagi ishtirokchilar uchun mos keladi, bu esa o‘z navbatida instrumentning likvidligini oshiradi. Yana bir afzalligi shundaki, birja ishtirokchilar vazifalarini bajarishini kafolatlaydi, buning natijasida instrumentga bo‘lgan ishonch ortadi.



2-rasm: Fyuchers shartnoma turlari[2]

Keyingi turdagi hosilaviy instrumentlar bu – opsionlardir. Bu instrument xaridorga kelajakda opsionning bazaviy aktivini sotib olish yoki sotish huquqini beruvchi shartnoma hisoblanadi. Bu turdagi bitimlarda opsion sotuvchisi, foyda yoki zarar ko‘rishidan qat’i nazar aktivni yetkazib berishni amalga oshirishi shart. Opsion xaridori esa shartnomani unda ko‘rsatilgan narx bo‘yicha bajarish huquqiga ega, lekin majburiyatni olmaydi. Ikkita asosiy opsion turi mavjud – Call va Put. Call opsioni – opsion egasiga aktivni ma’lum vaqt ichida ma’lum narxda sotib olish huquqini beradi. Bu aksiya bozoridagi long pozitsiyaga o‘xshaydi: call opsioni xaridori opsion muddati tugashidan oldin uning qiymati sezilarli darajada oshishiga umid qiladi. Boshqacha qilib aytganda,

1 Muallif ishlanmasi.
2 Muallif ishlanmasi.

call opsioni opsion egasiga kelajakda ma'lum bir sanada oldindan belgilangan narxda asosiy aktivni sotib olish huquqini beradi. Ushbu optison call opsion ya'ni sotib olish huquqini beruvchi opsion deb ataladi. Put opsion egasiga aktivni ma'lum bir vaqt ichida belgilangan narxda sotish huquqini beradi. Put aksiya bozoridagi short pozitsiyaga o'xshaydi: xaridor aksiyalar narxi opsion muddati tugagunga qadar tushib ketishiga umid qiladi. Boshqacha qilib aytganda, "put" opsioni opsion egasiga bazis aktivini kelajakda ma'lum bir sanada belgilangan narxda sotish huquqini beradi. e'tibor bering, opsionni sotib oluvchi uchun aktivni sotib olish yoki sotish huquqi majburiy emas, ya'ni opsion egasi bunday aktivni sotib olish yoki sotish huquqidan foydalanmasa ham bo'ladi.

Derivativlarning yana bir turi – svop. 20-asrning 70 yillari o'rtalaridan AQSH moliya bozorlarida keng tarqaldi. Svoplar, forvardlar singari, birjadan tashqari instrumentlar bo'lib, shartnomada ko'rsatilgan shartlarga muvofiq kelajakda to'lovlarni ayirboshlash bo'yicha ikki tomon o'rtasidagi kelishuvdir. Boshqacha qilib aytganda, bu savdo operatsiyasi bo'lib, u orqali bir qator konversion bitimlar tuziladi. Svopga bir nechta forvard shartnomalari zanjiri sifatida qarash mumkin. Oddiy qilib aytganda, svop har qanday aktivning vaqtincha almashinuvidir.

Svoplarning ham bir necha turlari mavjud. Hammamizga ma'lum 2008-yilgi krizis sababchisi sifatida qaralgan kredit defolt svoplari (CDS) ham aynan derivativlarning bir turi hisoblanadi. Cvopning asosiy turlari:

- Foiz svoplari, svopning ushbu turi eng ommalashgan tur bo'lib, foiz stavkalari almashinuvida foydalaniladi;
- Valyuta svoplari, valyuta ayirboshlashda qo'llaniladi;
- Aksiya svoplari (Repo), aksiya va boshqa qimmatli qog'ozlar almashinuvida ishlatiladi

Svop operatsiyalari muddati bir necha kundan bir necha yilgacha davom etishi mumkin.Fyuchers shartnomalaridan farqli o'laroq svoplar birjalarda sotilmaydi, chunki bu bitimlar yetarlicha standartlashtirilmagan. Svop bozorida asosiy rolni birja emas, balki svop dilleri egallaydi.

Derivativlar bozori jahon iqtisodiyotida o'zining mustahkam o'rniga ega. Buning yaqqol misoli esa, ushbu bozorning kapitalizatsiyada namoyon bo'ladi. "BIS"(Bank for International Settlements) dan olingan malumotlarga asosan 2023-yilning oxiriga kelib birjadan tashqari derivativlar bozori kapitalizatsiya715[3] trillion dollarga yetgan. Taqqoslash uchun jahon fond bozori kapitalizatsiyasi 2023-yilda 109 trillion, muomaladagi jami pullar miqdori 90.4 trillion dollarni, kriptavalyutalar bozori kapitalizatsiyasi esa 1.7 trillion dollarni tashkil qiladi. Quyidagi diagrammada 1999-2023-yillar ushbu bozor kapitalizatsiyasi ko'rsatilgan (3-rasm). Diagrammadagi malumotlar ushbu bozor "buqalar" trendi prinsipi asosida harakatlanayotgani ko'rsatib o'tadi. Bozorning shiddat bilan rivojlanishi 2000-yillarga to'g'ri kelib, bozor iqitsodiyoti rivojlanishining yangi bosqichga o'tishi bilan asoslanadi.



3-rasm: Birjadan tashqari derivativlor bozori kapitalizatsiyasi (1999-2023)[4]

3 https://www.bis.org/publ/otc_hy2311
4 https://www.bis.org

Derivativlarga mamlakatlar iqtisodiyoti darajasida nazar soladigan bo‘lsak, rivojlangan mamlakatlarning strategik ahamiyatga ega bo‘lgan aktiv va tovarlari narxini belgilashda va sotishda aynan derivativlar bozoridan foydalaniladi. Ushbu amaliyot orqali tovar va aktivlarning kelajakdagi narx o‘zgarishi riskini xedjlashga erishiladi. Bu esa o‘z navbatida ishlab chiqaruvchilar uchun ham juda muhim faktorlardan biri hisoblanadi. Misol tariqasida jahon iqtisodiyotining ustunlaridan biri bo‘lgan neft mahsulotini ko‘rib chiqamiz. Barchamizga ma’lum bo‘lgan neftning “Brent” markasi jahon neft bozorining etaloni hisoblanadi. Neftning narxi haqida gap ketganda aynan “brent” ning narxi nazarda tutiladi. Jahon neft bozoridagi 70% neft turlarining narxi aynan brentning narxiga bog‘liq. Brent narxining shakllanishidagi asosiy rol esa neft fyucherslariga tegishli. Neft fyucherslari savdosi bo‘yicha yetakchi o‘rinda SME Group tarkibiga kiruvchi ICE Futures Europe va NYMEX (Nyu- York tovar birjasi) hisoblanadi.

4-rasm: 1993-2024 yillar Jahon bozorida Brent narxining o‘zgarish dinamikasi (AQSH dol.)[5]

Ushbu diagrammada biz 1993-2024-yillar davomida neftning Brent markasi narxi o‘zgarish dinamikasini ko‘rishimiz mumkin (4-rasm). Ushbu bozor dinamikasi ham jahon iqtisodiyotining asosiy ko‘rsatkichlaridan biri bo‘lib, jahon iqtisodiyotida yuz berayotgan hodisalarga juda sezuvchan hisoblanadi. Buning misoli sifatida diagrammada 2008-yildagi moliyaviy inqiroz va 2020-yil pandemiya inqirozi bozorda “Ayiqlar” sikli ustunlik qilib narxlarga qanchalik darajada tasir qilganini kuzatishimiz mumkin.

Quyida biz korrelyatsion tahlil orqali 2000-2022-yillar davomida neftning Brent markasi narxi o‘zgarish dinamikasi jahon yalpi ichki mahsuloti (YAIM) hajmiga tasirini qisqacha ko‘rib chiqamiz.

Bunda bizga Pirsonning korrelyatsiya formulasi yordam beradi:

$$r = \frac{\sum(X_i - \overline{X})(Y_i - \overline{Y})}{\sqrt{\sum(X_i - \overline{X})^2 \sum(Y_i - \overline{Y})^2}}$$

Bunda:

r – Pirson korrelyatsiya koeffitsiyenti.

X_i va Y_i – O‘zgaruvchilarning qiymatlari.

$\overline{X}$ va $\overline{Y}$ – O‘zgaruvchilarning o‘rtacha qiymati.

$\sum$ – Qatordagi barcha ko‘rsatkichlar yig‘indisi.

Ushbu formula -1 dan 1 diapazon oralig‘ida bo‘lgan korrelyatsiya koyeffitsiyentini hisoblashda qo‘llaniladi. 1 qiymati to‘liq ijobiy korrelyatsiyani, -1 esa to‘liq salbiy korrelyatsiyani va 0 korrelyatsiyaviy bog‘liqlik yoqligini bildiradi. Qiymat 1 ga qanchalik yaqin bo‘lsa, o‘zgaruvchilar orasidagi chiziqli munosabatlar shunchalik kuchli bo‘ladi.

5 https://ru.investing.com/commodities/brent-oil-streaming-chart

Bizning misolda X bu Brentning o‘rtacha narxi trln.doll., Y esa jahon YAIM trln.doll..
1. $\overline{X}$ va $\overline{X}$ hisoblab chiqamiz:
1.1. Barcha X va Y o‘zgaruvchilarning yig‘indisi:

$$\sum X_i = 1\ 519{,}6 \text{ va } \sum Y_i = 1\ 534{,}4$$

1.2. O‘rtacha qiymatni topish uchun har bir o‘zgaruvchining yig‘indisini ularning soniga bo‘lamiz.

$$\sum \overline{X} = 1\ 519{,}6/23 = 66{,}1 \text{ va } \sum \overline{X} = 1\ 534{,}4/23 = 66{,}7$$

2. O‘rtacha qiymatlardan chetlanishlarni topamiz va ularning ko‘paytmasini hisoblaymiz:
2.1. Har bir X o‘zgaruvchi qiymatidan uning o‘rtacha qiymatini ayiramiz.
2.2. Har bir Y o‘zgaruvchi qiymatidan uning o‘rtacha qiymatini ayiramiz.
2.3. Hosil bo‘lgan X o‘zgaruvchining har bir chetlanishini Y o‘zgaruvchining chetlanishini ko‘paytiramiz.

1-jadval

Yillar	X	Y	$X_i - \overline{X}$	$Y_i - \overline{Y}$	$(X_i - \overline{X}) \times (Y_i - \overline{Y})$
2000	28,1	33,8	-38,0	-32,9	1 251,6
2001	24,5	33,6	-41,6	-33,1	1 375,9
2002	25,3	34,9	-40,7	-31,8	1 294,4
2003	28,4	39,2	-37,6	-27,5	1 035,7
2004	38,3	44,1	-27,8	-22,6	627,3
2005	55,8	47,8	-10,3	-18,9	193,9
2006	66,8	51,8	0,8	-14,9	-11,5
2007	74,7	58,4	8,6	-8,3	-71,4
2008	97,7	64,1	31,6	-2,6	-82,5
2009	64,1	60,8	-2,0	-5,9	11,7
2010	80,7	66,6	14,6	-0,1	-1,2
2011	112,3	74,1	46,2	7,4	341,7
2012	111,0	75,7	45,0	9,0	403,3
2013	108,3	77,8	42,2	11,1	470,1
2014	97,5	79,8	31,5	13,1	411,6
2015	54,4	75,4	-11,7	8,7	-101,8
2016	46,0	76,7	-20,1	10,0	-200,1
2017	55,7	81,6	-10,4	14,9	-154,3
2018	71,6	86,6	5,6	19,9	110,8
2019	64,6	87,7	-1,5	21,0	-30,9
2020	41,6	85,5	-24,4	18,8	-458,7
2021	71,5	97,3	5,4	30,6	166,0
2022	100,6	100,8	34,6	34,1	1 179,6

3. Barcha ko‘paytmalarning yig‘indisini topamiz:

$$\sum (X_i - \overline{X})(Y_i - \overline{Y}) = 7\ 761{,}1$$

4. Chetlanishlarning kvadratini topamiz:
4.1. Har bir $X_i - \overline{X}$ kvadratini hisoblaymiz.
4.2. Har bir $Y_i - \overline{Y}$ kvadratini hisoblaymiz.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

2-jadval

Yillar	$X_i - \overline{X}$	$Y_i - \overline{Y}$	$(X_i - \overline{X})^2$	$(Y_i - \overline{Y})^2$
2000	-38,0	-32,9	1 445,4	1 083,9
2001	-41,6	-33,1	1 727,9	1 095,6
2002	-40,7	-31,8	1 658,8	1 010,1
2003	-37,6	-27,5	1 416,6	757,2
2004	-27,8	-22,6	771,6	509,9
2005	-10,3	-18,9	105,2	357,1
2006	0,8	-14,9	0,6	222,2
2007	8,6	-8,3	74,2	68,8
2008	31,6	-2,6	999,3	6,8
2009	-2,0	-5,9	3,9	34,9
2010	14,6	-0,1	212,6	0,0
2011	46,2	7,4	2 133,7	54,7
2012	45,0	9,0	2 022,5	80,4
2013	42,2	11,1	1 781,8	124,0
2014	31,5	13,1	989,2	171,3
2015	-11,7	8,7	136,1	76,2
2016	-20,1	10,0	402,7	99,4
2017	-10,4	14,9	107,3	221,9
2018	5,6	19,9	31,0	395,2
2019	-1,5	21,0	2,2	442,2
2020	-24,4	18,8	597,2	352,3
2021	5,4	30,6	29,4	937,3
2022	34,6	34,1	1 195,2	1 164,3

5. Barcha chetlanishlarning kvadratlari yig‘indisini hisoblaymiz:

$$\sum(X_i - \overline{X})^2 = 17\,844{,}6 \text{ va } \sum(Y_i - \overline{Y})^2 = 9\,265{,}5$$

6. Barcha chetlanishlar kvadratlari yig‘indisi ko‘paytmasining kvadrat ildizini topamiz:

$$\sqrt{\sum(X_i - \overline{X})^2 \sum(Y_i - \overline{Y})^2} = \sqrt{17\,844{,}6 * 9\,265{,}5} = \sqrt{17\,844{,}6 * 9\,265{,}5} = 12\,858{,}4$$

7. Pirson korrelyatsiyasi koeffitsiyenti:

$$r = \frac{\sum(X_i - \overline{X})(Y_i - \overline{Y})}{\sqrt{\sum(X_i - \overline{X})^2 \sum(Y_i - \overline{Y})^2}} = \frac{7\,761{,}1}{12\,858{,}4} = 0{,}604$$



5-rasm: 2000-2022-yillar davomida neftning Brent markasi narxi o‘zgarish dinamikasi jahon yalpi ichki mahsuloti (YAIM) hajmiga tasiri

Yuqorida ko‘rsatilgan hisob-kitoblarga tayanib shuni xulosa qilishimiz mumkinki, neftning Brent markasi narxi o‘zgarishi jahon yalpi ichki mahsulotiga salmoqli darajada tasir ko‘rsatgan hamda hosilaviy qimmatli qog‘ozlar bozorining jahon iqtisodiyotidagi o‘rnini ko‘rsatib bergan

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Norman P. Risk Management. – M. : Publishing House Mann, Ivanov and Ferber, 2013. pp. 131,364.
2. Official website of the Bank for International Settlements (BIS); Review of the currency and activity on the derivatives market in 2022,2023 – URL: http://www.bis.org/statistics /.
3. Shokirov M.M. Derivative financial instruments as risk hedging/Confrencea, 2022 P 29-35.
4. Prudnikova A. A. The role of derivatives in risk management of international companies // Materials of the Fifth All-Russian Symposium “Strategic Planning and Enterprise Development”. – Moscow : CEMI, 2014. P. 140.
5. M. Shokirov Impact of the Corona virus Pandemic on the Global Economy /Procedia of Social Sciences and Humanities 2021. P. 350-353.
6. https://ru.investing.com/commodities/
7. John C. Hull “Options, Futures, and Other Derivatives”/ Wall street. 1989.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

BOSHQARUV HISOBIDA MAS'ULIYAT MARKAZLARINI TASHKIL ETISH MASALALARI

Sobirov Otabek Olimjonovich
PhD, Namangan muhandislik-texnologiya instituti,
"Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini samarali yo'lga qo'yish va buning uchun xo'jalik yurituvchi subyektlarda mas'uliyat markazlari bo'yicha buxgalteriya hisobini tashkil qilish, daromad va xarajatlarni doimiy nazorat qilish, shuningdek, axborotlar almashuvchanligini tezlashtirishda axborot kommunikatsion vositalarni ahamiyati kabi masalalarga atroflicha to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Boshqaruv hisobi, mas'uliyat markazlari, buxgalteriya hisobi, boshqaruv qarorlari, daromad, xarajatlar, nazorat tizimi, axborot kommunikatsion texnologiyalar, ishbilarmonlik, mehnat unumdorligi, strategik qarorlar, investitsiya, investitsion loyihalar.

Abstract: In this article, it is necessary to effectively establish the activities of economic entities and for this purpose, to organize accounting by responsibility centers in economic entities, to constantly control income and expenses, as well as to accelerate the exchange of information. Issues such as the importance of information and communication tools are discussed in detail.

Key words: Management accounting, responsibility centers, accounting, management decisions, income, expenses, control system, information and communication technologies, entrepreneurship, labor productivity, strategic decisions, investment, investment projects.

Аннотация: В данной статье необходимо эффективно наладить деятельность хозяйствующих субъектов и для этого организовать учет по центрам ответственности в хозяйствующих субъектах, осуществлять постоянный контроль доходов и расходов, а также ускорить обмен информацией. Подробно обсуждается важность информационных и коммуникационных инструментов.

Ключевые слова: Управленческий учет, центры ответственности, бухгалтерский учет, управленческие решения, доходы, расходы, система управления, информационно – коммуникационные технологии, предпринимательство, производительность труда, стратегические решения, инвестиции, инвестиционные проекты.

KIRISH

Iqtisodiy islohotlar jadal sur'atlarda amalga oshirilayotgan hozirgi kunda xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy jihatdan barqaror faoliyat olib borishlari uchun hukumatimiz tomonidan barcha sharoitlar yaratilmoqda. O'z navbatida bunday islohotlar har bir xo'jalik yurituvchi subyektning oldiga qo'ygan asosiy maqsadlari va muhim vazifalarini amalga oshirishlariga zamin yaratadi.

Ta'kidlash joizki bunday ishlarni tizimli amalga oshirish katta mehnat va sarmoyani talab etadi. Xo'jalik yurituvchi subyektlarni faoliyatini moliyalashtirish masalalari va ularni doimiy nazoratini olib borish muhim hisoblanadi. Bunday ishlar korxonalarni har bir bo'limlari ya'ni mas'uliyat markazlari bo'yicha alohida amalga oshirish samaraliroqdir. Boshqaruv hisobida mas'uliyat markazlari bo'yicha buxgalteriya hisobini tashkil qilish "xo'jalik yurituvchi subyekt ichida xodimlarning mehnat va ishbilarmonlik tashabbusini tashkil qilish, shuningdek, rag'batlantirishning vositasi hamda jamoaviy va shaxsiy manfaatlarni uyg'unlashtirishning muhim sharti hisoblanadi".

Avvalo mas'uliyat markazining tub mohiyatini anglagan holda ish tashkil etish boshqaruvning samarali ishlashini ta'minlabgina qolmay, uni yanada takomillashtirish imkoniyatini yaratadi. Mas'uliyat markazlarida hisob, majburiyat, mas'uliyat, javobgarlik tushunchalari bilan bir qatorda shaxsiy manfaatning (rag'batlantirish nuqtai nazaridan) ham bo'lishi rivojlanish tendensiyasini yanada oshishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu masalalar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo'yicha Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni [1]da atroflicha yoritib o'tilgan.

ADABIYOTLAR SHARHI

Ta'kidlash lozimki, tadqiqot yo'nalishida ilmiy tadqiqotlarini olib borgan xorijiy iqtisodchi olimlardan K.Druri, X.Anderson, S.Christopher, S.Davidson, I.M.Volkov, O.E.Nikolayeva, O.V.Alekseyeva, A.D.Sheremet, Ya.V.Sokolovlar tomonidan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar berilgan. Mamlakatimizda ham mustaqillik yillarida buxgalteriya hisobi va iqtisodiy tahlil, shuningdek, boshqaruv hisobi va uning ayrim soha muammolariga bag'ishlangan adabiyotlar, ilmiy maqolalar, o'quv va uslubiy qo'llanmalar chop etilmoqda.

Bular jumlasiga A.A.Abdug'aniyev, N.B.Abdusalomova, A.Z.Avlokulov, A.K.Ibragimov, A.A.Karimov, M.B.Kalonov, U.U.Kostayev, B.Yu.Masudov, M.K.Pardayev, A.X.Pardayev, N.K.Rizayev, B.A.Xasanov, I.K.G'iyasovlarning olib borgan ilmiy tadqiqotlarini kiritish mumkin. Mazkur mualliflarning tadqiqotlari muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lib, mamlakatimizda boshqaruv hisobining tashkil topishi va rivojlanishiga katta hissa qo'shmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mas'uliyat markazlari bo'yicha hisobni o'rganish va tahlil etish bo'yicha mavjud adabiyotlar, ilmiy tadqiqotlar natijalari, amaliy tajribalar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, hozirgi vaqtgacha bu boradagi masalalarning ko'pchiligi bahsli xarakterga ega va bu bahsli holatlar bartaraf etilmagan. O'z navbatida bu boradagi mavjud muammolarni bartaraf etish uchun yanada chuqur tadqiqot ishlarini olib borish lozim. Buning ucun esa quyidagi tadqiqot usullaridan foydalanish yuqori samara beradi. Ular: kuzatish, umumlashtirish, guruhlash, qiyosiy tahlil, anketa so'rovnomasini o'tkazish, natijalarni ekspert baholash, iqtisodiy tahlil va iqtisodiy-statistik usullar kabi usullar [12].

Mazkur usullar olimlar tomonidan bildirilgan yondoshuvlar hamda fikr-mulohazalarni umumlashtirish, ma'lumotlarni tahlil qilish natijasida bu boradagi mavjud muammolarni aniqlash imkonini beradi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Boshqaruv hisobini mas'uliyat markazlari bo'yicha hisob darajasida tashkil qilishda shu boradagi keng tarqalgan nuqtai nazarlar mohiyatida ham aniq namoyon bo'ladi. Mas'uliyat markazlari bo'yicha hisobning maksimal samaradorligi, asosan, ichki tadbirkorlik muhitida namoyon bo'ladi, bizni bu tanlovga qo'shilishimiz, mavjud tanlovlarning biri xolos. Bu esa an'anaviy hisob foydasiga xizmat qiladi. Bunga qaramasdan, quyi tizim hisobi sifat jihatdan eng yangi axborotni shakllantiradi.

Ta'kidlash lozimki, mas'uliyat markazlari bo'yicha hisob "ichki hisobotning an'anaviy tizimlariga xos bo'lgan kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan bo'lib, mazkur kamchiliklarga to'xtalib o'tmoqchimiz:

a) asosiy urg'u og'ishlarni aniqlashga va mas'ullarni qidirishga yo'naltiriladi;
b) ma'lum vazifalar guruhi uchun ma'lumot to'planadi;
d) ishlab chiqarishda nuqsonli mahsulotlar salmog'ini paydo bo'lishi yoki oshishiga sababchi mutaxassis-xodimlarni aniqlash va boshqalar.
e) korxona faoliyatidagi daromadini oshirishda asosiy vositalarni samaradorligini doimiy baholash lozim [5].

Korxonalarning rivojlantirish jarayonida tashkiliy tuzilmalarni ham yanada tizimli rivojlantirish korxona faoliyatni barqaror o'sish mexanizmlarini shakllantirishga olib keladi: milliy va xalqaro korporatsiyalarni tuzish.

Bu esa o'z navbatida ularning murakkablashuviga hamda bo'linmalar ya'ni mas'uliyat markazlari menejerlariga huquq va majburiyatlarni jiddiy ravishda aniqlab berish va bu jarayonlar natijalarini baholash zarurligini keltirib chiqaradi. Ishlab chiqarishda raqobatning kuchayishi ishlab chiqarish diversifikatsiyasi jarayonlariga olib keladi – pirovard natijada esa markazlashmagan boshqaruvga o'tish hisoblanadi.

Mas'uliyat markazlari bo'yicha hisobga bo'lgan talablarning o'sishiga axborot texnologiyalarining rivojlanishi natijasida imkoniyatlarning o'sishi ham bevosita o'zini ijobiy ta'sirini o'tkazadi. Mas'uliyat markazlari bo'yicha hisobning kengayib borayotgan imkoniyatlarining sabablarini mas'uliyat markazlarini ikki yo'nalish bo'yicha guruhlash mumkin:

1) zamonaviy hisoblash kompyuter dasturlari ma'lumotlarini o'z vaqtida olishga va uni talab qilingan o'lchamlarda aniqlashga imkoniyat yaratadi;
2) internet, yo'ldosh aloqa televideniyasi, uyali telefon aloqasi ma'lumotlarni vaqtning haqiqiy tartibida ixtiyoriy masofaga uzatish imkonini beradi [12].

Shunday qilib, iqtisodiyot va axborot texnologiyalaridagi obyektiv jarayonlarning amalga oshishi munosabati bilan mas'uliyat markazlari bo'yicha hisob istiqboldagi va eng samarador yo'nalish hisoblanadi.

Yuqoridagi barcha fikr mulohazalardan, yondashuvlardan kelib chiqqan holda bizning tahlillar natijalari asosidagi xulosalarimizcha, quyidagicha ta'riflash mumkin: Mas'uliyat markazi – xo'jalik yurituvchi subyektning har bir alohida olingan bo'g'inlarining faoliyat natijasi bo'yicha shaxsiy manfaatlarini, shuningdek, mas'uliyatlari va javobgarligini belgilab berish tushuniladi [3], [4].

Mazkur birinchi yondashuvni har tomonlama qo‘llab quvvatlagan holda, mulohazalarda xo‘jalik yurituvchi subyekt faoliyatini har tomonlama samaradorligini oshirish maqsadida ichki ishlab chiqarish boshqaruvi samaradorligini oshirishga qaratilgan tizim sifatida qabul qilish mumkin. Shundan kelib chiqib, xo‘jalik yurituvchi subyekt bo‘linmalarini, ya’ni mas’uliyat markazlari to‘g‘rirog‘i ularning rahbarlari va xodimlarini boshqarish yakuniy maqsadga erishish vositasi bo‘lib xizmat qiluvchi asosiy mexanizmdir.

Mazkur fikr va mulohazalar shu bilan tasdiqlanadiki, ko‘pgina mutaxassislar mas’uliyat markazlari bo‘yicha hisobning yoki uning maqsadini aniqlashda u yoki bu darajada xodimlarni boshqarish masalalariga bevosita to‘xtalib o‘tadilar, ayniqsa, mutaxassis xodimlar samaradorlik ko‘rsatkilariga.

E’tirof etish lozimki, mutaxassis-xodimlar faoliyatini doimiy nazorat qilish, shuningdek, ishlab chiqarish bilan bog‘liq xarajatlar, davr xarajatlari va boshqa xarajatlarni ishlatilishi ustidan monitoringni tashkil etish muhim va daromadni ta’minlovchi omillardandir. Bundan tashqari, mas’uliyat markazlari bo‘yicha buxgalteriya hisobini samarali tashkil etish uchun axborotlarni tezkorligiga alohida e’tiborni qaratish lozim, zero o‘z vaqtida buxgalteriya qaydlarini amalga oshirish investorlar va boshqalar uchun moliyaviy hisobotlarni tezkor olish va kelgusidagi strategiyalarni belgilash imkoniyatini bajaradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida ta’kidlab o‘tilgan barcha masalalarni bajarilishi avvalo xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida belgilangan tamoyillarga qat’iy tarzda amal qilinishiga bog‘liq degan fikrga keldik va quyida ma’suliyat markazlarini asosiy tamoyillari sifatida quyidagilarni etirof etish maqsadga muvofiq deb topdik:

- ichki tadbirkorlik tamoyillariga tayanish;
- ichki tadbirkorlik va mas’uliyat markazlari bo‘yicha hisob tamoyillarini xo‘jalik yurituvchi subyekt segmentlarining texnologik va tashkiliy xususiyatlari bilan muvofiqlashtirish;
- huquqlarni va mas’uliyatni nomarkazlashtirish yo‘li bilan tuzilmaviy bo‘linmalarga mustaqillik berish;
- mas’uliyat markazlari tomonidan amalga oshirilgan barcha xarajatlar bilan birgalikda ular tomonidan erishilgan natijalarni o‘lchash va taqqoslash [3].

Ishlab chiqarishning globallashuvi sharoitida, shuningdek, xo‘jalik yurituvchi subyekt faoliyati maqsadlariga erishilishida yuqoridagi ta’kidlab o‘tilgan masalalarni bajarilishi lozim va natijada korxonalarning moliyaviy holati yanada yaxshilanadi, barqaror o‘sishga erishiladi, mutaxassis-xodimlarning mehnat unumdorligi oshadi, xorijiy investitsiya mablag‘larini jalb etishda investitsion jozibadorlik yanada yaxshilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo‘yicha Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. –Toshkent. 2021-y. www.lex.uz.
2. Pardayev A.X., Pardayeva Z.A. Boshqaruv hisobi: Darslik / – T.: ”Iqtisod-Moliya”, 2019. –556 b., –283-бетда.
3. Sobirov O.O. Improvement of management accounting in economic entities. – Abstract of Doctor of Philosophy (PhD) Dissertation on Economic Sciences. Tashkent. TMI. 2022 year.
4. Sobirov Otabek Olimjonovich. Boshqaruv hisobi: O‘quv qo‘llanma / “Usmon Nosir Media” nashriyoti. UO‘K: 65+657, KBK 65.052.2,S-70, ISBN: 978-9910 -743-15-3. –Namangan. –2023. –247 b.
5. Sobirov Otabek Olimjonovich. The Cost Of Forming A Management Account In Business Entities. Journal of Pharmaceutical Negative Results. DOI: 10.47750/pnr. 2022. 13.S07-537. 4295-4298.scopus.com/sourceid/21100216519
6. Sobirov O. Cost Included in Production and Factors Affecting Them. AMERICAN Journal of Public Diplomacy and International Studies. Volume 01, Issue 07, 2023 ISSN (E): 2993-2157. America. –2023.–125-127 p.
7. Sobirov O. Product Development Cost Factors Affecting Reduction. AMERICAN Journal of Public Diplomacy and International Studies. Volume 01, Issue 07, 2023 ISSN (E): 2993-2157. –America. –2023. –13-14 p.
8. Sobirov O.O. Boshqaruv hisobining mohiyati va uni tashkil etishda xarajatlarning o‘rni. Scientific Journal of “International Finance & Accounting” -TMI. Toshkent. 2022-yil avgust. Issue 4. ISSN:2181-1016.
9. Otabek Olimjonovich Sobirov. Improment of management accounting methodology in economic entities. Scientific Journal of “International Finance & Accounting” TMI. Issue 2, April 2023. –ISSN: 2181-1016
10. Sobirov O.O. “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda buxgalteriya hisobi va hisobotlarini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish”. Ilmiy monografiya. Namangan – 2022-yil. UO‘K: 657 (222). KBK: 65.052.24. S-54. –ISBN: 9789943-8812-0-4.
11. Sobirov O. “Moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar talablari darajasida takomillashtirish”. “Xalqaro moliya va hisob”ilmiy jurnali. Volume: 2 Issue: 3 | Jun – 2021. TMI.
12. Sobirov O.O. “Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda boshqaruv hisobini takomillashtirish yo‘nalishlari”. Ilmiy monografiya. Namangan-2023 yil. UO‘K: 657 (075.8). KBK: 65.052.2. ISBN:978-9943-5945-8-6.

DAVLAT MOLIYASINI BOSHQARISHDA MOLIYAVIY NAZORAT USULLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO‘LLARI

Kultayev Farxod Shavkatovich
O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot O‘zbekistonning o‘ziga xos kontekstiga e’tibor qaratgan holda davlat moliyasini boshqarishda moliyaviy nazorat usullaridan samarali foydalanish strategiyalarini o‘rganadi. Adabiyotlar, ma’lumotlar va manfaatdor tomonlarning istiqbollarini har tomonlama tahlil qilish orqali tadqiqot mamlakatda fiskal boshqaruv amaliyotini takomillashtirishda asosiy muammolar va potensial yechimlarni aniqlashga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Davlat moliyasini boshqarish, moliyaviy nazorat usullari, fiskal boshqaruv, shaffoflik, hisobdorlik, budjet nazorati, ichki nazorat, audit mexanizmlari, samaradorlikni boshqarish tizimlari.

Abstract: This research explores strategies for effectively utilizing financial control methods in public finance management, with a focus on the specific context of Uzbekistan. Through a comprehensive analysis of literature, data, and stakeholder perspectives, the study aims to identify key challenges and potential solutions in enhancing fiscal governance practices within the country.

Key words: Public finance management, financial control methods, fiscal governance, transparency, accountability, budgetary controls, internal controls, audit mechanisms, performance management systems.

Аннотация: В данном исследовании рассматриваются стратегии эффективного использования финансовых методов контроля в управлении государственными финансами с учетом конкретного контекста Узбекистана. Через комплексный анализ литературы, данных и точек зрения заинтересованных сторон, исследование нацелено на выявление ключевых проблем и потенциальных решений в улучшении фискального управления в стране.

Ключевые слова: Управление государственными финансами, финансовые контрольные методы, фискальное управление, прозрачность, ответственность, бюджетные контрольные меры, внутренние контрольные механизмы, аудит, системы управления результатами.

KIRISH

Davlat moliyasini boshqarish iqtisodiy barqarorlikka erishish va fuqarolarning ehtiyojlarini qondirish uchun davlat daromadlari, xarajatlari va qarzlarini boshqarishni o‘z ichiga oladi. Davlat moliyasining iqtisodiyot va jamiyatga sezilarli ta’sirini hisobga olgan holda, moliyaviy intizom, hisobdorlik va shaffoflikni ta’minlash uchun mustahkam moliyaviy nazorat usullarini qo‘llash zarur.

Moliyaviy nazorat usullari hukumatlar tomonidan moliyaviy resurslarni samarali nazorat qilish, tartibga solish va boshqarish uchun foydalaniladigan texnika va mexanizmlarni nazarda tutadi. Bu usullar firibgarlik, va davlat mablag‘larini noto‘g‘ri sarflashning oldini olishda muhim ahamiyatga ega. Ular qaror qabul qiluvchilarni xarajatlarni kuzatish, ish faoliyatini baholash va asoslangan moliyaviy qarorlar qabul qilish uchun zarur vositalar bilan ta’minlaydi.

Moliyaviy nazorat usullaridan samarali foydalanish resurslarni taqsimlashni optimallashtirish, xizmatlar ko‘rsatishni kengaytirish va aholining davlat organlariga ishonchini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Biroq bunga erishish uchun mavjud bo‘lgan turli xil nazorat mexanizmlari va ularni turli kontekstlarda qo‘llashni har tomonlama tushunish kerak.

ADABIYOT SHARHI

Davlat moliyasini boshqarishda moliyaviy nazorat usullari adabiyotlarda keng o‘rganilib, muhokama qilinib, ularning moliyaviy intizom, shaffoflik va hisobdorlikni ta’minlashdagi ahamiyati yoritilgan. Bir qancha ilmiy maqolalarda moliyaviy nazorat mexanizmlarining turli jihatlari va ularning boshqaruv va iqtisodiy rivojlanishga ta’siri haqida tushunchalar berilgan.

Xon va boshqalar o‘z tadqiqotida 2018-yilda Bangladeshga e’tibor qaratgan holda davlat sektori tashkilotlarida budjet nazorati tizimlarining rolini o‘rganadilar. Empirik tahlillar orqali ular budjet intizomi va resurslarni taqsimlash samaradorligini oshirishda budjet nazoratining ahamiyatini ko‘rsatadi. Natijalar davlat sektorida moliyaviy boshqaruv amaliyotini takomillashtirish uchun mustahkam budjet nazorati mexanizmlarini joriy etish muhimligini ta’kidlaydi [1].

Smit 2020-yilda davlat sektori tashkilotlarida boshqaruvni yaxshilashda ichki nazoratning rolini o‘rganadi. Muallif qiyosiy o‘rganish usulidan foydalangan holda, ichki nazorat mexanizmlarini amalga oshirish va ularning moliyaviy risklarni yumshatish va tartibga solish talablariga muvofiqligini ta’minlashga ta’sirini o‘rganadi. Tadqiqot davlat aktivlarini himoya qilish va davlat moliyasini boshqarishda mas’uliyatni oshirishda mustahkam ichki nazorat tizimlarining muhimligini ta’kidlaydi [2].

Jons va Braun 2019-yilda davlat boshqaruvida javobgarlikni kuchaytirishda audit mexanizmlarining rolini o‘rganish uchun qiyosiy tahlil o‘tkazdilar. Mualliflar turli mamlakatlar misollariga tayanib, moliyaviy nazorat tizimlarining yaxlitligi va samaradorligini baholashda audit jarayonlarining samaradorligini o‘rganadilar. Tadqiqotda davlat moliyasini boshqarishda hisobdorlik va shaffoflikni ta’minlashda mustaqil va shaffof audit mexanizmlarining ahamiyati haqida qimmatli tushunchalar berilgan [3].

Gupta, Davoodi va Tiongson 2018-yilda korrupsiya va davlat xizmatlarini ko‘rsatish o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganib chiqdi. Ularning mamlakat bo‘ylab o‘tkazilgan tadqiqotida korrupsiyaning davlat moliyasini boshqarish samaradorligi va samaradorligiga salbiy ta’siri ko‘rsatilgan. Natijalar korrupsiya xavfini kamaytirish va davlat xizmatlarini ko‘rsatishni yaxshilash uchun mustahkam moliyaviy nazorat mexanizmlarini joriy etish muhimligini ta’kidlaydi [4].

Shuningdek, o‘zbek olimlaridan Professorlar A.V.Vahobov va T.S.Malikovlarning fikricha, barcha iqtisodiy subyektlarning (davlat, korxona va tashkilotlarning) moliyaviy faoliyati ustidan qonunchilik va ijroiya hokimiyati organlarining turli darajalari, shuningdek, maxsus tashkil etilgan muassasalar tomonidan amalga oshiriladigan nazoratga moliyaviy nazorat deyiladi. Bu nazorat, eng avvalo, pul fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanish jarayonida moliyaviy-iqtisodiy qonunchilikka rioya etilishi, moliyaviy xo‘jalik operatsiyalarining samaradorligini baholash va amalga oshirilgan xarajatlarning maqsadga muvofiqligi ustidan nazoratni o‘z ichiga oladi. Boshqacha so‘zlar bilan aytganda, moliyaviy nazorat u yoki bu moliyaviy harakat sodir bo‘lishining baholashni o‘z ichiga olish bilan cheklanmasdan, balki u o‘zining analitik yo‘nalishiga ega [5].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada qo‘llaniladigan tadqiqot metodologiyasi O‘zbekiston kontekstiga e’tibor qaratgan holda davlat moliyasini boshqarishda moliyaviy nazorat usullaridan samarali foydalanish yo‘llarini tahlil qilishga qaratilgan. O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy strukturasidagi muammolar va imkoniyatlarni e’tirof etgan holda, ushbu tadqiqot mamlakatda davlat moliyasini boshqarishning murakkab mexanizmlarini o‘rganishga intiladi.

Ushbu maqsadga erishish uchun O‘zbekistonda moliyaviy nazorat amaliyotining nuanslarini o‘z ichiga oluvchi sifat usullarni o‘z ichiga olgan ko‘p qirrali yondashuv qabul qilindi. Metodologiya keng ko‘lamli ilmiy maqolalar o‘z ichiga olgan keng qamrovli adabiyotlarni ko‘rib chiqish va tahlil qilishga qaratilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Moliyaviy nazorat usullaridan samarali foydalanish resurslarni taqsimlashni optimallashtirish, xizmatlar ko‘rsatishni kengaytirish va davlat organlariga bo‘lgan ishonchni mustahkamlash uchun muhim ahamiyatga ega.

Budjet nazorati davlat xarajatlarini boshqarishda va fiskal intizomni ta’minlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Biroq O‘zbekistonda budjet nazorati samaradorligiga bir qancha muammolar to‘sqinlik qilmoqda, jumladan:

1-jadval: Budjet nazoratidagi muammolar va potensial yechimlar

Budjet nazoratidagi muammolar	Potensial yechimlar
Cheklangan shaffoflik	- budjet hujjatlari va hisobotlarni nashr etish orqali shaffoflikni oshirish - Fuqarolar ishtiroki va nazorat mexanizmlarini kuchaytirish.
Resurslarni samarasiz taqsimlash	- budjetdan ajratmalarni milliy ustuvorliklarga moslashtirish uchun har tomonlama tahlil qilish. - Hisobdorlik va samaradorlikni oshirish uchun samaradorlikka asoslangan budjetni joriy etish.
Kuchsiz monitoring mexanizmlari	- Budjet ijrosini kuzatish uchun mustahkam monitoring va baholash tizimlarini yaratish. - budjet ijrosi uchun mas’ul bo‘lgan davlat organlarining salohiyatini oshirish.

Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Oshkoralik jamoatchilik ishonchi va mas'uliyatini oshirish uchun juda muhimdir. Budjet ishlab chiqish jarayonida shaffoflikni oshirish va qarorlar qabul qilish jarayoniga fuqarolarni jalb qilish orqali O'zbekiston mas'uliyatni yaxshilashi va mablag'lardan maqsadsiz foydalanish xavfini kamaytirishi mumkin. Bundan tashqari, budjetdan ajratmalarni milliy ustuvorliklarga muvofiqlashtirish va samaradorlikka asoslangan budjetni amalga oshirish davlat xarajatlarining samaradorligini oshirishi mumkin.

Samarali ichki nazorat davlat aktivlarini himoya qilish va firibgarlik va noto'g'ri boshqaruvning oldini olish uchun muhim ahamiyatga ega. Biroq O'zbekiston bu sohada ayrim muammolarga duch kelmoqda, jumladan:

2-jadval: Ichki nazoratdagi muammolar va potensial yechimlar

Ichki nazoratdagi muammolar	Potensial yechimlar
Zaif ichki nazorat tizimi	- ichki nazorat siyosati va tartiblarini kuchaytirish. - zaif va zaif tomonlarni aniqlash uchun muntazam ravishda ichki audit o'tkazish.
Muvofiqlik madaniyatining yo'qligi	- Ta'lim va xabardorlik dasturlari orqali muvofiqlik madaniyatini oshirish. - ichki nazorat standartlariga rioya etilishini ta'minlash uchun ijro mexanizmlarini takomillashtirish.
Inson kapitali bilan bilan bog'liq muammo mavjudligi	- davlat organlarining malakasini oshirishga yordam berish. - Ichki nazorat jarayonlarini avtomatlashtirish va samaradorlikni oshirish uchun zamonaviy texnologiyadan foydalanish.

Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan

O'zbekistonda moliyaviy boshqaruv amaliyotini takomillashtirish uchun ichki nazorat tizimini mustahkamlash va muvofiqlik madaniyatini oshirish muhim ahamiyatga ega. Imkoniyatlarni oshirish va texnologiyalardan foydalanishga sarmoya kiritish orqali hukumat ichki nazorat samaradorligini oshirishi va moliyaviy qonunbuzarliklar xavfini kamaytirishi mumkin.

Mustaqil audit mexanizmlari moliyaviy nazorat tizimlari samaradorligini baholash va mas'uliyatni oshirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Biroq O'zbekiston bu borada ham ba'zi qiyinchiliklarga duch kelmoqda, jumladan:

3-jadval: Audit mexanizmlaridagi muammolar va potensial yechimlar

Audit mexanizmlaridagi muammolar	Potensial yechimlar
Cheklangan mustaqillik	- huquqiy islohotlar va institutsional kafolatlar orqali auditorlik organlarining mustaqilligini oshirish - audit jarayonlarida avtonomiya va xolislikni ta'minlash maqsadida nazorat mexanizmlarini kuchaytirish. - o'z vaqtida va keng qamrovli audit o'tkazish uchun auditorlik organlarini yetarli resurslar bilan ta'minlash va qo'llab-quvvatlash.
Kuchsiz kuzatuv mexanizmlari	- auditorlik tavsiyalarining bajarilishini kuzatish mexanizmlarini ishlab chiqish. - audit natijalari bo'yicha o'z vaqtida chora ko'rishni ta'minlash uchun javobgarlik mexanizmlarini kuchaytirish.

Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan

O'zbekistondagi aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligini oshirish yo'li ham qiyin, ham mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi uchun zarurdir. Korporativ boshqaruv, moliyaviy shaffoflik, tartibga solishning aniqligi va bozorga kirishning muhim sohalarini hal qilish orqali O'zbekiston sarmoya kiritish uchun qulay muhit yaratishi mumkin. Muvaffaqiyatli xalqaro amaliyotlardan andoza olgan holda bu yerda keltirilgan takliflar aksiyadorlik jamiyatlari va siyosatchilar uchun strategik rejani taklif etadi. Ushbu takliflarni amalga oshirish barcha manfaatdor tomonlardan, jumladan, hukumat, nazorat qiluvchi organlar va kompaniyalarning birgalikdagi sa'y-harakatlarini talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov N.G'.,Sultanov R.B. O'zbekistonda qulay investitsion muhitni shakllantirish orqali investitsion jozibadorlikni oshirish istiqbollari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. No 5, sentyabr-oktyabr, 2016-yil.
2. Khamidulin, M., Rakhimova, D., Abdullaeva, S. R., Ganieva, M., & Mamatov, B. (2014). Successful privatization of state property: factors and their impact on efficiency. Retrieved from https://dx.doi.org/10.1051/shsconf/20208901002
3. Begmatova, D. (2014). Light Industry of Uzbekistan Perspective Branch of Economy for Investment. Asian Journal, 1(1), 13-17. https://dx.doi.org/10.15550/ASJ.2014.01.013
4. Ratushna, Y. (n.d.). Country's Stock Market: Prospects for Foreign Investments. Retrieved from https://dx.doi.org/10.32782/2304-0920/5-90-18
5. Khusainov, Г. Л. . Совершенствование системы защиты миноритарных инвесторов [Improvement of the System of Protection of Minority Investors].

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

BARCHA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIGA TENG RAQOBAT SHAROITINI YARATISHDA SOLIQ IMTIYOZLARINING O‘RNI

Akbarov Akmalxon Akrom o‘g‘li
Soliq qo‘mitasi bosh inspektori, mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya: Ilmiy maqolada islohotlarning hozirgi sharoitida tadbirkorlik subyektlariga teng sharoitlar yaratishda soliq imtiyozlari orqali qo‘llab-quvvatlash tizimining amaldagi holati tahlil qilingan. Istiqbolda samaradorligi past soliq imtiyozlarini aniqlash va ularni bekor qilish taklifi va tavsiyalari berilgan.

Kalit so‘zlar: tadbirkorlik subyektlari, soliq tizimi, soliq imtiyozi va preferensiyalari, soliq mexanizmi.

Abstract: The scientific article analyzes the current state of the system of support through tax incentives to create equal conditions for business entities in the current conditions of reforms. In the future, proposals and recommendations were made to determine low-efficiency tax benefits and their cancellation.

Key words: business entities, tax system, tax relief and preferences, tax rate, tax mechanism.

Аннотация: В статье проведен анализ современного состояния системы поддержки посредством налогового стимулирования создания равных условий для субъектов предпринимательства в современных условиях реформ. В дальнейшем были внесены предложения и рекомендаци по определению низкоэффективных налоговых льгот и их отмене.

Ключевые слова: субъекты предпринимательства, налоговая система, налоговые льготы и преференции, налоговая ставка, налоговый механизм.

KIRISH

Tadbirkorlikni rivojlantirishda eng samarali vositalardan biri xo‘jalik yurituvchi subyektlarga adolatlilik asosida soliq imtiyozlari tizimini yaratish bo‘lib, buning uchun soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish, unga ta’sir etadigan salbiy ichki va tashqi omillarni minimallashtirish zarur.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 8-sentyabrdagi PF-5185-son Farmoni bilan sog‘lom raqobat muhitining rivojlanishini cheklayotgan alohida xo‘jalik yurituvchi subyektlarga eksklyuziv huquqlar, individual imtiyozlar hamda preferensiyalar berish amaliyotidan voz kechish topshirilib, soliq imtiyozlari Soliq kodeksi[1] bilan berilishi hamda ular individual xususiyatga ega bo‘lishi mumkin emasligi belgilab qo‘yildi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasining “Raqobat to‘g‘risida”gi Qonuni 12-moddasiga asosan davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlarining ayrim xo‘jalik yurituvchi subyektlarga ularni tovar yoki moliya bozorida faoliyat ko‘rsatayotgan boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlarga nisbatan afzal holatga qo‘yadigan imtiyozlar, preferensiyalar va yengilliklarni asossiz ravishda berishi ta’qiqlanishi ko‘rsatilgan.

Soliq islohotlari doirasida alohida xususiyatdagi soliq imtiyozlari bosqichma-bosqich soliq imtiyozlarini bekor qilish orqali barcha tadbirkorlik subyektlariga teng sharoit yaratib berildi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

“Soliq imtiyozlari” tushunchasiga berilgan ta’riflarga batafsil to‘xtalib o‘tamiz. Dastlab konseptual asosga to‘xtaladigan bo‘lsak O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 75-moddasida soliq imtiyozlari deb soliq to‘lovchilarning ayrim toifalariga boshqa soliq to‘lovchilarga nisbatan soliq to‘g‘risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan afzalliklar, shu jumladan soliqni to‘lamaslik yoki ularni kamroq miqdorda to‘lash imkoniyatiga deb belgilangan.

1 O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi 75-moddasi

Shu bilan birga soliq imtiyozlari individual xususiyatga ega bo‘lishi mumkin emasligi hamda ayrim soliqlar bo‘yicha soliq imtiyozlari, qo‘shilgan qiymat solig‘i, aksiz solig‘i solinadigan mahsulotlar ishlab chiqarilganda va (yoki) realizatsiya qilinganda aksiz solig‘i yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliqdan va foydali qazilmalarni qazib olganlik uchun maxsus renta solig‘idan tashqari ushbu moddaning oltinchi qismi qoidalarini hisobga olgan holda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari bilan faqat belgilangan soliq stavkasini kamaytirish, lekin ko‘pi bilan 50 foizga kamaytirish tarzida va ko‘pi bilan uch yil muddatga berilishi mumkinligi qayd etilgan.

V.N.Nezamaykin va I.L.Yurzinova “soliq imtiyozi – boshqa to‘lovchilarga nisbatan soliq to‘lovchilarga, soliq to‘lovchilarning alohida toifalariga soliq qonunchiligida ko‘zda tutilgan afzalliklarning, jumladan, soliq yoki yig‘imini to‘lamaslik yoki kichikroq hajmda to‘lash imkoniyatining berilishi” deb e’tirof etishgan[2].

I.A. Mayburov o‘zining ilmiy ishlarida soliq imtiyozlarining shakllarini ham ko‘rsatib o‘tgan: “soliq imtiyozlarini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda soliq to‘lash muddatini o‘zgartirish bo‘yicha imtiyozlar olishga imkon beruvchi imtiyozlar hamda ular bir nechta shakllarga ajratiladi: soliq krediti, investitsion soliq imtiyozi, soliq ta’tili”[3].

T. Malikovning fikricha: “Soliq imtiyozlari deganda soliq to‘lovchining soliq majburiyatlari hajmi to‘liq yoki qisman qisqarishi, to‘lov muddati kechiktirilishi yoki orqaga surilishi tushuniladi. Soliqlarning rag‘batlantiruvchi funksiyasi soliq imtiyozlari tizimi orqali amalga oshiriladi. Soliq imtiyozi soliqqa tortish obyektining o‘zgarishida, soliqqa tortish bazasining kamayishida (qisqarishida), soliq stavkalarining pasaytirilishida va boshqalarda o‘z ifodasini topadi”[4].

Z. Kurbanov va F. Akramov soliq imtiyozlarini mohiyatini ochish maqsadida uni nazariy jihatdan uch guruhga bo‘lib o‘rganishgan:

- soliqdan to‘liq yoki qisman ozod etish;
- soliqdan chegirmalar;
- soliq kreditlari (soliqlar va majburiy to‘lovlar bo‘yicha uzoq muddatli kechiktirilgan majburiyatlar)[5].

F.R. Axmatullaeva esa soliq imtiyoziga iqtisodiy kategoriya sifatida quyidagicha ta’rif bergan: “imtiyozlar – bu iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish va ijtimoiy vazifalarni hal etish maqsadida soliq to‘lovchining soliq majburiyatlarini qonun tomonidan belgilangan shaklda butunlay yoki qisman kamaytirishning yo‘llari, huquqlari va majburiyatlari majmuyidir”[6].

O.T. Yuldashev ilmiy ishlarida ancha takomillashgan ta’rif bergan: “Soliq yukining og‘irligini kamaytirish va soliq to‘lovchilarning yanada samarali faoliyat ko‘rsatishlarini rag‘batlantirish maqsadida boshqa soliq to‘lovchilarga nisbatan ayrim toifadagi soliq to‘lovchilarga o‘rnatilishining qonuniyligi, individual va diskriminatsion xarakterda bo‘lmasligi, qo‘llanilishining ixtiyoriyligi va muddatsizligi hamda soliq afzallik (qulaylik)larni yaratish tarzida berilib, soliq majburiyatlarini kamaytiruvchi yengilliklarga soliq imtiyozlari deyiladi”[7].

Shu o‘rinda I. Niyazmetov tomonidan bildirilgan fikrni ta’kidlash lozim: “Aslini olganda tadbirkorlik subyektlari uchun eng yaxshi soliq imtiyozi bu past soliq stavkalari, ya’ni yengil soliq yukidir. Korxonalarning ayrim toifalariga berilgan, iqtisodiy asoslanmagan va samarasiz soliq imtiyozlari ro‘yxati qanchalik qisqartirilsa, sanoat korxonalarining soliq yukini kamaytirishga shunchalik imkon yaraladi. Shu sababli individual xarakterda Soliq kodeksidan tashqari berilgan barcha soliq imtiyozlarini bekor qilib ularning o‘rniga xalqaro amaliyotda sinalgan innovatsion soliq kreditlari, soliq ta’tillarini ko‘zda tutish maqsadga muvofiq”[8].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tizimli tahlil, iqtisodiy tadqiq etish metodologiyasi, taqqoslash, induksiya va deduksiya, iqtisodiy-statistik kabi tadqiqot usullaridan keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Barcha tadbirkorlik subyektlariga teng raqobat sharoitini yaratish maqsadida soliq imtiyozlarini bekor qilish bo‘yicha bosqichma-bosqich ishlar amalga oshirilmoqda.

Belgilangan strategiyadan kelib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-apreldagi “Tadbir-

2 Незамайкин В.Н., Юрзинова И.Л. Налогообложение юридических и физ. лиц. –М.:Экзамен, 2004. –С.44
3 Майбуров И.А. Налоги и налогообложение. 4-е изд. – М.: –558 с. –2011.
4 Malikov T.S, Soliqlar va soliqqa tortishning dolzarb masalalari. Monografiya. –T.: Akademiya, 2002. –204 b
5 Kurbanov Z., Akramov F. “Soliq imtiyozlarining moliyaviy hisobini takomillashtirish masalalari” Biznes-ekspert ilmiy jurnali №9 2015
6 Raxmatullaeva F. “Soliq imtiyozlarining mohiyati va iqtisodiyotni rag‘batlantirishdagi roli”. Moliya ilmiy jurnali №2.2016.
7 Yuldashev O.T. O‘zbekiston Respublikasida soliq imtiyozlarini takomillashtirish yo‘nalishlari i.f.n. dissertatsiyasi, –T.: 2011-y. –22 bet
8 Niyazmetov I.M. “Investision-innovatsion faollikni oshirishda soliq mexanizmining roli, O‘zbekiston”. Iqtisodiyoti raqobatbardoshligini oshirishga bank-moliya tizimining samarali ta’sirini kuchaytirish. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya tezislari to‘plami. –Toshkent: Moliya, –2017. –197 b.

korlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o‘sish uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi navbatdagi islohotlar to‘g‘risida”gi PF-101-sonli Farmoni 2-ilovasiga asosan 5 ta yo‘nalishga berilgan individual xususiyatga ega bo‘lgan soliq imtiyozlari barcha tadbirkorlik subyektlari uchun tatbiq etilishi belgilandi.

Xususan, 2022-yil 1-maydan boshlab baliqchilik, ipakchilik va pillachilik, charm-poyabzal va mo‘ynachilik hamda qizilmiya va boshqa dorivor o‘simliklarni yetishtirish tarmoqlari uchun tatbiq etilgan soliq imtiyozlari mazkur sohalarda faoliyat yurituvchi barcha subyektlar uchun ham tatbiq etildi.

Bu o‘z navbatida tadbirkorlik subyektlari ixtiyorida ishlab chiqarishni rivojlantirish va yangi ish o‘rinlarini yaratish uchun qo‘shimcha mablag‘lar shakllanishiga xizmat qiladi.

Tahlillar natijasida, 2020-2022-yillar yillar kesimida soliq imtiyozlaridan foydalanib kelingan summalar turli xil o‘zgarish dinamikasini namoyon qilmoqda

Soliq imtiyozlarining qo‘llanilishi natijasida korxonalar ixtiyorida 2020-yilda 31,1 trln. so‘m (I), 2021-yilda 43,5 trln. so‘m (II), 2022-yilda 72,9 trln. so‘m (III) miqdorida mablag‘ qolganligini ko‘rishimiz mumkin.

Xususan, yillar kesimida soliq turlari bo‘yicha soliq imtiyozi summalari ko‘radigan bo‘lsak:

- 2020-yilda QQS – 24,6 trln.so‘m, foyda solig‘i – 2,9 trln.so‘m, yer solig‘i – 1,3 trln.so‘m, ijtimoiy soliq –0,3 trln.so‘m, mol-mulk solig‘i – 0,3 trln.so‘m, JShDS – 0,9 trln.so‘m, AOS 0,2 trln.so‘m, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq – 0,4 mlrd.so‘m;
- 2021-yilda QQS – 36,8 trln.so‘m, foyda solig‘i – 2,2 trln.so‘m, yer solig‘i – 2,6 trln.so‘m, ijtimoiy soliq –0,4 trln.so‘m, mol-mulk solig‘i – 0,3 trln.so‘m, JShDS – 1,1 trln.so‘m, AOS 0,1 trln.so‘m, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq – 0,04 mlrd.so‘m;
- 2022-yilda QQS – 64,1 trln.so‘m, foyda solig‘i – 4,6 trln.so‘m, yer solig‘i – 0,9 trln.so‘m, ijtimoiy soliq –1,2 trln.so‘m, mol-mulk solig‘i – 0,9 trln.so‘m, JShDS – 1,0 trln.so‘m, AOS 0,1 trln.so‘m, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq – 0,01 mlrd.so‘m imtiyoz qo‘llanilgan.

Bunda, soliq turlari kesimida tahlil qilinganda, soliq imtiyozlarining asosiy qismi (80-85%) qo‘shilgan qiymat solig‘iga to‘g‘ri kelishi kuzatilmoqda.

Ko‘rish mumkinki, 2022-yilda o‘tgan yillarga nisbatan foydalanilgan soliq imtiyozlari summasi keskin ortgan (70% ga ortgan). Bunga ta’sir ko‘rsatuvchi faktorlardan biri sifatida 5 ta yirik sohadagi individual xususiyatga ega soliq imityozlarni barcha soliq tadbirkorlik subyektlariga tatbiq etilishi ta’sir ko‘rsatgan bo‘lishi mumkin.

1-jadval: 2020-2022-yillarda soliq turlari bo‘yicha qo‘llanilgan soliq imtiyozlari bo‘yicha tahlil, trln.so‘mda[9]

Soliq turlari	2020-yil		2021-yil		2022-yil	
	soni	summasi	soni	summasi	soni	summasi
Jami	93 871	31,1	109 363	43,5	195 884	72,9
QQS	7 031	24,6	15 508	36,8	28 214	64,1
Foyda solig‘i	3 335	2,9	2 709	2,2	25 015	4,6
Yer solig‘i	4 531	1,3	11 743	2,6	6 204	0,9
JShODS	44 093	0,9	56 165	1,1	41 580	1,0
Suv RFS	673	0,4	1 376	0,04	685	0,01
Ijtimoiy soliq	6 230	0,3	11 247	0,4	52 616	1,2
Mol-mulk solig‘i	4 813	0,3	2 195	0,3	7 809	0,9
Aylanmadan olinadigan soliq	23 165	0,2	8 420	0,1	32 921	0,1

Bundan tashqari samaradorligi past bo‘lgan soliq imtiyozlarini ham aniqlash lozim hisoblanadi. Sababi, tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, O‘zbekistonda amaldagi qonunchilik bilan tadbirkorlik subyektlariga berilgan imtiyozlar yalpi ichki mahsulotga nisbatan o‘rtacha 6,0 foizni tashkil etib, ayrim xorijiy davlatlarga nisbatan 1,5-2 barobarga yuqori bo‘lib qolmoqda.

Masalan, Janubiy Koreyada soliq imtiyozlari yalpi ichki mahsulotga nisbatan 2,7 foizni, Ispaniyada 3 foizni, Turkiyada esa ushbu ko‘rsatkich 4,2 foizni tashkil etgan.

Yuqoridagilarga asosan, individual yoki soliq kodeksi talablariga zid kelgan soliq imtiyozlarini doimiy tarzda aniqlab borish va tadbirkorlar uchun teng sharoit yaratish va samarasiz soliq imtiyozlarini bekor qilish maqsadga muvofiq.

9 Soliq qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagilarini inobatga olgan holda, respublikamizda raqobat muhitini yanada yaxshilash hamda soliq ma'murchiligini takomillashtirish va iqtisodiyotni barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida quyidagilar taklif etiladi.

1. Raqobat muhitiga to'sqinlik qiluvchi individual xususiyatga ega bo'lgan imtiyozlarni tahlil qilish va bekor qilish choralarini ko'rish;
2. Xorij tajribasidan kelib chiqqan holda imtiyozlarni samaradorligini aniqlash bo'yicha tartib ishlab chiqish.
3. Imtiyoz va preferensiyalar berishni Soliq kodeksi talablarida amalga oshirish.

Xulosa qilib aytganda, alohida yoki soliq kodeksiga zid bo'lgan soliq imtiyozlarini aniqlab borish va tadbirkorlar uchun teng raqobat muhitini yaratish va samaradorligi past bo'lgan soliq imtiyozlarini bekor qilinishi respublikada ishbilarmonlik muhitini yaxshilashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. –T.: Adolat, –2023.
2. Майбуров И.А. Налоги и налогообложение. 4-е изд. – М.:– 558 с.–2011.
3. Незамайкин В.Н., Юрзинова И.Л. Налогооблажение юридических и физических лиц. –М.: Экзамен, 2004. –С.44.
4. Malikov T.S, Soliqlar va soliqqa tortishning dolzarb masalalari. Monografiya. –T.: Akademiya, 2002. –204 b.
5. Kurbanov Z., Akramov F. "Soliq imtiyozlarining moliyaviy hisobini takomillashtirish masalalari" Biznes-ekspert ilmiy jurnali. –№9.– 2015
6. Raxmatullaeva F. "Soliq imtiyozlarining mohiyati va iqtisodiyotni rag'batlantirishdagi roli". Moliya ilmiy jurnali.–№2.2016.
7. Yuldashev O.T. O'zbekiston respublikasida soliq imtiyozlarini takomillashtirish yo'nalishlari i.f.n. dissertatsiyasi, –T.: 2011 y. –22 bet.
8. Niyazmetov I.M. "Investitsion-innovatsion faollikni oshirishda soliq mexanizmining rolio'zbekiston". Iqtisodiyoti raqobatbardoshligini oshirishga bank-moliya tizimining samarali ta'sirini kuchaytirish. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya tezislari to'plami. –Toshkent: Moliya,– 2017. –197 b.

HISOB SIYOSATI VA UNDA BIOLOGIK AKTIVLAR HISOBINI YORITIB BERISH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH

Mirzayeva Nargiza Batirovna
Fiskal institut “Buxgalteriya hisobi va audit” fakulteti, magistri

Annotatsiya: Maqolada hisob siyosati va unda biologik aktivlar hisobini yoritib berish tartibini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Xususan, hisob siyosati tushunchasi, uning tarkibiy tuzilishi, hisob obyektlari sifatida biologik aktivlarni hisob siyosatida yoritib berish tartibini takomillashtirish bo‘yicha xulosalar shakllantirilgan va ilmiy takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: hisob siyosati, biologik aktiv, uzoq muddatli biologik aktiv, joriy biologik aktiv, buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobot.

Abstract: This article discusses accounting policy and the improvement of accounting policy of biological assets. It includes conclusions and scientific proposals for enhancing the concept of accounting policy, its structure, and the explanation of accounting of biological assets as accounting objects.

Key words: accounting policy, biological asset, long-term biological asset, current biological asset, accounting, financial statements.

Аннотация: В статье рассмотрена учетная политика и вопросы совершенствования учетной политики биологических активов. В частности, сформулированы выводы и даны научные предложения по совершенствованию понятия учетной политики, ее структуры, порядка объяснения учёта биологических активов как объектов учета в учетной политике.

Ключевые слова: учетная политика, биологический актив, долгосрочный биологический актив, текущий биологический актив, бухгалтерский учет, финансовая отчетность.

KIRISH

Ma’lumki, biologik aktivlar qishloq xo‘jaligi faoliyati bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlik subyekti aktivlari tarkibida muhim o‘rin va ahamiyatga ega bo‘lgan hisob obyektlaridan biri hisoblanadi. Shu bois tadbirkorlik subyektlarida biologik aktivlar hisobini to‘g‘ri tashkil etish, hisobga olish va moliyaviy hisobotda aks ettirish tartibi bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Ushbu masalalar ijrosini ta‘minlash va axborotdan foydalanuvlarni sifatli axborotlar bilan ta’minlashda tadbirkorlik subyektining hisob siyosati muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Chunki hisob siyosatida har bitta tadbirkorlik subyekti o‘zining asosiy moliya-xo‘jalik faoliyati xususiyatlaridan kelib chiqqan holda hisob siyosatini shakllantiradi. Afsuski, bugungi kunda ayrim qishloq xo‘jaligi faoliyati bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlik subyektlari tomonidan “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonun va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan umumiy qoidalar asosida hisob siyosati shakllantirilmoqda. Xususan, monografik tadqiqot obyekti hisoblangan “MEHNAT BAXTLI SUT” masuliyati cheklangan jamiyat (MChJ) tomonidan “Hisob siyosati va moliyaviy hisobot” nomli 1-son O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobi milliy standarti (BHMS)da belgilangan umumiy qoidalar asosida hisob siyosati ishlab chiqilgan. Lekin, ularning normativ va tashkiliy-uslubiy ta‘minoti bugungi kun talablariga to‘liq javob bermaydi. Chunki birinchidan, buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni tuzishda xo‘jalik operatsiyalarini aks ettirish, ularni o‘lchash va ochib berish tartibi batafsil bayon qilinmagan. Bu albatta, ishlab chiqilgan hisob siyosati mantiqan izchil shakllantirilmaganligidan dalolat beradi. Ikkinchidan, hisob siyosati tarkibi asosan buxgalteriya hisobining obyektlari bo‘yicha 1-son BHMSda belgilangan qoidalarni ko‘chirib qo‘yish bilangina chegaralanib qolganligini kuzatish mumkin. Bu esa hisob siyosatini shakllantirishga qo‘yilgan talablarga zid bo‘lishi bilan birga, uning boshqaruv funksiyasi sifatidagi ahamiyatini pasayishiga ta’sir ko‘rsatgan. Fikrimizcha, tadbirkorlik subyektlarining hisob siyosati mantiqan izchil bo‘lishi va moliya-xo‘jalik faoliyatining barcha jihatlarini qamrab olishi lozim.

Bu o‘z navbatida, uning samarali faoliyat ko‘rsatishiga va moliya-xo‘jalik faoliyatining yaxshilanishiga xizmat qiladi. Shu bois, buxgalteriya hisobini tashkil qilish, yuritish va moliyaviy hisobotlarni tuzish uchun javobgarlik buxgalteriya hisobi subyekti rahbariga yuklatilganligi bois, u dastlab hisob siyosati o‘zi nima ekanligi, uning zarurati, tarkibiy tuzilishi va shakllantirish tartibi to‘g‘risida yetarli bilim hamda amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lishi lozim deb hisoblaymiz.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar, iqtisodchi olimlarning ilmiy va o‘quv-uslubiy asarlari sharhi shuni ko‘rsatadiki, ularda hisob siyosati tushunchasiga umumiy negizga asoslangan holda turlicha ta‘riflangan. Xususan, 1-son BHMSda “Hisob siyosati deganda xo‘jalik yurituvchi subyektning rahbari buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobot tuzish uchun qabul qiladigan usullarning yig‘masi tushuniladi, moliyaviy hisobot shu usullarga muvofiq va ularning qoidalari va asoslariga muvofiq ravishda tuziladi” [1] deb ta‘rif berilgan. Xususan, mazkur BHMSda “Hisob siyosati xo‘jalik yurituvchi subyekt moliyaviy hisobotni tayyorlash va tuzish uchun foydalanadigan maxsus tamoyillarni, konventsiyalarni, tartib va amaliy yondashuvlarni ifodalaydi” [1] deb bayon qilingan. Shuningdek, hisob siyosati buxgalteriya hisobi subyekti rahbari tomonidan ushbu BHMS asosida shakllantirilib, moliya-xo‘jalik faoliyatining turli yillar uchun tuzilgan moliyaviy hisobotida keltiriladigan moliyaviy ko‘rsatkichlar bir-biriga qiyoslanadigan hamda boshqa aloqador BHMSlar qoidalarini ham aks ettirgan bo‘lishi lozim.

Iqtisodchi olimlar A.A.Karimov, F.R.Islomov va A.Z.Avloqulovlarning ta‘rifiga ko‘ra: “Hisob yuritish siyosati deganda xo‘jalik yurituvchi subyekt rahbarining buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotni tamoyil va asoslariga mos ravishda yuritish va tuzish uchun qo‘llaniladigan usullar majmuyi tushuniladi” [2]. Ularning ta‘kidlashicha: “Xo‘jalik yurituvchi subyektning hisob yuritish siyosati subyekt tomonidan moliyaviy hisobotni tayyorlash va tuzishda qo‘llaniladigan o‘ziga xos qoidalar va amaliy yondashuvlarni ifodalaydi” [2].

Iqtisodchi olimlar A.Ibragimov, I.Ochilov, I.Qo‘ziyev va N.Rizayevlar tomonidan “Hisob yuritish siyosati – bu xo‘jalik subyektlarining faoliyatini tartibga soluvchi amaldagi qonunlar va boshqa normativ hujjatlarda ruxsat etilgan buxgalteriya hisobining muqobil usullari va shakllaridan korxona tanlab olgan va e‘lon qilgan buxgalteriya hisobining usullari va shakllarining yig‘indisidir” [3] deb ta‘riflangan. Mazkur ta‘rifda buxgalteriya hisobining qonun va boshqa me‘yoriy hujjatlarda ruxsat etilgan muqobil usullari shakllaridan korxona o‘ziga maqbulini tanlab olishi va ularni e‘lon qilishi ta‘kidlanadi.

Soha mutaxassislari X.A.Ortikov, L.P.Yugay, X.A.Tuxsanov va M.I.Xayitboyevlarning yozishicha “Hisob siyosati buxgalteriya hisobini yo‘lga qo‘yish usullarining tartiboti bo‘lib, ustav va boshqacha faoliyatning iqtisodiy hodisalar faktini dastlabki kuzatish (hujjatlashtirish va inventarizatsiya), qiymat o‘lchovida ifodalash (baholash va kalkulyatsiya), joriy guruhlash (schyotlar va ikki yoqlama yozuv) va yakuniy umumlashtirish (balanslashtirish va hisobot)dan iborat” [13]. Mazkur yondashuvda soha mutaxassislari buxgalteriya hisobini yuritish usullariga asosiy e’tibor qaratishgan. Buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni tuzish prinsiplari, shakllari va asoslarini hisobga olishmagan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi iqtisodchi olimlari N.P.Lyubushin, V.V.Jarinov va N.V.Borodinalarning yozishicha, “Hisob siyosati – bu korxona tomonidan uning xo‘jalik yuritish sharoitlariga mos ravishda tanlangan, buxgalteriya hisobini yuritish usullarining majmuyi, ya‘ni bu korxona xo‘jalik faoliyati faktlarini dastlabki kuzatish, qiymat o‘lchovi, joriy guruhlash va umumlashtirish yoki buxgalteriya hisobi metodini amalga oshirish tartibi” [5] hisoblanadi.

D.A.Yendovoskiy boshchiligida iqtisodchi olimlarning yozishicha “Korxonaning hisob siyosati deganda xo‘jalik yurituvchi subyekt tomonidan qabul qilingan buxgalteriya hisobini yuritishning xo‘jalik faoliyati faktlarini dastlabki kuzatish, qiymat o‘lchovida baholash, joriy guruhlash va yakuniy umumlashtirish usullari majmuyi tushuniladi” [7]. Mazkur iqtisodchi olimlar ham buxgalteriya hisobini yuritish usullari bilan chegaralangan.

Shuningdek, V.G.Getman boshchiligidagi iqtisodchi olimlarning ta’kidlashicha esa “Hisob siyosati – aynan ushbu amallar va usullar faoliyat shartlariga hamda natijalar va moliyaviy holatni to‘liq taqdim qilish talablariga mos keladi deb hisoblangan korxona tomonidan tanlangan va izchil qo‘llaniladigan buxgalteriya hisobining amallari va usullari to‘plami” [8] hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Hisob siyosati va unda biologik aktivlar hisobini yoritib berish tartibini takomillashtirish masalasini tadqiq qilishda ilmiy-tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Jumladan, amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarni va tadqiqot obyekti ma’lumotlarini o‘rganishda mantiqiy fikrlash, dalillar to‘plash, tasavvur etish, qiyoslash, shakllantirish va muammoni qo‘yish kabi nazariy-tadqiqot hamda ilmiy adabiyotlarni tadqiq qilish kabi empirik tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Albatta, mavjud normativ-huquqiy hujjatlar va iqtisodchi olimlarning asarlarida keltirilgan hisob siyosati tushunchasiga yondashuvlarini e‘tiborga loyiqligini ta‘kidlagan holda ushbu tushunchaga quyidagicha mualliflik yondashuvi shakllantirildi: “Hisob siyosati – bu buxgalteriya hisobini tashkil etish, yuritish va moliyaviy hisobotni tuzishda amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan umumiy qoidalardan xo‘jalik yurituvchi subyekt o‘zi uchun ahamiyatli bo‘lgan, subyekt rahbari tomonidan tanlab olingan buxgalteriya hisobining shakl va usullari majmuasi”.

Hisob siyosati tushunchasi yuqorida sharhlangan manbalardagi ta‘riflardan bizning yondashuvimiz ikki jihati bo‘yicha farq qiladi. Birinchidan, amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarda umumiy qoidalar belgilangan. Ya‘ni yuqoridagi iqtisodchi olimlarning ta‘rifida keltirilgan prinsiplar, shartlar, talablar, shakllar, usullar va qoidalar umumiy qoidalar sifatida berilgan. Ikkinchidan, xo‘jalik yurituvchi subyekt o‘zining moliyaviy-xo‘jalik faoliyatining xususiyatidan kelib chiqqan holda amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan umumiy qoidalardan o‘zi uchun ahamiyatli bo‘lgan shakl va usullarni tanlab olishi lozim.

Shuningdek, tadqiqot obyekti bo‘lgan “MEHNAT BAXTLI SUT” MChJning hisob siyosati [8] quyidagi tarkibiy qismlardan tashkil topgan.

1. Umumiy qoidalar;
2. Buxgalteriya hisobini tashkil etish;
3. Hisob yuritish texnikasi (usullari);
4. Hisob yuritish metodlari;
5. Ichki hisob va nazorat;
6. Hisob siyosatiga o‘zgartirish kiritish;
7. Hisob siyosatini buzganlik uchun javobgarlik.

Fikrimizcha, “MEHNAT BAXTLI SUT” MChJning hisob siyosatida tarkibiy qism sifatida berilgan “2. Buxgalteriya hisobini tashkil etish” va “5. Ichki hisob va nazorat” qismlarni birlashtirgan holda “Tashkiliy masalalar” sifatida, “6. Hisob siyosatiga o‘zgartirish kiritish” va “7. Hisob siyosatini buzganlik uchun javobgarlik” qismlarini esa birlashtirgan holda “Yakuniy qoidalar” sifatida aks ettirish maqsadga muvofiq. Shu bilan birga, hisob siyosatida soliqqa tortish masalalari belgilanmagan.

Hisob siyosatining tarkibiy tuzilmasi bo‘yicha iqtisodchi olimlarning tavsiyalari va tadqiqot obyekti bo‘lgan “MEHNAT BAXTLI SUT” MChJda ishlab chiqilgan hisob siyosatini tanqidiy tahlilidan kelib chiqib, fikrimizcha tadbirkorlik subyektlarining hisob siyosatida quyidagi masalalar o‘z aksini topishi lozim deb hisoblaymiz (1-jadval).

1-jadval: Hisob siyosatining tarkibiy tuzilishi (taklif)1

Bo‘lim nomi	Tarkibi
1. Umumiy qoidalar	Hisob siyosatining maqsadi, qo‘llanilish davri, foydalanuvchilar, e‘lon qilinishi va maxfiylik doirasi, hisob siyosatini shakllantirishning normativ-huquqiy asoslari va asosiy prinsiplari aks ettiriladi
2. Tashkiliy masalalar	Buxgalteriya hisobini tashkil etish, ichki nazorat tizimi, buxgalteriya hisobi xizmati rahbariga qo‘yilgan malakaviy talablar, vazifalar, huquqlar va javobgarlik aks ettiriladi. Shuningdek, buxgalteriya hisobi xizmati tuzilmasi va xodimlarining xizmat vazifalari taqsimoti hamda inventarizatsiya o‘tkazish tartibi bayon etiladi
3. Texnik ta‘minot masalalari	Qo‘llaniladigan boshlang‘ich hujjatlar shakllari, ichki hisobotlar (tartibi, shakllari, davriyligi, tuzish va taqdim qilish muddatlari, foydalanuvchilar), hujjatlar aylanish qoidalari va reja grafigi, buxgalteriya hisobida qo‘llaniladigan hisob registrlari, ishchi schyotlar rejasi hamda buxgalteriya hisobi dasturiy ta‘minoti va uni yuritish tartiblari ko‘rsatiladi
4. Uslubiy masalalar	Buxgalteriya hisobi obyektlari (uzoq muddatli aktivlar, joriy aktivlar, o‘z mablag‘lari manbalari, majburiyatlar, daromadlar va xarajatlar)ni tarkibi, tan olinishi, baholash, buxgalteriya hisobi schyotlarida aks ettirishning tanlab olingan usullari, amortizatsiya hisoblash tartibi, ularni moliyaviy-xo‘jalik faoliyatidagi harakati hisobda aks ettirish tartibi bayon etiladi
5. Soliqqa tortish masalalari	Soliqlar va yig‘imlarni hisoblash, soliq xarajatlarini hisobda aks ettirish, soliq to‘lovlarini hisobga olish uchun mo‘ljallangan schyotlar, soliq hisobotlari va ularni taqdim etish hamda to‘lash tartiblari aks ettiriladi
6. Yakuniy qoidalar	Hisob siyosatiga o‘zgartirish kiritish tartibi hamda unda belgilangan qoidalarni buzganlik uchun javobgarlik masalalari ko‘rsatiladi

Hisob siyosatining taklif etilayotgan mazkur tarkibiy tuzilishini har bitta tadbirkorlik subyekti o‘zining moliya-xo‘jalik faoliyatini hisobga olgan holda shakllantirishi mumkin. Chunki ushbu taklif etilgan tarkibiy tuzilish normativ-huquqiy hujjatlarda hisob siyosatini shakllantirish qoidalari asosida ishlab chiqilgan.

1 Manbalarni qiyosiy tahlil qilish asosida mualliflar tomonidan ishlab chiqildi

Umuman olganda, hisob siyosati hisob obyektlari buxgalteriya hisobini tashkil etish, yuritish va moliyaviy hisobotni tuzish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, tadqiqot obyekti bo‘lgan “MEHNAT BAXTLI SUT” MChJning hisob siyosatida asosiy hisob obyektlaridan biri bo‘lgan biologik aktivlar hisobini yuritish va moliyaviy hisobotda aks ettirish tartibi qay darajada ochib berilganligi o‘rganildi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, “MEHNAT BAXTLI SUT” MChJning hisob siyosatida biologik aktivlarni umumiy asoslarda hisobga olish tartibi belgilanib, hisobga olish qoidalari uning tarkibiy tuzilishi bo‘yicha aralash tartibda ko‘rsatib o‘tilgan.

Ilmiy-uslubiy manbalar va amaliyotni o‘rganish shuni tasdiqladiki, “MEHNAT BAXTLI SUT” hisob siyosatida belgilangan qoidalar foydalanuvchilarni biologik aktivlar hisobini tashkil etish, yuritish va moliyaviy hisobotda aks ettirish bilan bog‘liq buxgalteriya axboroti bilan to‘liq ta‘minlamaydi. Fikrimizcha, tadbirkorik subyektlarida qishloq xo‘jaligi faoliyatida foydalanilayotgan biologik aktivlarni hisobga olish tartibini hisob siyosatining “Uslubiy masalalar” bo‘limida quyidagi tartibda ochib ko‘rsatish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

Biologik aktivlar:
- biologik aktivlar ta‘rifi;
- biologik aktivlar tarkibi;
- biologik aktivlarni hisobga olishning normativ-huquqiy asoslari.

1. Uzoq muddatli biologik aktivlarni hisobga olish tartibi:
- uzoq muddatli biologik aktivlar tarkibi;
- uzoq muddatli biologik aktivlarni tan olish va baholash tartibi;
- uzoq muddatli biologik aktivlar kirimini hisobga olish;
- uzoq muddatli biologik aktivlarning moliyaviy-xo‘jalik faoliyatdagi harakati hisobi;
- uzoq muddatli biologik aktivlar chiqimini hisobga olish;
- uzoq muddatli biologik aktivlar harakati bilan bog‘liq xo‘jalik operatsiyalarini hisobda aks ettirish tartibi.

2. Joriy biologik aktivlarni hisobga olish tartibi:
- joriy biologik aktivlar tarkibi;
- joriy biologik aktivlarni tan olish va baholash tartibi;
- joriy biologik aktivlar kirimini hisobga olish;
- joriy biologik aktivlarning moliyaviy-xo‘jalik faoliyatdagi harakati hisobi;
- joriy biologik aktivlar chiqimini hisobga olish;
- joriy biologik aktivlar harakati bilan bog‘liq xo‘jalik operatsiyalarini hisobda aks ettirish tartibi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, hisob siyosati va unda biologik aktivlar hisobini yoritib berish tartibini takomillashtirish bo‘yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida berilgan takliflarning amaliyotga joriy qilinishi quyidagilarga imkon beradi:

birinchidan, hisob siyosatining tarkibiy tuzilishi mantiqan izchil shakllanishi va moliya-xo‘jalik faoliyatining barcha jihatlarini to‘liq qamrab olish ta‘minlanadi;

ikkinchidan, har bir tarkibiy qismda buxgalteriya hisobi obyektlarini hisobga olish tartibi ko‘rsatib beriladi. Bu esa, undan foydalanuvchi uchun oddiy va tushunarli bo‘lishini ta‘minlaydi;

uchinchidan, uning faoliyat xususiyatlariga muvofiq buxgalteriya hisobi usullarini amalga oshirish mexanizmlarini o‘rnatish imkonini beradi;

to‘rtinchidan, buxgalteriya hisobini tashkil etish, yuritish va moliyaviy hisobotni tuzish tartibi yaxshilanadi. Natijada, axborotdan foydalanuvchilar o‘z vaqtida to‘liq hamda aniq moliyaviy va boshqa buxgalteriya axborotlari bilan ta‘minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti 1-sonli BHMS “Hisob siyosati va moliyaviy hisobot” https://lex.uz/acts/828581
2. Karimov A.A., Islomov F.R., Avloqulov A.Z. Buxgalteriya hisobi. – T.: “Sharq”, 2004. –74 b.
3. Ibragimov A., Ochilov I., Qo‘ziyev N., Rizayev N. Moliyaviy va boshqaruv hisobi. / O‘quv qo‘llanma. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2008. – 4 b.
4. Ortikov X.A., Yugay L.P., Tuxsanov X.A., Xayitboyev M.I. Moliyaviy hisob – T.: “Iqtisod-Moliya”, 2019. – 178 b.
5. Любушин Н.П., Жаринов В.В., Бородина Н.В. Теория бухгалтерского учета. Учеб. пособыэ для вузов / под ред проф Н.П.Любушина – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2002. – 198 с.
6. Бухгалтерский учет и отчетност: учебное пособие / коллектив авторов: под ред. Д.А.Ендовиского. – Москва: КНОРУС, 2022. – 21 с.
7. Бухгалтерский учет: учебник / под ред. проф. В.Г.Гетмана. – 3-е изд., перераб. и доп. – Москва: ИНФРА-М, 2022 – 447 с.
8. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi.
9. “MEHNAT BAXTLI SUT” mas‘uliyati cheklangan jamiyat (MChJ) hisob siyosati.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

TALABALARNING OILALI BO‘LISHIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLARGA IQTISODIY BAHOLASHDA YANGICHA YONDASHUV



O. U. Shomurodov



Z. U. Uroqov

A. T. Ablahatov

A. A. Suyarov
Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti talabalari

J. S. Urazov
Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti “Iqtisodiyot va biznes” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur ilmiy tadqiqot ishida oliy ta’lim muasasalarida talabalarning oilali bo‘lishiga ta’sir etuvchi omillarga iqtisodiy baho berilgan. Tadqiqotda, Samarqand viloyat oliy ta’lim muasasalarida tahsil olayotgan 277 nafar, ya’ni 2-4-kurs talabalaridan o‘tkazilgan so‘rovnoma ma’lumotlari asosida tahlillar olib borilgan. Talabalarning oilali bo‘lishga ta’sir etuvchi omillarga iqtisodiy baho berishda Probit modelidan foydalanilgan. Tahlil natijalariga ko‘ra, talabalarnng oilali bo‘lishi ularning yoshiga bog‘liq bo‘lib 1 foiz ($p<0,1$)likda, shaharda yashovchi talabalar qishloqda yashovchi talabalarga nisbatan oilali bo‘lish ehtimoli 5 foiz ($p<05$)likda statistik muhim ahamiyatga egaligi aniqlangan. Olingan tahlil natijalari asosida ilmiy asoslangan xulosa va takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: Oliy ta’lim, talaba, oilali, daromad, jins, shahar va qishloq hududi, Probit model.

Abstract: In this scientific research, an economic assessment of the factors influencing the marriage of students in higher education institutions was given. In the research, analyzes were conducted on the basis of the survey data of 277 students of the 2nd-4th year studying in the higher educational institutions of the Samarkand region. The Probit model was used for the economic assessment of the factors influencing students' marriage. According to the results of the analysis, the possibility of married students depending on their age is 1 percent (p<0.1), students living in the city have a statistically significant probability of having a family compared to students living in the countryside at 5 percent (p<05). Based on the results of the analysis, scientifically based conclusions and suggestions are given.

Key words: Higher education, student, family, income, gender, urban and rural area, Probit model.

Аннотация: В данном научном исследовании дана экономическая оценка факторов, влияющих на брак студентов высших учебных заведений. В исследовании анализ проводился на основе данных анкетирования 277 студентов 2-4 курсов, обучающихся в высших учебных заведениях Самаркандской области. Модель Пробита использовалась для экономической оценки факторов, влияющих на брак студентов. По результатам анализа вероятность женатых студентов в зависимости от возраста составляет 1 процент (p<0,1), а студенты, проживающие в городе, имеют статистически значимую вероятность иметь семью на уровне 5 процентов (p<05). По результатам анализа даны научно обоснованные выводы и предложения.

Ключевые слова: Высшее образование, студент, семья, доход, пол, городская и сельская местность, модель Пробит.

KIRISH

Dunyoda aholi farovonligini oshirish [1], kambag'allikni qisqartirish [2], ayniqsa qishloq aholisi turmush darajasini oshirish [3, 4], qaysidir jihatdan aholi savodxonlik darajasiga bog'liqdir [5]. Savodxonlik asosiy ko'nikma va aholi bilimining asosiy o'lchovi [6] bo'lib, dunyo aholisining savodxonlik darajasi keskin oshgan [7]. Ya'ni, 1820-yilda dunyo aholisining atigi 12 foizi o'qish va yozishni bilgan bo'lsa, so'nggi yillarda har 5-yilda 4 foizga oshgan. Natijada, bugungi kunda dunyo aholisi savodxonlik darajasi 86 foizni tashkil etmoqda. Biroq [8], aholining savodxonligini oshirish bilan bog'liq chora-tadbirlar ishlab chiqarilishiga qaramay, dunyodagi eng kambag'al mamlakatlarda hali ham savodsiz aholining juda katta qatlamlari mavjud.

Bu borada O'zbekiston Oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talaba yoshlarning sifatli ta'lim olishi, ularning ilmiy salohiyatini oshirish borasida "O'zbekiston Respublikasining oliy talim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni qabul qilingan. Natijada, mamlakatimizda yoshlarniing ta'lim-tarbiyasi, huquq va manfaatlariga katta ahamiyat qaratilmoqda. Xususan, oxirgi yillarda respublikamiz hududida faoliyat olib borayotgan Oliy ta'lim muassasalari soni 200 dan ortiq bo'lib, ularning 30 tasi xorijiy universitetlar filiallari hisoblanadi [10].

Oxirgi 5-yilda oliy ta'limga qabul kvotasi 3 barovarga oshgan, ya'ni joriy-yilda oliy ta'limga qamrovi 2017-yilda 9 foizni tashkil etgan bo'lsa, bugungi kunda ularning qamrovi 35 foizga yetgan. Xususan, 21 ming nafar talabadan 47 ming nafar talabaga davlat granti asosida tahsil olish imkoniyatlari yaratildi. Bunda, kam ta'minlangan, ehtiyojmand oilalarning qiz farzandlaridan 2 ming nafariga oliy ma'lumotga ega bo'lish uchun alohida grantlar ajratildi. Vaholanki, mamlakatda kambag'allikni qisqartirishda aholi savodxonligi va ularning bilimini oshirish muhim ahamiyatga ega [11]. Umuman olganda, oliy ta'limda tahsil olayotgan talabalarning kuchli bilimga ega bo'lishi muhim hisoblanib, ular tomonidan oilali bo'lishi yoki, oilali bo'lmasligi bilan bog'liqdir. Ya'ni [12], Oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarning oilali bo'lishiga, qaysiki jihatdan o'qish shakli, ta'lim olish turi, o'z hududi yoki boshqa hududda o'qishi, daromadi, ularning yoshi va jinsi ta'sir qilishi mumkin.

Mazkur ilmiy tadqiqot ishining maqsadi – Oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar tomonidan oilali bo'lishga ta'sir etuvchi omillarga iqtisodiy baho berish orqali ularning bilimini oshirishda ilmiy asoslangan xulosa va takliflar berish.

Ilmiy maqola quyidagi ketma-ketlik asosida yoritilgan: 2-bo'limda, ijtimoiy so'rovnoma va foydalanilgan metodlar yoritilgan bo'lsa, 3-bo'limda, olingan tahlil natijalari keltirilgan. Shuningdek, ilmiy maqola xulosa va takliflar hamda foydalanilgan adabiyotlar bo'limini o'z ichiga oladi.

MATERIAL VA METODLAR

Mazkur ilmiy tadqiqot ishini o'rganishda Samarqand viloyati Oliy ta'lim muassasasida tahsil olayotgan 2-4 kurs talabalardan olingan ijtimoiy so'rovnoma ma'lumotlaridan foydalanildi. Ijtimoiy so'rovnomada monografik tadqiqotlar, suhbat va kuzatuv usullaridan foydalanilgan holda, aksariyat tahsil olayotgan 2-4 – kurs talabalarida oila qurish kuzatildi. O'tkazilgan ijtimoiy so'rovnomada 277 nafar talaba yoshlar ishtirok etishdi. Natijada, talabaning oilali bo'lishi yoki bo'lmaganligini ifodalovchi ko'rsatkichi bog'liq o'zgaruvchi sifatida, mustaqil o'zgaruvchilar sifatida esa talabalarning yoshi, jinsi, o'qish hududi (Samarqand viloyatida yoki boshqa viloyatda), oilaning asosiy daromadi hamda talabalarning doimiy yashash hududi (shahar yoki qishloqda) olindi (1-jadval).

1-jadval: O‘zgaruvchilarning statistik tavsifi

O‘zgaruvchilar	O‘rtacha	Standart og‘ish	Min	Max
Oilali (talaba oilali bo‘lsa -1, aksincha -0)	.119	.325	0	1
Yosh (talabaning yoshi)	20.9	3.36	17	45
Jins (talabaning jinsi)	.574	.495	0	1
Talabaning o‘qish hududi (Samarqand viloyatida tahsil olayotgan bo‘lsa – 1, aksincha – 0)	.581	.494	0	1
Oilaning asosiy daromadi (noqishloq xo‘jalik faoliyatidan keladigan bo‘lsa -1; aksincha – 0)	.577	.494	0	1
Talabaning doimiy yashash hududi (shahar hududida doimiy yashashi -1; aksincha -0)	.346	.476	0	1

Biroq so‘rovnomada ishtirok etgan respondentlar hammasi ham so‘rovlarga to‘liq javob bermagan. Xususan, respondentlarning 274 nafari yoshini ko‘rsatgan bo‘lsa, 3 nafar talaba esa yosh to‘g‘risida ma’lumot berishmagan. Jami respondentlarning 11,9 foizi oilalali hisoblanadi. Shu o‘rinda, ularning o‘rtacha yoshi 20,9 yosh bo‘lib, qaysiki talabalarning yoshi minimum 17 yoshda bo‘lsa, maksimum yosh 45 yoshni tashkil etadi.

Oliy ta’lim muassasalarida talabalarning shartnoma asosida o‘qishi bevosita oilalarning asosiy daromadi, ya’ni qishloq yoki noqishloq xo‘jaliklar faoliyatidan keladigan daromadlarga bog‘liqdir.

Xususan, tadqiqotimizda jami respondentlarning 57,7 foizida, oilasining asosiy daromadi noqishloq xo‘jalik faoliyatidan keladigan daromadlar tashkil qiladi. Talabalarning oilali bo‘lishi, ularning o‘qish hududiga bog‘liq bo‘lib, jami respondentlarning 58,1 foizi Samarqand viloyatidagi Oliy ta’lim muassasalarida tahsil olishadi. Shuningdek, jami talabalarning 34,6 foizi shahar hududida doimiy istiqomat qilishadi.

Mustaqil o‘zgaruvchilarning bog‘liq o‘zgaruvchiga ta’sirini iqtisodiy baholashda Probit modelidan foydalanildi va ularning marginal ta’siri tahlil qilindi.

STATA17 dasturiy paketlaridan foydalanilgan holda talabalarning oilali bo‘lish ko‘rsatkichiga ta’sir etuvchi mustaqil o‘zgaruvchilarga iqtisodiy baho berildi.

Tahlil natijalari. Olingan tahlil natijalariga ko‘ra (2-jadval), talabalarning oilali bo‘lishi (bog‘liq o‘zgaruvchi) ni yoshi, jinsi, o‘qish hududi (o‘z viloyatida yoki boshqa viloyatda), daromad (qishloq xo‘jaligi yoki noqishloq xo‘jaligi) hamda doimiy yashash hududi (shahar yoki qishloq hududi) umumiy holda 43,1 foiz (R^2=43.1)ini o‘zida izohlab kelmoqda.

Talabalarning o‘rtacha yoshi 1 yoshga oshishi ularning oilali bo‘lish ehtimolini 28,8 foizga oshiradi va 1 foiz (***p<.01)likda statistik muhim ahamiyatga ega. Biroq Oliy ta’lim muassasalarida qiz talabalar o‘qish davrida oilali bo‘lish ehtimoli yuqori bo‘lib, o‘g‘il talabalarda esa oilali bo‘lishni 51,7 foiz (*p<.1)ga kamaytiradi.

2-jadval: Talabalar tomonidan oilali bo‘lishiga ta’sir etuvchi omillar iqtisodiy baholash tahlili natijasi

Ko‘rsatkichlar	Probit model				Marginal ta’sir			
	Coef	St	z	p>|z|	dy/dx	std	z	p>|z|
Yosh	.288	.050	5.69	0.000	.025	.007	3.43	0.001
Jins	-.517	.283	-1.82	0.068	-.046	.025	-1.78	0.074
O‘qish hududi	.857	.348	2.46	0.014	.076	.028	2.68	0.007
Oila daromadi	.999	.338	2.95	0.003	.088	.032	2.76	0.006
Doimiy yashash hududi	-.374	.316	-1.18	0.237	-.033	.027	-1.23	0.217
Respondentlar soni	273							
LR chi2(5)	83.27							
Prob>chi2	0.0000							
R2	43.1							
Log likelihood	-54.97							

*** p<.01, ** p<.05, * p<.1

Ya’ni, o‘g‘il talabalarga nisbatan qizlar o‘rtasida ertaroq oila qurish yoki oilali bo‘lish ehtimoli yuqori bo‘lishini ko‘rsatmoqda. Talabalarning doimiy yashash hududi, ya’ni Samarqand viloyatida tahsil olishi ularning oilali bo‘lishi ehtimolini 85,7 foizga oshiradi va statistik jihatdan 5 foiz (*p<.05)likda muhim ahamiyatga ega. Shu o‘rinda, talabalar doimiy yashash hududida istiqomat qilib Oliy ta’lim muassasalarida tahsil olishi ta’lim bilan bog‘liq xarajatlarni kamaytiradi, biroq ularning oilali bo‘lish ehtimolini oshishi tahlil natijalari ko‘rsatmoqda.

Shahar va qishloq hududlarida yoshlarning Oliy ta'lim muassasalarida tahsil olishi va u bilan bog'liq xarajatlar oilalarning qishloq va noqishloq xo'jaliklar faoliyatidan keladigan daromadlariga bog'liqdir. Aksariyat hollarda, qaysidir oilalarning asosiy daromadi qishloq xo'jaligi faoliyatidan keladigan daromadlar tashkil qilishi, oilalarda yoshlarni Oliy ta'lim muassasalarida tahsil olishi ularning oilali bo'lishini cheklaydi [13]. Tahlil natijalariga ko'ra, oilaning asosiy daromadi noqishloq xo'jalik faoliyatidan kelishi oila a'zolarining Oliy ta'lim muassasalarida tahsil olish davomida oilali bo'lish ehtimolini 99,9 foizga oshiradi va 1 foiz (***p<.01)likda statistik muhim ahamiyatga ega. Biroq tahlil natijalarida shahar hududida doimiy istiqomat qilayotgan talabalarda oilali bo'lish ehtimoli qishloq hududida doimiy istiqomat qiladigan talabalarga nisbatan past darajada bo'lishi aniqlangan bo'lsa-da, u statistik muhim ahamiyatga ega emas.

Talabalarning jinsi ularning oilal bo'lishiga 95% lik aniqlikda marjinal ta'siri o'rganilganda jinsi erkak bo'lgan talabalar qizlarga nisbatan kechroq oilali bo'lishga ta'sir etishi tahlil natijali ko'rsatmoqda (1-rasm).



1-rasm: Talabalarning oilali bo'lishiga ularning jinsi va oila daromadining marginal ta'siri

Ya'ni talabalik davrda qizlar o'g'il bolalarga nisbatan ko'proq oilali bo'lishadi. Buday holat, o'zbek millatiga xos bo'lgan, qizlarning voyaga yetishi bilan ota-onasi tomonidan uni turmushga berish an'ana, urf-odat bilan bog'lash mumkin. Biroq biz oilali bo'lgan erkak yoki ayol talabalar Oliy ta'lim muassasalarida fanlarni yaxshi yoki a'lo bahoda o'zlashtiradi deb. Tadqiqot ishi, talabalarning oilali bo'lishga ta'sir etuvchi omillarga iqtisodiy baho berish bo'lganligi uchun asosan ta'sir etuvchi omil sifatida ularning yoshi, jinsi, qaysi hududda o'qishi va oilaning asosiy daromadi e'tiborga olindi.

Shu o'rinda, talabalarning oilali bo'lishi bevosita oila a'zolarining asosiy daromadiga bog'liqdir. Oilaning asoiysi daromadi noqishloq xo'jalik faoliyatidan keladigan daromadlar tashkil etishi [14], aksariyat oilalar tomonidan farzandlarini Oliy ta'lim muassasalarida shartnoma asosida o'qitishga moyilligi bo'ladi. Noqishloq xo'jalik faoliyatidan keladigan daromadlar oilaning oylik daromadi hisoblanib, qishloq xo'jalik faoliyatidan keladigan daromadga nisbatan aniq, qisqa vaqtda shakllanishini ifodalaydi. Biroq qishloqlarda oila farzandlarini o'qitish, ta'lim olishi uchun qishloq xo'jalik, ya'ni tomorqa xo'jaligi faoliyatidan keladigan daromadga tayanadi [15].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mamlakatda ta'limning rivojlanishi, qaysiki jihatdan aholining bilim olish imkoniyatini oshiradi. Xususan, aholining bilim olish darajasining oshishi mamlakatda kambag'allikning qisqarishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bunda, yoshlarni Oliy ta'lim muassasalarida tahsil olish qamrovini oshirish, ular tomonidan bilimlarni o'zlashtirish muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot ishi, Samarqand viloyati Oliy ta'lim muassasalarida o'tkazilgan so'rovnoma ma'lumotlari asosida talabalarning oilali bo'lishga ta'sir etuvchi omillarga iqtisodiy baho berishda Probit modelidan foydalanildi. Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning oilali bo'lishiga ularning yoshi 1 yoshga oshishi, o'z hududidagi Oliy ta'lim muassasada tahsil olishi, oilaning asosiy daromadi noqishloq xo'jalik faoliyatidan keladigan daromadlar tashkil etishi oilali bo'lishga ijobiy ta'sir ko'rsatsa, talabalarning jinsi erkak bo'lishi qiz (ayol) talabalarga nisbatan oilali bo'lish ehtimoliga salbiy ta'sir ko'rsatadi, 5 foiz(*p<.05)likda statistik muhim ahamiyatga egaligi aniqlandi.

Umumiy olganda, oilali talabalar, ayniqsa oilali ayol talabalar uchun hukumat tomonidan Oliy ta'lim muassasalarida tahsil olishi, ularning savodxonligini oshirishda ijtimoiy himoya tizimini ishab chiqish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Salam R. A., Das J. K., Lassi Z. S. and Bhutta Z. A., “Adolescent Health and Well-Being: Background and Methodology for Review of Potential Interventions,” J. Adolesc. Heal., vol. 59, no. 2, pp. S4–S10, 2016, doi: 10.1016/j.jadohealth.2016.07.023.
2. Briar-Lawson K. and Austin S. Poverty, policy, and ideology. 2008.
3. Kaushik S. K., Kaushik S. and Kaushik S. “How higher education in rural India helps human rights and entrepreneurship,” J. Asian Econ., vol. 17, no. 1, pp. 29–34, 2006, doi: 10.1016/j.asieco.2006.01.004.
4. Samiyeva, G. T. (2022). The Most Important Aspects of Studying the Living Standards of the Population. Academic Journal of Digital Economics and Stability, Volume 16, April 2022, Pages 79-83
5. Muratov Sh. A. Economic assessment of factors affecting the decision of households to engage in non-farm activities. //Irrigation and Melioration. – 2021. – T. 2021. – №. 2. – C. 38-43.
6. Moulton J. “Improving Education in Rural Areas: Guidance For Rural Development Specialists,” World Bank, no. January, pp. 1–39, 2001.
7. Nutbeam D. “Defining and measuring health literacy: What can we learn from literacy studies?,” Int. J. Public Health, vol. 54, no. 5, pp. 303–305, 2009, doi: 10.1007/s00038-009-0050-x.
8. Verner D. “What Factors Influence World Literacy ?,” World Bank Policy Res. Work. Pap., no. January, pp. 1–25, 2005.
9. Bigsten A., Kebede B., Shimeles A., and Taddesse M. “Growth and poverty reduction in Ethiopa: Evidence from household panel surveys,” World Dev., vol. 31, no. 1, pp. 87–106, 2003, doi: 10.1016/S0305-750X(02)00175-4.
10. Eshonkulovna S. M., Taxmina K., Madina R. The concept of ICT competence of personnel. the importance of having ICT complement and information culture //Журнал Технических исследований. – 2019. – №. 4.
11. Abdurakhmanova G., Abduramano X. Ijtimoiy sohalar va inson taraqqiyoti //Архив научных исследований. – 2020. – №. 15.
12. Muratov Sh. A. The economic assessment of factors affecting small household (tomorka) in rural areas and their income //irrigation and melioration. – 2021. – т. 2021. – №. 3. – с. 45-51.
13. Nurullayev U. U., Urazov J. S. Agrar sohada tahsil olayotgan talabalarning o‘rtacha o‘zlashtirish ko‘rsatkichiga ta’sir etuvchi omillarni iqtisodiy baholash //Academic research in educational sciences. – 2023. – Т. 4. – №. SamTSAU Conference 1. – С. 292-298.
14. Muratov Sh. A. Talabalar o‘zlashtirish ko‘rsatkichiga oila daromadining ta’siri //Academic research in educational sciences. – 2021. – т. 2. – №. NUU conference 1. – с. 107-112.
15. Muratov S. et al. ECONOMIC ASSESSMENT OF FACTORS AFFECTING INCOME FROM THE ACTIVITIES OF HOUSEHOLD FARMS IN RURAL AREAS: A CASE OF SAMARKAND PROVINCE //Economic Science for Rural Development Conference Proceedings. – 2022. – №. 56.

WAYS TO USE THE EXPERIENCE OF FOREIGN COUNTRIES IN CREATING A BENEFICIAL BUSINESS ENVIRONMENT FOR ENTREPRENEURSHIP AND IMPROVING TAXATION

Mukhlisa Ikramova

Abstract: This research paper examines the potential of leveraging foreign country experiences to devise strategies that facilitate the growth of a conducive business environment for entrepreneurship and improved taxation. The objective is to understand how governments, policymakers, and business leaders can learn from successful international approaches and implement similar models effectively. Through a comprehensive analysis of key indicators, case studies, and expert literature, this paper aims to provide insightful recommendations for creating a favorable ecosystem that encourages entrepreneurship and bolsters tax structure.

Key words: International best practices, tax optimization, entrepreneurship support, innovation ecosystems, tax incentives, stimulating economic growth, taxation reform.

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot ishida tadbirkorlik uchun qulay ishbilarmonlik muhitini o‘stirish va soliqqa tortishni yaxshilashga yordam beradigan strategiyalarni ishlab chiqish uchun xorijiy mamlakatlar tajribasidan foydalanish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Maqsad hukumatlar, siyosatchilar va biznes rahbarlari muvaffaqiyatli xalqaro yondashuvlardan qanday saboq olishlari va shunga o‘xshash modellarni samarali amalga oshirishlari mumkinligini tushunishdir. Asosiy ko‘rsatkichlar, amaliy tadqiqotlar va ekspert adabiyotlarini har tomonlama tahlil qilish orqali ushbu maqola tadbirkorlikni rag‘batlantiradigan va soliq tuzilmasini mustahkamlaydigan qulay ekotizimni yaratish bo‘yicha chuqur tavsiyalar berishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: ilg‘or xalqaro tajribalar, soliqlarni optimallashtirish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, innovatsion ekotizimlar, soliq imtiyozlari, iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish, soliq islohoti.

Аннотация: В данной исследовательской работе рассматривается потенциал использования опыта зарубежных стран для разработки стратегий, которые способствуют созданию благоприятной деловой среды для предпринимательства и улучшению налогообложения. Цель состоит в том, чтобы понять, как правительства, политики и лидеры бизнеса могут извлечь уроки из успешных международных подходов и эффективно внедрять аналогичные модели. Благодаря всестороннему анализу ключевых показателей, тематических исследований и экспертной литературы, этот документ призван предоставить содержательные рекомендации по созданию благоприятной экосистемы, которая поощряет предпринимательство и укрепляет налоговую структуру.

Ключевые слова: лучшие международные практики, налоговая оптимизация, поддержка предпринимательства, инновационные экосистемы, налоговые льготы, стимулирование экономического роста, налоговая реформа.

1. INTRODUCTION

Entrepreneurship and taxation are two interconnected aspects of any thriving economy. While entrepreneurship fuels innovation, job creation, and economic growth, taxation serves as a means to finance public services and infrastructure. The tax system plays a crucial role in promoting and supporting entrepreneurship by providing necessary resources for government initiatives, while also creating a level playing field for all participants in the business world. Understanding the importance of entrepreneurship and tax systems is vital for aspiring entrepreneurs and policymakers alike, as it can determine the success of businesses and the overall economic landscape. The tax system of Uzbekistan needs to be improved in order to create a better environment for entrepreneurs. In this article, we will use the experience of foreign countries in order to offer better tax policies for business enterprises.

2. LITERATURE REVIEW

As stated by Kuzieva (2019) one of the key factors that influenced the dynamic development of small business and private entrepreneurship is the introduction of a simplified taxation system and a gradual easing of the tax burden. Thus, over the last ten years, the rate of a single tax payment, paid by micro firms and small enterprises has been reduced from 13% to 4%. At the same time the reduction has not had a negative impact on revenue collection [1].

Kuzieva's statements are supported by Tursunova (2020) where she states the facts that the taxation policy of the state is a stimulating factor in the development of small business. The essence of tax policy is a phased reduction of marginal tax rates and a decrease in the progressivity of taxation with a fairly narrow tax base and a wide scope of tax benefits [2].

In addition, Tuychiev (2023) makes an emphasize on the improvement of the institutional framework for determining the taxation regime of small and medium-sized businesses is of topical importance [3].

The study guide of Khaitov, Yuldasheva, Boboev and Mukhsinov (2020) dedicated to tax system and private business in Uzbekistan highlights a close connection between entrepreneurship and tax system. They are sure that entrepreneurship is a very important for the development of society and economy. Entrepreneurship is the main pillar of our economy and entrepreneurs are the creators of prosperity and abundance of our society. At the present moment, a number of decrees and regulations open wide opportunities for entrepreneurs and simplify their activities, especially in tax policy [4].

It is worth mentioning the work of Tukhsanov (2020) where he says that in order to develop the taxation of business entities in the national economy of Uzbekistan, it is necessary not to repeat mistakes in exchange for knowledge of foreign experience, to effectively use the experience accumulated over centuries in the countries of the world [5].

Study of Foreign Experience:

Gasieva and Kaytmazov (2019) say that for today, one of the priorities of economic policy is the reform of the country's tax system by using foreign experience, ensuring not only the expansion of tax sources and revenues of budgets at all levels, but also stimulating the development of socially important subjects of the economy, including small and medium-sized businesses [6].

Experience and Best Practices:

In findings of Braunerhjelm, Eklund and Thulin (2019) support the idea that tax simplification is one way to encourage entrepreneurship, without any reduction in tax revenues [7].

Example for another good practice suggested by Terkper (2003) where in the long term, the goals of raising revenue and implementing tax laws fairly, effectively, and efficiently can only be achieved through complementary LTU (large taxpayer unit) and SMT (small and medium-size taxpayers) programs [8].

Challenges and Obstacles:

Research conducted by Engelschalk (2003) states the small businesses generally continue to view the tax system as a key obstacle to business development and the overall tax burden as too high. This may partly be due to the fact that simplified regimes in many cases have been introduced in lieu of income tax only, so that the business operator continues to be confronted with a large number of tax obligations and high compliance costs [9].

2.1. Research Methodology

A comparative ad qualitative analysis approaches, sampling and data collection are used to examine the experiences of foreign countries in creating favorable business environments and improving taxation. Data is gathered from academic journals, government reports, policy documents and expert interviews. Moreover, representative case studies from countries with successful entrepreneurship ecosystems and innovative taxation policies have been conducted.

3. ANALYSIS AND RESULTS

The Republic of Uzbekistan is actively studying the experience of various countries to improve the efficiency of the tax policy for entrepreneurs. Particularly, Uzbekistan's Five-Area Development Strategy for 2017-2021 where two of the priority areas of economic development and liberalization dedicated to creating a favorable business environment for the development of small businesses and private entrepreneurship, strict suppression of unlawful interference of state, regulatory and law enforcement authorities into the activities of business entities and maintaining policies of reducing tax burden and tax system simplification, improving tax administration and expanding the incentive measures [10].

3.1. Present Problems of Entrepreneurship and Taxation System

There are several problems that exist in taxing entrepreneurship in Uzbekistan:

- **Informal economy:** Uzbekistan has a significant informal economy, where businesses operate outside the formal tax system. This is mainly due to the burdensome tax regulations and high tax rates. The existence of a large informal economy leads to unfair competition and loss of tax revenue for the government.
- **Lack of tax incentives:** There is a lack of tax incentives and exemptions for entrepreneurs and startups in Uzbekistan. Such incentives can help to foster entrepreneurship, encourage innovation, and drive economic growth.
- **Corruption and tax evasion:** Corruption is a persistent issue in Uzbekistan, and it affects the taxation system as well. Tax officials may engage in bribery and illicit practices, allowing businesses to evade taxes or underreport their income.
- **Limited access to finance and support:** Entrepreneurs in Uzbekistan often face challenges in accessing finance, which can hinder their growth and development. Additionally, there is a lack of government support programs and initiatives to assist entrepreneurs with tax compliance and business development.

3.2. Implemented Reforms for Better Taxing Entrepreneurial Activities

In recent years, Uzbekistan has implemented several reforms to promote entrepreneurial activities and improve the tax system in order to boost its economy. Some of these reforms are:

- **Liberalization of the business environment:** Uzbekistan has simplified the process of starting a business by reducing administrative barriers and streamlining the registration process. The time required to start a business has been significantly reduced, making it easier for entrepreneurs to establish new ventures.
- **Reduction of tax rates:** The government has reduced the corporate income tax rate from 22% to 7.5% for enterprises engaged in priority sectors, such as agriculture, tourism, information technology, and manufacturing. The standard corporate income tax rate for other sectors is set at 15%.
- **Simplified tax administration:** The tax administration process has been simplified to make it easier for entrepreneurs to comply with tax obligations. The government has introduced an electronic tax system that allows businesses to submit tax returns and payments online.
- **Incentives for small businesses:** To support small business development, the government has introduced various tax incentives, including reduced tax rates, simplified registration procedures, and exemptions from certain taxes.
- **Double tax treaties:** Uzbekistan has signed double tax treaties with several countries to prevent double taxation and promote cross-border investments. These treaties provide tax relief for businesses operating internationally.
- **Tax amnesty program:** In 2019, the government implemented a tax amnesty program, allowing businesses to voluntarily disclose previously undeclared income and assets without penalty. This program aimed to legalize shadow economy activities and bring them into the formal sector.
- **Taxation of e-commerce:** In 2020, the government implemented new tax regulations for e-commerce businesses. Online retailers are now required to register with tax authorities and pay taxes on their transactions.
- **Tax incentives for foreign investors:** The government has introduced a range of tax incentives for foreign investors, including tax holidays, reduced tax rates on profits, and exemptions from customs duties [11].

4. RECOMMENDATIONS TO IMPROVE TAXATION FOR ENTREPRENEURS

With a help of research tools here are key recommendations to create a better taxing environment for entrepreneurs based on successful practices from particular countries:

- **Startup Tax Credits:** Follow the example of countries like Canada or Singapore by offering tax credits or incentives specifically targeted at startups. These incentives can include deductions for R&D (research and development) expenses, investment tax credits, or tax holidays for newly established businesses, stimulating innovation and entrepreneurship [12].
- **Digital Taxation:** Embrace digital taxation practices to streamline tax administration and reduce compliance burdens for entrepreneurs. Implementing online tax filing platforms, electronic invoicing systems, and digital payment methods, as seen in countries like South Korea or Denmark, can enhance efficiency and transparency in tax collection [13].

- **Patent Box Regimes:** Implement patent box regimes like those in the Netherlands or Switzerland, offering reduced tax rates on income derived from intellectual property (IP) assets. This can incentivize entrepreneurship in high-tech industries and foster innovation-driven economic growth [14].
- **Green Tax Incentives:** Introduce tax incentives for environmentally sustainable businesses and green initiatives, modeled after schemes in countries like Sweden or Germany. Such incentives can promote eco-friendly entrepreneurship and contribute to sustainable development goals [15].
- **Advance Ruling Mechanisms:** Establish advance ruling mechanisms similar to those in countries like Singapore or Switzerland, allowing entrepreneurs to seek clarity on tax treatment for specific transactions or business activities in advance. This can reduce uncertainty and compliance costs for businesses [16].

Based on information above, an attempt was made to analyze how foreign experience may impact on entrepreneurial and tax environments.

Table 1: SWOT Analysis of using foreign practices to improve taxation for businessmen in Uzbekistan

Strengths	Weaknesses
-Access to Best Practices -Potential for Innovation -Enhanced Competitiveness -Learning Opportunities	-Cultural and Institutional Differences -Resource Constraints -Resistance to Change
Opportunities	**Threats**
-Policy Innovation -International Collaboration -Attracting Foreign Investment	-Political and Regulatory Risks -Dependency on External Factors -Resistance from Domestic Interests

Source: the table was compiled by author on the basis of the materials studied.

Strengths:

- **Access to Best Practices:** Leveraging foreign practices provides access to proven strategies and approaches adopted by successful economies, potentially offering valuable insights for improving taxation systems in Uzbekistan.
- **Potential for Innovation:** Exposure to foreign practices can stimulate innovation and creativity in tax policy design and implementation.
- **Enhanced Competitiveness:** Implementing best practices from foreign countries can enhance the competitiveness of Uzbekistan's business environment, attracting investment and fostering economic growth.
- **Learning Opportunities:** Collaboration with international experts and institutions facilitates knowledge transfer and capacity building, empowering local policymakers and tax authorities to address challenges more effectively.

Weaknesses:

- **Cultural and Institutional Differences:** Foreign practices may not directly translate to Uzbekistan context due to differences in culture, legal systems, and institutional frameworks.
- **Resource Constraints:** Implementing foreign practices may require significant financial and human resources for training, technology adoption, and institutional reforms.
- **Resistance to Change:** Stakeholders may resist the adoption of foreign practices due to concerns about loss of sovereignty, cultural identity, or vested interests, hindering the implementation process.

Opportunities:

- **Policy Innovation:** Learning from foreign experiences opens up opportunities for policy innovation and experimentation, enabling Uzbekistan to develop unique solutions that address specific challenges in taxation and entrepreneurship.
- **International Collaboration:** Collaboration with foreign governments, organizations, and experts creates opportunities for partnerships, knowledge exchange, and joint initiatives.

- **Attracting Foreign Investment:** Implementing transparent and business-friendly taxation practices based on international standards can enhance Uzbekistan's attractiveness to foreign investors, spurring economic development and job creation.

Threats:

- **Political and Regulatory Risks:** Political instability, changes in government, or regulatory uncertainty may undermine the continuity and effectiveness of reforms.
- **Dependency on External Factors:** Overreliance on foreign practices without considering local context and capabilities may lead to dependency on external expertise.
- **Resistance from Domestic Interests:** Domestic stakeholders, including entrenched business interests or bureaucratic structures, may oppose reforms that threaten their privileges or disrupt existing practices, posing a significant barrier to implementation.

5. CONCLUSIONS

In conclusion, this research has explored the diverse ways in which foreign countries' experiences can be harnessed to create a beneficial business environment for entrepreneurship and improve taxation policies. Through a comparative analysis of successful practices from various countries, several key findings have emerged.

Firstly, it is evident that foreign experiences offer valuable insights into effective strategies for fostering entrepreneurship and innovation. Some countries promote startup ecosystems, facilitate access to finance, and incentivize innovation, serving as valuable models for emulation.

Secondly, in the realm of taxation, foreign practices highlight the importance of simplicity, transparency, and fairness in tax systems. Jurisdictions of some countries have implemented innovative tax policies that balance revenue generation with incentives for business growth, demonstrating the potential for reform.

However, it is essential to recognize that the applicability of foreign experiences to the local context in Uzbekistan may vary due to cultural, institutional, and economic differences. Therefore, while learning from international best practices, policymakers must carefully consider the specific needs and circumstances of the country to ensure relevance and effectiveness.

5.1. Proposals

In conclusion, the analysis of successful practices from specific countries offers valuable insights into creating a more favorable taxing environment for entrepreneurs. Drawing from examples such as Canada, Singapore, the Netherlands, and Sweden, several key recommendations emerge, such as implementing startup tax credits, akin to those in Canada and Singapore. Additionally, embracing digital taxation practices, as observed in South Korea and Denmark, can streamline tax administration, reduce compliance burdens, and enhance transparency. Moreover, adopting patent box regimes similar to those in the Netherlands and Switzerland can stimulate entrepreneurship in high-tech sectors by offering reduced tax rates on income from intellectual property assets. Furthermore, introducing green tax incentives modeled after schemes in Sweden and Germany can promote environmentally sustainable businesses, aligning with sustainable development goals. Lastly, establishing advance ruling mechanisms, as seen in Singapore and Switzerland, can provide clarity on tax treatment for specific transactions.

Incorporating these recommendations into tax policies can enhance the entrepreneurial ecosystem, foster innovation, and drive economic growth, ultimately creating a more conducive environment for businesses to thrive.

References:

1. Kuzieva N.R. Ways to improve the tax mechanism for small businesses and entrepreneurship in the Republic of Uzbekistan. Article, 2019 – p.2;
2. Tursunova N. Kh. Problems and prospects of taxation of small business in Uzbekistan. Article, 2020 – p. 18;
3. Tuychiev Sh. Sh. Institutional bases for determining the taxation regime for small and medium-sized businesses. Dissertation, 2023 – p. 5;
4. Khaitov Sh. N., Yuldasheva S.N., Boboev A.Ch., Mukhsinov B.T. Tax system and private business in Uzbekistan. Study guide, 2020 – p. 4;
5. Tukhsanov Q.N. 2020. Prospects of using foreign experience of taxation of business entities' activities. Scientific electronic journal "Economics and Innovative Technologies". No. 6, November-December 2020. p. 242;
6. Gasieva Z.P., Kaytmazov V.A. 2019. Taxation of small and medium business: current state and prospects of development. Vestnik of the Moscow University of the Ministry of Internal Affairs of Russia, p.263;

7. Braunerhjelm P., Eklund J.E., Thulin P. Taxes, the tax administrative burden and the entrepreneurial life cycle: Small Business Economics, 56, 2019;
8. Terkper S. Managing Small and Medium-Sized Taxpayers in Developing Countries. Tax Notes International 29, 2003;
9. Engelschalk M. Creating a Favorable Environment for Small Business Development in Transition Countries. In Taxing the Hard-to-tax Lessons from Theory and Practice, edited by J.Alm, J.Martinez-Vazquez and S.Wallace. Amsterdam: Elsevier. 2004;
10. PRESIDENTIAL DECREE OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN of February 7, 2017 No. UP-4947 About the strategy of actions for further development of the Republic of Uzbekistan. III. Priority areas of economic development and liberalization – 3.1 and 3.4 parts;
11. O‘zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq Qo‘mitasi soliq.uz. Available at: https://soliq.uz/ (Accessed: 01 February 2024);
12. Agency, C.R. (2023) Government of Canada, Canada.ca. Available at: https://www.canada.ca/en/revenue-agency.html (Accessed: 02 February 2024) / IRAS (2024) Default. Available at: https://www.iras.gov.sg/ (Accessed: 02 February 2024);
13. Danish tax agency Skattestyrelsen (2023) Skattestyrelsen | sktst.dk. Available at: https://sktst.dk/english (Accessed: 02 February 2024) / National Tax Service 국세청영문. Available at: https://www.nts.go.kr/english/main.do (Accessed: 02 February 2024);
14. The Federal Tax Administration (2019) Swiss GAAP FER. Available at: https://www.fer.ch/en/members/eidgenoessische-steuerverwaltung/#:~:text=The%20Federal%20Tax%20Administration%20(FTA,the%20financing%20of%20public%20services. (Accessed: 03 February 2024) / Belastingdienst (2024) Individuals, Naar de startpagina van de Belastingdienst. Available at: https://www.belastingdienst.nl/wps/wcm/connect/en/individuals/individuals (Accessed: 03 February 2024);
15. Environment, U. UN environment programme, UNEP. Available at: https://www.unep.org/ (Accessed: 03 February 2024);
16. World Bank Group – International Development, Poverty, & Sustainability World Bank. Available at: https://www.worldbank.org/en/home (Accessed: 04 February 2024).

AHOLI TURMUSH DARAJASINI OSHIRISHDA MOLIYAVIY SAVODXONLIKNING O‘RNI VA IQTISODIY RIVOJLANISHGA TA’SIRI

Yusupov Muhammadali Soxib o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Moliya va buxgalteriya hisobi fakulteti MT-83-guruh talabasi
J.D. Xojiyev
Ilmiy rahbar: Moliya va buxgalteriya hisobi fakulteti, “Moliya” kafedrasi v.b., dotsenti

Annotatsiya: Maqolada moliyaviy savodxonlik-fuqaroni moliyaviy mahsulotlar va xizmatlar bozorida aktiv pozitsiyani egallash, jamiyatda o‘zini va oila a’zolarini moliyaviy farovonligini oshirish uchun zarur bo‘lgan bilimlar va ko‘nikmalar o‘rganilgan. Muallif tomonidan tahliliy manbalar va xorijiy tajribalar natijalari izohlab ketilgan.

Kalit so‘zlar: moliyaviy savodxonlik, iqtisodiy va moliyaviy ta’lim, moliyaviy madaniyat, moliyaviy xizmatlar, inson farovonligi va hayot sifati, bilim, OAV, iqtisodiy siyosat.

Abstract: The article examines the financial literacy-citizen's knowledge and skills necessary to take an active position in the market of financial products and services, to improve the financial well-being of oneself and family members in society. Analytical sources and results of foreign experiences were explained by the author.

Key words: financial literacy, economic and financial education, financial culture, financial services, human well-being and quality of life, knowledge, mass media, economic policy.

Аннотация: В статье рассматриваются знания и навыки финансовой грамотности гражданина, необходимые для того, чтобы занять активную позицию на рынке финансовых продуктов и услуг, улучшить финансовое благополучие себя и членов семьи в обществе. Автором были разъяснены аналитические источники и результаты зарубежного опыта.

Ключевые слова: финансовая грамотность, экономическое и финансовое образование, финансовая культура, финансовые услуги, благосостояние и качество жизни человека, знания, средства массовой информации, экономическая политика.

Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, jamiyatning yuksak ma’naviyatini shakllantirish kabi muhimlik darajasiga ega vazifalardan biri bu–aholining moliyaviy savodxonligini oshirish, iqtisodiy bilimlarini rivojlantirish masalasidir. Shu vaqtda bir o‘rinli savol tug‘iladi, hozirgi kunga kelib nega aynan moliyaviy savodxonlik masalasi dolzarb degan savol paydo bo‘ladi. Chunki O‘zbekistonda mustaqillik yillarida ijtimoiy bozor iqtisodiyotini shakllantirishga qaratilgan islohotlarni chuqurlashuvi va iqtisodiyotni modernizatsiyalash talablari aholining moliyaviy savodxonligini shakllantirish va uni oshirish zarurligini isbotlamoqda. Bugungi dunyo turli ma’lumotlarga, to‘g‘ri, noto‘g‘ri axborotlarga, bir qaraganda tub mohiyatini to‘la anglab yetish qiyin bo‘lgan xabar va hiylalarga to‘lib turganligini har bir ijtimoiy tarmoqda faol insonlar sezishi tabiiy hodisadir.

Aynan shu manbalar orqali bizga ko‘plab axborot xurujlari uyushtiriladi, feyk axborotlar tarqatiladi. Bu orqali ommaning e’tiborini chalg‘itish, jamoatchilik fikrini boshqa mavzuga burish yoki yo‘q narsalarga tarmoqdan foydalanuvchilarni ishontirish kabi maqsadlarni amalga oshirishni ko‘zlagan guruhlar harakatining natijasi yashiringandir. Bu borada eng ommabop usul moliyaviy piramidalardir. Moliyaviy piramidalarga ko‘plab yaqqol misollarni keltirishimiz mumkin. Masalan, BEVERLEE, “Ahmadboy” voqeasi, QUEST NET, Avto 60 oy, Straus xaus, Mono kabi piramidalar.

Bunday holatda aholining moliyaviy savodxonlik darajasini oshirish orqaligina xalqaro iqtisodiy munosabatlarga jalb qilingan har qanday davlat, shu jumladan, zamonaviy O‘zbekistonning jadal rivojlanishining zaruriy qismi ekanligini e’tiborga olgan holda hukumatimiz aholini moliyaviy savodxonligini oshirishga qaratdi. Bunday vaziyatda hukumat tomonidan belgilanishi lozim bo‘lgan asosiy maqsadlardan biri fuqarolarni shaxsiy mablag‘larni samarali boshqarish uchun ma’lumot va ta’lim vositalari bilan “qurollantirish” va natijada mamlakatning ijtimoiy–iqtisodiy hayotida sezilarli o‘zgarish olib borishdir.

“Moliyaviy savodxonlik– bu insonning moliyaviy madaniyati sohasi va uning yuksalishi va hayotning yaxshilanish darajasini oshirishga olib boruvchi bilimlar jamlanmasi; iqtisodiy jarayonlarni hamda dunyodagi voqea-hodisalardagi o‘zgarishlarni hisobga olib, qisqa muddatli qarorlar va uzoq muddatli moliyaviy rejalashtirish orqali shaxsiy moliyani boshqarishdagi qobiliyat va qat’iylikni, asosiy moliyaviy tushunchalarni anglab yetishni ifodalovchi darajadir va uning mavjud tizimi bo‘lishi kerak. Ushbu fikrda keltirilgan kishilarni qabul qilayotgan moliyaviy qarorlarini samaradorligini oshirish uchun aholini moliyaviy savodxonligi tizimini joriy etishning dolzarbligi quyidagi sabablar bilan belgilanadi:

1. Aholining daromad manbalari tarkibining o‘zgarishi. Yakka tartibdagi va oilaviy tadbirkorlik,kichik biznesdan olinadigan foydalar aholi daromadlari tarkibiga kiradi. Aholi daromadlarida ularning ulushi ortib borar ekan xarajatlarni to‘g‘ri rejalashtirish hamda investitsiyalar va jamg‘armani boshqarishga bo‘lgan ehtiyojni ortib ketishi aniq.
2. Ko‘p sonli xususiy tadbirkorlarni paydo bo‘lishi. Bu toifadagi tadbirkorlar jimlik ish faoliyati vaqtida turli boshqaruv masalalariga duch keladilar va ularga yechim topadilar: daromad va xarajatlarni rejalashtirish, moddiy resurslarni sotib olishni optimallashtirish, bank xizmatlaridan foydalanish, moliyaviy hisobga olish, moliyaviy oqimlarni va moddiy aktivlarni boshqarish, sug‘urta fondlarini shakllantirish, kreditlar olish, qarzni boshqarish, jamg‘armalarni investitsiyalash kabilar shular jumlasidandir.
3. Aholining jamg‘armalar va kreditlarni uzoq muddatga olishiga bo‘lgan ehtiyojning ortib borishi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida aholi jamg‘arishning quyidagi funksiyalarini mustaqil amalga oshirish lozim: qo‘shimcha pensiya jamg‘armalarini amalga oshirish, tibbiyot, ta’lim xizmatlariga to‘lash uchun jamg‘arish.
4. Shaxsiy jamg‘armalarga investitsiya kiritish hamda moddiy aktivlarini boshqarishdagi imkoniyatlarning kengayishi. Bozor iqtisodiyoti holatida investitsiya kiritish va aholi jamg‘armalarini amalga o‘tkazishning turli xil usullari paydo bo‘ladi

Ta’kidlash joizki, so‘nggi yillarda mamlakatimizda ushbu yo‘nalishda sezilarli ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 11-iyuldagi qaroriga muvofiq, “O‘zbekistonda aholining moliyaviy savodxonligini oshirish” loyihasi ijrosiga kirishilgani bunga misol bo‘la oladi. Bundan tashqari, xalqaro miqyosda O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasi Jahon Banki Guruhi moliyalar va bozorlar bo‘yicha departamentining Markaziy Osiyo va Ozarbayjonda moliyaviy infratuzilmani mustahkamlash bo‘yicha loyihasi (ACAFI) hamkorligida SSP trenerlari va xodimlarining moliyaviy savodxonligini oshirish bo‘yicha dastur, Savdo–sanoat palatasi va “Norma” professional rivojlanish markazi tomonidan “Tadbirkorlar va aholining moliyaviy savodxonligini oshirish” dasturi yo‘lga qo‘yilgan.

Moliya bozori parametridagi o‘zgarishlar aholi xizmatlari taklifiga ta’sir ko‘rsatishi natijasida ijtimoiy-iqtisodiy va demografik omillar aholining moliyaviy xizmatlarga bo‘lgan talabiga ham jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Moliya xizmatlari taklifidagi o‘zgarishlar quyidagilarda namoyon bo‘lmoqda:

- moliyaviy xizmatlar turlarini keskin ortishi va murakkablashuvi;
- moliyaviy xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar sonini ortishi;
- moliyaviy xizmatlar ko‘rsatish tartibini murakkablashuvi;
- moliyaviy xizmatlar iste’molchilari maqsadli guruhlarining kengayishi.

Moliyaviy xizmatlarga bo‘lgan talabga quyidagi omillar ta’sir ko‘rsatmoqda:

- demografik og‘irlikni ortishi. Rivojlangan davlatlarda bu tamoyil qayd etilgan to‘lov uchun asoslangan pensiya tizimidan qayd etilgan to‘lov to‘lanadigan pensiya to‘lashga o‘tish va iqtisodiy agentlarni o‘zlarining pensiya jamg‘arma to‘lovlari uchun ma’suliyat darajasini oshirishga olib kelmoqda

a) aholining shaxsiy daromadlari ko‘tarilishi;

b) aholi orasidagi tabaqalashuv darajasini ortishi.

Aholining savodxonligi darajasini oshirish va moliyaviy ta’lim kabi bir qator muammolar kun tartibiga qo‘yilib va shu muammolarni yechish chora-tadbirlarini quyidagi davlatlar amalga oshirmoqdalar: Italiya, Hindiston, Polsha, Chexiya, Niderlandiya, Avstriya;

Boshqa mamlakatlar yuqoridagi muammolarni o‘rganish va kun tartibiga qo‘yishni rejalashtirmoqdalar, shuningdek, bu borada ayrim tadbirlarni amalga oshirmoqdalar. Bu mamlakatlarda aholi savodxonligini oshirish uchun qo‘llanilayotgan milliy strategiya va dasturlarning maqsadi aholiga kundalik hayotda pulning mohiyatini va undan samarali foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iboratdir.

“Banklar uchun ustuvor vazifalardan biri aholi qatlamida moliyaviy savodxonlikni oshirish hisoblanadi. Banklarning asosiy mijozi bo‘lgan aholi savdoxonligini oshirish banklarning barqaror faoliyat ko‘tarishiga xizmat qiladi,” deydi – Germaniya Jamg‘arma kassalari fondi departament direktori Mittias Foss. Ushbu fikrlar isboti sifatida, Markaziy bank moliyaviy savodxonlik yo‘nalishida “IT– Park” (“Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki direksiyasi” MChJ) bilan o‘zaro hamkorlik to‘g‘risida Memorandum imzolaganligi va shu memorandum moliyaviy ta’limni rivojlantirish sohasidagi o‘zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirishni, O‘zbekiston Respublikasida yoshlar va aholining raqamli moliyaviy savodxonligini oshirish bo‘yicha sa’y-harakatlarni birlashtirishga xizmat qilishni o‘zining ustuvor yo‘nalishlaridan biri deb hisoblaydi. Shu bilan birga Markaziy bank tomonidan aholining moliyaviy savodxonligini oshirish maqsadida Finlit.uz axborot – ta’lim resursi ishga tushirildi. Ushbu loyihaga moliyaviy xizmatlarni tanlash va ulardan foydalanish davlat aholisi tomonidan amalga oshirilishi, shuningdek, moliya bozoridagi imkoniyatlarni to‘g‘ri baholashga yordam beradigan bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish, moliyaviy qarorlarni oqilona yo‘lda va ma’suliyat bilan qabul qilish kabi vazifalar kiritilgan.

Shuningdek, “Moliyaviy savodxonlik” o‘quv kursini noiqtisodiy yo‘nalishda tahsil oluvchi OTM talabalari uchun hamda umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilari uchun fan sifatida joriy etish belgilangan. Fan doirasida moliyaviy instrumentlar bo‘yicha o‘qitish metodologiyasini ishlab chiqish, mablag‘larni to‘g‘ri boshqarish, jumladan, moliyaviy qarorlar qabul qilish rejalashtirilgan. Bundan tashqari “Moliyaviy savodxonlik olimpiadalari”ni tashkil etish orqali o‘quv kursining samaradorligini baholash ko‘zda tutilmoqda.

Shu bilan birgalikda, hujjatda 2021-2023-yillarda mo‘ljallangan Moliyaviy xizmatlar ommabopligini oshirish milliy strategiyasida aholi va tadbirkorlik subyektlarining investitsiya bo‘yicha, shu jumladan, moliyaviy savodxonlikni oshirish borasidagi barcha tadbirlarni amalga oshirish ko‘zda tutilgan.

Xalqaro munosabatlarga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, Rossiya Federatsiyasi Moliya vazirligining Ilmiy– tadqiqot moliya instituti bilan tizimli ishlar aholining moliyaviy savodxonligini oshirish sohasida davom ettirilmoqda. Aynan aholi uchun amalga oshirilgan ishlardan biri mashhur “Quvnoq do‘mboqchalar” multfilmi va yoshlarbop rus seriallari qahramonlarining sarguzashtlarini o‘zbek tiliga tarjima qilish va kelgusida keng yoritish orqali maktabgacha hamda maktab yoshidagi bolalarning e’tiborini moliyaviy savodxonlikning asosiy masalalariga (shaxsiy jamg‘armalar, moliyaviy ta’minot, o‘zaro qarz munosabatlari) jalb qilishga ko‘maklashadi.

Moliyaviy xizmatlarni iste’molchilari uchun moliyaviy savodxonlikning past darajasi quyidagi salbiy oqibatlarga olib keladi:

- samarasiz qarorlarni qabul qilinishi tufayli moliyaviy institutlarga bo‘lgan ishonchni pasayishi;
- moliyaviy bozor afzalliklaridan foydalanish imkoniyatining yo‘qligi;
- shaxsni qarzdorlik majburiyatlarini yuqori darajadaligi;
- jismoniy shaxslarning ommaviy bankrot bo‘lishi;
- o‘sib kelayotgan avlodga salbiy moliyaviy tajribani o‘rgatish;
- moliyaviy xizmat sotuvchilarining muttahamlik riskiga moyilligi, xulqining yomonligi;
- hayotiy muhim mahsulotlar uchun jamg‘arishning past darajasi;
- pensiya jamg‘armalarini shakllanishi va ularni boshqarishning samarasizligi.

Davlat uchun aholi savodxonligining past darajasi, to‘lov qobiliyatini rivojlantirishga to‘siqning mavjudligi moliya bozorlar imkoniyatini cheklaydi va tartibga solish samaradorligini pasaytiradi, iste’molchilar huquqini cheklaydi, shaxsiy qatnashuvga asoslangan jamg‘ariladigan pensiya tizimiga o‘tishga yo‘l qo‘ymaydi. Iqtisodiy nuqtai nazardan moliyaviy xizmatlar borasidagi bilim darajasini yetarli emasligi aholining keng qatlamlarini ularni iste’mol qilishga past darajada jalb etilganligini bildiradi hamda iqtisodiy o‘sish salohiyatini belgilovchi jamg‘arish, investitsiyalar darajasi va sifatini cheklaydi. Zamonaviy bozor iqtisodiyotining rivojlanishi aholini pensiya jamg‘arish, sug‘urta va ipoteka tizimlarida ishtirok etishini talab qiladi. Chunki aholining ushbu tizimlardagi ishtiroki pensiya jamg‘arish, ijtimoiy va tibbiy sug‘urta, turar joy bilan ta’minlash va ta’lim sifatini oshirish kabi masalalarni hal qilishga yordam beradi. O‘rta sinf uchun xos bo‘lgan jamg‘arishni kengaytirish va uni samarali ishlatish mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta’minlaydi, makroiqtisodiy muvozanatga erishish va moliya tizimining mustahkamlanishiga asos bo‘ladi. Aholining jamg‘arishga yuqori darajada moyilligi, jamg‘arish va sug‘urtalash dastaklaridan keng foydalanishi aholining moliyaviy savodxonligini yuqori darajada bo‘lishini nazarda tutadi. Bunday savodxonlik aholiga moliyaviy institutlar bilan yaqindan hamkorlik qilish, bank va sug‘urta sektorlarining xizmatlaridan, pensiyani sug‘urtalash tizimidan keng miqyosda va unumli foydalanish imkoniyatini beradi. O‘rta sinfga kiruvchi uy xo‘jaliklari moliyaviy savodxonligini oshirish orqali shaxsiy budjetlaridan samarali foydalanishadi, uzoq muddatli maqsadlaridan kelib chiqqan holda shaxsiy moliyaviy qarorlarni qabul qilishadi, shaxsiy qarzdorlik darajasini ortib ketishini oldini olishadi, moliyaviy institutlar tomonidan taklif

qilinadigan xizmatlar va mahsulotlarni farqlab, ortiqcha xavf-xatarlarni oldi olinadi. Hayotning har bir bosqichida aholining turmush farovonligini ta'minlash ustun darajada shaxsiy moliyaviy qarorlarning samaradorligiga bog'liq bo'lmoqda. Bu esa moliyaviy savodxonlikni mamlakatni uzoq muddatga mo'ljallangan rivojlanishida muhim o'rin egallashini aks ettiradi.

Insonlarda moliyaviy savodxonlikning yuqori darajada bo'lishi to'g'ri investitsiya qilishi, doimiy daromad manbayini shakllantirishda hamda keksalikda o'zining moddiy ehtiyojlarini qoplashi uchun aql bilan tadbirli ish tutushini ta'minlashi haqida iqtisodiy faktlar bor.

Aholining moliyaviy jihatdan savodsizligi nafaqat shaxsiy farovonlikka, balki butun moliyaviy sohaga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shunday ekan taklif sifatida shuni ta'kidlash lozimki, insonning ma'lum soha bo'yicha ilm va tushuncha olishida ta'lim eng muhim tizim hisoblanishi barchamizga ma'lum. Amaliyotga tatbiq qilishimiz zarur bo'lgan masalalardan biri esa uy xo'jaliklari, oilalar va shaxslarga o'z budjetlarini shakllantirish va rejalashtirishga oid bilim hamda ko'nikmalarni berib borishning eng optimal usullarini ishlab chiqishdir. Qolaversa, aholining turli ijtimoiy guruhlari uchun mo'ljallangan moliyaviy savodxonlik bo'yicha turli axborot va ta'lim dasturlarini ishlab chiqilishi, hamda ularni muntazam ravishda aholi e'tiborini eng ko'p jalb qilayotgan ijtimoiy tarmoq va OAVlarda tegishli aholi qatlamlari uchun yetkazib borish ham muhim choralardan biridir.

Aholining moliyaviy savodxonligini oshirish AQSH, Buyuk Britaniya va Avstraliyani davlat iqtisodiy siyosatini ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda aholining moliyaviy savodxonligini oshirish dasturlari AQSHda, Yevropa ittifoqi mamlakatlarida, Avstraliyada, Hindistonda, Indoneyziyada, Malayziyada, Rossiyada, Chexiyada va boshqa mamlakatlarda amal qilmoqda. Ushbu mamlakatlarda aholining moliyaviy savodxonligi talab va taklif bilan bog'liq bo'lgan holda alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2021-yil 13-aprel kuni "Kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6207-cjy Farmonni imzoladilar.

Hozirgi kunda moliyaviy savodxonlik darajasi yurtimizda ma'lum darajada olib borilayapdi ammo hali ahnuz yetarli emas, bu muammo individual ijtimoiy guruhlar (ayollar, qariyalar va ta'lim darajasi past insonlar) doirasida ayniqsa keskin tus olgan. Moliyaviy munosabatlarning umumiy murakkablashishi, davlat tomonidan pensiya ta'minotini, qarz mablag'larini olish usullari va boshqalar bo'yicha fuqarolarga yuklatilgan javobgarliklarning oshishi tavakkalchilikning qo'shimcha omili hisoblanadi.

Insonlar kundalik faoliyatining bir qismi sifatida optimal harakat algoritmlarini eksperimental tarzda ishlab chiqadilar. Biroq insonning tajribasi ko'pincha mavjud bo'lmaganligi sababli muhim hodisalar (masalan, ipoteka kreditini olish, ta'lim olish, uzoq muddatli investitsiyalarni shakllantirish) kamdan-kam uchraydi. Ayniqsa bu yerda tashqaridan olingan o'ziga xos moliyaviy bilimlarning ahamiyati namoyon bo'ladi. Ilmiy tadqiqotlar uchun moliyaviy savodxonlikni o'z-o'zini baholash keng tarqalgan asosdir. Shunga qaramay, katta obyektivlikka ega bo'lgan boshqa yondashuvlari mavjud. Masalan, Shvetsiyada insonlarning moliyaviy "xatolari"ning uch xil turiga ta'sir qilishini tekshirishga asoslangan usuldan foydalanadilar: diversifikatsiyaning yetarli emasligi, tavakkalchilikni qabul qilishdagi inertsiya va aksiyalarga egalik qilishda dispozitsiya ta'siri.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бекирова С.Э. Финансовая грамотность населения как основа благосостояния семьи. Научный вестник: Финансы, банки, инвестиции-2019-№ 2.
2. https://e-journal.uz/2021/05/27/moliyaviy-savodxonlik-fanini-o'qitishning-ahamiyati.
3. https://fayllar.org/moliyaviy-savodxonlik-va-uning-ahamiyati-muammolar-va-yechimla.html.
4. Saitov Sirojiddin, Tuychieva Nodira, & Saydullayeva Dinora. (2022). CHARACTERISTICS OF PRICE AND FORMATION. Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences, 1(11), 265–270.
5. Muxtarov, B., & Murotjonova, M. (2022). O'zbekiston respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining rivojlanishi. Zamonaviy Innovatsion Tadqiqotlarning Dolzarb Muammolari Va Rivojlanish Tendensiyalari: Yechimlar Va Istiqbollar, 1(1), 581–584.
6. Baxrom X. X. Biznesni rejalashtirish tartiblari //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 12. – №. 2. – C. 139-142.

TEMIR YO‘L SANOAT KORXONALARIDA IJTIMOIY-MEHNAT MUNOSABATLARINI BOSHQARISH BO‘YICHA XORIJIY TAJRIBA

Kadirova Sharofat Amonovna
Toshkent davlat transport universiteti

Annotatsiya: Ijtimoiy-mehnat munosabatlarini davlat tomonidan tartibga solish bo‘yicha to‘plangan keng ko‘lamli xalqaro tajribani o‘rganish bugungi kunda dolzarb masalalardan biridir. Mamlakatimiz iqtisodiyotining rivojlanishi ko‘p jihatdan iqtisodiyot tarmoqlarida o‘rnatilgan ijtimoiy-mehnat munosabatlari bilan bog‘liq bo‘lganligi uchun mazkur mavzuga muhim ahamiyat qaratilmoqda, biroq mehnatga haq to‘lash, qulay shart-sharoitlarni yaratish, kasbiy rivojlanish, mehnatni rag‘batlantirish, shuningdek, xodimlarning o‘z vaqtlarini erkin boshqarish qobiliyati, ishning ijodiy va mazmunli tabiati sifatida xodimlarning ijtimoiy ahamiyatga ega qarorlarni ishlab chiqish va qabul qilishda ishtirok etish huquqlarini tan olish bilan bog‘liq bir qator muammolar mavjud. Maqolaning maqsadi ijtimoiy-mehnat munosabatlarini tartibga solish bo‘yicha xorijiy tajribani o‘rganish va uni O‘zbekiston tajribasi bilan taqqoslashdir.

Kalit so‘zlar: mehnat faoliyati, paternalizm, hamkorlik, birdamlik, bandlik, ijtimoiy kafolat, kasaba uyushmalari.

Abstract: The study of the accumulated wide international experience of state regulation of social and labor relations is one of the pressing issues today. Due to the fact that the development of the economy of our country is largely connected with social and labor relations that have developed in sectors of the economy, this topic is given important attention, however, there are a number of problems associated with remuneration, the creation of favorable conditions, advanced training, work motivation, as well as the ability of workers to freely manage their time, the creative and meaningful nature of work, recognition of the rights of workers to participate in the development and adoption of socially important decisions. The purpose of the article is to study foreign experience in regulating social and labor relations and compare it with the experience of Uzbekistan.

Key words: labor activity, paternalism, cooperation, solidarity, employment, Social guarantees, trade unions.

Аннотация: Изучение накопленного широкого международного опыта государственного регулирования социально-трудовых отношений является одним из актуальных вопросов на сегодняшний день. В связи с тем, что развитие экономики нашей страны во многом связано с социально-трудовыми отношениями, сложившимися в отраслях экономики, данной теме уделяется важное внимание, однако существует ряд проблем, связанных с оплатой труда, созданием благоприятных условий, повышением квалификации, трудовой мотивацией, а также с возможностью работников свободно распоряжаться своим временем, творческим и содержательным характером работы, признанием прав работников на участие в разработке и принятии социально важных решений. Цель статьи-изучить зарубежный опыт регулирования социально-трудовых отношений и сравнить его с опытом Узбекистана.

Ключевые слова: трудовая активность, патернализм, сотрудничество, солидарность, занятость, Социальные гарантии, профсоюзы.

KIRISH

Ijtimoiy-mehnat munosabatlari har qanday jamiyatdagi iqtisodiy munosabatlarning asosidir. Ijtimoiy-mehnat munosabatlarini tartibga solish ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash va aholi farovonligini oshirish sohasidagi muammolarni hal qilishga qaratilgan.

Ijtimoiy-mehnat munosabatlarini shakllantirish va rivojlantirishning jahon tajribasini o‘rganish ijtimoiy va mehnat sohasidagi institutlarning xodim, tashkilot va davlat darajasida xilma-xilligini ko‘rsatadi. Ijtimoiy va mehnat munosabatlarining xorijiy modellari siyosiy va huquqiy tizimlarning o‘ziga xos xususiyatlarini, mamlakatlar madaniyatining o‘ziga xosligini va aholining mentalitetini aks ettiradi.

Ijtimoiy-mehnat munosabatlarining turli shakllari mavjud bo‘lib, ularning xilma-xilligi mamlakatlar o‘rtasidagi muhim sivilizatsiya farqlari bilan bog‘liq. Ijtimoiy-mehnat munosabatlarining shakllaridan biri bu ijtimoiy sheriklikdir. Masalan, Shvetsiyada bu tizim yaxshi rivojlangan. U to‘liq bandlikni ta’minlash siyosati va qat’iy

ish haqi tizimi tamoyillariga asoslanadi hamda kuchli ijtimoiy qonunchilikni va jamiyatdagi kasaba uyushmalari harakatida muhim rol o‘ynaydi [1]. Ijtimoiy va mehnat munosabatlarining ushbu shakli Rossiyada ham rivojlangan.

Amerika Qo‘shma Shtatlarining ijtimoiy-mehnat munosabatlarida raqobat va baslashish (kim o‘zar o‘ynash) munosabatlari ustunlik qiladi, lekin minimal ijtimoiy standartlar davlat darajasida belgilanadi va xodimning qo‘shimcha ijtimoiy sug‘urta tizimlarida ishtiroki rag‘batlantiriladi [2].

Yaponiyada ijtimoiy-mehnat munosabatlarida paternalizm, kollektivizm va sheriklik munosabatlari ustunlik qiladi, biroq paternalizm xodim-ish beruvchi munosabatlarida asosiy rol o‘ynaydi [2].

G‘arbiy Yevropaga kelsak, u yerda konsensus, birdamlik, sheriklik va ijtimoiy muloqot tamoyillari ustunlik qiladi. Yevropa mamlakatlari boshqaruvning barcha darajalarini qamrab oladigan turli institutlarning rivojlanishini namoyish etmoqda. Deyarli barcha Yevropa mamlakatlarida demokratiyaning turli shakllari ishlab chiqarishda rivojlangan.

Germaniyada shakllangan ijtimoiy-mehnat munosabatlari tizimi doimo murosali hisoblangan. Asosiy zarur shartlar ommaviy ishsizlikni bartaraf etish hamda xodim va ish beruvchi uchun o‘zaro maqbul ish haqini belgilashdir. Sinov va xatolar bilan uzoq izlanishlardan so‘ng, ishsizlik sug‘urtasi, bandlikka ko‘maklashish bo‘yicha hukumat choralari va tarif avtonomiyasini o‘z ichiga olgan tizim ishlab chiqildi [2].

Ijtimoiy-mehnat munosabatlari normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi. O‘zbekistonda mehnat sohasidagi asosiy normativ-huquqiy hujjat mehnat munosabatlarining barcha turlarini qamrab oladigan mehnat kodeksi bo‘lib, masalan, Skandinaviya mamlakatlarining mehnat munosabatlari faqat ma’lum bir masalani qamrab oladigan alohida huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi.

Mehnat munosabatlari shartnomalar tuzishdan boshlanadi. O‘zbekistonda mehnat shartnomasini tuzish faqat yozma ravishda amalga oshirilsa, masalan, Skandinaviya mamlakatlarida turli xil variantlar mavjud: Norvegiya va Finlyandiyada ham yozma, ham og‘zaki ravishda shartnoma tuzishga ruxsat beriladi. Xodimlarni jamoaviy shartnomalar bilan qamrab olinishiga kelsak, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida bu ko‘rsatkich o‘rtacha 70% dan oshadi, AQSH va Yaponiyada esa xodimlarning atigi 20% jamoaviy shartnomalar bilan qamrab olingan [2].

Ijtimoiy kafolatlarga kelsak, masalan, Shvetsiyada ular ancha yuqori: YAIMning 66% davlat budjeti orqali taqsimlanadi va bu qismning taxminan 2/3 qismi bepul ta’lim va tibbiyot bilan ta’minlashga qaratilgan. Bundan tashqari, ish beruvchilar muntazam ish haqi fondining 43% pensiya jamg‘armasiga ajratiladi va kasallik yoki bola parvarishi uchun ijtimoiy nafaqalar o‘rtacha daromadning 90%ni tashkil qiladi [1].

Qo‘shma Shtatlarda so‘nggi o‘n yil ichida mehnatkashlarning eng zaif guruhlariga nisbatan davlatning siyosati sezilarli faollashdi, bu kasbiy tayyorgarlikdan foydalanishni osonlashtiradigan, maktab infratuzilmasi va asosiy ta’limni takomillashtirishni kengaytirish, mehnat bozoridagi o‘zgaruvchan talablarga moslashishga majbur bo‘lgan ishchilarni qo‘llab-quvvatlashni yaxshilash chora-tadbirlarni ishlab chiqishda aks etmoqda.

Kasaba uyushmalari bilan bog‘liq masala ham dolzarb hisoblanadi. Masalan, Shvetsiya qonunchiligida juda keng ko‘lamli muammolar aks etgan, ularni faqat kasaba uyushmalari bilan maslahatlashgandan so‘ng hal qilish mumkin, masalan, yangi xodimlarni yollash [1]. O‘zbekiston Mehnat kodeksi ish beruvchining kasaba uyushmalari bilan bandlik qoidalari bo‘yicha kelishuvi to‘g‘risidagi normani aks ettirmaydi.

Yaponiya jamoaviy muzokaralar bilan tartibga solinadigan rasmiy mehnat munosabatlaridan, ish beruvchilar va kasaba uyushmalarining birgalikdagi maslahatlashuvini o‘tkazish bilan norasmiy mehnat munosabatlariga bosqichma-bosqich o‘tishning namunasidir. Ushbu tizim jamoaviy muzokaraga muqobil bo‘lib, mehnat munosabatlarida katta o‘rin egallaydi. Hozirgi vaqtda ularni doimiy ravishda kasaba uyushmalarining 80% dan ortig‘i va korxonalarning 90% ga yaqini tomonidan olib boriladi. Ular jamoaviy muzokara vakolatiga kirmaydigan boshqaruv va ishlab chiqarish masalalarini muhokama qilishga qaratiladi [2].

Kasaba uyushmalari va ish beruvchilar o‘rtasidagi nizolarni hal qilishda xorijiy davlatlarning tajribasi qiziq. Masalan, Avstriyada tomonlar o‘rtasidagi nizo mustaqil hakamlar ishtirokida hal qilinadi. Aqsh va Angliyada muzokaralarda vositachilar tomonlarning kelishuvi bilan taklif etiladi. Germaniyada bir xil sohadagi bir guruh kompaniyalar xodimlari kasaba uyushmalari federatsiyasi bilan muzokaralar olib borish uchun yig‘ilishadi [2].

Ishchilarning ishlab chiqarishni boshqarishdagi ishtirokiga kelsak, masalan, AQSHda iqtisodiyot va mehnat munosabatlarini faollashtirishning muhim bo‘g‘ini kollektivizmning kengayishi, mehnatning integratsiyasi hisoblanadi. Ishlab chiqarish rentabelligini oshirish uchun ishchilarga nafaqat sex doirasida, balki butun korxonada qaror qabul qilishda ishtiroki uchun katta ulush beriladi.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, O‘zbekiston qonunchiligi me’yorlarning mazmuni jihatidan xorijiy mamlakatlarning qonunchiligiga o‘xshaydi – u inson huquqlarini himoya qiladi, ish beruvchiga ham, xodimga ham ta’sir qilish kafolatlari va vositalarini taqdim etadi. Shuningdek, kuchli ijtimoiy himoya mexanizmlarini shakllantirish, korxonalarni boshqarishda xodimlarning manfaatlarini ifodalashning turli shakllarining mavjudligi, ijtimoiy va mehnat munosabatlaridagi obyektiv o‘zgarishlarni anglash (kasaba uyushmalari harakati faoliyatini o‘zgartirish zarurati, bandlik strategiyalarida, ish haqi tizimlarida o‘zgarish) hisoblanadi.

Ammo qonun shakli jihatidan O‘zbekiston va xorijiy davlatlar har xil, bu turli xil huquqiy tizimlar bilan bog‘liq. Har bir mamlakat o‘ziga xos milliy xususiyatlarga va tarixan shakllangan an’analarga ega. Ijtimoiy- mehnat munosabatlarini tartibga solishning O‘zbekiston tizimi xorijiy mamlakatlarda rivojlangan tizimidan farq qiladi, chunki ikkinchisi ish bilan band aholining yuqori sifat xususiyatlarini shakllantirish yo‘li bilan milliy iqtisodiyot samaradorligini oshirishga qaratilgan. Bu o‘z navbatida ta’limning yangi roli, mehnat sohasidagi yuqori ijtimoiy standartlarni va yuqori ish haqini saqlashni qabul qilishga ko‘mak beradi.

Ijtimoiy-mehnat munosabatlarini tartibga solishning milliy modeli, aksincha, ish haqi darajasi va uning samaradorligini oshirish zarariga mavjud bandlik darajasini konservatsiya qilishga qaratilgan. Shuning uchun O‘zbekistonda xorijiy mamlakatlarning ijtimoiy va mehnat sohasidagi ijobiy tajribasini o‘zlashtirish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Кириченко, Д. В. Сравнительный анализ трудовых отношений в Скандинавских странах и России // Современные научные исследования и инновации. – 2016. – № 3 [Электронный ресурс]. URL: http://web. snauka. ru/issues/2016/03/65301
2. Нехода, Е. В. Развитие социально-трудовых отношений в современных условиях // Вестник Томского государственного университета. – 2004. – № 283. – с. 152–158.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

МЕХАНИЗМ ВНЕДРЕНИЯ АУТСОРСИНГОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В АО “ЎЗТЕМИРЙЎЛЙЎЛОВЧИ”

УДК 33.330

Н. Э. Кахарова
Ташкентский государственный транспортный университет, г. Ташкент, Узбекистан

Аннотация: Изучение обширного международного опыта государственного регулирования социально-трудовых отношений является одной из задач сегодняшнего производства. Развитие экономики нашей страны во многом связано с изменениями в экономической сфере и социально-трудовых отношениях. Сегодня эта тема имеет большое значение. Существует ряд проблем, связанных с признанием прав физических лиц на получение, контроль за получением и участие в выработке и производстве решений по социальному обеспечению. Цель статьи - исследование регулирования социально-трудовых отношений.

Ключевые слова: аутсорсинг, промышленное предприятие, эффективность, стратегическое значение.

Annotatsiya: Ijtimoiy-mehnat munosabatlarini davlat tartibga solish bo‘yicha to‘plangan keng ko‘lamli xalqaro tajribani o‘rganish bugungi kunda ishlab chiqarish masalalaridan biridir. Mamlakatimiz iqtisodiyotining rivojlanishi ko‘proq iqtisodiy sohalardagi o‘zgarishlar va ijtimoiy-mehnat munosabatlari bilan bog‘liq. Bugun ushbu mavzuga muhim ahamiyat qaratilmoqda. Jismoniy shaxslarni qabul qilish, qabul qilishni nazorat qilish, ijtimoiy xavfsizlik qarorlarini ishlab chiqarish va ishlab chiqarishda ishtirok etish huquqlarini tan bilan bog‘liq bir qator muammolar mavjud. Maqolaning maqsadi ijtimoiy-mehnat munosabatlarini tartibga solishni tadqiq eetishdir.

Kalit so‘zlar: mehnat faoliyati, paternalizm, hamkorlik, birdamlik, bandlik, ijtimoiy kafolat, kasaba uyushmalari.

Abstract: Studying the extensive international experience of state regulation of social and labor relations is one of the issues of today's production. The development of our country's economy is mostly related to changes in economic spheres and social and labor relations. Today, this topic is of great importance. There are a number of problems related to the recognition of the rights of individuals to receive, control the reception, and participate in the production and production of social security decisions. The purpose of the article is to study the regulation of social and labor relations.

Key words: outsourcing,industrial enterprise, efficiency, strategic importance.

На сегодняшней день как во всем мире, так и в Узбекистане предприятия и организации развиваются по двум направления: диверсификация и специализация. Оба тенденции базируются на том,чтобы добиться еще больше устойчивости благодаря ранее не использовать источникам. Результат направлен на рост возможностей. В первом случаи результат диверсификации достигается за счет распределения источников по различным направлением, во втором случаи фокусируется на освоении ресурсов основного вида деятельности за счет специализации производственного процесса.

В условиях конкурентной рыночной среды для предприятий и организаций диверсификация и специализация являются двумя стратегиями, направленными на адаптацию к изменениям во внешней среде. Обе эти тенденции могут быть эффективными на разных этапах развития бизнеса и в различных условиях окружающей среды. Однако, для достижения успеха, необходимо найти баланс между производственной диверсификацией и специализацией.

В данный момент очень сложно сравнивать наиболее эффективную из этих тенденциях в деятельности предприятия.Зарубежный опыт показал при ограниченых финансовых возможностей специализация имеет больше возможностей для развития нежели диверсификация.Способствуя углублением специализации на предприятий может быть представлена как одна из стратегических альтернатив аутсорсинг.

Перевод непрофилных направлений на аутсорсинг приводит к уменьшению расходов, экономию ресурсов, упрощению организационной структуры или использовию более прогрессивных технологии, экономия деятельности позволяет соблюдать правила конкурентного предпринимательского тем, кто сталкивается с проблемой деятельностью даёт много возможностей. На ряду с этим, результатом испль-

зования аутсорсинга приводит не только к улучшению финансово-предпринимательский и предпринимательского показателей, но и динамика предпринимательской деятельност и на рынке может быть очень положительной [1-4].

Какой бы вид деятельности не осуществлялся, непременно необходимо принятие важных решений. Эффективные решения об использовании аутсорсинга должны приниматься на основе 5 этапов (рисунок 1).



Рисунок 1. Порядок использования аутсорсинга

Для того чтобы выделить этапы процедуры использования вышеупомянутого аутсорсинга по содержанию, целесообразно провести подробную разбивку каждого этапа.

На первом этапе необходимо найти смысл, необходимо ли руководству извлекать выгоду из аутсорсинга, исходя из внутренних и внешних возможностей предприятия, сравнивая один из альтернативных вариантов решения проблемы, или отказаться от аутсорсинга следуя по пути внутренних корпоративных изменений.

1. Предпринимательское производство – анализ структуры экономической деятельности;
2. Определить, цели и задачи аутсорсинга по которым он будет направлятся;
3. Сформулировать нужные (количественные и качественные) условия по направлением аутсорсинга;
4. Более глубокое изучение рисков, затрат, даёт дополнительные возможности от импользования аутсорсинга;
5. Передача запланированных производственных процессов на аутсорсинг.

Если есть необходимость передачи непрофильных направлений на аутсорсинг проводится этап детальной оценки аутсорсингового проекта, то есть определение критериев портнеров по аутсорсингу, разработка и утверждение требований к передаваемых на аутсорсинг направлениям, определение сроков и условии аутсорсинговой сделки, расчет объема ресурсов, сокращенных за счет использования услуг аутсорсинга, разработка комплекта нормативных документов в рамках сотрудничества будут выполняться такие задачи.

При выборе партнера по аусорсингу необходимо выбрать ряд критерий, которые будут оценивать уровень партнерства. Исходя изучив литературы по данному вопросу, а также просмотрев деятельность АО “Ўзтемирйўлйўйловчи” мы предлогаем следующие критерии:

Уровень доверия (надежности)

Уровень доверия (надежности) необходим для оценки фирмы или предприятия которая будет оказывать услугу аутсорсинга, целесообразно его измерять коэффицентом доверия (надежности). Коэффицент доверия (надежности) можно вывести из четырех основных элементов доверия, связанных со следующими отношениями [10]:

$$I_k = \frac{\text{П} + \text{Н} + \text{Б}}{\text{Ис}},$$

где

П – приемлимость;

Н – надежда;

Б – близость;

Ис – степень ориентации на собственный интерес.

Приемлемость относится к уровню достоверности информации о предприятии или организации и, в идеале, к тому факту, что предприятие не допускает какие либо ошибки и недочеты в ходе своей деятельности.

TARAQQIYOT PROGRESS

Понятие надежности с экономической точки зрения состоит из двух частей, с одной стороны способность нормальный работы предприятия(профилакти прекрашения деятельности или банкротсва предприятия), с другой стороны способность организации своевременно и в полном объеме выполнять свои обязательства [2].

Близость с экономической точки зрения это две организации вместе представляют собой тесные отношения на основе доверия, то есть предприятие, предоставляющее услуги аутсорсинга, стремится повысить уровень коммуникации со своими клиентами, предоставляя их услуги на отличном уровне.

А степень ориентации на собственные интересы означает, что предприятие ставит свои интересы выше интересов клиентов, под этим понимается достижение своей цели путем предоставления ложной информации, не прозрачная конуренция и т.д.

Экономическая значимость перечисленных выше факторов заключается в том, что можно прогнозировать, как каждый элемент влияет на экономику при выборе аутсорсинговой компании.

Возможность сэкономить финансовые ресурсы

Этот фактор означает выбор компании, которая предлагает вам услуги аутсорсинга, исходя из того факта, что стоимость предоставляемой услуги низка по сравнению с затратами, которые вы тратите на эту услугу.

$$Э_г = (X_1 – X_2)/100,$$

где $Э_г$ – годовой эффект; X_1 – общая стоимость до использования аутсорсинговой услуги; X_2 – общая стоимость после использования аутсорсинговой услуги.

Если результат близок к 1, то фирма, предлагающая услуги аутсорсинга, имеет более высокий уровень эффективности.

Гибкость

Работает ли аутсорсер по единой модели или она достаточно гибка, чтобы соответствовать ситуации, но при этом способна изменять свои операции в ответ на изменение стратегии клиента? Гибкость можно считать по следущей формуле.

$$E_{ij} = \frac{t_{pj}}{t_{pj}-t_{ij}}\left|1-\frac{1}{n}\right|,$$

где: t_{pj} – j время, необходимое для предоставления вида аутсорсинговой услуги; t_{ij} – i время, необходимое для переключения с аутсорсинговой услуги типа j на тип j; n – количество оказанных аутсорсинговых услуг

Кадровая политика

Реализация целей и задач управления человеческими ресурсами через кадровую политику, а также то, что она являетсия ядром системы управления человеческими ресурсами, имеет важное место при выборе предприятий, предлагающих услуги аутсорсинга. Эти коэффициенты можно рассчитать по следующим формулам.

Коэффицент стабилности:

$$K_s = k_t/k_{o's}$$

k_t – численность штатных сотрудников за анализируемый отчетный период;
$k_{o's}$ – среднесписочная численность работников за анализируемый период;

Коэффицент уровеня безработицы:

$$Kub = k_{ib}/k_{o's}$$

Kib численность штатных сотрудников за анализируемый период;
ko‘s среднесписочная численность работников за анализируемый период;

Коэффицент основных сотрудников:

$$K_{os} = (1 + k_{yo})/k_{o's}$$

где
k_{yo} – численность вспомогательных работников;
$k_{o's}$ – среднесписочная численность работников за анализируемый период.

Качество

Качество предоставляемой услуги аутсорсинга является одним из факторов, определяющих будущего поставщика услуг. Потому что качество услуги является характеристикой, определяющей степень, в которой потребитель может удовлетворить свои потребности. Исходя из сложности определения показателя качества по одному критерию, индекс, обобщающий соответствие качества услуги потребностям потребителя, целесообразно рассчитывать следующим образом.

$$Q = \sqrt[n]{Q_1 * Q_2 * \ldots\ldots * Q_n},$$

где

Q – обобщенный индекс, оценивающий качество обслуживания;

Q_1, Q_2, ..., Q_n – интегральные показатели качества.

4. Финансовая стабильность

Исходя из значения коэффициента финансовой устойчивости, какая часть активов финансируется из надежных и стабильных источников, и на этой основе можно оценить степень зависимости предприятия от средств заемщиков, что имеет важное место при выборе компании, которая предлагает услуги. Потому что в дальнейшем, если значение этого показателя выше нормы (0,8-0,9) с финансовой точки зрения, предприятие свидетельствует о независимости от заемных средств, успешно распоряжается своими средствами и остается решительным. Если значение коэффициента ниже нормы, снижается финансовая независимость компании, возрастает риск банкротства.Этот показатель расчитиается по следующей формуле:

$$M_b = (O'_m + U_q)/V_b,$$

где

O'_m – собственные средства предприятия;

U_q – долгосрочные долговые финансы;

V_b – баланс валюты.

5. Степень использования инновациями

Он характеризует способность предприятия осваивать новую технику или технологию, в том числе отношение основных производственных и технологических фондов к вновь введенным в эксплуатацию за последние три года зданиям, сооружениям, транспорту:

$$k_{yt} = \frac{Av_q}{Ih_a},$$

где

k_{yt} – коэффициент внедрения новых технологий;

Av_q – стоимость вновь вводимых основных средств;

Ih_a – среднегодовая стоимость основных производственных фондов предприятия.

При выборе партнеров по аутсорсингу указанные выше факторы целесообразно основывать не на результате отдельного расчета, а на конечном результате, причем каждый фактор является функционально зависимым.

Для окончательного решения функциональная связь значений факторов рассчитывается следующим образом:

$$Y = f(X)$$

где

X – значение факторов;

Y – степень целесообразности принятых решений.

Учитывая, что факторов, влияющих на принимаемые решения, более одного, результат влияния факторов на решения можно определить по следующей формуле:

$$Y = f(X_1, X_2, \ldots\ldots\ldots X_n),$$

где 1, 2, ..., n – число факторов.

Однако с учетом изменения значений этих факторов под влиянием внешней среды (политической, экономической, демографической ситуации и др.) их можно выразить в виде матрицы (m-n):

$$Y = \begin{vmatrix} X_{11} & X_{12} & \ldots & X_{1m} \\ X_{21} & X_{22} & \ldots & X_{1m} \\ . & . & \ldots & . \\ . & . & \ldots & . \\ X_{n1} & X_{n2} & \ldots & X_{nm} \end{vmatrix}$$

где m – период (месяц, квартал, год и т.д.).

TARAQQIYOT PROGRESS

Уровень целесообразности принимаемых решений (Y) оценивается в диапазоне от 1 до 0, если результат равен 1, то это высший уровень, характеризующий возможность принятия положительного решения об использовании механизма аутсорсинга (или выборе той или иной услуги аутсорсинговой компании), если результат равен 0, характеризует полный отказ организации от использования услуги аутсорсинга, указывает самый низкий уровень (либо делается вывод о необходимости отказа от аутсорсингового предприятия).

При наличии нескольких компаний, предлагающих аутсорсинговые услуги, для выбора наиболее оптимальной аутсорсинговая компания находится по отношению наиболее вероятного положительного результата к реальному результату:

$$y = \frac{N_i}{N_{max}},$$

где

N_i – полученный результат;

N_{max} – максимальный результат, который можно получить.

Степень целесообразности принимаемых решений для изучения значимости (приоритетности) (x) факторов, определяющих (y), проведем их корреляционный анализ, значения факторов определялись по 10-балльной шкале: 1 – минимум, 10 – максимум.

В условиях экономического спада, который наблюдается в большинстве стран мира для предприятий разного уровня и сфер деятельности особенно остро встает вопрос о сохранении конкурентоспособности. В этой ситуации стала очевидна необходимость поиска новых, более современных подходов в управлении. Многие руководители нашли решение проблемы в передаче непрофильных функций предприятия на аутсорсинг. Аутсорсинг один из способов углубления специализации и сокращения расходов.Таким образом, диверсификация и специализация являются ключевыми тенденциями развития предприятий и организаций в условиях конкурентной рыночной среды. Каждая из них имеет свои преимущества и недостатки, и важно найти оптимальный вариант между ними. Применения этих тенденций может помочь организациям и предприятиям сократить влияние рисков (финансовых,кадровых, экономических и т.д.) Принятие эффективных решений по использованию аутсорсинга требует выполнения пяти этапов. Применение этих стратегий может помочь предприятиям и организациям достичь большей устойчивости и роста возможностей в различных условиях рыночной среды.

Соблюдение всех вышеописанных рекомендаций позволит не допустить ошибок в процессе реализации аутсорсинга, что в свою очередь приводит к положительному результату и повышению эффективности производственного процесса.

Список использованной литературы:

1. Аалдерс, Р. ИТ аутсорсинг. Практическое руководство : пер. с англ. / Р. Аалдерс. – М. : Альпина Бизнес Букс, 2004. – 300 с.
2. Андреева, Г. С. Экономическая надежность организации: подходы к определению / Г. С. Андреева. – Текст : непосредственный // Молодой ученый. – 2016. – № 18 (122). – С. 227-230. – URL: https://moluch.ru/archive/122/33687/ (дата обращения: 26.10.2022).
3. Игнатьев А.В. Алгоритм принятия решения о переводе на аутсорсинг функций в сфере ИКТ в маликс и средних промышленных предприятиях // Современные исследования социальных проблем (электронный научный журнал). – 2012. – № 7(15). –с.149-153.
4. Клементс, Стюарт. Аутсорсинг бизнес-процессов. Советы финансового директора : пер. с англ. Н.И. Кобзаревой; под общ. ред. В.В. Голда / Стюарт Клементс, Майкл Доннеллан при участии Седрика Рида. – М.: Вершина, 2006. –416 с.: ил., табл. – ISBN 5-9626 – 0008-8
5. Максмутов И.И., Муртазин И.А., Карамышев А.Н. Методы и модели аутсорсинга // Социально-экономические и технические системы: исследование, проектирование, оптимизация. 2015. №1(64). с.133-157
6. Пахомов М.А., Кинжалов А.А. Организационные особенности инновационного процесса внедрения системы интегрированного оперативного управления // Социально-экономические явления и процессы. 2008. № 1. С. 42-45.
7. Пахомов М.А., Кинжалов А.А. Специфические особенности инновационной деятельности в сфере интегрированного оперативного управления производством // Вестник Тамбовского университета. Серия Гуманитарные науки. Тамбов, 2008. Выпуск 10 (66). –С. 425-428.
8. Толстых Т.Н., Уланова Е.М. Проблемы оценки экономического потенциала предприятия: финансовый потенциал // Вопросы оценки. –2004. –№ 4. –С. 18–23
9. Уильямсон О.И. Поведенческие предпосылки современного экономического анализа // THESIS.– 1993. Выпуск 3.–с.105-108.
10. Чуйкова С.Г. Управление неэффективной занятостью в России и за рубежом. Изд. Менеджмент в России и за рубежом, –№5, –2005 г.

KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI YANADA RIVOJLANTIRISH INVESTITSIYALARNI JALB QILISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI

Sharipov Bobur Anvar o‘g‘li
PhD, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti iqtisotda matematik metodlar kafedrasi katta o‘qtuvchisi

Annotatsiya: Maqolada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining rivojlanish jarayonlari o‘rganilgan, ularning erkin faoliyatlari uchun ishbilarmonlik muhitini yanada qulaylashtirish borasidagi chora-tadbirlar to‘g‘risida muallif yondashuvlari bayon etilgan. Shuningdek, bu sohadagi muammolar tahlili yuzasidan takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, investitsiya, soliqlar.

Abstract: The article examines the development processes of small businesses and private entrepreneurship entities, and describes the author’s approach to measures to make the business environment more convenient for their independent activities. Proposals were also developed for the analysis of problems in this area.

Key words: small business, private entrepreneurship, investment, taxes

Аннотация: В статье рассматриваются процессы развития малого бизнеса и субъектов частного предпринимательства, а также описывается авторский подход к мерам по созданию более удобной бизнес-среды для их самостоятельной деятельности. Также были разработаны предложения по анализу проблем в этой области.

Ключевые слова: малый бизнес, частное предпринимательство, инвестиции, налоги

KIRISH

O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi va davlat tomonidan tartibga solinishi faollashmoqda. Ishbilarmonlik muhiti tobora kengayishi kichik biznes subyektlarining rag‘bat asosidagi faoliyatini ta’minlashga olib kelmoqdaki, ularning deyarli barcha tarmoqlardagi soni-yildan-yilga ortib bormoqda. 2024-yilni esa “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili” deb nomlanishi esa bu jarayonga yangi mazmun berdi. Binobarin, mamlakatda qabul qilinayotgan me’yoriy hujjatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari uchun yanada keng shart-sharoitlar yaratish, ularni erkin faoliyatini ta’minlash va amalga oshayotgan islohotlarni yanada chuqurlashtirish va liberallashtirishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar o‘z aksini topgan [1].

Xususan, 2022–2026-yillarga Mo‘ljallangan yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solish va ishbilarmonlik muhitini yaxshilash borasida “tadbirkorlik subyektlarida masofaviy (onlayn) faoliyat ko‘rsatish imkoniyatlarining mavjudligidan hamda ularning ixtisoslashuvidan kelib chiqib, litsenziya va boshqa ruxsat etuvchi hujjatlarni olish tartib-taomillari quyidagilarni inobatga olgan holda soddalashtirish”dek ustuvor vazifalar belgilangan. Ularni amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarni tatbiq etish shu kundagi islohotlarimizning mazmunini tashkil etadi [3].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning jahon mamlakatlari iqtisodiyotidagi ahamiyati tobora ortib bormoqda. Agar respublikamizda bu sohaga e’tibor, asosan, ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish vazifalariga bog‘liq holda keng avj olgan bo‘lsa, boshqa mamlakatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ustuvor ahamiyatlarini tan olish hamda ularni rivojlantirish uchun chora-tadbirlar majmuyini ishlab chiqish ancha ilgari boshlangan. Darhaqiqat, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ustuvor darajadagi mavqeni egallashi va ayni paytda davlatning tarkibiy-iqtisodiy siyosatida ustuvor bo‘g‘in sifatida baholanishi deyarli barcha mamlakatlar uchun xos bo‘lgan umumiy belgilardan biri hisoblanadi.

XX asr buyuk iqtisodchisi, Avstriya maktabining asoschisi Yozef Shumpeter (1883–1950-yillar) “Tadbirkorlikning jamiyat ijtimoi–iqtisodiy taraqqiyotidagi hal qiluvchi rolini u bo‘lmagan joyda juda his qilish mumkinligini” ta’kidlaydi. Yozef Shumpeter tadbirkorlikning harakatchan iqtisodiy jarayondagi rolini, uning yaratuvchanlik funksiyasini aniqlaydi, tadbirkorning psixologik qiyofasini chizadi. Shu asosda, tadbirkorlik iqtisodiyotni harakatlantiruvchi asosiy kuch ekanligini asoslaydi. Tadbirkorlikka ayrim hollarda o‘z-o‘zidan mavjud bo‘lgan narsa deb, e’tiborsizlik bilan qarashlarni tanqid qilib, tadbirkorlik bo‘lmagan iqtisodiyotni tasavvur qilib ko‘rishni tavsiya etadi. U tadbirkorning energiyasi, irodasi, intilishi investitsiya siklini harakatga keltiradi, texnikaviy taraqqiyotning yuqori cho‘qqisiga ko‘tarilish imkon yaratadi, inqirozga uchragan iqtisodiyotni qayta jonlantiradi va tiklaydi, deb e’tirof etadi [4].

Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyoti 1929–1933-yillardagi og‘ir siklik tanazzulni boshdan kechirayotgan bir paytda J.M.Keyns o‘zi – bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasini o‘rtaga tashladi. Bu nazariyasini u “Bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi” nomli asarida (1936-yil) bayon etib, nobarqaror rivojlanish sharoitida davlatning iqtisodiyotga aralashuvi zarurligini asoslab berdi. Uning fikricha moliyaviy kategoriyalar – davlat xarajatlari ana shunday aralashuvning instrumentlari hisoblanishi kerak. Ularning shakllanishi, tarkibiy tuzilmasi va o‘sishi “samarali talab”ga erishishning muhim omillari bo‘lmog‘i lozim. Davlat xarajatlarining o‘sishini kamaytirish uchun tadbirkorlik faoliyatini jonlantirish va milliy daromad ko‘payishini ta’minlash kerak. Bu ishsizlikka ham barham berishi mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

J.M.Keyns soliqlar va ularning asosiy “psixologik qonun”ga ta’siri masalalariga ham alohida ahamiyat berdi. Ana shu “qonun”ga muvofiq, insonlar o‘z iste’mollarini oshirib borishga moyil ekanligini, lekin bu moyillik ular daromadlarining oshganchalik darajasida emas. Bu, o‘z navbatida, tovarlarga bo‘lgan talabning pasayib ketishiga va ishlab chiqarish qisqarishiga olib kelishini isbotladi. Davlat ana shunday “qonun”ning paydo bo‘lishiga to‘sqinlik qilishi hamda soliq tushumlari, qarzlar hisobidan o‘z xarajatlarini oshirish yoki turli usullar orqali xususiy investitsiyalarni rag‘batlantirish yo‘li bilan yetmayotgan talabni to‘ldirishi kerak degan fikrni ilgari surdi. Uning formulasi quyidagicha:

$$J + S = I + Dx$$

Bu yerda: J – jamg‘armalar;
S – soliqlar;
I – investitsiyalar;
Dx – davlat xarajatlari.

J.M.Keyns ishlab chiqarishning monopollashuvi sharoitida iqtisodiyotni tartibga solishga yo‘naltirilgan va prinsipal jihatdan yangi bo‘lgan moliya nazariyasini ishlab chiqqan. 1970-yillarga qadar sanoati taraqqiy etgan ko‘pgina mamlakatlar moliyaviy siyosatining asosini tartibga solish bo‘yicha keynscha nazariyaning boshlang‘ich holatlari (nuqtalari) tashkil etdi [5].

Buni ko‘plab rivojlangan mamlakatlar amaliyotida kuzatish mumkin. Masalan, AQSHda 1953-yildayoq Kongress tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ma’muriyati tuzilgan bo‘lsa, Yaponiyada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish umumdavlat dasturini amalga oshiruvchi davlat milliy markazi tarmog‘i tashkil etildi. Ilk bor o‘tgan asrning 40-yillari oxirida vujudga kelgan bunday markazlar faoliyati hukumat qoshidagi kichik va o‘rta korxonalar boshqarmasi tomonidan tartibga solinib turiladi. AQSHda 1953-yili qabul qilingan “Kichik biznes to‘g‘risida” qonunda: “Mamlakatning xavfsizligi va farovonligi kichik biznesning mavjud va salohiyatli imkoniyatlarini rivojlantirish va rag‘batlantirishsiz ta’minlanishi mumkin emas”ligi ta’kidlangan edi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan milliy siyosatlar tizimida Janubiy Koreya amaliyoti alohida e’tiborga molik. Bu mamlakatda bir tomondan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha qator davlat institutlari shakllantirilgan, ikkinchi tomondan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rag‘batlantirish tizimi shunday takomillikka egaki, bunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari bozor sharoiti, raqobat muhiti uchun moslashishi, o‘zlarida “immunitet”ni shakllantira olmog‘i shart hisoblanadi.

2000-yilning 15-iyunida Italiyaning Boloniya shahrida 46 mamlakat ishtirokida o‘tkazilgan konferensiyada qabul qilingan “Kichik va o‘rta tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash siyosati bo‘yicha Boloniya xartiyasi”da ishtirokchilar tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning bir qator ahamiyatli jihatlari e’tirof etilgan. Xususan, ijtimoiy hayotdagi eng muhim qirralari sifatida, uning yangi ish o‘rinlarini yaratish, mintaqaviy va mahalliy xo‘jaliklar rivojlanishida yetakchi mavqega egaligi, ijtimoiy hamjihatlikni ta’minlash, tarkibiy iqtisodiy o‘zgarishlarni boshdan kechirayotgan mamlakatda iqtisodiy muammolar keskinligini yumshatish hamda aholi qo‘shimcha daromadlari manbayi sifatida kambag‘allik darajasini pasaytirish kabilarga alohida urg‘u berilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Fransiyada mayda hamda kichik biznes korxonalari bir-biridan tafovutlanib, mayda biznesda barcha korxonalarning 90,3 %i va ish bilan band xodimlarning 20 %i, kichik biznesda esa barcha ish bilan band xodimlarning 47,9 %i faoliyat yuritadi. Sanoatda yangi korxonalarning 97 %i kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka to‘g‘ri keladi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli qurilishda, savdoda, mehmonxona xo‘jaligi va umumiy ovqatlanishda, shuningdek, xizmat ko‘rsatish sohasida, ayniqsa, yuqori.

Gollandiyada kichik biznes korxonalari barcha xususiy biznes korxonalarining 98,5 % ini qamrab olgan. Ularning 90 %i kichik korxonalar sirasiga kiradi. Kichik biznes korxonalarida xususiy sektorda bandlarning yarmidan ko‘prog‘i ishlaydi. Xizmat ko‘rsatish sohasidagi bandlikning nisbatan yuqori darajasi bo‘yicha Niderlandiya Yevropa Ittifoqi mamlakatlari orasida yetakchi o‘rinda [4].

AQSHda keyingi yillarda kichik korxonalar (sotishdan tushgan mablag‘i miqdori 19 ming dollargacha bo‘lgan korxonalar) soni ikki baravar ko‘paydi va 10 mln.ga yetdi. Hududdagi barcha korxonalarning 95 %i kichik korxonalardir. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yalpi milliy daromad o‘sishining yarmini tashkil etadi. Agar o‘tgan asrning 80-yillarida 50 ta yirik korporatsiya 3,5 mln. ish o‘rnini qisqartirgan bo‘lsa, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida 20 mln. yangi ish o‘rni tashkil etilgan.

Buyuk Britaniyadagi firmalarning deyarli 96%i kichik biznes sohasiga taalluqli. Ularga barcha ishchi kuchining 25%i hamda yalpi milliy daromadning taxminan 20 %i to‘g‘ri keladi.

Germaniyada 2 mln.dan ortiq kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalari faoliyat ko‘rsatib, ularda iqtisodiy jihatdan faol aholining qariyb 75 %i mashg‘ul. Bu korxonalar mamlakatda ishlab chiqarilayotgan yalpi milliy daromadining 50 %ini bermoqda.

Umuman olganda, kichik sanoat korxonalari xalqaro federatsiyasi hisob-kitoblariga ko‘ra, kichik korxonalar hissasiga ishlab chiqarilgan mahsulotlarning taxminan 50 %i, kapital qo‘yilmalarining esa 30 %idan ko‘prog‘i to‘g‘ri keladi. AQSH, Germaniya, Angliya, Italiya, Yaponiya kabi mamlakatlarda ish o‘rinlarining 2/3 qismi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda yaratiladi [5].

Odatda, barcha ish bilan bandlarning yarmidan ko‘prog‘i mayda va kichik korxonalarda ishlaydilar. Kichik biznes korxonalarining investitsiyalar, qo‘shilgan qiymat va oborotning umumiy hajmidagi ulushi juda salmoqli 20 % dan 60 % gachani tashkil etadi.

Xorijiy davlatlar iqtisodiyotida kichik biznes hissasining bu qadar salmoqli ekanligi aslo uning o‘z rivojlanishida hech qanday to‘siq va muammolar yo‘qligini bildirmaydi. Binobarin, xorijda ham soha rivojlanishida o‘ziga xos muammolar mavjud. Bunday muammolar sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- ko‘pincha ishlab chiqarishni tashkil etish va kengaytirish uchun talab qilinuvchi xususiy mablag‘lar hajmi yetarli bo‘lmasligi;
- bunday korxonalarning bozor konyukturasi o‘zgarishiga o‘ta sezgirligi va bog‘liqligi;
- o‘ta qattiq raqobat sharoitida faoliyat ko‘rsatish zarurligi;
- kichik biznes korxonalari ayniqsa, faoliyatning yangi sohalaridagi firmalar doimiy ravishda yuqori tavakkalchilik sharoitida faoliyat yuritishi;
- tashkil topish davridagi qator to‘siq hamda qiyinchiliklar va h.k.

Shu bois deyarli barcha mamlakatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishini tartibga solish, faoliyat uchun qulay sharoit yaratish hamda turli to‘siqlar ta’sirini cheklab turish maqsadida yo‘l xaritalari ishlab chiqilgan. Jumladan, Yevropa Ittifoqi doirasidagi kichik korxonalarga nisbatan davlat siyosatining asosiy maqsadlarini quyidagicha ifodalash mumkin:

- kichik korxonalarning rivojlanishi uchun qulay bozor sharoitlarini yaratish;
- bozor munosabatlarida tomonlarning o‘zaro teng huquqliligini qo‘llab-quvvatlash;
- raqobat muhitini hamda iqtisodiy faollikning harakatchanligini ta’minlash;
- yangi ish o‘rinlarini, ayniqsa, ishsizlik muammosi keskinlashgan hududlarda barpo etish;
- raqobat keskinlashuvi natijasida kelib chiquvchi ijtimoiy oqibatlarni, sarf-xarajatlarni kamaytirish.

Gollandiyada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka nisbatan davlat siyosatidagi asosiy holat shunday qoida hisoblanadiki, unga ko‘ra tadbirkor o‘z faoliyati uchun to‘la javobgar bo‘ladi, hukumat esa yordamchi rolni o‘ynaydi.

Fransiyada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solishning asosiy maqsadi bandlik va raqobatbardoshlik darajalarini o‘stirishdan iborat. U o‘z ichiga bevosita tartibga solishni, ish muhitini yaxshilashni, bilvosita yordamning turli ko‘rinishlarini oladi.

Germaniya kichik va mayda korxonalarga nisbatan yurgizayotgan davlat siyosati ularning raqobatbardoshligini oshirish tadbirlariga, turli soliq-moliyaviy imtiyozlarga, shuningdek, iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlarga moslashishiga asoslanadi. Bunda davlat ularga yirik korxonalar bilan raqobatlashish uchun teng sharoitlar yaratib berishga intiladi.

Italiyada so‘nggi yillarda yuqori xavf-xatar bilan bog‘liq bo‘lgan kapitalga erishish imkoniyati bor korxonalarni moliyalashtirishga qiziqish ortdi. Shu maqsadda kichik korxonalarning yopiq turdagi investitsiya fondlari tashkil etildi. Bunday fondlar birjada ro‘yxatdan o‘tmagan korxonalarga mablag‘larni qo‘yadilar. Fondning kapitali davlat obligatsiyasi ko‘rinishida investitsiya qilinishi mumkin emas. Shuningdek, boshqa yopiq fondlar tomonidan chiqarilgan aksiyalarga investitsiya qilish ham taqiqlanadi. Fondda o‘z aksiyalari ulushiga ega bo‘lgan kompaniyalar aksiyalarini sotishdan foyda olish yopiq fondning maqsadi hisoblanadi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalari iqtisodiyotda raqobat muhiti shakllanishidagi rolini to‘la amalga oshirishlari hamda unda sezilarli ta’sir o‘tkaza olishlari uchun ma’lum shart-sharoitlarga ega bo‘lishlari lozim. Jumladan, bu soha samarali faoliyat ko‘rsatishida unga xizmat ko‘rsatuvchi bozor infratuzilmasi masalalarining ahamiyati beqiyos. Bu borada ko‘plab xorijiy mamlakatlarda, jumladan, AQSHda ham ancha taraqqiy etgan tizim amal qiladi: kichik biznes va xususiy tadbirkorlikga ko‘maklashish va uni qo‘llab-quvvatlash ko‘plab nohukumat va jamoat tashkilotlari tomonidan ham amalga oshiriladi. Ular qatoriga kichik biznes va xususiy tadbirkorlik manfaatlarini ilgari suruvchi kichik biznes uyushmasi; 40 dan ortiq milliy tashqi savdo uyushmalari; 3,5 mingdan ortiq milliy savdo tashkilotlari, 40 mingdan ortiq mahalliy tashkilotlar, klublar va guruhlar kiradi [4].

Fransiyada texnoparklar yoki inkubatorlarni tashkil etish bo‘yicha umummilliy siyosati mavjud emas. Bu borada tashabbus mahalliy hokimiyatlar qo‘lida. Ularning turli ko‘rinishlari mavjud: o‘qitish, ilmiy-tadqiqot ishlari, xizmat ko‘rsatish, yerni ijaraga berish va hokazo.

Niderlandiyada 36 ta savdo palatasi mavjud. Barcha firmalar savdo palatasida ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lishlari va har yillik badalni to‘lashlari lozim. Palatalar hukumatdan subsidiyalar olmaydilar. Ular asosiy faollikni konsalting xizmatlari ko‘rsatish borasida namoyish etadilar. Bevosita o‘qitish, maslahat berish va kengash xizmatlarini ko‘rsatish borasida 12 ta mintaqaviy institutlardan iborat tarmoqqa ega bo‘lgan mustaqil tashkilot – kichik korxonalar instituti faol shug‘ullanadi.

Yaponiyada 500 ta mahalliy savdo-sanoat palatasi hamda ularning filiallari kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka turli ko‘rinishidagi moliyaviy, maslahat berish kasbiy jihatdan tayyorlash yordamini ko‘rsatadilar. Davlat kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini Kichik biznes moliyaviy korporatsiyasi, Milliy moliyaviy korporatsiya va “Soko-Chukin Banki” orqali budjetda jamg‘ariluvchi kichik korxonalarni qo‘llab-quvvatlashning maxsus fondi hamda xalq fondi orqali moliyalashtiradi [7].

Shuningdek, Yaponiyada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik uchun keng imtiyozli soliq tizimi qabul qilingan bo‘lib, u quyidagilarni ko‘zda tutadi:

- yakka tartibdagi kompaniyaning soliqqa tortilishi lozim bo‘lgan daromadidan korxona egasi va uning oila a’zolari mehnatiga haq to‘lash bo‘yicha shartli miqdorini chegirib tashlash;
- kichik korxonalar uchun soliqlarning quyi stavkalari; kichik korporatsiyalar foydasining bir qismini soliqqa tortishdan himoya qilish.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Agar kompaniyada davlatning ustuvor dasturlaridan birida ishtirok etsa, qo‘shimcha soliq imtiyozlariga ega bo‘lishi mumkin.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish borasidagi xorijiy tajribalar shuni ko‘rsatdiki, har bir mamlakatda, shu jumladan, O‘zbekistonda ham iqtisodiyotning ichki xususiyatlaridan kelib chiqqan holda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solishning samarali chora-tadbirlari tizimi ishlab chiqilishi va doimiy ravishda takomillashtirib borilishi kerak.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiyotda tadbirkorlik uchun qulay holat yaratib berish, jamiyatda kichik biznesga nisbatan samimiy munosabatni shakllantirish asosiy o‘rinda turadi. Shuning uchun ham hukumatimiz tomonidan mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab bu sektorni rivojlantirishga jiddiy e’tibor qaratilmoqda.

Turli manbalar hamda rivojlangan va rivojlanish bosqichiga kirayotgan xorijiy mamlakatlarning bu boradagi tajribalarini o‘rganish va tahlil etish jarayonidagi xulosalarimizga asoslanib mamlakat iqtisodiyotidagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning salmog‘ini oshirishga tatbiq etishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasini “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risidagi Farmoni. . 2020-yil 2-mart, PF-5953. www.lex.uz

2. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. “Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta’minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo‘shimcha chora- tadbirlar qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”. –T.: 2016-yil 29-dekabr, №O‘RQ–418.www.lex.uz
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida. – T.: 2017-yil 7-fevral, PF–4947-sonli O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. “Jahon banki va Xalqaro moliya korporatsiyasining “Biznes yuritish” yillik hisobotida O‘zbekiston Respublikasining reytingini yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida.–T.: 2019-yil 5-fevral, PQ–4160-sonli. www.lex.uz
4. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. –T.: O‘zbekiston, 2017. – 104 b.
5. Akbarova B.Sh. Xorijiy davlatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish tajribalari va uning O‘zbekistonda qo‘llanish imkoniyatlari// “Milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishda xorijiy investitsiyalar, raqamli iqtisodiyot va innovatsiyaning roli: milliy va xorijiy tajriba” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. 28.03.2019 TDYUU, 2019.
6. Axunova O.E. Djo‘rayev H.V. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy faoliyati va unga ta’sir etuvchi omillar. “O‘zbekistonda moliyaviy sektorning rolini oshirish va unda ilg‘or xorij tajribasidan foydalanish” mavzucidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. –T.: TMI, 2015.
7. Маширова Т.Н., Сабенова Б.Н., Сихымбекова А.М. Основные направления развития малого и среднего бизнеса: зарубежный опыт. // Ж. Экономика и финансы. №3. 2012. С. 31.
8. Aripov O.A., Shokirova G. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy jihatdan tartibga solishning xorijiy tajribalari. “O‘zbekistonda moliyaviy sektorning rolini oshirish va unda ilg‘or xorij tajribasidan foydalanish” mavzucidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. –T.: TMI. 2015.
9. B.K.G‘oyibnazarov, X.O.Rahmonov, Sh.I.Otajonov, D.S.Almatova. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik – mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni yuksaltirish omili. –T.:, Fan, 2011.
10. S.S.G‘ulomov. Tadbirkorlik va kichik biznes. –T.:, TDIU, 2002.

“STEKLOPLASTIK” MJCHNING BOZORDAGI STRATEGIK HOLATINI TAHLIL QILISH

Musyeva Shoira Azimovna
Samarqand iqtisodiyot va servis instiiuti Marketing kafedrasi professori

Annotatsiya: Mazkur maqolada korxonaning respublika mebel bozoridagi strategik holatini baholash va tahlil qilishda strategik marketingda keng qo‘llaniladigan SWOT-tahlil usuli, mahsulot sifati, mahsulot ishlab chiqarish va sotish natijalari, strategitk rejalashtirish bosqichlarini qo‘llash ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Korxona, mebel mahsulotlari, strategiya, tahlil, bozor, talab, taklif.

Abstract: In this article, the use of the SWOT analysis method, product quality, product production and sales results, strategic planning stages, which is widely used in strategic marketing, is considered in the assessment and analysis of the company’s strategic situation in the furniture market of the republic.

Key words: Enterprise, furniture products, strategy, analysis, market, demand, supply.

Аннотация: В данной статье рассматривается использование широко используемого в стратегическом маркетинге метода SWOT-анализа, качества продукции, результатов производства и продаж продукции, этапов стратегического планирования при оценке и анализе стратегической ситуации компании в мебельной отрасли. рынок республики.

Ключевые слова: Предприятие, мебельная продукция, стратегия, анализ, рынок, спрос, предложение.

KIRISH

O‘zbekiston mebel va yog‘ochga ishlov berish sanoati mamlakatimizda jadal rivojlanayotgan tarmoqlardan biridir. Agar bundan 5-8 yil avval mamlakatimiz ichki bozorini xorijiy ishlab chiqaruvchilar mahsulotlarining 65-70 foizi tashkil etgan bo‘lsa, bugungi kunda bozor sig‘imining qariyb 90 foizi yuqori sifatli mahalliy mahsulotlar bilan qondirilmoqda. Respublikada mebel ishlab chiqarish va yig‘ish bo‘yicha 1100 dan ortiq korxona faoliyat ko‘rsatsa, ularning 500 tasi Toshkent shahrida tashkil etilgan.

Mebel ishlab chiqarish korxonalari mamlakatmiz aholisining kundalik ehtiyojlarini qondirishda, turar joylarda munosib yashash sharoitlarini yaratishda katta ahamiyat kasb etadi. Har qanday yangi xonadon, yoki ishga tushirilgan ijtimoiy obyekt uchun mebel jihozlari zarur, demak iqtisodiyot rivojlangan sari mebel mahsulotlariga bo‘lgan talab oshib boradi. Bunga misol tariqasida 2022-yil yakunlariga bag‘ishlangan raqamlarni keltiramiz.

Yil yakunlari bo‘yicha mamlakatimizda jami 12078,1 ming kv.m. turar joylar qurilib foydalanishga topshirilgan. Bularning barchasi oshxona, yotoqxona, yumshoq va boshqa turdagi mebellar bilan jihozlanishini ko‘zda tutishimiz lozim. 2022-yilning yanvar-dekabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 311,4 ming nikoh qayd etildi, ya’ni shuncha yangi oilalarga ma’lum mebellar xarid qilinadi. Ijtimoiy sohaning rivojlanishini tahlil qiladigan bo‘lsak yil davomida 6032 yotoqqa mo‘ljallangan zamovaniy kasalxonalar, 19368 qatnovga mo‘ljallangan poliklinikalar, 77436 o‘quvchi o‘rni umumta’lim va ixtisoslashtirilgan maktablar qurib topshirilgan. Har bir qurilgan obyekt ixtisoslashuvga mos bo‘lgan mebel jihozlarini talab qiladi. Bundan tashqari kapital ta’mirlangan obyektlar, turli ofis va ma’muriy obyektlarning qurilishini hisobga olsak, mebelga bo‘lgan talabning bir qismi to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lish mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Xorijiy tajribalarga tayanib shuni ta’kidlash lozimki, marketing tamoyillarini rivojlantirish va ularni amaliyotda qo‘llash bo‘yicha kuplab iqtisodchi olimlar shug‘ullanib kelgan. Ular qatoriga F.Kotler, M.Porter, D.Evans, I.Ansoff, M.Berman, M.Golubkov, P.Samuelson, D.Marshall kabi taniqli olimlarni kiritishimiz mumkin.

Mamlakatimizda qator yillar davomida marketing sohasida olib borilgan izlanishlar milliy xususiyatlardan kelib chiqqan holda iqtisodiyotda marketing nazariyasini rivojlantirishga katta hissa qo‘shgan olimlarni ham e’tirof etish lozim. Bularga M.Muxammedov, M.Pardaev, R.Ibragimov. YO.Abdullaev, A.Saliev, M.SHarifxo‘jaev, B.Xodiev, D.Raximova, R.Boltaboev, D.Ergashxodjaeva va boshqalarni kiritish mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, abstrakt-mantiqiy fikrlash, guruhlash, taqqoslash, omilli tahlil, tanlanma kuzatish usullaridan foydalanilgan

TAHLIL VA NATIJALAR

Mebel ishlab chiqarishning ishlab chiqarish jarayoni korxonaga kiradigan xom ashyo va materiallarni tayyor mahsulotga aylantirish bilan bog‘liq barcha jarayonlar majmuyidir. U mashinalar, asboblar va ishchilar mehnatining mahsulot ishlab chiqariladigan xom ashyo va materiallarga bevosita ta’sirini o‘z ichiga oladi. Mebel ishlab chiqarishning texnologik jarayonining asosiy bosqichlari yog‘ochni quritish, uni kesish, qo‘pol blankalarni qayta ishlash, ularni yopishtirish va shponlash, tayyor blankalarni qayta ishlash, qismlarni birliklarga yig‘ish, ishlov berish birliklari, pardozlash agregatlari va qismlarini yig‘ish dolzarbdir.

Hozirgi vaqtda “Stekloplastik” OAJning asosiy faoliyati Uzbekiston Respublikasi umumiy urta ta’lim, maktabgacha ta’lim va tibbiet muassasalarini ixtisoslashgan mebel va sport jihozlari bilan ta’minlashga yo‘naltirilgan. Korxona 180 nomdan ortik assortimentda ixtisoslashgan mebel va sport jihozlarini ishlab chiqaradi, shu jumladan:

- 60 nomdan ortiq ukuv mebellari;
- 20 nomdan ortiq maktabgacha ta’lim muassasalari mebeli;
- 20 nomdan ortiq tibbiet mebeli;
- 50 nomdan ortiq sport jihozlari;
- 30 nomdan ortiq ofis va maishiy mebeli;
- stekloplastik materiallardan yana birkancha har kil mahsulotlar.

“Stekloplastik” OAJning asosiy xaridorlari vazirliklar, mahalliy hokimliklar, injiniring kompaniyalar va “Uzmedeksport” kompaniyasi bilan faoliyat olib boradi. “Stekloplastik” OAJ Osiyo banki tomonidan ta’limni rivojlantirish dasturi bo‘yicha e’lon qilingan tenderlarga asosan mebellar ishlab chiqarishni yo‘lga quygan.

“Stekloplastik” OAJning ishlab chiqarish faoliyatida qo‘llaniladigan xom ashyoning 70% mahalliy ishlab chiqarish korxonalaridan olinganligi sababli mahsulot narxi iste’molchilar uchun qulaylik tug‘diradi va import mahsulotlarga nisbatan ancha arzon. Korxona ishlab chiqaradigan mahsulot sifati O‘zbekiston Respublikasi standartizatsiya va metrologiya markazining sifat sertfikatlari va 14 patentlari bilan tasdiklangan.

Bundan tashkari “Stekloplastik” OAJda ISO 9001:2000 jahon standartlariga muvofiq sifat menejmenti tizimi joriy qilingan.

Bugungi kunda “Stekloplastik” OAJdagi mehnat jamoasi 300 kishiga yaqin bo‘lib, ularning aksariyati yuqori malakali mutaxassislardir. Ishchilarning o‘rtacha oylik ish haqi 2740 ming so‘mni tashkil qiladi.

“Stekloplastik” OAJ maishiy mebel bozorida ham faol siyosat olib bormoqda. 2005–2006-yillarda yangi turdagi ofis va xo‘jalik mebellar ishlab chiqarishni tashkil qilish natijasida 20 dan ortik ish joylari tashkil qilindi va sotish hajmini oshirishga erishildi. Bugungi kunda bunday mebellar iste’mol krediti asosida xaridolrlarga yetkazib beriladi.

Oxirgi yillarda ishlab chiqarishni takomillashtirish maqsadida korxona tomonidan xorijiy davlatlarda ishlab chiqariligan kator maxsus jihozlar va texnologik liniyalar xarid qilindi va ishga tushirildi. Shularga TURANLAR (Turkiya), YING LING Machinery (Tayvan), eRMAKSAN (Turkiya) hamda Xitoyning bir qancha jihozalirini kiritish mumkin. Ushbu jihozlar ishlab chiarish operatsiyalarni takomillashtirishga va shuning natijasida mahsulot sifatini oshirishga yordam bermoqda.

Oxirgi yillar ichida “Stekloplastik” OAJ Respublikamizning 1000 dan ortiq maktabgacha ta’lim muassasalari, maktablar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlar, oliy oquv yurtlarini yuqori sifatli zamonaviy mebellar bilan jihozlashga erishdi.

Korxonaning umumiy maydoni 13,2 gektarni tashkil etadi. Ishlab chiqarish binolarining maydoni 2,4 gektarni tashkil qiladi. Korxonada 252 kishi ishlaydi.

2021-yilda ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 68,1 milliard so‘m yoki 6 million so‘mni tashkil etdi – 190 ming AQSH dollari.

Korxonaning asosiy faoliyati quyidagilardan iborat:

- shisha tolali mahsulotlar
- Tibbiy mebel va jihozlar
- sport anjomlari va jihozlari
- Ta'lim muassasalari uchun ixtisoslashtirilgan mebellar
- Ofis mebellari
- Metall buyumlar

"Stekloplastik" MCHJning 2022-yildagi ishlab chiqarish faoliyatini quyidagi jadvalda va diagrammada ko'rishimiz mumkin. (1-jadval)

1-jadval: 2022-yilda "Stekloplastik" MCHJ sida mahsulot ishlab chiqarish va sotish natijalari

T.r	Mahsulot turlari	Summa, mlrd.so'm	Hissasi, %
1	Tibbiy jihozlari	7800	8
2	Maxsus laboratoriya jihozlari	6700	6
3	Sport anjomlari	3300	3
4	O'quv va ofis mebellari	28300	27
5	Stekloplastik mahsulotlari	21000	20
6	Bolalar maydonchasi va vorkaut	14200	14
7	Metall mahsulotlari	4200	4
8	Bolalar mebellari	18500	18



1-rasm: "Stekloplastik" MCHJ mahsulot ishlab chiqarish assortimenti

Keyingi jadvalda "Stekloplastik" MCHJning 2021-2022-yillarda ishlab chiqarish faoliyatining solishtirma ma'lumotlari keltirilgan.

2-jadval: 2021-2022-yillarda “Stekloplastik” MCHJ da ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmining o‘zgarishi

№	Mahsulot nomenklaturasi	2021		2022	
		Soni	Summa, mln.so‘m	Soni	Summa, mln.so‘m
1	Tibbiy jihozlari	13467	7230	20822	7800
2	Maxsus laboratoriya jihozlari	54496	5860	76478	6700
3	Sport anjomlari	540	2500	537	3300
4	O‘quv va ofis mebellari	6179	2640	6260	28300
5	Stekloplastik mahsulotlari	250	18540	1203	21000
6	Bolalar maydonchasi va vorkaut	220344	136	191232	14200
7	Metall mahsulotlari	136526	2200	124724	4200
8	Bolalar mebellari	144450	14680	158847	18500
	Jami	**576252**	**53726**	**580103**	**104000**



2-rasm: “Stekloplastik” MCHJsining 2021-2022 yillardagi mahsulot ishlab chiqarish dinamikasi

Ushbu diagrammadan ko‘rish mumkinki, “Stekloplastik” MCHJ mahsulot assortimentining asosiy guruhlari bo‘yicha ishlab chiqarish notekis bo‘lgan. Masalan, o‘quv va ofis mebellarini ishlab chiqarish keskin oshib ketgan, bolalar mebellari esa deyarlik o‘zgarmagan. Bolalar maydonchasi va vorkaut mebellar guruhi 20212-yildagi kashfiyot desak hakm bo‘ladi, chunki uning ishlab chiqarilish juda ko‘paygan.

Umumiy ma’lumtolardan kelib chiqqan holda, korxonaning respublika mebel bozoridagi strategik holatini baholashga o‘tamiz. Bunda “Stekloplastik” MCHJning holatini va tutgan o‘rnini tahlil qilishda strategik marketingda keng qo‘llaniladigan SWOT-tahlil usulidan foydalanamiz. Ushbu usulda ikki o‘lchamli matritsaga korxonaning kuchli va kuchsiz tomonlari, imkoniyatlar va xavf-xatarlarni kiritamiz va ularni tahlil qilamiz (3-jadval).

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

3-jadval: “STEKLOPLASTIK” MCHJ kuchli va kuchsiz tomonlari tahlili

Kuchli tomonlari (S)	Kuchsiz tomonlari (W)
Texnologik ixtisoslashuv; Bozorning alohida segmentiga yo‘naltirilganlik; Ko‘p yillik tajriba; Yuqori malakali personal.	Yangi jihozlar ulushining kamligi; Faqat yuridik shaxslarga xizmat ko‘rsatish; Assortiment yangilanishi sust; Raqobatchilarga nisbatan faol harakat qilmaslik; Moliyaviy muammolar.
Imkoniyatlar (O)	**Xavf-xatarlar (T)**
Davlat tomonidan sohani qo‘llab-quvvatlash; Investitsion dasturlarning hajmini oshishi; Mebelsozlik texnologiyalarning kirib kelishi.	Maxsus mebel bozoridagi modalar o‘zgarish tezligi; Iste’molchilar tarkibining o‘zgarishi; Yangi raqobatchilar ko‘payishi; Ofis texnologiyalarining o‘zgarishi.

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki “Stekloplastik” MCHJning maxmus mebellar bozoriga ixtisoslashuva uning kuchli tomonlarini asoslab beriadi va imkoniyatlarini kengaytiradi. SHu bilan birga texnologiyalarning cheklanganligi va aasortimentning chuqur ixtisoslashuvi korxonaning xavf-xatarlarini vujudga keltiradi.

SWOT-taxlidagi omillarning ta’sirini har tomonlama o‘rganish natijasida marketing strategiyasining asosiy variantlari yuo‘yicha umumiy xulosaga kelinadi. (4-jadval)

4-jadval: SWOT tahlili asosida “STEKLOPLASTIK” MCHJ tanlaydigan marketing strategiyalari matritsasi

	Kuchli	Kuchsiz
Imkoniyat	Imkoniyatlarga asoslangan kuchli tomonlarni rivojlantirish strategiyasi.	Imkoniyatlarga asoslangan kuchsiz tomonlarini bartaraf qilish strategiyasi
Xavf-xatar	Kuchli tomonlarni xavf-xatarga qarshi qo‘llash strategiyasi.	Xavf-xatardan qochish, boshqa segmentga o‘tish strategiyasi

Ushbu jadvalda mavjud SWOT-tahlil natijalari bo‘yicha “Stekloplastik” MCHJsi tomonidan qo‘llashda jozibador marketing strategiyalari ko‘rsatilgan.

Keltirilgan to‘rrta strategiyasidan barchasi “Stekloplastik” MCHJ korxonasi uchun qo‘llashga mos bo‘lgan bilan ularni amalga oshirish uchun bir qancha shartlar bajarilishi lozim bo‘ladi. Shuning uchun bizlar korxona mahsulotlari assortimentini taxlal qilish zarur, deb hisoblanidk. Tahlilning birinchi usuli bu BCG martitsasini tuzishdir (5-jadval)

5-jadval: “STEKLOPLASTIK” MCHJ assortimentining “Boston konsalting grupp” matritsasi asosida tahlil qilish

“Yulduzlar”	“Sog‘in sigirlar”
Maxsus laboratoriya jihozlari Bolalar mebellari Bolalar maydonchasi Stekloplastik mahsulotlari	Tibbiy jihozlari O‘quv, ofis mebellari Basseynlar, Kayiklar va suv atraksionlari
Avtobus ehtiyot kismlari Vorkaut	Plastmassa mahsulotlari Sport anjomlari Metall mahsulotlari
“So‘roq belgisi”	**“Itlar”**

BCG-matritsasining tahlili bo‘yicha “Stekloplastik” MCHJ assortmentining “so‘roq belgilari”ga ikki xil mahsulot kiritiladi, ya’ni avtobus ehtiyot qismlari va vorkaut, “yulduzlar”ga maxsus laboratoriya jihozlari, bolalar mebellari, bolalar maydonchasi va stekloplastik mahsulotlari. “Sog‘in sigirlar”ga quyidagi mahsulotlar kiritilgan: tibbiy jihozlari, o‘quv, ofis mebellari, basseynlar, qayiklar va suv atraksionlari. Mahsulotlar ichida kam foyda keltiradigan va talab barqaror bo‘lmaydiganlarga plastmassa mahsulotlari, sport anjomlari va metall mahsulotlari kiradi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, “Stekloplastik” MCHJ ning qiymatiga ta’sir ko‘rsatuvchi ichki omillarni korxonaning o‘zi o‘z foydasiga ijobiy imkoniyatiga ega. Tashqi omillar esa bevosita Hukumat va bozor ta’siri ostida korxonaning qiymatiga ta’sir ko‘rsatadi. Buning uchun korxonaning o‘zi tashqi muhitga moslashishi lozim. Olib borilgan nazariy va amaliy izlanishlar marketing strategiyasining zamonaviy tendensiyalariga bag‘ishlangan bo‘lib “Stekloplastik” MCHJ misolida bajarilgan. Izlanishlar natijalari quyidagi xulosalarga asos bo‘lmoqda.

Zamonaviy marketing nazariyasidagi ilmiy va uslubiy tadqiqotlar ushbu fanda strategik fikrlashning ustuvorligini amalda ko‘rsatmoqda. Fanning tarkibida strategik marketing uslubiyati va yondashuvlarining doimiy takomillashib borishi, bugungi kun marketingida yangicha usullar va jarayonlarga asos bo‘lmoqda. Bulardan biri strategik tahlil uslubiyatidir.

Sanoat korxonalarida marketingning rivojlanishi boshqaruvda strategik marketing tizimining shakllanishiga olib kelmoqdaa. Bunda strategitk rejalashtirish bosqichlarini qo‘llash, strategik marketing tamoyillaridan foydalanish hamda strategik tahlil bo‘limlarining tashkil qilinishini ko‘rsatish mumkin.

Marketing strategiyasini yaratish korxonalarda o‘ziga xos tahliliy usullarini qo‘llashni taqozo qiladi. Ushbu usullarning yo‘nalishlaridan biri matritsali tahlillar usuli hisobalanadi. Ushbu usulning mohiyati shundaki, barcha tahlil qilinadigan ko‘rsatkichlar va omillar matritsa shakliga keltiriladi. Ushbu usullar qatoriga PESTEL tahlili, SVOT-tahlili, raqobatchilarning strategik xaritasi, BKG matritsasi va boshqalar qiradi. Har bir qo‘llanilgan matritsaning korxona strategik tahlilidagi o‘z o‘rni bor.

Adabiyotlar:

1. Gary Armstrong. Philip Kotler. Michael Marker. Marketing in introduction. England, 2016, paperback: 720 pages, Pearson.
2. Philip Kotler. Kavin Lane Ketler. Marketing Management. Pearson Education, Inc. publishing as Prestige Hall, USA,2012y.
3. Kotler F., Armstrong G., Vong V., Sonders Dj. Osnovы marketinga, 5-e evropeyskoe izd. Uchebnik. – M.: OOO “I.D.Vilyams, 2013. – 752 s.
4. Soliev A., Vuzrukxonov S., Marketing, bozorshunoslik. Darslik. – T.: Iqtisod-Moliya, 2010. – 424 b.
5. Ergashxodjaeva SH.J., Qosimova M.S., Yusupov M.A. Marketing. Darslik. – T.: TDIU, 2011. – 202 b.
6. Musaeva Sh.A. Marketing tadqiqotlari. Darslik “STAR-SEL” MChJ nashriyot va ijodiy bo‘limi. Samarqand-2023
7. Musaeva Sh.A. Integrallashtirilgan marketing kommunikatsiyasiO‘quv qo‘llanma “Mahorat” nashriyoti, Samarqand – 2022
8. Musaeva Sh.A., Usmonova D.I. Innovatsion marketing “TURON EDITION” 2021 yil uchun o‘quv qo‘llanma.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

AGRAR SEKTORDA EKOLOGIK TOZA MAHSULOTLARNI ISHLAB CHIQARISHNING NAZARIY MASALALARI

M. Sh. Nazarova
katta o‘qituvchi, SamDVMCHBU

Z. S. Kazakova
katta o‘qituvchi, SamDVMCHBU

Annotatsiya: Maqolada ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish orqali qishloq xo‘jaligi korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish imkoniyatlari asoslanadi. Mualliflar ekologik toza mahsulotlarini ishlab chiqarishda tashkilotning asosiy qulay va noqulay omillarini aniqladilar.

Kalit so‘zlar: raqobatbardoshlik, ekologik toza mahsulotlar,raqobat strategiyasi, marketing, organik mahsulot, mahsulot narxi, aholi fikri.

Abstract: The article analyzes the development of the market for environmentally friendly products in the agricultural sector, examines factors for the development of agro-industrial infrastructure, identifies the main reasons for consumers' refusal to purchase organic products, considers the issues of certification of agricultural producers of organic products in Russian regions, and formulates measures of state stimulation for the development of the market for environmentally friendly products.

Key words: competitiveness, environmentally friendly products, competitive strategy, marketing, organic products, product price, public opinion.

Аннотация: В статье выполнен анализ развития рынка экологически чистых продуктов в сфере АПК, рассмотрены факторы развития агропромышленной инфраструктуры, выявлены основные причины отказа потребителей от покупки органической продукции, рассмотрены вопросы сертификации сельскохозяйственных производителей органической продукции в российских регионах, сформулированы меры государственного стимулирования развития рынка экологически чистой продукции.

Ключевые слова: конкурентоспособность, экологически чистая продукция, конкурентная стратегия, маркетинг, органическая продукция, цена продукции, общественное мнение.

KIRISH

So‘nggi o‘n yillikda oziq-ovqat mahsulotlari va oziq-ovqat xom ashyosi sifati muammosi keskinlashdi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari odamlar uchun zarur bo‘lgan katta miqdordagi uglevodlar, minerallar va vitaminlarning asosiy manbayi bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qoladi. Davlatning milliy muammosi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sifatini oshirishdan iborat. Eng muhimi, qishloq xo‘jaligi xodimlarini qiziqtiradigan ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish va sotish mexanizmini yaratish zarurligi masalasi muhokama qilinmoqda. Bu hozirgi vaqtda dolzarbdir, chunki agrosanoat majmuasi iqtisodiyotini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlarga qaramay, qishloq xo‘jaligidagi vaziyat keskinligicha qolmoqda: ko‘p yillar davomida qishloq

xo‘jaligi mahsulotlarining asosiy turlari, chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish, shuningdek, parrandachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi oshgani yo‘q .

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI.

Ushbu masalaning turli yo‘nalishlari xorijiy va rus olimlarining tadqiqot obyekti hisoblanadi. Dunyoning bir qator mamlakatlari olimlari organik dehqonchilik sohasida uslubiy asoslarni ishlab chiqish va eksperimental tadqiqotlar bilan mashhur, jumladan, Шульце Э., Пахомова Н.В., Нестеренко Н.Ю., Крылова Ю.В., Рихтер [6, 13, 16-18].

Mualliflarning ishlari barqaror rivojlanish kontekstida organik qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning zamonaviy yo‘nalishlarini o‘rganadi, mintaqaviy, milliy va xalqaro miqyosda strategiyalarni ishlab chiqadi.Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini barqaror va samarali rivojlantirish, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, bu boradagi innovatsion loyihalarni ham ilmiy, ham amaliy jihatdan boshqarishga hissa qo‘shgan rossiyalik olimlardan. PirusovE. B., Bobilev S.N., Novoselov A.L. [2, 3, 11]. Ilmiy ishlarda huquqiy qo‘llab-quvvatlash modeli asosida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida ekologik sof mahsulotlarni yaratish muammolarni hal qilishda yangi ijtimoiy va innovatsion yondashuvlar asoslangan.

Tahlil va natijalar

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-martdagi “O‘zbekiston Respublikasida ekologik sof meva-sabzavotchilikni jadal rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5388 va 2019-yil 23 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5853-sonli Farmonlari.

Shunday qilib, ekologik toza qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifadir. Energiyani tejaydigan yangi texnologiyalarni joriy etish, sifatli xomashyo xarid qilish, zamonaviy asbob-uskunalar o‘rnatish zarur , bu esa pirovard mahsulot narxining oshishiga olib keladi. Jamiyat bunday yangiliklarga tayyormi?. Bugungi kun iste’molchisi uchun nima muhimroq: narx, mahsulot sifati, ekologik xususiyatlari?. Aholi o‘rtasida so‘rov o‘tkazildi va quyidagi savollar berildi.Fuqarolarga berilgan asosiy savollar quyidagilar edi:

1. Ekologik toza mahsulotlar nima ekanligini bilasizmi?
2. Sizningcha, “xavfsiz mahsulotlar” va “ekologik toza mahsulotlar” tushunchalari o‘rtasida farq bormi?
3. Mahsulotlarni tanlashda siz uchun eng muhimi nima?
4. Agar sinovdan o‘tmagan shunga o‘xshash mahsulotlarga nisbatan qimmatroq bo‘lsa, ekologik toza mahsulotlarni sotib olishga tayyormisiz?
5. Eko-mahsulotlarni qayerdan sotib olish siz uchun osonroq bo‘ladi ?
6. Chet el yoki mahalliy eko-mahsulotlar sizga ko‘proq ishonch uyg‘otadimi va nima uchun?

So‘rovda turli yoshdagi (20-50 yosh), ta’lim darajasi va daromadi b turlicha bo‘lgan 155 kishi ishtirok etdi. Ekologik mahsulotlar nima ekanligini bilasizmi, degan savolga respondentlarning 83 foizi ijobiy javob berdi, faqat 17 foizi bilmaydi (1-rasm). Ularning 90% xavfsiz va ekologik toza mahsulotlar o‘rtasidagi farqni ko‘radi.



1-rasm: Ekologik mahsulotlar nima ekanligini bilasizmi?
Xavfsiz va ekologik toza mahsulotlar o‘rtasida farq bormi?

Biroq ulardan ba’zilari quyidagi javoblarni berdilar: “ Eko -mahsulotlar tabiiy, ekologik toza va xavfsiz mahsulotlardir”; “Xavfsiz mahsulotlarni faqat ekologik toza, ya’ni toksik bo‘lmagan, xavfsiz, zararsiz deb hisoblash mumkin”; “Eko-mahsulotlar – yetishtiriladigan, kimyoviy moddalar va qo‘shimchalarsiz yaratilgan”; “Odamlar uchun xavfsiz mahsulotlar genetik modifikatsiyalangan mahsulotlardan yaratilishi mumkin mahsulotlar va bosh-

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

qalar.” Tahlil qilsak, jamiyatda ushbu ta’riflarning noaniq, aniq bo‘lmagan tushunchasini kuzatish mumkin, deb aytishimiz mumkin. Shuning uchun, keling, ekologik toza va xavfsiz mahsulotlarning mohiyatini eslaylik.

Qonun talablariga javob beradigan mahsulotlar ekologik toza, ya’ni ozuqaviy ahamiyatga ega, salomatlikni mustahkamlovchi hamda iste’mol qilish natijasida inson organizmiga kanserogen, mutagen yoki boshqa salbiy ta’sir ko‘rsatmaydigan mahsulotlar hisoblanadi; Ekologik toza mahsulotlarning huquqiy holati tegishli sanitariya va veterinariya normalari va qoidalari bilan belgilanadi.

Xavfsiz mahsulotlar tibbiy va biologik qoidalar, standartlar, texnik shartlarda belgilangan ekologik talablar va ko‘rsatkichlarga mos kelishi , inson hayoti va sog‘lig‘iga xavf tug‘dirmasligi kerak. Bunday mahsulotlarda zaharli moddalar faqat odamlar uchun ruxsat etilgan maksimal konsentratsiyalarda bo‘lishi mumkin [2. b.7-10].

Iste’molchilar uchun mahsulot tanlash omillarining ahamiyati masalasi ham kichik ahamiyatga ega emas. Iste’mol bozorining rivojlanishining zamonaviy sharoitida xaridor tovarlarni tanlashda birinchi navbatda mahsulot tarkibi (39%) va narxi (28%) to‘g‘risidagi ma’lumotlarni boshqaradi. Shuningdek, ular uchun yorliqda mahsulot sifati va xavfsizligini tasdiqlovchi turli belgilar (19%), shuningdek, foydalanish va iste’mol qilish qulayligi (13%) bo‘lishi muhimdir.

Respondentlarning fikricha, ahamiyatsiz bo‘lgan omillar ham kuzatilgan. Yaxshi xabar shundaki, ommaviy axborot vositalarida va ko‘chada mahsulotlarni reklama qilish, tovar xabardorligi katta rol o‘ynamaydi va mahsulot tanlashga kam ta’sir qiladi. Xaridorning so‘zlariga ko‘ra, bugungi kunda aynan mahsulot tarkibi uning tarkibiy qismlarining sifati va tabiiyligi haqida eng ishonchli ma’lumotni berishi mumkin. Shuningdek, konservantlar, kimyoviy oziq-ovqat qo‘shimchalari va boshqalarning salbiy ta’siri haqida yuqori darajada xabardorlik mavjud. Aholining bu masalaga qiziqishi shu darajaga yetdiki, ishlab chiqaruvchilar barcha quvvatlarni ekologik toza qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishga o‘tkazish imkoniyatlari haqida o‘ylasin. 19 foizi mahsulotning sog‘liq uchun xavfsizligini tasdiqlovchi qadoqdagi turli belgilar mavjudligiga e’tibor beradi, 59 foizi esa turli ramzi va belgilarga ishonmaydi. Ularning fikriga ko‘ra, eko-mahsulotlar ishlab chiqaruvchilarga qo‘yiladigan qat’iy talablarga qaramay , ko‘plab mahalliy ishlab chiqaruvchilar na sertifikatsiyadan, na ekologik baholashdan o‘tmasdan, o‘z mahsulotlarining qadoqlariga “BIO” yoki “Ekologik toza mahsulot” belgilarini qo‘yishadi va narxlarni avtomatik ravishda oshiradilar.

Respondentlarning aksariyati ekologik toza va xavfsiz mahsulotlarni sotib olishga pul sarflashga tayyor (2-rasm). Ekologik toza mahsulotlar qimmatroq bo‘lsa, sotib olishga tayyormisiz, degan savolga fuqarolarning 43 foizi sinovdan o‘tmagan o‘xshash mahsulotlarga nisbatan 10 foizga oshgan bo‘lsa ham, roziman, deb javob berdi. Agar narx 20 foizga oshsa, bunday xaridorlar soni kamayadi, ekologik toza mahsulotlar 30 foizga qimmatroq bo‘lsa ham, bunday mahsulotlarni afzal ko‘radiganlar topiladi . Bu juda yuqori ko‘rsatkichlar bo‘lib, iste’molchi ishlab chiqaruvchidan faqat yuqori sifatli, ekologik toza va xavfsiz mahsulot kutishini ko‘rsatadi.



2-rasm: Ekologik toza tovarlar narxining oshishi

Alohida do‘konlarda ekologik toza mahsulotlarni sotish fuqarolar orasida katta qo‘llab-quvvatlanmadi, ammo baribir 19% ularga tashrif buyurishga tayyor. Aksariyat iste’molchilar uchun ixtisoslashtirilgan bo‘limlarda yoki boshqa mahsulotlarning umumiy massasida xarid qilish qulay bo‘ladi, lekin maxsus narx belgilari bilan ta’kidlangan (3-rasm).

Mahalliy ekologik toza mahsulotlar fuqarolar tomonidan ko‘proq ishonchga ega bo‘lib, ular respondentlarning 61 foizi, xorijiy mahsulotlarni esa 25 foizi tanlagan.



3-rasm: Ekologik mahsulotlarni qayerdan sotib olish osonroq bo‘ladi?

14% uchun ishonchga asoslangan gradatsiya qilishning ma’nosi yo‘q, chunki ularning fikriga ko‘ra, ikkalasi ham ekologik xavfsiz va xavfsiz yoki iste’mol uchun yaroqsiz bo‘lishi mumkin . Mahalliy ishlab chiqaruvchini tanlashning asosiy sabablari mahsulotlarning tabiiyligi va ekologik tozaligi g‘oyasi edi . Respondentlarning aksariyati o‘zini o‘z mamlakatining vatanparvari deb bilishi juda quvonarli: “...bizda organik mahsulotlar yetishtirish mumkin bo‘lgan ulkan hududlar bor, faqat tabiatni qadrlashni o‘rganish kerak”; “Inson o‘zi o‘sib-ulg‘aygan va yashaydigan hududda etishtirilgan va ishlab chiqarilgan mahsulotlarni iste’mol qilishi kerak”. Ammo shunga qaramay, 25% chet elniki yaxshiroq ekanligiga ishonch hosil qiladi: “...Ma’lumki, bu soha xorijda uzoq vaqtdan beri rivojlangan va u yerdagi talablar va sifat nazorati biznikiga qaraganda ancha yuqori”. 14% bozor soxta va soxta narsalar bilan to‘ldirilganiga ishonishadi va shuning uchun mahsulotlarni o‘z xavflari bilan sotib olishadi.

Qishloq xo‘jaligi yerlarining ifloslanishi va eroziyasi tufayli sifatsiz va xavfli oziq-ovqat mahsulotlarining ko‘payishi hisoblanadi. Oziq-ovqat bozorining sifatsiz import va mahalliy oziq-ovqat mahsulotlari bilan to‘lib ketishi oziq-ovqat mahsulotlarining sifati va xavfsizligi muammosini yanada kuchaytirmoqda [2, 7-10-betlar].

Oziq-ovqat mahsulotlari sifati pastligining asosiy sababi import qilinadigan oziq-ovqat mahsulotlari sifati ustidan tegishli nazorat va iste’mol bozorini himoya qilishning samarali tizimi yo‘qligidir [3]. Shu munosabat bilan qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilarini o‘z mahsulotlari sifati va xavfsizligiga e’tibor qaratishga majburlovchi mexanizmni ishlab chiqish va joriy etish zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Hozirgi vaqtda Respublikada ushbu sohada davlat rivojlanishining asosiy vositalaridan biri “2020-2025-yillarda qishloq xo‘jaligini rivojlantirish va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, xom ashyo va oziq-ovqat bozorlarini tartibga solish bo‘yicha Davlat dasturi” hisoblanadi. Biroq uni amalga oshirish hali kutilgan samarani bermadi. Agrosanoat kompleksini viloyatlar va mintaqaviy darajada qo‘llab-quvvatlash mexanizmi, bir qator aniq kamchiliklarga ega: hududlarda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilarini maqsadli moliyaviy qo‘llab-quvvatlash yo‘q, chunki uning funksiyalarining muhim qismi viloyat darajasida amalga oshiriladi; qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilarining ehtiyojlarini hisobga olgan holda uni amalga oshirish mexanizmi belgilanmagan; qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida rentabellikni ta’minlash va risklarni kamaytirishda davlat kafolatlari tizimi samarasiz; Qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash asosan stixiyali, amalga oshirilayapti.

Hududlarda organik qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning birinchidan amaldagi va potensial iste’molchilar uchun yangi qiymat yaratishni tartibga solish bilan birgalikda organik mahsulotlar sifati va xavfsizligi to‘g‘risida aholining xabardorligini oshirish bilan bevosita bog‘liq. Ushbu yo‘nalishdagi davlat siyosatining asosiy maqsadi ekologik yo‘naltirilgan iste’molchilar sonini ko‘paytirish va yashil xarid qilish xulq-atvorini kengroq targ‘ib qilishdan iborat bo‘lishi kerak.

Ikkinchidan – barqaror tashkiliy-huquqiy tizimni yaratish va hududlarda investitsiya loyihalarini ustuvor davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashni amalga oshirishdir. Avvalo, organik dehqonchilikni rivojlantirish, sifatli, to‘liq va xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy jihatdan qo‘llab-quv-

vatlash haqida gapirish kerak. Buning uchun davlat yordamini talab qiladi: organik mahsulotlar ishlab chiqaruvchilarning yoqilg‘i, o‘g‘itlar, uskunalar sotib olish xarajatlarining bir qismini qoplash, ekologik toza mahsulotlarni davlat xaridlarini joriy etish, “ekologik” soliqqa tortish tizimini isloh qilish, ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirish. Bu sohaga “toza” texnologiyalar va davlat investitsiyalari. Ushbu sohaga sarmoya kiritish uchun iqtisodiy shart-sharoitlarni yaratish uchun imtiyozlar, subsidiyalar yoki kafolatlar orqali davlat tomonidan yanada muhimroq yordam talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. PirusovE. B., Bobilev S.N., Novoselov A.L., Tabiiy resurslar ekologiyasi va iqtisodiyoti. – M., 2002-y.
2. Yarandaikin R.S. Ekologik toza qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotishning tashkiliy-huquqiy muammolari: Dis . ... Yuridik fanlar doktori . Fanlar: 12.00.06: Moskva, 1999 349 b. RGB OD, 71:01-12/51-5
3. Gordyshevskiy S.M. Ekologik belgilar ekologik xavfsizlik va hayot sifatini yaxshilashning samarali vositasidir. Elektron. versiya: http://www.ecochistyproduct.ru/rights_base/razdel31_28
4. Shavkat Hasanov. Agricultural Polices To Enhance The Development Of Fruit And Vegetable Subsectors In Uzbekistan. European Scientific Journal May 2016 edition vol.12, No.13 ISSN: 1857 – 7881 (Print) e – ISSN 1857-7431
5. Шульце Э., Пахомова Н.В., Нестеренко Н.Ю., Крылова Ю.В., Рихтер К.К. Традиционное и органическое сельское хозяйство: анализ сравнительной эффективности с позиции концепции устойчивого развития // Вестник Санкт-Петербургского университета. – 2015. – № 4. – с. 4-39.
6. Salamov. I., Nazarova. M. Sh., Kazakova. Z.S., Jonibekov F. Ta’minlangan yoshlar bandligi va qashshoqlikni kamaytirish infratuzilmasi tashkiloti sayohatlar Iqtisodiy samaradorlikni oshirish imkoniyatlari. Mikrobiologiya tadqiqotlari jurnali Onlayn nashr etilgan maqola 2022 yil oktabr, jild. 15, 2-son.
7. Казакова, З. С., Назарова, М. Ш. (2023). Состояние и тенденции развития сельского хозяйства вУзбекистане. Научный Фокус, 1(7), 681-686.
8. Nazarova M.SH.,Turdimurodov O. Kelajak iqtisodiyotini cheklangan resurslar bilan qondirishni takomillashtirish yo‘llari. Veterinariya va chorvachilik sohasida dolzarb muammolar va ularning yechimi” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami. Samarqand, 2023-yil (462-464)
9. Salamov I.,Jonibekov F.B., Nazarova M.Sh. Chorvachilik va o‘simlikshunoslik mahsulotlarini ishlabchiqarish hamda sotishda innovatsion texnika va texnologiyalarning iqtisodiy samaradorlikga ta’siri. Veterinariya va chorvachilik sohasida dolzarb muammolar va ularning yechimi” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari-to‘plami. Samarqand, 2023.
10. Nazarova M.,Turdimurodov O. Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning o‘rni. O‘ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR” JURNALI 20-fevral,27-son.

METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF BANK LENDING AND CLASSIFICATION OF FACTORS AFFECTING THE FEATURES OF OBTAINING LOANS

Raxmanova Laylo bahodirovna
Master of degree, Samarkand Institute of Economics and Service

A. Karimova
Scientific supervisor, Samarkand Institute of Economics and Service

Abstract: The article discusses the methodological foundations of bank lending, the essence of bank lending, as well as the systematization of approaches to classifying factors in the process of crediting enterprises, classified as business entities. The factors influencing the lending process are classified.

Key words: bank lending, consumer, tourism products, economy, tourism, private business, tourism activity, small enterprises.

Annotatsiya: Ushbu maqolada bank kreditlash operatsiyalarining metodologik asoslari, bank kreditlashning mohiyati, shuningdek, tadbirkorlik subyektlariga kiruvchi korxonalarni kreditlash jarayoni omillarini tasniflash bo‘yicha yondashuvlarni tizimlashtirish masalalari ko‘rib chiqiladi. Bunda kreditlash jarayoniga ta’sir etuvchi omillar tasniflanadi.

Kalit so‘zlar: bank krediti, iste’mol, turizm mahsulotlari, iqtisodiyot, turizm, xususiy biznes, turizm faoliyati, kichik biznes.

Аннотация: В статье рассматриваются методологические основы банковского кредитования, сущность банковского кредитования, а также систематизация подходов к классификации факторов в процессе кредитования предприятий, отнесенных к субъектам хозяйствования. Классифицированы факторы, влияющие на процесс кредитования.

Ключевые слова: банковское кредитование, потребитель, туристические продукты, экономика, туризм, частный бизнес, туристическая деятельность, малые предприятия.

INTRODUCTION

Currently, the field of tourism services is one of the rapidly developing areas of the economy of many developed and developing countries of the world. In this regard, in the world practice, a significant number of scientific studies have been conducted regarding the study of credit support for enterprises in the field of tourism services. The methodological basis is studied and the mechanism of crediting enterprises is analyzed, as well as scientific developments are made in the field of improving credit support for enterprises. As a result of these studies, noteworthy scientific and theoretical concepts and experience of lending to enterprises in the international practice of lending are collected. However, the tourism enterprises we study today are at different levels of development, and the results achieved at the international level of improving the mechanism of their credit support are not sufficiently disclosed. The application of world experience and knowledge in individual countries requires more in-depth scientific research.

ANALYSIS OF THE LITERATURE USED

Various aspects of lending to enterprises are reflected in the works of many domestic and foreign scientists-economists, who analyze certain scientific, theoretical and practical aspects of lending to subjects of the tourism services sector. Foreign researchers of which include: S. I. Ozhegova, Ya.N.Kalugina, V.T. Batychko, N.E. Sokolinskaya, L.M. Kupriyanova and others. Also, many domestic scientists worked on issues in the field of lending to enterprises, including: E.Abdullayev, Sh.A.Yuldashev, J.Zainalov, Sh.Abdullayeva, N.Urmanova, T.Malikov, A.Baymuratova, I.Rakhmanova, D.Tadjibayeva, Zh. Isakova, L.Zoyirova and others.

RESEARCH METHODOLOGY

This study was conducted using the methods of scientific abstraction, induction, and synthesis.

The main part. For many years, scientific researchers have proposed a variety of definitions that characterize various aspects of the lending process, based on the essential characteristics of lending, in relation to its structural, temporal, object and subject components.

In order to understand the methodology of lending to enterprises, first we will consider the very concept and essence of lending. A loan in Latin means “loan”, in other words, it is an economic relationship in which one party receives from the other party money, goods/things that are not prohibited by the relevant legislation for transfer, and promises to provide compensation (payment) or return resources in the future. In fact, a loan is a legal formalization of an economic obligation [1].

S.I.Ozhegova asserts that credit is, firstly, a loan, the provision of valuables (money, goods, etc.) in debt; secondly, commercial trust [2]. Credit accumulates the released capital, serves its receipt and ensures the reproduction process. Accelerates the process of money circulation, participates in the regulation of market relations. Ya.N.Kalugina believes that the main type of credit is a bank loan, which is understood as: a form of transfer of value based on repayment, urgency and payment; a form of accumulation and placement of temporarily available funds of business entities in order to stimulate the turnover of fixed and current assets and advance the reproduction process; a factor of production [3].

In general, the lending process is understood as the movement of bank loans or loans in the form of a sequence of organizational stages, expressed in the form of changes in lending periods and mechanisms. Lending itself as an economic phenomenon in modern science and practice is divided into banking and non-banking, in connection with which the study will consider both the process of bank and non-bank lending. Next, we will consider the essence of bank lending (see Figure 1).



Figure 1: The essence of bank and non-bank lending (developed by the author on the basis of [5])

The conducted research shows that the process of lending to business entities depends on a large number of factors that affect both positively and negatively the performance of many commercial banks. The classification of internal and external factors that affect the process of crediting business entities is carried out and justified by scientists-economists, in particular, M.Y.Kostykova. L.M.Kupriyanova in her monograph [6] identifiesea classification of factors that affect the development of the process of crediting business entities.

According to the Russian scientist V.T. Batychko bank lending refers to economic (monetary) relations, in the process of which temporarily free funds of the state, legal entities and individuals accumulated by credit organizations are provided to economic entities (as well as citizens) on the terms of repayment [4].

Next, we will consider the classification of factors in the process of crediting business entities (see: Table 1).

Table 1: Approaches to classifying factors in the lending process subjects of entrepreneurial activity

The author	Features of the classification of factors in the process of crediting business entities	Disadvantages of the approach to classification
James K.	Identification of three main groups of external factors of lending субъектов сферы to business entities (legal, tax and financial environment)*	Limited view of the credit process
A. A. Thompson	Identification of various external factors, namely: macroeconomic, legislative, regulatory acts, social values and lifestyle, demographic, technological **	Attention is paid to macroeconomic factors that are related to economic characteristics, industry affiliation of the company.
M. Y. Kostykova	Identification of external factors that affect the bank's loan portfolio for the following purposes: medium and small enterprises, such as: strategy and policy of the bank; crisis and falling living standards of the population; demand for loans ***	Factors of influence can be supplemented. Thus, the features of lending (which are determined by the processes that take place in banks when making decisions on issuing loans) are closely related to the features of obtaining loans, which are specifically Russian-specific and are not inherent in the banking systems of developed countries

* Ван Хорн, Дж.К. Основы финансового менеджмента / Дж.К. Ван Хорн. –М: Вильямс, 2001. – 988 с.
** Томпсон, А.А. Стратегический менеджмент: концепции и ситуации для анализа / А.А. Томпсон, А.Дж. 12-е издание. – М.: Вильямс, 2013. – 924 с.
*** Костыкова, М.Ю. Банковское кредитование МБ и направления его совершенствования в Российской Федерации: диссер. на соис. уч.степ. к.э.н. Воронежский гос.универ. – Воронеж, 2015. -С.47. с. 173-189.

Classification of factors in the process of crediting enterprises classified as business entitiesis appropriate in the context of driving forces, the impact of which can be considered below. (see: Figure 2)



Figure 2: Classification of factors influencing the process crediting of business entities (developed by the author on the basis of [6])

TARAQQIYOT PROGRESS

Since the presented classification is a kind of division of influences exerted on the lending process of enterprises classified as business entities, it should have all the rules used in the operation of complex and informative division of the volume of synthesizing changes in this area. The research should be focused on complementing and systematizing the group of factors identified by us that influence the process of lending to business entities.

CONCLUSION AND SUGGESTIONS

Thus, summarizing the above, it is necessary to identify a significant set of factors that affect the process of lending to business entities. Identification of factors influencing the development of the lending process of subjects proves that the main processes related to lending require further improvement. In addition, the final classification of factors, taking into account the additions made, allows us to clearly identify the basis for the effective development of the lending process for business entities.

Thus, in order to minimize the factors affecting the lending process, it is necessary to strengthen the theoretical and practical training of the bank's staff, introduce the use of specialized assessment of the financial situation of borrowers, and develop a competitive line of credit offers of commercial banks.

List of references:

1. Material from Wikipedia-the free Encyclopedia ru.wikipedia.org.wikipedia.org
2. Ozhegov S. I. Tolkovyi slovar russkogo yazyka: Ok. 100 ‘ 000 slov, terminov i frazeologicheskikh vyrazheniy [Explanatory dictionary of the Russian language: About 100,000 words, terms and phraseological expressions]. – 28th ed., reprint-Moscow: OOO “Publishing House” Mir i Obrazovanie”: OOO “Publishing House Onyx”, 2012. – 1376 p.
3. Kalugina Ya. N. Improving the system of crediting business entities by banks with state participation in the Russian Federation. Dissertation for the degree of Candidate of Economic Sciences-St. Petersburg: 2019. -229 p.
4. Batychko V. T. Finansovoe pravo [Financial law]. Lecture notes. Taganrog: TTI SFU Publ., 2009.
5. Mazikova E. V. Kommercheskie banki i maly biznes: osnovnye napravleniya sotrudnichestva [Commercial banks and Small business: main directions of cooperation]. − 2014. −No. 3. −pp. 466-469.
6. Ustinova O. V., Pilipenko L. M. Problemy kreditovaniya malogo i srednego biznesa [Problems of crediting small and medium-sized businesses]. – 2016. – № 2-3. (659-663. –c) ISSN 1812-7339.
7. Mahomadrizoevna K. A. THE IMPORTANCE OF BANK LENDING IN THE DEVELOPMENT SPHERE OF TOURIST SERVICES //World Economics and Finance Bulletin. – 2022. – Vol. 7. – pp.11-17.
8. Puzhaeva Ya. B. Analysis of lending to small and medium-sized businesses in Russia // Ekonomika i sovremennyi menedzhment: teoriya i praktika [Economics and Modern Management: theory and practice]. XIX InternationalScientificand Practical. Conference, Novosibirsk: SibAKPubl., 2012.
9. Neuhofer B., Buhalis D., & Ladkin, A. (2012). Conceptualising technology enhanced destination experiences. Journal of Destination Marketing & Management, 1, 36-46.
10. Paramati S. R., Alam M. S., & Lau, C. K. M. (2018). The effect of tourism investment on tourism development and CO2 emissions: Empirical evidence from the EU nations. Journal of Sustainable Tourism, 26(9), 1587–1607.
11. Proença S., & Soukiazis E. (2008). Tourism as an economic growth factor: A case study for southern European countries. Tourism Economics, 14(4), 791–806.
12. Sementseva G. (1997) Forms of financing small innovative business in the USA and Western Europe. Russian economic journal, Volume 5-6, 79.
13. Shulus A.A. (1996) Small business entities and the system of its state support. Russian economic journal, Volume 5-6, 65-76.
14. Shulus A.A. (1997) Formation of a small business support system in Russia. Russian economic journal, Volume 5-6, 7.
15. Sokhanvar, A. (2019). Does foreign direct investment accelerate tourism and economic growth within Europe? Tourism Management Perspectives, 29, 86–96.
16. United Nations Conference on Trade and Development (UNCTAD) (2007). FDI intourism: Thedevelopment dimension, UN.

AGROSANOAT KLASTERLARDA TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR SAMARADORLIGIINI KPI ORQALI BAHOLASH USLUBIYATI

Toshpo‘latov Azizbek Shermuxamadovich
Iqtisodiyot fanlari nomzodi, TDIU “Buxgalteriya hisobi” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Mazkur maqolada agrosanoat klasterlarining mohiyati, iqtisodiy tavsifi hamda ularning samaradorlik ko‘rsatkichlarini belgilashda KPI (Key Performance Indicator) tizimidan foydalanishning uslubiy asoslari o‘rganilgan. Agrosanoat klasterlari ishlab chiqarish faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlaridan biri bo‘lgan tovar-moddiy zaxiralar (ta’minot) harakatini KPI tizimi orqali baholash natijasida ularning samaradorligi, natijadorligi hamda reja ko‘rsatkichlarining og‘ishilarini tahlil qilishga erishiladi. Buningnatijasida mazkur tarmoq samaradorlik ko‘rsatkichlari faoliyatini baholash imkoniyati yaratiladi.

Kalit so‘zlar: klaster, agrosanoat klasterlari, tovar-moddiy zaxiralar, KPI, samaradorlik, natijadorlik.

Abstract: In this article, the essence, economic description of agro-industry clusters and the methodical basis of using the KPI (Key Performance Indicator) system in determining their performance indicators are studied. As a result of evaluating the movement of commodity stocks (supply), which is one of the main indicators of the production activity of agro-industry clusters, through the KPI system, it is possible to analyze their efficiency, effectiveness and deviations from the plan indicators. As a result of this, it is possible to evaluate the performance of this network performance indicators.

Key words: cluster, agro-industry clusters, inventory, KPI, efficiency, effectiveness.

Аннотация: В данной стате изучены сущност, экономическоэ описание агропромышленных кластеров и методические основы исползования системы КПИ (Кей Перформансе Индисатор) при определении показателей их эффективности. В результате оценки движения товарных запасов (предложения), котороэ явлйаэтся одним из основных показателей производственной деятелности агропромышленных кластеров, через систему КПЕ можно анализироват их эффективност, результативност и отклонения от плана. индикаторы. В результате этого можно оценит работу данной сети по показателям производителности.

Ключевые слова: кластер, агропромышленные кластеры, запасы, КПИ, эффективност, результативност.

KIRISH

Mamlakatimizda agrar sohani isloh qilish, unga bozor mexanizmlari, zamonaviy boshqaruv va texnologiyalarni joriy etish borasida izchil islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Buning natijasida makzur tarmoq tomonidan yaratilayotgan qiymat iqtisodiyotda sezilarli natijada o‘sish kuzatilmoqda. Xususan, agrar sohaga boshqaruvning klaster usuli joriy qilinishi bozor tamoyillariga o‘tishda, sohada davlat aralashuvini keskin kamaytirish, reja ortidan quvish va majburiy mehnat holatlariga butunlay chek qo‘yishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Buning natijasida hosildorlik ham, daromad ham oshmoqda.

Agrar sohani klaster usulida boshqarish hamda rivojlantirish borasida Prezident Shavkat Mirziyoyev quyidagi fikrlari alohida ahamiyat kasb etadi: “Klaster va manfaatdorlik – O‘zbekiston qishloq xo‘jaligining kelajagi. Ilm-fan va innovasiyalarni joriy etmay turib, bu sohani raqobatbardosh qilib bo‘lmaydi” [2]. Qishloq xo‘jaligi tarmog‘iga agroklaster tizimining joriy etilgani qisqa fursatda o‘zining ijobiy samarasini berayotganini ham e’tirof etib o‘tish maqsadga muvofiqdir.

Ayni paytda qishloq xo‘jaligini jadal rivojlantirish, uning iqtisodiy samaradorligini oshirish, qishloq ahlining turmush sharoitini yanada yaxshilash, manfaatdorligini ta’minlash masalalari bevosita qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishning zamonaviy usuli – klasterlar tizimi hisoblanadi. Prezidentimiz ta’kidlab o‘tganlaridek, “qishloq xo‘jaligidagi islohotlar, yer maydonlari to‘liq xususiy klaster va kooperatsiyalarga berilgani paxtachilikda hosildorlikni bir-yilda o‘rtacha 10 foizga oshirish imkonini yaratdi” [1]. Bu esa sohaga tejamkor hamda samarali bosh-

qaruv usullarini joriy qilish orqali kelajakda mazkur tarmoqni qishloq xo‘jaligining drayveriga aylantirish borasida tizimli ishlarni olib borishni talab etadi. Shu bilan birga, agro klasterlarida KPI (Key Performance Indicator) tizimi bo‘lib, uni qo‘llash natijasida samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish, mavjud resurslardan oqilona foydalanish hamda qiymat zanjirini yaratishda muhim vosita sifatida foydalanish mumkin hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

KPI haqidagi ilk tushunchalar XX asrning 50-yillarida Piter Drukerning “Maqsadga sari boshqarish” g‘oyasi orqali shakllana boshlagan. Uning fikricha, natijadorlikka erishish uchun samaradorlik ko‘rsatkichlari bilan alohida shug‘ullanish kerak. Va rahbarlarni kundalik ishlar bilan band qilmasdan, belgilangan ustuvor vazifalar hamda asosiy maqsad sari faoliyat olib borishi uchun samara beradigan ko‘rsatkichlar bilan shug‘ullanish kerakligini ta’kidlagan [8].

Devid Parmentrerning fikricha [3] “KPI (Key Performance Indicator) – “samaradorlik ko‘rsatkichlari” (samaradorlikni oshirishda kundalik ishlarda nimalar qilish kerakligini), “eng muhim natijadorlik ko‘rsatkichlari” (samaradorlikni oshirishda kelajakda nimalar qilish kerakligini) hamda “eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlari” samaradorlikni keskin oshirishda nimalar qilish kerakligini ifodalaydi”.

M.V.Vishnyakovaning fikricha, “KPI (Key Performance Indicators) – bu maqsadlarga erishish darajasini yoki jarayonning optimalligini o‘lchashga yordam beradigan faoliyatning, ayniqsa natijadorligi va samaradorligini miqdoriy ko‘rsatkichlaridir” [4].

KPI – odamlar, guruhlar, kompaniya va uning bo‘linmalarining ishini baholash va nazorat qilish imkonini beradigan mexanizmdir [7].

“KPI – har qanday kompaniyaning asosiy maqsadlariga erishish uchun ishlatiladigan tizim iste’molchilarni (mijozlarni) jalb qilish va ushlab turish, xodimlarning kasbiy mahoratini oshirish, daromadlarni oshirish va xarajatlarni kamaytirish kabi biznes. Bu barcha qadriyatlarni umumiy sifat menejmenti e’tirof etadi” [7].

A.D.Askarov fikricha “KPI tizimining asosiy maqsadi mehnat motivatsiyasiga ta’sir qiluvchi omillarni izlash orqali ularni baholash va darajalashdan iborat” [6].

Yuqorida e’tirof etilgan mualliflarni fikrlar asosan KPI korxona maqsadlarga erishishi uchun samaradorlik, natijadorlik ko‘rsatkichlariga qaratilgandir. Lekin KPI bu muayyan faoliyatda yoki muayyan maqsadlarga erishishda muvaffaqiyat ko‘rsatkichi bo‘lib, haqiqatda erishilgan natijalarning miqdoriy o‘lchanadigan ko‘rsatkichlar majmuyi hisoblanadi. Bu ko‘pincha o‘zbek tiliga “asosiy samaradorlik ko‘rsatkichi” sifatida e’tirof etiladi, bu “Key Performance Indicators”ning mazmunini to‘liq ifodalay olmaydi. Bizning fikrimizcha, samaradorlikka erishilgan natija va sarflangan resurslar o‘rtasidagi munosabatni tavsiflaydi va boshqa ko‘rsatkichlarni KPI yordamida ham o‘lchash mumkin. Shu maqsadda biz tomonimizdan KPI to‘liq ma’noda “Asosiy faoliyat ko‘rsatkichi” sifatida tushinish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ishini metodologiyasi ma’lumotlarni to‘plash, kuzatish, me’yoriy-huquqiy hujjatlarni o‘rganish asosida tadqiqotning iqtisodiy munosabatlarni va ularning rivojlanishidagi hodisalarni hamda o‘zaro bog‘liqliklarni o‘rganishga nisbatan yalpi va tizimli yondashuvlarni nazarda tutuvchi umumiy ilmiy prinsiplari xizmat qildi. Tizimli yondashuv agrosanoat klasterlar tushunchasini tadqiq qilish, ularda tovar-moddiy zaxiralarni samarali boshqarish kontseptsiyasini hamda uning rivojlanish darajasini belgilash uchun qo‘llanildi. Shuningdek, tovar-moddiy zaxiralardan samarali foydalanishni ta’minlashda KPI tizimi horij tajribasini keng o‘rganish asosida samarali foydalanish bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazishni belgilab berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Shuni ta’kidlash kerakki, har qanday korxona ishlab chiqarish hamda xo‘jalik faoliyatida samaradorlikka erishishlari uchun bir necha yil talab etiladi. Ishlab chiqarish samaradorligiga erishi uchun dastlab, budjet loyihalarni tushunarli bo‘lishi hamda yangi biznes jarayonlarini amaliyotga joriy qilishda uning samarali tadqiqotlarga asoslanganligi, shu bilan birga mazkur loyiha korxona uchun bir necha yillar davomida (kamida 3 yil) samara keltirilishi belgilanishi lozim. Bugungi kunda korxonalar tomonidan ushbu natijalarga erishishda KPI ni aniq belgilash hamda ishlab chiqarishga joriy qilish muhim ahamiyat kasb etadi. IDEF01 metodologiyasiga asosan ko‘rsatilgan jarayonlarga nisbatan ko‘rsatkichlarni tanlash eng qulay va samarali usuli hisoblanadi.

1 Bu biznes jarayonlarini rasmiylashtirish va tavsiflash uchun mo‘ljallangan funktsional modellash metodologiyasi va grafik belgilar.



1-rasm: IDEF0 metodologiyasiga asosan ko‘rsatkichlarni samarali baholash usuli

Agar korxona tomonidan yuqorida ko‘rsatib o‘tilganidek, moddiy-texnik ta’minotni belgilashda zaxiralar, ular natijasida olinadigan tovar-moddiy qiymatliklar hamda ularni boshqarish mexanizmlari belgilangan bo‘lsa, bu usul ishlab chiqarish korxonalari uchun, balki umumiy ovqatlanish tarmoqlari uchun ham birdek samarali vosita hisoblanadi.

Agro klasterlar misolida “moddiy-texnik ta’minoti” jarayonini asosiy ko‘rsatkichlar turlarini ko‘rib chiqamiz (2-rasm).



2-rasm: KPI texnologiyasi asosida agro klaster korxonalarining moddiy-texnik ta’minoti jarayoni algoritmi

Quyida KPI texnologiyasidan foydalangan holda agro klasterlar tizimida biznes loyihalarini ishlab chiqish hamda uning samarali faoliyat ko‘rsatishi uchun jarayonlarni bir nechta bosqichga ajratgan holda ko‘rib chiqamiz hamda samaradorlik ko‘rsatkichini belgilaymiz.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

1. Jarayonni va uning natijasini aniqlash.

Masalan, “Moddiy-texnik ta’miont” jarayoni – “tegishli tovar-moddiy boyliklar” natijasi.

2. Kirish-resurslarni (jarayonning bir siklida ishlanadigan resurslar) va kirish-mexanizmlarini (jarayonning takroriy bajarilishini ta’minlaydigan rusurslar – uskunalar, xodimlar) aniqlash.

Masalan, Kirish – “moddiy-texnik ta’minot” jarayonining manbalari:

- tovar-moddiy qiymatliklar uchun berilgan byurtmalar;
- tovar-moddiy qiymatliklarni sotib olish rejasiga muvofiq yoki yetkazib berish uchun olingan byurtmalar bo‘yicha taqdim etilishi kerak bo‘lgan xom ashyo va materiallar;
- bozorlarda tovarlar va materillarning mavjudligi va ularning qiymati to‘g‘risida ma’lumotlar.

Kirish – ko‘rib chiqilayotgan jarayonning mexanizmlari:

- ta’minot bo‘limi xodimlari ish jarayonlarini tashkil etish uchun texnik ta’minotlar;
- ta’minot bo‘limi xodimlarining malakalari.

3. Jarayonni boshqarishni aniqlash (jarayonni amalga oshirish qoidalari va talablari)

Masalan, ko‘rib chiqilayotgan jarayonni tartibga solish:

- xom ashyo, yarim tayyor mahsulotlar va materillarni omborga qabul qilish va saqlash bo‘yicha ko‘rsatmalar (metodikalar);
- yetkazib beruvchilarni tanlash metodologiyasi;
- xom ashyo va materiallarni yetkazib berish shartnomalarini tuzish qoidalari;
- sotib olish rejasi.

4. Qabul qilinishi kerak bo‘lgan natijani bilgan holda miqdoriy baholash hamda ko‘rsatkichlarni shakllantirish. Ushbu ko‘rsatkichlarni oddiy yoki formulalar va boshqa usullar yordamida hisoblab chiqish mumkin.

KPI 1 – o‘z vaqtida bajarilgan tovar-moddiy qiymatliklar byurtmalari soni;

KPI 2 – o‘z vaqtida bajarilgan byurtmalar, % da

$$\textbf{KPI 2 = KPI 1 / Z x 100 \%,}$$

Bu yerda: Z – tovarlar va mahsulotlarni yetkazib berish uchun berilgan byurtmalar soni:

KPI 3 – ishlab chiqarishga qabul qilingan tovarlar va materiallarning ulushi, % da

$$\textbf{KPI 3 = A / V x 100 \%}$$

Bu yerda:

A – ishlab chiqarishga berilgan tovarlar va materiallar miqdori;

V – ishlab chiqarishga kiritilgan tovarlar va materiallarning umumiy soni.

5. Biznes jarayoni ishtirokchilari asosida xarajatlar ko‘rsatkichlarini shakllantirish:

KPI 4 – tovarlar va materiallarni sotib olish xarajatlari (resurs xarajatlari)

6. Jarayon mexanizmlari asosida qo‘shimcha xarajat ko‘rsatkichlarini shakllantirish:

Misol:

KPI 5 – faoliyatni amalga oshirish xarajatlari (xodimlar va uskunalar uchun xarajatlar)

7. Jarayonning to‘g‘riligi, faoliyatni amalga oshirish xarajatlari ko‘rsatkichlaridan tashqari, ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini aks ettirish

Misol:

KPI 6 – budjet loyihasini yil davomida moliyaviy boshqaruvga topshirish muddatlariga amal qilinishi

8. Ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari bo‘yicha olingan natijalarning vaqt birligi asosida sifatini aniqlash

Misol:

KPI 7 ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari asosida bir kunlik ta’minot bo‘limi tomonidan qabul qilingan byurtmalar soni bo‘yicha aniqlash

$$\textbf{KPI 7 = S / r}$$

Bu yerda: C – bir oyda ishlab chiqarilgan (ko‘rsatilgan xizmatlar) byurtmalar miqdori, r – bir oyda ish kunlari soni.

9. Asosiy ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini hisoblashda oldindan belgilangan KPI natijalari va KPI xarajatlari asosida amalga oshirish. Shunday qilib, samaradorlik ko‘rsatkichlari faoliyatning ajralmas xususiyati hisoblanadi.

Misol:

KPI 8 korxonaning ishlab chiqarish samaradorlik ko‘rsatkichini bir birlik byurtma qiymatini hisoblashda asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu ko‘rsatkich quyidagi formul yordamida aniqlanadi:

KPI 8 = KPI 5 / KPI 1

Ushbu prinsipga muvofiq (xarajatlarni olingan natijaga nisbati) ishlab chiqarish samaradorligi ko‘rsatkichlarini ham, loyiha samaradorligi ko‘rsatkichlarini yoki boshqaruv samaradorligini ham aniqlash mumkin bo‘ladi.

Albatta, agrosanoat klasterlarida moddiy-texnik ta’minotidan samarali foydalanish bevosita ularda boshqaruv hisobi tizimida xarajatlardan samarali foydalanish hamda uning hisobini takomillashtirish qaratilgan tadqiqotlarni olib borishni taqazo etadi.

Agrosanoat klasterlarida KPI texnologiyasini samarali qo‘llash “ta’minot – ishlab chiqarish – foyda” kompleks tizimni samarali ishlashini ta’minlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shuni ta’kidlash mumkinki, KPIni agro klasterlar faoliyatida tovar-moddiy zaxiralar harakatini amalga oshirish jarayonida amaliy qo‘llanilishi moliyaviy natijalar va xarajatlarning o‘zaro muvofiqligini ta’minlash, ularni reja ko‘rsatkichlarini sifat ko‘rsatkichlariga ta’sirini aniqlash va monitoring qilishda samarali vosita hisoblanadi. Faoliyat amalga oshirilgandan so‘ng, ko‘rsatkichlarning haqiqiy qiymatlari o‘lchanadi va qayd etiladi. Haqiqiy qiymatlar rejalashtirilganidan jiddiy og‘ish bo‘lsa, faoliyatni tahlil qilish va tuzatish choralarini ishlab chiqish kerak bo‘ladi.

Natijada agro klasterlar faoliyatida KPI tizimidan foydalanishning afzalliklari sifatida tadbirkorlik faoliyatini rejalashtirish va tahlil qilish biznes tizimiga kerak bo‘lgan natijalar asosida amalga oshiriladi. Barcha ko‘rsatkichlar tizimli ravishda tahlil qilish orqali kelajakda zarur bo‘lgan faoliyatni birlashtiruvchi jarayondan kelib chiqadi. Agar rejalashtirish o‘z-o‘zidan, real faoliyatdan ajratilgan holda amalga oshirilsa, ko‘rsatkichlar va ularning maqsadli qiymatlarini tanlash subyektning asosiy maqsadlariga erishishga yordam beradi.

Shu bilan birga KPIni agro klasterlar faoliyatida amaliy qo‘llash natijasida motivatsiya tizimi aniq va shaffof bo‘ladi, rejalashtirilgan va haqiqiy qiymatlar qayd etilganligi sababli, menejerga xodimni nima uchun va qanday rag‘batlantirish kerakligi aniq bo‘ladi. U, o‘z navbatida, qanday sharoitda va qanday rag‘batlantirish yoki nima uchun jazolanishini yaxshi tushunadi. Shunday qilib, KPI tizimi tufayli kompaniya xodimni kerakli natijalarga erishgani uchun mukofotlaydi va xodim kompaniya bilan teng ravishda natijalarga erishishdan manfaatdor.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 29.12.2020. https://president.uz
2. Klaster va manfaatdorlik – O‘zbekiston qishloq xo‘jaligining kelajagi. old.gov.uz/oz/news/view/28847
3. David Parmenter Key Performance Indicators – developing, implementing and using winning KPIs (4th Edition). . https://davidparmenter.com/
4. Вишнякова М. В. Мифы и правда о KPI / Худож. А. Васильева. – М.: Летопись, 2017. – 274 с.
5. Клочков А.К. “KPI и мотивация персонала. Полный сборник практических инструментов”. “Эксмо”, М., 2010. https://iguip.narod.ru/
6. А.Д.Аскаров. Профессор-ўқитувчилар фаолиятини асосий самарадорлик кўрсаткичларига (KPI) кўра баҳолашдаги халқаро тажрибалар. Volume 3 | NUU Conference 2 | 2022. https://nuu.uz/
7. Ключевые показатели эффективности. https://ru.wikipedia.org/wiki
8. https://zarnews.uz/

FAOL TADBIRKORLAR FAOLIYATIDA KAMBAG‘AL OILALARNI IQTISODIY-IJTIMOIY HOLATINI YAXSHILASH IMKONIYATLARI

UDK: 338:321.924.3:301

Salamov Ibrohim
Iqtisod fanlari nomzodi, Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti, kafedra dotsenti

Nazarova Maryam Sharifovna
Mustaqil izlanuvchi, kafedra katta o‘qituvchisi

Kazakova Zulayxo Saloxiddinovna
Mustaqil izlanuvchi, kafedra katta o‘qituvchisi

Jonibekov Faxriddin Beknazarovich
Mustaqil izlanuvchi, kafedra katta o‘qituvchisi

Kudratov Rizo Turdibayevich
Mustaqil izlanuvchi, kafedra katta o‘qituvchisi

Ulmasova Oygul Baxtiyorovna
Mustaqil izlanuvchi, kafedra katta o‘qituvchisi

Xamdamova Nasiba Ablakulovna
Mustaqil izlanuvchi, kafedra katta o‘qituvchisi

Xudayberdiyeva Ma’rifat Umarovna
Mustaqil izlanuvchi, kafedra katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada faol tadbirkorlik, tadbirkorlik, ishbilarmonlik, biznesmenlik faoliyatlariga ta’rif berilgan. Kambag‘al oilalarni iqtisodiy-ijtimoiy holatini yaxshilash imkoniyatlari, bandlikni ta’minlashda va kambag‘allikni kamaytirishdagi strategik dasturlarning qabul qilinishi, kam ta’minlangan oilalarni oziq-ovqat xavfsizligi muammolari yechimlari, Samarqand viloyatining o‘simchilik,chorvachilik tarmoqlari bo‘yicha 2021-2022-yillarning iqtisodiy tahlil natijalarini taqqoslash yakunlari keltirilgan. Unda o‘simlikchilikdagi va chorvachilikdagi ekinlar maydoni, bosh soni, yalpi hosil, yalpi mahsuldorlik, yalpi pul tushumi, qilingan to‘liq xarajatlar summasi (to‘liq tannarx), olingan foyda hamda rentabellik darajalari keltirilgan. E’tibordan chetda qolgan Navoiy viloyatining Xatirchi tumaniga qarashli mayizchilikga ixtisoslashgan “Uchqora” qishlog‘ida yetishtirilayotgan uzum, mayizini kosmosga chiqqanligi va “Dala-dasturxon”, “Dala-magazin-uy”, “Dala-magazin-iste’molchi”, “Dala-chorvachilik majmuasi”, “Vetapteka- chorvachilik majmuasi”, kabi infratuzilma turlarining tashkil etilishidagi muammolar va ularning yechimlari, “Buyurtma stoli”ni tashkil etish haqida ilmiy-amaliy tavsiya va takliflar berilgan. Foyda, rentabellik darajasi, servis xizmat (Infratuzilma) turlarini amalga oshirilishi hamda foydalanilgan manbalar ro‘yxati berilgan.

Kalit so‘zlar: infratuzilma, chorvachilik, dehqonchilik, rentabellik darajasi, bandlik, kambag‘allik, iqtisodiy samaradorlik va h.k.

Abstract: This scientific article describes active entrepreneurship, entrepreneurship, business, and business activities. Possibilities of improving the economic and social condition of poor families, adoption of strategic programs to ensure employment and reduce poverty, solutions to the problems of food security of low-income families, 2021- The results of the comparison of the results of the economic analysis of 2022 are presented. It includes crop area, head count, gross yield, gross productivity, gross income, total cost, profit, and profitability levels in crop and livestock farming. The grapes grown in Uchkara, a raisin-growing village of Khatirchi district of the Navoi region, which have been neglected, are grown in space, and "Dala-dasturkhan", "Dala-magazin-uy", "Dala-magazin-consumer", " Scientific and practical recommendations and suggestions were given about the problems and their solutions in the organization of infrastructure types such as "Field-livestock complex", "Vetapteka-livestock complex", and the organization of the "Order Desk". A list of benefits, profitability, types of services (Infrastructure) and used resources is given.

Key words: infrastructure, livestock, farming, profitability, employment, poverty, economic efficiency, etc.

Аннотация: В данной научной статье описывается активное предпринимательство, предпринимательство, бизнес и предпринимательская деятельность. Возможности улучшения экономического и социального положения малообеспеченных семей, принятия стратегических программ по обеспечению занятости и сокращению бедности, решения проблем продовольственной безопасности малообеспеченных семей, 2021 г. – Результаты сравнения результатов экономического анализа 2022 года представлены. Он включает в себя посевную площадь, поголовье, валовой сбор, валовую производительность, валовой доход, общие затраты, прибыль и уровни рентабельности в растениеводстве и животноводстве. Виноград, выращенный в заброшенном изюмном селе Учкара Хатирчинского района Навоийской области, выращивается в космосе, а “Дала-дастурхан”, “Дала-магазин-уй”, “Дала-магазин-потребитель” “, “Даны научно-практические рекомендации и предложения по проблемам и их решению при организации таких видов инфраструктуры, как “Полевой животноводческий комплекс”, “Ветаптека-животноводческий комплекс”, а также организации “Службы заказов”. Приведен перечень преимуществ, рентабельности, видов услуг (Инфраструктуры) и используемых ресурсов.

Ключевые слова: инфраструктура, животноводство, фермерство, рентабельность, занятость, бедность, экономическая эффективность и др.

KIRISH

2024-yil – “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”

O‘zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev 18-avgust 2023-yil, juma kuni tadbirkorlar bilan ochiq muloqot formatida navbatdagi uchrashuvni o‘tkazdi.Unda jami 10 mingga yaqin tadbirkor ishtirok etdi. Bugungi kunda raqamli iqtisodiyotga o‘tish, ko‘plab muammolarni hal etadi. Bu aholi bandligini ta’minlash, kambag‘allikni kamaytirish, jarayonlarning shaffofligini ta’minlash va iqtisodiyotimizga xorijiy investorlarni jalb etish, mahalliy va xorijiy tajribadan foydalanish imkonini beradi.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Bozor tamoyillariga asoslangan ipoteka kreditlarini ajratish orqali aholini uy-joy bilan ta’minlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021-yil 11-martdagi PF-6186-son Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi 2021-yil 23-avgustda 537-sonli qarorini qabul qildi. Unda, iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi bilan birgalikda ushbu qarorning mazmun-mohiyati aholi va tadbirkorlik subyektlariga yetkazilishini ta’minlanish aytilgan [5].

2022-yil 24-26-mart kunlari Toshkent shahrida O‘zbekiston Respublikasida ilk bor Toshkent xalqaro investitsiya forumi bo‘lib o‘tdi. Unda 56 mamlakatdan 1500 dan ortiq kompaniya vakillari ishtirok etdi. Prezident Sh. M.Mirziyoyev nutq so‘zladi. U o‘z nutqida xorijlik investorlar uchun barcha qonunchilik bazasi yaratilganini aytib, investorlarni sarmoya kiritishga chaqirdi. Forumni o‘tkazishdan asosiy maqsad – O‘zbekiston bozorida o‘z faoliyatini kengaytirishdan manfaatdor bo‘lgan xorijiy investorlar, moliya-iqtisodiy tashkilotlar, energetika, mashinasozlik, elektrotexnika, axborot texnologiyalari, to‘qimachilik, qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat sanoati, qurilish va boshqa soha vakillarini jalb etishdan iborat. Prezident ma’ruzasida 5 yil ichida yalpi ichki mahsulot 100 milliard dollarga, yillik eksport hajmi esa 30 milliard dollarga yetishi kutilayotgani, xususiy sektorning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga yetkazish borasidagi sa’y-harakatlari mamlakatimiz iqtisodiy qudratini oshirishi ta’kidlandi [1].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

2023-yil 15-may kuni kambag‘allikni qisqartirish va bandlikni ta’minlash chora-tadbirlari muhokamasi yuzasidan videoselektor yig‘ilishi o‘tkazildi. Banklar tomonidan aholiga subsidiyalar berilmoqda, bu nima degani: Subsidiya – ipoteka kreditlari asosida qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirish, uy-joy sotib olish va boshqa zaruriyatlar uchun boshlang‘ich badal va (yoki) kredit foizining bir qismini qoplash maqsadida davlat budjetidan fuqaro uchun bankda uning nomiga ochilgan tegishli hisob varag‘iga o‘tkazilgan mablag‘lardir. Kambag‘allikni kamaytirish–bu aholida tadbirkorlik ruhini uyg‘otish, kasbga tayyorlash va ish o‘rinlarini ko‘paytirishga qaratilgan kompleks vazifa ekanligi ta’kidlandi. Buning birdan-bir to‘g‘ri yechimi –faol tadbirkorlar faoliyatini doimiyligini ta’minlash, ularni mulkchilikning har xil turlari va shakllarini jorish etish imkoniyatlarini yaratish va tadbirkorlarni jalb qilish natijasida kambag‘allikni tugatib, barchaga yangi ish o‘rinlarini ochish imkoniyatlari paydo qilish yo‘li bilan maqsadga erishish mumkin. Ular bilan manfaatli hamkorlik qilish. Bandlikni ta’minlash va kambag‘allikni kamaytirishning asosiy imkoniyatlaridan mulkchilikning har xil turlari hamda shaklarini asosan uzoq qishloqlarda joriy etishdir. BMT va Hukumat o‘rtasida BMTning O‘zbekistondagi hamkorligining asosiy dasturlarini amalga oshirish bo‘yicha qo‘shma muvofiqlashtiruvchi kengash yig‘ilishi 2022-yilning 25-avgust kuni Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligida bo‘lib o‘tdi.Uchrashuv boshida aholining yashash shart-sharoitlarini yaxshilash, imkoniyatlarini kengaytirish, inson kapitalini rivojlantirish va barqaror rivojlanish borasidagi mavzular ko‘rib chiqildi. BMT bilan birgalikda yashil iqtisodiyotga o‘tish dasturlari ishlab chiqilayotganligi haqida fikr almashindi.

Metodlar monografik, statistik, taqqoslash va boshqa usullar yordamida tahlil qilganmiz.

TAHLILLAR VA ASOSIY NATIJALAR

Yoshlar bandligini ta'minlashda va kambag'allikni kamaytirishda infratuzilma turlarini tashkil etishning iqtisodiy samaradorlikni oshirishdagi imkoniyatlari haqidagi holatni yaxshilashda iqtisodiy tahlil natijalarini keltiramiz. Chunki dunyoda hech bir davlat yo'qki, aholi muayyan qismining kambag'alligi, jamiyatda faol emasligi bilan bog'liq muammolarga duch kelmagan bo'lsa. Mamlakatimizdagi tarixiy-ijtimoiy sharoitda kambag'allik muammosiga turli sabablar ta'sirini o'tkazib kelgan. Ba'zi yurtdoshlarimizga ilm, hunar va ko'nikma masalalarida ozgina ko'mak, madad zarur bo'lmoqda. Respublikamiz qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish, aholini ehtiyojini to'liq ta'minlash va ortiqchasini xorij mamlakatlariga eksport qilish imkoniyatlariga egadir. Iqtisodiy tahlillarimiz shuni ko'rsatadiki, bandlikni ta'minlash va kambag'allikni kamaytirishda mahalliy va Xitoy Xalq Respublikasining tajribalaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikamizning Navoiy viloyati, Xatirchi tumanidagi qadimdan uzumchilik va mayizchilikka ixtisoslashgan "Uchqora" qishlog'i yer sharining 41-meridiani va 41-parallelida qora toshli tog' bag'rida joylashgan. Uzum tarkibidagi shakar miqdori 38% ga yetadi. Sobiq Ittifoq davrida Uchqora mayizini kosmonavtlar iste'mol qilish uchun Moskvadan vakillar kelib, qishloqdagi dehqonlardan uzum va mayiz mahsulotlaridan maxsus buyurtma asosida olib ketishgan. O'zbekistonda uzumlardagi qandlik miqdori 26 foizni tashkil qiladi. Jahondagi uzumlardagi qand miqdori 17-18 foiz bo'lganda uzum iste'mol uchun ishlatiladi. Biroq mazkur tuman tarmoqlarida "Buyurtma stoli" va raqamli iqtisodiyotni joriy etish, zamonaviy va dunyo standartlari talablariga javob beradigan infratuzilmasi subyektlari tashkil etilmagan. 1-jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilni yakuni bilan Samarqand viloyatida eng yuqori ko'rsatkich dukkakli ekinlar bo'lib,bu tarmoq rentabellik darajasi 45,5 foizni,chorvachilikda esa baliqchilik tarmog'ida 30,0 foizni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2021-yilda o'simchilikda birgina Samarqand viloyatida eng yuqori iqtisodiy ko'rsatkichga ega, birinchi o'rinda bo'lgan polizchilik tarmog'ining rentabellik darajasi 48,3 foizni tashkil etdi. Poliz mahsulotlarini 1 tonnasining tannarxi 1 106 ming so'm, sotilgan 1 tonna tovar puli 1 640 so'm, undan olingan foyda esa 534 so'm bo'ldi.

Ikkinchi o'rinda bo'lgan mevachilik tarmog'ini rentabellik darajasi 46,5 foizni, meva mahsulotlarini 1 tonnasining tannarxi 2 088 ming so'm, sotilgan 1 tonna tovar uchun pul tushumi 3 059 so'm, undan olingan foyda esa 971 so'm bo'ldi.Uchinchi o'rinda bo'lgan Sholichilik tarmog'ining rentabellik darajasi 39,6 foizni tashkil etib, sholi mahsulotlarini 1 tonnasining tannarxi 3 303 ming so'm, sotilgan 1 tonna tovar uchun pul tushumi 4 610 ming so'm, 1 tonna sholidan olingan foyda esa 1 307 so'm bo'ldi. 2021-yilda viloyatda qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish va rentabellik darajasi bo'yicha To'rtinchi o'rindagi Sabzavotchilik tarmog'ining rentabellik darajasi 39,5 foizni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2022-yilda Samarqand viloyatida 42,1 foizni tashkil etdi.

Boshqa ko'rsatkichlarning iqtisodiy tahlil natijalari esa 2022-yilda quyidagicha bo'ldi: yetishtirilgan yalpi sabzavot mahsuloti 1 009 489 ming tonnani tashkil etdi, ushbu mahsulotni ishlab chiqarish uchun jami xarajatlar 2 276 704 million so'm, jami daromad esa 3 234 276 million so'm, olingan foyda miqdori 957 572 million so'm bo'ldi, 2022-yilda 1 tonna sabzavotlarni ishlab chiqarish uchun sarflangan xarajatlar 2 255 ming so'mni, 1 tonna sabzavot sotishdan tushgan summa esa 3 204 ming so'mni tashkil qildi. 1 tonna mahsulotni sotishdan olingan foyda miqdori 949 ming sum bo'ldi. Agar sabzavotchilik tarmog'ini 2021-yil bilan taqqoslasak, 2022-yilda rentabellik darajasi +2,6 punktga 2021 yilga nisbatan ko'p bo'ldi. 1 tonna sabzavotni sotishdan olingan foyda miqdori 2022-yilda 1 664 ming so'mga 2021 yilga nisbatan ko'p bo'ldi. 2021-yilda esa sabzavot mahsulotlarini 1 tonnasining tannarxi 1 104 ming so'm, sotilgan 1 tonna tovar uchun pul tushumi 1 540 ming so'm, 1 tonna sabzavotlardan olingan foyda esa 436 ming so'm bo'ldi. Chorvachilikda 2021-yilda eng yuqori ko'rsatkich asalarichilikda bo'lib, rentabellik darajasi 35,7 foiz,1 tonna mahsulot tannarxi 40 528 ming so'mni, sotilgan 1 tonna tovar uchun pul tushumi 55 000 ming so'm, 1 tonna asaldan olingan foyda esa 14 472 ming so'm bo'ldi. Chorvachilik tarmog'ida 2022-yilda rentabellik darajasi 12,0 foizga tushib qoldi.Agar bu ko'rsatkichni 2021-yil bilan solishtirsak 23,7 punktga kamayib ketdi. Uning asosiy sabablaridan biri, asalchilik bilan shug'ullanuvchi mutasaddilarning bilimsizligi-ilmsizligi, asalari kasalliklarini oldini o'z vaqtida olish, iqlim sharoitini hisobga olmaslik va oziqa ratsionlarining talab darajasida emasligi bo'ldi. 2021-yilda polizchilikning rentallik darajasi asalarichilikka nisbatan 12,6 punktga yuqori bo'ldi [2,4].

Samarqand viloyatidagi o'simchilik va chorvachilik tarmoqlarining 2021-yil yakuni bilan rentabellik darajasi 25,8 foizni tashkil qildi.

Umumiy holatni iqtisodiy tahlil qilganimizda, o'simchilik tarmog'i chorvachilik tarmog'iga nisbatan rentabellik darajasi yuqori bo'ldi. Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti (sobiq qishloq xo'jaligi instituti) Samarqand viloyati Agrosanoat majmuasining Ijtimoiy va iqtisodiy rivojlantirishni rejalashtirish bo'yicha boshqaruv Kengashining 1987-yil 11-avgust № 5/13 Qaroriga asosan Samarqand shahrida 1989,1990,1991 yillarda "Meva-sabzavotlarni iste'molchilargacha yetkazishdagi iqtisodiy va sotsial muammolar yechimi" (rus tilida) mavzusidagi olimlar va pedagoglar tomonidan ishlab chiqilgan ilmiy-amaliy tavsiyasiga binoan "Buyurtma stoli" tashkil qilinib, tovar aylanmasi 1,2-1,5 martaga oshgan edi. Biroq sobiq ittifoq parchalanishidan keyin ushbu "Buyurtma stoli" o'z faoliyatini to'xtatdi.

1-jadval: Samarqand viloyatining o‘simlikshunoslik va chorvachilik tarmoqlaridagi yetishtirilgan ayrim mahsulotlarning 2021-2022-yillardagi iqtisodiy tahlil natijalari

№	Hududlar nomi	Yalpi hosil, ming tonna	Jami xarajat, mln. so‘m	Jami daromad, mln. so‘m	Foyda	Rentabellik darajasi, %	1 tonna mahsulot, ming so‘m	
							Xarajat	Daromad
1	2	3	5	6	7	8	11	12
2021	Sabzavot	376 788	415 918	580 253	164 336	39,5	1 104	1 540
2022	Sabzavot	1 009 489	2 276 704	3 234 276	957 572	42,1	2 255	3 204
Жами (+,-)		+632 701	+1 860 786	+2 654 023	793 236	+2,6 punktga	+1 151	+1 664
2021	Poliz	48 283	53 384	79 184	25 800	48,3	1 106	1 640
2022	Poliz	92 655	178 957	244 825	65 868	36,8	1 931	2 642
Jami (+,-)		+44 372	+125 573	+165 641	+40 068	-11,5 punktga	+825	+1 002
2021	Dukkakli	26 767	124 586	162 639	38 053	30,5	4 655	6 076
2022	Dukkakli	4 383	33 984	49 448	15 464	45,5	7 754	11 282
Jami (+,-)		-22 384	-90 602	-113 191	-22 589	+15,0 punktga	+3 099	+5 206
2021	Baliq	21 674	232 992	313 266	80 274	34,5	10 750	14 454
2022	Baliq	16 627	336 066	438 429	102 363	30,0	20 212	26 369
Jami (+,-)		-5 047	+103 074	+125 163	+22 089	-4,5 punktga	+9 462	+11 915
2021	Asal	1 058	42 895	58 212	15 317	35,7	40 528	55 000
2022	Asal	172	12 854	14 372	1 518	12,0	74 909	83 754
Jami (+,-)		-886	-30 041	-43 840	-13 799	-23,7	+34 381	+28 754
2021 Hammasi: (+,-)		X	7 408 581	9 322 978	1 914 397	25,8	X	X
2022 Hammasi: (+,-)		X	12 208 005	15 975 432	3 767 427	30,9	X	X
HAMMASI (+,-)		**X**	**+4 799 424**	**+6 652 454**	**+1 853 030**	**+5,1 punktga**	**X**	**X**

Hozirgi kunda ovqatlanish maskanlari, xususiy savdo tarmoqlarining ayrimlari tomonidan tashkil etilgan. Lekin, markazlashgan tarzda “Buyurtma stoli” faoliyatini qishloq xo‘jaligida tashkil etilayotgan klasterlar tamonidan quyidagi tavsiyalar asosida mahalliy va xorijiy faol tadbirkorlar tomonidan shaffof amalga oshirilsa, maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Shu bois qishloq xo‘jaligiga xizmat ko‘rsatish subyektlarini, jumladan, “Baza-qurilish obyekti”, “Dala-magazin-uy”, “Dala-dasturxon”, “Vetapteka-chorvachilik majmuasi”, “Dala-chorvachilik majmuasi”, “Kimyo mas’uliyati cheklangan jamiyati – dala” va boshqa shakllardagi infratuzilma xizmat turlarini ilmiy-amaliy tavsiyalar asosida qayta tashkil etish va ular faoliyatini raqamlashtirish zarur[9].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvar kuni Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasida ta’kidlaganidek, “Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo‘lidan borish imkoniyatini beradi. Zero, bugun dunyoda barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda. Raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi. Shu bilan birga, meni juda qattiq tashvishga soladigan va bezovta qiladigan eng og‘ir illat – korrupsiya balosini yo‘qotishda ham ular samarali vositadir. Buni barchamiz teran anglab olishimiz darkor” [6]. Ushbu yo‘nalishda ilmiy izlanishlar natijasida xorijiy tajribalaridan misol keltiramiz: Yaponiya paytaxti Tokiodagi aholidan tushgan buyurtmalar joylashgan joyidan qat'i nazar 12 daqiqagacha, Kanada poytaxti Ottavada esa mijozning manziliga 10 daqiqagacha bo‘lgan vaqt davomida buyurtmasi yetkazib berilar ekan[9]. 2020 yil 26 mart, PQ-4653-sonli O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston respublikasi iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi hamda uning tizim tashkilotlari faoliyatini tashkil etish” to‘g‘risidagi qarori qabul qilindi [7]. Ushbu qarorni ijrosini amalga oshirish borasida joylarda amaliy ishlar bajarilmoqda. Bugungi kunda aholini oziq-ovqat bilan ta’minlash, qishloq xo‘jalik mahsulotlarini sifatli ravishda xizmat ko‘rsatish subyektlari tomonidan yil davomida nobudgarchilikka yo‘l qo‘ymasdan iste’molchilarga yetkazib birishda raqamli iqtisodiyotga o‘tish, uni hayotga joriy etish ko‘p masalalarni hal qilishda o‘z o‘rniga egadir. Bandlikga erishish, kambag‘allikni kamaytirish, shaffoflikni ta’minlash jarayonlari va xorij investorlarini iqtisodiyotimizga jalb etish, mahalliy va xorij tajribalaridan foydalanish imkoniyatlarini beradi[4].

Shu maqsadda 1 iyundan boshlab “20 ming tadbirkor – 500 ming malakali mutaxassis” dasturi amalga oshirilishi ma’lum qilindi. Unda ishtirok etish ixtiyoriy bo‘lishligi ham takidlandi. Dasturga 2023-2024-yilda jami $1 mlrd ajratiladi. Bu mablag‘lar hisobidan tadbirkorga kambag‘al oilalar a’zosini kasbga o‘qitib, ishli qilishiga qarab, amaldagidan past foizlarda va uzoqroq muddatga kredit beriladi. Tadbirkorning “amaliy monomarkaz” tashkil qilish va jihozlash hamda kasbga o‘qitish xarajatlari to‘liq qoplab beriladi. Dasturda ishtirok etadigan tadbirkorlarga soliqlardan alohida imtiyozlar berilishi kiitilgan. Jumladan, kamida 20 foiz kambag‘al oila a’zosini bir yil davomida ish bilan ta’minlasa, mol-mulk va yer soliqlaridan ozod qilinadi. 5 mln so‘mgacha ish haqi to‘layotgan tadbirkorlarga ijtimoiy soliq stavkasi 2 baravar kamaytiriladi. Kambag‘al oila a’zosi ham daromad solig‘idan ozod qilinishi dasturda tasdiqlangan.

Shuningdek, soliq va bojxona ma’murchiligida ham yengilliklar nazarda tutilgan. Xususan, bunday tadbirkorlar faoliyatida soliq tekshiruvlari o‘tkazilmaydi. Ularga (QQS) qo‘shimcha qiymat solig‘i hamda ortiqcha to‘langan soliqlar tekshiruvsiz qaytarib beriladi. Barcha soliqlardan qarzdorlikni bir yilgacha kechiktirib to‘lash imkoni yaratildi. Bojxona rasmiylashtiruvida “yashil yo‘lak” tartibi qo‘llaniladi. Dasturga kirgan tadbirkorlarga infratuzilma, yer va bino-inshootlar bilan ta’minlashda qo‘shimcha yengilliklar beriladi. Masalan, yer va bino-inshootlarni xususiylashtirishda bo‘lib to‘lash imkoniyati yaratiladi. Qiymati 50 mlrd so‘mdan yuqori loyihalar bo‘yicha infratuzilma xarajatlari to‘liq qoplab beriladi. Respublikamiz hududlarida istiqomat qilayotgan aholini, jumladan, qurilish sohasida mehnat qilayotgan fuqarolarni oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda, ekologik toza mahsulotlarni o‘z vaqtida ularga yetkazib berishda, qurilishda ishlayotganlarni favqulodda vaziyatlar masalalari bo‘yicha olim va mutaxassislar tavsiyalarini o‘rganishga to‘g‘ri keladi. Mamlakatimizda saraton va qandli diabet bilan kasallanganlar soni ortib bormoqda. Sabzavotchilik - o‘simlikshunoslikning ajralmas tarkibiy qismidir. Shuning uchun sabzavot ekinlarini hamma vaqt ham boshqa ekinlardan ajratib bo‘lmaydi. Chunki karam, kartoshka, sabzi kabilarni sabzavot ekini sifatida oziq-ovqatga, chorva mollari uchun yem-xashak va texnik maqsadlarda ishlatish uchun xom ashyo sifatida yetishtirish mumkin. Sabzavotchilik o‘simlikshunoslikning boshqa tarmoqlaridan quyidagi xususiyatlari bilan farqlanadi: Birinchidan: Sabzavotchilik ikkita: Ochiq maydonda (dalada); Yopiq maydonda ishlab chiqarish usuliga yega.Ikkinchidan: Sabzavotchilik xilma – xil ekinlar, turli xil va navlar to‘plamini o‘z ichiga oladi. Sabzavot ekinlari 14 ta botanik oilaga mansub 80 ga yaqin turni o‘z ichiga olib, shundan 40 ga yaqini O‘zbekistonda ekiladi. Uchinchidan: Sabzavotchilikda o‘ziga xos ishlab chiqarish usullari (ko‘chat yekish usuli, konservalash, qayta ishlash, sublimatsiya qilish). Sublimatorlar qo‘yidagi yumushlarni bajaradilar: mahsulotni muzlatish; mahsulotni suvsizlantirish-30 darajada issiqlikda; qadoqlash-kukun holatda). Bu ishlar bilan Toshkentda olimlar – mutaxassislar (Qobilov Ali Qobilovich) ish olib borgan edi. Hozir, boshqa mevalar qatorida olmani shu usulda 1987-yildan buyon saqlab kelayotganligi, ushbu yo‘nalishning ilmiy-amaliy asoslaridan hisoblanadi. Ilmiy-amaliy tajribalar va adabiyotlarda aytilishicha, qishloq

xo‘jalik mahsulotlarini sublimatsiya qilish natijasida 25 yilgacha saqlash imkoniyatlari bor ekanligi o‘rganilgan. Avlodlarimiz, asosan, qishloq xo‘jalik mahsulotlarini tabiiy holda, ya’ni oftobda –yangi somonli loy bilan shuvalgan tomda yoki yerda, arzon matalar ustida (bo‘z, marli, eski brezent), faner,taxtalar ustida (pamidor, o‘rik, qovun, olma va boshqa mahsulotlarni) quritib kelishganlar. Tabiiy sharoitda oftobda avlodlar uslublarida quritsak vaqtdan sifatning ayrim ko‘rsatkichlarini yo‘qotamiz. Havoning doimiy ravishda biz xohagandek o‘zgarmay turishiga kafolat berib bo‘lmaydi. Natijada vaqtdan yutqazib qo‘yish hollari ko‘p uchragan. Issiqlik bilan oftobda hozirgidek quritilganda 70-80% o‘z holatini o‘zgartirib yuborar ekan, sublimatsiya usulida 8-10%. Sublimatsiya natijasida mahsulot 10 marta kichiklashar ekan. Sublimatsiya qilingan o‘rik, karam, sabzilar ustida ilmiy-amaliy tajribalar o‘tkazilgan. A.Alimov, mutaxasis Uroqov axborotlariga asosan meva – sabzavotlarni 30° issiqlikda yopiq idishda – vakoumda quritilib non maxsulotlarini tayyorlashda uning kukuni solinmoqda. Isroil mamalakati sublimatsiya qilingan mahsulotlarga buyurtmalar berib shartnomalar tuzib sotib olmoqda. Iste’molchilarga buyurtma stollari orqali yil davomida qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirish, o‘z vaqtidayetkazib berish kabilar qo‘llaniladi. To‘rtinchidan: Sabzavotchilik o‘z navbatida bir necha tarmoqlarga bo‘linadi. Jumladan, sog‘lom va sifatli sabzavot urug‘larini yetishtirish bilan shug‘ullanadi. Birgina misol: Mashhur amerikalik shifokor N. Uoker sabzi haqida ko‘plab kitoblar yozgan. Uning sabzi haqidagi bahosi quyidagicha edi: “Sabzi dahshatli saraton kasalligiga qarshi kurashda zamonamizning mo‘jizasidir” [3]. Mamlakatdagi muammolarni hal qilish ko‘p hollarda kadrlarga bog‘liq. Aholini uy-joy, oziq-ovqat bilan ta’minlash borasida o‘tkazgan videoselektor yig‘ilishlarda “2021-yilda 54 ming oilani uy-joy bilan ta’minlashimiz zarur” – deyilgan edi.

O‘zbekistonda aholining ehtiyojini qondirish uchun yiliga kamida 100-150 mingta uy-joy qurish talab etiladi. “O‘tgan 4-yilda davlat dasturlari asosida 140 ming yoki yiliga o‘rtacha 35 mingdan uy-joylar barpo etilgan bo‘lib, bu oldinlari yiliga qurilgan o‘rtacha uy-joydan 4-5 baravar ko‘p, degani. 2024-yilgi dasturlar ham qabul qilinib, kam ta’minlangan oilalarni uy-joy bilan, jumladan yoshlarni, xotin-qizlarni, boshqa temir daftarga kiritilgan mehnatga yaroqli aholini bandligini ta’minlash va kambag‘allikni kamaytirish imkoniyatlari yaratilmoqda. Biz ilmiy maqolamiz tarkibiga kirgan ayrim yo‘nalishlarga o‘zimizni ta’rifmizni berishni lozim topdik, ular quyidagilar:

Bizning fikrimizcha: faol tadbirkorlik – bu innovatsion g‘oyalar, texnika va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlashga tashabbus bilan harakat qiluvchi mulkchilikning har xil turlarida va shakllarida mehnat qilayotgan sog‘lom, ma’naviy-ma’rifiy yetuklikka intiluvchi, ongli mehnati bilan atrofidagi kishilarga nisbatan o‘zining ilmiy-amaliy salohiyoti, vatanga, borliqga, qariyalarga, nogironlarga va boshqa muhtojlarga mehr beruvchi, tajribasi, asosli tavakkalchiligi yo‘nalishlarini hayotda qo‘llab kelayotgan, tabiat va jamiyat qonunlaridan to‘g‘ri foydalana oladigan, iqtisodiy, moliyaviy, siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy (jumladan farosatli), yekologik dunyoqarashni o‘zida mujassamlashtirgan va boshqalarga qaraganda ijobiy ustunlikka erishib kelayotgan zamon kutgan kishidir.

Bizning fikrimizcha: ishbilarmonlik-bu mulkchilikning bir xil turida va bir xil shaklida mehnat faoliyatini olib borayotgan, o‘zi bajarayotgan yumushini boshqalarga nisbatan yuqori darajada ustamonlik bilan uddalayotgan omma o‘rtasida obru-e’tiborga sazavor bo‘lib kelayotgan bir sohaning rahbari, mutaxassisi, chorvadori,dehqoni, tomorqa egasi, hunarmandi va kasb egasidir.

Xulosalarimiz:

1) 2022-yilni yakuni bilan Samarqand viloyatida eng yuqori ko‘rsatkich dukkakli ekinlar bo‘lib, bu tarmoq rentabellik darajasi 45,5 foizni, chorvachilikda esa baliqchilik tarmog‘ida 30,0 foizni tashkil etdi. 2021-yilda esa, Samarqand viloyati qishloq xo‘jaligida eng past rentabellik darajasi pillachilikda 9,2 foizni; yog‘li o‘simliklarda-12,5 foizni tashkil etdi;

2) Chorvachilikda 2021-yilda eng yuqori ko‘rsatkich asalarichilikda bo‘lib, rentabellik darajasi 35,7 foiz,1 tonna mahsulot tannarxi 40 528 ming so‘mni, sotilgan 1 tonna tovar uchun pul tushumi 55 000 ming so‘m, 1 tonna asaldan olingan foyda esa 14 472 ming so‘m bo‘ldi. Chorvachilik tarmog‘ida 2022-yilda asalarichilikda rentabellik darajasi 12,0 foizga tushib qoldi.Agar bu ko‘rsatkichni 2021-yil bilan solishtirsak 2022-yilda 13,7 punktga kamayib ketdi. Uning asosiy sabablaridan biri, asal bilan shug‘ullanuvchi mutasaddilarning bilimsizligi-ilmsizligi, asalari kasalliklarini yuqtirmaslikni o‘z vaqtida oldi olinmaganligi, iqlim sharoitini hisobga olmaslik va oziqa ratsionlarining talab darajasida emasligi bo‘ldi.

3) Samarqand shahrida markazlashgan “Buyurtma stoli” mavjud edi, qaytadan takomillashgan holatda tiklash va uni faoliyatini iqtisodiy raqamlashtirish zarur;

4)Ayrim tumanlarda, uzoq qishloqlarda mahalliy va xorijiy investorlarni qishloq xo‘jaligi tarmoqlariga jalb etish, qo‘shma dasturlar va qo‘shma korxonalar faoliyatini tashkil qilish juda sust.

5)Kambag‘alchilikni kamaytirish uchun asosan Xitoy Xalq Respublikasi tajribalari va faol tadbirkorlarimizga qo‘yilgan talablarga amal qilish, mahalliy sharoitda mulkchilikning har xil turlari hamda shakllarining uzoq qishloqlarda joriy etilmaganligi natijasida bu yo‘nalish past darajada bo‘lib qolmoqda.

Takliflarimiz:

1) Mamlakat hududlarida tarmoqlarni, jumladan, qishloq aholisiga uy-joy, asosan qishloqlarda infratuzilma qurilishlarida raqamli iqtisodiyotning joriy etilishi ustidan doimiy ravishda monitoring nazoratini o‘rnatish;
2) Olim va pedagoglar ishtirokida ularning ilmiy-amaliy tavsiyalari asosida markazlashgan “Buyurtma stol”lari ishini qaytadan mukammallashgan holda tiklash, ayniqsa qishloqlarda;
3) Buyurtma stollari faoliyatiga raqamli iqtisodiyotni joriy etishda rivojlangan davlatlar bilan qo‘shma dasturlar va qo‘shma korxonalar tashkil etish maqsadga muvofiq;
4) Kambag‘allikni kamaytirish va ishsizlikga barham berish uchun joylarda, ayniqsa uzoq qishloqlarda faol tadbirkorlikda mulkchilikning har xil turlari (ishlab chiqarish, tijorat, moliyaviy va konsalting turlari) va shakllarini (yakka tartibdagi tadbirkorlik; xususiy tadbirkorlik; jamoa tadbirkorligi; aralash tadbirkorlik) hayotga joriy etish.
5) Navoiy viloyati, Xatirchi tumanidagi “Uchqora” qishlog‘i uzumlari va mayizlari respublikada har yili o‘tkaziladigan “Uzum sayli” tanlov ko‘rgazmasida ishtirok etishini ta’minlash.
6) Yoshlar bandligini ta’minlashda va kambag‘allikni kamaytirishda infratuzilma turlarini tashkil etishning iqtisodiy samaradorlikni oshirishdagi imkoniyatlaridan xorij mamlakatlari bilan qo‘shma loyihalar va qo‘shma korxonalarni ko‘paytirish kerak.
7) Mamlakatning barcha yo‘nalishlarida shaffoflikni (korrupsiyaga yo‘l qo‘ymaslikni) amalga oshirish maqsadida taraqqiyotga erishish uchun raqamli iqtisodiy bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallash dasturini qaytadan tayyorlash va joriy etishni tezlashtirish zarur hamda shartdir.
8) Birlashgan Arab Amirligi (BAA),ya’ni Saudiya Arabistoni bilan tuzilgan 14 milliard dollarga hamda Xitoy Xalq Respublikasi bilan imzolangan 15 milliard dollarlik va boshqa xorij hamda mahalliy investerlar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga kiritilgan va kiritilayotgan sarmoyalardan (investitsiyalardan) samarali foydalanish uchun sarmoya kiritgan sarmoyachilar banklarning mas’ullari tomonidan mablag‘lardan maqsadli, o‘z muddatida shaffof foydanishlikni doimiy nazoratga olishni tashkil etish. Chunki ayrim nopok menejerlar (boshqaruvchilar) va xodimlar tomonidan o‘z manfaatlari yo‘lida ushbu mablag‘lardan foydalanishlari mumkin.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.MIrziyoyev ma’ruzasi. 2022-yil 24-26-mart kunlari mamlakatimizda ilk bor o‘tkazilgan Toshkent shahrida xalqaro investitsiya forumi (TXIF) materiallari.
2. Samarqand viloyati qishloq xo‘jaligi va statistika boshqarmasining 2021-2022-yil yakunlari bo‘yicha hisobotlari.
3. Qahhorov B.Sabzi sog‘lom: Sabzi (Mashhur amerikalik shifokori N. Uoker sabzi haqida ko‘plab kitoblar yozgan. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi jurnali, 2002-yil №5 59-bet).
4. Mualliflarning ilmiy va amaliy tadqiqotlari natijalari.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2021-yil 11-martdagi “Bozor tamoyillariga asoslangan ipoteka kreditlarini ajratish orqali aholini uy-joy bilan ta’minlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6186-son Farmoni.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvarda Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasi.// “Xalq so‘zi”, 2020-y., 25-yanvar.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining , 2020-yil 26-martdagi “O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi hamda uning tizim tashkilotlari faoliyatini tashkil etish” to‘g‘risidagi PQ4653-sonli qarori.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-87-sonli Farmoni.
9. Internet ma’lumotlari va boshqa manbalar.

XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLAR STRATEGIYASI TAHLILINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI



Tursunova Shaxnoza Farxod qizi
Toshkent amaliy fanlar universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Iqtisodiyotning joriy, uzoq muddatli va strategik moliyaviy rejalashtirish zarurati muhim xususiyatlarga ega. Ushbu holatda har bir xo‘jalik yurituvchi subyekt o‘zining mustahkam pozitsiyasiga ega bo‘lishi va uni ushlab turishi hamda har bir xo‘jalik yuritvchi subyekt tomonidan strategik boshqaruvni tashkil qilish va yuritish dolzarb vazifalardan biridir.

Kalit so‘zlar: Strategiya, prognoz, joriy strategiya, uzoq muddatli strategiya, moliyaviy rejalashtirish, sarflar, chiqimlar, tannarx, aktivlar, joriy aktivlar, budjet daromadlari, strategik boshqarish.

Abstract: The ability of an economy to develop long-term, short-term and strategic financial planning has a significant impact. In this case, it is important for the company to have a strong position and work on it, and the company is responsible for organizing and selling the company.

Key words: strategy, forecast, global strategy, long-term strategy, financial planning, expenses, expenses, cost, assets, working capital, budget revenues, strategic management.

Аннотация: Значительные успехи имеет долгосрочное, краткосрочное и стратегическое финансовое планирование экономики. В этом случае экономической единице важно иметь сильную позицию и работать над ней, организовывать и поддерживать стратегическое партнерство.

Ключевые слова: Стратегия, прогноз, итоговая стратегия, долгосрочная стратегия, финансовое планирование, расходы, стоимость, активы, оборотные средства, доходы бюджета, стратегическое управление.

KIRISH

Iqtisodiyot globallashuvi sharoitida har bir sohaning xususiyatidan kelib chiqib, tarmoqlarni rivojlantirishda uning strategiyasini belgilash muhim. Shu sababli xo‘jalik yurituvchi subyektlarda boshqaruv hisobini to‘g‘ri yuritish, maqsadi va vazifalaralarini belgilash asosiy ko‘rsatkichlardan biridir. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda ishlab chiqarish faoliyati xarajatlarini strategik boshqarish hisobini tashkil qilish va yuritish borasida ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Mazkur tadqiqotlarda xarajatlarni tan olish, sarf, chiqimlar talqin qilinishi, shuningdek, ularning ishonchliligini oshirish, tasniflash, tannarx hisoblashning zamonaviy usullaridan foydalanish, xarajatlar moddalarini dasturlash hamda prognozlash va takomillashtirishga erishilmoqda.

Budjet prognozi mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining qisqa va o‘rta muddatga belgilangan ssenariylari prognozining ajralmas muhim qismi hisoblanadi. Aniqlangan davlat budjeti xarajatlariga asoslanib daromadlar belgilanadi. Mamlakatning yaqin istiqboldagi asosiy rivojlanish yo‘nalishi sifatida mamlakat iqtisodiyoti raqobatdoshligini ta’minlash, qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish vazifasi belgilangan.

Dunyo mamlakatlari taraqqiyotida davlat budjeti sohasida olib boriladigan siyosati iqtisodiyotni tartibga solishda muhim moliyaviy instrumentlardan biri hisoblanadi. Uning samarali faoliyat yuritishi iqtisodiy rivojlanishga va aholi farovonligi oshishiga ijobiy ta’sir etadi. Shu sababli davlat budjeti daromadlarini istiqbolga prognozlashni davlat zimmasiga olgan vazifalarni amalga oshirish uchun zarur mablag‘lar bilan ta’minlash manbalarini aniqlash imkonini beradi. O‘zbekiston Respublikasida yuqori o‘sish sur’atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o‘zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish bo‘yicha belgilangan ustuvor vazifalarning bajarilishida budjetni prognozlashtirishning ahamiyati dolzarb masalalardan biridir. Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini samarali boshqarishning hayotiy sharti boshqaruvning mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarishi muvaffaqiyatini tahlil qilish va uning rivojlanishini maqsadli harakatlar bilan ta’minlash qobiliyatidir. Iqtisodiyotning har bir tarmog‘idagi xo‘jalik yurituvchi subyektlarning joriy aktivlarini samarali boshqarish omillari ularni shakllantirish va ishlab chiqarishda qo‘llash shartlarini har tomonlama baholashni, shuningdek, ishlab chiqarish siklining barcha bosqichlarini moddiy va moliyaviy resurslar bilan tizimli ravishda ta’minlash,

kengaytirilgan takror ishlab chiqarish strategiyasini prognozlash va amalga oshirish bilan tavsiflangan proporsionallikni saqlab qolish hisoblanadi. Shu bilan birga mahsulot ishlab chiqarish korxonalari aktivlarini strategik boshqarish vazifasi operatsion sikli uzluksiz bajarilishi, doimiy o‘zgarib turadigan mamlakat iqtisodiyotida narx va sifat jihatidan raqobatbardosh mahsulotlar bilan istiqbolli va barqaror bozorlarda ushbu subyektning barqaror mavjudligini ta’minlashdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiy adabiyotlarda xo‘jalik yurituvchi subyektlar strategiyasini tanlash masalasi noaniq bo‘lib, uni ta’riflashda turlicha yondashuvlar bilan tavsiflanadi.

Xususan, A. Chandler fikricha, “Strategiya korxonaning uzoq muddatli maqsad va vazifalarini belgilash hamda harakatlar yo‘nalishini tasdiqlash va ushbu maqsadlarga erishish uchun zarur resurslarni taqsimlash”[1] – deb hisoblaydi [1].

L. Filobokovaning fikriga ko‘ra, “Strategik menejmentning konseptual sxemasi ushbu jarayon texnologiyasi sifatida boshqaruvning tizimni tashkil etuvchi elementlar, ya’ni innovatsion muhitni tahlil qilish, innovatsion strategiyani ishlab chiqish, strategiyani amalga oshirish mexanizmlari, baholash va uning bajarilishini nazorat qilishdir. Ushbu sxemada strategik boshqaruv faoliyatining uzluksizligi, takrorlanuvchanligi va samaradorligini ta’minlovchi elementlar strategik fikrlash, strategik axborot va strategik moslashuvchanlikdir” [2].

R. Grantning quyidagi fikrlarini tasdiqlashimiz maqsadga muvofiqdir, ya’ni: “Ma’lumot bazasi hajmi jihatidan qanchalik ulkan bo‘lishidan qat’iy nazar, bu ma’lumot emas. Bu ma’lumot rudasi, xolos. Biznes uchun zarur bo‘lgan ma’lumot faqatgina birlamchi ko‘rinishda mavjud, agarda umuman u mavjud bo‘lsa. Aksariyat boshqaruv qarorlari, ayniqsa, strategik qarorlarni qabul qilish uchun rahbariyatga biznes faoliyatining chegarasi ortida bo‘lib o‘tayotgan jarayonlar haqidagi ma’lumotlar talab etiladi. Natijalar, imkoniyatlar, tahdidlar biznes yoki korxona doirasi tashqarisidagina mavjuddir” [3].

Kasatkina fikricha, “Pul oqimlarini istiqbolli rejalashtirish va modellashtirish sirg‘aluvchi rejalashtirish tamoyillari asosida amalga oshiradi. Bunday rejalashtirish gorizonti har yili bittaga siljiganida, rejalashtirishning boshidan asta-sekin joriy-yilda amalga oshirishni boshlash to‘g‘risida qaror qabul qilinadigan loyihalar aniqlanadi. Bunday loyihalarning samaradorligini baholash tizimli ta’sirni hisobga oladi” [4].

I. Frumin va M. Stepanovaning fikricha, “Joriy aktivlarni boshqarish uchun odatiy ssenariyni bashorat qilish algoritmidan foydalanishni, vazifalarni shakllantirish, atrof-muhitni tahlil qilish, hodisa evolyutsiyasini retrospektiv tahlil qilish, taxminiy ssenariylarni yaratish, ularni takomillashtirish va mazmunli to‘ldirish, strategik tanlovlarni ishlab chiqish va individual integratsiyani nazarda tutadi hamda strategik tanlovlarni yagona strategiyaga aylantiradi. Optimal dasturlash ssenariy usuliga foydali qo‘shimcha bo‘lishi mumkin. Optimallashtirish muammosini aniqlash va hal qilish jarayonida qo‘pol ssenariylar aniqlanadi va tafsilotlar bilan to‘ldiriladi” [5].

Xususan, V. Mochulaev tomonidan “Xo‘jalik yurituvchi subyektning retrospektiv va prognoz davridagi zarur joriy aktivlarini hisoblash modeli va uning yakuniy qiymatini aniqlashda o‘z joriy aktivlarining ortiqchaligi (taqchilligi)ni aniqlash modeli taklif etilgan. Ushbu usul pul oqimlarini prognoz qilish va korxonaning yakuniy qiymatini aniqlashning ishonchliligini oshiradi” [6] – deb fikr bildirgan.

T. Degtyareva tomonidan esa “xo‘jalik yurituvchi subyekt ishlab chiqarishining mintaqaviy aspektida rivojlanishini bashorat qilish uchun eksponensial tekislash asosida R.Braun ning adaptiv polinom modelidan foydalanish taklif etiladi” [7] – deya fikrlagan.

Pardaev va Z. Pardaevlarning fikriga ko‘ra, “Strategik balans ...strategik boshqaruv hisobining ma’lumotlar bazasini ichki tashkiliy bilimlar bilan tezkor integratsiyalashuvini ta’minlagan holda, ma’lumotlar bazasining zarur yaxlitligini va uning strategik boshqaruv qarorlar qabul qilishdagi samarasini keskin oshiradi” [8] – deb hisoblaydi.

U. Kostaevning fikricha, “Boshqaruvning strategik va operativ darajalari orasidagi doimiy moslik ushlab turiladi va joriy operativ va strategik prognozlar va rejalarning muhim moslashuvi ta’minlanadi. Tadqiqot natijalari bo‘yicha strategik boshqaruvni amalga oshirishda strategik prognoz balansi tahlili shakllanish jarayonlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan uch funksional maydon ajratib ko‘rsatildi” [9].

Sh. Tojiboevaning fikricha, “Strategik tahlil marketing tizimida korxonani uzoq muddatga mo‘ljallangan bozorni prognozlashdagi pozitsiyasidir. Istiqbolli moliyaviy tahlil – amaldagi holatni o‘rganish asosida moliyaviy holat va uning alohida birliklari bo‘yicha kelajakdagi o‘zgarishlarning kutilishlarni baholab beruvchi tahlil turidir” [10].

Ushbu fikrlar mamlakat iqtisodiyotining barcha xo‘jalik yurituvchi subyektlarida strategik boshqaruvni tashkil qilish, shuningdek, tahlil tizimini tashkil qilishda muhim deb hisoblaymiz.

1 Chandler A.D. Strategy and Structure: A Chapter in the History of Industrial Enterprises / A.D. Chandler. Cambridge, Mass, MIT Press, 1962. –210 p.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot davomida, tizimli tahlil, statistik guruhlar va taqqoslama tahlil, kompleks tahlil, ekspert baholash va boshqa usullardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning strategik boshqaruv hisobida, shuningdek, budjetlashtirishdan foydalanishda muhim xususiyatlari mavjud bo‘lib: budjetlashtirish – boshqaruvni tashkil qilishga tizimli yondashuvni shakllantiradi; budjetlashtirish – boshqaruvning to‘rtta fazasini, ya’ni rejalashtirish, nazorat qilish, tashkil qilish va rag‘batlantirish (motivatsiya)larning barchasini o‘ziga qamrab oladi; uchinchidan, budjetlashtirish xo‘jalik yurituvchi subyekt faoliyatini boshqarishdagi boshqaruvning muhim funksiyalari bo‘lgan – vazifalarni aniqlashtirish, resurslarni rejalashtirish, faoliyatni baholash, ishchi-xodimlar faoliyatini baholash orqali rag‘batlantirish, belgilangan ko‘rsatkichlar bajarilishini nazorat qilishni amalga oshiradi. Xo‘jalik yurituvchi subyektlar aktivlarini boshqarish strategiyasini ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Shu bilan birga aktivlar boshqarishni strategik rejalashtirish operatsion siklning ishlashi jarayonida boshqaruv siyosatini ishlab chiqishda tayyor mahsulot ishlab chiqarish jarayonini moddiy resurslar bilan ta’minlash va uni qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonasining keyingi davrlarini ilgari surish uchun zarur bo‘lgan qo‘shilgan qiymatni olish bilan amalga oshirishga qaratilgan bo‘lib, ulardan samarali foydalanishni oldindan belgilaydi.

Xo‘jalik yurituvchi subyektning aktivlarini boshqarish jarayonida yuzaga keladigan strategik maqsadlarni hal qilish nafaqat uzoq muddatli maqsad va vazifalarni belgilashda, balki ularni amalga oshirish uchun shart-sharoitlarni ta’minlash, o‘zgaruvchan sharoitlarda maqsadli ko‘rsatkichlarni tuzatish usullari bilan ham belgilanadi. Operatsion davrda qabul qilingan strategiyani ishlab chiqish bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun zarur natijalar monitoring qilinadi. Aktivlarni boshqarish strategiyasini amalga oshirish qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonasi faoliyatini barqarorlashtirish va biznes tuzilmalari rentabelligini oshirishning eng to‘g‘ri usuli bo‘lgan boshqaruv vositalari va usullarini takomillashtirishni talab etadi. Chunki joriy aktivlar ishlab chiqarishning barcha bosqichlaridan o‘tadi hamda sotish sikli va aylanish davrining davomiyligi bo‘yicha farqlanadi.

Ilmiy tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, xo‘jalik yurituvchi subyektlarda aktivlarning yetishmasligi ishlab chiqarish va tijorat siklining buzilishiga, likvidlikning yo‘qolishiga va past foyda olishga hamda ortiqcha asossiz ravishda yuqori miqdorda moliyalashtirishga olib keladi. Shuning uchun ham joriy aktivlarni ularning turlari bo‘yicha uzoq muddatli prognozlash zarurati tug‘iladi. Prognozlashtirish iqtisodiyotning rivojlanish yo‘nalishlarini, uning alohida elementlarini kelajakdagi ilmiy bashorat qilish yoki maqsadlarga erishishning optimal usullarini izlash tushuniladi. Ilmiy izlanishlarimizga ko‘ra, amalda prognozlashtirish aniq bir tamoyilga tayangan holda amalga oshirilmaydi. Shu sababli mamlakatning yaqin istiqboldagi rivojlanishini asosiy yo‘nalishi sifatida iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta’minlash, qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish vazifasi belgilangan.

Aktivlarni boshqarish bo‘yicha tanlangan siyosatga qarab moliya-xo‘jalik faoliyatini prognozlash tizimlari rejalar, smetalar va budjetlar shakllarining tarkibi, ularni ishlab chiqish va tasdiqlash qoidalari, analitik rejalashtirish yo‘nalishlari jihatidan juda xilma-xildir.

Iqtisodiy adabiyotlarda joriy aktivlarni boshqarishni pronozlashtirishning turli modellari mavjud bo‘lib, ular joriy aktivlar qiymatini istiqbolli baholash usullariga, tarkibi va tuzilishi, joriy aktivlar elementlaridan foydalanish samaradorligi, operatsion siklning biznes jarayonlari uchun joriy aktivlarning mavjudligiga tashqi va ichki omillarning ta’siriga asoslanadi. Aktivlardan foydalanish samaradorligini prognoz qilish mahsulot ishlab chiqarish korxonasi joriy aktivlari aylanmasi, likvidliligi, to‘lov qobiliyati, rentabelligini baholashga asoslanadi. Mahsulot ishlab chiqarish korxonalarida joriy aktivlar tarkibini prognozlash natijalariga ko‘ra, prognoz joriy aktivlarning eng muhim elementlari bo‘yicha tuzilgan bo‘lib, ular quyidagilardan iborat: debitorlik qarzlari, moliyaviy investitsiyalar, pul mablag‘lari, pul mablag‘lari ekvivalentlari va aksiyalar.

XULOSA

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda strategik rejalashtirish nafaqat o‘z shaxsiyatini, balki ishonchni ham berib, o‘z harakatlarining samaradorligi va kelajakdagi yutuqlarga ishonch hosil qilish imkonini beradi. Shuningdek, xo‘jalik yurituvchi subyektning rivojlanishini boshqarish strategiyasi uning rivojlanishini belgilovchi yo‘nalishdagi strategik iqtisodiy zonalardagi faoliyatga asoslanishi maqsadga muvofiq. Shu bilan birga strategiyada alohida qarorlarning oldindan aytib bo‘lmaydigan summalar yig‘indisi bo‘lmasligi lozim. Shu sababli har bir qaror o‘ylangan va aniq strategiyaning bir qismi bo‘lishi shart. Aks holda faqat bitta yo‘nalishda ishlash butun xo‘jalik yurituvchi subyektning moliyaviy holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Demak, xo‘jalik yurituvchi subyektlarni boshqarish sohasida muvaffaqiyatli ishlashi uchun bir nechta qarama-qarshi imkoniyatlarni tanlashda murakkab va o‘zaro kelishuv qarorlarini qabul qilishga tayyor bo‘lishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Chandler A.D. Strategy and Structure: A Chapter in the History of Industrial Enterprises / A.D. Chandler. Cambridge, Mass, MIT Press, 1962. 210 p.
2. Филобокова Л.Ю. Стратегия и тактика управления оборотным капиталом малых предприятий в условиях глобализации экономических процессов. – М.: “Дайджест-финансы”, №11. – С. 63.
3. Грант Р.М. Современный стратегический анализ. /Пер. с англ., /под ред. В.Н. Фунтова. 5-е изд. –СПб.: Питер, 2008. –560 с.
4. Касаткина Е.В. Проблемы прогнозирования денежных потоков для оценки эффективности инвестиционных проектов /Е.В. Касаткина. // Теория и практика общественного развития. – Москва., 2010. № 4. – С. 278.
5. Фрумин И.Л. Сценарное прогнозирование, его приложения к исследованию некоторых проблем аграрной экономики. / И.Л. Фрумин, М.Н. Степанова //Известия Челябинского научного центра УРО РАН. –2007. -№ 2. – С. 92.
6. Мочулаев В.Е. Прогнозирование собственного оборотного капитала и учет его фактического значения при определении итоговой стоимости предприятия (бизнеса) /В.Е. Мочулаев //Вопросы оценки. – М., 2013.- № 2 (72). – С. 51.
7. Дегтярёва Т.Д. Прогнозирование аграрного производства региона с применением адаптивных моделей / Т.Д. Дегтярёва, Е.А. Чулкова //Известия Оренбургского государственного аграрного университета. – М., 2012. – Т. 33. № 1-1. – С. 208.
8. Paranev A.X., Pardaeva Z.A. Boshqaruv hisobi. Darslik. – T.: “Iqtisod-Moliya”, 2019. – B. 452.
9. Kostanev U.U. Strategik boshqaruv hisobini tashkil qilishning nazariy va amaliy asoslari. Monografiya. – T.: “Iqtisod-Moliya”, 2020. – 180 b.
10. Tojiboyeva Sh. A. Moliyaviy tahlil-2. Darslik. – T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2021. – B. 313.

ПРОЦЕССЫ ЦИФРОВИЗАЦИИ АО “HUDUDGAZTA’MINOT”

Хусанов Кахрамон Нишонович
Доктор философии по экономике (PhD), научный иследователь
Ташкентский международный университет Кимё

Аннотация: В данной статье освещается актуальность цифровой экономике и цифровизации отраслей экономики в настоящее время. Кроме того автором изучено перспективы внедрения виртуальных услуг и информационных технологий в сфере услуг на примере АО “Худудгазтаминот”.

Ключевые слова: цифровая экономика, цифровизация, трансформация, цифровая трансформация, информационно-коммуникационные технологии, региональная экономика, цифровая инфраструктура, интернет.

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyotning bugungi kundagi dolzarbligi, iqtisodiy sohalarning raqamlashtirilishi yoritilgan. Bundan tashqari muallif tomonidan xizmat ko‘rsatish sohasida “Hududgazta’minot” aksiyadorlik jamiyatini virtual xizmatlarni joriy etish istiqbollari hamda axborot texnologiyalarini joriy etilishi o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli iqtisodiyot, raqamlashtirish, transformatsiya, raqamli transformatsiya, axborot kommunikatsiya texnologiyalari, hududiy iqtisodiyot, raqamli infratuzilma, internet.

Abstract: This article highlights the relevance of digital Economy and the digitalization of economic sectors at present. Besides andSecondly, the prospects for the introduction of virtual services and information technologies in the service sector were studied on the example of Hududgazta’minot JSC.

Key words: digital economy, digitalization, transformation, digital transformation, information and communication technologies, regional economy, digital infrastructure, internet.

ВВЕДЕНИЕ

Стратегическая цель развития газовой экосистемы на базе единой цифровой платформы – это повышение фондоотдачи основных газовых активов в режиме реального времени, реализация высококонкурентной стратегии развития с целью увеличения доли на внешнем и внутреннем газовых рынках за счет поставки на них продукции с высокой добавленной стоимостью и постепенного снижения в экспорте доли природного газа.

Вопрос цифровизации экономики Узбекистан является наиболее актуальным. По данному направлению Руководителем страны поставлена цель, определены задачи, и вместе с тем есть непростые и неотложные вопросы по уменьшению негативного воздействия монополии хозяйствующих обществ с участием государства на конкурентоспособность экономики, повышению эффективности системы предоставления льгот и преференций, а также снижению регуляторной нагрузки на субъекты предпринимательства [1-4].

Активная цифровизация газовой экономики привела к началу формирования цифровой (платформенной) экосистемы газового производства. Для газовой экосистемы характерна разработка цифровых платформ, петроороботизация газового производства с поставкой на мировой и внутренний газовый рынок ряда высоконкурентных продуктов газового производств

ЛИТЕРАТУРНЫЙ ОБЗОР

Учитывая существующие определения и признаки цифровой экономики, можно обобщенно рассматривать данный феномен как систему социально-экономических отношений, которая основана на применении масштабного количества данных, генерируемых и перерабатываемых в различных информационных системах, посредством новейших математических методов и моделей переработки данных, и направленную, в целях получения прибыли, на создание новых производств, платформ, моделей

управления, новых рынков и новых потребителей. Стоит отметить, что цифровая экономика охватывает все аспекты производственное хозяйственной деятельности: производство, менеджмент, маркетинг, финансы, внешние каналы связи, и нацелена на повышение эффективности и конкурентоспособности бизнеса и экономики в целом.

Таким образом, с точки зрения многих авторов о понятие цифровой экономике дано в ниже.

Иванов В.В. “Цифровая экономика – виртуальная среда, которая дополняет нашу реальность. При этом виртуальная реальность, это все же продукт мыслительной деятельности человека, а появление компьютера позволило её оцифровать” [5].

Мещеряков Р.В. “Цифровая экономика – это экономика, основанная на цифровых технологиях, то есть исключительно область электронных товаров и услуг, а также экономическое производство с использованием цифровых технологий” [6].

Энговатова А.А. “Цифровая экономика – это экономика, которая основана на новых методах генерирования, обработки, хранения, передачи данных, а также цифровых компьютерных технологиях” [7].

Дини П. “Цифровая экономика – экосистема, определяющаяся совокупностью устройств, сервисов и технологий” [8].

Донг Х. “Цифровая экономика – это цифровые артефакты и инфраструктура передачи данных, их хранения и обработки, пользователей систем, включая социальные, экономические, политические, психологические и иные факторы, влияющие на осуществление взаимодействий” [9].

Ходиев Б. Ю. “Цифровая экономика положит конец доминированию офисных клерков и прочих работников сферы нематериального труда и ознаменует появление новой социальной прослойки. Ключевым фактором цифровой трансформации в деятельности субъектов рынка является развитие цифровой культуры” [10].

Калужский М.Л. “Определяет цифровую экономику как коммуникационную среду экономической деятельности в сети Интернет, а также формы, методы, инструменты и результаты ее реализации” [11].

Катасонов В. “В самом общем виде цифровую экономику можно представить как ту часть экономических отношений, которая опосредуется Интернетом, сотовой связью, ИКТ” [12].

Газовая промышленность претерпевает значительные изменения, вызванные различными факторами, такими как технологический прогресс, экологические проблемы и изменения в энергетической политике. Вот некоторые ключевые аспекты трансформации газовой промышленности:

МЕТОДОЛОГИЯ ИССЛЕДОВАНИЙ

Использованы методы эмпирического исследования, системного и сравнительного анализа, статистической группировки и экспертной оценки.

АНАЛИЗ И РЕЗУЛЬТАТЫ

Цифровая экономика играет значительную роль в различных отраслях, включая газовую промышленность. Вот несколько способов, как цифровые технологии влияют на газовую отрасль:

Мониторинг и управление оборудованием: Цифровые системы мониторинга и управления позволяют контролировать работу газопроводов, компрессорных станций, газораспределительных пунктов и другого оборудования в реальном времени. Это помогает оптимизировать производственные процессы, предотвращать аварии и снижать затраты на обслуживание.

Аналитика данных и прогнозирование: Алгоритмы машинного обучения и аналитика данных используются для прогнозирования потребления газа, оптимизации распределения ресурсов, а также для выявления аномалий или возможных проблем в сети.

Интернет вещей (IoT): Датчики и устройства IoT могут быть использованы для мониторинга параметров газопроводов, температуры, давления и состояния оборудования. Это позволяет операторам быстро реагировать на любые отклонения и предотвращать проблемы.

Цифровые двойники и моделирование: Создание цифровых двойников (цифровых копий реальных объектов и систем) и использование моделей позволяют проводить виртуальное тестирование новых стратегий управления, оптимизировать производственные процессы и предсказывать реакцию системы на изменения условий.

Облачные технологии: Использование облачных сервисов позволяет хранить и обрабатывать большие объемы данных, обеспечивая доступность информации и снижая затраты на инфраструктуру.

Блокчейн: Технология блокчейн может быть использована для обеспечения прозрачности и безопасности транзакций, ведения учета поставок и управления цепями поставок в газовой отрасли.

Использование аналитики для оптимизации процессов: Цифровые платформы аналитики позво-

ляют оптимизировать процессы добычи, транспортировки и распределения газа, что приводит к повышению эффективности и снижению издержек.

Улучшенное взаимодействие с клиентами: Цифровые каналы коммуникации и сервисы позволяют улучшить взаимодействие с клиентами, предоставляя им доступ к информации о потреблении газа, счетам и услугам онлайн.

В результате цифровизации “Hududgazta’minot” поставки природного и сжиженного газа были реализованы:

Цифровизация природного газа	
	Askug Billing – запущена программа, которая специализируется на учете и контроле природного газа потребителей.
	Askug Yur – запущена программа, которая специализируется на учете и контроле природного газа оптовых потребителей.
	Askug Balance – программно-ориентированный мониторинг показателей вычислителей, установленных на границе территории, с помощью модемных устройств, направления газопроводов, входящих в зону и установленных вычислителей границы
	Управление газораспределительным пунктом – запущена система онлайн-контроля для анализа состояния газораспределительных пунктов и деятельности их обслуживающего персонала.
	Управление газопроводами – запущена система онлайн-контроля для анализа состояния газовых сетей и деятельности их обслуживающего персонала.
	ArcGIS – разрабатываются электронные топографические карты газораспределительных сетей, а также зданий, внедряется геоинформационная система.
	Ситуационный центр – Внедряется возможность автоматического опроса суточных объемов природного газа, направляемых потребителям с газораспределительных станций.
	Оптовые потребители. Внедряется автоматизированная система обслуживания газовых приборов.
	Нарушения при поставках природного газа. Чтобы помочь тем, кто хочет принести пользу всемирному делу Свидетелей Иеговы, подготовили брошюру под названием “Благотворительное планирование служения Царству во всем мире”.

Сжиженный газ	
	E-Gaz – Учет и контроль сжиженного газа автоматизированный
	GPS – доставить сжиженный газ потребителям Начата проверка процесса выдачи.
	Просмотр видео – сжиженного газа потребителям Наполнение газовых баллонов, включая доставку создан онлайн-контроль процессов, Запущена прозрачность.
	ID-karta– потребители со специальными удостоверениями личности. Предоставляется и оплачивается потребителями возможность сделать это в удобное время.
	Стикеры – Используется потребителями бытовые газовые баллоны со штрих-кодом наклейки предусмотрели и дали возможность контролировать движение воздушных шаров в режиме онлайн.
	Управление охранным оборудованием – Внедрена программа промышленной безопасности и охраны труда путем регулирования технических процессов.
	Сжиженный газ автоматизировать процессы технического обслуживания газового оборудования потребителей.
	Внедряется система онлайн-подачи заявок через Агентство государственных услуг по поставке сжиженного газа.
	Информационная система UzGPS к информационной системе E-Gas интегрируется.
	HGT Service Программа HGT Service запущена с целью совершенствования системы технических механизмов газового оборудования потребителей и “онлайн” контроля за деятельностью ответственных сотрудников и оплаты им положенных прав.

Эти мероприятия были проведены подразделением “Hududgazta’minot”, что привело к повышению финансовой устойчивости предприятия.

ВЫВОДЫ И ПРЕДЛОЖЕНИЯ

В настоящее время в Стратегии “Цифровой Узбекистан 2030” в Республике Узбекистан изложены меры государственной политики, направленные на цифровое изменение важнейших отраслей экономики и социальной сферы. В нем реализация цифровой трансформации в период до 2030 года определена как одна из национальных целей развития экономики страны.

Мы считаем, что для эффективной реализации процесса цифровой трансформации можно разработать (цель), разделить процесс на составляющие (анализ), разработать план реализации проекта и реализовать его (результат). Предполагается, что будет задействована целая команда экспертов, которые являются зрелыми профессионалами своего дела. Учитывая неадекватность зрелого специалиста-эксперта, положительного результата можно достичь, отдав трансформацию аутсорсингу.

В результате цифровой экономики и вхождения ее технологий в реальный сектор экономики (предприятия и фирмы) очевиден рост ВВП . Кроме того, повышение производительности труда в производственной сфере и сфере услуг, качественное и своевременное ускорение процесса модернизации, сокращение ручного труда, создание новых рабочих мест (широкое использование услуг фрилансеров), появление новых видов продукции и услуг и так далее цифровизация и интеграция процессов, цифровизация продуктов и услуг, цифровые бизнес-модели и позволяют клиентам получать доступ к определенной информации, к ним относятся передовые технологические платформы).

Список литературы:

1. Постановление Президента Республики Узбекистан “О мерах по развитию цифровой экономики в Республике Узбекистан” NoПП-3832 от 3 июля 2018 г.
2. Указ Президента Республики Узбекистан “Об утверждении Стратегии “Цифровой Узбекистан-2030” и мерах по ее эффективной реализации” NoУП-6079 от 5 октября 2020 г.
3. Указ Президента Республики Узбекистан “О совершенствовании механизмов государственного контроля и внедрении системы “цифровой энергоконтроль” в топливно-энергетической отрасли” NoУП-77 от 24 мая 2023 г.
4. Указ Президента Республики Узбекистан “О мерах по эффективной организации государственного управления в сфере развития конкуренции и защиты прав потребителей в рамках административных реформ” NoУП-108 от 6 июля 2023 г.
5. Сетевое издание “РИА Новости” [Электронный ресурс]. – Электрон дан. – Режим доступа: https://ria.ru/20170616/1496663946.html (дата обращения: 28.01.2020).
6. Сетевое издание “РИА Новости” [Электронный ресурс]. – Электрон дан – Режим доступа: https://ria.ru/science/20170616/1496663946.html (дата обращения: 26.01.2020).
7. Филиппова, И.А. Развитие цифровой экономики в России [Электронный ресурс] / И.А. Филиппова, Д.Д. Незванов // Вестник УлГТУ. – 2018. – №3 URL: https://cyberleninka.ru/article/n/razvitie-tsifrovoy-ekonomikiv-rossii (дата обращения: 25.01.2020)
8. Dini P. Network of Digital Business Ecosystems for Europe: Roots, Processes and Perspectives. Digital Business Ecosystems. Bruxelles: European Commission. – 2017. – pp. 26-29.
9. H. Dong, F.K. Hussain An Integrative view of the concept of Digital Ecosystem // Proceedings of the Third International Conference on Networking and Services. Washington, USA: IEEE Computer Society. – 2017. – pp. 42-44
10. Ходиев Б. Ю. Узбекистан: построение “цифровой экономики” //Российский внешнеэкономический вестник. – 2017. – № . 12. – С. 5-12.
11. Калужский М.Л. Маркетинговые сети в электронной коммерции: институциональный подход. – М.; Берлин: Директ-Медиа, 2014. – С.402.
12. Катасонов В. Цифровая экономика – светлое будущее человечества или биржевой пузырь? [Электронный ресурс]. – Режим доступа: http://www.kramola.info/vesti/novosti/cifrovaya-ekonomika-svetloe-budushchee chelovechestva-ili-birzhevoy-puzyr (дата обращения: 13.08.2017).

O‘ZBEKISTONDA AHOLI TURMUSH DARAJASINI OSHIRISH YO‘LLARI

ORCID: 0009-0005-4210-8946

Abdullayeva Madina Kamilovna
I.f.n., Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Fundamental iqtisodiyot kafedrasi dotsenti

Eldorbekov G‘ofurbek Iskandarbek o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) yo‘nalishi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: O‘zbekiston iqtisodiyoti so‘nggi yetti yilda ijobiy o‘zgarishlarga yuz tutmoqda. Xususan, ijtimoiy iqtisodiyot, aholini ijtimoiy muhofaza qilish va ularning turmush darajasini oshirishda bir qator muhim islohotlar amalga oshirildi. Bu esa aholi farovonligini birmuncha oshirdi. Ammo hozirgi vaqtda ham ijtimoiy iqtisodiyot bo‘yicha ba’zi muammolar mavjud. Ularga ta’sir etuvchi omillar miqdori turli bo‘lib, davlat siyosatining vazifasi barcha omillarni birdek nazoratga olish hisoblanadi. Ushbu maqolada O‘zbekiston ijtimoiy iqtisodiyotidagi ba’zi muammolar va ularning kelib chiqishi haqida muallif fikrlari keltirilgan. Shuningdek, maqolada muammolarga optimal yechimlar haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston, ish haqi, aholi, ijtimoiy iqtisodiyot, turmush darajasi, budjet, xulq-atvor.

Abstract: The economy of Uzbekistan has undergone positive changes in the last seven years. In particular, a number of important reforms were implemented in the social economy, social protection of the population and raising their standard of living. This slightly increased the welfare of the population. However, there are still some problems in the social economy. The number of factors affecting them is different, and the task of state policy is to control all factors equally. This article presents the author’s opinion about some problems in the social economy of Uzbekistan and their origin. The article also discusses optimal solutions to problems.

Key words: Uzbekistan, salary, population, social economy, standard of living, budget, behavior.

Аннотация: За последние семь лет в экономике Узбекистана произошли положительные изменения. В частности, реализован ряд важных реформ в сфере социальной экономики, социальной защиты населения и повышения его уровня жизни. Это несколько повысило благосостояние населения. Однако в социальной экономике по-прежнему существуют некоторые проблемы. Число факторов, влияющих на них, различно, и задача государственной политики состоит в том, чтобы контролировать все факторы в равной степени. В данной статье представлено мнение автора о некоторых проблемах социальной экономики Узбекистана и их происхождении. В статье также рассматриваются оптимальные решения проблем.

Ключевые слова: Узбекистан, заработная плата, население, социальная экономика, уровень жизни, бюджет, поведение.

KIRISH

Aholining yashash sharoitlarini yaxshilash butun dunyodagi rivojlanayotgan davlatlar uchun asosiy muammo hisoblanadi. Rivojlangan davlatlar ushbu muammoning asosiy yechimi sifatida pirovardda natijasi real ish haqi o‘sishiga olib keluvchi texnologik taraqqiyot yo‘lini tanlaganlar. Lekin, rivojlanayotgan mamlakatlaridagi fiskal siyosatning birmuncha samarasizligi, yashirin iqtisodiyotning yuqori ulushi, iqtisodiy erkinlik darajasining pastligi sababli real ish haqini oshirish juda qiyin hisoblanadi. Agar davlat real ish haqini oshira olmasa, aholi yashash sharoitlari tushib ketadi va aholi ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘ladi. Shu sababli ham davlat ish haqi munosabatlarini to‘g‘ri tashkil eta olsa, budjetning ijtimoiy himoyaga sarflanuvchi xarajatlar qismi ham optimallashadi. D.Rikardo va T.Maltuslarning “Yashash uchun vosita minimum” konsepsiyasida ish haqini yashash uchun zarur vositalarning fiziologik minimumi bilan bir xil deb hisoblanadi [1]. Lekin bunday qarash to‘g‘ri emas. Bu minimum o‘z ichiga ishchi kuchi shakllanadigan iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy shart-sharoitlar tug‘dirgan ehtiyojlarni ham oladi. Zamonaviy makroiqtisodiyot asoschisi J.M. Keyns fikriga ko‘ra, iqtisodiyotni tahlil etishda inson psixologiyasini o‘rganish muhim omil kasb etadi. Keyns “Bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi” kitobida shunday deydi: “Ochiq gapiradigan bo‘lsam, tan olish kerakki biz egalik qiladigan axborotlar temir yo‘llar, mis koni, tekstil fabrikasi, patentlangan dori, dengizdagi layner yoki shahardagi uyning 10-yildan keyingi (hatto

5 yil) daromadini tahlil etishda juda kam ahamiyat kasb etadi yoki umuman qiymatga ega emas.” Uning fikricha, iqtisodiyot “Animal spirits” (insonning xulq-atvori) sababli doimiy o‘zgarishga yuz tutadi [2].

ADABIYOTLAR SHARHI

Adabiyotlar sharhi fundamental bilimlarga ega A.Marshallning “Principles of Economics” kitobidan boshlandi. Ushbu asarda klassik maktab vakillarining mehnat bo‘yicha fikrlari va unga Marshall tomonidan berilgan munosabatlar tahlil etildi.

Z.T. Gaibnazarova va Sh.A. Isamuxametov hammuallifligidagi klassik “Iqtisodiyot nazariyasi” kitobida esa ushbu fikrlar uzluksiz davomiyligi kuzatildi. Mashhur Amerika va Yevropa qit’alari iqtisodchilari fikrlari bilan birga, rus va o‘zbek olimlarining ish haqi munosabatlari, mehnatni takror ishlab chiqarish va unga ta’sir etuvchi omillar o‘rganildi. Olimlarning quyidagi fikrlari tadqiqotdagi asosiy g‘oyani belgilab berdi: “Ish haqining miqdori ishchi kuchini takror ishlab chiqarishga, ishchining o‘zini, oila a’zolarini boqishga yetadigan darajada bo‘lishi lozim” [3].

Ba’zi amaliyotchi iqtisodchilar tomonidan O‘zbekistonda yashash sharoitlari to‘g‘risida amalga oshirgan tadqiqotlari tahlil etildi [4]. Tadqiqotlarning Jahon Banki ma’lumotlari, shuningdek, O‘zbekistondagi real ijtimoiy-iqtisodiy sharoitga mos tushishi o‘rganildi [5].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Aholi turmush darajasini oshirishdagi muammolar, unga omillar ta’sirini aniqlash, ular orasidagi bog‘liqlikni topish uchun analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi. Davlatlararo ko‘rsatkichlarni tahlil etishda kuzatuv va taqqoslash metodlari ishlatildi. Ma’lumotlarni aniqroq ko‘rsatish uchun grafik usulidan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Birinchi navbatda amalga oshirilgan tahlil natijalariga ko‘ra ijtimoiy himoyaning bosh manbayi bo‘lmish budjet tahlil etib chiqildi. Nisbatan ochiq ma’lumotlarga egaligi uchun Toshkent shahrining 2024-yil uchun e’lon qilingan budjet parametrlari tadqiqot uchun tanlandi. Unga ko‘ra, ba’zi hayratlanarli raqamlarga duch kelindi. 2024-yil uchun “Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi hududiy boshqarmasi” bo‘yicha 13,95 mlrd. so‘m va “Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi” bo‘yicha 3,85 mlrd so‘m ajratilgan. Lekin, “Obodonlashtirish bosh boshqarmasi” ga naq 544,6 mlrd so‘m sarflanishi kutilayotgan bo‘lib, bu bo‘limdagi xarajatlar aholini ijtimoiy qo‘llashga ketuvchi xarajatlardan ko‘ra 30,5 barobarga ko‘proq hisoblanadi [6]. Tranzaksion xarajatlarni pasaytirish maqsadida ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlam uchun sarflanuvchi pullar bilvosita obodonlashtirish orqali emas, balki bevosita transfert to‘lovlari sifatida sarflanishi iqtisodiy optimal bo‘lar edi. Prezidentimiz tomonidan “Daraxtlar sonini qo‘shib yozish, ularni noto‘g‘ri parvarishlash” masalalari bo‘yicha aytilgan tanqidlardan to‘g‘ri xulosa chiqarilgan holda yashillashtirish siyosatini olib borilishi ham, kelgusi yillar uchun xarajatlarni birmuncha kamaytirib, aholini ijtimoiy muhofaza qilishga sarflanuvchi xarajatlarni oshirishi mumkin [7].



1-rasm: Ijtimoiy himoya darajasining davlat iqtisodiy qarorlariga ta’sir etishining doiraviy aylanish grafigi

Keyingi bosqich sifatida budjetda tejalgan mablag‘ni to‘g‘ri sarflash natijaga olib keladi. O‘zbekistonda 2024-yil uchun minimal iste’mol xarajatlari miqdori kishi boshiga bir oyga 621 ming so‘m etib belgilangan [8]. Bu bir kunga taxminan 20 700 so‘mga to‘g‘ri kelmoqda. Lekin, bu nisbatan past ko‘rsatkich hisoblanadi. Masalan, bu ko‘rsatkich 2024-yil holatiga ko‘ra, Rossiyada 15 453 rubl (2 086 155 so‘m) [9], Qozog‘istonda esa, 43 407 tengeni (1 181 972 so‘m) tashkil etadi [10]. Minimal iste’mol xarajatlari ko‘pgina rasmiy faoliyat yurituvchi tashkilotlar uchun oylik belgilashning muhim asoslaridan biri hisoblanadi. Aholida qanchalik kam mablag‘ bo‘lsa, bundan ishlab chiqaruvchilar ham, davlat ham iqtisodiy manfaat ko‘rmaydi. Bu nazariyalarni o‘z vaqtida Karl Marks va Keyns isbotlab berishgan edi [11].

Bundan tashqari ushbu hodisaning iqtisodiy agent xulq-atvoriga ta’sir ko‘rsatib, uni yashirin iqtisodiyotga o‘tishiga sababchi bo‘lishi mumkin. Ya’ni, yetarlicha ijtimoiy yordam ko‘rsatilmagan va rasmiy ishda past ish haqi to‘langan fuqaro endi norasmiy faoliyat bilan shug‘ullanib, davlatga soliq to‘lashdan qochishi mumkin. Bu esa, o‘z navbatida, mamlakat budjetidagi defitsitni yanada ko‘payishiga sababchi bo‘ladi. Budjet chegaralangan holda hukumat transfer mablag‘lariga kamroq mablag‘ ajratadi.

Grafikdan ko‘rish mumkinki, xuddi Keynsning multiplikator samarasidek, aholiga past darajada ijtimoiy yordam ko‘rsatilishi budjet defitsitini yanada ko‘paytiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ijtimoiy iqtisodiyot O‘zbekiston siyosatida muhim o‘rin olib keladi. Lekin endi ijtimoiy himoyaga nafaqat cheklangan omillar orqali, balki kompleks yondashish vaqti keldi. Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagi takliflar beriladi:

1. Budjetda pirovard samaradorligi 60 foizdan past hisoblanuvchi tarmoqlardagi xarajatlarni “Ijtimoiy himoya va munosib ish bilan bandlik” bo‘yicha yo‘nalishga sarflash.
2. Minimal iste’mol xarajatlarini hududlardagi markaz narxlari bo‘yicha belgilash.
3. MDH davlatlaridan o‘rnak olgan holda o‘rtacha oylik bilan bir qatorda median oylik ko‘rsatkichidan foydalanish.
4. Median oylik aniqlangunga qadar real ish haqi miqdorini ko‘rsatishdagi qo‘shimcha ko‘rsatgich sifatida iste’mol xarajatlariga bog‘langan “Big Mac” indeksidan (yoki boshqa xorijiy analogi) foydalanish. 2023-yil holatlariga ko‘ra, ushbu ko‘rsatkich Rossiyada 85 ta, Qozog‘istonda 54 ta va O‘zbekistonda taxminan 20 tani tashkil etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar va saytlar ro‘yxati:

1. Marshall, Alfred. Principles of Economics, 8 (en), London: Macmillan and Co, 1920 – p. 280–286 b.
2. George A. Akerlof, Robert J. Shiller. Animal spirits: How human psychology drives the economy, and why it matters for global capitalism. USA:Princeton University Press, 2010. – p. 3–6.
3. Z.T. Gaibnazarova, Sh.A. Isamuxametov. Iqtisodiyot nazariyasi. (Darslik) – T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2020. 225–227 b.
4. https://m.kun.uz/uz/news/2020/11/04/5600-som-daromadi-bor-odam-kambagal-emas-obid-hakimov-nimani-nazarda-tutgandi.
5. https://www.worldbank.org/en/understanding-poverty.
6. https://e-qaror.gov.uz/ru/doc/1608623.
7. https://www.gazeta.uz/oz/2023/10/16/yashil-makon.
8. https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/49764-aholining-umumiy-daromadlari-2023-yil-yanvar-dekabrr
9. https://tass.ru/ekonomika/19531445.
10. https://uchet.kz/news/stavki-mrp-i-mzp-na-2024-god.
11. Itoh, Makoto. “The Formation of Marx’s Theory of Crisis.” Science & Society, vol. 42, no. 2, –1978, pp. –129–155.

AHOLI FAROVONLIGINI OSHIRISHDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI UCHUN KREDIT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMI

Bobayev Isroiljon Abdinabiyevich
Namangan muhandislik qurilish instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada aholi farovonligini oshirishda tadbirkorlik subyektlari uchun kredit tizimini takomillashtirish mexanizmi hamda tadbirkorlik va biznesni rivojlantirish maqsadida aholini, jismoniy va yuridik shaxslarni tijorat banklari va raqamli banklar tomonidan moliyalashtirish to‘g‘risidagi fikr va mulohazalar keng yoritilgan.

Kalit so‘zlar: kredit, kredit turlari, bank tizimi, xususiy banklar, raqamli banklar, bank plastik kartalari, kredit karta, kredit tarixi, bank marjasi, Markaziy bankning qayta moliyalashtirish stavkasi, kredit garovi va ta’minoti.

Abstract: In this article, it’s given the information about the mechanism of improving the credit system for the entities of entrepreneurship to improve the well-being of the population and the comments and ideas on financing of the population, physical persons and legal entities by commercial banks and digital banks in order to develop entrepreneurship and business.

Key words: credit, types of credit, banking system, private banks, digital banks, bank plastic cards, credit card, credit history, bank’s margin, refinancing rate of the Central Bank, loan collateral and provision.

Аннотация: В данной статье рассмотрен механизм совершенствования кредитной системы субъектов предпринимательства для повышения благосостояния населения, а также мнения и комментарии по вопросам финансирования населения, физических и юридических через лиц коммерческими банками и цифровыми банками. в целях развития предпринимательства и бизнеса.

Ключевые слова: кредит, виды кредита, банковская система, частные банки, цифровые банки, банковские пластиковые карты, кредитная карта, кредитная история, банковская маржа, ставка рефинансирования Центрального банка, обеспечение и обеспечение по кредиту или долгов.

KIRISH

Yangi O‘zbekistonning milliy iqtisodiyotini jadal sur’atlarda rivojlantirish sharoitida turli mulkchilik subyektlari faoliyat ko‘rsatib, ularning ichida aksariyati tadbirkorlik bilan shug‘ullanishadi. Bu jarayon esa har qanday korxonaning moliyaviy masalalari qay darajada rivojlanganligi bilan bog‘liq. Bugungi kunda har qanday biznesni yuritish uchun eng kerakli vositalardan biri bu – pul hisoblanadi. Ammo “puldan pul yaratish oson ish emas”. Shuning uchun ajdodlarimiz “pul topish qiyin lekin uni sarflash oson” deyishgan. Tadbirkorlik faoliyatini boshlash uchun moliyaviy manba bo‘lishi kerak. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, kichik biznes subyektlari oz mablag‘ sarflab, o‘z faoliyatlari davomida ko‘proq miqdordagi pul mablag‘larini aylantirishyapti. Bu jarayonda agar moliyaviy mablag‘lar kichik korxonaning o‘zidagi biron-bir manbadan tushsa, ular ichkariga tashqaridan kelib tushsa – tashqi moliyaviy mablag‘lar deyiladi. Kredit bu foizda qaytarish sharti bilan pul va material mablag‘larini ma’lum bir muddatda foizda qaytarish sharti bilan beriladigan iqtisodiy munosabatlar yig‘indisi hisoblanadi. Kreditning quyidagi turlari mavjud: 1. Bank krediti. 2. Xo‘jaliklararo kredit. 3. Tijorat krediti. 4. Iste’mol krediti. 5. Ipoteka krediti. 6. Davlat krediti. 7. Xalqaro kredit.

Ta’kidlash lozimki, bank tizimida so‘nggi yillarda quyidagi o‘zgarishlar bo‘ldi: Respublikamizda 2021-yildan boshlab, 4 ta raqamli banklar o‘z moliyaviy bank xizmatlarini taqdim etib kelishmoqda. Bular quyidagi banklar: TBC BANK, ANOR BANK, UZUM BANK (avvalgi APELSIN BANK), va TENGE BANK, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasi bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risidagi farmoniga ko‘ra moliyaviy xizmatlarning ommabopligini oshirish, banklarning hududlarga kirib borishini kengaytirish, aholi punktlarida turli xildagi 24/7 uzluksiz moliyaviy bank xizmatlarini ko‘rsatish orqali bankomatlarni o‘rnatib, bank plastik kartochkasidagi pul mablag‘larini naqdlashtirishni yo‘lga qo‘yish,

banklarda davlat ulushini kamaytarish orqali xususiy banklar sonini yanada ko‘paytirish, raqamli bank xizmatlarini yo‘lga qo‘yish, yuqori reytingda turuvchi xorijiy banklar bilan hamkorlik diplomatik aloqalarni o‘rnatish bo‘yicha islohotlar va rejalar ishlab chiqilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Bugungi kunda Respublikamizdagi barcha tijorat banklarida aholiga raqamli bank xizmatlari ko‘rsatib kelinmoqda. Masalан: ATB “Qishloq Qurilish bank”da “depozit banking” bank xizmati bank mobil dasturi yoki bank mobil ilovasi orqali jismoniy shaxslar – omonatchilar amalga oshirish mumkin bo‘lgan quyidagi rasmda o‘z aksini topgan:

1-rasm: ATB “Qishloq qurilish bank” da “deposit banking” mobil dasturi orqali jismoniy shaxslar bo‘lgan omonatchilar amalga oshirish mumkin bo‘lgan amaliyotlar[1]

Banklardan kredit berish tartibi:

1. Kredit oluvchi bank mijozining identifikatsion ma’lumotlari
2. Kredit karta bu alohida bank kartasi bo‘lib, bank tomonidan qo‘yilgan limit doirasida pul mablag‘larini ishlatish huquqini beruvchi kreditlashning shakli
3. Kredit ajratish mumkin bo‘lgan jismoniy shaxslar. Banklarda milliy valyutada bank plastik kartasi mavjud bo‘lgan hamda doimiy daromad manbaiga (oylik ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, pensiya) ega bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari
4. Kredit miqdori: kredit karta orqali mablag‘i 50 000 000 so‘mgacha ajratiladi. Qarz oluvchi jismoniy shaxsga ajratiladigan kreditning oylik to‘lov miqdori uning oxirgi 6 oyi davomida olgan daromadi o‘rtachasining 50 % dan oshmasligi lozim
5. Kredit muddati 4 yil (48 oy). Kredit ajratilgan sanadan boshlab dastlabki 24 oyi (2 yil) davomida bank mijozi tomonidan kreditni bankka qaytarish grafigiga asosan qaytarilgan mablag‘dan qayta foydalanish
6. Kreditning foiz stavkasi: 27 % foiz Bank mijozi tomonidan ishlatilgan mablag‘ miqdoriga ishlatilgan kun uchun foiz hisoblanadi.
7. Qarz oluvchi tomonidan taqdim etiladigan hujjatlar:
   7.1. Kredit karta olish va kredit ajratish to‘g‘risida ariza
   7.2. Qarz oluvchining pasport yoki ID kartasi nusxasi
   7.3. Quyidagi ta’minot turlaridan biri; uchinchi shaxs kafilligi,
   7.4. Kredit qaytmasligi xatarini sug‘urta qilish

1 https://bank.uz/uz/news/hammasini-telefon-orqali-boshqarasiz-bankka-borish-shart-emas25390 O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarini rasmiy veb sayti yangiliklari

Kreditni qaytarishda garovga avtomashina yoki ko‘chmas mulk qo‘yish

8. Kredit ajratish tamoyillari. Kredit karta qaytarishlilik, to‘lovlilik, muddatlilik va ta’minlanganlik shartlari asosida ajratiladi
9. Kreditning so‘ndirilishi. Kredit kartadan foydalanish davomida mijozning bank plastik kartasiga kelib tushadigan mablag‘lar kreditning asosiy qarzi va foizlarini so‘ndirishga yo‘naltiriladi.
10. Limit to‘xtalishi. Mijoz tomonidan so‘ndirilishi lozim bo‘lgan oylik to‘lov grafigi o‘z vaqtida to‘lanmaganda shu kunning o‘zida kredit karta bloklanadi va keyingi amaliyot to‘xtatiladi.

Darhaqiqat, kredit olish yirik xaridlarni amalga oshirishning eng tez va qulay usullaridan biridir. Ayniqsa, mablag‘ jamg‘arishga imkoniyat bo‘lganida va pul zarur bo‘lganida, kredit olish ko‘pchilik aholi qatlamida yagona yechim hisoblanadi. Bir tomondan, bank kredit ajratish bo‘yicha ijobiy qaror qabul qilishga ta’sir qiluvchi omillar yetarlicha shaffof va hammaga ma’lum. Biroq bankning barcha talablarini bajarish imkoniyati har doim ham mavjud emas. Qarz oluvchiga so‘ralgan kreditning bank tomonidan ijobiy tasdiqlanishi imkoniyatini oshirish uchun ba’zi maslahatlar berib o‘tamiz. Ehtimol sizda bankda omonat yoki joriy hisob-raqam, ish haqi kartasi (siz bank mijozisiz-ish haqi loyihasinining ishtirokchisi), debet kartasi ochilgan yoki kredit shartnomasi tuzilgan va ilgari olingan kredit yopilgan. Bank uchun siz tekshirilgan va ishonchli mijozsiz, bu dalil kredit olish imkoniyatini oshiradi. Kredit tarixi bu qarz oluvchining moliyaviy majburiyatlari, berilgan barcha kreditlar, kafilliklar to‘g‘risidagi ma’lumotlardir. Kredit arizasi bo‘yicha qaror qabul qilishdan oldin bank kredit byurosidan qarz oluvchining kredit tarixi haqida ma’lumot oladi. Shuningdek, qarz oluvchining o‘zi ham bankka ariza berishdan oldin kredit olish imkoniyatlarini baholash uchun o‘zining kredit tarixi bilan bepul tanishishi mumkin. Daromad miqdori qanchalik yuqori bo‘lsa, bank ma’qullashi mumkin bo‘lgan kredit miqdori ham shunchalik katta bo‘ladi. Shuning uchun, agar sizda bir necha daromad manbalari mavjud bo‘lsa, ularni ham hisobga olinishi uchun rasmiy hujjatlar bilan tasdiqlashingiz kerak. Qo‘shimcha daromad manbalari quyidagilar bo‘lishi mumkin: shartnoma bo‘yicha ijaraga berilgan ko‘chmas mulk, depozitlar bo‘yicha foizlar, qimmatli qog‘ozlardan olingan foyda, qo‘shimcha ish joyidan olingan daromad, pensiyalar, premiyalar va boshqalar. Muhim jihati shundaki, bank aliment va ijtimoiy nafaqalarni daromad manbayi, deb hisoblamaydi.

Banklar kredit turiga qarab hujjatlar ro‘yxatini talab etadi, faqatgina pasport yoki ID karta va boshqa kengaytirilgan hujjatlar to‘plami bo‘lishi mumkin. Bank siz haqingizda qanchalik ko‘p ma’umotga ega bo‘lsa, kredit olish imkoniyatingiz shunchalik yuqori bo‘ladi. Shu sababli bankka o‘z haqingizda iloji boricha ko‘proq aniq ma’lumot berishingiz maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Bir vaqtning o‘zida bir necha bankka kredit so‘rab murojaat qilmaslik kerak. Kredit olish uchun arizalar kredit tarixida aks etadi, natijada kredit olish uchun murojaat qilgan shaxs xuddi bankdan kredit olishga harakat qilayotganidek ko‘rinishii mumkin. Hozirgi kunda tijorat banklarining NIKI bazasida bank mijozining boshqa bankdan qarzi mavjud bo‘lgan taqdirda, boshqa bankdan kredit olish imkoniyati bo‘lmaydi. Shuning uchun fuqarolarimiz faqat bitta bank kredit olishlari kerakligini eslatib o‘tamiz. Tijorat banklari kredit turiga qarab qarz yuki darajasini mustaqil ravishda belgilaydilar. Oylik daromad va xarajatlar nisbatini hisoblash va oylik to‘lovning maqbul miqdorini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Daromadning 40 %dan ko‘prog‘ini kredit to‘lash uchun sarflash qarz oluvchi uchun xavflidir, eng oddiy fors-major holatlarida ham siz to‘lovlarni o‘z vaqtida to‘lay olmasligingiz mumkin. Banklar uchun ham kredit oluvchining qarz yuki yuqoriligi xavfli hisoblanadi. Shuning uchun qarz yuki ko‘rsatkichi qanchalik baland bo‘lsa, kredit olish imkoniyati shunchalik past bo‘ladi.

Kredit oluvchi fuqarolarga kafillar haqida fikr bildiradigan bo‘lsak, agar so‘ralgan kredit miqdori katta bo‘lsa, unda kafillar yoki birgalikda qarz oluvchilarni jalb etish yaxshiroqdir. Agar kutilmagan vaziyat yuzacha kelsa, bank qarz oluvchining pulni qaytarishi uchun ko‘proq kafolatlarga ega bo‘ladi va kreditni ma’qullashi ehtimoli ortadi. Bundan tashqari, aksariyat banklar birgalikda qarz oluvchilar va kafillarning daromadlarini jami daromad sifatida hisobga oladi, bu esa kattaroq miqdorda kredit olish imkoniyatini oshiradi.

NATIJA VA TAHLILLAR

Natija va tahlillarga ko‘ra, tadbirkorlarni kredit olishdan asosiy maqsadi foyda olish hisoblanadi. Shunday ekan, tadbirkorlikni rivojlantirishda ichki mablag‘larning mavjudligi bozor subyektining likvidligini oshiradi. Kichik korxona o‘z tovarlarini sotib, xizmat ko‘rsata borgan sari, buning evaziga pul olib, o‘z xarajatlarini qoplashga sarflaydi. Eskirib borayotgan uskunalar (ish qurollari, mashinalar, binolar)ni yangilash va almashtirish qiymati bo‘lmish amortizatsiya xarajat turlaridan biridir. Odatda kichik korxona yoki mikrofirma amortizatsiya mablag‘lari talab etilgan paytda naqd turishi uchun ularni alohida saqlaydi. Sarf-xarajatlar qoplangandan keyin qoladigan mablag‘ korxonaning daromadi hisoblanadi. Garchi mulk egasi yoki ishbilarmonlar daromadni to‘liq olib qo‘yishlari mumkin bo‘lsa-da, ular ko‘p hollarda daromadning bir qismini bo‘lsa ham ishda (kapital aylanmasini) qoldiradilar (2-rasmga qarang). Ushbu rasmda aholining barcha daromadlari keltirilgan bo‘lib unda aholi farovonligini yaxshilash uchun sarflanadigan pul mablag‘lari keltirilgan. Bularga aholi daromadlari, ish haqi, nafaqa, stipendiya, subsidiya, bonuslar, moddiy yordam, tushumlar kiradi. Bu barcha daromadlar pul mablag‘lariga qarab yo‘naltirilganligini ko‘rishimiz mumkin.



2-rasm: Kapital aylanishi jarayonida daromadni yanada ko‘payishi (muallif ishlanmasi)

Tadbirkorlik va biznes loyihalarini moliyalashtirish uchun banklarga $ 300 million kredit linyasini ajratiladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti “Hududlarda tadbirkorlik loyihalarini moliyalashtirish mexanizmlarini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorini imzoladi. Qarorga ko‘ra, banklarga Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasining mablag‘lari hisobidan $ 300 million kredit linyasini ajratiladi. Ushbu mablag‘ kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyatini moliyalashtirish uchun foydanalaniladi. Kredit linyasi banklarga 7 yil muddatga, shu jumladan, 3 yillik imtiyozli davr bilan yillik 10 foiz stavkada milliy valyutada ajratiladi. Banklar tomonidan kreditlar ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohasidagi loyihalarni amalga oshirish uchun yillik 14 foiz stavkada, 5 yilgacha muddatga, shu jumladan, 2 yilgacha bo‘lgan imtiyozli davr bilan 5 milliard so‘mgacha miqdorda ajratiladi. Bunda qurilish, savdo, vositachilik sohasidagi loyihalar, shuningdek, aksizosti tovarlar ishlab chiqaruvchilar, davlat korxonalari va ustav kapitalida davlat ulushi mavjud bo‘lgan yuridik shaxslar hamda aylanma mablag‘larni to‘ldirish holatlari bundan mustasno[2]. Tadbirkorlikning faoliyat davri 6 oygacha bo‘lganda 1 milliard so‘mgacha, 6 oydan 1 yilgacha bo‘lganda 2 milliard so‘mgacha, 1-yildan 2 yilgacha bo‘lganda 3 millard so‘mgacha, 2-yildan 3 yilgacha bo‘lganda 4 milliard so‘mgacha va 3-yildan oshganda 5 milliard so‘mgacha kreditlar ajratiladi. Kredit linyasi mablag‘larning kamida 70 foizi Nukus shahridan, viloyatlarning ma’muriy markazlaridan va viloyat bo‘ysunuvida bo‘lgan shaharlardan tashqari hududlarda faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlarga ajratiladi.

O‘zbekistonda 2024-yil iyuldan boshlab kredit ajratishning barcha bosqichlari raqamlashtirilgan holda elektron platformalarda amalga oshiriladi. Bu haqda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning “Aholini kichik va o‘rta biznesga keng jalb qilishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori loyihasida keltirilgan. Hujjatga muvofiq, davlat dasturlari doirasida ajratilayotgan kreditlardan samarali foydalanish, ularning o‘z vaqtida qaytarilishini ta’minlash maqsadida 2024-yil 1-iyuldan boshlab:

- kredit ajratishning barcha bosqichlari (arizani ko‘rib chiqish, qaror qabul qilish, kafillik berish va kredit ajratish) raqamlashtirilgan holda elektron platformalarda amalga oshiriladi;
- kredit ta’minotlarini nazorat qilish, garovga olingan mulklarni taqiqdan to‘liq yoki qisman chiqarish hamda almashtirish jarayonlari elektron platformalar orqali markazlashgan holda tashkil qilinadi;
- zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida mijozlar biznes-rejalar asosida faoliyat yuritayotgani, pul oqimlari va boshqa ko‘rsatkichlarini tahlil qilish orqali xatarlar oldindan aniqlanadi;
- davlat dasturlari doirasida tuman (shahar) va mahallalarga ajratiladigan kreditlar hajmi yuzaga kelgan muammoli kreditlar ulushidan kelib chiqib belgilanadi.

Aholini kichik va o‘rta biznesga keng jalb etish bo‘yicha hududiy komissiyalar tashkil etilib, hududlar va davlat dasturlari yo‘nalishlari kesimida 2024-yilda 2 million biznesga jalb qilinadi. Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi tomonidan loyihalarni moliyalashtirish uchun “Biznesni rivojlantirish banki” ga jami $ 300 million AQSH dollari miqdorida mablag‘lar ajratiladi. Shundan $ 75 million AQSH dollari bank ustav kapitalini oshirishga yo‘naltirilib, qolgan $ 225 million AQSH dollari subordinar qarz sifatida 15 yil muddatga, 5 yillik imtiyozli davr bilan yillik 5 % stavkada beriladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

2024-yil 1-yanvardan 2026-yil 1-yanvarga qadar davlat xaridlari maxsus axborot portalida davlat ishtirokidagi yirik korxonalar bilan kooperatsiya asosida tashkil qilingan kichik tadbirkorlik subeektlariga o‘zlari ishlab chiqargan tovarlarni (mahsulotlarni) davlat buyurtmachilariga bir moliya yili davomida jami 10 milliard so‘mgacha qiy-

2 Manba: https://uzreport.news/economy/tadbirkorlik-loyihalarini-moliyalashtirish-uchun-banklarga-300-mln-kredit-liniyasini-ajrat dan olingan ma’lumot.

matda to‘g‘ridan to‘g‘ri shartnomalar asosida sotishga ruxsat berilsin. Respublikamizda faoliyat ko‘rsatayotgan barcha tadbirkorlik subyektlari, xususan, yakka tartibdagi tadbirkor, xususiy tadbirkor, mas’uliyati cheklangan jamiyatlarning tovar aylanmasidan kelib chiqqan holda, tijorat banklaridan onlayn platforma orqali kreditlashning shaffofligi ancha ta’minlagan holda, tadbirkorlarni vaqtini tejagan holda masofaviy tarzda biznes yuritishda har tomonlama qulay shart-sharoit yaratib berilmoqda. Kredit ajratishning barcha bosqichlari ya’ni arizani ko‘rib chiqish, qaror qabul qilish, kafillik berish va bank mijoziga kredit mablag‘ini ajratish raqamlashtirilgan holda elektron platformalarda amalga oshiriladi, kredit ta’minotlarini nazorat qilish, garovga olingan ko‘char yoki ko‘chmas mulklarni (uy-joy yoki avtomashina) taqiqdan to‘liq yoki qisman chiqarish hamda almashtirish jarayonlari elektron platformalar orqali markazlashgan holda tashkil etiladi, zamonaviy innovatsion axborot texnologiyalari yordamida mijozlar o‘zlari tuzgan biznes rejalar asosida faoliyat yuritayotgani, pul oqimlari va boshqa ko‘rsatkichlarini tahlil qilish orqali xatarlar oldindan aniqlanadi va foyla olishga intiladilar. Hududlardagi kichik biznes markazlarida o‘qigan tadbirkorlarning loyihalarini eng qulay shartlarda moliyalashtirish yo‘lga qo‘yiladi. Bunda kichik biznes loyihasining 10 foiziga tadbirkor investitsiya kiritsa, 45 foiziga “Biznesni rivojlantirish banki”ning o‘zi qolgan 45 foizi uchun Davlat ko‘magiga moliyaviy resurs yo‘naltiriladi. Kreditlar tadbirkorlarga 5-7 yil muddatga imtiyozli shartlar asosida beriladi. Ushbu kredit mablag‘larining 150 million dollari bo‘yicha kredit liniyalari 2023-yil 1-oktyabrdan ochiladi. O‘z biznesini yo‘lga qo‘ya olgan, “kredit va soliq tarixi” toza bo‘lgan tadbirkorlik subyektlariga faoliyatini yangi bosqichga olib chiqish uchun kredit olishda garov talabi 50 foizga kamaytiriladi. Shuningdek, loyiha doirasida olib kiriladigan asbob-uskunalarni sug‘urtalash, xom ashyo va materiallarni sertifikatlash xarajatlari markazlar tomonidan qoplab beriladi. Umuman olganda, dasturda ishtirok etayotgan kichik biznes korxonalari faoliyatini uch yilgacha tekshirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Takliflar

1. Xorijiy davlatlarda ishlayotgan O‘zbekistonlik fuqarolarimizni O‘zbekistonga xorijiy valyutada yuborayotgan pul mablag‘larini Respublikamizda faoliyat ko‘rsatayotgan barcha tijorat yoki raqamli banklarning MOBIL BANK ILOVALARIDA XALQARO PUL O‘TKAZMALARI xizmatini yo‘lga qo‘yish va foydanish orqali AQSh dollariga yoki O‘zbek so‘miga ayriboshlab, ushbu pul mablag‘larini VISA, HUMO yoki UZCARD kabi bank plastik kartalariga o‘tkazib uni 24/7 ONLINE ATM ya’ni BANKOMATLAR orqali AQSh dollarida naqdlashtirishni joriy etish.
2. Tijorat yoki raqamli banklarning MOBIL BANK ILOVALARI orqali bank plastik kartasidan boshqa bank plastik kartasiga pul mablag‘larini o‘tkazish “P2P” Bank mobil pul mablag‘larini o‘tkazayotganda komissiya haqini pasaytirish
3. Tadbirkorlikni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash orqali aholi farovonligini oshirish maqsadida Respublikamizda faoliyat ko‘rsatayotgan ayrim raqamli banklarning kredit foiz stavkasini tushirish, bank marjasini iloji bo‘lsa 6 % deb belgilansa, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalarshtirish stavkasi 14 % + Raqamli Bank Marjasi 6 % = 20 % dan aholi va tadbirkorlik subyektlariga kredit mablag‘larini ajratishni amaliy choralarini ko‘rish.
4. O‘zbekistonda Raqamli banklar sonini yanada ko‘paytirish orqali bank mijozlariga va norezidentlarga tez va sifatli masofaviy bank xizmatlarini ko‘rsatish
5. O‘zbekistonda Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish va O‘zbekiston Respublikasinining chekka hududlarida va ovullarida elektr-energiya muqobilligini ta’minlash maqsadida QUYOSH PANELLARI ni kredit asosida bo‘lib to‘lash sharti bilan aholiga berish ishlari salmog‘ini yanada ko‘paytirish

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Shavkat Mirziyoyevning “2020–2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida” gi farmoni. 2020-yil 12-may. https://lex.uz
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-noyabrdagi “Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda mikromoliya xizmatlarining o‘rni va ulushini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 364-son qarori. e-qaror.gov.uz›doc/1640130
3. “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini milliy valyutada kreditlash” D.Botaxanov So‘nggi milliy tadqiqotlar nazariy asl Respublika Ilmiy Uslubiy Markazi, 6-jild, 7-son, 13.07/2023-yil.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 25.04.2022-yil sanasidagi “2022-2026-yillarda Namangan viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 211-sonli qarori.
5. https://lex.uz/ O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.
6. https://cbu.uz/uz/ O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki.
7. https://anorbank.uz/credits/ Anor bank raqamli banki.
8. https://uzumbank.uz/ru Uzum bank raqamli banki.

MAMLAKATGA JALB QILINGAN XORIJIY KAPITALNING TOVARLAR VA XIZMATLAR IMPORTI SALOHIYATIGA TA'SIRINI EKONOMETRIK MODELLAR BILAN BAHOLASH

Saydullayev Azamat Jo'raqul o'g'li
TDIU tayanch doktoranti

Annotatsiya: Joriy maqolada 1998-yildan 2022-yilgacha O'zbekistonga kirib kelgan Xorijiy kapitalning mamlakatda tovarlar va xizmatlar importiga ta'sirini o'rganishdan iborat. Model va uning asosiy aniqlaydigan ko'rsatkichlarining tahliliga asoslangan tendensiya analizi natijalariga ko'ra, barcha o'zgaruvchilar islohotlardan so'nggi davrda juda yaxshi natijalar ko'rsatgan. Regression tahlili O'zbekistonning tovarlar va xizmatlar o'sishi importlarning o'sishiga va FDI kiritishning ahamiyatiga tasir qilishini tasdiqladi. 1998, 2022-yillarda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlarga proksi o'zgaruvchi sifatida qo'shilgan va musbat, ahamiyatli ekanligi aniqlandi, bu esa O'zbekistonning tovarlar va xizmatlar import o'sishiga iqtisodiy islohotlar tomonidan musbat ta'siri borligini tasdiqladi. Tovarlar va xizmatlar importlarini o'sishini kuchaytirish uchun importlarni yana oshirish kerak; importlar tuzilishi kapital mollarga qaraganda iste'mol mollari importlariga yo'naltirilishi kerak. FDI taqsimoti tizimli va ko'p qulay usullarda tashkil etilishi kerak. Ba'zi qismi FDI kiritishlarining kichik loyihalar, (ro'yxatsiz ishlab chiqarish) O'zbekiston kabi mamlakatlarda ishlab chiqarish darajasini oshirish orqali ishlab chiqarish darajasini oshirishga yordam beradi. Yakunlash uchun, O'zbekistonda tovarlar va xizmatlar importini o'sishni kuchaytirish uchun tovarlar va xizmatlar importining muhim tuzilishi liberal siyosatlar orqali tuzilishi kerak.

Kalit so'zlar: To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TTXI), Osiyo mamlakatlari, eksport, import.

Abstract: In the current article, the influence of foreign capital that entered Uzbekistan from 1998 to 2022 on the import of goods and services in the country is studied. According to the results of the trend analysis based on the analysis of the model and its main determining indicators, all variables showed very good results in the last period of reforms. The regression analysis confirmed that the growth of Uzbekistan's goods and services affects the growth of imports and the importance of FDI. (1998, 2022) was added as a proxy variable to the economic reforms carried out in 2022 and was found to be positive and significant, which confirmed the positive effect of economic reforms on the growth of Uzbekistan's imports of goods and services. To increase the growth of imports of goods and services, it is necessary to increase imports again; the structure of imports should be directed to imports of consumer goods rather than capital goods. The distribution of FDI should be organized in a systematic and multi-facilitated manner. Some of the FDI inflows help to increase the level of production by increasing the level of production in countries such as Uzbekistan through small projects (non-registered production). To conclude, to increase the growth of imports of goods and services in Uzbekistan, an important structure of imports of goods and services should be created through liberal policies.

Key words: Foreign direct investments (FDI), Asian countries, Export, Import.

Аннотация: В настоящей статье изучается влияние иностранного капитала, пришедшего в Узбекистан в период с 1998 по 2022 год, на импорт товаров и услуг в страну. По результатам анализа тенденций, основанного на анализе модели и ее основных определяющих показателей, все переменные показали очень хорошие результаты в последний период реформ. Регрессионный анализ подтвердил, что рост товаров и услуг Узбекистана влияет на рост импорта и значимость прямых иностранных инвестиций. (1998, 2022) была добавлена в качестве прокси-переменной к экономическим реформам, проведенным в 2022 году, и оказалась положительной и значимой, что подтвердило положительное влияние экономических реформ на рост импорта товаров и услуг Узбекистана. Чтобы увеличить рост импорта товаров и услуг, необходимо снова увеличить импорт; структура импорта должна быть ориентирована на импорт потребительских товаров, а не средств производства. Распределение ПИИ должно быть организовано на систематической и комплексной основе. Часть притока ПИИ помогает повысить уровень производства за счет увеличения уровня производства в таких странах, как Узбекистан, посредством небольших проектов (незарегистрированное производство). В заключение, для увеличения роста импорта товаров и услуг в Узбекистане необходимо создать важную структуру импорта товаров и услуг посредством либеральной политики.

Ключевые слова: Прямые иностранные инвестиции (ПИИ), Азиатские страны, Экспорт, Импорт.

KIRISH

Xorijiy kapital kiritilishi mamlakat iqtisodiy xaritasini shakllantirishda ahamiyatli rol o‘ynaydi va uni tovarlar va xizmatlarni import qilish imkoniyatini ta’sir qiladi. Bu munosabatning dinamikasini tushunish siyosatchilar, iqtisodchilar va iqtisodiy rivojlanish strategiyalarini optimallashtirishni talab qiladigan sohalarda muhimdir. Ushbu tadqiqot xorijiy kapitalni mamlakatga jalb qilishning import qilish imkoniyati bo‘yicha ta’sirini o‘rganishni maqsad qiladi, to‘g‘ri va samarali empirik tahlilni taqdim etish uchun ekonometrik modellarni qo‘llaydi.

Har qanday mamlakat bugun globallashuvchi dunyoda iqtisodiy rivojlanishini kuchaytirish uchun xorijiy kapitalni jalb qilishda faol faoliyat ko‘rsatadi. Xorijiy kapital, chet el kapitali sifatida (XEK), portfel investitsiyasi yoki kreditlar shaklida, mahalliy bozorlarga likvidni kiritadi, investitsiya faoliyatini tizimlaydi va texnologiyani o‘tkazib beradi. Biroq ushbu kapital kiritishning mamlakatning import qilish imkoniyati uchun ta’siri kompleks va ko‘p tomondan ushbu tadqiqotning xorijiy kapitalning mamlakatning import dinamikasiga qanday ta’sir qilishini tushunish zarurati bilan bog‘liq. Importlar mahalliy talabni qondirish, sanoat ishlab chiqarishni kuchaytirish va iqtisodiy faoliyatni qo‘llab-quvvatlashda ahamiyatli rol o‘ynaydi. Xorijiy kapitalning import imkoniyati bo‘yicha ta’sirini baholash orqali, siyosatchilar import balansini boshqarish, raqobatni kuchaytirish va sarmoyani davlatlarga taqdim etish uchun ma’lumotli strategiyalar ishlab chiqishlari mumkin. Bu tadqiqotning asosiy maqsadi xorijiy kapital kiritishlari bilan mamlakatning import qilish imkoniyatining o‘rtacha mablag‘ni empirik ravishda tahlil qilishdir. Ma’lum bir ta’sir miqdorini va yo‘nalishini belgilab, bu ta’sirni o‘lchashni maqsad qilgan. Bunda muhim parametrlarni va ushbu munosabatni ta’sir qiladigan faktorlarni aniqlab, tadqiqot o‘rtasida xorijiy kapital jalb qilishning ekonomik muammolar bo‘yicha nazoratni ta’minlashni maqsad qiladi. Ushbu maqsadlarga erishish uchun tadqiqot ekonometrik modellarni qo‘llaydi, ular kompleks iqtisodiy munosabatlar tahlili uchun tizimli ramkaning mavjudligini ta’minlaydi. Statistik tahlil vositalaridan va empirik ma’lumotlardan foydalanish orqali tadqiqot xorijiy kapital kiritishlarining import imkoniyatlariga ta’sirini kuchli korrelyatsiyalar bilan belgilashni maqsad qiladi. Matnlashgan turdagi metodlar, masalan, panel ma’lumotlar tahlili, vaqt seriya modellash va regressiya tahlil qilishni o‘z ichiga oladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Chet el kapitalining iqtisodiy rivojlanishdagi roli: Ko‘plab tadqiqotchilar chet el kapitalining mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishidagi rolini o‘rganib chiqishganlar [1]. Tadqiqotchilar chet el to‘g‘risidagi to‘g‘ri sarmoya (FDI)ning iqtisodiy o‘sishi, faoliyatning yaxshilanishi va texnologiyani o‘z ichiga olgan mamlakatlarga o‘tkazilishi ahamiyatini ta’kidlaydilar. Shuningdek, [2] chet el kapitalining kuchayishiga, ish o‘rinlarining yaratilishiga va infratuzilmani rivojlanishiga hissa qo‘shmoqda. Chet el kapitalining savdo dinamikasiga ta’siri: [3] Chet el kapitali va savdo dinamikasi o‘rtasidagi munosabatlar xalqaro iqtisodiyot adabiyotida qiziq mavzudir [4]. Chet el kapitali kirimlarining mamlakatning ayirboshlash darajasiga qanday ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini, uning ayirboshlash kursini va xalqaro bozorda raqobat tajribasini qanday ta’sir ko‘rsatishi haqida tadqiqotlar olib boradi. Qo‘shimcha, [5] keltirgan taqdimotlar orqali chet el to‘g‘risidagi texnologik o‘sishlar va bilim tarqalganlarining xalqaro eksport darajasini qanday o‘stirishi haqida o‘rganadi. Chet el kapitalining ta’siri mavzusidagi ekanomik tahlil: Bir qancha tadqiqotlar chet el kapitalining turli iqtisodiy ko‘rsatkichlarga, shu jumladan importga qanday ta’sir qilishini tahlil qilish uchun ekanometrik modellarni qo‘llab-quvvatlagan. Masalan, [6] FDI va iqtisodiy o‘sish orasidagi munosabatlarni tekislik ma’lumotlari tekshirish uchun panel ma’lumotlarini qo‘llab-quvvatlashda foydalanadi. Shuningdek, [7] FDI qatnashchilarini va uning ta’sirini tekislik analizi qilish uchun regressiya tahlilini qo‘llab-quvvatlashda ishlatadi. Siyosiy ta’sir va takliflar: Chet el kapitalining import qobiliyatiga ta’sirini o‘rganishga oid tadqiqotlar ta’sirli qo‘llanmalarni taqdim etadi. [8] Chet el investitsiyalarini jalb qilish va eksportga yo‘naltirilgan sanoat turlarini kengaytirishga oid siyosatlar ahamiyatini ta’kidlaydi. Qo‘shimcha, [9] savdo erkinlashish chora-tadbirlarining va investitsiyalarni taqdim etish siyosatlarining mamlakatning savdo qobiliyatini oshirishdagi rolini belgilaydi [10]. Umumiy ravishda, chet el kapitalining import qobiliyatiga ta’siri mavjud kapital kirimlari, savdo dinamikasi va iqtisodiy rivojlanish o‘rtasidagi murakkab munosabatni t Ekonometrik modellar va mavjud tadqiqotlardan foydalanish orqali, taklif etilgan tadqiqot ushbu adabiyotning birlashtirishiga va chet el kapital jalb qilish va import qobiliyatlari orasidagi munosabatlarning amaliy kashfiyotini taqdim etishni maqsad qilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Descriptive Statistics (Tavsiflovchi statistika)

O‘zgaruvchi	Kuz soni	O‘rtacha	Std. xat.	Min	Max
IMP	22	1.280e+10	7.936e+09	2.668e+09	2.779e+10
FDI	22	8.953e+08	7.480e+08	65000000	2.300e+09

Ma'lumotlar tavsifi berilgan ma'lumotlar to'plami asosida IMP (Importlar) va FDI (Chet el kirimlari) ikkita o'zgaruvchining taqsimoti haqida xulosa keltirildi:

IMP (Importlar): Kuzatuvlar soni (Obs): 22, O'rta qiymat: 1.280e+10 (12.8 milliard), Standart og'ish: 7.936e+09 (7.936 milliard), Eng kam qiymat (Min): 2.668e+09 (2.668 milliard), Eng yuqori qiymat (Max): 2.779e+10 (27.79 milliard)

FDI (Chet el kirimlari): Kuzatuvlar soni (Obs): 22, O'rta qiymat: 8.953e+08 (895.3 million), Standart og'ish: 7.480e+08 (748 million), Eng kam qiymat (Min): 65000000 (65 million), Eng yuqori qiymat (Max): 2.300e+09 (2.3 milliard), IMP uchun: Importlar o'rta qiymati qariyb 12.8 milliardga teng. 7.936 milliardlik standart og'ish ma'lumotlarning farqni yoki tarqalganligini ko'rsatadi. Eng past va eng yuqori qiymatlar ma'lumotlar to'plamidagi importning qamrovini ko'rsatadi. FDI uchun: Chet el kirimlari o'rta qiymati qariyb 895.3 millionga teng.748 millionlik standart og'ish ma'lumotlarning farqni yoki tarqalganligini ko'rsatadi. Eng past va eng yuqori qiymatlar ma'lumotlar to'plamidagi chet el kirimlarining qamrovini ko'rsatadi. Ushbu statistikalar ma'lumotlar to'plamingizdagi ikkita o'zgaruvchining markaziy tendensiyasini, farqlanishini va oraliqni tez ko'rish imkonini beradi.



1-rasm

1-rasmda o'zgaruvchilar o'rtasidagi ijobiy munosabat borligini bildiradi va regressiya tenglamasini ham keltirib o'tilgan, R kvadrat ham munosabatlar ishonchliligini bildiradi.



2-rasm

2-rasmda ham o‘zgaruvchilar o‘rtasida munosabat normal ekanligini bildiradi, graph boxlarimiz TTXI va IMP lar qanchalik modelga mosligini bildiradi.



3-rasm



4-rasm

3-4-rasmlarda esa o‘zgaruvchilar bo‘yicha 6 ta grafik tasvirlangan. Bu yerda histogram va graph box larni ham ko‘rish mumkin.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS



6-rasm

6-rasmda esa omillarning zichlik yuzasi keltirilgan. Statadan olingan zichlik yuzasi, mamlakatning umumiy moliyaviy holati, investitsiya muomalasi va moliyaviy xarakteristikalari haqida ma'lumot bermoqda. Bu miqdor mamlakatdagi xorijiy kapitalni qanday darajada jalb qilish va moliyaviy turmush osti fondlar yoki bizneslar tomonidan qanday darajada investitsiya qilinganligini ko'rsatadi. Bu statistika mamlakatning moliyaviy sohalarini kuchaytirish va investitsiya sharoitlarini takomillashtirish uchun strategiyalar tuzishda foydalaniladi.

Pairwise correlations (Juftlik korrelyatsiyalar)

Variables	(1)	(2)
(1) IMP	1.000	
(2) FDI	0.816*	1.000
	(0.000)	

*** p<0.01, ** p<0.05, * p<0.1

Bir-biriga mos kelishlar jadvali ikkita o'zgaruvchi, IMP va FDI, o'rtasidagi mos kelishlar koeffitsiyentlarini ko'rsatadi: IMP va FDI mos kelishlar koeffitsiyenti (rho): 0.816, p qiymati (Prob): 0.000 (statistik bozorlikni ko'rsatadi)

Izoh: 0.816 mos kelishlar koeffitsiyenti IMP va FDI o'rtasida kuchli musbat mos kelishni ko'rsatadi. 0.000 p qiymati oddiy 0.05 umumiy muhimlik darajasidan kamroq, bu esa ko'rgan mos kelishning statistik muhimligini ko'rsatadi.

Xulosa: Sifatli o'rtacha mos kelish va bir-biriga mos kelishlar jadvalidagi natijalar, IMP va FDI o'rtasida kuchli musbat mos kelishni tasdiqlashadi.

Bu bitta o'zgaruvchining (IMP yoki FDI) o'sishi yoki kamayishi bilan boshqa o'zgaruvchining doimiy va musbat ravishda o'zgarishi ekanligini anglatadi.

Amaliy ma'nosi yaxshi ko'rsatadiki, ma'lumotlar to'plami kontekstida Import (IMP) va Chet el kirimlari (FDI) o'rtasida kuchli bog'liqlik yoki birikish mavjud.

SPEARMAN FDI IMP, STATS(RHO P)

Number of obs = 22
Spearman's rho = 0.8430
Test of H0: FDI and IMP are independent
Prob > |t| = 0.0000

Spearmanning darajali korrelyatsiya koeffitsiyenti (rho) ikki o‘zgaruvchi o‘rtasidagi monotonik munosabatlarning kuchi va yo‘nalishini o‘lchaydi. Bunday holda, o‘zgaruvchilar FDI va IMP. Natijalar quyidagicha: Kuzatuvlar (kuzatishlar) soni22, Spearman’s rho 0,8430 Mustaqillik sinovi: Null gipoteza (H0): FDI va IMP mustaqildir. Muqobil gipoteza (H1): FDI va IMP o‘rtasida nolga teng bo‘lmagan korrelyatsiya mavjud. Statistik test: |t| ning ehtimolligi (Prob > |t|): 0,0000 Spearman’s rank korrelyatsiya koeffitsiyenti (rho) 0,8430 ni tashkil etadi, bu FDI va IMP o‘rtasidagi kuchli ijobiy monoton aloqani ko‘rsatadi. Mustaqillik testi bilan bog‘liq p-qiymati juda past (0,0000), bu nol gipotezani rad etish uchun kuchli dalillarni ko‘rsatadi. Shuning uchun Spearman’s rank korrelyatsiya testiga asoslanib, FDI va IMP o‘rtasida nolga teng bo‘lmagan muhim korrelyatsiya mavjud.

Xulosa: Natijalar shuni ko‘rsatadiki, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar o‘sishi yoki kamayishi bilan IMP-ning o‘zgarish yo‘nalishida izchil tendensiya mavjud va aksincha. Testning statistik ahamiyati kuzatilgan korrelyatsiya tasodif tufayli yuzaga kelishi ehtimoldan yiroq ekanligini ko‘rsatadi.

Linear regression (Chiziqli regresiya)

IMP	Coef.	St.Err.	t-value	p-value	[95% Conf	Interval]	Sig
FDI	8.653	1.373	6.30	0.000	5.788	11.517	***
Constant	5.051e+0	1.587e+0	3.18	0.005	1.741e+0	8.361e+0	***
Mean dependent var	12797772727.273		SD dependent var		7936042968.225		
R-squared	0.665		Number of obs		22		
F-test	39.711		Prob > F		0.000		
Akaike crit. (AIC)	1044.313		Bayesian crit. (BIC)		1046.495		

*** p<0.01, ** p<0.05, * p<0.1

Chiziqli regressiya natijalari bog‘liq o‘zgaruvchi (IMP – Import) va mustaqil o‘zgaruvchi (FDI – To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar) o‘rtasidagi munosabatni ko‘rsatadi. Bu erda asosiy statistik ma’lumotlarning quyidagicha:

Koeffitsiyent (koef.) va standart xato (St.Err.): to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar koeffitsiyenti: 8,653, FDI koeffitsiyentining standart xatosi: 1.373, Doimiy koeffitsiyent: 5.051e+09, Doimiy koeffitsiyentning standart xatosi: 1.587e+09, t-qiymati va p-qiymati:, FDI koeffitsiyenti uchun t-qiymati: 6.30, FDI koeffitsiyenti uchun p-qiymati: 0 (juda muhim, *** bilan belgilanadi), doimiy koeffitsiyent uchun t-qiymati: 3.18, doimiy koeffitsiyent uchun p-qiymati: 0,005 (muhim, *** bilan belgilanadi), Ishonchlilik oraliqlari: To‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar koeffitsiyenti uchun 95% ishonch oralig‘i: [5,788, 11,517] Doimiy koeffitsiyent uchun 95% ishonch oralig‘i: [1.741e+09, 8.361e+09] Modelga mos: R-kvadrat: 0,665 (mustaqil o‘zgaruvchi bilan izohlangan qaram o‘zgaruvchidagi dispersiya ulushini ko‘rsatadi)

F-testi: 39.711 (modelning umumiy ahamiyatini tekshiradi), Prob > F: 0,000 (juda muhim), Akaike va Bayesian axborot mezonlari (AIC va BIC): AIC: 1044.313, BIC: 1046.495. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar koeffitsiyenti 8,653 ni tashkil etadi, bu to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmining har bir birligiga o‘sishi uchun Importning (IMP) 8,653 birligiga o‘sishini ko‘rsatadi. O‘zgarmas (5.051e+09) to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar nolga teng bo‘lsa, taxminiy Importni ifodalaydi. Ikkala koeffitsiyent ham statistik ahamiyatga ega, p-qiymatlari 0,05 dan kichik. R-kvadrat qiymati 0,665, Importdagi o‘zgaruvchanlikning 66,5% to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar bilan chiziqli bog‘liqlik bilan izohlanishi mumkinligini ko‘rsatadi. F-testi juda muhim (p-qiymati = 0,000), bu umumiy modelning muhimligini ko‘rsatadi.

Xulosa: Chiziqli regressiya modeli to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar (TDI) va import (IMP) o‘rtasida sezilarli ijobiy munosabatni ko‘rsatadi. Model ma’lumotlarga yaxshi moslashishni ta’minlaydi va to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar o‘zgarishiga asoslangan Importdagi tafovutning muhim qismini izohlaydi.

Linear regression (Chiziqli regressiya)

FDI	Coef.	St.Err.	t-value	p-value	[95% Conf	Interval]	Sig
IMP	0.077	0.012	6.30	0.000	.051	.102	***
Constant	-8838197	1.825e+0	-0.48	0.633	-4.691e+	2.923e+0	
Mean dependen var	895272727.27		SD dependent var		747969835.26		
R-squared	0.665		Number of obs		22		
F-test	39.711		Prob > F		0.000		
Akaike crit. (AIC)	940.393		Bayesian crit. (BIC)		942.575		

*** p<.01, ** p<.05, * p<.1

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Chiziqli regressiya natijalari bog‘liq o‘zgaruvchi (FDI – To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar) va mustaqil o‘zgaruvchi (IMP – Imports) o‘rtasidagi munosabatni ko‘rsatadi. Bu erda asosiy statistik ma’lumotlarning talqini quyidagicha: Koeffitsiyent (koef.) va standart xato (St.Err.): IMP koeffitsiyenti: 0,077, IMP koeffitsiyentining standart xatosi: 0,012, Doimiy koeffitsiyent: -88381974, Doimiy koeffitsiyentning standart xatosi: 1.825e+08, t-qiymati va p-qiymati:, IMP koeffitsiyenti uchun t-qiymati: 6.30, IMP koeffitsiyenti uchun p-qiymati: 0 (juda muhim, *** bilan belgilanadi), doimiy koeffitsiyent uchun t-qiymati: -0,48, doimiy koeffitsiyent uchun p-qiymati: 0,633 (muhim emas). Ishonch oraliqlari: IMP koeffitsiyenti uchun 95% ishonch oralig‘i: [0,051, 0,102], Doimiy koeffitsiyent uchun 95% ishonch oralig‘i: [-4.691e+08, 2.923e+08]. Modelga mos: R-kvadrat: 0,665 (mustaqil o‘zgaruvchi bilan izohlangan qaram o‘zgaruvchidagi dispersiya ulushini ko‘rsatadi), F-testi: 39.711 (modelning umumiy ahamiyatini tekshiradi), Prob > F: 0,000 (juda muhim), Akaike va Bayesian axborot mezonlari (AIC va BIC): AIC: 940.393, BIC: 942.575, IMP koeffitsiyenti 0,077 ni tashkil etadi, bu Importning (IMP) har bir birlikka o‘sishi uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar (TDI)ning taxminiy 0,077 birligiga o‘sishini ko‘rsatadi. O‘zgarmas (-88381974) Import nolga teng bo‘lsa, taxminiy to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar hajmini ifodalaydi. Biroq bu kontekstda doimiy atama mazmunli ma’noga ega bo‘lmasligi mumkin. IMP koeffitsiyenti p-qiymati 0,05 dan kam bo‘lgan statistik ahamiyatga ega. 0,665 R-kvadrat qiymati to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar o‘zgaruvchanligining 66,5% import bilan chiziqli munosabat bilan izohlanishi mumkinligini ko‘rsatadi. F-testi juda muhim (p-qiymati = 0,000), bu umumiy modelning muhimligini ko‘rsatadi.

Xulosa: Chiziqli regressiya modeli import (IMP) va to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar (FDI) o‘rtasida sezilarli ijobiy munosabatni ko‘rsatadi. Model ma’lumotlarga yaxshi moslashishni ta’minlaydi, bu importdagi o‘zgarishlarga asoslangan to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalardagi tafovutning muhim qismini tushuntiradi.



7-rasm

7-rasmda o‘zgaruvchilar qoldiqlari ham normal taqsimlanganligini ko‘rishimiz mumkin.



BREUSCH “PAGAN/COOK “WEISBERG TEST FOR HETEROSKEDASTICITY
Assumption: Normal error terms
Variable: Fitted values of FDI
H0: Constant variance
chi2(1) = 4.84
Prob > chi2 = 0.0279

Breusch-Pagan/Cook-Weisberg testi regressiya modelining qoldiqlarida heteroskedastiklik uchun testdir. Sinov xato atamalarining doimiy dispersiyasi (homoskedastikligi) haqidagi taxminni tekshiradi. Sinov uchun gipotezalar quyidagilardan iborat: Nol gipoteza (H0): Qoldiqlar doimiy dispersiyaga ega (homoskedastiklik). Muqobil gipoteza (H1): Qoldiqlar doimiy bo‘lmagan dispersiyaga ega (heteroskedastiklik). Bizning holatimizda: O‘zgaruvchi: To‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarning o‘rnatilgan qiymatlari, H0: Doimiy dispersiya

Chi-kvadrat statistikasi (chi2): 4.84, Chi2 ehtimoli (Prob > chi2): 0,0279, Xi-kvadrat statistikasi xato shartlarida doimiy dispersiya haqidagi taxminning buzilganligini tekshiradi. Chi-kvadrat statistikasi bilan bog‘liq p-qiymati (0,0279) nol gipotezani rad etish yoki rad etishni aniqlash uchun ahamiyatlilik darajasi (odatda 0,05) bilan taqqoslanadi.

Xulosa: p-qiymati 0,0279 bo‘lsa, bu odatiy ahamiyatga ega bo‘lgan 0,05 darajasidan past bo‘lsa, biz nol gipotezani rad qilamiz. Shuning uchun Breusch-Pagan/Cook-Weisberg testiga asoslanib, qoldiqlarda heteroskedastiklikni ko‘rsatadigan dalillar mavjud va doimiy dispersiyaning taxmini sezilarli darajada buziladi. Heteroskedastizmning oqibatlarini ko‘rib chiqish va agar aniqlansa, uni hal qilish usullarini o‘rganish muhim, masalan, heteroskedastikaga asoslangan standart xatolardan foydalanish yoki modeldagi o‘zgaruvchilarni o‘zgartirish. Bundan tashqari, qoldiqlarni vizual tekshirish kabi heteroskedastikaning boshqa diagnostik tekshiruvlari qo‘shimcha tushunchalarni berishi mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib aytilganda, maqola chet el kapitali kirimlarining mamlakatning tovarlar va xizmatlarni import qilish qobiliyati ustida qanday ta’sir qilishini baholashga yo‘naltirilgan. Bu baholash ekonometrik modellarni qo‘llash orqali amaliy ta’tilga solingan bo‘ladi, bu esa chet el kapitalining jalb qilinishi va import qobiliyati orasidagi munosabatni sonli tahlil qilishga imkon beradi. O‘rganish, kapital kirimlari va savdo dinamikasi o‘rtasidagi murakkab munosabatlarga yo‘llanib berilgan, bu esa siyosatchilar va iqtisodiy qaror qabul qiluvchilar uchun qadrli fikrlar taklif etadi. Amaliy tahlil orqali, tadqiqotlar chet el kapitali jalb qilinishining import dinamikasi va iqtisodiy rivojlanishga ta’siri haqida umumiy tushunchamizni kengaytirishga xizmat qilishni maqsad qiladi. Tadqiqot, mavjud adabiyotda bo‘lgan bo‘shliqlarni to‘ldirishni ham maqsad qiladi, chet el kapitali jalb qilinishining import qobiliyati bo‘yicha ma’lumotlarga empirik sabablar taklif qilish orqali. Ekonometrik modellarni qo‘llab, tadqiqot bu munosabatning miqdorini va yo‘nalishini sonli tahlil qilishni maqsad qiladi, shuningdek, siyosat shakllarini va iqtisodiy strategiyalarini ma’lum qilishi mumkin bo‘lgan tushunchalar taklif qiladi. Qo‘shimcha, tadqiqot natijalari savdo siyosatlari, investitsiya ta’sirini oshirish strategiyalari va umumiy iqtisodiy rivojlanish sohalariga ta’sir qilishi mumkin. Umumiy holatda maqola chet el kapitali kirimlari va import dinamikasi o‘rtasidagi munosabat haqida bilimlarni kengaytirishni xizmat qiladi, bu esa xalqaro iqtisodiyot sohasidagi akademiklar, siyosatchilar va amaliy ixtisoschilarga qadrli fikrlar taklif qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. K. Kapoor and R. Arora, ’Impact of outward FDI on exports: a theoretical and empirical review’, Transnational Corporations Review, 2022, doi: 10.1080/19186444.2022.2040346.
2. M. M. M. Uddin, T. Sharif, A. R. M. Islam, and M. Z. Abedin, ’Moderating impact of FDI on the growth-environment nexus in the pre-COVID-19 eras’, Res Int Bus Finance, vol. 67, Jan. 2024, doi: 10.1016/j.ribaf.2023.102114.
3. I. Chawla and N. Kumar, ’FDI, international trade and global value chains (GVCs): India’s GVC participation, position and value capture’, Asia and the Global Economy, vol. 3, no. 2, p. 100071, Jul. 2023, doi: 10.1016/j.aglobe.2023.100071.
4. G. W. Gu and G. Hale, ’Climate risks and FDI’, J Int Econ, vol. 146, Dec. 2023, doi: 10.1016/j.jinteco.2023.103731.
5. G. Zaman and V. Vasile, ’Macroeconomic Impact of FDI in Romania’, Procedia Economics and Finance, vol. 3, pp. 3–11, 2012, doi: 10.1016/s2212-5671(12)00113-x.
6. R. Crescenzi, M. Di Cataldo, and M. Giua, ’FDI inflows in Europe: Does investment promotion work?’, J Int Econ, vol. 132, Sep. 2021, doi: 10.1016/j.jinteco.2021.103497.
7. M. Basılgan and A. Seha Akman, ’AN EMPIRICAL ANALYSIS ON THE IMPACT OF THE FOREIGN DIRECT INVESTMENTS ON EXPORT PERFORMANCE: TURKEY CASE’, Online, 2019.
8. A. Maza and P. Gutiérrez-Portilla, ’Outward FDI and exports relation: A heterogeneous panel approach dealing with cross-sectional dependence’, International Economics, vol. 170, pp. 174–189, Aug. 2022, doi: 10.1016/j.inteco.2022.04.002.
9. D. Lazarov and G. Petreski, ’Export Complexity and Economic Growth: Empirical Analysis for Selected CEE Countries’, Croatian Economic Survey, vol. 25, no. 2, pp. 41–65, Dec. 2023, doi: 10.15179/ces.25.2.2.
10. J. Böschemeier and A. Jochem, ’The effect of foreign carbon prices on German outward FDI’, Econ Lett, vol. 234, p. 111499, Jan. 2024, doi: 10.1016/j.econlet.2023.111499.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

O‘ZBEKISTONDA BANK XIZMATLARI RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASH MAZMUNI VA O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Sh. Madraimov
Bank-Moliya akademiyasi Bank ishi mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot ishida mamlakatdagi bank xizmatlari raqobarbardoshligini ta’minlashning nazariy jihatlari va o‘ziga xos xususiyatlari o‘rganildi. Bank xizmatlari sohasida xizmat ko‘rsatishning zamonaviy yondashuvlarining ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: raqobatbardosh xizmat, bank, moliya, internet banking, bank kartasi.

Abstract: In this research work, the theoretical aspects and specific features of ensuring the competitiveness of banking services in the country were studied. The importance of modern approaches to providing services in the field of banking services is revealed.

Key words: competitive service, bank, finance, internet banking, bank card.

Аннотация: В данной исследовательской работе были изучены теоретические аспекты и особенности обеспечения конкурентоспособности банковских услуг в стране. Раскрыта важность современных подходов к предоставлению услуг в сфере банковских услуг.

Ключевые слова: конкурентоспособный сервис, банк, финансы, интернет-банкинг, банковская карта.

KIRISH

Mamlakatimizning ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyotining muhim strategik vazifalaridan biri bir tomondan moliyaviy bazis hisoblanuvchi raqobatbardosh bank tizimini yaratish bo‘lsa, ikkinchi tomondan iqtisodiyotning barcha sohalarida menejmentning samaradorligini ta’minlashdir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida bank xizmatlarining zaruriy raqobatbardoshlik darajasini saqlab turish ularning strategik yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qoladi, bundan tashqari banklarning va bank xizmatlarining raqobatbardoshligi ko‘p jihatdan mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy turmush darajasini belgilab beradigan mezonlardan biri bo‘lgan iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi.Mamlakatimiz qonunlariga asosan , bank – bu tijorat muassasasi bo‘lib, jismoniy va huquqiy shaxslarning bo‘sh turgan pul-mablag‘larini jalb qilish va ularni o‘z nomidan, to‘lovlilik, muddatlilik, qaytib berish sharti asosida joylashtirish operatsiyalarini va boshqa bank operatsiyalarini bajaradigan tashkilot hisoblanadi [5].Tijorat banklarining faoliyatini korxona faoliyatiga shu jihatdan o‘xshatish mumkinki, tijorat banklari ham korxonalar singari o‘z faoliyatini o‘z asoschilari-aksionerlarning manfaatlarini, ikkinchidan, o‘z mijozlarining manfaatlarini himoya qilishni ta’minlashdan iborat. Bozor iqtisodiyotida hukumron mavqega ega bo‘lgan, tovar, pul muomalasini boshqarish va u orqali tushum xo‘jalik faoliyatini boshqarish maqsadini ko‘zlaydi. Shu sababli banklar, moliya – kredit jarayonlarini boshqarish markazlari sifatida faqat bozor iqtisodiyoti sharoitida o‘z ahamiyatlarini to‘la namayon etadilar, moliyaviy tizimni markaziy bo‘g‘iniga, pul muomalasini tashkil qilish, uning barqarorligini ta’minlashning bosh sifatchisiga aylanadilar. Shu bilan birga, banklar orqali pul saqlaydigan joy, uni tarqatadigan yoki kredit beradigan kassa emas. Banklar iqtisodiyotni boshqarish va tuzilmaviy siyosatni amalga oshirishning qudratli qurolidir[6]. Demak, zamonaviy bozor munosabatlariga asoslangan bank tizimini yaratish bozor islohotlarini, iqtisodiy qayta qurishni asosiy yo‘nalishidir.Bank tizimiga banklardan tashqari ayrim ixtisoslashgan moliyaviy institutlar ham kiradi.Ular bank maqomiga ega bo‘lmasalarda, bank operatsiyalarini amalga oshiradilar.Bundan tashqari bank tizimiga bank infratuzilmasini tashkil qiluvchi, pul kredit institutlarining ish faoliyatini ta’minlovchi boshqa muassasalari ham kiradilar [4].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Mavzuga oid bir qator olimlarning tadqiqot ishlari bilan yaqindan tanishib chiqildi. Ularda olimlarning masofaviy bank xizmatlariga oid fikr-mulohazalari tahlil qilindi. XX asrning 60-70-yillari bank xizmatlari nazariyasi rivojlanishining boshlang‘ich bosqichi hisoblanadi. Bu paytda X.Duglas Michigan universitetining “Kreditlash sohasidagi bank siyosati” (1971-y.), D.Revel Uels universitetining “Raqobat va bank faoliyatini boshqarish” (1978-y.), Jeneva universitetining “Jamg‘arma banklarining kredit xizmatlari” (1974-y.) tadqiqot-

lari, Sh.Dereyning “Britaniya banklari strategiyasi va xalqaro raqobat” asari (1977-y.) hamda G.Brayanning “Bank sohasidagi raqobat” tadqiqoti (1970-y.) chop etiladi.Bank raqobatining mohiyati bank xizmatlarining bozordagi xususiyati-bank xizmatlari raqobatbardoshligida namoyon bo‘ladi [3]. G.G. Korobovaning ta’rifiga ko‘ra, bank raqobatining subyektlariga nafaqat banklar, balki bank xizmatlari bozorida faoliyat ko‘rsatuvchi boshqa moliya va nomoliya tashkilotlari ham kiradi. I.M. Kirsnerning fikricha raqobat bozor jarayonining raqobat xususiyatini o‘rganish bilan bog‘liq va zarur bo‘lganda raqobat mezonlarini ishlab chiqish kerak. Bizning fikrimizcha raqobatni jarayon sifatida qarash uning mohiyatini yanada aniqroq ochib beradi [3].

TAHLIL VA NATIJALAR

Hayotimizda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o‘rni tobora ortib borayotgani bir sharoitda axborotlardan tezkor xabardor bo‘lish, turli interaktiv xizmatlardan foydalanish ehtiyoji tobora ortib bormoqda. Bank xizmatlari ko‘lamini kengaytirish, mijozlarga qulaylik yaratish maqsadida zamonaviy talablarga javob beruvchi interaktiv xizmat turlari amaliyotga tatbiq etilmoqda. Xususan, aksiyadorlik tijorat Milliy banki tomonidan olib borilayotgan keng ko‘lamli ishlar ham mijozlarga turli qulayliklar yaratmoqda. Bugungi kunda banklar tomonidan “Internet banking”, “Mobile banking”, “Uyali Pul”, “SMS informer”, “Elektron reyestr” kabi interaktiv xizmat turlari joriy qilinib, fuqarolarga tez va sifatli bank xizmatlarini ko‘rsatib kelmoqda. “Internet banking” xizmati orqali bankning yuridik mijozlari internetdan o‘z hisob raqami harakatini nazorat qilishi va to‘lovlar o‘tkazishi mumkin bo‘lsa, “Uyali Pul” interaktiv xizmati orqali fuqarolar uyida yoki xohlagan joyidan turib shaxsiy hisob raqamlaridagi mablag‘laridan to‘lovlarni on-layn ravishda amalga oshirishlari mumkin. Bundan tashqari, “SMS informer” xizmati orqali bankning yuridik mijozlari mobil telefoni orqali hisob raqami holatini va harakatini nazorat qilib borishlari mumkin bo‘ladi.

Bugungi kunda tijorat banklari tomonidan “Uzcard” hamda “Humo” to‘lov tizimlarining milliy valyutadagi bank kartalari muomalaga chiqarilib, ularning infratuzilmasi kengaytirib borilmoqda.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 24-sentabrdagi “Plastik kartalar orqali hisob-kitob tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 445-sonli qaroriga asosan Yagona umumrespublika protsessing markazi tashkil etilib, “Uzcard” to‘lov tizimi faoliyat yurita boshladi [2]. 2020-yil 11-aprelda Yagona umumrespublika protsessing markazi MChJga “Uzcard” to‘lov tizimi operatori litsenziyasi Markaziy bank tomonidan taqdim etildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-sentabrdagi “Milliy to‘lov tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–3945-sonli qaroriga asosan Milliy banklararo protsessing markazi tashkil etilib, 2019-yilning I-choragidan boshlab “Humo” to‘lov tizimi ishga tushirildi.[1]Milliy banklararo protsessing markazi MChJga 2020-yil 11-aprelda “Humo” to‘lov tizimi operatori litsenziyasi Markaziy bank tomonidan berildi.Mamlakatimizda bank kartalari infratuzilmasi 2020-yil 1-yanvar holatiga 20 547 ming dona bank kartalari, 392 361 ta to‘lov terminallari hamda 9 203 ta bankomat va infokiosklardan tashkil topgan. 2019-yil davomida ikkita milliy chakana (“Humo” hamda “Uzcard”) to‘lov tizimlarining Visa, Mastercard, China Union Pay hamda Mir xalqaro to‘lov tizimlari bilan integratsiyasi samarali amalga oshirildi. Bu esa, ushbu xalqaro to‘lov tizimlari kartalari foydalanuvchilari, ya’ni mamlakatimizga tashrif buyuruvchi turistlar, mehmonlar uchun keng shart-sharoitlar yaratgan holda “Humo” hamda “Uzcard” to‘lov infratuzilmasi (bankomatlar va to‘lov terminallari tarmog‘i) orqali milliy valyutada to‘lovlarni amalga oshirish imkoniyatini beradi.

Quyida keltirilgan 1-rasmda respublika bo‘yicha jami bank xizmatlarini amalga oshiruvchi bank kartalari soni keltirib o‘tilgan [7].



1-rasm

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Shuni aytish kerakki, bank xizmatlarini ko‘rsatuvchi respublikada o‘rnatilgan terminallar orqali to‘lov, oldi-sotdi va boshqa moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish mumkin bo‘ladi. Quyida keltigan ma’lumot xizmatlar hajmini umumiy tariflaydi [7].



2-rasm

XULOSA

Yuqoridagilardan xulosa qilsak, mamlakat iqtisodiyotining asosi hisoblangan bank tizimini yanada isloh qilish, uning barqarorligini oshirish, yuqori xalqaro reyting ko‘rsatkichlariga erishishning ustuvor yo‘nalishlari hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalangan holda zamonaviy naqd pulsiz hisob-kitoblar mexanizmlarini joriy etish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar banklarimiz tomonidan mijozlarga ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifati, to‘lov intizomi va madaniyatini yangi bosqichga ko‘tarilishini ta’minlash bilan birga, barcha iqtisodiy tarmoqlar taraqqiyotini mustahkamlashga ham o‘zining ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-sentabrdagi “Milliy to‘lov tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–3945-sonli qarori
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 24-sentabrdagi “Plastik kartalar orqali hisob-kitob tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 445-sonli qarori.
3. Спильниченко В.К. Трансформация банковских платежных систем в экономике России // Экономический журнал. –2012. № 2 (26).
4. S.Shoraxmatov Tijorat banklarida innovatsion bank xizmatlarini rivojlantirish mavzusidagi Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya ishi.
5. D. Nosirova . Tijorat banklarida zamonaviy bank xizmatlarini ko‘rsatishning ahamiyati. “Science May 2023 and / Volume Education” 4 Issue Scientific 5 Journal / Impact Factor 3.848
6. Hudayqulov .H Bank va bank tizimining tarixi va rivojlanishi. JOURNAL OF MARKETING, BUSINESS AND MANAGEMENT(JMBM)/SJIF FACTOR: 5.57
7. WWW.cbu.uz Markaziy bank rasmiy sayti ma’lumotlari

KAPITAL BOZORIDA SUG‘URTA KOMPANIYALAR INSTITUTSIONAL INVESTOR SIFATIDA

Xasanova Lola Mamasharifovna
Bank moliya akademiyasi magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada mamlakatimizdagi kapital bozorida sug‘urta kompaniyalarining investitsion faolligini oshirish masalalari ko‘rilgan. Tahlillar asosida tegishli xulosalar va takliflar shakllantirilgan.

Kalit so‘zlar: kapital bozori, institutsional investor, sug‘urta kompaniyalari.

Abstract: This article discusses the issues of increasing the investment activity of insurance companies in the capital market in our country viewed. Based on the analysis, appropriate conclusions and proposals were formed.

Key words: capital market, institutional investor, insurance companies.

Аннотация: В данной статье рассмотрены вопросы повышения инвестиционной активности страховых компаний на рынке капитала в нашей стране Просмотрели. На основе проведенного анализа сформированы соответствующие выводы и предложения.

Ключевые слова: рынок капитала, институциональный инвестор, страховые компании.

KIRISH

Respublikamizda faoliyat ko‘rsatayotgan sug‘urta kompaniyalarining sug‘urta xizmat turlarini kengaytirish, yangi shakllarini joriy etish va shu asosda yalpi ichki mahsulotdagi ulushini oshirish hamda investitsion jarayonda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha samarali islohotlar amalga oshirilmoqda

Milliy iqtisodiyotni yanada rivojlantirish katta miqdordagi investitsiya resurslarini talab qiladi. Bunday sharoitda davlat asosiy e’tiborni ichki investitsiya salohiyatini rivojlantirishga qaratishi zarur. Xorijiy tajriba moliyaviy tizimga mablag‘lar kirib kelishining iqtisodiy mexanizmini tashkil etuvchi va moliyaviy resurslarni qayta taqsimlashda bank sektori bilan to‘laqonli raqobatni yuzaga keltiruvchi rivojlangan fond bozorlarida institutsional investorlarning mavqeyi ustunligini ko‘rsatadi. Iqtisodiyotdagi bunday investorlar qatoriga investitsiya fondlari, pensiya jamg‘armalari va sug‘urta kompaniyalari kiradi.

Mamlakatimizda kapital bozorini samarali shakllantirishda institutsional investorlar sifatida sug‘urta kompaniyalari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish, erkin faoliyat ko‘rsatishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, investitsion jozibadorlikni oshirish, axborotlar ochiqligi va ishonchliligini ta’minlash kabilar ustuvorlik kasb etadi.

Bugungi kunda investitsiya faoliyatini amalga oshirish jarayonida investitsiya imkoniyatining miqdori moliyaviy resurslarning shakllanishi orqali aniqlanadi. Ya’ni amalda ular investitsiya imkoniyatining bir qismidan iborat bo‘lib, sug‘urta tashkilotining vakolatidagi mablag‘lar hisoblanib, investitsiyaga yo‘naltirilishi mumkin, chunki ular sug‘urta va qarz majburiyatlaridan vaqtincha bo‘sh mablag‘lar hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Mavzuga oid adabiyotlarni tahlil etish natijasida sug‘urta kompaniyalarining investitsiya faoliyatini samaradorligini baholash bo‘yicha bir qator olimlar va mutaxassislar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Masalan, E.H.Pevchenko va T.G.Ilina tomonidan sug‘urta kompaniyalarining investitsion faoliyatini baholashning maxsus usullari mavjud emasligi muammosiga e’tibor berishgan [1], O.C.Bobkov va I.P.Kurochkinalar tomonidan sug‘urta kompaniyalarining zaxiralarini investitsiyalashni boshqarish samaradorligini oshirish uchun bir qancha takliflar bergan [2], J.Ataniyazov va E.Alimardonovlar “qimmatli qog‘ozlar bilan operatsiyalarni amalga oshiruvchi institutsional investorlar tarkibiga sug‘urta kompaniyalari, pensiya fondlari, investitsiya fondlari, banklar kiradi” [3], A. Odilov fikricha, “dunyoning rivojlangan davlatlari tajribasi shuni ko‘rsatadiki, kapital bozorining tarkibiy

qismlari orasida qimmatli qog‘ozlar bozori takror ishlab chiqarish jarayonida va moliyaviy munosabatlarni tartibga solishda alohida o‘rin tutadi. Aynan ushbu bozor jahonning yirik davlatlari iqtisodiyotida rivojlanish barometri vazifasini bajaradi” [4], H.H.Imomovga ko‘ra “institutsional investorlar, odatda, pul egalari nomidan anchagina yirik summalar bilan ish qiladilar, shuning uchun ular yuqori malakaga ega bo‘ladilar, murakkab va nozik usullarni qo‘llaydilar” [5], T.A.Fyodorovaning fikricha: “Investitsiya faoliyatining natijasi sug‘urta kompaniyasining foydasiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga sug‘urtaning ba’zi bir turlari bo‘yicha investitsiyadan olingan foyda zararni qoplashga kerak bo‘lgan sug‘urta zaxiralari uchun to‘ldirish manbayi bo‘lishi mumkin” [6], K.E.Turbina o‘zining ilmiy ishlarida: “sug‘urta tashkilotining investitsiya faoliyati uning moliyaviy holatiga shu darajada sezilarli ta’sir qiladiki, ko‘p holatlarda quyidagilarni qayd etish mumkin: moliyaviy yil natijalari bo‘yicha foyda yoki zarar, bu to‘g‘ri tanlangan investitsiya siyosatning oqibati, yorqin aksidir” [7].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada induksiya va deduksiya, monografik kuzatish, omilli tahlil, sintez va boshqa usullardan keng foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda sug‘urta kompaniyalarining iqtisodiyotdagi roli sug‘urtalovchilarning kapital bozorida mablag‘larni harakatlantirish qobiliyati bilan belgilanadi. Kompaniyalar sug‘urtalanuvchilardan oladigan sug‘urta mukofotlari iqtisodiyotni rivojlantirish uchun ishlatilishi mumkin bo‘lgan ulkan sug‘urta fondiga aylanadi. Katta mablag‘larni konsentratsiya qilish va bu mablag‘larni boshqarish qobiliyati sug‘urta kompaniyalarini investitsiya resurslarining eng muhim manbalaridan biriga aylantiradi. Quyidagi jadvalda O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan sug‘urta tashkilotlarining investitsion faoliyat yo‘nalishlarini ko‘rishimiz mumkin:

Ko‘rsatkichlar nomi	31.12.2019		31.12.2020		31.12.2021		31.12.2022		2019-2022 nisbatan
	mln.so‘m	Jamiga nisbatan %da	mln.so‘m	Jamiga nisbatan %da	mln.so‘m	Jamiga nisbatan %da	mln. so‘m	Jamiga nisbatan %da	Jamiga nisbatan %da
Jami investitsiyalar, shu jumladan:	2711933	100%	3382685	100%	3746665	100%	4751745	100%	75,2%
Depozitlar (omonatlar)	1424281	52,5%	1818925	53,8%	2208573	58,9%	2896636	61,0%	103,4%
Qimmatli qog‘ozlar	848574	31,3%	958552	28,3	1095976	29,3%	1287917	27,1%	51,8%
Zaymlar	20609	0,8%	42054	1,2%	47453	1,3%	60776	1,3%	194,9%
Ko‘chmas mulk	230300	8,5%	285320	8,4%	247340	6,6%	358944	7,6%	55,9%
Tashkilotlar ustav fondidagi ishtiroki	183306	6,8%	272143	8,0%	142203	3,8%	118221	2,5%	-35,5%
Boshqa investitsiyalar	4864	0,2%	5691	0,2%	5120	0,1%	29252	0,6%	501,4%

Sug‘urta kompaniyalari tomonidan kiritilgan jami investitsiyalar hajmi 2019-yil yakunida 2,71 trln. so‘mdan ortiqni tashkil etgan bo‘lsa, mazkur ko‘rsatkich 2022-yil yakunida deyarli 4,75 trln. so‘mga yetdi. Jami investitsiyalar tarkibida depozitlar hamda qimmatli qog‘ozlar asosiy o‘rinni egallagan. Investitsiyalar tarkibiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, qimmatli qog‘ozlarga kiritilgan investitsiyalar hajmi 2019-yildagi 31%dan 2022-yilda deyarli 51%ga oshdi. O‘zbekistonda sug‘urta tashkilotlari tomonidan faol investitsion faoliyat amalga oshirilib kelinmoqda va u ijobiy o‘sish tendensiyasiga ega. Sug‘urta tashkilotlarining asosiy investitsion portfelini qimmatli qog‘ozlar, depozitlar, zaymlar, ko‘chmas mulkka sarmoyalar va ustav kapitaldagi ulushi kabi yo‘nalishlardan tashkil topgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar asosida ushbu muammolarni hal etish, investitsiya faoliyati samaradorligini oshirish imkoniyatlarini izlab topishni oldimizga maqsad qilib qo'yish mumkin bo'ladi. Shuningdek, sug'urtalovchining moliyaviy resurslari qanchalik darajada yuqori bo'lsa, ulardan foydalanish ham shuncha yuqori darajada bo'ladi. Shuning uchun sug'urtalovchilar o'z moliyaviy resurslarini yanada oshirishi va kengaytirishi lozim. Buning uchun albatta sug'urta kompaniyalari sug'urtaning umumiy tarmog'i bo'yicha, qolaversa, hayot sug'urta tarmog'i bo'yicha ko'rsatilishi lozim bo'lgan sug'urta xizmatlarini o'zlarining faoliyatlarida kengroq qo'llash maqsadga muvofiqdir. Bu o'z navbatida sug'urta tashkilotlarini qo'shimcha investitsiya faoliyatini amalga oshirishga undaydi hamda uning moliyaviy barqarorlik darajasini oshiradi va mustahkamlaydi.

Sug'urta tashkilotining investitsiya faollligi sifatini oshirishning ichki mexanizmlaridan samarali foydalanishga erishish uchun quyidagi bir qator tadbirlarni amalga oshirish zarur bo'ladi:

- sug'urta tashkiloti tomonidan investitsiya obyektlariga yo'naltirilayotgan moliyaviy mablag'larning hajmini oshirish uchun uzoq muddatli hayot sug'urtasi xizmatlari bozoriga xususiy resurslarni jalb qilishning faolligini oshirish;
- investitsiya operatsiyalariga yo'naltirish maqsadida xususiy resurslarni ko'paytirish uchun sug'urta tashkilotlarini investitsiya sohasidagi samarali siyosatni amalga oshirishlari zarur;
- sug'urta tashkilotlarining moliyaviy resurslarini joylashtirishning natijadorligini hamda sug'urta faoliyatining sifatini oshirish uchun moliyaviy nazorat va rejalashtirish mexanizmlaridan unumli foydalanish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Е.Н. Певченко, Т.Г.Ильина, "Методы оценки инвестиционной деятельности страховых компаний" Вестник Томского государственного университета. Экономика. –2018. –№ 41.
2. O.C.Bobkov, I.P.Kurochkina, "О способах повышения эффективности инвестирования страховых резервов в россии" Экономика, Статистика и Информатика № 261 6(2), 2014.
3. J.Ataniyazov, E.Alimardonov. Xalqaro moliya munosabatlari. // Darslik. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2014. – 432 b.
4. А.О.Одилов. Капитал бозори орқали иқтисодиётга инвестицияларни жалб қилишни ривожлантириш йўллари: Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати – Т.: ТМИ, 2021. – 18-19 б.
5. H.H.Imomov. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. // Oliy o'quv yurtlarining iqtisodiy ta'lim y o'nalishi talabalari uchun o'quv q o'llanma. – T.: IQTISOD-MOLIYA, 2010. – 188 b.
6. Фролова В.В. Управление инвестиционной деятельностью Россиеских страховых компаний. Иқтисод фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. –Краснодар 2013. –С.27.
7. Турбина К.Е.Теория и практика страховани. –М.: Анкил 2003. –С.132

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

YANGI O‘ZBEKISTON STRATEGIYASIDA INSTITUTSIONAL ISLOHOTLARNI YANADA CHUQURLASHTIRISH VA KO‘P FUNKSIYALI RAQAMLASHTIRISHNING ILMIY ASOSLARI

B. B. Berkinov
I.f.d., TDIU “Makroiqtisodiy tahlil va prognozlashtirish” kafedrasi professori, “Institutsional va iqtisodiy tadqiqotlar markazi” direktori

Annotatsiya: Maqolada institutsional islohotlarni yanada chuqurlashtirish va uni raqamlashtirishning ilmiy-metodologik jihatlari ishlab chiqilgan. Unda institutsional islohotlarni chuqurlashtirish konsepsiyasi, yangi institutlarni shakllantirish, ularning tamoyillari va jozibadorligini oshirish yo‘llari hamda raqamlashtirish modellari taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: iqtisodiyotning institutsional tuzilishi, institutsional islohotlar, inklyuziv institutlar, islohotlar tamoyillari, transaksiya munosabatlari, jozibadorlik, mahalla institutlari, raqamlashtirish, samaradorlik omillari.

Abstract: The article reveals the scientific and methodological aspects of further deepening institutional reforms and their digitalization. It proposes a concept for deepening institutional reforms and the formation of new institutions, principles and ways to increase their attractiveness, as well as digitalization models.

Key words: institutional structure of the economy, institutional reforms, inclusive institutions, principles of theology, transactional relationships, attractiveness, mahalla institutions, digitalization, efficiency factors.

Аннотация: В статье раскрыты научно-методологические аспекты дальнейшего углубления институциональных реформ и их цифровизации. В ней предложены концепция углубления институциональных реформ и формирования новых институтов, принципы и пути повышения их привлекательности, а также модели цифровизации.

Ключевые слова: институциональная структура экономики, институциональные реформы, инклюзивные институты, принципы теологии, транзакционные отношения, привлекательность, институты махалли, цифровизация, факторы эффективности.

KIRISH

O‘zbekistonda tarixan qisqa davr mobaynida davlat va jamiyat qurilishini tartibga soluvchi bozor tamoyillariga asoslangan tubdan yangi institutlar va shunga mos institutsional muhit shakllantirildi. Uning negizini xalqimiz turmush tarzini, urf-odatlarini, diniy e’tiqodlarini hisobga oluvchi O‘zbekiston Respublikasining yangi Konstitutsiyasi, shuningdek, mamlakatimiz qonunlari, normativ-huquqiy hujjatlar tashkil etadi. Shulardan kelib chiqib, biz O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti institutsional tuzilishini asosladik (1-rasm). Bu jamiyatda davlat va biznes tuzilmalarini boshqarish, mulkchilik, ishlab chiqarish va taqsimot munosabatlariga, bozor islohotlari chuqurlashuviga, tabiiy va mehnat resurslaridan samarali foydalanishga kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Shu bilan birga, Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasini ta’minlovchi institutlar va ular normalarini rivojlantirish yo‘nalishlarida hal etilishi lozim bo‘lgan ko‘plab muammolar, amalda o‘z yechimini kutayotgan ustuvor vazifalar mavjud.

Gap shundaki, har qanday davlat va jamiyat, uning iqtisodiy agentlari ma’lum bir institutlar doirasida faoliyat yuritadi va rivojlanib boradi. Vaqt o‘tishi bilan institutlar rivojlanishning ichki talablari va tashqi omillari ta’siri ostida taraqqiyotga to‘siq bo‘lib qoladi. Bunday vaziyatlarda mavjud institutlar va institutsional muhitni takomillashtirish yoki ular o‘rniga yangilarini amalga kiritish talab etiladi.



1-rasm: O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining institutsional tuzilishi

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, institutlar va institutsional normalarning mamlakat iqtisodiy rivojlanishidagi roli nima bilan izohlanishi, xususan, nima uchun bozorlar yoki mulkchilik munosabatlari ishlaydi yoki ishlamaydi, iqtisodiyotda olib borilayotgan siyosatning u yoki bu tadbirlari nima uchun samarali yoki samarasiz bo'ladi, iqtisodiy-ijtimoiy sohadagi qaysi o'zgarishlar ichki sabablarga ko'ra yoxud hukumatning u yoki bu qarori tufayli yuzaga keladi, nega ayrim davlatlar boy, ayrimlari kambag'al, degan savollarga javob topish hozirgi kunda "O'zbekiston – 2030" strategiyasida institutsional islohotlarni chuqurlashtirishda asosiy o'rin egallaydi. Shularni hisobga olganda, "O'zbekiston – 2030" strategiyasining ustuvor yo'nalishlari, maqsadlari va vazifalari doirasida institutsional islohotlarni yanada chuqurlashtirish va uni ko'p funksiyali raqamlashtirish jarayonlarida foydalaniladigan ilmiy konsepsiya, usul va modellarni ishlab chiqish hozirgi kunning zaruriy fundamental va amaliy tadqiqotlari qatoriga kiradi.

Bu Yangi O'zbekiston rivojlanishida Harakatlar strategiyasidan – taraqqiyot strategiyasiga o'tishda inklyuziv institutlarning paydo bo'lishi va ular rivojlanishini har tomonlama rag'batlantirish, iqtisodiyot tarmoqlari nufuzini oshirish, ijtimoiy sohani, aholini qo'llab-quvvatlashni faollashtirish hamda himoya qilishning institutsional normalarini hayotga keng kirib kelishini ta'minlaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Institutlar va institutsional islohotlarni chuqurlashtirish muammolariga ko'plab xorijiy va mamlakatimiz olimlarining ilmiy ishlari bag'ishlangan. Institutlar va hozirgi zamon institutsional iqtisodiyoti rivojlanishiga D.Nort, R.Kouz, T.Eggertson va boshqalar tadqiqotlari katta hissa qo'shgan. Daron Ajemo'g'li, Saymon Jonson va Jeyms Robinson va boshqalar institutsional munosabatlarni chuqur tahlil qilgan va ular tadqiqotlarida inklyuziv va ekstrativ institutlarning amaliy jihatlarini ochib bergan.

Rossiyalik olimlar A.N.Oleynik, R.M.Nureyev, A.Ye.Shastitko, A.V.Sicheyeva va boshqalar ishlarida institutsional iqtisodiyotning yangi yo'nalishlari asoslangan.

Mamlakatimizda X.P.Abilqosimov, R.X.Toshmatov, A.A.Xoshimov, A.M.Qodirov va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida mulk huquqi, institutsional islohotlar, transaksiyalar, shartnomalar, norasmiy iqtisodiyot nazariyasi va amaliyot bilan bog'liq masalalar yoritilgan.

Tahlil qilingan ilmiy ishlarda yangi institutlar hamda institutsional muhit shakllanishi, bugungi kunda institutsional islohotlarni yanada chuqurlashtirish hamda raqamlashtirish, ular modellarini ishlab chiqish yo'nalishlari yetarlicha o'rganilmagan. Shularni inobatga olib, biz institutsional nazariya asoschilari tadqiqotlariga tayangan holda yangi O'zbekiston strategiyasida institutsional islohotlarni chuqurlashtirish va raqamlashtirishning konseptual qoidalarini taklif qilishga harakat qildik.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasini O‘zbekiston Respublikasining yangilangan Konstitutsiyasi, islohotlar tamoyillari, mamlakatimizda qabul qilingan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasining barqaror iqtisodiy o‘sishini ta’minlash me’zonlari, raqamlashtirish usullari hamda modellari tashkil etadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Institutsional islohotlarni chuqurlashtirish konsepsiyasi. O‘zbekistonda institutlar rivojlanishi va vaqt o‘tishi bilan o‘zgarib borishi, ularning o‘zaro bog‘liqlik qonuniyatlari to‘g‘risidagi bilimlar faol shakllanish bosqichiga o‘tmoqda. Shu bilan bir qatorda, mamlakatimizda institutsional iqtisodiyot fani doirasida ma’lum ilmiy – amaliy natijalar qo‘lga qiritilgan bo‘lsa-da, institutsional islohotlarni izchil amalga oshirish uchun bular yetarli emas. Ushbu yo‘nalishda TDIU tarkibidagi “Institutsional va iqtisodiy tadqiqotlar markazi” 2009-2023-yillarda 4 ta grant loyihalari ijrochilari boshqa ilmiy hamda OTM markazlar bilan hamkorlikda tadqiqot ishlari olib bormoqda. Shularni etiborga olganda, ushbu sohada institutlar va institutsional muhit normalarini, Yangi O‘zbekiston strategiyasini samarali amalga oshirishning nazariy qoidalarini ishlab chiqish talab etiladi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, biz Yangi O‘zbekiston iqtisodiyotida institutsional islohotlarni yanada chuqurlashtirish konsepsiyasini asoslashga harakat qildik (2-rasm). Uning asosini bir – birini birlashtiruvchi quyidagi uchta g‘oya tashkil etadi:

1) inklyuziv institutlarni rivojlantirish;
2) inklyuziv iqtisodiy o‘sishni ta’minlash;
3) institutsional muhit jozibadorligini oshirish.



2-rasm: Yangi O‘zbekiston iqtisodiyotida institutsional islohotlarni amalga oshirishning ilmiy – nazariy asoslari

Iqtisodiyotda inklyuziv va ekstraktiv institutlar mavjud. Inklyuziv institutlar – mamlakat iqtisodiyotiga va uning barqaror o‘sishiga sarmoya kiritishga qaratilgan institutlar bo‘lib, ular inklyuziv o‘sishning afzalliklarini kengroq e’tirof etadi. Shuning uchun butun jamiyat va uning alohida guruhlari ham, ushbu iqtisodiy o‘sishdan manfaatdor bo‘lib, mulk huquqlarini himoya qilishga, raqobatga, iqtisodiyot agentlari o‘rtasidagi shartnomalarni bajarishga qaratilgan siyosatni qo‘llab-quvvatlaydi.

Ekstraktiv institutlar– ozchilik guruh (elita) uchun iqtisodiyotdan foyda “olish”ga e’tibor qaratadi. Bunday jamiyatda barqarorlik ancha past bo‘lib, ijtimoiy birdamlik mavjud bo‘lmaydi. Bugun mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tadbirlar ekstraktiv institutlarni cheklashga qaratilgan. Masalan, korrupsiyani cheklash va uni yo‘qotish.

Inklyuziv institutlar innovatsiyalar va yangi texnologiyalarni ishlab chiqaradigan inson kapitalini yaratish hamda samarali qo‘llash davrini ishga tushiradi va bu o‘z navbatida ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga, faolroq iqtisodiy o‘sishga va ijtimoiy farovonlikning oshishiga olib keladi (3-rasm).

Shu bois iqtisodiyot subyektlari o‘rtasida o‘zaro munosabatlarda mavjud inklyuziv institutlarni doimiy ravishda qayta ko‘rib chiqish va takomillashtirish davlatni iqtisodiy boyishiga va farovonlikka olib boradi, ekstrativ institutlar esa asta-sekin qashshoqlashuvga sabab bo‘ladi.

Ushbu holatlardan kelib chiqib, biz barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlovchi inklyuziv institutlar tizimini asosladik. Ular qatoriga quyidagi iqtisodiy institutlar to‘plamlarini kiritdik: talab institutlari; iste’mol institutlari; taqsimlash institutlari; almashish va ijtimoiy shartnomalar instituti; ishlab chiqarish (xizmat ko‘rsatish)institutlari; boshqarish institutlari; institutlarni ko‘paytirish va o‘zgartirish institutlari; davlat institutlari.



3-rasm: Inklyuziv institutlar va aholi farovonligini oshirish

“Eski” institutlar to‘plamlari institutsional normalarni transformatsiyalash va uning normalarini o‘zgartirish – yangi inklyuziv institutlar shakllanishiga olib kelishi mumkin (4-rasm).



4-rasm: Yangi institutlarni shakllantirish

Keyingi yillarda aksariyat mamlakatlarda, shu jumladan, O‘zbekistonda ham barqaror iqtisodiy o‘sish to‘g‘risida gap ketganda iqtisodchilar institutsional islohotlarga ko‘proq e’tibor qaratmoqda. Umuman olganda olimlar iqtisodiyotda institutlar farovonlikka yagona yoki eng muhim izoh ekanligini ta’kidlashadi. Shularni inobatga olib, biz tadqiqotlarimizda “institut” o‘zi nima?, degan tushunchaga ko‘proq e’tibor qaratdik.

1. Institut – bu ijtimoiy tuzilma. U kishilar o‘rtasidagi ijtimoiy aloqa mavjudligini bildiradi. Biz o‘zimizning birgalikda yashash va ishlashimiz orqali institutni yaratamiz.
2. Institut – bu tartibga soluvchi kuch, odamlar tanlovini va xo‘jalik yuritishni chegaralaydi. Jamiyat insonlarga institut orqali ta’sir ko‘rsatadi.
3. Institut – odamlar o‘zaro aloqadorligining ma’lum bir tarkibiy tuzilmasini yaratadi. Shunday qilib, institutga insonlar o‘rtasidagi xatti-harakatni tarkiblashtiradigan ijtimoiy nazorat mexanizmi sifatida qarash mumkin.
4. Institut – bu qoida, insonlar yakka harakati yoki ular guruhining o‘zaro harakatining ma’lum bir chegarasi, qoidalar tizimi.
5. Institut – bu ta’sir qiluvchi kuch. Institut bu faqatgina rasmiy qoidalar emas, norasmiy chegaralarni ham o‘zida mujassam etadi.
6. Institut – nazorat bo‘yicha harakat yoki hokimiyatdir. Qisqacha aytganda, institut – bu harakat, ushbu harakat mazmuni esa – hokimiyat (nazorat)dir.
7. Institut – bu real xulq-atvor (o‘zini tuta bilishlik) yoki harakatdagi qoidadir.
8. Institut – bu ijtimoiy tartibdir. Amaldagi institutlar (qoidalar) va xatti – harakatning real ketma-ketligi asosida ma’lum bir ijtimoiy tartib shakllanadi.
9. Institut – bu tashkilotdir. Kishilar faoliyatini yo‘naltiruvchi va bo‘ysundiruvchi hamda ijtimoiy xatti-harakatlarni tarkiblashtiruvchi omillar.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Institutsional islohotlar tamoyillari va bosqichlari. Institutsional islohotlar ma'lum bir yo'nalishda aniq maqsad va vazifalar doirasida boshqaruv funksiyalari hamda tamoyillariga asoslanib amalga oshiriladi. Ular quyidagilar:

1. Institutlar va institutsional islohotlar funksiyalari: a) tashqi va ichki muhitdan axborotlar qabul qilish; b) manfaatlar muvozanatini saqlashni tartibga solish; v) islohotlar o'zgarishi darajalarini va bosqichlarini muvofiqlashtirish.
2. Bir – birini to'ldiruvchi islohotlar tamoyili: a) joriy bosqichda islohotlarni amalga oshirishning yangi shartlarini o'z vaqtida aks ettirish; b) manfaatlar balansi buzilganda islohotlarni amalga oshirishni cheklash; v) islohotlarni bosqichma – bosqich amalga oshirishga imkoniyat yaratish.
3. Islohotlarning innovatsionligi tamoyili: a) islohotlar subyektlarini innovatsion aktivligini rag'batlantirish; b)katta hajmdagi institutsional innovatsiyalar manfaatlar balansini ta'minlashi; v)institutsional innovatsiyalar inson kapitali samaradorligini oshirishi
4. Islohotlar subyektlari o'rtasida axborot oqimlari ochiqligi va ko'p funksiyali raqamlashtirish tamoyili: a) institutsional islohotlar axborotlar oqimini raqamlashtirish funksiyalarini amalga oshirish bilan kuchli bog'liqligi; b) axborot ochiqligi funksiyasini amalga kiritish institutlar va institutsional islohotlar samaradorligini oshirish; v) axborotlar ochiqligi iqtisodiyot subyektlariga o'z vaqtida islohot loyihalariga o'zgartirishlar kiritish imkoniyatini beradi.



5-rasm: Institutsional islohotlarni amalga oshirish bosqichlari

Ushbu funksiya va tamoyillar yangi inklyuziv institutlarni shakllanishini hamda iqtisodiyot subyektlari faoliyatini institutsional isloh qilishni amalga oshirish bosqichlarini belgilab olishni ta'minlaydi (5-rasm).

Yangi O'zbekiston strategiyasida amalga oshirilayotgan yangi institutlar va rasmiy normalar, jumladan, O'zbekiston Respublikasi yangi Konstitutsiyasi dastlabki bosqichida 155 ta modda (institutlar) hamda 434 ta institutsional normalar o'rin olgan. "Harakatlar strategiya"sida 2017-2022-yillarda davlat, jamiyat va iqtisodiyot tizimlarini isloh qilish yo'nalishlarida 7 ta yangi qonun qabul qilindi, 15 ta amaldagi qonun va qonunchilik hujjatlari hamda 120 dan ortiq institutsional normalarga o'zgartirishlar kiritilgan. Shuningdek, "O'zbekiston–2030" strategiyasini amalga oshirishda "Barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlash" yo'nalishi bo'yicha 24 yangi institutlar va 40 dan ortiq rasmiy institutsional normalar kiritish ko'zda tutilgan.

Institutsional islohotlarni chuqurlashtirish muammolari.

1. Strategik islohotlarning hozirgi bosqichida O'zbekiston iqtisodiyotining institutsional tarkibi va uning inklyuziv iqtisodiy o'sish uchun zaruriy sharoitlar yaratishdagi roli, institutlar rivojlanishiga salbiy ta'sir

etayotgan institutsional cheklovlarni (nomutanosib institutlarni) aniqlash muhim hisoblanadi. Shuni hisobga olib kichik biznes hamda yirik korporativ tuzilmalar (korxonalar) faoliyatida institutsional islohotlar samaradorligini baholash orqali institutsional cheklovlarni bartaraf etishning ilmiy asoslari va yo‘nalishlarini ishlab chiqish zarur.

2. Raqobat sharoitida iqtisodiy o‘sish va korxonalar samaradorligini oshirish ko‘p jihatdan transaksiyalar (shartnomalar) bajarilishiga va ular uchun sarflanayotgan xarajatlar darajasiga bog‘liq. Ushbu muammo yuzasidan amalga oshirilayotgan tadqiqotlar hozirgacha nazariy tasnifga ega bo‘lib, ularda iqtisodiy rivojlanishning transaksiya xarajatlarini pasayishining amaliy jihatlari hisobga olinmayapti. Shu nuqtayi nazardan, bozor munosabatlari sharoitida transaksiya xarajatlarini optimallashtirish va raqamlashtirishning usul va mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb muammolar qatoriga kiradi (6-rasm).
3. Yangi O‘zbekistonni barpo etish strategiyasida iqtisodiyotning inklyuziv rivojlanishida mikro, kichik, o‘rta va yakka tadbirkorlik faoliyati ustuvor mavqega ega bo‘lishi e’tirof etilgan. Shuni hisobga olib, mahalla muhitida oilaviy tadbirkorlik shakllari samaradorligini oshirish hamda ularni istiqbolda inklyuziv iqtisodiy o‘sishini ta’minlovchi institutlar va institutsional mexanizmlarni takomillashtirish yuzasidan ilmiy tadqiqotlarini kengaytirish islohotlar samaradorligini oshiradi.
4. O‘zbekistonda shakllangan institutsional muhitning hozirgi holati, uning tarkibiy tuzilishi hamda inklyuziv iqtisodiy o‘sish sur’atlarining kutilgan darajadan ortda qolishining institutsional sabablarini aniqlash, shuningdek, yangi qiymat yaratishga yo‘naltiriladigan investitsiyalar oqimining o‘sish sur’atlari va samaradorligini raqamlashtirish modellarida institutsional omillarni hisobga olish zarur. Shu bilan bir vaqtda, ijtimoiy – iqtisodiy tizimning barqaror inklyuziv rivojlanishining asosiy omili sifatida inson kapitali o‘sishini ta’minlash, undan institutsional islohotlar bosqichlarida yangi texnologiyalar va innovatsiyalarni yaratishda samarali foydalanish, hududlarda yashil iqtisodiyotga o‘tishni tezlashtirish, davlat-xususiy sheriklik, maxsus iqtisodiy zonalarni hamda ta’lim institutlarini rivojlantirish usullarini ishlab chiqish bo‘yicha tadqiqotlarni yana davom ettirish muhim natijalarga olib keladi.



6-rasm: Transaksiya munosabatlari va ular bilan bog‘liq xarajatlar turlari

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Institutsional muhit jozibadorligini oshirish yo‘llari. Bizning tadqiqotlarimizda asoslanganidek, quyidagi yo‘nalishlarda inklyuziv iqtisodiy o‘sish institutsional muhit jozibadorligini yanada oshiradi va bu O‘zbekiston – 2030 strategiyasini amalga oshirishni tezlashtiradi. Buning uchun quyidagilar taklif etiladi:

Birinchidan, inklyuziv institutlarning iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishidagi rolini kuchaytirish, xususiy mulkchilik va mulkdorlar huquqlarini himoya qilishning institutsional normalarini xorijiy tajribalardan foydalanib yanada takomillashtirish.

Ikkinchidan, iqtisodiy munosabatlarda tuzilgan shartnoma jarayonlarida yuzaga keladigan transaksiya xarajatlarini kamaytirish usullarini amaliyotga keng joriy qilish.

Uchinchidan, mahalla institutining aholi daromadlarini oshirishga qaratilgan tadbirkorlik faoliyatining institutsional-huquqiy normalarini hamda oilaning inson kapitalini asrash va uni rivojlantirish funksiyalarining yangi mezonlarini joriy etish.

To‘rtinchidan, iqtisodiyotni innovatsion rivojlanish va innovatsiyalar yaratuvchi institutlarni ko‘paytirish va keng qo‘llab-quvvatlash.

Beshinchidan, Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida ijtimoiy davlatning institutsional normalarini taomiliga yetkazish bo‘yicha keng ijtimoiy-iqtisodiy tadqiqotlarni amalga oshirish.

Institutsional islohotlarni amalga oshirishni raqamlashtirish modellari. Mamlakatimizda institutsional islohotlarni amalga oshirish samaradorligi, ushbu jarayon subyektlari faoliyatini raqamlashtirishga bog‘liq hisoblanadi. Ushbu tadqiqotimizda institutlarning umumiy modellari ishlab chiqilgan va ular 3 guruhni tashkil qiladi.

Institutning umumlashtirilgan modeli

$$I = \{(N0, D0, R0\}, (N1, D1, R1\},\ldots, (Nk, Dk, Rk)\},$$

Bu yerda: I–institut; S = {I} – normalar; N0 – asosiy norma; N1.....Nk – qo‘llab – quvvatlash normalarni; Dk,Rk– mos ravishda yangi va mavjud i–chi normalarni saqlovchilar,i = 0,1,…k.

2. Mahalla institutida ishlab chiqarish kooperatsiyasini tashkil etish modeli (A)



3. Mahallada oilaviy tadbirkorlik institutlarini ko‘p funksiyali raqamlashtirish modeli (B)



Mahallada yakka tartibdagi va kooperatsiyaga kiruvchi mikro, kichik, o‘rta va yirik korxonalar tarkibiga mos institutlar va ularga bog‘liq institutsional normalar, raqamlashtirish uchun axborot bazaga kiritiladi. Shu orqali institutsional islohotlarni amalga oshirish loyihalari ishlab chiqiladi. Loyihada foydalaniladigan modellar tizimi 6-rasmda keltirilgan.



7-rasm: Institutsional islohotlarni ko‘p funksiyali raqamlashtirishda foydalaniladigan modellar tizimi

XULOSA VA TAKLIFLAR

1. Institutlar va institutsional muhit takomillashuvi iqtisodiyot subyektlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni tezlashtiradi va ular daromadi (foyda) darajasini oshishiga olib keladi, transaksiya xarajatlarini kamaytiradi.
2. Ijtimoiy institutlar normalari va ular ishlash mexanizmlarini yaxshilanishi aholi farovonligini yangi pog‘onaga olib chiqadi.
3. Iqtisodiy va siyosiy institutlarning formal va abstraksiyalarga qarshi turishi samarali rivojlanishni ta’minlaydi.
4. Inklyuziv institutlar inson kapitali rivojlanishi, innovatsiyalar va yangi texnologiyalar iqtisodiy o‘sishni hamda aholi farovonligini ta’minlaydi.
5. O‘zbekistonda 2022-yilda ishlab chiqarilgan 888,3 trillion so‘m yalpi ichki mahsulotning qariyb 4,5 foizi yoki 40,0 trillion so‘mi institutlar va institutsional normalar takomillashuvi hisobiga olingan, prognozlarga ko‘ra, 2023-2030-yillarda ushbu ko‘rsatkich 4,5 foizdan 9,0 foizgacha yoki 80 trillion so‘mdan qariyb 160 trillion so‘mgacha oshishi mumkin.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston Strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti. –2021. –464 bet.
2. Норт Д. Институты, институциональная изменения и функционирование экономики. – М.: Фонд экономической книги "Начало" , –1997
3. Кауз Р. Фирма, рынок и право. – М.: Дело.–1993
4. Эггертсон Т. Экономическое поведение и институты. – М.: Дело, 2001. –18-19 б.
5. Ajemo'g'li, Daron. Robinson, Jeyms A. Mamlakatlar tanazzuli sabablari: qudrat, farovonlik va kambag'allik manbalari. Toshkent.: "Ofset-Print" MCHJ, "Nihol" nashriyoti. –2021. –672 bet.
6. Олейник А.Н. Институциональная экономика // Вопросы экономики. –1999. –№1. –С. 138.
7. Нуреев Р.М. Институционализм: прошлое, настоящее, будущее // Вопросы экономики. –1999. –№ 1. С. –125-147.
8. Шаститко А.Е. Новая Институциональная экономическая теория. –М., 2003. – С. 128.
9. Сычеева А.В. и др. Институциональная экономика [электронный ресурс]: учебно-методический пособие. Волжский, 2017. – Режим доступа: http://lib.volpi.ru
10. Berkinov B.B., Abilqosimov X.P. va boshqalar. Institutsional iqtisodiyot. –Darslik. –Toshkent: 2020-y. –430 bet.
11. Tashmatov R.X. Qishloq xo'jaligini rivojlantirishning institutsional mexanizmlarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. Toshkent: – 2023 y. –80 bet.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT BANKLARI ORQALI JINOIY YO‘L BILAN OLINGAN DAROMADLARNI LEGALLASHTIRISH MEXANIZMLARI

G‘afurov Umidjon Bahodir o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi,
O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi
Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining
Toshkent viloyati, Nurafshon shahar bo‘limi inspektori

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarida jinoiy yo‘l bilan olingan daromadlarni legallashtirish yo‘llarini takomillashtirish yoritilgan. Tijorat banklarida komplayens-nazorat tizimini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqot davomida bank tizimi orqali jinoiy yo‘l bilan olingan daromadlarni legallashtirish va uning iqtisodiy xavfsizlikka ta’siriga oid turli uslub va sxemalar o‘rganildi.

Kalit so‘zlar: tijorat bank, jinoiy yo‘l, legallashtirish, jinoiy sxemalar, pul mablag‘larini yuvish, moliyaviy operatsiyalar, integratsiya, taqsimlash, bo‘linish, qimmatli qog‘ozlar.

Abstract: The article discusses the improvement of methods of legalizing proceeds from crime in commercial banks of the Republic of Uzbekistan. A scientific proposal and practical recommendations have been developed to improve the compliance control system in commercial banks. The study examined various methods and schemes related to the laundering of proceeds from crime through the banking system and its impact on economic security.

Key words: commercial banking, criminal trail, money laundering, criminal schemes, money laundering, financial transactions, integration, distribution, division, securities.

Аннотация: В статье рассматривается совершенствование способов легализации доходов, полученных преступным путем, в коммерческих банках Республики Узбекистан. Разработаны научное предложение и практические рекомендации по совершенствованию системы комплаенс-контроля в коммерческих банках. В ходе исследования были изучены различные методы и схемы, связанные с легализацией доходов, полученных преступным путем, через банковскую систему и ее влияние на экономическую безопасность.

Ключевые слова: коммерческий банкинг, уголовный след, отмывание денег, преступные схемы, отмывание денег, финансовые операции, интеграция, распределение, разделение, ценные бумаги.

KIRISH

Iqtisodiyotning rivojlanishi, davlat ravnaqi, qonun ustuvorligi, fuqarolar turmushining farovonligi, tijorat banklarining rivojlanishi davlat strategiyasining muhim kaliti hisoblanadi. Sodda qilib aytganda, davlatning har bir fuqarosi o‘zini ishonchli his etishi, yurtdoshlar va ona vatanga sadoqatli bo‘lishi, bu yo‘lda qat’iy intizomga so‘zsiz rioya qilishi adolat mezonlarining qay darajada ustuvorligiga bog‘liqdir.

So‘nggi paytlarda respublikamizda “komplayens nazorat” tizimini shakllantirishga e’tibor kuchaymoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729- son farmoniga muvofiq, korrupsiyaga qarshi kurashish Davlat dasturi” qabul qilingan bo‘lib, mazkur Dasturning 21-bandida Ustav jamg‘armasida davlat ulushi bo‘lgan tashkilotlarda korrupsiyaga qarshi kurashish choralarini kuchaytirish, jumladan:

- korrupsiyaga qarshi kurashish “komplayens nazorat” (compliance control) tizimini joriy etish va uning samaradorligini monitoring qilish;
- korrupsiyaga qarshi kurashish tegishli korrupsion standarti (ISO 37001)ga muvofiq sertifikatlashtirish tartibini o‘rnatish vazifalari belgilangan.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 2-martdagi “Monopoliyaga qarshi komplayens tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 114-sonli qaroriga muvofiq, monopoliyaga qarshi komplayens tizimi:

- 2021-yil 1-yanvardan tajriba (sinov) tariqasida davlat boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarida hamda tasdiqlangan ro‘yxatga kiritilgan davlat ishtirokidagi korxonalarda;
- 2022-yil 1-yanvardan tabiiy monopoliya subyektlari, tovar yoki moliya bozorida ustun mavqega ega bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyektlar, shuningdek, oxirgi uch-yilda tovar sotishdan olingan jami tushumining o‘rtacha yillik miqdori 30 milliard so‘mdan oshadigan korporativ buyurtmachilarda joriy etilishi ko‘zda tutilgan.

Shunga qaramay, komplayens-nazorat tizimi tarkiban va mazmunan korrupsiya va monopoliyaga qarshi komplayensdan kengroq bo‘lib, tijorat banklarining xalqaro to‘lov tizimlariga ulanganligi, risk va tartibga solish jihatidan ahamiyatini hisobga olib, samarali komplayensni boshqarish tizimini shakllantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarida direktorlar (kuzatuv) kengashi pirovardida iste’molchilar huquqlarini himoya qilish bo‘yicha qonunlar va qoidalarga muvofiqligini ta’minlaydigan komplayensni boshqarish tizimini ishlab chiqish va boshqarish uchun javobgardir. Bank muassasasida komplayensni boshqarish tizimining muvaffaqiyati ma’lum darajada uning kengashi va yuqori menejment tomonidan amalga oshirilgan harakatlarga asoslanadi.

Globallashuv va transchegaraviy kapital oqimining tezlashishi xalqaro miqyosda tobora kuchayib borayotgan uyushgan jinoyatchilikning avj olishiga sharoit yaratdi. Noqonuniy ravishda jinoiy guruhlar tomonidan qo‘lga kiritilgan kapital tashkilotchilarni shaxsiy boyitish, shuningdek, ular faoliyatining eng xavfli bo‘lgan terrorizm jamiyati faoliyatining turli yo‘nalishlarini ta’minlash uchun ajratilgan. Shu bilan birga, jahon hamjamiyatining jinoyatchilarga qarshi kurash choralari noqonuniy daromadlardan foydalanish imkoniyatlarini keskin cheklaydi.

Tashkilotlar, korxonalar, muassasalar, ularning huquqiy shakllaridan qat’i nazar, bank muassasalarida shartnoma asosida tegishli hisob varaqlarda o‘z bo‘sh pul mablag‘larini saqlaydi. Agar jinoiy daromadlar asosiy jinoyatni sodir etish natijasida (masalan, firibgarlik) yuridik shaxsning bankdagi hisob varag‘ida bo‘lsa yoki qonuniy faoliyatdan olingan daromad niqobi ostida hisob raqamiga kirgan bo‘lsa, pul naqdsiz to‘lov bilan rasmiylashtiriladi. Bir yoki bir nechta banklar bilan qobiqli kompaniya nomidan jinoiy faoliyat jarayonida qonun chiqaruvchi bank hisob varag‘i (hisob-kitob, joriy, valyuta, kredit), hisob-kitob va kassa xizmatlari shartnomasini tuzadi. Kompaniya Bank-Mijoz elektron tizimi orqali bank bilan xizmat shartnomasini tuzishi mumkin. Buning uchun elektron kalit kompaniyaga uzatilib, real vaqt rejimida kompaniya hisob raqamlariga uzoqdan kirishni ta’minlaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Bank tizimi orqali jinoiy yo‘l bilan olingan daromadlarni legallashtirish kategoriyasi mazmunini yetakchi olimlar va soha mutaxassislari talqinida bir nechta guruhga birlashtirish mumkin. Xususan, A. Bekryashev, “Xufyona iqtisodiyotning tuzilishida quyidagi asosiy yo‘nalish yoki bloklarni ajratish mumkin. Yalpi ichki mahsulotni ishlab chiqarishga real hissa qo‘shadigan ishlab chiqarish sektori (noqonuniy iqtisodiyot):

a) noqonuniy ravishda, masalan, litsenziyasiz yoki maxsus ruxsatnomasiz amalga oshirilgan yuridik faoliyat; huquqiy iqtisodiyotda yashirin ishlab chiqarish;
b) noqonuniy ish bilan ta’minlash;
d) qonun bilan taqiqlangan iqtisodiy faoliyat.

Xufyona iqtisodiyotning qayta taqsimlanadigan sektoriga turli xil iqtisodiy jinoyatlar kiradi”, deb yozadi [1]. Ye.V. Zolotarev, “Hozirgi vaqtda pul yuvish faoliyati jinoiy sxemalarning doimiy ravishda murakkablashishi, noqonuniy operatsiyalarning tezlashishi va tranzit bank hisob varaqlaridan foydalanish zarurati bilan tavsiflanadi”, deya ta’riflagan [2].

O‘zbekiston iqtisodiyotida xufyona iqtisodiyotning YAIM ulushi to‘g‘risidagi ma’lumotlar turlicha bo‘lishiga qaramay uning darajasi iqtisodiyot va sanoat vaziri Botir Xo‘jayev ta’kidlaganidek, “bugungi kunda O‘zbekistonning xufiyona iqtisodiyot darajasi taxminan 45-46 foizni tashkil etmoqda” [3], degan fikrlari haqiqatga mos keladi. Chunki keyingi paytlarda respublikamizda valyuta siyosatini liberallashtirish va daromad solig‘idagi o‘zgarishlar xufyona iqtisodiyot darajasining sezilarli pasayishiga olib keldi.

O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlardan Dilorom Ortiqovaning “Iqtisodiy xavfsizlik” nomli o‘quv qo‘llanmasida mamlakat iqtisodiy xavfsizligi masalalari, unga bo‘ladigan tahdidlar, uning ko‘rsatkichlari, mezonlari va quyi chegaraviy miqdorlari to‘g‘risida ma’lumot beriladi.

Unda globallashuv jarayonlarining mamlakatlar iqtisodiy xavfsizligiga ta’siri, iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashda regional tashkilotlarning o‘rni va roli, terrorizm, xufiyona iqtisodiyot, korrupsiya va ularning iqtisodiy xavfsizlikka ta’siri masalalariga alohida o‘rin berilgan.

Lekin mamlakatimizda jinoiy yo‘l bilan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha alohida o‘quv adabiyotlar yo‘q. Bu yo‘nalishda faqat ayrim ilmiy maqolalarnigina uchratish mumkin. Shu muno-

sabat bilan ushbu maqolada jinoiy yo‘l orqali olingan daromadlarni legallashtirishning turli usul va uslublari tadqiq etilib, ularni legallashtirishning turli sxemalari o‘rganildi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolaning metodologiyasini deduksiya, abstraksiya, tasniflash, umumlashtirish, qiyosiy, nazariy talqin va tahliliy uslublar tashkil etib, ulardan foydalanish va bibliografik o‘rganish natijasida hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash hamda ularga ta’sir etuvchi omillar va zarurati aniqlangan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jinoiy yo‘l orqali olingan daromadlarni legallashtirishning usul va uslublari muntazam takomillashib bormoqda. Ularning huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan aniqlanishi tobora kuchaymoqda. Oddiy sxemalar o‘rnini yanada murakkabroq ko‘p pog‘onali sxemalar egallab, huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan jinoiy moliya oqimlarini aniqlash juda mushkul bo‘lib qolmoqda. Bir qator ekspertlar ularni tuzish bo‘yicha izchil qadamlardan tarkib topgan muayyan umumiy bazaviy tamoyillarni qayd etmoqda.

Pul mablag‘larini “yuvish” bo‘yicha jinoiy sxemalar tashkil etiladigan eng keng tarqalgan modellardan biri uch fazali model bo‘lib, u 1-rasmda keltirilgan. Modelga ko‘ra, jinoiy daromadlarni legallashtirish quyidagi uchta fazalardan tarkib topgan: taqsimlash (placement), bo‘linish (layering) va integratsiya (integration). Sxemaga qarab mazkur bosqichlar kombinatsiyalanishi, bir- birining ustiga qo‘yilishi, dispersiyalanishi mumkin.

Taqsimlash (placement) – bank muassasalari yoki fond bozori dastaklarida naqd pullarni uchinchi shaxs hisob raqamiga jismoniy o‘tkazishni o‘zida namoyon etadi. Mazkur faza pul mablag‘lari naqd shaklining naqdsiz shakli (naqdsizlanishi)ga harakatlanishi bilan tasniflanadi. Naqd pullarning kelib tushadigan hisob raqam egalari ko‘pincha talabalar, ijtimoiy himoyalangan fuqarolar toifasi hamda muayyan turar joyga ega bo‘lmagan shaxslar hisoblanadi.

Naqd shakldagi yirik pul mablag‘larini taqsimlash bosqichi pul mablag‘larini “yuvish” jarayonida huquqni muhofaza qiluvchi organlar uchun eng shaffof va aniqlash oson bo‘lgan bosqich hisoblanadi. Jinoiy yo‘l orqali mutaxassislari talqinida bir nechta guruhga birlashtirish mumkin. Xususan, A. Bekryashev, “Xufyona iqtisodiyotning tuzilishida quyidagi asosiy yo‘nalish yoki bloklarni ajratish mumkin. Yalpi ichki mahsulotni ishlab chiqarishga real hissa qo‘shadigan ishlab chiqarish sektori (noqonuniy iqtisodiyot):

a) noqonuniy ravishda, masalan, litsenziyasiz yoki maxsus ruxsatnomasiz amalga oshirilgan yuridik faoliyat; huquqiy iqtisodiyotda yashirin ishlab chiqarish;
b) noqonuniy ish bilan ta’minlash;
d) qonun bilan taqiqlangan iqtisodiy faoliyat.

Xufyona iqtisodiyotning qayta taqsimlanadigan sektoriga turli xil iqtisodiy jinoyatlar kiradi”, deb yozadi [1]. Ye.V. Zolotarev, “Hozirgi vaqtda pul yuvish faoliyati jinoiy sxemalarning doimiy ravishda murakkablashishi, noqonuniy operatsiyalarning tezlashishi va tranzit bank hisob varaqlaridan foydalanish zarurati bilan tavsiflanadi”, deya ta’riflagan [2].

O‘zbekiston iqtisodiyotida xufyona iqtisodiyotning YAIM ulushi to‘g‘risidagi ma’lumotlar turlicha bo‘lishiga qaramay uning darajasi iqtisodiyot va sanoat vaziri Botir Xo‘jayev ta’kidlaganidek, “bugungi kunda O‘zbekistonning xufiyona iqtisodiyot darajasi taxminan 45-46 foizni tashkil etmoqda” [3], degan fikrlari haqiqatga mos keladi. Chunki keyingi paytlarda respublikamizda valyuta siyosatini liberallashtirish va daromad solig‘idagi o‘zgarishlar xufyona iqtisodiyot darajasining sezilarli pasayishiga olib keldi.



1-rasm: Pul mablag‘larini “yuvish” bo‘yicha uch fazali model [1]

O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlardan Dilorom Ortiqovaning “Iqtisodiy xavfsizlik” nomli o‘quv qo‘llanmasida mamlakat iqtisodiy xavfsizligi masalalari, unga bo‘ladigan tahdidlar, uning olingan pul mablag‘lari ko‘pincha aynan mana shu bosqichda aniqlanadi (1-rasmga qarang).

Bo‘linish (layering) noqonuniy yo‘l bilan olingan daromadlarning kelib chiqish manbalarini yashirish maqsadida bir qator chalkash moliyaviy tranzaksiyalarni olib borish orqali ushbu daromadlarni ularning manbalaridan ajratishni o‘zida namoyon etadi. Mazkur bosqichda huquqbuzarlar tomonidan ko‘pincha bank to‘lov hujjatlari va boshqa qimmatli qog‘ozlar xarid qilinadi. Agar huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan mazkur operatsiyalar aniqlanmagan bo‘lsa, unda jinoyatchilarning keyingi bosqichdagi qidiruvi o‘ta murakkab bo‘ladi.

Integratsiya (integration) – legallashtirishning yakuniy bosqichi bo‘lib, u jinoiy shaxslar o‘z xo‘jalik faoliyatida foydalanishni rejalashtirgan jinoiy yo‘l orqali olingan sarmoyalarga qonuniy maqom berishga qaratilgan. Mazkur bosqichda pul mablag‘lari, odatda, yuqori rentabelli tadbirkorlik faoliyati sohalariga qo‘yiladi. Shunday qilib, pul mablag‘larini yuvish uchinchi fazasidan keyin jinoiy yo‘l orqali olingan pul mablag‘lari go‘yo kelib chiqishi qonuniy bo‘lgan iqtisodiyotga qayta yuboriladi. Barcha legallashtirish bosqichlari yakuniga ko‘ra, jinoiy sxemalar elementlari va iteratsiyalarni aniqlash faqatgina huquqni muhofaza qiluvchi organlarida mavjud bo‘lgan jinoyat doirasida norasmiy xabar beruvchilar tarmog‘i yordami- dagina amalga oshirilishi mumkin.

Egasi qimmatli qog‘ozlarni xarid qilish uchun brokerga topshiriq beradi. Fond bozorining o‘zgaruvchan konyunkturasini hisobga olgan holda broker bankda aksiya va obligatsiyalarni xarid qilish maqsadida naqd pullarni olish bilan bog‘liq ko‘plab operatsiyalarni amalga oshirish iqtisodiy maqsadga muvofiqligi haqida shubha tug‘dirmaydi.

Mazkur holatda noqonuniy harakatlarning o‘ziga xos jihatlaridan quyidagilar hisoblanadi: qimmatli qog‘ozlar bilan bog‘liq operatsiyadan maksimal foyda olishda mijozlarning manfaatdor emasligi hamda pul mablag‘lar aylanmasi davrining qisqaligi.

Shunday qilib, “daromadlarni legallash- tirish” (yuvish) atamasining kelib chiqish tarixi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar mazkur hodisaning iqtisodiy va yuridik mohiyati to‘g‘risida nazariy-amaliy tasavvurini chuqurlashtirish hamda tadqiqotning tushunchalar apparatini shakllantirish va chegaralarni qo‘yishga imkon bergan.

Bundan tashqari, jinoiy sxemalarni shakllantirishning funksional modellarini o‘rganish mavjud aloqalarni daromadlarni legallashtirish (yuvish) bilan bog‘liq iqtisodiy munosabatlarning yig‘indisi sifatida mavhumlashtirishga imkon beradi.

XULOSA

Keltirilgan jarayonlarning mohiyatini tushunishga asoslangan jinoiy sxemalarning tahlili kredit tashkilotlarning har biri ushbu sxemalarni amalga oshirishda muhim amaliy rolini belgilab beradi. Ko‘rib chiqilayotgan jarayonning ajralmas subyekti sifatida namoyon bo‘lgan bankka asoslangan umumtarkibiy bazis va jinoiy-qidiruv aloqalarni tuzish borasidagi o‘xshash mantig‘i ham jinoiy yo‘l orqali olingan daromadlarni legallashtirish (yuvish) va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish tizimini, ham PYU/TMQK maqsadlarida kredit tashkilotlarini alohida nazorat qilish mexanizmlarini takomillashtirish usullarini ishlab chiqishga imkon beradi.

Shu bilan birga, ushbu usullarni ishlab chiqish jarayonida shuni e’tiborga olish kerakki, jinoiy sxemalar ham tobora murakkablashib bormoqda. Qonunga zid faoliyat bilan shug‘ullanuvchi subyekt inson ekanligini hisobga olib, birinchi navbatda, jinoyatchilar faoliyatini belgilab beruvchi motiv va omillarning iqtisodiy mohiyatini tadqiq etish asosida chora-tadbirlar ko‘rish maqsadga muvofiqdir.

Manba va adabiyotlar:

1. Бекряшев А. Теневая экономика и экономическая перступность [Электронный ресурс] / А.К. Бекряшев, И.П. Белозеров, Н.С.Бекряшева. – Режим доступа: http://newasp.omskreg.ru/ bekryash/.
2. Золотарев Е.В. Совершенствование системы противодействия легализации преступных доходов и механизмов контроля в кредитных организациях. Автореф. дисс к.э.н. – Москва, 2014.
3. O‘zbekistonning xufiyona iqtisodiyot darajasi oshkor etildi. kun.uz
4. Ortiqova D. Iqtisodiy xavfsizlik. – T.: 2010. O‘quv qo‘llanma.
5. O‘zbekiston Respublikasining “Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 15-yanvardagi O‘RQ-516-sonli Qonuni tahririda – Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 16.01.2019-y., 03/19/516/2484-son.
6. Tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha ichki nazorat qoidalari // “O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami”. – 2017-y. 29-may. – 21-son. – 401-modda.

RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDA KEKSA FUQAROLARNING BANDLIGINI OSHIRISH KAM TA'MINLANGAN AHOLI QATLAMINI QO'LLAB-QUVVATLASH USULI SIFATIDA (YAPONIYA TAJRIBASI MISOLIDA)

Karimov Bekzodjon Ilxomovich
TDIU mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya: Maqolada kam ta'minlangan aholi qatlami vakillari bo'lgan keksa fuqarolarni ish bilan band etish borasida yapon tajribasi nazariy va amaliy jihatdan tadqiq etilgan, bu borada mavjud muammolar ko'rsatib berilgan va ularning yechimi borasida Yaponiyada amalga oshirilayotgan davlat siyosati ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: keksa fuqarolar, keksa xodimlar, bandlik, teynen, pensiya tizimi, ish haqi.

Abstract: The article theoretically and practically examines the Japanese experience of employment of elderly citizens representing a low – income population, shows existing problems in this regard, as well as government policies implemented to solve these problems.

Key words: elderly citizens, elderly workers, employment, teinen, pension system, wages.

Аннотация: В статье теоретически и практически исследован японский опыт трудоустройства пожилых граждан, представляющих малообеспеченное население, показаны существующие проблемы в этом плане, а также государственная политика, реализуемая для решения этих проблем.

Ключевые слова: пожилые граждане, пожилые работники, занятость, тэйнен, пенсионная система, заработная плата.

KIRISH

Yaponiyada aholining progressiv tarzda qariyotganligi va yosh ishchi kuchlari sonining pasayib borayotganligi tufayli mamlakat uchun hali ishlatilmagan mehnat resurslari potensialidan foydalanish vazifasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Muammoni hal qilish usullaridan biri – bu keksa fuqarolarni ish bilan ta'minlash imkoniyatlarini kengaytirish bo'lib, bunday fuqarolardan ko'pchiligining sog'lig'i, ularga uzoq vaqt ishlash imkonini beradi.

Yaponiyada bu yo'nalishda anchadan buyon ko'plab ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, 2000–2010-yillarda qabul qilingan qonunlar natijasida keksa fuqarolarning ish bilan bandlik sharoitlari muhim darajada yaxshilanib, bu so'nggi yillarda ular iqtisodiy faollik darajasining sezilarli darajada oshishiga olib keldi. Biroq shunday bo'lishiga qaramasdan, keksa fuqarolarning mamlakat iqtisodiy hayotidagi ishtirokini yanada kengaytirishga to'sqinlik qiladigan ba'zi institutsional cheklovlar saqlanib qolmoqda.

Birinchidan, teynen, ya'ni kompaniyada xodimning ishlashini belgilab beruvchi yosh chegarasi (60 yosh) ning mavjudligi. Garchi qonunchilikka ko'ra barcha kompaniyalarda teynendan keyin ham xodimlarning ish bilan bandligini (pensiyaga chiqqunga qadar, ya'ni 65 yoshgacha) uzaytirish majburiyati bo'lsa-da, amalda, 60 yosh kirgandan keyin ko'plab xodimlarning nafaqat mehnat sharoitlari, balki ularning ijtimoiy mavqeyi ham o'zgaradi. Bu o'zgarishlar nafaqat 60 – 64 yoshli yaponlarning mavqeyiga ta'sir qiladi, balki bu yoshdan keyingi, ya'ni 65 – 69 yoshdagi fuqarolarning ish bilan ta'minlanish xususiyatini ham belgilab beradi. Ikkinchidan, ishlayotgan pensionerlarning pensiyalaridan ajratmalar tizimi ham muayyan to'siqlarni keltirib chiqarmoqda.

So‘nggi yillarda Yaponiyada keksa avlod vakillarini ish bilan ta’minlash muammosiga katta e’tibor qaratilayotganligining sababi shundaki, ular safiga ikkinchi jahon urushidan keyin (1947-1949-yillar)[1] va bundan keyingi yillarda tug‘ilgan millionlab kishilar qo‘shildi. Ular oldingi sobiq pensionerlarga qaraganda ko‘proq professional tajriba va yuqori malakaga ega bo‘lish bilan birga yetarlicha yuqori iste’mol darajasiga egaligi bilan ajralib turadi. Ularning iqtisodiyotdagi ishtirokini oshirish nafaqat mamlakatda tobora keskinlashib borayotgan ishchi kuchining yetishmaslik muammosini yengillashtirishga, balki iqtisodiy o‘sishni saqlab qolish va ijtimoiy ta’minot tizimidagi “yuk”[2] ni kamaytirishga yordam beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yaponiyada aholining kam ta’minlangan qatlami vakillari hisoblangan keksa fuqarolarni ish bilan band etish tajribasi bir qator yapon va rus iqtisodchi olimlari tomonidan o‘rganilgan. Yapon iqtisodchi olimlari orasidan Kavamura Koxey, Nagano Xitoshi va boshqa shu kabilar bu muammoni o‘z ishlarida tadqiq etishgan bo‘lsa, Rossiyalik iqtisodchi olimlardan Strelsov D. V., Lebedeva I. P., Markaryan S. B. va boshqalar bu sohada ilmiy tadqiqotlar olib borishgan.

O‘z ilmiy ishlarida Yaponiya pensiya tizimini tadqiq etgan Kavamura Koxey yapon aholisining tez qarishi mamlakat aholisi uchun jiddiy chaqiriq bo‘layotganligini qayta – qayta ta’kidlab o‘tish orqali, bu mehnat bozorida katta muammolarni yuzaga keltirishi mumkinligini ilmiy asoslangan prognozlar yordamida ko‘rsatib bergan. U Yaponiyada keksa fuqarolar, xususan pensiya yoshidagi fuqarolarning to‘laqonli hayot kechirishdagi salomatlik darajasi yuqori ekanligini hisobga olgan holda, ularni ish bilan ta’minlashdagi mavjud to‘siqlarni imkon qadar bartaraf etish orqali, mamlakat mehnat bozorida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolarning oldini olishni ilmiy jihatdan asoslab bergan.

Yaponiyada mehnat iqtisodiyoti va bandlik muammolarini tadqiq etish bilan shug‘ullanadigan yana bir iqtisodchi olim Nagano Xitoshi keksa fuqarolarni ish bilan band etish muammosining dolzarb ahamiyat kasb etishiga mamlakat kompaniyalarida bir necha yillardan buyon amal qilib kelayotgan teynen ni asosiy omillardan biri sifatida ko‘rsatib bergan. Shuningdek, u teynen yoshiga yetgan keksa fuqarolarga davlatning ijtimoiy va moliyaviy ko‘magi juda zarur ekanligini ilmiy jihatdan asoslab berish orqali, bundagi yagona va eng asosiy yechim sifatida keksa fuqarolarning ish bilan ta’minlanish huquqi davlat tomonidan to‘liq kafolatlanishi mamlakat iqtisodiy rivojlanishi uchun muhim ahamiyat kasb etishi borasida o‘z ilmiy fikr-mulohazalarini bildirib o‘tgan.

Yaponiyada kam ta’minlangan aholi qatlamini davlat tomonidan qo‘llab – quvvatlash tizimini ilmiy va amaliy jihatdan tadqiq etayotgan Rossiyalik iqtisodchi olim Strelsov D. V. mamlakat pensiya tizimida keksa fuqarolarni sug‘urtalash tizimi ularning keyin ham iqtisodiy faol aholi sifatida o‘zlarini his qilishlarida muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatib bergan. Uning fikricha, bunday sug‘urtalash tizimi keksa fuqarolarda ish bilan ta’minlanishiga bo‘lgan yuqori ishonchni shakllantirish orqali, mamlakatdagi mehnat bozorida yuzaga kelgan ish kuchini taqchilligi muammosini ijobiy hal etishga ko‘maklashadi.

Yana bir Rossiyalik olim Lebedeva I. P. Yaponiyadagi ijtimoiy ta’minot sohasini tadqiq etish orqali yaponlarning dunyodagi eng sog‘lom va uzoq umr ko‘radigan xalqlardan biri ekanligi mamlakatdagi keksa fuqarolarning bandlik muammosini davlat oldidagi dolzarb masalalardan biriga aylantirganligini ilmiy jihatdan asoslab bergan. Uning fikricha, yapon erkak va ayollarining to‘laqonli hayot kechirishini cheklamaydigan salomatlik holati muhim omil bo‘lib, davlat o‘z ijtimoiy ta’minot tizimida bu omilni to‘g‘ri hisobga olib, keksa fuqarolarning ish bilan ta’minlanish imkoniyatlarini yanada rivojlantirishi kerak.

Zamonaviy yapon oilasi muammolarini tadqiq etadigan yana bir Rossiyalik olim Markaryan S. B. o‘z ilmiy izlanishlarida zamonaviy yapon oilalarida keksa kishilarning nevaralarni tarbiyalashda ishtirok etish kabi ijtimoiy funksiyasi ahamiyatining keskin pasayib borayotganligi, keksa fuqarolarining ish bilan ta’minlanishga bo‘lgan ehtiyojlarining yanada oshib borayotganligiga olib kelayotganligini asoslab bergan. Uning fikricha, bunday funksiyaning keskin kamayishi keksa fuqarolarning pensiyaga chiqqanidan keyin hayoti qanday bo‘lishi kerakligi to‘g‘risidagi tasavvurlarining o‘zgarishiga ham olib kelayotgan bo‘lib, bu esa o‘z navbatida mamlakatda keksa fuqarolarni ish bilan ta’minlash masalasiga yanada jiddiy yondashishni talab qilmoqda.

Umuman olganda, ham yapon ham rus olimlari o‘z ilmiy izlanishlarida keksa fuqarolarning ish bilan ta’minlanishi Yaponiya iqtisodiyoti uchun qanchalik darajada muhim ahamiyatga ega ekanligini ilmiy, nazariy va amaliy jihatdan asoslab berishga harakat qilishgan.

1 Bu davr Yaponiyada “bebi – bum” davri deb atalib, bu davr nihoyat darajada yuqori tug‘ilish ko‘rsatkichlari bilan ajralib turadi.
2 Ijtimoiy ta’minot tizimi asosan davlat budjeti hisobidan moliyalashtirilishi tufayli uning xarajatlari davlat uchun “yuk” bo‘ladi, tabiiyki, keksa fuqarolarning ish bilan ta’minlanishi bo‘lsa bu yukning kamayishiga olib keladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning maqsadi bo‘lib kam ta’minlangan aholi qatlami vakillari hisoblangan keksa fuqarolarni ish bilan band etish borasida Yaponiya tajribasini tahlil qilish, bu borada mavjud muammo va kamchiliklarni aniqlash, ularni bartaraf etish borasida mamlakatda amalga oshirilayotgan davlat siyosatini o‘rganish hisoblanadi. Tadqiqotda me’yoriy-huquqiy hujjatlar, foydalanilgan adabiyotlar va rasmiy internet ma’lumotlari undagi iqtisodchi olimlarning mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlarining qiyosiy va tanqidiy tahlili, ilg‘or xorij tajribasini o‘rganish va umumlashtirish natijalari bilan belgilandi.

Mavzuni o‘rganish davomida umumiqtisodiy usullar bilan bir qatorda tizimli tahlil, umumlashtirish, abstrakt-mantiqiy fikrlash kabi usullardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jahon Sog‘liqni saqlash tashkiloti tomonidan qabul qilingan mezonlarga ko‘ra, keksa fuqarolarga 60 va undan katta yoshdagi shaxslar kiradi, qarilikning boshlanish chegarasi esa 75 yosh hisoblanadi [1]. Biroq Yaponiyada kishilarning umr ko‘rish davomiyligi va pensiya yoshining oshishi tufayli aholining qarish darajasini baholash uchun “yoshi 65 dan oshgan shaxslarning ulushi” degan ko‘rsatkichdan foydalaniladi. Biz ushbu holatni hisobga olgan holda va Yaponiya statistikasidan kelib chiqib, tahlilimizda “keksa fuqarolar” deganda yoshi 65 dan oshgan yaponlarni nazarga tutamiz. Biroq ba’zi hollarda ma’lumotlarni taqdim etishning soddaligini ta’minlash maqsadida 60 yoshdan 64 yoshgacha bo‘lgan fuqarolar ham “keksa fuqarolar” sirasiga kiritiladi.

Iqtisodiy faol yosh (ya’ni 15 va undan katta yoshdagi shaxslar) ga mansub aholi tarkibida, shuningdek, mamlakat iqtisodiyotida band bo‘lganlar tarkibida keksa fuqarolarning ulushi tez sur’atlar bilan o‘sib bormoqda: birinchi ko‘rsatkich 1990-yildagi 14,9 % dan 2017-yildagi 31,5 % gacha oshgan bo‘lsa, ikkinchi ko‘rsatkich mos ravishda 5,6 % dan 12,2 % gacha oshdi [2].

Ushbu o‘zgarishlar Yaponiyadagi demografik vaziyatning o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettirib, ular orasida eng muhimi sifatida aholining tez sur’atlarda qarishi e’tirof etiladi. Ma’lumki, ko‘plab yuqori darajada rivojlangan mamlakatlar aholining qarish muammosiga duch kelishmoqda, biroq ayniqsa Yaponiyada bu juda keskin hisoblanadi. Yaponiya bu mamlakatlardan nafaqat aholining qarish darajasi, balki keksa fuqarolarning umumiy aholi sonidagi ulushi bo‘yicha ham o‘zib ketgan. Masalan, 2015-yilda Yaponiyada keksa fuqarolarning umumiy aholi sonidagi ulushi 26,2 % kishini tashkil etgan bo‘lsa, AQSH da bu ko‘rsatkich 14,8 % ni, Buyuk Britaniyada 17,8 % ni, Fransiyada 19,1 % ni, Germaniyada 21,2 % ni va Italiyada 22,4 % ni tashkil etgan [3].

Garchi Yaponiya aholisi 2011-yildan beri pasayishni boshlaganiga qaramasdan (2010-yilda Yaponiya aholisi eng yuqori cho‘qqi – 128 mln 57 ming kishiga yetgan bo‘lsa, 2017-yilning kuziga kelib 126 mln 420 ming kishini tashkil qilgan, ya’ni 1 mln 600 mingdan ortiq kishiga kamaygan), keksa fuqarolar soni, aksincha, o‘sishda davom etmoqda. Mutaxassislarning hisob – kitoblariga qaraganda, bunday o‘sish 2043-yilgacha davom etishi mumkin bo‘lib, eng yuqori cho‘qqi – 38 mln 780 ming kishini tashkil qilishi mumkin. Shundan so‘ng, u asta – sekin kamaya boshlaydi, ammo yapon aholisining qarishi davom etadi. Prognozlarga ko‘ra, keksa fuqarolarning umumiy aholi sonidagi ulushi 2030-yilga kelib 30,4 %, 2055 yilga kelib 39,4 % va 2060-yilga kelib 39,9 % gacha oshishi kutilmoqda [4].

Yaponiya aholisining tez qarishi bir qator sabablarga bog‘liq. Birinchidan, bu yerda dunyodagi eng yuqori umr ko‘rish davomiyligi kuzatildi. Masalan, erkaklarning o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi 1950-yildagi 59,5 yoshdan 2016-yildagi 80,9 yoshga oshgan bo‘lsa, ayollarning o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi mos ravishda 63 yoshdan 87,14 yoshga oshgan. AQSH da bunday ko‘rsatkich – 77,3 va 81,9, Kanadada – 80,7 va 84,4, Buyuk Britaniyada – 80,0 va 83,5, Germaniyada – 79,0 va 83,6, Fransiyada – 79,9 va 85,7 va Italiyada – 81,1 va 85,4 yoshlarni tashkil qilgan. Prognozlarga qaraganda, 2060-yilga kelib yapon erkaklarining o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi 84,19 yoshgacha, yapon ayollariniki bo‘lsa 90,93 yoshgacha oshishi kutilmoqda [5]. Ikkinchidan, so‘nggi yillarda yapon jamiyatining qarish jarayoni tezlashdi, chunki “keksa fuqarolar” safiga ikkinchi jahon urushidan keyingi birinchi bebi – bum davri (1947-1949-yillar) da va bundan keyingi yillarda tug‘ilgan millionlab kishilar qo‘shildi. Uchinchidan, Yaponiyada tug‘ilish koeffitsiyenti[3] muntazam ravishda pasayib bormoqda: 1950-yilda bu ko‘rsatkich 28,1 dan iborat bo‘lgan bo‘lsa, 2016 yilga kelib 7,7 gacha pasaydi. Absolyut miqdorda ifodalaganda, bu davrda tug‘ilgan bolalar soni 2,8 martaga qisqargan – 2,7 mln dan 977 minggacha [6].

Yaponiyada aholining qarish jarayoni “kumush sunami” deb nomlanib, bu nafaqat uning ko‘lami va tezligi, balki jiddiy ijtimoiy – iqtisodiy muammolarni yuzaga keltirishi mumkinligini aks ettiradi. Eng jiddiy muammolardan biri bo‘lib keksa fuqarolarning ijtimoiy ta’minot muammosi hisoblanadi. Mamlakat konstitutsiyasi har bir fuqaro uchun munosib umr kechirish, shu jumladan qarilik gashtini surish huquqini kafolatlaydi. Bunday huquqni amalga oshirish maqsadida Yaponiyada o‘tgan asrning 60 – yillarida universal pensiya ta’minoti va tibbiy sug‘urta tizimi yaratilgan. Ammo muammo shundaki, ijtimoiy ta’minot bo‘yicha majburiyatlarining bajari-

3 Tug‘ilish koeffitsiyenti – bu har ming kishiga to‘g‘ri keladigan tug‘ilishlar soni demakdir.

lishi bilan bog‘liq bo‘lgan “davlat yuki” (ya’ni, ijtimoiy ta’minot tizimidagi “yuk”) doimiy ravishda ortib borayotgan bo‘lib, uning hajmi allaqachon hukumatning davlat moliyasini barqarorlashtirish vazifasini amalga oshirishni juda qiyinlashtiradigan darajaga yetdi. Masalan, 1995-moliyaviy-yildan 2017-moliyaviy yilgacha bo‘lgan davrda markaziy budjetning ijtimoiy ta’minot uchun barcha xarajatlari 14,5 trln yendan 32,5 trln yengacha, yoki 2,2 barobarga oshgan, ularning markaziy budjet umumiy xarajatlaridagi ulushi bo‘lsa mos ravishda 18,5 % dan 33,3 % gacha oshgan [7]. Aynan aholining tez qarishi bu ko‘rsatkichlarning shunchalik darajada sezilarli o‘sishiga olib keldi: so‘nggi yillarda keksa fuqarolar uchun pensiya to‘lovlari va tibbiy xizmat xarajatlarining ulushi ijtimoiy ta’minot uchun markaziy budjet xarajatlari umumiy miqdorining 2/3 qismini tashkil eta boshladi.

Bunday muammoni, shuningdek, ishchi kuchi taqchilligining tobora keskinlashib borayotganligini hal qilish usullaridan biri bo‘lib keksa fuqarolarning ish bilan bandligini oshirish hisoblanadi. Taxminan 2000-yillarning o‘rtalaridan boshlab, aniqrog‘i 2006-yildan keyin keksa yaponlarning barcha yosh guruhlarida, shuningdek, 60 – 64 yoshli fuqarolar orasida bandlik ko‘rsatkichlarining o‘sishi kuzatildi (1-jadval).

1-jadval: Keksa fuqarolarning turli yosh guruhlarida bandlik ko‘rsatkichlari dinamikasi, % [8]

Yosh guruhlari	Yillar						
	2007	2008	2009	2010	2011	2012	2013
60–64 yosh	55,5	57,2	57,0	57,1	57,1	57,7	58,9
65–69 yosh	35,8	36,2	36,2	36,4	36,2	37,1	38,7
70–74 yosh	21,7	21,8	21,8	22,0	22,8	23,0	23,3
75–79 yosh	8,7	8,6	8,3	8,3	8,4	8,4	8,2
Yosh guruhlari	Yillar						
	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020
60–64 yosh	60,7	62,2	63,6	66,2	68,8	70,3	71,0
65–69 yosh	40,1	41,5	42,8	44,3	46,6	48,4	49,8
70–74 yosh	24,0	24,9	25,0	27,2	30,2	32,2	32,5
75–79 yosh	8,1	8,3	8,7	9,0	9,8	10,3	10,4

60 yoshdan oshgan yaponlar orasida iqtisodiy faollikning o‘sishi (bu ayniqsa 60 – 64 va 65 – 69 yosh guruhlarida sezilarli) – bu 2000-yillarning boshidan beri katta yoshdagi fuqarolarni ish bilan ta’minlash sharoitlarini o‘zgartirishga olib kelgan bir qator muhim siyosiy qarorlarning qabul qilinishi natijasidir. Lekin birinchi navbatda, bu masalaning kelib chiqishi haqida bir necha fikr – mulohalarni bildirib o‘tmoqchimiz.

Keksa ishchilarning ish bilan bandligini barqarorlashtirish to‘g‘risidagi qonun 1971-yilda qabul qilingan bo‘lib, u yillar davomida jamiyatdagi o‘zgarishlardan kelib chiqqan holda bir necha marta qayta ko‘rib chiqilgan. Bunday qayta ko‘rib chiqishlardan asosiy maqsad ish beruvchilarga quyiladigan talablarni kuchaytirish bo‘lgan.

Keksa yosh guruhlaridagi ishchilarni ish bilan band etishning asosiy muammosi – bu pensiya yoshi bilan teynen, ya’ni kompaniyada xodimning ishlashini belgilab beruvchi yosh chegarasi (60 yosh) o‘rtasidagi farq mavjudligidir. Ma’lumki, teynen yapon kompaniyalarida mehnatni boshqarishning eng muhim vositasidir. Mohiyatan, teynen bir umrlik ishga yollangan xodimlarni ishdan bo‘shatishning yagona usuli bo‘lib, bu kompaniyalar uchun rotatsiya va nisbatan yosh xodimlar lavozimini oshirish mexanizmining uzluksiz ishlashini ta’minlash va yoshga bog‘liq ish haqi sharoitida mehnat xarajatlarining o‘sishini cheklash imkonini beradi.

1985 yilgacha teynen 55 yoshni tashkil etgan bo‘lib, bunda yirik korxonalardan bo‘shagan xodimlar odatda yosh muhim bo‘lmagan va majburiy ishdan bo‘shatishga olib kelmaydigan kichik va o‘rta firmalarda ish topishardi. Shuni ta’kidlash kerakki, o‘sha paytda uchta pensiya tizimi – kosey nenkin (xususiy kompaniyalar xodimlari uchun), kyosay kumiai nenkin (davlat muassasalari xodimlari, xususiy va davlat maktablari va universitetlari o‘qituvchilari uchun) va kokumin nenkin (boshqa barcha fuqarolar toifalari uchun) da pensiya yoshi teynen dan yuqori edi: dastlabki ikki tizimda u 60 yoshni tashkil etgan bo‘lsa, kokumin nenkin da 65 yosh edi.

1980-yillarda hukumat teynenni 60 yoshgacha ko‘tarish, ya’ni uni kosey nenkin va kyosay kumiai nenkin tizimlarida pensiya yoshiga yaqinlashtirish kompaniyasini boshladi. Biroq barcha kompaniyalar buni amalga oshirishga shoshilishmadi, chunki keksa yoshdagi xodimlarni ishdan bo‘shatishni besh yilga kechiktirish mehnat xarajatlarining oshishi va nisbatan yosh xodimlar (birinchi navbatda boshqaruv lavozimlarida ishlagan xodimlar) da karera o‘sishining sekinlashishi va mos ravishda, ulardagi mehnat motivatsiyasining pasayishiga olib kelardi. Shuning uchun 1980–1990-yillarda ayrim kompaniyalar quyidagi choralarni ko‘rishdi: doimiy xodimlarning asosiy tarkibi uchun ular teynenni 60 yoshga ko‘tarishdi, menejerlar uchun esa uni oldingidek, ya’ni 55 yosh qilib qoldirishdi [9].

1998-yilda qonuniy tarzda majburiy ishdan bo‘shatish yoshi etib 60 yosh belgilandi: kompaniyalarga uni 60 yoshdan past etib belgilash taqiqlandi. Natijada, kosey nenkin va kyosay kumiai nenkin tizimlarida teynen bilan pensiya yoshi o‘rtasidagi tafovut muammosini vaqtincha hal qilishga erishildi.

Biroq uzoq davom etgan depressiya va ishchi kuchining qarishi mamlakat pensiya tizimidagi moliyaviy vaziyatni murakkablashtirganligi sababli, 2001-yildan boshlab kosey nenkin va kyosay kumiai nenkin tizimlarida pensiya olish huquqini beradigan yoshni bosqichma – bosqich oshirish boshlandi. 2025-yilga kelib, u 65 yoshgacha ko‘tarilishi kerak. Natijada, teynen va xodimlarning pensiya yoshi o‘rtasidagi tafovut yana shakllana boshladi.

Hukumat tomonidan bu muammoni yumshatish maqsadida 2000-yilda “Keksa xodimlarning bandligini ta’minlash chora – tadbirlari to‘g‘risida” gi Qaror qabul qilinib, unda kompaniyalarga quyidagi chora – tadbirlardan birini qabul qilish taklif etiladi: teynenni oshirish; bandlikni uzluksiz davom ettirish tizimini joriy yetish; teynenni bekor qilish. Bunda “bandlikni uzluksiz davom ettirish” quyidagi ikkita variantni taklif qiladi: teynen yoshiga yetgan xodimni qayta ishga olish sharti bilan ishdan bo‘shatish, yoki teynendan keyin ham uning ish bilan band bo‘lishini uzaytirish (ya’ni ishdan bo‘shatmasdan). 2004-yilda “Bandlikni barqarorlashtirish to‘g‘risida” gi Qonunga kiritilgan o‘zgartirishlar 2006-yilda kuchga kirdi, 2004-yilda ular qabul qilindi va 2006-yilda bandlikni barqarorlashtirish to‘g‘risidagi qonunga kiritilgan o‘zgartirishlar kuchga kirdi va natijada bunday chora – tadbirlarni amalga oshirish barcha kompaniyalar uchun majburiy bo‘ldi [10]. Bundan tashqari, 2007-yilda ushbu qonunga kiritilgan o‘zgartirishlar asosida kompaniyalarga ish qabul qilish bo‘yicha e’lonlarini joylashtirishda yosh chegaralarini belgilash taqiqlandi.

Biroq vaziyat keskinligicha qolishda davom etdi. Ko‘pgina kompaniyalar teynenning ko‘tarilishi yoki bekor qilinishini qabul qila olmas edi, chunki yuqorida aytib o‘tilganidek, bu muqarrar ravishda mehnat xarajatlarining ko‘payishiga hamda rotatsiya va nisbatan yosh xodimlar lavozimini oshirish mexanizmidagi muvaffaqiyatsizliklarga olib keladi. Shuning uchun kompaniyalarning mutlaq ko‘pchiligi hukumat tomonidan taklif qilingan chora – tadbirlardan bittasini, ya’ni teynen yoshiga yetgan ishchilarni ish bilan ta’minlashni davom ettirish chorasini tanladilar. Bunda taklif etilgan variantlardan birinchisiga, ya’ni teynen yoshiga yetgan xodimni qayta ishga olish sharti bilan ishdan bo‘shatishga yaqqol ustunlik berildi. Qonunda qayta ishga olish shartlari haqida hech narsa aytilmaganligi sababli, bu kompaniyalarga ishchilarni ular uchun unchalik qulay bo‘lmagan shartlarda yollashga imkon berdi. Bundan tashqari, 2006-yilda kompaniyalarning talabiga binoan rahbariyat va xodimlar o‘rtasida tuziladigan shartnomaga (bunday shartnoma har yili tuziladi) qayta ishga qabul qilish imkoniyati barcha ishdan bo‘shatilganlar uchun emas, balki faqat kompaniya tomonidan belgilangan muayyan mezonlarga javob beradiganlar uchun taqdim etilishi to‘g‘risidagi qoida kiritildi.

Bu kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida 2013-yilda Qonunga yangi o‘zgartirishlar kiritilib, bunga ko‘ra kompaniyalarga teynen yoshiga yetganidan so‘ng ishlashni istagan har bir xodimni ish bilan ta’minlash majburiyati yuklatildi [11]. Nihoyat, 2016-yilda “Bandlikni sug‘urtalash to‘g‘risida” gi Qonun qayta ko‘rib chiqildi va yangi kiritilgan o‘zgartirishlarga muvofiq, 65 yoshdan oshgan, ishlashni davom ettirayotgan shaxslar ushbu tizimda sug‘urtalanish huquqini qo‘lga kiritishib, bu esa ushbu yosh toifasidagi fuqarolarga quyidagi afzalliklarni taqdim etadi: ular ishdan bo‘shatilgandan keyin yangi ish joyini qidirishda 50 ish kuni ichida eng yuqori daromadlarining 50–80 % i miqdorida (bir martalik) subsidiya olish huquqiga egadirlar.

Boshqacha qilib aytganda, 2000–2010-yillarda mamlakatning keksa fuqarolari uchun ish bilan bandlik imkoniyatlari sezilarli darajada kengaydi, ularning mehnat bozoridagi mavqeyi mustahkamlandi, bu esa ular iqtisodiy faolligining o‘sishiga olib keldi.

Keksa ishchilarni ish bilan ta’minlashga hissa qo‘shgan chora – tadbirlardan tashqari, kosey nenkin va kyosay kumiai nenkinda pensiya yoshini oshirish oqibatlarini yumshatishga qaratilgan chora – tadbirlar ham qo‘llanildi. Birinchidan, deyarli chorak asr davomida (2001-yildan 2025-yilgacha) pensiya yoshini bosqichma – bosqich oshirish ko‘zda tutildi. Ikkinchidan, pensiya olish huquqini beruvchi yosh xodimlarning tug‘ilgan yillariga qarab differensiallashdi va bandlikni ta’minlash choralari bilan birgalikda belgilandi. Uchinchidan, pensiya to‘lovlarining boshlanishi pensiyaning ikki qismi bo‘yicha differensiallashdi: xodimning daromad darajasiga bog‘liq bo‘lmagan qism va uning daromadiga bevosita bog‘liq ravishda shakllanadigan qism.

Bu yerda ba’zi tushuntirishlar qilish kerak. 1986-yildan boshlab kosey nenkin va kyosay kumiai nenkinda sug‘urtalangan xodimlarning pensiyalari ikki turdagi pensiyadan iborat bo‘la boshladi. Ulardan biri – kiso nenkin (asosiy pensiya) – davlat tomonidan belgilangan va barcha fuqarolar uchun bir xil bir xil bo‘lgan badallar hisobidan shakllantiriladi. Qonunga ko‘ra, mamlakatning 20 yoshdan 60 yoshgacha bo‘lgan barcha fuqarolari bunday badallarni to‘lashlari shart. Ikkinchisi miqdori xodimning daromadigan proporsional bo‘lgan badallar hisobidan shakllantiriladi. Ikkala tizimda – kosey nenkin va kyosay kumiai nenkinda ham badallar xodimlar va ish beruvchilar tomonidan teng ulushlarda to‘lanadi, ularning miqdori davlat tomonidan belgilanadi [12].

Keksa fuqarolarning bandlik muammosiga quyidagi ikkita holat alohida ta’sir ko‘rsatadi. Birinchidan, yaponlar dunyodagi eng sog‘lom va uzoq umr ko‘radigan xalqlardan biridir. Masalan, to‘laqonli hayotni cheklamaydigan salomatlik holati ayollarda o‘rtacha 73,6 yoshgacha, erkaklarda bo‘lsa 70,4 yoshgacha davom etadi [13].

Ikkinchidan, yaponlarning hayotiy qadriyatlari tizimida mehnat ustuvor o‘rinni egallaydi va ularning aksariyati o‘z hayotlarini faol mehnat faoliyatisiz tasavvur qila olishmaydi. O‘tkazilgan so‘rov natijalariga ko‘ra, mamlakat keksa fuqarolarining 1/3 qismi 70–75 yoshgacha ishlashni xohlashlarini aytishgan [14].

Teynen yoshiga yetgandan keyin ham ishlashni davom ettiradigan yaponlarni bunday yo‘l tutishga undaydigan motivlar to‘g‘risidagi yanada aniqroq ma’lumotlarni 2-jadvalda ko‘rish mumkin.

2-jadval: Teynen yoshiga yetgandan keyin ham ishlashni davom ettirish sabablari,% [15]

	Iqtisodiy motivlar	Bu sog‘liq uchun yaxshi	Munosib yashash, jamiyat hayotida ishtirok etish istagi	Mendan shunday qilishni iltimos qilishdi	Bo‘sh vaqtning ko‘pligi
60–69 yoshdagi erkaklar, shu jumladan:	**75,3**	**23,2**	**28,1**	**18,6**	**18,8**
60–64 yosh	80,0	20,5	26,2	14,1	15,4
65–69 yosh	67,9	27,5	30,9	25,5	24,2
60–69 yoshdagi ayollar, shu jumladan:	**66,2**	**22,9**	**36,3**	**16,0**	**27,9**
60–64 yosh	68,2	20,9	34,5	14,7	27,5
65–69 yosh	63,3	25,8	38,8	17,9	28,3

2-jadvaldagi ma’lumotlarga qaraganda, iqtisodiy motivlar yaponlarni teynen yoshiga yetganidan keyin ham ishlashni davom ettirishga undaydigan asosiy omil hisoblanadi. Zero, 60 yoshga kelib, ularning aksariyati o‘z hayotlari davomida eng ko‘p xarajatlarni talab qiladigan muammolarni hal qilishga muvaffaq bo‘lishadi (farzandlarini o‘qitish, o‘z uyiga ega bo‘lish, qarilikda farovon hayot kechirish uchun bankda yetarlicha pul mablag‘larini jamg‘arish). Jadvaldan ko‘rinib turganidek, 65–69 yosh guruhida bu omilning qiymati 60–64 yosh guruhiga qaraganda pastroq, chunki 65–69 yoshdagi fuqarolar pensiyani to‘liq hajmda olishni boshlaydilar. Bu pensiya hajmi mamlakatdagi o‘rtacha oylik ish haqining yarmini tashkil etsada, u fuqarolarning o‘rtacha ehtiyojlarini qondirish uchun to‘liq yetarli hisoblanadi.

Iqtisodiy motivlar bilan bir qatorda keksa yaponlarni ishlashga undovchi omillar jumlasiga faol turmush tarzini saqlab turishga bo‘lgan intilish, jamiyatga foyda keltirish istagi va shunchaki bo‘sh vaqtning mavjud bo‘lishi kabilarni ham kiritish mumkin. Shuni alohida ta’kidlab o‘tish joizki, so‘nggi yillarda zamonaviy Yaponiyada keksa kishilarning nevaralarni tarbiyalashda ishtirok etish kabi ijtimoiy funksiyasining ahamiyati keskin pasayib bormoqda. Bu uch avloddan iborat bo‘lgan oilalar ulushining tez pasayishi [16], yosh turmush qurgan juftliklarning o‘z ota -onalaridan mustaqil bo‘lishga yuqori darajada intilishi va nihoyat, keksa fuqarolarning pensiyaga chiqqanidan keyin hayoti qanday bo‘lishi kerakligi to‘g‘risidagi tasavvurlarining o‘zgarishi kabilar bog‘liqdir.

So‘nggi yillarda Yaponiyada ishchi kuchi yetishmovchiligi muammosining kuchayishi tufayli keksa fuqarolarga ish topishda yordam beradigan tashkilotlarning butun bir tarmog‘i yaratildi. Ular orasida mamlakatning barcha shaharlaridagi munitsipalitetlarda tashkil etilgan keksa kishilar uchun markazlar hamda HallowWork bandlik agentlari tarmog‘ini asosiy tashkilotlar sifatida ko‘rsatish mumkin. Keksa kishilar uchun markazlarda nafaqat mavjud bo‘sh ish o‘rinlari haqida ma’lumotlar beriladi, balki keksa fuqarolarning ishga joylashishlari uchun turli xil konsalting xizmatlari ham ko‘rsatiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Yaponiyada mamlakatda aholining tez qarishi natijasida keksa fuqarolarning mehnat bozoridagi holati alohida ahamiyat kasb etmoqda. Garchi keksa yaponlarning bandlik darajasi doimiy ravishda oshayotgan bo‘lsa-da, ularning salomatligi ularga yetarli darajada uzoq ishlash imkoniyatini bersada, keksa fuqarolarning mamlakat iqtisodiy faoliyatida ishtirok etishini yanada kengaytirishga to‘sqinlik qiladigan muayyan institutsional cheklovlar mavjud bo‘lib kelmoqda.

Birinchi navbatda, bu teynen, ya’ni kompaniyada xodimning ishlashini belgilab beruvchi yosh chegarasi (60 yosh) ning mavjudligi bo‘lib, bu yoshga yetgandan so‘ng xodimlarning nafaqat mehnat sharoitlari, balki ijtimoiy mavqeyida ham o‘zgarish yuz beradi. Bu o‘zgarishlar nafaqat 60–64 yoshdagi yaponlarning holatiga ta’sir ko‘rsatadi, balki ulardan keyin keladigan 65–69 yoshdagi fuqarolarning bandlik xususiyatini ham belgilab beradi.

Ikkinchidan, ishlovchi pensionerlarning pensiyalaridan ajratmalar tizimi ham muayyan to‘siqlarni yuzaga keltiradi.

Umuman olganda, Yaponiyada keksa fuqarolarni ish bilan band etish borasida olib borilayotgan davlat siyosati ko‘plab ijobiy siljishlarga ega bo‘lib, buni quyidagilarda umumlashgan holda ko‘rish mumkin:

Mamlakatda keksa xodimlarning salohiyati, ayniqsa ma’lumotlilik darajasi va professionalizmini hisobga oladigan bo‘lsak, ularning mamlakat iqtisodiy faoliyatida yanada keng ishtirok etish imkoniyatini yaratadi;

Keksa fuqarolar nihoyat darajada faol iste’molchilar hisoblanishib, bu mamlakat iqtisodiy o‘sishini qo‘llab – quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etadi;

Garchi mamlakatda keksa fuqarolarning bandligi sohasida muayyan muammolar mavjud bo‘lsa-da, umumiy olganda ularning holatini yetarli darajada ijobiy deb baholash mumkin:

- deyarli barcha ishlashni xohlaydigan keksa fuqarolar ish joyiga ega;
- pensiyalar darajasi, shuningdek, ishlash mobaynida to‘plangan jamg‘armalar keksa fuqarolarni o‘zlarini moddiy jihatdan yetarli darajada mustaqil his qilishlari imkoniyatini yaratadi;
- maxsus tibbiy xizmat ko‘rsatish tizimi, ayniqsa, uzoq muddatli g‘amo‘rlik qilishni sug‘urtalash tizimining amal qilishi ularga sog‘lig‘i yomonlashgan vaziyatlarda yuzaga keladigan muammolarni oson hal etish imkonini beradi;
- yangi bilim va ko‘nikmalarni egallash, sayohatlarga chiqish va boshqa shu kabilar uchun keng imkoniyatlar tizimining mavjud bo‘lishi yapon pensionerlarining hayotini yanada boy va qiziqarli qilmoqda;
- butun mamlakat bo‘ylab keksa fuqarolarning harakatlanishini osonlashtiradigan infratuzilmaning yaratilishi, ularga nisbatan yosh avlod tomonidan hurmat va e’tibor bilan munosabat qilinishi kabilar keksa kishilarni o‘zlarini jamiyatning to‘laqonli fuqarolari sifatida his qilishlariga imkon beradi.

So‘zimizning yakuni sifatida shuni aytmoqchimizki, Yaponiya haqiqatdan ham kam ta’minlangan aholi qatlami, bizning misolida keksa fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida dunyoning yetakchi davlatlari sirasiga kiradi. Bugungi O‘zbekiston va Yaponiya o‘rtasida rivojlanib borayotgan ikki tomonlama do‘stlik va hamkorlik munosabatlari negizida keksa fuqarolarning iqtisodiy faolligini oshirish borasidagi yapon tajribasini chuqur o‘rganish va uning kerakli tomonlarini mamlakatimiz iqtisodiy rivojlanishi yo‘lida tatbiq etishga e’tibor qaratilsa maqsadga muvofiq bo‘lardi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Jahon Savdo tashkilotining rasmiy www.who.int. sayti ma’lumotlari.
2. Japan Statistical yearbook 2011, 2015, 2018. Statistics Bureau. www.stat.go.jp
3. Japanese Working Life Profile. 2016/2017 // Japan Institute for Labor Policy and Training. www.jilpt.go.jp
4. Кавамура Кохэй. Нихон-но нэнкин: (Пенсионная система Японии). Т., 2014. С. 82 – 85
5. Дэтабукку кокусай родо хико 2018: (Международное сравнения в сфере труда. Справочник 2018) // Japan Institute for Labor Policy and Training. www.jilpt.go.jp.
6. Heisei 30 nempan shyoshika shyakai hakushyo (White paper on the ageing society 2018). T., 2018. C. 6
7. Japan Statistical yearbook 2011, 2015, 2018. Statistics Bureau. www.stat.go.jp
8. Heisei 30 nempan shyoshika shyakai hakushyo (White paper on the ageing society 2018, 2021). www.cao.go.jp
9. Nagano Hitoshi. Labor economy and employment. T., 2017. Pages 160-161.
10. Nagano Hitoshi. Labor economy and employment. T., 2017. Page 163.
11. Nagano Hitoshi. Labor economy and employment. T., 2017. Page 163.
12. Стрельцов Д. В. Япония: политическая модернизация эпохи Хэйсэй. М., 2013 г. С. 233
13. Лебедева И. П. Политика консерваторов в сфере социального обеспечения // Япония: консервативный поворот. М., 2015 г. С.141
14. Heisei 30 nempan shyoshika shyakai hakushyo (White paper on the ageing society 2018). T., 2018. p. 25
15. Japan Statistical yearbook 2011, 2015, 2018. Statistics Bureau. www.stat.go.jp
16. Маркарьян С. Б. Традиционное и новое в японской семье // Японское общество: изменяющееся и неизменное. М., 2014 г. С. 218.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

TASHQI SAVDONI OSHIRISHDA BOJ-TARIF SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMLARI

Pardayev Ilhomjon G‘ulomjon o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi,
O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo‘mitasi Tadbirkorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash boshqarmasi boshlig‘i

Annotatsiya: Ushbu maqolada jahon bozorida tashqi savdoni tartibga solishda va oshirishda mamlakatlardagi boj-tarif siyosatini takomillashtirish holati tahlil qilingan. Jahon bozoridagi tashqi savdoning zamonaviy usullari haqida so‘z yuritilgan. Bundan tashqari, taraqqiy etgan mamlakatlar va rivojlanayotgan mamlakatlar tomonidan qo‘llanilayotgan notarif usullarning ahamiyati, o‘rni va roli ochib berilgan. Jahon bozorda tashqi savdoni oshirishda boj-tarif siyosatini takomillashtirish yuzasidan amaliy taklif va tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: jahon bozor, tashqi savdo, eksportga subsidiyalar, miqdoriy cheklovlar, himoya choralari, importni cheklash tadbirlari, dempingga qarshi tekshirishlar, savdoga texnik to‘siqlar, subsidiyalashga qarshi.

Abstract: This article analyzes the state of improving customs policies in countries in the field of regulation and increasing foreign trade on the world market. Modern methods of foreign trade on the world market are discussed. In addition, the meaning, place and role of notarial methods used by developed and developing countries is revealed. Practical proposals and recommendations for improving customs policy are presented in order to increase foreign trade on the world market.

Key words: world market, foreign trade, export subsidies, quantitative restrictions, protective measures, import restriction measures, anti-dumping inspections, technical barriers to trade, anti-subsidies.

Аннотация: В данной статье анализируется состояние совершенствования таможенной политики в странах в сфере регулирования и увеличения внешней торговли на мировом рынке. Обсуждаются современные методы внешней торговли на мировом рынке. Кроме того, раскрывается значение, место и роль нотариальных методов, используемых развитыми и развивающимися странами. Представлены практические предложения и рекомендации по совершенствованию таможенной политики в целях увеличения внешней торговли на мировом рынке.

Ключевые слова: мировой рынок, внешняя торговля, экспортные субсидии, количественные ограничения, защитные меры, меры ограничения импорта, антидемпинговые проверки, технические барьеры в торговле, антисубсидирование.

KIRISH

Jahon xo‘jaligi rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri – bu xalqaro iqtisodiy munosabatlarning intensiv rivojlanib borishi hisoblanadi. Bu esa mamlakatlar, mamlakatlar guruhi, alohida firma va korxonalar o‘rtasida savdo-iqtisodiy aloqalarning kengayishi tobora chuqurlashuvi bilan izohlanadi. Ushbu holat jahon bozorida, shuningdek, uning turli segmentlarida yuzaga kelayotgan konyunkturaviy o‘zgarishlar har qanday davlatni jahon bozorida faollashishga, bunda tashqi savdoni tartibga solish, nazorat qilish va qo‘llab-quvvatlash vositalari hamda dastaklaridan har qachongidan ham ko‘proq unumli foydalanishga undamoqda.

Jahon xo‘jaligida davlatlar tashqi savdo aloqalarini qaytadan tashkil etish, ayrim tarmoq va sohalarda tarkibiy o‘zgarishlarni chuqurlashtirish zarurati borligi ham ayon bo‘lmoqda. Natijada, keyingi yillarda global va mintaqaviy darajada dunyo tashqi savdosida yangi yo‘nalishlarda siljishlar ro‘y bermoqda. Davlatlarning tashqi savdo strategiyalarida ham tub o‘zgarishlar namoyon bo‘lmoqda.

O‘zbekistonda ham tashqi savdo siyosatini takomillashtirish borasida tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 13-apreldagi PF-5012-sonli “Tashqi savdo sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni mamlakatimiz tashqi savdo aloqalarining samaradorligini yanada oshirish, tashqi savdoni liberallashtirish, eksport salohiyatini mustahkamlash hamda raqobatdosh mahalliy mahsulotlarni tashqi bozorlarga chiqarish tizimini takomillashtirish, mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar bilan xorijiy sheriklar o‘rtasida savdo sohasida uzoq muddatli barqaror sheriklik munosabatlarini shakllantirish maqsadlariga xizmat qilishi ko‘zda tutilgan.

Mazkur farmon bilan tashqi savdoni boshqarish, nazorat qilish, tartibga solish va rag‘batlantirish bo‘yicha tashkiliy-institutsional tizim yanada takomillashib, eksport va import faoliyatlarini yanada jadallashtirish uchun qo‘shimcha imkoniyatlarni yanada samarali jalb etishni ko‘zda tutadi.

O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi yangi tuzilma – O‘zbekiston Respublikasi Tashqi savdo vazirligi etib qayta tashkil qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Tashqi savdo vazirligi avvalo, tashqi savdo sohasida davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirish hamda tashqi savdo faoliyatini tartibga solish sohasida davlat boshqaruvi organlari ishini muvofiqlashtiradi. Shuningdek, ushbu vazirlik o‘z vakolatlari doirasida qabul qilingan va normativ-huquqiy xarakterga ega bo‘lgan qarorlari davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, mulkchilik shakli va idoraviy mansubligidan qat’i nazar, xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan bajarilishi majburiy hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Tashqi savdo, tashqi savdo siyosati, tashqi savdoni tartibga solish usullari bo‘yicha ko‘plab iqtisodchi olimlar ilmiy tadqiqot olib borganlar. Jumladan, tashqi savdo siyosati bo‘yicha zamonaviy yondashuvlar asosida tadqiqot olib borgan iqtisodchi olimlar fikrlariga to‘xtalib o‘tamiz.

Tashqi savdo, tashqi savdo siyosati, tashqi savdo strategiyalari va unga bog‘liq nazariy va amaliy masalalar so‘nggi yillarda turli yondashuvlarga tayangan holda rivojlanib bormoqda. Bu tadqiqotlar zamonaviy iqtisodiyotlarda yuzaga kelayotgan yangi vaziyat yoki holatlar, tendensiyalarni o‘rganish natijalari hisoblanadi. Masalan, V.V.Sokolov “Eksport – tovar, xizmatlar, intellektual mulk natijalari, shu jumladan ularga doir mutlaq huquqlarni bojxona hududidan xorijga qaytarib olib kelish majburiyatisiz olib chiqishdir”, deb hisoblaydi (2, 40-47-betlar).

V.Pankov xalqaro savdoning zamonaviy xususiyatlarini tadqiq etar ekan, 7 ta jihatga alohida e’tibor qaratadi. Bular – ilm-fan va texnika taraqqiyoti ta’sirida mahsulot hamda xizmatlar savdosi hajmining keskin ortishi, xalqaro savdoda rivojlanayotgan mamlakatlar salmog‘ining qisqarib borayotganligi, fan va texnika taraqqiyoti ta’sirida jahon eksportining tovar tarkibidagi fan sig‘imkorligi yuqori bo‘lgan mahsulot va xizmatlar ulushining ortib borishi, tashqi savdo aylanmasining jon boshiga baholangan qiymatining notekis taqsimlanayotganligi, yangi tarmoq va ishlab chiqarishlarning vujudga kelayotganligi, borgan sari ko‘proq mamlakatlarning alohida mahsulotlar guruhi importiga bog‘liqligining ortib borishi va tashqi bozorda ortiqcha mahsulotni sotishdan turli mamlakat korxonalari o‘rtasidagi hamkorlik aloqalari asosida avvaldan kelishilgan holda mahsulotni yetkazib berish shakliga o‘tish kabilar (3, 16-28-betlar).

Bulatova A.S. va Livenseva N.N.lar tashqi iqtisodiy faoliyat samaradorligini tadqiq etib, uni baholashda 10 ta ko‘rsatkichni ajratib ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ular tashqi savdoni tartibga solishning ustuvor yo‘nalishlarini ham tahlil qilishadi (4, 183-188-betlar).

A.Vahobovning fikricha, “iqtisodiy faoliyatga bevosita va bilvosita aralashuvi jarayoni eksport va import hajmi va tarkibiga ta’sir ko‘rsatish orqali ichki bandlilikni ta’minlash, iqtisodiy o‘sishga erishish, makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, to‘lov balansini yaxshilash hamda valyuta kursini tartibga solish maqsadlarini ko‘zda tutadi. Olimning ta’kidlashicha, savdo siyosati – budjet soliq siyosatining, tashqi savdo hajmlarini soliqlar, subsidiyalar, valyuta nazorati va import yoki eksportni to‘g‘ridan to‘g‘ri cheklashlar orqali tartibga solishni o‘z ichiga olgan umumiy iqtisodiy siyosatning nisbatan mustaqil yo‘nalishidir (5, 274-288-betlar).

Tashqi savdo faoliyatini to‘g‘ri rejalashtirish, tashkil etish, boshqarish va amalga oshirish, aniqligiga erishish uchun tasniflash lozimligini ta’kidlagan iqtisodchilardan biri bu N.Ivanovdir. Uning fikricha, tasniflash deganda xalqaro tijorat kelishuvini oldi-sotdi va tovar almashish kelishuvlariga ajratish mumkin. Tashqi savdo operatsiyalarini amalga oshirish xarakteri va predmetiga ko‘ra tayyor mahsulotlar, yig‘ilmagan ko‘rinishdagi mahsulotlar, eskirgan uskunalar, xomashyo, litsenziyalar savdolari hamda barter operatsiyalari va injiniring xizmatlarini ko‘rsatish kabilardan iborat bo‘ladi (6, 44-51-betlar).

Umuman olganda ushbu sohada tadqiqotlar olib borgan iqtisodchi olimlarning tashqi savdoni tartibga solish tizimini takomillashtirishga qo‘shgan ulushlarini e’tirof etgan holda, shuni ta’kidlash lozimki, bu tadqiqotlarda Yaponiyada tashqi savdoni tartibga solish bo‘yicha zamonaviy usullar va bu usullarning Yaponiya tashqi savdosi hajmiga, umuman iqtisodiyotiga ko‘rsatayotgan ta’siri masalalari yoritib berilmagan. Bu esa ushbu maqola mavzusini dolzarbligini belgilab beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ishini amalga oshirishda Yaponiyada tashqi savdoni tartibga solish usullari va vositalari asosiy tadqiqot obyekti bo‘lib tanlab olindi. Shuningdek, xalqaro savdoda mahsulotlarga qo‘llaniladigan notarif usullar, tashqi savdoda Osiyo mamlakatlari tomonidan qo‘llanilayotgan dastaklar, Yaponiyaning xalqaro savdoda mamlakatlarga qo‘llanilgan notarif dastaklari yillar bo‘yicha dinamik tahlil qilindi. Tadqiqotda guruhlash va qiyosiy tahlil usullaridan ham foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

So‘nggi yillarda jahon mamlakatlarining xalqaro bozordagi ishtiroki va bu bozorda o‘zlarining mavqelarini yanada mustahkamlashga bo‘lgan intilishlari tobora keskinlashib borayotgan raqobat kurashi sharoitida ro‘y bermoqda. Bu vaziyat davlatning tashqi savdo munosabatlariga aralashish miqyosi, tashqi savdoni tartibga solish darajasidan kelib chiqib, hukumatlarning tashqi savdo siyosatida qo‘llaydigan proteksionistik yoki erkin savdo usullarida ham o‘z aksini topmoqda.

Zamonaviy tendensiyalar shuni ko‘rsatmoqdaki, tashqi savdo siyosati bu umumiqtisodiy siyosatning soliqlar, subsidiyalar, valyuta nazorati, import yoki eksportni to‘g‘ridan to‘g‘ri cheklashlar orqali tartibga solishni o‘z ichiga olgan nisbatan mustaqil yo‘nalishi hisoblanadi. Aytish o‘rinliki, tashqi savdoni cheklash borasida olib borilayotgan har qanday chora-tadbirlar ko‘pincha qisqa muddatli samara beradi. Uzoq davr uchun esa, bu rivojlangan davlatlar tajribasida o‘z ifodasini topgan, faqat erkin savdogina iqtisodiy resurslarni yanada oqilona hamda samarali joylashtirishga imkon beradi. Garchi, erkin savdo jahon iqtisodiyoti nuqtayi nazaridan foydali bo‘lishi mumkin bo‘lsa-da, alohida olingan rivojlanayotgan mamlakat iqtisodiyotini har tomonlama yuksaltirish nuqtayi nazaridan bu yondashuv hamma vaqt ham o‘zini oqlamaydi.

Ma’lumki, tashqi savdoni cheklash usullarining 50 dan oshiqroq turi mavjud. Ularning ayrimlari davlat g‘aznasini to‘ldirishga yo‘naltirilgan bo‘lsa, ba’zilari umuman importni cheklashga va yana boshqasi esa eksportni cheklashga yoki rag‘batlantirishga yo‘naltirilgan. Tashqi savdoni tartibga solishning ikkita guruh usullari – tarif va notarif usullaridan foydalaniladi. Xalqaro savdoda mamlakatlar import mahsulotlariga o‘zining taqiqlarini yoki dastaklarini qo‘llaydi. Umuman olganda, jahon davlatlari turli maqsadlarda 43400 dan oshiq notarif usullaridan foydalanadilar. Shulardan eng ko‘p qo‘llaniladiganlari savdoga texnik to‘siqlar qo‘yish – 21926 ta, sanitar va fitosanitar chora-tadbirlar – 15670 ta, dempingga qarshi tekshirishlarni amalga oshirish – 2084 ta, miqdoriy cheklovlar belgilash – 1108 ta, tarif darajasiga kvotalar belgilash – 1274 tani tashkil etmoqda (1-rasm).



1-rasm: Xalqaro savdoda mahsulotlarga qo‘llaniladigan notarif usullar (birlik, 01.01.2022-yil holati)

Manba: https://i-tip.wto.org/goods/Forms/ProductView ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Umuman olganda xalqaro savdoda mahsulotlarga qo‘llaniladigan notarif usullarning mavjudligi, har bir mamlakatning o‘zining milliy ishlab chiqaruvchilarini qo‘llab-quvvatlash, ularning xalqaro savdoda mahsulotlarini raqobatbardoshliligini ta’minlashga olib keladi.

Mamlakatlar tashqi savdosi tovar va xizmatlar ishlab chiqarishga nisbatan jadal sur’atlar bilan rivojlangan. Bu esa dunyoning ko‘pchilik mamlakatlarida eksport va import kvotalarining o‘sishiga, savdoga texnik to‘siqlarning ko‘payib borishiga va oziq-ovqat mahsulotlarining sifati va xavfsizligi uchun yuqori darajadagi talablarni qo‘ygan holda sanitar va fitosanitar chora tadbirlarning ko‘p miqdorda qo‘llanishiga olib keldi. Albatta, bu raqamlar bugungi kunda mamlakatlar o‘zining milliy mahsulot ishlab chiqaruvchilarini himoya qilib, eksportni kuchaytirishga har tomonlama harakat qilayotganini ko‘rsatadi.

Butun jahon savdo tashkilotining tashqi savdoni erkinlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlariga qaramasdan, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining keyingi to‘lqinlari sharoitida tashkilotga a’zo mamlakatlar o‘rtasida qo‘llanilayotgan notarif chora-tadbirlar, jumladan, sanitar va fitosanitar chora-tadbirlar soni barqaror sur’atlar bilan o‘sib bormoqda. Ma’lumotlar 2000–2022-yillarda qo‘llanilgan sanitar va fitosanitar chora- tadbirlar soni 468 tadan 1681 tagacha, texnik to‘siqlar soni esa 633 tadan 1989 tagacha ortganligini ko‘rsatmoqda [7]. Bu davr oralig‘ida subsidiyalashga qarshi chora tadbirlari miqdori sezilarli darajada o‘zgarmadi. Dempingga qarshi tekshirishlar 0,8 foizga kamaygan. 2000–2022-yillarda mamlakatlarning taraqqiy etishi va insonlarni sog‘lig‘i va iste’moli uchun e’tiborning ortishi sanitar va fitosanitar chora-tadbirlar 3,6 martaga ko‘payishiga olib keldi. Texnik to‘siqlarning esa 3 marta ko‘p qo‘llanilayotganligini ko‘rishimiz mumkin. Umuman olganda xalqaro savdoda qo‘llanilgan notarif usullarning qo‘llanilishi o‘rtacha 0,4 foizga ko‘paydi.

Osiyo mamlakatlari qo‘llayotgan usullar e’tiborga molik. Masalan, 2022-yil ma’lumotlariga ko‘ra, Avstraliya import mahsulotlariga 411 ta sanitarik va fitosanitarik to‘siqlar, savdoga 203 ta texnik to‘siqlar, 122 ta miqdoriy cheklovlar, 2 ta ta’rif kvotalari, 6 ta eksport subsidiyalariga dastaklar joriy etgan. Yaponiya 498 ta sanitariya va fitosanitarik chora-tadbirlar, 775 ta savdoga texnik to‘siqlar, 57 ta maxsus to‘siqlar, 42 ta miqdoriy cheklovlar, 18 ta tarif kvotalari mavjud. Umuman olganda, Sharq mamlakatlarida Xitoy, Yaponiya, Koreya mamlakatlarida dunyoda eng ko‘p qo‘llaniladigan dastaklar mavjud. Bundan ko‘rinib turibdiki, Sharq mamlakatlarida dunyoda juda ko‘p davlat tomonidan qo‘llanilayotgan to‘siqlarning mavjudligi, uning eksport salohiyati va tashqi savdosini o‘sishiga olib kelayotganligini ko‘rishimiz mumkin (2-rasm).



2-rasm: Xalqaro savdoda qo‘llanilgan notarif usullar sonining o‘zgarishi, birlik

Manba: https://i-tip.wto.org/goods/Forms/ProductView ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Dunyo mamlakatlari ichida iqtisodiy jihatdan namunali tajribaga ega bo‘lgan davlatlardan biri bu Yaponiyadir. Yaponiyaning tashqi savdo siyosatini amalga oshirish va unda davlatning faol ishtiroki Yaponiyaning o‘ziga xos xususiyatidir. Davlat tashqi iqtisodiy faoliyatining deyarli barcha yo‘nalishlarini o‘ziga qamrab olgan va uni tartibga solib turadi, ichki va tashqi ahvolni tahlil qilishdan boshlab, tashqi iqtisodiy strategiyani ishlab chiqish, geografik va tarkibiy sohalarni muhimligini aniqlab, nazorat qilish va tartibga solishda moliyaviy rag‘batlantirish uslublarini qo‘llaydi.

Tashqi savdo siyosatini amalga oshirishda Yaponiya keng huquqiy normativ bazaga tayanadi. Qonuniy va huquqiy-ma’muriy tartibga solish tizimi ustuvorlik asosida namoyon bo‘lib, uni “Valyutani tartibga solish to‘g‘risida"gi Qonun davlatning umumiy tartibga solish orqali amalga oshiradi. Bu qonunda Xalqaro Valyuta Fondi, Butunjahon Savdo tashkiloti kabi xalqaro tashkilotlarning kodeksidan asosiy tamoyillar – savdoni erkinlashtirish haqidagi xalqaro shartnomalar, erkin va har tomonlama savdo tamoyillari mavjudligi tufayli erkin deb hisoblash mumkin. Erkin tashqi iqtisodiy faoliyat prinsipidan kelib chiqib, oddiy hollarda faqat minimal darajada davlat nazoratini amalga oshiradi.

Tashqi savdo siyosati puxta o‘ylangan davlat siyosati, davlatni rivojlantirishda, tashqi iqtisodiy aloqalarni asosiy ta’sirchan omillaridan biriga aylantiradi. Bu siyosat Yaponiyaning milliy manfaatlarini hisobga olgan holda jahon xo‘jaligida uni yirik xalqaro iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va moliyaviy savdo markaziga, jahon iqtisodiyotiga qo‘shilishi uning salmoqli qatnashchisiga aylantirdi. Xalqaro savdoni davlat tomonidan tartibga solinishida ma’muriy-huquqiy, iqtisodiy va norasmiy kabi bir-birini to‘ldiruvchi uslublardan keng foydalaniladi (1-jadval).

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

1-jadval: Tashqi savdoda Osiyo mamlakatlari tomonidan qo‘llanilayotgan dastaklar soni, 2022-y.

Mamlakatlar	Sanitar va fitosanitar chora-tadbirlar	Savdoga texnik to‘siqlar	Maxsus to‘siqlar	Miqdoriy cheklovlar	Tarif kvotalari
1	2	3	4	5	6
Avstraliya	411	203		122	2
Xitoy	1192	1179		21	10
Gonkong	40	78		103	
Hindiston	163	101		59	3
Indoneziya	114	113			2
Yaponiya	498	775	57	42	18
Koreya Respublikasi	554	798	39	92	67
Makao	19	6		10	
Malayziya	37	229			13

Manba: https://i-tip.wto.org/goods/Forms/ProductView ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Dunyoning turli mamlakatlari o‘z savdo siyosatlarini amalga oshirish uchun turli dastaklardan foydalanadilar. Notarif cheklashlarning o‘rtacha darajasiga ko‘ra, Yaponiya yuqori darajada rivojlangan mamlakat bo‘lib, postindustrial davlat hisoblanadi. Avtomobil, kema, maishiy texnika, sanoat robotlari, dastgohlar ishlab chiqarish va baliq ovlash bo‘yicha dunyoda yetakchi o‘rinda turadi. Yaponiya dunyoning aksariyat mamlakatlari bilan tashqi savdoni yo‘lga qo‘ygan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Jahon bozorida ishtirok etayotgan mamlakatlarning so‘nggi yillardagi tashqi savdo siyosatida tashqi savdoni tartibga solish dastak va vositalaridan foydalanish tendensiyalari ko‘zga yaqqol tashlanadi. Jahon savdosi erkinlashib borishi o‘rniga deyarli barcha davlatlar an’anaviy qabul qilingan tarif va notarif usullardan tashqari boshqa turdagi dastak va vositalardan o‘zlarining ichki bozorlarini himoyalash yoki tashqi bozorda faoliyat ko‘rsatayotgan eksportchilarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida qo‘llashga harakat qilmoqdalar. Ammo jahon savdo tashkiloti bunday proteksionistik harakatlar va urinishlarga zid o‘laroq tovar, mahsulot, ish va xizmatlarning erkin harakatini ta’minlashga qaratilgan siyosatni davom ettirmoqda.

Tashqi savdoni tartibga solishda nisbatan qat’iy usul, dastak va vositalarni ko‘proq Osiyo davlatlari faol qo‘llayotganlari ham tahlil natijalarida ma’lum bo‘ldi. Osiyo davlatlari jahon bozorida o‘zlariga munosib mustahkam o‘rin egallash uchun tashqi savdoni tartibga solishning milliy ishlab chiqaruvchilar manfaatlariga to‘g‘ri keladigan barcha usullaridan foydalanishga harakat qilishmoqda. Nazariy jihatdan olib qaraganda, rivojlanishning jadal bosqichi va davrlarida Germaniya ham (19-asrning oxirlari), AQSH ham (20-asrning boshlari) tashqi savdoda keng ko‘lamli dastak va usullardan foydalanishgan. Bir qaraganda, globallashuv va tashqi savdoning keng miqyoslarda erkinlashtirilishi yuz berayotgan so‘nggi 15-20-yilda aslida rivojlangan davlatlar ham o‘zaro turli usullarni qo‘llab kelishmoqda.

Yaponiyaning keyingi 5-10-yilda iqtisodiyotidagi nisbiy tushkunlik hodisalari borgan sari tendensiyaga aylangandan so‘ng bu davlat ham tashqi savdoda proteksionistik yondashuvlariga ko‘proq murojaat eta boshladi. Biroq bizningcha, bunday tendensiyalar uzoq davr uchun davom etishi mumkin emas. Chunki rivojlangan davlatlar iqtisodiyoti mazmun – mohiyatiga ko‘ra erkin bozor iqtisodiyoti bo‘lganligi sababli bundan chora- tadbirlar u yoki bu iqtisodiy muammo keskinlashib ketishining oldini olish uchun qo‘llaniladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, O‘zbekiston jahon bozoriga chiqib faol tashqi savdo siyosatini amalga oshirishi uchun yuqorida ta’kidlangan usul va vositalardan imkoni boricha qayishqoq shaklda, milliy ishlab chiqaruvchilarning manfaatlaridan kelib chiqib, ularning mavqeyini yanada mustahkamlashga qaratilgan tashqi savdo siyosatini amalga oshirishi maqsadga muvofiq. Buning uchun taraqqiy etgan va rivojlanayotgan mamlakatlar tomonidan qo‘lanilayotgan usul va vositalarni doimiy tahlil etish, ularning bizning sharoitlarga muvofiq keladi-

ganlarini o‘zlashtirib olish lozim. Agar O‘zbekiston uchun xulosa chiqaradigan bo‘lsak, tashqi savdoni tartibga solishda mamlakatimizda ko‘proq Janubiy Koreya, Yaponiya tomonidan bosqichma-bosqich qo‘llanilayotgan vosita va dastaklarni ichki vaziyatidan kelib chiqib, shuningdek, asosiy hamkorlarimizning biz bilan amalga oshirayotgan investitsiyaviy, infratuzilmaviy loyiha va dasturlarining istiqbolidan kelib chiqib qo‘llash natija beradi, deb hisoblash mumkin. Bu harakatlarning 2022-2033-yillarga mo‘ljallangan o‘rta muddatli, shuningdek, undan keyingi davrlar uchun ishlab chiqilgan uzoq muddatli rivojlanish dasturlariga xizmat qilishi shubhasizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tashqi savdo sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017-yil 13-aprelda qabul qilingan PF-5012-sonli Farmoni. lex.uz›ru/docs/-4182345
2. Соколов В.В. Тенденции развития мировой товарной торговли // Мировая экономика и международные отношения. – М.: 2011. – № 2. – С. 40-47.
3. Паньков В. Глобализация экономика. // Мировая экономика и международные отношения. – М.: 2011. – № 1. – С. 16-28.
4. Булатова А.С., Ливенцева Н.Н. Мировая экономика и международные экономические отношения: учебник. – М.: Магистр, 2010. – С. 183-188.
5. Vaxabov A.V., Tadjibayeva D.A., Xajibakiyev Sh.X. “Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar”. – T.: Baktria press, 2015. – 548 bet.
6. Иванов Н. Инновационная сфера: контуры будущего. // Мировая экономика и международные отношения. – М.: 2010. – № 5. – С. 44-51.
7. “Mamlakat tashqi iqtisodiy faoliyati samaradorligini oshirishning innovatsion jihatlari: xorij tajribasi, zamonaviy tendensiyalar, ustuvor y o‘nalishlari”, Respublika ilmiy-amaliy anjumani, 2017-yil 10-may, -T.: ToshDShI. – 295 b.
8. JETRO Invest Japan Report 2016, – 56 p.
9. Trade Statistics of Japan, Ministry of Finance 2016, – 256 p.
10. Trading economics.com; The World Bank Group 2016, – 182 p.
11. World Trade Statistical Review 2016. – p.94.
12. UN Comtrade. International trade statistics database 2016, – P. 63.
13. https://i-tip.wto.org/goods/Forms/MemberView (World Trade Organization)
14. https://www.wto.org/english/res_e/publications_e/world_tariff_profiles16_ e.htm (World Trade Organization)

ФИНАНСЫ ИЛИ КОРПОРАТИВНЫЕ ФИНАНСЫ

Уринов Бобур Насиллоевич
Заведующий кафедрой Корпоративного управления Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация: Финансы и корпоративные финансы – это две взаимосвязанные, но разные области управление финансов. В то время как финансы включают в себя изучение и управление деньгами, инвестициями и финансовыми рынками в широком смысле, корпоративные финансы конкретно фокусируются на финансовом управлении корпораций и предприятий. В этой статье исследуются сходства и различия между финансами и корпоративными финансами, подчеркивая их соответствующие масштабы, цели и области внимания. Понимание этих различий имеет решающее значение для людей, делающих карьеру в сфере финансов или работающих в отделах корпоративных финансов, поскольку оно помогает определить конкретные знания и навыки, необходимые для каждой области.

Ключевые слова: финансы, корпоративные финансы, финансовый менеджмент, инвестиции, финансовые рынки, корпорации, предприятия, принятие финансовых решений, управление капиталом, стратегические цели.

Annotatsiya: Moliya va korporativ moliya bir-biri bilan bog‘liq, ammo moliyaviy menejmentning turli sohalaridir. Moliya pul, investitsiyalar va moliyaviy bozorlarni o‘rganish va boshqarishni o‘z ichiga olgan b o‘lsa-da, korporativ moliya, asosan ,korporatsiyalar va korxonalarning moliyaviy boshqaruviga qaratilgan. Ushbu maqolada moliya va korporativ moliya o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlar o‘rganilib, ularning tegishli k o‘lami, maqsadlari va y o‘nalishlari yoritilgan. Ushbu farqlarni tushunish moliya sohasida martaba izlayotgan yoki korporativ moliya b o‘limlarida ishlaydigan odamlar uchun juda muhim, chunki bu har bir soha uchun zarur b o‘lgan maxsus bilim va k o‘nikmalarni aniqlashga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: moliya, korporativ moliya, moliyaviy menejment, investitsiyalar, moliya bozorlari, korporatsiyalar, korxonalar, moliyaviy qarorlar qabul qilish, kapitalni boshqarish, strategik maqsadlar.

Abstract: Finance and corporate finance are two interrelated but different areas of financial management. While finance involves the study and management of money, investments, and financial markets broadly, corporate finance specifically focuses on the financial management of corporations and businesses. This article explores the similarities and differences between finance and corporate finance, highlighting their respective scopes, objectives and areas of focus. Understanding these differences is critical for people pursuing careers in finance or working in corporate finance departments, as it helps identify the specific knowledge and skills required for each area.

Key words: finance, corporate finance, financial management, investments, financial markets, corporations, enterprises, financial decision making, capital management, strategic goals.

ВВЕДЕНИЕ

Финансы и корпоративные финансы – это две взаимосвязанные, но разные области в более широкой сфере управление финансов. Хотя оба они связаны с управлением деньгами и финансовыми ресурсами, они различаются по своим масштабам и направленности.

Финансы, как общая дисциплина, включают в себя изучение и управление деньгами, инвестициями и финансовыми рынками. Финансы занимаются широким спектром финансовой деятельности, включая личные финансы, государственные финансы, управление инвестициями и финансовое планирование. Специалисты в сфере финансов анализируют финансовые данные, оценивают риски, принимают инвестиционные решения и разрабатывают стратегии для максимизации прибыли и эффективного управления финансовыми ресурсами.

С другой стороны, корпоративные финансы конкретно фокусируются на финансовом управлении корпорациями и предприятиями. Корпоративные финансы вращаются вокруг финансовых решений, принимаемых компаниями для достижения своих стратегических целей и повышения акционерной стоимости. Специалисты по корпоративным финансам работают внутри организаций, чтобы анализировать

инвестиционные возможности, привлекать капитал, управлять денежными потоками, оценивать финансовые показатели и принимать решения относительно слияний, поглощений и продаж.

Изучение сходств и различий между финансами и корпоративными финансами важно для понимания различий между финансами и корпоративными финансами, помогает отдельным лицам и организациям прояснить области своей деятельности. Это позволяет профессионалам определить конкретные знания и навыки, необходимые для каждой области, и принимать обоснованные решения относительно карьерного роста или распределения ресурсов внутри организации. Для бизнеса понимание нюансов корпоративных финансов имеет решающее значение для принятия правильных финансовых решений. Принципы корпоративных финансов определяют стратегический выбор, такой как составление бюджета капиталовложений, инвестиционные возможности, варианты финансирования и управление рисками. Понимая конкретные аспекты корпоративных финансов, организации могут принимать обоснованные решения, которые соответствуют их целям роста и максимизируют акционерную стоимость. Инвесторы, будь то физические лица или институциональные, должны понимать различия между финансами и корпоративными финансами, чтобы принимать обоснованные инвестиционные решения. Анализируя финансовое состояние и эффективность компаний, инвесторы могут оценить потенциальные риски и доходы, связанные с их инвестициями. Понимание принципов корпоративных финансов позволяет инвесторам оценить такие факторы, как структура капитала, управление денежными потоками и финансовая стабильность, которые могут существенно повлиять на результаты инвестиций.

МЕТОДОЛОГИЯ

Muammoli kreditlar bilan ishlash faoliyatini tizimli ravishda olib borish maqsadida, muammoli kreditlarni: muddati, sifati, ta’minoti, resurs manbasi va kreditni berish to‘g‘risidagi qarorni qabul qiluvchi subyekti kabi asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha tasniflash maqsadga muvofiq. Muammoli kreditlarni yuqoridagi yo‘nalishlar bo‘yicha tasniflash ularni bartaraf etish uchun ishlarni to‘g‘ri va samarali rejalashtirishga yordam beradi. Bank amaliyoti ko‘rsatishicha, kreditni qaytarishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqishda kredit bo‘yicha undiruvni nimaga qaratish lozimligini aniqlab olish muhim ahamiyatga ega. Kreditlash jarayonlarida Bank kredit qo‘mitalarining, ayrim hollarda, o‘z vakolati va vazifasiga sovuqqonlik va ma’suliyatsizlik bilan qarash hollari yuz bermoqda. Bu omil tijorat banklari kredit berish mexanizmining asosiy bog‘lovchi va muhim elementi hisoblanadi.

Bank tizimi mablag‘lar oqimini boshqarishda va iqtisodiyotning turli yo‘nalishlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash orqali iqtisodiyotda muhum rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, tijorat banklari oldida turgan doimiy muammolardan biri muammoli kreditlarni boshqarishdir, bu muammoli kreditlar (NPL), deb ham ataladi. NPL bilan ishlash murakkab jarayon bo‘lib, risklarni boshqarish strategiyalari, me’yoriy hujjatlarga rioya qilish va resurslardan samarali foydalanishni talab qiladi. Muammoli kreditlar samarali boshqarilmasa, moliyaviy beqarorlikka olib keladi va bank tizimi kredit portfeli sifatiga ta’sir qiladi.

Mavzuga oid manbalar tahlili. Xorijiy olimlar tadqiqotlarida muammoli kreditlar darajasiga ta’sir qilishda yalpi ichki mahsulotning o‘sishi, inflyatsiya va ishsizlik darajasi kabi makroiqtisodiy omillarning rolini ta’kidlaydi. Retsessiya yoki iqtisodiy tanazzul (krizis) muammoli kreditlarlarning ko‘payishiga olib kelishi mumkin [1].

Xorijiy adabiyotlarda muammoli kreditlarning asosiy sababi sifatida kredit riskini baholashdagi kamchiliklar ham ta’kidlangan. Zaif kredit anderrayting standartlari va noto‘g‘ri tekshirish jarayonlari yuqori muammoli kreditga olib kelishi mumkinligi asoslangan [2].

Normativ me’yoriy-huquqiy baza muammoli kreditning tarqalishiga ta’sir qilishi mumkin. Tadqiqotlar tartibga soluvchi o‘zgarishlarning muammoli kredit darajasiga ta’sirini o‘rganib chiqdi, bu esa sekin tartibga solish muammoli kreditlarning yuqori darajalariga olib kelishi mumkinligini ko‘rsatdi [3].

Muammoli kreditlarning oqibatlari quyidagilarga olib kelishi mumkin:

- Muammoli kredit to‘planishi alohida banklarning barqarorligiga va kengroq moliyaviy tizimga tahdid solishi mumkin. Olimlar muammoli kredit va moliyaviy inqirozlar o‘rtasidagi munosabatlarni aniqlashgan [4].
- Muammoli kreditlar qarz oluvchilar, xususan, kichik va o‘rta korxonalar uchun kredit olish imkoniyatini kamaytirishi mumkin. Bu iqtisodiy o‘sish uchun muhim ta’sir ko‘rsatadi.
- Muammoli kreditning bank rentabelligiga ta’sir qiladi. Muammoli kreditning yuqori darajasi bank foydasiga zarar yetkazishi mumkin, bu esa kapitalning yetarliligining pasayishiga olib keladi.

Muammoli kreditlarni boshqarishni quyidagi usullari mavjud:

- Kreditni qayta ishlash strategiyalari;
- Risklarni boshqarish amaliyoti;
- Tartibga solish chora-tadbirlari.

Tadqiqotlarda banklar tomonidan qo‘llaniladigan kreditlarni qayta tashkil etish, aktivlarni sotish va garov ta’minotini amalga oshirish kabi turli xil kredit strategiyalar ishlab chiqligan [5]. Kredit riskini modellashtirish va stress testini o‘z ichiga olgan samarali risklarni boshqarish amaliyoti muammoli kreditning oldini olish va boshqarish uchun zarurdir [6].

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolada tijorat banklarida muammoli kreditlarning vujudga kelishi, tijorat banklarida muammoli kreditlar bilan ishlash amaliyotidagi muammolar va ularni barataraf etish yo‘llari tadqiq etilgan. Shuningdek, tadqiqot metodologiyasi sifatida ilmiy, tarixiy va amaliy manbalarni qiyosiy tahlilida ilmiy abstraksiyalash, mantiqiy va tarkibiy tahlil qilish, guruhlashtirish va segmentli tahlil usullaridan foydalanilgan.

Asosiy qism. Muammoli kreditlarning (NPL) qabul qilinadigan darajasi bo‘yicha barcha mamlakatlar yoki moliya institutlari bo‘ylab qo‘llaniladigan yagona tavsiya mavjud emas. Jami kredit portfelidagi muammoli kreditlarning tavsiyaviy miqdori iqtisodiy sharoitlar, tartibga solish standartlari va banklarning risk ishtahasi kabi

omillarga qarab farq qilishi mumkin. Barcha banklar uchun qo‘llaniladigan universal chegara mavjud emas, chunki har bir muassasa o‘ziga xos risk profillariga ega. Biroq, moliyaviy regulyatorlar va Bazel talablariga asosan kredit portfelining sog‘lomligini baholash bo‘yicha ba’zi ko‘rsatmalar beradi. Shunga qaramasdan NPLning maqbul darajasi iqtisodiy sharoitlar, tartibga solish muhiti va alohida banklarning risklarga chidamliligiga qarab o‘zgarishi mumkin.

Biroq, xalqaro moliya institutlari va bank faoliyatini tartibga soluvchi tashkilotlar bank tizimining barqarorligini baholash uchun ko‘pincha foydalanadigan ba’zi umumiy mezon va mulohazalar mavjud. Xususan:

- **prudensial ko‘rsatmalar:** Ko‘pgina rivojlangan mamlakatlarda nodavlat notijorat qarzlarining maqbul darajasini belgilaydigan prudensial ko‘rsatmalar va qoidalar mavjud. Ushbu ko‘rsatmalar ko‘pincha bank tizimining barqarorligi va mustahkamligini ta’minlashni nazorat qiluvchi organlar tomonidan belgilanadi.
- **xalqaro standartlar:** Xalqaro bank standartlarini belgilovchi bank nazorati bo‘yicha Bazel qo‘mitasi kredit risklarini samarali boshqarish muhimligini ta’kidlaydi. Garchi u NPL uchun ma’lum chegarani belgilamasa-da, u banklarni risklarni boshqarish bo‘yicha ishonchli amaliyotlarni o‘rnatishga va etarli kapital buferlarini saqlashga undaydi.
- **qiyosiy tahlil:** Banklarni nazorat qiluvchi organlar yoki Markaziy bank ko‘pincha alohida banklarning yoki umumiy bank tizimining NPL ko‘rsatkichlarini o‘tgan davrlar ma’lumotlari yoki boshqa banklarning ko‘rsatkichlar bilan solishtiradilar. Odatdagi darajaga nisbatan sezilarli o‘zgarishlar kredit sifati bilan bog‘liq potentsial muammolar borligini anglatadi.
- **iqtisodiy sharoitlar:** NPLning maqbul darajasiga iqtisodiy sharoitlar ta’sir qilishi mumkin. Iqtisodiyotning pasayish davrida, qarz oluvchilarning moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelganligi sababli, NPL ko‘rsatkichlari oshishi mumkin. Bunday hollarda regulyatorlar moslashuvchanlikni ta’minlashi va tashqi omillar ta’sirini tan olishlari mumkin.
- **banklarning risklarga tolerantligi:** Ayrim banklarning riskka chidamliligi ham NPLning maqbul darajasiga ta’sir qilishi mumkin. Ba’zi banklar, o‘zlarining risklilik darajasiga asoslanib, yuqori darajadagi NPL bilan ham qulayroq bo‘lishi mumkin, ayniqsa ularda risklarni kamaytirish bo‘yicha samarali strategiyalar mavjud bo‘lsa bunday holat xatarli emas.
- **nazorat qilish:** Nazorat qiluvchi organlar ko‘pincha agar bankning NPL darajasi maqbul chegaralardan oshib ketgan bo‘lsa, nazorat chora-tadbirlarini ko‘radi. Ushbu harakatlar qo‘shimcha qoidalarni talab qilishi, tuzatish kiritishni yoki o‘ta og‘ir holatlarda nazorat organlari aralashuvini o‘z ichiga olishi mumkin.

Shuni ta’kidlash kerakki, NPL ko‘rsatkichlari bankning moliyaviy barqarorligi va kredit portfel sog‘lomligini baholash uchun foydalaniladigan bir ko‘rsatkich bo‘lib, ular bank kapitalining yetarliligi, likvidlik, rentabellik va boshqa ko‘rsatkichlar bilan birgalikda ko‘rib chiqilishi kerak.

Garchi moliyaviy barqarorlik va prudensial qoidalar banklarning risklilik va moliyaviy barqarorlik o‘rtasidagi muvozanatni saqlashini ta’minlashga qaratilgan bo‘lsada har bir mamlakatning me’yoriy-huquqiy bazasi va banklarning moliyaviy barqarorligini ta’minlash uchun NPL uchun tegishli chegarani belgilashi lozim.

Tijorat banklarida muammoli kreditlar bilan ishlash bilan bog‘liq umumiy muammolar va qiyinchiliklar (1-jadval).

Ushbu muammolarni hal qilish risklarni boshqarishning ishonchli usullarini, mustahkam kredit monitoringi tizimlarini, turli tahlillarni olib borishda texnologiyalardan samarali foydalanishni va normativlarga rioya qilishni o‘z ichiga olgan kompleks yondashuvni talab qiladi. Bank xodimlarini muntazam ravishda o‘qitish va sohaning ilg‘or tajribalaridan xabardor bo‘lish ham muammoli kreditlarni samarali boshqarishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Banklar moliyaviy barqarorligini ta’minlashda muammoli kreditlarni (NPL) qisqartirishning samarali strategiyalarini ishlab chiqish va ta’sirchan choralar qo‘llash lozim.

Muammoli kreditlar (NPL) banklarning moliyaviy holatiga va barqarorligiga jiddiy muammo tug‘diradi. Muammoli kreditlar nafaqat bankning rentabelligiga ta’sir qiladi, balki iqtisodiyotga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Muammoli kreditlarni qisqartirish va kredit portfelni sog‘lomlashtirish uchun banklar tomonidan kompleks va tezkor yondashuvlarni talab qiladi. Banklarning muammoli kreditlarini samarali kamaytirish uchun qo‘llashi mumkin bo‘lgan asosiy strategiyalarlardan bir nechtasini keltiramiz.

1-jadval: Muammoli kreditlarni yuzaga keltiruvchi sabablar[1]

№	Muammo turi	Muammoli kreditlarni yuzaga keltiruvchi sabablar
1.	Risklarni noto‘g‘ri baholash	Noto‘g‘ri anderrayting amaliyoti kreditlarning muammoli kreditlarga aylanishi ehtimolini oshirishi mumkin
2.	Zaif kredit monitoringi	Banklar yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan bankrotlik va moliyaviy inqirozning belgilarini ertaroq aniqlay olmasligi
3.	Kreditni undirishning samarasiz jarayonlari	Kreditni undirish, garovni o‘zlashtirish va sotish strategiyalarini amalga oshirishdagi kechikishlar yoki samarasizliklar
4.	Garovni noto‘g‘ri baholash	Garov qiymatini haddan tashqari ko‘p yoki kam baholab qo‘yish to‘lov miqdori va moliyaviy natijalarga ta’sir qilishi mumkin
5.	Normativ va huquqiy muammolar	Normativ va huquqiy hujjatlarning nomukammalligi muammoli kreditlarni o‘z vaqtida hal qilishga to‘sqinlik qilishi mumkin
6.	Ma’lumotlarning doimiy tahlili avtomatlashmaganligi	Kredit tavakkalchiligini baholash, kreditlarni monitoring qilishda ma’lumotlar tahlili, muammoli kreditlarni erta aniqlashda texnologiyalaridan yetarlicha foydalanilmayotganligi
7.	Yomon aloqa va muvofiqlashtirish	Kredit risklarini boshqarish, kredit monitoringi va undirish uchun mas’ul bo‘lgan turli bo‘limlari o‘rtasida aloqa va muvofiqlashtirishning yetarli emasligi
8.	Iqtisodiy tanazzul va tashqi omillar	Iqtisodiy tanazzul yoki tashqi zarbalar paytida banklar muammoli kreditlar bilan kurashishdagi qiyinchiliklar
9.	Zaxiraning yetarli emasligi	Muammoli kreditlar bilan bog‘liq yo‘qotishlar uchun zaxiralarning yetarli darajada ajratilmaganligi
10.	Malakali kadrlarning yetishmasligi	Risklarni boshqarish va muammoli kreditlarni so‘ndirishga ixtisoslashgan malakali mutaxassislarning yetishmasligi

Birinchidan, kredit risklarini samarali boshqarishni kuchaytirish lozim. Kredit risklarini samarali boshqarish banklarning barqarorligi va uzoq muddatli muvaffaqiyatining asosidir. Kredit risklarini minimallashtirish va to‘g‘ri baholash qobiliyati bankning rentabelligi, likvidligi va kredit portfelini sog‘lomlashtirishga bevosita ta’sir qiladi. Kredit risklarini boshqarishni kuchaytirish mustahkam jarayonlar, ilg‘or texnologiyalar va faol tashkiliy madaniyatning kombinatsiyasini o‘z ichiga oladi. Banklar kredit risklarini samarali boshqarishni kuchaytirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim:

1. Kredit riskini kompleks baholash. Qarz oluvchilarning moliyaviy holatini, kredit tarixini va kreditga layoqatliligini tahlil qilish orqali kreditni to‘liq baholash lozim. Undan tashqari risklarni baholashning aniqligini oshirish uchun ilg‘or kredit skoring modellarini va ma’lumotlar tahlilini joriy qilish ham samaradorlikni oshiradi. Bunda o‘zgaruvchan bozor sharoitlari va iqtisodiy omillarga moslashish uchun kredit riski modellarini muntazam yangilab turish talab etiladi [7].
2. Kredit portfelni diversifikatsiya qilish. Moliyaviy inqiroz ta’sirini yumshatish uchun muayyan sanoat yoki tarmoqlarda ortiqcha konsentratsiyadan saqlanish lozim. Bunda kredit portfelini turli xavf profillari, geografik mintaqalar va tarmoqlar bo‘yicha diversifikatsiya qilish kerak. Undan tashqari muntazam ravishda kredit portfel tarkibini nazorat qilib borish va yuzaga kelayotgan risklarni boshqarish uchun kreditlash strategiyalarini o‘zgartirish sezilarli darajada samara keltirishi mumkin [8].
3. Bank kredit siyosatini hamda tartiblarini aniq va oqilona ishlab chiqish. Risklarga chidamlilik, kreditlash mezonlari va anderrayting standartlarini tavsiflovchi aniq kredit siyosatini ishlab chiqish, kredit berish bo‘yicha qarorlar bankning risklarni tartibga solish ko‘rsatmalariga mos kelishini ta’minlash lozim. Iqtisodiy muhitining o‘zgarishlarni inobatga olgan holda kredit siyosatini muntazam ravishda takomillashtirish va yangilash lozim [9].
4. Ma’lumotlarni muntazam tez va samarali tahlil qilish uchun zamonaviy bank texnologiyalari bilan integratsiya qilish. Risklarni modellashtirish va prognozli tahlilni amalga oshirish va sun’iy intellektdan foydalangan holda bank mahsulotlari va mijozlari bo‘yicha biznes tahlillarni yo‘lga qo‘yish, jarayonlarni soddalashtirish va qarorlar qabul qilishni yaxshilash uchun murakkab kredit risklarini boshqarish dasturini joriy qilish hamda kredit portfelini real vaqt rejimida monitoring qilish va potentsial risklarni ertaroq aniqlash texnologiyasini bank ma’lumotlari bazasi bilan integratsiya qilish mijozlarga tezroq xizmat ko‘rsatish va bank xarajatlarini tejashga xizmat qiladi [10].

1 Muallif tomonidan tuzildi.

5. Stress testi va stsenariy tahlillar o‘tkazish. Noqulay iqtisodiy sharoitlarning kredit portfeliga ta’sirini baholash uchun muntazam ravishda stress testlari va stsenariy tahlillarini o‘tkazish kerak. Turli makroiqtisodiy stsenariylarda portfelning barqarorligini baholash, risklarni kamaytirish strategiyalari va favqulodda vaziyatlarni rejalashtirish haqida ma’lumot berish uchun stress testi natijalaridan foydalanish, xodimlarni tayyorlash va malakasini oshirish, bank bo‘limlari o‘rtasida samarali hamkorlik va aloqani ta’minlash.

Ushbu chora va strategiyalarni amalga oshirish orqali banklar o‘zlarining kredit risklarini boshqarish amaliyotlarini mustahkamlashlari, rivojlanayotgan bozor sharoitlariga moslashishlari va mustahkam moliyaviy poydevorni shakllantirishlari mumkin. Kredit risklarini boshqarishning mustahkamlanganligi nafaqat bankni potensial yo‘qotishlardan himoya qiladi, balki uni barqaror o‘sish va dinamik moliyaviy holatiga muvaffaqiyat keltiradi.

Kredit riskini boshqarishning mustahkam tizimi muammoli kreditlarni kamaytirish uchun asosdir. Bu qarz oluvchilarning kredit qobiliyatini to‘g‘ri baholash uchun qat’iy kredit baholash jarayonlarini amalga oshirishni o‘z ichiga oladi. Ilg‘or tahlil va ma’lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilishdan foydalangan holda, moliya institutlari potentsial risklarni aniqlash va kreditlash bo‘yicha ongli qarorlar qabul qilish qobiliyatini oshirishi mumkin [11].

Ikkinchidan, mijozlarining moliyaviy tanglik belgilarini imkon qadar erta aniqlash va aralashish. Mijozlarining moliyaviy tanglik belgilarini imkon qadar erta aniqlash va aralashish kreditor portfeliga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan salbiy o‘zgarishlarga qarshi birinchi himoya chizig‘i bo‘lib xizmat qiladi. Mustahkam tizimlar va strategiyalarni amalga oshirish orqali banklar risklarni proaktiv tarzda boshqarishi, potentsial yo‘qotishlarni kamaytirishi va mas’uliyatli bank amaliyotiga sodiqligini qo‘llab-quvvatlashi mumkin.

Erta ogohlantirish tizimlarini joriy etish qarz oluvchilar o‘rtasida moliyaviy tanglik belgilarini imkon qadar erta bosqichda aniqlash uchun juda muhimdir. Kredit portfellarini muntazam ravishda monitoring qilish va yuzaga keladigan muammolarni zudlik bilan hal qilish kreditlarning ishlamaydigan aktivlarga aylanishining oldini oladi. O‘z vaqtida aralashuv qayta qurish, qayta rejalashtirish yoki vaqtinchalik moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelgan qarz oluvchilarga qo‘shimcha yordam ko‘rsatishni o‘z ichiga olishi mumkin.

Mijozlarining moliyaviy tanglik belgilarini imkon qadar erta aniqlash va aralashishning asosiy jihatlari quyidagilar:

- real vaqt rejimida monitoring qilish tizimlari;
- muntazam kredit portfel tekshiruvlarini o‘tkazish;
- kreditning mumkin bo‘lgan yomonlashuvi haqida erta ogohlantirish tizimlarini yaratish;
- kredit portfelining barqarorligini baholash uchun stress testlari va stsenariy tahlillarini o‘tkazish;
- qarz oluvchilar bilan faol muloqotda bo‘lish;
- banklarning turli bo‘limlari o‘rtasida funktsional hamkorlikni rag‘batlantirish;
- turli prognozli tahlillar o‘tkazib turish;
- xodimlar uchun stsenariy asosida trening o‘tkazish.

Mijozlarining moliyaviy tanglik belgilarini imkon qadar erta aniqlash va aralashish nafaqat risklarni boshqarish strategiyasi, balki mas’uliyatli bank faoliyatining ajralmas qismidir. Banklar potentsial risklarni faol aniqlash va bartaraf etish orqali nafaqat o‘z manfaatlarini himoya qilishlari, balki bank tizimining umumiy barqarorligiga ham hissa qo‘shishlari mumkin.

Uchinchidan, ehtiyotkorlik bilan kreditlash amaliyotini amalga oshirish. Ehtiyotkorlik bilan kreditlash amaliyoti banklarning barqaror faoliyat ko‘rsatishida muhum hisoblanadi. “Kasalni davolagandan ko‘ra oldini olish yaxshiroqdir” degan naql, ayniqsa, ehtiyotkorlik bilan va strategik qarorlar qabul qilish orqali kreditlash sohasiga aytiladi. Ehtiyotkorlik bilan kreditlash amaliyotini amalga oshirish mijozni har tomonlama tekshirish, risklarni boshqarish strategiyalari va me’yorlarga rioya qilishni o‘z ichiga oladi. Qarz oluvchilarning to‘lovga qodirligiga amin bo‘lgandan so‘ng oqilona kreditlash amaliyotini amalga oshirish, masalan, Kreditni garovga nisbati koeffitsiyentini (LTV) oqilona qo‘llash juda muhimdir. O‘zbekiston bank tizimida qarzdor kreditni ta’minlashni kredit summasining kamida 125 foizi darajasidagi garov bilan ta’minlashi lozim. Ushbu standart kredit tashkiloti taqdim etgan garov qiymatidan kelib chiqqan holda qarz oluvchiga berishi mumkin bo‘lgan maksimal kredit hajmini ko‘rsatadi. Shuningdek, u qarz oluvchining o‘zi sotib olishga qancha pul sarflashi kerakligini, ya’ni dastlabki to‘lov qancha bo‘lishini taklif qiladi. Bank tomonidan belgilangan koeffitsient qiymati qanchalik yuqori bo‘lsa, qarz oluvchidan o‘z mablag‘larini kiritish talabi shunchalik kam bo‘ladi. Ayniqsa kreditlarga qat’iy mezonlarini o‘rnatish kredit oluvchilarning to‘lovlarni to‘lamaslik ehtimolini kamaytiradi.

2-jadval: Garovlarni boshqarishni optimallashtirish uchun asosiy strategiyalar[2]

№	Strategiyalar	Bajarilishi lozim bo‘lgan vazifalar
1.	Garovni har tomonlama to‘liq baholash	Har xil turdagi garovlarning adolatli bozor qiymatini baholash uchun tashqi baholash ekspertlari yoki avtomatlashtirilgan vositalardan foydalanish, baholash jarayoni uchun aniq mezonlar belgilangan bo‘lishi lozim
2.	Garov turlarini diversifikatsiya qilish	Konsentratsiya xavfini kamaytirish uchun bank tomonidan qabul qilingan garov turlarini diversifikatsiya qilish, bozor talabidan kelib chiqqan holda qabul qilinadigan garov turlari ro‘yxatini muntazam yangilash
3.	Garovlarni boshqarishda texnologik yechimlar qidirish	Jarayonlarni soddalashtirish uchun ilg‘or garovni boshqarish tizimlari va texnologiyasini joriy qilish, garovni boshqarish tizimlarini boshqa bank ilovalari bilan integratsiyalash, garov bilan bog‘liq operatsiyalarda shaffoflik va xavfsizlikni oshirish
4.	Garov riskini baholash	Bozorning o‘zgaruvchanligi, iqtisodiy sharoitlar va turli xil garov turlari bilan bog‘liq o‘ziga xos risklar keng qamrovli risklarini baholash
5.	Garov hujjatlari	Samaradorlikni oshirish uchun garov hujjatlari jarayonlarini standartlashtirish va raqamlashtirish, har qanday nomuvofiqlik yoki kamchiliklarni aniqlash va tuzatish uchun garov hujjatlarini muntazam ravishda tekshirish
6.	Favqulodda vaziyatlarni baholash	Garov qiymati sezilarli darajada pasayishi mumkin bo‘lgan holatlar uchun favqulodda vaziyatlar rejalarini ishlab chiqish, bozor kon’yunkturasidagi o‘zgarishlar kuzatib borish

To‘rtinchidan, bank kreditlari uchun olinadigan garovlarni boshqarish. Garov ta’minotini boshqarish amaliyotini kuchaytirish muammoli kreditlar bilan bog‘liq mumkin bo‘lgan yo‘qotishlarni kamaytirishda muhim ahamiyatga ega. Garov qiymatini muntazam ravishda qayta baholash va ularning bozor sharoitlari bo‘yicha to‘g‘ri aks ettirishini ta’minlash muhimdir.

Bank krediti uchun olingan garov ta’minotlari kredit risklarni kamaytirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Moliyaviy munosabatlarning rivojlanib borishi natijasida risklarni boshqarish tizimini mustahkamlashga intilayotgan banklar uchun garovni boshqarishni takomillashtirish strategik zaruratga aylanadi.

Yuqoridagi 2-jadvalda garovlarni boshqarishni optimallashtirish uchun asosiy strategiyalar keltirilgan.

Umuman olganda, banklarda garov ta’minotini boshqarishni takomillashtirish texnologik innovatsiyalar, risklarni baholash, samarali jarayonlar va doimiy monitoringni birlashtirgan ko‘p qirrali yondashuvni o‘z ichiga oladi. Ushbu strategiyalarni qabul qilish orqali banklar garov ta’minotidan foydalanishni optimallashtirishi, xavflarni kamaytirish bo‘yicha sa’y-harakatlarni kuchaytirishi va kreditlash operatsiyalarining umumiy barqarorligi va barqarorligiga hissa qo‘shishi mumkin. Proaktiv va keng qamrovli garovni boshqarish strategiyasi barqarorlikni oshirish va zamonaviy bank faoliyatining murakkabliklarini navigatsiya qilishda poydevor hisoblanadi [11].

Beshinchidan, samarali huquqiy-me’yoriy asoslar va boshqa chora-tadbirlar. Aniq va tasirchan qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan huquqiy va me’yoriy bazaga ega bo‘lish NPLlarni samarali boshqarish va kamaytirish uchun juda muhimdir. Qarzni undirish bo‘yicha samarali va tezlashtirilgan huquqiy jarayonlarni yo‘lga qo‘yish banklar qarzini undurish bo‘yicha o‘z vaqtida choralar ko‘rishini ta’minlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bank faoliyatining murakkab dunyosida tartibga solishga doimiy ravishda talab ortib bormoqda. Huquqiy va tartibga soluvchi standartlarga rioya qilish nafaqat muvofiqlik talabi, balki mas’uliyatli va barqaror bank amaliyotining asosidir. Banklar muvofiqlikni ta’minlash, huquqiy risklarni kamaytirish va manfaatdor tomonlarning ishonchini oqlash uchun faol huquqiy va tartibga solish choralari zarur. Banklar uchun proaktiv huquqiy va tartibga solish choralarini ko‘rish uchun strategiyalarni amalga oshirish zarur:

1. **Mustahkam muvofiqlikni boshqarish tizimi.** Barcha tegishli huquqiy va me’yoriy talablarni qamrab oluvchi kompleks muvofiqlikni boshqarish tizimini yaratish, bank sohasiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan qonun va me’yoriy hujjatlardagi o‘zgarishlarni kuzatib boruvchi monitoring mexanizmlarini joriy etish zarur.
2. **Muntazam nazorat va tekshiruvlar o‘tkazish.** Huquqiy va me’yoriy hujjatlarga muvofiqlik jarayonlarining samaradorligini baholash uchun muntazam ravishda ichki auditlarni o‘tkazish.
3. **Aniq va majburiy siyosatlar.** Bankning barcha amaldagi qonunlar va qoidalarga rioya qilish majburiyatini ifodalovchi aniq va amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan siyosatlarni ishlab chiqish, huquqiy va tartibga solish muhitidagi o‘zgarishlarni aks ettirish uchun ularni muntazam yangilab turish lozim.

2 Muallif tomonidan tuzildi.

4. **Nazorat qiluvchi organlar bilan faol hamkorlik.** Qoidalardagi o‘zgarishlar to‘g‘risida xabardor bo‘lish uchun tartibga soluvchi organlar bilan ochiq aloqa liniyalarini o‘rnatish, bank forumlarida ishtirok etish va mustahkam me’yoriy-huquqiy bazani ishlab chiqish talab etiladi.

5. **Proaktiv huquqiy risklarni boshqarish.** Potentsial risklar va majburiyatlarni aniqlash uchun muntazam ravishda huquqiy risklarni baholash, risklarni identifikatsiyalash, baholash, kamaytirish va monitoringini o‘z ichiga olgan risklarni boshqarishning samarali huquqiy asosini yaratish lozim. Bankda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan huquqiy muammolarni hal qilish uchun yaxshi yuridik maslahatchilarni jalb qilish banklarning katta muammolarga duch kelishidan himoya qiladi.

Umuman olganda, faol huquqiy va tartibga solish choralari murakkab va dinamik tartibga solish muhitini boshqarishga intilayotgan banklar uchun juda muhum hisoblanadi. Ushbu strategiyalarni qo‘llash orqali banklar nafaqat muvofiqlikni ta’minlabgina qolmay, balki halollik, shaffoflik va javobgarlik madaniyatini ham rivojlantirishi mumkin. Huquqiy me’yorlarga rioya qilish bu manfaatdor tomonlar o‘rtasida ishonchni mustahkamlaydigan va bankning mas’uliyatli moliyaviy tashkilot sifatidagi obro‘sini mustahkamlaydigan axloqiy bank amaliyotiga sodiqlikdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Acharya, Viral V., et al. “Whatever it takes: The real effects of unconventional monetary policy.” The Review of Financial Studies 32.9 (2019): 3366-3411.
2. Berger, Allen N., and Robert DeYoung. “The effects of geographic expansion on bank efficiency.” Journal of financial services research 19 (2001): 163-184.
3. Hanson, James A., Patrick Honohan, and Giovanni Majnoni, eds. Globalization and national financial systems. World Bank Publications, 2003.
4. Sánchez Jiménez, V., Muñoz Fernández, N., Nocentini, A., Ortega Ruiz, R., & Menesini, E. (2014). Online Intrusiveness, online jealousy and dating aggression in young adults: a cross-national study, Spain-Italy. Maltrattamento e abuso all’infanzia, 16 (3), 47-65.
5. Hoshi, T. (2000). The Role of Loan Restructuring in Managing Non-Performing Loans. Journal of Banking and Finance, 25(6), 1205-1225.
6. Altman, E. I., & Sabato, G. (2015). The Value of Non-Traditional Activities for Banks and Financial Institutions. Journal of Banking & Finance, 59, 1-18.
7. Comprehensive Credit Assessments – Faster Capital
8. Diversification: Maximize Your Returns with a Diversified Portfolio Plan - FasterCapital.
9. Credit Risk Management Best Practices (defisolutions.com)
10. https://www.researchgate.net/publication/355256448_Big_Data_and_Artificial_Intelligence_to_Support_Risk_Management_A_Systematic_Literature_Review
11. Мамадияров Зокир Тоштемирович тижорат банкларида масофавий банк хизматларини ривожлантиришдаги муаммолар // Экономика и финансы (Узбекистан). 2019. №3. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/tizhorat-banklarida-masofaviy-bank-hizmatlarini-rivozhlantirishdagi-muammolar (дата обращения: 12.03.2024).
12. Mamadiyarov, Z., & Karimov, K. (2024). TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKI VA UNI BOSHQARISH USULLARI. Страховой рынок Узбекистана, 1(6), 57–60. извлечено от https://insurance.tsue.uz/index.php/journal/article/view/105.

MAHALLIY BUDJET DAROMADLARINING NAZARIY VA ILMIY ASOSLARI

Ollokulova Feruza Mansurovna
PhD, Termiz davlat universiteti dotsenti v.b.

Annotatsiya: Ushbu maqola budjet-soliq tizimini rivojlantirishning muhim yo‘nalishlaridan biri mahalliy budjetlarning nazariy va ilmiy asoslari, xususan, daromadlar manbaini oshirishga bag‘ishlangan. Unda mahalliy budjet daromadlarini oshirish, moliyaviy mustaqilligini ta’minlash ustuvor vazifa ekanligi ta’kidlangan. Mahalliy budjetlarning daromad bazasi bo‘yicha mavjud vaziyat tahlil qilingan va daromad bazasini kengaytirish bo‘yicha xulosa va takliflar shakllantirilgan.

Kalit so‘zlar: mahalliy budjet, daromad, xarajat, moliyaviy mustaqillik, soliq.

Abstract: This article is one of the important directions of the development of the budget-tax system of local budgets, theoretical and scientific foundations, especially dedicated to increasing the source of income. It is emphasized that increasing local budget revenues and ensuring financial independence is a priority. The current situation regarding the revenue base of local budgets was analyzed, and conclusions and proposals were formulated for the expansion of the revenue base.

Key words: local budget, income, expenses, financial independence, tax.

Аннотация: В данной статье рассматривается одно из важных направлений развития бюджетно-налоговой системы местных бюджетов, теоретические и научные основы, особенно посвященные увеличению источника дохода. Подчеркивается, что увеличение доходов местных бюджетов и обеспечение финансовой независимости является приоритетом. Проанализирована текущая ситуация с доходной базой местных бюджетов, сформулированы выводы и предложения по расширению доходной базы.

Ключевые слова: местный бюджет, доходы, расходы, финансовая самостоятельность, налог.

Jahonda budjet-soliq tizimini rivojlantirishning muhim yo‘nalishlaridan biri mahalliy budjetlar daromadlar manbaini kengaytirish bo‘lib hisoblanadi. Jahon iqtisodiyoti taraqqiy etgan mamlakatlarda mahalliy budjet daromadlar qismida yer, mulk va ko‘chmas mulklardan olinadigan soliqlar asosiy ulushni tashkil qiladi. Ta’kidlash joizki, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda davlat budjeti daromadlari tarkibida mahalliy budjetlar daromadlari salmoqli ulushni egallaydi. Xususan, bu ko‘rsatkich Yaponiyada o‘ttiz foiz, Buyuk Britaniyada o‘ttiz uch foiz, Avstriyada o‘ttiz to‘rt foiz, Fransiyada o‘ttiz sakkiz foiz, Portugaliyada o‘ttiz to‘qqiz foiz, Norvegiyada ellik sakkiz foiz, Luksemburgda oltmish foizni tashkil etadi. Bugungi kunda xalqaro amaliyotda davlat moliyasini boshqarish sohasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarda mahalliy budjet tizimi daromad manbalarini ilmiy asoslangan holda belgilash, soliqlar vositasida budjetlararo munosabatlarni tartibga solish, turli darajadagi budjetlar o‘rtasida soliqlarni taqsimlash, budjet transfertlarini ajratishda hududlarning budjet bilan ta’minlanganlik darajasini oshirishga katta e’tibor qaratilmoqda.

Jahonda soliqqa tortish tizimini soddalashtirish, soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish orqali mahalliy budjet daromadlarini oshirish va uning shaffofligini ta’minlash masalasiga alohida e’tibor berilmoqda. Bugungi kunda hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ularning tabiiy va moddiy resurslarini takror ishlab chiqarishni, mahalliy hokimiyat organlarini tashkil etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishda mahalliy budjetlar daromadlar manbaini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Davlatimiz mustaqillikka erishgandan so‘ng, davlatning boshqa sohalari kabi moliya siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan moliya tizimi va uning quyi bo‘g‘inlarini yanada takomillashtirish va uning barqarorligini yanada samarali ta’minlashdan iborat bo‘lib bormoqda.

Soliqlar tizimini takomillashtirish orqali budjetlararo mutanosiblikka erishish, mahalliy budjetlar moliyaviy mustaqilligiga erishish, shuningdek, ularning mustaqil fiskal siyosatini yuritishga oid qo‘shimcha daromadlarini shakllantirish yo‘nalishlarini takomillashtirish, budjetlararo munosabatlarda soliqlarni ulushli tartibda taqsimlash yo‘nalishlarida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining

"... hududlarni barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni moliyalashtirish uchun mahalliy budjetlarning mablag'lari yetarli emas"ligi, "... mahalliy hokimiyat idoralari uchun moliyaviy va boshqa imkoniyatlarni kengaytirish zarur"ligi, "... mahalliy hokimiyat organlarining vakolat va mas'uliyatini qayta ko'rib chiqishimiz, ularning mustaqilligini yanada oshirishimiz lozim"ligi borasidagi fikrlari ushbu masalaga yanada oydinlik kiritadi. Chunki bunday sharoitda mahalliy budjetlar daromadlarini shakllantirishda soliqli daromadlar bazasini mustahkamlash masalalari muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, 2017-yil 13-dekabrdagi PF-5283-son "Mahalliy davlat hokimiyati organlarining moliyaviy erkinligini oshirish, mahalliy budjetlarga tushumlarning to'liqligini ta'minlash bo'yicha soliq va moliya organlari javobgarligini kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmonlari, 2020-yil 1-maydagi PQ-4702-son "Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni reyting baholash tizimini joriy etish to'g'risida"gi, 2019-yil 30-dekabrdagi PQ-4555-son "2020-yil uchun O'zbekiston Respublikasining davlat budjeti to'g'risida"gi, 2017-yil 8-avgustdagi PQ-3182-son "Hududlarning jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashga doir ustuvor chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2017-yil 7-iyundagi PQ-5075-son "Mahalliy davlat hokimiyati organlarining budjet vakolatlarini kengaytirish va mahalliy budjet daromadlarini shakllantirishdagi mas'uliyatini oshirish to'g'risida"gi Qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan.

O'zbekistonni 2035-yilgacha rivoshlantirish modeli 2020-2024-yillarda davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasining mantiqiy davomi bo'lib, yurtimiz taraqqiyotida yangi sahifa ochishi bilan ahamiyatlidir. Strategiya loyihasida belgilangan marralarga erishish uchun har bir sohada islohotlarni bosqichma-bosqich, iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishni ta'minlash maqsadida xarajatlarning ijtimoiy yo'naltirilganligini saqlab qolgan holda, davlat budjetining barcha darajalarida mutanosibligini muvozanatni saqlash, mahalliy budjetlarning daromad qismini mustahkamlashga yo'naltirilgan budjetlararo munosabatlarini takomillashtirish bo'yicha budjet-soliq siyosatini optimallashtirishni nazarda tutgan holda budjet tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Mahalliy budjetlar daromadlari va davlat budjetining viloyat, tuman va shahar pul mablag'lari jamg'armasini tashkil etib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari hamda miqdori nazarda tutiladigan budjet kodeksidir. Mahalliy budjetlar daromadlari va davlat budjet xarajatlari mamlakatda yaratilgan milliy daromadning taqsimlanishi asosida hududlarda istiqomat etuvchi aholiga va uning natijalarini yetkazib beruvchi mahalliy budjetlarning daromad qismini mustahkamlashga yo'naltiriladi.

Mahalliy budjetlarning daromadlarini ta'minlashda daromadlarning tarkibi va tuzilishi, ularni tashkil etish manbalari, mahalliy hokimiyat va moliya organlari xususiyatlaridan kelib chiqib turli yondashuvlar mavjud. Xususan, dots. N.Korotina mahalliy budjetlar moliyaviy holatini baholash bo'yicha tahlil metodikasini taklif etadi. Unga ko'ra, ko'rsatkichlar beshta guruhga: balanslashtirilgan mahalliy budjet ko'rsatkichlari, munitsipal tuzilmaning moliyaviy mustaqillik ko'rsatkichlari, budjet xarajatlari sohasida munitsipal budjet siyosati yo'nalishlarini ifodalovchi ko'rsatkichlar, munitsipal tuzilmaning budjeti barqarorligi ko'rsatkichlari, munitsipal tuzilmaning qarzdorlik ko'rsatkichlariga ajratib ko'rsatiladi.

Bundan tashqari, i.f.d. A.X. Islamkulov turli darajadagi budjetlarning barqarorligini ta'minlash va budjet daromadlari mutanosibligini ta'minlash uchun moliya-budjet, budjet-soliq sohasidagi markaziy va mahalliy organlarning vakolatlarini aniq belgilab qo'yish lozim deya ta'kidlaydi. Bunda muallif budjet tizimining bo'g'inlari o'rtasida daromad vakolatlari va xarajat majburiyatlarini optimal taqsimlash tizimini mahalliy budjetlar barqarorligini ta'minlash gorizontida amalga oshirishni ilgari suradi..

Q.A. Usmonov esa, budjet daromadlarini rejalashtirishning ahamiyati to'g'risida to'xtalib, hozirgi kunda budjet daromadlarini rejalashtirish uchun zarur ma'lumotlar bazasini yetarli va sifatli darajada shakllantirish hamda bu boradagi huquqiy hujjatlarni qayta ko'rib chiqish va budjet daromadlarini rejalashtirish jarayoni tartibi, usuli, muddati hamda ishtirokchilar vazifalarini aniq ko'rsatib beruvchi huquqiy hujjat qabul qilish lozimligini qayd etadi.

Shuningdek, professor Sh.A. Toshmatov tomonidan mahalliy budjetga soliq tushumlarini oshirishga yo'naltirilgan bir qator tadbirlarni amalga oshirish hisobidan ularning barqarorligi ta'minlashni alohida ta'kidlab o'tgan.

I.f.n. A. Xayriddinov mahalliy budjetlarning barqarorligini ta'minlashda soliqlarning o'rni va ahamiyatini oshirishga qaratilgan ilmiy xulosalarni shakllantirib bergan.

Ayrim iqtisodchilar fikriga ko'ra, mahalliy budjetlarning daromad bazasini mustahkamlashning muhim yo'llaridan biri ma'muriy hududlarning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish darajasiga ko'ra real tarzda tabaqalashtirish imkonini beruvchi obyektiv mezonlar tizimiga o'tish hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan mahalliy budjetlarning daromadlari, ularning barqarorligi va mustahkamligi yuqorida qayd etilgan vazifalarning bajarilishida muhim ahamiyatga ega.

Umumiy tarzda xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki:

1. Mahalliy budjetlar tomonidan moliyalashtirish prinsiplari foydalanilayotganda ularning ikkiyoqlama xarakteriga ega ekanligi, jumladan ularining ayrimlari mahalliy budjetlarining daromadlar bazasini kengaytirish manbalaridan kelib chiqqan holda va shu mablag‘lardan oqilona foydalanish hisoblanadi.
2. Mahalliy budjet daromadlar bazasini kengaytirishni investitsion loyihalarni amalga oshirish hiobidan daromadlarni ko‘paytirish va hududlardagi mavjud muammolarni hal qilishdan iborat.
3. Hududlardagi past rentabellik korxonalarni moliyaviy sog‘lomlashtirish hisobidan mahalliy budjetlar daromad bazasini oshirish uchun yagona vositalar qo‘llash hisoblanadi.
4. Umumdavlat miqyosida hududlar buyicha mahalliy budjet daromadlarini oshirish maqsadida soliq yig‘iluvchanligi darajasiga oid ma’lumotlar ochiqligini ta’minlash, davlat hokimiyati organlar faoliyatiga baho berishni amalga oshirishni joriy qilishdan iborat.
5. Mahalliy budjetlar daromadlari barqarorligi ta’minlash, mahalliy budjetlar zimmasiga yuklatilgan vazifalar mablag‘ bilan ta’minlash maqsadida respublika va mahalliy budjetlar o‘rtasida korxonalardan olinadigan foyda solig‘i va jismoniy shaxslar daromad solig‘ini muayan ulushlarda taqsimlanishini joriy qilish lozim.
6. Mahalliy budjet daromadlarini oshirishda sanoat ishlab chiqarish korxonalarini oshirish hisobiga soliq solinadigan bazani kengaytirish, “hududlarni soliq potensiali” tushunchasini soliq qonunchiligiga kiritish muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – B. 33.
2. Islamkulov A.K. Budjetlararo mutanosiblikni ta’minlashda soliqlar tizimini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya avtoreferati. –Toshkent, –2019. –54 b.
3. Usmonov Q.A. Budjet daromadlarini rejalashtirish jarayoni, usullari va ularni takomillashtirish yo‘nalishlari // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. №4, iyul-avgust, 2016.
4. Toshmatov Sh. Korxonalarni rivojlantirishda soliqlar roli: Monografiya. – T.: Fan va texnologiya, 2008. – 204 b.
5. Burxanov A.U., Qurbonov X.A. Hududlarda mahalliy budjetlar daromadlar manbaini kengaytirish yo‘llari (Qashqadaryo viloyati misolida). // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2018. – 4 - b.
6. Groenendijk N., Yansoo A. Fiscal federalism in transition countries: the three Baltic state compared / Public finance and management. Volume 16, №3, 2016. P. 255-280.
7. Musgrave R.A. The Theory of Public Finance. – McGraw-Hill, 1959. –P.628.
8. https://www.lex.uz/acts/3107036
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 1-ilova.
10. Soatova, N. Mahalliy budjetlarning soliqli daromad bazalarini takomillashtirish // Iqtisodiyot va ta’lim. 2022. 23(5), 192-200.
11. O‘zbekiston Respublikasining Budjet Kodeksi. 2013-yil 26-dekabr. 52-modda.

KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH – AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI TA’MINLASHNING MUHIM OMILI

Usmanov Baxodir Baxtiyorovich
“UzAssets” AJ boshqarma boshlig‘i

Annotatsiya: Maqolada aholining turmush farovonligi va uni ta’minlash orqali kambag‘allikni qisqartirishning o‘ziga xos xususiyatlari tahlil etilgan. Xorijiy olimlarning qarashlari va ilmiy xulosalari tizimlashtirilgan. Tadqiqotlar asosida kambag‘allikni qisqartirish orqali aholi turmush farovonligini ta’minlash bo‘yicha ilmiy taklif va xulosalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: kambag‘allik, turmush farovonligi, ijtimoiy himoya, ijtimoiy siyosat, ta’lim va sog‘liqni saqlash.

Abstract: The article analyzes the well-being of the population and the specific features of reducing poverty by ensuring it. The views and scientific conclusions of foreign scientists are systematized. Based on the research, scientific proposals and conclusions have been developed to ensure the well-being of the population by reducing poverty.

Key words: poverty, welfare, social protection, social policy, education and health.

Аннотация: В статье анализируется благосостояние населения и особенности снижения бедности путем его обеспечения. Систематизированы взгляды и научные выводы зарубежных учёных. На основе исследований разработаны научные предложения и выводы по обеспечению благосостояния населения за счет снижения уровня бедности.

Ключевые слова: бедность, благосостояние, социальная защита, социальная политика, образование и здравоохранение.

KIRISH

Kambag‘allik kategoriyasi aholining minimal iste’mol talablarini mustaqil bajara olmasligi bilan yuzaga chiqadi. Hozirgi kunda ko‘plab mamlakatlarda minimal iste’mol talablari turli miqyosda o‘rnatilgan bo‘lib, ularning tarkibiy bo‘g‘inlari o‘zaro farqlanishini ta’kidlash lozim. Umuman olganda, minimal iste’mol xarajatlarini aniqlash va uni baholash mamlakatlarda hukumatlar tomonidan o‘rnatiladi. Shuningdek, xalqaro tashkilotlar tomonidan ham tavsiyaviy xarakterdagi ko‘rsatkichlarni ishlab chiqishgan. Bu borada, kambag‘allikni aniqlash o‘zaro uyg‘un jarayon sifatida amalga oshiriladi.

Fikrimizcha, kambag‘allikni aniqlashga nisbatan yondashuvni minimal iste’mol me’yori metodlaridan foydalangan tarzda amalga oshirilishi turmush farovonligini ta’minlashning minimal chizig‘ini aks ettibi beradi. Shu boisdan, kambag‘allikni aniqlashda moddiy va nomoddiy omillarga ajratib aniqlanishida turmush farovonligiga nisbatan yondashuvning ikki jihati vujudga keladi. Shu nuqtayi nazardan, aholi turmush farovonligini ta’minlashda kambag‘allikni qisqartirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotimizning oldingi qismlarida ta’kidlab o‘tganimizdek, inson kapitali yoki taraqqiyoti indeksi turmush farovonligini ta’minlovchi asosiy ko‘rsatkichlardan biri ekanligini ta’kidlab o‘tdik. Ushbu kategoriyaning vujudga kelishida iqtisodiy omillardan tashqari noiqtisodiy omillarning ham shakllanganligi kambag‘allikni baholashga nisbatan yondashuvlarni takomillashtirishni taqozo etmoqda. Masalan, ko‘plab rivojlangan mamlakatlarda aholi turmush farovonligini ta’minlash ko‘rsatkichlari ichida ish vaqtining haftalik yuklamasi 5 kundan 4 kunga qisqarayotganligi ham inobatga olinishi boshlanganligi turmush farovonligini baholash metodologiyasi dogma xususiyatga ega emasligini anglatadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Oksford universiteti professori Meri Dali va Qirol Meri universiteti professori Paul Koupland o‘zining tadqiqotlarida Yevroap mamlakatlarining kambag‘allikka qarshi ijtimoiy siyosatini tahlil etishga harakat qilishadi [1]. Ularning fikricha, mamlakatda o‘rtcha daromadning 60 foizidan kam daromad topuvchilarni kambag‘allik xavfi

ostida ekanligini qayd etish lozimligi ta'kidlanadi. Shuningdek, ijtimoiy kam ta'minlanganlik komponentlari sifatida ijara haqi (kommunal xizmatlar) uchun to'lash, uyni isita olish, favqulodda xarajatlarni qoplay olish, ikki kundan birida go'sht, baliq yoki boshqa oqsilli mahsulotlarni iste'mol qilish, yilda bir marta uyidan uzoqda dam olish imkoniyati, avtomobilga ega bo'lish, kir yuvish mashinasiga ega bo'lish, rangli televizorga ega bo'lish va telefonga ega bo'lishning to'qqiz turidan to'rttasiga ega bo'lmaslik hayot farovonligini past ekanligini ko'rsatadi, degan ilmiy xulosani beradi.

Qayd etish lozimki, aholining nominal o'lchov mezonlarida ham kambag'allikni qisqartirish turmush farovonligini ta'minlashda asosiy omil bo'lib hisoblanadi. Bunda yuqori va kam daromadli aholi qatlami o'rtasidagi farqni qisqartirishga e'tiborni qaratadi. Bu esa, davlat soliq undirishda ko'proq daromadli aholiga e'tibor qaratishi lozim, degan fenomen shakllanadi. Biroq, ushbu fenomenni amalga oshirishda soliq siyosatini takomillashtirish muammosi vujudga keladi. Shu nuqtayi nazardan, daromadlar tengsizligini kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ham amalga oshirish dolzarblik kasb etadi.

Birlashgan millatlar tashkilotining 2015-2030-yillarda barqaror rivojlanish 17 maqsadining bir nechta ko'rsatkichlari aynan aholi turmush farovonligini ta'minlash bilan bog'liq jihatlarni o'zida aks ettirib beradi. Jumladan, birinchi maqsad kambag'allikni qisqartirish bo'lsa, yana bir nechtasi ochlikni tugatish, ta'lim, sog'liqni saqlash va toza ichimlik suvi bilan ta'minlash kabi omillarni qamrab olishi nazarda tutilgan. Umuman olganda, aholi turmush farovonligini ta'minlashda yuqorida ta'kidlab o'tgan ko'rsatkichlar alohida o'rin tutsada, biz tadqiqotimizning ushbu qismida kambag'allikni qisqartirish nuqtayi nazaridan yondashuvni amalga oshiramiz.

Bizningcha, aholi farovonligini ta'minlashda kambag'allikni qisqartirish borasidagi yondashuvimizni ishlab chiqishda aholi daromadlari va uning tengsizligini kamaytirish, fiskal siyosatda aholi daromadlarini barqarorlashtirish yo'nalishlari kabi jihatlarga e'tiborni qaratishimiz maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Kembridj universiteti professori X.Dalton 1920-yilda e'lon qilgan maqolasida daromadlar tengsizligini baholashga nisbatan ilmiy yondashuvlarni bayon etib beradi [2]. Uning fikricha, iqtisodiy farovonlik nuqtayi nazaridan tengsizlik aniqlanganda daromadlarga asoslanish zarurligini ta'kidlab o'tadi. Bu esa, daromad va iqtisodiy farovonlik o'rtasida uzviy bog'liqlik yuqoriligini ko'rsatishini asoslashga harakat kiladi. Daromad va iqtisodiy farovonlik o'rtasida to'g'ri proporsional bog'liqlik mavjudiligi asoslab beradi. Uning tadqiqotlarida daromad asosiy mezon sifatida olinadi.

O'tgan asrning 70-yillaridan boshlab iqtisodiy tengsizlikka nisbatan ilmiy yondashuvlar ishlab chiqilishi boshlandi. Jumladan, Kembridj universiteti yana bir professori A.Atkinson 1970-yilda daromadlarga asoslangan holda ijtimoiy farovonlikni baholashga harakat kiladi [3]. U jismniy shaxslar daromadining taqsimotini soliq to'laguncha va to'lagandan so'nggi holatida qanday bo'lishiga e'tibor qaratishni taklif etadi. Daromadlarning taqsimoti teng bo'lgan holda ijtimoiy farovonlik ta'minlangan deb hisoblaydi. Daromadlar tengsizligini ta'minlashda soliq siyosati orqali ta'sir ko'rsatish va uni qayta taqsimlash funksiyasidan foydalangan holda amalga oshirishni tavsiya etadi.

Illinois universiteti professori A.Ayner va A.Xeyns 1967-yilda daromadlar tengsizligi borasidagi tadqiqotlarni amalga oshirishadi [4]. Ularning fikricha, daromadlarni soliqlar yordamida progressiv stavkani qo'llagan holda barqaror taqsimotiga erishish mumkinligini ijobiy baholashadi. Biroq, ushbu progressiv stavka xodimlarning mehnatga ishtiyoqini kamaytirishiga olib kelsa yalpi daromad ko'lamini pasayishi vujudga kelishini ko'rsatib berishadi.

Fikrimizcha, aholi turmush farovonligini ta'minlashga qaratilgan tadqiqotlarda dastlab daromadlar tengsizligi borasidagi ilmiy yondashuvlar shakllangan. Ushbu tendensiyalarning rivojlanishi ijtimoiy davlat kategoriyasini vujudga kelishiga o'zining ta'sirini ko'rsatgan. Daromadlarning teng taqsimlanishiga erishish ijtimoiy-iqtisodiy turmush farvonligini ta'minlashga xizmat qiladi, degan dastlabki ilmiy xulosalar asoslangan.

Bizningcha, XXI asrga kelib axborot texnologiyalarining rivojlanishi, kambag'allik kategoriyasiga nisbatan yondashuvlarning rivojlanishi natijasida daromadlar tengsizligi to'liq ko'rsatkich maqomiga ega bo'lmasligi mumkinligini ko'rsatib bermoqda. Shu boisdan, kambag'allik kategoriyasini qisqartirishda daromadlar tengsizligiga olib keluvchi omillar bilan birga, davlatning ijtimoiy himoya dasturlarini takomillashtirish zarurati vujudga kelmoqda.

Shu jihatdan kambag'allikni aniqlashga nisbatan ham yondashuvlar rivojlana boshladi. Jumladan, professor A.Sen (Nobel mukofoti sovrindori) 1976-yilda kambag'allikni aniqlashga qaratilgan mezonlarni taklif eta boshlaydi [5]. Xususan, daromadlar taqsimotida o'rtachadan past miqdorga ega bo'lgan aholi qatlamini kambag'allik chegarasida ekanligini isbotlab ko'rsatib beradi. Uning fikricha, yetarli darajada daromadlarga va iste'mol xarajatlariga ega bo'lmaslik jamiyatda kambag'allar qatlamini shakllantirib berishi ta'kidlab o'tiladi.

Ta'kidlash lozimki, kambag'allik darajasida istiqomat qiladigan oilalarni daromadlar bilan ta'minlash bir jihatdan muhim bo'lsa, boshqa jihatdan ularning farzandlarini kelajakdagi ehtimoliy kambag'allikka tushib qolishidan himoya qilish muhim hisoblanadi. Yoshlarning maktabda ta'lim olishi va ularning natijalari ularning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligiga ta'sir ko'rsatadi. Bu esa kambag'allik riskining vujudga kelishi nati-

jasida o‘rta va uzoq muddatli davrda kambag‘allikni baholashni taqozo etadi. O‘z navbatida, aholi turmush farovonligini ta’minlashning o‘rta (yoki qisqa) va uzoq muddatli davrlarda bo‘lish zaruratini aks ettirib beradi.

Shundan kelib chiqib, oilaning daromadlarini tartibga solishda farzandlarning kambag‘allikka riskini inobatga olish ham maqsadga muvofiq hisoblanadi. Oila daromadlarini oshirishda davlat budjeti mablag‘larining va o‘z daromadlariga asoslanish alohida ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotlarimiz asosida oilaning qisqa muddatli va uzoq muddatli daromadlari tarkibini tizimlashtirish va shu asosda kambag‘allik riskini aniqlash mumkin bo‘ladi, deb hisoblaymiz:

- Qisqa muddatli daromadlari tarkibi muddatli mehnat bilan shug‘ullanish (qishloq xo‘jaligi ishlari), davlat budjeti tomonidan moliyalashtiriladigan ijtimoiy himoya dasturlari bo‘yicha moddiy yordam olish kabilarni kiritish mumkin;
- Uzoq muddatli daromadlar sirasiga o‘rta yoki yuqori malaka talab etuvchi mehnatga haq to‘lash asosidagi daromad, moliyaviy faoliyatdan daromadni shakllantirish kabi holatlarni keltirish mumkin.

Uzoq muddatli daromadlarga ega bo‘lgan oilar va ularning farzandlari turmush farovonligi mezonlarida istiqomat qilishlarida murakkabliklar kam uchraydi. Buni xalqaro tajribadan ham ko‘rish mumkin. Biroq, qisqa muddatli daromadga ega bo‘lgan oilalar va ularning farzandlari kambag‘allik riskiga uchrashi ehtimoli bir muncha yuqori hisoblanadi.

Shu boisdan, aholi daromadlari orqali kambag‘allikni qisqartirish va aholi turmush farovonligini ta’minlashda birinchidan daromadlar taqsimoti, ikkinchidan muddati nuqtayi nazaridan yondashish dolzarblik kasb etadi, degan xulosaga kelish mumkin. Bu esa, daromadlar barqarorligiga erishish aholi turmush farovonligini ta’minlashning asosiy omillaridan biri ekanligini o‘zida aks ettirib beradi.

Umuman olganda, jahon tajribasida nisbiy va mutloq kambag‘allik darajasi baholanadi. Mutloq kambag‘allik belgilangan turmush farovonligini uchun minimal iste’mol xarajatlarini ta’minlay omaslik darajasi bilan aniqlanadi. Bunda, oldindan belgilangan kunlik daromad miqdoridan kam daromadga ega bo‘lgan shaxs yoki oilalarning kambag‘allik chegarasida ekanligini baholashga e’tibor qaratiladi.

Jahon banki 2017-yildagi sotib olish indeksi (purchsing power parities) asosida 2022-yil sentyabr oyidan boshlab bir kishiga kunlik daromad miqdorini kam daromadli mamlakatlar uchun 2,15 AQSH dollari sifatida bo‘lishini tavsiya etdi. Bunda o‘rtachadan kam daromadli mamlakatlar uchun 3,65 AQSH dollari, o‘rtachadan yuqori daromadli mamlakatlar uchun esa 6,85 AQSH dollari tarzida taklif etildi. Mamlakatlarning o‘rtacha daromad miqdoriga asoslangan holda mutloq kambag‘allik miqyosini baholash mumkin bo‘ladi. Masalan, O‘zbekiston o‘rtacha kam darodmali mamlakatlar sirasiga kirishini inobatga oladigan bo‘lsak, bir kishi kunlik daromadlari miqdori 3,65 AQSH dollaridan kam bo‘lmasligi lozim bo‘ladi. Ushbu qiymat o‘rtacha kunlik miqdori 45000 so‘mga teng bo‘lishini ta’kidlash lozim.

Nisbiy kambag‘allik darajasi mamlakatdagi YAIM kishi boshiga o‘rtacha miqdorining 60 foizidan kam bo‘lmasligi kambag‘allik nisbiy shaklda baholashga imkon beradi [6]. Xalqaro valyuta fondi ma’lumotlariga ko‘ra [7], 2023-yil uchun O‘zbekiston YAIM joriy narxlardagi hajmi kishi boshiga o‘rtacha 2510 AQSH dollariga teng bo‘lmoqda. Ushbu metod asosida baholaydigan bo‘lsak, o‘rtacha 1506 AQSH dollari miqdoridan kam daromadga ega bo‘lgan shaxs kambag‘allikning nisbiy ko‘rsatkichidan kam daromadga ega bo‘lmoqda, deb xulosa qilish mumkin.

Yuqorida keltirilgan raqamlar asosida O‘zbekistondagi nisbiy va mutloq kambag‘allikni solishtirsak quyidagi holat vujudga kelishi mumkin: Mutloq kambag‘allik 3,65x365(kun) bo‘lsa, bir yil 1332 AQSH dollariga teng bo‘lsa, nisbiy kambag‘allik 1506 AQSH dollariga teng bo‘lishini kuzatish mumkin. Fikrimizcha, mamlakatimiz holatida bazis va joriy naxlarda hisoblanishi nuqtayi nazaridan nisbiy va mutloq kambag‘allik moliya yili kesimida sezilarli farqlaishga ega bo‘lmasligini ko‘rish mumkin.

Ta’kidlab o‘tganimizdek, qisqa va uzoq muddatli kambag‘allik shakllarining nisbiy va mutloq daromadlarga asosan baholanishi aholi turmush farovonligini ta’minlashda kambag‘allikni qisqartirish muhim ahamiyat kasb etishini aks ettirib beradi. Shu boisdan, mamlakatda daromadlar barqarorligini ta’minlash ham fiskal, ham taqsimot jihatidan tartibga solinishi lozim bo‘ladi.

Bu borada, o‘zbekistonlik olim va tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasidagi ilmiy xulosa, yondashuvlarni ko‘rib o‘tsak. Prof. N.Jumayev va prof. D.Raxmonov o‘zlarining maqolasida aholi turmush farovonligini ta’minlashda kambag‘allik omilining savodsizlik asoslarini ko‘rsatishga intilishadi. Shuningdek, ijtimoiy sohaning nobarqarorlashuvi aholi turmush farovonligini pasayishiga ta’sir etishini ta’kidlab, quyidagi holatlar unga sabab bo‘lishini ko‘rsatishadi [8]:

- sog‘liqni saqlash tizimida davlat xarajatlarining, ayniqsa, birlamchi tibbiy xizmatlar taqdim etishda yetarli emasligi;
- maktabgacha ta’lim bilan qamrab olish qamrovi pastligi;

- maktab ta’limida o‘quv muassasalaridan “rezina” kabi foydalanish bazaviy ta’limning natijadorligini tushirib yuborishi;
- oliy ta’limning qamrovi 10 foizga yetmasligi katta ulushga ega bo‘lgan yoshlarning inson kapitali darajasini pasaytirishi;
- ilmiy tadqiqotlarga ajratilgan mablag‘lar YAIMga nisbatan 0,25 foiz atrofida bo‘lishi.

Prof. R.Hasanov o‘zining maqolasida kambag‘allik minimal iste’mol xarajatlari bilan ta’minlanganlik darajasi va uning daromadlar bilan qoplash mezonlariga e’tibor qaratadi. Shuningdek, aholi turmush farovonligini ta’minlashda quyidagi omillar muhim ekanligini ta’kidlab o‘tadi:

1) mamlakatning iqtisodiy rivojlanganlik darajasi;
2) daromad topish imkoniyatlarining kengligi;
3) iqtisodiyot sohalarining erkin rivojlanganlik darajasi;
4) tashqi iqtisodiy faoliyatning erkinligi;
5) pul topish uchun huquqiy asoslarining yaratilganligi;
6) pulning qadrsizlanish darajasi;
7) mulkka egalik qilish va undan daromad topishda foydalanish kabi jihatlar shular jumlasiga kiradi [9].

Prof. M.Tursunxodjayev va prof. X.Abulkasimov aholi farovonligini ta’minlashda kambag‘allik muammosini tadqiq etishadi. Ular “kambag‘allik tuzog‘i” kategoriyasiga urg‘u berishadi. Ularning fikricha: “Kambag‘allik tuzog‘i” tasnifining o‘ziga xosligi shundaki, unda ekologik xavf-xatarning ortib borishi, siyosiy beqarorlik va kambag‘al mamlakatlarda istiqomat qilish, qishloq aholisining yetarlicha daromadga ega bo‘lmasligi va ishsizlik, o‘z vaqtida kasallikdan davolanmaslik, sifatsiz ta’lim natijasida yetarlicha bilimga ega bo‘lmaslik hamda kasbhunar egallamaslikning kambag‘allik darajasi ortishidagi ulushi ortmoqda” [10] deb ta’kidlab o‘tishadi.

Fikrimizcha, aholi turmush farovonligini ta’minlashda kambag‘allikni qisqartirish masalasi kun tartibidagi doimiy vazifa bo‘lib qolmoqda. O‘zbekistonlik olimlar aholi turmush farovonligini ta’minlashda turli nuqtayi nazardan yondashishgan. Ayrimlari ijtimoiy sohaning barqarorligi muhim ahamiyatga ega deb hisoblashsa, boshqa guruh olimlar daromadlar taqsimoti muhim ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlab o‘tishadi. Turmush farovonligiga nisbatan ko‘rsatkichlarni shakllantirilishida sifat va miqdor jihatidan yondashuvlarni kuzatish mumkin. Masalan, daromadlarning barqaror taqsimoti miqdoriy baholashga asos bo‘lsa, savodxonlik va sog‘liq darajasining ijobiy tendensiyaga ega bo‘lishi sifat jihatidan asos bo‘lib xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotni amalga oshirishda nazariy qarashlarni tizimlashtiriladi. Ular empirik tadqiqotlarning nazariy xulosalarini qiyosiy baholashga imkon beruvchi metodlar asosida shakllantiriladi. Tadqiqotlar asosida nazariy-ilmiy xulosalar shakllantiriladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ijtimoiy sohaning nobarqaror natijadorligi ortidan ijtimoiy himoyaga bo‘lgan ehtiyojning ortib borishi jahon tajribasidan ma’lum tendensiya hisoblanadi. Ushbu tendensiya esa, ijtimoiy soha (ta’lim va tibbiyot) xizmatlarning sifat jihatidan nobarqarorlashuvi miqdoriy o‘zgarishlarga olib kelishini qayd etish lozim. Miqdoriy baholashda ijtimoiy himoya dasturlarining davlat budjetidan mablag‘larga bo‘lgan zaruratni keltirib chiqaradi. Natijada, kambag‘allikning turli shakllari rivojlanishi va aholi turmush farovonligini ta’minlashning murakkablashishi vujudga keladi.

Yuqorida keltirilgan o‘zbekistonlik olimlarning fikr va ilmiy xulosalarini umumlashtirib, turmush farovonligini sifat va miqdor jihatidan tizimlashtirish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Olib borilgan tadqiqotlar asosida kambag‘allik va turmush farovonligini o‘zaro bog‘likligini baholashda quyidagi 1-jadvaldagi holatni keltirish mumkin.

Unda turmush farovonligi oqibati sifatida daromadlar barqarorligi olingan bo‘lsada, sabab sifatida ijtimoiy siyosatning yo‘nalishlari qayd etilgan. Daromadlar taqsimotida nuqtayi nazaridan uzoq va qisqa muddatli davrlarda bo‘lishi kambag‘allikning turli shakllarini keltirib chiqarishi mumkin ekan. Shu boisdan, mutloq kambag‘allikni kamaytirish daromadlarni fiskal vositalar orqali taqsimoti orqali bartaraf etilsa, nisbiy kambag‘allik insonlarni mehnat qilish imkoniyatlarini oshirishdan iborat bo‘ladi (1.1-jadvalga qarang).

1-jadval: Aholi turmush farovonligi va kambag‘allik miqyosining o‘zaro nisbati

Aholi turmush farovonligi	Kambag‘allik darajasi	
	Nisbiy kambag‘allik	Mutloq kambag‘allik
Uzoq muddatli daromad	Ijtimoiy soha (ta’lim va tibbiyot)ning barqaror ishlayotganligi va daromadlar tengsizligining sezilarli ekanligini aks ettiradi	Ijtimoiy soha barqaror natijadorligi va daromadlar tengsizligi kichikligini anglatadi
Qisqa muddatli daromad	Ijtimoiy sohaning nobarqaror natijadorligi, ijtimoiy himoyaga talabning ortishi	Ijtimoiy sohaning nobarqaror natijadorligi, ijtimoiy himoya tizimidagi taranglikning mavjudligi
Ta’minlash vositasi	Ijtimoiy soha va kasbga o‘qitishni rivojlantirish	Jismoniy shaxslar uchun soliq siyosatini takomillashtirish

Manba: Tadqiqotchi tomonidan izlanishlar natijasida ishlab chiqilgan

Bizningcha, uzoq muddatli daromadlarni tartibga solishni Jini koeffitsiyentini baholash orqali amalga oshirish mumkin, deb hisoblaymiz. Bu esa fiskal instirumentlar orqali optimallashtiriilish mumkin, deb o‘ylaymiz. Shu nuqtayi nazardan, nisbiy kambag‘allik kategoriyasini kamaytirishga erishish mumkin bo‘ladi. Mutloq kambag‘allik kategoriyasiga qarshi kurashda esa, davlatning ijtimoiy himoya dasturi amalga oshirilishi muhim hisoblanadi.

Prof. K.Axmedjanov va tadqiqotchi F.Zayniyev o‘zining tadqiqotlarida aholi daromadlari tengsizligini tartibga solishda fiskal instirumentlardan samarali foydalansh yuzasidan ilmiy xulosalarni asoslashga harakat kiladi. Ularning fikricha, jismoniy shaxslarning joriy daromad solig‘i kam daromadga ega bo‘lgan aholi qatlamining jamg‘arish imkoniyatini oshirgan bo‘lsada va tengsizlikka sezilarli ta’sir etganligini qayd etib o‘tishadi. Jumladan, ular bu borada quyidagi ilmiy xulosani keltirishadi: jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bo‘yicha daromad oluvchi aholining iste’mol xarajatlarini yaxshilash, ular zimmasidagi soliq yukini pasaytirish va pirovard natijada daromadlarni soliqqa tortishda ijtimoiy adolatlilik tamoyiliga rioya qilish maqsadida soliqqa tortilmaydigan minimumni joriy qilish maqsadga muvofiq [11].

Tadqiqotchi G‘.Ro‘ziyev o‘zining maqolasida aholining minimal daromadiga soliq solmaslik borasidagi xulosalarni keltirib o‘tadi. Uning fikricha, Soliq kodeksiga jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishda “soliqqa tortilmaydigan minimum” (yoki “soliq solinmaydigan minimum” tushunchasini kiritish, hech bo‘lmaganda uning miqdori mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdoriga teng bo‘lishi maqsadga muvofiq bo‘ladi, degan ilmiy xulosani asoslashga xarakat kiladi [12].

Fikrimizcha, aholi daromadlarining tengsizligini ortib borishi nisbiy kambag‘allik darajasini vujudga kelishiga zamin hozirlashi mumkin ekan. Bu esa, turmush farovonligiga salbiy ta’sir etadi. Shu boisdan, kam daromadli aholi qatlamining daromadlari barqarorligi va sotib olish qobiliyatini oshirib borishda fiskal siyosat vositalaridan oqilona foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Kam daromadli aholi qatlami turmush farovonligini ta’minlashda daromadlarni soliqqa tortish tizimini tahlil etish lozim bo‘ladi. Bunda aholi daromadlarining iste’mol, jamg‘arish va investitsiya bosqichlariga ajratgan holda amalga oshirish maqsadga muvofiq. Yuqoridagi tadqiqotlardan ko‘rinadiki, daromadlarning barcha hajmi uchun bir xilda soliq stavkasining belgilanganligi daromadning nafliligini ijobyuiy bo‘lishiga yordam bermayapti. Boshqacha aytganda, kam daromad oluvchilar va yuqori daromad oluvchilar o‘rtasidagi nisbat soliq to‘lashdan oldin va keyin o‘zgarmayapti. Bu yerda fiskal siyosatning daromadlarni taqsimlash masalasidagi ta’siri sezilarli ahamiyatga ega bo‘lmayapti.

Masalan, jismoniy shaxslarning daromad solig‘i O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida (381-modda) 12 foiz etib belgilangan. Shuningdek, dividendlar va foizli to‘lovlardan esa 5 foiz hajmida soliq undirilishi belgilab berilgan. Ma’lumki, kam daromadli aholi qatlamida dividend va foizli to‘lovlarning mavjud bo‘lish ehtimoli mavjud emas. Shu boisdan, yuqori daromad egalari dividend shaklida daromad olishi bilan kam foizda soliq olayotganligini kuzatish mumkin.

Fikrimizcha, kam daromadli aholining mamlakatdagi o‘rtacha daromaddan past daromadga ega bo‘lishi jismoniy shaxslar daromadiga soliq solishning ta’sir doirasi kamligi bilan izohlash mumkin. Aholi daromadlari o‘rtasidagi o‘zaro nisbat o‘zgarmasligi barcha uchun bir xil foiz stavkasi qo‘llanishi bilan ifodalanadi. Bizningcha, nisbiy kambag‘allik chegarasidagi aholining daromadlarini o‘rtachadan past bo‘lishini oldini olish maqsadida ular uchun soliq siyosatida ayrim o‘zgarishlarni amalga oshirish maqsadga muvofi hisoblanadi.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bizningcha, kam daromadli aholining ijtimoiy xizmatlarni qo‘shimcha sotib olish bilan bog‘liq xarajatlariga mos ravishda soliqlarni qaytarib berish uslubiyatini joriy etish muhim hisoblanadi. Bunda kam daromadli oilalarning farzandlarini qo‘shimcha ijtimoiy xizmatlari maqomiga quyidagilarni kiritish:

- ta’lim kurslariga qatnashishlari uchun to‘lagan to‘lovlariga mos tarzda daromad solig‘ini miqdorini qaytarib berish;
- qo‘shimcha tibbiy emlanish bilan va boshqa bepul tibbiy xizmat tarkibiga kiruvchi xizmatlarni nodavlat tibbiyot muassasalarida sotib olish xarajatlari miqdoriga mos tarzda daromad solig‘ini qaytarib berish. Bunda davlat tibbiyot muassasalarida bepul tibbiy xizmatlar ko‘rsatilmagan sababli holatlar mavjud bo‘lishini inobatga olish zarur bo‘ladi.

Kam daromadli oilalar tomonidan qo‘shimcha tibbiy xizmatlar uchun to‘langan to‘lovlarning yillik eng yuqori miqdorini belgilash bu boradagi moliyaviy spekulyatsiyalarning oldini olishga xizmat qiladi.

Ko‘plab iqtisodchilar va olimlar kambag‘allikni kamaytirish orqali aholi turmush farovonligini ta’minlashda mutloq kambag‘allik kategoriyasiga e’tibor qaratishadi, deb o‘ylaymiz. Buning asosiy sababi sifatida aholining kam daromadli qatlami asosiy tadqiqot obyektiga aylanib qolishi bilan izohlashamiz mumkin. Bu esa, mohiyatan mutloq kambag‘allik kategoriyasi bilan uyg‘un hisoblanadi. Shu boisdan, mutloq kambag‘allikni qisqartirishda unga mos keluvchi o‘zgarishlarni tanlab olish maqsadga muvofiq.

Mutloq kambag‘allik chegarasida bo‘lgan aholi qatlami ijtimoiy himoya dasturlari bilan qamrab olinishi zarur hisoblanadi. Buning sababi ijtimoiy soha xizmatlari amalga oshirilgan davrda ular bundan to‘g‘ri foydalanmaganligi yoki ijtimoiy soha xizmatlari sifatli va manzilli yetkazib berilmaganligi bilan ifodalanadi. Shuningdek, ularga yuqori malakani shakllantirib beruvchi kasblarni o‘rgatish ham o‘zining ijobiy natijaisni bermaydi. Shu boisdan, ularga o‘rta malaka talab etuvchi kasblarni o‘rgatishga qaratilgan metodlarni qo‘llash lozim bo‘ladi.

Ijtimoiy himoya dasturlari doirasida aholini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash qisqa muddatli yalpi iste’molni o‘zida aks ettiradi. Bu esa, aholi turmush farovonligi ham qisqa muddatli mohiyatga ega bo‘lib qolishini aks ettiradi.

Umuman xulosa qilib aytganda, aholi turmush farovonligini ta’minlashda kambag‘allikni qisqartirish muhim rol o‘ynar ekan. Farovonlikni ta’minlashda kambag‘allikni guruhlarga ajratib olish va ularga uyg‘un ravishda islohotlarni amalga oshirish zaruriy tendensiya hisoblanadi. Bunda daromadlarni qisqa va uzoq muddatli davrlarda bo‘lishini tahlil etish va unga mos tarzda nisbiy va mutloq kambag‘allikka qarshi ijtimoiy siyosatni ishlab chiqish dolzarblik kasb etadi. Bunda ijtimoiy siyosat va fiskal instirumentlar o‘zaro uyg‘unlikda foydalanish kambag‘allikka qarshi kurashda ijobiy natija beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Copeland, P., & Daly, M. (2014). Poverty and social policy in Europe 2020: ungovernable and ungoverned. Policy & Politics, 42(3), 351–365. doi:10.1332/030557312x655503
2. Dalton, H. (1920). The Measurement of the Inequality of Incomes. The Economic Journal, 30(119), 348. doi:10.2307/2223525
3. Atkinson, A. B. (1970). On the measurement of inequality. Journal of Economic Theory, 2(3), 244–263. doi:10.1016/0022-0531(70)90039-6
4. Aigner, D. J., & Heins, A. J. (1967). A social welfare view of the measurement of income equality. Review of Income and Wealth, 13(1), 12–25. doi:10.1111/j.1475-4991.1967.tb00732.x
5. Sen, A. (1976). Poverty: An Ordinal Approach to Measurement. Econometrica, 44(2), 219–231. https://doi.org/10.2307/1912718
6. Relative Poverty vs. Absolute Poverty https://endpoverty.org/relative-poverty-vs-absolute-poverty/#:~:text=which%20one%20resides.-,Absolute%20Poverty,cannot%20meet%20their%20basic%20needs.
7. International Monetary Fund. GDP per capita, current prices, https://www.imf.org/external/datamapper/NGDPDPC@WEO/KAZ/UZB/KGZ/TKM/TJK
8. Jumayev N., Raxmonov D. Kambag‘allik: Daromad tengsizligimi yoki ta’lim olishga e’tiborsizlik?//Xalq so‘zi (onlayn) 25.06.2020 y. https://xs.uz/uzkr/33676
9. Hasanov R. Kambag‘allik muammosi mohiyati va omillari//Iqtisodiyot: tahlillar va prognozlar. - №1(12), yanvar-mart. 2021 y. – B. 19-24. https://imrs.uz/files/publications/ru/735061.pdf
10. Tursunxodjayev M., Abulkasimov X., M.Ganiyev Innovatsion iqtisodiyotning shakllanish sharoitida aholi farovonligini oshirish va kambag‘allikni qisqartirish yo‘nalishlari//Iqtisod va moliya, - №4(164), 2023. – B. 2-7. DOI: 10.34920/elf/vol_2023_issue_4_1
11. Axmedjanov K.B., Zayniyev F.N. Aholi daromadlari va xarajatlari balansiga jismoniy shaxslar daromad solig‘ining optimal ta’sirini ta’minlash yo‘llari//Qo‘Qon universiteti xabarnomasi ilmiy-elektron jurnali, 2023. -№1. – B. 91-96.
12. Ro‘ziyev G‘.U. Aholi daromadlarini soliqqa tortishda soliqqa ortilmaydigan minimumni joriy etish masalalari//Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 2023-yil, avgust. –№4. – B. 191-200.

RAQAMLI MARKETINGNI RIVOJLANTIRISH ZARURIYATI

Xalmuxamedova Zeboxon Babaxanovna
Toshkent davlat agrar universiteti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli marketingdan foydalanishni iqtisodiyotdagi ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilar uchun foydali tomonlari, ular o‘rtasida o‘rnatilgan samarali munosabatlar tushuntirilgan. Ushbu maqolada bozor tahlili, huquqiy tahlil va mantiqiy tahlil usulidan foydalanildi.

Kalit so‘zlar: raqamli marketing, reklama, bozor, mijoz, mahsulot.

Abstract: This article explains the benefits of using digital marketing for producers and consumers in the economy and the effective relationship between them. This article used the method of market analysis, legal analysis and logical analysis.

Key words: digital marketing, advertising, market, client, product.

Аннотация: В этой статье объясняются преимущества использования цифрового маркетинга для производителей и потребителей в экономике и эффективные взаимоотношения между ними. В данной статье использованы методы анализа рынка, юридического анализа и логического анализа.

Ключевые слова: цифровой маркетинг, реклама, рынок, клиент, продукт.

KIRISH

Raqamli marketingning afzalligi uning ko‘proq muloqot qilish qobiliyatidir. Korxonalar va biznesdagi marketing kontseptsiyasi kompyuterlardan foydalanish bilan sezilarli darajada qo‘llab-quvvatlanadi. Kompyuterlar ixtirolarni nazorat qilish, buyurtmalarni qayta ishlash, boshqarish, tovarlarni loyihalash, ishlab chiqarish, mahsulot va bozorni tahlil qilishda muhim rol o‘ynaydi. Biznesning asosiy xususiyati odamlar o‘rtasida aloqalarni yaratish qobiliyatidir. Korxonalar iste’molchilar bilan turli xil ommaviy axborot vositalari orqali aloqa qiladilar. Ko‘p yillar davomida rivojlanishning keskin o‘zgarishi an’anaviy marketing vositalari va kommunikatsiyalar shaklida sodir bo‘ldi. Bu inqilob va bu Internet, iste’molchilar bilan biznes yuritish usulini tubdan o‘zgartirish imkoniyatiga ega bo‘lgan global yirik murakkab tarmoqdir. Marketing – bu tovarlarni sotish yoki sotib olish jarayoni bo‘lib, marketing maqsadi iste’molchilarni mamnun qilishdir. Internet – bu multimedia, murakkab hujjatlar va ma’lumotlar bazalarida yondashish imkonini beruvchi gipermatnga asoslangan axborot xizmati sanaladi. Tarmoq o‘zining vizual ko‘rinishi va xususiyatlarining rivojlanishi tufayli eng samarali axborot mashinalaridan biridir. Bundan tashqari, u marketing bilan shug‘ullanadiganlar uchun ham Internetdan foydalanish mumkin: mijozlar uchun asos yaratish, mahsulot va bozorni tahlil qilish, tezkor malumotlarni yaratish va uzatish, yangi ishchilarni yollash, biznesga yangi yo‘llarni ochish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi desak mubolag‘a bo‘lamiz. Zamonaviy marketing murakkab va turli sohaga aylandi. Bu soha keng doiradagi maxsus funksiyalarni o‘z ichiga oladi ular: reklama, postlar orqali buyurtma berish biznesi, jamoatchilik bilan aloqalar, savdo, bozor so‘rovlari, tovarlar narxini aniqlash va h.k. [1]

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Kompyuter texnologiyalari korxona muvaffaqiyatini ta’minlaydigan eng muhim va ta’sirchan vositadir. Kompyuterlar korxona hayotining barcha jabhalarida ishtirok etib ularga quyidagilarni kiritishimiz mumkin: mahsulotni loyihalash va ishlab chiqarish, iste’molchilarning ma’lumotlar bazasini yaratish, ixtirolarni nazorat qilish, bozorni tahlil qilish, reklama, sotish va korxonaning barcha operatsiyalarida muhim rol o‘ynaydi. So‘nggi yillarda kompyuter texnologiyalarining keng tarqalishi va biznes bilan aloqa o‘rnatish korxonalar uchun o‘z mijozlari bilan bog‘lanishning yangi usullarini yaratdi. Ushbu vositachi muhitlar ANK qisqartmasi bo‘lgan komp-

yuterlar tomonidan amalga oshiriladi, chunki Internet ‘‘so‘rov’’ savolini tug‘diradi. ANK kompyuterlari bilan vositalashtirilgan muhit bilan bog‘liq bo‘lib, uning asosiy tadqiqot muammolari besh qismdan iborat:

- joylashtirish jarayonlari;
- reklama va aloqa;
- brend hamjamiyatlari;
- narxni aniqlash.

So‘nggi bir necha yil ichida marketing dunyosi korxonalar orqali kompyuterlar va informatika texnologiyalarining tez tarqalishi tufayli keskin o‘zgardi. Xaridorlar va sotuvchilar o‘rtasidagi aloqa potentsialini oshirgan ikkita eng muhim o‘zgarish – bu shaxsiy kompyuterlarga ega bo‘lgan uy xizmatchilari soni va eng muhimi, Internet-ilovalarning butun dunyo bo‘ylab keng qamrovda o‘sishi, Web-WWW.

An’anaviy marketing kontseptsiyasi Internet va raqamli texnologiyalarning keng sohasini o‘z biznes faoliyati bilan birlashtirishni yoqtiradigan kompaniyalar uchun yetakchi tamoyillar to‘plamini taqdim etadi.

Elektron marketing marketing maqsadlaridan kelib chiqqan holda uyali va raqamli televizorlarni o‘z ichiga olgan aloqa texnologiyasining keng sohasini qo‘llash orqali yaratilgan.

Raqamli texnologiyalarni qo‘llash sohasining kengayishi treyderlarga Internet, shu jumladan elektron biznesni qo‘llash imkonini beruvchi barcha platformalar haqida o‘z fikrlarini kengaytirishi kerakligini ko‘rsatadi. Elektron savdo biznes aloqalarini kuzatish uchun raqamli texnologiyalarning keng sohasini qo‘llashni o‘z ichiga oladi, jumladan:

- Internet;
- EDI;
- Elektron pochta;
- Pul o‘tkazmalari – elektron to‘lov;
- elektron televizorlar [2].

Devis Jobberga ko‘ra elektron texnologiya shakllari:

- Biznesdan biznesga (B2B) yoki KED biznes orqali o‘zgarish tomonni qo‘llash. Cisco kabi kompaniyalar deyarli barcha savdolarini Internetga o‘tkazdilar, shuning uchun bu hozircha Internetning eng katta shakli.
- Elektron savdoning boshqa shakli – bu biznesdan iste’molchiga (B2C) yoki iste’molchilarga qaratilgan biznes bo‘lib, u tarmoqda xaridni kuchaytirish va Internet orqali savdo kanallarini qo‘shish orqali Tesco sifatida chakana sotishga asoslangan.

Amazon.com tarmoqda yangi savdo texnologiyalaridan foydalangan holda kitoblarning global savdosini yaratdi. Dastlab Internetga duch kelganda, texnologiyaning murakkabligi va firmaning Internet va elektron savdo marketingiga qo‘shilishi mumkin bo‘lgan muqobil yo‘llarning xilma-xilligi bilan mag‘lub bo‘lishi oddiy hol emasdi.

Van Slayk va Belanger Internetning biznes texnologiyasiga ta’sir qilishning ba’zi imkoniyatlarini taklif qiladilar:

- elektron litsenziya;
- yangi bozorlar
- musobaqa
- moliyaviy investitsiyalar va
- savdo o‘zgarishlari.

Internet-marketingni qabul qilishga ta’sir qiluvchi ba’zi omillar ham mavjud:

- ichki omillar - korxonalar umumiy ta’sirga ega bo‘lishi mumkin, ya’ni. tashkilot yoki kompaniyaning ish strategiyasi bormi va mahsulot tarmoqdagi birjaning bir qismi bo‘lishga mos keladimi?
- Atrof-muhit omillari – bu omillarga tadbirkor hech qanday ta’sir ko‘rsatmaydi, (ya’ni raqobat Internetdan qanday foydalanishi masalasida.)
- Internetni taqqoslash afzalliklari – eski sotib olish usullari bilan solishtirganda marketingda Internetni taklif qiladigan holatlar, ya’ni. texnologik qobiliyatlar, tezlik va butun dunyodagi yangi bozorlarga yondashuv [3].

TAHLIL VA NATIJALAR

Har bir inson bilan muloqot qilish va hisobot tuzish qobiliyati Internetning asosiy kuchlaridan biridir.

Internetdagi reklama, shubhasiz, korxonaning umumiy aloqa rejasida ishtirok etishi kerak. VV modeli Internetda marketingni yaratish bo‘yicha qimmatli maslahatlar berishi mumkin, u shuningdek quyidagi savollarga javob beradi: kim, nima, qachon, qaerda va nima uchun.

Tovarlar va xizmatlardagi ko‘plab o‘zgarishlar xizmatlar marketingida qisqa muddatli reklamadan samarali va to‘g‘ri foydalanishga ta’sir qiladi. Eng muhim o‘zgarishlardan to‘rttasi:

- yaratuvchanlikning yetishmasligi;
- vositachilarning qisqarishi;
- xodimlar bilan iste’molchi aloqalarining ahamiyati;
- iste’molchilarning ishlab chiqarishdagi ishtiroki.

To‘g‘ri qo‘llaniladigan narx siyosatiga qiziqish va zavqni oshirish yoki mijozlarni to‘g‘ridan to‘g‘ri narxni pasaytirmaslik bo‘yicha qat’iy faoliyatni amalga oshirishga undash uchun xizmatlarning marketing bo‘yicha mutaxassisi yettita reklama usulini qo‘llaydi. Bu alternativalar:

- kuponlar;
- chegirmalar;
- kelajakda sotiladigan asboblar to‘g‘risida ma’lumot;
- sovg‘alar ko‘rinishidagi narxlar;
- aksiya narxi/miqdori [4].

Elektron marketing iste’molchi bilan aloqa vositasi sifatida

Internet orqali marketing, aksincha, E-marketing yoki onlayn marketing - bu mahsulot yoki xizmatlarni Internet orqali sotish. Internet marketing uchun juda ko‘p foyda va o‘ziga xoslik olib keladi, shu jumladan arzon narxlar va ma’lumot tarqatish va shu bilan u global auditoriyada ommaviy axborot vositalari rolini o‘ynaydi. Ushbu turdagi marketing ijodiy jihatlarni va Internetning texnik jihatlarini, jumladan dizayn, ishlab chiqish, reklama va sotishni birlashtiradi. Elektron marketing usullariga quyidagilar kiradi:

- Dvigatellarni talab qilish orqali marketing;
- samaradorlik marketingi;
- elektron pochta orqali marketing
- tarmoqli marketing;
- reklama;
- blog-marketing.

Elektron marketing - bu onlayn mediadan foydalangan holda tashkilotni ko‘paytirish va targ‘ib qilish jarayoni. Bu shakl vebsaytni onlayn yaratish yoki uni reklama qilishni o‘z ichiga oladi degani emas. Ko‘pincha ushbu vebsayt ortida aniq maqsadlarga ega haqiqiy tashkilot turadi.

Ushbu marketing shaklining strategiyalari mahsulotlarni onlayn reklama qilishning barcha jihatlarini, elektron pochta marketingini, to‘g‘ridan-to‘g‘ri sotishni va hokazolarni o‘z ichiga oladi. Internet reklama beruvchilarga reklamaning ikkita usulini taklif qiladi. Bannerlar orqali oddiy reklamalar va ikkinchi usuli Internetda aniq reklama tushunchasini talab qiladigan is’temolchilarga ko‘rsatishga imkon beruvchi kalit so‘zlar bo‘yicha juda mashhur bo‘lgan reklamalari turidir.

Kalit so‘zlarga ko‘ra reklamalar bosish (PPC modeli) bo‘yicha to‘lanadi, ya’ni reklama beruvchi reklama joyini faqat foydalanuvchi ushbu qismni bosgandan keyin to‘laydi. Agar foydalanuvchi tushunchani (bir yoki bir nechta so‘zlarni) talab qilsa, izlovchi o‘sha paytdan boshlab kerakli tushunchalarga mos keladigan internet aloqasini topadi. Internetdagi marketing kerakli mahsulotni darhol buyurtma qilgan xaridorlar uchun tezkor aloqani taklif qiladi. Qiziquvchan xaridorlar har lahzada reklamaga qaytib, taklif qilingan xizmatlar yoki kompaniya ma’lumotlarini yana bir bor tekshirishlari mumkin edi [5].

Mahsulotlarimiz haqidagi ma’lumotlarning har bir o‘zgarishiga birinchi navbatda Internetdagi tashrif buyuruvchi tashrif buyuradi.

Internetning afzalliklari:

- kompaniyada marketingni rivojlantirish va tashkil etishda xarajatlarni kamaytirish;
- kompaniya b bozorda strategik mavqega ega bo‘lib, uning yordamida eski mijozlar saqlanib qoladi va ko‘proq yangi mijozlarga ega bo‘ladi va bu bilan kompaniya yuqori darajada raqobatbardosh bo‘ladi;
- turli xil marketing va veb-taqdimotlar bilan Internetda doimiy mavjudligi bilan zamonaviy kompaniya imidji shakllanadi, u ham ishonchli va kuchli.

Internetdagi reklamalar daromadlarning sezilarli darajada oshishiga, iste’molchilar sonining ko‘payishiga va kompaniya nomining tarqalishiga olib kelishi mumkin. Bunga qo‘shimcha ravishda, ular arzonroq bo‘lgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri kanal bo‘lib, undan kichik korxonalar mahsulotlarni sotish uchun iste’molchilarga kirishlari mumkin. Internetdagi reklama xabarni potentsial mijozlarga etkazishning samarali usullari bo‘lib, nozik marketing xarajatlarini kamaytirish orqali kattaroq mijozlarga kirish imkonini beradi. Kuzatilishi qiyin bo‘lgan ko‘pgina marketing dasturlaridan farqli o‘laroq, Internetdagi reklamalar marketingga qilingan sarmoyadan to‘g‘ridan-to‘g‘ri foyda olish g‘oyasini beradi, shuningdek, mijozlar va daromadlar uchun katta asos yaratishga yordam beradi.

Bugungi kunda mijozlar Internetga nafaqat texnologiya yangiliklari yoki sotib olish uchun, balki turli xil mahsulot va xizmatlarni bilish uchun manba sifatida tashrif buyurishadi. “Kelsey Group” va “ConStat” kompaniyalari tomonidan olib borilgan yangi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Amerikaliklarning 80 foizi Internetdan o‘zlari yashaydigan hududda mahsulot va xizmatlarni sotib olishlari mumkin bo‘lgan axborot resursi sifatida foydalanadilar.

Internetdagi reklamalar nafaqat belgilangan veb-saytdagi trafikni ko‘paytirishga yordam beradi, balki ular an’anaviy usullar bilan savdoga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, chunki ular kompaniya nomini yoyish uchun manba bo‘lib xizmat qiladi. An’anaviy marketing kampaniyalariga ega bo‘lgan ko‘plab yirik kompaniyalar Internetda reklama yo‘lini oldilar va shu paytgacha katta muvaffaqiyatlarga erishdilar. Internet orqali reklama beruvchi turli kompaniyalar soni doimiy ravishda oshib bormoqda [6].

XULOSA

Internetdagi reklama xizmatlar va mahsulotlarni ilgari surish usulini keskin va ijobiy o‘zgartirdi. Ushbu o‘zgarishlar bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilar o‘rtasidagi aloqa usullariga doimiy ta’sir ko‘rsatdi. Ular nafaqat ishbilarmonlik munosabatlariga, balki iqtisodiy operatsiyalarda ham ko‘proq foyda keltiradi: ishlab chiqaruvchilar potentsial mijozlar bilan osonroq aloqada bo‘lishadi, iste’molchilar esa nafaqat mahsulot va xizmatlar bilan oson aloqada bo‘lishadi, balki bu orqali ular kerakli mahsulot yoki xizmatlar uchun yanada qulay narxlarga ega bo‘ling. Yangi texnologiyalar endi yangi yutuqlar uchun eshiklarni ochdi, chunki Internetdan foydalanish sezilarli darajada oshdi va u bundan keyin ham davom etadi. Bugungi kunda har bir mamlakatda, hatto qashshoq mamlakatlarda ham deyarli barcha kattalar Internetga kirish imkoniyatiga ega. Shunday qilib, mahsulot reklamasi odatda o‘sishi kutiladi va shu bilan birga, mijozlarning ko‘payishi bevosita namoyon bo‘ladi.

Adabiyotlar:

1. Simonson Itamar. “Choice Based on Reasons. The Case of Attraction and Compromise Effects”. Journal of Consumer Research – 18 September 1989. – P. 158–174.
2. Remembered Brands. “Use of Recalled Attributes and Prior Overall Evaluations”. Journal of Consumer Research, – 15–09. 1986. – P. 169–184.
3. David Jobber. “Principles and Practice of Marketing”. Fourth edition, McGraw-Hill International, (UK) Ltd, 2004.– P. 549–592.
4. Liljana Elmazi&Shaip Bytyqi, Shërbimet e marketingut, – 340 p.
5. Edmod Beqiri, Interneti – Komunikimet kompjuterike – Dukagjini, Pejë, 2002.
6. Denise Moser. “Marketing Tools for the 21 Century”. – Semaphore Inc. 2002.

TIJORAT BANKLARI O‘RTASIDAGI RAQOBATNI RIVOJLANTIRISH ORQALI FOND BOZORIDA AKSIYALAR NARXINI BARQARORLIGINI TA’MINLASH ISTIQBOLLARI

M. Yuldosheva
Mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tijorat banklari o‘rtasidagi raqobatni rivojlantirish orqali fond bozorida aksiyalar narxini barqarorligini ta’minlash bo‘yicha “Progressiv raqobat konsepsiyasi” taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: raqobat, fond bozori, progressiv raqobat, konsepsiya, konsentratsiya, indeks.

Abstract: In this article, the theoretical foundations of the concepts of interbank competition and competitiveness between commercial banks are studied. In addition, a system for determining the most important elements of competitiveness and the optimal state of interbank competition is proposed.

Key words: competition, stock market, progressive competition, concept, concentration, index.

Аннотация: В данной статье предлагается “Концепция прогрессивной конкуренции”, призванная обеспечить стабильность цен акций на фондовом рынке путем развития конкуренции между коммерческими банками.

Ключевые слова: конкуренция, фондовый рынок, прогрессивная конкуренция, концепция, концентрация, индекс.

KIRISH

Respublikamizda olib borilayotgan islohotlar asosida bank tizimimizda ko‘plab ishlar olib borilmoqda. Ayniqsa so‘nggi yillarda texnologiyaning yuksalishi bank mijozlarining umidlarini qanday o‘zgartirishga olib kelayotganini ko‘rdik. Bugungi raqamli bank mahsulotlari, ilovalar va veb-saytlarni ekotizim sifatida ko‘radi, shuning uchun mijozlar turli xil muqobil xizmatlarni taqdim etish imkoniyatlaridan bahramand bo‘lishga tayyor va banklar bu umidlarni qondirishi va tegishli mahsulotlar va moliyaviy xizmatlarni taklif qilishi zarur. Dunyo doimo o‘zgarib bormoqda, farqi shundaki, pandemiya tufayli o‘zgarish tezligi bir necha barobar oshdi. Mijozlarning xatti-harakati banklarning onlayn xizmatini tezlashtirdi rivojlanish yillari uchun reklama xarajatlarini kamaytirdi. Bu tezlashuv davlat va xususiy kompaniyalar raqamli xizmatlarni yaratish va modernizatsiya qilish doirasida moliya institutlari iste’mol qilishi va foydalanishi mumkin bo‘lgan yetarli miqdordagi xizmatlarni taqdim etadi. Tijorat banklari o‘rtasidagi raqamli texnologiyalar bilan xizmat ko‘rsatishini oshishi ularning raqobat bozoridagi faoliyatiga keskin ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu esa banklarning barcha operatsiyalarida raqamli texnologiyalarni keng jalb etish, yangi mijoz konsepsiyasini yaratish zarurligini belgilab bermoqda. Banklar tomonidan xizmat sifatini oshirish orqali ularning daromad kelish manbayini rivojlantirishda respublikamizda banklar tomonidan xizmat ko‘rsatish juda past bo‘lgan fond bozoridagi faoliyatini rivojlantirish masalasi bugungi kunning muhim muammolaridan biri hisoblanadi.

Tijorat banklari tomonidan fond bozorida emitent sifatida ishtirok etayotgan banklar soni sanoqli bo‘lib, bugungi kunga kelib “2022-yilda O‘zbekiston fond birjasida 4,8 trillion so‘mlik qimmatli qog‘ozlar bilan 80,7 mingta bitim amalga oshirildi”[1].

Ma’lumki, “2020–2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi Prezident farmonining ijrosini ta’minlash maqsadida, bank sohasida o‘rta muddatli islohotlarning asosiy yo‘nalishlari sifatida mijozlarga yo‘naltirilgan xizmatlar, kreditlash mexanizmlari va biznes jarayonlarini avtomatlashtirish orqali xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash va kengaytirish belgilangan[2].

1 https://daryo.uz/k/2023/01/12/ozbekiston-fond-bozori-2022-yilni-iposiz-yakunladi-bozordagi-umumiy-vaziyat-qanday/?ysclid=ljw-pueou7g596193558

2 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2020-2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi 2020-yil 12-maydagi PF–5992-sonli Farmoni.

So‘nggi 15-yil ichida Internet va mobil qurilmalar bank sektorini o‘zgartirdi. Texnologiyalar uzoq vaqtdan beri moliya sektori rivojlanishining ajralmas qismiga aylangan va bank tuzilmalari tomonidan ularga bo‘lgan munosabat asta-sekin o‘zgarib bormoqda. Bir necha yil oldin bankning o‘zi uchun ma’lum bir xizmatning afzalliklari masalasi birinchi o‘ringa chiqdi. Bugungi kunda banklar va texnologiya kompaniyalari o‘rtasidagi chegaralar o‘zgarganda va aksariyat raqamli xizmatlarning funksionalligi tobora bir xil bo‘lib borayotganida, mijoz uchun qiymat masalasi birinchi o‘ringa chiqadi. Biroq bu sohada moliyaviy institutlar uchun harakat qilish kerak bo‘lgan narsa bor.

O‘tmishda texnologiyani joriy etishning uzoq davri bor, bunda mijozning yangi xizmatga moslashishi qanchalik oson va tezroq bo‘lsa, shunchalik yuqori sodiqlikka ishonishingiz mumkin. Binobarin “2035-yilga borib, barcha tranzaksiyalarning 90 foizi onlayn xizmatlardan foydalangan holda amalga oshiriladi, mablag‘larning 30 foizigacha onlayn xizmatlar orqali amalga oshirilishi prognoz qilinmoqda”[3]. Demak, tijorat banklari o‘rtasidagi raqobatni rivojlanishi keyingi yillar o‘zgarishlariga qaraydigan bo‘lsak, bu yangi texnologiyalarni kirib kelishi va yangi bank mahsulotlarini keng qo‘llash orqali amalga oshirish lozimligini belgilaydi. Bu esa banklarning turli operatsiyalarda ishtirokini kengaytirish va investorlar e’tibor qaratadigan eng muhim ko‘rsatkichi banklarning aksiyalari narxini o‘zgarishini ijobiy holatda bo‘lishini ta’minlash yotadi.

ADABIYOTLARGA SHARH

Ushbu soha bo‘yicha olib borilgan ko‘plab tadqiqotlarda tijorat banklarini raqobat bozorida ustunligini ta’minlash orqali ularning fond bozoridagi ishtirokini kengaytirishda inobatga olinishi lozim bo‘lgan ko‘plab xususiyatlarni keltirib o‘tadilar. Jumladan, raqobatbardosh ustunlikka ega tijorat bankini shakllantirish, amalga oshirish va qo‘llab-quvvatlash uchun ma’lum shartlar talab qilinadi. Bunda quyidagi shartlar mavjud bo‘lishi lozim deb hisoblashadi:



1-rasm: Tijorat banklarini raqobatbardoshligini ta’minlash yo‘llari[4]

3 https://forbes.kz/process/technologies/tsifrovizatsiya_soglyadkoy_1568631121?
4 https://www.educba.com/digital-marketing-manager/

Bugungi kunda, tijorat banklari faoliyatida qimmatli qog‘ozlar bozoridagi faoliyatini oshirishi ularning ushbu bozorda qaysi yo‘nalish orqali kirib borishi bilan bog‘liq. Shuning uchun raqamli bank faoliyatini rivojlanib borishi bu jarayonlarni yangi texnologiyalar orqali amalga oshirish muhimligini belgilab bermoqda. “Moliyaviy beqarorlik sharoitida bank innovatsiyalarini joriy etish, banklarning axborot resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatlarini oshirish, yangi bank texnologiyalari va mahsulotlarini ishlab chiqish, ularning bozordagi raqobatbardosh mavqeyini va mijozlar ishonchini saqlab qolish bo‘yicha yo‘nalishlar taklif etilmoqda”[5].

Tijorat banklari oldida turgan muhim muammolardan biri bu bozorni yaxshi o‘rganish asosida raqobatbardoshligini ta’minlash hisoblanadi. Bozorni o‘rganishda marketing faoliyatini rivojlantirish har bir bank boshqaruvchisining birinchi sifatli vazifasi hisoblanadi. Hozirgi kunda banklar faoliyatida raqamli marketing tushunchasidan keng foydalanish orqali banklarning bozordagi faoliyati rivojlanib bormoqda. Fond bozorida tijorat banklarini raqamli marketing faoliyatini qo‘llashda, ularning muhim turi kontent marketingdan foydalanish orqali fond bozoridagi mavqeyini oshirish keng qo‘llanilmoqda. “Kontent marketingi strategiyasi – Media marketing bilan bog‘liq ortib borayotgan xarajatlar, mahsulot yoki xizmatlar toifalari o‘rtasidagi raqobatning kuchayishi, iqtisodiy inqiroz tendensiyalari bilan kompaniyalar o‘z mahsulotlarini sotishning muqobil usullarini qidirmoqdalar – Kontent marketingi strategiyasining afzalliklari, albatta, yo‘lni boshqaradi. Kontent marketingi strategiyasini sotuvchilar tomonidan afzal ko‘rilishining bir qancha sabablari bor – biri iqtisodiy jihatdan samarali, ikkinchisi esa istalgan joydan kontentga kirishni osonlashtiradigan internet va mobil telefonlarning tobora ortib borayotgani”[6]. Tadqiqotchilar fikricha marketingni ushbu turidan keng foydalanish tijorat banklarini fond bozoridagi ishtirokini kengaytirishga yordam beradi deb hisoblaydilar.

Jahon tajribasi ko‘rsatishicha, iqtisodiy taraqqiyot jarayoni qimmatli qog‘ozlar bozorida bankdan tashqari moliya institutlari qatnashuvi ulushining ortib borishiga olib kelmoqda, buning natijasida tijorat banklari ulushi kamayib bormoqda (qimmatli qog‘ozlar bozori subyektlari o‘rtasida raqobatchilik mavjud bo‘lgan vaqtda).

Bugungi kunda “XIFlar, depozitariy, brokerlik idoralari, trast kompaniyalari, hisob-kitob kliring palatalari kabi moliya institutlari qimmatbaho qog‘ozlar bozorida tijorat banklarning raqobatchilari va sheriklaridir. Ularning har biri muayyan vazifani bajaradi. Tijorat banklari esa o‘zining universalligi, kapital, axborot, malakali kadrlar to‘planganligi, shuningdek, qonuniy jihatdan qo‘llab-quvvatlanishi tufayli qimmatbaho qog‘ozlar bozorida barcha turdagi xizmatlarni ko‘rsatishga qurbi yetadi”[7].

Milliy bozorda samarali raqobatlashish uchun tijorat banklariga ichki yoki tashqi har qanday yangi imkoniyatlarga tezda moslashish imkonini beruvchi API-ni qo‘llab-quvvatlaydigan platforma kerak bo‘ladi. “Bulutli tizimlar endi talab ortishi yoki kamayishi bilan resurslarni tez qo‘shish va kamaytirish orqali mahsulotlarni ishlab chiqish va sinovdan o‘tkazishni ancha osonlashtiradi”[8].

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, bank tashkilotining raqobatbardosh barqarorligi “moliyaviy bozorda IT taraqqiyotini kuzatib borish va tez o‘zgaruvchan texnologik muhitga tezda moslashish imkonini beradigan zarur raqamli vositalarni joriy etishni talab qiladi. Raqobatbardosh bo‘lish uchun banklar boshqa moliyaviy institutlardan ajralib turishi va maqsadli auditoriyaga jozibador imtiyozlarni taklif qilishi kerak”[9].

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tijorat banklariga qimmatli qog‘ozlar aksiyalari, obligatsiyalar, depozit va jamg‘arma sertifikatlari, Veksellar, shunindek, hosila qimmatli qog‘ozlar (fyucherslar va opsionlar) kabi turlarini chiqarishga ruxsat berilgan. Muayyan moliyaviy vosita uning emitent uchun ham, xaridor uchun ham qulay va foydaligi hisobga olingan holda tanlab olinadi. Bank qimmatli qog‘ozining nobank muassasi tomonidan chiqarilgan qog‘ozdan farqi shuki, tijorat banki faoliyatining davlat organlari tomonidan nisbatan to‘liqroq tartibga solinishidan iborat. Tijorat banki o‘z faoliyatida unga balans likvidligi va kapitalning yetarlilik darajasini pasaytirishga yo‘l qo‘ymaydigan bir qancha majburiy normativlarga amal qiladi.

Aynan tijorat banklari faoliyatini ushbu bozorda rivojlantirish muhim hisoblanadi. “Fond bozori moliya-bank tizimini barqarorligini ta’minlash mamlakatimiz iqtisodiyotiga investitsiya resurslarini jalb qilish va tijorat banklarimiz uchun daromad manbayini yaratish tizimini yanada takomillashtirish hamda xalqaro fond bozoriga integratsiyalashuvini amalga oshirishda dolzarbligi bilan ajralib turadi”[10]. Bundan tashqari tijorat banklari o‘rtasidagi raqobatni yanada rivojlantirishda ham ushbu bozor muhim strategik obyekt sifatida qaraladi. Shuning uchun tijorat banklarini raqobat bozoridagi faoliyatini rivojlantirishda muhim konsepsiya yaratish zarurligini belgilab beradi. Banklar faoliyatini raqobat bozorida o‘z mavqeyini mustahkamlashga yordam beruvchi “Progressiv

5 https://www.educba.com/digital-marketing-manager/
6 https://www.educba.com/content-marketing/?source=leftnav
7 https://elib.buxdu.uz/index.php/pages/referatlar-mustaqil-ish-kurs-ishi/item/9234-2020-12-30-06-45-47?ysclid=ljxwpimx34870380981
8 https://www.pwc.com/us/en/industries/banking-capital-markets/library/digital-banking-consumer-survey.html
9 https://marklog.ru/obzor-novejshih-instrumentov-prodvizhenija-bankovskih-uslug-v-uslovijah-usilenija-vlijanija-cifrovizacii/?
10 https://www.uzse.uz/boards/410?locale=uz

raqobat konsepsiyasi” taklif etiladi. Ushbu konsepsiyaning mohiyati shundan iboratki tijorat banklarini raqobat bozorida barcha ko‘rsatkichlar bo‘yicha ustunlikka erishish orqali turli operatsiyalarni yangi texnologiyalar asosida amalga oshirish sifatida qaraladi. Ushbu konsepsiyani amalga oshirish mexanizmi quyidagicha:



2-rasm: Progressiv raqobat konsepsiyasini amalga oshirish mexanaizmi[11]

Progressiv raqobat konsepsiya orqali bank aksiyalari narxi barqarorligini ta’minlashda asosiy omillar ularning mijozlari hisoblanadi. Agar yangi mijozlar (YAM), doimiy mijozlar (DM) hamda mukammal mijozlarni (MM) deb belgilab olsak, u holda quyidagi holatlarni ko‘rish mumkin bo‘ladi.

1. Agar YAM/ DM≥1 bo‘lsa, bank raqobat bozorida ustunligi ortib borayotgani hamda uning ikkilamchi bozorda aksiyalar narxini o‘zgarishi bilan bog‘lash mumkin.
2. Agar YAM/ DM<1 bo‘lsa, u holda bank olib borayotgan strategik maqsadlari o‘zini oqlamayotgani hamda mijozlarning bank taqdim etayotgan raqamli mahsulotlariga ishonchi pastligidan dalolat beradi.

Mukammal mijoz bu bank bilan bevosita 10-yildan ortiq mijoz sifatida hamkorlik qilayotgan yuridik va jismoniy shaxslar tushuniladi. Proressiv raqobat konsepsiyasida mijozlarni universal mijozga aylantirish uchun quyidagi tenglikka erishish zarur bo‘ladi, ya’ni YAM/ DM≥1 va MM/ DM≥1.

Taklif etilayotgan “Progressiv raqobat konsepsiyasi” bu bank faoliyatini tubdan o‘zgarishiga, raqobat bozorida “yashash uchun kurashish” motivatsiyasini yuqori cho‘qqiga chiqarishga olib keladi. Agar tijorat banklari ushbu raqobat bozorida o‘z o‘rnini saqlab qololmasa, uning keyingi faoliyati ham ishonchli rivojlanmaydi. Ushbu raqobat bozorida bank o‘z faoliyatini olib borishda quyidagilarni amalga oshirish zarur deb hisoblaymiz:

- banklar bozor uchun o‘z mahsulotlarini bosqichma-bosqich raqamlashtirish va yangi bank mahsulotlarini taqdim etish zarur;
- taklif etilayotgan yangi bank mahsulotlari mijoz talabiga mos bo‘lgan va uni amalga oshirishda qiyinchiliklarga duch kelmasliklari kerak;

11 Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

- bank mijoz uchun xizmat qilish sifatini eng mukammal nuqtasiga yetkazishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunda bank “mijoz-xizmat-mijoz” konsepsiyasiga amal qilishi zarur;
- taklif etilayotgan yangi bank mahsulotini ishlab chiqarishdan oldin mijozlar talabini yangi raqamli marketing tamoyillari asosida chuqur tahlil qilgan holda amalga oshirish lozim;
- bank mijozlarga yangi mahsulotni taqdim etish yoki yetkazishda barcha raqamli vositalardan keng foydalanish talab etiladi;
- mijozlar tomonidan ushbu xizmatdan foydalanish uchun talab etilayotgan raqamli vositalarni keng foydalanish imkoniyatlarini ochib berish;
- bank ushbu bozor tamoyilini rivojlantirishda “raqamli texnologiya-raqamli boshqaruv-raqamli marketing-sifatli xizmat-raqamli mahsulot-universal mijoz” konsepsiyasidan foydalanish maqsadga muvofiq;
- banklar ushbu bozor segmentatsiyasida barcha aksiyalardan keng foydalanish zarur hisoblanadi. Bunda asosiy e’tibor eng ommaviy bank operatsiyalaridan tashqari banklar qimmatli qog‘ozlar bozoriga ham alohida qarash zarur bo‘ladi;
- tijorat banklarini “progressiv raqobat” bozorida ustunligini belgilab beruvchi muhim omili bu ularning ikkilamchi bozordagi aksiyalar narxini o‘zgarishiga ham bog‘liq bo‘ladi.Bu esa ularning ushbu bozordagi faoliyatini yanada rivojlantirish zaruratini belgilaydi;
- tijorat banklarini ikkilamchi bozorda aksiyalar narxini barqarorligini ta’minlashda ularning “progressiv raqobat” bozorida ustunligini ta’minlash bilan bevosita to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘lanishga ega.

“Progressiv raqobat konsepsiyasi” ning eng muhim elementi bu bevosita raqamli marketing faoliyati hisoblanadi. “Raqamli marketing internet-marketingdan tashqari, shu jumladan, Internetdan foydalanishni talab qilmaydigan kanallarni ham qamrab oladi. U mobil telefonlar (SMS va MMS), ijtimoiy media marketingi, displey reklamasi, qidiruv tizimi marketingi va raqamli medianing boshqa ko‘plab shakllarini o‘z ichiga oladi”[12].

Tijorat banklarida onlayn aloqa texnikasi, jumladan, qidiruv tizimi marketingi, ijtimoiy media marketingi, onlayn reklama, elektron pochta marketingi va boshqa veb-saytlar bilan hamkorlik kelishuvlari asosida amalga oshiriladi. Ushbu usullar yangi mijozlarni jalb qilish va E-CRM orqali mijozlar bilan munosabatlarni rivojlantirishga yordam beradigan mavjud mijozlarga xizmatlar ko‘rsatish maqsadlarini qo‘llab-quvvatlash uchun ishlatiladi. Biroq raqamli marketing muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun ushbu usullarni ko‘p kanalli marketing kommunikatsiyalarining bir qismi sifatida bosma, televideniye va to‘g‘ridan to‘g‘ri pochta kabi an’anaviy ommaviy axborot vositalari bilan integratsiya qilish zarurati mavjud.

“Onlayn kanallar, shuningdek, sotishdan oldin sotishgacha bo‘lgan barcha xarid jarayonini qo‘llab-quvvatlash va mijozlar bilan munosabatlarni yanada rivojlantirish uchun boshqarilishi mumkin”[13].

Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek tijorat banklarini progressiv raqobat bozoridagi faoliyatini poydevori mijozlar bilan bog‘liq. Banklarning mijozlarga xizmat ko‘rsatish jarayonida “Progressiv raqobat konsepsiyasi”da quyidagilarga e’tibor qaratish zarurligini belgilab beradi[14].

- mijozlar banklarga o‘zlariga nima kerakligini tushunishlari kerak – mijoz nimani xohlashini bilishingizga ishonch hosil qiling va bu ehtiyojlarni boshidan qondiring;
- mijozlar bank bilan muloqot qilish uchun turli xil muqobil variantlarni talab qiladilar – mijozlar banklardan o‘zlari afzal ko‘rgan kanal orqali muloqot qilishlarini kutishadi;
- mijozlar bankning bir zumda javob berishini xohlashadi – banklar o‘z mijozlariga tezda javob berishlari kerak;
- mijozlarga sifatli mijozlar tajribasi kerak – mijozlar bilan munosabatlarni rivojlantirish ularning talablaridan oshib ketish qobiliyatini yaxshilaydi va ularni sodiq (universal) mijozlarga aylantiradi;
- mijozlar bankdan o‘z muammolarini hal qilishni talab qiladilar – mijozlar banklardan o‘z muammolariga samarali yechim topishlarini kutishadi;
- mijozlar bankning ularni eshitishini xohlashadi – mijozlar o‘zlarining fikr-mulohazalarini uqishlari va ular ustida ishlashlari kerak;

12 https://researchleap.com/wp-content/uploads/2015/04/6.-Effectiveness-of-Digital-Marketing-in-the-Challenging-Age-An-Empirical-Study1.pdf
13 https://garshadma.com/wp-content/uploads/2020/07/dave-cheffy-digital-marketing-strategy.pdf
14 https://www.marketing91.com/customer-expectations/

- banklar faol bo‘lishi kerak – mijozlar bank bilan muloqot qilishni yaxshi ko‘radilar. Ular sizdan muloqot rejangizni yaxshilashingizni va ularga halol fikr bildirish imkoniyatini berishingizni kutishadi;
- mijozlar shaxsiy tajriba va kutilmagan hodisalarni yaxshi ko‘radilar – banklar mijozlarga ular tasavvur qila olmaydigan va yoqtiradigan raqamli mahsulotlar hamda xizmatlarni taqdim etishga intilishi kerak;
- mijozlar har qanday xarajat bilan o‘z vaqtlarini tejashni xohlashadi – mijozlar mahsulot qanchalik qimmatli bo‘lishidan qat’i nazar, ularning tajribasi tez va samarali bo‘lishini xohlashadi;
- mijozlar banklarga mantiqiy yechimlar berishlari kerak – mijozlar samarali yechimlar berilmaganidan boshqa banklarga ketib qolishadi. Ular bankning izchil bo‘lishini va muammolari ustida ishlashlarini kutishadi.

Progressiv raqobatning boshqa turdagi raqobatdan farqli jihati shundaki, bundagi holatini aniqlash indekslari doimiy ravishda o‘zgarib to‘radi. Buni shu bilan baholash mumkinki, undagi ko‘rsatkichlar kunlik, soatlik va daqiqalik holatlarda ham o‘zgaradi. Shuning uchun bu “progressiv raqobat” deb ataladi. Bizga ma’lumki bozordagi raqobat konsentratsiyasini aniqlashtirishda HHI indeksidan foydalaniladi. Ushbu indeks qiymati progressiv raqobatda kunlik tahlil qilish zaruratini keltirib chiqaradi. Respublikamiz tijorat banklarini 2022-yil kredit bozoridagi raqobat konsentratsiyasini aniqlashda HHI indeksini turlicha qiymatlarga ega ekanligi aniqlandi.



3-rasm: Respublikamiz tijorat banklarining kredit bozoridagi raqobat konsentratsiyasi[15]

Ushbu tahlil qilingan bozorda bir yil davomida uch marta progressiv raqobat yuzaga kelganini ko‘rish mumkin. Bunda raqobat konsentratsiya qiymati keskin tebranishga ega bo‘lgan. Yuqoridagi tahlillardan ko‘rish mumkinki, bir yil davomida kredit bozorida “Progressiv raqobat” holati uch marta yuzaga kelgan, aynan mana shu kunlari kredit bozorida yangi bank mahsulotlarini taklif qilish orqali mijozlar oqimlarini bir bankdan boshqasiga o‘tishi progressiv raqobatni yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan. Bunday holatda bozor ishtirokchilari kredit berish jarayonida onlayn xizmat ko‘rsatish tizimlaridan kengroq foydalanish orqali mijozlarni jalb etish talab etiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olingan tahlillarga asosan “Progressiv raqobat konsepsiyasi” ning muhim xususiyatlari sifatida quyidagi xuloslarga kelindi:

- tijorat banklari o‘rtasidagi raqobatni rivojlantirishda ularning raqamli texnologiyalariga e’tibor qaratish zarur;
- “progressiv raqobat konsepsiyasi” asosida respublikamiz bank tizimida raqobatni kuchaytirish orqali transformatsiya jarayonlarini tezlashtirish;
- banklararo bozorda raqobatni rivojlantirish orqali banklarni iqtisodiy ko‘rsatkichlarini belgilangan me’yorlardan ustuvorligini ta’minlash zarur;
- tijorat banklari fond bozorida faoliyatini rivojlantirishda qimmatli qog‘ozlarning barcha turlaridan keng foydalanishni amalga oshirish;
- fond bozorida “banklar-raqobat-fond bozori-aksiya” to‘g‘ri ishlash mexanizmini ishlab chiqish va yo‘lga qo‘yish;

15 Muallif tomonidan tuzilgan.

- aksiyalarni bozordagi narxini minimal narxga nisbatan iqtisodiy ko‘rsatkichlar orqali unga ta’sir qiluvchi boshqa omillarni tahlilini olib borish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2020–2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi 2020-yil 12-maydagi PF–5992-sonli Farmoni. lex.uz›ru/docs/-4811025
2. https://daryo.uz/k/2023/01/12/ozbekiston-fond-bozori-2022-yilni-iposiz-yakunladi-bozordagi-umumiy-vaziyat-qanday/?ysclid=ljwpueou7g596193558
3. https://elib.buxdu.uz/index.php/pages/referatlar-mustaqil-ish-kurs-ishi/item/9234-2020-12-30-06-45-47?ysclid=ljxwpimx34870380981
4. https://forbes.kz/process/technologies/tsifrovizatsiya_soglyadkoy_1568631121?
5. https://garshadma.com/wp-content/uploads/2020/07/dave-cheffy-digital-marketing-strategy.pdf
6. https://marklog.ru/obzor-novejshih-instrumentov-prodvizhenija-bankovskih-uslug-v-uslovijah-usilenija-vlijanija-cifrovizacii/?
7. https://researchleap.com/wp-content/uploads/2015/04/6.Challenging-Age-An-Empirical-Study1.pdf
8. https://www.educba.com/content-marketing/?source=leftnav
9. https://www.educba.com/digital-marketing-manager/
10. https://www.marketing91.com/customer-expectations/
11. https://www.pwc.com/us/en/industries/banking-capital-markets/library/digital-banking-consumer-survey.html
12. https://www.uzse.uz/boards/410?locale=uz

KONCHILIK SANOATI KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Kurbanova Mehriniso Nematjanovna
Toshkent davlat transport universiteti doktoranti

Annotatsiya: Jahonning rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarining iqtisodiy infratuzilmasida konchilik sanoati korxonalarining faoliyatini innovatsion faoliyatni rivojlanishiga salmoqli ta'sir ko'rsatishi raqobatbardoshlilikni ta'minlashda doimiy strategik chora-tadbirlarini mustahkamlashda ahamiyati yuqori sanaladi.

Kalit so'zlar: Innovatsion rivojlanish, sanoat korxonasi, jahon bo'yicha raqobat, iqtisodiy rivojlanish.

Abstract: The impact of the development and modernization of industrial enterprises on innovative activities in the economic infrastructure of developed and developing countries is manifested as a significant factor in ensuring competitiveness. In this context, continuous strategic measures and initiatives play an important role in ensuring stability and competitiveness in the industry, facilitating the transition to innovative activities.

Key words: Innovative Development, Industrial Companies, Global Competition, Economic Development.

Аннотация: Влияние развития и модернизации промышленных предприятий на инновационную деятельность в экономической инфраструктуре развитых и развивающихся стран мира проявляется как существенный фактор обеспечения конкурентоспособности. В этом контексте постоянные стратегические меры и мероприятия играют важную роль в обеспечении устойчивости и конкурентоспособности в промышленности, способствуя переходу к инновационной деятельности.

Ключевые слова: инновационное развитие, промышленные компании, глобальная конкуренция, экономическое развитие.

KIRISH

Jahon mamlakatlari orasida iqtisodiy globallashuv chuqur ildiz otayotgan sharoitda konchilik sanoati korxonalari tomonidan ishlab chiqariladigan mahsulotlarga bo'lgan talab kun sayin oshib bormoqda. 2021-yilda mineral xom ashyolarni ishlab chiqarish qit'alar bo'yicha ulushi birinchi o'rinda 60,4 foiz miqdorida Osiyo mamlakatlari egallagan bo'lsa, ushbu mamlakatlar orasida O'zbekiston 2 o'rinda turadi. O'zbekiston o'sib borayotgan elektrifikatsion faoliyat talabini qondira olish qobiliyatiga ega konchilik sanoati korxonalariga ega bo'lib, jahon miqyosida tanilgan mahsulotlarining sifati yuzasidan investitsion jozibadorligi yuqori sanaladi. Xususan, 2022-yilda ferroquyma temir sotish bo'yicha O'zbekiston 1307 m.t. bilan 40-o'rinni egallagan bo'lsa, rangli metall 221569 m.t, qimmatbaho metallarda bu 312 m.t.ni tashkil etadi. Mamlakatimizda mavjud yirik konchilik sanoati korxonalarining iqtisodiy imkoniyatlarining yuqoriligi tufayli asosiy yetakchi investitsion flagmanlaridan biri sanalgan "Navoiy KMK" AJning innovatsion faoliyatini rivojlantirish barqaror o'sishga ega bo'lsa-da, uning joriy boshqaruvi hamda kelgusida taraqqiy ettirishda mexanizmi faollashtirilmagan. Shunga ko'ra, mazkur tadqiqot ishida "Navoiy KMK" AJning innovatsion faoliyatini yanada rivojlantirishning mexanizmlarini takomillashtirishga zarurati oshadi hamda korxonaning strategik obyektligini inobatga olgan holda dolzarbligini asoslaydi.

Jahonning rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarining iqtisodiy infratuzilmasida konchilik sanoati korxonalarining faoliyatini innovatsion faoliyatni rivojlanishiga salmoqli ta'sir ko'rsatishi raqobatbardoshlilikni ta'minlashda doimiy strategik chora-tadbirlarini mustahkamlashda ahamiyati yuqori sanaladi. Dunyo bo'ylab mazkur sohada band bo'lgan ishchilarning soni Osiyo mamlakatlari orasida 520 milliondan ortiq odamni qamrab olib, bu dunyoning 1,2 foiz ulushiga to'g'ri keladi. Innovatsiya bozoridagi innovatsion ishlanmalarning 8,1 foizi konchilik ishlari faoliyatiga qaratilgan texnologiyalarni tashkil etishi mazkur sohada innovatsiya, inson kapitali, ekologik xavfsizlik singari muhim jihatlarni rivojlanishidagi maqsad va vizifalarni bajarishni tavsiyalaydi. Shu nuqtayi nazardan, mazkur tadqiqot ishida nazarda tutilgan innovatsion faoliyatni rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish mavzuning dolzarbligini oshiradi hamda uning tarkibida ko'zlangan ilmiy tadqiqot ishlarining bajarilishida ilmiy, amaliy zaruratni asoslaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Jahon tajribasida konchilik sanoati korxonalarini innovatsion faoliyatini rivojlantirish va mexanimzlarini takomillashtirish yuzasidan M.N.Vyatkin, S.V.Vyatkin, C.Yi, B.P.Townson, R.D.Plessis, N. Nilsson, S. Daniel, F. Zenyu, S.Houston, M.Burdett singari olimlarning tadqiqot ishlarida ko'rish mumkin.

O'zbekistonda konchilik sanoati korxonalarini iqtisodiy rivojlantirish, moliyaviy sog'lomlashtirish, investitsion qobiliyatini oshirish yuzasidan N.X.Sag'otov, V.S. Nikitin, S.N.Xashimova, O.O. Qosimov, N.B.Abdusalomova, D.Urmanova, Yakubov N.M. singari o'zbek olimlari o'z tadqiqot ishlarida ko'rib chiqqanlar.

Yuqorida keltirilgan olimlarning tadqiqot ishlari ilmiy-amaliy, uslubiy-loyihaviy manba bo'lib xizmat qilsa-da, ularda mamlakatimizda konchilik sanoatining innovatsion faoliyatini rivojlantirish yuzasidan iqtisodiy samaradorlikni oshirish, innovatsion salohiyatni o'stirishning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarini baholashning iqtisodiy va moliyaviy masalalari yoritilmagan.

Mahalliy olimlarning tadqiqot ishlarida "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" aksionerlik jamiyati misolida izlanishlar olib borilishiga qaramasdan konchilik sanoati korxonalarining innovatsion mexanizmlarini hamda innovatsion faoliyatning iqtisodiy va texnologik samaradorligini texnik-iqtisodiy baholanishi yuzasidan tadqiqotlar olib borilmaganligi va izlanishlarning noyobligi uning dolzarbligini asoslaydi.

Tahlil va natijalar. So'nggi yillarda O'zbekistonda rangli va qimmatbaho metallarni qazib olish hamda qayta ishlash, shuningdek, ulardan yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlarni ishlab chiqarishga qaratilgan. Mazkur soha mamlakatning strategik va iqtisodiy infratuzilmaning yetakchi ahamiyati sanaladi.

Konchilik sanoatida innovatsion faoliyatni olib borish innovatsion menejmentning fan sifatida ajralib chiqishidan oldinroq boshlangan bo'lib, unda avtomatlashtirilgan qurilmalar, texnologik dastgohlar kombinat barpo etilganida ta'minlangan va muntazam yangilanib turilgan. Ilmiy va amaliy yondashuv asosida "Navoiy KMK" AJda ishlab chiqarish faoliyatini olib borish doimo o'zining ijobiy natijalarini namoyon etgan.

Mamlakatimizda foydali qazilma boyliklarning hamda rangli metallarning zaxirasi bo'yicha yetakchi o'ringa ega bo'lib, oltinning tasdiqlangan zaxirasi 6,4 ming tonna, kumush 24,6 ming tonna, mis 21,3 mln. tonna, ruh 14,8 mln. tonnani tashkil etadi.[1] Mazkur ko'rsatkichlar investitsiya bozorida alohida jozibadorlikka ega bo'lib, o'ziga jalb etadi. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish yuzasidan davlat dasturlari doirasida olib borilayotgan chora-tadbirlar o'zining salmoqli natijaviyligini hamda samarasini bermoqda. 2021 yilda mamlakatdagi tog'-kon to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni umumiy hajmi 1,2 mlrd. AQSh dollarni, 2022-yilda bu ko'rsatkich 0,9 mlrd. AQSh dollar ko'proq pul mablag'ini tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda 1,5 mlrd. AQSh dollar mablag' jalb etilgan. Shundan Navoiy kon-metallurgiya kombinatining ulushi 2021 yilda 29,4%, 2022-yilda 28,9 hamda 2023-yilda 28,5 foiz ulushiga to'g'ri keladi.[2] Bu Navoiy kon-metallurgiya kombinatining investitsion jozibidadorligini kamayganligini emas, uning o'zini reinvestitsiya qilish faoliyatining yil sayin o'sib borayotganligi bilan tavsiflanadi. Xususan, 2021 yilda Navoiy kon-metallurgiya kombinatiga qilingan investitsiyaning 19%, 2022-yilda 22% pul mablag'i reinvestitsiya qilingan ulushini tashkil etadi. Mamlakat budjeti daromadining 18% Navoiy kon-metallurgiya kombinatining egallagan hissasidan iborat bo'lib, uning asosiy moliyaviy mustaqil flagmanga aylantirdi. Aholi darmomadini oshirishdagi ulushida Navoiy kon-metallurgiya kombinatining 57 mingdan ortiq ishchi va xodimlarni band etgan ulushi 6,14 % ga to'g'ri keladi.

Navoiy kon-metallurgiya kombinatining ishlab chiqarish jarayonlarini ilg'or texnologik ta'minlash hamda innovatsion ishlanma va vositalarni tatbiq etish maqsadida investitsion loyihalar doirasidagi taqsimoti ish jarayonlarining infratuzilmaviy mutanosiblikni ta'minlash jihatdan yo'naltirilgan. Navoiy kon-metallurgiya kombinatining asosiy barqarorlikni ta'minlash qadriyatlari o'zi ichiga asosan ijtimoiy, iqtisodiy va ilmiy maqsad va vazifalarni oladi(1-rasm).

1 Fahriddinxo'jayev Sh. Rangli metallurgiyaning rivojlanish istiqbollari. Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi "Iqtisodiy sharh" jurnali №1/2022

2 Fahriddinxo'jayev Sh. Rangli metallurgiyaning rivojlanish istiqbollari. Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi "Iqtisodiy sharh" jurnali №1/2022

1-rasm: “Navoiy KMK” AJning barqarorlikni ta’minlash qadriyatlari tarkibi[3].

Yuqorida keltirilgan rasmda ishlab chiqarishda ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan qadriyatlarni tizimlashtirishda ilm va fan taraqqiyotining ham inobatga olinganligi inson omili, inson kapitali hamda xodimlarning innovatsion salohiyatini oshirishga xizmat qilishini tavsiflaydi.

Navoiy kon-metallurgiya kombinati Birlashgan Millatlar Tashkilotining asosiy maqsad va vazifalari doirasida olib borayotgan innovatsion faoliyati mamlakatimizdagi sanoati korxonalari uchun namuna bo‘la oladi. (1-jadval)

1-jadval: “Navoiy KMK”ning BMTning bosh maqsadlari doirasida amalga oshirgan chora-tadbirlari (2018-2022-yy)[4]

№	MTning bosh maqsadlari	Bajarilgan ishlar		
		Tadbirlar	Birlik	Qiymati
1	Toza ichimlik suvi va sanitariyasi	Gelio‘rnatmalar asosida issiq suv ta’minoti	mln. so‘m	114,42
		Shaxta suvlarini tozalashning texnologik xaritasini ishlab chiqish va tatbiq etish	mln. so‘m	582,66
		Oqava suvlarni tozalash va filtrlash jarayonini takomillashtirish	mln. so‘m	881,37
2	Munosib ish bilan bandlik va iqtisodiy o‘sish	“Navoiy KMK” AJ xodimlari o‘rtasida ratsionalizatorlik faoliyatini rag‘batlantirish	mln. so‘m	1 764,3
		Mahalliylashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarish	mln. so‘m	20 599,4
		Profillarni kengaytirish va yangi ish o‘rinlarini yaratish	Ish o‘rni	3 222
3	Sanoatlashtirish, innovatsiya va infratuzilmani takomillashtirish	Ilm-fan yutuqlari va ilmiy tadqiqot ishlari doirasidagi loyihalar	Loyiha	246
			mlrd. AQSh dol.	1,9
		Xorijiy mamlakatlar bilan tajriba almashinuv doirasida ilmiy izlanishlar olib borish	Mamlakat	Rossiya, AQSh, Braziliya, Xitoy, Eron, Germaniya, Finlandiya, Koreya

3 Navoiy KMK ma’lumotlari.
4 Navoiy KMK AJning “Barqaror o‘sish” hisoboti, 2022-y. https://www.ngmk.uz/uploads/photo/about-ngmk/infos/report_rus.pdf

4	Rivojlangan shaharlar va aholi punktlari	GMZ 3 da eritish jarayoniga ekologik toza ishlov berish hamda atmosferaga chiqindi gazlarni chiqarishni oldini olish texnologiyasi	mlrd. so‘m	4,07
5	Aholi salomatligini ta’minlash va sog‘lom turmush tarzi	Sanoat xavfsizligini ta’minlovchi avtomatlashtirilgan va raqamli texnologiyalarni tatbiq etish	mlrd. so‘m	12,44

Navoiy kon-metallurgiya kombinatining BMTning bosh maqsadlari doirasida amalga oshirgan ishlarning pirovardida innovatsion faoliyatni takomillashtirish mavjud bo‘lib, bajarilgan barcha ishlar zamonaviy va ilg‘or texnologik vositalar, dastgohlar va uskunalarni korxona faoliyatiga tatbiq etilganligi bilan tavsiflanadi.



2-rasm: “Navoiy KMK” AJning ixtirolarni tatbiq etishning iqtisodiy samaradorligi (2011-2022-yy)[5]

2011-yilda “Navoiy KMK” AJ Navoiy erkin iqtisodiy hududi doirasida ko‘plab investorlar, hamkorlar, homiylar hamda kreditorlar bilan mustahkam aloqalar o‘rnatib, investitsion, ilmiy, malakaviy, intellektual texnologik hamda ekologik loyihalarni tatbiq etdi. Mazkur loyihalar 2011-yilda 3 tani tashkil etgan bo‘lishiga qaramasdan iqtisodiy samaradorligi 0,54 foiz natijaviylikni bergan. 2012-yilda loyihalarning ya’ni ixtirolarni amaliyotga joriy etishning iqtisodiy samaradorligi 2011-yilga nisbatan 2 barobar o‘sishi korxonaning yana 3 ta loyihaning natijasi sanaladi.

2013-yilda “Navoiy KMK” AJning yangi konlarni topilishida 4 ta ixtirodan samarali foydalanish asosida 2,13 foiz iqtisodiy salmoqni taqdim etdi. Bu 2012-yilga nisbatan salkam 2 barobarga tengdir. 2014-yilda 58 foiz ko‘proq iqtisodiy samaradorlik asosida 3,67 foizni tashkil etishida Qizilqum fosforit majmuasining ochilishi hamda unda resurslar tejamkorligiga doir ixtirolarning tadbig‘i mahsuli sanaladi.

2015-yilda ixtirolarning amaliy tadbig‘i 2014-yilga nisbatan 50 foizga oshgan holda 9 ta loyihani hamda 2 foiz ko‘proq iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichini tashkil etgan. №5 kon boshqarmasining “Surgali” hamda “shimoliy Konimeks” konlarida ishlab chiqarish va maishiy inshootlarning foydalanishga topshirilishida innovatsion ishlanmalarning ham hissasi mavjud.

2016-yilda innovatsion loyihalarning soni 10 taga yetib, iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichi 5,62 foizni o‘suvchi harakaterga ega holda taqdim etgan. Bunda nazarda tutilgan ixtirolar va innovatsion loyihalar 2016-yilda “muruntov” konida minerallashtirilgan massaning burmalanishlarini uyumlash asosida eritish jarayoniga yo‘naltirish usuli orqali qayta ishlash, zavodning alohida toifalangan obyektlarini zaxiraviy energetik ta’minoti zamonaviylashtirilganligini qamrab oladi. Shuningdek, “shimolik Konimeks” konida sorbsion uskunalarning barpo etilishi xizmat qildi.

2017-yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Butunjahon intellektual mulk” agentligi tomonidan Navoiy kon-metallurgiya kombinatining 12 nafat ixtirochi va olimlarni murakkab oltin rudalardan oltinni ajratib olishga qaratilgan texnologiyani ixtiro etishdagi ishtiroki tufayli “Eng yaxshi ixtirochi” oltin medali bilan taqdirlangan bo‘lib, iqtisodiy samaradorlik 7,81 foizni tashkil etganligi bilan izohlanadi. 2018-yildan buyon “Navoiy KMK”

5 “Navoiy KMK” AJ ma’lumotlari va yillik hisobotlari

AJning innovatsion faoliyatining ilm-fan yutuqlaridan foydalanish va ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish doirasida 40 dan ortiq loyihalar amalga oshirildi. 2018-yilda jami joriy etilgan loyihalar soni 15tadan iborat bo‘lib, iqtisodiy samaradorligi darajasi 9,89 foizni tashkil etgan.

2019-yilda “Navoiy KMK” AJda №5 kon boshqarmasining 4 geotexnologik konida noyob va foydali qazilma boyliklarni ishlab chiqarish maqsadida 16ta loyiha tatbiq etilgan bo‘lib, uning iqtisodiy samaradorligi 13,2 foizni tashkil etdi. 2020-yilga kelib mazkur ko‘rsatkich 2019-yilga nisbatan 2 foiz ko‘proq bo‘lib, amaliyotgan tatbiq etilgan ilmiy loyihalar soni o‘zgarmagan. Shunga qaramasdan turib, korxonaning iqtisodiy samaradorligi 11,4 foizni egallagan holda o‘suvchi dinamikani tashkil etdi.

2021-yilda kombinatda №2 gidrometallurgiya zavodining qayta ishlash quvvatlarini yanada kengaytirishga yo‘naltirishgan bo‘lib, GMZning tegishli tegirmon bloklari ishga tushirilganligi bilan izohlanadi. 2022-yilda ixtirolarning 21 ta loyiha doirasida korxonada raqamlashtirishga qaratilgan loyihalarni amaliy tatbiq natijaviyligi 13,2 foizni tashkil etdi. 2022-yilda “Texnologik va ishlanishi murakkab bo‘lgan oltin tarkibli ma’danlarni qayta ishlash va o‘zlashtirishning kompleks texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy etish” yuzasidan qilingan innovatsion ishlanma, Tomdi shaxtasiga temir yo‘l foydalanilishini boshlanishi hamda ekologik xavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan 19 ta loyiha qamrovida innovatsion ishlanmalarning amaliy tadbig‘ining natijasida 21 foiz iqtisodiy samaradorlikka erishildi. Umumiy yillar kesimida innovatsion faoliyat doirasida amalga oshirilgan ishlarning barchasi o‘suvchi xarakter kasb etadi va barqaror o‘sish xususiyatiga ega.

So‘nggi yillarda mamlakat iqtisodiyotini raqamli texnologiyalar asosida taraqqiy ettirish sharoitida ekologik xavfsizlikni ta’minlashga xizmat qiluvchi texnologik vositalar chora-tadbirlar hamda innovatsion ishlanmalarning aksariyat qismini tashkil etmoqda. Bu innovatsion faoliyatni olib borishda qo‘yilayotgan talablardan biri bo‘lib, innovatsiya bozorida buyurtmachilar yoki xaridorlarni qiziqtiradigan jihatlardan biriga aylanib ulgurdi. 2023-yilda chiqindilarsiz ishlab chiqarish hamda “Yashil iqtisodiyot” tizimi asosida ishlab chiqarishni ta’minlash maqsadida innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqarish o‘z ichiga 15 ta loyihani qamrab olib, uning moliyatashtirish manbasi “Navoiy KMK” AJ innovatsion rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash Jamg‘armasi sanaladi. (2-jadval)

2-jadval: 2023-yil davomida “Navoiy KMK” AJda ishga tushirilgan innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqarish loyihasi[6]

№	Loyiha nomi	Moliyalashtirish hajmi (mlrd.so‘m)	Natija
1	Raqamli texnologiyalar asosida №5 va 7 shidrometallurgiya zavodlarida intellektual boshqaruv tizimlarini joriy etish	5,0	Raqamli texnologiyalar asosida intellektual boshqaruv tizimlarining joriy etilishi amalga oshirildi
2	“Aktau” koni yonuvchi slaneslari tarkibidagi oltinning nanozarrachalarining mavjud shakllarini tadqiq etish ishlari	3,218	Yonuvchi slaneslardan oltinning nanozarrachalarini ajratib olish asosida ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi
3	1 F670 tokarli vint kesuvchi dastgoh modelini ishlab chiqarishni tashkil etish	2,20	Analoglariga nisbatan muqobil dastgoh yaratildi
4	Geologik qidiruvning asosiy materiallarini majmuaviy tahlil qilish hamda 5 GMZ uchun oksidlangan ma’danlarga ajratish	1,9	Oltin konlarining materiallarini tahlil qilish maqsadida GMZ ehtiyojlari uchun oksidlangan ma’danlarning tarqalishi kengayib bordi
5	Atrof-muhitga ta’sirini ekologik va geokimyoviy baholash. Tuproq, suv va o‘simliklar holatini baholash indikatorlarini ishlab chiqish	1,9	Indikatorlar asosida tahlil qilish yo‘lga qo‘yildi
6	6662 rusumli bo‘ylama frezerlash dastgohi analogini loyihalash va ishlab chiqish	1,7	Indikatorlar tizimi ajratildi va milli indikativ boshqaruv tuzilmasi ishlab chiqildi
7	Ishlab chiqarishda baxtsiz hodisalarning oldini olish maqsadida videoroliklar ishlab chiqish	0,984	Ko‘zlangan maqsadga erishildi
8	Skoring modelini tatbiq etish	0,2	Zamoaviy va ilg‘or dasturiy ta’minot amalga oshirildi

“Navoiy KMK” AJning innovatsion faoliyatini amalga oshiruvchi xodimlar soni 14 tani tashkil etib, ularning orasida, asosan, muhandislarning ko‘pligi alohida ajralib turadi. Mamlakatimizdagi mavjud innovatsion markazlar, texnoparklar bilan hamkorlikda ish faoliyatini olib borish profillarning kengaytirilishiga talab kun sayin o‘sib bormoqda.

6 “Navoiy KMK” AJ ma’lumotlari.

“Navoiy KMK” AJda bugungi kunda 30 dan ortiq fan nomzodi hamda 10ga yaqin fan doktori o‘z faoliyatini olib boradi. Bugungi kunga qadar mustaqillik yillaridan buyon “Navoiy KMK” AJda olib borilgan ilmiy tadqiqot va izlanishlar natijasida qilingan ixtirolar, foydali patentlar, ratsionalizatorlik takliflari 9 barobarga oshgan. Buning natijasida “Navoiy KMK” AJning mamlakatimizning mustaqillikka erishgan vaqtdan buyon bugungi kunga qadar tog‘ massasini chiqarish hajmi 5 barobar, rudani qayta ishlash hajmi 3 barobar, mahsulot ishlab chiqarish hajmi 2 barobarga hamda ishchilarni yollashda 2 barobarga ko‘rsatkichlari oshgan. Shu bilan bir qqatorda, “Navoiy KMK” AJ tomonidan ishlab chiqariladigan uranning hajmi jahon mamlakatlari orasida yettinchi o‘rinda bo‘lishini ta’minlagan[7].



3-rasm: Oltin ishlab chiqaruvchi reytingidagi yetakchi korxonalarning ishlab chiqarish hajmi va o‘sish sur’ati (2023-yil)[8]

Kanadaning “Kitko” korxonasi tomonidan o‘tkazilgan ilmiy tadqiqot ishlari natijalarini tahlil qilish asosida 2023-yilning boshida eng yirik oltin ishlab chiqaruvchi koxonalarning o‘nlik reytingida “Navoiy KMK” AJ tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot hajmining 5 o‘rinda turishini baholadi. (3-rasm)

2023-yilning yarim yillik hisobiga ko‘ra, O‘zbekistonning oltin-valyuta zaxiralari yil boshidan beri 3,1 mlrd AQShdollari qiymatida kamaydi. Bu holatni tahlil qilganda, asosan, tashqi savdoda defitsitning oshishi, xalqaro pul o‘tkazmalarining sezilarli darajada qisqarishi, shuningdek, milliy valyuta kursining qadrsizlanib borishi tufayli bazaga kelmoqda. O‘zbekistonning joriy rasmiy zaxiralari 32,7 mlrd AQSh dollarni tashkil etishi bilan birga uning tarkibida 23,4 mlrd AQSh dollar monetar oltin qiymatidan iboratdir[9].

3-jadval: O‘zbekistonning Global innovatsion indeksi asosida baholanishi[10]

№	Komponentlar	2015-yil		2022-yil	
		Baho	O‘rin	Baho	O‘rin
1.	Institutlar sifati	49,0	106	57,3	63
2.	Inson kapitali va ilmiy-tadqiqotlar faoliyati	27,0	76	30,8	65
3.	Infratuzilma	29,0	101	41,7	74
4.	Bozor rivojlanishi	44,4	85	39,9	60
5.	Biznesni rivojlantirish	20,0	138	25,3	74
6.	Fan va texnologiyalar	27,2	61	17,9	80
7.	Ijodiy mahsulotlar	8,5	138	7,7	102

Mamlakatning innovatsion salohiyatini baholashga xizmat qiluvchi global innovatsiyalar indeksi bo‘yicha O‘zbekiston 2015-yilda 122 -o‘rindan 2022-yilda 82-o‘ringa qadar ko‘tarildi, MDH mamlakatlari orasida 5 o‘rinni qat’iy egallashi natijasida yanada investorlar uchun jozibadorlik kasb etdi. (3-jadval) Institutlarning sifati jihatdan 40 pog‘onaga o‘sgani, inson kapitali va ilmiy tadqiqotlar faoliyatining rivojlanish darajasi jihatdan 11 pog‘onaga, eng asosiy jihatlardan biri infratuzilmaning 30 pog‘onaga oshganligi mamlakatdagi innovatsion salohiyatining darajasida sezilarli darajada ijobiy natijalar mahsulidir. Bozor rivojlanishi hamda biznesni rivojlantirish jihatdan

7 “Navoiy KMK” AJ ma’lumotlari.
8 https://kun.uz/news/2023/09/12/nkmk-dunyodagi-eng-yirik-oltin-ishlab-chiqaruvchi-kompaniyalar-onligidan-joy-oldi
9 https://kun.uz/news/2023/09/12/ozbekistonning-oltin-valuta-zaxiralari-ketma-ket-beshinchi-oy-kamaydi
10 https://mininnovation.uz/oz/info/global-innovatsion-indeks

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

indekatsion o‘zgarish ham keskin o‘sdi. Fan va texnologiyalar shuningdek, ijodiy mahsulotlar foiz ko‘rsatkichlari yuqoridagi ko‘rsatkichlarning zanjirsimon pirovard natijasi sanaladi. Navoiy kon metallurgiya kombinatining innovatsion salohiyat darajasining ulushi 12 foizni tashkil etib O‘zbekistonda “Olmaliq KMK” AJdan keyingi o‘rinni egallaganligi bilan izohlanadi. Shuningdek, Mamlakatning davlat budjetiga tushumlaridagi ulushi jihatdan “Navoiy KMK” AJning 20,25 foiz hisobida (2022-yil) hamda eng yirik daromad keltiruvchi korxona bo‘yicha 10 639,8 mlrd. so‘m mablag‘ qiymatidagi natija bilan birinchi pog‘onani egalladi[11].

XULOSA

Mamlakatimizdagi innovatsion infratuzilmani takomillashtirish uchun yetakchi flagman korxonalarni innovatsion faoliyatni rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish talab etiladi. Buning natijasida iqtisodiyotning muqobillik va mutanosiblik kategoriyalari asosida rivojlanish sodir bo‘ladi, yetakchi sanoat tarmoqlari korxonalari innovatsion faoliyat jihatdan oqsayotgan korxonalar parallel rivojlanib innovatsion jihatdan oshib boradi.

Innovatsion faoliyatni rivojlantirish mexanizmlari jihatdan ko‘plab ilmiy izlanishlar va tavsiyaviy xarakterga ega takliflar berilayotgan bo‘lsa-da, konchilik sanoati korxonalarini innovatsion salohiyati mamlakatda salmoqli o‘ringa egaligi tufayli innovatsion faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan mexanizmlarning muqim sxemasi yoki tuzilmasi mavjud emas. Shu nuqtayi nazarni ham inobatga olgan holda innovatsion faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan mexanizmni ishlab chiqish va ishlab chiqarishga tatbiq etish tavsiya etiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Fahriddinxo‘jayev Sh. Rangli metallurgiyaning rivojlanish istiqbollari. Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi “Iqtisodiy sharh” jurnali. –№1.–2022.
2. Kurbanova M., Atavullaeva F. Peculiarities of digital economy and its development tendencies in the banking system of Uzbekistan //International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering. – 2019. – T. 9. – №. 1. – C. 114-125.
3. Kurbanova M. N. DIE AUSLANDSERFAHRUNG INNOVATIVER ENTWICKLUNG DER WIRTSCHSAFT ALS HAUPTWACHSTUMSSCHWERPUNKTE //Актуальные проблемы экономики и управления на предприятиях машиностроения, нефтяной и газовой промышленности в условиях инновационно-ориентированной экономики. – 2015. – Т. 1. – С. 225-229.
4. Plessis R.D. The South African mining industry towards 2055: scenarios.Degree: Faculty of Business and Economic Sciences, 2015, Nelson Mandela Metropolitan University URL: http://hdl.handle.net/10948/4215.
5. Nelsson N. ow to future proof a Business Model : Capture and capitalize value in the field of Urban Mining.Degree: 2015, , Blekinge Institute of Technology URL: http://urn.kb.se/resolve?urn=urn:nbn:se:bth-1051.
6. https://mininnovation.uz/oz/info/global-innovatsion-indeks.
7. Bobojonova, Z. S. (2021). Analysis of economic efficiency of oil recovery from fields in Bukhara-Khivinsky region and ways of its implementation. NVEO-NATURAL VOLATILES & ESSENTIAL OILS Journal| NVEO, 10183-10187.
8. Fahriddinxo‘jayev Sh. Rangli metallurgiyaning rivojlanish istiqbollari. Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi “Iqtisodiy sharh” jurnali. –№1.–2022.

11 Davlat aktivlarini boshqarish agentligining infografik ma’lumotlari.

O‘ZBEKISTONDA BANKLAR MOLIYAVIY XIZMATLARI VA ULAR SIFATINING AMALDAGI HOLATI TAHLILI

Mirzayev Mirza Abdullayevich
Doktorant

Annotatsiya: Ushbu maqolada tijorat banklarida ko‘rsatilayotgan xizmatlar banklar kesimida o‘rganildi. Mavjud muammolar, ularni betaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlar muhokama qilingan. Banklarda xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish, shuningdek, xizmatlar inklyuzivligini kengaytirishda raqamli texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha tahliliy ma’lumotlar keltirilgan. Mamlakatimiz tijorat banklari taqdim qilayotgan moliyaviy xizmatlarining holatiga doir xalqaro institutlarning so‘rov natijalari tadqiq qilingan.

Kalit so‘zlar: Bank xizmatlari, masofaviy bank mobil ilovalari, moliyaviy inklyuzivlik, bank kredit va depozitlari, masofaviy bank xizmati foydalanuvchilari.

Abstract: In this article, the services provided by commercial banks were studied in the section of banks. Existing problems and measures to eliminate them were discussed. Analytical information on the use of digital technologies in improving the quality of services in banks, as well as expanding the inclusiveness of services. The results of the survey of international institutes on the state of financial services provided by commercial banks of our country have been studied.

Key words: Banking services, remote banking mobile applications, financial inclusion, bank loans and deposits, remote banking service users.

Аннотация: В данной статье были изучены услуги, предоставляемые коммерческими банками в разделе банки. Обсуждены существующие проблемы и меры по их устранению. Аналитическая информация по использованию цифровых технологий в повышении качества обслуживания в банках, а также расширении инклюзивности услуг. Изучены результаты исследования международных институтов о состоянии финансовых услуг, предоставляемых коммерческими банками нашей страны.

Ключевые слова: банковские услуги, мобильные приложения дистанционного банковского обслуживания, финансовая инклюзивность, банковские кредиты и депозиты, пользователи дистанционных банковских услуг.

KIRISH

O‘zbekiston moliyaviy qo‘shilish bo‘yicha global alyansning May deklaratsiyasiga qo‘shilishi bilan bank tizimini va Markaziy bank faoliyatini isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri aholining sifati, moliyaviy inklyuziyasi va moliyaviy savodxonligini oshirish bo‘ldi. Jahon banki guruhining Xalqaro moliya korporatsiyasining so‘rovi doirasida O‘zbekiston Respublikasida bank va boshqa moliyaviy xizmatlarni ko‘rsatish sifati to‘g‘risida tahliliy hisobot tayyorlandi. O‘tkazilgan so‘rovni tahlil qilish asosida moliyaviy inklyuziyani baholash mezonlarining asosiy masalalari, moliyaviy inklyuzivning ayrim ko‘rsatkichlarining past darajadagi sabablari muhokama qilindi. Markaziy bank va tijorat banklari tomonidan raqamli texnologiyalarni qo‘llash orqali ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar to‘g‘risida tahliliy ma’lumotlar keltirilgan. Aholining moliyaviy imkoniyatlarini va moliyaviy savodxonligini oshirishning ahamiyati va o‘zaro bog‘liqligi ko‘rsatilgan. Tahlil natijalariga ko‘ra, bank sektori bilan cheklanib qolmasdan, moliyaviy inklyuzivlikni oshirish, shu jumladan, aholining bank bo‘lmagan kredit tashkilotlari, sug‘urta kompaniyalari operatsiyalarini rivojlantirish va qimmatli qog‘ozlar bozoridan foydalanishda ishtirokini kuchaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar taklif qilindi[1].

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki 2021-yil 29-oktyabrda moliyaviy inklyuzivlik ittifoqi (AFA) moliyaviy texnologiyalar sohasida ishlaydigan tashkilotlar uchun “Inklyuziv FinTech Showcase” tanlovini e’lon qiladi. Bunday turdagi ishlardan ko‘zlangan asosiy maqsad mamlakatda moliyaviy xizmatlar ommabopligini oshirish bilan birga ularning sifatini oshirishni ham taqozo qilmoqda.

1 Sh.Abdullayeva. Assessment criteria and ways to develop financial inclusion // Society and innovations. April 2021.

Xususan, quyidagi tanlov ham quyidagi mavjud muammolarga yechim topishga qaratilgan:

1 COVID-19 inqiroziga samarali javob berishni qo‘llab-quvvatlovchi yoki maqsadli guruhlarni (yosh tadbirkorlar, qishloq aholisi, nogironlar) tiklashga hissa qo‘shadigan yechimlar;

2. Raqamli to‘lovlarni takomillashtiruvchi yechimlar (raqamli o‘tkazmalar, to‘lovlar, transchegaraviy to‘lovlar);

3. Chidamlilikni, raqobatdoshlikni oshiradigan yechimlar (iqlim o‘zgarishiga moslashish va yumshatish, moliyaviy savodxonlik, raqamli moliyaviy savodxonlik, RegTech yoki SupTech).

2020-2025-yillarda bank tizimini isloh qilish bo‘yicha qabul qilingan strategiyaga muvofiq[2], maqsadli chora-tadbirlarni qabul qilish orqali moliyaviy xizmatlarning ommabopligi va sifatini oshirish, shuningdek, moliya bozorida raqobatni rivojlantirish, yagona moliya tizimining bir-birini to‘ldiruvchi qismi sifatida nobank kredit tashkilotlarini shakllantirish hamda tijorat banklari tomonidan ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini doimiy oshirib borish, bank xizmatlaridan aholining barcha qatlamlari foydalana olishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda banklar tomonidan moliyaviy xizmatlarni ko‘rsatishda aholining barcha qatlamlarini, tadbirkorlik subyektlarini keng qamrab olishda bir qator vazifalar belgilab olingan bo‘lib, bunday vazifalarning o‘z vaqtida va samarali joriy qilinishi tijorat banklari tomonidan ko‘rsatilayotgan moliyaviy xizmatlar sifatining oshishiga, shu bilan birga bank xizmatlari is’temolchilarining bank xizmatlaridan mamnunlik darajasining ko‘tarilishiga xizmat qiladi.

Hozirgi kunda quyidagi islohotlarni kechiktirmasdan bajarish zarur deb hisoblaymiz:

- banklarning yangi, shu jumladan, “raqamli banking” tamoyillariga asoslangan biznes-modellarini joriy qilish;
- bank xizmatlari ko‘rsatishning xalqaro sifat standartlarini qo‘llash;
- banklarning operatsion va kapital xarajatlarini optimallashtirish;
- kichik va o‘rta biznes subyektlariga ko‘rsatilayotgan xizmatlarning ko‘lami va sifatini, shu jumladan, tadbirkorlik subyektlariga axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda xizmat ko‘rsatish orqali oshirish;
- ipoteka bozorida aholining oshib borayotgan ehtiyojlarini qanoatlantiruvchi tegishli bank va nobank mahsulotlar turini kengaytirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish orqali shahar va qishloq joylarida ipotekani kreditlashni rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar qabul qilish.

MAVZUGA DOIR ADABIYOTLAR TAHLILI

Moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyati muammosi birinchi marta 1993-yilda geograflar E.Leyshon va N.Trift[3] tomonidan tilga olinib, moliyaviy xizmatlardan foydalanishda jismoniy cheklovlarni aniqlashgan. Bir qator fuqarolarning ayrim guruhlari bank va sug‘urta tashkilotlariga murojaat qilishda duch keladigan muammolar bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borishgan.

Peterson K. Ozili esa nima uchun moliyaviy inklyuziya shu qadar muhimligi haqida ilmiy izlanishlar olib borgan[4]. Peterson moliyaviy ommaboplik atamasini boshqa rivojlanish so‘zlariga nisbatan tahlil qilgan. U 2004-2022-yillarda mamlakatlar va shaharlarda rivojlanish tendensiyalari bo‘yicha ishlatilgan atamalar tahlini natijasida “moliyaviy ommaboplik” atamasi mashhurligi chunki u rivojlanishning boshqa muhim atamalari “mikromoliya”, “raqamli moliya”, “fintech” va “inklyuziv moliya” so‘zlari bilan bog‘liqligini o‘zgargan va rivojlanayotgan mamlakatlarda moliyaviy inklyuziya so‘zi rivojlangan mamlakatlarga qaraganda ko‘proq mashhur deb hisoblagan.

Moliyaviy ommaboplikning rivojlantirish masalalari mahalliy fanda nisbatan yangi tadqiqot sohasi. Moliyaviy inklyuzivlikni rivojlantirishning ayrim jihatlari Abdurahmonov K.X., Normuradov M.B., Boboxujayev Sh.I., Hamidulin M.B., shuningdek, boshqa xorijiy olimlar Staxovich L. V., Galishnikova E.V. Ageeva N. A., Alekseeva D.G., Andreeva I.A., Kalacheva E.A., Kiriyenko E.A., Paraxina L. V., Lavrushina O.I tomonidan tadqiq qilingan.

2 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–5992-sonli “2020-2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. 2020-yil 12-mayda. lex.uz›ru/docs/-4811025

3 Andrew Leyshon, Dawn Burton, David Knights Towards an Ecology of Retail Financial Services: Understanding the Persistence of Door-to-Door Credit and Insurance Providers//Environment and Planning A: Economy and Space // April 1, 2004 Research Article https://doi.org/10.1068/a3677.

4 Peterson K. Ozili. // Why is financial inclusion so popular? An analysis of development buzzwords // Journal of International Development. 13 July 2023. https://doi.org/10.1002/jid.3812

Moliyaviy inklyuzivlik masalalari 2017-yilda mamlakatimiz moliyaviy inklyuzivlik bo‘yicha global alyansga qo‘shilganidan va May deklaratsiyasiga qo‘shilganidan so‘ng, ayniqsa, dolzarb bo‘lib qoldi. Ayni paytda Jahon banki bilan hamkorlikda moliyaviy inklyuzivlikni va xizmatlar sifatini oshirish bo‘yicha strategiya ishlab chiqilgan. Xalqaro nazariya va amaliyotda moliyaviy xizmatlarning asosiy turlari bank xizmatlari; sug‘urta xizmati; qimmatli qog‘ozlar bozorida xizmat ko‘rsatish; lizing shartnomasi bo‘yicha xizmat ko‘rsatish; moliyaviy institutlar tomonidan taqdim etiladigan xizmatlar, shuningdek, yuridik va jismoniy shaxslarning mablag‘larini jalb qilish va joylashtirish bilan bog‘liq xizmatlar hisoblanadi. Jahon amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, aholining moliyaviy xizmatlardan foydalanish darajasini baholash quyidagi manbalardan olingan ma’lumotlar asosida amalga oshiriladi: “fuqarolarning ayrim guruhlari (uy xo‘jaliklari, emigrantlar, ayollar, yoshlar, yakka tartibdagi tadbirkorlar, va boshqalar) o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovlar; moliya institutlari faoliyatini tartibga soluvchi organlar tomonidan o‘tkazilgan so‘rovlar ma’lumotlari; fuqarolar, moliya institutlari va nazorat qiluvchi organlar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovlardan olingan umumiy ma’lumotlar”[5].

TADQIQOT METODOLIGIYASI

Ilmiy maqolani yozish jaroyonida abstraktsiyalash, guruhlash, qiyoslash, retrospektiv va istiqbolli, empirik tahlil va boshqa uslublardan foydalanildi. Maqolada qiyosiy taqqoslash usulida jahon amaliyotida tijorat banklarining xizmatlar bozori, iste’molchiga turli xil mahsulotlar va xizmatlar ko‘rsatiladigan bir nechta platformalar samaradorligini oshirishda xizmat ko‘rsatish tizimlari asoslarini mamlakatimizdagi mavjud asoslar bilan taqqoslab, tegishli xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning yangi bosqichida makroiqtisodiy barqarorlikning muhim omillaridan biri bank tizimi mustahkamligi ekanligini inobatga olgan holda bu borada amalga oshirilgan ishlar va istiqbolli rejalarga ham to‘xtalsak.

Tijorat banklari xizmatlarining miqdoriy tavsifi xizmatlar soni, ularning ko‘lami va doirasi bilan belgilansa, bank xizmatlarining sifat tavsifi xizmatlar sifati, tezkorligi va aniq manzilli amalga oshirilishi, bu xizmatlardan mijozlarning qanoatlanish darajasi bilan ifodalanadi. Tijorat banklari xizmatlarining miqdor va sifat tavsifi hamda uning samaradorligi ular tomonidan baholash sohasida olib borilayotgan siyosat bilan uzviy bog‘liqdir.

Masofaviy bank xizmatlari ko‘rsatishni bankomat va infokiosklarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Foydalanish sodda bo‘lgan ushbu uskunalar bugungi kunda mijoz va kassir o‘rtasidagi an’anaviy muomalaga chek qo‘yib, o‘ziga xos minibank ofisi vazifasini o‘tamoqda. Hozirgi paytda bankomatlardan nafaqat naqd pul yechib olish, xorijiy valyutani almashtirish, bank plastik kartalariga mablag‘ qo‘yish, balki ular orqali tovar va xizmatlar bo‘yicha turli to‘lovlarni amalga oshirish mumkin. Shuni qayd etish o‘rinliki, mijozlar istalgan bankning bankomat va infokiosklaridan foydalana oladilar.



1-rasm: Respublika tijorat banklari tomonidan o‘rnatilgan bankomat va infokiosklar soni dinamikasi (dona)[6]

5 Нормурадов М.Б. Финансовая доступность – на повестке дня Центрального банка Узбекистана. URL:https://www.afi-global.org/newsroom/blogs/financialinclusion-on-the-agenda-of-the-central-bank-of-uzbekistan/.

6 O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma’lumotlari asosida tayyorlandi.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

1-rasmdan ko‘rinib turibdiki, tijorat banklari tomonidan o‘rnatilgan bankomat va infokiosklar soni 2018-yil yanvar oyidan 2022-yil dekabr oyigacha ko‘payib borgan. Ushbu davrda o‘rnatilgan bankomat va infokiosklar soni 20 379 taga, har yilda o‘rtacha 4 076 taga oshib borgan. Ushbu tendensiya keyingi oylarda ham saqlanib tursa, aholiga ko‘rsatilayotgan xizmatlarning hajmi ham oshadi.

Hozirgi kunda tijorat banklari aholiga qulaylik yaratish va zamonaviy xizmatlar ko‘lamini kengaytirish maqsadida 24/7-ejimida, kecha-yu kunduz uzluksiz xizmat ko‘rsatadigan o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish uchun mo‘ljallangan raqamlashtirilgan bank xizmatlari markazlari tashkil qilinib, foydalanishga topshirib kelmoqda. Bunday markazlar zamonaviy bank xizmatlarini ko‘rsatuvchi bankomatlar, infokiosk, infomonitor va “Internet-banking” xizmatidan foydalanuvchi yuridik shaxslar, shu jumladan, yakka tartibdagi tadbirkorlarga xizmat ko‘rsatuvchi klaviaturali infokiosk qurilmalari bilan jihozlanmoqda. 24/7 rejimida ishlaydigan mazkur shoxobchalarning ko‘payishi bankomat va infokiosklar sonining oshishiga olib kelmoqda.

Xulosa qilib aytganda, tijorat banklarining xizmatlari tobora kengayib, sifati yaxshilanib bormoqda, ular orasida yangi istiqbolli mijozlarni jalb qilish uchun raqobat sezilarli darajada kuchaydi. Banklar tomonidan keng ko‘lamli xizmatlar ko‘rsatilishi, bankning mijoz uchun ishlashi bugungi kun talabidir.

Mamlakatimiz bank tizimida zamonaviy bank xizmatlari joriy qilinib, banklar tomonidan aholi va tadbirkorlik subyektlariga sifatli xizmatlar ko‘rsatilib kelinmoqda. Xususan, biznesni rivojlantirish banki “QUANT” mobil tizimiga kirish orqali mijozlar o‘zlariga tegishli bo‘lgan depozit hisoblarida bir necha xil bank operatsiyalarini amalga oshirish, valyutani online sotib olish, internet kartalar va hisoblarni masafadan boshqarish imkoniga ega bo‘lishgan. Dastlab bu xizmatdan faqat yuridik shaxs maqomidagi mijozlar foydalangan bo‘lsa, bugungi kunga kelib, jismoniy shaxslar ham bu xizmatdan keng foydalanmoqda. Misol uchun “Biznesni rivojlantirish banki” ATBda 2021-yil yakunlari bo‘yicha 77 ta xalqaro pul o‘tkazmalari offislari, 250 ta bankomat, 53 ta bank xizmatlari markazlari, 124 ta xizmat turlari, 20 974 ta terminallar o‘rnatilgan bo‘lib, 2019-yil 1-yanvar holati 141865 ta mijozlar bu xizmat turidan faol foydalanayotganini qayd etish mumkin.

So‘ngra “O‘zsanoatqurilishbank” aktsiyadorlik jamiyati yangi xizmatni mijozlariga taklif etgan holda o‘z veb saytida joylashtirgan bo‘lsa, biroz vaqt o‘tgach O‘zbekiston Respublikasi AT Xalq banki ham masofaviy bank xizmatini mijozlariga taklif qildi. Bu esa bank mijozlarining bu kabi xizmat turiga ehtiyoji ortib borayotganligidan dalolat beradi. Jumladan, “O‘zsanoaqurilishbank” tomonidan mijozlarga qulaylik yaratish maqsadida omonatlarni masofadan boshqarish, “JOYDA” mobil ilovasi, yashil moliyalashtirish xizmatlari, shuningdek, kichik biznes sub’yektlari uchun yangi internet-banking SQB Business dasturlari ishlab chiqilgan.

Xususan, Bank g‘aznachilik faoliyati xalqaro standartlarga muvofiqlashtirildi, aktiv va passivlar, likvidlik va kapitalni boshqarishning yangi tizimi yaratildi, filial transformatsiyasi metodologiyasi asosida filial tarmoqlari faoliyatida tub islohotlar amalga oshirildi, risklarni boshqarish segmenti takomillashtirildi, “WAY4” texnologiyasi asosidagi protsessing markazining ishga tushirilishi natijasida multivalyuta, xalqaro va kredit kartalari bo‘yicha xizmatlar yo‘lga qo‘yildi.



2-rasm: Masofadan bank xizmatlarini qo‘rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilarning soni (1-yanvar holatiga)[7]

Natijada, 2022-yilda bank umumiy kapitali 8,9 foizga oshib, 7,6 trln. so‘mga, aktivlari 13,4 foizga ortib, 63,2 trln. so‘mga, kredit qo‘yilmalari 13,8 foizga o‘sib, 48,4 trln. so‘mga yetdi. 2022-yilda daromad keltirmay-

7 O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma’lumotlari.

digan kreditlar bo‘yicha qarzlarini undirish va kreditlarni bozor tamoyillari asosida ajratish hisobiga foizli marja stavkasi 5,2 foizdan 5,4 foizga ko‘tarildi. Jami 5,1 trln. so‘m hajmida daromad olinib, ushbu ko‘rsatkich taqqoslanayotgan davrga nisbatan 21,8 foizga ortdi. Sof foyda 620,6 mlrd. so‘mni tashkil qildi. Bank depozit bazasi avvalgi yilga nisbatan 13 foizga ortib, 15,3 trln. so‘mni tashkil etdi. Faol mijozlar soni qariyb 20 foizga ko‘payib, 1 mln. 143 mingtani tashkil qildi. Mijozlarning bankka sodiqlik darajasi (NPS) korporativ biznes yo‘nalishida 65 foizdan 68 foizga, kichik va o‘rta biznes sohasida 57 foizdan 64 foizga, chakana biznesda 48 foizdan 68 foizga o‘sdi. Xodimlarning noroziligi darajasi 10,3 foizdan 6,4 foizga kamaydi[8].

Mamlakatimiz bank tizimining rivojlanishida albatta elektron to‘lov tizimining rivojlanishi muhim o‘rin egallaydi. Bugungi kunda tijorat banklari tomonidan aholiga “Bank-mijoz” dasturi, mobil banking, internet banking, SMS banking va tashqi o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatuvchi qurilmalardan ya’ni, bankomat, infokiosk va terminallar kabi masofadan boshqariluvchi xizmat turlari ko‘rsatilib kelinmoqda. Ushbu xizmat turlaridan foydalanuvchilar soni ham yildan yilga ortmoqda.

Yuqoridagi ma’lumotlariga ko‘ra, respublikamizda masofadan bank xizmatlarini ko‘rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilarning soni 2012-yilda 56 735 tani tashkil etgan bo‘lsa, 2015-yilda 534 800 tani, 2018-yilga kelib 4 453 240 tani, 2021-yilda esa 14 571 094 tani va 2022-yilda 20 203 384 tani tashkil etgan.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bank boshqaruvining 2010-yil 23-oktyabrdagi 34/8-sonli Qarori bilan tasdiqlangan “Bank hisobvaraqlariga masofadan xizmat ko‘rsatish tizimlarida ishlash tartibi to‘g‘risida”gi Nizomi tijorat banklarida bank hisobvaraqlariga masofadan xizmat ko‘rsatish tizimi orqali bank mijozlari bankning aloqa kanallari orqali axborot almashinuvi ya’ni banklar masofadan bank xizmatlari taklif etishda muhim ahamiyat kasb etdi.

XULOSA

O‘zbekistonda tijorat banklar tomonidan ko‘rsatilayotgan moliyaviy xizmatlar sifatini oshirish va tadbirkorlik subyektlarini bazaviy bank xizmatlar bilan qamrob olish darajasini oshirishda bir qator masalalarga yechim topish zarur. Shundan kelib chiqib moliyaviy ommaboplikni oshirish uchun quyidagilar taklif etiladi:

- tijorat banklari tomonidan taklif etilayotgan xizmatlar qamrovini kengaytirish imkoniyatiga ega mobil ilovalari faoliyatini yanada takomillashtirish;
- tijorat banklari xizmat ko‘rsatish tizimini tubdan yaxshilash maqsadida kredit liniyalari bo‘yicha jismoniy va xususiy tadbirkorlik subyektlariga kreditlar berishda katalizator bo‘lishi mumkin bo‘lgan qo‘shma kredit mahsulotlarini yaratish hisobiga mikrokreditlash hajmini kengaytirish;
- moliyaviy savodxonlikni oshirishda innovatsion yondashuvlarni joriy etish, xususan banklarda amalga oshirilayotgan xizmatlarni va investitsiya portfelini shakllantirish uchun mobil o‘yin ilovalarini yaratish;
- raqamli banklardan foydalanishga asoslangan aralash moliyaviy mahsulotlarni yaratish, jumladan, sug‘urta xizmatlari, elektron tijorat, qimmatli qog‘ozlar bozori va boshqalar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Указ Президента Республики Узбекистан “О Стратегии реформирования банковской системы Республики Узбекистан на 2020–2025 годы” №УП–5992 от 12.05.2020
2. Постановление Президента Республики Узбекистан “О дополнительных мерах по повышению доступности банковских услуг” от 23 марта 2018 г. №ПП–3620.
3. Постановление Президента Республики Узбекистан “О мерах по повышению доступности микрофинансовых услуг”.–№440 от 23.07.2019 г.
4. Абдурахманов К.Х., Абдуллаева Ш.Р. Банковская система Узбекистана: новые реалии и приоритеты// Правда Востока от 11 апреля 2018 г.
5. Глобальный альянс за финансовую доступность. URL:https://www.afiglobal.org/wp-content/uploads/publications/2016-11/FS-AFI%20Value-A5-digitalRUS.pdf
6. Калачева Е.А., Кириенко Е.А. Понятие финансовой доступности и критерии ее оценки // Вестник НГУЭУ. 2018. №1. URL: https://cyberleninka.ru/article/ n/ponyatie-finansovoy-dostupnosti-i-kriterii-ee-otsenki. Жамият ва инновациялар – Общество и инновации – Society and innovations Issue – 2 № 3 (2021) / ISSN 2181-1415 55
7. Национальная стратегия повышения финансовой грамотности 2017– 2023 годы https://www.minfin.ru/common/gen_html/?id=118377&fld= HTML_MAIN.
8. Нормурадов М.Б. Финансовая доступность – на повестке дня Центрального банка Узбекистана. URL:https://www.afi-global.org/newsroom/blogs/financialinclusion-on-the-agenda-of-the-central-bank-of-uzbekistan/.
9. Отчет Международной финансовой корпорации Группы Всемирного банка “Повышение финансовой компетентности и финансовой доступности в Узбекистане”, июль, 2020. – С. 7.
10. Стахович Л.В., Галишникова Е.В. Оценка доступности финансовых услуг для населения в России и мире URL: https://nifi.ru/images/FILES/Journal/ Archive/2012/4/statii/2012_04_13.pdf

8 “O‘zsanoatqurilishbank” ATB yillik hisobot materiallari. 2022

OLIY TA'LIM MUASSASALARINING IQTISODIY SAMARADORLIKNING RAQOBATBARDOSHLIGINI INSTITUTTSIONAL TAHLIL QILISH MEXANIZMI

Saydullayeva Saodat Abdumajidovna
Toshkent Xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada oliy ta'limga investitsiya qilishning maqsadga muvofiqligining eng aniq mezoni hisoblangan xarajatlar va foydaning diskontlangan qiymatlari o'rtasidagi farq, oliy ma'lumotli xodimlar uchun yuqori ish haqi natijasida olingan diskontlangan pul oqimi va uni sotib olish uchun o'rtacha xarajatlarni taqqoslash hamda oliy ta'lim bitiruvchisining ishsizligi tufayli erishilmagan YaIM bilan bog'liq yo'qotishlarni e'tiborga olgan holda, oliy ta'lim va iqtisodiyotning raqobatbardoshligi o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklar o'rganilgan. Shuningdek, o'zaro bog'liqlikni tekshirish uchun biz rivojlangan davlatlarning o'z ichiga olgan namunadan foydalanilgan. Bundan tashqari, oliy ta'lim tizimida iqtisodiy samaradorligini oshirishni iqtisodiy-statistik usullarda ilmiy tadqiq etish, jarayonni ekonometrik modellashtirish hamda oliy ta'lim tizimida iqtisodiy samaradorligini oshirishga ta'sir etuvchi omillarni baholash mexanizmi ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim tizimi, iqtisodiyotning raqobatbardoshligi, samaradorlik ko'rsatkichlari, jahon ta'lim siyosati, oliy ta'limning rivojlanish ko'rsatkichlari, ekonometrik modellashtirish, model, raqobatbardoshligini institutsional tahlil qilish mexanizmi.

Abstract: In the article, the most obvious criterion for the advisability of investing in higher education is the difference between the discounted values of estimated costs and benefits, the discounted cash flow resulting from increased wages of employees with higher education, and a comparison of the average cost of its acquisition and above. The relationship between higher education and economic competitiveness is examined, taking into account the loss of unearned GDP due to graduate unemployment. We also used a sample of developed countries to examine correlations. In addition, a mechanism has been developed for scientific research into increasing economic efficiency in the higher education system using economic and statistical methods, econometric modeling of the process and assessment of factors influencing the increase in economic efficiency in the higher education system.

Key words: higher education system, economic competitiveness, efficiency indicators, world education policy, higher education development indicators, econometric modeling, model, mechanism of institutional analysis of competitiveness.

Аннотация: В статье наиболее очевидным критерием целесообразности инвестирования в высшее образование является разница между дисконтированными значениями расчетных затрат и выгод, дисконтированным денежным потоком, возникающим в результате повышения заработной платы работников с высшим образованием, и сравнением средняя стоимость его приобретения и выше. Исследуется связь между высшим образованием и экономической конкурентоспособностью с учетом потерь незаработанного ВВП из-за безработицы выпускников. Мы также использовали выборку развитых стран для изучения корреляций. Кроме того, разработан механизм научного исследования повышения экономической эффективности в системе высшего образования с использованием экономико-статистических методов, эконометрического моделирования процесса и оценки факторов, влияющих на повышение экономической эффективности в системе высшего образования.

Ключевые слова: система высшего образования, конкурентоспособность экономики, показатели эффективности, мировая образовательная политика, показатели развития высшего образования, эконометрическое моделирование, модель, механизм институционального анализа конкурентоспособности.

KIRISH

Iqtisodiy faoliyatning tabiiy resurslarni saqlash va ulardan oqilona foydalanish, va yaxshilash bilan mos kelishini nazarda tutuvchi barqaror rivojlanishga faqat yangi texnologik yechimlarni joriy etish orqali erishib bo‘lmaydi. Barqaror rivojlanishga yo‘naltirilgan ta’limning maqsadi boshlang‘ich, o‘rta va oliy ta’lim olish imkoniyatlarini yaxshilash, shuningdek, odamlarga bugun, balki kelajakda ham zarur bo‘lgan xulq-atvori, ko‘nikma va bilimlarini rivojlantirishga ko‘maklashishdir.

Oliy ta’lim tizimida ta’lim xizmatlarining asosiy yetkazib beruvchilari ta’lim bozorida taklif yaratadigan davlat va nodavlat oliy ta’lim muassasalaridir. Ta’lim oladigan va ta’lim xizmatlariga haq to‘layotgan shaxslar talabni keltirib chiqaradi. Hukumat ushbu zanjirning asosiy elementi bo‘lib qolmoqda [1]. Buning sababi shundaki, ta’lim muassasalari xalqaro talabalarni jalb qilish va yollash, sifatni oshirish tashabbuslari bilan bir qatorda muammolarga duch kelishmoqda. Aksariyat muassasalarda byudjet bilan bog‘liq muammolar mavjud bo‘lib, ular texnik yechimlarni tanlashni cheklaydi [2]. Shuning uchun ta’lim bozorining rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarni o‘rganish, muammo keltirib chiqaruvchi jarayonlarni oldindan ko‘ra bilish, oliy ta’lim tizimida o‘quv jarayonlari samaradorligini oshirishga qaratilgan tegishli boshqaruv qarorlari bilan tartibga solinadigan modellarni ishlab chiqishni taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” [3] PF-5847-sonli Farmonida O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta’limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish bo‘yicha: oliy ta’lim tizimida kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish va pedagoglarning ilmiy-innovatsion faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha ishlarni mazmunli va maqsadli tashkil etish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish, oliy ta’lim muassasalari faoliyati samaradorligini baholash va takomillashtirish bo‘yicha ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish asosida ularni respublika oliy ta’lim muassasalari sharoitida qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish kabi ustuvor vazifalarni belgilanganligi mazkur tadqiqotning dolzarb masalaga qaratilganligidan dalolat beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Oliy ta’lim tizimi faoliyatining fundamental oliy ta’lim xizmatlarining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish, ularni ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilar o‘rtasidagi munosabatlarni tahlil qilish tadqiqotlari bo‘yicha taniqli xorijiy olimlar, jumladan, N.Varghese, L.Buchert [4], O.O. Gokun [5], P.Klaus [6] va boshqalar nazariy tadqiqot olib borganlar.

Ta’lim tizimida xizmatlar va innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish muammolari bo‘yicha mahalliy iqtisodchi olimlardan A.Vaxabov, E.Imamov[7], Z.Qo‘ziev [8], X.Abdukarimov[9], N.Zaripova[10] va boshqalarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida Oliy ta’lim samaradorligini empirik tahlil qilish metodologiyasiga ko‘ra, inson kapitalining ta’lim komponentiga investitsiyalar agar kelajakdagi daromadning joriy qiymati xarajatlardan katta yoki teng bo‘lsa, oqlanadi. Shuning uchun, har qanday boshqa investitsiya loyihasi singari, oliy ta’limga investitsiya qilishning maqsadga muvofiqligining eng aniq mezoni hisoblangan xarajatlar va foydaning diskontlangan qiymatlari o‘rtasidagi farq sifatida sof joriy qiymat (NPV) formula bo‘yicha hisoblanadi [12]:

$$NPV = \sum_{t=0}^{n} \frac{B_t}{(1+r)^t} - \sum_{t=0}^{n} \frac{C_t}{(1+r)^t} \quad (1)$$

bu erda NPV – sof joriy qiymat;

B_t – t davrida inson kapitaliga investitsiyalar bo‘yicha daromad;

C_t – t davridagi xarajatlar miqdori;

n – davrlar soni;

r – foiz stavkasi yoki diskont stavkasi. Agar oliy ta’limga qilingan investitsiyalardan olingan daromadning joriy qiymati joriy xarajatlardan oshsa yoki hech bo‘lmaganda unga teng bo‘lsa, ya’ni NPV ≥ 0 dan yuqori bo‘lsa, bunday xarajatlar samarali deb ta’kidlash mumkin. A.Skripnik va I.Oborska [13] jahon mamlakatlari oliy ta’lim muassasalari iqtisodiy samaradorligini qiyosiy tahlil qilishda yuqorida bayon qilingan uslubiy yondashuvni qo‘llagan mahalliy tadqiqotchilardandir. Oliy ma’lumotli xodimlar uchun yuqori ish haqi natijasida olingan diskontlangan pul oqimi va uni sotib olish uchun o‘rtacha xarajatlarni taqqoslash asosida quyidagi formulani tavsiya etish mumkin:

$$S = \frac{D_{\Delta}^{i}}{O_{x}^{i}} = \frac{\Delta_{k}^{i}}{O_{x}^{i} * r_{d}^{i}} = \frac{(I_{x}^{i} - I_{nx}^{i})}{O_{x}^{i} * r_{d}^{i}} \quad (2)$$

bu yerda S – mamlakatdagi oliy ta'lim samaradorligi va oliy ma'lumot olish uchun o'rtacha yillik xarajatlar birligiga hisoblangan;

I_x^i – mamlakatdagi oliy ma'lumotli va ma'lumotsiz xodimlarga tegishli o'rtacha oylik ish haqi;

D_{Δ}^{i} – i mamlakatda yuqori malakali mehnatga haq to'lash natijasida olingan diskontlangan pul oqimi;

O_x^i – i mamlakatda oliy ta'limga o'rtacha yillik xarajatlar;

r_d^i – i mamlakatdagi chegirma stavkasi

Makrodarajada mintaqaviy yoki milliy miqyosda faoliyat samaradorligining pasayishi natijasida oliy ta'lim muassasalarining salohiyatini yo'qotish ko'rsatkichlari quyidagilar bo'lishi mumkin:

- oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining ishsizligi, shu jumladan, oliy ma'lumotli shaxslarning uzoq muddatli ishsizligi;
- oliy ma'lumotga ega bo'lgan shaxslarning o'z mutaxassisligi bo'yicha yoki oliy ma'lumot talab qilmaydigan lavozim va ish joylarida bandligi;
- potensial oliy ta'lim bitiruvchilari, shuningdek, oliy ma'lumotli shaxslarning chet elga migratsiyasi. Bu borada L.Galkiv tizimlashtirilgan inson kapitali yo'qotishlarini aniqlash va baholashning uslubiy yondashuvlari asosida[14] oliy ta'lim bitiruvchilarining ishsizligi bilan bog'liq yo'qotishlarning uchta asosiy turini ajratib ko'rsatadi:

1) oliy ma'lumot olgandan keyin ishsiz maqomini olgan mutaxassislarni tayyorlash uchun oliy ta'lim yo'qotishlari;
2) oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilariga ishsizlik nafaqalarini to'lash bilan bog'liq yo'qotishlar;
3) oliy ta'lim bitiruvchisining ishsizligi tufayli erishilmagan YaIM (mintaqaviy miqyosdagi YaIM) bilan bog'liq yo'qotishlar. Bunday baholashning analitik shakli quyidagicha ko'rinadi:

$$IYI_{om} = \frac{I_{om} * t_{Iom}}{12} * (YX_{1T} + YX_{IN} + YIM_{IB}) \quad (3)$$

bu yerda, IYI_{om} – yil davomida ishsizlik davomiyligi bo'yicha Oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining ishsizligidan jami o'rtacha yillik iqtisodiy yo'qotishlar;

I_{om} – oliy o'quv yurtlari bitiruvchilari orasidagi bandlik xizmati ma'lumotlariga ko'ra ro'yxatga olingan oliy ma'lumotli ishsizlar soni;

t_{Iom} – t vaqt mobaynidagi ishsizlikning o'rtacha davomiyligi;

YX_{1T} – bir talaba uchun oliy ta'lim olish uchun o'rtacha yillik xarajatlar;

YX_{IN} – ishsiz kishiga ishsizlik nafaqasi uchun o'rtacha yillik xarajatlar;

YIM_{IB} – iqtisodiyotda band aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaIM.

Ushbu tadqiqot ishida tadqiqot metodologiyasida belgilangan Oliy ta'lim muassasalari iqtisodiy samaradorligi mezoniga ko'ra dunyo davlatlarining va O'zbekiston Respublikasi ta'limiga sarflangan mablag'lar samaradorligini raqobatbardosh pozitsiyalari baholanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy iqtisodiyotda oliy o'quv yurtlariga turli sohalardagi iqtisodiy samaradorlikka erishish uchun asosiy vazifa bo'lmoqda. Turli mamlakatlarning ta'lim tizimlarining raqobatbardoshligi sohasidagi tadqiqotlar milliy ta'lim tizimining raqobatbardoshligini oshirishdan asosiy maqsad mamlakat raqobatbardoshligini oshirish ekanligini ko'rsatdi Ushbu maqsadga erishish yo'llari har xil. Mamlakatlar inson kapitalini rivojlantirish, xalqaro talabalarni o'z oliy ta'lim muassasalariga jalb etish, fanni rivojlantirish va innovatsiyalarni rag'batlantirish yoki bu omillarning barchasini birlashtirish orqali raqobatbardoshligini oshiradi. Inson kapitalining rivojlanishi nafaqat turmush darajasini oshirishga, balki iqtisodiy samaradorlikni, mehnat unumdorligini oshirishga, investitsiyalar uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishga olib keladi.

Xalqaro talabalar oqimini jalb qilish, milliy ta'lim tizimlari nafaqat jamiyatni xalqaro miqyosda, balki mamlakatlar va ularning iqtisodlarini investitsiyalar uchun, ayniqsa, vatan va qabul qiluvchi mamlakat madaniyati bilan tanish bo'lgan milliy oliy o'quv yurtlarining xalqaro bitiruvchilari uchun yanada ochiq qiladi. Iqtisodiy nuqtayi nazardan, innovatsion iqtisodiyot sharoitida rivojlanish uchun fan, ta'lim va biznesning integratsiyasi zarur. Eng keng tarqalgan va uslubiy jihatdan ishlab chiqilgan oliy ta'limning iqtisodiy samaradorligini tahlil qilishning birinchi yo'nalishi bo'lib, u inson kapitaliga investitsiyalardan iqtisodiy foyda ko'rsatkichlariga asoslanadi. Aynan inson kapitali nazariyasida ta'limning shaxs daromadlariga, iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga, iqtisodiy va ijtimoiy tengsizlikka ta'siri tahlil qilinadi.

Shu ma'noda AQSh kolleji bitiruvchilari va kollejni bitirmaganlarning daromadlari, uni olish bilan bog'liq to'g'ridan-to'g'ri xarajatlar (ta'lim to'lovi, xona, ovqat va h.k.) va o'qish davomida olinishi mumkin bo'lgan muqobil daromadlar haqidagi empirik ma'lumotlarni taqqoslash asosida Amerikalik iqtisodchi, Nobel mukofoti laureati Gari Bekker birinchilardan bo'lib oliy ta'limga individual investitsiyalarning maqsadga muvofiqligi va samaradorligini tahlil qildi [11].

Yuqorida tadqiqot metodologiyasida keltirilgan (2)-formuladan foydalangan holda Oliy ta'lim muassasalari iqtisodiy samaradorligi mezoniga ko'ra dunyoning 10 ta davlatining raqobatbardosh pozitsiyalari baholangan bo'lib quyidagi natijalar aniqlangan (1-rasm).



1-rasm: Rivojlangan davlatlarda oliy ta'lim xarajatlari birligiga diskontlangan pul oqimi

Raqamlardan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston Respublikasi ta'limiga sarflangan mablag'lar samaradorligi bo'yicha rivojlangan davlatlardan o'rtacha yigirma barobar orqada ekanligini anglash mumkin. O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limga sarflanadigan xarajatlarning past samaradorligi omillari bo'yicha olib borgan tadqiqotlari natijalariga ko'ra, boshqa mamlakatlarga qaraganda, malakali va malakasiz ishchilarning ish haqi o'rtasidagi farqning sezilarli darajada pastligi, shuningdek, yuqori darajadagi diskont stavkasi bu ta'limga xarajatlarning iqtisodiy samaradorligiga salbiy ta'sir qiladi.

Inson kapitali nazariyasini to'ldiruvchisi filtr nazariyasi deb ataladi. Ushbu nazariyaga ko'ra, ta'lim odamlarni faqat qobiliyatlari bo'yicha "saralash" mexanizmi bo'lib, yuqori daromadlarning asosiy omili oliy ma'lumot diplomining mavjudligi emas, balki insonning shaxsiy qobiliyatlari, bu ta'lim rivojlanishiga yordam beradi. Biroq inson kapitali nazariyasi bo'yicha bir qator tanqidiy sharhlarga qaramay uning asoschilari va vakillarining mehnati tufayli ko'plab mamlakatlar hukumatlarining iqtisodiy siyosatida oliy ta'limga investitsiyalar samaradorligini oshirish hamda fuqarolarning individual xatti-harakatlarida sezilarli o'zgarishlar yuz berdi.

Iqtisodiy tabiatning aniq afzalliklari (birinchi navbatda, xarajatlar va foydani baholash) bilan bir qatorda, "xarajat-foyda" usuliga asoslangan oliy ta'lim samaradorligini tahlil qilish konsepsiyasi uni qo'llashda bir qator cheklovlarga ega. Ular yuqori daromadlar nafaqat insonning oliy ma'lumoti, balki uning ijtimoiy kapitali darajasi, uy xo'jaligi farovonligi, mehnat bozoridagi turli xil kasblarga bo'lgan talabning holati rasmiy va norasmiy bandlik sohasida turli darajadagi ta'limga ega bo'lgan aholi daromadlari to'g'risidagi ma'lumotlarning ishonchliligi bilan bog'liq. Shu sababli oliy ta'lim muassasalarining iqtisodiy samaradorligini tahlil qilishda quyidagilarni hisobga olish muhim:

- birinchi navbatda, ichki (shaxsiy) va tashqi (iqtisodiyot holati, mehnat bozorida yuqori malakaga ega bo'lgan shaxslarga bo'lgan talab, mehnat bozoridagi tabaqalanish) ta'siri. Ta'lim darajasiga qarab (ish haqi va boshqalar) oliy ta'limdan olinadigan iqtisodiy samaralarni kuchaytiruvchi yoki zaiflashtiruvchi, shuningdek, oliy ta'lim xarajatlari ta'sirining kechikish xususiyatini va ularning iqtisodiy rentabelligini belgilovchi omillar;
- ikkinchidan, shaxs (yaxshi mehnat sharoitlari, kasb nufuzi, ma'lum ijtimoiy mavqega erishish va boshqalar)da ham, jamiyat darajasida ham (o'rtacha umr ko'rishning o'sishi, o'rtacha umr ko'rishning qisqarishi) bilvosita moddiy va nomoddiy, ya'ni kasallanish, ijtimoiy ta'minot va boshqa manfaatlarning mavjudligi;

- uchinchidan, oliy ta’limga investitsiyalar bo‘yicha xarajatlar va foydalarni (individual va davlat) baholashning turli darajalari, shuningdek, oliy ta’lim manfaatdor tomonlarining turli guruhlari manfaatlarini tabaqalanishi. Mavjud ta’lim tahlili asosida O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim samaradorligini baholash uchun uslubiy asoslarini shakllantirishga harakat qilamiz.

Iqtisodiy samaradorlik toifasining murakkab xususiyatini va oliy ta’lim muassasalari faoliyatining turli darajadagi samaradorligini hisobga olgan holda, oliy ta’lim muassasalari faoliyati samaradorligini tejamkorlik, mahsuldorlik va samaradorlik mezonlari bo‘yicha tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Agar dastlabki ikkita mezon resurslardan oqilona foydalanish (ishlab chiqmaydigan xarajatlarni kamaytirish) va kutilayotgan samarani maksimal darajada oshirish (masalan, bandlik, daromad, innovatsion faoliyat va boshqalar darajasini oshirish) maqsadlari bilan bog‘liq bo‘lsa, u holda samaradorlikni tahlil qilish oliy ma’lumot asosida olingan natijalarning individual va ijtimoiy ehtiyojlarga muvofiqligini baholashni o‘z ichiga oladi.

O‘zbekiston Respublikasining bandlik va ishsizlik bo‘yicha statistikasida oliy o‘quv yurtlari bitiruvchilari orasida ishsizlar soni to‘g‘risida ma’lumot yo‘qligi va ishsizlik nafaqalari faqat ro‘yxatdan o‘tgan shaxslarga taqdim etilishini hisobga olgan holda, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’limida olib borilgan iqtisodiy tahlil masalalari bo‘yicha xalqaro, milliy va xorijiy tajribani umumlashtirish iqtisodiy samaradorlik mezoni bo‘yicha oliy ta’lim muassasalarining raqobatbardoshligini institutsional tahlil qilishning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat bo‘lishi kerak, degan xulosaga kelishga asos bo‘ladi (2-rasm).



2-rasm: Iqtisodiy samaradorlik mezoni bo‘yicha oliy ta’lim muassasalarining raqobatbardoshligini institutsional tahlil qilish mexanizmi

2-rasmda keltirilgan iqtisodiy samaradorlik mezoni bo‘yicha oliy ta’lim muassasalarining raqobatbardoshligini institutsional tahlil qilish mexanizmi bo‘yicha ketma-ketlikka izoh beradigan bo‘lsak, birinchidan, Oliy ta’lim muassasalarida daromadlarning mutlaq qiymati va tarkibi bo‘yicha quyidagicha belgilanadi:

1) moliyalashtirish manbalari/muassasalari, ya’ni markaziy va mahalliy byudjetlar, yuridik va jismoniy shaxslar, jamoat tashkilotlari va jamg‘armalari mablag‘lari, shu jumladan, xayriya mablag‘lari;
2) oliy kasb-hunar ta’limi va kadrlar tayyorlashni rivojlantirish uchun kreditlar;
3) grantlar va xalqaro tashkilotlarning mablag‘lari;
4) oliy ta’lim muassasalarining faoliyat turlari/funksiyalari, ya’ni davlat tomonidan tartibga solinadigan oliy ta’lim muassasalarining ta’lim xizmatlari, ilmiy faoliyati, xo‘jalik faoliyatidan olinadigan mablag‘lar. Aynan ana shu tahlil yo‘nalishi nafaqat milliy iqtisodiyotning institutsional bo‘linmalarining alohida turi sifatida oliy ta’lim muassasalarining iqtisodiy samaradorligini baholash, balki oliy ta’lim muassasalari faoliyat sohalari nuqtayi nazaridan raqobatbardoshlikni oshirishning mumkin bo‘lgan resurslarini ham aniqlashi kerak.

Oliy ta’lim muassasalarida xarajatlarning quyidagi belgilar bo‘yicha turli darajadagi mutlaq qiymati va tarkibini tahlil qilish:

1) xarajatlarni amalga oshirish va qoplash muddati (operatsion va investitsiya xarajatlari);

2) operatsion xarajatlarni funksional taqsimlash (Oliy ta’lim muassasalaridagi asosiy faoliyat turlari bilan bog‘liq xarajatlar, ma’muriy xarajatlar, sotish xarajatlari, boshqa operatsion xarajatlar);

3) xarajatlarning iqtisodiy elementlari (moddiy xarajatlar, mehnat xarajatlari, ijtimoiy faoliyat uchun ajratmalar, amortizatsiya va boshqalar).

Oliy ta’lim muassasalarining iqtisodiy portfelini baholash va tahlil qilish (Oliy ta’lim muassasalarining faoliyat turlari portfeli, uning o‘quv mahsulotlarini mutaxassisliklar, fakultetlar/institutlar bo‘yicha narxlari va tannarxini hisobga olgan holda). Bunday tahlil har bir tahlil birligining faoliyatning umumiy natijalariga iqtisodiy hissasini aniqlash, olingan natijalarni hisobga olgan holda ta’lim mahsulotlari assortimentini yaxshilash imkonini beradi.

Oliy ta’lim iqtisodiy samaradorlikning nisbiy ko‘rsatkichlarini tahlil qilish, xususan:

1) bir xodimga, oliy o‘quv yurti talabasiga to‘g‘ri keladigan daromad;

2) bir xodimga, oliy ta’lim talabasiga to‘g‘ri keladigan xarajatlar;

3) operatsion xarajatlarning bir so‘mi uchun operatsion daromad.

Oliy ma’lumot oluvchi abituriyent uchun oliy ta’lim xarajatlari, ta’lim mahsulotlari narxlari (o‘quv to‘lovlari), shu jumladan, ta’lim xizmatlari bozoridagi raqobatchilar narxlari monitoringi va tahlili hamda Oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilarining bandlik darajasini va ularning iqtisodiy daromadlarini tahlil qilish.

Oliy ta’limni boshqarishning iqtisodiy samaradorligi uning raqobatbardoshligining asosiy tarkibiy qismidir, chunki u ta’lim mahsulotlarining qiymatini shakllantirish va sifatini ta’minlashda resurslardan oqilona foydalanishni nazarda tutadi. Tadqiqotda oliy ta’lim resurslaridan samarasiz foydalanish bilan bog‘liq insoniy, moliyaviy va boshqa yo‘qotishlar ko‘rsatkichlariga asoslangan oliy ta’limning iqtisodiy samaradorligini tahlil qilish usuli taklif qilingan. Bu borada keltirilgan bitiruvchilarning ishsizligi, kasbdan tashqari ishga joylashish, ta’lim va mehnat migratsiyasi ko‘rsatkichlari makrodarajadagi ko‘rsatkichlar hisoblanadi.

Resurslardan noratsional foydalanishning bevosita iqtisodiy baholari – bu ko‘rsatilgan toifadagi shaxslarning oliy ma’lumot olish xarajatlari, ishsizlik nafaqalari; bilvosita – ishsizlik tufayli yalpi ichki mahsulotga erishilmaganligida namoyon bo‘ladi. Davlat statistika xizmati va Davlat bandlik xizmatining 2010-2022-yillardagi ma’lumotlari asosida Oliy ta’lim tizimida o‘quv jarayonlari samaradorligini oshirishni ekonometrik modellashtirish natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston Respublikasi oliy va kasb-hunar ta’lim muassasalari bitiruvchilarining ishsizligi tufayli ta’limdagi yillik moliyaviy yo‘qotishlar kamida 138 mlrd. so‘mga teng bo‘lishi aniqlandi.

Iqtisodiy samaradorlik mezoni asosida oliy ta’limning raqobatbardoshligini oshirish uchun noishlab chiqarish xarajatlari va zaxiralarini aniqlash uchun monitoring yo‘nalishlari hamda ko‘rsatkichlari to‘plami taklif etildi-ki, ular orasida O‘zbekiston Respublikasi uchun eng dolzarb bo‘lgan bitiruvchilarni ta’lim darajasi va mutaxassisligiga qarab ularni ish bilan ta’minlash hamda daromadlarini farqlash monitoringi muhim ahamiyat kasb etishi aniqlandi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqotlar instituti raqobatbardoshlikning yuqori darajasiga erishish va uni saqlab qolish imkonini beradi, degan xulosaga kelish imkonini berdi. Tadqiqotlar quyidagi yo‘nalishlarga qaratilishi mumkin, masalan, o‘rganilayotgan obyektlar bo‘yicha tendensiyalarni tahlil qilish, ko‘p qirrali tahlillarni o‘tkazish, aniqlangan raqobatbardoshlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish va oliy o‘quv yurtlari tomonidan yaratilgan akademik tadbirkorlikdan daromad yoki aylanma darajasini aniqlash, reytinglar, ya’ni OTMlarning raqobatbardoshlik ko‘rsatkichlari va akademik tadbirkorlik darajasi bo‘yicha reytinglari. Tadqiqotning cheklovlari ochiq kirishda ma’lumotni topish va solishtirishdir. Joriy tadqiqot OTMlar raqobatbardoshligi haqidagi tushunchalar miqdori bilan cheklangan va tashqi tomondan belgilangan chegaralari tufayli qisman maqolada ko‘rsatilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Higher Education Market Outlook 2023-2028: Size, Share, Trends, Growth, Top Drivers, and Forecast Report. inkedin. com/pulse/higher-education-market-outlook-2023-2028-size-share-trends-agarwal.
2. Education Marketing Services Market – Global Trends and Forecasts by Technavio. cation-Marketing-Services-Market-Global-Trends-and-Forecasts-by-Technavio.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.10.2019-yildagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5847-son Farmoni.

4. Varghese N. V., Buchert L. Financing education: Redesigning national strategies and the global aid architecture. A report from the IWGE. – UNESCO: International Institute for Education Planning. –2011. –208 p.
5. Gokun O.O. Basics of information technologies of education. / O.O. Gokun, M.I. Zhaldak, Yu.I. Mashbyts and others. – Kryvyi Rih: Publishing Department of the KDPU. –2001. –210 p.
6. Klaus P. The hard truth about soft skills: Workplace Lessons Smart People Wish They'd Learned Sooner / P. Klaus. – New York : Harper Collins Publishers, 2007. –190 p
7. А.Вахабов, Э.Имамов, Высшее образование в Центральной Азии. Задачи модернизации. – М.: 2007. – 214 с.;
8. Qo'ziyev Z. B. Ta'lim tizimida xizmatlar va tadbirkorlik faoliyati samaradorligini oshirish: i.f.f.d (PhD) diss. Avtoreferati. – Samarqand, 2020-y.
9. Абдукаримов Х. Профессиональное воспитания личности учителя в проыессе непрерывного педагогического оброзования. – М., 2008. –С. 30.;
10. Zaripova N. Ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasida intellektual salohiyatli yoshlar – mamlakat taraqqiyotining muhim omili (An'anaviy XIII – Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami). – Samarqand, 2016-y. 17-b
11. Becker G. S. Human Capital. A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education. National Bureau of Economic Research, General Series. Published by National Bureau of Economic Research, Distributed by Columbia University Press. New York and London. –2015. –265 p.
12. Brint S. Clotfelter Charles T. U.S. Higher Education Effectiveness. The Russell Sage Foundation Journal of the Social Sciences. Vol. 2. № 1. April 2016, P. 2–37; Ковалев А. И., Ивашкевич Т. В., Ковалев В. А., Фрик О. В. Сфера образовательных услуг: маркетинговые стратегии: монография. Hamburg.–2014. –219 с.
13. Скрипник А.В., Оборская И.С. Оценка эффективности высшего образования. Журнал Проблемы экономики. №4, 2015.–стр. 53-61.
14. Галкив Л. І. Отсынка трат людского капитала: теория, методология, практика: монография. Львов: ИРД НАН Украины, 2011. –444 с.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

INTEGRASIYA SHAROITIDA TO‘QIMACHILIK SANOATINING RIVOJLANISHI

Ziyayeva Muhtasar Mansurdjanovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Marketing kafedrasi v.b. professori

Annotatsiya: Maqolada jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuv sharoitida respublika iqtisodiyotining to‘qimachilik sanoatining rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillari va shart-sharoitlari, shuningdek, samarali boshqaruv bilan birgalikda yangi investitsiyalarni jalb qilish, ya’ni innovatsion bozorga kirib borish strategiyasini ishlab chiqishning marketing darajasi tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: innovatsion marketing, iste’molchilar ehtiyojlari, marketing strategiyasi, bozor segmentatsiyasi.

Abstract: The article analyzes the factors and conditions affecting the development of the textile industry of the republic's economy in the context of integration into the world economy, as well as the marketing level of attracting new investments, i.e. developing a strategy for entering the innovative market, together with effective management.

Key words: innovation marketing, need, marketing strategy, segmentirovanie rynka.

Аннотация: В статье анализируются факторы и условия, влияющие на развитие текстильной отрасли экономики республики в условиях интеграции в мировую экономику, а также маркетинговый уровень привлечения новых инвестиций, т.е. разработки стратегии выхода на инновационный рынок, совместно с эффективным управлением.

Ключевые слова: инновационный маркетинг, потребность, маркетинговая стратегия, сегментация рынка.

KIRISH

To‘qimachilik sanoati O‘zbekiston iqtisodiyotining strategik tarmog‘i bo‘lib, aholi bandligini yuqori darajada ta’minlab, davlatimizning iqtisodiy va sanoat xalqaro nufuziga hissa qo‘shmoqda.

O‘zbekistonning o‘ziga xos geosiyosiy pozitsiyasi bizga ko‘plab davlatlar bilan uzluksiz iqtisodiy muloqotda bo‘lish, Yevropa va Osiyo davlatlari bilan o‘zaro manfaatli ishbilarmonlik hamkorlikni amalga oshirish imkonini beradi. Yengil sanoatning O‘zbekiston makroiqtisodiyot majmuasida tutgan o‘rnini quyidagi ma’lumotlarga ko‘ra baholash mumkin: bugungi kunda unda respublika sanoatida band bo‘lgan barcha ishchilarning uchdan bir qismi ishlamoqda, uning sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi qariyb 15 foizni tashkil etadi. Nooziq-ovqat iste’mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi – 30% dan ortiq

ADABIYOTLAR SHARHI

Bu haqda o‘tgan asrning o‘rtalarida marketing va menejment sohasidagi taniqli olimlar F.Kotler [1] va P.Druker [2] gapirgan. Turli olimlar tadqiqot obyekti va predmetiga qarab “innovatsiya” tushunchasini izohlaydilar. Masalan, B.Tviss innovatsiyani ixtiro yoki g‘oyaning iqtisodiy mazmun olish jarayoni deb ta’riflaydi [3]. F.Kotler innovatsiyani ommaviy ishlab chiqarishga yo‘lga qo‘yilgan va bozorga taqdim etilgan, iste’molchi butunlay yangi yoki muayyan o‘ziga xos sifatlarga ega bo‘lgan g‘oya, mahsulot yoki texnologiya sifatida talqin qiladi [4]. F.Nikson innovatsiya – bu bozorda yangi va takomillashtirilgan sanoat jarayonlari va jihozlarining paydo bo‘lishiga olib keladigan texnik, ishlab chiqarish va tijorat faoliyati majmui, deb hisoblaydi [5]. B.Santoning fikricha, innovatsiya ijtimoiy-texnik-iqtisodiy jarayon bo‘lib, u g‘oya va ixtirolardan amaliy foydalanish orqali yanada sifatli mahsulot va texnologiyalarni yaratishga olib keladi va agar innovatsiya iqtisodiy foyda olishga qaratilgan bo‘lsa, uning tashqi ko‘rinishi bozorвф qo‘shimcha daromad keltirishi mumkin [6]. Strategik darajada marketing vositalari biznes qiymatini yaratishga, uni sotishdan yoki qimmatli qog‘ozlarini boshqarishdan, shun-

ingdek, alohida brendlar va biznes yo‘nalishlarini sotishdan qo‘shimcha daromad olishga yordam beradi [7]. Bundan tashqari, marketing umuman xo‘jalik yurituvchi subyektlarning resurslarini tejashga yordam beradi. Bu shuni anglatadiki, ishlab chiqaruvchi o‘z xaridorining xususiyatlarini aniq bilgan holda, uni doimiy va sodiq kontragentga aylantirishi mumkin, bu bilan munosabatlarning uzilishi har ikki tomonda yangi xarajatlarning paydo bo‘lishiga olib kelishi mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Olimlarning fikrlarini o‘rganish jarayonida sanoat tovarlari bozorida innovatsion marketing strategiyasini shakllantirishda tadqiqot metodologiyasi sifatida.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekiston to‘qimachilik mahsulotlari dunyoning 70 dan ortiq davlatiga eksport qilinib, ularda 498 turdan ortiq to‘qimachilik mahsulotlari sotilgan. Asosiy eksport bozorlari MDH davlatlari, birinchi navbatda Rossiya, shuningdek, Lotin Amerikasi davlatlari, Yevropa Ittifoqi, Koreya Respublikasi, Xitoy, Singapur, Eron, Isroil, AQSh va boshqalar hisoblanadi. Texnologik siljishlar ilmiy tadqiqotlar, mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotish yo‘nalishlarini o‘zgartirishga olib keladi, bu ko‘plab ijtimoiy, tashkiliy va boshqaruv innovatsiyalarining paydo bo‘lishiga olib keladi. Iqtisodiy o‘sish manbalari va maqsadlariga yondashuvlar o‘zgarmoqda. Uchinchi ming yillikda iqtisodiy o‘sishning yangi modelini shakllantirishda barcha darajadagi innovatsion tizimlar ustunlik qilmoqda. Ularning asosiy tarkibiy qismlari takror ishlab chiqarish siklining barcha bosqichlarida yuzaga keladigan, kelib chiqishi, yangilik darajasi, predmet-mazmun tuzilishi va iqtisodiy jarayonlarga ta’siri bilan farq qiluvchi innovatsiyalardir. Raqobat ustunligining innovatsion omilining ahamiyati shundan iboratki, resurs omilidan farqli o‘laroq, u import qiluvchi mamlakatlarga bog‘liq emas va eksport kamaygan taqdirda mahsulot ishlab chiqarish mahalliy ishlab chiqarish hajmining o‘sishi bilan qoplanadi. Shuning uchun ham iqtisodiy globallashuv sharoitida innovatsion marketing, birinchi navbatda, tashqi bozorga emas, balki ichki bozorga qaratilgan. Boshqacha qilib aytadigan bo‘lsak, “innovatsion harakat” turining raqobatdosh ustunliklarini amalga oshirish uchun ichki bozor qisqa umr ko‘rish davriga ega mahsulotlar bilan to‘ldirilishi kerak. Korxonaning “nomoddiy” intellektual aktivlari va virtual texnologiyalar innovatsiyalarni boshqarish obyektiga aylanadi. Innovatsion marketing zamonaviy biznesdagi ustuvorliklarning “funksional”dan “innovatsion” mahsulotlarga sezilarli o‘zgarishi tufayli iste’molchilarning ehtiyojlarini yaxshiroq qondirish, bozorni egallash yoki yangi joy yaratish va uni muvaffaqiyatli egallash imkonini beradi (1-jadval).

1-jadval: Zamonaviy biznes ustuvorliklarining “funksional”dan “innovatsion” mahsulotlarga o‘tishi

№	Nomi	Mundarija
1	funksional mahsulotlar	- shoshilinch ehtiyojlarni qondirish uchun xizmat qiladi va ko‘p hollarda sotib olish joyidan qat’i nazar sotib olinadi (kerak – arra – sotib olinadi). Ularga ko‘proq yoki kamroq taxmin qilinadigan talab mavjud va ularning hayot aylanishi nisbatan uzoq davom etadi. Ular raqobatchilarga taqlid qilish oson va shuning uchun yuqori daromad olish qiyin;
2	- innovatsion mahsulotlar	aksincha, ular eng yangi texnologiya yoki modani ifodalaydi, ularga bo‘lgan talabni oldindan aytish qiyin va ularning hayot aylanishi ancha qisqaroq. Bunday mahsulotning xavfi va qisqa muddat mavjudligi uchun kompensatsiya sifatida uning ishlab chiqaruvchisi raqobatdan nisbiy erkinlik va yuqori rentabellikka erishish imkoniyatini oladi.

Mahsulotning hayot siklining vaqt shkalasi bo‘yicha innovatsion marketing g‘oyalarni ishlab chiqish, R&D va prototiplarni ishlab chiqarish bosqichlarini qamrab oladi va innovatsiyaning bozor istiqbolini belgilaydi, ya’ni. tijoratlashtirish jarayoni. Innovatsion marketingning asosiy maqsadi innovatsiyalarni bozorga kiritish strategiyasini ishlab chiqishdir.

Samarali boshqaruv bilan birgalikda yangi sarmoyalarni jalb qilish, eng zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etish O‘zbekiston to‘qimachilik, tikuvchilik va trikotaj sanoatini rivojlantirishning eng muhim omili bo‘lib, uning eksport salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda. 20-yil davomida to‘qimachilik sanoatiga 180 ta investitsiya loyihasini amalga oshirish doirasida Janubiy Koreya, Xitoy, Rossiya, Hindiston, Buyuk Britaniya, Germaniyadan 2,5 milliard dollardan ortiq, jumladan, so‘nggi 3-yilda 575 ta 3 million dollarlik xorijiy sarmoya jalb etildi.

Jalb etilgan xorijiy sarmoyaning 80 foizdan ortig‘i Janubiy Koreya, Shveytsariya, Singapur, Buyuk Britaniya, Germaniya, Hindiston, Turkiya kabi davlatlar hissasiga to‘g‘ri keladi. Ishlab chiqarish binolarining texnik jihozlanishi oshdi. 1,6 milliondan ortiq shpindel va 100 ming kamera ishga tushirildi, bu esa mavjud texnologik jihozlar parkining 89,3 foizini tashkil etdi.

Xorijiy investitsiyalarni jalb etishning ustuvor yo‘nalishlari Xorijiy investitsiyalarni jalb etishning ustuvor yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

- ko‘ylak ishlab chiqarish (jun gazlamalar; bo‘yalgan va tayyor mahsulotlar; tayyor kiyim);
- denim mahsulotlari ishlab chiqarish (pnevmatik ip; denim mato; denim mahsulotlari);
- terri mahsulotlari ishlab chiqarish (kardli iplar; terri gazlamalar; bo‘yalgan va tayyor mahsulotlar; terri mahsulotlar);
- to‘qimachilik aksessuarlar ishlab chiqarish.

Respublika to‘qimachilik, tikuvchilik va trikotaj sanoatining bugungi holati tahlili shuni ko‘rsatdiki, uni rivojlantirishda ijobiy tendensiyalar mavjud bo‘lishiga qaramay, uning iqtisodiy o‘sishi va moliyaviy barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi muammolar saqlanib qolmoqda.

Yengil sanoatning holatini tahlil qilib, rivojlanishning quyidagi yo‘nalishlarini taklif qilishimiz mumkin (4-jadval).

4-jadval: Yengil sanoatining rivojlanish yo‘nalishi va holati

№	Nomi	Mundarija
1	Modernizatsiya	-engil sanoat korxonalarini texnologik modernizatsiya qilish va shu asosda barqaror innovatsion rivojlanishni ta’minlash;
2	Qayta ishlash	-mahalliy xomashyo, ham tabiiy (jun, zig‘ir, charm, mo‘yna) hamda kimyoviy tolalarni chuqur qayta ishlashni ko‘paytirish;
3	Import	xorijdan xom ashyo importini kamaytirish;
4	Kadrlar bilan ta’minlash	kadrlar bilan ta’minlash, mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash muammolarini hal qilish;
5	Ichki bozorni himoya qilish	ichki bozorni noqonuniy olib kirilayotgan mahsulotlardan raqobatdan himoya qilishni ta’minlash;
		ichki bozorni sifatsiz mahsulotlar bilan raqobatdan himoya qilishni ta’minlash;
6	Qonuniy jihatdan	ishlab chiqarish, eksport, import va soliq siyosati sohasida tartibga solish orqali mahalliy ishlab chiqaruvchilarning barqaror mavqeyini qonunchilik bilan ta’minlash.

Vaholanki, bugungi kunda yengil sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning umumiy hajmida tikuv-trikotaj sanoatining ulushi beshdan birdan, kiyim-kechak mahsulotlarining ulushi esa o‘ndan birdan kam. O‘zbekiston paxta xomashyosi yetishtirish bo‘yicha dunyoda yetakchi (7-o‘rin) bo‘lsa-da, lekin tayyor mahsulot ishlab chiqarish va eksport qilish bo‘yicha O‘zbekiston Bangladesh, Indoneziya, Vetnam, va boshqa rivojlanayotgan mamlakatlar bilan solishtirganda ancha past o‘rinni egallaydi.

Gazlama yoki ip-kalavani qayta ishlovchi, uni pardozlash va tikuvchilik kabi ishlab chiqarishni yaxlit yo‘nal-tirilgan tarmoqlarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish lozim. Yigiruv va to‘quvchilik bilan solishtirganda bunday ishlab chiqarish kapital qo‘yilmalarning kamligi va miqyosda tejamkorlik darajasining yuqoriligi bilan ajralib turadi.

To‘qimachilik va tikuvchilik ishlab chiqarishni tashkil etish shakllari yetarli darajada samarali bo‘lmayapti. Agar to‘qimachilik ishlab chiqarish, masalan, Xitoyda bo‘lgani kabi, butun texnologik ishlab chiqarish zanjirini boshqaradigan yirik firmalar bilan ajralib turadigan bo‘lsa, tayyor kiyim bozorida muhim ishtirokchilar kichik xususiy korxonalar bo‘lib, ular kichik partiyalarda tikish va tikish orqali ishlab chiqarishni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlab chiqarishga imkon beradi. Yakka tartibdagi buyurtmalar yirik kiyim-kechak korxonalariga qaraganda aholining talab va didini to‘liq qondira oladi. O‘zbekistonda tayyor kiyim tikish bilan asosan yirik korxonalar shug‘ullanadi.

Shu bilan birga, sanoat korxonalarida, bir tomondan, aholining madaniy va milliy an’analariga mos kel-adigan, ikkinchi tomondan, ularning zamonaviy ehtiyojlarini hisobga olgan holda, jahon moda tendensiyalari zamonaviy moda modellarini yaratish tizimi mavjud emas. Soha korxonalarida yuqori malakali kadrlar yetish-masligi muammosi ham mavjud. Xitoy, Hindiston va Pokiston 20-yildan ortiq vaqt davomida xalqaro to‘qimachilik va kiyim-kechak buyumlari savdosida malakali o‘rta darajadagi boshqaruv xodimlariga ega, bizning to‘qimachilik va tikuvchilik ishchilarimiz hali bunday tajribaga ega emas. Xorijdan yuqori maosh bilan mutaxassislarni jalb qilish esa mahsulot tannarxiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Binobarin, sohada faoliyat yuritayotgan yirik tikuvchilik korxonalari iste’mol bozorini o‘rganish bo‘yicha o‘z faoliyatini tubdan yaxshilash, kichik va xususiy tadbirkorlik subyektlari, masalan, Savdo-sanoat palatasi ko‘magida uyda mehnat shartnomalari bo‘yicha ishlashga tayyor bo‘lgan fuqarolar o‘zaro manfaatli yaqin munosabatlarni yo‘lga qo‘yishlari zarur. Bundan tashqari, tikuv korxonalari qoshida yakka tartibdagi tikuvchilik

xizmatlari ko‘rsatiladigan mini sexlar tashkil etilishi respublika aholisining ehtiyojlarini to‘liq qondirish, korxonalar mahsulotlarini ichki bozorda reklama qilish imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Innovatsiyalarni rag‘batlantirish, texnoparklar tashkil etishni davom ettirish, zamonaviy tikuv va yigiruv-to‘quv mashinalari, to‘qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish sohasida ilmiy-tadqiqot institutlari va konstruktorlik byurolarini shakllantirish juda muhim.

Shunday qilib, quyidagi xulosalar chiqarish mumkin:

- innovatsion yo‘l bilan rivojlanayotgan korxonaning strategik imkoniyatlari o‘sishining siklik xususiyati aniqlanadi;
- korxonaning bozorga yo‘naltirilgan innovatsion strategiyasini shakllantirishning sxematik diagrammasi taklif etiladi, shakllanish jarayoniga ta’sir etuvchi omillar aniqlanadi;
- korxonada innovatsion faoliyatni strategik boshqarishga yondashuv ishlab chiqilgan bo‘lib, u izchil ravishda uchta umumlashtirish darajasini o‘z ichiga oladi:
- korporativ, biznes darajasi, mahsulot darajasi. Boshqaruv darajalari o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar tartibi, shuningdek, har bir darajadagi boshqaruvning uslubiy vositalari belgilandi;
- korxonaning bozor faoliyatini strategik boshqarishga yondashuvlar evolyutsiyasi o‘rganildi, marketing innovatsiyalari kontsepsiyasiga muvofiq boshqaruv tizimini qurishning afzalliklari aniqlandi;
- innovatsion marketing asosida korxonaning innovatsion rivojlanish strategiyasining mazmuni aniqlashtirildi.

Adabiyotlar:

1. Котлер Ф. Маркетинг от А до Я. / Ф. Котлер. – СПб.: Издательский Дом “Нева”, 2003. – 126 с.,McGee L.W. TheMarketingConceptinPerspective / L. W. McGee, R. L. Spiro // BusinessHorizons. –May-June, 1988. – P. 40−45.
2. Друкер Питер, Ф., Макьярелло Джозеф А. Менеджмент.: Пер. с англ. –М.: ООО “И.Д. Вильямс”, 2010. –704 с.
3. Твисс Б. Управление научно-техническими нововведениями / Б. Твисс. –М.: Экономика, 1989. –217 с.
4. Котлер Ф. Основы маркетинга / [Ф. Котлер, Г. Армстронг, Дж. Сондерс, В. Вонг] : Пер. с англ. –[2-е европ. изд-е]. – СПб.: Издательский дом “Вильямс”, 2000. –944 с.
5. Инновационный менеджмент : Учебник / [Под ред. С. Д. Ильенковой]. –М.: Юнити, 1997. –306 с.
6. Санто Б. Инновация как средство экономического развития / Б. Санто; Пер. с венг. – М.: “Прогресс”, 1990. –296 с.
7. Иган, Дж. Маркетинг взаимоотношений: Анализ маркетинговых стратегий на основе взаимоотношений / Дж. Иган; пер. с англ. – М. : ЮНИТИ, 2008. –375 с.

AUDITORLIK TEKSHIRUVINI TASHKIL ETISH VA O‘TKAZISH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH

ORCID: 0009-0001-1539-2911

Karamatova Noiba Husnitdinovna
Mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya: O‘zbekistonda ilg‘or xorij tajribasi va xalqaro standartlar asosida auditorlik tekshiruvini tashkil etish va o‘tkazishning amaliy masalalariga bag‘ishlangan bo‘lib, unda O‘zbekistonda auditorlik tekshiruvini tashkil etish muammolari, auditorlik tekshiruvi bosqichlari va ularda bajariladigan amallar mazmuni nazariy va amaliy jihatdan ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Auditni rejalashtirish, auditning xalqaro standartlari, auditorlik tekshiruvi, auditning umumiy rejasi, auditorlik dasturi, moliyaviy hisobot auditi, audit bosqichlari, tahliliy amallar, auditor, auditorlik tashkiloti, auditorlik xulosasi.

Abstract: This article is devoted to the practical issues of organizing and conducting an audit in Uzbekistan on the basis of advanced foreign experience and international standards, in which the problems of organizing an audit in Uzbekistan, the stages of an audit and the contents of the actions performed in them are revealed theoretically and practically.

Key words: Audit planning, international audit standards, audit review, general audit plan, audit program, financial statement audit, audit stages, analytical procedures, auditor, audit organization, audit conclusion.

Аннотация: Данная статья посвящена практическим вопросам организации и проведения аудита в Узбекистане на основе передового зарубежного опыта и международных стандартов, в которых рассмотрены проблемы организации аудита в Узбекистане, этапы проведения аудита и содержание выполняемых действий. в них раскрываются теоретически и практически.

Ключевые слова: Планирование аудита, международные стандарты аудита, обзор аудита, общий план аудита, программа аудита, аудит финансовой отчетности, этапы аудита, аналитические процедуры, аудитор, аудиторская организация, заключение аудита.

KIRISH

Hozirda jahonning yetakchi davlatlari tomonidan auditorlik amaliyotini takomillashtirishda tekshiruvlarni to‘liq xalqaro audit standartlari asosida o‘tkazilishini ta’minlash, rivojlangan mamlakatlar qonunchiligi va ilg‘or tajribasini amaliyotga joriy etish, auditorlarni xalqaro standartlar asosida professional sertifikatlash hamda litsenziyalashning zamonaviy tizimini yaratish eng dolzarb va o‘rganilishi zarur bo‘lgan masalalardan sanaladi.

Hozirgi paytda auditorlik amaliyotida auditorlik tekshiruvlarini rejalashtirish, o‘tkazish va tekshiruv natijalarini umumlashtirish jarayonida o‘z yechimini kutayotgan qator muammolarni bartaraf etish, ularning nazariy va uslubiy asoslarini takomillashtirish dolzarb ilmiy muammolardan biri hisoblanadi. Bular birinchidan, buxgalteriya hisobi va auditorlik faoliyati bo‘yicha qonun va normativ-hujjatlarning auditorlik amaliyotida talab darajasida qo‘llanilmayotganligi, ikkinchidan, auditorlik tekshiruvini tashkil qilish va o‘tkazishning uslubiy jihatlari yetarlicha chuqur tadqiq qilinmaganligi, uchinchidan, auditorlik tekshiruvi natijalarini auditorlik ish hujjatlarida umumlashtirish va rasmiylashtirishning amaldagi talablarga to‘la javob bera olmasligi, to‘rtinchidan, auditorlik riski, muhimlik darajasi, audit ish sifati va auditorlik tashkilotlari faoliyati samaradorligi ko‘rsatkichlarini aniqlash hamda uni baholash uslubiyati kabi holatlar zamonaviy talablar darajasida ishlab chiqilmaganligidir. Biroq yuqoridagilarga qaramasdan, hozirgi jahon auditorlik amaliyotida tekshiruvlarni xalqaro standartlarga muvofiq tashkil etish va o‘tkazish, auditni avtomatlashtirish va audit natijalarini hujjatlashtirish masalalari kompleks tarzda o‘rganilmaganligi bu borada chuqur ilmiy-tadqiqotlar olib borishni taqozo etmoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

Bugungi kunda mamlakatimizda auditorlik faoliyatining mustahkam normativ-huquqiy bazasi va o‘ziga xos milliy auditorlik xizmatlari bozori shakllantirildi, uni rivojlantirish uchun ta’sirchan iqtisodiy omillar hamda soliq imtiyozlari qo‘llanilmoqda, auditorlik faoliyatini litsenziyalash tizimi jiddiy ravishda soddalashtirildi hamda erkinlashtirildi. Amalga oshirilayotgan islohotlarning ijobiy natijalariga qaramasdan “...auditorlik faoliyatining milliy standartlari umume’tirof etilgan xalqaro audit standartlariga to‘liq mos emas, bu esa xorijiy investorlarda mahalliy korxonalar moliyaviy hisobotlarining haqqoniyligini tushunish ko‘nikmasining shakllanishini ta’minlamayapti...” [1]. O‘z navbatida, yuqoridagi vazifalar ijrosini ta’minlashda auditorlik tekshiruvini rejalashtirish va o‘tkazishning amaliy va uslubiy jihatlarini takomillashtirish, tekshiruvlarda ilg‘or xorij tajribasi va dasturiy vositalardan foydalanish, xalqaro standartlar asosida tekshiruv natijalarini hujjatlashtirish, umumlashtirish va baholash kabi masalalar yaxlit tarzda batafsil o‘rganilmaganligi, xususan auditorlik tekshiruvini rejalashtirish hamda o‘tkazishni takomillashtirishga oid chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borishni taqozo etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 24-apreldagi PF-4720-son “Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi va 2017-yil 7-fevraldagi PF 4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-sentyabrdagi PQ 3946-son “O‘zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori va Prezidentning 2021-yil 4-avgustdagi “Auditorlarni sertifikatlashtirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5210-son Qarorida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Auditorlik tekshiruvini rejalashtirish va o‘tkazishning nazariy hamda uslubiy asoslarini yaratish hamda uni takomillashtirish bo‘yicha ko‘plab xorijlik iqtisodchi olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borganlar. Ular jumlasiga A. Arens, R. Adams, M. Benis, R. Dodj, D.R. Karmaykl, Dj. Lobbek va Dj. Robertsonlarni kiritish mumkin [2]. Mavzuning ayrim jihatlari Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlarining iqtisodchi-olimlaridan N.P.Barishnikov, N.T.Beluxa, S.M.Bichkova, N.P.Kamishanov, J.A.Kevorkova, S.A.Stukova, V.P.Suys, A.A.Terexov va A.D.Sheremetlar tomonidan o‘rganilgan [3].

Auditorlik tekshiruvini o‘tkazish uslubiyatining nazariy hamda uslubiy asoslarini yaratish va uni takomillashtirish bo‘yicha asosan xorijlik iqtisodchi olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borishgan. Ular jumlasiga E.A.Arens, Dj.K.Lobbek, A.D.Sheremet va V.P.Suyslarni kiritish mumkin. Respublikamiz iqtisodchi olimlari tomonidan esa bu masalalar yaratilgan darslik, monografiya va o‘quv qo‘llanmalarda, shuningdek, e’lon qilingan ilmiy maqola va tezislarda faqat auditorlik faoliyatini tashkil etishning nazariy jihatlari o‘rganilgan. Masalan, R.D.Do‘smuratov, A.A.Karimov, Z.T.Mamatov, B.Q.Hamdamov, M.M.Tulaxodjayeva, I.I.Meliyev va I.N.Qo‘ziyevlarning asarlarida auditorlik tekshiruvini rejalashtirish va o‘tkazishning nazariy asoslarini rivojlantirish muammolari o‘rganilgan.

Ta’kidlash joizki, yuqoridagi iqtisodchi olimlarning ilmiy asarlarida aynan auditorlik tekshiruvini o‘tkazish uslubiyatini o‘rganishga keng e’tibor qaratilmagan hamda amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarning iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash sharoitiga muvofiq o‘zgarib borishi mazkur sohada chuqur ilmiy izlanishlar olib borish lozimligidan dalolat beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot davomida iqtisodiy voqelik jarayonlarini o‘rganishning ilmiy usullari – umumlashtirish, guruhlashtirish, tahlilning mantiqiy va taqqoslama usullari, abstrakt-mantiqiy fikrlash, qiyosiy tahlil, statistika, istiqbolli prognozlash va guruhlash kabi usullardan keng foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ma’lumki, auditorlik tashkilotlarining Auditorlik tashkilotlari reyestriga kirish orqali faoliyat yuritish talabiga asosan, tashkilotlarning soni 2023-yilning yakunida o‘tgan yilga nisbatan 12 taga oshib 138 taga yetdi, auditorlar soni esa 2023-yilning yakunida o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 122 taga oshib, 1003 nafarga yetdi. Bundan 24 foizi ayol, 76 foizi erkak auditorlar, 120 nafardan ortig‘ida esa xalqaro sertifikatga ega auditorlar faoliyat yuritmoqdalar [4]. Jumladan, o‘tgan 2022-yilda 6102 ta xo‘jalik yurituvchi subyektlar (2023-yil rasmiy ma’lumotlari e’lon hali qilinmadi)da majburiy va tashabbus tarzidagi auditorlik tekshiruvlari xalqaro standartlari asosida o‘tkazildi.

Bu borada Respublikamizda auditorlik faoliyatining me’yoriy-huquqiy asoslari majmui ham jahon standartlari darajasida mukammallashtirildi hamda ular tarkiban soddalashtirildi. Jumladan, bugungi kunda O‘zbekiston audit tizimida 2021-yil 25-fevralda qabul qilingan 55-moddadan iborat mazmundagi “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi Qonun, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-sentyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3946-son Qarori hamda Prezident-

ning 2021-yil 4-avgustdagi “Auditorlarni sertifikatlashtirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5210-son Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 11-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi hududida qo‘llash uchun auditning xalqaro standartlarini tan olish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 171-son Qarori kabi me’yoriy hujjatlar asosiy meyoriy-uslubiy asos sifatida xizmat qilmoqda. Shuningdek, Respublikada 2022-yil 1-yanvardan e’tiboran barcha auditorlik tekshiruvlari auditning xalqaro standartlari asosida o‘tkazilishi qonun yo‘li bilan belgilab qo‘yildi. Respublikada, yuqorida sanab o‘tilgan me’yoriy hujjatlarga muvofiq auditorlik faoliyatini tashkil etish va o‘tkazilishini meyoriy-uslubiy jihatdan muvofiqlashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirligining “buxgalteriya hisobi va audit uslubiyoti departamenti”, O‘zbekiston buxgalterlar va auditorlar milliy assotsiatsiyasi, O‘zbekiston auditorlar palatasi hamda O‘zbekiston buxgalterlar federatsiyasi kabi jamoat birlashmalari keng faoliyat yuritmoqda.

Bizningcha, yuqoridagi ko‘rsatkichlarni respublikamizda auditorlik faoliyatini rivojlantirishning bugungi davr holatiga yetarli deb bo‘lmaydi. Fikrimizcha, O‘zbekiston auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish va takomillashtirishda quyidagi jihatlarga alohida e’tibor qaratish zarur deb hisoblaymiz:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 27-avgustdagi “Davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6300-son Farmoniga muvofiq Oliy audit organlarining xalqaro standartlari (ISSAI) asosida tashqi audit tadbirlarini rejalashtirish va o‘tkazishni tashkil etish, moliyaviy audit, muvofiqlik auditi hamda samaradorlik auditini o‘tkazish, shuningdek, davlat moliyaviy nazoratida xavf-tahlilni amalga oshirish standartlarini ishlab chiqish kabi vazifalar belgilab qo‘yildi.

Shuningdek, fikrimizcha, Respublikamizda xo‘jalik subyektlar faoliyatiga keng imkoniyatlar berilishi natijasida ularda professional ichki auditor mutaxassis-kadrlarga bo‘lgan talab va ehtiyojlarni ortib borishiga olib kelmoqda. Shu holatni e’tiborga olgan holda, iqtisodiy mutaxassis-kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim tizimida ichki auditorlar tayyorlovchi bakalavr ta’lim yo‘nalishini tashkil etishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Bu esa o‘z navbatida, yuqorida ta’kidlab o‘tilgan xo‘jalik subyektlar malakali ichki auditor-mutaxassislar bilan ta’minlash, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qimmatli qog‘ozlar bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2006-yil 27-sentyabrdagi PQ-475-son qaroriga muvofiq aktivlarining balans qiymati 1 mlrd. so‘mdan ortiq bo‘lgan korxonalarda, shuningdek, aktivlarning balans qiymati bazaviy hisoblash miqdorining yuz ming baravaridan ortiq bo‘lgan aksiyadorlik jamiyatlarida ichki auditni tashkil etish, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 16-oktyabrdagi 215-son qarorining 2-ilovasi bilan tasdiqlangan “Korxonalardagi ichki audit xizmati to‘g‘risida Nizom hamda Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 5-maydagi “Ichki audit xizmati xodimlarini tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 280-son Qarori ijrosini ta’minlashga xizmat qiladi.

Ta’kidlash joizki, bugungi kun holatiga O‘zbekistonda xalqaro standartlar asosida tekshiruvlarni tashkil etish va o‘tkazishda quyidagi muammoli jihatlar ko‘zga tashlanmoqda (1-jadval):

1-jadval: O‘zbekistonda auditorlik tekshiruvini tashkil etish muammolari[1]

1	Qonun hujjatlariga muvofiq, 2022-yil 1-yanvardan e’tiboran xalqaro standartlar asosida auditorlik tekshiruvlarini o‘tkazish majburiy etib belgilangan bo‘lsa-da, biroq ushbu tartib respublikada birinchi marotaba qo‘llanilayotganligi bois bu borada amaliy tajribaning yetarli emasligi va xalqaro auditorlik standartlari me’yorlari hamda tartib-qoidalarini to‘liq egallagan auditor-mutaxassislarning yetarli emasligi
2	Barcha xalqaro auditorlik standartlarining amaliy mazmundagi, rasmiy o‘zbek tilidagi mukammal tarjimasining auditorlik tashkilotlarida mavjud emasligi
3	Milliy auditorlik amaliyotini xalqaro auditorlik standartlarida belgilangan talab va me’yorlarga muvofiqlashtirish borasida zaruriy mezon va uslubiyatning yetarlicha shakllanmaganligi
4	Respublikada faoliyat ko‘rsatuvchi xo‘jalik yurituvchi subyektlarni moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va auditning xalqaro standartlari mazmuni, ahamiyati va ularni amaliyotda qo‘llash bo‘yicha ko‘nikma hamda tajribaning yetarli emasligi (amaliyotda hanuzgacha milliy yoki an’anaviy auditorlik tartib-qoidalarni qo‘llanilayotganligi)
5	Respublikada faoliyat ko‘rsatuvchi xo‘jalik yurituvchi subyektlarni moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va auditning xalqaro standartlari mazmuni, ahamiyati va ularni amaliyotda qo‘llash bo‘yicha ko‘nikma hamda tajribaning yetarli emasligi (amaliyotda hanuzgacha milliy yoki an’anaviy auditorlik tartib-qoidalarni qo‘llanilayotganligi)
6	Respublikada auditning xalqaro standartlarini amaliyotda qo‘llash yuzasidan rasmiy o‘zbek tilidagi me’yoriy hujjatlar, o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar, darslik va uslubiy ko‘rsatmalarni zamonaviy talablar darajasida ishlab chiqilmaganligi
7	Respublika auditorlik amaliyoti bilan audit bo‘yicha malakali kadrlar tayyorlash sohasi o‘rtasida auditning xalqaro standartlarini tadqiq etish borasidagi uzviylik hamda amaliy hamkorlikni zamonaviy talablar darajasida tashkil etilmaganligi

1 Muallif tomonidan tayyorlangan.

O‘zbekiston amaliyotida auditorlik tashkilotlarining asosiy mijozlari yoki tekshiruv obyektlari banklar, sug‘urta tashkilotlari, qo‘shma korxonalar va yirik xizmat ko‘rsatish yoki ishlab chiqarish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi aksionerlik jamiyatlari hisoblanadi.

Bizningcha, auditorlik xizmatlari bozori asoslarini takomillashtirish uchun quyidagilarni amalga oshirish talab etiladi (1-rasm).

1-rasm: Auditorlik xizmatlari bozori asoslarini takomillashtirish yo‘nalishlari[2]

Bugungi kun auditorlik amaliyotidagi muammoli jihatlardan yana biri shuki, bu tekshiruvlarni aksariyat hollarda shartnomada belgilangan qat’iy muddat va tartiblar asosida o‘tkazilmayotganligidir. Bu esa auditorlik tashkilotlari va xo‘jalik subyektlari o‘rtasida turli shartnomaviy nizolarni yuzaga kelishiga olib keladi. Bizningcha bunday vaziyatni yuzaga kelishiga asosiy sabab tegishli auditorlik dalillarini xo‘jalik subyektlari tomonidan o‘z vaqtida taqdim etilmasligi va natijada auditorlar tomonidan ular tahlilini o‘z muddatida yakuniga yetkazilmasligi, buxgalteriya hisobi va auditorlik faoliyatida xalqaro standartlar hamda avtomatlashgan dasturlaridan yetarlicha foydalanilmasligidir. Yuqoridagilar bilan birgalikda, auditorlik faoliyatini tadqiq etish jarayonida tabiiy bir savol tug‘iladi, ya’ni auditorlik tekshiruvi (majburiy audit) qanday tartib yoki ketma-ketlik asosida o‘tkaziladi?. Mazkur savolga biz quyidagi 2-jadval asosida aniqlik kiritamiz (2-jadval).

2 Muallif tomonidan tayyorlangan.

2-jadval: Auditorlik tekshiruvi bosqichlari va ularda bajariladigan amallar[3]

Auditorlik tekshiruvi bosqichlari	Tekshiruvda bajariladigan amallar
Rejalashtirish bosqichi	- tekshiruv maqsadi va vazifasini belgilash; - tekshiruv obyektlarini tanlash; - auditorlik guruhini tasdiqlash, ya'ni bevosita tekshiruvni o'tkazishda qatnashuvchi shaxslarni tayinlash; - tekshiruvning dasturini tayyorlash va tasdiqlash (tekshiruv bo'yicha auditorlik dasturini ishlab chiqish).
Tekshirish bosqichi	- auditorlik riski va muhimlik darajasini aniqlash; - korxona ichki nazorat tizimi ma'lumotlarining ishonchliligini baholash; - audit obyektlarini tanlash va tanlash hajmini belgilab olish; - auditorlik ishchi guruhini tasdiqlash, ya'ni bevosita tekshiruvni o'tkazishda qatnashuvchi shaxslarni tayinlash; - audit dalillarini to'plash; - xo'jalik yurituvchi subyektlarda amalga oshirilgan muomalalarni buxgalteriya schotlarida to'g'ri, to'liq va o'z muddatida hisobga olinganligini tekshirish; - xo'jalik yurituvchi subyektlarda amalga oshirilgan muomalalarni tegishli hujjatlarda belgilangan shakl va tartiblarga muvofiq to'g'ri, to'liq va o'z muddatida rasmiylashtirilganligini tekshirish; - amalga oshirilgan muomalalarning qonuniyligi, hujjatlarning haqiqiyligini, undagi mavjud hisob-kitoblarning arifmetik va grammatik jihatdan to'g'riligi, hujjatlarning belgilangan shakllarga mos kelishini aniqlash; - muomalalarni haqiqatda amalga oshirilganligi, hujjatlarda ko'rsatilgan pul mablag'lari va moddiy qimmatliklar olinganligi yoki berilganligini, haqiqatan ish bajarilganligi yoki xizmat ko'rsatilganligini tekshirish; - har bir amalga oshirilgan muomala bo'yicha yozuvlar, hujjatlar va haqiqiy ma'lumotlarni boshqasiniki bilan solishtirish, masalan, hisobotlarning haqiqiy ko'rsatkichlarini pul mablag'lari va moddiy boyliklar haqidagi ma'lumotlar bilan solishtirish; - xo'jalik yurituvchi subyektda mablag'lar va moddiy boyliklarni saqlash va sarflashning to'g'riligi, buxgalteriya hisobi va hisobotlari ishonchliligi, moliyaviy intizomga rioya qilinishini tekshirish; - xo'jalik yurituvchi subyekt biznes reja yoki smetasining to'g'ri tuzilganigi hamda ularni rasmiylashtirish tartib-qoidalariga amal qilinganligini tekshirish; - xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan sarflangan xarajatlarning to'g'riligi va o'z vaqtidaligi, xarajatlarning korxona maqsadlariga mos kelishini, setlar, shtatlar, kontingentlar bo'yicha va ishlab chiqarish rejalarini bajarish darajasini tekshirish va tahlil qilish; - xo'jalik yurituvchi subyekti ichki nazorat tizimi faoliyatini baholash, xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliya xo'jalik faoliyati to'g'risidagi hisobotlari tahlilini o'tkazish, rejalashtirilgan iqtisodiy va nazorat ishlari rejasining bajarilishing amaldagi holatini o'rganish va yuqori boshqaruv organlari tomonidan berilgan topshiriqlarning bajarilish sifatini tekshirish; - xo'jalik yurituvchi subyektlarda amalga oshirilgan muomalalar bo'yicha hisob ma'lumotlarini moliyaviy hisobotlarda to'g'ri va haqqoniy umumlashtirilganligini yoki ko'rsatkichlarning ishonchliligini tekshirish.
Yakuniy bosqich	- ishchi hujjatlarni sharhlash va yakuniy ishchi hujjatlarni tayyorlash; - aniqlangan kamchiliklarning jiddiylik darajasini baholash; - auditorlik dalillarning yetarliligini baholash; - aksiyadorlik jamiyati faoliyat xususiyatlari bilan bog'liq omillarni baholash; - buxgalteriya hisobotidagi axborotlarni taqdim qilish va bayon qilish; - hisobot tuzilganidan so'ng sodir bo'lgan hodisalarni baholash; - tekshiruv natijasida aniqlangan xato yoki qoidabuzarliklarni AFMSlarda belgilangan mazmun va tartiblar asosida audit ish hujjatlarida umumlashtirish va rasmiylashtirish; - tekshiruv natijasida aniqlangan xato yoki qoidabuzarliklarning mazmuni, paydo bo'lish sabablari va ularni kelgusida takrorlanmasligi yuzasidan amaliy tavsiyalar aks ettirilgan auditorlik(oraliq) dalolatnomalarini tuzish va moddiy-javobgar shaxsdan tegishli aniqlangan holat bo'yicha zarur tushuntirish olish; - xo'jalik yurituvchi subyekt tekshiruvi natijalari bo'yicha aniqlangan xato va kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan aniq, amaliy, kafolatli taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqish, tegishli chora va tadbirlarni amalga oshirish, tekshiruv natijalarini umumlashtirish va baholash; - tekshiruvda aniqlangan qonunbuzarliklar va suiste'molchiliklarni bartaraf etish hamda xo'jalik yurituvchi subyekt moliya-xo'jalik faoliyatini yaxshilash bo'yicha xo'jalik yurituvchi subyekt rahbariga taqdimnoma loyihasini tayyorlash va taqdim etish; - audit natijalari asosida auditorlik hisobotini tayyorlash va uni mijoz rahbariyatiga taqdim etish.

3 Muallif tomonidan tayyorlangan.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Yuqorida nomlari keltirilgan hujjatlar va vazifalar tekshiruvni o‘tkazishning eng asosiy tartib-qoidalari hisoblanib, ular tavsiyaviy mazmunga egadir, ya’ni tekshiruvlar jarayonida auditorlar o‘zlarining bilim va malakalariga tayangan holda alohida yondashishlari mumkin.

Ta’kidlash joizki, auditorlik tekshiruvi natijalari yoki tekshiruvning borishi bu to‘plangan dalillarning ishochliligi yoki to‘g‘riligiga bevosta bog‘liqdir. Biroq auditorlik amaliyotida mijoz-korxona moliyaviy hisobotining ishonchliligiga to‘plangan dalillar axboroti bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan hisobot ishonchliligiga quyidagi omillar jiddiy ta’sir etishi mumkin:

1. O‘zaro bog‘liq hamkorlarning mavjudligi;
2. O‘zaro bog‘liq tomonlar bilan muomalalar bo‘yicha schotlar qoldig‘i;
3. Garov ta’minoti sifatida qo‘yilgan aktivlarning mavjudligi;
4. Korxonaning barcha aktivlari bo‘yicha mulkiy huquqning mavjud emasligi;
5. Uchinchi tomon hamkorlarga berilgan kafolatlarning mavjudligi;
6. Amaldagi va shartli majburiyatlarning mavjudligi;
7. Hisobot davri bo‘yicha sud da’volari(ijro varaqalari)ning mavjudligi;
8. Hisobot sanasidan keyin, biroq, auditorlik hisoboti taqdim etilgan sanagacha amalga oshirilgan muomalalarning mavjudligi;
9. Eng kam tannarx yoki relizatsiyaning sof qiymati bo‘yicha TMZ hisobi;
10. Mijozning moliyaviy hisobotda aks ettirilgan aktivlar va majburiyatlar balans qiymatini jiddiy tarzda o‘zgartirishi mumkin bo‘lgan rejalarning mavjudligi;
11. Mijoz muayyan mahsulot turini ishlab chiqarishni tugatishni rejalashtirmayaptimi, eskirgan TMZlarning ko‘payish holati yoki yuzaga kelishi bo‘lishi mumkin bo‘lgan boshqa rejalarning mavjudligi;
12. Mijoz yaqin kelajakda o‘z faoliyatini o‘zgartirishni rejalashtirmayaptimi;

Fikrimizcha, yuqoridagi dastlabki to‘qqiz band bo‘yicha axborotni auditor korxonada mavjud bo‘lgan hujjatli dalillardan olishi mumkin. Biroq agar unga garov shartnomalari yoki kafolat majburiyatlari taqdim etilmagan bo‘lsa, bu mijoz har doim ham garovga qo‘yilgan mol-mulk yoki berilgan kafolat majburiyatlariga ega emasligini bildiravermaydi. Shu sababli, dalil sifatida auditor mijozdan ushbu masalalar bo‘yicha ishlarning amaldagi holati ochib beriladigan taqdimnoma xat olishi shart. Lekin, yuqoridagi 10 va 12-bandlarda ko‘rsatilgan axborotlarning yagona dalili esa faqat mijozning taqdimnoma xati bo‘lishi mumkin. Auditorlik tashkiloti uchun rahbariyatning taqdimnoma xatini auditorlik xulosasi taqdim etilgunigacha xo‘jalik yurituvchi subyektning rahbari (direktori, direktorlar kengashi raisi yoki mijoz-korxona boshqaruvchisi) imzolagan holda taqdim etishi lozim.

XULOSA

Auditorlik tekshiruvini rejalashtirish va o‘tkazishni takomillashtirish borasida olib borilgan ilmiy-tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

Hozirgi paytda auditorlik faoliyatini tashkil etish va o‘tkazishni tartibga solish bo‘yicha ko‘plab me’yoriy – huquqiy hujjatlar yoki adabiyotlar ishlab chiqilgan bo‘lsada, ularda asosan tekshiruvni tashkil etish va o‘tkazishga umumiy jihatdan yondashilib, auditorlik tekshiruvini amalga oshirish bosqichlari yoki tekshiruvda bajariladigan auditorlik amallari aniq va batafsil holatda yoki to‘liq yoritib berilmagan. Yuqoridagi masalalarga aniqlik kiritish maqsadida dissertatsiyada auditorlik tekshiruvining 3 ta bosqichi va ularda bajariladigan amallar tavsiya etilgan. Bu esa, tekshiruvlarni auditorlik shartnomasida belgilangan qat’iy muddatlarda tugatishga erishilib, sifatli auditorlik xulosasini shakllantirish uchun sarflanadigan vaqtni tejash, auditorlarni tekshiruvga bo‘lgan javobgarligini oshirish va auditor ish sifatini boshqarish samaradorligini oshirish imkoniyatini beradi.

Izlanishlar natijasida, auditorlik faoliyatini tashkil etish va o‘tkazishni tartibga solish bo‘yicha amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar hamda ilmiy tadqiqotlarda tekshiruvni tashkil etish va o‘tkazishga umumiy jihatdan yondashilganligi, auditorlik tekshiruvini amalga oshirish bosqichlari yoki tekshiruvda bajariladigan auditorlik amallari aniq va to‘liq yoritib berilmaganligi ma’lum bo‘ldi.

Fikrimizcha, bugungi kunda auditorlik tekshiruvini rejalashtirish va amalga oshirish samaradorligini ta’minlashda quyidagilarni bajarish talab etiladi:

- Auditni rejalashtirish, tekshirish va yakunlash bosqichlari algoritmini xalqaro standartlar va amaldagi qonun hujjatlari talablariga muntazam ravishda mosligining nazoratini amalga oshirish;

- Tekshirilayotgan mijoz-korxonada mavjud bo‘lgan buxgalteriya hisobiga oid dasturiy ta’minot bazasi ma’lumotlari bilan auditorlarni ta’minlash yoki dasturdan tekshirayotgan auditorlarni foydalanishini ta’minlash;
- Audit o‘tkazish uslubiyati va tekshiruvni tashkil etish shakl va tartib-qoidalarini dasturiy ta’minot tarkibiga muntazam kiritib borish yoki yangilab turish;
- Tekshirilayotgan mijoz-korxona faoliyatining zamonaviy tahlil usullari asosida zamonaviy boshqaruv qarorlarini qabul qilish texnologiyasi yoki algoritmini dasturiy ta’minot tarkibiga kiritish va uni yangilab borish;
- Nafaqat audit o‘tkazish jarayonini, balki konsalting, autsorsing, huquq va baholash sohalari bo‘yicha auditorlik xizmatlarini ko‘rsatish jarayonini avtomatlashtirish hamda boshqalar.

Audit bosqichlariga tegishli har bir vazifani bajarish uchun ularning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda eng avvalo, tekshirish “algoritm”ini yaratish, auditorlik amallarini bajarish va tekshiruv natijalarini umumlashtirish hamda baholashning ilmiy, uslubiy va me’yoriy jihatdan asoslangan uslubiyatini ishlab chiqish, shuningdek, ushbu masalalar auditorlik tashkilotining ichki standartlarida o‘z aksini topishi hamda ichki standart me’yorlari tekshiruvda bevosita qo‘llanilishi maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-sentyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3946-son Qarori. http://lex.uz/docs/3914502.
2. Аренс А., Лоббек Дж. Аудит. Пер. с англ. под ред. Я.В. Соколова. -М.: Финансы и статистика, 2013. –560 с; Адамс Р. Основы аудита. Пер. с анг./под ред. Я.В. Соколова. – М.: ЮНИТИ, 2015.-398с.; Додж Р. Краткое руководства по стандартам и нормам аудита. Пер. с анг.: предисловие; Кармайкл Д.Р., Бенис М. Стандарты и нормы аудита. Пер. с анг. -М.: Аудит. ЮНИТИ, 1995.–527с.; Робертсон Дж. Аудит / Пер. с англ./Дж. Робертсон. –М.: Контакт, 2004.–496 с.
3. Барышников Н.П. Организация и методика проведения общего аудита. 4-е изд. перер. и доп. –М.: Филин, 1998.-528с; Белуха Н.Т. Аудит. Учебник “Знания”, КОО, 2000.–769 с; Бычкова С.М. Аудиторская деятельность. Теория и практика.–СПБ.: Лань, 2000.-320с.; С.А.Стукова.–М.: Финансы и статистика, ЮНИТИ, 1992. -240с.; Камышанов П.И. Практическое пособие по аудиту. -М.: ИНФРА-М. 1996.–522 с.; Терехов А.А. Аудит: перспективы развития. -М.: Финансы и статистика, 2001. -560 с; Ж.А.Кеворкова. Международные стандарты аудита. –М.: Юрайт, 2014.-458 с.; Суйц В.П., Шеремет А.Д. Аудит. Учебник. -М.: ИНФРА-М, 2009. –456 с.
4. O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirligining https://www.mf.uz internet sayti ma’lumotlari.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

DAVLATNING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING NAZARIY JIHATLARI

Mamatov Mamajan Axmadjonovich
I.f.n., dotsent Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Annotatsiya: Maqolada iqtisodiy xavfsizlik munosabatlarining institutsional asoslarini takomillashtirishning texnologik transformatsiya, raqamli iqtisodiyot, innovatsion klaster, davlat-xususiy sherikchilik va kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish kabi ustuvor yo'nalishlari bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: iqtisodiy xavfsizlik, iqtisodiy xavfsizlikning institutsional asoslari, institut, texnologik transformatsiya, raqamli iqtisodiyot, innovatsion klaster, davlat -xususiy sherikchilik va kichik biznes va xususiy tadbirkorlik.

Abstract: The article develops proposals and recommendations on priority areas for improving the institutional framework of economic security relations, such as technological transformation, digital economy, innovation cluster, public-private partnership and the development of small business and private entrepreneurship.

Key words: economic security, institutional foundations of economic security, institute, technological transformation, digital economy, innovation cluster, public-private partnership, small business and private entrepreneurship.

Аннотация: В статье разрабатываются предложения и рекомендации по приоритетным направлениям совершенствования институциональной основы отношений экономической безопасности, таким как технологическая трансформация, цифровая экономика, инновационный кластер, государственно-частное партнерство и развитие малого бизнеса и частного предпринимательства.

Ключевые слова: экономическая безопасность, институциональные основы экономической безопасности, институт, технологическая трансформация, цифровая экономика, инновационный кластер, государственно-частное партнерство, малый бизнес и частное предпринимательство.

KIRISH

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida mamlakatni barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, inflyatsiya va ishsizlik darajasini, kambag'allik muammosini, tashqi va ichki davlat qarzining YAIMga foizdagi nisbati kabi tahdidlarning ta'sirini tadqiq etish asosida iqtisodiy xavfsizlik munosabatlarining institutsional asoslarini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. "Avval – inson, keyin – jamiyat va davlat" degan g'oyani Konstitutsiyamiz va qonunlarimizga ham, kundalik hayotimizga ham chuqur singdirishimiz kerak. Hozirgi kundagi jiddiy sinovlar va bashorat qilib bo'lmaydigan xavf-xatarlarni yengib o'tishga qodir bo'lgan milliy davlatchiligimiz asoslarini mustahkamlashimiz zarur" [1]. Jahon iqtisodiyotini yangi innovatsion texnologiyalarga asoslangan neoindustrial texnologik ukladga o'tishi bilan bog'liq raqobat kurashining keskinlashuvi sharoitida respublikada raqamlashtirish, ijtimoiylashtirish, resursli va infratuzilmali rivojlanishda tengsizlik muammolarining keskinlashuvi uning iqtisodiy xavfsizligiga nisbatan keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan tahdidlarning oldini olishni taqozo etmoqda. Milliy iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash uchun yuqori moslashuvchan mobillik va iqtisodiy sohada manfaatlarni himoya qilishning samarali mexanizmiga ega bo'lgan iqtisodiy xavfsizlikning institutsional asoslarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlarining amalga oshirilishi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

MUAMMONING O'PGANILGANLIK DAPAJASI

Iqtisodiy xavfsizlik munosabatlarining institutsional konsepsiyasini rivojlantirish bilan bog'liq tadqiqotlar olib borgan xorijlik olimlar qatorida J.M.Keyns, D.Nort, A.B.Adams, E.Soto, Dj.Forrester, G.S.Bekker kabilarni keltirish mumkin.

Rossiyalik olimlardan iqtisodiy xavfsizlikning institutsional asoslarini takomillashtirish unda davlat va alohida xo'jalik yurituvchi subyektlarning raqobatbardoshligi omili sifatida e'tirofiga asoslangan talqin V.V.Gerasimov, V.S.Zagashvili, V.V.Volchik, N.V.Seykoves, A.V.Kolosov, E.Yu.Kolesnikov, M.Ya.Kornilov, Yu.V.Latov, D.D.Burkalseva, Ye.Buxvald va boshqalarning ilmiy ishlarda tadqiq etilgan.

O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiy xavfsizlik munosabatlarining institutsional asoslarini takomillashtirishning ilmiy-nazariy jihatlarini Abulqosimov X.P., Jo‘rayev T.T., Rasulev A.F., Rasulev T.S., Vaxobov A.V., O‘lmasov A., Tojiboyeva D., Xudoyqulov S., Tursunov B.O., Qobilov Sh.R. va boshqalarning mazkur sohaga dahldor ilmiy tadqiqot ishlarini ko‘rsatish mumkin.

D.Nopt va L.Devislapning fikriga ko‘pa, institutsional muhit – bu asosiy siyosiy, ijtimoiy va huquqiy qoidalar majmuyi bo‘lib ular ishlab chiqarish, ayrboshlash va taqsimot uchun ba’zis yaratadi [2]. Dj.R. Kommons institutlarni tarixiy rivojlanishidagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni qo‘llab-quvvatlab unga ko‘ra “evolyutsion” tushunchasi “institutsional” tushunchasi bilan mazmun va ma’nosi bir xil bo‘ladi, deb ta’kidlaydi [3].

Rus olimi V.V.Bukreyev, E. N. Rudikning fikriga ko‘ra, “davlatlar o‘zlarining resurs bazasi, iqtisodiy munosabatlar tizimi va milliy iqtisodiy manfaatlar, shuningdek, institutsional tuzilmaning o‘ziga xos xususiyatlari asosida milliy iqtisodiy xavfsizlikni shakllantirishning turli xil variantlarini kombinatsiyalashtiradilar [4]. Yu.V.Latov xulosasiga ko‘ra milliy iqtisodiy xavfsizlikning maqsadi milliy iqtisodiyotning samarali ishlashi uchun institutsional asosni yaratishdir (mulk huquqi kafolatini ta’minlash, qonun ustuvorligi, bitimlarning shaffofligi va boshqalar), [5] deb baho beradi.

O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlardan professor X.P.Abulqosimov: “Ushbu fikrlarga asoslangan holda “iqtisodiy xavfsizlik” tushunchasini milliy iqtisodiyot mustaqilligi, uning barqarorligi, mustahkamligi, doimo yangilanishga va o‘z-o‘zidan takomillashib borishga qodirligini ta’minlovchi shart-sharoitlar va omillar yig‘indisi deb ta’kidlaydi [6]. B.Ma’mupovning fikricha, “Raqamli iqtisodiyot – iqtisodiyotning tapkibiy qismlapi sifatida sun’iy aql(ong)dan foydalanish, ish japayonlapini pobotlashtipish, ishlab chiqapish japayonida turmush mehnat xarajatlarini kamaytirish, maxsus kompyuter dasturlari yordamida iqtisodiy tizimlapni modellashtirish va dasturiy qobiliyatini oshirishdir”, [7] deb xulosa qiladi.

Biroq yangi sanoat inqilobini shakllanishi sharoitida milliy iqtisodiy xavfsizlik munosabatlarining institutsional asoslarini takomillashtirishning texnologik transformatsiya, raqamli iqtisodiyot, innovatsion klaster, davlat -xususiy sherikchilik va kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish kabi ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha takliflar va tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy izlanishlarni olib borishni taqozo etilmoqda. Ushbu jihatlar ilmiy maqola mavzusining dolzarbligi va muhimligini belgilab beradi hamda tadqiqot mavzusini tanlash uchun asos bo‘ldi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada dialektik, tizimli, integral va sinergetik yondashuvlar, iqtisodiy, mantiqiy, ilmiy abstraksiya, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, qiyoslash, umumlashtirish, guruhlash va jadval usullaridan foydalaniladi

ASOSIY TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda davlatning iqtisodiy rivojlanishi ko‘plab shart-sharoitlar va omillar bilan belgilanadi. Davlatning iqtisodiy tizimi jahon xo‘jalik tizimining bir qismi bo‘lganligi sababli nafaqat milliy, balki global muammolar ta’sirini o‘zida sezmoqda. Fan-texnika taraqqiyoti ta’sirida texnologik uklad transformatsiyasi iqtisodiy tizimning shakllanishiga global ta’sir ko‘rsatmoqda. Har qanday davlatning iqtisodiyoti ochiq bo‘lishiga qaramay, u jahon iqtisodiyotining ajralmas qismi bo‘lganligi sababli, bunday sharoitda milliy iqtisodiy xavfsizlik muammosi faqat dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Jahon sanoatida texnologiyalarning hayotiy siklini qisqarishida namoyon bo‘ladigan ilmiy va texnologik rivojlanishning global tendensiyalari, ilmiy bilimlarni jamg‘arish sur’ati, yuqori fan sig‘imli texnologiyalarning tarqalish tamoyillari hamda institutsional muhitdagi o‘zgarishlar xom ashyo eksport modeliga asoslangan iqtisodiyotning institutsional tarkibiy tuzilmasini takomillashtirishni dolzarb qilib kun tartibiga qo‘ymoqda. McKinsey Global Institute” kompaniyasi keyingi o‘n yil ichida iqtisodiyotning odatiy tarkibiy tuzilmasini tubdan o‘zgartiradigan eng katta salohiyatga ega bo‘lgan o‘n ikkita iqtisodiyotni portlatuvchi texnologiyalap reytingini e’lon qildi. Ularning eng yaxshi uchtasiga mobil internet, aqliy mehnatni avtomatlashtirishning yangi usullari va buyumlar interneti bo‘lib, yalpi iqtisodiy salohiyati yiliga 11,6-23,7 trln dollarni tashkil etadi [8]. Konvergent texnologiyalar texnologik innovatsiyalarni integrallash xususiyatiga ega bo‘lib, ular yangi texnologik ukladda tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Konvergent texnologiyalar nano-bio-axbopot-kognitiv fanlarni va texnologiyalarni o‘zaro bir-biriga kirishishi va bir-birini to‘ldirishi natijasida sinergetik samara sifatida tavsiflanishi mumkin. Natijada iqtisodiy tizimni ilmiy va texnologik taraqqiyotning tubdan yangi bosqichiga olib kelishi mumkin bo‘lgan sinergetik ta’sirdir. O‘zaro bu gupuhlar texnologiyalarni bip-bipiga ta’sipi NBIC-konvepgensiya deyiladi.

NBIC konvepgensiya ikki asosiy jihatlapi bilan ajralib turadi. Birinchidan, texnologik innovatsiyalarning paydo bo‘lishi va nanotexnologik miqyosda tadqiqotlap va rivojlanishning sinergetik integratsiyasi tufayli butun insoniyat sivilizatsiyasining rivojlanish mexanizmini transfopmatsiyasini to‘la o‘z ichiga oladi. Ikkinchidan, texnologik o‘zgarishlapning mumkin bo‘lgan oqibatlari, ya’ni insonni o‘zini o‘zgartipish, takomillashtipish, uning faoliyat doirasini va imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan. Shu munosabat bilan O‘zbekistonda neoindustrial yondashuv katta e’tibor qaratilmoqda. Neoindustrial yondashuv ham, xom-ashyoga sektoriga qaramlikni

bartaraf etishni, yuqori texnologiyalarni rivojlantirishni nazarda tutadi. “Industrial jamiyatdan postindustrial jamiyatga o‘tish, jamiyat hayotida tub o‘zgarishlar bilan bog‘liq bo‘lib, unda innovatsiyalarni keng joriy etishga asoslangan yangi iqtisodiy tizim modeliga o‘tish bilan amalga oshmoqda” [9]. Texnologik rivojlanish jarayonlari va iqtisodiy xavfsizlikning institutsional asoslarining transformatsiyasi o‘zaro bog‘liq bo‘lib: ilmiy va texnologik rivojlanishning yuqori sur’atlari, tegishli institutsional shart-sharoitlarni ta’lab qiladi. Shu bilan birga, yangi texnologik ukladni shakllantirish vositasi vazifasini bajaruvchi institutsional tuzilma ayni paytda uning elementi hamdir. Rus olimi Ye.Yasin tomonidan ta’kidlanganidek “agar institutsional tizim yaxshi yo‘lga qo‘yilgan va bozor munosabatlarini (mulk huquqi, raqobat, kontraktni himoya qilish) muvaffaqiyatli qo‘llab-quvvatlasa, texnologik modernizatsiya hech qanday to‘siqlarsiz amalga oshadi, intensiv innovatsiyalar oqimi shakllanadi, iqtisodiyot jonlanadi [10].

Yangi iqtisodiy munosabatlar tizimida institutsional tuzilmaning transformatsiya jarayonini O‘zbekistonlik olimlari tomonidan ham keng tadqiq etilgan. Jumladan, D.Tojiboyevaning fikricha, “Raqamli iqtisodiyot faqatgina insonning intellektual salohiyati tufayligina emas, balki institutsional muhit yaratilishi, bu muhitning biznes va iste’molchilar amaliyoti, iqtisodiy agentlarning axborot va kommunikatsion komponentlar bilan ta’minlanishining shakli, usullarini o‘zgartirishiga ta’sir ko‘rsatishi ham muhim o‘rin tutadi [11]. Bu jihatdan raqamli iqtisodiyotga yondashish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, unga berilgan ta’riflarda aks etadi. Muhimi raqamli iqtisodiyot yangi institutsional muhitni yaratilishiga olib keladiki, u raqobatbardoshlikni ta’minlash uchun mahsulot ishlab chiqarish sifatining yaxshilanishi va narxining ommabop bo‘lishi, muvofiq ravishda infratuzilmani barpo etishga olib keladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 28-apreldagi PQ-4699-son Qaroriga ko‘ra, 2020–2022-yillarda jami 268 ta loyihalarni amalga oshirish rejalashtirilgan [12]. Raqamli iqtisodiyotga o‘tish sharoitida O‘zbekiston iqtisodiyotining institutsional tarkibiy tuzilmasini takomillashtirish vektorlarini aniqlash uchun transformatsiyaga ta’sir etuvchi shart-sharoit va omillarning hozirgi darajasini baholash zarur. Rasmiy institutlarning rivojlanish darajasini aks ettiruvchi ko‘pgina indekslarda O‘zbekistonning ko‘rsatkichlari ancha pastligi amalga oshirilayotgan islohotlarning qonunchilik bazasini shakllanmaganligiga bog‘liq. Qonunchilik doirasidagi bo‘shliqlar, byurokratiya, mulkiy huquqlarni zaif himoya qilish, sud tizimining nomukammalligi, jiddiy korrupsiya komponentlari O‘zbekiston Respublikasining institutsional muhitiga xos bo‘lgan transformatsion o‘zgarishlar jarayonini murakkablashtiradi.

O‘zbekiston iqtisodiyotining hozirgi tarkibiy tuzilishi ikki omilni natijasida zaruriy o‘zgarishlarning mohiyatini belgilaydi: yangi yuqori texnologiyali tarmoqlarni yaratish va yangi texnologiyalar asosida an’anaviy tarmoqlarni modernizatsiya qilish, sifat o‘zgarishlari bilan birga ilmiy, texnologik, iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional sohalarda islohotlarni amalga oshirish. Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, davlat sanoat siyosatining asosiy vazifasi sifatida samarali institutsional tuzilmani shakllantirishdir.

O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiy xavfsizlik munosabatlarining institutsional asoslarini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bu ilm-fan, biznes va davlatning muvaffaqiyatli hamkorligi shakllaridan biri bo‘lgan innovatsion klasterlarni yaratishdir. Bunday vosita turli sohalarda ijtimoiy ahamiyatga ega ilmiy loyihalarni amalga oshirish uchun ilm-fan, davlat va biznesning tashkiliy uyushmasini tuzishni o‘z ichiga oladi. Shuni ham ta’kidlash kerakki, innovatsion sohada davlat, biznes va ilm fan o‘rtasidagi munosabatlar sheriklik, teng huquqli bo‘lishi, umumiy maqsadlarga ega bo‘lishi, uch tomonning birgalikdagi sa’y-harakatlari bilan moliyalashtirilishi kerak hamda olinadigan xavf va natijalar teng taqsimlanishi kerak. Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni ta’kidlash o‘rinliki, innovatsion klasterlar O‘zbekistonning keyingi rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Chunki bu uslub tadqiqotni moliyalashtirish hisobiga katta daromad olinishini ta’minlaydi va natijalarni tijoratlashtirish masalalarini muvaffaqiyatli hal qilishga katta imkoniyatlar yaratadi.

Innovatsion klaster modeli iqtisodiyotni institutsional takomillashtirishda ma’lum sifat ko‘psatkichlari bilan ham ajralib turadi. Bularga, birinchidan, klaster a’zolarining o‘zaro ta’siri darajasi bilan tavsiflangan klaster bog‘lanishi, shuningdek, ularning zarur resurslardan foydalanish imkoniyatlari kiradi. Ikkinchidan, innovatsion klaster modelining o‘ziga xos xususiyati bu sinergetik samaradir. Bu elementlarning innovatsion imkoniyatlar yig‘indisi bilan aniqlanadigan va klaster elementlarining o‘zaro sinergetik ta’siriga miqdoriy baho beradigan ajralmas xususiyatdir. Shuningdek, innovatsion klaster modelining asosini uning yadrosi hisoblanmish uyushmalar (korxonalar) va o‘sish zaxiralari tashkil etadi. Mazkur korxonalar klaster faoliyati natijalariga asosiy hissa qo‘shadi. O‘sish zaxiralari esa zarurat tug‘ilganda klasterning innovatsion jarayonlarini tashkil etishdagi kamchiliklarni bartaraf eta oladi va butun innovatsion tizimning takomillashuvi va strategik rivojlanishi bo‘yicha choralarni belgilaydi. Innovatsion klasterlar faoliyatining yakuniy natijasi butunlay yangi texnologiyali tarmoqlar va mahsulotlardir.

O‘zbekistonda milliy iqtisodiyotni institutsional takomillashtirishning keyingi ustuvor yo‘nalishlaridan biri bu davlat sektori tomonidan ishlab chiqariladigan va taqdim qilinadigan xizmatlarni xususiy sektorga uzoq muddatli taqdim qilinishini ta’minlash (ba’zan 30-yilgacha), tavakalchiliklarni xususiy investorga o‘tkazish, davlat va mahalliy tuzilmalar bilan huquqiy shaxslarning ko‘p qirrali uzoq muddatli shartnoma shakllarini amalga oshirish shakli bo‘lgan davlat-xususiy sherikligi (DXSH) bo‘lib hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida DXSH nisbatan yangi soha bo‘lishiga qaramasdan, qisqa muddatlarda o‘ziga xos milliy tizim va yagona siyosat yo‘lga qo‘yilishiga erishildi. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida”gi Qonuni [13]. qabul qilinishi va Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish Agentligining tashkil etilishi buning yorqin ifodasidir. Yangi O‘zbekiston strategiyasiga ko‘ra iqtisodiy taraqqiyotda uzoq muddatli strategik rejalashtirish va davlat budjeti xarajatlarini prognozlashtirish DXSH ishtirokchilari uchun loyiha xarajatlarini to‘g‘ri rejalashtirishga imkon yaratmoqda. Bu omil boshqa investitsiyaviy faoliyat turlarining muhim omili bo‘lgani kabi DXSH loyihalarini amalga oshirishda, aytish mumkinki, hal qiluvchi o‘rinda turadi. Chunki, investorlar uchun ma’lumotlar to‘liqligi, oshkoraligi va haqqoniyligi bozorni chuqur o‘rganishga va turli yo‘qotishlarning oldini olishga xizmat qiladi.

1-rasm: Davlat xususiy sheriklikning afzalliklari [14]

DXSH mexanizmlari takomillashib borishi sohada ijtimoiy yoki infratuzilmaviy loyihalarni amalga oshirish bilan bog‘liq ana’anaviy yo‘nalishlar bilan innovatsion loyihalar ham faollashib bordi. Xususan, DXSH tizimi orqali innovatsion infratuzilmani rivojlantirish, biznes-inkubatorlari, texnoparklar va texnopolislar barpo etish yangi yo‘nalish sifatida qo‘llanilmoqda. DXSH o‘zining bir qator afzalliklari bilan ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni yanada rag‘batlantirgan holda, iqtisodiyotda investitsiyalar oqimini kengaytiradi, bo‘sh turgan resurslarni faollashtiradi, davlat va xususiy sektorlar o‘rtasida o‘zaro muvozanatlashgan manfaatdorlikni ta’minlaydi va eng asosiysi jamiyatdagi qator ijtimoiy va infratuzilmaviy muammolarni bartaraf etishga turtki bo‘ladi. DXSH tizimi samarasi o‘laroq ham davlat, ham biznes, ham jamiyat bundan naf ko‘radi. Shu bilan birga, ushbu tizim boshqa iqtisodiy jarayonlar singari o‘ziga xos xususiyatlar, qonuniyatlar va tavakkalchiliklarga ega bo‘lib, uning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi chuqur malaka, professional tajriba, barqaror iqtisodiy salohiyat singari bir nechta omillardan samarali foydalanishni talab etadi.

Iqtisodiy xavfsizlik munosabatlarining institutsional asoslarini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlaridan yana bir yo‘nalishi bu iqtisodiy rivojlanish muammolarini yengish imkonini beruvchi kichik biznes tuzilmalarini rivojlantirishdir. Zamonaviy kichik korxonalar yuqori sifatli mahsulotlarni yaratishga va ma’lum bir mamlakatning talabini to‘la qoplashga qodir. Hozirgi vaqtda O‘zbekiston Respublikasida kichik biznes tuzilmalari ham innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishga qaratilgan bo‘lib, bu O‘zbekiston iqtisodiyotining yangi yuqori rivojlanish darajasiga ko‘tarilishiga yordam beradi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni iqtisodiyotdagi o‘rni va uni rivojlantirishning obyektiv zaruriyati quyidagilar orqali izohlanadi: birinchidan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik jahon iqtisodiyotining tarkibini tashkil

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

etuvchi asosiy tarmoqlardan biridir, mazkur sohaning taraqqiy etishi mamlakatda iqtisodiy faollikni ta'minlashga bevosita ta'sir qiladi. Bundan tashqari ichki bozorning sifatli iste'mol tovarlari bilan to'ldirilishi, tashqi iqtisodiy faoliyatning o'sishi va aholining samarali bandligini ta'minlash va uning real daromadlarini ko'paytirish masalalarining yechimi ham mazkur tarmoqning rivojlanishiga bog'liq. Ikkinchidan, globallashuv va iqtisodiyotning integratsiyalashuvi jarayonida jahon bozorida raqobatning tobora kuchayib borishi sharoitida aynan kichik biznes yirik ishlab chiqaruvchilarga nisbatan kam mablag' sarfini talab qilishi, harakatchanligi va bozor kon'yunkturasining o'zgaruvchan talablariga tezda moslasha olish, ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish kabi imkoniyatlarga egadir [15].

Iqtisodchi olim P.Z.Xoshimov o'zining ilmiy qarashlarida tadbirkorlik faoliyati xavfsizligi deganda, tadbirkorlik faoliyati subyekti amal qilishining barcha bosqichlarida, birinchi navbatda, iqtisodiy, huquqiy va boshqa salbiy oqibatlarga olib keluvchi ichki va tashqi tahdidlardan muhofaza qilinganligini tushunish lozim" deya ta'rif keltirgan [16]. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiy xavfsizligi, barcha mulklarning maqbul nisbatiga asoslanib, subyektning barqaror faoliyat olib borishga, qiyinchiliklar va tahdidlarga munosib javob berishga, rivojlanish va takomillashtirish imkonini beradi. Subyektning maqsad va vazifalari tadbirkorlikning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning ustuvor yo'nalishlarini yarata olish imkoniyatini ta'minlaydi. Shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning quyidagi asosiy funksional komponentlarini baholash orqali aniqlash mumkin deb hisoblaymiz:

- funksional komponentlarga omillarning sezilarli ta'sir ko'rsatishi;
- iqtisodiy xavfsizlikning funksional komponentlarini ta'minlashga ta'sir etuvchi asosiy jarayonlarning ta'sirini aniqlanishi;
- iqtisodiy xavfsizlikning funksional komponentlarini ta'minlashda iqtisodiy ko'rsatkichlarni aniqlanishi.

Bizningcha to'liq iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda xo'jalik yurituvchi subyektlarning ichki resurslardan to'liq va samarali foydalanish orqali erishish mumkin bo'ladi. Bunda resurslarning barcha darajalarida boshqaruvni samarali tashkil etish va moliyaviy tizimlardan oqilona foydalanishni talab etilishi kerak. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiy xavfsizligining holatiga bevosita ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan tahdidlarning har biri moddiy, ma'naviy va moliyaviy zararni keltirib chiqaradi. Aniqlangan tahdidni kamaytirish va oldini olish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora va tadbirlar uning minimal darajagacha kamaytirish imkonini yaratadi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash samaradorligini oshirishda o'nta funksional tarkibiy qismdan: moliyaviy, intellektual, kadrlar, texnologik, huquqiy, kuch, axborot va ekologik tahdidlarni bartaraf etishga har tomonlama yondashuvni talab qilinishi kerak. Mazkur omillar xo'jalik yurituvchi subyektlarda iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda va sohada barqarorlik, xavfsizlik va moliyaviy qudratga ega bo'lishni ta'minlaydi. Biznes yurituvchi subyektlarning iqtisodiy xavfsizligiga tahdidlarni zararsizlantirishning asosiy strategik yo'nalishlarini belgilash orqali subyektning tahdidlardan himoya qilish chora-tadbirlarni amalga oshirish mumkin (1-jadvalga qarang).

1-jadval: Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda iqtisodiy xavfsizlik samaradorligini oshirishda tahdidlarni zararsizlantirishdagi asosiy strategik yo'nalishlar [17]

№	Yo'nalish	№	Yo'nalish
1.	Ichki va tashqi tahdidlarni o'z vaqtida aniqlash bilan muntazam monitoring olib borish	6.	Texnik va texnologik xavfsizlikni ta'minlash
2.	Prognozlash, rejalashtirish va barqarorlikni ta'minlashda to'liq iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish	7.	Axborot xavfsizligiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va ularni oldini olish choralarini ko'rish
3.	Xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy xavfsizlik ko'rsatkichlarining miqdoriy va sifat qiymatlarini hisoblash hamda axborot sohasidagi tahdid va xavflar salohiyatini aniqlash	8.	Hujjatlarni yuritishni tartibga solish va uni saqlash choralarini ko'rib borish
4.	Xo'jalik yurituvchi subyektning tijorat sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarni nazorat qilish	9.	Boshqaruvda samarali qaror qabul qilish, rag'batlantirish choralarini ko'rib borish
5.	Profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish	10.	Kompaniya rahbariyati va xodimlarning jismoniy himoyasini ta'minlash

Umuman olganda iqtisodiy xavfsizlik tizimi va uning samarali faoliyatiga ko'maklashuvchi chora-tadbirlarni doimiy ravishda yangilash va qayta ko'rib chiqishni talab etilishi kerak. Xo'jalik yurituvchi subyektlarda iqtisodiy xavfsizlik choralarini samarali amalga oshirish uchun iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash maqsadida bir vaqtning o'zida nazorat va muvofiqlashtiruvchi vazifalarni bajarishi lozim. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash samaradorligini oshirishda tahdidlarni tasniflash va tasniflar asosida iqtisodiy xavfsizlikni baholash hamda kichik tadbirkorlik subyektlarida ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish tizimlarini samaradorligini oshirishga erishiladi.

O‘zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish borasidagi islohotlar natijasida yalpi ichki mahsulotda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi 2016 yildagi 66,8 foizdan bugungi kunda 51,8 foizga pasaydi. Kamayishining asosiy sababi, yirik tadbirkorlik subyektlarida qo‘shilgan qiymat hajmining oshishi bilan ifodalanadi. Ushbu sohada jami sanoat mahsulotlarining to‘rtdan bir qismi, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining 98,1 foizi ishlab chiqarilmoqda. Ish bilan band jami aholimizning 74 foizdan ortig‘i mazkur tarmoqda mehnat qilmoqda. 2022-yilda iqtisodiyot tarmoqlarida kichik tadbirkorlik (biznes)ning sanoatdagi ulushi 25,9%, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi – 97,0%, qurilishda – 72,4%, eksportda – 29,5 %, importda – 49,4 % va xizmatlar sohasidagi – 51,5 % ulushi aniq ko‘rsatilgan.

2-jadval: Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushi dinamikasi [18]

№	Ko‘rsatkichlar	2016-y.	2017-y.	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.
1.	YAIM	66,8	65,3	62,4	56,0	55,7	54,9	51,8
2.	Sanoat	45,3	41,2	37,4	25,8	27,9	27,0	25,9
3.	Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	98,6	98,5	98,3	97,9	96,7	96,0	95,3
4.	Xizmatlar sohasi	58,2	58,3	56,0	53,2	51,8	51,7	48,4
5.	Qurilish	66,9	64,8	73,2	75,8	72,5	72,4	72,4
6.	Eksport	26,0	22,0	27,2	27,0	20,5	22,3	29,5
7.	Import	46,8	53,6	56,2	61,6	51,7	48,7	49,4
6.	Bandlik	78,2	78,0	76,3	76,2	74,5	74,4	74,4

Jahon amaliyotida iqtisodiy rivojlanishning yuqori sur’atlariga erishgan dunyoning birorta ham davlati iqtisodiy o‘sishga qaratilgan siyosatni amalga oshirishda kichik biznes tuzilmalarining ahamiyatini kamaytirgani yo‘q. Kichik biznes tuzilmalari har qanday iqtisodiyotni rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega, yirik va o‘rta korxonalar bilan taqqoslaganda, ular makroiqtisodiy vaziyatning o‘zgarishiga osonroq moslashadi, bu esa ma’lum bir mintaqadan ishchi kuchi oqimini kamaytirishga yordam beradi.

Bugungi kunda kichik biznes tuzilmalari tobora ko‘proq iste’molchilar ehtiyojlariga yo‘naltirilgan, turli xil tovarlar va xizmatlar ishlab chiqaradi, dinamik rivojlanishi va individual ishlab chiqarish tavsifi bilan ajralib turadi. Bir qator iqtisodchilar kichik biznes tuzilmalarini bozorlarga raqobatni olib kiruvchi deb hisoblashadi, chunki bozorlarda qancha kichik korxonalar mavjud bo‘lsa, ularning monopollashuv darajasi shunchalik past bo‘ladi. Shu bilan birga, yirik biznes, qoida tariqasida, bozorni monopollashtirishga va raqobat mexanizmini cheklashga qaratilgan.

Kichik biznes tuzilmalari ham mamlakat ichida, ham xorijda amalga oshirilayotgan innovatsion jarayonlarning ajralmas ishtirokchilari hisoblanadi. Kichik korxonalar yuqori darajada harakatchan va innovatsiyalarga tez moslashadi, bu esa ularga o‘rta va yirik korxonalarga qaraganda ancha qisqa vaqt ichida innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishni o‘zlashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga, kichik korxonalar o‘rta va yirik korxonalarga nisbatan bozorda eng zaif hisoblanadi, chunki ular katta kapitalga ega emas. Bu holat kichik biznesni rivojlantirishni faol davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashni nazarda tutadi.

Davlat kichik biznes tuzilmalarining rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi hamda barcha xo‘jalik subyektlari uchun umumiy “o‘yin qoidalari” ni shakllantiradi. Bundan tashqari, tadbirkorlik tuzilmalari va davlatning o‘zaro hamkorligi, davlat funksiyalarining bir qismini tadbirkorlik tuzilmalariga, masalan, davlat-xususiy sheriklik doirasida “topshirish” imkonini beradi.

Inqiroz hodisalari sharoitida biznes tuzilmalarining iqtisodiy xavfsizligi muammosi dolzarb bo‘lib bormoqda. Tadbirkorlik tuzilmalariga yuklatilgan soliqlarning yuqori darajasi, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar, aholining xarid qobiliyatining pasayishi – bularning barchasi davlatning iqtisodiy xavfsizligi darajasiga ta’sir qiladi. Tadbirkorlik tuzilmalarini rivojlantirishda barqarorlikning yo‘qligi davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda[19]. Raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish hamda tadbirkorlik tuzilmalarining ehtiyojlariga javob beradigan rivojlantirishga yo‘naltirilgan tegishli institutsional muhitning mavjudligi milliy iqtisodiy xavfsizlikni institutsional ta’minlashga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Davlat iqtisodiy tizimining innovatsionlik darajasi institutsional muhitning sifatiga ham bog‘liq.

- investitsiya jarayonining ravshanligi va shaffofligini, barcha investorlar uchun investitsiya faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlardan foydalanish imkoniyatini ta’minlash;
- investitsiya va moliya bozorining barcha ishtirokchilarining davlat, ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy manfaatlari muvozanati;
- mintaqaning ijobiy imijini rivojlantirish bu ham mahalliy, ham xorijiy investorlar tomonidan kapital qo‘yilmalar hajmini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. https://president.uz/uz/1607. Murojaat sanasi: 22.03.2024 yil.
2. Ходус В.В. Формирование и механизм реализации региональной инвестиционной политики промышленно-аграрного региона (на примере Омской области): диссертация … кандидата экономических наук: 08.00.05 / В. В. Ходус. – Екатеринбург, 2011. – 220 с. 3.
3. Новокшонова, Е. Н. Оценка эффективности региональной инвестиционной политики / Е. Н. Новокшонова // Региональная экономика: теория и практика, 2014. – № 11 (338). – С. 49–60.
4. Баранцов Н. А. Теоретические аспекты региональной инвестиционной политики / Н. А. Баранцов. – Текст : непосредственный // Молодой ученый. – 2016. – № 12 (116). – С. 1112-1115.
5. Казаченко, Л.Д. Инвестиционная политика: учеб. пособие/ Л.Д. Казаченко. – Чита: ЧитГУ, 2006. -С. 237
6. O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi. – T.: O‘zbekiston, 2013.
7. Игонина Л.Л. И. Инвестиции: учеб. пособие / Л.Л. Игонина; под ред. д-ра экон. наук, проф. В.А. Слепова. – М.: Экономист, 2005. -478 с. Стр. 29-34.

MAMLAKATNI IJTIMOIY-IQTISODIY TARAQQIYOTIDA OLIY TA'LIM TIZIMINING TA'SIRI

Nasimov Adiz Azamat o'g'li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali magistranti

Baxtiyorova Jasmina Jasurovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali talabasi

Axrorov Zarif Oripovich
PhD, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali dotsenti

Annotatsiya: Oliy ta'limni moliyalashtirish jamiyatda muhim ahamiyat kasb etishini e'tirof etgan holda mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida oliy ta'lim tizimini va uni moliyalashtirishni asosiy masala deb ta'kidlash lozim. Mazkur maqolada oliy ta'limni moliyalashtirish zarurligi, mamlakatimizda oliy ta'lim tizimining o'rni va moliyalashtirish tahlili, shuningdek, sohani moliyalashtirishni takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, moliyalashtirish, ijtimoiy soha, byudjet xarajati.

Abstract: Recognizing that the financing of higher education is of great importance in society, it should be noted that the higher education system and its financing are major issues in the socio-economic development of the country. This article presents the need for financing higher education, the role of the higher education system in our country and an analysis of financing, as well as proposals and recommendations for improving the financing of the industry.

Key words: higher education, financing, social sphere, budget expenditures.

Аннотация: Признавая, что финансирование высшего образования имеет большое значение в обществе, следует отметить, что система высшего образования и ее финансирование являются основными вопросами социально-экономического развития страны. В данной статье представлены необходимость финансирования высшего образования, роль системы высшего образования в нашей стране и анализ финансирования, а также предложения и рекомендации по совершенствованию финансирования отрасли.

Ключевые слова: высшее образование, финансирование, социальная сфера, бюджетные расходы.

KIRISH

Ma'lumki, har bir mamlakatning yuksalishi, rivojlanishi yoki inqirozga yuz tutishi o'sha mamlakatdagi ta'lim tizimining qay darajada rivojlanganligiga bog'liqdir. Hozirda yangilanayotgan jamiyat uchun hamda erkinlashayotgan iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy munosabatlar uchun avvalo shu sifatlarga mos tarzda faoliyat ko'rsatishga qodir ta'lim tizimi zarur. Shuning uchun ham ta'lim tizimi O'zbekistan Respublikasi ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ustuvor deb e'lon qilingan.

Hozirgi kunda ayniqsa yoshlar orasida oliy ma'lumotga ega bo'lish juda ham dolzarb bo'lib bormoqda. Oliy ma'lumotga ega bo'lishda bo'lajak mutaxassislar oldinda juda ham ko'p imkoniyatlarga va qiyinchiliklarga duch kelishadi. Ko'p hollarda akademik karyerada to'siq bo'ladigan muammo moliyaviy masala hisoblanadi. Oliy ta'lim olish narxi oshib borar ekan, akademik tajribani oshirishda moliyaviy muammoni to'g'ri boshqarish muhim omil bo'lib qolaveradi.

Talaba kreditlari, grantlar, stipendiyalar va boshqa shu kabi moliyaviy yordam variantlari talaba uchun o'zining akademik tajribasini oshirishga katta hissa qo'shishi mumkin. Bundan tashqari o'quv oshishi ta'sirini muhokama qilish, ta'lim xarajatlarini budjetlashtirish va boshqarish strategiyalarini o'rganish imkoniyati paydo bo'lmoqda. Shu bois oliy ta'limni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish orqali talabalarda vujudga keladigan moliyaviy muammoni hal qilishni taqozo etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Ta'lim muassasalarini budjetdan va budjetdan tashqari fondlardan moliyalashtirish mablag'larining tarkibi va manbalari o'rni va ahamiyatini nazariy va amaliy jihatlari, unga ta'sir etuvchi omillar hamda ularni joriy etish masalalari bir qator iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Jumladan, amerikalik olim G.Abuselidze dasturiy byudjetlashtirish tushunchasi oliy ta'lim muassasasi byudjetini bevosita rejalashtirish jarayonlaridan kelib chiqadigan maqsadlarga yo'naltirish imkonini beradi. Muayyan hodisaning moliyaviy resurslari va ishlab chiqarilgan natijalar o'rtasidagi sabab-oqibat bog'liqligi dastur formatida juda aniq keltirilishi kerak, bu yaxshi moliyaviy boshqaruv uchun zaruriy talabdir. Bundan tashqari, dastur byudjeti moliyalashtiriladigan dasturlarni faqat tashkiliy elementlari bo'yicha emas, balki ularning natijalari asosida baholash imkonini beradi [1].

Akademik O.T. Bogomolov o'z asarlarida "Ta'lim muassalari millatning intellektual, ma'naviy madaniyati har qachongidan ham ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning asosiy omiliga aylanib bormoqda. Aholining yetarli darajada umumiy madaniy darajasisiz modernizatsiyani amalga oshirish mumkin emas" deya ta'kidlaydi [2].

P.Nair va D.Kumarlar fikricha, oliy ta'limni moliyalashtirishni nazorat qiluvchi mustaqil tartibga soluvchi organ bo'lishi kerak. Moliyaviy operatsiyalarni nazorat qiladigan va moliyalashtirish faqat nufuzli tashkilotlarga berilishini ta'minlaydigan va ushbu tashklotni taniqli ta'lim xodimlari boshqarishi kerak. Shunday qilib, ular ham moliyachilar, ham talabalar manfaatlarini himoya qilishlari mumkin [3].

Rossiyalik olim P.S. Kuzminnig an'anaviy ravishda ta'lim, asosan, davlat manfaatlari sohasi hisoblanadi, chunki aynan davlat ushbu sohani shakllantiradi, uning faoliyat ko'rsatish shartlarini va rivojlanishning asosiy yo'nalishlarini belgilaydi, uning faoliyatini davlat resurslari bilan ta'minlaydi [4].

Iqtisodiyot bo'yicha Nobel mukofoti sovrindori G.S.Bekker o'z nazariyasida intellektual kapitalga ham davlat, ham xususiy sarmoyalarni amalga oshirish iqtisodiy zarurat ekanligini asoslab bergan. Uning fikricha, fuqarolarning ta'limiga, tibbiyotga va kadrlarni to'ldirishga yo'naltirilgan ijtimoiy dasturga sarmoyalar kiritish-bu yangi texnologiyalarni yaratishga sarmoya kiritish bo'lib, faqat kelajakda katta foyda keltirishi mumkin degan g'oyani ilgari surgan [5].

Mustaqil tadqiqotchi G.X. Karilbayevaning fikriga ko'ra, umuman olganda, davlat bozoriga asoslangan ta'limni moliyalashtirish modeli shaxsni o'rganishda muvaffaqiyat qozonishga undaydigan strategiyalarni talab qiladi. Moliyaviy resurslar umumta'lim muassasalari faoliyati samaradorligini oshirishga sarflanadi. Bunday sharoitda ta'lim muassasasi ijtimoiy ziddiyatlarni kamaytirishga hissa qo'shadigan tuzilma sifatida qaraladi [6].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi sifatida ta'lim muassasalarini byudjetdan va budjetdan tashqari moliyalashtirish mablag'larining tarkibi va manbalari bo'yicha mavjud bo'lgan ilmiy tadqiqotlarni o'rganish, qiyosiy solishtirish, statistik ma'lumotlarni o'rganish va iqtisodiy jihatdan taqqoslash va tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraktsiyalash, ma'lumotni guruhlash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirishda bir qator natijalarga erishish nazarda tutilgan vazifalar qatoriga quyidagilarni alohida e’tirof etish lozim:

- oliy ta’lim muassasalarining akademik mustaqilligi ta’minlanishi;
- oliy ta’limning investitsiyaviy jozibadorligi oshiriladi, xorijiy ta’lim va ilm-fan texnologiyalari jalb etilishi;
- oliy ta’lim muassasalari infratuzilmasi va moddiy-texnik bazasi, shu jumladan xalqaro moliya institutlarining imtiyozli mablag‘larini keng jalb qilish hisobiga yaxshilanishi, ularni bosqichma-bosqich o‘zini o‘zi moliyalashtirish tizimiga o‘tkazilishi va moliyaviy barqarorligi ta’minlanishi va boshqalar [7].

O‘rta maxsus ta’limdan keyingi ta’lim inson va millat uchun, kelajakdagi iqtisodiy barqarorlik uchun muhimdir. Afsuski, ikki yoki to‘rt yillik oliy ta’lim muassasasida o‘qish uchun yuqori xarajat past va o‘rta daromadli talabalarni ilmiy darajaga erishishdan to‘xtatib qo‘yishi mumkin. Talaba oliy ma’lumot olish imkoniyatini yaratish uchun bir qator moliyaviy qarorlar qabul qilishiga to‘g‘ri kelishi mumkin. Quyida nima uchun Oliy ta’limga ega bo‘lish yoki uni moliyalashtirish muhimligi haqida bir nechta sabablar keltirilgan.

- **Avvalo imkoniyatlardan foydalanish ya’ni:** oliy ta’lim turli xil keng imkoniyatlar, martaba istiqbollari, daromad olish salohiyatini oshirish, maxsus bilim va ko‘nikmlarga ega bo‘lishga imkoniyat eshiklarini ochadi. Maqsadli moliyalashtirish iqtisodiy holatidan qati nazar shaxslarning ushbu imkoniyatdan foydalanishini ta’minlaydi.
- **Ijtimoiy faollik:** oliy ta’limni moliyalashtirish ijtimoiy faollikni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu orqali iqtisodiy holati tang holatidagi odamlarga kambag‘allik siklini buzish uchun imkoniyat beradi, chunki ta’lim ularni qoniqarli va yaxshi martabaga erishish uchun zarur bilim va ko‘nikmalar bilan ta’minlaydi. Keyinigisi iqtisodiy o‘sish va innovatsiyalar: bunda yuqori malakali ishchi kuchi iqtisodiy o‘sish va innovatsiyalarga o‘z hissasini qo‘shadi. Oliy ta’limni moliyalashtirish texnologik yutuqlarni, tadbirkorlikni, samaradorlikni oshirishga qodir bo‘lgan malakali mutaxassisni yetishtirish imkonini beradi, bu esa rivojlanayotgan va rivojlangan iqtisodiyot uchun juda muhim hisoblanadi.
- **Global raqobatbardoshlik:** Global rivojlanish yuqori bo‘lgan dunyoda davlatlar raqobatbardoshlikni saqlab qolish uchun oliy ma’lumotli va yuqori malakali ishchi kuchiga muhtoj. Oliy ta’limni yetarli darajada moliyalashtirish orqali mamlakatning murakkab muammolarini hal qilish va turli sohalardagi yutuqlarga hissa qo‘shish uchun malakali ishchi kuchini qo‘llab-quvvatlash orqali raqobatbardosh ustunligini saqlab qolishni ta’minlaydi.
- **Madaniy va intellektual rivojlanish:** oliy ta’lim faqatgina kasbiy tayyorlashdan iborat bo‘libgina qolmay madaniy intellektual taraqqiyotni rag‘batlantirishda ham muhim rol o‘ynaydi. U tanqidiy fikrlashni, ijodkorlikni, dunyoni chuqurroq anglashni rag‘batlantiradi va butun jamiyatni boyishiga hissa qo‘shadi.
- **Tadqiqot va innovatsiyalar:** Universitetlar tadqiqot va innovatsiyalar driveri hisoblanadi. Oliy ta’lim muassasalarini yetarli darajada moliyalashtirish turli fanlar bo‘yicha ilmiy kashfiyotlar, texnologik yutuqlar va muvaffaqiyatga olib keladigan tadqiqot tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlaydi. Bu esa o‘z navbatida muammolarni hal qilish va hayot tarzini yaxshilash orqali jamiyatga foyda keltiradi. Shuningdek, oliy ta’limni moliyalashtirish uzluksiz ta’lim madaniyati uchun zamin yaratadi. Oliy ta’lim olish uchun moliyaviy imkoniyatlarga ega bo‘lgan shaxslar o‘z hayoti davomida o‘qishni davom ettirish, o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashish va dinamik rivojlanayotgan mehnat bozorida dolzarbligi saqlanib qolish imkoniyatlari mavjud.

Hozirgi moliyaviy holatda ko‘plab rivojlangan mamlakatlar oliy ta’limni moliyalashtirish-dagiko‘tarilish va bosimni hisobga olgan holda o‘zgarishlarga yuz tutmoqda. Bir necha mamlakatlarda o‘quv to‘lovlari va boshqa moliyalashti-rish manbalari oshirildi.

O‘quv to‘lovlarini oliy o‘quv yurtlari oliy ta’limni moliyalashtirish uchun mablag‘yig‘ish-ning asosiy vositasi sifatida qaraydigan bo‘lsak, o‘quv to‘lovlari mavjud bo‘lgan oliy ta’lim tizimlarida oliy o‘quv yurtlari tomonidan qo‘yiladigan boshqa to‘lovlar, masalan, laboratoriya to‘lovlari, kerakli kitoblar va materiallar talabalar tomonidan to‘lanadigan asosiy xarajatlar hisoblanadi. Talabalar tomonidan to‘lanadigan to‘lovlar oliy ma’lumotli kadrlar tayyorlashda davlat xarajatlarini kamaytirishga yordam beradi va shu bilan ularga tizimni kengaytirish hamda davlatni ortiqcha mas’uliyatdan ozod etadi, davlat faqat nazoratni amalga oshiradi. Ba’zi OTMlari talabalardan katta miqdorda daromad qilishadi va bu daro-madlarni yuqori darajada taqsimlab, talabalarga yo‘naltiradi va talabalar ehtiyojlariga javob beradigan bo‘lishini hisobga olishadi.Bu esa asta-sekin yaxshilangan ta’limga olib keladi.

Hozirgi bozor iqtisodiyoti talabidan kelib chiqib, oliy ta'lim muassasalarida moliyalashtirishning byudjet mablag'lari bilan birga o'qitishning to'lov-kontrakt shaklidan tushgan mablag'lar mustaqil shakllantirilishi qonuniy jihatdan mustahkamlandi hamda oliy ta'lim muassasalarining nafaqat davlat budjetidan moliyalashtirilgan budjet mablag'lari balki budjetdan tashqari, jumladan, to'lov-kontrakt mablag'lari bo'yicha shaxsiy g'azna hisob varaqlarida yuritilib kelinmoqda.

Oliy ta'lim muassasalarida mavjud moliyaviy resurslardan samarali foydalanish orqali xalqaro talablarga javob beradigan raqobatbardosh kadrlar tayyorlovchi sifatli oliy ta'lim tizimini yaratish uchun quyidagi choralarni ko'rish rejalashtirilmoqda:

a) bakalavriat yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari sonini qayta ko'rib chiqish.Bunda:

- xalqaro amaliyotga muvofiq o'quv dasturlari va dars berish uslubiyatini talabalarning mustaqil bilim olishini rivojlantirishga qaratgan holda, oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarini optimallashtirish;
- mutaxassislikka oid bo'lmagan fanlarni maqbullashtirish, tor mutaxassislik bo'yicha fanlar va amaliyot soatlarini ko'paytirish;
- xorijiy tajribadan kelib chiqib o'quv dasturlarida auditoriya mashg'ulotlarini kamaytirish hisobiga talabalarning mustaqil tayyorgarlik ko'rish ulushini oshirish.

b) masofaviy ta'lim shakllarini joriy etish hisobiga talabalar uchun ochiq ta'lim resurslari va onlayn-kurslarni ko'paytirish. Bunda:

- masofaviy o'qitish unsurlarini kunduzgi ta'lim talabalari uchun o'quv kursining ayrim fanlarini o'qitish shaklida, shuningdek, ta'lim kursi yakuni bo'yicha tegishli bakalavr va magistratura diplomlari beriladigan alohida mustaqil o'quv kurslari uchun integratsiya qilish [8].

Yuqoridagilardan kelib chiqib, 2024-yilda Davlat budjetining jami ta'lim va fan sohasi xarajatlari 71,3 trln so'm miqdorida yoki Davlat budjeti jami xarajatlarining 22,8 foizini hamda 2023-yilgi kutilayotgan ijroga nisbatan 14,3 foiz ko'p mablag' rejalashtirilmoqda (1-rasm).



1-rasm: 2023-2024-yillarda ta'lim xarajatlari [8]

Ta'kidlash joizki, 2023-2024-yillarda ta'lim xarajatlari tarkibida oliy ta'lim xarajatlari ham o'sish tendensiyasiga ega.

Mamlakatimiz ta'lim sohasiga qaratilayotgan xarajatlarning aksariyat qismi davlat budjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtirilmoqda. Asta-sekinlik bilan mamlakatda innovatsion iqtisodiyotning taraqqiy etishi, aholi daromadlarining oshishi va ta'lim tizimi inson hayotidagi o'rnining oshib borishi mamlakatda ham asta – sekinlik bilan davr talablariga javob bera oladigan davlat ta'lim muassasalari bilan bir qatorda xususiy ta'lim muassasalari ham tashkil topib bormoqda. Bu o'z navbatida, bevosita raqobatni kuchayishiga, davlatning ta'limga ajratayotgan mablag'larini kamayishiga hamda yangi moliyalashtirish manbalarini izlab topishga olib kelmoqda.

Bizningcha, zamonaviy shart-sharoitlardan kelib chiqib ta'lim muassasalarida iste'molchilarning ehtiyojlarini, jamiyatning uzoq muddatli manfaatlarini va o'z ehtiyojlarini hisobga olgan holda ijtimoiy marketing strate-

giyasini qo‘llashning asosiy vazifalari sifatida tashkilotning ilgari foydalanilmagan zaxiralarni aniqlash, ularni bozor talabi dinamikasi va sig‘imiga moslashtirish, ijobiy imijni yaratish va mustahkamlab borish bilan birga quyidagi daromadlar (sarf-xarajatlarni qoplash) manbalarini diversifikatsiyalash lozim.

Umuman olganda, davlat bozoriga asoslangan ta’limni moliyalashtirish modeli shaxsni o‘rganishda muvaffaqiyat qozonishga undaydigan strategiyalarni talab qiladi. Moliyaviy resurslar umumta’lim muassasalari faoliyati samaradorligini oshirishga sarflanadi. Bunday sharoitda ta’lim muassasasi ijtimoiy ziddiyatlarni kamaytirishga hissa qo‘shadigan tuzilma sifatida qaraladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Oliy ta’lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligi va barqarorligini ta’minlash, moddiy-texnik ta’minotini mustahkamlash bo‘yicha quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

- oliy ta’lim muassasalarini bosqichma-bosqich o‘zini o‘zi moliyalashtirish tizimiga o‘tkazish, moliyaviy barqarorlikni ta’minlash, mehnatga haq to‘lash tizimini takomillashtirish, moliyalashtirishning samarali va shaffof mexanizmlarini joriy etish;
- iqtisodiyot tarmoqlarining kadrlarga bo‘lgan ehtiyojlarini inobatga olgan holda, shuningdek, istiqbolda oliy ta’lim muassasalarining reytingi va o‘z xarajatlarini qoplash darajasidan kelib chiqib bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari (magistratura mutaxassisliklari) bo‘yicha to‘lov-kontrakt miqdorlarini mustaqil belgilash tizimiga bosqichma-bosqich o‘tish;
- oliy ta’lim muassasalarining ta’lim xizmatlari eksporti va qo‘shimcha xizmatlar ko‘rsatishga doir faoliyatini rivojlantirish va boshqalar.

Mamlakatimizning iqtisodiy rivojining yuqori sur’atlarini saqlab qolish, miqdor ko‘rsatkichlar bilan bir qatorda taraqqiyotning sifat ko‘rsatkichlariga erishish maqsadida turli jalb etilmagan omillar va zaxiralarni izlab topish va joriy etishimiz, shu jumladanб oliy ta’lim tizimini optimal moliyalashtirish manbalarini izlab topish davr talabi bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilga adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abuselidze, G. (2022, June). Financing Higher Education: New Challenges, Incentives and Opportunities. In IOP Conference Series: Earth and Environmental Science (Vol. 1026, No. 1, p. 012066). IOP Publishing.
2. Богомолова, О. Ю. (2020). Влияние мотивационно-ценностной направленности студентов на готовность к будущей профессиональной деятельности. Образование личности, (3-4), 86-93.
3. Nair, P., & Kumar, D. (2004). The Financing of Higher Education–A Broader View. ICFAI Journal of Infrastructure, 03 (04), 21-34.
4. Кузьмин, П. С. (2021). Интеллектуальные системы учета электроэнергии: эмпирический анализ факторов восприятия технологии. Стратегические решения и риск-менеджмент, 12(1), 8-23.
5. Becker, G. S., & Posner, R. A. (2009). Uncommon sense: economic insights, from marriage to terrorism. University of Chicago Press.
6. Karlibayeva, G. (2023). Ta’lim muassasalarini byudjetdan moliyalashtirish mablag‘larining tarkibi va manbalari. Iqtisodiyot va ta’lim, 24(1), 371-376.
7. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi. 2019-yil 8-oktabr, PF-5847-son. https://lex.uz/ru/docs/-4545884
8. Byudjetnoma 2024-2026. https://api.mf.uz/media/document_files/budjetnoma_2024-2026_u7oVHcU.pdf

RESPUBLIKADA FERMER XO‘JALIKLARGA XIZMAT KO‘RSATISHNI RIVOJLANTIRISH VA AGROXIZMATLAR BOZORINI DAVLAT TOMONIDAN QO‘LLAB-QUVVATLASH IMKONIYATLARI

Shukurov Ilxom Safarboyevich
Mustaqil tadqiqotchi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali

Annotatsiya: Mazkur maqola fermer xo‘jaliklarga xizmat ko‘rsatishni rivojlantirishda sohani davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash yo‘llari va agroxizmatlar bozorini taraqqiy ettirish mexanizmlarga bag‘ishlangan bo‘lib, unda agroxizmatning ushbu jarayonini tizimli tashkil etishdagi muhim xususiyatlari ilmiy asoslangan.

Kalit so‘zlar: xizmat, agroxizmat ko‘rsatish, agroxizmatlar bozori, mexanizm, davlat tomonidan tartibga solish mexanizmi, ekstensiv, intensiv omillar.

Abstract: This article is devoted to the ways of state support of the industry in the development of services for farms and the mechanics of the development of the agro-services market, in which the important features of this process of agro-tourism in the systematic organization are scientifically based.

Key words: service, agro-services, agro-services market, mechanism, state regulation mechanism, extensitive, intensive factors.

Аннотация: Данная статья посвящена путям государственной поддержки отрасли в развитии услуг для фермерских хозяйств и механике развития рынка агроуслуг, в которой выявлены важные особенности этого процесса агротуризма в системной организации. научно обосновано.

Ключевые слова: услуга, агроуслуги, рынок агроуслуг, механизм, механизм государственного регулирования, экстенсивный, интенсивный факторы.

KIRISH

Bugungi kunda iqtisodiyotning muhim tarmogi hisoblangan qishloq xo‘jaligida soha ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq xizmatlar – agroxizmatlar muhim hisoblanadi.

Agroxizmat fermer xo‘jaliklariga qishloq xo‘jaligi mahsulotni yetishtirishdan tashqari, yetishtirilgan mahsulotlarni qayta ishlash va boshqa xizmat turlarini ko‘rsatuvchi va ularning uzluksiz faoliyat yuritishini ta’minlovchi agrosanoat korxonalar majmuasini tashkil etadi. Agroxizmat ko‘rsatuvchilar fermer xo‘jaligi ishlab chiqarish jarayoni bilan bog‘liq quyidagi xizmatlarni, jumladan, moddiy-texnika ta’minoti va transport xizmatlari, aloqa xizmati, urug‘lik bilan ta’minlash, agrokimyo xizmati, melioratsiya xizmati, veterinariya va naslchilik xizmati, yem-xashak ta’minoti xizmatlari, mini bank xizmatlari va boshqa shu kabilardan iborat.

Hozirgi zamon agrar soha iqtisodiyoti intensiv asosda rivojlantirish chuqur islohotlarni amalga oshirishni talab qiladi. Buning uchun esa fermer xo‘jalik faoliyati samaradorligini oshiruvchi iqtisodiy tadbirlarni amalga oshirish, sohada yangi rivojlangan ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlari tizimini shakllantirish lozim bo‘ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Rossiyalik iqtisodchi olim Y.B.Korolyovning tadqiqotiga ko‘ra qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishni rivojlantirishni boshqarish, ishlab chiqarish jarayonining samaradorligini oshirish, hosildorlikni oshirish, mahsulot sifatini oshirish uchun ongli ravishda tartibga solinishi hisoblanadi [1].

Respublikamiz iqtisodchilaridan Q.J.Mirzayevning fikricha, fermer xo‘jaliklariga “sifatli va o‘z vaqtida agroservis xizmatlarini ko‘rsatish orqali qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish faoliyati samaradorligini oshirishga erishish mumkinligi” hamda “sifatli, kafolatli va arzon... xizmatlarga bo‘lgan talabning ortishi” muhim deb hisoblaydi [2].

G‘.Ibragimov fikricha, qishloqda xizmat ko‘rsatish obyektlari asosan xizmat ko‘rsatish xarakteriga ega bo‘lishi, ularning ko‘payishi mehnatga yaroqli aholining bir qismini mehnat sig‘imi yuqori bo‘lgan, ammo aholi jon boshiga daromadlar kamayib borayotgan qishloq joylarida qishloq xo‘jaligidan yangi tashkil etilgan xizmat ko‘rsatish sohalariga o‘tkazish imkoniyatlarini yaratadi [3].

B.Mamatqulov fermer xo‘jaliklarida chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni rivojlantirish kambag‘allikni qisqartirishning dolzarb masalalaridan biri hisoblab, chorva mollari zotini yaxshilash borasida keng qamrovli, shu bilan birga puxta o‘ylangan ishlar amalga oshirishni tadqiq qilgan [4].

I.Zasada dehqonchilikning shahar bosimiga, ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlarga va rivojlanish imkoniyatlariga javob berish usuli tadqiqotning asosiy yo‘nalishi bo‘lib, qishloq tovarlari va xizmatlariga shahar talabi fermerlik faoliyatini ko‘p funksiyali tarzda moslashtirish uchun harakatlantiruvchi omil sifatida tadqiq qilgan [5].

Bir qator xorijiy olimlar yuqori salohiyatli hududlardagi kichik fermer xo‘jaliklari ishlab chiqarishni faollashtirish, iqtisodiy o‘sishga hissa qo‘shish va qashshoqlikni kamaytirish uchun hosil oldidan va undan keyingi samarali xizmatlar muhim ekanligini asosladilar [6]. Ularning fikricha, kichik fermer xo‘jaliklarga xizmat ko‘rsatishdagi asosiy muammo xizmatlarni ishlab chiqish va yetkazib berishni muvofiqlashtirish bilan bog‘liq.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu ishda analitik taqqoslash, mantiqiy va qiyoslama tahlil kabi an’anaviy usullaridan foydalaniladi. Xorijiy va mahalliy olimlar, tadqiqotchilarning fermer xo‘jaliklari iqtisodiy munosabatlariga oid ilmiy-amaliy qarashlari tahlil qilinib, natijalar asosida xulosalar shakllantirildi. Yuqorida keltirilgan usullardan foydalangan holda tahlillarni olib borish, yaqin kelajakda yurtimizda faoliyat yuritayotgan fermer xo‘jaliklariga xizmat ko‘rsatish va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash imkoniyatlarini oshirib, ijobiy o‘zgarishlarga olib keladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Malumki, fermer xo‘jaliklarga agroxizmat ko‘rsatuvchi korxonalarning asosiy maqsadi bir tomondan, aholini oziq ovqat maxsulotlarigi bo‘lgan talabini yetarli darajada qondirish uchun fermer xo‘jaliklarga agroxizmat ko‘rsatish bo‘yicha ehtiyojini qondirish va madaniyatli xizmat ko‘rsatish bo‘lsa, ikkinchi tomondan, o‘z faoliyatidan yuqori foyda (daromad) olishdir. Bu jarayon fermer xo‘jaliklarida agroxizmat faoliyatini rivojlantirish omillari yuqori natijadorlikni taminlaydi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, agroxizmat ko‘rsatish korxonalari tomonidan ko‘rsatilgan xizmatlarni sotish natijasida iqtisodiy-ijtimoiy samaradorlikka erishadi, ishlab chiqarish talabini qondirib, agrar sohani iqtisodiy resurslarni takror aylanishni ta’minlaydi.

Agrar sohada fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish va yuqori samaradorlikka erishish uchun salbiy omillarni bartaraf etish muhim hisoblanadi. Fermer xo‘jaliklarga ko‘rsatilayotgan agroxizmat ko‘rsatishga salbiy ta’sir etuvchi omillar ham mavjud bo‘lib bular quyidagilardan iborat:

- agroxizmat ko‘rsatuvchi korxona ishlarining fermer faoliyatida ishtirok etishdan manfaatdorligi kamligi;
- agroxizmat ko‘rsatish korxonalarida nisbatan xizmatlar narxining yuqoriligi;
- agroxizmat ko‘rsatish korxonalarining bugungi raqobat sharoitiga moslasha olmayotganligi;
- sotilayotgan agroxizmatlar assortimentining nisbatan kamligi;
- agroxizmat ko‘rsatish sifati va hajmining nisbatan pastligi va boshqalar.

Tadqiqotlar shuni kursatadiki, fermer xo‘jaliklari faoliyatini intensiv asosda rivojlantirish va samaradorligini oshirish uchun ekstensiv va intensiv omillar ta’sir qiladi. O‘tkazilgan tahlillar natijasiga ko‘ra, fermer xo‘jaliklari faoliyatini rivojlantirishga ta’sir etuvchi ekstensiv va intensiv omillar quyidagicha guruhlandi (1-rasm).

Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida olib borilayotgan islohotlar korxonalarni mustaqil ravishda faoliyat yuritishi, talab va taklif asosida tovarlar assortimentini shakllantirishi, samaradorlikni ta’minlash choralarini ishlab chiqishi zamon talabi hisoblanadi.

Tadqiqot natijasiga ko‘ra, agroxizmat omillar ta’siri natijadorligini oshirib, samaradorligiga erishish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur hisoblanadi:

- xizmatlar sotilmay qolishining oldini olish maqsadida iste’molchilar talabini chuqur o‘rganib, so‘ngra xizmatni amalga oshirish;

- o‘z vaqtida xizmat ko‘rsatilmaganlik uchun moddiy javobgarlikni oshirish;
- ishonchli agro xizmat subyektlari bilan doimiy munosabat o‘rnatish;
- xizmatlar assortimentining turli tumanligini ta’minlash;
- ko‘rsatilayotgan agro xizmatining yuqori darajasiga erishish;
- xizmatlarning yuqori malakali bo‘lishlari;
- xizmatlar narxining boshqa raqobatchilarga nisbatan pastligi;
- xizmatlarni doimiy iste’molchilarini rag‘batlantirib turish;



1-rasm: Fermer xo‘jaliklarida agroxizmat faoliyatini rivojlantirish omillari*

*Muallif ishlanmasi

Hozirgi kunda dunyo yalpi ichki mahsulotining 60-65 % dan ziyod qismi xizmatlar sohasiga to‘g‘ri kelmoqda. Xizmat ko‘rsatish sohasi yurtimizda ham jadal rivojlanish tendensiyasiga ega va ular orasida agroxizmat muhim ahamiyatga ega. Bu sohani samarali rivojlantirish yo‘llaridan biri bu xizmatlarni amalga oshiruvchi korxonalarda xarajatlarni kamaytirish, davlat aralashuvini kuchaytirish zarur.

Tadqiqot shuni ko‘rsatmoqdaki, agroxizmatlari alohida soha sifatida davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashi va tartibga solish jarayonida o‘ziga xos xususyati mavjud.

Bular jumlasiga, birinchidan, agroxizmatlari faoliyati davlat tomonidan belgilab beriladigan huquqiy-me’yoriy hujjatlarga asoslanishi, ikkinchidan esa davlat tovarlarga narx-navoni o‘rnatilishida, aholi daromadlarini hisobga olish zaruriyati va bunda ayniqsa aholini ijtimoiy himoya qilishda muhim instrument sifatida foydalanishi uchun davlat aralashuvi ifodalanadi.

Uchinchidan, agroxizmat sifatli, malakali kadrlar yetkazib berishda davlatning qo‘llab-quvvatlash, to‘rtinchidan, agroxizmatlarini shaffof va adolatli faoliyati uning sohani modernizatsiyalash, diversifikatsiyalash ayniqsa rivojlantirish uchun davlat aralashuvi qo‘llab-quvvatlash. Beshinchidan, agroxizmatlari sohada ish-

lovchi xodimlarni tovar aylanishi yuqori bo‘lganligi sabab mulk egalari noqonuniy daromad to‘plashni imkoniyatini yuqoriligi sababli davlat aralashuvi, asosan, moliya, soliq, sug‘urtalash shaffof tizimini yo‘lga qo‘yish.

Bizning fikrimizcha, O‘zbekistonda davlat tomonidan agroxizmatlarini qo‘llab-quvvatlashning 2 ta yo‘nalishini ajratib ko‘rsatish mumkin. Ularga pul-kredit siyosati, fiskal siyosat va adminstrativ, ma’muriy-huquqiy usullar kiradi. Agroxizmatlarni qo‘llab-quvvatlash uchun markaziy bank tomonidan maqsadli valyuta intervensiyalarining o‘tkazilishi, tadbirkorlik subyektlarini subsidiyalash, mikroqarz ajratish kabilan muhim ahamiyatga ega.



2-rasm: Davlat tomonidan agroxizmatlari rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash turlari*

*Muallif ishlanmasi

Agroxizmatlarni davlat tomonidan rivojlanish usullarida muhim iqtisodiy usullardan biri hisoblanadi. Davlat “yumshoq” pul kredit siyosatini amalga oshirishda, ya’ni ssuda foizlarini pasaytirib pul taklifini ko‘paytirishi tadbirkorlik subyektlari uchun aylanma mablag‘larning ko‘payishi ta’minlaydi. Ammo bunda, albatta, inflyatsiya darajasining keskin oshib ketishini oldini olgan holda qaror qabul qilish muhim hisoblanadi.

Yana bir davlat tomonidan agroxizmtalari rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash turi bu fiskal siyosat hisoblanadi. Fiskal siyosat deganda soliqlar oqimini nazorat qilish siyosati tushuniladi. Bunda agroxizmatlarini ko‘rsatuvchi tadbirkorlik subyektlari uchun soliq yukini pasaytirish, soliq ta’tillarini berish, soliq imtiyozlarini ajratish kabi chora-tadbirlarini sanab o‘tish mumkin.

Davlat (adminstrativ) ma’muriy-huquqiy usullar orqali fermerlar subyektlari faoliyatiga to‘sqinlik qiluvchi omillar ta’sirini pasaytirish imkoniyatiga ega. Masalan, byurokratik to‘siqlarni kamaytirish, biznes tekshiruvlari sonini qisqartirish kabilarni misol keltirish mumkin.

Agroxizmatlarni davlat tomonidan tartibga solish asosida respublika iqtisodiy taraqqiyotini belgilovchi quyidagi yangi shart-sharoitlar va imkoniyalari vujudga keladi. Jumladan:

- agrar sohani ayniqsa fermer xo‘jaliklari faoliyatini raqamli texnologiyalar asosida (qo‘shimcha moliyaviy imkoniyatlar yaratib) tezkor rivojlanishini ta’minlaydi;
- agrar sohada ishga muhtoj aholini ish bilan ta’minlashga yordam beradi;
- qishloq xo‘jaligida narxlar barqarorligiga erishishga imkon yaratadi.
- respublika qishloq xo‘jaligi va uni hududlarini rivojlantirishda ijtimoiy – iqtisodiy barqarorlikni ta’minlaydi.
- respublikada aholini eng muhim zaruriy qishloq xo‘jaligi oziq-ovqat va sanoat mahsulotlari bilan ta’minlaydi.

O‘zbekistonda agroxizmatlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash asosida muhim meyoriy, huquqiy asoslari shakllantirilgan bo‘lib, ayniqsa, bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevni 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoniga asosan “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da o‘z ifodasini topgan. Jumladan, strategiyaning 4-maqsadida ta’kidlangidek “Davlat boshqaruv organlari faoliyatini “fuqarolarga xizmat qilishga yo‘naltirish” tamoyili asosida transformatsiya qilish belgilangan”. Shuningdek, ushbu strategiyada ko‘rsatilgan “Davlat xalqqa xizmat ko‘rsatishi shart” g‘oyasini amaliyotga tatbiq etishni nazarda tutuvchi “xalqparvar davlat milliy dasturi izchil amalga oshirilishini ta’minlash” vazifasi belgilab berilgan.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

O‘zbekiston Respublikasida davlat tomonidan yaratilgan shart-sharoitlar asoisda agroxizmatlarini ko‘rsatuvchi subyektlar quyidagi vazifalarni bajaradi:

- agroxizmatlari sohasi uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlashni yo‘lga qo‘yish;
- agrar sohalari bo‘yicha fan, ilmiy-tadqiqot ishlari, ilmiy-texnik texnologiyaning rivojlanishiga ko‘maklashish;
- fermer xo‘jaliklari faoliyatini raqamlashtirish asosida agrar sohasida turli korrupsion holatlarni oldini olish va “pinhoniy iqtisodiyot”ga barham berish
- agrar sohasi bo‘yicha iqtisodiyotning boshqa tarmoqlaridagi korxonalar bilan hamkorlik integratsiya aloqalarini kuchaytirish
- xorijiy kapital asosida agro xizmat subyektlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratish.
- tashqi va ichki investorlarni qishloq xo‘jaligi fermer xo‘jaligiga kiritishni ko‘paytirish va boshqa shu kabilardan iborat.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, respublikada agroxizmatlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashni rivojlantirishning asosiy mexanizmlari mavjud bo‘lib ular quyidagilardan iborat (1-jadval)

1-jadval: Agroxizmatlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning asosiy mexanizmlari*

Iqtisodiy-moliyaviy	Tashkiliy-huquqiy
1.Agroxizmatlarning samaradorligini oshirishdagi soliq va narx siyosatini amalga oshirish	1. Agroxizmatlarni ko‘rsatuvchi korxonalarning tashkiliy-boshqaruv tuzilmasini rivojlantirish
2. Agroxizmat subyektlarida yangi ish o‘rinlari hisobiga aholi bandligini ta’minlash	2. Innovatsiyaga asoslangan agroxizmatlarining tashkiliy infratuzilmasini rivojlantirish, savdo sohasida intellektual kadrlarni tayyorlashni yo‘lga qo‘yish, mavjudlarini malakasini oshirish va ularning qayta tayyorlovini yo‘lga qo‘yish.
3. Agroxizmatlarni amalga oshiruvchi subyektlar (korxonalarni) modernizatsiyalash va xizmatlarni diversifikatsiyalash	3. Agroxizmatlarni rivojlantiruvchi hududiy innovatsion dasturlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash
4. Innovatsion xizmatlarni qo‘llab-quvvatlash va agroxizmatlar va ular ko‘lamini kengaytirish	4. Agroxizmatlar va ilm-fan o‘rtasidagi integratsion aloqalarni kuchaytirish
5. Agroxizmatlar bo‘yicha qulay innovatsion moliyaviy muhit yaratish	5. Agroxizmatlarni ko‘rsatish uchun raqamli axborot bilan ta’minlash tizimini rivojlantirish
6. Agroxizmat sohasida imtiyozli kreditlash tizimidan foydalanish	6. Agroxizmatlar sohasida xalqaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish
7. Agroxizmatlarni rivojlantirishda budjet-soliq (fiskal) siyosatni kengaytirish	7. Agroxizmatlar bo‘yicha faoliyat yuritayotgan subyektlar manfaatlari va huquqlarini himoya qilish
8. Agroxizmatlari bo‘yicha investorlarga imtiyozlar berish va qulay investitsion muhit yaratish	8. Agroxizmatlar bo‘yicha korporativ shartnomalar va intellektual mulkni qonun doirasida himoya qilish
9. Agroxizmatlarga jalb etilgan davlat resurslaridan samarali foydalanish	

*muallif ishlanmasi

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, davlatning agroxizmatlari sohasida uni qo‘llab-quvvatlashi natijasida yuqori sifat va raqobatbardoshlikni ta’minlashda quyidagi ishlar amalga oshiriladi.

Ta’kidlash joizki, respublikamizda agroxizmatlari jarayonini o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib sohani davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning asosiy yo‘nalishlari quyidagilar hisoblanadi.

1. Agroxizmatlari sohasida kreditlash tizimini takomillashtirish asosida va kredit resurslari bilan ta’minlash.
2. Agrar sohasida xususiy tadbirkorlik uchun ko‘paytirish soliqqa tortish va soliq yukini kamaytirish tizimini takomillashtirish
3. Agroxizmatlari sohasida moddiy – texnik tizimni takomillashtirish
4. Agrar sohasida tashkiliy – ma’muriy, iqtisodiy va ijtimoiy takomillashtirish
5. Davlat tomonidan agroxizmatlari bo‘yicha huquqiy – me’yoriy hujjatlarni qayta ko‘rib chiqish va takomillashtirish

6. Agroxizmatlarni raqamlashtirish, sohaga innovatsiyalar, yangi g‘oya yangi ishlanma yaratishni ko‘paytirish va ularning mualliflarini himoyalash(patentlar berish).
7. Agroxizmatlari bo‘yicha barcha mulk shaklidagi faoliyat yuritayotgan korxonalarga davlat tomonidan iqtisodiy rag‘batlantiruvchi, raqobatbardoshlikni ta’minlovchi turli imtiyozlar berish.

Savdo sohasini korrupsiyadan holi sohaga aylantirish, “yashirin iqtisodiyot”ni bartaraf etish, ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasining 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning “Taraqqiyot strategiyasi”da ta’kidlanganidek, “Servis sohasida yashirin iqtisodiyot ulushini 3 baravarga qisqartirish. Xizmatlar sohasining jozibadorligini oshirish maqsadida sohadagi tadbirkorlik subyektlariga qo‘shimcha imtiyozlar taqdim etish” ustuvor vazifa sifatida belgilangan [7].

Tadqiqot jarayonlarida O‘zbekistonda agroxizmatlarni davlat tomonidan tartibga solishning sohada quyidagi yangi imkoniyatlarini ochib berish ilmiy asoslandi:

- Respublikada agroxizmtalarni ko‘rsatish bo‘yicha davlat tomonidan tashkil etiladigan kreditlash va kredit resurslari bilan ta’minlash va quyidagi ishlarni amalga oshirish belgilangan. Jumladan: bunda
- kredit mablag‘larini rivojlantirish hisobiga agroxizmatlarni ko‘rsatishni uzluksizligini ta’minlash;
- kredit mablag‘lari hisobiga yangi texnika va texnologiyalarini savdo korxonalariga jalb etib xarajatlarni tejash imkoniyati oshiriladi.
- agro xizmat korxonalariga qarz berish va ushbu qarzni undirish kredit mablag‘lari orqali amalga oshirilishi natijasida agrar sohasini iqtisodiy o‘sishi ta’minlanadi.

Davlat tomonidan agroxizmatlarni qo‘llab-quvvatlash va tartibga solishda soliq siyosati, ya’ni soliq yukini kamaytirish soliq kafolatlari va imtiyozlarini berilishi muhim hisoblanadi. Agrar sohasidan soliq tizimi orqali sohani tartibga solish quyidagilar asosida amalga oshiriladi:

- soliq yukini kamaytirish natijasida soliq to‘lovchilar (savdo xizmat korxonalari) ixtiyorida qolgan mablag‘lardan samarali foydalanish orqali xarid tartibini o‘sishini ta’minlaydi.
- soliq tizimini soddalashtirish natijasida soliq stavkalarini pasaytirish, o‘z navbatida savdoda xususiy biznes kapital uchun qulay va kafolatlangan muhit yaratiladi.
- agroxizmatlari ko‘rsatuvchi korxonalarga beriladigan soliq imtiyozlari asosida xorijiy savdoda tovarlar eksportini har tomonlama rag‘batlantirilib natijada valyuta zaxiralari kengayadi.

Agroxizmatlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashda moddiy – texnika bazasini mustahkamlash tizimini takomillashtirish asosida soha samaradorligiga erishiladi. Bunda davlat tomonidan olib borilgan islohotlar agroxizmatlarini zamonaviy asosda qayta jihozlash, yangi raqamli xizmat ko‘rsatish) amalga oshiriladi. Bunda:

- agroxizmatlar ko‘rsatuvchi yuqori texnologiyalar bilan qurollangan zamonaviy moddiy – texnik bino inshootlari shakllantiriladi.
- agroxizmatlarini moddiy – texnika bazasini rivojlantirishning kelguvchi taraqqiyotini belgilovchi davlat dasturlari ishlab chiqiladi.
- dunyo tajribasidan foydalangan holda jahon andozasiga mos agroxizmatlarini amalga oshiruvchi zamonaviy texnika, texnologiya va zaruriy moddiy – texnik asbob – uskunalar olib kelinadi.

Umuman, O‘zbekiston iqtisodiyotining hozirgi rivojlanish bosqichida agrar xizmat ko‘rsatish sohasi va uning bozorini davlat tomonidan tashkiliy – iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari yetarlicha ishlab chiqilmagan, ularni raqamli iqtisodiyot va bozor talablariga mos shakllantirish zarur hisoblanadi.

XULOSA

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yuqoridagilardan kelib chiqib davlat tomonidan xizmatlar sohasini qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari asosida O‘zbekistonda agroxizmatlar bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari quyidagilar hisoblanadi:

1. Agroxizmatlar bozori tizimida davlat organlarining tadbirkorlar va barcha toifadagi iste’molchilar bilan samarali hamkorligini ta’minlash uchun davlatning yagona eletkron ma’lumotlar bazasini shakllantirish.
2. Agroxizmatlar bozorida sog‘lom raqobat muhitini yaratish va saqlash bo‘yicha maqsadli va manzilli dasturlar hamda ular ijrosini ta’minlash maqsadida aniq chora-tadbirlar ishlab chiqishda davlatning bosh islohotchi bo‘lishiga ustuvorlik berish.

3. Iqtisodiy tizimning ochiqligi va shaffofligini ta'minlash uchun respublika davlat boshqaruvida vertual va eletkron xizmat turlarini ko'paytirish, tadbirkorlar va iste'molchilarning raqamli texnologiyalar asosida faoliyat yuritishi uchun tizimli ishlarni amalga oshirish.
4. Davlat tomonidan agrar xizmat ko'rsatish subyektlarini rivojlan-tirish uchun tadbirkorlar faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan turli byurokratik va boshqa to'siqlarni bartaraf etishga asosiy e'tibor qaratish.
5. Agroxizmatlar sohasi uchun yuqori qobiliyatli bilimlarga ega malakali mutaxassislar bilan ta'minlash, ular esa tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish mexanizmlarini joriy etishga ustuvorlik berish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Korolyov B.Y. Menedjment v APK. Uchebnik. –Rossiya.: 2007. –51 s.
2. Mirzayev Q.J. Agroservis iqtisodiyoti. Monografiya. – T.: "Iqtisod – Moliya", 2013. –212 b.
3. Ibragimov G.A. Agroxizmat korxonalari va fermer xo'jaliklari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning nazariy asoslari. // Journal of Economics, Finance and Innovation. –2023 Jun 12;1(3): 84-b.
4. Mamatkulov B. Fermer xo'jaliklarida chorvachilik mahsulotlari yetishtirishni rivojlantirish-kambag'allikni qisqartirishning ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Iqtisodiyot va ta'lim. 1-son 2021. – b. 232-238.
5. Zasada I. Multifunctional peri-urban agriculture–A review of societal demands and the provision of goods and services by farming. Land use policy. –2011. 1; 28(4):639-48.
6. Poulton C, Dorward A, Kydd J. The future of small farms: New directions for services, institutions, and intermediation. World development. –2010. 1;38(10):1413-28.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategi-yasi to'g'risida"gi 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni.

TURLI MAMLAKATLARDA OLIY TA'LIMNI MOLIYALASHTIRISH YO'LLARI

Umarova Moxigul Maxmayunus qizi
Toshkent shahridagi Puchon universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta'limni moliyalashtirish uchun turli rivojlangan mamlakatlar tomonidan qo'llaniladigan strategiyalarni har tomonlama o'rganib chiqib, moliyalashtirish mexanizmlarining dinamikasi va ularning oqibatlari yoritilgan. Moliyalashtirish strategiyalarining kontekstli ahamiyatini tan olgan holda, ushbu tadqiqot oliy ta'lim uchun yanada inklyuziv va barqaror kelajakni ta'minlovchi dalillarga asoslangan samarali qarorlar qabul qilishni o'rgatadi.

Kalit so'zlar: Oliy ta'limni moliyalashtirish, o'qish to'lovlari, davlat subsidiyalari, foydalanish imkoniyati, tenglik, innovatsion moliyalashtirish mexanizmlari, qiyosiy tahlil.

Abstract: This article comprehensively examines the strategies used by various developed countries to finance higher education, highlighting the dynamics of financing mechanisms and their implications. Recognizing the contextual importance of funding strategies, this research guides effective evidence-based decision-making for a more inclusive and sustainable future for higher education.

Key words: Higher education financing, tuition fees, state subsidies, accessibility, equity, innovative financing mechanisms, comparative analysis.

Аннотация: В этой статье всесторонне рассматриваются стратегии, используемые различными развитыми странами для финансирования высшего образования, подчеркивая динамику механизмов финансирования и их последствия. Признавая контекстуальную важность стратегий финансирования, это исследование помогает эффективно принимать обоснованные решения для более инклюзивного и устойчивого будущего высшего образования.

Ключевые слова: Финансирование высшего образования, плата за обучение, государственные субсидии, доступность, акционерный капитал, инновационные механизмы финансирования, сравнительный анализ.

KIRISH

Oliy ta'limni moliyalashtirish global bilimlar iqtisodiyoti tizimini shakllantirishda hal qiluvchi omildir. Rivojlangan davlatlar malakali va innovatsion inson kapitalini rivojlantirishga intilayotgan bir paytda, ular oliy ta'limni moliyalashtirish mexanizmlariga jiddiy e'tibor qaratdi. Ushbu tadqiqot rivojlangan mamlakatlar bo'ylab qabul qilingan turli modellarni qiyosiy tahlil qilishga kirishish, bunday tizimlarga xos bo'lgan ko'p qirrali muammolar va imkoniyatlarni e'tirof etish orqali oliy ta'limni moliyalashtirishning murakkab tomonlarini ochishni maqsad qilgan.

Tarixan oliy ta'limni moliyalashtirishda qo'llaniladigan usullar o'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy kontekstlarni, siyosiy mafkuralarni va har bir millatnining kelajagini belgilaydi [1]. O'quv to'lovlari an'anaviy ravishda moliyalashtirish modellarining asosi bo'lib kelgan bo'lsa-da, so'nggi o'n yilliklarda davlat subsidiyalari, xususiy investitsiyalar va innovatsion moliyalashtirish mexanizmlariga bo'lgan ishonch ortib bormoqda [2]. Bu o'zgarishlar iqtisodiy va ta'lim paradigmalarining o'zgarishi natijasida shakllangan oliy ta'limni moliyalashtirishning dinamik xususiyatini shakllantiradi.

Davlat aralashuvi oliy ta'limni moliyalashtirish konturlarini aniqlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi [3]. Davlat ko'magining ko'lami nafaqat oliy ta'lim olish imkoniyatiga, balki uning teng huquqliligiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi, chunki moliyaviy cheklovlar hamma uchun ta'lim imkoniyatlarini ta'minlash zarurati bilan muvozanatlashishi kerak [4]. Davlat va xususiy moliyalashtirish manbalari o'rtasidagi o'zaro ta'sir murakkab dinamikani keltirib chiqaradi, bu esa har bir yondashuvda ishtirok etadigan o'zaro kelishuvlarni talab qiladi [5].

Ushbu tadqiqot turli moliyalashtirish modellarining kuchli va zaif tomonlarini tizimli ravishda tahlil qilish orqali oliy ta'limni moliyalashtirish bo'yicha rivojlanayotgan jarayonga hissa qo'shishga qaratilgan [6].Ta'lim siyosati, institutsional asoslar va empirik tadqiqotlarni o'z ichiga olgan turli manbalardan olingan tushunchalarni tahlil

qilish orqali oliy ta'limning moliyaviy asoslarini shakllantiruvchi omillarni aniqlaydi. Shunday qilib, tadqiqotimiz dalillarga asoslangan siyosiy qarorlardan xabardor qilishga va oliy ta'limni moliyalashtirishning istiqbolliligi bo'yicha global muloqotni rivojlantirishga integratsiyalashishni ilgari suradi [7].

ADABIYOTLAR SHARHI

Oliy ta'limni moliyalashtirishning tarixiy evolyutsiyasi dinamik va murakkab bo'lib, u o'zgaruvchan iqtisodiyot va turli nazariyalar, omillar bilan shakllangan. Moliyalashtirishning dastlabki modellari ko'pincha xayriyaga tayanish bilan ajralib turardi, diniy va jamoat institutlari ta'lim ishlarini qo'llab-quvvatlashda markaziy rol o'ynagan [8]. Jamiyat yanada rasmiylashtirilgan ta'lim tizimlariga o'tgan sari, davlat universitetlarining tashkil etilishi ta'lim ijtimoiy rivojlanish uchun zarur bo'lgan jamoat mulki ekanligini, moliyalashtirishda jamoatchilik ishtirokiga o'tish zarurligini ko'rsatdi [9].

Universitetlar davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash uchun muqobil daromad manbalarini izlashlari iqtisodiy muammolarga javoban moliyalashtirish mexanizmi paydo bo'lganligi sababli o'quv to'lovlari oshiriladi [10]. Bu davrda xarajatlarni taqsimlash va foydalanuvchi-to'lov modellari kabi nazariyalar mashhur bo'lib, oliy ta'lim benefitsiarlari moliyaviy yukning bir qismini o'z zimmalariga olishlari kerak, degan fikrni ta'kidladilar [11]. Ushbu tarixiy siljish shaxsiy mas'uliyat va ta'limga davlat investitsiyalari o'rtasidagi muvozanat haqida munozaralarni keltirib chiqardi.

Bundan tashqari, adabiyotlar moliyalashtirish tuzilmalarining evrilish xususiyatini yoritib beradi: moliyalashtirish modellarini qayta ko'rib chiqishga turtki bo'lgan iqtisodiy tanazzul davrlarini o'z ichiga olgan kengayish davrlari ko'pincha davlat investitsiyalarining ko'payishi bilan bog'liq [12]. Oliy ta'lim moliyasining siyosiy iqtisodiga oid nazariyalar siyosiy mafkuralarning moliyalashtirish qarorlariga ta'sir qildi, bozorga asoslangan va davlatga asoslangan yondashuvlar o'rtasidagi o'zgarishlar kengroq siyosiy va iqtisodiy tendensiyalarni aks ettiradi [13].

Globallashuv kuchayib borar ekan, adabiyotlarda oliy ta'limni moliyalashtirishga xalqaro omillarning ta'siri namoyon bo'ladi. Xalqaro reytinglarning paydo bo'lishi va global intellekt uchun raqobat davlatlarni oliy ta'lim tizimlarining jozibadorligini oshirish uchun moliyalashtirish strategiyalarini qayta ko'rib chiqishga olib keldi [14]. Xalqaro tashkilotlar va moliyalashtirish organlarining oliy ta'limni moliyalashtirish bo'yicha global me'yorlar va kutilmalarni shakllantirishdagi rolini kamaytirib bo'lmaydi [15].

Oliy ta'limni moliyalashtirishning tarixiy yo'nalishi ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy qarashlarning murakkab o'zaro ta'sirini aks ettiradi. Vaqt o'tishi bilan moliyalashtirish tuzilmalarini shakllantirgan asosiy nazariyalar va omillarni o'rganib chiqib, ushbu adabiyot sharhi dunyo bo'ylab oliy ta'limni moliyalashtirish strategiyalariga ta'sir qilishda davom etayotgan tarixiy asoslar haqida qimmatli tushunchalarni taqdim etgan holda zamonaviy moliyalashtirish modellarini qiyosiy tahlil qilish uchun zamin yaratadi [16].

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda qo'llaniladigan metodologiya turli mamlakatlarda oliy ta'limni moliyalashtirishning qatiy va tizimli qiyosiy tahlilini osonlashtirish uchun mo'ljallangan.

NATIJALAR

Ushbu qiyosiy tahlil natijalari tanlangan mamlakatlar bo'ylab oliy ta'limni turli moliyalashtirish modellarining boy gobelenini ochib beradi, ular o'quv to'lovlari, davlat subsidiyalari va innovatsion moliyalashtirish mexanizmlaridagi o'zgarishlarni namoyish etadi.

O'quv to'lovlari bilan bog'liq vaziyatni tahlil qilish bizga bir qator yondashuvlarni aniqlash imkonini beradi. Ba'zi shtatlar arzon narxlardagi majburiyatni aks ettiruvchi bepul ta'lim modeliga amal qilsalar, boshqalari ko'pincha dastur darajalari yoki daromad darajalariga bog'liq bo'lgan bosqichli to'lov tuzilmalarini amalga oshiradilar. Bundan tashqari, ba'zi mamlakatlar bozorga asoslangan ta'lim siyosatiga tayanadi, bu yerda o'quv to'lovlari ta'limning qabul qilingan qiymati va mehnat bozori ehtiyojlari bilan belgilanadi.

1-jadval: Ta'lim to'lovlarining qiyosiy ko'rinishi

Mamlakat	Bakalavr O'qish ($)	Bitiruvchi O'qish ($)	Professional Dasturlar ($)
Mamlakat A	5 000– 8 000	7 000– 10 000	10 000– 15 000
Mamlakat B	3000– 6000	5 000– 8 000	8 000– 12 000
Mamlakat C	O'qish bepul	4000– 7000	6 000– 10 000
Mamlakat D	10 000– 15 000	12 000– 18 000	15 000– 20 000

Eslatmalar: Bu stol qiyoslash imkonini beradi umumiy ko'rinish ning o'qish to'lovi to'lovlar bo'ylab boshqacha darajalari ning ta'lim ichida tanlangan mamlakatlar.



1-rasm: Ta'lim to'lovlarining qiyosiy ko'rinishi

Davlat subsidiyalari: Oliy ta'limni moliyalashtirishda davlat subsidiyalarining roli xilma-xildir. Ba'zi mamlakatlarda universitetlar va talabalarga katta moliyaviy yordam ko'rsatuvchi mustahkam davlat investitsiyalari tizimi mavjud. Bundan farqli o'laroq, boshqalar xarajatlarni taqsimlashga o'tishga guvoh bo'lishdi, talabalar ta'lim xarajatlarining katta qismini o'z zimmalariga olishdi. Davlat mablag'larini taqsimlash kengroq iqtisodiy siyosat va siyosiy mafkuralar bilan murakkab aloqalarni ko'rsatadi.

2-jadval: Davlat subsidiyalari va moliyalashtirishni taqsimlash

Mamlakat	Ommaviy moliyalashtirish (% dan yuqori Ed budjet)	Ommaviy moliyalashtirish boshiga talaba (doll.)	Talaba ulashishni moliyalash (%)
Mamlakat A	65%	8000	35%
Mamlakat B	45%	6500	55%
Mamlakat C	80%	9000	20%
Mamlakat D	55%	7200	45%

Izohlar: Ushbu jadvalda davlat tomonidan moliyalashtiriladigan oliy ta'lim budjetining foizi, bir talabaga to'g'ri keladigan davlat mablag'lari va talabalar tomonidan qoplanadigan mablag'lar ulushi ko'rsatilgan holda davlat subsidiyalari taqsimoti keltirilgan.



2-rasm: Davlat subsidiyalari va moliyalashtirishni taqsimlash

Innovatsion moliyalashtirish mexanizmlari: innovatsion moliyalashtirish mexanizmlarini o‘rganish moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilishga qaratilgan bir qator strategiyalarni ochib beradi. Daromadlarni shartli ravishda qaytarish sxemalari, davlat-xususiy sheriklik va xayriya fondlari barqarorlik va moslashuvchanlik muammolarini hal qilish uchun tobora ko‘proq foydalanilmoqda. Ushbu mexanizmlar oliy ta’lim sifatini saqlab qolish yoki oshirish imperativi bilan moliyaviy cheklovlarni muvozanatlash urinishlarini aks ettiradi.

Bundan tashqari, natijalar oliy ta’limni moliyalashtirish modellarini belgilaydigan murakkab munosabatlarni ko‘rsatib, ushbu moliyalashtirish komponentlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni belgilaydi. Ta’lim to‘lovlari, davlat subsidiyalari va innovatsion mexanizmlarni qo‘llaydigan mamlakatlar ko‘pincha rivojlanayotgan iqtisodiy sharoitlar va ta’lim ustuvorliklariga javoban shunday qilishadi. Ushbu modellarning samaradorligi ularning kengroq ijtimoiy maqsadlarga mos kelishiga va o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashishiga bog‘liq.

Turli xil moliyalashtirish modellarining bunday sintezi oliy ta’limni moliyalashtirishga xos bo‘lgan murakkabliklarni chuqur tushunish uchun asos yaratadi. Kuzatilgan o‘zgarishlar kontekstga xos yondashuvlarning muhimligini ta’kidlab, bitta model hammaga mos kelmasligini tan oladi. Keyingi munozarada ushbu topilmalarning oqibatlari ko‘rib chiqiladi, bu moliyalash tuzilmalari tanlangan mamlakatlardagi oliy ta’lim tizimlarining ochiqligi, tengligi va umumiy samaradorligiga qanday ta’sir qilishini o‘rganadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Oliy ta’limda moliyalashtirishning turli modellari sintezining asosiy ustunlar: mavjudlik, tenglik va oliy ta’limning umumiy maqsadlariga ta’sirini tanqidiy tekshirishga undaydi. Ushbu bo‘lim moliya tuzilmalarining ta’sirchan ta’sirini o‘rganadi, ta’lim tizimlari va ularning manfaatdor tomonlari uchun kengroq ta’sirlar haqida tushuncha beradi.

O‘quv to‘lovlari va davlat subsidiyalariga differensial yondashuvlar foydalanish imkoniyatiga bevosita ta’sir qiladi. To‘lovsiz modellarni qo‘llaydigan yoki katta davlat subsidiyalarini taqdim etuvchi mamlakatlar ko‘pincha inklyuziv ta’lim tizimini qo‘llab-quvvatlab, ro‘yxatga olishning yuqori darajasini ko‘rsatadi. Bundan farqli o‘laroq, talabalar hissasiga ko‘p ishonadigan davlatlar beixtiyor ma’lum demografiya uchun to‘siqlar yaratishi mumkin. Natijalar moliyaviy barqarorlikni oliy ta’limni talabalar uchun ochiq qilish zarurati bilan muvozanatlashning muhim ahamiyatini ta’kidlaydi.

Oliy ta’limni moliyalashtirishning tenglik o‘lchovi resurslarni taqsimlash va talabalar populyatsiyasining ijtimoiy-iqtisodiy xilma-xilligi bilan chambarchas bog‘liq. Davlat subsidiyalari talabalar o‘rtasidagi moliyaviy nomutanosiblikni yumshatishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, tahlilga ko‘ra, subsidiyalarning tenglikni rag‘batlantirishda samaradorligi ushbu mablag‘lardan adolatli foydalanishni ta’minlash mexanizmlariga bog‘liq. Ushbu nomutanosibliklarni tan olish va bartaraf etish adolatli oliy ta’lim sohasini rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega.

Oliy ta’limning maqsadlari kengroq ijtimoiy natijalarni qamrab olish uchun individual kirish imkoniyatidan tashqarida hisoblanadi. Moliyaviy modellar ta’lim sifatiga, tadqiqot imkoniyatlariga va institutlarning innovatsiyalar salohiyatiga ta’sir qiladi. Moliyalashtirish tuzilmalarida kuzatilgan o‘zgarishlar moliyaviy strategiyalarni oliy ta’limning umumiy maqsadlariga moslashtiruvchi yaxlit yondashuv zaruratini ta’kidlaydi. Iqtisodiy barqarorlik va akademik mukammallikka intilish o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash ta’lim muassasalarining to‘liq salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun juda muhimdir.

Asosiy topilmalarni birlashtirganda hech qanday yagona moliyalashtirish modeli oliy ta’limning ochiqligi, tengligi va umumiy maqsadlarini universal optimallashtirishi aniqlandi. Kontekst omillari, jumladan, iqtisodiy sharoitlar, siyosiy mafkuralar va madaniy qadriyatlar moliyalashtirish strategiyasini shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. O‘quv to‘lovlari, davlat subsidiyalari va innovatsion mexanizmlar elementlarini o‘zida mujassam etgan gibrid yondashuv oliy ta’limni moliyalashtirishning murakkabliklarini hal qilishning potensial yo‘li sifatida namoyon bo‘ladi.

Kelajakni loyihalashda tahlil oliy ta’limni moliyalashtirishning potensial traektoriyalarini taklif qiladi. Daromadlarni to‘lashning shartli sxemalari va davlat-xususiy sheriklik kabi innovatsion moliyalashtirish mexanizmlarining keng tarqalishi diversifikatsiya tendensiyasidan dalolat beradi. Kelajakdagi o‘zgarishlar barqarorlik, raqamlashtirish va xalqaro hamkorlikka e’tiborni kuchaytirishi mumkin. Siyosatchilarga ushbu siljishlarni oldindan bilish va oliy ta’limning o‘zgaruvchan ehtiyojlarini qondirish uchun moliyalashtirish modellarini faol ravishda moslashtirish tavsiya etiladi.

Ushbu tadqiqot oliy ta’limni moliyalashtirish modellarini tizimli ravishda o‘rganish va taqqoslash orqali davom etayotgan global nutqqa mazmunli hissa qo‘shadi. Taklif etilgan tushunchalar dalillarga asoslangan siyosat ishlab chiqish uchun asos bo‘lib, chegaralardan oshib ketadigan va turli nuqtayi nazarlarni o‘zida mujassam etgan muloqotni rivojlantiradi. Turli moliyalashtirish modellariga xos kuchli tomonlar va muammolarni tushunib, manfaatdor tomonlar butun dunyo bo‘ylab oliy ta’lim uchun yanada inklyuziv, adolatli va barqaror kelajakni shakllantirish yo‘lida hamkorlikda harakat qilishlari mumkin. Ushbu tadqiqot oliy ta’limni moliyalashtirish sohasida doimiy tadqiqotlar, siyosat innovatsiyalari va xalqaro hamkorlik uchun katalizator bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aleixo, A.M., Leal, S., & Azeiteiro, U.M. (2018). Conceptualization of sustainable higher education institutions, roles, barriers, and challenges for sustainability: An exploratory study in Portugal. Journal of Cleaner Production, 181, 332-343. [https://doi.org/10.1016/j.jclepro.2018.01.121].
2. Altbach, P. G., Reisberg, L., & Rumbley, L. E. (2019). Trends in global higher education: Tracking an academic revolution. [Book].
3. De Oliveira Araújo, F.J., de Lima, L. S. A., & Cidade, P. I. M. (2020). Impact of Sars-Cov-2 and its reverberation in global higher education and mental health. Psychiatry Research, 288, 112991. [https://doi.org/10.1016/j.psychres.2020.112991].
4. García-Morales, V. J., Garrido-Moreno, A., & Martín-Rojas, R. (2021). The transformation of higher education after the COVID disruption: Emerging challenges in an online learning scenario. Frontiers in psychology, 12, 616059.
5. Marshall, J., Roache, D., & Moody-Marshall, R. (2020). Crisis leadership: A critical examination of educational leadership in higher education in the midst of the COVID-19 pandemic. International Studies in Educational Administration, 48(3), 30-37.6. Jena, P. K. (2020). Impact of Covid-19 on higher education in India. International Journal of Advanced Education and Research (IJAER), 5(2), 60-65. [View as HTML at https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract_id=3573423].
7. Xing, B., & Marwala, T. (2017). Implications of the fourth industrial age on higher education. Arxiv preprint arxiv:1703.09643. [View as HTML at https://arxiv.org/abs/1703.09643]
8. Mazzucato, M., & Semieniuk, G. (2018). Financing renewable energy: Who is financing what and why it matters. Technological Forecasting and Social Change, 127, 8-22. [https://doi.org/10.1016/j.techfore.2017.08.022].
9. Becker, S.A., Brown, M., Dahlstrom, E., Davis, A., et al. (2018). NMC horizon report: 2018 higher education edition. [PDF version available at https://www.nmc.org/wp-content/uploads/2018/02/nmc_2018_higher-ed-EN-5ye5wk.pdf].
10. Ferreyra, M.M., Avitabile, C., & Paz, F.H. (2017). At a crossroads: higher education in Latin America and the Caribbean. [Book].
11. Asrar-ul-Haq, M., Kuchinke, K.P., & Iqbal, A. (2017). The relationship between corporate social responsibility, job satisfaction, and organizational commitment: Case of Pakistani higher education. Journal of Cleaner Production, 156, 83-94. [https://doi.org/10.1016/j.jclepro.2017.03.019].
12. Becker, S. A., Cummins, M., Davis, A., Freeman, A., et al. (2017). NMC horizon report: 2017 higher education edition. [PDF version available at https://www.learntechlib.org/primary/p/178608/]
13. Dreher, A., Fuchs, A., Parks, B., Strange, A. M., & Tierney, M. J. (2018). Apples and dragon fruits: The determinants of aid and other forms of state financing from China to Africa. International Studies Quarterly, 62(1), 182-194.
14. Brammer, S., & Clark, T. (2020). COVID–19 and management education: Reflections on challenges, opportunities, and potential futures. British Journal of Management. [HTML version available at https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/32369329].

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

DEHQONCHILIKNI INNOVATSION ASOSDA RIVOJLANTIRISHNING XORIJIY TAJRIBASI

Yuldashev G‘iyos Turabekovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Samarqand filiali mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada dehqonchilikning ijtimoiy-iqtisodiy mazmunidan kelib chiqib, bugungi kundagi xorijiy tajribani o‘rganish va qo‘llash zaruriyati asoslangan. Shuningdek, dehqonchlik bo‘yicha alohida mamlakatlarning rivojlanish xususiyatlari batafsil keltirib o‘tilgan. Maqolada AQSH, Yaponiya, Xitoy kabi mamlakatlarning dehqonchilikni innovatsion asosda rivojlantirish borasidagi tajribalari yoritilgan va ulardan mamlakatimiz qishloq xo‘jaligida qo‘llash bo‘yicha xulosa va takliflar shakllantirilgan.

Kalit so‘zlar: dehqonchilik, qishloq xo‘jaligi, innovatsiya, xorijiy tajriba.

Abstract: This article is based on the need to study and apply modern foreign experience in the socio-economic maintenance of farming. The peculiarities of the development of individual countries in terms of agriculture are also mentioned in detail. The article describes the experience of countries such as the USA, Japan and China in the development of agriculture on an innovative basis, on the basis of which conclusions and proposals for its application in the agriculture of our country are formed.

Key words: farming, agriculture, innovation, foreign experience.

Аннотация: Данная статья основана на необходимости изучения и применения современного зарубежного опыта социально-экономического содержания фермерского хозяйства. Также подробно упоминаются особенности развития отдельных стран в плане сельского хозяйства. В статье описан опыт таких стран, как США, Япония и Китай, в развитии сельского хозяйства на инновационной основе, на основе которого сформированы выводы и предложения по его применению в сельском хозяйстве нашей страны.

Ключевые слова: фермерство, сельское хозяйство, инновации, зарубежный опыт.

KIRISH

Respublikamiz qishloq xo‘jaligi dehqonchiligini innovatsion asosda rivojlantirishda jahonning yetakchi davlatlari tajribalaridan foydalanish yangi iqtisodiy imkoniyatlarni ochib beradi.

O‘zbekistonda innovatsion asosda rivojlantirishni, xorijiy davlatlar tajribasini muhimligi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev – “... biz O‘zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo‘ygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilm-ma’rifat va innovatsiya bilan erisha olamiz” [1];

-“iqtisodiyotni yuqori sur’atlar bilan rivojlantirish uchun faol investitsion siyosatini izchil davom ettirish zarur”. “2020 yilda o‘zlashtiriladigan investitsiyalarning salmoqli qismi to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy sarmoyalar va kreditlar bo‘lishini alohida qayd etmoqchiman. Investorlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida ularga soliqlarni bo‘lib-bo‘lib to‘lash, infratuzilma yaratish xarajatlarini qisman davlat tomonidan qoplash mexanizmlari joriy etilmoqda” [2].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Iqtisodiyot tarmoqlarida innovatsion asosda rivojlanishda jahon tajribasining nazariy asoslarini shu yo‘nalishda qator ilmiy tadqiqot ishlari olib borgan Y.Shumpeter, E.Rojers, Ch.Edquist, N.Rosenberg [3-6] kabi olimlarning ilmiy ishlarida chuqur tadqiq qilingan.

Angliyaning Sasseks universiteti professori Roy Rotvelning fikricha, bizning innovatsion jarayon haqidagi tasavvurlarimiz oddiy chiziqli modellardan murakkab interaktiv modellar darajasiga rivojlanib bordi [7]. Uning “beshinchi avlod innovatsiyalari” tushunchasida innovatsiyalar ko‘p tomonlama jarayon, ya’ni korxonalarining tashqi va ichki integratsiyasini talab qiluvchi, axborot infratuzilmasining qo‘llanilishiga bog‘liq deb qabul qilinadi.

Abstrakt modellar bizga innovatsiyalarni boshqarishdagi muammolarni yaxshi anglashga yordam beradi, lekin shu bilan birga ko‘pincha bu modellarning qo‘llashda ehtiyot bo‘lish lozim. Bu modellarni qo‘llashda cheklovlar bo‘ladi. Masalan, innovatsiyalarni “texnologik turtki” chiziqli jarayoni (asosiy e’tibor ilmiy-texnik ishlanmalarga qaratiladi, foydalanuvchilar ta’siri esa inobatga olinmaydi yoki innovatsiyalarni harakatlantirish faqat bozor orqali yuz beradi, degan qarash bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga innovatsiyalar faqat katta o‘zgarishlarga olib keluvchi ixtirolar emas, balki inkremental innovatsiyalardan ham iborat.

Odatda, innovatsiyalar hamma tushunadigan qoidalar asosida rivojlanadi, ya’ni barcha innovatorlar o‘zlarining yo‘nalishlarida yangilik yaratishga urinadi.

Ilk innovatsion modellarda innovatsiyalar chiziqli faoliyat olib borish ketma-ketligi sifatida namoyon bo‘ladi. Avvalga ilmiy tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi orqali yangi mahsulotlar yaratilib bozoga chiqariladi (“texnologik turtki”) yoki bozorning o‘zi innovatsiyalarga ehtiyoj sezib korxonalarni innovatsiya yaratishga majbur etadi (innovatsiyalar manbasi: ehtiyoj bozor talabi bosimi gipotezasi [8]. Bu gipotezalarning kamchiliklari amaliyotga yaqqol namoyon bo‘ladi, aslida innovatsiyalar o‘zaro bog‘liq va muvozanatlashgan jarayon bo‘lib, ba’zida “texnologik turtki” ba’zida esa “bozor talabi bosimi” gipotezasi ustun keladi. Tajribalar shuni ko‘rsatmoqdaki, ko‘pchilik innovatsiyalar tartibsiz boshlanib, shakllanish bosqichlari davomida qayta ishlanadi va ba’zida shaklanish bosqichlari ketma-ketligi buziladi.

Innovatsiyani keltirib chiqaruvchi ehtiyojlar – bu odamlar yoki tashkilotlar o‘z imkoniyatlari maksimal darajasiga erishganda yoki undan qiniqmaslik natijasida ro‘y beradigan o‘zgarishlar asosida yuzaga keladi.

Innovatsiyalarni yaratishda tez-tez omadsizlikka uchraladi, rejalar o‘ta optimistik bo‘ladi, xatolar yig‘ilib boradi, salbiy sikllar rivojlanishi mumkin;

Innovatsiyalarni yaratuvchi bo‘limlar qayta tuzish odatda tashqi aralashuv – mutaxassislarni almashtirish yoki boshqa kutilmagan qarorlar orqali ro‘y beradi;

J.Abernati va K.B.Klark innovatsiyalar hayot siklini uch fazaga ajratadi [9]. Birinchisi “suyuq faza” – mahsulotda ba’zi o‘zgarishlar, ikkinchisi o‘tish fazasi – mahsulot yangi shaklga va xususiyatlarga ega bo‘ladi, uchinchisi esa ixtisoslashuv fazasi – mahsuotni ishlab chiqarish xarajatlari kamaytirilib, mahsulot bozorga chiqariladi.

Kleyton Kristenson birinchilardan bo‘lib, innovatsiyalarning bozor talabidan kelib chiqishiga e’tibor qaratdi [10]. Uning tadqiqotlariga ko‘ra har bir avlod almashganida ko‘pchilik korxonalar ayniqsa agrar soha haqida o‘z qonunlari o‘z vaqtida bozorni egallab turish bo‘yicha boshqalarga namuna bo‘lganiga va innovatsiyalarga investitsiya kiritganiga qaramasdan, yangi talablarga moslasha olmay bankrotlikka uchraydi. Kristenson yoritgan muammo agrar soha korxonalarining texnologik taraqqiyotiga moslasha olmasligida emas, balki yangi bozorlarning paydo bo‘lishi yangi ehtiyojlarning kelib chiqishi bilan bog‘liq. Umuman olganda ishlab kelayotgan korxonalar o‘zlarining asosiy mijozlari bilan ko‘p vaqt ovvora bo‘lib, uzoq muddatda ro‘y beradigan yangi bozorlarning paydo bo‘lish ehtimolini ko‘zdan qochiradi va natijada yangi o‘zgarishlarga moslasha olmaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada iqtisodiy tahlilning analiz va sintez, induksiya va deduksiya, taqqoslama kabi an’anaviy usullardan foydalanildi. Iqtisodchi olimlarning dehqonchilikni rivojlantirishga doir ilmiy-amaliy qarashlari tahlil qilindi va natijalari asosida xulosalar shakllantirilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

AQSh korxonalarida innovatsion faoliyatni ta’minlovchi alohida sharoitlar yaratilgan. Kiritilayotgan takliflarni tezkor tarzda joriy etish va uning samarasini darhol baholash uchun imkoniyatlar yaratilgan. Tashabbusni katta miqdordagi mukofot bilan taqdirlash siyosatini amalga oshirish yangiliklarni joriy etishning uzluksiz jarayoniga kuchli rag‘batlantiruvchi ta’sir ko‘rsatadi. Shunday, “Jeneral Motors” korporatsiyasi texnik-texnologik va tashkiliy ko‘rinishdagi har qanday taklifni 10 ming dollar atrofida rag‘batlantiradi. Korporatsiya har yili o‘rtacha bir xodimdan bitta taklif oladi va bu takliflarning uchdan bir qismi amaliyotga joriy etiladi.

AQShning innovatsion korxonalari obyektiv sabablarga ko‘ra yoki texnik takomillashmaganlik uchun amaliyotga joriy etish imkoniyati bo‘lmagan takliflarni ishlab chiqqan novatorlarni ham rag‘batlantiradilar. Ularga “Kompaniya faoliyatiga qiziqish bildirgani va uni rivojlantirishga harakat qilgani uchun” ramziy mukofoti beriladi.

AQShning innovatsion rivojlantirish venchen tadbirkorligi bo‘lgan texnologiyalar sohasiga yo‘naltirilgan. Shunga qaramay AQSh oxirgi 20 yilda eng katta venchur kapital bozori statistik ma’lumotlarga ko‘ra venchur investitsiyalar yuqori daromadli hisoblanadi. Ularning o‘rtacha daromadliligi 19 foizni tashkil etadi. Mamlakatlar miqyosida venchur kapital salmog‘ini qarab chiqqanda, AQSh va Kanada birgalikda jahonning 60 foiz venchur kapitalini, Yevropa 25 foiz, Osiyo 9 foiz, Afrika^2 foiz, Lotin Amerika va MDH davlatlari 1 foizni jalb qiladi. Shu bilan birga venchur kapitalining hajmi va tuzilishi mamlakatda innovatsion iqtisodiyot shakllanishiga kuchli ta’sir

o‘tkazadi. Masalan, Amerikada venchur kapitali 50 yil davomida rivojlanib keldi. 1950-yillarda paydo bo‘lib, 1970-80-yillarda odatiy xo‘jalik shakliga aylandi.

Amerika innovatsion modeliga xos xususiyat bu davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan kichik venchur korxonalarini rivojlantirish hisoblanadi. Ilmiy-texnik tadqiqotlarning olib borilishi va sotilishi davlat tomonidan faol qo‘llab-quvvatlanadi. Amerikada xususiy korxonalarning innovatsiyalarni yaratishdan olingan daromadi uchun soliq yuki past hamda bu korxonalar uchun qo‘shimcha imtiyozlar mavjud.

Yaponiya fan va texnologiyalarining rivojlanishi bo‘yicha AQSh dan keyin jahonda ikkinchi o‘rinni egallaydi. Yaponiyada ham 1980-yillarning o‘rtalaridan tarkibida venchur kapitali bo‘lgan kichik innovatsion korxonalar iqtisodiy rivojlanishning innovatsion modelini shakllantirish asosi sifatida e’tirof etila boshlandi. Bu turdagi korxonalar hozirda Yaponiya yalpi ichki mahsulotning 52 foizni yetkazib beradi. Venchur biznesini moliyalashtirishda Yaponiyada xususiy kapital bilan birgalikda davlat ham faol qatnashadi. Ba’zida yuqori texnologiyali sanoatda innovatsiyalar diffuziyasiga erishish uchun davlat tomonidan yangi korporatsiyalar tashkil etiladi. Yirik shaharlarda birjadan tashqari qimmatli qog‘ozlar bozorining mavjudligi yapon venchur biznesining tez rivojlanishiga o‘z hissasini qo‘shmoqda. Yapon siyosatining maqsadlaridan biri bu kichik, lekin bozor talabiga egiluvchan innovatsion korxonalarni yaratish hisoblanadi. Bu korxonalarda yangi texnologiyalarni va yangi mahsulotlarning yuritilishi tor ixtisoslik orqali amalga oshiriladi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, har bir ishlab chiqarish sohasida, ayniqsa, agrar sohada tarmoq ilmiy tadqiqot muassasalari, konstruktorlik byurolari, tajriba ishlab chiqarish va innovatsion markazlar bo‘lishi maqsadga muvofiqdir.

- “... mamlakatimiz uchun ilm-fan sohasidagi ustuvor yo‘nalishlarni aniq belgilab olishimiz kerak. Har bir davlat ilm-fanning barcha sohalarini bir yo‘la taraqqiy ettira olmaydi. Shuning uchun biz ham har yili ilm-fanning bir nechta ustuvor yo‘nalishlarini rivojlantirish tarafdorimiz”
- “... ilm – fan yutuqlarini elektron platformasini, mahalliy va xorijiy ilmiy ishlanmalar bazasini shakllantirish lozim. Har bir oliy ta’lim va ilmiy tadqiqot dargohi nufuzli chet el universitetlari va ilmiy markazlari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yishi shart” [1].

Respublikamizda keng ko‘lamli islohotlarni yanada rivojlantirish uchun innovatsion iqtisodiyotning taraqqiyotini xorijiy davlatlar tajribasida chuqur o‘rganish maqsadga muvofiqdir. Bu borada bugungi kunda xalqaro miqyosda tez va innovatsion asosda fan va texnologiya yutuqlariga asoslanib rivojlanayotgan Xitoy davlati tajribasi ayniqsa, ahamiyatlidir.

Davlatning innovatsion siyosatning keng joriy etishi Xitoy iqtisodiy o‘sishining asosiy harakatlantiriuvchi kuchiga aylandi. 1978-yildan beri Xitoyda fan va texnologiyalarni rivojlantirish bo‘yicha bir nechta islohotlarning o‘tkazilishi oliy ta’lim tizimining tez rivojlanishiga sabab bo‘ldi. O‘ttiz yil davomida amalga oshirilgan islohotlar o‘rtacha 9 foiz iqtisodiy o‘sishga erishishga zamin yaratdi.

Shu davrda milliy innovatsion infratuzilmada to‘rtta muhim o‘zgarish yuz berdi. Jahon talablariga mos keluvchi Xitoy universitetlarini shakllantirish maqsadida “211 loyiha” dasturining davomi bo‘lgan “985 tashabbus” dasturi ishga tushirildi. Hukumat, shu bilan birga Xitoy fanlar akademiyasida davlat institutlarida tadqiqot sifatini oshirish maqsadida “Bilim innovatsiya tashabbusi” dasturini ishlab chiqildi.

Xitoyning fan va texnologiyalarni rivojlantirishga qaratilgan oxirgi o‘ttiz yil davomida olib borgan siyosati innovatsion faoliyatni misli ko‘rilmagan darajada rivojlantirdi. Xitoy fan va texnologiyasi rivojlanishini ilmiy-texnik ishlanmalarga yo‘naltirilgan investitsiyalar; innovatsiya natijalari – patentlar, mahsulotlar va ilmiy maqolalar; fan ta’limi hamda texnologik sohalarda iqtidorlarni yetishtirishda namoyon bo‘ldi.

Xitoyda fan va texnologiyaning rivojlanishi ta’lim sohasi va malakali kadrlarni yetishtirish bilan birga bordi. Ta’lim sohasida o‘tkazilgan islohotlar ta’lim sifatini sezilarli oshirishga va universitetlarda o‘qiydigan talabalar sonini keskin oshishiga zamin yaratdi. Masalan, universitet va institut bitiruvchilari 2002-yilda 1-mln yu 300 ming kishini tashkil etgan bo‘lsa, 2012-yilda bu raqam olti millionni tashkil etdi. Universitetlarda iqtidorli talabalar sonining ko‘payishi Xitoyning innovatsion tizimining rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Shu bilan birga, bu islohotlar iqtidorli yoshlarni yetishtirishda ham o‘z ta’siri ko‘rsatdi. Masalan, “1000 ta iqtidor” dasturi xorijda bo‘lgan ko‘plab innovatsiyalarni yaratilishiga hissa qo‘shgan xitoylik iqtidorli olimlar va tadqiqotchilarni qaytarishga erishdi.

Xitoyning fan va texnologiyalarni rivojlantirish siyosati (1970 yillarda boshlanib) to‘rt bosqichda rivojlandi:

- tajriba bosqichi;
- tizimli islohotlar;
- chuqur islohotlar;
- uzoq muddatli rejalashtirish.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Jahon tajribalari shuni ko‘rsatmoqdaki, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanuvchi innovatsion dasturlar rivojlanayotgan davlatlarni rivojlangan davlatlar qatoriga tezroq olib chiqishi mumkin. Sog‘liqni saqlash, ta’lim tizimi va transport sohalariga innovatsiyalarni joriy etish rivojlanayotgan davlat fuqarolarining turmush darajasini tezroq o‘sishiga olib keladi. Shu bilan birga innovatsiyalar, xususan, xorijiy va davlat korxonalari o‘rtasida raqobatning kuchayishiga, mehnat bozori egiluvchanligi oshishiga va axborot kommunikatsiya texnologiyalari infratuzilmasining rivojlanishiga sabab bo‘ladi. Yuqoridagi ijobiy xususiyatlariga qaramay innovatsiyalarni boshqarish juda murakkab jarayon bo‘lib, ularning rivojlanishi va ta’sirini baholash ancha qiyin.

Shunday qilib, innovatsiyalarni shakllantirishda va uni muammoli holatini tanqid qilishda va foydali jihatlarini qo‘llab-quvvatlashda alohida yondashuv muhim ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda keng ko‘lamli islohotlarni yanada rivojlantirish uchun innovatsion iqtisodiyotning taraqqiyotini xorijiy davlatlar tajribasida chuqur o‘rganish maqsadga muvofiqdir. Bu borada bugungi kunda xalqaro miqyosda tez va innovatsion asosda fan va texnologiya yutuqlariga asoslanib rivojlanayotgan davlatlar tajribasini o‘rganish va ijobiy tomonlarini qo‘llash ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.//Xalq so‘zi, 2020-yil 25-yanvar.
2. Mirziyoyev Sh.M.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi/Xalq so‘zi, 2018-yil 29-dekabr.
3. Шумпетер Й.А. История экономического анализа: в 3 т. – СПб.: Экономическая школа, 2003.
4. Rogers, E. M., Singhal, A., & Quinlan, M. M. (2014). Diffusion of innovations. In An integrated approach to communication theory and research (pp. 432-448). Routledge.
5. Edquist, C. (2010). Systems of innovation perspectives and challenges. African Journal of Science, Technology, Innovation and Development, 2(3), 14-45.
6. Kline, S. J., & Rosenberg, N. (2010). An overview of innovation. Studies on science and the innovation process: Selected works of Nathan Rosenberg, 173-203.
7. http://www.powernmodels.com/575/fwe-generations-ob-innovation-c-rotwel.
8. Siebert, R., & Zulehner, C. (2010). The impact of market demand and innovation on market structure. Working paper.
9. Abernathy, W. J., & Clark, K. B. (1985). Innovation: Mapping the winds of creative destruction. Research policy, 14(1), 3-22.
10. http://chaytoncharistensen.com

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

TIJORAT BANK XIZMAT TURLARINI ISLOMIY BANK XIZMATLARI ORQALI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Bayjanova Gozzal Sarsengaliyevna
Qoraqalpoq davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Maqolada tijorat banklari tomonidan islomiy bank xizmat turlarini jumladan, ikkinchi yirik sektori suquqni rivojlantirish orqali tijorat bank daromadini oshirish va tijorat banklarining likvidliligini ta'minlash mumkinligini regression va korrelyatsion modellar orqali tahlil qilinib amaliy fikr va mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Islom moliyasi, islom banki, likvidlilik, tijorat banki, aholi daromadi, suquq, yalpi ichki mahsulot.

Abstract: The article analyzes the possibility of increasing commercial bank income and ensuring the liquidity of commercial banks through the development of Islamic banking services, including the second largest sector of law by commercial banks.

Key words: Islamic finance, Islamic banking, liquidity, commercial banking, personal income, law, gross domestic product.

Аннотация: В статье анализируются возможности увеличения доходов коммерческих банков и обеспечения ликвидности коммерческих банков за счет развития исламских банковских услуг, в том числе второй по величине отрасли права коммерческих банков.

Ключевые слова: исламские финансы, исламский банкинг, ликвидность, коммерческий банкинг, доходы населения, право, валовой внутренний продукт.

KIRISH

Islomiy moliya mexanizmi an'anaviy bank tizimiga nisbatan muqobil tizim sifatida dunyoda tanildi va qisqa muddatda to'liq shaklda tijorat banklari bilan raqobatlasha oladigan yaxlit mexanizmga aylandi. Tijorat banklaridan farqli ravishda, islomiy banklar moliyalashtirishda foyda va zararni ishtirokchilar o'rtasida mutanosib taqsimlash vositasida tadbirkorlik subyektlarini va ishbilarmonlarni o'ziga jalb eta oldi. Jahon miqyosida 48 ta mamlakat islom moliyasini joriy etgan bo'lib, ularning tarkibida ko'p sonli musulmon aholi yashaydigan mamlakatlardan tashqari, aholisining kamchilik qismini musulmonlar tashkil etadigan mamlakatlar, jumladan: Buyuk Britaniya (4,4%), AQSH (0,9%), Singapur (14%), Shveysariya (5,2%), Kanada (3,2%), Avstraliya (2,6%), Fransiya (9%), Germaniya (5%), Rossiya (15%) va Ispaniya (2,1%) kabi mamlakatlar ham islomiy bank xizmatlaridan foydalanmoqda[1]. Islomiy moliya mexanizmi o'zining adolatliligi, moliyaviy inqirozga uchrash darajasining pastligi bilan nafaqat musulmonlarni balki boshqa din vakillarini ham o'ziga torta oldi.

Oxirgi yillarda islom moliyasi umumiy o'sish tedensiyasini ko'rsatib kelmoqda. 2021-yilga kelib islom moliyasining aktivlari deyarli 2,6 trln. AQSH dollarga yetdi. Hisob kitoblarga ko'ra 2024-yil yakuniga qadar 3,4 trln. AQSH dollargacha yetishi kutilmoqda. Shuningdek, islom moliyasi G20 kun tartibidan joy olishga ham ulgurgani uning ahamiyatini yanada oshiradi. Islom moliyasining ikkinchi yirik sektori bu suquq nisbatan jadalroq o'sib kelmoqda. 2020 yilda 123,15 mlrd. AQSH dollari qiymatida suquq emissiya qilinib, jami 1,1 trln. AQSH dollarini tashkil etdi.

Bugungi kunda, O'zbekiston Respublikasi bank tizimida amalga oshirilayotgan keng iqtisodiy islohotlarning asosiy tamoyili, ularning faoliyatida bozor mexanizmlarini kengroq joriy etish, moliyaviy barqarorligini ta'minlash, tijorat banklari kapitali tarkibidagi davlat ulushini keskin kamaytirish, valyuta bozorini liberallashtirish, ishlab chiqarishni tarkibiy o'zgartirish bilan bog'liq muammolarning yechimiga qaratilmoqda. Jumladan, "hududlar iqtisodiyotini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish ko'lamini kengaytirish, rivojlanish darajasi past bo'lgan tuman va shaharlarni, eng avvalo, sanoat va eksport salohiyatini oshirish yo'li bilan jadal rivojlantirish hisobiga, min-

1 Islamic Financial Services Industry Stability Report 2020, p. 12.

taqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidagi farqlarni kamaytirish”[2] masalalari bo‘yicha yechimlarni topishda mamlakatda bank tizimi kreditlash metodologiyasining o‘rni va ahamiyati dolzarb masala bo‘lib hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O‘z navbatida, malayziyalik olim Sudin Xorun islomiy bank tizimida ishlatiladigan besh toifadagi vositalarni keltiradi: birinchi toifaga foyda va zararlarni taqsimlashga asoslangan vositalar, ikkinchisiga esa oldi-sotdiga asoslangan vositalar, uchinchisiga – yig‘im va komissiyalarni o‘z ichiga olgan vositalar kiradi. To‘rtinchi toifa bepul xizmatlarni, beshinchisi esa – yordamchi xizmatlarni o‘z ichiga olgan vositalarni bayon etib beradi.

Ibrohim Varde islomiy moliyaviy mahsulotlarni mazkur vositalardan foydalanishda vujudga keladigan huquqiy, moliyaviy, iqtisodiy va siyosiy munosabatlar majmuyiga asoslanib tasniflaydi. Shunga muvofiq ravishda u sotishga asoslangan murobaha, musovama, istisno‘, salam, tavarruq va iyna kabi bitimlar kiradigan mahsulotlarni ajratib ko‘rsatadi. Ikkinchi guruhdagi vositalar ijara (yollash)ga asoslangan mahsulotlardir. Uchinchi guruhga esa foyda va zararlarni bo‘lishish hamda ulushli ishtirokka (muzoraba va mushoraka) asoslangan mahsulotlar kiradi.

Islomiy moliya sohasidagi rossiyalik mutaxassis R.I. Bekkin islomiy moliyaviy mahsulotlarning quyidagi tasnifini keltiradi: – foyda va zararlarni taqsimlash mexanizmiga asoslangan vositalar yoki moliyalashtirishning investitsiyaviy vositalari: muzoraba, mushoraka; – qarz bilan bog‘liq moliyalashtirishga asoslangan vositalar: murobaha, salam, shuningdek, istisno‘ va ijara.

R.R. Vohidov moliyaviy vositalarning eng ko‘p tarqalgan ikki guruhini ko‘rsatib o‘tadi: kapitalda ishtirok etishga asoslangan vositalar va qarz bilan bog‘liq moliyalashtirishga asoslangan vositalar. Kapitalda ishtirok etishga asoslangan vositalarga R. R. Vohidov muzoraba va mushorakani, qarz bilan bog‘liq moliyalashtirishga asoslangan vositalarga – murobaha, ijara, salam va sukukni kiritadi.

Islom moliyasi va bank ishining fundamental asoslari va tamoyillari xususan, sukuklarning ishlash mexanizmlari va uning istiqbollari bo‘yicha Malayziyalik olimlar Sedin Xorun va Van Nursofiza Van Azmi (Sudin & Wan Nursofiza, 2009), g‘arb olimlaridan Brayn Kettel (Kettell, 2011) ish olib borgan. MDH vakillaridan L.S.Mokina (Mokina, 2017) va Yaqin sharq olimlari J.Nasif, Abdulkadir Tomas (Nathif & Abdulkader, 2005) islomiy qimmatli qog‘ozlar moliyalashtirishning yangi manbalari sifati namoyon bo‘lishini ochib bergan. bundan tashqari M.U.Chapra (Chapra, 2011) islomiy qimmatli qog‘ozlarning jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitidan kam ta’sir bilan chiqqaniga to‘xtalib o‘tgan. O‘zbekiston olimlaridan Ravshan Abdullayev (Abdullayev va Dusanov, 2007), tarjimonlardan Botirxo‘ja Jo‘rayevlar (Jo‘rayev, 2014) bu borada ilmiy ishlarni boshlab berishgan. Umuman olganda mavzu jahon hamjamiyati uchun birmuncha, O‘zbekiston uchun deyarli yangi bo‘lganligi uchun kelgusida ko‘plab izlanishlarni talab etadi.

Suquqning iqtisodiyot rivojlanishiga ta’sirini baholashdan oldin bu borada amalga oshirilgan ishlarni tahlil qilish maqsadida Scopus bazasida indeksatsiyalanuvchi Elsevier nashriyoti tomonidan xalqaro ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar o‘rganib chiqildi. Qidiruv tizimida “suquq” so‘zining maqola nomi, annotatsiyasi va kalit so‘zlarida foydalanishlik xususiyatiga ko‘ra 57 maqola mavjudligi aniqlandi. Ushbu adabiyotlarni o‘rganish natijasida islom moliyasi va islom banklari bilan bog‘liq ilmiy ishlar ko‘payib borayotganligi haqida xulosaga kelish mumkin. Ularning tarkibida adabiyotlarning ilmiy tahlillari ham mavjud.

Suquqlarning iqtisodiyotga ta’siri borasida amalga oshirilgan ilmiy ishlar kam bo‘lib, bu borada ilk urinish suquq emissiyasining YAIM, yalpi asosiy kapital o‘sishi va savdo jarayonlariga ta’siriga yo‘naltirilgan. Ushbu maqolada suquq emissiyasining YAIM, asosiy kapital o‘sishi va savdo jarayonlarga ta’siri 2005-2012-yillarda ko‘rilgan bo‘lib, Fors ko‘rfazi mamlakatlari uchun ta’sir sezilmagan bo‘lsa-da, barcha emitent mamlakatlar birgalikda olinganda suquq emissiyasi YAIMga ijobiy ta’sir etishi aniqlangan. O‘rganishlar kutilganidek natija bermagan bo‘lsada, yangi yo‘nalishga qo‘l urilganligi bilan ahamiyatli hisoblanadi. Ushbu yo‘nalishdagi keyingi izlanish salmoqli natijalarga erishganligi bilan e’tiborga molikdir. Ishda boshqa omillar va metodning tanlanganligi bilan avvalgisidan farq qiladi. 2000-2020-yillarda suquq emissiya qiluvchi mamlakatlar iqtisodiy o‘sishiga sukuklarning ta’siri o‘rganilgan. Undagi natija shuni ko‘rsatadiki, suquqlar uzoq muddatli davr uchun iqtisodiy o‘sishni qo‘llab-quvvatlaydi. Bunda korporativ va davlat suquqlari bir xil ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada joriy yo‘nalishni davom ettirgan holda suquq emissiyasining aholi daromadlariga ta’sir darajasi Malayziya misolida 2006-2020-yillardagi ko‘rsatkichlar asosida o‘rganilgan. Islomiy moliyalashtirish orqali bugungi kunda tijorat banklarimizni qiynab kelayotgan lividlilik muammosini hal qilishimiz mumkinligi regression va korrelyatsion model orqali tahlil qilinib kelajakda mamlakatimizda qo‘llash bo‘yicha amaliy taklif va tafsiyalar keltirilgan.

2 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantiish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tarixiy hujjatlar shuni ko‘rsatadiki, suquq masalasi birinchi martta Imom Molikning “Al-Muvatta” asarida yoritilgan. Bu mexanizm Umaviylar xalifaligi davrida VII asrda amal qilgan. Zamonaviy ko‘rinishdagi suquq emissiyasi uchun 1978-yilda Iordaniyada va 1980-yilda Pokistonda urinishlar bo‘lgan. Ammo bozordagi infratuzilma va shaffoflikning yetarli darajada bo‘lmaganligi uchun bu urinishlar muvaffaqiyatsiz yakunlangan. Muvaffaqiyatli hisoblangan ilk suquq 1990-yilda Malayziyada 125 million Malayziya ringgiti – 32,9 mln. AQSH dollar qiymatida chiqarilgan. Shundan so‘ng, 2001-yilga qadar birorta suquq emissiya qilinmagan.

Tadqiqotimizda suquq rivojlanishining iqtisodiyot taraqqiyotiga ta’siri baholangan bo‘lib, unda quyidagi omillar tanlab olingan:

- muomaladagi suquq hajmi (so) – Malayziya muomaladagi suquq hajmi. Suquq bozorining eng asosiy ko‘rsatkichlaridan biri modelimiz uchun ta’sir etuvchi omil sifatida tanlangan;
- aholi jon boshiga milliy daromad (gnipc) – Malayziya milliy daromadining aholi jon boshiga to‘g‘ri kelish ko‘rsatkichi. Ta’sir etiluvchi ushbu omil aholi turmush darajasini belgilash uchun xizmat qiladi.

Yuqoridagi barcha qo‘rsatkichlar 2006-2020-yillar uchun 2012-yildagi o‘zgarmas narxlarda milliy valyutada hisoblangan (1-jadval). Ma’lumotlar Jahon banki, Xalqaro islom moliya bozori (IIFM) tashkiloti va Malayziya qimmatli qog‘ozlar komissiyasidan olinganligi tahlilning ishonchli bo‘lishi uchun asos bo‘ladi.

1-jadval: Malayziya davlatida muomaladagi suquq hajmi va milliy daromadining aholi jon boshiga qiymati[3]

Yil	Muomaladagi sukuk hajmi (mlrd.)	Aholi jon boshiga milliy daromad	Aholi jon boshiga milliy daromad*
2006-yil	105,2	22116,3	25824,3
2007-yil	135,8	24376,7	27131,5
2008-yil	152,8	27423,8	27607,5
2009-yil	172,0	25189,9	27005,6
2010-yil	181,0	28194,2	28194,2
2011-yil	349,3	31068,2	29462,3
2012-yil	474,5	32179,9	30217,7
2013-yil	512,1	33412,9	31331,4
2014-yil	576,3	35820,0	32778,0
2015-yil	607,9	37210,6	34184,6
2016-yil	661,1	38990,9	35141,6
2017-yil	759,6	42341,3	36784,3
2018-yil	844,2	43784,6	37677,4
2019-yil	935,7	45396,4	38945,3
2020-yil	1027,2	47008,2	40213,2

Tadqiqotning asosiy maqsadi suquq emissiyasining aholi daromadlariga ta’sir darajasi Malayziya misolida regression va korrelitsion model tuzishdan iborat. Ushbu modellarni tuzishda hozirgi kunda ekonometrikada keng qo‘llanilayotgan “Eviews 9” dasturidan foydalanamiz. Aholi jon boshiga milliy daromad (gnipc)ga ta’sir qiluvchi omilning ta’sirini quyidagi oddiy regression va korrelyatsion ekonometrik formula ko‘rinishida ifodalaymiz:

$$gnipci = \beta 0 + \beta 1soi + \varepsilon i \ (1)$$

Oddiy regression va korrelyatsion ekonometrik modelni tuzishda natijaviy omil va sabab omilining ko‘rsatkichlari turli xil bo‘lgani uchun ularning natural logarifimga o‘tkazib, oddiy regression va korrelyatsion ekonometrik formula ko‘rinishiga keltiramiz.

$$lngnipci = \beta 0 + \beta 1lnsoi + \varepsilon i \ (2)$$

3 Malaysian ICM bulletin va Jahon banki ma’lumotlari asosida tayyorlangan.

Yuqoridagi (2) oddiy regression va korrelitsion ekonomerik modelini tuzishda “eng kichik kvadratlar usulidan” (Ordinary least squares) foydalangan holda amalda amalga oshiriladi. Ushbu oddiy regression va korrelitsion ekonometrik modeli tahlilini natijasini 2-jadvalda keltirilgan.

Ushbu keltirilgan hisob-kitoblar bo‘yicha quyidagi bir omilli regression model shakllandi:

$$lngnipci = 9{,}26 + 0{,}18lnsoi + \varepsilon i \quad (3)$$

2-jadval: Eviews dasturi asosida oddiy regression va korrelyatsion tahlil natijalari [15]

Bog‘liq o‘zgaruvchi: Aholi jon boshiga milliy daromad (lngnipc)				
Metod: Eng kichik kvadratlar				
Ma’lumotlar: 2006-2020				
Kuzatuvlar soni: 13				
O‘zgaruvchilar	**Koeffitsiyent**	**Standart xatolik**	**t-statistik**	**Ehtimoligi**
Muomaladagi sukuk hajmi (lnso)	0.184419	0.018732	9.845261	0.0000
C	9.265272	0.109297	84.77156	0.0000
Determinatsiya koeffitsiyenti	0.898081	Bog‘liq o‘zgaruvchilarning o‘rtacha qiymati		10.33518
Tug‘irlangan determinatsiya koeffitsiyenti	0.888816	Bog‘liq o‘zgaruvchilarning standart chetlanishi		0.126198
Regressiyaning standart xatoligi	0.042080	Akaykening mezoni		-3.357857
Qoldiqlarni kvadrat yig‘indisi	0.019478	Shvars mezoni		-3.270942
Maksimal o‘xshashlik funksiyasining qiymati	23.82607	Xannan-Kuinn mezoni		-3.375722
F-statistikasi	96.92917	Darbin-Uotson statistikasi		0.731932
Ehtimoligi (F statistikasi)	0.000001			

2-jadvaldagi ma’lumotlarni regression tahlili shuni ko‘rsatadiki, bog‘liq o‘zgaruvchi hisoblangan aholi jon boshiga milliy daromad (lngnipc)ga mustaqil o‘zgaruvchi hisoblangan muomaladagi suquq hajmi (lnso) mavjud. To‘g‘rilangan determinatsiya koeffitsenti shakllantirilgan modelining ma’lumotlarga qanchalik yaxshi mos kelishini ko‘rsatdi. Chunki to‘g‘rilangan determinatsiya koeffitsiyenti qanchalik birga yaqin bo‘lsa, mustaqil o‘zgaruvchi hisoblangan muomaladagi suquq hajmi bog‘liq o‘zgaruvchi aholi jon boshiga milliy daromadning o‘zgarshini ta’sirini asoslab beradi. Ya’ni, aholi jon boshiga milliy daromadning qiymatlarini xatosiz prognoz qilish imkoniyatini beradi. Shakllangan modelda tug‘irlangan determinatsiya koeffitsiyenti shuni ko‘rsatadiki, aholi jon boshiga milliy daromad (lngnipc)ni 89,8 foiz modelda shakllantirilgan omil hisoblangan muomaladagi suquq hajmiga bog‘liqdir. Qolgan 10,2 foiz esa hisobga olinmagan boshqa omillarga bog‘liq hisoblanadi. Aholi jon boshiga milliy daromad (lngnipc)ga ta’sir qiluvchi omil hisoblangan muomaladagi suquq hajmi ta’siri darajasini koeffitsiyentni 5 foizlik muhimlik darajasida aniqlanadi.

3-jadval: Breush-Godfri avtokorrelyatsiyasi testi natijasi [15]

F-statistika	2.712952	Ehtimolligi F(4,3)	0.1197
Kuzatuv* R-kvadrat	4.889590	Ehtimolligi. chi-kvadrat (4)	0.0867

Regression modelining muomaladagi suquq hajmi koeffitsiyentini P qiymatining ehtimolligi bir foizdan kichik bo‘lib, ushbu koeffitsiyentning aholi jon boshiga milliy daromad o‘zgarishiga ta’sir qilishini anglatadi. Tuzilgan regression modelining Fisherning F-statistikasining P qiymatining ehtimolligi 0,05 dan kichik bo‘lib, o‘zgarmas va mustaqil o‘zgaruvchi omilning bog‘liq o‘zgaruvchi hisoblangan aholi jon boshiga milliy daromadga ta’sir qilishini ko‘rsatadi.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Modelning prognoz qilishini aniqlash uchun diagnostika tahlilini amalga oshiramiz. Birinichi navbatda, tuzilgan modelda qoldiqlarda avtokorrelyatsiya muammosi mavjudligini tekshiramiz. Qoldiqlarni avtokorrelyatsiyani Breush-Godfri testi orqali aniqlanadi (3-jadval).

4-jadval: Breush-Pagan-Godfri geteroskedastik test natijasi

F-statistika	3.048468	Ehtimolligi F(1,7)	0.1086
Kuzatuv* R-kvadrat	2.820954	Ehtimolligi. chi-kvadrat (1)	0.0930
Umumiy kvadrat yig‘indisini tushuntirish	1.063535	Ehtimolligi. chi-kvadrat (1)	0.3024

Breush-Godfri testi natijasi kelib chiqqan holda qoldiqlar o‘rtasida avtokorrelyatsiya mavjud emas. Chunki R-kvadrat ehtimolligi darajasi 0,05 dan katta bo‘lib, nol gepoteza, qoldiqlarning avtokorrelyatsiya mavjud emas gepotizasini qabul qiladi. Breush-Godfri avtokorrelyatsiyasi testidan keyin, qoldiqlarning geteroskedastik testini amalga oshiramiz. Geteroskedastik testini Breush-Pagan-Godfri testi orqali aniqlanadi (4-jadval).

Breush-Pagan-Godfri geteroskedastik natijasi kelib chiqqan holda qoldiqlar o‘rtasida geteroskedastik mavjud emas. Chunki, R-kvadrat ehtimolligi darajasi 0,05 dan katta bo‘lib, nolinchi gepoteza shuni ko‘rsatadi, qoldiqlarning geteroskedastik mavjud emas gepotezasini qabul qiladi. Ya’ni, tuzilgan model qoldiqlari gomoskedastik tebranishga ega. Diagnostika testlari shuni anglatadi, tuzilgan modelda qoldiqlarda avtokorrelyatsiya mavjud bo‘lmasa, qoldiqlarda tebranishi gomoskedastik bo‘lishi modelning prognoz qiladigan bo‘lsak, qoldiqlarni normal taqsimoti testi natijasi kelib chiqan holda qoldiqlar o‘rtasida normal taqsimot mavjud. Chunki, R-kvadrat ehtimolligi darajasi 0,05 dan katta bo‘lib, nol gepoteza shuni ko‘rsatadi, qoldiqlarning normal taqsimotini mavjud gepotezasini qabul qiladi. Ya’ni tuzilgan model qoldiqlari tebranishini normalligi ega.

XULOSA

Globallashuv va jahonda ketayotgan innovatsion o‘zgarishlardan o‘rta qolmaslik maqsadida O‘zbekiston Hukumati axloqiy (islomiy) moliya yoki sherikchilikka asoslangan banking sanoatini rivojlantirish bo‘yicha yul xaritasini ishlab chiqishi tavsiya etiladi. Ushbu yo‘l xaritasi mavjud qonunchilikni (bank faoliyati, soliq, qimmatli qog‘ozlarga doir qonunchilikka qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish) takomillashtirish, targ‘ibot ishlarini olib borish, islomiy moliya infratuzilmasini rivojlantirish, xalqaro hamkorlikni va davlat sektorini rivojlantirish, islomiy moliya xizmatlari bozorini rivojlantirish, ilmiy-o‘quv ishlarini olib borish va investorlar bilan ishlashni o‘z ichiga olishi lozim. Shu bilan birga har bir bajariladigan tadbir bo‘yicha mas’ul idora va muddat belgilanishi maqsadga muvofiqdir.

Yuqorida sanab o‘tilgan vazifalarni amalga oshirish uchun Islom tadqiqotlar va treninglar institutining grant mablag‘lari va maslahat xizmatlaridan foydalansa bo‘ladi.

Islomiy moliya – bu insonlarning, biznes va hukumatlarning ehtiyojlarini qondiradigan yo‘llarning eng yaxshi namunasidir. Bu mahsulot taklifi va ijtimoiy imtiyozlar o‘rtasidagi bog‘liqlik, ayniqsa, aniq bo‘lgan sohadir. Ushbu imtiyozlarning eng muhimlaridan biri sohaga moliyaviy integratsiyani oshirish uchun salohiyatning mavjudligidir.

O‘tkazilgan tadqiqotimizda suquqning iqtisodiyotga ijobiy ta’siri borasidagi o‘rtaga tashlangan gipoteza yana bir bor o‘z tasdig‘ini topdi. Shunga ko‘ra musulmonlar ko‘p istiqomat qiluvchi mamlakatlarda aholi daromadini oshirishning bir omili sifatida suquqlarning emissiyasidan foydalanish maqsadga muvofiq. Bunda o‘rta va uzoq muddatli suquqlar makroiqtisodiy nuqtayi nazaridan samaradorroq hisoblanadi. Shu kunga qadar suquqni joriy qilmagan yoki ushbu moliyaviy instrumentdan kam foydalanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotiga turtki berish uchun qulay imkoniyat sifatida qaraymiz.

Xulosa qilib shuni ta’kidlash mumkinki, boshqa omillarni (ceteris paribus) hisobga olmagan holda muomaladagi suquq hajmi 1 foizga o‘sishi aholi jon boshiga milliy daromad 0,18 foizga o‘sishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Islamic Finance Development Report 2019: Shifting Dynamics. The Islamic Corporation for the Development of the Private Sector and Refinitiv, 102 p.;
2. Smaoui H., & Nechi S. (2017). Does sukuk market development spur economic growth? Research in International Business and Finance, 41, pp. 136-147;
3. Haydarov O‘ral Axmadovich, & Shodiqulov Shaxboz Mo‘minqul o‘g‘li. (2022). Investitsiya faoliyatini islom moliya instrumentlari orqali moliyalashtirishning nazariy asoslari // Journal of New Century Innovations, 4(1), 83–92. Retrieved from http://www.wsrjournal.com/index.php/new/article/view/578
4. Sukuk report: A comprehensive study of the global sukuk market. International Islamic Financial Market, July 2019, 8th edition. 184 p.;
5. Махмудов, С. (2021). Пути улучшения механизмов финансирования логистических компаний // Экономика и образование, (3), 237–242. извлечено от https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/view/121

6. Сукук. Шариатский стандарт №17 / Пер. с англ.; [Ред. совет: Р.Р. Вахитов и др.]; Орг.бух. учета и аудита исламских фин. учреждений (AAOIFI).– М.: Исламская книга, 2010. 40 с.;
7. Mahmudov, S. (2021). Logistik kompaniyalarni moliyalashtirishda xorij tajribasi // Iqtisodiyot va Innovatsion Texnologiyalar, (3), 13–20. Retrieved from https://inlibrary.uz/index.php/economics_and_innovative/article/view/11862
8. Echchabi A., Abd.aziz H., Idriss U., 2016. Does sukuk financing promote economic growth? An emphasis on the major issuing countries. Turk. J. Islam. Econ. 3, pp. 63-73;
9. Norov, A. R. ., Yuldashev, J. A. ., Sattorova, N. G. qizi ., Turgunova, K. S. kizi ., & Ibragimov, I. K. . (2022). The Role of the Foreign Exchange Market in Ensuring the Stability of the National Currency in the Country. Spanish Journal of Innovation and Integrity, 6, 20-27. Retrieved from http://sjii.indexedresearch.org/index.php/sjii/article/view/207
10. Abidova, D., & Abdurazzakova, . Sh. M. Q. (2022). O'zbekistonda turizm sohasiga investitsiyalarni samarali jalb etishning xorijiy tajribalari // Архив научных исследований, 2(1). извлечено от http://journal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/363
11. Norov, A. R. ., Haydarov, O. A. ., Saipnazarov, S. S. ., & Saidaxmedova, A. M. . (2022). Mechanisms to Ensure the Stability of the National Currency in the Republic of Uzbekistan. Spanish Journal of Innovation and Integrity, 5, 393-400. Retrieved from http://sjii.indexedresearch.org/index.php/sjii/article/view/157
12. Abidova, D. I. ., & Khoshimov , B. B. (2022). Opportunities In The Development Of The Country Of Uzbekistan And Its Further Actions // Архив научных исследований, 2(1). извлечено от http://journal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/1067
13. Eviews dasturi yordamida muallif tomonidan tayyorlangan.

QISHLOQ XO‘JALIGI MAHSULOTINI BAHOLASH VA HISOBGA OLISHNING USLUBIY JIHATLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Boltayev Abror Sayitmuradovich
PhD, Fiskal institut
“Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi mudiri, dotsent

Annotatsiya: Ushbu maqolada qishloq xo‘jaligi mahsulotini baholash va hisobga olishning uslubiy jihatlarini takomillashtirish masalalari bayon qilingan. Xususan, qishloq xo‘jaligi mahsulotini baholash, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini kirim qilishda tan olinadigan daromadlar va sotishda tan olinadigan qo‘shimcha daromadlarni hisobga olishda foydalanish uchun ishchi schotlar taklif qilingan va xulosalar shakllantirilgan.

Kalit so‘zlar: qishloq xo‘jaligi, qishloq xo‘jaligi mahsuloti, tovar-moddiy zaxiralar, tayyor mahsulot, tushum, daromad, xarajat, tannarx, moliyaviy natija.

Abstract: This article discusses issues of improving the methodological aspects of assessing and accounting for agricultural products. In particular, working accounts were proposed and conclusions were drawn up for use when taking into account the valuation of agricultural products, income when accounting for revenue recognized on receipts and additional revenue recognized on the sale of agricultural products.

Key words: agriculture, agricultural products, inventory, finished products, revenue, income, expenses, cost, financial result.

Аннотация: В данной статье рассмотрены вопросы совершенствования методических аспектов оценки и учета сельскохозяйственной продукции. В частности, были предложены рабочие счета и составлены выводы для использования при учете оценки сельскохозяйственной продукции, доходов при учете выручки признанной по поступлениям и дополнительной выручки признанной по реализации сельскохозяйственной продукции.

Ключевые слова: сельское хозяйство, сельскохозяйственная продукция, товарное материальные запасы, готовая продукция, выручка, доход, затраты, себестоимость, финансовый результат.

KIRISH

Qishloq xo‘jaligi faoliyati biologik va tabiiy jarayonlar bilan bog‘liq bo‘lgan iqtisodiy faoliyatning murakkab shakllaridan bo‘lib, aholini oziq-ovqat mahsulotlariga, sanoatni esa xom-ashyoga bo‘lgan talabini ta’minlovchi mamlakat iqtisodiyotida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan sohalardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda hukumatimiz tomonidan qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish, ishlab chiqarishni jadallashtirish, qulay iqtisodiy muhitni yaratish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo‘yicha bir qator ustuvor vazifalar belgilangan bo‘lib, ularning ijrosi o‘zining ijobiy samarasini berib kelmoqda. Albatta, qishloq xo‘jaligi faoliyatining samaradorligi ma’lum bir miqdor va sifat ko‘rsatkichlari yordamida o‘lchanadi. Mazkur ko‘rsatkichlarning aniq shakllanishi va axborotdan foydalanuvchi tomonidan oqilona boshqaruv qarorlarini qabul qilishda qishloq xo‘jaligi faoliyatida foydalanilayotgan biologik aktivlardan olinadigan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini to‘g‘ri baholash va hisobga olish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Shuningdek, milliy hisob tizimiga moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarining joriy qilinishi ham qishloq xo‘jaligi mahsulotini baholash va hisobga olishning uslubiy jihatlarini takomillashtirishni taqozo qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Albatta, qishloq xo‘jaligi mahsulotini baholash va hisobga olishning uslubiy jihatlarini takomillashtirish bo‘yicha mamlakatimiz va xorijlik iqtisodchi olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Xususan, mamlakatimiz iqtisodchi olimlari o‘z asarlarida asosan buxgalteriya hisobining milliy standartlari asosida qishloq xo‘jaligi mahsulotini baholash va hisobga olish masalalarini bayon qilishgan. So‘nggi yillarda milliy hisob tizimiga moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS)ning joriy qilinishi natijasida, iqtisodchi olimlar tomonidan

ham MHXS asosida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini tan olish, baholash, hisobga olish va moliyaviy hisobotda aks ettirishning ayrim jihatlari tadqiq qilib o‘rganilmoqda. Jumladan, iqtisodchi olim F.T.Temirov ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklarida buxgalteriya hisobini tashkil etishni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borgan bo‘lib, tadqiqot natijalariga ko‘ra aynan biologik aktivlar va ulardan olingan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hisobini amaliy qo‘llash istiqbollarini bayon etgan holda quyidagi xulosalarga kelinganligini ta’kidlaydi: “Eksport bilan shug‘ullanuvchi ko‘p tapmoqli fepmer xo‘jaliklarida buxgalteriya hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida yuritish taklif etildi. Natijada biologik aktivlar tasnifi ishlab chiqildi hamda biologik aktivlarni (hayvonlarni) hisobga olish uchun hujjatlarni rasmiylashtirishning ketma-ketlik sxemasi ishlab chiqildi. Shuningdek, biologik avtivlarning biotransformatsiyasidan moliyaviy natijalarni shakllantirish algoritmi yaratildi. Hisob-kitoblarga ko‘ra, yuqoridagi mezonlar bo‘yicha axborot bazasi buxgalteriya hisobi bo‘lib, uni avtomatlashtirish va kuchli tahlillar yordamida maksimal aniqlik prognozi bilan haqqoniy qiymatni obyektiv belgilaydi. Aktivning qiymati foydalilik va maqsadga muvofiqlikni (yetishtirish yoki ishlab chiqarish) hisobga olgan holda shakllanadi”[1].

Iqtisodchi olim B.Yu.Menglikulov[2] tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, u asosan chorvachilikda biologik aktivlarni saqlash xarajatlari hisobi, tannarx hisoblash va auditi metodologiyasini takomillashtirish masalalarini o‘rgangan. Xususan, iqtisodchi olim tomonidan sut yo‘nalishidagi qoramolchilikda mahsulotlar tannarxini aniqlash uchun “sut chorvachiligida mahsulotlar tannarxini hisoblashning koeffitsiyent usuli” va “sog‘in sigirlarni saqlash xarajatlarini sut va naslga ulardagi metobolik energiyaga proporsional taqsimlash tartibi” tavsiya etilgan. Uning fikriga ko‘ra, berilgan tavsiyalar sut qoramolchiligida sutning va naslning tannarxini to‘g‘ri va haqqoniy aniqlash imkonini beradi. Iqtisodchi olim tomonidan biologik aktivlardan olingan qishloq xo‘jaligi mahsulotini tan olish, baholash, foyda va zararlarni hisobga olish va moliyaviy hisobotda aks ettirish masalalari o‘rganilmagan.

Iqtisodchi olimlar R.D.Dusmuratov va N.K.Rizayevlar tomonidan 41-son “Qishloq xo‘jaligi” BHXSning maqsadi, uni amal qilish sohalari hamda respublika agrar sohasida uni qo‘llash masalalarini tadqiq qilish asosida xulosa va takliflarini bayon qilishgan. Xususan, ular “ ... qishloq xo‘jaligi hosilini sotish xarajatlari chegirib tashlangandagi haqqoniy qiymatda dastlabki tan olish natijasida vujudga keladigan foyda yoki zarar u qaysi davrda vujudga kelgan bo‘lsa, o‘sha davrning foyda yoki zarari tarkibiga kiritiladi. Bunda qishloq xo‘jaligi hosilini dastlabki tan olishdagi foyda yoki zarar ularni yig‘ishtirish natijasida vujudga kelishi mumkin”[3] deb ta’kidlaydi. Biroq iqtisodchi olimlar tomonidan qishloq xo‘jaligi mahsulotini sotish xarajatlari chegirib tashlangan haqqoniy qiymatda dastlabki tan olish natijasida vujudga keladigan foyda va zararlar buxgalteriya hisobida qanday hisobga olinishi to‘g‘risidagi yondashuvlari keltirib o‘tilmagan.

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan farqli ravishda xorijlik iqtisodchi olimlar tomonidan qishloq xo‘jaligi mahsulotini tan olish, baholash, hisobga olish va moliyaviy hisobotda aks ettirish masalalari bo‘yicha ko‘proq tadqiqot ishlari amalga oshirilgan va uning natijalari bo‘yicha taklif va tavsiyalar shakllantirilgan. Jumladan, Z.I. Kruglyak[4] tomonidan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini haqqoniy qiymatda baholash va hisobga olishga doir ilmiy izlanishlar olib borilgan. Unda muallif biologik aktivlardan olingan qishloq xo‘jaligi mahsulotini tayyor mahsulot sifatida tan olish va baholash masalalarini Rossiya buxgalteriya hisobi standartlari va moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini qiyosiy tahlil qilish asosida o‘z fikrlarini keltirib o‘tgan. Xususan, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini haqqoniy qiymatda baholashning bozor yondashuvi usulini e’tirof etgan holda undan foydalangan holda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini haqqoniy qiymatda baholash, hisob registrlarida hisobga olish tartibini tavsiya qiladi. Shuningdek, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini haqqoniy qiymat bo‘yicha hisobga olish modelini taklif etadi. Uning fikricha, tadqiqot natijalari asosida berilgan taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilishi moliyaviy ma’lumotlarning sifat xususiyatlarini yaxshilaydi va tadbirkorlik subyektining moliyaviy holati, ularning to‘lov qobiliyati va faoliyat natijalarini obyektiv baholash imkonini beradi.

Treba Marsh, Mary Fischerlar[5] ham qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini hisobga olish bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan bo‘lib, ular tadqiqot natijalari asosida qishloq xo‘jaligi aktivlari va mahsulotlari hisobi bo‘yicha AQSH va xalqaro buxgalteriya hisobi va hisoboti o‘rtasidagi tizimli farqlarni ko‘rsatib beradi. Xususan, qishloq xo‘jaligi mahsulotini tan olish, baholash, hisobga olish va moliyaviy hisobotda aks ettirish tartibini ko‘rsatib o‘tishgan. Mualliflar qishloq xo‘jaligi mahsulotini hisobga olishda AQSH milliy hisob tizimi va 41-son “Qishloq xo‘jaligi” BHXS o‘rtasidagi farqlarni, bunda ham asosan baholashdagi farqlarni ochib bergan. Tadqiqot natijalari yakunida

1 Temirov F.T. Ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklarida buxgalteriya hisobini tashkil etishni takomillashtirish yo‘llari. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: 2021. – 26 b.

2 Menglikulov B. YU. Chorvachilikda biologik aktivlarni saqlash xarajatlari hisobi, tannarx hisoblash va auditi metodologiyasini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: 2023. – 34 b.

3 R.D.Dusmuratov, N.K.Rizayev. Agrar sohada moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari: nazariya va amaliyot. “Logistika va iqtisodiyot” ilmiy elektron jurnali. I son. 2020.– 21 bet.

4 Кругляк З.И. Учет и оценка сельскохозяйственной продукции по справедливой стоимости. Всероссийский журнал. Вестник Академии знаний №28(5) 2018. 149-157 ст

5 Treba Marsh, Mary Fischer Accounting for Agricultural Products: US Versus IFRS GAAP. Journal of Business & Economics Research – February 2013 Volume 11, Number 2. 79-86 p.

qishloq xo‘jaligi mahsuloti 41-son “Qishloq xo‘jaligi” BHXS asosida tan olinishi, baholanishi va hisobga olinishi axborotdan foydalanuvchi uchun ahamiyatli bo‘lishini ta’kidlashgan.

Ildikó Orbán Mrs. Tamás Dékán va Ágota Kisslarning[6] yozishicha, 41-“Qishloq xo‘jaligi” BHXS qishloq xo‘jaligi faoliyati hisobini belgilaydi. U biologik aktivlar (tirik o‘simliklar va hayvonlar), qishloq xo‘jaligi mahsulotlari (biologik aktivlardan olingan mahsulot) va qishloq xo‘jaligi mahsulotini yig‘ib olishdan keyingi qayta ishlash natijasi bo‘lgan mahsulotlar o‘rtasidagi farqlanishlarni ochib beradi. Ularning fikriga ko‘ra, o‘rim-yig‘im nuqtasida qishloq xo‘jaligi mahsulotining qiymati kutilayotgan sotish xarajatlarini hisobga olmaganda uning haqqoniy qiymati hisoblanadi va o‘sha paytda bu qiymat 2-“Zaxiralar” BHXS maqsadlari uchun mahsulot tannarxi hisoblanadi.

Iqtisodchi olima L.I.Kulikova[7] ham biologik aktivlarni va ulardan olinadigan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini tan olish va baholash masalalarini tadqiq qilib o‘rgangan. Xususan, iqtisodchi olima kompaniya biologik aktivlarni yoki qishloq xo‘jaligi mahsulotini tan olish shartlarini, ularni baholashda haqqoniy qiymat va sotish xarajatlarini tavsiflab bergan. Shuningdek, biologik aktivlar va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini dastlabki tan olishdagi foyda va zararlarni aniqlash hamda buxgalteriya hisobida hisobga olish tartibini amaliy misollar yordamida ko‘rsatib bergan. Iqtisodchi olima tomonidan biologik aktivlar va qishloq xo‘jaligi mahsulotini baholash bo‘yicha berilgan yondashuvlar faol bozor mavjud bo‘lgan holatda ko‘rsatilgan xolos.

A.Ye.Viruchayeva[8] tomonidan biologik aktivlar va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni buxgalteriya (moliyaviy) hisobotlarida aks ettirishni ta’minlash uchun buxgalteriya hisoboti shakllariga o‘zgartirish kiritish taklif etiladi. Jumladan, “Foyda va zararlar to‘g‘risidagi hisobot”da biologik aktivlar va qishloq xo‘jalik mahsulotlarini sotish sarflari chegirilgan haqqoniy qiymatda dastlabki tan olishda, shuningdek, sotish sarflari chegirilgan haqqoniy qiymatning o‘zgarishi natijasida joriy davrda yuzaga kelgan foyda yoki zararlarning umumiy summasini oshkor qilishni hamda buxgalteriya balansi, foyda va zararlar to‘g‘risidagi hisobotga tushuntirishlar shaklini tavsiya etadi. Uning fikricha, buxgalteriya hisobotida biologik aktivlar va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarning oshkor etilishi 41-son “Qishloq xo‘jaligi” BHXS talablariga muvofiqligini va moliyaviy hisobotning shaffofligini ta’minlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Qishloq xo‘jaligi mahsulotini baholash va hisobga olishning uslubiy jihatlarini takomillashtirish masalasini tadqiq qilishda amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarni o‘rganishda mantiqiy fikrlash, dalillar to‘plash, tasavvur etish, qiyoslash, shakllantirish va muammoni qo‘yish kabi nazariy-tadqiqot hamda ilmiy adabiyotlar, kuzatish va davr oralig‘ida tadqiq qilish kabi empirik tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ma’lumki, tadbirkorik subyektlarida mulk huquqi asosida tegishli bo‘lgan tovar-moddiy zaxiralarning buxgalteriya hisobini yuritish va ularni moliyaviy hisobotda aks ettirish tartibini 4-son “Tovar-moddiy zaxiralar” buxgalteriya hisobining milliy standarti (BHMS) belgilaydi. Mazkur standartda belgilangan talablarga muvofiq tadbirkorlik subyektlari qishloq xo‘jalik faoliyatidan olingan qishloq xo‘jalik mahsulotlarini tan olish, baholash, hisobga olish va moliyaviy hisobotda aks ettirishni tashkil etadi.

Monografik tadqiqot obyekti bo‘lgan “MEHNAT BAXTLI SUT” mas’uliyati cheklangan jamiyati (MCHJ) ham 4-son BHMS talablari asosida biologik aktivlardan olingan qishloq xo‘jalik mahsulotlarini hisobga oladi. Ya’ni, MCHJda biologik aktivlardan olingan qishloq xo‘jalik mahsulotlari hisobot davri davomida reja tannarxi bo‘yicha baholangan holda kirim qilinadi. Hisobot davri oxirida qishloq xo‘jaligi faoliyati uchun qilingan xarajatlarni olingan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmiga nisbatan hisob-kitob qilish asosida hisobot kalkulyatsiyalarini tuzish orqali haqiqiy tannarxi aniqlanadi. Shundan so‘ng, qishloq xo‘jaligi mahsuloti turlari bo‘yicha reja va haqiqiy tannarx o‘rtasidagi tafovut aniqlanadi hamda uning summasiga tuzatish kirituvchi buxgalteriya yozuvlari amalga oshiriladi. Bunda qishloq xo‘jaligi mahsulotining haqiqiy tannarxi reja tannarxidan oshiqcha bo‘lganda mahsulot qiymati tafovut summasiga oshiriladi. Agarda haqiqiy tannarx reja tannarxidan past bo‘lsa, mahsulot qiymati tafovut summasiga kamaytiriladi. Mazkur tuzatuvchi buxgalteriya yozuvlaridan keyin hisobot davrida qishloq xo‘jaligi faoliyatidan olingan qishloq xo‘jaligi mahsulotining haqiqiy tannarxi bo‘yicha hisobga olinadi. Bundan ko‘rinadiki, “MEHNAT BAXTLI SUT” MCHJda biologik aktivlardan olingan qishloq xo‘jalik mahsulotlari haqiqiy tannarx bo‘yicha baholangan holda hisobga olinadi. Shuningdek, monografik tadqiqot obyekti his-

6 Ildikó Orbán Mrs. Tamás Dékán and Ágota Kiss. Measurement of agricultural activities according to the International Financial Reporting Standards / Procedia Economics and Finance 32 (2015) 777 – 783

7 Куликова Л.И. Международные стандарты финансовой отчетности. Нефинансовые активы организации: учеб. пособие. -М.: ИНФРА-М, 2012. – 352 с.

8 Выручаева А.Е. Развитие бухгалтерского учета биологических активов и сельскохозяйственной продукции. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Москва – 2011. – 19 ст.

oblangan “KATTAQO‘RG‘ON YOG‘-MOY” va “URGANCH YOG‘-MOY” aksiyadorlik jamiyatlarida ham biologik aktivlardan olingan qishloq xo‘jalik mahsulotlari tannarxi bo‘yicha baholangan holda hisobga olinayotganligini kuzatish mumkin. Fikrimizcha, monografik tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilgan aksiyadorlik jamiyatlarining hisob tizimiga moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari joriy qilinganligi bois, qishloq xo‘jaligi mahsulotini 41-son “Qishloq xo‘jaligi” BHXSga muvofiq baholashi lozim. Qishloq xo‘jaligi mahsuloti bu biologik aktivlardan olingan mahsulot bo‘lib, 41-son BHXSga asosan quyidagi shartlar bajarilganda tan olinishi lozim:

- qishloq xo‘jaligi mahsulotini o‘tgan hodisalar natijasida nazorat qilsa;
- qishloq xo‘jaligi mahsuloti bilan bog‘liq kelgusida iqtisodiy naflar kelish ehtimoli mavjud bo‘lsa;
- qishloq xo‘jaligi mahsulotining haqqoniy qiymati yoki boshlang‘ich qiymati ishonchli baholansa.

Shuningdek, mazkur BHXSga muvofiq tadbirkorlik subyekti biologik aktivlardan olingan qishloq xo‘jaligi mahsulotini, uni yig‘ish paytida sotish xarajatlari chegirilgan haqqoniy qiymatda baholashi lozim. Bunday baholash qishloq xo‘jaligi mahsulotining 2-son “Zaxiralar” BHXSni qo‘llash sanasida boshlang‘ich qiymati hisoblanadi.

Shu o‘rinda, milliy amaliyotga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, MHXS asosida moliyaviy hisobotni tayyorlovchi tadbirkorlik subyektlarida biologik aktivlardan olinadigan qishloq xo‘jaligi mahsulotining mavjudligi va harakati to‘g‘risidagi axborotlarni umumlashtirish tartibi quyidacha amalga oshirilmoqda:

- birinchi guruh 21-son BHMSda belgilangan 2800-“Tayyor mahsulot” schotidan foydalangan holda uning tarkibida tegishli analitik schotlarni ochgan holda yuritmoqda;
- ikkinchi guruh 21-son BHMSda belgilangan schotlarga MHXS talablari asosida tegishli schotlarni qo‘shish va o‘zgartirishlar kiritish orqali, xususan qishloq xo‘jaligi mahsulotining mavjudligi va harakati to‘g‘risidagi axborotlarni umumlashtirish uchun ham MHXS bo‘yicha “Ishchi schotlar rejasi”ni ishlab chiqib yuritmoqda;
- uchinchi guruh tadbirkorlik subyektlari vakolatli organ tomonidan tavsiya etilgan namunaviy schotlar rejasidan foydalanmoqda. Ushbu namunaviy schotlar rejasi, tadbirkorlik subyektlariga vakolatli organ bo‘lgan Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan MHXSda belgilangan talablarni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan va tavsiya qilingan. Unga ko‘ra qishloq xo‘jaligi mahsulotining mavjudligi va harakati to‘g‘risidagi axborotlarni umumlashtirish quyidagi schotlarda amalga oshiriladi:

Biroq, vakolatli organ tomonidan mazkur tavsiya etilgan namunaviy schotlar rejasida yuqorida ta’kidlangan schotlarning boshqa schotlar bilan bog‘lanishi qanday tartibda amalga oshirilishi ko‘rsatilmagan. Shuningdek, tadbirkorlik subyektlarida biologik aktivlardan olingan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yig‘im paytida va sotishda, ular bilan bog‘liq daromad va xarajatlarni ham asosiy faoliyat xarajatlari va daromadlari sifatida tan olingan holda moliyaviy hisobotda mahsulot sotishdan olingan sof tushum va sotilgan mahsulotlar tannarxida aks ettirilmoqda. Fikrimizcha, bunday yondashuv to‘g‘ri yondashuv hisoblanmaydi. Chunki, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini kirim qilishda tan olinadigan va sotishda tan olinadigan daromadlarning bunday tartibi axborotdan foydalanuvchilarga ishonchli ma’lumot olish va boshqaruvga oqilona qarorlar qabul qilish imkonini bermaydi. Shu bois, tadbirkorlik subyektlarida biologik aktivlardan olinadigan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini kirim qilishda tan olinadigan daromadlar va sotishda tan olinadigan qo‘shimcha daromadlarni to‘g‘ri hisobga olish va moliyaviy hisobotda aks ettirish maqsadida hisob siyosatining elementi bo‘lgan “Ishchi schotlar rejasi”da alohida quyidagi schotlarni ochishni taklif etamiz (1-jadval).

Schot raqami	Schotlar nomi	Schot turi	Tavsifi
2000	Zaxiralar		
2030	Tayyor mahsulotlar	A	Bu schotdan tayyor maxsulotlar hisobi uchun foydalaniladi;
2600	Qisqa muddatli biologik aktivlar va qishloq xo‘jaligi mahsuloti		
2640	Yig‘ish paytidagi qishloq xo‘jaligi mahsuloti	A	Bu schotdan biologik aktivlaridan olinadigan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini hisobga olishda foydalaniladi.

Ushbu taklif etilayotgan schotlar hisobot davri oxirida 8000 – “Davr uchun foyda va zarar” schoti bilan bog‘langan holda yopiladi.

Tadbirkorlik subyektlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini kirim qilishda tan olinadigan daromadlar va

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

sotishda tan olinadigan qo‘shimcha daromadlar yuqorida taklif etilgan schotlardan foydalanib, buxgalteriya hisobida quyidagicha hisobga olinadi:

1. Qishloq xo‘jaligi faoliyatida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish bilan bog‘liq xarajatlar hisobga olinganda:

Debet 7040 – “Qishloq xo‘jaligi faoliyati xarajatlari” schoti;

Kredit Qishloq xo‘jaligi faoliyati uchun sarflangan moddiy va mehnat resurslari hamda boshqa xarajatlarni hisobga oluvchi schotlar.

2. Yig‘imdan oldin qishloq xo‘jaligi mahsuloti sotish xarajatlari chegirilgan haqqoniy qiymatda baholab tan olinganda:

Debet 2640 – “Yig‘ish paytidagi qishloq xo‘jaligi mahsuloti” schoti;

Kredit 6060 – “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini kirim qilishda tan olinadigan daromadlar” schoti.

3. Yig‘im paytida qishloq xo‘jaligi mahsulotining sotish xarajatlari chegirilgan haqqoniy qiymatning o‘zgarishi natijasida:

3.1. Qishloq xo‘jaligi mahsuloti sotish xarajatlari chegirilgan haqqoniy qiymatining ortishidan daromad (yig‘im paytida baholangan sotish xarajatlari chegirilgan haqqoniy qiymat summasining yig‘imdan oldingi summasi o‘rtasidagi ijobiy farq summasi) tan olinganda:

Debet 2640 – “Yig‘ish paytidagi qishloq xo‘jaligi mahsuloti” schoti;

Kredit 6060 – “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini kirim qilishda tan olinadigan daromadlar” schoti.

1-jadval: Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini kirim qilishda tan olinadigan daromadlar va sotishda tan olinadigan qo‘shimcha daromadlarni hisobga olishda foydalanish uchun taklif qilinayotgan schotlar9

Schot raqami	Schotlar nomi	Schot turi	Tavsifi
6000	Daromadlar		
6060	Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini kirim qilishda tan olinadigan daromadlar	T	Bu schotdan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini kirim qilishda tan olinadigan daromadlar summasini hisobga olishda foydalaniladi.
6070	Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotishda tan olinadigan qo‘shimcha daromadlar	T	Bu schotdan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotishda tan olinadigan qo‘shimcha daromadlar summasini hisobga olishda foydalaniladi.

3.2. Qishloq xo‘jaligi mahsuloti sotish xarajatlari chegirilgan haqqoniy qiymatining kamayish summasi (yig‘im paytida baholangan sotish xarajatlari chegirilgan haqqoniy qiymat summasining yig‘imdan oldingi summasi o‘rtasidagi salbiy farq summasi) tan olinganda:

Debet 6060 – “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini kirim qilishda tan olinadigan daromadlar” schoti;

Kredit 2640 – “Yig‘ish paytidagi qishloq xo‘jaligi mahsuloti” schoti.

4. Qishloq xo‘jaligi mahsulotini sotishdan qo‘shimcha daromad tan olinganda:

Debet 2110 – “Xaridor va buyurtmachilarning qisqa muddatli debitorlik qarzi” schoti;

Kredit 2640 – “Yig‘ish paytidagi qishloq xo‘jaligi mahsuloti” schoti;

Kredit 6070 – “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotishda tan olinadigan qo‘shimcha daromadlar” schoti.

5. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini kirim qilishda tan olinadigan daromadlar va sotishda tan olinadigan qo‘shimcha daromadlarni hisobga oluvchi schotlarning davr uchun foyda va zararni hisobga oluvchi schot bilan bog‘langan holda yopilishi quyidagicha aks ettiriladi:

9 Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

5 a). Daromadlarni hisobga oluvchi schotlarning yopilishi:

Debet 6060 – “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini kirim qilishda tan olinadigan daromadlar” schoti;

Debet 6070 – “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotishda tan olinadigan qo‘shimcha daromadlar” schoti;

Kredit 8000 – “Davr uchun foyda va zarar” schoti.

5 b). Xarajatlarni hisobga oluvchi schotlarning yopilishi:

Debet 8000 – “Davr uchun foyda va zarar” schoti;

Kredit 7040 – “Qishloq xo‘jaligi faoliyati xarajatlari” schoti.

Shuni ta’kidlab o‘tmoqchimizki, yuqorida taklif etilgan schotlarning tartib raqamlaridan tadbirkorlik subyektlari foydalanmasliklari mumkin. Chunki, har bitta tadbirkorlik subyektida hisob siyosatining tarkibiy elementi sifatida tasdiqlangan “Ishchi schotlar rejasi” mavjud. Shu bois, mazkur “Ishchi schotlar rejasi”ga mos schot raqamini kiritgan holda taklif etilayotgan schotlarning nomlanishi bo‘yicha aks ettirilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Shunday qilib, tadbirkorlik subyektlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini kirim qilishda tan olinadigan daromadlar va sotishda tan olinadigan qo‘shimcha daromadlarni hisobga olish hamda ular bilan bog‘liq moliyaviy natijalarni shakllantirish algoritmini quyidagicha aks ettirish mumkin (1-rasm).



1-rasm: Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini kirim qilish va sotishda tan olinadigan daromadlarni hisobga olish hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish algoritmi[10]

10 Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, tadbirkorlik subyektlarining biologik aktivlaridan olingan qishloq xo‘jaligi mahsulotini kirim qilishda tan olinadigan daromadlar va sotishda tan olinadigan qo‘shimcha daromadlarni hisobga olishda foydalanish uchun taklif qilinayotgan schotlarning amaliyotga joriy qilinishi quyidagilarga imkon beradi:

- tadbirkorlik subyekti hisob siyosatining elementi sifatida “Ishchi schotlar rejasi”ni yanada takomillashtirish;
- qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini kirim qilishda tan olinadigan daromadlar summasini alohida hisobga olish;
- qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotishda tan olinadigan qo‘shimcha daromadlar summasini alohida hisobga olish;
- qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini kirim qilish va sotish bilan bog‘liq moliyaviy natijalarni to‘g‘ri shakllantirish, moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlarining ishonchlilik darajasini yanada oshirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. 41-son “Qishloq xo‘jaligi” Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti. https://lex.uz/uz/docs/6312360 (07.03.2024)
2. 2-son “Zaxiralar” Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti. https://lex.uz/uz/docs/6312360 (07.03.2024)
3. 4-son “Tovar-moddiy zaxiralar” Buxgalteriya hisobining milliy standarti. https://lex.uz/docs/4890446 (07.03.2024)
4. 21-son “Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliya-xo‘jalik faoliyati buxgalteriya hisobi hisobotlar rejasi va uni qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnoma” Buxgalteriya hisobining milliy standarti. https://lex.uz/acts/417624 (07.03.24)
5. Выручаева А.Е. Развитие бухгалтерского учета биологических активов и сельскохозяйственной продукции. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Москва – 2011. – 19 ст.
6. Dusmuratov R.D., Rizayev N.K.. Agrar sohada moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari: nazariya va amaliyot. “Logistika va iqtisodiyot” ilmiy elektron jurnali. I son. – 2020.–21 bet.
7. Кругляк З.И. Учет и оценка сельскохозяйственной продукции по справедливой стоимости. Всероссийский журнал. Вестник Академии знаний №28(5) 2018. – 149-157 ст.
8. Куликова Л.И. Международные стандарты финансовой отчетности. Нефинансовые активы организации: учеб. пособие. -М.: ИНФРА-М, – 2012. – 352 с.
9. Menglikulov B.Yu. Chorvachilikda biologik aktivlarni saqlash xarajatlari hisobi, tannarx hisoblash va auditi metodologiyasini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: 2023. – 34 b.
10. Temirov F.T. Ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklarida buxgalteriya hisobini tashkil etishni takomillashtirish yo‘llari. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: 2021. – 26 b.
11. Treba Marsh, Mary Fischer Accounting for Agricultural Products: US Versus IFRS GAAP. Journal of Business & Economics Research – February 2013 Volume 11, Number 2. – 79-86 p.
12. Ildikó Orbán Mrs. Tamás Dékán and Ágota Kiss. Measurement of agricultural activities according to the International Financial Reporting Standards / Procedia Economics and Finance 32 (2015) 777–783.

СЕКРЕТЫ ИНТЕРЕСНОГО УРОКА В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ

Гараева Олеся Владимировна
Преподаватель начальных классов, учитель высшей категории средней общеобразовательной школы № 132 Шайхонтохурского района Города Ташкент

Аннотация: В статье были раскрыты секреты интересных и насыщенных уроков, приведены примеры из жизни практикующего школьного учителя, были даны советы и рекомендации молодым педагогам, а также были предложены идеи для вдохновения. Подробно была рассмотрена методика обучения в начальной школе с учетом современных реалий.

Ключевые слова: интерес, игры, любовь, новейшие методики проведения урока ,интерактив, вовлечение, индивидуальный подход.

Annotatsiya: Maqolada qiziqarli va boy darslar sirlari ochib berilgan, amaliyotchi maktab o‘qituvchisi hayotidan misollar keltirilgan, yosh o‘qituvchilarga maslahat va tavsiyalar berilgan, shuningdek, ilhomlantiruvchi g‘oyalar berilgan. Boshlang‘ich sinflarda o‘qitish metodikasi zamonaviy voqelikni hisobga olgan holda har tomonlama ko‘rib chiqildi.

Kalit so‘zlar: qiziqish, o‘yinlar, sevgi, eng yangi o‘qitish usullari, interaktiv, jalb qilish, individual yondashuv.

Abstract: The article revealed the secrets of interesting and rich lessons, gave examples from the life of a practicing school teacher, gave advice and recommendations to young teachers, and also offered ideas for inspiration. The methodology of teaching in primary school was examined in detail, taking into account modern realities.

Key words: interest, games, love, the latest teaching methods, interactive, involvement, individual approach.

Сегодня в нашей статье попробуем открыть завесу тайны в чудесный мир детства, где творят настоящие волшебники – учителя и их подопечные– ученики. Поговорим о том, как превратить обучение в увлекательное путешествие в мир знаний, как сделать урок ярким и запоминающимся, чтобы деткам было интересно учится и стимулировать на посещение школы.

Учителя начальной школы – это особый вид педагогов. Ведь именно мы закладываем фундамент в строении будущего. Первые впечатления о школе у первоклассников связаны именно с первым учителем, именно благодаря учителю появляется любовь к знаниям, к школе в целом. Ведь вспоминая учителя, мы вспоминаем не его методику и уроки, а самого человека, нашего дорогого первого учителя, который стал для нас нашим другом, мамой и любовью всей жизни.

Перед нами стоит непростая задача- мы должны не только обучить грамоте и письму, но и вдохновить на познание мира, зажечь внутренний огонь каждого, чтобы он освещал весь его дальнейший путь.

Энтузиазм и интерес к обучению– фундамент, на котором построено хорошее усвоение школьной программы. И если этот интерес поддерживать, развивать, то он сохранит любознательность и тягу к знаниям на всю жизнь.

Итак, какие же секреты сокрыты в методики проведения интересного урока в начальной школе?

Методика преподавания в начальной школе ориентирована на активное развитие ребенка как личности, что подразумевает индивидуальный подход к каждому. Преподавателю необходимо помнить, что ребенок – это отдельный индивидуум , со своим набором качеств и способностей. Наша задача – помочь раскрыть его таланты, отыскать скрытый дар в каждом, но никак не подавление личности и стремление зачесать всех под одну гребенку, чтобы все вели себя и реагировали одинаково. Мы должны подарить к детям крылья , а не подрезать их. Именно поэтому на своих уроках я использую дифференцированный подход. Необходимо находить ключик, ласковое слово для каждого ребенка, уметь донести до каждого свою мысль. Иногда кому-то достаточно взгляда, кому-то важны слова, знаки,

кто-то больше любит слушать, кто-то талантлив в рисовании, но математика дается сложнее. Кто-то отлично считает, но почерк у него неаккуратный и неразборчивый. Наша задача – найти и развить талант, акцентировать внимание на плюсах и помочь с минусами.

Немаловажную роль на интересном уроке играют наглядности. Ведь, как говориться, лучше один раз увидеть, чем сто раз услышать. В наш век электроники и техники к нам на помощь приходят такие чудеса техники, как телевизоры, интерактивные доски и проекторы. Думаю, каждый учитель с успехом их использует. Но что делать, если нет возможности использовать их на своем уроке, а интересный урок сделать хочется? На помощь приходит наша фантазия. Я стараюсь использовать очень много различных схем, плакатов, иллюстраций и картинок на своих уроках .Что-то покупаю готовое, а что-то рисую и мастерю сама. Иногда достаточно продемонстрировать как можно получить из прямоугольника квадрат, и это вызовет бурю восторга у малышей. Совсем неважно, смастерили ли вы картинки сами или купили готовое – важно то, как вы используете это на своих уроках, это привносит элемент оживления и радости в урок, помогает отдохнуть и переключится.

Еще один важный компонент интересного урока – это интерактивность, то есть взаимодействие, контакт , причем как между учителем и учениками, так и между детьми. Самый простой способ интерактива – это вопрос друг другу, взаимопроверка тетрадей. Один из моих любимых видов интерактива– командная работа. Ее мы используем практически на каждом уроке. Чаще всего класс делим на две команды – мальчики против девочек. За каждый правильный ответ начисляются баллы командам. Иногда делимся на три команды 1,2 и 3 ряд.

Принцип тот же– баллы за ответы, за поведение, за почерк и т.д. По чтению начисляются баллы за выученное стихотворение, за пересказ. По математике у нас решение примеров на скорость, по русскому языку деление на столбики по родам, склонениям , создание кластеров. Помогает с дисциплиной на уроке, укрепляет командный дух, ну и стимулирует на учебу, на красивый и аккуратный почерк, а также практически нет двоек, так как двойка – минус балл.

Следующий способ разнообразить урок и привлечь интерес детей– это проведение урока самими детьми. Учитель на таком уроке только направляет, помогает, но главу роль играют сами дети. Учащиеся сами контролируют класс, дисциплину, при этом можно задавать вопросы, спорить.

Иногда можно не проводить весь урок таким образом, а просто попросить детей объяснить тему. То есть, после того, как учитель объяснил новую тему, спрашивает учащихся, о том, кто понял объяснение. Те из детей, которые ответили, что поняли, могут выйти к доске и попробовать объяснить детям на их языке. Урок пройдет гораздо интересней и активизирует даже самых ленивых. Ну и обеспечит хорошее усвоение темы. При таком виде обучения ученики лучше всего запоминают информацию, учат ответственности, дисциплине, учат перебарывать свой страх перед публикой.

Разновидность такого урока– урок с привлечением родителей. Можно попробовать провести такой урок как внеклассное мероприятие. На таком уроке зрителями становятся дети, а учащимися родители. Учитель объясняет тему родителям, задает вопросы, родители работают на доске и в тетрадях , выполняют задания по карточкам. Весь урок может быть рассчитан на полчаса, но подарит кучу эмоций как родителям, так и детям. Это также поможет привлечь внимание родителей к учебе, поможет лучше понять своих детей, а детям придаст уверенность в себе и гордость за свои успехи, ведь чаще всего родители с трудом отвечают на вопросы учителя .

Таким образом мы плавно переходим к следующему важному компоненту эффективного обучения – вовлечение родителей в образовательный процесс. Учителю важно поддерживать ежедневный контакт с родителями, быть с ними на постоянной связи, рассказывать об успехах их детей, о трудностях, с которыми они сталкиваются. Говоря о недостатках, не забудьте похвалить ребенка за то, что у его хорошо получается, ведь у каждого есть слабые и сильные стороны всегда можно найти то, за что похвалить. Важно преподать информацию правильно, чтобы вас услышали , поняли и приняли к сведению.

Я очень часто снимаю небольшие видеоролики с участием детей, где не просто рассказывается , как прошел их день, в них спрятаны послания и намеки для родителей, иногда в шутливой форме. Это создает душевную атмосферу в коллективе и помогает вызвать интерес к нашей деятельности, и на плодотворное общение.

Ну и какой урок без поощрений и стимула? Это не всегда просто оценки в дневнике, это может быть простое ласково слово, сказанное в нужный момент, это дружеские объятия, маленькие подарочки, записки с пожеланиями, совместный просмотр мультфильмов, ответственное поручение, это экскурсии и походы, разрешение повеселиться, отдохнуть и побегать, подвижные игры .

Ну и нельзя забывать про коррекционную работу . Как известно е все учащиеся усваивают тему одинаково, соответственно нужно также уделять время для тех, кто отстал, не понял, для тех, кому сложно. Одним из эффективных способов – взаимопомощь, то есть дети сами помогают и объяснят

отстающим. Также хорошо помогают карточки по трудной теме, занимательные задания.

Ну и самый простой способ привлечь внимание и сделать урок интересным и эффективным- это игровой метод. Игры и элементы геймификации повышают интерес у каждого ребенка. Игры помогают донести информацию быстрее, сделать ее более доступной, лучше запомнить материал, а также помогает разгрузить голову во время объяснения трудной темы на уроке . Можно использовать такие виды игровой деятельности , как групповые проекты, интерактивные дискуссии, эксперименты, у и игры, конечно. Используйте образовательные игры, чтобы ученики учились весело и с удовольствием. Создавайте квесты, соревнования, ролевые игры, драматизация, открытые обсуждения, дебаты, креативные задания, физически активные игры.

Виды активных игр

- Пальчиковые гимнастики
- Нейрогимнастики и нейроигры
- Спортивные разминки
- Зумба

Этот вид активности помогает мозгу переключиться, передохнуть, потратить энергии в мирное русло.

Развитие творчества и фантазии неотъемлемая часть интересного урока. Помогает развить творческий потенциал детей **творческие задания,** такие как:

- Рисование сюжетных картин
- Составление кластеров. синквейнов
- Сочинение историй и сказок
- Сочинение стихов
- Логические игры и задания
- Диаграммы, схемы, карты

Игры – то язык, на котором говорят все дети. Игры помогают сделать самые сложные темы интересным и веселыми. Рассмотрим **примеры игр:**

Паззлы

- Конкурсы(поле чудес, брейн ринг, своя игра)
- Квесты (нахождение предметов по подсказкам на карте)
- ЗХУ (знаю, хочу знать, узнал)
- Ромашка (разновидность кластера)
- 3 правды одна ложь (учитель говорит 4 тезиса, 1 из них ложный, необходимо угадать какой)
- Угадай-ка (описание предмета или человека, остальные угадывают)
- Крокодил (показать загаданное слово без слов, жестами)

Итак, мы рассмотрели компоненты интересного урока. Давайте подведем итоги.

Интересный урок – это:

- Индивидуальный подход к каждому
- Наглядности и мультимедия
- Интерактивные методы
- Разнообразие методов
- Поощрение и стимулирование
- Примеры из жизни, взаимосвязь с жизненными ситуациями
- Вовлечение родителей
- Использование игр и конкурсов
- Внеклассные мероприятия

Привнесение этих компонентов в учебный процесс не только укрепляет знания учащихся, но и поджигает искру любознательности ,которая будет светится в них всю оставшуюся жизнь.

А следуя этим маленьким советам педагоги сделают уроки в начальных классах более интересными и эффективными , способствуя успешному обучению детей.

А учитель, вложивший свою страсть и мастерство в каждый урок, навсегда войдет в сердца своих учеников, как наставник и муза, вдохновивший их на великие дела и открытия.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANISHDA YASHIL IQTISODIYOTNING O‘RNI

Ibragimova Gulchehra Toxirovna
Fan va texnologiyalari universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada insoniyatning turmush darajasining o‘sishi mamlakat iqtisodiy o‘sish darajasi asosida ta’minlanishi va bu ekologik xavf evaziga, xususan, demografik o‘sish, tabiiy resurslar zaxirasi muttasil kamayib borayotgani xususida fikri yuritiladi. Yosh avlodning iqtisodiy madaniyatini rivojlantirishda yashil iqtisodiyotning ta’limdagi o‘rni haqida fikir, mulohazalar va takliflar kiritilgan.

Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, ekologik barqarorlik, iqtisodiy o‘sish, tabiiy kapital, iqtisodiy tarbiya, iqtisodiy madaniyat.

Abstract: The article considers the fact that the growth of the standard of living of mankind is ensured on the basis of the level of economic growth of the country, and due to this environmental risk, in particular demographic growth, a decrease in natural resources reserves. Thoughts, comments and suggestions on the role of the green economy in education and in the development of the economic culture of the younger generation are included.

Key words: green economy, sustainable development, environmental sustainability, economic growth, economic development, economic culture.

Аннотация: В статье рассматривается тот факт, что рост уровня жизни человечества обеспечивается на основе уровня экономического роста страны, и счет этого экологического риска, в часности демографического роста, снижение запасов природных ресурсов. Включены мысли, коментарии и предложения о роли зеленой экономики в образовании и в развитии экономической культуры молодого поколения.

Ключевые слова: зеленая экономика, устойчивое развитие, экологическая устойчивость, экономические рост, экономическое оброзование, эконмическая культура.

KIRISH

Bugungi 21-asr boshiga kelib jahon bo‘ylab kundan kunga tovar va xizmatlar bozorida yangi turdagi innovatsion tovar va xizmatlar taklifi shiddatli tus olmoqda. O‘z o‘rnida iqtisodiyot rivojlangan sari inson ehtiyojlari cheksizligi yanada oshib bormoqda. Iqtisodiy rivojlanish ishlab chiqarish va iste’molning doimiy o‘sishi bilan birga keladi. Bir tomondan, ishlab chiqarishning jadal rivojlanishi aholi farovonligini oshirishga yordam bersa, ikkinchi tomondan, atrof-muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Dunyoda barqaror rivojlanishga o‘tish zarurati asosan iqtisodiy rivojlanish va atrof-muhitning buzilishi o‘rtasidagi nomutanosiblikni kuchayishi bilan bog‘liq. So‘nggi 30 yil ichida jahon YAIMda sezilarli o‘sish kuzatidi va uning sur’ati 4 barobardan ortiqni tashkil etildi. Jahon iqtisodiyotidagi ushbu holat yuz millionlab odamlarning turmush darajasini oshishiga sabab bo‘ldi. Biroq bu o‘sishga tabiiy kapitalga nisbatan global ayovsizlik va ekotizim degradatsiyasi tufayli erishildi.

Hozirgi vaqtda insonning tabiat qonunlari va ekologik xavflar haqidagi bilimlarining yetarli emasligi sayyoradagi og‘ir ekologik inqirozga olib keldi.

Shuning uchun ham ekologik oqibatlari noaniq bo‘lgan tabiatni ekspluatatsiya qiluvchi yangi megaproyektlarga ham juda ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lishni talab etadi. Aks holda, ushbu xatarlar juda xilma-xil bo‘lib, ular iqlim o‘zgarishi va qurg‘oqchilik kabi turli xil muammolarga olib keladi. Yangi yashil iqtisodiyotning asosiy maqsadi atrof-muhit uchun xavflarning sezilarli darajada kamayishi va ushbu xavflarning tanazzulidir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Hozirgi davrda dunyohozirida siyosatchi va iqtisodchilarning asosiy e'tibori mamlakatlar iqtisodiyotining yuqori darajada iqtisodiy o'sishni qo'lga kiritishidir. Ha, bu iqtisodiy nuqtayi nazardan to'g'ri, mamlakatlarning yalpi ichki maxsulotining hajmi qanchalar oshib borishi – bu mamlakat qudratini, aholining farovon turmush tarzini ta'minlanishini va mamlakatni dunyohozirdagi tutgan o'rnini belgilaydi. Ammo, bu nimani, qanday oqibatlarga olib kelishi hisobiga amalga oshirilayotganligini e'tiborga olish vaqti allaqachon yetib kelgan-ku. Ushbu masala bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biri darajasiga yetib keldi. Bu borada ekolog– iqtisodchilar Amerika qo'shma shtatlarning radikal ekologi Edvard Abbeyning "o'sish uchun o'sish– saraton hujayrasi mafkurasi", degan fikriga ko'proq xayrixoh bo'lishadi. Shunga qaramay bugungi kapitalistik mafkurada iqtisodiy o'sish insonlarni halokatga olib borishi, ularning farovonligini yaxshilanmasligi muhim emas balki, muhimi jahon bozoridagi biznes, ko'proq pulni qo'ldan qo'lga oqib yurishi va yuqori darajadagi foydaga ega bo'lish. Insonlarning moddiy jihatdan naqadar ta'minlanganlik darajasi asosida hayot sifatini aniqlash bu yetarli ko'rsatkich bo'la olmaydi. Chunki bunday iqtisodiy o'sish sayyoramiz tabiiy boyliklardan ayovsiz foydalanish, havo havzasini ifloslanishi, ichimlik suvini kamayishi, tabiiy ofatlarning ko'payishi va tezlashishi hisobidan erishilganligi nafaqat sayyoramiz, balki hayotimiz sifatini pasaytirgani uchun ham katta muammo hisoblanadi.

Salbiy ekologik tendensiyalarning davom etishi butun insoniyat uchun ham, alohida mamlakatlar uchun ham o'ta xavfli oqibatlarga olib kelishi mumkin. Dunyo aholisi 2040-yilga kelib 7 milliarddan 9 milliard kishiga ko'payadi va o'rta sinf iste'molchilarining soni kelgusi 3 yil ichida 20 milliard kishiga ko'payadi va resurslarga bo'lgan talab shiddatli ravishda oshadi. 2030-yilga kelib dunyo aholisining oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyoji kamida 50%, energiya 45% va suv resurslari 30% ga oshadi va bularning barchasi ekologik chegaralar keng iqtisodiy o'sishga yangi cheklovlar qo'ygan bir paytda sodir bo'ladi. Shuningdek, kelgusi o'n yilliklarda jahon oziq-ovqat narxlari real ravishda 30-50% ga ko'tarilishini kutishimiz mumkin, bu esa narxlarning beqarorligini oshiradi va yuz millionlab odamlarning ahvolini yomonlashtiradi [3].

Ushbu holat asosan aholini sonini o'sib borishi bilan bog'liq holda yuzaga kelishi prognoz qilinmoqda, lekin shu bilan birga ko'zda tutilmagan tabiat injiqliklari, insonlarning tabiatga bo'lgan ayovsiz munosabatlari, siyosiy va biologik urushlar va boshqa global omillarning yuzaga kelishi jarayonni yanada tezlashtirishi va yomonlashtirishi mumkin.

Bugungi kunda ekologik barqaror rivojlanishga o'tish va yashil iqtisodiyotni shakllantirish dolzarb masalalardan bo'lib, yashil iqtisodiyot global iqtisodiy va ekologik muammolarni hal qilishga qaratilgan. Yashil iqtisodiyot – bu insonning yer resurslariga mas'uliyatli munosabatini nazarda tutadigan iqtisodiy rivojlanish modeli. Bu boylikning o'sishi va tabiiy resurslarni saqlash o'rtasida oqilona murosani topishga qaratilgan. Yashil iqtisodiyot konsepsiyasini shakllantirish uchun asoslar o'tgan asrning 80-yillari oxirida barqaror rivojlanish konsepsiyasi doirasida yaratilgan. Barqaror rivojlanishlikning ko'plab ta'riflari mavjud, lekin eng keng tarqalgan va umumiy qabul qilingan ta'rif 1987-yilda G. H. Brundland rahbarligi ostidagi BMT komissiya tomonidan taklif qilingan ta'rif bo'lib, "Barqaror rivojlanish-bu kelajak avlodning hayotiy ehtiyojlarini xavf ostida qo'ymasdan, zamonaviy avlodlarning zaruriyatlarini qondira oladigan rivojlanishdir" [6].

Barqaror rivojlanish o'z tarkibiga iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatdan rivojlanishni oladi va uning ahamiyati qachonki uchchala tarkib mos holda rivojlanishining ta'minlanishidadir.

Yashil iqtisodiyot konseptual hujjatlarda Yevropa yashil iqtisodiyotining rivojlanishi ekotizimlar (tabiiy kapital), iqtisodiyotni (jismoniy kapital) va jamiyatni (inson kapitali) birlashtirgan yaxlit tizim sifatida qaraladi va mos ravishda ularning maqsadlari bilan aniqlanadi [3].

1-jadval: Yashil iqtisodiyot

№	№Tarkib	Maqsad
1	Ekotizim (tabiiy kapital)	Ekologik barqarorlikni qo'llab-quvvatlash
2	Iqtisodiyot (jismoniy kapital)	Foydalanilayotgan resurlarning samaradorligini oshirish
3	Jamiyat (inson kapitali)	Umumiy javobgarlik va tengsizlikni qisqartirish

Yashil iqtisodiyot salbiy oqibatlarni bartaraf qilish bilan kurashish emas balki, ekologik muammolarning kelib chiqish sabablarini bartaraf etish bilan ishlaydigan yondashuv bo'lib, iste'molchilarning xulq-atvorlarini tubdan o'zgartiradigan "yashil" texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyotdir. Bularga quyidagilar kiradi:

- energiya samaradorligi va muqobil energiya;
- elektr energiyasini boshqarish tizimlari;
- ekologik bezarar transport;
- chiqindilar, havo va suv chiqindilarini boshqarish.

Ko‘plab rivojlangan mamlakatlar tomonidan yashil iqtisodiyot konsepsiyasi u yoki bu shaklda allaqachon qabul qilingan bo‘lib, unga erishish choralari global retsessiyaga qarshi kurash vositasi sifatida ko‘rib chiqilmoqda [5].

Bu borada O‘zbekiston BMTning Barqaror taraqqiyot maqsadlari hamda Iqlim bo‘yicha Parij bitimiga qo‘shilgan. Shuningdek, 2019-yilda O‘zbekiston “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategiyasi”ni qabul qildi. Ushbu strategiyada mamlakatda uglerod sarfini keskin kamaytirish, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida ekologik toza va resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish, qayta tiklanuvchi, samarali energiya manbalaridan keng foydalanish ko‘zda tutilgan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-436-son “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorida 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish, O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi doirasida “yashil” va inklyuziv iqtisodiy o‘sishni ta’minlash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish hamda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida resurslarni tejashni yanada kengaytirish chora-tadbirlari bo‘yicha dastur va 2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasida “yashil” iqtisodiyotga o‘tish va “yashil” o‘sishni ta’minlash bo‘yicha xarakatlar rejasi belgilab olindi [1].

Shu bois “yashil” va “aqlli” iqtisodiyotlarni yaratish barqaror taraqqiyot va rivojlanishni ta’minlashga qodir bo‘lgan innovatsiyalar, nou-xau va modellarni ishlab chiqarishda imkoniyatlarni kengaytirish uchun poydevor bo‘lishi mumkin [7].

Xar bir mamlakat xukumati milliy sharoitlarini hisobga olgan xolda global muammolarga nisbatan o‘z maqsadlarini global tavsifdagi tavsiyalar shaklida shakllantiradi. Ushbu global jarayonni milliy rejalashtirishda asosan mamlakat siyosatchi, iqtisodchi va ekologlari faol qatnashadilar. Barqaror rivojlanishni ishlab chiqish jarayonida iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik sohalarda sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan tegishli jarayonlarning o‘zaro bog‘liqlikni tan olish va e’tiborda tutish ham o‘ta muhimdir.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev Yangi O‘zbekiston strategiyasi kitobida “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategiyasini hayotga tatbiq etish orqali iqtisodiyotning energiya va resurs sig‘imdorligini qisqartirish, ishlab chiqarishga tejamli texnologiyalarni keng joriy qilish, qayta tiklanuvchi texnologiyalardan foydalanishni kengaytirish, atom energetikasini rivojlantirish maqsadga muvofiqligini aytib o‘tdi [2].

Yangi iqtisodiyotning muhim sifati iqtisodiy qarorlarni qabul qilish jarayonda tabiatni iqtisodiy baholashni adekvat holatda kiritilish ta’minlanishi kerak. Iqtisodiyot nazariyasidagi kabi amalda ham tabiiy boyliklar (resurslar va xizmatlar) qiymatini oshishiga aniq zaruriyat bor [3].

Bugungi kunga kelib dunyo bo‘ylab tabiiy kapitalni faqat tabiiy resurslar sifatida munosabatda bo‘lish kuchayib, ulardan foydalanishga nisbatan cheklov to‘siqlari kuchli bo‘lib bormoqda. Endilikda mamlakatlarning muvaffaqiyatli iqtisodiy o‘sish uchun tabiy resurlarni boshqa funksiyalarini ham hisobga olish kerak. Bu har qanday kapital kabi tabiiy kapitalni ham nazariy va amaliy jihatdan uning barcha tarkibiy qismlarining iqtisodiy ahamiyatini, daromad va foyda olish qobiliyatini hisobga olishga olib keladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Eng umumiy shaklda tabiiy kapitalning to‘rtta funksiyasini ajratish mumkin:

- resurs (tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish uchun tabiiy resurslar bilan ta’minlash);
- tartibga soluvchi ekologik xizmatlar (ifloslanish va chiqindilarni assimilyatsiya qilish, iqlim va suv rejimini tartibga solish va boshqalar.);
- estetik, axloqiy, madaniy, tarixiy jihatlar bilan bog‘liq tabiat xizmatlari (ma’naviy ekologik xizmatlar);
- insonlar va atrof-muhit salomatligini ta’minlash (bu funksiya iqtisodiyot uchun hali ham yangi, ma’lum darajada u tabiiy kapitalning dastlabki uchta funksiyasidan kelib chiqadi, ammo rivojlanish jarayoni uchun salomatlik ustuvorligini ahamiyatini alohida ta’kidlash mumkin)

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash, tabiatni talab qiladigan texnologiyalarni resurslarni tejaydigan va energiya tejaydigan texnologiyalar bilan almashtirish orqali allaqachon ekspluatatsiya qilingan tabiiy resurslardan foydalanishni yaxshilash va atrof-muhitni muhofaza qilishga sarmoya kiritish zarur. Shuningdek, mavjud bo‘lgan eng yaxshi texnologiyalarni qo‘llash, xom ashyoni qayta ishlashni chuqurlashtirish va diversifikatsiya qilish va fan yutug‘laridan foydalanish lozim. Bu aholi farovonligini oshirish, xom ashyo qazib olish va tabiiy kapitalni ekspluatatsiya qilishning hozirgi darajasida YAIMni 2-3 barobar oshirish, atrof-muhit ifloslanishini kamaytirish imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa kilib aytganda barqaror rivojlanish konsepsiyasi nafaqat ekologik muammolarga qarshi kurashishning xalqaro va davlat darajasidagi vazifasi, balki zamonaviy oila, jamiyat, biznes va innovatsiyalarga tegishli ijtimoiy-madaniy yo‘nalish subyektlarining ham asosiy vazifasidir. Pedagogik faoliyat tajribamga asoslanib bizning fikrimizcha “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tishda avvalo ta’limni oiladan, so‘ngra maktabgacha ta’lim muassasalaridan boshlash lozim deb bilaman. Chunki bolaga asosiy iqtisodiy tarbiya va ko‘nikma oiladan boshlanadi. Iqtisodiyot va oila ta’limi bir qarashda mutlaqo mos kelmaydigan tushunchalar bo‘lib tuyuladi. Ammo zamonaviy bola hayotining birinchi yillaridanoq o‘zini:

- o‘yinchoqlarini asrab avaylashni, oziq-ovqatni isrof etmaslikni;
- kiyim kechakni toza tutish va asrab avaylab kiyishni;
- elektr energiya, suv va boshqa inson hayoti uchun zarur bo‘lgan ne’matlardan tejamli foydalanishni;
- o‘simliklarni yanchimaslikni, ularni parvarish qilishni, ular bilan oziqlanishni;
- chiqindilarni har yerga tashlamaslik, ularni maxsus joyga tashlashni;
- kitob, daftar va boshqa o‘quv qurollari asrab, avaylab foydalanishni;
- o‘zgalar mehnatini qadrlash kabi iqtisodiy va ekologik tushunchalar va jarayonlar bilan to‘ldirilgan iqtisodiy muhitda topadi.

Shu o‘rinda bizning takliflarimdan yana biri oliy ta’lim muassasasi talabalarining iqtisodiy madaniyatlarini rivojlantirish jarayonida oliy ta’lim tizimida o‘qitilayotgan fanlarga o‘z yo‘nalishiga ko‘ra barqaror rivojlanishga oid bo‘lgan tushunchalarni va ularning ahamiyatini, majburiyati va natijalarini kiritish lozim. Masalan, “Iqtisodiyot nazariyasi” faniga barqaror rivojlanish tushunchasi uning dolzarbligi va ahamiyatini, “Tadbirkorlik asoslari” yoki “Biznesni boshqarish” kabi fanlarga tadbirkorlik faoliyatida barqaror rivojlanish zaruriyatlarini, tadbirkorlik faoliyati uning majburiyat va ma’suliyatlariga oid mavzular berilishi lozim. O‘zbekistonda endi rivojlanib kelayotgan fanlardan “Xulq-atvor iqtisodiyoti” fanida iste’molchilarga nisbatan ne’matlardan foydalanishda albatta ularning ekologik xavfsizligi va atrof-muhitni muhofaza qilish kabi tushunchalar kiritish zarur. Shuningdek, barqaror rivojlanishni ta’minlash uchun uning huquqiy negizlarini yaratish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-436-son “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori. https://lex.uz/docs/6303230.
2. Mirziyoyev.Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. –Toshkent. –“O‘zbekiston” nashriyoti, 2021.– 464 b.
3. Зелёная экономика и цели устойчивого развития для России: коллективная монография / Под науч. ред. С. Н. Бобылёва, П. А. Кирюшина, О. В.Кудрявцевой. – М.: Экономический факультет МГУ имени М. В. Ломоносова, 2019. – 284 с.
4. Бобылев С. Н., Захаров В. М. Модернизация и устойчивое развитие. М.: “Экономика”, 2011.
5. UNDESA. A guidebook to the Green Economy. –2012.
6. Наше общее будущее. Доклад международной комиссии по окружающей среде и развитию: Пер. с англ. / Под ред. и с посл. Евтеева С. А. и Перелета Р. А. –М.: Прогресс. –1989
7. M. Yo‘ldoshev. Ekologik iqtisodiyot: Nazariy va amaliy tadqiqotlar. (Monografiya).–T.: “Ilm-fan va innovatsiya”, 2023, –240 bet.

MAHSULOT VA XIZMATLARNI RAQAMLI TRANSFORMATSIYASINI AMALGA OSHIRISH ALGORITMI

Kucharov Abrorjon Sobirjanovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Bobojonov Azizjon Babaxanovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Abdurakhmonov Abdumalik Abdurashidovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamlashtirish va raqamli texnologiyalarning transformatsiyani o‘rni, amalga oshirish algoritmi, amalga oshirish bosqichlari, raqamlashtirishning istiqbollari va imkoniyatlari tahlil qilingan hamda davlatimiz rahbari tomonidan yechimlar ta’kidlab o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Raqamli transformatsiya, raqamli transformatsiya algoritmi, biznes raqamli jarayonlar, raqamlashtirish turlari.

Abstract: This article analyzes the role of digitization and transformation of digital technologies, the implementation algorithm, stages of implementation, prospects and possibilities of digitization, and highlights solutions by the head of our state.

Key words: Digital transformation, digital transformation algorithm, business digital processes, types of digitization.

Аннотация: В данной статье анализируется роль цифровизации и цифровых технологий в трансформации, алгоритм реализации, этапы реализации, перспективы и возможности цифровизации, а также обозначены пути решения главы нашего государства.

Ключевые слова: Цифровая трансформация, алгоритм цифровой трансформации, цифровые процессы бизнеса, виды цифровизации.

KIRISH

Zamonaviy iqtisodiy sharoitda ko‘plab davlatlarning iqtisodiy nazariyasi va amaliy faoliyatida “raqamli iqtisodiyot” tushunchasi dolzarb bo‘lib, raqamli iqtisodiyotning ajralmas qismi bo‘lgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jamiyat faoliyatining ko‘plab sohalarida muhim rol o‘ynamoqda.

Raqamli iqtisodiyotning asosiy belgilari doimiy rivojlanish, o‘zgarish, moslashuvchanlikni oshirish, qo‘shimchalar, ma’lumot almashish va Real vaqt rejimida operatsiyalarni amalga oshirish, o‘z-o‘zini o‘rganadigan raqamli “aqlli” jamiyatdir. Ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning bunday holatiga erishish faqat raqamli transformatsiya orqali mumkin, uning asosiy drayverlari bugungi kunda yangi mahsulotlar va xizmatlar, eng yangi axborot va boshqaruv texnologiyalari, innovatsion biznes modellari, sanoat raqamli platformalari o‘z ichiga oladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Raqamli iqtisodiyotga o‘tish zarurati tufayli, yangi iqtisodiy sharoitda barqarorlikka intilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy tizimning barcha subyektlari raqamli transformatsiya jarayonidan o‘tishga majbur.

Jarayonlarni raqamlashtirish nafaqat individual korxonalar va kompaniyalar darajasida dolzarbdir: butun sanoat ushbu rivojlanish yo‘lini o‘zlari uchun yagona yo‘nalish sifatida tanlaydi. Bu ijtimoiy-iqtisodiy tuzilish va jamiyat hayotining barcha sohalariga nisbatan tizimli yondashuv nuqtayi nazaridan raqamli transformatsiya muammolarini o‘rganishni taqozo etadi.

Ba'zi taniqli professorlarning raqamli transformatsiya xususiyatlari haqida fikrlari quyidagicha, masalan Tim Herglotz (2019) raqamli transformatsiyani yangicha texnologiyalarni qo'llash orqali raqobatbardosh bozorda hukmronlik qilish yoki ahamiyatli bo'lib qolish uchun strategik rejalashtirilgan tashkiliy tashabbuslarning sayohati deb ta'riflagan[1].

Tim Chilvers (2017) ta'rifiga ko'ra, Raqamli transformatsiya shunchaki yangi texnologiyalarni o'zlashtirish emas; bu sizning ish uslubingizni, biznesingizning barcha jabhalarida tubdan o'zgartirish haqida. Tashkilot haqiqatan ham o'zgarishi uchun uning xodimlari ushbu o'zgarishlarning asosiy qismi bo'lishi kerak[2].

Di Wang va Xuefeng Shaoning fikricha, ishlab chiqarish korxonalariga raqamli transformatsiya darajasini yaxshilashga intilishni va bir vaqtning o'zida korxona xarajatlari va ichki samaradorlikdagi yo'qotishlarni kamaytirish uchun intensiv ishlab chiqarish va boshqaruvni rag'batlantirish uchun raqamli texnologiyalar imkoniyatlaridan to'liq foydalanish lozim. Masalan, ishlab chiqarish korxonalari uzoq muddatli va dinamik raqamli transformatsiya strategiyasini shakllantirishlari mumkin. Korxona boshqaruvchilari rag'batlantirish siyosati va ishlab chiqarish korxonalarining raqamli transformatsiyasi darajasini yaxshilash choralarini ilgari surishlari mumkin. Ayni paytda, mahalliy hukumatlar kichik va o'rta kompaniyalarga raqamli transformatsiyalarda katta, o'rta va kichik kompaniyalarning inklyuziv va hamkorlikdagi raqamli iqtisodiyotini sanoat ekologiyasini rag'batlantirish uchun yordam berishi ahamiyati katta[3].

Maros Krivyning (2023) xulosa qilishicha, internet va bozorni murakkab, o'z-o'zini tashkil etuvchi jarayonlar sifatida namoyish etish orqali bizning noto'g'ri raqamli kapitalizmimizga moslashish va qiyinlashish imkoniyatini pasaytirishga ustuvor ahamiyat beradi[4].

Erik den Hartighning (2023) aniqlashicha, ishlab chiqarish uchun raqamli platformalar turli xil, qisman kutilmagan konfiguratsiyalarga ega:

(1) barcha funksiyalar platformaning tashkiliy qismi bo'lishi shart emas; (2) barcha funksiyalar bir xil platforma turiga muvofiq tashkil etilishi shart emas,(3) shuningdek, platforma turlari va funksiyalarining barcha tasodifiy konfiguratsiyasi mumkin emas ko'rinadi. Ushbu murakkablik ishlab chiqarish uchun raqamli platformalarning samarali konfiguratsiyasini o'rganish uchun innovatsion funksiyaning muhimligini ta'kidlaydi[5].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada raqamli transformatsiyaning amalga oshirish algoritmi, muassalaridagi, jamiyatdagi, kompaniyalardagi o'rni, hamda respublikadagi mavjud vaziyat, Prezident farmonidagi "Raqamli O'zbekiston–2030" strategiyasidagi maqsadli ko'rsatkichlari statistik guruhlash va taqqoslash orqali yoritib berilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Raqamli transformatsiya biznesning barcha jabhalarida –jarayonlar, mahsulotlar va xizmatlar, qaror qabul qilish yondashuvlarida foydalanish orqali raqamli texnologiyalarning imkoniyatlarini to'liq ochib berishga imkon beradi.

Bizning tadqiqotimiz doirasida raqamli transformatsiyani raqamli texnologiyalarni kompaniya biznes faoliyatining barcha jabhalariga integratsiyalash jarayoni sifatida texnologiya, madaniyat, operatsiyalar va yangi mahsulot va xizmatlarni yaratish tamoyillarida tub o'zgarishlarni talab qiladigan jarayon sifatida belgilash muhimdir. Yangi texnologiyalardan maksimal darajada foydalanish va ularni faoliyatning barcha sohalarida tezkor joriy etish uchun kompaniyalar eski qarashlardan voz kechib, jarayonlar va ish modellarini butunlay o'zgartirish lozim. Raqamli transformatsiya e'tiborni kompaniyalarning perifiriyasiga va uni qo'llab-quvvatlashi kerak bo'lgan ma'lumotlar markazlarining moslashuvchanligini oshirishni talab qiladi. Bu jarayon eskirgan texnologiyalarni bosqichma-bosqich bekor qilishni ham anglatadi, bo'lmasa kompaniyalar uchun oqibati qimmatga tushishi mumkin.

Shuni ta'kidlash kerakki, raqamli transformatsiya faqat texnologiya uchun hech qachon yetarli bo'lmaydi. Raqamli transformatsiya jarayoni to'liq bo'lishi uchun aniq ifodalangan biznes maqsadlari va ma'lumotlar talab qilinadi. Shunday qilib, raqamli transformatsiyani faqat barcha uch o'lchov (shakllangan biznes vazifasi, ma'lumotlarning mavjudligi va texnologiyalarning o'zi) kesishmasida ko'rib chiqish mumkin.

Raqamli transformatsiya tashkilot qanday ishlashini va uning atrof-muhit bilan qanday munosabatda bo'lishini tubdan qayta ko'rib chiqishni o'z ichiga oladi. O'zgarishlarning asosiy omili zamonaviy iste'molchi

1 What Is Digital Transformation? And how to read it in 2020! (digitaltransformationtrends.com)
2 4 Tips When Communicating For Digital Transformation (colinjamesmethod.com)
3 Di Wang, Xuefeng Shao, Yang Song, Hualu Shao4 and Longqi Wang (2023)// THE EFFECT OF DIGITAL TRANSFORMATION ON MANUFACTURING ENTERPRISE PERFORMANCE Article_3214.pdf (amfiteatrueconomic.ro)
4 Digital ecosystem: The journey of a metaphor– ScienceDirect
5 Erik den Hartigh, Claire C.M. Stolwijk, J. Roland Ortt & L. Matthijs Punter Configurations of digital platforms for manufacturing: An analysis of seven cases according to platform functions and types | SpringerLink

bo‘lib, biznes yangi omillar ta’sirida o‘zgarib boradi. Shuning uchun raqamli transformatsiya konsalting kompaniyalari xizmati emas, balki global biznes raqamli iqtisodiyot jamiyatining yangi sharoitlari va afzalliklariga moslashuvchi muqarrar jarayondir.

Raqamli texnologiyalarning kompaniya faoliyatiga integratsiyalashuvi texnik qismdan (kompyuterlar, tashqi qurilmalar, smartfonlar), kompaniyaning ichki tarmog‘i va Internetga kirish, bulutli texnologiyalar xizmatlari, standartlashtirilgan dasturiy ta’minot, veb-ilovalar, kompaniyaning raqamli aloqalarini ta’minlovchi elektron platformalarni talab etadi.

Umuman olganda, zamonaviy xizmat ko‘rsatuvchi kompaniyaning raqamli o‘zgarishi quyidagicha ko‘rsatilgan algoritmga muvofiq amalga oshirilishi mumkin:



1-rasm: Zamonaviy xizmat ko‘rsatish kompaniyasining raqamli transformatsiyasi algoritmi (Muallif ishlanmasi)

Raqamli transformatsiya uzluksiz bo‘lishi, raqamli o‘zgarish tezligi bilan boshqarilishi va kompaniyaning tashqi va ichki muhiti puxta tahlilga asoslangan bo‘lishi lozim. Xizmat ko‘rsatuvchi kompaniyalar orasida faol tarqalayotgan zamonaviy raqamli tendensiyalarni hisobga olmasdan joriy etilgan texnologiyalarni tanlash mumkin emas. Shu bilan birga, raqamli mahsulotlarning qaysi biri uzoq muddatli ta’sirga ega bo‘lishini va kompaniya uchun haqiqatan ham foydali bo‘lishini, ichki muhit va boshqaruv tizimining xususiyatlari va ularning qaysi qisqa muddatli tendensiyalar ekanligini hisobga olish kerak. Bundan tashqari, kompaniyaning boshqaruv tizimiga axborot texnologiyalarini joriy etish tartibini aniqlash muhim ahamiyatga ega, chunki raqamlashtirish,

qoida tariqasida, kompaniyaning turli funksional sohalarida axborot texnologiyalarini bosqichma-bosqich joriy etishni nazarda tutadi.

Raqamli transformatsiya algoritmi tashkilotda raqamli transformatsiya jarayonini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan tizimlashtirilgan va tashkil etilgan qadamlar va harakatlar to‘plamidir. Raqamli transformatsiya kompaniyaning samaradorligi, raqobatbardoshligi va tez o‘zgaruvchan raqamli muhitga moslashish qobiliyatini oshirish maqsadida biznes modellari, jarayonlari va operatsiyalarini o‘zgartirish va yaxshilash uchun raqamli texnologiyalar va strategiyalardan foydalanishni anglatadi. Biznes modellariga asoslangan raqamli transformatsiya algoritmi nafaqat kompaniyalarga raqamli dunyoga moslashishga yordam beradi, balki kelajakda barqaror muvaffaqiyatga olib kelishi mumkin bo‘lgan innovatsiyalar va rivojlanishga yordam beradi.

Inson omili, bilim yetishmasligi, eskirgan uskunalar, texnologiyalar va IT-tizimlar, mijozlarning odatlari – bular O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy tizimida raqamli transformatsiyaning asosiy to‘siqlari hisoblanadi. Salbiy omillarning ta’siri raqamli texnologiyalarga hissa qo‘shadigan omillarning ta’sirini faollashtirish va kuchaytirish, transformatsiya va raqamlashtirish jarayonlarini tezlashtirish uchun shart-sharoitlar yaratish orqali to‘g‘rilash mumkin.

Bugungi kunda zamonaviy dunyoda raqamli texnologiyalarning quyidagi turlarini ajratib ko‘rsatish mumkin. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida raqamli iqtisodiyotning tayanch elementlarini uyg‘un rivojlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda.

Bugungi kunda zamonaviy dunyoda raqamli texnologiyalarning quyidagi turlarini ajratib ko‘rsatish mumkin.



2-rasm: Zamonaviy raqamli texnologiyalar turlari (muallif ishlanmasi)

Biznes modellariga asoslangan raqamli transformatsiya algoritmidagi asosiy bosqichlar va qadamlarnine batafsil tavsifi:

1. Hozirgi holatni baholash: Raqamli transformatsiya kontekstida kompaniyaning hozirgi holatini aniqlash. Mavjud biznes modellari, jarayonlari va texnologiyalarini baholash.

2. Strategik maqsadlarni aniqlash: Raqamli transformatsiya uchun aniq strategik maqsadlarni aniqlash. Ushbu maqsadlar biznes modellariga mos kelishi va raqobatbardosh ustunlikni ta'minlashi kerak. Muvaffaqiyatni o'lchash uchun ishlatiladigan asosiy ishlash ko'rsatkichlarini (KPI) tuzish. Kompaniyaning raqamli etuklik darajasini aniqlang va eng katta o'zgarishlarni talab qiladigan sohalarni ta'kidlash.

3. Raqamli biznes modelini ishlab chiqish: Mavjud biznes modellarini tahlil qiling va ularni raqamli ekotizimga qanday moslashtirish mumkinligini aniqlash. Raqamli texnologiyalar tomonidan taqdim etilgan imkoniyatlarni hisobga oladigan yangi biznes modellarini ishlab chiqish.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS



3-rasm: Biznes modellariga asoslangan raqamli transformatsiya algoritmidagi asosiy bosqichlar (muallif ishlanmasi)

Bizning tadqiqotlarimizga ko‘ra, kompaniyalar biznesni raqamli transformatsiyasini amalga oshirish uchun uch bosqichli jarayonidan o‘tishlari kerak bo‘ladi. Model ushbu bosqichlar doirasida natijalarni ketma-ket tartibga soladi va firmalarga raqamli transformatsiya davomida turli gibrid tashkiliy jarayonlarda qachon va qanday ishlarni amalga oshirish haqida ko‘rsatmalar beradi. Quyidagi ishlanmada ushbu bosqichlar ko‘rsatilgan: raqamlashtirishdan oldingi, raqamlashtirishdagi holat va raqamlashtirishdan keyingi jarayonlar:

Raqamli Biznes Transformatsiya

0-bosqich	1-bosqich	2-bosqich
(Raqamli transformatsiyadan oldingi jarayon) **Dastlabki holat:** - qat'iy o'rnatilgan jarayon va amaliyotlar; - tashkiliy tamoyillar; - qa'tiy byurokratik me'yorlar; **Vazifalar:** -boshqa raqamli texnologiyalardan foydalanayotgan kompaniyalarni o'rganish va ularning amaldagi holati va tajribalarini tahlil qilish; **Kutilayotgan natijalar:** -kerakli yangi raqamli texnologiyalarni ega bo'lish va yo'lga qo'yish	(Raqamlashtirish jarayoni) **Dastlabki holat:** -kerakli yangi raqamli texnologiyalarni ega bo'lib, ularni yo'lga qo'ymoqda; **Vazifalar:** - Gibrid jarayonni tashkil qilishni o'rganish, ya'ni an'anaviy va raqamli boshqarish biznes modellari bir vaqtning o'zida firma ehtiyojlari eplash uchun: (a) yangi ikki tomonlama boshqarish amaliyotini joriy etish va (b) joriy jarayonlar va ishlash amaliyotlarni qayta rekonstruksiya chiqish; **Kutilayotgan natijalar:** - Kompaniya an'anaviy va raqamli biznes jarayonlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish;	(Raqamlashtirishdan keyingi jarayonlar) **Dastlabki holat:** -Kompaniya an'anaviy va raqamli biznes jarayonlarini amalga oshirish (ikki tomonlama boshqarish amaliyoti orqali); **Vazifalar:** - Raqamli biznes modeli tizimni yanada rivojlantirish; - An'anaviy biznes modelidan voz kechish; **Kutilayotgan natijalar:** - Kompaniyaning yangi raqamli biznes modeli butun kompaniyaning barqarorligini ta'minlay olishiga erishish va keyinchalik yanada rivojlanishga erishish;

4-rasm: Kompaniyalar raqamli biznes transformatsiyasini amalga oshirish uchun uch bosqichli jarayon (muallif ishlanmasi)

0-bosqich an'anaviy biznes modellari uchun qatiy o'rnatilgan jarayonlar va amaliyotlar bilan tavsiflangan ko'plab tashkilotlarning hozirgi holatini aks ettiradi. Ushbu bosqich tashkilotlari barqarorlik va samaradorlikni saqlab qolish uchun o'zining samaradorligining asosiy ko'rsatkichlari (KPI) kabi an'anaviy boshqaruv mexanizmlaridan foydalanishlari mumkin. Ular hamisha tashkiliy tamoyillariga amal qiladilar, berilgan qa'tiy me'yorlarga rioya qiladilar va yangilik kiritmaydilar. Biroq, raqamlashtirish kuchayib borayotgan bir paytda raqobat sababli ushbu kompaniyalarni 1-bosqichga olib chiqishiga to'g'ri keladi, bu yerda ular raqamli muhitga moslashish uchun xodimlarning qiziqishlarini va ularning innovatsiyalarga munosabati inobatga olish kerak bo'ladi.

1-bosqichda tashkilotlar yangi texnologiyalar va ular bilan ishlash usullari bilan tajriba sifatida amaliyot o'tkazishlari lozim. Buning uchun qatiy o'rnatilgan 0-bosqichdagi tartib-qoidalar muhitidan 1-bosqichga mos keladigan ko'proq moslashuvchanlikni talab qiladigan muhitga o'tishni talab qiladi. Ushbu o'tishga erishish yangi boshqaruv usullarini joriy etishdan boshlab gibrid tashkilot usullarini o'rganishni o'z ichiga oladi. Gibrid tashkilot jarayoni tugagandan so'ng, tashkilotlar bir vaqtning o'zida raqamli va an'anaviy biznes modellarini boshqarishi mumkin, bu esa 2-bosqichga o'tish belgisini anglatadi.

2-bosqichda tashkilotlar raqamli biznes modelini ishlab chiqishda davom etiladi, shu bilan birga an'anaviy modeldan qachon voz kechish kerakligini baholanadi. Raqamli biznes modeli butun kompaniyani qo'llab-quvvatlaydigan burilish nuqtasini aniqlash uchun firmalar har ikkala bosqichlarning rentabelligini doimiy ravishda tahlil qilib borishlari kerak. Ushbu tahlilda burilish nuqtasi ba'zi an'anaviy jarayonlar va amaliyotlarning yo'q bo'lib ketishiga va raqamli biznes modelini qo'llab-quvvatlaydigan yangi jarayonlarni paydo bo'lishiga olib keladigan tashkiliy o'zgarishlarni keltirib chiqaradi.

XULOSA TAKLIFLAR

Raqamli texnologiyalarni integratsiyalash ketma-ketligi quyidagi omillar bilan belgilanadi:

- maqsadli iste'molchilar guruhi ehtiyojlari va kompaniya rivojlanishining strategik yo'nalishlariga e'tibor qaratish;
- raqobatbardoshlikka ta'siri, sanoatga mansubligini hisobga olgan holda kompaniyaning faoliyati uchun ahamiyati;
- iqtisodiy samara;

- kompaniyaning mavjud axborot mahsulotlari bilan integratsiya qilish qobiliyati[6].

Biznes modeliga asoslangan raqamli transformatsiya algoritmi esa-bu kompaniyalar raqamli ekotizimga muvaffaqiyatli o‘tish uchun qo‘llashlari mumkin bo‘lgan bosqichlar va qadamlar to‘plamidir. Ushbu algoritm tashkilotlarga tez o‘zgaruvchan raqamli dunyoda raqobatbardosh bo‘lib qolish uchun o‘z biznes modellari va jarayonlarini moslashtirishga yordam beradi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. PF-6079-сон 05.10.2020. “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida (lex.uz).
2. Kucharov A.S. and others. (2021) New Institutions for Socio-Economic Development: The Change of Paradigm from Rationality and Stability to Responsibility and Dynamism. P. 63-69. 10 Jul 2021. https://doi.org/10.1515/9783110699869
3. 7 State Regulation of Competitive Relations.Abrorzhon S. Kucharov, Elvira A. Kamalova, +1 author Bakhtiyor Zh. Ishmukhamedov. Published 25 May 2021 Law, Business, Political Science. DOI:10.1515/9783110699869-007
4. O‘zbekistonda transport logistikasining iqtisodiy ahamiyati va rivojlantirish tendensiyalari A.Kucharov, iqtisod fanlari doktori, professor, toshkent davlat iqtisodiyot universiteti D.Ishmanova, phd, dots.nt, toshkent davlat iqtisodiyot universiteti. Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida qulay ishbilarmonlik muhitini rivojlantirish yo‘nalishlari respublika ilmiy anjumanining materiallari 5-oktyabr 2022-y, 8-13 c.
5. Цифровая экономика: новая архитектоника бизнеса и трансформация компетенций: сб. материалов Междунар. науч.-практ. конф. (8 декабря 2023 г.): науч. электрон. Изд. С 726-729. Цифровая трансформация высших учебных заведений А.С. Кучаров[1], А.А. Абдурахманов[2], Н.Н. Набиева[2] [1]

6 c9-tretyakov.pdf (publishing-vak.ru)

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING SOLIQ TIZIMI MAMLAKATDA YASHIRIN IQTISODIYOT ULUSHINI QISQARTIRISH VOSITASI SIFATIDA

Nabiyev Feruz Nurmurodovich
Soliq qo‘mitasi Strategik rejalashtirish departamenti
Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash hamda
iqtisodiy integratsiya bo‘limi boshlig‘i

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirishda soliq ma’murchiligining muhimligi tadqiq qilingan. Shuningdek, yashirin iqtisodiyotga qarshi soliq ma’murchiligining bugungi kun holati, uchrayotgan muammolar, ularni keltirib chiqaruvchi omillar hamda mavjud imkoniyatlar tahlil qilingan. Yuqorida qayd etilgan holatlardan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi soliq ma’murchiligini yanada takomillashtirish orqali yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: soliq ma’murchiligi, soliq rejimlari, yakka tartibdagi tadbirkor, yuridik shaxslar, o‘z-o‘zini band qilganlar, soliqdan bo‘yin tovlash, aylanmadan olinadigan soliq, yashirin iqtisodiyot, konvert usulida oylik ish haqi, mahalla soliq inspektori, patta, yer va mol-mulk solig‘i, jismoniy shaxslarning shaxsiy hisob-varaqasi, onlayn NKM, EKOIH.

Abstract: This article examines the importance of tax administration in reducing the share of the shadow economy in the Republic of Uzbekistan. Also, the current state of the tax administration against the hidden economy, emerging problems, factors causing them, and available opportunities are analyzed. Based on the above-mentioned circumstances, proposals and recommendations were developed to reduce the share of the hidden economy by further improving the tax administration in the Republic of Uzbekistan.

Key words: Modern tax administration, declaration of individuals with high incomes, verification of tax debt, interregional tax inspectorate, district tax inspector, administration of especially large taxpayers, personnel system, immunity from corruption.

Аннотация: В данной статье рассматривается значение налогового администрирования в снижении доли теневой экономики в Республике Узбекистан. Также анализируется современное состояние налогового администрирования в отношении теневой экономики, возникающие проблемы, факторы, вызывающие их, и имеющиеся возможности. С учетом вышеизложенных обстоятельств были разработаны предложения и рекомендации по снижению доли теневой экономики путем дальнейшего совершенствования налогового администрирования в Республике Узбекистан.

Ключевые слова: Налоговое администрирование, налоговые режимы, самозанятые лица, юридические лица, уклонение от уплаты налогов, налог с оборота, теневая экономика, заработная плата в виде конверта, налоговый инспектор маҳалли, квитанция, налог на землю и имущество, лицевые счета физических лиц, онлайн ККМ, БРВ.

KIRISH

Bugungi kunda, soliq ma’murchiligini yanada takomillashtirish, soliq siyosatini liberallashtirish, soliq yukini kamaytirish hamda soliqqa tortish mexanizmlarini soddalashtirish orqali tadbirkorlik subyektlariga qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish ustuvor vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Mazkur yo‘nalishlarda hukumatimiz tomonidan bir qator tizimli islohotlar olib borilmoqda.

Xususan, soliq yukini kamaytirish maqsadida soliq turlari 16 tadan 9 taga qisqartirildi. O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi qabul qilindi, 2019-yil 1-yanvardan boshlab majburiy ajratmalar (3,2%) bekor qilindi. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i stavkasi tijorat banklari uchun – 22 foizdan 20 foizga, dividendlar va foizlar ko‘rinishidagi daromadlar bo‘yicha to‘lov manbayidan ushlab qolinadigan foyda solig‘i stavkasi 10 foizdan 5 foizga, mol-mulk solig‘i stavkasi 5 foizdan 2 foizga, yagona soliq to‘lovi stavkasi 5 foizdan 4 foizga va yagona ijtimoiy to‘lov stavkasi 15 foizdan 12 foizga pasaytirildi.

Shuningdek, jismoniy shaxslarning ish haqidan olinadigan 8 foizli sug‘urta badali bekor qilindi hamda soliq stavkasi 22,5 foizgacha bo‘lgan 4 pog‘onali daromad solig‘ining yagona stavkasi 12 foiz etib belgilandi.

Bundan tashqari, iqtisodiyotga soliq yukini adolatli taqsimlash hamda qo‘shilgan qiymat solig‘i zanjiri uzluksizligini ta’minlash maqsadida tovar aylanmasi 1 mlrd so‘mdan oshgan soliq to‘lovchilar QQS to‘lashi belgilandi va mazkur soliq stavkasi 20 foizdan 12 foizga tushirildi hamda qo‘shilgan qiymat solig‘ini qoplab berish amaliyoti joriy etildi.

Shu bilan birgalikda soliq yukini kamaytirish orqali tadbirkorlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash borasida amalga oshirilgan bir qator ijobiy ishlar natijasida umumbelgilangan soliq to‘lovchilar soni 23 barobarga (178 ming) ortdi. Rasmiy band bo‘lgan xodimlar soni 130 foizga (5,1 mln nafar) ko‘paydi. Yuridik shaxs sifatida mol-mulk solig‘ini to‘lovchi korxonalar soni 8,4 barobarga (77,3 mingta) oshdi.

Shuningdek, tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan umumiy tarzda berilgan yengillik va imtiyozlar natijasida ularning ixtiyorida 2017-2023-yillarda 281,3 trln.so‘mga yaqin mablag‘ qoldirildi.

Mazkur islohotlar natijasida milliy iqtisodiyotning barqaror o‘sishi, tadbirkorlik subyektlari sonining oshishi hamda faoliyatlarning kengayishiga qaramasdan mamlakatda yalpi ichki mahsulotga nisbatan yashirin iqtisodiyot ulushi 40–45 foiz atrofida saqlanib qolmoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

Soliq organlari mamlakatda yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirishning asosiy vositasi sifatida mavzusida bir qator xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar tadqiqot olib borishgan. Xususan, rus olimlari K.Chernousova[1], B.Aleshnikova, T.Bursevalar[2] va M.Dergachevlar[3] hukumat idoralari ichida soliq organlarining mamlakat yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirishdagi muhim o‘ringa ega ekanligi shuningdek, yashirin iqtisodiyotni keltirib chiqaruvchi omillarini bartaraf etishda soliq ma’murchiligi mexanizmlarini yanada takomillashtirishga alohida e’tibor qaratish zarurligini ta’kidlab o‘tganlar.

Bundan tashqari, g‘arb tadqiqotchi olimlari M.Engelshalk, R.Avastbi[4], V.Rolandas, A.Stavitskiy, G.Xarlamova va Ye.Ulvidiyenelar[5] yashirin iqtisodiyot ulushi yuqori mamlakatlarning aksariyatida soliq tizimining yetarli darajada mukammal emasligi, tizimning xato va kamchiliklari mavjudligini ta’kidlab, soliq tizimining nazorat yo‘nalishidagi xodimlariga yordam beruvchi turli xil qonun loyihalarini qabul qilish shuningdek, tadbirkorlik subyektlari uchun soliqqa tortish rejimlarini soddalashtirish zarurligini aytib o‘tganlar.

Shu bilan birgalikda, Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotining 2022-yilgi hisobotida rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda soliq ma’murchiligining joriy holati hamda uni isloh qilish bo‘yicha tegishli taklif va tavsiyalar keltirib o‘tilgan. Mazkur takliflarda, asosan, inson omilini maksimal qisqartirish, biznes jarayonlarni raqamlashtirish hamda soliq yukini tegishli maromda saqlab turish keltirib o‘tilgan[6].

Shuningdek, mahalliy tadqiqotchi olimlar Sh.Tashmatov[7] transfert narxlarni belgilashda soliq nazoratini takomillashtirish, I.Niyazmetov[8] soliq siyosatidagi bo‘shliqlarni istiqbolli soliq mexanizmlarini joriy etish orqali to‘ldirish, S.Voronin[9] zamonaviy soliq islohotlarida soliqqa tortishning ilmiy asoslariga mos kelishiga alohida e’tibor qaratib o‘tgan.

Yuqoridagilardan farqli ravishda, Jahon banki[10] O‘zbekiston Respublikasida yashirin iqtisodiyot ulushi yalpi ichki mahsulotga nisbatan 58,5 foizni tashkil etganligi mazkur salbiy ko‘rsatkichni bartaraf etish bo‘yicha hukumat tomonidan operativ ravishda tizimli choralar ko‘rilishi zarurligi ta’kidlangan. Shuningdek, yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirishda dastlab soliq ma’murchiligidagi mexanizmlarni o‘zgartirish, soliq to‘lovchilar bilan bevosita munosabatga kirishadigan soliq organi xodimlarini korrupsiyaga nisbatan murosasiz fikrini shakllantirish hamda eng asosiysi tadbirkorlik subyektlari faoliyatini monitoring va tahlil qilishni to‘liq qamrab olish zarurligi keltirib o‘tilgan.

1 Черноусова К.С. “Органы налогового контроля как инструмент борьбы с теневым сектором экономики в России”. International Journal of Humanities and Natural Sciences, vol. 12-4 (51), 2020.
2 Алешникова В.И., Бурцева Т.А. Инструменты противодействия теневой экономике в регионах России // Вестник Воронежского государственного университета. Серия: экономика и управление. – 2019. – №4. – С. 28-34.
3 Дергачев М.В., Елсуков М.Ю. Основные причины возникновения теневой экономики в России. – 2018.
4 “Taxation and the Shadow Economy”. How the Tax System Can Stimulate and Enforce the Formalization of Business Activities. Policy Research Working Paper 8391 – 2018.
5 “Реализация бюджетно-налоговой политики государства” УДК 336.02 DOI 10.23672/t0403-6841-8028-e.
6 “Перечень инициатив в области налоговых технологий” ОЭСР (2022 г.), https://www.oecd.org/tax/forum-on-tax-administration/tax-technology-tools-and-digital-solutions/.
7 Sh.Tashmatov. “Transfert narxlarni belgilashda soliq nazoratini takomillashtirish” Toshkent moliya instituti Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallar to‘plami Toshkent – 2022.
8 I.Niyazmetov “Soliq siyosatidagi bo‘shliqlar” O‘zbekiston Respublikasida soliq ma’muriyatchiligi samarali faoliyatini ta’minlash: nazariy konseptual asoslar va amaliyot muammolari mavzusidagi konferensiya to‘plami. Toshkent – 2022.
9 С.А.Воронин “Пути развития классификации налогов и сборов в Республике Узбекистан”. –Ташкент – 2022.
10 “Узбекстан – вторая систематическая диагностика страны” Всемирный Банк – 2022.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot doirasida “O‘zbekiston Respublikasida zamonaviy soliq ma’murchiligini joriy etish orqali yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish” mavzusiga doir empirik ma’lumotlar tahlili o‘tkazildi. Shu bilan birgalikda, “Kontent” tahlil, “SWOT” tahlil, “Pattern” metodi, ekspert so‘rovi hamda dala so‘rovlaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yuqori daromadga ega bo‘lgan jismoniy shaxslarni maxsus deklaratsiya asosida soliqqa tortish tizimini yo‘lga qo‘yish orqali yashirin iqtisodiyotni qisqartirish bo‘yicha

Hozirda jismoniy shaxslar tomonidan olingan daromadlarni soliq xizmati organlarida deklaratsiya asosida rasmiylashtirish amaliyoti joriy etilgan bo‘lsada, ayrim fuqarolar tomonidan soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash maqsadida yashirin faoliyatdan olingan daromadlarni yashirish holatlari kuzatilmoqda.

Ma’lumot o‘rnida: 2022-yilda jami 1 399 nafar jismoniy shaxslar tomonidan 4 639,2 mlrd.so‘m miqdoridagi xarajatlar amalga oshirilgan bo‘lib, mazkur fuqarolarning 44 foizi (yoki 612 nafari) rasmiy ish joyiga ega bo‘lmagan biroq, daromadi 4 591,2 mlrd.so‘mni, 56 foizi (yoki 787 nafari) rasmiy ish joyiga ega biroq, daromadi 47,9 mlrd.so‘mni tashkil qilgan.

Mazkur amaliyot bo‘yicha bir qator ilg‘or xorijiy mamlakatlar (Shveysariya, Norvegiya, Ispaniya, Niderlandiya, Italiya, Argentina) tajribalari o‘rganib chiqilganda, yuqori miqdordagi daromadga va mol-mulkka ega bo‘lgan jismoniy shaxslarga nisbatan “majburiy deklaratsiya” asosida soliqqa tortish tartibi joriy etilganligi ma’lum bo‘ldi. Bundan tashqari, “Capgemini” menejment va axborot texnologiyalari bo‘yicha maslahat kompaniyasi tomonidan yuqori daromadga ega bo‘lgan shaxslar daromad miqdoridan kelib chiqib, 5 ta guruhga segmentlangan[11].

Yuqorida keltirilgan holatlarni bartaraf etish shuningdek, budjet daromadlari barqarorligini ta’minlash maqsadida amalga oshirilgan xarajatlardan kelib chiqqan holda yuqori daromadga (5 mlrd so‘mdan ortiq) ega bo‘lgan jismoniy shaxslarni (Nigh Net Worth Individuals) maxsus deklaratsiya asosida soliqqa tortish tizimini joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Ijtimoiy soliq stavkasining yuqoriligi ortidan konvertda ishchi xodimlarga ish haqi to‘lanishi holati bo‘yicha

Bugungi kunda, tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishchi xodimlarini ro‘yxatdan o‘tkazmasdan ularga konvertda ish haqini to‘lash orqali soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash holatlari kuzatilmoqda.

Ma’lumot o‘rnida: 2023-yilda mamlakatimizda mehnatga layoqatli aholi soni – 20,7 mln nafarni, band aholi soni – 13,8 mln nafarni, ishsiz aholi soni – 1,3 mln nafarni, ishsizlik ko‘rsatkichi esa 9,4 foizni tashkil etadi. Mehnatga layoqatli aholining 66,7 foizi rasmiy band, 6,3 foizi rasmiy ishsiz hisoblansa, qolgan 27,0 foiz (yoki 5,5 mln nafar) qismi bevosita norasmiy band aholi hisoblanadi (1-chizma).



1-chizma: 202-yilda O‘zbekiston Respublikasining mehnat resurslari to‘g‘risidagi tahliliy ma’lumot

11 Fransiya davlati Global va innovatsion konsalting kompaniyasining 2023-yilgi hisoboti https://www.capgemini.com/us-en/about-us/who-we-are/our-brands/capgemini-engineering/

Mazkur chizmada keltirilgan tahliliy ma'lumotlar shuni ko'rsatmoqdaki, mamlakat mehnat resurslarining 27 foizi (yoki 5,5 mln.nafar) bugungi kunda norasmiy band bo'lib, yashirin iqtisodiyot ulushiga o'z hissalarini qo'shib kelmoqdalar. Rivojlanayotgan mamlakatlarda ushbu kabi salbiy holatlarni keltirib chiqaruvchi bir qator quyidagi omillar mavjud[12]:

- soliq yukining og'irligi (ijtimoiy soliq);
- yashirin iqtisodiyotga qarshi ta'sirchan mexanizmlarning mavjud emasligi;
- mehnat resurslarini hisobga olish tizimining raqamlashtirilmaganligi;
- Tadbirkorlik subyektlarining soliq xizmati organlariga bo'lgan ishonchsizligi;
- soliq xizmati organlari faoliyatining samarali yo'lga qo'yilmaganligi;
- soliq xizmati organlarida korrupsiya ulushining yuqoriligi.

Yuqorida keltirib o'tilgan omillarni bartaraf etish maqsadida, tadbirkorlik subyektlari uchun ijtimoiy soliq stavkasini pasaytirish, nazorat qiluvchi organlarning nazorat mexanizmlarini kuchaytirish hamda mehnat resurslarini hisobini yuritishning elektron ma'lumotlar bazasini shakllanitirish maqsadga muvofiq.

Soliq ma'murchiligidagi soliqqa tortish rejimlari tadbirkorlik subyektlarining soliq to'lashdan bo'yin tovlash uchun vosita bo'lib qolayotganligi bo'yicha

So'nggi yillarda milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishi, tadbirkorlik subyektlari sonining oshishi hamda faoliyatlarning kengayishiga qaramasdan hududiy soliq xizmati organlarining ish samaradorligi ko'rsatkichlari turg'un holatda saqlanib qolmoqda. Mazkur muammoni keltirib chiqaruvchi bir qator omillar mavjud.

Xususan, soliq qonunchiligida soliqqa tortishning yagona rejimi mavjud emas. Ya'ni tadbirkorlik subyektlari aylanma hajmidan kelib chiqib, 3 xil turdagi tabaqalashtirilgan soliq rejimlari asosida soliqqa tortiladi. Shuningdek, bugungi kunda fuqarolar yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tmasdan, 100 dan ortiq faoliyat turi bilan o'zini o'zi band qilish bilan shug'ullanishi mumkin. Bunda, mazkur shaxslar tomonidan mehnat staji hisoblanishi uchun budjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga ijtimoiy soliq to'lanadi. Ushbu soliqqa tortish rejimlarining rang barangligi tadbirkorlik subyektlari tomonidan olgan daromadlarini soliqdan bo'yin tovlash maqsadida yashirish uchun imkoniyat sifatida foydalanib kelinmoqda (1-jadval).

1-jadval: 2023-yilda tadbirkorlik subyektlari tomonidan to'langan soliqlar hamda soliq rejimlari bo'yicha soliq yukining qiyosiy-tahliliy jadvali[13]

	O'zini-o'zi band qilganlar	Qatiy soliq to'lovchi YATTlar*	AOS to'lovchilar (YATT, Yuridik shaxslar)*	Umumbelgilangan tartibda soliq to'lovchilar (YATT, Yuridik shaxslar (yirik soliq to'lovchilardan tashqari))*
Soni (ming nafar)	2 500,0	197,5	356,5	211,1
To'laydigan soliqlari	Ijtimoiy soliq (ixtiyoriy)	Qatiy soliq, daromad solig'i, ijtimoiy soliq	Aylanmadan olinadigan soliq, daromad solig'i	Foyda solig'i, QQS, ijtimoiy soliq, yer va mol-mulk solig'i
Soliqlar summasi (mlrd.so'm)	90,5	399,2	2 407,3	24 435,9
O'rtacha soliq yuklamasi (ming. so'm)	36,4	2 046,1	6 752,6	115 755,0
Shu jumladan,				
Chakana savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchilar soni (ming nafar)	-	118,1	162,7	190,2
Tovar aylanmasi (mlrd.so'm)	-	24 425,3	113 400,8	156 265,7
To'langan soliqlar summasi (mlrd. so'm)	-	284,4	1 709,2	17 349,5
O'rtacha soliq yuklamasi (ming. so'm)	-	2 399,6	10 505,2	91 217,1

*Izoh: YATTlar soni – 240,7 mingta, yuridik shaxslar soni – 501,7 mingtani tashkil etgan.

12 Л.Ватаева. Зарплата в конвертах. Журнал Финансового Университета Правительства РФ– 2022.

13 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi 2023-yilgi hisoboti hamda Soliq qo'mitasining "Factbook 2023" jurnali.

Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, bugungi kunda tadbirkorlik subyektlari tomonidan soliq rejimlarini tanlashda daromadlarini yashirish, tovar-aylanmalarini kamaytirib ko‘rsatish imkoniyatidan foydalanish holatlari mavjud. Bundan tashqari, hududiy soliq xizmati organlarining soliq to‘lovchilar bilan o‘zaro hamkorlikdagi munosabatlari (til biriktirish) orqali ushbu soliq to‘lovchilarning soliqdan bo‘yin tovlashiga qulay muhit bo‘lib xizmat qilmoqda.

Soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash holatlarini bartaraf etish, soliq to‘lovchilarga teng raqobat muhitini yaratish hamda davlat budjeti barqarorligini ta’minlash maqsadida pilot rejimida chakana savdo faoliyati bilan shug‘ullanuvchi biznes uchun yagona tartibdagi soliq rejimini joriy etish muhim. Mazkur rejimda tadbirkorlik subyektlari tovar-aylanmalari hajmidan qati nazar bir xil miqdordagi soliq yukini (soliq stavkalarini) belgilash zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘tkazilgan tahlillar haqiqatdan ham mamlakatda yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirishda soliq tizimining (ma’murchiligining) alohida o‘ringa ekanligini ko‘rsatmoqda. Jahon Banki tomonidan 2022-yilda O‘zbekiston Respublikasida yashirin iqtisodiyot ulushi 58,5 foiz bo‘lganligi, yashirin iqtisodiyotga nisbatan keskin chora ko‘rish zarurligidan kelib chiqib, quyidagi islohotlarni nazarda tutuvchi choralarni ko‘rish maqsadga muvofiq:

1. Tadbirkorlik subyektlari uchun soliq to‘lashdan bo‘yin tovlashga imkon beruvchi soliq rejimlarini qayta ko‘rib chiqib, shaffof hamda teng raqobat sharoitlarini taqdim etadigan soliq ma’murchiligini yo‘lga qo‘yish;
2. Tadbirkorlik subyektlari uchun ijtimoiy soliq stavkasini pasaytirish orqali 5,5 mln nafar norasmiy band aholini legallashtirish;
3. 2024–2030-yillarda soliq ma’murchiligi va soliq organlarini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish hamda mazkur strategiya doirasida quyidagilarni isloh qilish:

- Soliq to‘lovchilarga ko‘rsatilayotgan xizmat sifatini yanada oshirish, shuningdek, soliq qonunchiligi bo‘yicha yagona yondashuv asosida maslahatlar berish tizimini yo‘lga qo‘yish (bunda, Soliq qo‘mitasi markaziy apparati tarkibiy tuzilmasida murojaatlar bilan ishlash bo‘yicha alohida tuzilma faoliyatini tashkil etish);
- Soliq organlari tomonidan tadbirkorlik subyektlariga (ariza beruvchilarga) muayyan bitim bo‘yicha soliqqa tortish va uning yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan soliq oqibatlarini dastlabki baholash to‘g‘risida “Tax rulling” tamoyili asosida xizmatni yo‘lga qo‘yish;
- Soliq organlari xodimlari faoliyatining samaradorligini baholash (KPI) tizimini joriy etish. Bunda, har bir soha yo‘nalishlari bo‘yicha strategik, taktik va operativ baholash indikatorlarini ishlab chiqish. Mazkur tizim asosida xodimlarning samaradorlik ko‘rsatkichlaridan kelib chiqib, rag‘batlantirish mexanizmini joriy etish;
- Soliq nazorati va soliq qarzini undirish bo‘yicha amalga oshiriladigan ishlarni takomillashtirish hamda markazlashtirilgan nazorat tizimini joriy qilish maqsadida Soliq qo‘mitasi huzurida Soliq nazorati va soliq qarzi bilan ishlash bo‘yicha hududlararo soliq inspeksiyasini tashkil etish.
- Soliq qo‘mitasi tarkibiy tuzilmasida soliq tizimining joriy holatini, soliq ma’murchiligidagi muammo va kamchiliklarni tizimli ravishda tahlil qilish, soliq tizimini takomillashtirish hamda zamonaviy soliq ma’murchiligini joriy etish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar markazi faoliyatini yo‘lga qo‘yish;
- Soliq xizmati organlari xodimlarining korrupsiyaviy reytingini shakllantirish, soliq xizmati bo‘linmalarining korrupsiyaga moyilligi indeksini hamda ushbu bo‘linmalarda xizmat qilishning o‘ziga xos me’yorlarini ishlab chiqish. Bunda, riski yuqori bo‘lgan bo‘linma xodimlarini qisqa muddatda rotatsiya qilish shartlarini belgilash.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Черноусова К.С. “Органы налогового контроля как инструмент борьбы с теневым сектором экономики в России”. International Journal of Humanities and Natural Sciences, vol. 12-4 (51), 2020.
2. Алешникова В.И., Бурцева Т.А. Инструменты противодействия теневой экономике в регионах России // Вестник Воронежского государственного университета. Серия: экономика и управление. – 2019. – №4. – С. 28-34.
3. Дергачев М.В., Елсуков М.Ю. Основные причины возникновения теневой экономики в России. – 2018.
4. “Taxation and the Shadow Economy”. How the Tax System Can Stimulate and Enforce the Formalization of Business Activities. Policy Research Working Paper 8391 – 2018.
5. “Реализация бюджетно-налоговой политики государства” УДК 336.02 DOI 10.23672/t0403-6841-8028-e.
6. “Перечень инициатив в области налоговых технологий” ОЭСР– 2022.

7. Sh.Tashmatov. “Transfert narxlarni belgilashda soliq nazoratini takomillashtirish” Toshkent moliya instituti Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallar to‘plami. Toshkent – 2022.
8. I.Niyazmetov “Soliq siyosatidagi bo‘shliqlar” O‘zbekiston Respublikasida soliq ma’muriyatchiligi samarali faoliyatini ta’minlash: nazariy konseptual asoslar va amaliyot muammolari mavzusidagi konferensiya to‘plami. Toshkent – 2022.
9. Воронин С.А “Пути развития классификации налогов и сборов в Республике Узбекистан”.– Ташкент – 2022.
10. Отчет Всемирного Банка “Узбекстан – вторая систематическая диагностика страны”.– ВБ – 2022.
11. Ватаева Л. Зарплата в конвертах. Журнал Финансового Университета Правительства РФ.– 2022.
12. Арипов М. “Налоговые механизмы снижения уровня теневой экономики и стимулирования инвестиционной деятельности”. Москва – 2022.
13. Федотов Д.Ю. Влияние налоговой системы на теневую экономику. Финансы и кредиты. Москва – 2018.
14. Горшенина Е.В Экономическая теория. Учебное пособие “Бюджетно-налоговая система государства” – Тверь: ТвГУ, 2022. – 185 с.
15. Taufik Kurniawan Modernization of the Tax Administration System: A Theoretical Review of Improving Tax Capacity.
16. Ноева Е.Е, Евсеев В.А, Саакянь С.А Реализация бюджетно-налоговой политики государства в условиях пандемии covid-19. УДК 336.02 DOI 10.23672/t0403-6841-8028-e.
17. Власенко М.Г. Бюджетно-налоговая политика // Международный журнал гуманитарных и естественных наук. 2021. № 3-2. С. 108–123.
18. Zotikov N.Z. Features of the formation of federal budget revenues / N.Z. Zotikov, M.V. Lvov, O.I. Arlanova // Bulletin of Eurasian Science. – 2023. – № 1. Vol. 11. – P.1–19.
19. Federal Tax Service of the Russian Federation. Official site. URL : https://www.nalog.ru (date of application 28.11.2020).
20. Номазов Б.Б О задачах модернизации налоговой системы Узбекистана // “Экономика и социум” №5(108)-1 2023.
21. Samiyeva G. T. (2022). Concepts of Poverty, Inequality and Social Exclusion. International Journal on Economics, Finance and Sustainable Development, 4(3), 122-126.
22. Dustova M. X. Improving the Mechanism of Financial Lending to Agricultural Enterprises //EUROPEAN MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF MODERN SCIENCE. https://emjms. academicjournal. io/index. php. – 2022. – T.
23. Khamraeva S. N., Alimova M. Y. Scientific and Theoretical Foundations of Social Infrastructure Development //Journal of Marketing and Emerging Economics. – 2022. – Т. 2. – №. 5. – С. 155-160.
24. Kurbanov A. B., Jalilova N. M. The Role Of Small Business In The National Economy //The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research – 2020. – Т. 2. – №. 07. – С. 95.

FUNDAMENTALS OF INNOVATIVE MANAGEMENT AND ITS ORGANIZATIONAL CONTROL

Akramova Aziza Abduvohidovna
Student of TSUE

Maqsudov Bunyod Abdusamatovich
Phd, TSUE

Abstract: The article describes ways to organize innovative management in the sustainable development of the economy. According to the experience of economically developed countries, new innovations are compared to the usual organizational conditions of the economy tables are used that allow you to make huge profits. In addition, it is a clear technological innovation, organizational innovations for its realization are presented.

Key words: economically developed, specific technological innovations, cycle of innovation, new technologies, scientific and technical activities, investment capital, innovative processes.

Ilmiy darajali kadrlar tayyorlashda xalqaro tajriba tushunchasi mamlakatlar va madaniyatlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir muqarrar bo‘lib, zamonaviy jahonda ilmiy darajali kadrlar tayyorlashda xalqaro tajriba katta ahamiyatga ega. Bu tajriba jahon ilmiy muhitida muvaffaqiyatli faoliyat yurita oladigan yuqori malakali mutaxassislarni yetishtirishda asosiy o‘rin tutadi.

Xalqaro tajribaning asosiy afzalliklaridan biri turli mamlakatlardagi hamkasblar bilan bilim va tajriba almashishdir. Talabalar va tadqiqotchilar yetakchi olimlar va mutaxassislardan saboq olishlari, hamkorlikdagi tadqiqot va loyihalarda ishtirok etishlari, xalqaro ilmiy jamoalar bilan muloqot qilishlari mumkin. Bu professional aloqalar tarmoqlarini rivojlantirishga, qo‘shma ilmiy taraqqiyot va fikr almashishga yordam beradigan uzoq muddatli hamkorlikni yaratishga yordam beradi. Ta’kidlash joizki, ilmiy darajali kadrlar tayyorlash bo‘yicha xalqaro tajriba ham bitiruvchilarning jahon mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda. Xalqaro ilmiy muhitda ishlash tajribasi bilan ular keng dunyoqarashga, chuqur bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lib, ish beruvchilar tomonidan qadrlanadi. Bu ularga martaba o‘sishi va professional ambitsiyalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ko‘proq imkoniyatlar yaratadi. Ilmiy darajali kadrlar tayyorlash bo‘yicha xalqaro tajriba samarali bo‘lishi uchun alohida jihatlarga e’tibor qaratish zarur. Talabalar va tadqiqotchilarning akademik ehtiyojlari va manfaatlariga mos keladigan tegishli almashinuv va amaliyot dasturlarini yaratish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, dastur ishtirokchilari xalqaro treninglar taqdim etayotgan imkoniyatlardan to‘liq foydalana olishlari uchun ularning chet elda bo‘lish vaqtida yordam va hamrohlik qilish zarur. Umuman olganda, ilmiy darajali kadrlar tayyorlashda ilmiy darajali kadrlar tayyorlash bo‘yicha xalqaro tajriba muhim o‘rin tutadi. Bu esa eng yaxshilardan o‘rganish, bilim va tajriba almashish, professional ko‘nikmalarni rivojlantirish va xalqaro hamkorlik aloqalarini o‘rnatish imkonini beradi. Fan sohasida xalqaro almashinuv va hamkorlikni rag‘batlantirish ilmiy kadrlar tayyorlash sifatini oshirishning asosiy omili bo‘lib, butun dunyoda ilm-fan taraqqiyotiga xizmat qiladi.

So‘nggi o‘n yilliklarda ilmiy darajali kadrlar tayyorlash sohasidagi xalqaro tajriba turli mamlakatlarda ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar rivojlanishining muhim omiliga aylandi. Muvaffaqiyatli xalqaro ilmiy ta’lim dasturining bir misoli Erasmus+. Ushbu dastur talabalar, o‘qituvchilar va tadqiqotchilarga ta’lim olish, ilmiy tadqiqotlar olib borish yoki Yevropa Ittifoqining turli mamlakatlaridagi universitetlar va tadqiqot markazlarida dars berish imkonini beradi. Bunday tajriba bilimlarni chuqur anglash, madaniy qadriyatlar va ilmiy bilimlar almashinuviga yordam beradi. Ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirishda ilmiy darajali kadrlar tayyorlash bo‘yicha xalqaro tajriba asosiy o‘rin tutadi. Bu bilimlarni kengaytirish, ilmiy tadqiqotlar sifatini oshirish va global ilmiy tarmoqlarni shakllantirishga yordam beradi. Ilmiy salohiyatni yuksaltirish, ilmiy sohada yuksak natijalarga erishish uchun bunday dastur va tashabbuslarni bundan keyin ham ishlab chiqish va qo‘llab-quvvatlash zarur. Demak, ilmiy darajali kadrlar tayyorlash bo‘yicha xalqaro tajriba ilmiy tadqiqot va innovatsiyalar rivojiga xizmat qiluvchi muhim omil bo‘lmoqda. Bu bilim almashish, xalqaro aloqalarni rivojlantirish, yangi g‘oyalarni tarqatish va hamkorlik tarmoqlarini yaratishni ta’minlaydi. Bu tajriba ilmiy bilimlarni amaliyotda muvaffaqiyatli qo‘llay oladigan, ilm-fan taraqqiyotiga hissa qo‘shadigan yuqori malakali ilmiy kadrlarni shakllantirishda muhim o‘rin tutadi.

Ilmiy darajali kadrlar tayyorlashda xalqaro tajribaning afzalliklari:

- **Ufqlarni kengaytirish:** Xalqaro tajriba talabalar va tadqiqotchilarga o‘z mamlakatida mavjud bo‘lmagan turli ilmiy yondashuvlar, texnologiyalar va metodologiyalar bilan tanishish imkonini beradi. Bu ularning dunyoqarashini kengaytiradi hamda ijodiy fikrlash va madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirishga yordam beradi.
- **Networking:** Xalqaro ilmiy ta’lim dasturlari va loyihalari turli mamlakatlar olimlari va mutaxassislari bilan aloqa o‘rnatish va hamkorlik qilish uchun imkoniyatlar yaratadi. U fikr almashish, hamkorlikda tadqiqotlar olib borish va xalqaro ilmiy tarmoqlarni yaratishga yordam beradi.
- **Ilg‘or tajribalarni jalb qilish:** Xalqaro tajriba, ilg‘or tajribaga asoslangan o‘quv dasturlari va tadqiqot loyihalarida ishtirok etish imkonini beradi.
- **Stajirovka:** Talabalar va tadqiqotchilar yetakchi olimlar va tashkilotlar tajribasidan bahramand bo‘lishlari, eng so‘nggi uslub va texnologiyalar bilan tanishishlari, zamonaviy ilmiy asboblar va laboratoriyalardan foydalanishlari mumkin.
- **Raqobatbardoshlikni oshirish:** ilmiy darajali kadrlar tayyorlash bo‘yicha xalqaro tajribaga ega bo‘lish bitiruvchilar va tadqiqotchilarni mehnat bozorida yanada raqobatbardosh qiladi. Bu ularning xalqaro jamoalarda ishlashga, turli madaniyatlarga moslashishga va ilg‘or ilmiy bilimlarni qo‘llashga tayyorligini ko‘rsatadi.

Ilm-fan rivoji, mutaxassislarni sifatli tayyorlashni ta’minlashda ilmiy darajali kadrlar tayyorlash bo‘yicha xalqaro tajriba muhim o‘rin tutadi. Bu bilim almashish, professional aloqalar tarmoqlarini yaratish va turli mamlakatlarning ilg‘or tajribalaridan foydalanish imkonini beradi. Bu ilmiy jamoatchilikni rivojlantirish va bitiruvchilarning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda. Zamonaviy ilm-fan olamida xalqaro tajribaga talab yuqori bo‘lib, yuksak darajada ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot doirasida ilmiy darajali kadrlar tayyorlash sohasida AQSH va Germaniya tajribasi o‘rganib chiqildi.

Ilmiy darajali kadrlar tayyorlashda AQSh tajribasi

AQSHda falsafa fanlari doktori (PhD) darajasi ko‘plab ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha AQSH universitetlari va institutlarida muhandislik, psixologiya, ta’lim va matematika sohalarida eng yuqori berilgan daraja hisoblanadi. AQShda PhD darajasini olish boshqa davlatlarga qaraganda biroz murakkab bo‘lib, bunga sabab olib borilishi majbur bo‘lgan tadqiqotlar va talablarning yuqoriligidir.

AQShda magistratura bosqichida o‘qimagan talabalar ham PhD darajasini olishlari mumkin va bu ba’zi hollarda yaxshiroq ham hisoblanadi. PhD dasturlari uchun qabul panellari talabalardan zarur bilim va ko‘nikmalarni namoyish etishlarini talab qiladi. Bu ko‘pincha sog‘liqni saqlash sohasidagi epidemiologiya va biostatistika yoki tarixdagi tarixshunoslik kabi o‘z sohalarida asosiy kurslarni tugatishni talab qiladi. Kurslar sertifikatlari bakalavr talabalari uchun ham PhD dasturiga yo‘l ochadi. Bunga Vashington universitetidagi iqtisodiyot bo‘yicha PhD yaqqol misol bo‘la oladi. Agar talabada bakalavr diplomi bo‘la turib mikro va makro iqtisodiyot, bir yillik amaliy algebra hamda statistikani tamomlagan bo‘lsa, PhD darajasiga o‘qishga topshirishi mumkinligi belgilab qo‘yilgan[1].

Agar talabada kerakli tadqiqot mexanizmlari bo‘lmasa, ba’zi doktorlik dasturlari birinchi navbatda tadqiqot yutuqlariga qaraydi va shu asosida talabani PhD bosqichi uchun o‘qishga qabul qiladi. Psixologiya kabi ko‘plab dasturlar magistratura bosqichidan ko‘ra PhD bosqichini tamomlashni talab qiladi. Shuningdek, talabalar orasida “birlashtirilgan magistratura/PhD dasturlari” yoki “Bakalavrdan PhDgacha” dasturlari keng ommalashgan. Bunday dasturlar ko‘pincha o‘ziga xos usullarda magistr bosqichi ta’lim dasturini taklif qiladi[2] (1-rasm):

Tanlash imkoniyati mavjud bo‘lgan magistratura bosqichi ta’lim dasturi:

- Bunda talaba magistratura bosqichi uchun kurs ishini tamomlaganda, PhD bosqichida ta’limni boshlashdan avval magistratura diplomini qo‘lga kiritishi kerak;

Magistratura dasturi talab etiluvchi ta’lim dasturlari:

- Ushbu dasturda PhD bosqichini boshlashdan avval magistraturaga aloqador barcha kurs ishlari, imtihonlar, mustaqil ishlar hamda yakuniy diplom ishi himoyasi to‘laqonli bajarilishi kerak.

Magistratura talab etilmaydigan ta’lim dasturlari:

- Ushbu dasturda talabalardan magistratura bosqichida ta’lim olish talab etilmaydi. Bakalavrdan so‘ng to‘g‘ridan to‘g‘ri PhD ta’limi boshlanadi.

1 https://www.findaphd.com/guides/phd-without-masters
2 https://www.findaphd.com/guides/phd-study-in-usa/



1-rasm: AQShda doktorlik darajasini qo‘lga kiritish uchun o‘rtacha sarflangan vaqt (yillar hisobida)

PhD dasturini tamomlash uchun ta’lim yo‘nalishiga qarab bakalavriatdan keyin 4 yildan 8 yilgacha o‘qish kerak va allaqachon magistr darajasiga ega bo‘lgan talabalar uchun PhD darajasini olish uchun bir yoki ikki yil yoki undan ham ko‘proq vaqt ketadi. AQShda PhD darajasini tamomlash uch bosqichdan iborat bo‘lib, unda birinchi bosqich – bu kurs ishi bo‘lib, uni yakunlash 1-3 yil davom etadi, undan so‘ng yakuniy imtihon yoki bir qator imtihonlar o‘tkaziladi.

Amerika zamonaviy PhD darajasini qabul qilgan ikkinchi davlat (Germaniyadan keyin) hisoblanadi. Ushbu yangi tizim hozirda Buyuk Britaniya va Yevropa mamlakatlari ta’lim tizimiga ham o‘zining ta’sirini ko‘rsatmoqda.

Davlat boshqaruv ishlariga, ma’lum bir soha eksperti lavozimlariga va universitet professori, tadqiqotchi yoki ish faoliyatini davom ettirmoqchi bo‘lganlardan ko‘pincha PhD darajasi talab qilinadi.

AQShda PhD uchun qabul talablari universitet va ta’lim sohasiga qarab farqlanadi. Ammo AQShdagi ko‘pgina universitetlar u yerda doktorlik darajasiga hujjat topshirgan xalqaro talabalardan quyidagilarni talab qiladi:

- To‘ldirilgan ariza shakli;
- Rezyume;
- Universitet darajangiz yoki kurslaringiz uchun transkript;
- Maqsad bayonoti;
- GMAT yoki GRE ballari;
- Tavsiya xatlari;
- IELTS yoki TOEFL kabi ingliz tili imtihoni;
- Ariza to‘lovi.

AQShda PhD dasturlarini taklif etuvchi 282 ta (2022-yil ma’lumoti) universitetlar mavjud. Arizalar qabul qilish dekabr va fevral oylari oralig‘ida bo‘ladi va ariza natijalari aprel oyida e’lon qilinadi. Universitetlar PhD dasturlari uchun magistratura diplomi talab qilmaydi (1-jadval).

1-jadval: 2015-2022-yillarda AQShda PhD diplomiga ega bo‘lgan aholining umumiy soni

Yo‘nalishlar	2015-yil	2022-yil	O‘zgarish (sonda)	O‘zgarish (foizda)
Muhandislik	25 738	49 207	23 469	91.2
Ilm-fan	70 492	131 748	61 256	86.9
Qishloq xo‘jaligi	3 858	5 792	1 934	50.1
Biologiya	6 329	14 370	8 041	127.1
Yer, atmosfera va okean ilmlari	1 345	2 212	867	64.5
Matematika va statistika	3 295	8 269	4 974	151.0
Fizika	1 244	1 934	582	55.5
Ijtimoiy fanlar	37 166	64 809	27 643	74.4

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Buyuk Britaniya va Yevropaning boshqa mamlakatlari bilan solishtirganda AQSHning PhD ta'lim tizimining bir qancha farqlari mavjud. AQShda PhD talabalari o'zlarining professorlari bilan to'g'ridan to'g'ri aloqada bo'lishadi. Shuningdek, AQSh talabalari Yevropaga nisbatan ancha ko'p vaqtlarini dars berish va marketing uchun sarflashadi. Natijada AQSh talabalari universitetdan tashqari shaxsiy hayot uchun juda kam vaqt sarflashlariga to'g'ri keladi.

Ikkinchi muhim farq shundaki, siz bakalavr darajasini olganingizdan so'ng darhol AQShda doktorlik dasturiga kirishingiz mumkin. AQShda PhD bitiruvchisining o'rtacha yoshi 31,6 yoshni tashkil qiladi. Mamlakatdagi umumiy PhD darajasiga ega insonlarning 47,1 foizini ayollar va 52,9 foizini esa erkaklar tashkil etadi[3].

Ilmiy darajali kadrlar tayyorlashda Germaniya tajribasi

Germaniyada har yili 28 mingdan ziyod talaba PhD darajasini qo'lga kiritadi. Germaniyada PhD darajasi gumanitar fanlar, ijtimoiy fanlar, tabiiy fanlar va iqtisodiyotning ko'plab sohalarida 3-5 yil muddatga taklif etiladi. Germaniyada PhD uchun minimal qabul talablari tan olingan universitetdan o'rtacha GPA (80 foiz) yuqori bo'lgan magistr va bakalavr darajasidir. Dasturlar, asosan, ingliz tilida taqdim etiladi, lekin ba'zilari DSH-2 yoki C2 Gyote sertifikati kabi nemis tilini bilishni ham talab qiladi[4] (2-rasm).



2-rasm: Germaniya oliy o'quv yurtlarida PhD bosqichini o'rtacha tamomlash davri[5]

PhD darajasiga qabul odatda talaba universitet professoriga hujjatlarini topshirishi bilan boshlanadi. Bunda professorni talabaning o'zi topishi talab etiladi. Professor talabani qabul qilishga rozilik bergandan so'ng Doktorantura qo'mitasi talabaning o'zi tanlagan yo'nalishga mosligini tekshiradi. Talabadan talab etiladigan asosiy hujjatlar: rezyume, diplom, doktoranturada olib bormoqchi bo'layotgan mavzu to'g'risida qisqacha ma'lumot, sertifikatlar nusxalari va boshqalar. Shundan so'nggina talaba suhbatga chaqiriladi[6].

Germaniyada PhD bosqichini ikki xil usulda tamomlash mumkin:

1. Individual doktorantura dasturlari.

Bunda talaba bir nafar professorning kuzatuvi ostida mustaqil tadqiqot olib boradi. Bu usulda tahsil olish juda ommalashgan bo'lib, talabalarning to'rtdan uch qismi xuddi ana shu usulni tanlashadi.

2. Strukturali doktorantura dasturlari.

Bunda boshqa Yevropa va Amerika davlatlari kabi talabadan bir guruh professorlar va ustozlar fanlarini o'zlashtirishi, amaliy ishlarda qatnashishi talab etiladi.

Germaniya turli fanlar bo'yicha tadqiqotlar uchun yaxshi infratuzilma va imkoniyatlarga ega. PhD uchun Germaniyadagi eng yaxshi universitetlar PhD dasturida to'lovsiz ta'limni taklif qiladilar va ba'zida 1 semestr uchun taxminan 250 yevro to'lov asosida ta'lim olish imkoniyatini beradi.

3 https://www.zippia.com/doctoral-student-jobs/demographics/
4 https://www.research-in-germany.org/en/your-goal/phd/find-your-phd-position.html
5 www.master-academia.com
6 https://www.studying-in-germany.org/phd/

Germaniyada olib borilgan tadqiqotlarning aksariyati xususiy sektorda olib boriladi. Ko‘pchilik kompaniyalar yosh tadqiqotchilar uchun ajoyib imkoniyatlarni taklif qilishadi. Xususiy sektor ham PhD talabalariga universitetlardagi kabi tadqiqotlar uchun markazlar bilan ta’minlaydi.

Germaniya Federal Statistika boshqarmasi ma’lumotlariga ko‘ra, so‘nggi yillarda Germaniyada xalqaro PhD talabalari soni doimiy ravishda ortib bormoqda. Xalqaro doktorantlarning eng katta guruhlari Xitoy (8 367), Hindiston (6 466) va Erondan (2 931) hisoblanadi. Xalqaro doktorantlar soni eng ko‘p bo‘lgan ta’lim yo‘nalishlari muhandislik (11 302), tabiiy fanlar (9 774) va tibbiyot (6 417) sanaladi.

Germaniya o‘zining yuqori sifatli ta’lim tizimi bilan mashhur va uning universitetlari butun dunyoda hurmatga sazovor. Nemis universitetlari uzoq vaqtdan beri ajoyib tadqiqotlar olib borish an’analariga ega va ko‘plab Nobel mukofotlari laureatlari Germaniya universitetlarida tahsil olishgan.

Global rivojlanish institutlari yaqin va uzoq xorij mamlakatlari bilan xalqaro hamkorlik yo‘nalishida ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda. Jahon tajribasining ko‘rsatishicha, davlatlar o‘rtasidagi fan va innovatsiyalar sohasidagi hamkorlikning sinergetik samaralari nafaqat ular o‘rtasidagi texnologik tafovutni kamaytirish, balki boshqa vazifalarni ham yanada samaraliroq hal etish imkonini bermoqda.

Ilmiy-texnik axborot davlat tizimini qurish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar alohida e’tiborga loyiq. Yaqin kelajakda bu sohada ilmiy statistikani yig‘ish va qayta ishlash jarayonlarini takomillashtirish, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti mamlakatlarida tan olingan ilmiy va innovatsion faoliyatni baholash usullariga moslashtirish bo‘yicha keng qamrovli ishlarni amalga oshirish rejalashtirilmoqda.

Shunday qilib, juda qisqa vaqt ichida ilm-fan va innovatsiya sohasining mamlakat rahbariyatining doimiy e’tiborida bo‘lgani rivojlanishga kuchli turtki bo‘la oldi.

Shu bilan birga holatning batafsil tahlili samarali yechimlarni talab qiluvchi innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashni amalga oshirish bilan bog‘liq muammolarni ochib berdi.

1. Davlat byudjetidan ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari xarajatlarini qo‘shganda ilm-fan uchun ajratilgan mablag‘larning YaIMga nisbatan darajasi past. Ayniqsa, bu rivojlangan mamlakatlarning shu kabi ko‘rsatkichlariga solishtirganda sezilib qoladi. Jahon bankining so‘nggi ma’lumotlariga ko‘ra, Yaponiyada ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari xarajatlarining YaIMdagi ulushi 3,5 foizni, AQShda – 3,06 foizni, Germaniyada – 3 foizni, Fransiyada – 2,19 foizni, Buyuk Britaniyada – 1,74 foizni, O‘zbekistonda esa – 0,14 foizni tashkil etadi.
2. Ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlarning moddiy-texnik bazasining jahon ilm-fanining hozirgi rivojlanish darajasiga nomuvofiqligi tufayli loyihalarni amalga oshirish muddatlarining kechikishi. Oqibatda bu chala va past sifatli natijalarni olishga sabab bo‘lmoqda.
3. Ilmiy-tadqiqot loyihalarini amalga oshirishda yetakchi xorijiy ilmiy-tadqiqot markazlari va servis kompaniyalari laboratoriyalari xizmatlaridan foydalanish amaliyotining yo‘qligi.
4. Ilmiy-tadqiqot muassasalari va iqtisodiyotning real sektori korxonalarining o‘zaro aloqalari va kooperatsiyasining past darajadaligi.

Yuqorida ko‘rsatilgan muammolardan kelib chiqqan holda keyingi 5 yil davomida qo‘shimcha o‘sish istiqbollariga erishish, shuningdek, ilm-fan va innovatsiyalar rivojining yuqori sur’atlarini ta’minlash bo‘yicha quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur:

1. Davlat byudjetidan ilm-fan va innovatsiya uchun ajratiladigan mablag‘ miqdorini YaIMga nisbatan oshirish choralarini ko‘rish. Bundan tashqari, milliy innovatsion tizimni modernizatsiya qilish loyihasi doirasida Jahon banki tomonidan ajratilgan 50 mln AQSh dollari hisobiga ilmiy natijalarni tijoratlashtirish uchun ustuvor loyihalarni moliyalashtirishni jadallashtirish.
2. Ilmiy faoliyatga doir davlat dasturlari doirasida moliyalashtiriladigan ilmiy-tadqiqot loyihalarini amalga oshirish muddatlarini qisqartirish.
3. Tadqiqot loyihalari doirasida yetakchi xorijiy ilmiy markazlarning laboratoriyalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, ilmiy laboratoriyalardan umumiy foydalanish, shuningdek, ilmiy natijalarning transferini qo‘llab-quvvatlash uchun akademik “spin-off” kompaniyalarini yaratish.
4. Ilmiy-tadqiqot loyihalarining sifatini ta’minlash maqsadida, shu jumladan, ularni innovatsion menejment va marketingga o‘qitish orqali olimlar (ijrochilar) malakasini oshirish.
5. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan fanning ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borishni tashkil etish. Shu bilan birga ustuvor yo‘nalishlarni hisobga olgan holda, birinchi navbatda, iqtisodiyotning mavjud tarmoqlarini ilg‘or texnologiyalar bilan ta’minlash va yangi tarmoqlarni yaratishga olib keladigan loyihalarga alohida e’tibor berish kerak.

6. Har bir ilmiy tashkilot kesimida tuzilmaviy o‘zgarishlarni amalga oshirish, 2020-yilda ilmiy va innovatsion faoliyat natijalari va mustaqil xalqaro ilmiy audit xulosalari asosida ilmiy tashkilotlarning milliy reytingi yakunlarini chiqarish; yangi ilmiy yo‘nalishlarni yaratish, mavjud ilmiy yo‘nalishlarni ularning samaradorligiga muvofiq kengaytirish, modernizatsiya qilish (yoki qisqartirish) asosida takliflar ishlab chiqish.
7. Innovatsion faoliyat subyektlari tomonidan yangi texnologiyalarni o‘zlashtirish jarayonini tezlashtirish uchun servis kompaniyalari tarmoqlarini yaratish;

O‘zbekistonni innovatsion rivojlantirish bo‘yicha ushbu chora-tadbirlar mamlakat iqtisodiyotini innovatsion rivojlantirishda ilmiy faoliyat ko‘lamini kengaytirish va samaradorligini oshirish, ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish va texnologiyalar transferi samaradorligini ta’minlash, startap ekotizimni to‘liq shakllantirish, innovatsion faol, tashabbuskor qatlamlarni qo‘llab-quvvatlash, raqobatbardosh mahsulotlarning yangi turlarini ishlab chiqarish, yalpi ichki mahsulotdagi ilmiy-hajmli va innovatsion ishlanmalarning ulushini ko‘paytirish orqali ko‘plab yangi ish o‘rinlarini yaratish, innovatsiyalardan iqtisodiy samaradorlikka o‘tish, olis hududlardagi aholi hayotiga innovatsiyalarni kiritish imkonini beradi[7].

Tahlillarimiz natijasidan xulosa qiladigan bo‘lsak, ilmiy tadqiqot va innovatsiyalarni rivojlantirishda ilmiy kadrlar tayyorlash bo‘yicha xalqaro tajriba muhim o‘rin tutadi. Turli mamlakatlar tajribasidan ta’lim dasturlarini boyitish, o‘qitishning ilg‘or uslublarini joriy etish va mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda foydalanib kelinmoqda. Xorijiy universitetlar va ilmiy markazlar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik bilim, tajriba va texnologiyalar almashinuviga yordam beradi, bu esa ilmiy kadrlar tayyorlash darajasini oshishiga olib keladi. Xalqaro almashinuv va amaliyot dasturlari talabalar va yosh olimlarning dunyoqarashini kengaytirish, malakasini oshirish va xalqaro muhitda ishlash uchun qimmatli tajriba orttirishga turtki bo‘ladi. Xalqaro tajriba jahon fan va texnika maydonida muvaffaqiyatli raqobatlasha oladigan malakali mutaxassislarni shakllantirishda ilmiy darajali kadrlar tayyorlash sohasida muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://www.findaphd.com/guides/phd-without-masters;
2. https://www.findaphd.com/guides/phd-study-in-usa/;
3. https://www.zippia.com/doctoral-student-jobs/demographics/;
4. https://www.research-in-germany.org/en/your-goal/phd/find-your-phd-position.html;
5. www.master-academia.com
6. https://www.studying-in-germany.org/phd/
7. 2017-2021-yillar uchun O‘zbekiston Respublikasi Ilm-fan va innovatsiyalar bo‘yicha Milliy ma’ruza.

7 2017-2021-yillar uchun O‘zbekiston Respublikasi Ilm-fan va innovatsiyalar bo‘yicha Milliy ma’ruza. Toshkent-2021-yil, 218-223 b.

TURIZM INFRATUZILMASI VA UNING TARKIBIY TUZILISHI

Po‘latov Ma’murjon Murodjon o‘g‘li
TDIU Mehmonxona biznesini boshqarish kafedrasi tayanch doktoranti

Annotatsiya: Bugungi kunda qaysi bir sohani olmaylik uning rivojlanishi uchun davlat tomonidan yetarlicha e’tibor qaratilmasa, uning me’yoriy-huquqiy asoslari yaratilmasa rivojlanish kuzatilmaydi. Mamlakatimizda 2016-yildan boshlab turizmni rivojlantirishga uning infratuzilmasini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratila boshlandi. Turizmni iqtisodiyotning strategik ahamiyatga ega bo‘lgan sohasi sifatida rivojlantirishga kirishildi. Turizm infratuzilmasini rivojlantirish va uning tarkibiy qismlarini shakllantirish doimiy nazoratga olindi.

Kalit so‘zlar: Turizm, iqtisodiyot, madaniy meros obyektlari, innovatsiya, faol aholi oqimi, sayyohlik xarajatlari, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar.

Abstract: Today, no matter what field, if the state does not pay enough attention to its development, if its regulatory and legal foundations are not created, development will not be observed. In our country, since 2016, special attention has been paid to the development of tourism and the improvement of its infrastructure. The development of tourism as a strategically important sector of the economy has been started. The development of tourism infrastructure and the formation of its components were constantly monitored.

Key words: Tourism, Economy, objects of cultural heritage, innovation, active population flow, tourist expenses, organizational and economic mechanisms.

Аннотация: Сегодня, какая бы сфера ни была, если государство не будет уделять должного внимания ее развитию, если не будут созданы ее нормативно-правовые основы, развития не будет. В нашей стране с 2016 года особое внимание уделяется развитию туризма и улучшению его инфраструктуры. Начато развитие туризма как стратегически важной отрасли экономики. Развитие туристической инфраструктуры и формирование ее составляющих постоянно контролировались.

Ключевые слова: Туризм, Экономика, объекты культурного наследия, инновации, активный поток населения, туристские расходы, организационно-экономические механизмы.

KIRISH

Turizm infratuzilmasini shakllantirish va uni takomillashtirishni amalga oshirishni maqsad qilib olgan ekanmiz, eng avvalo, infratuzilma nima va uning tarkibiga nimalar kiradi degan savollarga javob topishimiz lozim. Infratuzilma (lotincha “Infra” - ostida, pastda, “struktura” - tuzilma, joylashuv) soha yoki tarmoqning ishlashini ta’minlaydigan va uning tarkibiy qismlari bir-biriga bog‘langan holda xizmat ko‘rsatish tuzilmalari yoki obyektlar birlashmasidir. Infratuzilmalar maqsadi va vazifalariga ko‘ra bir qator ko‘rinishga ega bo‘ladi. Biz bularning ichida maqsaddan kelib chiqqan holda ko‘proq iqtisodiy infratuzilmaga to‘xtalamiz. Iqtisodiy infratuzilmaga transport, aloqa, kommunikatsiya, ta’lim va kommunal xo‘jalik, turarjoy, turmush tarziga o‘rgatish, aholining birgalikda hayot kechirishi uchun zarur bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish majmui kiradi. Kengroq yondashadigan bo‘lsak, iqtisodiy infratuzilma aholi hayot kechirishi uchun zarur bo‘lgan xo‘jalik va madaniy obyektlar, uning xizmat ko‘rsatuvchi tarmoqlarini tashkil qiluvchi (yo‘llar, kanallar, omborlar, transport, aloqa, energetika, suv ta’minoti, fan, ta’lim, sog‘liqni saqlash, moliyaviy tashkilotlar va h.k.) mahalliy boshqaruv majmuasi bo‘lib hisoblanadi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda qaralsa, turizm infratuzilmasi ham sohasining ajralmas ikki asosiy qismini o‘z ichiga oladi[1].

Birinchi asosiy qism – bu turizm industriyasini tashkil qiluvchi mehmonxona, joylashtirish vositalari va restoran, ovqatlantirish xizmatlarini ko‘rsatadigan tashkilotlar kiradi.

1 A.N. Norchayev. Zamonaviy turizm infratuzilmasining shakllanish va rivojlanish tendensiyalari. DSc dissertatsiya. TDIU, 2021 y. -21-bet.

Ikkinchi asosiy qism – infratuzilmani tashkil qiladigan tarkibiy qismlar bo‘lib, uchta tizimni o‘z ichiga oladi[2]. Infratuzilmaning birinchi tizimi turistik mahsulotlarni ishlab chiqarish bilan bevosita bog‘liq bo‘lmagan, ammo turistik xizmatlarni taqdim etish uchun zarur bo‘lgan energetika, kommunal xizmatlar, moliya, sug‘urta, aloqa, xavsizlik tizimlarini o‘z ichiga oladi.

Infratuzilmaning ikkinchi va uchinchi qismiga turmahsulotlarni ishlab chiqarishga to‘g‘ridan to‘g‘ri xizmat qiladigan, turistik obyektlar, avtomobillar ijarasi, taksi parklari, kinoteatrlar, muzeylar, ko‘rgazma zallari, sport kulublari, parklar, zooparklar va boshqa xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar kiradi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Turizm infratuzilmasini takomillashtirishning nazariy va metodologik masalalari bilan xorijlik olimlardan J.Bowen, D.Lundberg, J.Makens, Chris Ryan, P.Kotler, Ch.Y.Gee, M.Krishnamurthy, D.Chey, J.C.Makens singari olimlarning ilmiy ishlari alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu olimlarning tadqiqotlarida turizm infratuzilmasini takomillashtirishning nazariy jihatlari, sohaning rivojlanish bosqichlari, rivojlanishga ta’sir etuvchi omillar, rivojlanish tamoyillari hamda hozirgi sharoitda turizm orqali tashqi savdo balansini yaxshilash hamda xalqaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish masalalariga katta e’tibor qaratilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi (MDH) davlatlarida turizm infratuzilmasini takomillashtirish muammolariga A.Yu.Aleksandrova, I.T.Balabanov, M.B.Birjakov, N.I.Kabushkin, V.A.Kvartalnov, M.N.Dmitriyev, L.V. Baumgarten, A.M.Vetitnev, L.B.Juravleva, A.V.Borisova, D.S.Ushakov, M.A.Jukova singari olimlar ilmiy tadqiqot ishlari olib borganlar. Yuqorida nomlari keltirilgan olimlar o‘zlarining tadqiqotlarida, asosan, mintaqalarda turizm infratuzilmasini yaxshilash orqali xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshirish va rivojlantirish jihatlarini tadqiq etgan.

Mamlakatimizdagi turizm sohasida tadqiqot olib borayotgan iqtisodchi olimlardan S.S.G‘ulomov, Q.X.Abdurahmanov, N.T.To‘xliyev, M.Q.Pardayev, A.A. Eshtayev, A.M.Abduvohidov, M.T.Aliyeva, A.N.Norchayev, D.X.Aslanova, B.N.Navro‘z-zoda, O.M.Pardayev, B.H.To‘rayev, O.H.Xamidov, B.Sh.Safarov, N.S.Ibragimov, S.S.Ro‘ziyev singari olimlarning ilmiy ishlarida turizm infratuzilmasi rivojlanishini samarali boshqarish, turistik resurslardan oqilona foydalanish, sohani rivojlantirishdagi muammolar va hududiy turizmni rivojlantirish masalalariga keng e’tibor qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Turizm infratuzilmasi o‘z tarkibiga joylashtirish vositalari (mehmonxonalar, mehmon uylar, hostellar, kempinglar, motellar), ovqatlantirish korxonalari (kafe, bar, restoran), transport tarmog‘i (magistrallar, temir yo‘llar, aeroportlar, portlar h.k.), kommunikatsiya tarmoqlari (elektr, oqova suv, aloqa bo‘limlari), huquq-targ‘ibot tashkilotlari, tibbiy, maishiy xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar, sovg‘a do‘konlari, sport inshootlarini birlashtiradi va turistik xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar bilan chambarchas bog‘langandir.

Turizm infratuzilmasi turistik xizmatlar ko‘rsatuvchi zaruriy shart-sharoitlarni, turistlarning xavfsizligi, sog‘ligini ta’minlashga qaratilgan. Hammamizga ma’lumki, turistlar qaysi mintaqada sayohatlarga sharoit yaratilgan bo‘lsa (tinchlik, osoyishtalik), o‘sha joyga borishni ma’qul ko‘radi. Chunki turist sayohati davomida avtobusdami, poyezddami, mehmonxonadami, restorandami qayerda bo‘lsa ham o‘zini xavf-xatardan yiroqda sezishi zarur.

Turizmning oldiga qo‘ygan maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda uning shakllangan infratuzilmasi bo‘lishi lozim. Shu bois turizmning ixtisoslashtirilgan infratuzilmasini quyidagi 1-rasmda keltirib o‘tish maqsadga muvofiqdir.

Turizm infratuzilmasi turistik sektorga xizmat qiladigan obyektlar, kommunikatsion va muhandislik majmualari, shu jumladan, yo‘llar, sanoatning turizmga tegishli korxonalari (qayta ishlash, maishiy, energetika), sayyohlik obyektlaridan maqsadli foydalanish, ularga turistlarning kirib-chiqishi uchun qulayliklar yaratish, shuningdek, turizm industriyasini rivojlantirish imkoniyatlarini ta’minlaydi.

Turizm infratuzilmasini bundanda aniqroq tushunish uchun oladigan bo‘lsak, turizm infratuzilmasi – turizm sektorining bir maromda ishlashi uchun mo‘jallangan, sayyohlik tashkilotlarining mavjud turistik resurslardan samarali foydalanishini, shuningdek, turizm industriyasi rivojlanishiga xizmat qiluvchi korxonalarning faoliyatini ta’minlaydigan, ijtimoiy va rekreatsion tuzilmalar hamda yordamchi tarmoqlar majmuidir degan tushunchani berishimiz mumkin.

Ko‘rib o‘tilgan tahlillar va xulosalardan kelib chiqqan holda, fikrimizcha, “Turizm infratuzilmasi – bu turizm bozorida o‘sib borayotgan taklif va talablarni qondirish uchun xizmat ko‘rsatadigan tashkilotlar va turistik obyektlar majmuasidir”[3] – deb ta’rif bersak bo‘ladi.

2 https://studbooks.net. Elementi i funksii turisticheskoy infrastrukturi.
3 Tadqiqotchining “Turizm infratuzilmasi”ga bergan ta’rifi.



1-rasm: Turizm infratuzilmasining tarkibiy tuzilishi[4]

TAHLIL VA NATIJALAR

Ilmiy-texnika taraqqiyoti natijasida turizm infratuzilmasi kundan kunga takomillashib bormoqda. Bugungi kunda fan-texnika (innovatsiya) yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy etmagan soha inqirozga uchramoqda. Turizm infratuzilmasida innovatsiyalar mehmonxonalarda, ovqatlantirish korxonalarida, axborot kommunikatsiyada, transport vositalarida keng ko‘lamda foydalanilmoqda.

Birgina temir yo‘l transportini oladigan bo‘lsak, bu tarmoqda innovatsion texnologik omillar ta’sirida poyezdlar qatnovi tezligini oshirilishi bilan ifodalanadi. Texnika yutuqlaridan samarali foydalanayotgan Xitoy, Yaponiya, Fransiya, Germaniya va Koreya Respublikalarida yuqori tezlikdagi harakatlanuvchi poyezdlar 400-550 km. soatigacha tezlikka erishmoqda. Turistlar uchun temir yo‘l transportining afzalliklari yuqori bo‘lib, aviatsiya va dengiz transportiga qaraganda xavfsizligi eng yuqori darajada ta’minlanganligi bilan xarakterlidir. Bundan tashqari temir yo‘l vokzallari shahar markazida joylashganligi bilan turistlar uchun qulay imkoniyatlar tug‘diradi.

Internet tarmog‘i va platformalarining taraqqiy etishi turizm infratuzilmasiga sezilarli darajada ta’sir o‘tkazmoqda. Internet tizimi orqali turistlar dunyoning xohlagan nuqtasidan turib mehmonxonalarni bron qilish, transportga chiptalarni elektron xarid qilish, turistik yo‘llanmalar va marshrutga kiritilgan obyektlar bilan oldindan tanishish imkoniyatlariga ega bo‘lmoqda. Bundan tashqari turoperatorlarning turistik mahsulotlarni ishlab chiqishida innovatsiyalarni keng joriy qilish natijasida (obyektlar haqidagi 3D formatdagi ma’lumotlar) xizmat ko‘rsatish sifati ortib bormoqda.

Turizm infratuzilmasini 2-rasmda berilgan umumiy tavsif orqali ko‘rib o‘tadigan bo‘lsak, transportning ahamiyati katta bo‘lib, rivojlangan transport infratuzilmasi bo‘lmasa, turistik resurslar va obyektlar yetarli darajada bo‘lsa ham tashriflar yetarlicha amalga oshirilmaydi. Shuning uchun transport turistlarga xizmat ko‘rsatishda asosiy ahamiyatga ega hisoblanadi. Turoperatorlar tomonidan ishlab chiqilgan barcha yo‘nalishlarda (yaqin masofadagi va piyodalardan tashqari) turistlarning obyektlarga yetib borishi yoki safarni tamomlab uyga qaytishida transport vositasini talab qiladi. Umumiy foydalaniladigan, shu jumladan, turizmda ham keng tarqalgan transport vositalari asosan uch turga (quruqlik, suv va havo) bo‘linadi. Quruqlikda harakatlanayotganda turistlar, asosan, avtobus, avtomobil va temiryo‘ldan ko‘proq foydalanadi. Ayniqsa, avtobuslardan turistik ekskursiyalarda eng ko‘p foydalaniladi. Oxirgi yillarda turistlar ko‘proq yengil avtomobillarni ijaraga olishga talabi ortib borishi kuzatilmoqda. Lekin ko‘pchilik yoshi katta sayyohlar (turistlarning yoshi bo‘yicha tahlillar ko‘rsatishicha, respublikamizga tashrif buyurayotgan turistlarning asosiy qismini 50 yoshdan yuqoridagilar tashrif buyurmoqda) xavfsizlik nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda jamoat transportlarini ma’qul ko‘rishmoqda. Shu bilan birgalikda turistlarning xavfsizligi bo‘yicha eng qulayi temiryo‘l transporti bo‘lib hisoblanishi bilan birgalikda o‘rta masofalarga turistlarni eng yuqori tezlikda va minimal narxlarda yetib borishini ta’minlaydi. Ba’zi bir hollarda mahsus jihozlangan poyezdlarda turistik sayohatlarni ham amalga oshirish mumkin. Turistlar harakatlanishda dengiz va daryo transportidan ham keng foydalanadi. Bu transport turi eng arzon turlarni taklif

4 Turizm infratuzilmasining tarkibiy qismlari muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

etish imkoniyatiga ega. Turizmda hozirda suv transportining ikki turidan keng foydalanmoqda. Bulardan suvosti (suvosti kemalari, batiskaflar va maxsus suvostiga sho‘ng‘ish qurilmalari) va suvusti (teploxodlar, yirik sayohat kemalari, dengiz paromlari, yaxtalar, katerlar, matorli va eshkakli qayiqlar) transportlarini olishimiz mumkin.



2-rasm: Turizm infratuzilmasining umumiy tavsifi[5]

Havo transporti boshqa transport vositalariga qaraganda juda tez rivojlanayotgan soha bo‘lib, yildan yilga takomillashib bormoqda. Bungungi kunda kichik samolyotlardan tortib yirik hajmga ega bo‘lgan (350dan ortiq yo‘lovchilarni o‘z saloniga sig‘dira oladigan va 250 tonnagacha yuk ko‘tarish imkoniyatiga ega bo‘lgan) samolyotlardan keng foydalanilmoqda. Havo transportining muhim xususiyati shundan iboratki, u nisbatan juda qimmatligiga qaramay, turistlarning uzoq masofalarni (15 ming km.gacha) qisqa vaqtlarda bosib o‘tishi imkoniyatini taqdim etadi. Ekzotik turizm yo‘nalishlarida keng foydalaniladigan havo sharlari, dronlar, deltaplanlar, parashyutlar ham keng ommalashgan.

Umuman olganda havo transportining keng qo‘llanilishi, avvalo, fuqarolarni tashishdan foydalanish sifatida ko‘rib chiqiladi. Lekin turizmda uning qulayligi, yuqori darajada xizmat ko‘rsatishi, shinamligi, tezligi bilan sayyohlarni olis masofalarga tashishda so‘zsiz yetakchi hisoblanadi6.

Foydalanilgan adabiyotlar va internet resurslar:

1. Mamatqulov, X. M. va boshq. “Xalqaro turizm.” Darslik. Samarqand (2008).
2. Norchayev, A. N. “Zamonaviy turizm infratuzilmasining shakllanish va rivojlanish tendensiyalari.” Iqtisodiyot fanlari doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent (2021): 24-32.
3. Mamatkulov X. M., Bektemirov A. B., Tuxliev I. S. & Norchaev A. N. (2009). International tourism. T.: Publishing House” National Society of philosophers of Uzbekistan, 192.
4. Dehqonov Burxon Rustamovich. “Ichki turizmni rivojlanlantirishda davlatning o‘rni”. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot (ISSN: 2992-8982) 2023-yil, oktyabr. № 10-son.
5. Rustamovich D. B. Quality And Safety Of Public Catering Services In Uzbekistan //European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630) (2021/5/23). – S. 19-23.
6. Dehqonov Burxon Rustamovich. “Ichki turizmni rivojlanlantirishda davlatning o‘rni” yashil iqtisodiyot va taraqqiyot (ISSN: 2992-8982) 2023-yil, oktyabr. № 10-son.
7. B. R. Dehqonov. “Ichki turizmni ta’riflashda bo‘lgan qarashlar va turizm shakllarini o‘z ichiga olgan bog‘liqliklar” Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi: ilmiy jurnal. - №4-1 (88), Xorazm Ma’mun akademiyasi, 2022 y. – 81 b.
8. Rustamovich, Dehkonov Burhon. “Analysis of the Development of Tourism in Uzbekistan.” Journal of International Business Research and Marketing 5.6 (2020): 28-33.
9. Rustamovich Dehganov Burkhan. “Financing Domestic Tourists And Export Of Tourism Services.” Fan, ta’lim, madaniyat va innovatsiya jurnali| journal of science, education, culture and innovation 2.3 (2023): 35-37.
10. https://uzbektourism.uz/service/opendata
11. https://uzbektourism.uz/service/opendata?id=1
12. https://uzbektourism.uz/research/statistics

5 Muallif tomonidan ishlab chiqgan

6 https://www.elibrary.ru. Черноброва В.К., Шарейко О.И. Погрессивные технологии по организации путешествий различными видами транспорта. Научная статья. 2016. –с 88.

OLIY TA'LIM XIZMATLARI BOZORINING RIVOJLANISHI SABABLARI

Abdukadirova Kamola Azimovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Phd talabasi

Annotatsiya: Ta'lim xizmatlari bozori tez o'zgaruvchan mehnat bozori bilan bevosita bog'liq, shuning uchun ham oliy ta'lim xizmatlari bozorining rolini tahlil qilish tanlangan mavzuning dolzarbligini belgilab beradi. Ushbu mavzu bo'yicha ko'plab tadqiqotlar mavjud, ammo bu masala bo'yicha ko'rsatkichlar doimiy ravishda yangilanish talab qiladi.

Kalit so'zlar: postindustrial jamiyat, oliy ta'lim xizmatlari bozori dasturi, xalqarolashuv, globallashuv, ta'lim eksporti.

Abstract: The market of educational services is directly related to the rapidly changing lobar market, therefore the analysis of the role of the market of higher education services determines the relevance of the chosen topic. There are many studies on this topic, but the indicators on this issue require constant updating.

Key words: post-industrial society, higher education services market program, internationalization, globalization, export of education.

Аннотация: Рынок образовательных услуг напрямую связан с быстро меняющимся рынком труда, поэтому анализ роли рынка услуг высшего образования определяет актуальность выбранной темы. На эту тему существует множество исследований, но показатели по этому вопросу требуют постоянного обновления.

Ключевые слова: постиндустриальное общество, программа рынка услуг высшего образования, интернационализация, глобализация, экспорт образования.

KIRISH

XXI asrda jahon iqtisodiyotining rivojlanishi, industrial ishlab chiqarish, ya'ni mashinasozlik ustunlik qilgan sanoatdan, postindustrial qaysiki, xizmat ko'rsatish, fan va ta'limni, xususan, oliy ta'limni rivojlantirishga o'tish bilan belgilanadi [1; 2]. Bunday jamiyatda xodimning bilim darajasi, kasbiy mahorati, o'rganish qobiliyati va ijodkorligi eng qimmatli fazilatlardandir. Ammo bunda biz moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish yo'qolib ketadi demoqchi emasmiz, ularning iqtisodiy samaradorligi yangicha bilimlar bilan belgilanadi. Bunday holda innovatsion texnologiyalar va boshqaruvning yangi usullari bilan birgalikda malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyoj ortib boradi hamda mehnat bozori uchun yuqori malakali kadrlarni tayyorlash iqtisodiy o'sishning muhim shartlaridan biri bo'ladi. Malakali kadrlarning shakllanishi esa ta'lim xizmatlari bozoriga borib taqaladi.

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, ta'lim xizmatlarining paydo bo'lishi va rivojlanishi bozor iqtisodiyotining umumiy qonuniyatlariga bo'ysunadi, lekin uning bir qator o'ziga xos xususiyatlari mavjud.

Ta'lim xizmatlari bozori ham boshqa bozorlar singari talab hamda taklif ta'sirida shakllanadi, faqat unda ishlab chiqaruvchidan (o'qituvchi) iste'molchiga (talaba) muhim hajmdagi bilim, malaka va ko'nikmalar yetkaziladi [2; 60]. Bu yerda ta'lim xizmatlari iste'molchilar tomonidan qaralganda tovar ham hisoblanadi. Ta'lim xizmatlarining maqsadi ham boshqa xizmatlar singari o'z mahsulotni iste'mol xususiyatlarini yaratishdan iborat, ammo ular o'rtasidagi asosiy farq ishlab chiqarish bozoriga borib taqaladi. Agar oddiy mahsulot bozorida iste'molchilarning ko'p foizi texnik xususiyatlari va imkoniyatlariga e'tibor qaratsa, ta'lim xizmatlari bozorida esa bilim darajasi va olingan ta'lim sifatiga ahamiyat beradilar.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Mehnat bozori uchun malakali kadrlarni tayyorlovchi asosiy ta'lim muassasasi bo'lmish oliy ta'lim xizmatlari bozori raqobatbardoshligini oshirish yo'llarini aniqlash ustida juda ko'p amaliy tadqiqotlar o'tkazilgan bo'lishiga qaramasdan, juda tez shiddatda rivojlanayotgan innovatsion o'zgarishlar tufayli qayta va qayta o'rganish zamon talabi bo'lib xizmat qilmoqda. Yana bir misol tariqasida mehnat bozori o'quv jarayonining bir sikliga qaraganda tezroq o'zgarishini ham olishimiz mumkin. Malakali kadrlarni yetishtirishga ketadigan 1 o'quv sikli 6 yilni o'z ichiga olsa, yani magistratura diplomini olish davri mobaynida mehnat bozoridagi talablarning mutloq o'zgarib ketishiga duch kelishimiz mumkin. Bu esa qaysidir yangi soha mutaxassislariga bo'lgan talabning yetishmasligiga olib kelishi mumkin. Shunday ekan oliy ta'lim tizimining oldida turgan eng katta masalalardan biri mehnat bozoriga yuqori darajada moslashuvchanlik hisoblanadi.

Bizning fikrimizcha, oliy ta'lim muassasalarining xalqarolashuvi jahon mehnat bozoridagi moslashuvchanlikni hamda raqobatbardoshlikni oshiruvchi yechimlardan biridir.

Xalqarolashuv ya'ni internatsionalizm (lotincha inter – "orada" va natio – "xalqlar") – xalqlar o'rtasidagi do'stlik va hamkorlikni targ'ib qiluvchi mafkura [3]. Internatsionalizm marksizmda turli mamlakatlarga qarshi kurashdagi birdamligini bildiradi. Hozirda esa bu atama globallashuv atamasining muqobil variant sifatida ham ko'rstiladi. Ammo adabiyotlarni o'rganish natijasida ma'lum bo'ldiki, internatsionalizm atamasi globalizm atamasidan avval paydo bo'lgan.

Globallashuv va xalqarolashuv jarayonlari orasidagi farq turli darajalarni qamrab oladi. Masalan, agar globallashuv jahon tizimlarini qamrab olsa, xalqarolashuv quyi darajadagi hodisalarni qamrab oladi. Globallashuv mamlakatlar o'rtasidagi madaniy, iqtisodiy va boshqa chegaralarni yo'q qilib, iqtisodiyot, bandlik va ta'lim sohalarida migratsiya oqimining kuchayishi bilan bog'liq bo'lsa, xalqarolashuv obyektning o'z faoliyatining xalqaro yo'nalishiga yo'naltirilganligini, masalan, oliy o'quv yurtlarining xalqaro yo'nalishda rivojlanish istagini aks ettiradi [4; 47-55].

Klassik maktab vakillaridan biri V.Pettining fikriga ko'ra, "Muayyan kasblar bo'yicha tajriba almashish, ayniqsa, xalqaro miqyosda tajribalar mehnat bozori uchun katta ahamiyatga ega"dir. V.Petti ilg'or tajribalarni o'tkazish mumkin bo'lgan usullarini juda to'g'ri aniqlagan. Bu boshqa mamlakatlardan yuqori malakali emigrantlarni qabul qilish yoki o'z xodimlarini o'qitish va malakasini oshirish deb ko'rsatgan. "Deylik, gollandlar o'z san'atida bizdan ustunroq, bunday holda ma'lum miqdordagi ishchilarni tanlab olishimiz yoki o'zimizning eng qobiliyatli odamlarimizni san'atini o'rganish uchun u yerga yuborishimiz yaxshiroq emasmi?" deb ko'rsatadi u [5].

Xalqarolashuv boshqa sohalarda ham muhim o'rin egallagani kabi oliy ta'lim sohasining ham juda muhim qismi deya olamiz. Oliy ta'lim muassasasi innovatsion g'oya va qobiliyatga ega yuqori saviyali mutaxassislarni tayyorlaydigan maskan bo'lgani sababli bunday iste'dod egalari keng xalqaro dunyoqarashga ega bo'lib, xalqaro miqyosda tushunishlari va muloqot qila olishlari kerak. Bunda bizga oliy talim muassasalarining xalqarolashuvi katta yordam beradi. Oliy ta'limning xalqarolashuvi mamlakatdagi yetishmayotgan intellektual bo'shliqlarning qoplanishiga sababchi bo'lishi mumkin.

Xalqarolasuv deganda biz faqat talabalar almashinuvini, ya'ni xorij talabalarini mamlakatimiz hududidagi ta'lim muassasalariga jalb qilish hamda o'zimizning talabalarni xorij makalasini o'rganishga yuborishni nazarda tutayotganimiz yo'q. Balki bunda oliy talim muassasasi akademik xodimlarini ham nazarda tutayapmiz.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning rivojlangan mamlakatlar ta'lim tajribasi va boshqaruv usullarini o'rganishlari jamiyatning ochiqlik darajasini oshirishga, ko'p madaniyatli savodxonlik va chet elliklar bilan muloqot qilish qobiliyatlarini oshiradi. Bu esa, o'z navbatida, mamlakatlar iqtisodiyot, siyosat va fan-texnika madaniyatini modernizatsiya qilishga ko'maklashadi [6; 14].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ishini amalga oshirishda statistik, empirik tahlil qilish asosida mavjud muammolar aniqlab olingan va oliy ta'limni rivojlantirish hamda uning raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

"Oliy ta'limni xalqarolashtirish" kabi tushuncha XX asrning 80-yillarida paydo bo'lgan va dunyoning turli mamlakatlarida milliy ta'lim tizimlari rivojlanishining eng muhim ko'rsatkichlaridan biriga aylanib kelmoqda [7; 1].

Oliy ta'lim muassasasini xalqarolashtirish, birinchidan, zamonaviy iqtisodiyot hamda insoniyatning yashashi va rivojlanishi uchun zarur, ikkinchidan, zamonaviy siyosat rivoji uchun va nihoyat, uchinchidan, ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirish uchun muhimdir.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlarida xalqaro ta'lim tizimini qo'llash, xorijiy olim, o'qituvchi va mutaxassislarni jalb qilish to'g'risida bir qancha bandlar kiritganlarini ko'rishimiz mumkin [8].

YUNESKOning statistika instituti ma'lumotlariga ko'ra, 2021-yilning 1-yanvar holatiga xorijda tahsil olayotgan o'zbekistonlik talabalar soni 85,9 ming nafarni tashkil etdi [9; 1]. Yana ushbu jadvalda respublikamizda tahsil olayotgan xorijlik talabalar sonini yillar mobaynida ortib borayotganini ko'rishimiz mumkin.

1-jadval: Xorijik talabalar soni [10]

O'quv yili	Talabalar soni
2016/2017	603 nafar
2017/2018	1320 nafar
2018/2019	2685 nafar

2019/2020	3593 nafar
2020/2021	4219 nafar
2021/2022	nafar

Jadvalda O‘zbekistonda tahsil olayotgan xorijlik talabalar soni 2021-yilda 2016-yilga qaraganda 8 baravarga oshganligi ko‘rinib turibdi. Ammo bu ko‘rsatkichni qisqa vaqt ichida sezilarli darajaga ko‘tarish uchun “Ta’lim eksporti” bo‘yicha loyihalar ishlab chiqish bizning kelgusidagi oldimizda turgan vazifalardan biri bo‘lmog‘i lozim.



1-rasm: Xorijlik talabalar soni tahlili

Manba: https://oliygoh.uz/post/xorijlik-talabalar-soni

Shunday qilib, oliy ta’limni xalqarolashtirish ta’lim xizmatlari bozori eksportini ham kengayishiga sababchi bo‘ladi. Ta’lim eksporti uchun bir necha yillik strategiyalarni ishlab chiqishda oliy ta’lim xizmatlarining ingliz tilida bo‘lishi xorijlik talabalar oldida o‘sha ta’lim muassasasining jozibadorligini yanada oshiradi. Buni hisobga olgan holda bir qancha Yevropa oliy ta’lim muassasalari ingliz tilidagi ta’lim xizmatlarini hamda dasturiy ishlanmalarini taklif qilmoqda. Hammamizga ma’lumki, ta’lim eksporti faqatgina oliy ta’lim raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmasdan turizm hamda savdo sohalarining rivojlanishi bilan bir qatorda mamlakat iqtisodiyotining ham raqobatbardoshligini oshirishga sababchi bo‘ladi. Har qanday mamlakatning raqobatbardoshligi ko‘rsatlichlari o‘lchanganda uning eksport salohiyati hisobga olinadi. Shunday ekan ta’lim eksporti masalalari bo‘yicha milliy loyihalar ishlab chiqish biz olimlarning oldimizdagi asosiy masalalardan biridir.

So‘nggi yillarda rivojlangan malakatlarda ta’lim eksporti bo‘yicha loyihalarning ko‘payishiga yana bir sabablardan biri unga yuqori foyda beruvchi biznes sifatida ham qaralmoqdaligidadir. Haqiqatdan ham ta’lim eksporti foyda olish maqsadida xorijlik talabalarga ta’lim xizmatlarini sotishga qaratilgan biznes turidir. Bu eksportning ikki tonini ko‘rib chiqishimiz mumkin.

Birinchidan, xorijlik talabalarni mamlakat hududiga jalb qilish orqali oliy ta’lim xizmatlarini sotish nazarda tutilsa, bunda oliy ta’lim muassasalarining jozibadorligini oshirish eng oliy masalalardan biridir. Oliy ta’lim muassasalarining jahon standartlari darajasida xizmat ko‘rsatishi uchun oliy ta’lim muassasasining moliyaviy ahvoli bilan birga akademik xodimlarning malaka hamda ko‘nikmalari jahon standartlari darajasiga javob berishi kerak.

Ikkinchidan, xorijlik talabalarni o‘z hududlarida turib boshqa mamlakat oliy ta’lim muassasasida tahsil olishlari nazarda tutiladi. Ya’ni bunda ta’lim muassasalarining davlatdan tashqari filiallarini ochish orqali ta’lim xizmatlarini sota oladi. Ammo eksportning ushbu turi juda katta moliya talab qiladi. Moliyaning yetarli bo‘lmasligi orqali oliy ta’lim muassasasi filialining sifatli ishlashi uchun zarur infratuzilma bilan ta’minlanmasligi mumkin.

Hozirgi vaqtda eksportning ushbu turi tobora ommalashib borayotganini mamlakatimizda ochilayotgan xorij universitetlari filiallari sonidan ham ko‘rish mumkin.

Bunga misol tariqasida Moskva Xalqaro aloqalar davlat institutining MGIMO menejment va siyosat fakultetining ikki tomonlama magistratura dasturini keltirib o‘tamiz. Ushbu dasturlarning o‘quv rejasiga ko‘ra, birinchi kurs talabalari hamkor davlat universitetida, ikkinchi yil MGIMOda o‘qishadi. O‘qishni tugatgandan so‘ng bitiruvchilar ikkita davlat diplomiga ega bo‘ladilar - MGIMO va hamkor universitet [11; 15-36].

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

XULOSA

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, ta'lim xizmatlari eksporti juda tez sur'atlarda rivojlanayotganiga qaramasdan unga bo'lgan e'tibor yetarlicha baholanmaydi. Mamkalatimizda ta'lim eksportiga bo'lgan e'tibor xomashyo eksportiga qaraganda ancha kam foizda ekanligi barchamizga ma'lum. Ammo biz ta'lim eksporti orqali nafaqat davlat iqtisodiyotnigina yaxshilabgina qolmay, balki tashqi siyosatning madaniyat sohasidagi asosiy yo'nalishlarini kengaytirishimiz, xalqaro maydonda raqobatbardoshlikni oshirish, jahonda gumanitar hamkorlik doirasidagi ishlarni amalga oshirishimiz mumkinligini e'tiborga olishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Экспорт образования как фактор экономического роста страны. Манукян Артак Ростомович, старший преподаватель кафедры государственного управления факультета управления и политики МГИМО МИД России. С-2
2. Галичин В.А. Международный рынок образовательных услуг: основные характеристики и тенденции развития. М.: Дело, 2015. 60 с.
3. Интернационализм – Википедия (wikipedia.org)
4. Макбурни Г. Глобализация как политическая парадигма высшего образования // Высшее образование сегодня. 2001. № 1. С. 47- 55.
5. Петти Вильям. Трактат о налогах и сборах // Шедевры мировой экономической мысли. – Т.2. – Петрозаводск: "Петроком", 1993.
6. Научная статья УДК 378.14 DOI: 10.18101/2307-3330-2023-1-13-18 интернационализация образования – ведущая тенденция современного мира © Ван Юйчэнь магистр русского языка и литературы, © Базарова Татьяна Содномовна доктор педагогических наук, профессор, Бурятский государственный университет имени Доржи Банзарова Россия, С-14
7. https://roscongress.org/materials/internatsionalizatsiya-rossiyskogo-obrazovaniya-v-sovremennykh-usloviyakh-/
8. lex.uz/acts/-3171590
9. https://daryo.uz/2022/11/17/xorijda-oqiyotgan-ozbekistonlik-talabalar-soni-malum-qilindi
10. https://oliygoh.uz/post/xorijlik-talabalar-soni
11. Альтбах Ф., Райсберг Л., Пачеко И. Академическое вознаграждение и контракты: мировые тенденции и реалии // Как платят профессорам. Глобальное сравнение систем вознаграждения и контрактов / под ред. Ф. Альтбаха, Л. Райсберг, М. Юдкевич, Г. Андрущака, И. Пачеко. – М.: Изд. дом ВШЭ, 2012. – С. 15–36.

MINTAQADA TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBALARI

Isomiddinov Inomjon Qurvonali o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti doktoranti

Annotatsiya: Maqolada mintaqalar turizmini rivojlantirishda katta xalqaro tajribaga ega bo‘lgan mamlakatlarning turizm sohasini boshqarish va tashkil qilish borasida amaliyotda keng qo‘llayotgan chora-tadbirlari tahlil qilingan. Respublika yalpi ichki mahsulotida turizm va xizmatlar sohasining ulushini oshirish, mamlakatdagi istiqbolli hududlarni “o‘sish qutblari” sifatida rivojlantirish masalalariga e’tibor qaratiladi.

Kalit so‘zlar: mintaqa, turizm, ekoturizm, rekreatsiya, viza, bojxona, ziyorat, turistik oqim, infratuzilma, davlat-xususiy sherikchilik, erkin turistik zona, diversifikatsiya, transport, ichki turizm.

Abstract: The article analyzes the measures that are widely used in practice in the management and organization of the tourism industry by countries with extensive international experience in the development of regional tourism. Attention will be paid to the issues of increasing the share of tourism and services in the gross domestic product of the country, developing the promising areas of the country as "growth poles".

Key words: region, tourism, ecotourism, recreation, visa, customs, pilgrimage, tourist flow, infrastructure, public-private partnership, free tourist zone, diversification, transport, domestic tourism.

Аннотация: В статье анализируются меры, широко используемые на практике в управлении и организации туристической отрасли странами, имеющими большой международный опыт развития регионального туризма. Внимание будет уделено вопросам увеличения доли туризма и услуг в валовом внутреннем продукте страны, развитию перспективных территорий страны как “полюсов роста”.

Ключевые слова: регион, туризм, экотуризм, рекреация, виза, таможня, паломничество, турпоток, инфраструктура, государственно-частное партнерство, свободная туристская зона, диверсификация, транспорт, внутренний туризм.

KIRISH

Xalqaro turizm jahon iqtisodiyotining eng yirik sektoriga aylanib bormoqda.

Jahon mamlakatlarida kuzatilayotgan tabiiy, iqtisodiy va siyosiy inqirozlarga qaramay Covid-19 pandemiyasigacha bo‘lgan so‘nggi 10 yil mobaynida xalqaro turistlar soni jadal sur’atlarda o‘sib bordi. Butun jahon turizm tashkilotining (BTT) ma’lumotlarida xalqaro turistlar soni 1950-yilda 25 million kishini tashkil qilgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 1980-yilda 278 millionga, 2000-yilda 674 million kishiga, 2016-yilga kelib esa 1 milliard 235 million kishiga yetganini kuzatish mumkin.

Statistik ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, 2019 yilda turistlar soni butun dunyo bo‘yicha 1 milliard 500 million kishiga yetib, 2018-yilga nisbatan 4 foizga o‘sgan. Biroq bu ko‘rsatkich 2017-2018-yillarga (+6) nisbatan biroz pastroq hisoblanadi. Bunga sabab sifatida Brexit, dunyodagi birinchi turistik kompaniya hisoblanuvchi Thomas Cook'ning inqirozi kabi omillarni ko‘rsatish mumkin. Shunindek, Jahon mamlakatlaridagi geosiyosiy va ijtimoiy vaziyatning keskinlashuvi, global iqtisodiyotning pasayishi ham turizm sohasidagi o‘sish sur’atini kamayishiga olib keldi. Jahon mintaqalari bo‘yicha turistik oqim ko‘satkichlarini ijobiy baholash mumkin. Xususan, jahon ko‘rsatkichiga nisbatan o‘sish bo‘yicha Yaqin Sharq mintaqasi (+8), Osiyo va Tinch okeani (+5), Yevropa va Afrika (har ikkalasiga +4) hamda Amerikaga xalqaro tashriflar (+2) foizga oshgan. Yaqin Sharq mintaqasida geosiyosiy vaziyat o‘ta murakkab bo‘lishiga qaramasdan turistlar oqimida o‘sish kuzatilgan. Amerika va Yevropa sohadan eng ko‘p daromad oluvchi hamda turistlar tashrifi bo‘yicha yetakchi mintaqalar sifatida ko‘p yillardan buyon tan olinadi. 2019-yilda 743 million xorijiy sayyohlar Yevropa mamlakatlariga tashrif buyurgan. Bu ko‘rsatkich Jahon sayyohlik bozorining 51 foizini tashkil qiladi. Mazkur xalqaro tashkilotning statistik ma’lumotlariga ko‘ra, 2019-yil sayyohlarni qabul qilish bo‘yicha Fransiya, Ispaniya va AQSH davlatlari yetakchilik qilmoqda. 2019-yilda Fransiyaga 90 milliondan ortiq sayyoh tashrif buyurgani aytilgan. 2020-yilda sayyohlar

eng ko‘p tashrif buyuradigan joylar sifatida Olimpiya o‘yinlari o‘tkaziladigan Tokio va Exro-2020 butunjahon ko‘rgazmalari namoyish qilinadigan Dubay shaharlari taxmin qilingan edi [26]. Biroq Covid-19 pandemiyasining salbiy ta’siri natijasida 2020-yilda butun dunyo bo‘yicha sayohat qilganlar soni 381 million kishini tashkil qildi. Bu ko‘rsatkich 2019-yilga nisbatan 74 foizga kam ekanligi kuzatildi.

Jahon sayyohlik va turizm kengashi tatqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, jahon yalpi ichki mahsulotining 10,4 foizi 185 ta mamlakatni o‘z ichiga oluvchi 25 ta mintaqada turizm xizmatlari orqali yaratilar ekan. Dunyo mamlakatlarida turizm sohasida band bo‘lgan kishilar 319 million kishini tashkil qilib, jami bandlikning 10 foizi turizm vakillari ulushiga to‘g‘ri keladi. Butunjahon turizm tashkiloti tomonidan bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida mintaqalarni turizm sohasiga ixtisoslashtirish va aholini turizm sanoatida band qilish bo‘yicha dunyo mamlakatlarida bir nechta ilmiy tadqiqot ishlari va ko‘plab loyihalar amalga oshirilmoqda.

TADQIQOT METODLARI

Maqolada turizmni rivojlantirish bo‘yicha xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribalari o‘rganildi. Turizm bo‘yicha rasmiy statistik ma’lumotlardan foydalanildi. Tadqiqotda nazariy mushohada, tizimli yondashuv, kuzatish, umumlashtirish, qiyosiy tahlil, sintez kabi usullar qo‘llanildi.

NATIJALAR VA MUNOZARA

Turizm sohasini rivojlantirishda ko‘p yillik tajribaga ega bo‘lgan mamlakatlar misolida turizmni boshqaruv usullari tahlil qilindi. Ulardagi faol investitsiya siyosati, sohada innovatsion texnologiyalarni qo‘llanilishi hamda malakali kadrlarni tayyorlashdagi tajribalarini mamlakatimiz iqtisodiyotiga mos keluvchi jihatlarini qo‘llash nazarda tutilgan. Maqolada turizm turlari va salohiyatli mintaqalarning infratuzilma obyektlari bilan o‘zaro mutanosibligi hamda ulardan samarali foydalanish masalalari tadqiq etilgan. Bugungi kunda Markaziy Osiyo mintaqasi uchun muhim bo‘lgan yagona “erkin turistik zona”ni tashkil qilish, o‘zaro turistlar almashinuvida umumiy viza tizimini yo‘lga qo‘yish mexanizmi xaqida so‘z yuritiladi.

MATERIALLAR

Yu.A. Vedenin tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda, Xalqaro miqyosdagi turistik loyihalarga Kaliforniya shtati Napa vodiysidagi vino turizmi klasterini, Avstraliyaninng Kvinslend shtatidagi ekoturistik klasterni, Meksikadagi Kankun oromgohi klasterini, Indoneziyadagi Bali oroli klasterlarini misol qilib keltiradi. Turistik zonalarda davlat va tadbirkorlik subyektlari o‘zaro mustahkam integratsiyalashuv jarayoniga kirishadi. Xususiy sektor vakillari va xorijlik investorlarga zaruriy imtiyozlar yaratiladi. Jahon tajribasida mintaqalarni rivojlantirish strategiyasining shakllanishi uzoq muddatli maqsadli yo‘nalishlarni ham vertikal tarzda (alohida hududlar, viloyatlar, mamlakatlar), ham gorizontal tarzda (alohida olingan sohalar va iqtisodiyot tarmoqlari) o‘zaro bog‘lanishini ko‘zda tutadi. Bunday sharoitda tadbirkorlik subyektlari va mahalliy hamjamiyatlarning manfaatlarini ham hisobga olish zarur.

Xalqaro amaliyotda turizmni rivojlantirishni davlat tomonidan tartibga solishning 3 ta muhim yondashuvi mavjud:

1. Birinchi yondashuvga ko‘ra bozor iqtisodiyoti tamoyillari asosida mahalliy turizmni (xizmat ko‘rsatish subyektlari tomonidan) rivojlantirish masalalarini hal qilishni o‘z ichiga oladi. Bunda zamonaviy infratuzilma obyektlari, turistlar xavfsizligi, bank, sug‘urta va tibbiy xizmatlarning yuqori darajasi katta ahamiyatga ega. Pivojlangan mamlakatlarda turli o‘lchamdagi xususiy kompaniyalar turizmga bevosita yoki bilvosita xizmat ko‘rsatishda ustunlik qiladilar. Bunday yondashuvda mamlakatning turistik jozibadorligini oshirish, turistik mahsulotlarni jahon bozorida sotish hamda targ‘ibot qilish yirik turistik kompaniyalar tomonidan amalga oshiriladi. Davlat tomonidan turizmni nazorat qilish va uni tartibga solish bo‘yicha hech qanday rasmiy organ faoliyat olib bormaydi. Dastlab bunday model 1997-yilda AQSHda ishlab chiqilgan bo‘lib, davlatni turizmga aralashuvi rasman bekor qilingan.
2. Ikkinchi yondashuvga ko‘ra, mamlakatda turizmni rivojlantirish katta vakolat va moliyaviy resurslarga ega bo‘lgan maxsus davlat boshqaruv organi orqali amalga oshiriladi. Bu organ mamlakatda turizmni rivojlantirishda milliy turistik mahsulotlar yaratish, turizm infratuzilmasini bunyod etish, xorijiy investitsiyalarni turistik hududlarga jalb qilish, kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish hamda turistlar xavfsizligini ta’minlash kabi mas’uliyatlarni oladi.

Bu kabi yondashuv rivojlanayotgan yoki o‘tish davri iqtisodiyotiga ega bo‘lgan mamlakatlar Turkiya, Bolgariya, Misr kabi davlatlarga to‘g‘ri keladi. Xususan, O‘zbekiston ham shular jumlasidandir.

3. Uchinchi yondashuvda turizmni davlat tomonidan tartibga solinishi ko‘p funksional vazirliklar zimmasiga yuklanadi. Masalan, Fransiya Iqtisodiy siyosat vazirligi, Germaniyada Iqtisodiyot vazirligi, Rossiyada Iqtisodiy rivojlanish va savdo vazirligi va boshqalar.

Mazkur vazirliklar turizmni hududlarda rivojlantirishning tashkiliy bo‘limlari, huquqiy-me’yoriy asoslari, milliy turistik mahsulotlarning targ‘iboti va xaridi bilan shug‘ullanadi. Mamlakat turistik mahsulotlarini chet ellarda faol targ‘ib qilish orqali turistlar oqimini jalb qilishni Buyuk Britaniya tajribasida ham yaqqol kuzatish mumkin. 1969-yilda tashkil qilingan Buyuk Britaniya Turizmni rivojlantirish boshqarmasining ham eng asosiy vazifasi Britaniya turistik mahsulotlarini xorij mamlakatlarida reklama qilish hisoblanadi. Boshqarma tomonidan matbuot, radio, televideniye va internet orqali turistik mahsulotlar reklamasi, xalqaro turizm bo‘yicha marketing va maslahatlar taqdim etib boriladi. Shuningdek, xorij mamlakatlarida xalqaro konferensiyalar va yarmarkalar tashkil qilinadi. Tashkilotda jami 300 nafar xodim ishlasa, shundan 30 foizi London va mintaqaviy markazlarda faoliyat olib boradi. Qolgan qismi esa chet elda mamlakat turistik mahsulotlarini reklama qilish va sotish bilan shug‘ullanadi.

Mamlakatlar yalpi ichki mahsulotida turizm va xizmatlar ulushini oshirish, turizmda aholi bandligini ta’minlash, shahar va qishloqlar infratuzilmasini turizmga moslashtirish borasida qator xalqaro tajribalar amalga oshirilgan. Ana shulardan biri Kanada tajribasidir.

Mazkur tajribada hududning raqobatdoshligi mutanosiblashtirilgan strategiyani amalga oshirish orqali yaratiladi. Bunda aniq shaharlarning raqobatdoshligini oshirishga urg‘u beriladi. Shaharlar o‘z atrofidagi hududlar uchun o‘ziga xos “o‘sish qutblari” sifatida qaraladi.Fikrimiz dalili sifatida, hududning uzoq muddatli raqobatdoshligini samarali va muvaffaqiyatli strategiyasi sifatida Ottava shahrining uzoq muddatli iqtisodiy strategiyasini keltirish mumkin. Beshinchi strategik yo‘nalish sifatida Ottava va uning atrofidagi hududlarni rekreatsion va ishbilarmonlik turizmining markazlari sifatida xalqaro bozor tomon harakati, provinsiyalar uchun ma’lum imijning yaratilishiga, iqtisodiy strategiyalarni taraqqiyotning boshqa strategiyalari (“Ijtimoiy soha rejasi”, “San’at va tarixiy meros” rejasi, “Shahar qurilishi” rejasi va “Atrof-muhit rejalari”) bilan “bog‘lash”ga e’tibor berildi.

T.M. Axmedov, A.M. Sodiqov, Sh. Nazarov va boshqa olimlarning ilmiy ishlarida xorijiy mamlakatlarda mintaqalar rivojlanishini tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlari atroflicha o‘rganilgan.

O‘zbekiston va xorijiy mamlakatlarda mintaqalarning rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlaridan foydalanishni nisbiy baholash A.M.Sodiqovning ilmiy ishlarida turizmni rivojlantirish strategiyasining ustuvor yo‘nalishlari Finlandiya, Turkiya va Kanada mamlakatlari misolida ko‘rsatib berilgan.

METODLAR

Maqolada turizmni rivojlantirish bo‘yicha xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribalari o‘rganildi. Turizm bo‘yicha rasmiy statistik ma’lumotlardan foydalanildi. Tatqiqotda nazariy mushohada, tizimli yondashuv, kuzatish, umumlashtirish, qiyosiy tahlil, sintez kabi usullar qo‘llanildi.

NATIJALAR

Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida turizm beqiyos ahamiyatga ega. Ularning tabiiy sharoiti, iqlimi, rekreatsiya resurslari, tarixiy va iqtisodiy xususiyatlari turizm sohasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi.

Rossiya, Turkiya, Xitoy, Yaponiya kabi davlatlar tajribasidan kelib chiqib salohiyatli hududlarda turizmni tashkil qilish, uning boshqaruv usullarini soddalashtirish, soha rivojlanishiga salbiy ta’sir qiluvchi omillarni o‘rganish va bartaraf qilish, “o‘sish qutblari”ni aniqlash, faol investitsiya siyosatini olib borish soha rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Bu mamlakatlar tajribasida hududlarda yangi zamonaviy texnologiyalar va ilg‘or tajribalarni qo‘llash, malakali mutaxassislar tayyorlashga alohida e’tibor qaratilgan. Shunday xalqaro tajribalar mamlakatimizda ham keng tatbiq qilinmoqda.

1-jadval: Xorij davlatlarida turizmni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishning o‘ziga xos xususiyatlari

Strategiyani ishlab chiqish prinsiplari	Finlyandiya	Turkiya	Канада
Barqaror rivojlanish konsepsiyasini hisobga olish	Yangi texnologiyalar, muqobil energiya manbalaridan, ekologik toza transportdan foydalangan turizm subyektlariga subvensiya ajratish	Turizmni rivojlantirishda barqaror rivojlanishga asoslangan chora-tadbirlarni qo‘llash, mintaqalarni kompleks rivojlanishini ta’minlash, bandlik muammosini hal qilish	Turizmni rivojlantirishda barqaror rivojlanish konsepsiyasini qo‘llash
Innovatsiyani amalga oshirish	Ekoturizmni rivojlantirish		Shimoliy mintaqalarda ekoturizmni rivojlantirish

Turistlar uchun navigatsiya va yo‘nalishni ko‘rsatuvchi ma’lumotlar tizimining xalqaro namunalarini tanlashda MDH hamda Yevropa Ittifoqi mamlakatlarining xalqaro tajribalarini o‘rganishga ahamiyat berilgan. O‘zbekiston Markaziy Osiyoda kuchli tranzit salohiyatiga ega transport koridori vazifasini bajaruvchi mamlakatdir. Qo‘shni mamlakatlarni o‘zaro turistik aloqalarini amalga oshirishda transport xizmatlarini ko‘rsatish orqali ham mamlakat qo‘shimcha imkoniyatlarga ega bo‘lishi mumkin. Mamlakat ichida turistik markazlar va obyektlarga olib boruvchi xalqaro, respublika va mahalliy ahamiyatga ega bo‘lgan yo‘llarning sifati, turistik belgilar hamda infratuzilmani xalqaro standartlarga mos kelishi ham turistlar oqimining ortishiga sabab bo‘ladi.

Sobiq Ittifoq mamlakatlari ichida dastavval Gruziya, Ozarbayjon va Armaniston turizm sohasini rivojlantirishga alohida e’tibor berdi. Hozirgi kunda Gruziya nafaqat MDH, balki jahon turizmida ham yetakchi davlatlar qatoriga qo‘shilmoqda. Gruziyaga 2018 yilda 8,8 million sayyoh tashrif buyurdi. Hududining kichikligi, relefining 70 foizga yaqin qismi tog‘liklardan iboratligi, aholi sonining kamligiga qaramasdan Gruziya sarguzasht, tarixiy-madaniy, gastronomik, tog‘ turizmi va ekologik turizm turlarini rivojlantirdi. Bu mamlakatga tashrif buyurayotgan sayyohlarning 73 foizi Ozarbayjon, Rossiya, Armaniston, Turkiya kabi mintaqadagi qo‘shni davlatlarga to‘g‘ri keladi.

Mamlakatda turizmni rivojlantirish, eng avvalo, ichki turizm va qo‘shni mamlakatlardan sayyohlar oqimini jalb qilishdan boshlanadi.

Bu borada Yevropa mintaqasi tajribasini andoza qilib olish maqsadga muvofiq. Jahon bo‘yicha eng ko‘p turistlar aylanmasi Yevropa mintaqasiga to‘g‘ri keladi. Yevropaga eng ko‘p tashrif buyuradigan sayyohlar aynan Yevropa xalqlarining o‘zlaridir. Ushbu xalqaro tajribadan kelib chiqqan holda Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida yagona “erkin turistik zona”ni shakllantirish mintaqaning har bir davlati uchun manfaat keltiradi. So‘nggi yillarda bu borada hukumatimiz tomonidan qator samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Yevropa mamlakatlari uchun yagona bo‘lgan Shengen vizasi kabi Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun ham “Silk visa”ni tatbiq qilinishi, bojxona faoliyatining soddalashtirilishi, aeroport va vogzallarda yashil yo‘laklarni tashkil qilinishi, ortiqcha qog‘ozbozlik va navbat kutishlarni oldini olish kabi yengilliklar xorijlik va mahalliy turistlar uchun yaratilmoqda.

“Markaziy Osiyo mintaqaviy iqtisodiy hamkorlik”(MOMIH) dasturi doirasida mamlakatlarda barqaror turizmni rivojlantirish borasida xalqaro aloqalar rejalashtirilmoqda. “Markaziy Osiyo mintaqaviy iqtisodiy hamkorlik” dasturiga 11 ta mamlakat – Afg‘oniston, Ozarbayjon, Xitoy, Gruziya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Mo‘g‘uliston, Pokiston, Tojikiston, Turkmaniston va O‘zbekiston a’zo hisoblanadi. Bu mintaqada hamkor davlatlar ishtirokida turizmni barqaror rivojlantirish, kombinatsiyalangan turizm loyihalarini amalga oshirish bo‘yicha kelishuvlar amalga oshirilmoqda. Markaziy Osiyo mintaqasi xalqi o‘zaro diniy qadamjolarni ziyorat qilish, qarindosh-urug‘chilik munosabatlari hamda do‘stu birodarlarni ko‘rish maqsadida ham safarlarni amalga oshiradi.

“Mintaqaning turizm jozibadorligini oshirish maqsadida transport kommunikatsiyalari va infratuzilmasini birgalikda rivojlantirish zarur. Butunjahon turizm tashkiloti bilan birgalikda Markaziy Osiyoda turizm xablarini rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish ayni shu maqsadga xizmat qilgan bo‘lar edi”. 2018-yilda 17 yillik tanaffusdan keyin Toshkent-Almati, Toshkent-Chimkent, Samarqand-Nursultan yo‘nalishidagi avtobuslar qatnovini yo‘lga qo‘yilishi, 2019-yilda “Andijon-O‘sh” shaharlari o‘rtasidagi muntazam qatnovlarni amalga oshirilishi, ziyorat turizmini mintaqada yanada rivojlanishiga turtki beradi. Shuningdek, mamlakat ichki transport tizimidagi o‘zgarishlar ham bir muncha mahalliy turizmni rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatdi. Xorijiy investitsiyalar hamda tadbirkorlik subyektlarini jalb qilgan holda tarixiy shaharlarni o‘zaro bog‘lovchi avtomobil yo‘llarining holatini yaxshilash, “Toshkent-Samarqand-Buxoro-Xiva-Nukus”, “Toshkent-Guliston-Jizzax-Samarqand-Qarshi- Termiz”, “Qo‘qon-Farg‘ona-Andijon-Namangan” yo‘nalishlarida avtobus qatnovini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatda turizmni rivojlantirishda Rossiya tajribasini ham alohida ta’kidlab o‘tish zarur. 1967-yilda Yuriy Bichkov tomonidan Moskva atrofidagi 8 ta (Sergiyev Posad-Pereslavl-Zalesskiy-Rostov Velikiy-Yaroslavl-Kostroma-Ivanovo-Suzdal-Vladimir) diqqatga sazovor shaharlar ro‘yxati marshrut tarkibiga kiritildi. Shunday qilib “Oltin halqa” nomi ostida mashhur turistik brend shakllandi. Bu xalqani umumiy uzunligi 876 km ni tashkil qilib, hozirgi kunda marshrut tarkibiga Ples va Palex shaharlari ham kiritilgan. Shuningdek, “Oltin xalqa” marshruti davomida sayyohlar 16 ta mashhur monastirlarni ziyorat qilishlari mumkin.

O‘zbekiston viloyatlarining geografik joylashuvi nuqtayi nazaridan olib qaralsa, Farg‘ona vodiysi shaharlarida bu tajribani rivojlantirish ijobiy natija beradi. Yuqoridagi kabi “Oltin xalqa” tajribasini diniy ziyoratgohlar misolida “Yetti pir ziyorati” yo‘nalishi bo‘yicha Buxoro viloyatida yanada rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Bugungi kunda bu yo‘nalish bo‘yicha mamlakatimizda nafaqat mahalliy turistlar, balki Indoneziya, Malayziya, Saudiya Arabistoni, Eron, Turkiya, Hindiston hamda qo‘shni respublikalardan ziyoratchilar tashrifi ortib bormoqda.

Markaziy Osiyo xalqlarini mintaqa bo‘ylab sayyohlik maqsadida faol harakatlanishi uchun, eng avvalo, yuqorida ta’kidlanganidek viza, bojxona va transport sohalarida imkoniyatlarni yaratib berilishi dastlabki qadamlar hisoblanadi. Shuningdek, mamlakatlar aholisini mintaqaning turistik salohiyati bilan yaqindan tanisht-

irish uchun infoturlarni tashkil qilish yanada katta samara beradi. Bugungi kunda yurtimizda 8208 ta madaniy meros obyektlari mavjud bo‘lib, shulardan bor yo‘g‘i 500 tasi turistik marshrutlar dasturiga kiritilgan. Yuqori darajada sayyohlik sanoati rivojlangan Xitoyga tashrif buyurayotgan turistlar oqimini jalb qilish uchun ham imkoniyatlar mavjud. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston kabi chegaradosh mamlakatlarda xorijlik sayyohlarning asosiy qismi yaqin qo‘shni mamlakatlar hissasiga to‘g‘ri keldi. Xususan, Malayziyada xorijiy turistlarning 74 foizi qo‘shni mamlakatlar fuqarolaridir, Xitoyda ushbu ko‘rsatkich 72 foizni va Fransiyada 65,5 foizni tashkil qiladi.

Statistika ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonga xorijdan 2020-yil yanvar-dekabr oylarida turistik maqsadlarda 1,5 million kishi tashrif buyurgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich 2019-yilning shu davriga nisbatan -77,7 foizga kamaygan. 2019-yil davomida O‘zbekistonga 6 748 512 nafar sayyoh tashrif buyurgan, 2018 yilda esa bu ko‘rsatkich 5 346 219 kishini tashkil qilgan.



1-rasm: 2016-2020-yillarda O‘zbekistonga xorijiy davlatlardan tashrif buyurgan turistlar haqida ma’lumot (mln. kishi)

Chet elliklarning eng katta oqimi quyidagi davlatlardan qayd etildi: Qirg‘iziston- 508 ming kishi (barcha kelganlarning umumiy sonidan 33,8%), Qozog‘iston-424,1 ming kishi (28,2 foiz), Tojikiston-337,5 ming kishi (22,4 foiz), Rossiya-81,6 ming kishi (5,4 foiz), Turkmaniston-60,6 ming kishi (4 foiz), Ozarbayjon-2,2 ming kishi (0,1 foiz) va Belorusiya-1,6 ming kishi (0,1 foiz)ni tashkil qilgan. O‘zbekistonga tashrif buyurgan chet el fuqarolarining 87,8 foizi qarindoshlarini ziyorat qilish, 8,6 foizi-sayohat, 1 foizi-davolanish, 1,2 foizi-xizmat safari, 1,1 foizi-tijorat va 0,3 foizi kishilar o‘qish maqsadlaridagi safarlarni amalga oshirganlar.

Xitoy xorijlik sayyohlarning tashrifi bo‘yicha (2019-yilda 4-o‘rin 60.7 mln. kishi) jahon reytingida yetakchi mamlakatlar beshtaligiga kiradi [28]. Xitoy 1980-yillardan boshlab mamlakatga turistlar oqimini ko‘paytirish maqsadida “Ochiq eshiklar” siyosatini yurita boshladi. Bu mamlakat tajribasida ichki turizmni rivojlantirishga ham alohida e’tibor beriladi. Xitoyda yiliga uch marta fuqarolarning mamlakat bo‘ylab sayohat qilishi uchun “Oltin hafta” deb nomlangan imtiyozli ta’til kunlari tashkil qilinadi. Milliy bayramlar arafasida mehmonxona va turistik markazlar mahalliy sayyohlar bilan to‘ladi. Xizmatlar narxini bu paytlarda keskin oshib ketmasligi uchun Xitoyda “Arzon narxlar” siyosati ham olib boriladi. Bu kabi yondashuv Yaponiya tajribasida ham keng foydalaniladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan “2018-yilda fuqarolarning rasmiy sanalarni nishonlash davrida to‘liq dam olishi uchun qo‘shimcha shart-sharoitlar yaratish va dam olish, bayram kunlaridan oqilona foydalanishi, shuningdek, ichki turizmni yanada rivojlantirish” maqsadida qabul qilgan Farmoni ham mamlakatda turizmni rivojlantirishda xalqaro tajribalardan samarali foydalanishdan dalolatdir. Aholiga bayramlar (Yangi yil, Navro‘z va Mustaqillik kuni) arafasida “Golden week” 3 va 5 kunlik qo‘shimcha dam olish kunlarini belgilanishi ichki turizm va faol dam olish yo‘nalishlarini rivojlantirish uchun eng muhim mexanizmlardan biri hisoblanadi. Bu sanalarda transport va mehmonxona xizmatlari uchun chegirmalar berilishi hamda narxlardagi imtiyozlar mamlakatimiz turizm sohasidagi xalqaro tajribalardan samarali foydalanilayotganidan darak beradi. Turistik markazlarda mahalliy va xorijlik sayyohlar sonini ko‘paytirish uchun birinchi navbatda turistik firmalar, transport korxonalari, joylashtirish vositalari va xizmat ko‘rsatish sohalari faoliyatini son va sifat jihatidan to‘g‘ri tashkil qilish zarur. Quyidagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki, mamlakatda 2025-yilgacha turistik firmalar sonini 1450 taga ko‘paytirish, joylashtirish vositalarini ham 3050 taga yetkazish, ulardagi o‘rinlar sonini 128 mingtagacha oshirish orqali turizm xizmatlari eksportini ko‘paytirish rejalashtirilgan. So‘nggi yillarda bojxona va viza tizimida yaratilgan yangiliklar O‘zbekistonga tashrif buyuruvchi sayyohlar sonini yildan-yilga keskin ortishiga sabab bo‘lmoqda. Xususan, 86 ta davlat fuqarolariga vizasiz va 57 ta davlat fuqarolariga soddalashtirilgan viza rejimi joriy etilishi natijasida o‘tgan yili 2016-yilga nisbatan 3,3 barobar ko‘p demakdir. Mavsum davomida turistlar sig‘imining ortib borishi, turistik markazlardagi infratuzilma obyektlarini hali yetarlicha emasligi, turizm sohasini

qayta isloh etilishini taqozo etmoqda. Jadvalda keltirilgan ma'lumot shuni ko'rsatadiki, amalga oshirilgan ishlar natijasida rejalashtirilgan davrning so'nggi yilida O'zbekistonga 11 810 ming xorijlik sayyohlar tashrifi ko'zda tutilgan. Darhaqiqat, so'nggi yillarda turizm sohasini rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlari o'z samarasini bermoqda. Biroq Sovid-19-koronavirusining jahon iqtisodiyotiga ta'siri, o'z navbatida, xalqaro turizmni ham chetlab o'tmaydi. Shu sababli mamlakatga kelishi kutilayotgan xorijlik sayyohlar soni va turizm sohasidagi boshqa islohotlar 2020 va 2021-yillarda pastroq ko'rsatkichlarni berishi mumkin.

Xalqaro tajribalar shuni ko'rsatadiki, mamlakatda turizm sohasini rivojlantirishda iqtisodiy, ijtimoiy va infratuzilma obyektlarini barpo etish borasida davlat-xususiy sherikchilik mexanizmlarini qo'llab quvvatlash muhim omillardan biri hisoblanadi. Masalan, Portugaliyada davlat turistik obyektlarni barpo etish uchun tadbirkorlarga 10 yilgacha foizsiz kreditlar ajratadi. Ispaniyada esa davlat loyihaning 30 foizigacha qismini budjet mablag'lari hisobidan ta'minlashga yordam beradi. Malayziyada turistik faoliyat bilan shug'ullanuvchi korxonalar soliqlardan ozod qilinadi. Xuddi shunday Turkiya ham 1982-yildan boshlab turizmda davlat va xususiy sherikchilik munosabatlarini rivojlantirish orqali joylashtirish vositalari, turistik infratuzilma obyektlari sonini ko'paytirish hamda sifatini yaxshilashga erishdi. Natijada 2019-yilda mamlakatga 51 860 000 sayyoh tashrif buyurdi. Ular orqali mamlakat 34,52 mlrd. AQSH dollari miqdorida daromad olgan.

Xorijiy mamlakatlarning tajribalarini milliy xususiyatimizga mos holda namunaviy tartiblarini ishlab chiqish bo'yicha qator ishlar amalga oshirilmoqda. Davlat-xususiy sherikchilik shartlari asosida respublikaning har bir hududidagi turistlar ko'p tashrif buyuradigan joylar hamda sayyohlik marshrutlarida 50 tadan sanitariya-gigiyena shoxobchalarini tashkil etish va boshqa turistik infratuzilma obyektlarini barpo etuvchi kichik va o'rta biznes subyektlariga soliq va bojxona imtiyozlari berilmoqda.

Respublikada turistik zonalar infratuzilmasini rivojlantirish, sayyohlik markazlarida zamonaviy turistik maskanlarni barpo etishda xorijiy sarmoyalarni jalb qilish muhim ahamiyatga ega. Turizmni rivojlantirish borasida katta tajribaga ega bo'lgan xorijlik kompaniyalarni kichik turistik zonalarga qiziqtirish orqali xalqaro standartlarga javob beradigan majmualarga ega bo'lish mumkin.

2019-yilda ishga tushirilgan "Amirsoy" tog'-chang'i majmuasini ishga tushirishda Italiya, Germaniya, Avstriya, Argentina, Ispaniya va Daniya kabi davlatlardan yetakchi loyihachi kompaniyalar jalb etilgan. Ushbu maskanning faoliyati mehmonlar xavfsizligini ta'minlash va ularga qulay sharoit yaratish uchun yuqori sifatli asbob-uskunalar, jihozlar keltirilib o'rnatilgan. Loyihaning umumiy qiymati 100,0 mln. AQSH dollarini tashkil qiladi. Ushbu loyiha sohada katta tajribaga ega Andorraning "RGI Management" kompaniyasi tomonidan amalga oshirilgan.

Shunga o'xshash loyihalardan yana biri Turkiyaning "IDEALIST" kompaniyasidir. Bu kompaniya bilan hamkorlikda Yangiqo'rg'on tumanidagi Nanay sayyohlik zonasi, Zomin tumanidagi "Suffa" masjidi, Boysun tumanidagi Omonxona qishlog'ida manzilli loyihalar amalga oshirilmoqda. 2017-yilda "Turizm sohasida hamkorlik to'g'risida" gi O'zbekiston va Turkiya hukumatlararo imzolangan Bitimga asosan ikki davlat o'rtasida o'zaro tajribalar almashinilmoqda. Turkiyaning turizm sohasidagi 40 yilga yaqin tajribasi shuni ko'rsatadiki, hududlarni va sohalarni rivojlantirishda to'g'ri rejalashtirish hamda loyihalashtirish chora-tadbirlari muhim ahamiyatga ega.

Mamlakatimizning xilma-xil tabiati va boy tarixi mavzuli turistik zonalar va klasterlarni yaratishga imkon beradi. Shu orqali O'zbekistonda turizmning istiqbolli turlarini (ziyorat, ma'rifiy, ekologik, etnografik, gastronomik, sport, davolovchi-sog'lomlashtiruvchi, qishloq, sanoat, ishbilarmonlik va boshqalarni) rivojlantirish va muayyan hudud uchun yangi konsepsiyalarni ishlab chiqishga zamin yaratiladi.

MUNOZARA

O'zbekiston hukumati tomonidan viloyatlar imkoniyatidan kelib chiqib mavzuli turizm mintaqalarini tashkil qilish bo'yicha 20 ta infratuzilma obyektlarini barpo etish, sohada faoliyat olib boruvchi tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash hamda imtiyozlar yaratish bo'yicha 90 ga yaqin me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Bu me'yoriy-huquqiy hujjatlar turistik faoliyat sohasiga oid bazani takomillashtirishga asos bo'ladi. Respublikamizda turizm sohasini rivojlantirish uchun, eng avvalo, xalqaro normalar va standartlarni joriy etish, turistlar hamda tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib berish muhim ahamiyatga ega.

XULOSA

Yuqorida ko'rsatilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqqan holda quyidagicha xulosalarga kelish mumkin:

- mamlakatlarning tajribasidan xulosa qilgan holda turizm turlarini hududlarda diversifikatsiya qilish ko'proq samara beradi. Chekka qishloq joylar va tog'li hududlar xususiyatidan kelib chiqib agroturizm, ekoturizm, gastronomik turizm, tog' turizmi, ziyorat turizmi kabi sayyohlik turlarini rivojlantirish orqali mahalliy aholini tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish mumkin;

- Turkiya, Bolgariya, Misr kabi rivojlanayotgan davlatlar tajribasidan kelib chiqib, mamlakatimizda turizmni tashkil etishni vakolatli davlat boshqaruv organlari orqali davlat-xususiy sherikchilik mexanizmlari asosida amalga oshirish maqsadga muvofiq;
- Rossiyaning “Oltin xalqa” tajribasidan keng foydalangan holda Farg‘ona vodiysi shaharlarida bu tajribani rivojlantirish ijobiy natija beradi. Xitoy va Yaponiya mamlakatlari tajribasidagi “Oltin hafta” yoki “Arzon narxlar” deb nomlangan imtiyozli ta’til kunlarini O‘zbekistonda ham keng joriy qilinishi ichki turizmni jadal rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-dekabrdagi “Chorvoq” Erkin turistik zonasini tashkil etish to‘g‘risida” gi PF-5273-son Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 28-dekabrdagi “2018-yilda rasmiy sanalarni nishonlash davrida qo‘shimcha ishlanmaydigan kunlarni belgilash va dam olish kunlarini ko‘chirish to‘g‘risida” gi PF-5290-son Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-5781-son Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi PF-5611-son Farmoniga 1-ilova “2019-2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish” Konsepsiyasi.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 19-aydagi “2017-2019-yillarda Buxoro viloyati va Buxoro shahrining turizm salohiyatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-2980-son Qarori.
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 4-oktyabrdagi “Moddiy madaniy merosning ko‘chmas mulk obyektlari milliy ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida” gi №846-son Qarori.
7. Ashurmetova N.A. Qishloq xo‘jaligida innovatsion texnologiyalarni iqtisodiy baholash tizimlarining tahlili // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2018-yil.
8. Каҳре S., Ҳоффманн Д., Аҳлеманн Ф., 2017. Беёнд бусинесс-ИТ alignment-digital business strategies as aparadigmatic shift: a review and research agenda. In: Rroceyedings of the 50th Hawaii International Sonference on System Sciences, pp. 4706-4715.
9. Винничек Л.Б. Инновационная деятельность в АПК: проблемы и перспективы // Материалы конференции “Российская экономика в условиях новых вызовов”, 145-149, 2018.
10. Алтухов А.И. Инновационный путь развития сельского хозяйства как основа повышения его конкурентоспособности // Вестник ОрелГАУ 6‘(08). Текст электронный. https://cyberleninka.ru/article/n/innovatsionnyy-put-razvitiya-selskogo-hozyaystva-kak-
11. Баутин В.М. Информационно-консультационная служба должна ориентироваться на инновации // Известия ТСХА, выпуск 2. Т.: 2012.
12. Аскланд Р. Economic Analysis of the Digital Economy. Economic Record, 301(93), 2017, pp.334-336.
13. Гулямов С.С., Максудова Ш.Я. Стратегия внедрения цифровой экономики в совершенствование развития агропромқшленного комплекса до 2030 года – “Zamonaviy korporativ boshqaruv: muammo va yechimlar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami – T.: 2020.
14. Rustamovich, Dehkonov Burhan. “Quality And Safety Of Rublic Satering Services In Uzbekistan”. European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630)(2021/5/23): 19-23.
15. Dehqonov Burxon Rustamovich. “Ichki turizmni rivojlanlantirishda davlatning o‘rni” yashil iqtisodiyot va taraqqiyot (ISSN: 2992-8982) 2023-yil, oktyabr. № 10-son.
16. Rustamovich D. B. Analysis of the Development of Tourism in Uzbekistan //Journal of International Business Research and Marketing. – 2020. – Т. 5. – №. 6. – С. 28-33.
17. Очилова Хилола Фармоновна, Мухаммадсидик Амонбоев and Бурхон Рустамович Дехконов. “Развитие внутреннего туризма для восстановления отрасли после пандемии”. Заметки ученого 12 (2020): 242-247.
18. Mahkamova M.A. Globallashuv jarayoni, innovatsiyalar va O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotni shakllanishi. // “Sanoat iqtisodiyoti va menejmenti: muammo va yechimlar” mavzusidagi xalqaro onlayn ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. – T.: 2021.
19. www.review.uz.
20. www.agro.uz.

ICHKI TURIZMNI RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA INFRASTRUKTURA HOLATI

Dehqonov Burxon Rustamovich
TDIU Turizm kafedrasi tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ichki turizmning asosiy afzalliklaridan biri uning mahalliy iqtisodiyotga ijobiy ta’siridir. Turistlar biror joyga tashrif buyurganlarida, odatda, turar joy, oziq-ovqat, esdalik sovg‘alari va transport uchun pul sarflashadi. Sayyohlik xarajatlarining bunday oqimi mahalliy biznesga sezilarli turtki berishi, ish o‘rinlari yaratish va aholining turmush tarzini qo‘llab-quvvatlashi mumkin.

Bundan tashqari, mahalliy turizm mintaqaning madaniy merosini saqlash va namoyish etishga yordam beradi. Ichki turizmda faol aholi tarixiy diqqatga sazovor joylarni o‘rganishga va madaniy tadbirlarga borishga undash orqali jamoalar o‘zlarining an’analari haqida xabardorlik va bilimlar olishi mumkin. Bu tarixiy joylarni, an’anaviy hunarmandchilikni va mahalliy xalqlarning urf-odatlarini saqlash bo‘yicha sa’y-harakatlarning kuchayishiga olib kelishi mumkin.

Kalit so‘zlar: Ichi turizm, iqtisodiyot, madaniy me’ros ob’yektlari, faol aholi oqimi, sayyohlik xarajatlari, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar.

Abstract: One of the main benefits of domestic tourism is its positive impact on the local economy. When tourists visit a place, they usually spend money on accommodation, food, souvenirs and transportation. This influx of tourism spending can provide a significant boost to local businesses, creating jobs and supporting the livelihoods of residents.

In addition, local tourism helps preserve and showcase the cultural heritage of the region. In domestic tourism, communities can gain awareness and knowledge about their traditions by encouraging active residents to explore historical sites and attend cultural events. This can lead to increased efforts to preserve historic sites, traditional crafts, and the customs of indigenous peoples.

Key words: Domestic tourism, Economy, objects of cultural heritage, active population flow, UNWTO, tourist expenses, organizational and economic mechanisms.

Аннотация: Одним из основных преимуществ внутреннего туризма является его положительное влияние на местную экономику. Когда туристы посещают какое-либо место, они обычно тратят деньги на проживание, еду, сувениры и транспорт. Этот приток расходов на туризм может дать значительный импульс местному бизнесу, создать рабочие места и поддержать средства к существованию жителей.

Кроме того, местный туризм помогает сохранять и демонстрировать культурное наследие региона. Во внутреннем туризме сообщества могут повысить осведомленность и знания о своих традициях, поощряя активных жителей исследовать исторические места и посещать культурные мероприятия. Это может привести к активизации усилий по сохранению исторических мест, традиционных ремесел и обычаев коренных народов.

Ключевые слова: Внутренний туризм, Экономика, объекты культурного наследия, активный поток населения, ЮНВТО, туристские расходы, организационно-экономические механизмы.

KIRISH

Turizm o‘zining ko‘p qirrali turlari bilan barcha sohalar bilan hamkorlikda faoliyat yuritib kelayotgan sohalardan biridir. Ichki turizm iqtisodiyotning ko‘pgina jabhalarini rivojlantirishga imkon tug‘diradi.

Jumladan, mehmonxona va mehmon uylari, umumiy ovqatlantirish korxonalari, transport xizmatlari, kommunal uy xo‘jaliklari, yo‘l qurilish, maishiy xizmat ko‘rsatish, savdo tarmoqlari va servis sohalaridir. Ichki turizmni rivojlantirish bir vaqtni o‘zida o‘ziga xos dam olish, ko‘ngil ochar maskanlar industriyasini o‘z ichiga oladi. Turizmda asosiy xizmatlar qo‘shimcha xizmatlar mavjud bo‘lib, asosiy xizmatlarga bo‘linadi:

- kutib olish xizmatlari;
- joylashtirish xizmatlari;
- ovqatlantirish xizmatlari;
- transport xizmatlari;
- ekskursiya xizmatlari.

Har bir xizmat infrastrukturasi mukammal shakllanganda turistlarda muammolar kuzatilmaydi. Yana qo‘shimcha xizmatlar mavjud bo‘lib, ular ham jarayonlarda bevosita ishtirok etadi. Kutib olish xizmatlariga demak masofalardan turib ishlash tushuniladi. Turfirmadan mas’ul xodim turistni kutib olishga aeroportga borishi yo‘l infratuzilmasini, aeroport infratuzilmasini va transport infratuzilmasini xalqaro va ichki standartlarga javob berishini talab qiladi.

Joylashtirish xizmatlarida mehmonxona va mehmon uylarini infratuzilmasi ham standartlarga to‘g‘ri kelishi, ular mamlakatning turist qabul qilishi salohiyatiga yetarli bo‘lishi kerak.

Umumiy ovqatlantirish korxonalarining infratuzilmalari turizmda turistlar uchun xizmat ko‘rsatish sifatlari ham mukammallik talab etadi.

Turistlarni tashishda transport xizmatlari infratuzilmasi ham turizmni rivojlanishiga uni barqaror borishda bevosita xizmat ko‘rsatadi.

Ichki turizm mamlakat iqtisodiyotida pul massasini aylanishini tezlashtirish bilan bozor iqtisodiyotini rivojlantirmoqda. Ichki turizmda madaniyat almashinuvi, aholining maqsadga qarab tashrif buyurgan manzil haqida ma’lumot olishi yoki biror bir mavzuda qo‘shimcha bilimga ega bo‘lishi kuzatiladi. Tashrif buyurgan ichki turistlar shu joyga mablag‘ sarflab aholini yashash tarzini yaxshilashga olib keladi. Tashrif buyurgan hududlarda infrastrukturalar shakllana boshlaydi. Eng muhimi aholining turizm savodxonligi oshadi.

Bugungi kunda mamlakatimiz turizm infrastrukturasi holati haqida gapirar ekanmiz, avvalo, joylashtirish vositalari ko‘z oldimizga keladi. Xalqaro va ichki talab standartlariga mos keladigan mehmonxonalar soni bir qancha bo‘lib 5 yulduzli mehmonxonalar soni 2 ta, 4 yulduzli mehmonxonalar esa 11 ta, 3 yulduzli mehmonxonalar soni 27 tani tashkil etadi. Respublikamizda katta va kichik mehmonxonalar soni 959 ta bo‘lib, mehmon uylari 3139 tani tashkil etadi. Mehmonxonalarning umumiy xonalar soni esa 28 407 tani, o‘rinlar soni esa 55 362 tani tashkil etadi. Bu sanab o‘tilgan obyektlarni viloyatlar kesimida ko‘radigan bo‘lsak 1-rjadvalda o‘z aksini topgan.

1-jadval: Respublikamizdagi 2023-yilda mehmonxonalar, mehmon uylari va turoperatorlar soni[1]

№	Viloyat	Mehmonxonalar	Hostellar	Turoperatorlar
1	Andijon	20	14	37
2	Buxoro	171	69	116
3	Jizzax	28	13	10
4	Qashqadaryo	36	28	20
5	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	27	20	49
6	Navoiy	29	29	22
7	Namangan	26	8	55
8	Samarqand	126	44	187
9	Sirdaryo	13	14	11
10	Surxondaryo	42	9	38
11	Toshkent viloyati	39	45	49
12	Toshkent shahri	300	181	892
13	Farg‘ona	43	24	62
14	Xorazm	59	21	64

Mehmonxonalar soni bo‘yicha Toshkent shahrida ko‘pligini ko‘rishimiz mumkin. 300 ta mehmonxona, 181 ta Mehmon uyi va 892 ta turoperatorlar hozirgi kunda faoliyat olib bormoqda.

Ikkinchi o‘rinda Buxoro viloyati bo‘lib, mehmonxonalar bo‘yicha 171, mehmon uylari bo‘yicha esa 69, 116 turoperatorlar xizmat ko‘rsatmoqda.

Uchinchi o‘rinda Samarqand viloyati bo‘lib, mehmonxonalar soni 126, mehmon uylari soni 44 bo‘lib, turoperatorlar esa 187 tani tashkil etadi. Samarqandda turoperatorlar soni Buxorodan 71 taga ko‘pligini ko‘rishimiz mumkin.

Keyingi navbatda Xorazm viloyati mehmonxonalar soni bo‘yicha 59, mehmon uylari soni 21, turoperatorlar soni esa 64 tani tashkil etadi.

Farg‘ona viloyatida mehmonxonalar soni 43, mehmon uylari 24, turoperatorlar soni esa 62 tani tashkil etadi.

1 Turizm qo‘mitasi ma’lumoti.

Toshkent viloyatida joylashtirish xizmatlarida mehmonxonalar soni 39, mehmon uylari esa 45, turoperatorlar soni 49 tani tashkil etmoqda.

Qashqadaryo viloyatida mehmonxonalar soni 36, mehmon uylari soni esa 28, turoperatorlar soni 20 tani tashkil etadi.

Surxondaryo viloyati mehmonxonalar soni bo‘yicha boshqa viloyatlarga nisbatan yaxshiligini ko‘rishimiz mumkin, ular 42 tani tashkil etdi, lekin mehmon uylari bo‘yicha respublikada eng kam natijani qayt etdi. Turizm industriyasida joylashtiruv vositalari infratuzilmasi qanchalik yaxshi shakllangan bo‘lsa, ichki va xalqaro turistlar soni ko‘p bo‘ladi.

Ichki turizmda ko‘proq yulduzli mehmonxonalarga qaraganda mehmon uylariga talab oshmoqda. Chunki ularning narxi mehmonxonalarga qaraganda arzonligi va qulayligi bilan ajralib turadi.

Oilaviy mehmon uylar soni to‘rt yil ichida ortib borganligini ko‘rishimiz mumkin. 2018-yildan 2022-yilgacha oilaviy mehmon uylari 106 tadan 2458 tagacha ya’ni 23 karraga ko‘paygan. Davlatning turizm siyosati turistlarni jaylashtirish muammosini hal qilishda ko‘p imkoniyatlar berganligini ko‘rishimiz mumkin.

Shu yilda oilaviy mehmon uylaridan tashqari hostellar, o‘tov lagerlari majmuasi, avtokempinglar, ekouylar majmuasi, konteyner shaharchalari va chodirli lagerlarni tashkil etish maqsadida tadbirkorlarga “Oilakredit.uz” platformasi orqali “Har bir oila – tadbirkor” dasturi doirasida 33 mln. so‘mdan 3 mlrd so‘mgacha 14 foizli onlayn imtiyozli kreditlarni ajratish yo‘lga qo‘yildi. Bu islohot ham infratuzilmani yaxshilashga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

“O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qil” dasturi doirasida davlat siyosati va vakolatli organ tadbirkorlarga, mamlakat rezidentlariga, turizm industriyasi doirasida juda katta imkoniyatlar berdi.

Ichki turizmni tashkil etish mexanizmini shakllantirishda:

- 14 hudud;
- 208 tuman;
- 828 sektor;
- 9314 MFY ajratib olamiz. Mamlakat bo‘ylab umumiy ichki sayyohlar soni 10 mln nafarni tashkil qiladi. Shundan jamoalarga ajratadigan bo‘lsak:
- mehnat jamoasi
- yoshlar jamoasi
- mahalla jamoasi
- individual guruhlarga bo‘lib chiqiladi.

Ichki turistlar oqimlarini ta’minlash maqsadida yil davomida amalga oshiriladigan transport qatnovlari havo yo‘llari 6451, temir yo‘llari 1992, avtobus qatnovi esa 34926 ta qilib rejalashtirilgan[2].

“O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qil!” shiori ostida respublika bo‘ylab jami o‘rnatilagan banner reklamalar soni 443 tani, OAV va ijtimoiy tarmoqlarda media kontentlar soni 50 tani tashkil etdi.

Eng asosiy rejada “CASHBACK” tizimini ishga tushirish ishlari va dasturlari yozilmoqda. Bundan maqsad ichki turistlarga o‘zlari amalga oshirgan xarajatlarni ma’lum qismini yana qaytarib o‘ziga berishdan iborat.

Rejalar shuni ko‘rsatadiki, mamlakat bo‘ylab temir yo‘l chiptalaridan 15%, mahalliy aviaqatnovlar chiptalaridan 15%, joylashtirish vositalari xizmatlari narxidan 20%, madaniyat tashkiloti xizmatlari narxining 50% gacha chegirma ya’ni cashback qaytariladi. Bu ichki turizmni rivojlantirishda asosiy mexanizmlar hisoblanadi.

Reja-grafik bo‘yicha mehnat jamoalarida faoliyat olib borayotgan 228 ming xodimlarning sayohatlari tashkil etilmoqda.

“Ayollar daftari”ga kiritilgan 30 yoshdan yuqori xotin-qizlarning sayohatlarini tashkil etish bo‘yicha reja-grafigi etib 50 ming kishi belgilangan.

“Notinch oilalar”ga oilaviy sayohatlarini tashkil etish bo‘yicha reja-grafik etib 1000 kishi belgilangan.

51,4 ming o‘quvchi-talabalar va korxona xodimlarini mo‘ynoq tumaniga sayohat safarini tashkil etish bo‘yicha reja-grafik tuzilgan.

“Manguberdi vataniga sayohat qil” ichki turizm dasturi orqali o‘quvchi, talaba va nuroniylar Xorazmga safarini tashkil etish reja-grafigiga 55 ming kishini jalb qilish nazarda tutilgan.

Viloyatlar kesimida mamlakat bo‘ylab ichki turizm oqimini tashkil etish reja-grafigiga 10 mln kishi kirishi belgilangan.

2 Turizm qo‘mitasi ma’lumoti.

Ichki turizmni rivojlantishda maxsus dasturlarni amalda bajarishda bir kunda viloyatlararo muntazam ravishda 20 aviareyslar, 61 temir yo‘l qatnovlari, 32 avtobus marshrutlari yo‘lga qo‘yildi. Bu ichki sayyohlar harakatini amalga oshirishda bugungi kun talabiga mos keladigan grafik hisoblanadi.

Umumiy ovqatlanish shahobchalari 22 869 taga ko‘paydi va muntazam ishlab kelmoqda.

Sanitariya gigiyena shahobchalari esa 6000 tani tashkil etadi. Bular ichki sayyohlarni tozalikka bo‘lgan talabini qondirishga xizmat qilmoqda.

Respublikamizda bugungi kunda gid-tarjimonlar soni 2400 nafarni tashkil qiladi.

Turizmda axborot markazlari xizmatlari 128 tani tashkil etmoqda. Bu juda muhim xizmat hisoblanib, turistlar ma’lumot olishda foydalanadilar.

Ichki turizmni keng targ‘ib qilishda vositachi hisoblangan O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi va O‘zbekiston elektron ommaviy axborot vositalari milliy assotsiatsiyasi va Madaniyat va turizm vazirligi huzuridagi “Milliy PR-markazi” DUKsi mas’ul etib tayinlandi.

1537 turoperatorlar orqali

- tarixiy maskanlar
- ziyoratgohlar
- teatr, muzey
- istirohat bog‘lari
- ko‘ngil ochar bog‘larga sayohatni amalga oshirish dasturi ishlab chiqilgan bo‘lib, hozirgi kunda faoliyat olib bormoqda.

“O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qil!” dasturi doirasida ichki sayyohlarni viloyatlar kesimida ham taqsimlab chiqildi. Mazkur 2-rasmda 2023-yilda hududlarda ichki turizm reja-grafigi ishlab amaliyotga tatbiq etilmoqda.

2-rasm: 2023-yilda hududlarda ichki turizm reja-grafigi3

№	Hududlar	Ichki sayohlar soni (ming) nafar
1	Toshkent shahri	669
2	Andijon	761
3	Buxoro	462
4	Farg‘ona	911
5	Jizzax	337
6	Namangan	685
7	Navoiy	241
8	Qashqadaryo	797
9	Samarqand	942
10	Sirdaryo	205
11	Surxondaryo	641
12	Toshkent viloyati	688
13	Xorazm	450
14	Qoraqolpog‘iston Respublikasi	455

Har bir viloyat hududlar kesimida turizm boshqarmasi hokimliklar bilan hamkorlikda ichki sayyohlarni harakatini belgilab mazkur yuqoridagi reja-grafikni shakllantirgan bo‘lib, Samarqand, Farg‘ona, Qashqadaryo viloyatlari aktiv faoliyat olib bormoqda. Grafiklar ishlashi ortidan hududlarda infrastruktura yetishmasligi yoki muammolar oldi olinadi va ichki sayyohlar oqimi barqaror bo‘lishga xizmat qiladi.

Ichki turizmni rivojlantirishda investitsion holatga qarab o‘tamiz. 2021-yilda sohada investitsiya loyihalari doirasida umumiy qiymati 11,4 trillion so‘m mablag‘ o‘zlashtirilib, 495 ta loyiha amalga oshirilgan.

Davlat investitsiya dasturi asosida mahalliy hokimliklar bilan birga 1,2 milliard dollarlik 62 ta loyihadan 562,7 million dollar investitsiya o‘zlashtirilib, 31 ta loyiha ishga tushirilgan.

2022-yil yakuniga qadar turizm sohasida jami qiymati 21,6 trillion so‘mlik 727 ta loyihalar ishga tushirilib, tarmoqda qo‘shimcha 22 mingdan ziyod yangi ish o‘rni yaratilgan.

3 Turizm qo‘mitasi ma’lumoti.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Tadbirkorlikni rivojlantirish, investitsiya jalb qilish hamda raqobatbardosh xizmatlarni yo‘lga qo‘yishga berilgan e’tibor natijasida turizm bozoriga bir qancha yetakchi mehmonxona brendlari kirib kelmoqda. Ular nafaqat Toshkent, balki Buxoro, Samarqand va Xiva shaharlariga ham qiziqish bildirib, o‘z faoliyatlarini tashkil qilmoqda.

O‘zbekiston Prezidentining 2021-yil 30-dekabrdagi PQ-72-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Investisiya dasturi” ga xizmatlar sohasida qiymati 6 milliard 217 million 900 ming dollar bo‘lgan 144 ta loyiha kiritilgan. Shundan 3 milliard dollari (78 ta loyiha) turizm va madaniy meros sohalariga to‘g‘ri keladi.

Hududiy investitsiya loyihalari hamda tadbirkorlik subyektlarining tashabbuslari bilan jami qiymati 10,5 trillion so‘m bo‘lgan 689 ta loyiha amalga oshirilishi va 17 ming 426 ta yangi ish o‘rinlari yaratilishi kutilmoqda.

Vakolatli organ axborotiga qaraganda respublikada 2022-yil 1-iyul holatiga qiymati 5,7 trillion so‘m bo‘lgan 378 ta loyiha amalga oshirildi va natijada 9 ming 584 ta yangi ish o‘rinlari yaratildi.

Turizm infratuzilmasini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar tadbirkorlikni riaojlantirish bilan chambarchas bog‘liqdir.

Madaniyat va turizm vazirligi bergan ma’lumotlarga ko‘ra, respublikada 2018-2022-yillar davomida jami 6 ming 788 ta yangi sanitariya-gigiyena shoxobchasi foydalanishga topshirildi. Avtomobillarga yoqilg‘i quyish stansiyalarining sanitariya-gigiyena shoxobchalari bilan ta’minlanish ko‘rsatkichi 20 foizdan 96,9 foizga yetkazildi.

Turizm obyektlarida 3 ming 652 ta Wi-Fi nuqtalari tashkil etildi, 1 ming 901 ta yo‘l ko‘rsatkichlar o‘rnatildi, 132 ta axborot markazlari barpo qilindi. 440 ta yangi turizm obyektlari o‘rganilib, ushbu obyektlarning 250 turizm marshrutlariga kiritildi.

Bundan tashqari, turizm obyektlari atrofidagi yer maydonlarini obodonlashtirish, suv va yo‘l infratuzilmalarini yaxshilash maqsadida respublika byudjeti mablag‘laridan 1 trillion so‘m ajratildi.

Sohada xorijiy va mahalliy sayyohlarga joylashtirish xizmatini ko‘rsatuvchi tadbirkorlikni rivojlantirish muhim hisoblanadi.

Mahalla fuqarolari yig‘inlari, tog‘li va olis qishloqlarda mahalliy aholini ish bilan ta’minlash va maqbul narxlardagi joylashtirish vositalariga bo‘lgan ehtiyojni ta’minlash maqsadida joylarda oilaviy mehmon uylari tashkil qilinmoqda.

Turizm sohasiga gidlarni tayyorlash yo‘nalishida ham ijobiy natijalar kuzatilmoqda. Jumladan, 2018-yilda gidlar 574 nafarni tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yilning 1-iyul holatiga ularning soni 2,4 ming nafarga tashkil qiladi.

Sohada tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida 100 ga yaqin soliq va bojxona imtiyozlari, xarajatlar va kreditlarni bir qismini qoplash, subsidiya hamda grantlar berish, foizsiz ssudalar ko‘rinishida davlat tomonidan qo‘shimcha ko‘mak va preferensiyalar berildi.

Yoshlarni turizm sohasidagi tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida 2022-yilning avgust oyidan boshlab turoperatorlik faoliyatlarni yo‘lga qo‘yishlari uchun 50 million so‘mdan grant mablag‘lari berilmoqda.

O‘zbekistonda 91 ta xorijiy mamlakat uchun vizasiz rejim tatbiq etilgani ham sayyohlik rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. 2018-yil 15-iyuldan elektron kirish vizalarini berish tizimi yo‘lga qo‘yildi va bu tizimdan 57 ta davlat fuqarolari foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ldi hamda 101 mamlakat fuqarolari uchun vizasiz tranzit rejimi joriy etildi.

Shu bilan birga xorijiy sayyohlarga bir qator qulayliklar yaratildi. Xalqaro aeroportlarda “yashil” va “qizil” yo‘lak tizimi yo‘lga qo‘yildi, tashrif buyuruvchilar aeroportdan o‘rtacha hisobda 2-3 soatda chiqib ketish vaqti 15-20 daqiqada amalga oshiriladigan tizim yaratildi.

Mamlakatga tashrif buyurgan sayyohlarni ro‘yxatga olish tizimini takomillashtirish va soddalashtirish maqsadida xorijiy fuqarolarni ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi butunlay elektron shaklga o‘tkazildi (e-mehmon) tizimi.

Bugun turizm yo‘nalishlari qatorida ziyorat turizmi alohida o‘ringa ega. O‘zbekistonda mazkur yo‘nalishda ham yaxshi natijalarga erishilmoqda.

Hisob-kitoblarga qaraganda, 2019-yilda respublikaga tashrif buyurgan 6,7 million nafar xorijiy sayyohlarning 88 foizi musulmon mamlakatlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

2018-yilda uzoq xorij davlatlaridan 325 ming 827 nafar sayyoh O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qilgan va ularning 35 foizi, ya’ni 115 ming 621 nafari musulmon sayyohlar bo‘lgan. 2019-yilda musulmon sayyohlar soni jami uzoq xorij mamlakatlaridan kelgan sayyohlar soniga nisbatan 34 foizni tashkil qilgan.

2021-yil 9-fevraldagi prezident farmoniga ko‘ra, 2021-yil 1-martdan boshlab, Bahrayn, Qatar, Kuvayt, Ummon sultonligi fuqarolari 10 kungacha vizasiz rejim tizimi orqali O‘zbekistonda sayohat qilish imkoniyatiga ega bo‘ldi.

2019-yilning 21-23-fevral kunlari Buxoro shahrida o‘tkazilgan “Xalqaro ziyorat turizmi forumi”da O‘zbekistonni ziyorat turizmi markazlaridan biri sifatida e’tirof etish to‘g‘risida “Buxoro deklaratsiyasi” qabul qilingan.

Shu bilan birga respublika “Halal travel frontier” 2020 hisobotida islomiy merosni 2020 hisobotida islomiy merosni qayta tiklash orqali musulmonlar turizmi bozorida yangi trendga asos solgan mamlakat sifatida e’tirof etilgan.

XULOSALAR VA TAKLIFLAR

Madaniyat va turizm sohalarining mavjud muammolari va ularning yechimlari masalalari bugungi kunning dolzarb masalalari bo‘lib turibdi. Muammolarning yechishda rejali ishlarni amalga oshirmoqda. Bunda vakolatli organ “start-up” loyihalar, fundamental loyiha va amaliy loyihalar tanlovini o‘tkazmoqda. Mazkur loyihalarni moliyalashtirish ishlari olib borilmoqda. Jumladan, tematik mavzular bo‘yicha 2018-2022 yillarda 50 loyihaga 34,8 milliard so‘m ajratilgan. Shu yillar kesimida moliyalashtirilgan loyihalar soni 29 bo‘lib, umumiy miqdorda 18,0 milyard so‘mni tashkil qildi.

“Start-up” loyihalar tanloviga esa birgina 2020-yil uchun 1,5 milliard so‘m ajratilgan. Bundan 7 ta loyiha g‘olib bo‘lgan va 0,7 milliard so‘m moliyalashtirilgan. Bu ko‘rsatkich 2021-yilga kelib 0,8 milliard so‘mni tashkil etgan. Zamon talabiga mos turizm xizmatlarini ishlab chiqishni ko‘zlagan bu loyihalar g‘oliblar tomonidan amaliyotga tatbiq qilinmoqda.

Albatta, har bir sohada mavjud muammolarni bartaraf etishda faqat ilmiy tomondan yechim topgani kabi turizmni industriyasini rivojlantirishda ilmiy sohalariga e’tibor qaratish lozim.

Bunda ilmiy ishda xulosalar va takliflar berib o‘tilgan:

- madaniyat va turizm sohalarida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan buyurtmalar portfelini shakllantirish.
- yosh olimlarning xorijiy ta’lim va ilmiy tadqiqot markazlari bilan aloqa o‘rnatishiga amaliy yordam berish.
- OTM va ITMlarni ilmiy, innovatsion salohiyatini oshirish o‘quv kurslari, seminarlar tashkil etish.
- olimlarning ilmiy-innovatsion loyihalardagi ishtirokini oshirish
- ilmiy va innovatsion loyihalarni ikki barobarga ko‘paytirish
- olimlarning ilmiy-innovatsion loyihalardagi ishtirokini oshirish.
- xorijiy markazlar, yetuk mutaxassislarni jalb qilgan holda master klasslar tashkil etish.
- OTM va ITM larda tayanch doktarantura kvotalarini oshirish.

Ushbu yechimlarni amaliyotga tatbiq etish rivojlanishga qadam tashlash hisoblanadi. Respublikamizda turizm sohasi yo‘nalishida 26,5% ilmiy darajaga ega mutaxasislar ishlab kelmoqda va sohalardagi OTM va ITMlarning ilmiy loyihalar tanlovlarida ishtirok etish tajribasi yetarli emas. Vakolatli davlat organining bevosita kafedralar bilan loyihalar ustida ishlash markazini tashkil etish ham maqsadga muofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar va internet resurslar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi”.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 07-fevraldagi PQ-3514-son qarori “O‘zbekiston bo‘ylab sayyohat qil!” ichki turizmni rivojlantirish dasturi.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-apreldagi PQ-232-son “Ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori.
4. Dehqonov Burxon Rustamovich. “Ichki turizmni rivojlanlantirishda davlatning o‘rni” yashil iqtisodiyot va taraqqiyot (ISSN: 2992-8982) 2023-yil, oktyabr. № 10-son.
5. Rustamovich D. B. Quality And Safety Of Public Catering Services In Uzbekistan //European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630)(2021/5/23). – С. 19-23.
6. B. R. Dehqonov. “Ichki turizmni ta’riflashda bo‘lgan qarashlar va turizm shakllarini o‘z ichiga olgan bog‘liqliklar” Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi: ilmiy jurnal. - №4-1 (88), Xorazm Ma’mun akademiyasi, 2022-y. – 81 b.
7. Rustamovich Dehkonov Burhon. “Analysis of the Development of Tourism in Uzbekistan”. Journal of International Business Research and Marketing 5.6 (2020): 28-33.
8. Rustamovich Dehganov Burkhan. “Financing Domestic Tourists And Export Of Tourism Services”. Fan, ta’lim, madaniyat va innovatsiya jurnali| journal of science, education, culture and innovation 2.3 (2023): 35-37.
9. https://uzbektourism.uz/service/opendata
10. https://uzbektourism.uz/service/opendata?id=1
11. https://uzbektourism.uz/research/statistics

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

SOLIQQA TORTISH MAQSADIDA KADASTR QIYMATLARINI ANIQLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

Kamilov Abror Anvarovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada respublikamizda so‘nggi yillarda mamlakatda soliqqa tortish maqsadida kadastr qiymatlarini aniqlash mexanizmlarini takomillashtirishdan samarali foydalanish masalalari tahlil qilingan. Shu bilan birga, soliq idoralari tomonidan soliq ma’murchiligi instrumentlaridan foydalanish orqali kadastr qiymatlarini aniqlash va huquqbuzarliklarni bartaraf etish, soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash sxemalarini o‘z vaqtida oshkor qilish chora-tadbirlarini amalga oshirish, soliq ma’murchiligining yanada optimallashtirish, qonun hujjatlaridagi qaramaqarshiliklarni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy-amaliy xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: budjet siyosati, inqiroz, budjet, soliq ma’murchiligi, tadbirkorlik subyektlari, soliq hisoboti, soliq tushumlari, soliq imtiyozlari, soliq, soliq stavkasi, preferensiyalar, mahalliy soliq, mulkning bozor qiymati, ko‘chmas mulk, kadastr qiymati, shaxsiy kartochka, soliq elementlari.

Abstract: This article discusses the issues of effective use of improving mechanisms for determining cadastral value for tax purposes in our republic in recent years, as well as the implementation of measures to determine cadastral value by tax authorities using tools for tax administration and elimination of violations, timely disclosure of tax evasion schemes, tax scientific and practical conclusions and proposals for further optimization of administration, elimination of contradictions in legal documents.

Key words: budget policy, crisis, budget, tax administration, business entities, tax report, tax revenue, tax benefits, tax, tax rate, preferences, local tax, market value of property, real estate, cadastral value, personal card, tax elements

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы эффективного использования совершенствования механизмов определения кадастровой стоимости для целей налогообложения в нашей республике за последние годы, а также реализации мероприятий по определению кадастровой стоимости налоговыми органами с использованием Разработаны инструменты налогового администрирования и устранения нарушений, своевременного раскрытия схем уклонения от уплаты налогов, налоговые научно-практические выводы и предложения по дальнейшей оптимизации администрирования, устранению противоречий в правовых документах.

Ключевые слова: бюджетная политика, кризис, бюджет, налоговое администрирование, субъекты хозяйствования, налоговая отчетность, налоговые поступления, налоговые льготы, налог, налоговая ставка, преференции, местный налог, рыночная стоимость имущества, недвижимость, кадастровая стоимость, личная карта, налоговые элементы.

KIRISH

Bugungi kunda dunyoda yer solig‘i ma’muriyatchiligini ta’minlash bo‘yicha bugungi kunda soliq amaliyotining raqamli platformalariga o‘tish, soliq xizmati organi xodimlari malakasini oshirish uchun sarmoya kiritish, aholi o‘rtasida yer solig‘ini to‘lashning ahamiyati va uning jamiyatga keltiradigan foydalari haqida tushuntirish ishlarini olib borish, huquqiy asoslarini isloh qilish, qolaversa, Jahon Banki va Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi kabi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorliklar o‘rnatishga oid ilmiy tadqiqotlar dolzarb vazifaga aylangan.

ADABIYOTLAR SHARHI

A.Smit yerlarni soliqqa tortishda “ikki qismga ajratgan holda soliq solish lozimligini, bunda birinchi toifadagi yerlar qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan yerlar bulsa, ikkinchi toifadagisi unumdor(rivojlangan) yerlarga soliq solish. U yerni soliqqa tortish qulayligini, chunki soliq yuki soliq to‘lovchining daromadiga tushadi va tovar narxiga qo‘shilib iste’molchidan undirilmasligini ijobiy, deb baholaydi” [1].

D.Rikardo “yer solig‘i (rentasi) mahsulot yaratishga ketgan turli xil xarajatlarni qoplangandan keyin qolgan mablag‘, yer(rentasi) daromadidan soliqlar iqtisodiyotga salbiy ta’sir ko‘rsatmaydi, chunki bunday soliq ishlab chiqarishga to‘sqinlik qilmaydi”, deya ta’kidlaydi [2].

Lindholm, Bentick, Tideman, Wildasin kabi iqtisodchilar esa “yer qiymatidan soliqqa tortish talabdorlari uning qator yaxshi tomonlari borligini ta’kidlaydilar, birok ular yerdan qanday tartibda foydalanishlariga e’tibor qaratishmadi” [3].

Lindholm va Duglas o‘z tadkikotlari davomida shunday ta’kidlashgan: “Yer uchun ijarani ikki turi mavjud, birinchi navbatda mavjud yerdan samarali foydalangan holda qancha daromad olishi mumkinligidan qilib chiqadigan miqdor, ikkinchisi esa ijaraga berilayotgan hududning xarajatlaridagi yetishmovchilikdan kelib chiqib belgilanadi. Ko‘plab hollarda yer bepul ekanligini ta’kidlab, unda yetishtiriladigan mahsulotlarning qiymatini ishlab chiqarish va mazkur ishlab chiqarishda uskunalarga qilingan xarajatlar qiymati bilan belgilanadi” [4].

Gobbsning siyosiy-falsafiy asarida Resurs soliqlar va uning hisobini yuritilishiga alohida e’tibor qaratilgan. Uning fikriga ko‘ra, resurs soliqlar – hududlarda istiqomat qiluvchi insonlar uchun hamda bevosita jamiyat va uning tinchligini sotib olinadigan baho bo‘lib hisoblanadi” [5].

Professor J.Heinrich “yer solig‘i va ularning stavkalarini tizimlashtirish-soliq qonunchiligi, davlat qonunlari, sohaga oid boshqa qonunlar, xususan, xalqaro qonunlar bilan o‘zaro aloqadorligini ta’kidlaydi. Natijada, soliqqa tortish maydoni nafaqat soliq qonunchiligiga, balki boshqa qonunchilik sohalari uchun ham tartibga soluvchi soha bo‘lishi mumkin. Shuning uchun ham yer solig‘i stavkalarini va uni joriy etishda boshqa qonun hujjatlariga ta’sir etib qo‘yishni ularga mutanosib ravishda ishlab chiqilishini ta’kidlaydi” [6].

S.Bard va L.Pavlovalarning fikriga ko‘ra, “renta to‘lovlarining xususiyati shundan iboratki, ularni joriy qilish yer resurslardan daromad olishni ko‘zlamasdan, balki umumxalq mulki obyektlaridan oqilona foydalanishni rag‘batlantirishi lozim deb ta’kidlaydi. Renta daromadlari tabiat in’omi bo‘lib, jamiyat umumiy infratuzilmasini rivojlantirishga xizmat qilishi, jamiyatning har bir a’zosi undan teng ulushli ravishda foydalanishlari lozimligini keltirib o‘tadi” [7].

A.Qayimov, A.R.Bobojonovlar “Yerni har tomonlama yaxshilash, uning unumdorligini va iqtisodiy samaradorligini doimo oshirib borish – bu birinchi galda, qishloq xo‘jaligini yuritishning ilmiy tizimi asoslari va yerdan yuqori mahsuldorlik bilan foydalanishdir. Shu jihatdan ham yerdan to‘g‘ri foydalanishni tashkil etishga yo‘naltirilgan davlat yer kadastri, yer tuzish, yer monitoringi, yer huquqi, ayniqsa, yer solig‘idan foydalanishni davlat nazoratini o‘rnatish kabi tadbirlarning tub mohiyatini bilish va ularga rioya qilish katta amaliy ahamiyatga ega bo‘ladi” [8].

Rossiyalik olimlardan Drojjina I.A. o‘zining qarashlarida yuridik shaxslarning mol-mulk solig‘i, jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i va yer solig‘ini birlashtirib ko‘chmas mulk solig‘i joriy etishni taklif qilgan [9].

Mixina Ye.V. o‘zining qarashlarida ko‘chmas mulk solig‘ini joriy qilishning mahalliy budjet daromadlari bazasiga ta’sirini tahlil qilib tegishli tavsiyalarni bergan [10].

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan olimlarning qarashlarida axolining ijtimoiy kam daromad oladigan qatlami yetarlicha inobatga olinmagan deb hisoblaymiz. Loginova T.A. o‘zining ilmiy qarashlarida ko‘chmas mulkni joriy qilish va uni amaliyotga joriy qilishda aholining ijtimoiy qatlamini inobatga olish lozimligini qayd qilib o‘tgan [11].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada qiyosiy tahlil hamda induksiya va deduksiya baholash usullaridan foydalanildi. Qiyosiy usuldan foydalanilib, kadastr qiymatlarini aniqlash mexanizmlarini takomillashtirishga doir ma’lumotlar va ularni tahlillar amalga oshirilib ilmiy xulosalar berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Mamlakatimizda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 8-iyundagi “Yer munosabatlarida tenglik va shaffoflikni ta’minlash, yerga bo‘lgan huquqlarni ishonchli himoya qilish va ularni bozor aktiviga aylantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6243-sonli Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida qabul qilingan hisoblanib, O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi, Davaktiv agentligi qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalari uchun yuridik va jismoniy shaxslardan undiriladigan yer solig‘i stavkalari ma’lumotlar bazasining kadastr raqami bo‘yicha “Yerxususiylasntirish” AAT bilan integratsiya qilinishi belgilab qo‘yildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-yanvardagi “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarda monitoring ishlarini amalga oshirish, yerlarni muhofaza qilish va yer tuzish faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida” gi 22-sonli qarori ham yerlardan oqilona foydalanishni tartibga solishdagi muxim qaror sanalib, unga muvofiq quyidagilar tasdiqlandi:

- qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar va ekin maydonlarida monitoring ishlarini amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizom;
- qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarni muhofaza qilish bo‘yicha davlat nazoratini amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizom;
- qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarda yer tuzish ishlarini amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizom;
- “O‘zdaverloyiha” davlat ilmiy-loyihalash instituti faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish bo‘yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar rejasi[1].

1 https://www.norma.uz/qonunchilikda_yangi/qishloq_hujaligiga_muljallangan_erlarda_monitoring_qanday_amalga_oshiriladi

Qolaversa, hujjatlar bilan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar va ekin maydonlari monitoringi Milliy geografik axborot tizimidagi davlat yer kadastrining qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar bo‘yicha yer turlari, maydoni, yer egalari, yerdan foydalanuvchilar va ijarachilar to‘g‘risidagi ma’lumotlari asosida amalga oshirish nazarda tutilgan.

Soliqqa tortish maqsadida kadastr qiymatlarini aniqlash mexanizmlarini takomillashtirish mol-mulkka soliq solishning aniqligi, adolatliligi va samaradorligini oshirishga qaratilgan bir qancha vazifalarni o‘z ichiga oladi. Xususan, mulklar, jumladan, jismoniy xususiyatlar, joylashuv, erdan foydalanish va bozor qiymatlari bo‘yicha to‘liq ma’lumotlar to‘planishini ta’minlash. Kadastr xaritasi va chegara ta’rifi: To‘g‘ri kadastr xaritalarini ishlab chiqish va mulkni soliqqa tortishning fazoviy asoslarini yaratish uchun mulk chegaralarini aniqlash. Bu yer uchastkalarini o‘rganish, chegaralarni belgilash va kadastr yozuvlarini yuritishni o‘z ichiga oladi. Solishtirma sotish, daromad olish salohiyati va xarajat yondashuvlari asosida mulk qiymatini baholash uchun bozor tahlili. Bozor tendensiyalari, mulk xususiyatlari va joylashuv omillarini hisobga oladigan baholash modellari va algoritmlarini ishlab chiqish. Turli hududlar va mulk turlari bo‘yicha izchillik va adolatni ta’minlash uchun mulkni baholash bo‘yicha standartlashtirilgan tartib va ko‘rsatmalarni o‘rnish. Bunga baholash metodologiyalarini, baholash mezonlarini va sifat nazorati choralarini belgilash kiradi. Kadastr ma’lumotlarini erdan foydalanish yozuvlari, qurilish ruxsatnomalari va mulkiy bitimlar kabi boshqa tegishli ma’lumotlar to‘plamlari bilan integratsiyalash. Davlat organlari, soliq organlari va mulkni baholashda ishtirok etuvchi manfaatdor tomonlar o‘rtasida ma’lumot almashishni osonlashtirish. Mulkni baholash jarayonida manfaatdor tomonlarni, jumladan, mulk egalari, sanoat birlashmalari va mahalliy hamjamiyatlarni jalb qilish. Mulkni baholash samaradorligi va aniqligini oshirish uchun Geografik Axborot Tizimlari (GIS), masofaviy zondlash va mashinani o‘rganish algoritmlari kabi texnologiyalardan foydalanish. Ma’lumotlarni tahlil qilish, modellashtirish va vizualizatsiya qilish uchun innovatsion yondashuvlarni o‘rganish. Mulkni baholash bilan shug‘ullanuvchi baholovchilar, baholovchilar va soliq xodimlari uchun o‘quv dasturlari va salohiyatni oshirish tashabbuslariga sarmoya kiritish. Paydo bo‘lgan muammolar va ilg‘or tajribalarni hal qilish uchun mulkni soliqqa tortish va baholashni tartibga soluvchi huquqiy va me’yoriy bazani ko‘rib chiqish. Milliy qonunlar, qoidalar va xalqaro standartlarga muvofiqligini ta’minlash. Kadastr baholash jarayonlarining samaradorligi va samaradorligini baholash uchun samaradorlik ko‘rsatkichlari va monitoring mexanizmlarini yaratish. Yaxshilanishi kerak bo‘lgan yo‘nalishlarni aniqlash va javobgarlikni ta’minlash uchun muntazam ravishda baholash, audit o‘tkazish. Ushbu vazifalarni hal etish orqali soliq organlari soliqqa tortish maqsadlarida kadastr baholashning ishonchliligi, shaffofligi va adolatliligini oshirishi, pirovardida mol-mulkni soliqqa tortish tizimlari samaradorligini oshirishi mumkin.

Soliqqa tortish maqsadlarida kadastr qiymatlarini aniqlash mexanizmlarini takomillashtirish strategiyasi aniqlik, adolatlilik va samaradorlikni oshirishga qaratilgan kompleks yondashuvni nazarda tutadi.

Mulk ma’lumotlarini, jumladan, jismoniy xususiyatlar, erdan foydalanish va bozor qiymatlarini to‘plash va yangilash uchun tizimli yondashuvni o‘rnatish. Xususiyatlar to‘g‘risida aniq va dolzarb ma’lumotlarni to‘plash uchun geografik axborot tizimlari (GIS) va masofadan zondlash kabi ilg‘or texnologiyalardan foydalanish.

Baholash usullarini standartlashtirish: Mulkni baholashda izchillik va adolatni ta’minlash uchun standartlashtirilgan baholash usullari va tartiblarini ishlab chiqish. Bozor taqqoslash, daromad yondashuvi va xarajat yondashuvi asosida mulk qiymatini baholash uchun aniq ko‘rsatmalarni belgilash.

Bozor tahlili va tadqiqoti: Mulk tendensiyalarini, bozor dinamikasini va mulk qiymatiga ta’sir etuvchi talab-taklif omillarini tushunish uchun muntazam bozor tahlilini o‘tkazish. Mulkni baholash modellari va metodologiyalarini xabardor qilish uchun bozor ma’lumotlaridan va taqqoslashdan foydalanish.

Ma’lumotlar manbalarining integratsiyasi: Kadastr ma’lumotlarini erdan foydalanish yozuvlari, qurilish ruxsatnomalari va mulkiy operatsiyalar tarixi kabi boshqa tegishli ma’lumotlar to‘plami bilan integratsiyalash. Ma’lumotlarning aniqligi va to‘liqligini oshirish uchun davlat idoralari, soliq organlari va ko‘chmas mulk bo‘yicha mutaxassislar o‘rtasida hamkorlik va ma’lumot almashishni rivojlantirish.

Manfaatdor tomonlarning ishtiroki va ishtiroki: Baholash jarayoniga manfaatdor tomonlarni, jumladan mulk egalarini, sanoat birlashmalarini va jamoatchilik vakillarini jalb qilish. Baholash usullarining shaffofligi va maqbulligini yaxshilash uchun fikr-mulohazalar, ma’lumotlar jamlash.

Texnologiyani qabul qilish va innovatsiyalar: Mulkni baholash jarayonlarini yaxshilash uchun sun’iy intellekt, mashinani o‘rganish va katta ma’lumotlar tahlili kabi texnologiyalardan foydalanish. Aniqlik va samaradorlikni oshirish uchun ma’lumotlarni tahlil qilish, modellashtirish va vizualizatsiya qilish uchun innovatsion yondashuvlarni o‘rganish.

Sifat nazorati va kafolati: Kadastr baholarining to‘g‘riligi va ishonchliligini tekshirish uchun mustahkam sifat nazorati choralarini amalga oshirish. Baholash natijalaridagi har qanday nomuvofiqlik yoki xatolarni aniqlash va bartaraf etish uchun muntazam tekshiruvlar, ko‘rib chiqishlar va baholashlarni o‘tkazish.

Normativ-huquqiy baza: Eng yaxshi amaliyotlar va rivojlanayotgan tendensiyalarga mos kelish uchun mulkni soliqqa tortish va baholashni tartibga soluvchi huquqiy va me’yoriy bazani ko‘rib chiqish. Milliy qonunlar, qoidalar va mulkni baholash bilan bog‘liq xalqaro standartlarga rioya qilishni ta’minlanadi.

Ish faoliyatini baholash va monitoringi: Kadastr baholash jarayonlarining samaradorligi va samaradorligini baholash uchun ishlash ko‘rsatkichlari va monitoring mexanizmlarini yaratish. Doimiy takomillashtirish uchun baholashning to‘g‘riligi, o‘z vaqtidaligi va soliq to‘lovchining qoniqishi kabi asosiy ko‘rsatkichlarni kuzatib borish. Ushbu strategiyalarni amalga oshirish orqali soliq organlari soliqqa tortish maqsadlarida kadastr baholashning ishonchliligi, shaffofligi va adolatliligini oshirishi, natijada mol-mulkni soliqqa tortish tizimining samaradorligini oshirishi mumkin.

Keling soliqqa tortish maqsadlarida kadastr qiymatlarini aniqlash mexanizmlari odatda ko‘chmas mulk obyektlarining qiymatini to‘g‘ri baholashga qaratilgan usullar va jarayonlarning kombinatsiyasini ko‘rib chiqsak.

Bu usul obyekt mulkini yaqinda bir xil yoki o‘xshash joyda sotilgan o‘xshash mulk bilan solishtirishni o‘z ichiga oladi. Taxminiy qiymatga erishish uchun o‘lcham, yosh, holat va qulayliklar kabi mulk xususiyatlaridagi farqlarga tuzatishlar kiritiladi.

Daromad yondashuvi mulkdan olinadigan daromadni, masalan, ijara daromadi yoki mulkni ijaraga berish yoki ishlatishdan olinadigan daromadni hisobga oladi. Qiymat mulk turiga va bozor sharoitlariga mos keladigan kapitalizatsiya stavkasi yoki diskont stavkasidan foydalangan holda sof daromad oqimini kapitallashtirish orqali aniqlanadi.

Xarajat yondashuvi amortizatsiya va eskirishni hisobga olgan holda mulkni almashtirish yoki qayta ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olgan holda mulk qiymatini baholaydi. Ushbu usul ko‘pincha bozor ma’lumotlari cheklangan bo‘lishi mumkin bo‘lgan yangi yoki noyob mulklar uchun qo‘llaniladi.

To‘g‘ri kadastr xaritalash va o‘lchash mulk chegaralarini aniqlash va er va inshootlarning jismoniy xususiyatlarini aniqlash uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu ma’lumotlar mulkni baholash va soliqqa tortish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Ilg‘or ma’lumotlarni tahlil qilish usullari va modellashtirish vositalari bozor ma’lumotlarini, mulkiy xususiyatlarni va baholash omillarini tahlil qilish uchun ishlatiladi. Statistik usullar, regressiya tahlili va geografik axborot tizimlari mulk qiymatlarining naqshlari va tendensiyalarini aniqlash uchun ishlatiladi.

Malakali baholovchilar va baholovchilar mulkning holati, sifati va sotilishini baholash uchun joyida tekshiruvlar va baholashlar o‘tkazishlari mumkin. Ularning tajribasi va mulohazalari mulk qiymatini aniqlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Baholash jarayonida foydalaniladigan mulk ma’lumotlarining aniqligi va ishonchliligini ta’minlash uchun qattiq ma’lumotlarni tekshirish va sifatni ta’minlash tartib-qoidalari amalga oshiriladi. Bu bir nechta manbalardan olingan ma’lumotlarni o‘zaro bog‘lash, mulk yozuvlarini tekshirish va dala tekshiruvlarini o‘tkazishni o‘z ichiga oladi.

Ba’zi yurisdiksiyalarda mulk egalari o‘z mulklarining baholangan qiymatini jamoatchilik muhokamasi yoki ko‘rib chiqish jarayonlari orqali kiritish yoki e’tiroz bildirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu baholash jarayonida shaffoflik va javobgarlikni ta’minlaydi. Umuman olganda, soliqqa tortish maqsadlarida kadastr qiymatlarini aniqlash mexanizmlari mulk qiymatini to‘g‘ri baholash va mulkka soliq solishda adolatni ta’minlash uchun tahliliy, texnik va tartibga solish jarayonlarining kombinatsiyasini talab qiladi.

Soliqqa tortish maqsadlarida kadastr qiymatlarini aniqlash mulk egalariga ham, umumiy soliq tizimiga ham bir qancha ta’sir ko‘rsatadi. Kadastr qiymatlari mulk egalari to‘lashi kerak bo‘lgan mol-mulk solig‘i miqdoriga bevosita ta’sir qiladi. Yuqori baholangan qiymatlar odatda ko‘proq mulk solig‘i majburiyatlarini keltirib chiqaradi, pastroq qiymatlar esa pastroq soliq majburiyatlariga mos keladi. Kadastr qiymatlarini to‘g‘ri aniqlash mol-mulkni soliqqa tortishda adolat va adolatni ta’minlash uchun muhimdir. Ko‘chmas mulk egalari o‘rtasida soliq yuklarining nomutanosibligini oldini olish uchun o‘xshash xususiyatlar va bozor qiymatiga ega bo‘lgan mulklar xuddi shunday baholanishi kerak. Kadastr qiymatlari mahalliy hokimiyatlar va munitsipalitetlar uchun mulk solig‘i orqali olinadigan daromad miqdoriga ta’sir qiladi. Yuqori baholangan qiymatlar davlat xizmatlari va infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish uchun foydalaniladigan soliq tushumlarining oshishiga olib keladi. Kadastr qiymatlari mulk egalarining mulkni rivojlantirish va investitsiyalar bo‘yicha qarorlariga ta’sir qiladi. Yuqori baholangan qiymatlar ko‘chmas mulk egalarini daromadlarini maksimal darajada oshirish uchun mulklarini rivojlantirishga undashi mumkin, pastroq qiymatlar esa investitsiyalarni kamaytiradi. Kadastr qiymatlarini aniqlash ko‘chmas mulk narxlari va investitsiya tendensiyalariga ta’sir qilish orqali mulk bozori dinamikasiga ta’sir qiladi. To‘g‘ri baholash amaliyoti bozor barqarorligi va shaffofligiga hissa qo‘shadi, xaridorlar va sotuvchilar o‘rtasida ishonchni kuchaytiradi. Mulk egalari o‘z mulklarining baholangan qiymatidan kelib chiqqan holda soliq qonunlari va qoidalariga rioya qilishlari shart. Mol-mulk solig‘i bo‘yicha majburiyatlarning bajarilishini ta’minlash va soliq to‘lashdan bo‘yin tovlashning oldini olish uchun samarali ijro mexanizmlari zarur. Kadastr qiymatlari mulk egalari uchun soliq imtiyozlari, davlat yordam dasturlariga muvofiqlik va mulkiy bitimlar va moliyalashtirishga mumkin bo‘lgan ta’sirlar kabi huquqiy va tartibga soluvchi ta’sirga ega. Umuman olganda, soliqqa tortish maqsadlarida kadastr qiymatlarini aniqlash mol-mulk solig‘i siyosatini shakllantirish, daromadlarni shakllantirish, iqtisodiy rivojlanish va soliq tizimini jamoatchilik tomonidan idrok etishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Soliq organlari uchun ushbu kerakli natijalarga erishish uchun baholash jarayonida aniqlik, adolatlilik va shaffoflikni ta’minlash juda muhimdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuridik shaxslar tomonidan mol-mulkni bozor bahosiga yaqinlashgan soliq hisoblash tizimini joriy qilish maqsadida, yuridik shaxslarning mol-mulk obyektini joylashuviga qarab soliq bazasini aniqlashda 1 kv. metr uchun mulkning eng kam qiymatlarini belgilash lozim. Rivojlanshgan davlatlar tajribasidan kelib chiqib, mol-mulk va yer soliqlarini birlashtirib ko‘chmas mulk solig‘ini joriy etish. Buning natijasida soliqni hisoblab chiqarish mexanizmi soddalashadi, adolatlilik, shaffoflik prinsipi ta’minlanadi. Soliqni hisobini yuritish, to‘lash jarayoni soddalashib uning xarajatlari kamayadi. Dasturiy maxsulotda ishlash tezligi oshadi. Jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan mol-mulk yoki yer solig‘idan qarzdorlik mavjud ortiqcha to‘lovlar hisobidan kamayadi.

Adabiyotlar/Литература/Reference:

1. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi- Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyot uyi 2020.- 640 b.
2. Smith, A., (1776), The Wealth of Nations, Book 1. Lond. Methuen Co.
3. Ricardo, D. (1817), ‘The Principles of Political Economy and Taxation’, Dutton, New York.
4. Wildasin, D.E. (1982), ‘More on the Neutrality of Land Taxation’, National Tax Journal, vol. 35, no. 1, pp. 105-108.
5. Lindholm, R.W. (1965), ‘Land Taxation and Economic Development’, Land Economics, vol. 41, pp. 121-130.
6. Гоббс, Томас / Б. Э. Быховский // Газлифт – Гоголево. – М. Советская энциклопедия, 1971. – (Большая советская энциклопедия : [в 30 т.] / гл. ред. А. М. Прохоров ; 1969–1978, т. 6).
7. Jörg Heinrich ab 01.07.2015 neuer Trainer” (in German). FSV 63 Luckenwalde. Archived from the original on 26 June 2015. Retrieved 26 May 2015.
8. Барда С. ва Павловой Л. (2004) Налоги и условиях экономической интеграции. М:КНОРУС.2004-с.63.
9. A.Qayimov, A.R.Bobojonov. Yer resurslarini boshqarish va unumli foydalanishda mevali ekinlarning xilmaxil navlarini joylashtirish. –T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, –2020, –76 bet.
10. Дрожжина И.А. Формировани систем налогообложени объектов недвижимости на основе дифференцированног подхода. I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan diss. avtoreferati. –O.:2005. –b.12.
11. Михина Е.В. Налог на недвижимость и перспективы его развития в регионе. I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan diis. avtoreferati. –M.:2005 y. –b.-6.
12. Логинова Т.А. Стратегия развития налогообложения недвижимого имущества в Российской Федерации. I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan diis. avtoreferati. –M.:2018y–b. 7.
13. Normurzayev U.X. “O‘zbekistonda soliq siyosatini takomillashtirish bo‘yicha tahlil va taklif” Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil 1 (7), 329-336. https://doi.org/10.60078/2992-877X-2023-vol1-iss7-pp329-336
14. Normurzayev U.X. “ O‘zbekistonda soliq siyosatini takomillashtirish va uning barqarorligini ta’minlash yo‘llari.” https://doi.org/10.60078/2992-877X-2023-vol1-iss6-pp177-182
15. Normurzayev U.X. “O‘zbekistonda 2024-yilgi soliq qonunchilik hujjatlariga kiritilgan asosiy o‘zgarishlar tahlili” https://doi.org/10.60078/2992-877X-2024-vol2-iss2-pp522-53

O‘ZBEKISTONDA UYLARNING ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Dodiyev Fozil O‘tkurovich
I.f.n., dotsent, Toshkent Kimyo halqaro universiteti “Bank ishi va buxgalteriya hisobi” kafedrasi mudiri

Annotatsiya: Ushbu maqola BMTning Taraqqiyot dasturi, Global ekologik jamg‘arma hamda O‘zbekiston Respublikasi qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining “O‘zbekistonda energiya samarador qishloq uylarini qurilishini rivojlantirishga ko‘maklashish” qo‘shma loyihasi doirasida tayyorlangan. Maqolada mamlakatimiz uy-joy sektorida qayta tiklanuvchi energiya manbalari va energiya tejovchi texnologiyalardan foydalanishning zarurligi va uning uylarning energiya samaradorligini oshirishdagi roli ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: uy-joy, energiya samaradorlik, quyosh elektr stansiyasi, quyosh suv isitgichi, yashil kredit, subsidiya.

Abstract: This article was prepared in the framework of the joint project of the UN Development Program, the Global Environmental Fund and the Ministry of Construction and Housing and Communal Economy of the Republic of Uzbekistan “Supporting the development of the construction of energy-efficient rural houses in Uzbekistan”. The article shows the necessity of using renewable energy sources and energy-saving technologies in the housing sector of our country and its role in improving the energy efficiency of houses.

Key words: housing, energy efficiency, solar power plant, solar water heater, green credit, subsidy.

Аннотация: Данная статья подготовлена в рамках совместного проекта Программы развития ООН, Глобального экологического фонда и Министерства строительства и жилищно-коммунального хозяйства Республики Узбекистан “Содействие в развитии строительства энергоэффективного сельского жилья в Узбекистане. В статье показана необходимость использования возобновляемых источников энергии и энергосберегающих технологий в жилищном секторе нашей страны и их роль в повышении энергоэффективности домов.

Ключевые слова: жилье, энергоэффективность, солнечная электростанция, солнечный водонагреватель, зеленый кредит, субсидия.

KIRISH

Bugungi kunda dunyo iqlimini o‘zgarishi jahon hamjamiyatini bezovta qilmoqda, chunki yer sharida o‘rtacha harorat XIX asr oxiridan beri 1,1 °C ga ko‘tarilgan. BMT hisob-kitobiga ko‘ra, agar asr oxiriga borib o‘rtacha global harorat 1,5 °C ga ko‘tarilsa, iqlim o‘zgarishi dunyoga 54 trillion dollarga tushishi mumkin. Ushbu iqlim o‘zgarishi issiqxona gazlarini chiqaradigan qazilma yoqilg‘ilarning (ko‘mir, neft va gaz) yonishi bilan bog‘liqdir.

Jahonda global isish keng qamrovli salbiy oqibatlarga olib kelmoqda. Xususan, muzliklar va quruqlikda qolib ketgan muzlar eriy boshladi, bu esa okeandagi umumiy suv miqdorini oshirib, dengizlar sathini ko‘tarmoqda. Bu okeanlardagi orol davlatlarni va dengizlar bo‘yichadagi shaharlarni suv ostiga qoldirishi mumkin. Bundan tashqari, ko‘plab hayvonot turlari yo‘q bo‘lib ketmoqda, qishloq xo‘jaligi yerlari cho‘lga aylanib, aholini oziq-ovqatlar bilan ta’minlash xavf ostida qolmoqda.

Global isish mamlakatimiz iqtisodiyotiga va aholining salomatligiga ham katta xafv tug‘dirmoqda. Shuning uchun ham respublikamizda iqlim o‘zgarishiga qarshi kurash muhim masala bo‘lib turibdi. Bunda issiqxona gazlarining chiqishini kamaytirishga alohida e’tibor berish lozim. Buning uchun mamlakatimiz uy-joy sektorida qayta tiklanuvchi energiya manbalari va energiya tejovchi texnologiyalardan foydalanishni faol joriy etish zarur. Chunki O‘zbekistonda jami chiqariladigan issiq gazlarning yarmi uy-joy sektoriga to‘g‘ri keladi. Tabiiy gazning 54%, elektr energiyaning 18% va issiqlik energiyaning 60% uy-joy sektori iste’mol qiladi. Shuningdek, respublikamizda uylarning energiyani iste’mol qilishi jahon ko‘rsatkichidan minimum 3 barobardan ortiqdir (1).

Uy-joy sektorida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish, uning energiya samaradorligini oshirish bir qator ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilish imkonini beradi. Jumladan, mamlakatimiz hududlarida energiya taqchilligini qoplash, aholini ekologik toza uy-joy bilan ta'minlash, ularning uy-joyni ta'mirlash xarajatlarini kamaytirish imkonini beradi. Shuningdek, ayollarning uyni isitish, tozalash, ovqat pishirish va oilaviy tashvishlari kamayadi. Eng muhimi moliyaviy mablag'larni tejash hisobiga aholining moliyaviy imkoniyatlari yaxshilanadi.

Mamlakatimiz uy-joy sektorida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish va uning energiya samaradorligini oshirish iqtisodiyot uchun muhim ahamiyatga ega. Buning natijasida respublikamizda issiq gaz chiqindisi kamayadi, yashil energetikadan foydalanish imkoniyatlari kengayadi va atrof muhit tozalanadi. Aholining turmush va salomatlik darajasi yaxshilanib, ijtimoiy muammolar yechiladi. Respublikamizda ekologik toza uy-joy qurilishi va u bilan bog'liq sohalar rivojlanadi. Shuningdek, yalpi ichki mahsulotning energiya sig'imi kamayadi, energetik va ekologik xavfsizlik darajasi oshiriladi. Ushbu holatlar O'zbekistonda uylarning energiya samaradorligini oshirishni taqoza etadi. Ushbu maqsadda BMTning Taraqqiyot dasturi, Global ekologik jamg'arma hamda O'zbekiston Respublikasi qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining "O'zbekistonda energiya samarador qishloq uylarini qurilishini rivojlantirishga ko'maklashish" qo'shma loyihasi amalga oshirilmoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

Mamlakatamizning "2030 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining Atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi"da atrof tabiiy muhit holatining sifatini yaxshilash maqsadida 2030 yilga qadar amalga oshirilishi zarur bo'lgan chora-tadbirlarga "elektr energiya ishlab chiqaradigan quvvatlarning umumiy tarkibida qayta tiklanadigan muqobil manbalar ulushini ko'paytirish hamda binolarning energiya samaradorligini oshirish sohasidagi chora-tadbirlarni, past uglerodli texnologiyalardan (issiqlik nasoslari, qayta tiklanadigan energiya manbalari) va xususiy xo'jaliklarda yanada toza yoqilg'i turlaridan foydalanishni rag'batlantirish" ko'rsatilgan (2).

Global energetikani yanada riojlantirishning asosiy tendensiyasi bo'lib qazib olinadigan energiya manbalarini ishlab chiqarish va yetkazib berish va narxlarni oshishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin bo'lgan uzilishlarning oldini olish, shuningdek, kafolatlangan energiya xavfsizligini mustahkamlash maqsadida qayta tiklanadigan energiya manbalarini kompleks rivojlantirish hisoblanadi (3). Haqiqatdan ham dunyoda qazib olinadigan energiya resurslari kamayib bormoqda, ularning narxlari oshib bormoqda, ayniqsa, bu jarayon keyingi Rossiya-Ukraina hamda Falastin-Isroil o'rtasidagi urush oqibatida yana tezlashdi. Bunday sharoitda mamlakatimiz uy-joy sektorida qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni rivojlantirish va ularni energiya samaradorligini oshirish lozim.

BMT Taraqqiyot dasturi bo'yicha O'zbekistondagi doimiy vakili bo'lgan Matilda Dimovska "Qazilma yoqilg'ilar sayyoramiz, insoniyat va iqtisodiyot uchun boshi berk ko'chadir. Qayta tiklanadigan energiyaga jadal ravishda va yaxshi boshqariladigan tarzda o'tish barcha uchun ochiq energiya xavfsizligi va dunyomizga zarur bo'lgan yashil ish o'rinlarini yaratish uchun yagona yo'ldir" deydi (4). Ushbu fikrga qo'shilgan holda, mamlakatimizda ham qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni rivojlantirish energiya xavfsizligini ta'minlagan holda yashil iqtisodiyotni rivojlantiradi. Ayniqsa, aholi salomatligini yaxshilaydigan ekologik uylarni qurishni rag'batlantiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda mamlakatimiz uy-joy sektorida qayta tiklanuvchi energiya manbalari va energiya tejovchi texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari tadqiq qilingan. Bunda tadqiqotni amalga oshirishning tahlil va sintez, umumlashtirish, abstrakt-mantiqiy va tanqidiy fikrlash, ekspert baholash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning uslubiy asosi bo'lib BMT Taraqqiyot dasturi ekspertlari, xorijiy va milliy olimlarning ilmiy izlanishlari, mamlakatimizning qayta tiklanuvchi energiya manbalari va energiya tejovchi texnologiyalardan foydalanishga doir me'yoriy xujjatlari hisoblanadi. Shuningdek, tahlilda O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, Tarmoqlararo energiyani tejash jamg'armasi, mahalliy kompaniyalar va uy xo'jaliklari ma'lumotlaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Mamlakatimiz uy-joy sektorida qayta tiklanuvchi energiya manbalari va energiya tejovchi texnologiyalardan foydalanish BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga ko'maklashadi. Ayniqsa, bu kambag'allikni qisqartirish (1-maqsad), salomatlik va farovonlikni oshirish (3-maqsad), gender tengligini ta'minlash (5-maqsad) va iqlim o'zgarishiga qarshi kurashda (13-maqsad) muhim rol o'ynaydi. Chunki uy-joylarni energiya samaradorligini oshirish aholi mablag'larini tejab, ularning moliyaviy ahvolini yaxshilaydi. Ekologik toza uylar aholi salomatligi va farovonligini oshiradi, issiqlik gazi chiqindisini kamayishi iqlim o'zgarishini kamaytiradi.

Enepgiyani qayta tiklanadigan manbalaridan foydalanish uy-joylarni energiya samaradorlik salohiyatini minimum 25% oshirishi mumkin. Devor va pollarni izolyatsiya qilish, radiatorlarni termoregulyator bilan ta'minlash kabi energiya tejovchi texnologiyalardan foydalanish uylarda tabiiy gazni iste'molini o'rtacha 25% kamaytiradi. Ekologik toza uylarda harorat holati va havo sifati yaxshilanadi, bu nafas olish kasalliklarini 9-20%ga, allergiya va astmalarni 18-20%ga kamaytiradi (1). Shuning uchun ham butun dunyoda qayta tiklanadigan energiya manbalari va energiya tejovchi texnologiyalardan foydalanish jadal sur'atlar bilan o'sib bormoqda.

Suv energiyasi – gidroelektr stansiyalari, to'lqin energiyasidan foydalanadigan stansiyalar
Shamol energiyasi – shamol elektr stansiyalari
Quyosh energiyasi – quyosh elektr stansiyalari
Biomassa energiyasi – elektr energiyasini qayta ishlashning juda xilma-xil usullari

1-rasm: Qayta tiklanadigan energiya manbalari turlari[1]

Oxirgi yillarda quyosh elektr stansiyalaridan foydalanish juda tez rivojlanmoqda, ularni o'rnatishning yillik o'sishi taxminan 60 foizni tashkil etadi. Shuningdek, qayta tiklanadigan energiyadan foydalanishning boshqa texnologiyalari ham yuqori sur'atlarda joriy etilmoqda. Xususan, shamol turbinalari – 28 foiz, bioyoqilg'i ishlab chiqarish – 25 foiz, quyosh isitish qurilmalari – 17 foiz, geotermal issiqlik ta'minoti – 13 foiz, kichik va mikro GESlar – 8 foizni tashkil etadi (5).

Uylarni energiya samaradorligini oshirish uchun ularni qurishda yoki ta'mirlashda energiya tejovchi texnologiyalardan foydalanish lozim. Aks holda uylarni isitish yoki sovutish uchun ko'p miqdorda energiya resurslari sarflanadi. Shuning uchun uy devorlari, pollari va tomlarini energiya tejovchi materiallar bilan izolyatsiya qilish, uylarga energiya tejovchi zamonaviy romlar va eshiklar o'rnatish lozim.

2-rasm: Energiya tejovchi texnologiyalar turlari

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan BMTning Taraqqiyot dasturi, Global ekologik jamg'arma hamda O'zbekiston Respublikasi qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining "O'zbekistonda energiya samarador qishloq uylarini qurilishini rivojlantirishga ko'maklashish" qo'shma loyihasining bosh maqsadi qishloq joylarida energiya tejovchi va kam uglerodli uy-joy qurishni rag'batlantirish hisoblanadi. Ushbu maqsadga erishish uchun yashil kreditlashni qo'llab-quvvatlash va unga talabni oshirish uchun moliyaviy mexanizmni joriy etish, shuningdek, aholining va uy-joy bozoridagi asosiy ishtirokchilarning energiya tejovchi va kam uglerodli uylarning afzalliklari haqida xabardorligini oshirish choralari ko'rilmoqda. Mazkur loyiha doirasida Global ekologik jamg'arma (GEF) 833,0 ming AQSH dollari miqdorida grant mablag'lari ajratgan bo'lib, ular asosan tijorat banklari tomonidan qayta tiklanadigan energiya manbalari va energiya tejovchi texnologiyalarni sotib olish uchun berilgan Yashil iste'mol kreditlar bo'yicha asosiy qarzning bir qismini qoplashga beriladi.

Odamlar uy-joy sektorida qayta tiklanuvchi energiya manbalari va energiya tejovchi texnologiyalardan foydalanishning samaradorligini tushungan taqdirdagina ularni joriy etishadi. Shuning uchun gibrid quyosh elektrostansiyasining hozirgi kunda samaradorligini tahlil qilib chiqamiz. Tahlil uchun gibrid quyosh elektrostansiya haqidagi ma'lumotlar energymarket.uz saytidan, uy xo'jaliklarining elektr energiyani ishlatishi bo'yicha ma'lumotlar esa ularni so'rov qilish asosida olindi.

1 Muallif tomonidan shakllantirilgan.

1-jadvaldagi tahlildan ko‘rinib turibdiki, hozirgi kunda 3 kVt gibrid quyosh elektrostansiyasining o‘rtacha narxi 40 mln. so‘m bo‘lib, 4 kishilik oilani elektr energiya bilan to‘liq va uzluksiz ta’minlaydi. Uni aholi bankning Yashil iste’mol kreditlari orqali sotib olsa, uning qiymatining 30 foizi miqdorida Global ekologik jamg‘arma grantlari hisobidan subsidiya beriladi. Aholi o‘rnatilgan quyosh elektrostansiyasining iste’moldan ortiqcha ishlab chiqargan elektr energiyasini hududiy elektr tarmog‘iga 1kVt 1000 so‘mdan sotishi mumkin. Tahlil natijasi ko‘rsatdigi, hozirgi sharoitda 3 kVt gibrid quyosh elektrostansiyasiga qilingan xarajatlar 12,2 yilda qoplanar ekan. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, oxirgi yillarda quyosh elektrostansiyalarining narxi kunda-kunga pasaymoqda, ammo elektr energiyaning bahosi oshmoqda. Ushbu tendensiya quyosh elektrostansiyalariga qilingan xarajatlarni qoplash muddati qisqartiradi.

Mutaxassislarning fikricha, odamlar ma’lum obyektga qilgan xarajatlari 5 yil ichida qoplansa, unga mablag‘ qo‘yishga qiziqar ekan.

1-jadval: Gibrid quyosh elektrostansiyasining samaradorlik tahlili[2]

Xarakteristikasi	Samaradorligi
Quvvati – 3 kVt	Global ekologik jamg‘armasi subsidiyasi – 30% (12 mln.so‘m)
Bahosi – 40 mln.so‘m	Subsiyadan keyingi bahosi – 28 mln. so‘m
Stansiyani uyni elektr energiya bilan ta’minlash imkoniyati:	Bankning yashil kreditiga sotib olish mumkin: muddati – 60 oy, stavkasi – 20%
10 lampochka, 1 muzlatkich, 1 televizor	Foiz summasi – 16,5 ming so‘m
1 shaxsiy kompyuter, 1 konditsioner	Qaytariladigan summa – 44,5 ming so‘m
4 kishidan iborat oilani elektr energiya bilan ta’minlaydi	4 kishidan iborat oilaning bir yillik elektr energiya iste’moli – 2200 kVt x 295co‘m=649 ming so‘m
Ishlash muddati – 25 yil	Qolgan elektr energiyani hududiy elektr tarmog‘iga sotish miqdori – 5200-2200=3000 kVt/soat 3000 x 1000 so‘m=3 000 0000 so‘m
Bir yilda o‘rtacha ishlab chiqadigan elektr energiyasi – 5200 kVt/soat	Quyosh elektr stansiya xarajatlarining qoplanish vaqti – 12,2 yil (44,5/(3,0+0,65)=12,2)

Aholini quyosh elektrostansiyasidan foydalanishining afzalliklari quyidagilardan iborat:

- quyoshdan olingan yorug‘likni elektr tokiga aylantirib beradi, vaholanki, quyosh bitmas-tuganmas energiya manbaidir;
- ekologik toza energiya bilan ta’minlanadi;
- uzoq muddat xizmat qiladi (25 yil):
- uzluksiz elektr energiya ta’minoti vujudga keladi;
- to‘liq avtonom tizim yaratiladi, uni elektr tarmog‘i yetib bormagan chekka qishloq, ovul, tog‘lar va cho‘llarga o‘rnatish mumkin;
- iqtisodiy jihatdan samarali hisoblanadi, ushbu ko‘rsatkich elektr energiyani tarifi ko‘tarilishi bilan yildan yilga oshib boraveradi.

Endi quyosh suv isitgichlari samaradorligini tahlil qilamiz. Chunki uy xo‘jaliklarida suv isitishga ko‘p miqdorda energiya resurslari sarflanadi. 2-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, 200 l hajmdagi quyosh suv isitgichninin hozirgi bahosi 11 mln. so‘mni tashkil etadi. Uning qiymatining 25 foizi miqdorida Global ekologik jamg‘arma grantlari hisobidan subsidiya beriladi, natijada ushbu suv isitgich aholi uchun u 8,25 mln. so‘mga tushadi. Quyoshli suv isitgich kuniga 8 soatdan ishlatilganda yil davomida 7300 kVt/soat elektr energiyani tejaydi, bu yil davomida oilani 2,153 mln. so‘m mablag‘lari tejaldi degani. Oqibatda quyoshli suv isitgichga sarflangan mablag‘lar 3,8 yilda qoplanadi.

Bunday hajmjagi quyosh suv isitgichi 5 kishilik oilani yuvinish va uyda issiq suv ishlatishiga mo‘ljalangan bo‘lib, u 20 yildan ortiq muddatga xizmat qiladi. Ushbu suv isitgichning qishda minimal xarorati +20 +50, yozda esa +80 +95 bo‘ladi.

2 Muallif tomonidan tayyorlandi.

2-jadval: Quyosh suv isitgichlari samaradorligining qiyosiy tahlili[3]

Quyosh suv isitgichi		Elektr suv ichitgichi (Ariston)	
Suv uchun idishning hajmi	200 l	Suv uchun idishning hajmi	200 l
O‘rnatish bilan bahosi	11 mln. so‘m	O‘rnatish bilan bahosi	8,5 mln.so‘m
GEF subsidiyasi	25% (2,75 mln.so‘m)	Subsidiya	Mavjud emas
Subsidiyadan keyingi bahosi	8,25 mln.so‘m	–	–
Elektr energiyani tejashi	2,5 kVt/soat	Elektr energiya xarajati	2,5 kVt/soat
Ishlash vaqti	8 soat	Ishlash vaqti	8 soat
Yil davomida elektr energiyani tejash	7300 kVt/soat	Yil davomida elektr energiya xarajati	7300 kVt/soat
Yil davomida tejalgan mablag‘	2 153 500 so‘m	Yil davomida mablag‘ xarajati	2 153 500 so‘m
O‘zini-o‘zi qoplash	3,8 yil	–	–

Endi esa issiqlikni tejovchi romlarning samaradorligini tahlil qilib chiqamiz. Ekspertlarning fikriga ko‘ra, oddiy loyiha asosida qurilgan uylar romlaridan 21% issiqlik yo‘qotildi. Shuning uchun ham uylarga termoizolyatsiyali romlarni o‘rnatish maqsadga muvofiqdir. Chunki bu nafaqat issiliqni, balki uzoq muddatda mablag‘larni ham tejash imkonini beradi.

3-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, oddiy romlarga nisbatan termoizolyatsiyali romlarning bahosi yuqori bo‘lib, 4 xonali uyda termoizolyatsiyali 5 ta rom uchun qo‘shimcha xarajatlar 540 dollarni tashkil etadi. Termoizolyatsiyali romlar o‘rnatilganda ularni qiymatining 15 foizi miqdorida Global ekologik jamg‘arma grantlari hisobidan subsidiya beriladi. Issiqlikni saqlash romlarini qo‘llash natijasida energiya iste’moli 21 % tejaladi yoki yilida oilaning 1,7 so‘mlik mablag‘lari iqtisod qilinadi. Bunday romlarga qilingan qo‘shimcha xarajatlar 3,7 yilda qoplanadi.

3-jadval: Issiqlikni tejovchi romlarning samaradorligi[4]

4-xonali qishloq qurilish uylari uchun termoizolyatsiyali romlar asosida hisoblangan (5 ta rom o‘rnatiladi, 1 ta rom hajmi 2,7 m2 (1,5 m-1,8 m)	
Oddiy romlarning 1 m2 bahosi 60 dollar Bitta rom bahosi 60 dollar x 2,7m^2 = 162 dollar	162 dollar x 5 ta rom =810 dollar
Termoizolyatsiyali romlar 1 m2 bahosi 100 dollar Bitta rom bahosi 100 dollar x 2,7m^2 = 270 dollar	270 dollar x 5 ta rom =1350 dollar
Romlar o‘rtasidagi farq yoki termoizolsiyali romlar uchun qo‘shimcha xarajat	540 dollar x 12 200 so‘m= 6 588 000 so‘m
GEF subsidiyasi miqdori 15% chegirgandan keyingi xarajat summasi	1 350 dollar – 202,5 dollar = 1 147,5 dollar (13 999 500 so‘m)
Amaldagi loyiha bo‘yicha uyni isitish va sovutishga sarflanadigan yillik energiya iste’moli	27 540 kVt/s
Issiqlikni saqlash romlarini o‘rnatish natijasida energiya iste’moli 21 % tejaladi	5 783,4 kVt/s *295 so‘m= 1 706 103 so‘m
O‘z-o‘zini qoplashi	Jami xarajat 8,2 yil Qo‘shimcha xarajat 3,7 yil

3 Muallif tomonidan tayyorlandi.
4 Muallif tomonidan tayyorlandi.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mamlakatimizda global isishning xafvini kamaytirish uchun issiqxona gazlarining chiqishini kamaytirish lozim. Buning uchun respublikamiz uy-joy sektorida qayta tiklanuvchi energiya manbalari va energiya tejovchi texnologiyalardan foydalanish orqali uning energiya samaradorligini oshirish zarur.

BMTning Taraqqiyot dasturi, Global ekologik jamg‘arma hamda O‘zbekiston Respublikasi qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining “O‘zbekistonda energiya samarador qishloq uylarini qurilishini rivojlantirishga ko‘maklashish” qo‘shma loyihasi doirasida ajratilgan grant mablag‘laridan aholi qayta tiklanadigan energiya manbalari va energiya tejovchi texnologiyalarni sotib olish uchun faol foydalanishi lozim. Bu uylarning energiya samaradorligini oshirish va uni aholiga ko‘rsatish uchun qulay moliyaviy sharoit yaratish imkoniyatidir.

Yuqoridagi ta’kidlangan loyiha doirasida hamkorlik qilayotgan tijorat banklari aholini qayta tiklanadigan energiya manbalari va energiya tejovchi texnologiyalarni sotib olishga yashil iste’mol kredit berishini va unga Global ekologik jamg‘arma grantlari hisobidan subsidiya berishini keng targ‘im qilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. ПРООН (2014г.), Энергоэффективность в зданиях: неиспользованные резерве для устойчивого развития Узбекистана.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktyabrdagi “2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining Atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5863-son Farmoni.
3. ВИЭ как фактор энергетической безопасности в современных условиях //Журнал “Экономическое обозрение”, №3(279) 2023, стр. 17.
4. BMT Taraqqiyot dasturining Mongoliyadagi doimiy vakili Matilda Dimovska. O‘zbekistonning uylarni yoritish va sanoatni yelektr yenergiyasi bilan ta’minlash bilan birga iqlim bilan bog‘liq maqsadlariga yerishish jarayoni. https://www.undp.org/uz/uzbekistan/blog/ozbekistonning-uylarni-yoritish-va-sanoatni-elektr-energiyasi-bilan-taminlash-bilan-birga-iqlim-bilan-bogliq-maqsadlariga-erishish. 22 aprel, 2023.
5. Zafar Soipov, TEM va MYOT uyushmasi, Elmurod Abdullayev, “SUN-HIGHTECH “ MCHJ. Kichik quyosh elektr stansiyalarining samaradorligi. https://anhor.uz/uz/news/kichik-ujosh-jelektr-stancijalarining-samaradorligi/ 7 avgust, 2023.

O‘ZBEKISTONDA TALANT MENEJMENTNI TATBIQ ETISH ISTIQBOLLARI

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti izlanuvchisi

Annotatsiya: Inson kapitalining ahamiyati oshayotgan globallashuv davrida inson resurslarini samarali boshqarish tashkilot uchun asosiy vazifa hisoblanadi. Kompaniya uchun iste’dodlarni topish, jalb etish va ularning kompetensiyalarini rivojlantirish raqobatbardoshlikning eng kuchli tomoniga aylandi. Ushbu harakatlar jamlanmasi talant menejmentida aks etadi. Xorijiy davlatlarda takomillashgan va o‘z o‘lchov usullariga ega ushbu boshqaruv turi hozirda istalgan intellektual kasbda muhimdir. Lekin, talant menejmenti O‘zbekistonda endi kirib kelayotgan boshqaruv usuli hisoblanadi. Maqolada talant menejmenti, uning modifikatsiyalari hamda talantni aniqlashning xorijiy usullari keltirilgan. Shuningdek, Yangi O‘zbekiston sharoitida talantni aniqlash uchun muallif tomonidan yaratilgan o‘lchov usullari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Talant, talant menejmenti, inson kapitali, HR, ish haqi, o‘lchov ko‘rsatkichlari, samaradorlik, salohiyat, raqobat.

Abstract: Effective management of human resources is a major challenge for organizations in the era of globalization, when the importance of human capital is constantly increasing. Finding, attracting and developing talent has become the company’s strongest competitive edge. This combination of actions is reflected in talent management. This type of management, developed in foreign countries and having its own measurement methods, is now important in any intellectual profession. However, talent management is still a new management method in Uzbekistan. The article presents talent management, its modifications, as well as foreign methods for identifying talent. Also presented are measurement techniques created by the author for identifying talents in the conditions of Uzbekistan.

Key words: Talent, talent management, human capital, HR, salary, metrics, productivity, potential, competition.

Аннотация: Эффективное управление человеческими ресурсами является основной задачей для организации в эпоху глобализации, когда значение человеческого капитала постоянно возрастает. Поиск, привлечение и развитие талантов для компании стало сильнейшим аспектом конкурентоспособности. Такое сочетание действий отражается на управлении талантами. Этот тип управления, разработанный в зарубежных странах и имеющий свои методы измерения, сейчас важен в любой интеллектуальной профессии. Однако, талант-менеджмент пока является новым методом управления в Узбекистане. В статье представлен менеджмент талантов, его модификации, а также зарубежные методы выявления талантов. Также представлены созданные автором методики измерения для выявления талантов в условиях Узбекистана.

Ключевые слова: Талант, талант-менеджмент, человеческий капитал, HR, зарплата, метрики, производительность, потенциал, конкуренция.

KIRISH

Talant yunoncha qimmatbaho, noyob narsa, irsiy tabiiy xislat, degan ma’noni anglatib, muayyan faoliyatning muvaffaqiyatli va ijodiy ravishda bajarilishini ta’minlaydigan qobiliyat hamda iste’dodlar majmuasidan iborat individual xususiyatdir. Psixologik adabiyotlarda unga turlicha ta’rif berilishiga qaramay, ularda asosiy belgilar ta’kidlab o‘tiladi, chunonchi shaxsga qandaydir murakkab mehnat faoliyatining muvaffaqiyatli, mustaqil va original tarzda bajarish imkonini beradigan qobiliyatlar majmuasiga talant deyiladi [1].

Talant menejmenti hozirgi vaqtda har bir brendga ega kompaniya uchun muhim hisoblanadi, chunki unchalik katta bo‘lmagan xarajatlar evaziga xodim kelgusi yillar davomida tashkilotning qimmatbaho aktiviga aylanadi. AQShda 1990-yillarda boshlangan ushbu trend, hozirgi kunda deyarli barcha rivojlangan mamlakatlarda mavjuddir. Lekin, hamma vaqt ham bunday bo‘lmagan. Buyuk Depressiyadan so‘ng AQSh fiskal siyosati yuqori foizli progressiv soliq stavkalariga o‘tdi. Keyns ta’limotiga ko‘ra, iqtisodiyot “qizib” ketganida soliq stavkalarining

oshirilmaganligi va boy qatlamning yangi ish o‘rinlarini yaratish uchun yetarlicha soliq to‘lamaganligi depressiyaga sabab bo‘lgan edi. Shu sababli, 1931-yildagi maksimal 25 foizlik soliq stavkasi 1963-yilga kelib 91 foizga yetdi. Bu o‘sha paytda 1 million dollar ishlab topuvchi xodim faqatgina 27 foiz, 10 million dollar ishlab topuvchi esa 15 foiz pul mablag‘lariga ega bo‘lishini anglatardi. Shu sababli, ushbu siyosat malakali xodimlarning o‘z ustida ishlashga bo‘lgan ishtiyoqini yo‘qotar edi.

1970-yillarda Artur Laffer, Robert Mundell va Herbert Simon kabi iqtisodchilar ushbu fiskal siyosatining kamchiliklarini ko‘rsatishdi. Ularning fikricha soliq yukining oshishi ishchilar tomonidan bajariluvchi ish miqdori va sifatini pasaytiradi. “Laffer egri chizig‘i” grafigidan ko‘rish mumkinki, baland soliq stavkalari tufayli AQSh byudjetiga kamroq dollarlar kelib tushadi. Ushbu taklifdan kelib chiqqan holda, soliq stavkasi bosqichma-bosqich pasaya boshladi va 1988-yilga kelib 28 foizga yetdi. Oqibatda firmalar o‘z foydalarini maksimallashtirishga, xodimlar esa o‘z talantlarini ko‘rsatishga rag‘bat olishdi [2].

ADABIYOTLAR SHARHI

Insonda qobiliyatning rivojlanishi, uning talantga aylanishi dastlabki tahlilini amalga oshirish uchun psixologiya asarlaridan foydalanildi. F.I.Xaydarov, N.I.Xalilova qalamiga mansub “Umumiy psixologiya” darsligidan talant, uning kelib chiqishi, uni shakllanish nazariyalari o‘rganildi. Psixologik ma’lumotlarni umumlashtirgan holda ikki xil xususiyatli fikrni alohida ta’kidlab o‘tish talant tuzilishini yaxshiroq tushunish imkoniyatini yaratadi:

1) talant − bu shaxs psixik xislatlarining shunday birikmasidirki, uni

a) alohida yagona maxsus qobiliyat bilan;

b) xotiraning yuksak mahsuldorligi orqali;

d) hatto noyob sifat tariqasida o‘lchab bo‘lmaydi.

2) shaxsda u yoki bu qobiliyatning mavjud ekanligi hamda yetarli darajada taraqqiy etganligi talantning murakkab tarkibiga kiruvchi boshqa qobiliyatlarning jadal takomillashuvi orqali ularning o‘rnini bosib yuborishi mumkin.

Tahlil jarayonida ikkinchi fikrga tayanildi va bu maqola o‘z aksini topdi.

Keyingi qadamda talantning iqtisodiy munosabatlardagi o‘rnini aniqlash uchun Adam Smit va Karl Marks kabi iqtisodchi olimlar fikri o‘rganildi. Adam Smit fikriga ko‘ra, insonda iste’dod tug‘ilganida tabiat tomonidan in’om etilmaydi, balki odatlar, atrof-muhit va ta’lim orqali shakllanadi. Iqtisodchi olim fikricha, talantlarning turli xilligi ixtisoslashuv paydo bo‘lish sababi emas, balki uni qo‘llashning oqibati hisoblanadi. Iqtisodiyot esa turli xil talant egalaridan faqatgina yutadi, aks holda bir kishi barcha jarayonlarni o‘zi qilishi kerak bo‘lardi [3]. Karl Marks fikricha, iqtisodiy munosabatlar tuzilishidan qat’iy nazar barcha kishilar o‘z qobiliyatlari moslashgan ishda ishlashlari lozimdir [4]. “Gotsk dasturi tanqidi” asarida u quyidagi shiorni keltiradi: “Har bir kishidan qobiliyatlari bo‘yicha, har bir kishiga ehtiyojlari uchun!”. Lekin, Marks g‘oyasi faqatgina yuqori texnologiyaga ega kommunistik jamiyatda amalga oshirilishi kerak hisoblanadi, aks holatda talantlar darajasi orasidagi farq daromadda ham o‘z aksini topadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot davomida talant, talant boshqaruvi va uning korxonadagi o‘rnini aniqlash uchun analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi. Xorij va milliy tajribalardagi farqlarni tahlil etishda kuzatuv va taqqoslash metodlari ishlatildi. Jarayonlarni aniqroq ko‘rsatish uchun grafik, jadval va matematik formulalardan foydalanilgan. Muallif tomonidan talant ko‘rsatkichlarini baholash usullarini yaratish uchun iqtisodiy o‘lchov va mantiqiy yondashuv usullari qo‘llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xorij tajribasi

1997-yilda McKinsey kompaniyasi konsultantlari tomonidan Xodimlar uchun urush” (“War for Talent”) iborasi kirib kelganidan so‘ng talantlar boshqaruvida bir qancha sezilarli o‘zgarishlar amalga oshirildi [5]. Hozirgi kunda talantlar qimmatli strategik resurs hisoblanishadi va aynan ular raqobatchilardan o‘zish imkonini beradi. Shu sababli tashkilotlar ushbu resursni egallash, foydalanish va himoya etish uchun talant menejmentidan foydalanishadi [6]. Bosh ijrochi direktorlarning asosiy muammosi talantlarning yetishmasligidir va 75 foizdan ortiq CEO lar aynan kerakli kompetensiya va talantning yo‘qligi o‘z tashkilotlarini o‘sishdan to‘xtatib turuvchi omil sifatida qarashadi [7].

1-jadval: Xodimlarga bo‘lgan munosabatning o‘zgarishi [8]

XX asrdagi holat	XXI asrdagi reallik
Kishilarga kompaniyalar kerak	Kompaniyalarga kishilar kerak
Raqobatbardosh ustunlik – kapital, reklama va joylashgan hudud	Raqobatbardosh ustunlik – iste’dodli xodimlar
Iste’dodi yuqori xodimlar ozgina ustunlikka ega	Iste’dodi yuqori xodimlar sezilarli ustunlikka ega
Ish joylari defitsiti	Talantga ega xodimlar defitsiti
Xodimlar ishlayotgan tashkilotga sodiqlar	Xodimlar yaxshiroq ish joyiga o‘tishga intilishadi
Kishilar kompaniya berganiga rozi bo‘lishadi Personal – xarajat	Kishilar ancha ko‘proq narsani talab qilishadi Personal – qimmatli resurs

Talant menejmenti tadqiq qilinuvchi mamlakat, undagi tashkilot hajmi va menejerlar saviyasiga ko‘ra 3 xil bo‘ladi [9]:

1. Kadrlar menejmenti so‘zini talant menejmenti so‘ziga o‘zgartirish. Ushbu yo‘nalishda o‘zgarishlar faqat nomlarda aks etadi.
2. Iste’dodli xodimlar rezervini shakllantirish, rotatsiya orqali rivojlantirish jarayonini boshqarish. Ushbu yo‘nalishda kadrlar samarali rejalashtiriladi, lekin ulardan foydalanishda muammo hali ham mavjud bo‘ladi.
3. Talantga ega insonlarni jalb etish bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri shug‘ullanadi va quyidagi ketma-ketlikda ish bajaradi:



1-rasm: Zamonaviy talant menejmenti. Muallif tomonidan tuzildi

Xorij tajribasiga, ko‘ra insonning ishlash ko‘rsatkichlari hozirgi qobiliyatlari (A), uning motivatsiyasi (M) va kelgusidagi imkoniyatlar potensiali (O) asosida paydo bo‘ladi va quyidagi bir-biriga bevosita bog‘liq bo‘lgan funksiya shaklida aks ettiriladi [10]:

$$P = f(A,M,O)$$

Ushbu o‘zgaruvchi omillar eng zaruriy qismlar hisoblanib, boshqa o‘zgarishlar yordamida ham rivojlantirilishi mumkin.

Xodimlar qobiliyatini aniqlashda savollar to‘plami tuzib chiqish va unga ballar belgilash amaliyoti ham qo‘llaniladi [11]:

- Ushbu xodim o‘rta muddatda o‘zining lavozimidan 2 pog‘ona yuqori lavozimda ishlay oladimi?
- Tashkilot ushbu xodimning kelgusi yillardagi mahorati va kompetensiyalaridagi o‘sishni qadrlaydimi?
- Xodim yangi kompetensiyalarni o‘zlashtira oladimi?
- Xodim o‘zi tashabbus ko‘rsatgan holda riskli qarorlarni qabul qila oladimi?
- Xodim o‘zidan yuqori lavozimdagi yoki boshqa sohadagi kishilar bilan erkin muloqot qila oladimi?
- Hozirgidan farq qiluvchi lavozimda xodim moslashib ishlab keta oladimi?
- Xodim yangi bilimlarni o‘rganish va rivojlanishni qabul qilishga tayyormi?

Tashkilot xususiyatidan kelib chiqqan holda ballar taqsimlanadi va savollar soni oshishi mumkin.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Xorijda ishchilarning joriy holati va kelgusida erishishi kutilayotgan yutuqlarga qarab xodimlar 9 xil turga bo‘linadi. Tahlilga ko‘ra, ushbu 9 xil xodimdan ishni bajarish darajasi va salohiyatiga ko‘ra eng yaxshilari bu uzoq yillik tajribaga ega, lekin shu bilan birga dunyo yangiliklarini faol o‘zlashtiruvchi ishonchli xodimlar hisoblanishadi (Star performer). Talim menejmentining vazifasi salohiyati yuqori bo‘lgan, ammo shu salohiyatni ko‘rsatishda muammoga yuz keluvchi xodimlar bilan ishlash hisoblanadi (Potensial star):

- Xodimning o‘z qiziqishlari va salohiyatiga mos lavozimga tayinlash;
- Uzoq muddatli oraliqda ish samaradorligini oshirishga yordam beruvchi mentor biriktirish;
- Xodim salohiyatiga mos muhim vazifalarni eng yaxshi bajaruvchiga emas.



2-rasm: Xodimlar darajasiga ko‘ra klassifikatsiyasi[12]

O‘zbekistonda talant menejmenti

O‘zbekiston iqtisodiyotiga talantlarni aniqlash, ularni samarali boshqarish degan tushuncha endi kirib kelmoqda. Mehnat iqtisodiyoti bo‘yicha olim K. Abdurahmonov mehnat resursi potensialini quyidagicha ifodalaydi [13]:

$$F(s) = (S_1, S_2, S_3, S_4, S_5, C_6, \ldots C_n)$$

Bu yerda f(s) – mehnat potensialining sifat ko‘rsatkichi; S_1 – jismoniy holat va sog‘lik darajasi; S_2 – ta’lim va ma’lumot darajasi; S_3 – malakasi va kasbiy mahorati; S_4 – tadbirkorlik qobiliyati; S_5 – hayotiy tajriba va ko‘nikmasi; C_6 – dunyoqarashi va ongi; C_7 – odob-axloqi va xulq-atvori; C_8 – ma’naviy yetukligi...

Ushbu tenglama bir qarashda samarali ko‘rinsa-da, ahamiyati past ko‘rsatkichlarga egaligi, ularning vazn bo‘yicha taqsimlamaganligi potensial sifat ko‘rsatkichini butunlay o‘zgartirib yuborishi mumkin.

O‘zbekistonda xodimlarning talant darajasini aniqlashda muallif tomonidan quyidagicha yondashuv keltiriladi:

$$T_d = \frac{\mathrm{T}_{sam}}{\mathrm{T}_{um} * T_{erk}} * \frac{v_1 + v_2 + \cdots + v_n}{V_1 + V_2 + \cdots V_n}$$

Bu yerda, T_d - talant darajasi, T_{sam} - xodim tomonidan taklif etilgan yangiliklarning samarador qismi, T_{um} - xodim tomonidan taklif etilgan umumiy yangiliklar soni, T_{erk} - tashkilotda erkinlik darajasi, V_1 - xodim tomonidan vazifani bajarish uchun ketgan vaqt birligi, v_1 - tashkilot uchun ushbu topshiriqni bajarish normasi yoki o‘rtacha bajarish ko‘rsatgichi.

O‘zbekistonda talantli xodim uchun ratsionallik maqsadi:

$$\pi_t = \frac{\mathrm{T}_{tn} - T_{rn}}{X_{tn} - X_{rn}}$$

Bu yerda, T_{tn} - talantga ega xodimning n-oy uchun oladigan ish haqi, T_{rn} - shu lavozimdagi boshqa xodimning n-oy uchun oladigan ish haqi, X_{tn} - talantga ega xodimning n-oy uchun sarflagan xarajatlari (vaqt yoki pul hisobida), X_{rn} - shu lavozimdagi boshqa xodimning n-oy uchun uchun sarflagan xarajatlari.

Agar ushbu ko‘rsatkichning yillik yig‘indisi manfiyni tashkil etsa, u holda tashkilotda talantlar menejmenti yaxshi yo‘lga qo‘yilmaganini bildiradi. Chunki, ish vaqtida deyarli doimo ko‘proq vaqt sarflovchi talant uchun ushbu tenglik maxraji musbat bo‘ladi, lekin menejment xatosi tufayli u samaradorligi past hamkasbidan kamroq ish haqi olishi mumkin. Ushbu ko‘rsatkich o‘rta darajadagi tashkilotlar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, u juda qobiliyatli xodimlar (ya’ni katta ish haqi oluvchi va kam xarajat sarflovchi xodimlar) ko‘rsatkichlarini to‘g‘ri hisoblay olmaydi.

XULOSA

Talant menejmenti hozirda raqobatlashishning asosiy quroliga aylangan. Xorij davlatlari, jumladan AQSh, Buyuk Britaniya va Rossiyada talantlarni aniqlash, ishga yo‘llash va ularni boshqa tashkilotlardan himoya qilish ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan. Lekin, bu tajribalar O‘zbekistonda endi kirib kelmoqda va hozircha o‘zidan faqatgina sodda rekrutmentni tashkil etadi. Bundan tashqari, o‘rganiluvchi omillar sifatida sohaga aloqasi yo‘q birliklar haligacha bir xil vaznda olinadi. Shu sababli, muallif tomonidan ishlab chiqilgan o‘lchov birliklaridan foydalanish taklif etiladi. Ular mukammal emas, lekin O‘zbekiston sharoitida talantlarni aniqlashda qo‘l keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. F.I.Xaydarov, N.I.Xalilova. Umumiy psixologiya. –Darslik. –T.: 2009. –322-323 b.
2. Roger L. Martin. The Rise (and Likely Fall) of the Talent Economy. Harvard business review. October, 2014. URL: https://hbr.org/2014/10/the-rise-and-likely-fall-of-the-talent-economy.
3. Adam Smith. An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations. –The Pennsylvania State University, 2005. – pp. 20-22
4. Fernbach, David, ed. (2010). Marx: The First International and After. Verso Books. p. 347.
5. Ed Michaels, Helen Handfield-Jones, Beth Axelrod. The War for Talent. Harvard Business Press, 2001. –pp. 14-17
6. Sparrow, P. R., & Makram, H. What is the value of talent management? Building value-driven processes within a talent management architecture. Human Resource Management Review, 25(3), 2015. –pp. 249-263.
7. Eva Gallardo-Gallardo, Marian Thunnissen & Hugh Scullion. Talent management: context matters. The International Journal of Human Resource Management vol. 31, no. 4, 2020. – pp. 457-473
8. Карташов Сергей Александрович, Одегов Юрий Геннадьевич, Шаталов Дмитрий Владиславович. “Модернизация экономики и значение таланта для ее развития”. Вестник Омского университета. Серия “Экономика”, 4, 2012, сс. 101-103.
9. Collings, D.G. and Mellahi, K. “Strategic Talent Management: A review and research agenda”, Human Resource Management Review, vol. 19, no. 4, 2009. – pp. 304-313
10. Boselie, P., Dietz, G. and Boon, C. “Commonalities and contradictions in HRM and performance research”, Human Resource Management Journal, vol. 15, 2005. – pp. 67-94.
11. McCarthy, D. How to “Score” Leadership Potential When Using the Performance and Potential Matrix, 2009. URL:https://greatleadershipbydan.com/2009/02/how-to-score-leadership-potential-when.html
12. Lee, Gregory. Talent measurement: A holistic model and routes forward. SA Journal of Human Resource Management, 2018. – pp. 6-9
13. Kalandar Abdurahmonov. Mehnat iqtisodiyoti: Nazariya va amaliyot. –Darslik. –T.: 2019. –182-183 b.

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TIBBIYOT SOHASINI MOLIYALASHTIRISH ISTIQBOLLARI

Muxammadiyev Ramz Zoirjon o‘g‘li
I.f.f.d. (PhD) TXKMRM dotsenti

Annotatsiya: Maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida davlat tomonidan kafolatlangan tibbiy xizmatlar hajmini belgilash orqali moliyalashtirishning yangi shakliga o‘tish masalalariga e’tibor qaratilib, respublikada sog‘liqni saqlashni boshqarish tizimini takomillashtirish, kadrlar tayyorlash bo‘yicha belgilangan dolzarb vazifalarni bajarish ko‘nikmalarini shakllantirishga oid ma’lumotlar keltirilgan. Tahlillar natijasida raqamli iqtisodiyot sharoitida kafolatlangan tibbiy xizmatlar hajmini moliyalashtirishni takomillashtirishga oid takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: moliyalashtirish, raqamlashtirish, kafolatlangan tibbiy xizmat, xususiy sektor, boshqarish, tibbiy xizmat.

Abstract: The article discusses the issues of transition to a new form of financing by determining the capacity of state-guaranteed medical services in the digital economy, as well as provides information on improving the health management system in the republic, training personnel to perform current tasks assigned to the system. As a result of the analysis, proposals were made to improve the financing of guaranteed medical services in the digital economy.

Key words: financing, digitalization, guaranteed healthcare, private sector, management, healthcare.

Аннотация: В статье рассмотрены вопросы перехода к новой форме финансирования путем определения объема гарантированных государством медицинских услуг в условиях цифровой экономики, а также приведены сведения о совершенствовании системы управления здравоохранением в республике, подготовке кадров для выполнения текущих задач, поставленных перед системой. В результате анализа были сделаны предложения по совершенствованию финансирования гарантированных медицинских услуг в условиях цифровой экономики.

Ключевые слова: финансирование, цифровизация, гарантированное здравоохранение, частный сектор, менеджмент, здравоохранение.

KIRISH

Davlat o‘zing ijtimoiy vazifalarini amalga oshirishda boshqaruv tizimini harakatlantiruvchi asosiy omil – inson resursiga tayangan holda, uning sog‘lig‘ini saqlash masalalariga e’tibor qaratadi va ushbu tizimni rivojlantirishni dolzarb, deb hisoblaydi. Binobarin, sog‘liqni saqlash xizmati jamiyat shakllanishi va rivojlanishining barcha bosqichlarida ajralmas tizim, qolaversa, doimiy ravishda takomillashishni talab etadi.

Sog‘liqni saqlash tuzilmalarini shakllantirishda mas’ul sohalarga alohida e’tibor qaratilib ularning ta’minoti davlat g‘aznasi hisobidan saqlab turiladi. Mamlakatda sog‘liqni saqlashni boshqarishning yagona tizimini yaratish, ushbu tizimni moliyalashtirishni yangi shaklda amalga oshirish, tibbiyot sohasida xususiy sektor ishtirokini rivojlantirish, aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatish madaniyati hamda sifatini oshirish borasida so‘ngi vaqtlarda qulay shart-sharoitlar yaratilmoqda.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasining asosiy g‘oyalaridan biri bu kelgusi yetti yilda aholi talablariga va xalqaro standartlarga to‘liq javob beradigan tibbiy xizmat ko‘rsatish tizimini tashkil etishdir. Strategiyaning o‘nga yaqin maqsadlarida aynan aholi salomatligini ta’minlashga oid vazifalarni qamrab olib, aholiga ko‘rsatiladigan ixtisoslashtirilgan tibbiy xizmatlarni yanada yaqinlashtirish, murojaatlar soni bo‘yicha yetakchilik qiladigan 350 ming nafar diabet va 1,5 million yurak-qon tomir kasalligi bor bemorni davolash bilan to‘liq qamrab olish, tibbiy yordamga muhtoj aholining 70 foizga birlamchi bo‘g‘inning o‘zida tezkor tibbiy xizmatlarni ko‘rsatish belgilangan[1].

Strategiyada byelgilangan vazifa va yo‘nalishlarning sohaga tatbiq etilish orqali bolalar o‘rtasidagi irsiy kasalliklarni ikki barobarga, yuqumli va yuqumli bo‘lmagan kasalliklarni 20 foizga qisqartirish, 30-69 yoshdagi

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risida” PF-158-son Farmoni, (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.09.2023-y., 06/23/158/0694-son; 29.12.2023-y., 06/23/214/0984-son)

aholi orasida onkologik kasalliklarni profilaktik ko‘riklar va erta bosqichlarida aniqlab, 5 yillik umr davomiyligi ko‘rsatkichlarini ikki barobar oshirish, 1 yilgacha o‘lim ko‘rsatkichini ikki barobar kamaytirishga erishiladi.

Aholi salomatligini saqlash va bemorlarni yetarli hamda malakali tibbiy xizmatlar bilan qamrab olishda avvalo, ular to‘g‘risidagi axborotlarning mavjud bo‘lishi va ularning raqamlashtirilishi sohada olib borilayotgan islohotlarning jadallashishiga xizmat qilib, davlat byudjeti hisobidan ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishiga imkoniyat yaratadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Tadqiqotlarimiz XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab dunyo tibbiyotiga innovatsiyalarning kirib kelishini ko‘payishi hisobiga tibbiy diagnostika jarayonida keskin burilish yasalgani kuzatildi. Bu tibbiy xizmat sifatining yaxshilanishi bilan birga uning tannarxining ham oshishiga sabab bo‘ldi. Tibbiyot tizimiga innovatsiyalar va axborot kommunikatsiya xizmatlarining kirib kelishi kadrlar tayyorlash tizimiga ham tubdan o‘zgartirish kiritdi. Tizimdagi innovatsiyalar dunyo bo‘yicha barcha davlatlar qatori O‘zbekistonda ham tibbiy xizmat sifatini oshishi bilan birga inson umrining uzayishi va bolalar o‘limi ko‘rsatkichlari kamayishiga ham sabab bo‘ldi[2].

Mazkur masala xorijiy olimlar S.Tomson, R.Osborn, D.Skvayrs, M.Djun[3], A.Мещеryakova, A.Mazurenko[4], N.Shandora[5] hamda respublikamiz olimlari D.A.Raxmonov[6], N.X.Buriyeva[7], O.Rayimberdiyeva[8] ishlarida tibbiyotda axborot texnologiyalaridan keng foydalanish, kasalliklar statistikasini shakllantirish va ular hisobini yuritish, tibbiyot muassasalarini moliyalashtirish, xarajatlarni rejalashtirish, moliyalashtirishda sug‘urta mexanizimlaridan foydalanish kabi masalalar umumiy tarzda tadqiq etilgan.

Ushbu tadqiqotlar aholini ijtimoiy himoya qilish tizimida moliyalashtirishning nazariy asoslarini shakllantirishda muhim asosiy vazifani bajargan bo‘lsada, raqamlashtirish natijasida mablag‘lardan maqsadli foydalanish, zarur mablag‘larni kasallik darajasi yuqori hududlarga taqsimlash, kasalliklarning soni va yo‘nalishini aniqlagan holda uning o‘sishini oldini olish va bartaraf qilinishi orqali mablag‘larni tejash va kutilmagan yuqumli kasalliklarga qarshi kurashda iqtisodiy samaradorlikka erishishga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar olib borilmagan.

Sog‘liqni saqlash tizimini raqamlashtirishning iqtisodiy jihati shundaki, sohada o‘zini o‘zi nazorat qilish, tizim tashkilotlari oshkoralik prinsipida ishlashi va tibbiy yozuvlar jamlanishi va umumlashtirilishi orqali mablag‘larni kasallik yo‘nalishi bo‘yicha aniq yo‘naltirish imkoniyatlari taqdim etiladi.

Dunyoning rivojlangan davlatlarida, jumladan AQSH, Yaponiya, Janubiy Koreya, Germaniyada yuqori innovatsion texnologiyalarni keng qo‘llash natijasida yuqori natijalarga erishilmoqda. Janubiy Koreyada aholining uzoq umr ko‘rish o‘rtacha ko‘rsatkichi oxirgi yillarda erkaklarda 82,4, ayollarda esa 75,9 yoshni tashkil qilmoqda. Sog‘liqni saqlash tizimi mustahkam rivojlanishi uchun muhim strategiyalardan biri “Raqamli tibbiyot” konsepsiyasini joriy qilish hisoblanadi. Germaniyada esa tibbiyot sohasiga yangiliklar, innovatsion ishlanmalar yuqori darajada olib boriladigan ilmiy ishlarni amaliyotda qo‘llash, aqlli texnologiyalarni keng joriy qilish orqali yuqori natijalarga erishilmoqda. Shu bilan bir qatorda davlat tomonidan ilmiy ishlar, innovatsion g‘oyalar va aqilli texnologiyalarni yaratish, tadbiq etish ishlari doimo qo‘llab quvvatlanib kelinadi. Jaxon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra AQSH o‘zgarib turuvchi davrda tez moslanuvchi sog‘liqni saqlash tizimiga ega. Bu esa bemorlarning sog‘lig‘ini saqlash uchun erta tashxislash, kasallikning oldini olish ishlarini aqlli texnologiyalarni qo‘llagan holda amalga oshirilib kelinmoqda

Lekin, O‘zbekistonda ijtimoiy sohalarni raqamlashtirish borasida amalga oshirilgan tadqiqotlarga qaramasdan tibbiyot muassasalarining poliklinika, hatto tuman-shahar, viloyat darajasida sohani raqamlashtirish yo‘nalishida amalga oshirilayotgan ishlar surati juda pastligi, raqamlashtirishning axborot manbaasi hisoblangan oilaviy shifokorlik punkti va poliklinikalarda ishlar to‘g‘ri taqsimlanmaganligi va zarur texnikalar bilan ta’minlanmaganligi, mutaxassislarning yetishmasligi kabi o‘z yechimini kutayotgan muammolar mavjud. Ushbu muammolarnni alohida mavzu sifatida o‘rganish va ular yechimini taklif etish ilmiy tadqiqotlarning muhim vazifasi hisoblanadi.

2 Muxammadiyev R.Z. Sog‘liqni saqlash muassasalari faoliyatini moliyalashtirish va tahlilini takomillashtirish: i.f.f.d. ...dis. avtoref. – Toshkent, 2021. – 56 b.

3 S. Thomson, R. Osborn, D. Squires, and M. Jun, International Profiles of Health Care Systems. // 2013, The Commonwealth Fund./ https://www.commonwealthfund.org/publications/fund-reports/2013/nov/international-profiles-health-care-systems-2013-australia-canada

4 Мещеryakova A.V., Mazurenko A.P. Sifrovizatsiya kak sredstvo antikorrupsionnoy pravovoy politiki v sfere zdravooxraneniya // Vestnik Kostromskogo gosudarstvennogo universiteta. 2019. Tom 25. № 3. S. 181-184. DOI: https://doi.org/10.34216/1998-0817-2019-25-3-181-184

5 Shandora N. Sifrovizatsiya sistemы zdravooxraneniya: opыt i perspektivы // Nauka i innovatsii. 2020. № 2(204). S. 38-43.

6 Raxmonov D.A. O‘zbekistonda ijtimoiy sohani moliyalashtirishning metodologik asoslarini takomillashtirish: i.f.d. (DSc) … avtoreferati. – Toshkent: TDIU, 2018

7 Buriyeva N.X. Sog‘liqni saqlash tizimini moliyalashtirish modellarining jahon amaliyotida qo‘llanish. - Toshkent: Iqtisod va moliya, 2019. / https://cyberleninka.ru/.

8 Rayimberdiyeva O.R. Sog‘liqni saqlash muassasalarini moliyaviy ta’minlashni tashkil qilish: i.f.n. … avtoreferati: - Toshkent: BMA, 2001. – 22 b.

Ayniqsa, ixtisoslashtirilgan yuqori texnologik tibbiy yordam ko‘rsatish asosan Toshkent shahrida jamlangan, bunday holat Respublika mintaqalari aholisining tegishli xizmatlardan foydalanishini cheklab qo‘ymoqda. Zamonaviy diagnostik va maxsus tibbiyot uskunalari bilan yetarlicha jihozlanmaganlik, zamonaviy uskunalarda ishlash uchun shifokorlarning yetarlicha tayyorlanmaganligi tufayli, yuqori texnologik ixtisoslashtirilgan tibbiy yordamning ayrim turlaridan Respublika aholisi foydalana olmayapti. Yuqori texnologik tibbiy yordam ko‘rsatish sog‘liqni saqlash tizimining barcha bo‘g‘inlarida amalga oshirilmayapti. Shu bois, sog‘liqni saqlash tizimini jahon standartlarini hisobga olgan holda, kasalliklarni barvaqt aniqlash va masofadan profilaktika qilish, aholining uzoq umr ko‘rishi uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratish hamda kasallik va o‘lim ko‘rsatkichlarini pasaytirishni ta’minlaydigan ilg‘or texnologiyalarni qo‘llash muammolari davlat siyosati darajasiga ko‘tarilganidan darak bermoqda.

E’tiborga molik jihat shundaki, bugun qaysi soha va yo‘nalishda belgilangan vazifa va maqsadlarni olmaylik, raqamli texnologiyalarni keng joriy qilmasdan turib ko‘zlangan natijaga erishib bo‘lmagani sababli, tibbiyot sohasida ham kelgusi yetti yilda tibbiyot muassasalarining ish faoliyatini 100 foizga raqamlashtirilishi masalasi hukumat darajasida hal qilinishi belgilanmoqda.

Xususan, 2021-yil 23-fevralda “Sog‘liqni saqlash sohasida raqamlashtirish ishlarini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-5000-son hamda 2021-yil 25-mayda “Sog‘liqni saqlash sohasini kompleks rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-5124-son qarorlar aynan sohasni raqamlashtirish va axborot tizimlari yagona kompleksini joriy etish, boshqaruv jarayonidagi ortiqcha tartib-tamoyillarni qisqartirish, aholiga xizmatlar ko‘rsatish sifatini oshirish, tibbiyot xodimlarining ish samaradorligini ta’minlash, shuningdek, ushbu yo‘nalishda qabul qilingan raqamli transformatsiya qilish dasturlarini samarali amalga oshirish uchun ishlab chiqilganligini ko‘rsatmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning metodologik asosini 2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasida ko‘zda tutilgan maqsad va vazifalardan kelib chiqib, tibbiy xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish, kadrlarni tayyorlash va munosib ish haqi bilan ta’minlash maqsadida sog‘liqni saqlashni moliyalashtirishni izchil oshirish bilan bog‘liq nazariy qoidalarni o‘z ichiga oladi. Ilmiy izlanish jarayonida iqtisodiy hodisalarni o‘zaro bog‘liq holda dinamik ravishda o‘rganish imkonini ochib beruvchi dialektika usulidan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida izlanish obyektiga nisbatan tizimli yondashuv sifatida grafik usullar, guruhlash va taqqoslash, tahlil va sintez usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Barchamizga ma’lumki so‘ngi yillarda aholi salomatligini saqlash borasida amalga oshirilayotgan islohotlar boshqa sohalar singari jadal tus olib, tizim oldiga tibbiyotni raqamlashtirish, vazirlik va idoralar bilan integratsiyalashuvni ta’minlash, ma’lumotlar bazasini yaratishtirish, zarur turdagi so‘ngi rusumdagi uskunlar va jihozlar bilan ta’minlash, tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini tibbiyoti rivojlangan ilg‘or xorijiy davlatlarda rivojlantirish orqali tibbiy xizmat sifatini oshirish, shu qatori tibbiyot xodimlarining ish haqi hamda ularning rag‘batlantirish to‘lovlari miqdorini ko‘tarish kabi dolzarb vazifalar qo‘yilmoqda. Ushbu tizimni qo‘llab-quvvatlash maqsadida zarur mablag‘lar davlat byudjeti va xalqaro grant mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilmoqda. (1-rasm)



1-rasm: 2017-2024-yillarda sog‘liqni saqlash sohasiga ajratilgan mablag‘ (mlrd.so‘m)

Biroq, o‘rganishlar va tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bugungi kunda tizimni raqamlashtirish borasida ishlab chiqilgan axborot tizimlari zarur darajada tashkil etilmaganligi, mutasaddi tashkilotlar tizimi bilan integratsiyalashmaganligi, tibbiy xizmatlarning yakuniy natijadorlikka erishilgan ko‘rsatkichlarning mavjud emasligi, xizmat ko‘rsatish va uning usullari samaradorligini baholash mexanizmlarini yetarli emasligi, ushbu tizim orqali shifokorlarga murojat etishning murakkabligi va o‘zaro uyg‘unlashmaganligi bo‘yicha hali bajarilishi lozim bo‘lgan bir qator muammoli masalalar mavjudligidan dalolat bermoqda.

Shu sababli, sohada davlat boshqaruvini takomillashtirish, birlamchi bo‘g‘inni kasalliklarni erta aniqlaydigan va davolaydigan tizimga aylantirish, raqamlashtirish ishlarini jadallashtirish, coha rivojlanishining yaqin va uzoq muddatli istiqbollarini belgilash, tibbiy xizmatlar hajmini oshirish va sifatini tubdan yaxshilash, raqobat va xususiy sektorni qo‘llab-quvvatlash, tibbiyot xodimlarining bilimini oshirish, ta’lim va ilm-fanni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish lozim.

Aytish joizki, rivojlangan, qolaversa hamdo‘stlik mamlakatlarida sog‘liqni saqlash tizimida qulay sharoitlarni yaratish maqsadida sohani raqamlashtirish bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlar natijalari tibbiyotni avtomatlashtirish va raqamlashtirish ko‘rsatkichlari 93,8 foizni tashkil etib, barcha qabul va xizmatlar oldindan rejalashtirilgan tashrif va bemor to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tahlil qilish orqali amalga oshiriladi. Bu esa o‘z navbatida bemorning ham shifokorning ham qimmatli vaqtini tejalishiga hamda shifokor tomonidan ko‘proq bemorga sifatli xizmat ko‘rsatilishiga olib keladi.

Sohada raqamlashtirish ishlarini jadallashtirish maqsadida tibbiyot oliygohlari va texnikumlari bitiruvchi kurslari tinglovchilari uchun chuqurlashtirilgan tibbiy axborot texnologiyalari (IT-Med) dars mavzularining kiritilishi maqsadga muvofiq deb hisoblanib, aholi uchun qulay bo‘lgan tibbiy xizmatni tashkil etishda muhim ahamiyatga ega.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xalq salomatligi va sog‘lom millat genofondi har bir davlatning muhim boyligi ekanligi hech kimga sir emas. Shu bois, tibbiyot sohasida amalga oshirilayotgan izchil islohotlar natijadorligini nazoratga olish va tizimni raqamlashtirish fuqarolar salomatligini asrash, malakali tibbiy kadrlar salohiyatini oshirish, sohaga yangi boshqaruv usullarini joriy etish borasida o‘zining ijobiy natijasini ko‘rsatadi.

Sohani raqamlashtirishning axborot manbaasi avvalo oilaviy shifokorlik punkti va poliklinikalardan boshlanishini e’tibordan qochirmaslik lozim. Bemor to‘g‘risidagi zarur axborot va ma’lumotlar tizimga kiritilmas ekan, sohani raqamlashtirish haqida gap-so‘z bo‘lishi mumkin emas.

Yuqoridagilardan xulosa qilib, quyidagilar taklif etiladi:

- tibbiyot sohasini jadal ravishda raqamlashtirish va mutasaddi tuzilmalar axborot bazalari bilan integratsiya qilish;
- tibbiyot oliygohlari va texnikumlari bitiruvchi kurslari tinglovchilari uchun chuqurlashtirilgan tibbiy axborot texnologiyalari (IT-Med) dars modulini o‘quv rejaga kiritish;
- raqamlashtirish manbaasi hisoblangan axborot va ma’lumotlarni shakllantiruvchi tibbiyot xodimlarni rag‘batlantirish;
- raqamlashtirish manbaasi hisoblangan axborot va ma’lumotlarni shakllantirish reja ko‘rsatkichlarini bajarmagan tibbiyot xodimlariga nisbatan ta’sir choralarini kuchaytirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. “Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida” 1996-yil 29-avgust. 265-I-con.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-5590-son Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston − 2030” strategiyasi to‘g‘risida” PF-158-son Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 23-fevraldagi “Sog‘liqni saqlash sohasida raqamlashtirish ishlarini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-5000-son qarori.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-maydagi “Sog‘liqni saqlash sohasini kompleks rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-5124-son qarori.
6. S. Thomson, R. Osborn, D. Squires, and M. Jun, International Profiles of Health Care Systems. // 2013, The Commonwealth Fund.
7. Мещеryakova A.V., Mazurenko A.P. Sifrovizatsiya kak sredstvo antikorrupsionnoy pravovoy politiki v sfere zdravooxraneniya // Vestnik Kostromskogo gosudarstvennogo universiteta. 2019. −Tom 25. −№ 3. −S. v181-184.
8. Shandora N. Sifrovizatsiya sistemы zdravooxraneniya: opыt i perspektivы // Nauka i innovatsii. −2020. −№ 2(204). −S. 38-43.

9. Raxmonov D.A. O‘zbekistonda ijtimoiy sohani moliyalashtirishning metodologik asoslarini takomillashtirish: i.f.d. (DSc) … avtoreferati. – Toshkent: TDIU, 2018.
10. Buriyeva N.X. Sog‘liqni saqlash tizimini moliyalashtirish modellarining jahon amaliyotida qo‘llanish. − Toshkent: Iqtisod va moliya, 2019.
11. Rayimberdiyeva O.R. Sog‘liqni saqlash muassasalarini moliyaviy ta’minlashni tashkil qilish: i.f.n. … avtoreferati: − Toshkent: BMA, 2001. – 22 b.
12. Muxammadiyev R.Z. Sog‘liqni saqlash muassasalari faoliyatini moliyalashtirish va tahlilini takomillashtirish: i.f.f.d. ...dis. avtoref. – Toshkent, 2021. – 56 b.
13. Muxammadiyev R. Tibbiyot muassasalarini moliyalashtirish va buxgalteriya hisobini tashkil etish asoslari. Uslubiy qo‘llanma, “TTA nashriyoti”. –Toshkent 2021.
14. Muxammadiyev R. va boshqalar. Jamoat salomatligi va sog‘liqni saqlashni boshqarish. −Qo‘llanma. −Toshkent -2023.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

BULUTLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANGAN HOLDA RESURS XARAJATLARINI OPTIMALLASHTIRISH: TAHLIL VA BOSHQARISH

Saitkamolov Muxammadxo‘ja Sobirxo‘ja o‘g‘li
Iqtisodiyot fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, AKT sohasida iqtisodiyot va menejment fakulteti dekani

Karabayev Rustam Zafarovich
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, AKT sohasida iqtisodiyot va menejment fakulteti yo‘nalishi bo‘yicha 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada biznes jarayonlarida xarajatlarni optimallashtirish uchun bulutli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi tahlil qilingan. Operatsion xarajatlarni kamaytirish va biznes infratuzilmasining moslashuvchanligini oshirishda bulutli yechimlarning asosiy afzalliklari tahlil qilinadi. Tadqiqot, shuningdek, IT infratuzilmasi xarajatlarini optimallashtirish, shu jumladan, apparat va texnik xarajatlarni kamaytirish yo‘llarini ko‘rib chiqadi. Turli sohalarda bulutli yechimlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish va ularni biznes-jarayonlarning umumiy samaradorligiga ta’siri baholangan.

Kalit so‘zlar: biznes jaraenlar, bulutli texnologiyalar, operasion xarajatlar, bulutli yechimlar.

Abstract: The article analyzes the effectiveness of using cloud technologies to optimize costs in business processes. The main advantages of cloud solutions in reducing operating costs and increasing the flexibility of business infrastructure are analyzed. The study also examines ways to optimize equestrian infrastructure costs, including reducing equipment and maintenance costs. Examples of successful implementation of cloud solutions in various areas are given, as well as an assessment of their impact on the overall efficiency of business processes.

Key words: business processes, cloud technologies, operating costs, cloud solutions.

Аннотация: В данной статье анализируется эффективность использования облачных технологий для оптимизации затрат в бизнес-процессах. Проанализированы основные преимущества облачных решений в снижении эксплуатационных затрат и повышении гибкости бизнес-инфраструктуры. В исследовании также рассматриваются способы оптимизации затрат на конную инфраструктуру, включая снижение затрат на оборудование и техническое обслуживание. Приведены примеры успешного внедрения облачных решений в различных сферах, а также оценка их влияния на общую эффективность бизнес-процессов.

Ключевые слова: бизнес-процессы, облачные технологии, эксплуатационные расходы, облачные решения.

KIRISH

Bulutli texnologiyalar tarmoq orqali masofadan turib hisoblash resurslariga kirishni ta’minlash bo‘yicha dastlabki g‘oyalardan kelib chiqqan. Biroq bugungi kunda biz bilgan bulutli hisoblash tushunchasi 2000-yillarning boshlarida shakllana boshladi. 2000-yillarning boshlarida kompaniyalar bulutli texnologiyalarning hisoblash resurslarini boshqarish va taqsimlash imkoniyatlarini yanada samarali anglay boshladilar. Bulutli texnologiyalar tarixidagi muhim voqealardan biri 2006-yilda Amazon Web Services (AWS)[1] ning paydo bo‘lishi bo‘lib, u bulutli xizmatlarning keng doirasini, shu jumladan, ma’lumotlarni saqlash, hisoblash quvvati va boshqalarni taklif qildi.

Aytishimiz mumkinki, virtualizatsiya texnologiyalarining rivojlanishi va keng polosali internetning tarqalishi bilan bulutli texnologiyalar tobora ommalashib bormoqda. Microsoft, Google va IBM kabi yirik texnologiya kompaniyalari ham o‘zlarining bulutli platformalari va xizmatlarini joriy qildi. Vaqt o‘tishi bilan bulutli texnologiyalar ko‘plab kompaniyalar va tashkilotlarning zamonaviy IT infratuzilmasining[2] ajralmas qismiga aylanib, mosla-

1 Amazon - https://www.amazon.com/
2 Judith Hurwitz, Robin Bloor, Marcia Kaufman и Fern Halper. Cloud Computing For Dummies. - 2019 г

shuvchanlik, miqyoslilik va iqtisodiy samaradorlikni ta'minladi. Hozirgi vaqtda bulutli texnologiyalar sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar tahlili va narsalar interneti kabi yangi imkoniyatlarni joriy etish orqali rivojlanishda davom etmoqda va ular biznes va jamiyatning raqamli o'zgarishida muhim omil bo'lib qolmoqda. Bulutli texnologiyalar-bu axborot texnologiyalarini taqdim etish modeli bo'lib, unda foydalanuvchilar o'z infratuzilmasiga sarmoya kiritmasdan Internet orqali, odatda veb-brauzer orqali hisoblash resurslariga (masalan, hisoblash quvvati, ma'lumotlarni saqlash, ilovalar va xizmatlar) kirishadi. Raqamli iqtisodiyotda bulutli texnologiyalarning roli muhimdir[3].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Muammolar: tadbirkorlar uchun xizmatlarni bulut platformalari orqali qo'llashning foydasi, uzoq muddatli vaqt va xarajatlarni kamaytirishga olib keladigan muammolardir. Maqsadlar: bulutli texnologiyalar foydalanish orqali tadbirkorlarning xarajatlarini optimallashtirishning eng muhim ko'rsatkichlarini aniqlash sanaladi.

Tadbirkorlarning xizmatlarni lokal infrastrukturasi bilan solishtirishning xarajatlari, bulutli texnologiyalar foydalanishning xarajatlar va foydalanuvchining muammo yuzasidan tejamkorligi, bulutli xizmatlardan foydalanishning ta'siri, xarajatlar va foydalanuvchining qo'llash tavsiyalardiri. Bulutli texnologiyalar foydalanish orqali kiritilgan xarajatlarning ta'siri va qo'llanuvchining muammo yuzasidan tejamkorligi, qo'llanilgan bulutli xizmatlarning biznes ko'rsatkichlari va foydalanuvchi muammosi taqqoslanishi, tadbirkorlarga bulutli texnologiyalardan foydalanish uchun tavsiyalar va strategiyalar hisoblanadi. Tavsiyalar va so'rovlar bulutli xizmatlardan foydalanishning tadbirkorlar uchun qanday o'zgarishlar kiritish mumkinligi, to'liq foydalanish uchun tavsiyalar va texnologik qo'llanmalarning taqdimoti, so'rovlar va ilg'or ma'lumotlarni olish uchun qo'llaniladigan metodlar qo'llanilgan.

ADABIYOTLAR SHARHI

"Bulutli texnologiyalarni qo'llab-quvvatlashning xarajatlarni qanday kamaytirishi mumkin, bu qism bulutli xizmatlarning bizneslarga qanday xil muammoni hal qilishi va xarajatlarni qanday qismlarga bo'lishi haqida tahlilni o'z ichiga oladi." – deydi Andrew Ng, raqamli texnologiyalar va yadroli mexanik tajribasi bo'yicha tanilgan, Andrew Ng asosiy bulutli texnologiyalarini o'rganish va uning o'qitish metodlarini rivojlantirishni ilgari suradi. "Bulutli xizmatlarning faoliyat sohalariga ta'sirini o'rganish va qaysi sohalarda bulutli texnologiyalarining foydalarini maksimal darajada ko'rish mumkinligi haqida tahlilni faqatgina bulutli yechimlar orqali topsa bo'ladi." – deydi Werner Vogels, Amazon Web Services'ning (AWS) tekshiruvchi rahbari sifatida, Werner Vogels bulutni optimallashtirish, qurilmalarni ishga tushirish va uning texnologiyalarini yaratishda katta ro'lni o'ynagan. "Bulutli xizmatlarni qo'llashning bizneslar uchun o'rtacha xarajatlar va xizmat sifati boyicha qanday samarali bo'lishi haqida tahlilni o'z ichiga oladi", – deydi Amazon Web Services'ning (AWS) joriy direktori, bulutni ommalashtirish va rivojlantirishda katta mutaxassis Andy Jassy.

TADQIQOT NATIJALARI

Bulutli texnologiyalar raqamli iqtisodiyotda muhim rol o'ynaydi, innovatsiyalar, biznes o'sishi va samaradorlikni oshirish uchun asos yaratadi. Bulutli texnologiyalar raqamli iqtisodiyotga qanday ta'sir qilishining ba'zi usullari:

- **Moslashuvchanlik va miqyoslilik:** bulutli platformalar kompaniyalarga o'zlarining hisoblash resurslarini ehtiyojlarga qarab tezda kengaytirishga imkon beradi, bu ayniqsa tez o'zgaruvchan raqamli muhitda juda muhimdir.
- **Iqtisodiy samaradorlik:** bulutli xizmatlardan foydalanish it infratuzilmasi xarajatlarini kamaytiradi, chunki kompaniya endi o'z serverlari va uskunalariga sarmoya kiritishi shart emas.
- **Innovatsiya:** bulutli platformalar sun'iy intellekt, ma'lumotlar tahlili, narsalar interneti va blokcheyn kabi ilg'or texnologiyalardan foydalanish imkonini beradi, bu esa innovatsiyalar va yangi biznes modellarini rivojlantirishga yordam beradi.
- **Global kirish va hamkorlik:** bulutli yechimlar Internet orqali dunyoning istalgan nuqtasidan ma'lumotlar va ilovalarga kirish imkoniyatini beradi, bu esa xodimlar va hamkorlar o'rtasida hamkorlik qilish va ma'lumot almashishni osonlashtiradi.
- **Xavfsizlik va muvofiqlik:** bulutli xizmat ko'rsatuvchi Provayderlar odatda yuqori darajadagi xavfsizlik va tartibga solish talablariga javob beradi, bu esa bulutli yechimlarni tartibga solinadigan sohalarda ishlaydigan kompaniyalar uchun jozibador qiladi.

3 IEEE Xplore - https://ieeexplore.ieee.org/

- **Kichik biznesni rivojlantirish:** bulutli texnologiyalar kichik va o‘rta korxonalar uchun ilg‘or ot resurslarini taqdim etadi, bu ularga bozordagi yirik o‘yinchilar bilan raqobatlashish va katta sarmoyasiz o‘z bizneslarini kengaytirish imkonini beradi. Ushbu omillar bulutli texnologiyalar raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda, samaradorlikni oshirishda, innovatsiyalarni rag‘batlantirishda va zamonaviy dunyoda biznesning o‘sishiga yordam berishda muhim rol o‘ynashini tasdiqlaydi. Tadqiqotlarga ko‘ra 4 bulutli texnologiyalar bir qator sabablarga ko‘ra zamonaviy dunyoda dolzarb bo‘lib qolmoqda:
- **Moslashuvchanlik va miqyoslilik:** bulutli platformalar tashkilotlarga o‘z resurslarini ehtiyojlarga qarab kengaytirishga imkon beradi, bu esa ularni har qanday o‘lchamdagi kompaniyalar uchun ideal tanlov qiladi.
- **Iqtisodiy samaradorlik:** bulutli xizmatlardan foydalanish infratuzilma va uskunalar xarajatlarini kamaytiradi, chunki biznes egalari endi o‘z serverlari va uskunalarini sotib olishlari va saqlashlari shart emas.



1-rasm: Ta’lim jarayonida bulutli texnologiyalardan foydalanish[5]

- **Innovatsiya va raqamli transformatsiya:** bulutli platformalar sun’iy intellekt, ma’lumotlar tahlili, narsalar interneti va boshqalar kabi yangi texnologiyalar va imkoniyatlarni rivojlantirishga yordam beradi, bu esa kompaniyalarning raqobatbardosh bo‘lishiga yordam beradi.
- **Xavfsizlik va ishonchlilik:** bulutli xizmat ko‘rsatuvchi Provayderlar odatda yuqori darajadagi xavfsizlik va ma’lumotlar ishonchliligini ta’minlaydilar, bu esa bulutli yechimlarni kompaniyalar uchun jozibador qiladi, ayniqsa kiberxavfsizlik tahdidlari ortib bormoqda. Mening nuqtayi nazarimga ko‘ra, bulutli texnologiyalarning asosiy xususiyatlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi: talab bo‘yicha instansiya: foydalanuvchilar kerakli resurslarga zudlik bilan, oldindan buyurtma bermasdan yoki uskunani o‘rnatmasdan kirishlari mumkin.
- **Miqyoslilik:** bulutli xizmatlar o‘zgaruvchan sharoitlarga tezda moslashishga imkon beradigan biznes yoki loyiha ehtiyojlariga qarab hisoblash resurslarini kengaytirish imkoniyatini beradi.
2. C. Lopez-Nicolas, & P. Soto-Acosta, Analyzing ICT adoption and use effects on knowledge creation: An empirical investigation in SMEs. International Journal of Information Management, 30(6), 521-528. DOI:10.1016/j.ijinfomgt.2010.03.004 (2010).
3. Gbadegeshin S.A. (2019). The effect of digitalization on the commercialization process of high-Technology companies in the life sciences industry. Technology Innovation Management Review, 9(1).
4. Fitzgerald M., Kruschwitz N., Bonnet D., & Welch M. (2014). Embracing digital technology: A new strategic imperative. MIT sloan management review, 55(2), 1.
5. Frank A.G., Mendes G.H., Ayala N.F., & Ghezzi A. (2019). Servitization and Industry 4.0 convergence in the digital transformation of product firms: A business model innovation perspective. Technological Forecasting and Social Change. – P. 141, – PP. 341–351.
6. Формирование устойчивого позиционирования предприятий на основе развития информационных систем/ Устинова Л.Сборник научных трудов, Вестник РГАИС, т.3,2012. с.100-107.
7. Устинова Л.Н. Развитие интеллектуальных информационных систем в управлении предприятием. - М.: Научно-технический журнал “МГОУ-XXI-Новые технологии”, №1, 2011.
8. https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/raqamli-iqtisodiyot

A STUDY OF GREEN MARKETING PRACTICES IN THE RETAIL INDUSTRY – ADVANTAGES AND DISADVANTAGES

Davronova Zilola Gulomovna
Doctorate student of Marketing department, TSUE

Abstract: Recently, there has been a noticeable increase in consumer awareness of environmental issues, leading to a rise in eco-conscious behavior. This shift is influenced by factors such as a better understanding of the environmental impact of human actions and a growing interest in sustainable living. Consequently, businesses are adapting their marketing strategies to cater to this environmentally aware consumer base. This study aims to explore the implementation of green marketing strategies within the retail sector, analyzing both the benefits and drawbacks of such approaches.

Key words: Green marketing, Retail industry, Sustainability, advantages and disadvantages.

Annotatsiya: So‘nggi paytlarda iste’molchilarning ekologik muammolar to‘g‘risida xabardorligi sezilarli darajada oshdi, bu ekologik ongli xatti-harakatlarning o‘sishiga olib keldi. Ushbu siljish inson omilining atrof-muhitga ta’sirini yaxshiroq tushunish va barqaror hayotga qiziqishning ortishi bilan bog‘liq. Binobarin, korxonalar o‘zlarining marketing strategiyalarini atrof-muhitga moslashtirmoqdalar. Ushbu tadqiqot chakana sektorda yashil marketing strategiyalarini amalga oshirishni o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, bunday yondashuvlarning afzalliklari va kamchiliklarini tahlil qiladi.

Kalit so‘zlar: Yashil marketing, Chakana savdo sanoati, Barqarorlik, afzalliklari va kamchiliklari.

Аннотация: В последнее время наблюдается заметный рост осведомленности потребителей об экологических проблемах, что приводит к росту экологически сознательного поведения. На этот сдвиг влияют такие факторы, как лучшее понимание воздействия деятельности человека на окружающую среду и растущий интерес к устойчивому образу жизни. Следовательно, предприятия адаптируют свои маркетинговые стратегии для обслуживания этой экологически сознательной потребительской базы. Целью данного исследования является изучение реализации стратегий зеленого маркетинга в секторе розничной торговли, анализируя как преимущества, так и недостатки таких подходов.

Ключевые слова: Зеленый маркетинг, Розничная торговля, Устойчивое развитие, преимущества и недостатки.

INTRODUCTION

The concept of “green marketing” pertains to the promotion and sale of products and services that prioritize environmental sustainability (Peattie & Crane, 2005). Emerging as a response to the escalating consumer awareness of environmental issues, green marketing reflects a contemporary trend where individuals are increasingly mindful of ecological considerations. This shift is propelled by various factors, such as heightened recognition of the environmental repercussions of human actions and a growing inclination towards sustainable living practices. Consequently, businesses are increasingly embracing green marketing strategies to resonate with environmentally conscious consumers.

The retail sector is significantly impacted by the increasing environmental awareness among consumers, primarily because of its heavy dependence on consumer expenditures. Consequently, retailers are motivated to integrate green marketing strategies to attract environmentally conscious consumers. This research aims to investigate the implementation of green marketing tactics within the retail industry. It will scrutinize and evaluate the diverse marketing approaches utilized by retailers to target eco-conscious consumers. Furthermore, the study intends to assess the efficacy of these marketing initiatives in shaping consumer behavior. The research will be carried out through a comprehensive review of pertinent literature in this area.

Retailers have various methods to integrate green marketing into their operations. One prevalent approach involves emphasizing the environmental advantages of their offerings in promotional materials. This can be achieved through the incorporation of green marketing messages and symbols, like the recycling logo. Furthermore, retailers can utilize point-of-sale displays to educate consumers about the eco-friendly attributes of their

products. Another effective green marketing tactic is to provide discounts or rewards to customers who opt for environmentally sustainable products.

This research aims to investigate the implementation of green marketing strategies within the retail sector. The study will explore the various approaches used by retailers to attract environmentally conscious consumers and assess the effectiveness of these strategies in shaping consumer behavior. The research will be conducted through a comprehensive review of relevant literature in this field.

REVIEW OF LITERATURE

Gelderman C. J.'s [1] study advocates for the implementation of a green marketing strategy focused on promoting and selling environmentally friendly products within the retail sector. Through a survey conducted among professional buyers in retail, it was observed that the adoption of green marketing strategies had a substantial positive impact on product quality, pricing, and overall corporate image.

Chung K. C.'s [2] scholarly investigation, the focus was on the intricate relationship between sustainable consumption behavior exhibited by customers and its consequential impact on the broader sustainable development of society. Through a comprehensive analysis, the study elucidated the manifold benefits associated with the implementation of green hotel management practices in safeguarding the natural environment. Furthermore, a pioneering green marketing-oriented model was proposed as a strategic framework to guide businesses in aligning their operations with environmentally conscious principles, thereby contributing to the advancement of sustainability objectives within the hospitality industry and beyond.

According to Iqbal A. [3] eco -friendly products would develop by using green marketing tactics and how the overall consumption behavior of consumer would have turned to green consumption. In order to explore the phenomena four independent variables green products, green value, perceived consumer effectiveness, environmental sustainability is considered whereas green consumption behavior is taken as dependent variable. Green purchase intention is the mediating variable whereas green concern is considered as moderating variable.

Green marketing is defined as "the process of selling products and services based on their environmental benefits" [4] (Kotler & Keller, p. 463). This marketing strategy can be applied to various offerings, such as those that are eco-friendly, energy-efficient, or utilize recycled materials. Moreover, green marketing serves as a means to convey a company's commitment to sustainable practices in manufacturing and business operations.

Holmes [5] defines green marketing as "the use of marketing, advertising and communications to create, maintain and enhance an organization's image as environmentally responsible" (p. 256). In order for a company to be considered a green marketer, it must be environmentally aware and use green marketing techniques to improve its image in the eyes.

Holmes also defines green marketing as "promoting the idea of sustainability through various forms of marketing, including branding, messages and symbols, product packaging and labeling and promotions" (p. 256). Green marketers that are related to environmental issues can use promotional campaigns to persuade consumers that their products or services are ecologically friendly.

Philips [6] investigated whether a green marketing campaign would have an effect on consumers' likelihood of recycling. The researcher discovered that the campaign had a favorable impact on consumers' recycling intentions, particularly when the company directed its efforts towards customers already inclined to recycle. This indicates that green marketing initiatives can influence consumer behavior and serve as effective tools for encouraging environmentally-conscious individuals to make purchases.

In the context of retail industry, Jayrath [7] studied green marketing practices in a retail company in the United Arab Emirates (UAE). In their study, the researchers found that environmental initiatives were perceived as competitive advantages for the retailer, and that they contributed to brand image (p. 258). This supports Jason's findings that environmental initiatives can have an impact on consumer behavior and that they may be effective tools for encouraging environmentally-conscious consumers to make purchases.

Shashirekha & Anuradha [8], studying the effectiveness of green labeling on consumer intention to buy eco friendly products in India, came to similar findings. Eighty percent of respondents reported that they are willing to pay for eco-friendly products. The same paper also examined the impact of green marketing tactics on brand image and customer loyalty. The results showed that from the respondents that are aware of green product labeling, 77% were able to associate a positive image with the eco-friendly products and 58% were loyal to those brands.

Overall, the literature review indicates that green marketing is a flexible concept applicable to businesses of all sizes. However, the effectiveness of green marketing strategies varies depending on the individual business, with each owner needing to determine the level of commitment to green initiatives. One key advantage

of green marketing is its potential for seamless integration into existing operations in a cost-effective manner. While some small businesses have successfully implemented green marketing practices, not all may be able to do so, and they should not feel compelled to do so at all costs. The success or failure of green initiatives for small businesses depends on a multitude of factors, making it unreliable as a sole solution for business sustainability. Despite the challenges, many small businesses have embraced green marketing for its economic, social, and environmental benefits. For example, as noted by Mehtab [9] "The Earth" grocery store has incorporated green practices to encourage consumers to adopt sustainable purchasing habits.

FINDINGS

The advantages of using green marketing in the retail sector in :

- It helps in creating a positive brand image.
- It is a powerful differentiation strategy compared to competitors.
- It helps to increase sales activities.
- Sustained green product development can help to increase revenue and market share with minimal investment in marketing efforts.
- It helps to sustain good relations with customers.
- It helps in sustaining a positive corporate image.
- It is a means of attracting potential customers through its green promotion activities.
- It helps to create a differentiated product or service that can be sold at premium price by highlighting unique benefits to consumers (Voluntary Simplicity, Green Personal Care Products, Green Fashions etc.).
- New product development can be used as a way to identify emerging trends and develop new products better attuned to consumer needs (green cleaning products and personal care products).
- New development and implementation of quality control systems can help to improve production efficiencies and reduce waste.

The disadvantages of using green marketing in the retail sector in :

- The initial capital required to launch a green marketing campaign is substantial, potentially leading to high start-up costs for green businesses.
- Small companies may encounter challenges in aligning their product and service marketing with the traditional Four Ps model.
- The effectiveness of a marketing campaign hinges on meticulous planning and implementation, as well as the level of marketing resources allocated to initiatives such as Green Personal Care Products and Green Fashions.
- Limited consumer awareness of environmental concerns, environmental regulations, and corporate social responsibility standards could impede the successful promotion of green products or services.
- Overemphasizing environmental issues may cause companies to overlook other critical factors, potentially jeopardizing the success of their marketing endeavors.
- Introducing a new environmentally friendly product or service may cause consumer confusion regarding the distinction between sustainable and non-sustainable offerings.
- Inadequate engagement of senior management in executing a marketing strategy may result in waning support at higher organizational levels and an inability to implement sustainable practices, such as those related to eco-friendly fashion.
- While leadership involvement is crucial for the successful integration of sustainable strategies, it is imperative that this engagement does not detract management from focusing on core business activities, particularly in the context of sustainable fashion.
- Implementing sustainable business practices and initiatives can present challenges due to the historical emphasis of sustainability on social rather than environmental concerns.

CONCLUSION

The development of green marketing in modern bussiness is still in its early stages. While some companies have begun to implement green marketing strategies, these efforts are primarily seen among medium and small-sized companies and have not yet had a significant impact on the environment. Various factors contribute to this lack of success, including limited consumer awareness of companies' green initiatives, heightened competition in the market, challenges in establishing sustainable supply chains, and a lack of incentives from government agencies such as the Bureau of Indian Standards (BIS) for adopting environmentally friendly practices. Despite the challenges associated with sustainability initiatives in the Indian business context, it remains an

underutilized opportunity that can help companies achieve their corporate objectives effectively. A well-planned and effectively executed green marketing campaign has the potential to support a company's pursuit of sustainable development and yield long-term benefits for the organization.

To align with the sustainable development objectives outlined by the governments, companies have strong incentives to embrace eco-friendly products and services. A key advantage of adopting sustainable practices is the potential for enhanced customer loyalty and employee satisfaction, which can positively impact a company's brand reputation. Although sustainable development has gained traction in India with many companies embracing green initiatives, their progress has been limited thus far. This can be attributed to various factors such as low consumer awareness and inadequate implementation of sustainability strategies by top management. However, the imperative for sustainable development is clear, as failure to address environmental and social challenges could lead to significant societal issues. Therefore, companies that champion sustainable development are poised to reap substantial long-term benefits.

Green marketing practices in the retail sector encompass strategies designed to promote environmentally sustainable products, mitigate ecological footprints across the supply chain, and cultivate sustainable consumer behaviors. Common green marketing practices embraced by retailers include:

1. **Sustainable sourcing:** Prioritizing suppliers that uphold eco-friendly practices, such as utilizing sustainable materials and minimizing waste generation.
2. **Product labeling and certification:** Utilizing certifications like Fair Trade and Energy Star to communicate environmental credentials to consumers.
3. **Energy efficiency initiatives:** Implementing energy-saving measures like LED lighting and optimizing HVAC systems.
4. **Waste reduction and recycling programs:** Implementing strategies to reduce packaging materials and encourage recycling.
5. **Promotion of eco-friendly products:** Actively advertising environmentally friendly products to raise consumer awareness.
6. **Offering sustainable alternatives:** Providing eco-friendly alternatives to conventional products.
7. **Educational initiatives:** Educating consumers on environmental benefits and sustainable consumption practices.
8. **Corporate social responsibility initiatives:** Engaging in CSR activities that support environmental causes.
9. **Supply chain transparency:** Promoting transparency by disclosing supplier environmental practices.
10. **Collaboration and partnerships:** Working with stakeholders to develop sustainability initiatives.

By adopting these green marketing practices, retailers can not only lessen their environmental impact but also distinguish themselves in the market, attract environmentally conscious consumers, and contribute to a shift towards a more sustainable economy.

Bibliography:

1. Gelderman C. J. et al. Green marketing as an environmental practice: The impact on green satisfaction and green loyalty in a business–to–business context //Business strategy and the environment. – 2021. – T. 30. – №. 4. – C. 2061-2076.
2. Chung K. C. Green marketing orientation: Achieving sustainable development in green hotel management //Journal of Hospitality Marketing & Management. – 2020. – T. 29. – №. 6. – C. 722-738.
3. Iqbal A. et al. Impact of green marketing on green purchase intention and green consumption behavior: the moderating role of green concern //Journal of Positive School Psychology. – 2023. – C. 975-993.
4. Kotler, P., & Keller, K. (2009). Marketing management (13th ed.). Upper Saddle River, NJ: Prentice-Hall.
5. Holmes, M. (2010). Green marketing: An exploratory study of Australian organizations. Emerald Group Publishing Limited, 18(3), 256-270.
6. Philips, P. J., & Carrillo, C. X. (2010). Green marketing campaigns and consumer recycling behavior: the moderating effect of intrinsic and extrinsic motivation. Journal of Business Research, 63(3), 279-287.
7. Jayrath, C., & Rizwanulla, M. H. (2011). Green marketing practices in the retail industry: an empirical study from the United Arab Emirates (UAE). Journal of Retailing and Consumer Services, 18(5), 258-267.
8. Shashirekha, G., & Anuradha, C. (2007). Green marketing: Effectiveness on consumer intention to buy eco-friendly products. Asia Pacific Journal of Marketing and Logistics, 19(3),294-310.
9. Mehtab, M. (2008). "The Earth" grocery store: a case study of green marketing

TIJORAT BANKLARINING KORPORATIV XIZMATLARINI TRANSFORMATSIYALASH JARAYONINI RIVOJLANTIRISH

Farmanova O‘g‘iloy Aliqul qizi
TDIU “Bank ishi va investitsiyalar” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tijorat banklarining korporativ xizmatlari faoliyatini xalqaro standartlar asosida rivojlantirish va ushbu jarayonlar orqali tijorat bankining transformatsiyalash jarayonini rivojlantirish ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, tijorat banklarining korporativ boshqaruv organlari vakolatlarini va javobgarligini taqsimlash hamda boshqaruvga oid qarorlar qabul qilish imkonini yaratish masalalari tahlil qilingan. Tijorat banklarining korporativ xizmatlarini transformatsiyalash jarayonini rivojlantirish bo‘yicha amaliy taklif va tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: bank faoliyati, korporativ xizmatlar, korporativ boshqaruv, xalqaro standartlar, bank boshqaruvi, bank strategiyasi, transformatsiyalash, aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi, bank kengashi.

Abstract: This article discusses the development of corporate services of commercial banks based on international standards and the development of the process of transformation of commercial banks through these processes. The issues of distribution of powers and responsibilities of corporate governance bodies of commercial banks and creating opportunities for making management decisions were also analyzed. Practical proposals and recommendations for the development of the process of transformation of corporate services of commercial banks are presented.

Key words: banking activity, corporate services, corporate management, international standards, bank management, bank strategy, transformation, general meeting of shareholders, bank board.

Аннотация: В данной статье рассматривается развитие корпоративных услуг коммерческих банков на основе международных стандартов и развитие процесса трансформации коммерческих банков посредством этих процессов. Также были проанализированы вопросы распределения полномочий и ответственности органов корпоративного управления коммерческих банков и создания возможностей для принятия управленческих решений. Представлены практические предложения и рекомендации по развитию процесса трансформации корпоративных услуг коммерческих банков.

Ключевые слова: банковская деятельность, корпоративные услуги, корпоративное управление, международные стандарты, банковский менеджмент, стратегия банка, трансформация, общее собрание акционеров, правление банка.

KIRISH

Zamonaviy boshqaruv nazariyasiga ko‘ra, iqtisodiy tizimning transformasiyasi hamda rivojlanishning yangi bosqichiga o‘tishi birinchi navbatda har tomonlama chuqur o‘ylangan, aniq maqsad va ustuvor yo‘nalishlarni o‘z ichiga olgan taraqqyot strategiyasi asosida ta’minlanadi. Shu o‘rinda alohida qayd qilish zarurki, mamlakatimiz tijorat banklari faoliyatini rivojlantirish strategiyasini ishlab-chiqish va joriy qilish borasida e’tiborga molik chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Mazkur xulosa tijorat banklari tomonidan e’lon qilingan strategiyalar, strategik rejalar, rivojlanish konsepsiyalari va dasturlari bilan asoslanishi mumkin. Shunga qaramasdan, qayd etilgan hujjatlar tahlili ularda ilmiy-metodologik jihatdan ma’lum kamchiliklar mavjudligidan dalolat beradi.

Fikrimizcha, ushbu kamchiliklarning aksariyat qismi bank faoliyatida yuz berayotgan jarayonlarni belgilab beruvchi strategik tendensiyalarning aniq ifodalanmasligi bilan bog‘liqdir. Buni e’tiborga olgan holda, asosiy strategik tendensiyalarning iqtisodiy mohiyatiga aniqlik kiritishga harakat qilamiz.

Birinchidan, tartibga solish borasidagi makroprudensial nazorat talablarining qat’iylashuvi hamda inflyatsiyaning prognoz ko‘rsatkichlariga erishish, narxlar o‘sishini sekinlashtirish va jamg‘arishni qo‘llab-quvvatlash maqsadida nisbatan qat’iy pul kredit siyosatining olib borilishi tijorat banklari faoliyatini makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlashdagi roli va ahamiyatini oshirishni talab qiladi.

Xususan, “G-20”guruhiga kiruvchi mamlakat rahbarlarining Antalya shahrida o‘tkazilgan sammitida global tizimni tashkil qiluvchi banklar uchun zararlarni qoplashning umumiy imkoniyatlari standarti (Total Loss-absorbing Capacity (TLAC))ni joriy qilish yuzasidan takliflar qabul qilindi. TLAC talablarining amaliyotga joriy qilinishi ikki bosqichda amalga oshirilishi nazarda tutilgan:

1-bosqich:

a) talablar 2019-yilning 1 yanvaridan kuchga kirgan;

b) TLAC ning minimal ko‘rsatkichi risklarga tortilgan aktivlarga nisbati 16 foizni, ammo Bazel 3 talablari doirasida leverej koeffisienti (6 foizdan) dan kam bo‘lmasligi zarur.

2-bosqich:

a) yangi kuchaytirilgan talablar 2022-yilning 1-yanvaridan kuchga kirgan; unga ko‘ra;

b) TLAC ning minimal ko‘rsatkichi risklarga tortilgan aktivlarga nisbati 18 foizni, ammo Bazel 3 talablari doirasida leverej koeffisienti (6,75 foizdan) dan kam bo‘lmasligi zarur.

Bunda shuni ta’kidlash jozki, shakllanayotgan bozorlarga ega mamlakatlar yurisdiksiyasi ostidagi global tizimni tashkil qiluvchi banklar uchun 2025 yilning 1 yanvaridan TLACning minimal talablarini ko‘rsatkichi risklarga tortilgan aktivlarga nisbati 16 foizni, ammo Bazel 3 talablari doirasida leverej koeffisienti (6 foizdan) dan kam bo‘lmasligi, 2028-yildan mos tarzda 18 va 6,75 foizga teng bo‘lishi lozim.

Ma’lumki, so‘nggi yillarda O‘zbekistonda hayotning barcha sohalarida tub o‘zgarishlar ro‘y berdi. Mazkur progressiv jarayonlar uzluksizligi ta’minlanib, izchil davom ettirilyapti. Zamonaviy tendentsiyalarga asoslangan bunday islohotlar mamlakatimiz bank-moliya sektorini jadal rivojlantirish sur’atlarida ham yaqqol namoyon bo‘lyapti. Pirovardida nafaqat davlat, balki tijorat banklari ham mijozlar uchun ishonchli, samarali va optimal hamkorga aylanish uchun shahdam qadamlar tashlamoqda.

Bunda sohaga boshqaruvning korporativ tamoyillari uzluksiz tatbiq etib borilayotgani muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zero, Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilib, amalga oshirilayotgan 2022-yil 28-yanvardagi “2022−2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son farmonida ham ushbu masalaga alohida e’tibor qaratilgan. Unda bank tizimini isloh qilishni chuqurlashtirish va barqarorligini ta’minlash, banklarning kapitallashuv darajasi va depozit bazasini oshirish, ularning moliyaviy barqarorligi va ishonchliligini mustahkamlash, istiqbolli investitsiya loyihalari hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini kreditlashni yanada kengaytirish pirovard maqsadlar qatorida ko‘rsatib o‘tilgan.

Bugungi kunda, tijorat banklarining korporativ boshqaruv faoliyatida bank strategik maqsadlarini aniqlash va ularga erishish ustidan nazorat qilish uchun zarur tashkiliy tuzilmani, shuningdek boshqaruvga oid qarorlar qabul qilish imkonini ta’minlovchi, bank boshqaruv organlari va boshqa manfaatdor tomonlar o‘rtasidagi munosabatlar majmui, shu jumladan boshqaruv organlarining vakolatlarini va javobgarligini taqsimlash hamda boshqaruvga oid qarorlar qabul qilish imkonini yaratish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Korporativ boshqaruv bu – kompaniya faoliyatiga rahbarlik qilish va uning ustidan nazorat qilish o‘ziga xos tizimdir.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, mavzuga oid adabiyotlar tahlilini o‘tkazish natijasida turli tadqiqotlarda korporativ boshqaruv masalalarining iinovatsiyalar bilan o‘zaro bog‘liqligi ko‘rib o‘tilgan.

Jumladan, amerikalik olimlar Sarpa, Subramanian va Subramanian (2014) shunday nazariyani ishlab chiqishganki, unda ular qanday qilib korporativ boshqaruvning ichki va tashqi mexanizmlari innovatsiyalarga ta’sir etishini ko‘rsatishgan. Ular tashqi korporativ boshqaruv mexanizmlari (korporativ nazorat bozori) ichki korporativ boshqaruv mexanizmlari (menejerlik shartnomalari) bilan o‘zaro bog‘liq holda kompaniyada menejerlar tomonidan innovatsiyalarni ishlab chiqish darajasiga ta’sir etishini isbotlashgan.

Shadab (2008) o‘z tadqiqotida innovatsiya va korporativ boshqaruvni o‘rganishda boshqaruv tuzilmasi, aktsiyadorlik kapitali qiymati, ichki nazorat kabi masalalarni, shuningdek, qanday qilib AQSh korporativ qonunchiligi korporatsiyalarning innovatsion faoliyatiga ta’sir etganligini o‘rgangan.

Hoshimovning (2003) tadqiqotlarida mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish sharoitida korporativ tuzilmalarni boshqarishni rivojlantirishning ilmiy-metodologik jihatlariga alohida e’tibor qaratilgan.

Yaushevning (2004) ilmiy izlanishlari integratsion korporativ tuzilmalar va ta’sischi kapitalda davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish muammolariga bag‘ishlangan.

Xamidulin (2007) fond bozorini rivojlanishi, aktsionerlik jamiyatlarida kuzatuv kengashining roli va ahamiyati masalalari ustida fikr yuritadi.

Iqtisodiyotda davlat mulki va ulushi bo‘lgan korxonalar faoliyati samaradorligini oshirish va erkin raqobat muhitini yaratish maqsadida davlat ulushini xorijlik investorlarga sotish orqali iqtisodiyotda davlat boshqaruvi va nazoratini qisqartirish lozimligini ta’kidlab o‘tgan.

Tan olish kerak, o‘tgan yillarda yurtimizda tijorat banklarning joriy xo‘jalik faoliyatiga davlat organlari tomonidan aralashuvlar ko‘p kuzatilar, boz ustiga ularda bozor tendentsiyalariga moslashuvchanlik va sezuvchanlikning yetarli emas edi. Strategik rejalashtirish, risklarni boshqarish tizimining talab darajasida yo‘lga qo‘yilmagan edi.

Mamlakatimiz kapital bozorini rivojlantirishda qator muammolar yig‘ilib qolgan edi. Xususan, davlat korxonalarini boshqarish uchun bozor mexanizmlarini ishlab chiqish, ulardagi zamonaviy korporativ boshqaruv usullarini joriy etish, davlat korxonalarining ustav kapitalidagi ulushini asta-sekin qisqartirish va xalqaro tashkilotlar va kompaniyalar ishtirokidagi ochiq xususiylashtirishni ta’minlash kabi vazifalarni qo‘ygan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada O‘zbekiston va xorijiy mamlakatlar iqtisodchi olimlarining tijorat banklarida korporativ boshqaruvni rivojlantirishni amalga oshirishni moliyaviy jihatdan ta’minlovchi manbalarning tahliliga bag‘ishlangan ilmiy asarlari o‘rganilgan. Tadqiqot metodologiyasi sifatida adabiyotlarning qiyosiy tahlili va farazni asoslash usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Yangi O‘zbekiston sharoitida jamiyatdagi qator masalalar qatori aynan ushbu muammo ham to‘liq tahlil qilindi, unga tashkiliy va huquqiy baho berildi. Shu asosda davlatimiz rahbari tomonidan soha qiyofasini tubdan o‘zgartirish, uning faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan qator farmon va qarorlar qabul qilindi aniq chora-tadbirlar belgilab berildi.

Bugungi kunda davlat ishtiroki bo‘lmagan aktsiyadorlik jamiyatlari, xususan, tijorat banklarida korporativ boshqaruvni rivojlantirishni tizimli yo‘lga qo‘yish, ularda korporativ boshqaruv darajasini reyting asosida muntazam baholash va monitoring qilib borish bo‘yicha izchil ishlar olib borilayotgani buning tasdig‘idir.

Zero, aynan mana shunday yondashuv jahon tajribasida ham o‘zining amaliy isbotini topgan. Binobarin, bugungi kunda ham dunyoda tijorat banklari tizimida korporativ boshqaruv mezonlarini innovatsion g‘oyalar bilan uyg‘unlikda keng taraqqiy toptirish bo‘yicha izlanishlar davom ettirilmoqda. Bular ularni boshqarish tizimiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining faol joriy etilishi, korporatsiyalarni boshqarishda manfaatdor tomonlar rolining ortishi, direktorlar kengashining muvozanatlashgan tarkibi va manfaatlar qarama-qarshiligi muammosini hal etishdagi rolini ortishida namoyon bo‘lyapti.

Masalan, Yevropa Ittifoqining korporativ boshqaruv bo‘yicha “yashil kitobi”da aktsiyadorlik jamiyatlari direktorlar kengashini shakllantirishda professional, millat, gender xilma-xilligini kuchaytirish, direktorlar kengashi va menejment bilan muloqot jarayonlariga aktsiyadorlarni, xususan, minoritar aktsiyadorlarni kengroq jalb etish, uzoq muddatli maqsadlarga yanada ko‘proq ustuvorlik berish, direktorlarning aktsiyadorlar oldidagi mas’uliyatini yanada oshirish va ularni shu yo‘nalishda yetarlicha rag‘batlantirish, korporatsiyalar faoliyati ustidan keng jamoatchilik nazoratining moslashuvchan tizimini shakllantirish zarurati qayd etilgan.

O‘zbekistonda ham ilg‘or xorij tajribasini chuqur o‘rganish, uni moliya-bank sektoriga ham joriy etishga bo‘lgan e’tibor keyingi yillarda mutlaqo o‘zgardi. Buni korporativ boshqaruv sohasida so‘nggi yillarda qabul qilingan me’yoriy-huquqiy hujjatlar va ular asosida kiritilgan asosiy o‘zgarishlar tasdiqlab turibdi. Shular asosida so‘nggi paytlarda respublikamiz iqtisodiyoti va moliya-bank sohasida davlat ishtirokini yanada qisqartirish, fond bozorini rivojlantirish va sog‘lom raqobat muhitini yaratish, shu orqali faol investitsiya siyosatini olib borishni rag‘batlantirish muhim vazifaga aylandi.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 14-yanvardagi “Davlat aktivlarini boshqarish, monopoliyaga qarshi kurashishni tartibga solish tizimini va kapital bozorini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoniga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalarga ko‘maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasi va mazkur qo‘mita huzuridagi Qimmatli qog‘ozlar bozorini muvofiqlashtirish va rivojlantirish markazi hamda Davlat aktivlarini boshqarish markazi negizida 3 ta mustaqil institutlar O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi va O‘zbekiston Respublikasi Kapital bozorini rivojlantirish agentligi tashkil etildi. Bu mamlakatimizda korporativ boshqaruv tizimini rivojlantirishning yangi bosqichiga asos soldi.

Ekspertlarning aytishicha, korporativ boshqaruv kodeksida keltirilgan kuzatuv kengashi mustaqil a’zosini belgilab beradigan mezonlarning murakkabligi, mustaqil a’zo maqomini aniqlashda nomzodning ish faoliyatiga doir muddat aksariyat rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda so‘nggi uch yil etib belgilangan bo‘lishiga qaramay, O‘zbekistonda bu me’yorning besh yil etib belgilanishi mustaqil a’zolikka nomzodlar sonini yanada cheklanishiga olib kelayotgan edi. Bundan tashqari, aktsiyadorlik jamiyatlari kuzatuv kengashiga mustaqil a’zoni kim ko‘rsatishi masalasi ko‘plab munozaralarga sabab bo‘lib, bu borada mualliflik qarashlari ham bildirilgan edi.

Shu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 14-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori ahamiyatiga alohida to‘xtalib o‘tish lozim. Mazkur muhim hujjatga muvofiq, xo‘jalik jamiyatining ijro organi (rahbar va rahbar o‘rinbosarlari) tanlov asosida yuqori malakali, shu jumladan xorijiy mutaxassislar orasidan tanlab olinadi va davlat organlari, tashkilotlar yoki ularning mansabdor shaxslari bilan kelishilmasdan aktsiyadorlar umumiy yig‘ilishi yoki kuzatuv kengashi qarori bilan tayinlanadi. Respublikamizning aksariyat aktsiyadorlik jamiyatlari ijroiya organi rahbarini tayinlashni tanlov asosida o‘tkazish bo‘yicha ichki tartib yoki nizomlarni ishlab chiqqan bo‘lib, unda nomzodlarni saralash uchun mezonlar aks ettirilgan. Ushbu tanlovlarda xorijiy menejerlarning ishtirok etishi ham ko‘zda tutilgan.

Birgina tijorat banklari misolida oladigan bo‘lsak, avvallari tijorat banklari Boshqaruv raisligiga nomzod Markaziy bank bilan kelishilgan holda lavozimga tayinlanar va keyinchalik bank aktsiyadorlari umumiy yig‘ilishida tasdiqlanar edi. Endi mazkur talab bekor qilindi va “Tijorat banklarida korporativ boshqaruv to‘g‘risida”gi Nizomga tegishli o‘zgarishlar kiritildi. Amaldagi tartibga ko‘ra Bank boshqaruvi raisi Bank kengashi qarori bilan tayinlanadi va keyinchalik aktsiyadorlar umumiy yig‘ilishi tomonidan tasdiqlanadi. Ushbu maqsadda tanlov amalga oshiriladi va bunda xorijiy menejerlar ham ishtirok etishi mumkin. Ammo bu borada ko‘rilayotgan choralar samaradorligini oshirish hamon dolzarb bo‘lib turibdi. O‘z navbatida tijorat banklariga korporativ menejment printsiplari qanchalik keng joriy etilsa, ulardagi axborot ochiqligini ta’minlashni shunchalik kuchaytirish darkor.

Albatta, bu borada hali qilinadigan ishlar juda ko‘p. Masalan, aktsiyadorlik jamiyatlari, shu jumladan, tijorat banklari tomonidan e’lon qilinadigan hisobotlar asosan moliyaviy xarakter kasb etib, korporativ boshqaruv holati, korporativ boshqaruv kodeksi tavsiyalariga rioya etish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlarni hisobot shaklida oshkor qilib borish amaliyoti hamon oqsayapti. Minoritar aktsiyadorlarning xo‘jalik jamiyatlari boshqaruvidagi rolini oshirish hamon dolzarb bo‘lib turibdi.

Shu boisdan, korporativ moliya bo‘yicha konsalting xizmatlarini yo‘lga qo‘yish orqali investitsion bankingning an’anaviy xizmatlari turlarini rivojlantirish mumkin. Ayni paytda, banklarning qimmatli qog‘ozlar bozoridagi strategiyasi ularning investitsion bank xizmatlarini ko‘rsatishdagi kuchli tomonlari va imkoniyatlariga asoslanishi zarur (1-jadval).

1-jadval: O‘zbekiston tijorat banklarining investitsion banking xizmatlarini rivojlantirish bo‘yicha SWOT tahlili[1]

Kuchli tomonlar (Strength)	Zaif tomonlar (Weakness)
-tijorat banklari kapital bazasining mustahkamligi; -respublika fond bozorida banklarning yetakchiligi; -qimmatli qog‘ozlar bozorida banklarning ruxsatsiz ishtirok etishi; -investitsion portfelni shakllantirishda banklarning mijoz to‘g‘risida yetarli ma’lumotga ega bo‘lishi; -korporativ moliya bo‘yicha bank xodimlarida yetarli kompetentsiya mavjudligi.	-banklarning jami majburiyatlari tarkibida qisqa muddatli majburiyatlar salmog‘i yuqoriligi; -bank aktivlarini moliyalashtirish uchun “uzun pullar”ning yetishmasligi; -respublika fond bozori likvidliligi pastligi; -respublikada korporativ nazorat bozorining yetarlicha rivojlanmaganligi; -korporativ obligatsiyalarni emissiya qilish va joylashtirish bilan bog‘liq talablarning yuqoriligi va murakkabligi.
Imkoniyatlar (Opportunities)	**Tahdidlar (Threats)**
-Markaziy bankning ochiq bozor operatsiyalari obyekti sifatida korporativ qimmatli qog‘ozlardan foydalanish imkoniyati; -tijorat banklarining fond bozorida market-meyker funktsiyasini bajarishi; -aktsiyadorlik jamiyatlarining xalqaro fondbozorlari listingiga kirishi va qimmatli qog‘ozlarni birlamchi ommaviy joylashtirish (IPO); -axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash orqali; -investitsion bank xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha banklar biznes modellarini takomillashtirish.	-globallashuv sharoitida investitsion xizmatlarning erkinlashuvi va bu jarayonda xalqaro investitsion banklar rolining ortishi; -investitsion xizmatlar ko‘rsatishda raqobatning keskinlashuvi; -investitsion bank faoliyatini tartibga solish bo‘yicha xalqaro standartlarning qat’iylashuvi; -blokcheyn tizimi orqali moliyaviy vositachilik xizmatlarini taklif qilish ko‘lami ortishi; -P2P formatida moliyaviy vositachilarsiz bank xizmatlarini ko‘rsatish platformalari rivojlanishi.

Mutaxassilarning fikricha, blokcheyn texnologiyalarini xo‘jalik jamiyatlari korporativ boshqaruvida qo‘llash qator imkoniyatlarni taqdim etadi. Chunonchi, aktsiyadorlar umumiy yig‘ilishini tashkil etish va o‘tkazish tizimi modernizatsiya qilinadi. Blokcheyn texnologiyalari yordamida virtual umumiy yig‘ilishlarda ovoz berish imkoniyati yaratiladi, blokcheyn muhitida shaffoflik va ishonchni mustahkamlash orqali agentlik muammosini hal etish uchun yangicha yechim taklif etiladi. “Aqlli shartnomalar”ni keng joriy etiladi. Manfaatdor tomonlarning hamkorlika hamkorlikka asoslangan boshqaruvdagi ishtiroki kuchaytiriladi.

1 Igamberdiyev S.X. Investitsion banklar faoliyatini boshqarishni takomillashtirish. iqt. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref., 2018, 25 b.

So‘nggi yillarda yevrobondlarni chiqarishda tijorat banklari (O‘zSQB, “Agrobank” va boshqalar) faollashuvi ham kuzatilayotgani yurtimizda tijorat banklarida korporativ boshqaruv tendentsiyalari rivojlanib borayotganini anglatadi.

Tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bozoridagi strategiyasini shakllantirish. Muallifning fikricha, aksiyadorlik jamiyatlari banklarga kredit uchun to‘lanadigan foiz stavkasi va boshqa yuridik shaxs depozitlaridan oladigan foiz stavkasi o‘rtasidagi farqni (foiz marjasini) korporativ obligatsiyalarni muomalaga chiqarish orqali o‘zaro bo‘lishish imkoniyati mavjud.

Aktsiyadorlik jamiyatlari banklarga kredit uchun to‘lanadigan foiz stavkasi va boshqa yuridik shaxs depozitlaridan oladigan foiz stavkasi o‘rtasidagi farqni (foiz marjasini) korporativ obligatsiyalarni muomalaga chiqarish orqali o‘zaro bo‘lishish imkoniyati mavjud.

Bankning qimmatli qog‘ozlar portfelini shakllantirishda investitsion qo‘yilmaning likvidliligi, xavfsizligi, investitsion qo‘yilmaning o‘sishi va daromadliligini hisobga olish, shuningdek, investitsion portfelning tarmoq va mintaqaviy diversifikatsiyasini ta’minlash zarur.

Yurtimizda Korporativ axborotlar yagona portalining ishga tushirilishi aynan ushbu yo‘ldagi muhim qadam bo‘ldi. Natijada aktsiyadorlik jamiyatlari, jumladan, tijorat banklarining veb- sahifalarida korporativ axborotlarni davlat tilida, rus va ingliz tillarida chop etish yo‘lga qo‘yildi.

Shular bilan bir qatorda tijorat banklarining investorlar bilan munosabatlarida zamonaviy shakllar, “Road Show”, investitsiya va biznes forumlarini tashkil etish, “Invest in Uzbekistan” yagona, muvofiqlashtirilgan axborot kompaniyasini ishlab chiqish, targ‘ibot va keng xabardor qilish va ushbu maqsadda batafsil, tushunarli axborot resurslarini tayyorlashda ham muhim qadamlar qo‘yilyapti.

Samarali korporativ boshqaruvning asosi bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

- bankning ichki hujjatlarida belgilanadigan vakolat va vazifalarning aniq tarzda taqsimlanishi;
- yetarli darajadagi hisobdorlik;
- o‘zaro nazorat qilish hamda bank uchun salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin bo‘lgan qarorlar qabul qilinishining oldini olishni ta’minlovchi, bank boshqaruvi organlari va (yoki) tarkibiy tuzilmalar o‘rtasidagi vakolatlarning taqsimlanishi;
- o‘zining vakolatlari va vazifalarini yaxshi biluvchi, funktsional vazifalarini bajarishda yuqori darajadagi ishbilarmonlik va odob-axloq qoidalariga rioya etuvchi, bank kuzatuv kengashining va ijroiya organining yuqori malakali a’zolari mavjudligi.

Kengash va boshqaruv a’zolari o‘z faoliyatini amalga oshirayotganda ma’nan javobgarlikni va jonkuyarlikni namoyon qilishi va sodiqlik bilan xizmat qilishi lozim.

Ma’nan javobgarlik va jonkuyarlikni namoyon qilish deganda kengash va boshqaruv a’zolarining o‘z qarorlarini ongli ravishda qabul qilish va o‘z xatti-harakatlari uchun javobgarlikni his qilish, o‘z xizmat vazifalarini bajarishga mas’uliyat bilan yondashish, qarorlarni o‘z vakolatlari doirasida va mavjud ma’lumotlarni har tomonlama baholagan holda qabul qilish, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari, bank ustavi va bankning ichki me’yoriy hujjatlari talablariga rioya qilish majburiyati tushuniladi.

Sodiqlik bilan xizmat qilish deganda kengash va boshqaruv a’zolari o‘zlari bilan bog‘liq barcha mavjud va ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvini oshkor qilish, o‘z xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlari yo‘lida foydalanmaslik, shuningdek, manfaatlar to‘qnashuvi ularga bank manfaatlari yo‘lida o‘z vazifalarini to‘laqonli bajarishiga to‘sqinlik qilgan taqdirda, qaror qabul qilishda qatnashmaslik majburiyati tushuniladi.

Bank kengashining vakolatlari doirasiga O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi va “Aktsiyadorlik jamiyatlari va aktsiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunlarida belgilangan masalalarni hal etish kiradi.

Kengash a’zolaridan o‘z vazifalarini amalga oshirishlari doirasida quyidagilar talab etiladi:

- o‘zi faoliyat yuritayotgan bank korporativ boshqaruvining tashkiliy tuzilmasini, kengashning funktsiyalarini bilishi, korporativ boshqaruvdagi o‘zining rolini anglashi, bank faoliyatida xos bo‘lgan tavakkalchiliklar haqida tasavvurga ega bo‘lishi, shuningdek bank-moliya sohasidagi, tavakkalchiliklarni boshqarish va korporativ boshqaruvni tashkil etish borasidagi bilim va malakasini doimiy ravishda oshirib borishi;
- bank faoliyatida faol qatnashishi, uning faoliyatidagi va tashqi sharoitlardagi muhim o‘zgarishlarni kuzatib borishi, shuningdek uzoq muddatli istiqbolda bank manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan choralarni o‘z vaqtida ko‘rishi;
- bankning korporativ madaniyati va qadriyatlari shakllanishida yetakchi o‘rinni tutishi;
- ko‘rib chiqilayotgan masalalar yuzasidan kengashning boshqa a’zolari, boshqaruv a’zolari va bank xodimlarining qarashlaridan qat’iy nazar o‘zining asoslangan fikrini bildirishi;

- ma’nan javobgarlik, jonkuyarlik va sodiqlik bilan qarorlar qabul qilishi, bank va uning barcha aktsiyadorlari manfaatlarini ko‘zlab, kengash a’zosi o‘ziga yuklatilgan vazifa va majburiyatlarni vijdonan va oqilona amalga oshirishi, o‘zining yoki ayrim shaxslar manfaatlari yo‘lida o‘z vakolatlarini suiiste’mol qilmasligi;
- manfaatlar to‘qnashuviga olib keluvchi harakatlardan o‘zini tiyishi, shuningdek manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelishi haqida darhol kengashga xabar berishi va uni bartaraf etish yuzasidan chora ko‘rishi;
- kengash va uning qo‘mitalari majlislarida o‘z vakolatlarini uchinchi shaxsga o‘tkazmagan holda ishtirok etishi;
- kengash yig‘ilishlarida ishtirok eta olmasligiga asoslar (kasallik varaqasidaligi, ta’tildaligi, xizmat safaridaligi va boshqalar) haqida o‘z vaqtida ma’lum qilishi;
- kengashga a’zoligi chog‘ida o‘ziga ma’lum bo‘lib qolgan tijorat, bank siri va qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi ma’lumotlarning maxfiyligiga rioya etishi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o‘rnida ta’kidlash lozimki, korporativ boshqaruv so‘zining iqtisodiy ma’nosini qiyosiy o‘rganish asosida, tijorat banklarida korporativ boshqaruv-tijorat banki faoliyatini boshqarishda aktsiyadorlar umumiy yig‘ilishi, kengash a’zolari va boshqa rahbar xodimlar tomonidan amalga oshiriladigan asosiy faoliyat hamda qoidalar majmuasi ekanligining o‘rganildi.

Mamlakatimiz tijorat banklarida korporativ boshqaruv tamoyillarini tatbiq etish va ularni rivojlantirish jarayonlari uzluksiz, ortga qaytmas tendentsiya hisoblanadi. Bu yo‘lda davlat, biznes va bank o‘zaro uyg‘unlik kasb etsa, bu nafaqat mamlakatning iqtisodiy taraqqiyoti, moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, investitsion jozibadorligini oshirish, xalqaro maydondagi imijini yuksaltirish, balki oddiy mijozlar manfaatlarini to‘laqonli ta’minlashda shuncha samara va ahamiyat kasb etadi. Bu esa xalq farovonligini belgilab beruvchi muhim parametrlardan biridir.

Davlat korxonalarini boshqarish uchun bozor mexanizmlarini ishlab chiqish, ulardagi zamonaviy korporativ boshqaruv usullarini joriy etish, davlat korxonalarining ustav kapitalidagi ulushini asta-sekin qisqartirish va xalqaro tashkilotlar va kompaniyalar ishtirokidagi ochiq xususiylashtirishni ta’minlash kabi vazifalarni amalga oshirish lozim.

Tijorat banklari faoliyati to‘g‘risidagi axborotni tayyorlash va yetkazish tartibini yanada aniqroq belgilab quyish maqsadga muvofiq, jumladan moliya va operatsiya faoliyatiga oid axborotni taqdim etishning tasdiqlangan shakllarini investor, mijozlar va boshqa manfaatdor shaxslarga yetkazilishini ta’minlash lozim.

Yuqorida keltirilgan takliflarning amaliyotga joriy etilishi, bizning nazarimizda, O‘zbekiston tijorat banklarida korporativ boshqaruvning yuksalishiga imkon yaratib beradi va bu o‘z navbatida O‘zbekistonning real ishlab chiqarish sektorida aktsiyalashtirish jarayonining chuqurlashuviga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 11-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida”gi Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 5-noyabrdagi “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 22-oktabrdagi “Valutani tartibga solish to‘g‘risida”gi Qonuni.
4. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 19sentabrdagi “To‘lovlar va to‘lov tizimlari to‘g‘risida”gi Qonuni.
5. Tijorat banklarining likvidliligini boshqarishgaqo‘yiladigan talablar to‘g‘risidagi Nizom. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2015-yil 13-avgustda 2709-son bilan ro‘yxatga olingan.
6. Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo‘yicha ehtimoliy
7. yo‘qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi nizomga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2018-yil 27-apreldagi 2696-2-son bilan ro‘yxatga olingan.
8. Sarpa H., Subramanian A. and Subramanian K.V. (2014) Corporate Governance and Innovation: Theory and Evidence. Journal of Financial and Quantitative Analysis, vol.49, issue 4, −pp. 957-1003.
9. Shadab H.B. (2008) Innovation and Corporate Governance: The Impact of Sarbanes-Oxley. U. Pa. Journal of Business and Employment Law, vol.10:4, pp. 955-1008. 4. Мелкумов Я.С. Инвестиций: Учебное пособие. −М.: ИНФРА-М, 2003.
10. Ҳошимов А.А. (2003) Корпоратив бошкарув шаклидаги тузилмаларни ривожлантириш истиқболлари. – Т.: Фан.
11. Яушев Р.И. (2004) Состояние и проблемы управления государственными пакетами акций корпораций. // Корпоративное управление в Узбекистане.Материалы научно-практической конференции. −Т. С.15-23.
12. Xamidulin M.B. (2007) Korporativ madaniyat va korporativ boshqaruv. T.:Akademiya, −224 b.
13. Xodiyev B.Yu., Shodmonov Sh.Sh., G‘afurov U.V. (2008) Mamlakatni jadal isloh etish va modernizatsiya qilish – milliy taraqqiyotimizning mantiqiy bosqichi: Ilmiy-ommabop risola. – T.: TDIU, 53 b.

DAVLAT MOLIYAVIY NAZORAT TIZIMINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Maxmudov Azamat Normuradovich
Iqtisodiyot fanlari doktori,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti

Annotatsiya: Mazkur maqolada mamlakatimiz davlat moliyaviy nazorati tizimiga samaradorlik auditining joriy etilishi, amaliyotdagi o‘ziga xos jihatlari hamda to‘laqonli ravishda qo‘llanilishida yuzaga kelayotgan muammolar tahlil qilinib, ularning yechimlari keltirilgan. Maqolani yozishda bir qator huquqiy va ilmiy-amaliy manbaalar o‘rganib chiqilgan. Xorijiy mamlakatlarning tajribalari taqqoslanib, tahlil qilingan, natijada samaradorlik auditini asosiy prinsiplariga tayangan holda uni amaliyotda samarali tashkil etish va o‘tkazishning e’tiborli jihatlariga aniqlik kiritilgan.

Kalit so‘zlar: audit, budjet tashkiloti, davlat moliyaviy nazorati, ichki audit, moliyaviy audit, muvofiqlik auditi, nazorat, samaradorlik auditi, tashqi audit, taftish.

Abstract: Requires changing the means of controlling the use of state funds. As a result, the question of introduction and development of efficiency audit in practice arises. This article analyzes the problems arising in the implementation of the efficiency audit in the state financial control system of our country, its specific aspects in practice, and its full application, and their solutions are presented. When writing the article, a number of legal and scientific-practical sources were studied. The experiences of foreign countries were compared and analyzed, as a result, the important aspects of its effective organization and conduct in practice, based on the main principles of the efficiency audit, were clarified.

Key words: audit, budjet organization, compliance ,audit control, performance audit, external , internal audit, public financial contro, financial audit, revision.

Аннотация: В данной статье анализируются проблемы, возникающие при внедрении аудита эффективности в системе государственного финансового контроля нашей страны, его особенности на практике и в полном объеме, а также представлены пути их решения. При написании статьи был изучен ряд юридических и научно-практических источников. Был сопоставлен и проанализирован опыт зарубежных стран, в результате уточнены важные аспекты его эффективной организации и проведения на практике, основанные на основных принципах аудита эффективности.

Ключевые слова: аудит, бюджетная организация, государственный финансовый контроль, внутренний аудит, финансовый аудит, комплаенс-аудит, контроль, аудит эффективности, внешний аудит, аудит.

KIRISH

Jahonda yuzaga kelayotgan global iqtisodiy inqiroz hamda tabiiy resurslar cheklangan bir davrda Yangi O‘zbekistonni barpo etish jarayonida olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosat mavjud resurslardan oqilona, tejamkorlik va samaradorlik tamoyilariga asosan foydalanishni taqozo etmoqda. Shunday bir davrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining navbatdagi 2021-yil 27-avgustdagi “Davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 6300-sonli Farmoni qabul qilindi. Farmonga ko‘ra davlat moliyaviy resurslarini samarali boshqarish hamda budjet mablag‘laridan maqsadli va oqilona foydalanish ustidan davlat moliyaviy nazorati tizimini takomillashtirish maqsadida 2022-yil 1-yanvardan boshlab “O‘zbekiston Respublikasining Hisob palatasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq Hisob palatasi tomonidan amalga oshiriladigan nazorat shakllari va turlariga qo‘shimcha qilib moliyaviy audit, samaradorlik auditi va muvofiqlik auditi amaliyotga joriy etildi.

Budjet ma’lumotlarining ochiqligi va shaffofligini yanada oshirish, budjet mablag‘larining shakllanishi va sarflanishi ustidan parlament va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 22-avgustdagi 3917-sonli Qaroriga asosan 2019-yildan boshlab budjet mablag‘larini taqsimlashda fuqarolar ishtirokining tuman (shahar)lar budjetlari qo‘shimcha manbalarining kamida 10 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarga yo‘naltirishni nazarda tutadigan mexanizmi joriy etilib,

“Ochiq budjet” axborot portali ishga tushirildi. Bu orqali jamoatchilik fikri asosida shakllangan tadbirlarni moliyalashtirish amaliyoti joriy etildi.

Budjet mablag‘laridan oqilona va samarali foydalanish, budjet taqchilligini oldini olish dolzarb masalalardan biri sanaladi. “Albatta, Davlat budjeti o‘lchovsiz emas, mablag‘larni qattiq tejash, belgilangan maqsad uchun oqilona ishlatishni ta’minlash zarur. Bu – hammaga ravshan va rad etib bo‘lmaydigan haqiqat” Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning nutqlarida qayd etib o‘tilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining “2021-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 4938-sonli qarori bilan 2021-yil uchun Davlat dasturlari va budjet xarajatlarining maqsadli indikatorlari belgilandi. Maqsadli indikatorlar joriy etilishi bilan budjet mablag‘lari aniq maqsadlar asosida moliyalashtirilishi joriy etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 27-avgustdagi “Davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 6300-sonli Farmoni bilan samaradorlik auditi amaliyotga joriy etildi.

Samaradorlik auditi moliyaviy nazoratning to‘laqonli yo‘nalishi sifatida G‘arbiy Yevropa va Shimoliy Amerika mamlakatlarida olib borilayotgan davlat boshqaruvi islohotlari davrida, asosan, davlat boshqaruvini markazlashtirishdan chiqarish va samarali boshqaruv tizimini isloh etish jarayonida shakllana boshladi. Samaradorlik auditi paydo bo‘lishining asosiy sabablaridan biri davlatlarning natijadorlikka yo‘naltirilgan budjet tamoyillarini qo‘llashga o‘tishi bilan bo‘lgan, degan fikr mavjud. Xorijiy mamlakatlar tajribasini o‘rganish bilan bog‘liq ba’zi tadqiqotlarda olimlar quyidagi qonuniyatni keltirib o‘tadilar: xarajatlarni xarajatlar smetasiga asosan moliyalashtirish yo‘lidan emas, xarajatlarni ma’lum bir natijaga erishish maqsadida moliyalashtirish, ya’ni dasturiy budjetlashtirish tizimi yo‘lga qo‘yilgan davlatlarda budjet mablag‘lari sarflanishini samaradorlik auditidan o‘tkazish usulidan keng foydalaniladi.

Samaradorlik auditi xorijiy amaliyotda keng qo‘llanilganligi bilan, mamlakatimiz davlat moliyaviy nazorati tizimida nazoratning mazkur turi yangi hisoblanadi. 2021-yilning 30-dekabrida milliy qonunchiligimizni hisobga olgan holda “Samaradorlik auditi” standarti O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasining buyrug‘iga asosan tasdiqlandi.

Mazkur standart samaradorlik auditi to‘g‘risidagi ko‘p masalalarga oydinlik kiritishiga qaramasdan, amaliyotda tajribaning yetishmasligi bir qator muammolarni yuzaga keltirib chiqarmoqda. Bugungi kunda ilmiy tadqiqotlar va izlanishlar olib borish natijasida ushbu muammolarga aniqlik kiritish va ularni yechish yo‘llarini topish dolzarb sanaladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Davlat moliyaviy nazorati tizimida samaradorlik auditini rejalashtirish va o‘tkazish uslubiyotining nazariy hamda uslubiy asoslarini yaratish va uni takomillashtirish bo‘yicha asosan xorijlik iqtisodchi olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borishgan. Ular jumlasiga S.Kells, L.Palmer, J.Mayne, K.Polit, A.N.Saunin, Ye.Ye.Smirnov, S.V.Stepashin, V.A.Jukov, V.G.Panskov, Ye.N.Sineva, S.N.Ryabuxin, Yu.M.Voronin, N.Ye.Kondaurova, T.R.Xabibullinlarni kiritish mumkin.

Bugungi kunda samaradorlik auditi O‘zbekiston davlat moliyaviy nazorati nazariyasida va amaliyotida nazoratning yangi turi hisoblanib, rivojlanishning dastlabki bosqichlarida bo‘lganligi sababli, mamlakatimiz iqtisodiy ilm-fanida samaradorlik auditining nazariy va uslubiy asoslarini ochib beradigan yaxlit va umumiy qabul qilingan tushunchasi mavjud emas.

Ammo, davlat sektori va xususiy sektorda audit, moliyaviy nazoratga oid nazariy va uslubiy jihatdan umumiylikka xos bo‘lgan qator olimlarning ishlanmalarini keltirib o‘tish mumkin. Jumladan,

K.B.Axmedjanov, R.D.Dusmuratov, B.A.Xasanov, A.K.Ibragimov, N.Sh.Xajimuratov, A.Turayev, B.I.Tuyinov asarlarida davlat sektorida ichki audit xizmatining nazariy jihatlarini rivojlantirish muammolari o‘rganilgan.

A.N.Sauninning [8] ta’rifida samaradorlik auditining tekshirish obyektlari kimlar ekanligiga va ular oldiga qo‘yilgan vazifalarni va funksiyalarni bajarish uchun olingan davlat mablag‘laridan samarali foydalanishini tekshirishga e’tibor qaratilgan. Ushbu ta’rifda samaradorlik auditining asosiy vazifasiga e’tibor qaratilgan. Ye.N.Sinevaning [9] ta’rifidan ko‘rinib turibdiki, samardorlik auditining deyarli barcha xususiyatlarini o‘zida qamrab olganligi uning mukammalligidan dalolat beradi. Eng e’tiborli jihati, ta’rif qisqacha bo‘lishiga qaramay, mazmunan keng yoritilgan va barcha asosiy jihatlarni o‘zida jamlagan.

Iqtisodchi olimlar o‘z ilmiy asarlarida samaradorlik auditining turli muammolarini ko‘targanlar, ammo mazkur audit turini mamlakatimizda tartibga soluvchi me’yoriy-huquqiy hujjat qoidalari bilan birgalikda ko‘rib chiqish, shu bilan bog‘liq yuzaga keladigan muammolarni ko‘tarish va ularni hal qilish yo‘llarini belgilash talab etiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot olib borish jarayonida xorijiy iqtisodchi olimlarning ilmiy izlanishlarida davlat auditi va turlarining bugungi kunda zamonaviy holatlari hamda xorijiy tajribalar chuqur o‘rganilib, tahlil qilindi. Maqolani tayyorlash jaryonida abstrakt mantiqiy fikrlash, induksiya, deduksiya, kuzatish, tahlil, guruhlash, taqqoslash usullaridan keng foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Davlat mablag‘laridan foydalanish ustidan nazoratni tashkil etish masalalari qadimgi Misr va Rim imperiyasi davrida ham odamlarni tashvishga solib kelgan. Nazoratchilar sifatida alohida shaxslar yoki muassasalar faoliyat yuritishgan, misol uchun Afinada Milliy Assambleya kabi. (Alekseyenko Ye.A., [1] Jamiyat rivojlanib bordi, shu bilan birgalikda nazoratning shakllari va vositalari ham qayta shakllanib bordi. 1947-yilda AQSH Kongressi AQSH ijroiya hokimiyatining tuzilishi va faoliyatini o‘rganish, shuningdek, uni takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar tayyorlash maqsadida AQSH sobiq prezidenti G.Guver boshchiligida Ijroiya hokimiyatini qayta tashkil etish bo‘yicha komissiyani tuzdi. Ushbu komissiya federal budjetni shakllantirishning yangi “samarali budjet” deb nomlangan usulini ishlab chiqdi, bu xarajatlar smetasiga asosan moliyalashtirishdan dasturiy-maqsadli moliyalashtirish bosqichiga o‘tish edi. “Samarali budjet” va “samaradorlik auditi” atamalarining o‘xshashligi olimlarga samaradorlik auditining kelib chiqishi bilan AQSHda budjet jarayoni sohasidagi olib borilgan hukumat islohotlari o‘rtasida bog‘liqlik bor degan xulosaga kelish imkonini beradi.

1970-yillarning oxiriga kelib, samaradorlik auditi o‘zining maxsus predmeti, metodologiyasiga, maqsad va vazifalarga ega bo‘lgan moliyaviy nazoratning mustaqil turi sifatida shakllandi va Oliy auditorlik organlari faoliyatida keng tarqaldi, bu narsa 1977-yilda Oliy nazorat organlari xalqaro tashkilotining IX Kongressida qabul qilingan Lima deklaratsiyasida o‘z aksini topdi. Lima deklaratsiyasining 4-moddasi 2-bandida xalqaro miqyosda birinchi marta samaradorlik auditi konsepsiyasi moliyaviy auditga teng ahamiyatga ega bo‘lgan moliyaviy nazorat turi sifatida mustahkamlangan bo‘lib, uning maqsadi davlat ijroiya hukumati faoliyatining tejamkorligini, samaradorligini va natijadordigini aniqlashdan iborat edi.

Ammo o‘tgan asrning o‘rtalaridan boshlab, nazoratni tashkil etishda va o‘tkazishda yangi yondashuvlarning yuzaga kelishi budjet mablag‘laridan foydalanishni nazorat qilish vositasi sifatida samaradorlik auditidan foydalanish zarurati masalasi ko‘tarila boshlandi.

Davlat auditining davlat moliyaviy nazoratidan farqi shundaki, moliyaviy nazoratda asosiy e’tibor u yoki bu ma’lumotni muvofiqligiga baho berishga qaratiladi, samaradorlik auditi esa, o‘z navbatida, davlat moliyaviy resurslaridan va davlat mulkidan samarali foydalanganligiga baho berishga mo‘ljallangan. Jahon globallashuvi, dunyo mamlakatlari o‘rtasida keng tajriba almashish imkoniyatlari paydo bo‘lishi hamda mamlakatlar vakolatxonalarining Oliy audit organlari xalqaro tashkilotida (International Organization of Supreme Audit Institutions-INTOSAI) kengayib borishi davlat auditi sohasida standartlashtirishni taqozo etadi.

“Samaradorlik auditi” to‘g‘risidagi dastlabki ma’lumotlar 1977-yilda Lim shahrida bo‘lib o‘tgan Oliy audit organlari xalqaro tashkilotining (INTOSAI) IX Kongressida qabul qilingan “Audit boshqaruvi tamoyillarining Lim deklaratsiyasi” nomli hujjatida (keyingi matnlarda-Lim deklaratsiyasi) o‘z aksini topgan [2].

Samaradorlik auditi Yevropa (European Organisation of Supreme Audit Institutions-EUROSAI) va Osiyo (Asian Organisation of Supreme Audit Institutions ASOSAI) oliy davlat nazorati organlarining standartlarida ham ko‘rib chiqilgan.

Bugungi kunda, amaldagi Oliy audit organlarining xalqaro standartida (The International Standards of Supreme Audit Institutions 3000) samaradorlik auditi (Performance auditing) davlat korxonalari, dasturlari yoki tashkilotlari faoliyatining samaradorligini va natijadorligini, resurslardan tejamkorlik bilan foydalanganligini mustaqil ekspertizadan o‘tkazadigan vosita hisoblanishi, bunda uning maqsadi audit obyekti faoliyatini yaxshilashdan iborat ekanligi belgilangan.

2021-yilning 23-noyabr kuni bo‘lib o‘tgan INTOSAI Boshqaruv Kengashining navbatdagi 75-sessiyasida O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi ushbu tashkilotga to‘laqonli a’zo sifatida qabul qilindi. A’zolik O‘zbekiston uchun davlat sektoridagi auditning nufuzli xalqaro standartlarga moslashtirish imkoniyatini beradi [7].

Yaqin kelajakda O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi INTOSAIga a’zo bo‘lgan xorijiy davlatlar oliy audit organlari bilan hamkorlikni yanada kengroq rivojlantirishni rejalashtirgan.

Bundan tashqari, 2022-yilning 1-yanvariga qadar Oliy audit organlarining xalqaro standartlari (ISSAI) asosida tashqi audit tadbirlarini rejalashtirish va o‘tkazishni tashkil etish, ular doirasida moliyaviy, samaradorlik va muvofiqlik auditlarini o‘tkazish, shuningdek, davlat moliyaviy nazoratida xavf-tahlilni amalga oshirish standartlarini ishlab chiqish va tasdiqlash vazifalari ham berilgan edi.

Farmonda qo‘yilgan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi tomonidan “O‘zbekiston Respublikasining Hisob palatasi to‘g‘risida”gi Qonuni hamda Oliy audit organlarining

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

xalqaro standartlari (ISSAI) asosida moliyaviy audit, muvofiqlik auditi va samaradorlik auditi standartlari ishlab chiqilib, tasdiqlandi [3].

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi tomonidan "Samaradorlik auditi" standarti ishlab chiqilib, tasdiqlangan. Mazkur standart ko'p masalalarga oydinlik kiritishiga qaramasdan, mamlakatimiz davlat moliyaviy nazorati amaliyotida tajribaning yetishmasligi ushbu nazorat turini amalda qo'llashda bir qator muammolarni yuzaga keltirib chiqaradi.

Shu sababli, bugungi kunda ilmiy tadqiqotlar va izlanishlar olib borish natijasida ushbu muammolarga aniqlik kiritish va ularni yechish yo'llarini topishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi tomonidan ishlab chiqilgan "Samaradorlik auditi standarti"da samaradorlik auditi tushunchasiga va maqsadiga quyidagicha izoh berilgan [6].

Samaradorlik auditi - nazorat obyektida xarajatlar, subsidiyalar, imtiyozlar, preferensiyalar samaradorligi va natijadorligini, ajratilgan mablag'lardan foydalanishning tejamkorligini, belgilangan maqsadli ko'rsatkichlarning bajarilishini, konsolidatsiyalashgan budjet va jalb qilingan mablag'lar hisobidan amalga oshirilayotgan loyihalar, davlat dasturlari maqsadga muvofiqligi va natijadorligini, shuningdek, davlat va hududiy dasturlarning moliyalashtirish manbalari bilan ta'minlanganligini baholash va tahlil qilishni nazarda tutadi.

Samaradorlik auditining maqsadi - bevosita yoki yakuniy natijalarga erishishda davlat moliyaviy resurslaridan foydalanayotgan vazirlik va idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlari va tashkilotlar, tizimlar faoliyati, funksiyalari, davlat va hududiy dasturlarining tejamkorlik, samaradorlik va natijadorlik tamoyillari asosida amalga oshirilishi yuzasidan mustaqil, xolis va ishonchli tekshirish o'tkazish hamda ularni takomillashtirish imkoniyatlarini aniqlashdan iboratdir. "Samaradorlik auditi" standartida qo'llanilgan asosiy tushunchalarni 1-jadvalda ko'rishimiz mumkin.

1-jadval: "Samaradorlik auditi" standartida qo'llanilgan asosiy tushunchalar

№	Asosiy tushuncha	Mazmuni
1.	Samaradorlik ko'rsatkichlari	Samaradorlik auditi o'tkazilayotgan yo'nalish bo'yicha samaradorlikni baholashda asoslanadigan namunalar (andozalar) yoki amaliy tajribalar asosida qabul qilinishi mumkin bo'lgan me'yorlar va ko'rsatkichlar.
2.	Samaradorlikning miqdor ko'rsatkichlari	Natijalarga erishilganligini baholash imkonini beradigan aniq raqamlar bilan o'lchanadigan ko'rsatkichlar.
3.	Samaradorlikning sifat ko'rsatkichlari	Rejalashtirilgan tadbirlarni belgilangan muddatlarda samarali va tejamkor natijalar asosida aks ettiruvchi ko'rsatkichlar.
4.	Kasbga oid fikr - mulohaza	Nazorat obyektida o'rganilgan masalalar yuzasidan noaniqliklar, mavhum bo'lgan holatlar yuzaga kelgan holatlarda Hisob palatasi xodimi tomonidan o'zining bilimi, kasbiy malakasi va tajribasiga asoslangan nuqtayi nazarini shakllantirish.
5.	Auditorlik dalil - isbotlar	Barcha manbalardan olingan nazorat obyektiga taalluqli bo'lgan hujjatlar va ma'lumotlar.
6.	Kasbga oid skeptitsizm	Auditorlik dalil-isbotlarga, shu jumladan auditorlik dalilisbotlarni asoslantiruvchi hujjatlar va ma'lumotlarga tanqidiy baho berish.
7.	Audit natijalaridan foydalanuvchilar	Audit natijalari yuzasidan dalolatnomalar, ma'lumotnomalar, xulosalar va bayonnomalar taqdim etiladigan organlar va keng jamoatchilik.

Mazkur standartda, bundan tashqari, mustaqillik va odob-axloq bo'yicha, audit natijalaridan foydalanuvchilar va mas'ul tomonlar bo'yicha, samaradorlik auditining predmeti bo'yicha, samaradorlik auditi sohasida ishonchlilik va nazorat bo'yicha, samardorlik auditining maqsadi va vazifalari bo'yicha, samaradorlik auditiga bo'lgan yondashuvlar bo'yicha, samaradorlik auditining mezonlari bo'yicha, auditorlik risklar bo'yicha, ma'lumot almashinuvi bo'yicha, hisob palatasi xodimining ko'nikmalari va malakasi bo'yicha, auditorlik nazorati bo'yicha, kasbga oid fikrmulohaza va skeptitsizm bo'yicha, sifat nazorati bo'yicha, ahamiyatlilik bo'yicha, hujjatlashtirish bo'yicha umumiy talablar aks ettirilgan.

Shu bilan birgalikda, biz mazkur standartda, samaradorlik auditida qo'llaniladigan tamoyillarni 2-jadvalda ko'rishimiz mumkin.

Shuningdek, mazkur standartda samaradorlik ko'riladigan choralarga bo'lgan talablar yoritilgan. auditini o'tkazish jarayoniga qo'yilgan talablar ham yuqorida keltirilganlardan ko'rinib turibdiki, yoritilgan. Bunda audit

mavzularini tanlash va mazkur standartda samaradorlik auditini dasturini ishlab chiqishga, samardorlik auditini o‘tkazishda qaysi jihatlariga e’tibor berish o‘tkazishga, samaradorlik auditi yakunida kerakligi aytib o‘tilgan, lekin mazkur audit turini rasmiylashtiriladigan hujjatlarga hamda amaliyotda qo‘llash bo‘yicha aniq metodik samaradorlik auditi natijalari bo‘yicha ko‘rsatmalar va tavsiyalar keltirilmagan.

2-jadval: Samaradorlik auditida qo‘llaniladigan tamoyillar

№	Samaradorlik auditi tamoyili	Mazmuni
1.	Tejamkorlik tamoyili	Resurslar sarfini minimallashtirishni anglatadi. Foydalaniladigan resurslar o‘z vaqtida, zarur hajmda, sifatli holatda va eng ma’qul narxda yetkazilishi zarurligini anglatadi.
2.	Samaradorlik tamoyili	Tejamkorlik tamoyiliga asoslangan holda sarflangan resurslardan maksimal naf olishni nazarda tutadi. Ushbu tamoyil foydalaniladigan resurslar hamda erishilgan natijalarning o‘zaro bog‘liqligini anglatadi.
3.	Natijadorlik tamoyili	Tejamkorlik tamoyili asosida sarflangan resurslardan maksimal samarali foydalanish orqali belgilangan maqsadlar va ko‘zlangan natijalarga erishilishini anglatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon, Qaror, farmoyish va yig‘ilish bayonlari bilan vazirlik zimmasiga topshiriqlar yuklatilgan bo‘lib, shundan muddati kelib bajarilgan topshiriqlar ijrosi haqqoniyligi “Ijro.gov.uz” idoralararo yagona elektron tizimi orqali o‘rganilganda, 14 foizga yaqin topshiriqning ijrosi haqiqatda ta’minlanmaganligi aniqlangan.

Jahon amaliyotidan ma’lumki, samaradorlik auditining asosiy maqsadi va vazifasi tekshirilayotgan tashkilotga qo‘yilgan vazifalarni bajarishda resurslardan tejamkorlik, samaradorlik va natijadorlik tamoyillari asosida foydalanganligini tekshirishdan hamda davlat tomonidan amalga oshirilgan xarajatlarning yakuniy natijasini, shu jumladan ma’muriy va tashkiliy tizimlarini baholashdan iboratdir. Mazkur chora-tadbirlar yig‘indisi samaradorlik auditining asl mohiyatini tashkil etadi.

Birinchidan, moliyaviy audit va samaradorlik auditlari har xil maqsadlarga erishishga yo‘naltirilgan. Moliyaviy auditni o‘tkazishdan maqsad budjet mablag‘lari sarflanishining qonuniyligini va maqsadililigini, buxgalteriya hisobi va hisobotlarining to‘g‘riligini tekshirishdan iborat. O‘z navbatida samaradorlik auditi davlat budjeti xarajatlari sarflanishining tejamkorligini, samaradorligini va natijadorligini tekshirishdan iborat.

Ikkichidan, moliyaviy audit buxgalteriya hujjatlarini, hisobotlarini hamda birlamchi hujjatlarni tahlil va o‘rganish asosida amalga oshiriladi. Samaradorlik auditi esa obyektga qo‘yilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirish orqali ma’lum bir natijaga erishish yo‘lidagi faoliyatiga taaluqli normativ va huquqiy hujjatlarini tahlil va tadqiqot etish asosida amalga oshiriladi.

Uchinchidan, qat’iy normativ va huquqiy hujjatlar asosida tartibga solingan va o‘tkaziladigan moliyaviy audit davlat resurslaridan foydalanishda tegishli qonunchilik va mahalliy normalarga muvofiqliligi asosida amalga oshirilishini ta’kidlash lozim. Moliyaviy audit maqsadlariga erishish uchun, qoida tariqasida, davlat mablag‘lari sarflanishini hujjatli tekshirish usullari orqali erishiladi. Moliyaviy audit har doim aniq standartlashtirilgan, tartibga solingan, moliyaviy auditdan farqli o‘laroq, samaradorlik auditini aniq algoritmlashtirish mumkin emas. Samaradorlik auditini o‘tkazishda fanning turli sohalaridagi bilimlaridan foydalaniladi, keng ko‘lamli tadqiqot va baholash usullari qo‘llaniladi, shu jumladan boshqaruv tizimini tashkil etishni tahlil qilish va sintez qilish orqali amalga oshiriladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xorijiy mamlakatlar tajribasi o‘rganilishi natijasida ma’lum bo‘ldiki, samaradorlik auditidan nazoratning bir vositasi sifatida foydalanilishi uning samarali vosita ekanligidan dalolat beradi. Mamlakatimizda ushbu nazorat turini amaliyotga joriy etilishi va undan foydalanilishi ma’lum miqdorda o‘zining ijobiy tomonlarini namoyon qilmoqda.

Yangi O‘zbekistonni qurishda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatda samarali davlat boshqaruvi tizimini isloh qilishda bir qator harakatlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida Davlat budjeti xarajatlari samaradorligini yanada oshirish va davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatini takomillashtirish ustuvor vazifalardan biri etib belgilangan [5].

Davlat boshqaruvini samarali amalga oshirish, davlat idoralari faoliyatini amalga oshirish mavjud resurslardan unumli foydalanish, davlat dasturlarini izchil amalga oshirishda davlat moliyaviy nazorati tizimida samaradorlik auditiga ehtiyoj seziladi. Shu sababdan ham, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 27-avgustdagi “Davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 6300-sonli Farmoni qabul qilindi [4].

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Ilmiy tadqiqotlar natijasida yuqorida keltirilgan barcha ma'lumotlarni va yuzaga kelayotgan muammolarni inobatga olib, mamlakatimiz davlat moliyaviy nazorati tizimi amaliyotida samaradorlik auditini rivojlantirish maqsadida dastlab quyidagi yo'nalishlarda ishlar olib borish zarur, deb hisoblaymiz. Jumladan:

- oliy ta'lim muassalarida samaradorlik auditining boshlang'ich bilim ko'nikmalarini va eng yaxshi xorij tajribalari to'g'risidagi ma'lumotlarni berib borish orqali o'qitishni tashkil etish, bunda samaradorlik auditining kelib chiqish tarixi, mohiyati, predmeti, maqsadi va vazifalari o'qitilishi lozim;
- milliy qonunchiligimiz va qadriyatlarimizni inobatga olgan holda samaradorlik auditini amaliyotda samarali va sifatli tashkil etish va amalga oshirish maqsadida amaliyotda samaradorlik auditini o'tkazish bo'yicha metodik qo'llanma ishlab chiqish zarur, bunda metodik qo'llanmada quyidagilar nazarda tutilishi lozim bo'ladi: samaradorlik auditini tashkil etish jarayoning xususiyatlari, yondashuvlari, savolnoma va maqsadlarni shakllantirish yo'llari, bazaviy mezonlar asosida mezonlar ishlab chiqish, respublika va mahalliy resurslarga hamda bevosita va yakuniy natijalarga aniqlik kiritish, samaradorlik auditining bazaviy mezonlarini modifikatsiya qilish, samaradorlik auditi doirasida boshqa audit tadbirlarini o'tkazish xususiyatlari hamda samaradorlik auditi doirasida xulosalarni shakllantirish, talablarni va takliflarni (tavsiyalarni) tayyorlash.

Xulosa qilib aytish joizki, oxirgi yillarda barcha sohalarda olib borilayotgan ijobiy o'zgarishlar, jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuv jarayoni shiddat bilan rivojlanayotgan bir davrda davlat moliyaviy nazorati tizimida samaradorlik auditini jaxon standartlariga mos ravishda shakllantirish, sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish Respublikamizni iqtisodiy rivojlanishiga o'z xissasini qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Алексеенко Е.А. (2015) "Исторические аспекты становления и развития аудита" Теоретические и прикладные аспекты современной науки. –№ 7-6. м84-88.
2. Декларация (1977) ISSAI 1. The Lima Declaration of Guidelines on Auditing Precept- http://www.srd.ru/documents/schpal/limdecl.pdf.
3. Стандарт (2016) ISSAI 3000. Standard for Performance Auditing;- http://www.intosai.org.
4. Farmon (2021) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 27-avgustdagi "Davlat moliyaviy nazorati tizimiin yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 6300-sonli Farmoni.
5. Hisobot (2022) O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi rasmiy vebsayti: http://www.ach.gov.uz.
6. O'zbekiston Respublikasi "Hisob Palatasi to'g'risida" gi qonuni, 2019-yil 1-iyuldagi O'RQ 546-sonli http:// www.lex.uz;
7. Standart (2021) O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi tomonidan ishlab chiqilgan "Samaradorlik auditi standarti".
8. Саунин А.Н. (2014) О понятийном аппарате государственного финансового контроля // Финансы и кредит. 2014. № 13.
9. Е.Н.Синева (2004) "Аудит эффективности как фактор повышения результативности деятельности контрольно-счётных органов Российской Федерации"// Финансы и контроль. 2004 г.
10. Хабибуллин Т.Р. Аудит эффективности в системе государственного финансового контроля. Молодой ученый. 2016;(11):1367–1371

XORIJIY BANKLARNING MOLIYA INJINIRINGI MAHSULOTLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Saipnazarov Sherbek Shaylavbekovich
ISFT instituti dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada moliyaviy injiring mahsulotlari moliyaviy operatsiyalarni optimallashtirish va risklarni boshqarish uchun mo‘ljallangan innovatsion moliyaviy vositalarni, bazi mashhur moliyaviy injiniring mahsulotlariga tuzilgan moliyaviy mahsulotlar, derivativlar, ixtisoslashtirilgan investitsiya fondlari va boshqalar o‘rganishdan iborat.

Kalit so‘zlar: moliyaviy injiniring, qimmatli qog‘ozlar, moliyaviy innovatsiyalar, bank innovatsiyasi, bank injiniringi.

Abstract: In this article, financial engineering products are innovative financial tools designed to optimize financial operations and risk management, financial products, derivatives, specialized investment funds, etc., made up of some popular financial engineering products.

Key words: financial engineering, securities, financial innovation, banking innovation, banking engineering.

Аннотация: В данной статье продукты финансового инжиниринга представляют собой инновационные финансовые инструменты, предназначенные для оптимизации финансовых операций и управления рисками, финансовые продукты, деривативы, специализированные инвестиционные фонды и т. д., состоящие из некоторых популярных продуктов финансового инжиниринга.

Ключевые слова: финансовый инжиниринг, ценные бумаги, финансовые инновации, банковские инновации, банковский инжиниринг.

KIRISH

Tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bozorida ishtirokini kengaytirish, ular orqali oladigan daromadini oshirish masalasini dolzarb bo‘lib qolmoqda. Ushbu holat, rivojlanayotgan davlatlarning jahon bank bozorida o‘z o‘rnini egallashda banklarning qimmatli qog‘ozlar bozoridagi faoliyatini yanada takomillashtirish borasidagi ilmiy yondoshuvlarga katta e’tibor qaratish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Xususan, jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozdan keyin har bir davlat banklarining faoliyatini tahlil qilishda bank bozorida moliyaviy injiniring tizimini yaratish borasidagi ilmiy-tadqiqotlarni olib borilishi, mamlakat bank tizimi daromadini oshirishga sabab bo‘lmoqda.

O‘zbekistonda bank tizimidagi muammolarni aniqlash va yechimini topishda tijorat banklari qimmatli qog‘ozlar bozoridagi faoliyatini yanada takomillashtirish jarayonlariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida bank tizimini isloh etishga qaratilgan “...bank faoliyatini tartibga soluvchi zamonaviy tamoyil va mexanizmlarni joriy etish, naqdsiz hisob-kitoblar hajmi va qamrovini oshirish, bank kassalariga naqd pul tushumini rag‘batlantirish, kreditorlarning huquqlarini himoya qilish” [1] kabi muhim vazifalar belgilab berildi.

Bank biznesida qo‘llanilayotgan yangiliklar faqatgina texnik jihatdan yondoshuv bo‘lmasdan balki biznesni yangi formalarini qo‘llash, bozorda ishlash metodlarini, yangi xizmat va mahsulotlarni kiritish, yangi moliyaviy instrumentlarni qo‘llashlarni qamrab olib, bu moliyaviy injiniringning barcha mahsuloti va natijalarini beradi. Ko‘pgina olib borilgan tadqiqotlarda moliyaviy injiniring mahsuloti sifatida qimmatli qog‘ozlar [2] yoki iqtisodiy subyektlarni ayrim tarmoqlari orqali baholashga harakat qilingan [3]. Moliyaviy injiniringning juda ko‘p qo‘llanish tarmoqlari tadqiq etilmagan.

ADABIYOT SHARHI

A. Proxorov bank sohasida “texnologiya” tushunchasini aniqlash bo‘yicha o‘zining xulosalarini ilgari surgan bo‘lsa [4], S. Ojegov “texnologiya” tushunchasini bank sohasidagi o‘rniga emas [5], balki barcha sohada qo‘llash asosida banklar tizimi bilan bog‘liqlik jarayonlarini ochib bergan. Moliyaviy injiniring jarayonlari orqali texnologiyani bank sohasida qo‘llash u bank faoliyatining barcha jarayonlari bank mahsulotlari [6], operatsiyalari va boshqa yo‘nalishlarida qo‘llaniladi. T. Buy, L. Galis, R. Kolb, Dj. Overdaxl, V. Dyufe, N. Giddi, va boshqalarni keltirib o‘tish mumkin [7].

Moliyaviy injiniring jarayonlari orqali texnologiyani bank sohasida qo‘llash u bank faoliyatining barcha jarayonlari bank mahsulotlari, operatsiyalari va boshqa yo‘nalishlarida qo‘llaniladi. Bundan kelib chiqadiki, moliyaviy injiniring hamda moliyaviy menejment (bank) o‘rtasidagi bog‘liqlik jarayonlarini baholashda, ular uchun umumiy tushuncha bo‘lgan ya’ni risklarni kamaytirishga asosiy omillardan biri hisoblanadi. Bu ikki tushuncha o‘zining boshqaruv tizimi obyektiga ega bo‘lib, moliyaviy (bank) menejmenti maqsadi ikkiga ya’ni taktik va strategikga ajratiladi. Moliyaviy injiniring tushunchasiga turlicha qarashlar 1985-yildan buyon o‘zini dolzarbligini yo‘qotmagan. Yuqorida keltirilgan nazariy qarashlar orqali moliyaviy injiniring faoliyatini 2 ta yo‘nalishga ajratish mumkin. Birinchisi, yangi moliyaviy mahsulotlarni ishlab chiqish. Ikkinchisi, risklarni minimallashtirish orqali moliyaviy samaradorlikni oshirish.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada tijorat banklarining raqobatbardoshligini oshirish, bank xizmatlari va mahsulotlarini ta’sirchanligi baxolash, statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Bank sohasidagi oxirgi o‘zgarishlar shuni ko‘rsatmoqdaki moliyaviy injiniring sohasiga yangi moliyaviy va innovatsion mahsulotlar orqali moliyaviy innovatsiyalar kirib kelishi, moliyaviy risklarni samarali boshqarish tizimlarini ishlab chiqilishi ularning bu sohasiga bo‘lgan qiziqishini oshirib bormoqda. Ammo ko‘rib chiqilgan turlicha yondoshuvdagi nazariy qarashlar, chet el tadqiqotchilari fikrlari asosida “Bank injiniring” tushunchasini kiritish to‘g‘ri bo‘lmaydi. Ko‘pgina davlatlarda bu tushunchadan qochib, unga bo‘lgan qarashlarni turlicha talqin qiladilar. Jumladan, Rossiya davlati amaliyotida bank injiniringiga innovatsiya va injiniring o‘zrao bog‘lovchi sifatida keltiriladi [8].



1-rasm: Innovatsiya va injiniring o‘zaro bog‘liqligi [9]

Ushbu rasmga muvofiq bank innovatsiyasi alohida guruxga ajratilgan. Mantiqiy jihatdan yondoshilsa bu to‘g‘ri, chunki banklar bu moliyaviy institutlar bo‘lib, moliyaviy mahsulotlarni ishlab chiqadilar va sotadilar xuddi shunday innovatsiyani ham. Quyidagi birinchi rasmda bank faoliyati moliyadan tashqarida qoldirilgan bo‘lib, ammo uni alohida soha sifatida kiritilgan. Bu moliyani iqtisodiy kategoriya tushunchasiga teskari yondoshuvni keltirib chiqaradi. Bizni asosiy maqsadimiz moliyaviy injiniringdan bank injiniringini alohida ajratib olish hamda uni mustaqil konsepsiyasi va tamoyilini yaratish hisoblanadi.

Ikkinchi tomondan banklar moliya bozoridagi aktiv ishtirokchilar hisoblanadi. Bunda ular riskni minimallashtirishda, foydani ko‘paytirishda hamda zararni kamaytirish hisobiga fond, valyuta va pul bozorlari vositalaridan foydalaniladi. Bu holatni bank faoliyatiga injiniringni qo‘llash deb baholash mumkin. Ikkinchi tomondan banklarning maxsus mahsulotlari bo‘lib, bulardan foydalanish alohida yangi sohasini kiritishni ya’ni bank injiniringni kiritishni zaruratini keltirib chiqaradi.

Hozirgi kunda rivojlanayotgan davlatlarda bank sohasi davlatlarni iqtisodiyotini innovatsiya orqali rivojlantirishning asosiy instituti hisoblanadi. Bank sohasining rivojlanishi turli davlatlarda har xil bo‘lib, ayrim qo‘llanilayotgan innovatsion mahsulotlar boshqa rivojlangan davlatlarda oldindan qo‘llanilib kelayotgan bo‘lishi mumkin. Bu holat mamlakat bank sohasida bank injiniringni yaratish yoki amaliyotga qo‘llash bo‘yicha muam-

molarni keltirib chiqaradi. Bu sohani respublikamizda asosiy rivojlanishini uchta omil bilan baholash mumkin: ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy.



2-rasm: Bank injiniringini yuzaga kelishi [6]

Ijtimoiy sohada: aholi daromadlarini pastligi, bank jamg‘armalariga qiziqishni yo‘qligi, moliyaviy bitimlarni yetishmasligi, nafaqa yoshdagilar kamligi.

Iqtisodiy sohada: banklarning likvidligini pastligi, banklar bozorida raqobatning pastligi, banklarning mahsuloti kamligi, jahon bank bozoriga banklarning yo‘qligi, korxona va tashkilotlar bilan banklar o‘rtasidagi integratsiyalashuvning pastligi.

Huquqiy sohada: huquqiy, moliyaviy savodxonlikni pastligi.

Olib borilgan tadqiqotlar asosida xulosa qiladigan bo‘lsak, moliyaviy injiniring – bu moliyaviy innovatsiyalarni ishlab chiqish va yaratishni taqdim etadi, bank injiniringi bank innovatsiyasini ishlab chiqish va unga moslashishni taqdim etadi. Shuning uchun banklar zudlik bilan faoliyatlariga moliyaviy injiniringni qo‘llash tavsiya etiladi.

Ikkinchi muhim xususiyatlaridan biri banklardagi boshqaruvchilik xususiyatini oshirishda “moliyaviy menejment”ni to‘g‘ri tashkil etish banklarni bozordagi o‘rnini to‘g‘ri topish imkoniyatini oshiradi. Shuning uchun xorijiy davlatlarda olib borilgan ko‘plab tadqiqotlar “moliyaviy menejment” yoki “bank menejmenti” bilan “moliyaviy injiniring” o‘rtasidagi bog‘liqlikni ochib berishga harakat qilishgan.

Moliyaviy injiniring maqsadi yuzaga kelayotgan holatlardan kelib chiqib baholanadi. Bank menejmentini asosiy maqsadi sifatida quyidagilarni belgilab olish mumkin

- maksimal foydaga erishish;
- bankni aksionerlari va kreditorlari tomonidan uning faoliyatini moliyaviy ta’sminlash va rivojlantirish;
- bank faoliyati samaradorligini oshirish;
- riskni boshqarish.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Bank menejmenti subyektlari sifatida, bankning moliyaviy xizmatchilari, rahbariyat va bank menejerlari olinadi. Demak, moliyaviy (bank) menejmenti va moliyaviy injiniring o‘rtasidagi farqli xususiyatlarni nimalarda paydi bo‘lishi ko‘rib chiqamiz.

Moliyaviy (bank) menejmenti bu uzluksiz to‘xtamaydigan jarayon bo‘lib, uning maqsadi yuzaga kelgan holatlar hamda olingan natijalar bilan bog‘langan bo‘ib, ular vaqt o‘tishi bilan o‘zgarib boradi. Moliyaviy injiniring maqsadi aniq bo‘lib, hech bir holat bilan bog‘lanmagan.

Umumiy bog‘liqlikni fazodagi formulasini tuzib olamiz. Buning uchun bizga uch o‘lchovli fazoda bank menejmentini to‘g‘ri chiziq formulasidan, moliyaviy injiniring uch o‘lchovli fazoda parollapeped sirti va hajmi formulalaridan foydalangan holda bog‘liqlikni topamiz.

Bizga ma’lumki fazoda to‘g‘ri chiziqning parametrik va kanonik tenglamalari quyidagi ko‘rinishga ega:

$$\begin{cases} x = x_1 + tm \\ y = y_1 + tn \\ z = z_1 + tp \end{cases} \quad (1)$$

Bu yerda, m-natija, n-maqsad, p-vaqt, t-tenglamani o‘zgarish parametrlari. Ushbu formula to‘g‘ri chiziqning parametrik formulasi yoki bizni misolimizda bank menejmentining uch o‘lchovli fazodagi parametrik formulasi. Bu yerdan t-tenglamani o‘zgarish parametrlarini topib olsak, quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$\text{т} = \frac{\text{х} - x_1}{\text{м}}, \quad t = \frac{\text{й} - y_1}{n}, \quad t = \frac{\text{з} - z_1}{p} \quad (2)$$

bu yerda $\frac{\text{х}-x_1}{\text{м}} = \frac{\text{й}-y_1}{n} = \frac{\text{з}-z_1}{p}$ (3) teng bo‘lib, bank menejmentida natija maqsad va vaqtni o‘zgarish tenglikni beradi, ya’ni har qanday qiymatda o‘zgarish no‘qtalarini bir xil siljish imkonini beradi. Bank maqsadini o‘zgarishi, natijani o‘zgarishiga ta’sir qilib ma’lum bir no‘qtaga siljishiga olib keladi. Masalan, rasmda maqadni x_n ga siljishi, natijani y_n ga o‘zgarishiga olib keladi. Ularning kesishish no‘qtasi K (x_n, y_n) ni beradi. (3) tenglik bank menejmentining uch o‘lchovli fazodagi kanonik tenglamasi deyiladi.

Moliyaviy injiniring uch o‘lchovli fazodagi ko‘rinishi parallelopeped bo‘lib, uni sirtini yuzasi va hajmi quyidagicha hisoblab topiladi:

$$S = 2(mn + np + mp)$$
$$V = mnp$$

Bu yerda, m-natija, n-maqsad, p-vaqt. Formulalardan tahlil qiladigan bo‘lsak, moliyaviy injiniring hajmi vaqt, natija va maqsadni o‘zgarishi aniq bitta natijaga erishish imkonini beradi. Xuddi shunday sirti ham.

Yuqoridagi formulalardan foydalangan holda bank menejmenti va moliyaviy injiniring sirti orqali o‘zaro bog‘liqlikni topamiz. Buning uchun fazoda to‘g‘ri chiziq va tekislik orasidagi burchak formulalaridan foydalanamiz:

$$\text{син}\,\varphi = \frac{\text{Ам}+\text{Бн}+\text{Сп}}{\sqrt{A^2+B^2+C^2} * \sqrt{m^2+n^2+p^2}} \quad (4)$$

Fazoda to‘g‘ri chiziq va tekislik orasidagi burchakni topish formulasi. Bizning rasmimizda A(0,0,0), V (m+1,0,0) deb qabul qilamiz. Natijada o‘zaro bog‘liqlik formulasi quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$S = 2(2m + 1) \quad (5)$$

Qolgan holatlarda natija va vaqtning bir birlikka o‘zgarishi taqsimot qonuniga asosan uchta kattaliklar chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatadi. Bu esa yuqorida qabul qilingan gepotizamizga asosan moliyaviy injiniring va bank injiniringi o‘rtasidagi maqsadning o‘zgarishiga turlicha yondoshuvlarni keltirib chiqaradi. Jumladan, (natija) va (vaqtning) teng birlikka o‘zgarishi moliyaviy injiniring hamda bank menejmenti m(maqsadi) bir xilligini ta’minlash imkonini beradi; ning ga nisbatan (p>n) bo‘lishi, maqsadlar turlicha bo‘lib, o‘zaro bog‘liqlik jarayoni sezilmaydi; ning ga nisbatan (n>p) bo‘lishi, maqsadlar bir biriga yaqin bo‘lib, o‘zaro bog‘liqlik jarayoni o‘rtacha bo‘ladi.

Demak moliyaviy injiniring hamda bank menejmenti o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik jarayoni qo‘yilgan maqsadning o‘zgarishi asosida tahlil qilish imkonini beradi. Bu esa turlicha iqtisodiy qarashlar asosida olib borilgan tadqiqotlardagi gepotezani asoslash imkonini berdi.

Ko‘plab olib borilgan tadqiqotlarda ushbu o‘zaro bog‘liqlikni ochib berishda moliyaviy injiniring obyekti sifatida asosan qimmatli qog‘ozlar, moliyaviy vositalardan hamda risk va daromaddan foydalanishgan.

Hozirgi vaqtgacha bank faoliyatida moliyaviy injiniringning iqtisodiy samaradorligini baholovchi aniq yo‘nalish mavjud emas, moliyaviy injiniringni bank faoliyatiga qo‘llashni yagona umumlashgan hoyasi, tamoyillari, funksiyalari, aniq maqsadga yo‘naltirilgan konsepsiyasi yaratilmagan. Bu esa bank sohasida moliyaviy injiniringni qo‘llashning metodologik asosini yaratish va shu asosida yangi mahsulotlarni qo‘llash tamoyillarini yaratish zaruratini keltirib chiqaradi.

Ammo bank sohasini rivojlanish konsepsiyalariga e’tibor bersak, bozorda bank injiniringini yaratilishi o‘zining xususiyatlari bilan turlicha farq qilinishini ko‘rish mumkin. Hozirgi kunda bank sohasida qiyosiy tub o‘zgarishlarning yuzaga kelishi, yangi bank mahsulotlari yaratilishi, daromadi, likvidliligi va risklarini boshqarishga bo‘lgan talabning ortib borishi, bank sohasiga oid yangi rivojlanish konsepsiyasini ishlab chiqish zarurligini keltirib chiqarmoqda. Mana shunday konsepsiyalardan biri, ilg‘or xorij amaliyotida keng qo‘llanilayotgan bank injiniringi hisoblanadi. Bank injiniringi bir tomondan loyihalash jarayoni, raqobatdosh innovatsion bank instrumentlarini ishlab chiqish va amaliyotga qo‘llash, biznes jarayoni va mahsulotlarni yaratishini bildirsa, ikkinchi tomondan bu bank amaliyotidagi dolzarb muammolarni yechish va ularga iqtisodiy tomondan tizimli yondoshuv asosida turli usullarni ishlab chiqish imkonini beradi. Bank injiniringining asosiy maqsadi innovatsion yangi bank mahsuloti va xizmatlarini yaratish, bankning moliyaviy resurslari, riski, likvidligi, daromadi va axborotlarni maqsadli taqsimlash hamda qayta taqsimlashni, bank kontragentlari talablari asosida ularni bankning makro va mikro faoliyatiga qo‘llash hisoblanadi. Bank injiniringining asosiy maqsadi bankka qo‘shimcha daromadlar keltirish, yuqori innovatsiyali bank mahsulotlarini yaratish va bozorda raqobatchilaridan ustunligini ta’minlash. Uning muhim omillari sifatida quyidagilarni keltirib o‘tish mumkin:

- kapital harakat uchun qulay sharoit yaratish;
- qo‘shimcha daromad olish;
- bank risklarini diversifikatsiyalash;
- risksiz daromad olish. Spekulyativ operatsiyalar asosida qo‘shimcha daromad olish.

XULOSA

Yuqorida keltirilgan asosiy maqsad omillari asosida bank faoliyatining asosiy javobgar funksional segmenti – risklarni boshqarish, qimmatli qog‘ozlar bilan savdo qilishda spekulyativ strategiyani ishlab chiqish va bajarish moliyaviy instrumentlar va eng muhimi innovatsion bank mahsulotlari bilan bog‘langan. Bank injiniringi yangi innovatsion mahsulotni yaratish bilan bank operatsiyalari daromadini oshirishga, likvidlikni va riskni boshqarish imkoniyatlarini oshiradi. Bu esa pul oqimi harakati va uni tashkil etishi bo‘yicha ko‘p qirrali muammolarni yechish imkonini beradi. Bank injiringining bank faoliyatidagi natijasi quyidagi bosqichlar asosida amalga oshiriladi:

- birinchi bosqichda bank-emitent investitsion mahsulotning aniq maqsadini bilishi zarur. Innovatsion bank mahsulotini amaliyotga kiritilishi, bank-emitentning qo‘yilgan maqsadi asosida likvidligini boshqarishni takomillashtirish imkonini beradi;
- ikkinchi bosqichda kontragentlarning salohiyatini tahlil qilish orqali, ularning xususiyatiga ta’sir qiluvchi turli risklar darjasini pasaytirish, kontragentlar passiv va aktivlarining likvidligini ta’minlash, aksionerlik kapitalini boshqarishni optimallashtirish, yuqori rentabelli aktivlarni joylashtirish orqali daromad olishi nazorat qilinadi;
- uchinchi bosqichda bank injiniringi amaliyotga tatbiq etilgan innovatsion bank mahsulotining natijasiga va bank faoliyatiga ta’sir qiluvchi moliyaviy risklarning turlari, darajasi va usullari bo‘yicha to‘liq baholashni ko‘rib chiqadi;
- to‘rtinchi bosqichda bitta yoki bir nechta bank mahsulotlari tanlab olinadi. Tanlangan bank mahsulotlarini moliyaviy vositalar asosida uning modifikatsiya (qanday bozorda ishlashi, vazifalari va yechiladigan masalalari) tanlab olinadi;
- beshinchi bosqichda bank injiniringi innovatsion bank mahsulotini, bankning risklarni ichki nazorat qilish usullari va test o‘tkazish orqali qo‘yilgan masalalar o‘rganadi. Bank injiniringi risklarni boshqarish usuli bank strategiyasi bilan bog‘liq bo‘ladi. Bank injiniringining bank mahsulotlarini yaratish jarayonida bankni risklarga nisbatan munosabati agressiv, tizimli va konservativ holatda bo‘lishi mumkin;
- oltinchi bosqichda bank injiniringi tomonidan tanlangan bank instrumentlari orqali bankning riski, daromadi va likvidligini o‘zaro munosabatini baholash vazifasi yechiladi. Masalan, amaliyotda bank portfelining eng yaxshi nisbati uning diversifikatsiyalangani hisoblanadi. Agar kredit portfeli to‘g‘risida bo‘ladigan bo‘lsa, uning sek’yuritizatsiya qilingani hisoblanadi;

- yettinchi bosqichda bankning innovatsion mahsulotini tatbiq etishning turli tahliliy variantlari ko‘rib chiqiladi. Bank faoliyatini rivojlantirishning turli omillari bo‘lgani uchun, yaratilgan mahsulotni tashqi muhitni o‘zgarishi ta’sirida keyingi yillar uchun prognozini ishlab chiqishi zarur;
- sakkizinchi bosqichda yaratilgan mahsulotni amaliyotga tatbiq etishni oxirgi varianti ko‘rib chiqiladi. Bunda ushbu jarayonni baholovchi ekspert guruhlari ishlaydi. Keyin oxirgi qarorni bankning turli huquqiy, texnologik, kredit, investitsiya va moliyaviy bo‘limlari qabul qiladi;
- to‘qqizinchi bosqichda bank injiniringi bank ichki muhitida yangi mahsulotni amaliyotga kiritish bo‘yicha tashkiliy tadbirlarni ishlab chiqadi. Bu tadbirlarga moliyaviy va mehnat resurslarini taqsimlash, bank mahsulotini nazorat qiluvchi bo‘lim, bank innovatsion mahsulotini ishlash grafigini, turli hujjatlarni ishlab chiqishni, buxgalteriya hisobini yuritishni va h.k.;
- o‘ninchi bosqichda bank injiniringi uning sotilishi va ishlashini nazorat qilish;
- o‘n birinchi bosqichda yangi bank mahsuloti bozorda qo‘llab-quvvatlash.

Bu shunday vaziyatlar uchunki, bunda aksiya kursining o‘zgarishi, kotirovka va sotish tizimida yuzaga kelgan favqulodda holatlarda foydalaniladi. Shuning uchun bank doimiy ravishda yangi innovatsion bank mahsulotini kuzatib turishi va zarur holatlarda bozorda uning harakatini qo‘llab-quvvatlashi zarur. Shunday qilib, yuqorida taklif etilgan bank injiniringi metodologiyasi o‘n bir bosqichni o‘zida qamrab olib, tug‘ilgan g‘oyani yaratish va uni bozorda kirib borishigacha bo‘lgan bosqichni qamrab oladi. Ushbu metodologiyaga e’tibor beradigan bo‘lsak, bank injiniringi yaratilgan mahsulotni samara berishida unga ta’sir etuvchi turli moliyaviy risklarni boshqarish muhimligini keltirib chiqaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Бочаров В.В. Финансовый инжиниринг. – СПб.: Питер, –2004. –С. 400.
2. Бродский М.Н., Бродский Г.М. Право и экономика: инвестиционное консультирование. – Санкт-Петербург: Консальт, –1999. –С. 444.
3. Колб Р.У. Финансовые деривативы. Пер. с англ. – М.: Дело, 1997. –С.274-275.
4. Воробьева З. Финансовый инжиниринг на рынке облигаций. Сборник научных трудов. – М.: НГУ, 2002. –С.419-421.
5. Сорос Дж. Алхимия финансов. - М.: Инфра-М, 1996. .С.25-35.
6. Джон Ф.Маршалл, Викул К. Бансал. Финансовая инженерия: Полное руководство по нововведениям: Пер. с англ. –М.: ИНФРА-М, 1998. –С.37.
7. E.J.Kane. Accelerating Inflation, Technological Innovation.-Washington: Journal of Finance. –1981. –P.355.
8. V.Niechans. Financial Innovation, Multinational Banking and Monetary Policy.-Washington: Journal of banking and finance. –№7. –1983. –P.539.
9. V.M.A.Akhtar. Financial Innovations and their Implications for Monetary Policy: an International Perspective.-Washington: Basle. Bank for International Settlements. –1983. –P. 5.
10. V.G.Dufey, J.N.Giddy. The Evolution of Instruments and Techniques and International Financial Markets.-Washington: Suerf Series. –1981. –P. 4.

O‘ZBEKISTONDA TURIZM XIZMATLARI IMKONIYATLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR

Fayziyev Oybek Raximovich
I.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti nodavlat oliy ta’lim tashkiloti, Iqtisodiyot fakulteti, “Moliya” kafedrasi dotsenti, Toshkent kimyo xalqaro universiteti mustaqil izlanuvchisi

Xalikov Saydilla Abdraxmanovich
Alfraganus universiteti nodavlat oliy ta’lim tashkiloti, Iqtisodiyot fakulteti, “Moliya” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur ishda O‘zbekiston Respublikasining mavjud sayyohlik salohiyati tahlil qilinib, uni rivojlantirishga to‘sqinlik qilayotgan muammolar qisman o‘rganilgan, ularning yechimlari bo‘yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: sayyohlik salohiyat, turizmdagi muammolar, servis va xizmat ko‘rsatish obyektlari, viza rejimi, sayyohlar oqimi, Konsepsiya, jahon turizm bozori, “O‘zbekiston tashrif qog‘ozi”, “O‘zbekiston turizm brendi”, implementatsiya qilish.

Abstract: This work analyzes the existing tourism potential of the Republic of Uzbekistan, partially studies the problems that impede its development, and also provides proposals and recommendations for solving them.

Key words: tourism potential, problems in the field of tourism, services and facilities, visa regime, flow of tourists, Concept, global tourism market, “Business card of Uzbekistan”, “Tourist brand of Uzbekistan”, implementation.

Аннотация: В данной работе анализируется существующий туристический потенциал Республики Узбекистан, частично изучаются проблемы, препятствующие его развитию, а также даются предложения и рекомендации по их решению.

Ключевые слова: туристический потенциал, проблемы в сфере туризма, услуги и сервис, визовый режим, поток туристов, Концепция, мировой туристический рынок, “Визитная карточка Узбекистана”, “Туристический бренд Узбекистана”, имплементация.

KIRISH

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga keng imkoniyat va yengilliklar yaratilayotganligi bois, kun sayin tarmoqda yangidan-yangi zamonaviy ishlab chiqarish korxonalari, turistik obyektlar kabi turli yo‘nalishlardagi faoliyatlar yo‘lga qo‘yilmoqda. Har yili ana shunday istiqbolli loyihalar asosidagi turistik infratuzilma obyektlari qurib foydalanishga topshirilmoqda. Buning uchun, tadbirkorlik subyektlariga mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan tijorat banklari tomonidan imtiyozli kreditlar ajratilib berilib ularning faoliyatlari moliyalashtirilmoqda. Natijada, tadbirkorlik subyektlarining faoliyati to‘liq yo‘lga qo‘yilishi hisobiga viloyatlarning hududiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatib nafaqat ichki balki tashqi turizm imkoniyatlari ochilib qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratilmoqda, pirovardida esa, hududlar aholisining bandligi ta’minlanmoqda.

Shuni alohida ta’kidlab o‘tish kerakki, mamlakatimizning sayyohlik salohiyatini jahon miqyosida keng targ‘ib qilish va bu orqali mamlakatimizga xorijiy sayyohlar oqimini ko‘paytirish hisobiga iqtisodiyotimizga xalqaro valyuta oqimining tushimini kuchaytirish bilan bog‘liq hali ishga solinmagan muammoli masalalarimiz ham borligi rost. Ushbu maqolada ham aynan respublikamizning turizm sohasidagi mavjud imkoniyatlar tahlil qilinib, aniqlangan ayrim muammolar va ularning yechimi xususidagi qisqacha tahliliy mulohazalar keltirilib xulosalar shakllantirilgan. Shakllantirilgan xulosalarga asoslanib ayrim takliflar ishlab chiqilganligi bilan ham ahamiyatli hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mamlakat iqtisodiyotining “strategik tarmog‘i”dan biri bu – turizm hisoblanadi. Shunday ekan, ichki va tashqi turizmni rivojlantirish bilan bog‘liq bo‘lgan ayrim muammolari va ularning yechimiga bag‘ishlangan ko‘plab tadqiqotlar mahalliy va xorijlik olimlar va ilmiy izlanishlar olib borayotgan tadqiqotchilar tomonidan imkon qadar o‘rganib kelinmoqda. Xususan, makro, mezo va mikro darajadagi turizm iqtisodiyotining asosiy jihatlariga oid ilmiy ishlar xususida xorijlik M.A.Morozov, N.S.Morozova, G.A.Karpova, L.V.Xoreva [7] va shuningdek, V.I.Azar [4] kabi olimlar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan bo‘lib, asosan, ularning ishlarida turizmdagi asosiy iqtisodiy qonunlar va kategoriyalar, turistik agentlik faoliyatning asosiy moliyaviy-iqtisodiy ko‘rsatkichlarning turlari va ularning xususiyatlariga oid tadqiqot ishlar o‘rganilgan.

Mahalliy olimlarimizdan M.Q.Pardayev, I.S.Ochilov [6]lar tomonidan xizmat ko‘rsatish sohasi korxonalarida samaradorlikni oshirishga doir ilmiy ishlar bo‘yicha tadqiqotlar olib borilgan, qolaversa, Z.I.Usmanova [10]ning tadqiqotlarida esa, asosan turistik-rekratsion korxonalardagi raqobatbardoshlikni ta’minlashga oid tadqiqotlarga bag‘ishlangan. Shuningdek, milliy turizm tarmog‘ini rivojlantirishda kiruvchi turistik oqimning o‘zgarish tendensiyalari xususida M.Amonboyev, S.Sh.Xalilov [9] hamda milliy iqtisodiyotda turizm tarmog‘ini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish oid masalalarda esa, J.N.Abiyev [8]ning tadqiqotlarida ko‘rishimiz mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida iqtisodiy tahlil qilish, qiyosiy taqqoslash, statistik guruhlash, monografik kuzatish, mantiqiy va abstrakt fikrlash usullaridan keng foydalanilgan.

Tadqiqot ishi davomida olingan asosiy ilmiy natijalarning ishonchliligini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi prezidenti xuzuridagi Statistika agentligi va O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasi ma’lumotlari, sohaning yetakchi olimlarining ilmiy adabiyotlari va internet tarmog‘idan olingan ma’lumotlardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekiston o‘zining boy tarixi, ko‘xna obidalari, qadimiy va tarixiy osori atiqalari va ajoyib tabiati nafaqat xorijliklarni balki yurtdoshlarimizni ham doimo o‘ziga maftun etib kelgan. Shunday ekan, zaminimiz ulkan turistik imkoniyatlarga boy bo‘lgan turizm xizmatlarini amalga oshiruvchi yuqori salohiyatga ega bo‘lgan dunyo mamlakatlaridan biri hisoblanadi. Boisi shundaki, millat, makon va zamon tanlamaydigan mezonlarga javob beradigan nafaqat tarixiy obidalar, balki o‘ziga xos bo‘lgan tabiat manzaralari, qolaversa, zamonaviy ko‘rinishlari bilan ham diqqatga sazovor madaniy va xushmanzara obyektlar yurtimizda nihoyatda ko‘p. Ana shu jihatlarning o‘zi mamlakatimizdagi sayyohlik-turizm yo‘nalishida ulkan imkoniyat, katta iqtisodiy salohiyatning mavjudligini ko‘rsatadigan diyor ekanligidan dalolat beradi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar natijalari tahlili shundan dalolat bermoqdaki, islohotlarning qisqa va o‘rta muddatli maqsadlari izchil amalga oshirilib, belgilangan mezonlarga erishilmoqda. Shu ma’noda, mamlakatimizning ko‘plab xalqaro reytinglardagi o‘rni yanada mustahkamlanib jadal iqtisodiy yuksalish tendensiyasiga ega bo‘lib jahon hamjamiyati tomonidan yuksak e’tiroflar bilan tilga olinayotganligini ko‘rishimiz mumkin. Buning yorqin ifodasi sifatida, Ko‘hna va boqiy Buxoro shahri 2020-yilda “Islom madaniyati poytaxti” [26], Qo‘qon shahri esa 2022-yil − turkiy dunyo turizm poytaxti [22] bo‘lganligi, 2023-yil 16-oktyabr kuni BMT Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO) Bosh Assambleyasining yubiley 25-sessiyasi doirasida Samarqand shahriga “Jahon madaniy turizm poytaxti” [21] maqomini berish to‘g‘risida deklaratsiya qabul qilinganligini, Xiva shahri 2024-yilda “Islom dunyosining turizm poytaxti”, [18] deb e’lon qilinganligini, Shahrisabz shahri esa, Iqtisodiy hamkorlik tashkilotining (IHT) 2024-yilgi turistik poytaxti [25] etib tanlanganligini misol keltirishimiz mumkin.

Bundan tashqari, 2023-yilda O‘zbekiston Amerikaning Travel Lemming onlayn sayohat qo‘llanmasida dunyodagi 50 ta eng yaxshi sayyohlik yo‘nalishi ro‘yxatidan joy oldi va 9-o‘rinni egalladi [23].

Jahon hamjamiyati tomonidan mamlakatimizning turistik salohiyatidan kelib chiqib uning imkoniyatlari shunday yuksak e’tiroflar bilan tilga olinayotgan bir vaqtda mamlakatimizda mahalliy va xorijiy turistlar uchun qanday qulayliklar yaratib berilayotganligi ko‘pchillikni qiziqtirishi tabiiy hol, hisoblanadi.

Shunday ekan, mamlakatimiz prezidentining tashabbusi bilan milliy iqtisodiyotimizda turizm sohasini devirsifikatsiya qilish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, aholining daromadlarini oshirish orqali turmush darajasini yanada yahshilash, mamlakatimizda turizmning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishni ta’minlash, strategik tarmoqlardan biri sifatida rivojlantirishning muhim yo‘nalishi va bu yo‘nalishni mamlakatimizning eng muhim “strategik soha”laridan biri sifatida e’tirof etib uning taraqqiyoti yo‘lida amaliy harakatlar olib borilmoqda.

Bu borada, Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida ham mamlakatimizda turizmni rivojlantirish va turizm xizmatlari hajmini ko‘paytirish bo‘yicha qo‘plab chora-tadbirlar belgilab olindi. Birgina misol, kelgusi 5 yillikka mo‘ljallangan mazkur Taraqqiyot strategiyasining “Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘sish sur’atlarini ta’minlash” deb nomlangan 3-ustuvor yo‘nalishida “Respublikaning eksport salohiyatini oshirish orqali 2026 yilda respublika eksport hajmlarini 30 milliard AQSH dollariga yetkazish”ni maqsad qilib olingan. Bu maqsadga erishish uchun esa, “turizm kabi boshqa xizmatlar eksportini 1,7 baravarga oshirish yoki 4,3 milliard AQSH dollariga yetkazish” [14] vazifasi belgilab olindi.

Bundan tashqari, “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qiling” dasturi doirasida respublikamizning turistik salohiyati yuqori bo‘lgan hududlar Toshkent, Jizzax, Samarqand, Navoiy, Buxoro va Xorazm kabi viloyatlarga, shuningdek Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Toshkent shahriga sayyohlar oqimini yanada kuchaytirish hisobida mavjud resurslardan unumli foydalanib mahalliy sayyohlar sonini 12 million nafardan oshirish hamda respublikaga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar sonini 9 million nafarga yetkazish bo‘yicha ham aniq maqsadlar belgilab olindi.

Darhaqiqat, 2024 -yilning 17-yanvar kuni mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev yuqorida ta’kidlagan va belgilab olingan ulkan maqsadlarni amalga oshirish bo‘yicha qat’iy harakatlarni o‘rganish va mamlakatimizga xorijiy turistlar oqimini oshirish hamda ichki turizmni faollashtirishga oid taqdimotlar bilan tanishish chog‘ida 2027-yilning 1-yanvargacha bo‘lgan muddatda turizm markazlaridagi tadbirkorlarning yer va mol-mulk solig‘ini 90 %gacha kamaytirish, 2026-yil 1-martgacha esa, zargarlik va oltin mahsulotlari uchun kerak bo‘ladigan asbob-uskunalar va texnologiyalarni bojxona bojidan ozod etish [20] bo‘yicha takliflar taqdim etildi.

Shu o‘rinda bir savol tug‘iladi. Xo‘sh, biz aslida kimni “turist”, deb aytamiz va ular qanday faoliyat turi bilan shug‘ullanishadi!? Mavjud adabiyotlar va boshqa manbalar tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, masalan, Vikipediya ochiq ensiklopediyasiga ko‘ra, “turist” – so‘zi fransuzcha “touriste” so‘zidan olingan bo‘lib – sayyoh, ya’ni turizm bilan shug‘ullanuvchi shaxs, turistik sayohat, yurish qatnashchisi, [27] degan ma’nolarni anglatadi.

O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 18-iyulda qabul qilingan “Turizm to‘g‘risida”gi Qonuni [1] va O‘zbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasining 2023-yil 16-martdagi 5-son qarori bilan tasdiqlangan “Joylashtirish vositalariga (xizmatlarga) qo‘yiladigan sanitariya-gigiyena talablari” (0045-23-son SanQvaN) [15]ga ko‘ra, “turist” – vaqtincha bo‘lish mamlakatidagi (joyidagi) manbalardan daromad olish bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyat bilan shug‘ullanmagan holda vaqtincha bo‘lish mamlakatiga (joyiga) yigirma to‘rt soatdan ketma-ket o‘n ikki oygacha bo‘lgan davrga boruvchi yoki vaqtincha bo‘lish mamlakatida (joyida) kamida bir kecha tunab qoluvchi jismoniy shaxs [13]ni tushinishimiz mumkin.

Shunday ekan, “turizm” nima degani? Qomus.info onlayn ensiklopediyasiga ko‘ra, turizm (frans. tour – sayr, sayohat), sayyohlik – sayohat (safar) qilish; faol dam olish turlaridan biri. Turizm deganda, jismoniy shaxsning doimiy istiqomat joyidan sog‘lomlashtirish, ma’rifiy, kasbiy amaliy yoki boshqa maqsadlarda borilgan joyda (mamlakatda) haq to‘lanadigan faoliyat bilan shug‘ullanmagan holda uzog‘i bilan 1 yil muddatga jo‘nab ketishi (sayohat qilishi) tushuniladi [28].

Bundan ko‘rinib turibdiki, haqiqatdan ham bugungi kunda turizm jahon iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlaridan biriga aylanib ulgurdi. Bu borada O‘zbekistonda turizm industriyasini modernizatsiya qilish, sohani barqaror rivojlantirish uchun normativ-huquqiy bazani rivojlantirish va takomillashtirish, xorijlik mehmonlarga xalqaro standartlar asosida xizmat ko‘rsatishni tashkil etishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Mustaqillik yillarida xalqning tarixiy-madaniy merosini asrab-avaylash va yuksaltirish, milliy an’ana va urf-odatlarni, respublikaning diqqatga sazovor joylarini tiklash va obodonlashtirish bilan bir qatorda bu sohada sezilarli amaliy harakatlar amalga oshirilmoqda. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-sentyabrda qabul qilingan 543-son qarori asosida 2022–2026-yillarda Buxoro viloyatida turizm sohasini yanada rivojlantirishning maqsadli ko‘rsatkichlari tasdiqlandi (1-jadval).

1-jadval: 2022–2026 yillarda Buxoro viloyatida turizm sohasini rivojlantirishning maqsadli ko‘rsatkichlari dinamikasi [3]

№	Ko‘rsatkichlar nomi	Yillar		2026-yilda 2022-yilga nisbatan kutilayotgan o‘zgarishi	
		2022	2026	+;- hisobida	% hisobida
1.	Ichki turistlar tashrifi soni (mln kishi)	2,4	4,1	1,7	171
2.	Xorijiy sayyohlar soni (ming kishi)	450	1 800	1350	400
3.	Xizmatlar eksporti (mln AQSH doll)	121	300	179	248
4.	Joylashtirish vositalaridagi xonalar soni (ming)	5,399	7,976	2,577	148
5.	Mehmonxonalar nomer fondining bandlik darajasi	45	93	48	207
6.	Joylashtirish vositalaridagi o‘rinlar soni (ming)	12,147	17,512	5,365	144
7.	Mehmonxonalar soni (dona)	178	258	80	145
8.	Oilaviy mehmon uylari soni (dona)	264	345	81	131
9.	Xostellar soni (dona)	55	76	21	138
10.	Internet (4G va 5G texnologiyalarini hisobga olgan holda) qamrovi darajasini oshirib borish	7	11	4	157

Yuqoridagi 1-jadval ma’lumotlaridan ham ko‘rinib turibdiki, Buxoro viloyatining turizm sohasini rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan keng ko‘lamli iqtisodiy-islohotlar natijasida ichki turistlar tashrifi sonini 2022-yildagi 2,4 mln kishidan 2026-yilda 71 foizga oshishi kutilib, bu ko‘rsatkich 4,1 mln kishigacha yetkazish prognoz qilinmoqda. Xuddi, shuningdek, xorijiy sayyohlar sonini ham 2022-yilga nisbatan yana kamida 4 baravargacha oshirish kutilmoqda.

Shuni yana, alohida ta’kidlab o‘tish kerakki, hududiy turistik salohiyatni oshirishda joylashtirish vositalari, mehmonxonalar, oilaviy mehmon uylari, xostellar va ulardagi xona hamda o‘rinlarning soni ham muhim o‘rin tutadi. Shunday ekan, 2026-yilga kelib mazkur hududdagi mehmonxonalar sonini yana 80 taga ko‘paytirib, oilaviy mehmon uylari va xostellar sonini ham mos ravishda qo‘shimchasiga yana 80 va 81 tagacha oshirilishi qolaversa ulardagi o‘rinlar sonini ham 5,4 mingtagacha oshirib birvarakayiga 17,5 mingtadan ortiqroq turist va sayyohni qabul qilib olish imkoniyatini yaratish ustida izlanishlar olib borilmoqda.

Butun dunyo mamlakatlari turizm industriyasi rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadigan asosiy omillaridan yana biri bu sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini nechog‘lik joriy etilganligiga ham bog‘liq bo‘ladi. Shunday ekan, tezkor axborotlar almashinuvini yo‘lga qo‘yishda va ularni tarqatishda, turizm mediasi orqali reklama va marketing xizmatlarini keng targ‘ib etishda internet tarmog‘ining ahamiyati katta hisoblanadi. Ayniqsa, mazkur xududda ham internet (4G va 5G texnologiyalarini hisobga olgan holda) qamrovi darajasini 7 dan 11 ga oshirib borish ko‘zda tutilgan. Bundan ko‘zlangan maqsad shuki, ichki turistlar va xorijiy sayyohlar oqimini oshirilishi natijasida ularga ko‘rsatiladigan turizm xizmatlari eksportini ham, 2026 yilda 300 mln AQSH dollarigacha yetkazishni rejalashtirish mumkinligidan dalolat beradi.

Agar tahllilarga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, mamlakatimiz uchun 2023-yil oxirgi 4 yillikga qaraganda ancha sermahsul yil bo‘ldi, deyish mumkin. Masalan, buni 2022-yil bilan solishtirgan holda ham ko‘rish mumkin. Tashrif buyurgan sayyohlar soni 2022-yil hisobida qariyib 5,3 mln nafarni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yil yakuni bo‘yicha O‘zbekistonga tashrif buyurgan sayyohlar soni 6,6 mln kishini tashkil etib, oldingi yilga nisbatan 27 foizga o‘sgan (1-rasm). 2024 - yil uchun esa, 11,250 mln. sayyohlarning tashrifi amalga oshirilishi prognoz qilinmoqda [2].

Sayyohlarni mamlakatimizda bo‘lish vaqtini ham oshirish bilan bog‘liq tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish mamlakatimizning iqtisodiy salohiyatini yanada yuksaltirishga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, tahlillarga ko‘ra, “ ... sayyohlarning O‘zbekistonda bir kun ko‘proq qolishi yillik turizm eksportini 300 million dollarga oshirar ekan. Xorazmda turistlarning qolish muddati − o‘rtacha 2 kun va sarflaydigan mablag‘i − 220 dollar ekan. Xorijiy turistlar Buxoro, Samarqandga qaraganda Xorazmda 2,5 baravar kam, lekin Xorazmda sayyohlarni 3-4 kun olib qolish va 400-500 dollar sarf qilishlari uchun barcha imkoniyatlar bor [24]. O‘zbekistonga tashrif buyurgan bir sayyohning o‘rtacha qilgan xarajati 2023-yilda 323 dollarga (Sayyohlarning o‘rtacha qilgan xarajati umumiy safarlar eksportini mamlakatga tashrif buyurgan turistlar soniga nisbati orqali hisoblangan) to‘g‘ri kelib, oldingi yilga nisbatan 5 foizga oshdi[29]. Shu boisdan ham bo‘lsa kerakki, 2023-yilda jami xizmatlar eksportida safar xizmatlari ulushi 41 foizga yetib, 2,1 mlrd dollarni tashkil qilgan [29]. Ushbu tahlillardan shuni anglab olish mumkinki, 2023-yil mamlakatimiz uchun “sermahsul yil” bo‘ldi deb aytishimiz mumkin.

1-rasm: O‘zbekiston Respublikasiga turistik maqsadlarda kelgan chet el fuqarolari [2], ming kishi

Darhaqiqat, “Turizm sohasi – orzular ko‘prigi” yoki “Turizmni madaniyatlar rishtasi” deb ham bejizga e’tirof etishmaydi. Ichki turizm va xorijiy sayyohlik xizmatlaridan foydalanish uchun foydalanuvchilarga qulay bo‘lgan vaqt imkoniyatini yaratib berishni ham tashkil etish dolzarb bo‘lgan masalalardan biri hisoblanadi. Shunday ekan mamlakatimiz aholisini ham ushbu xizmat turlaridan foydalanishlari uchun ayniqsa, ularga yetarli vaqt sharoitlarini ham ta’minlanib berilmoqda. Boisi shundaki, ma’naviy ozuqa olgan kadrlarning ish faoliyatida samaradorlik yuqori bo‘ladi va bu o‘z navbatida inson doimo yaxshi yashashga haqli ekanligiga da’vat etadi.

Kundalik hayotimiz davomida har qaysi bir inson borki u dam olish huquqiga ega hisoblanadi. Bu holatning huquqiy asosi esa, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 45-moddasida ham “Har kim dam olish huquqiga ega” [14], ekanligi belgilab qo‘yilgan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 207-moddasida “Xodimlarga har haftada dam olish kunlari beriladi” [17], deb yozib qo‘yilgan bo‘lsa, 208-moddasiga binoan yana qo‘shimcha ravishda “1-yanvar – Yangi yil, 8-mart – Xotin-qizlar kuni, 21-mart – Navro‘z bayrami, 9-may – Xotira va qadrlash kuni, 1-sentyabr – Mustaqillik kuni, 1 oktyabr – O‘qituvchi va murabbiylar kuni, 8 dekabr – O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni, Ro‘za hayit (Iyd al-Fitr) diniy bayramining birinchi kuni va Qurbon hayit (Iyd al-Adha) diniy bayramining birinchi kuni” [27] sifatida ishlanmaydigan bayram kunlari ekanligi belgilab qo‘yilgan. Bundan tashqari, xodimlarning uzluksiz dam olish kunlarini mazmunli tashkil etish, ichki turizmni rivojlantirishga hissa qo‘shish maqsadida yuqorida nomlari keltirilgan rasmiy sanalarni nishonlash davrida qo‘shimcha ishlanmaydigan kunlarni belgilash va dam olish kunlarini ko‘chirish bo‘yicha ham tashkiliy ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Birgina misol, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 22-dekabrda qabul qilingan “2024-yilda rasmiy sanalarni nishonlash davrida qo‘shimcha ishlanmaydigan kunlarni belgilash va dam olish kunlarini ko‘chirish to‘g‘risida”gi PF-213-son[19]li farmoniga binoan, barcha xodimlar uchun (ish haftasining turidan qat’i nazar) 22-mart – juma, 11-aprel – payshanba, 18-iyun – seshanba, 3-sentyabr – seshanba va 31-dekabr – seshanba shuningdek, 6 kunlik ish haftasida ishlaydigan xodimlar uchun esa, 2-yanvar – seshanba, 23-mart – shanba, 12-aprel – juma, 31 avgust – shanba va 30 dekabr – dushanba hamda 5 kunlik ish haftasida ishlaydigan xodimlar uchun 6-yanvar – shanba kunidan 2-yanvar – seshanba kuniga, 13-aprel – shanba kunidan 12-aprel – juma kuniga va 14-dekabr – shanba kunidan 30-dekabr – dushanba kuniga dam olish kunlarini ko‘chirish tartibi belgilab qo‘yildi.

Demak, mamlakatimizda yuqorida sanab o‘tilgan kunlari kamida ichki turizmni rivojlantirish uchun qulay imkoniyat hisoblanadi. Chunki, jamoaviy dam olish mehnat jamoalari uchun nafaqat birgalikda maroqli vaqt o‘tkazish, balki xodimlarni rag‘batlantirish va birlashtirishning samarali vositasidir. Bunday tadbirlar tufayli ish samaradorligi oshadi, tashkilot muhiti yaxshilanadi va xodimlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar yanada mustahkamlanadi.

Yuqoridagi tahliliy mulohazalardan shunday xulosa qilish mumkinki, mamlakatimizda nafaqat oddiy aholi bo‘g‘inlari uchun balki mehnat faoliyatini olib borayotgan barcha mehnatkash xodim va mutaxassislarimizni mehnat ish haftasidan so‘ng yoki rasmiy bayram sanalarini munosib ravishda o‘tkazish hamda dam olishlarini ta’minlash maqsadida aqliy va jismoniy resurslarni to‘ldirib maroqli xordiq olishlari uchun juda yaxshi qulay imkoniyatlar yaratib berilgan. Demak, turizm sohasini yanada rivojlantirish kerak. Boisi shundaki, “... bugungi kunda jahon turizm bozori hajmi qariyb 9 trillion dollarni tashkil etmoqda. Dunyoda ish bilan band aholining har o‘ninchisi ushbu sohada faoliyat yuritmoqda [30]. Biroq, “... O‘zbekiston yalpi ichki mahsulotidagi turizm sohasi ulushi bor-yo‘g‘i 2,3 foiz. Xorijiy davlatlarda ushbu ko‘rsatkich 10 foizgacha yetadi” [31].

Shunday ekan, turizm sohasi yangidan-yangi bo‘sh ish o‘rinlari yaratish uchun qulay imkoniyatlardan biri ham hisoblanadi. Amalga oshirilgan sa’y-harakatlar tufayli birgina, “ ... 2022-yilda turizm sohasida jami qiymati 22,1 trln so‘mlik 735 ta loyihalar ishga tushirilib, tarmoqda qo‘shimcha 23 mingga yaqin yangi ish o‘rni yaratildi [32].

Bundan shuni anglash mumkinki, mamlakatimizda mazkur yo‘nalishda yechimini kutib turgan hali ko‘plab amaliy ishlarning bajarilishi lozim ekanligi yaqqol ko‘rinib turibdi. Jumladan, turizmni yanada rivojlantirishga to‘sqinlik qilayotgan quyidagi qator muammolarni sanab o‘tishimiz mumkin:

Birinchidan, turizm xizmatlarini ko‘rsatishda malakali gid xizmatlarining yetishmasligi;

Ikkinchidan, mexmonxonalarda servis xizmatlarining yetarli darajada yaxshi rivojlanmaganligi (masalan hududlardagi mehmonxonalar va xostellarda elektr energiyasi ta’minotidagi uzilishlar, qish-kuz mavsumida isitish va sovutish tizimi bilan bog‘liq muammolar, internet va mobil aloqa xizmatlari bilan bog‘liq muammolar, sayyohlar uchun ularning avtomobillariga malakali texnik xizmatlarini ko‘rsatishdagi oqsoqlanishlar, bank xizmatlarining to‘laqonli emasligi (uzkard, xumo va viza karta tizimlarida o‘zaro integratsiyalashuv mavjud emasligi));

Uchunchidan, sifatli va halqaro andozalarga mos reklama va marketing xizmatlarining talab darajasida emasligi;

To‘rtinchidan, sayyohlik turizmiga ihtisoslashtirilgan hududlarda rejali transport xizmatlarining yo‘lga qo‘yilmaganligi;

Beshinchidan, ihtisoslashtirilgan turizm hududlarida mahalliy aholi qatlamlarining milliy an’analarimizni o‘zida mujassamlashtirgan har xil marosimlarni targ‘ib etishga xizmat qiluvchi bilim va tajribalarining yetarlicha shakllanmaganligi;

Oltinchidan, turizm sohasida navigatsiya tizimining axborot belgilari yaxshi rivojlanmaganligi;

Yettinchidan, avia va temiryo‘l transport vositalaridan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarning mavjudligi;

Sakkizinchidan, turizm hududlarida savdo-sotiq xizmatlari tizimli ravishda yo‘lga qo‘yilmaganligi;

To‘qqizinchidan, turoperator, mehmonxona, transport korxonalari, oliygohlarning vakillari o‘rtasidagi olib borilayotgan ishlar tizimli ravishda uyg‘unlashmaganligi kabi muammolar mavjuddir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi tahliliy fikr va mulohazalarimizdan kelib chiqib, respublikamizning turizm salohiyatini tobora jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirish yo‘lida quyidagi takliflarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- Mamlakatimizni targ‘ib qiluvchi maxsus mediakontentlar nashr qilish;
- Respublikamizning turistik salohiyatiga bag‘ishlangan o‘zbek va xorijiy tillardagi sifatli videoroliklarni doimiy ravishda tayyorlab borish va targ‘ib etish;
- qishloq joylardagi barcha turdagi yo‘llarni elektr energiya infratuzilmalari bilan muttanosib ravishda jahon andozalariga moslashtirish;
- mavsumiy sport turizmi bilan bog‘liq servis xizmatlarini rivojlantirish, ekologik turizm, qo‘riqxona, tabiat maskanlari va tabiat yodgorliklari imkoniyatidan foydalanish;
- “O‘zbekiston tashrif qog‘ozi”ni ishlab chiqish;
- “O‘zbekiston turizm brendi” haqidagi ma’lumotlarni ijtimoiy tarmoqlarda hamda mahalliy va halqaro ommaviy ahborot vositalarida doimiy ravishda targ‘ib etib borish;
- Mamlakatimizdagi turizm sohasida ishlab chiqilgan tartib- qoidalarni xalqaro me’yor va standartlarga implementatsiya qilish.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yuqorida sanab o‘tilgan muammolarning yechimiga bag‘ishlangan amaliy xarkatlarni olib borish va bunda soha yaxshi rivojlangan davlatlarning halqaro tajribalarini mamlakatimiz sayyohlik yo‘nalishida targ‘ib qilish va keng joriy etish mamlakatimizda sayyohlik sohasining taraqqiy etishiga olib keladi hamda valyuta tushumlarini oshirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining 18.07.2019-yilda qabul qilingan “Turizm to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘RQ-549-son. https://lex.uz/docs/4428097
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvarda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5611-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2019-2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish KONSEPSIYASI”
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-sentyabrda qabul qilingan “2022 – 2026 yillarda Buxoro viloyatida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 543-son qarori. https://lex.uz/ru/docs/6212874#6217692
4. Азар В.И. Экономика и организация международного туризма. М.: Экономика, 1984.
5. Karimov I.A. “Bunyodkorlik yo‘lida”. −Toshkent. O‘zbekiston 1996-yil. −285 b.
6. Pardayev M.Q., Ochilov I.S. Xizmat ko‘rsatish sohasi korxonalarida samaradorlikni oshirish yo‘llari. –Monografiya. – Toshkent. −2011.
7. Морозов М.А., Морозова Н.С., Карпова Г.А., Хорева Л.В. / Экономика туризма: учебник / – М.: Федеральное агентство по туризму, 2014. − 320 с.
8. Abiyev J.N. Milliy iqtisodiyotda turizm tarmog‘ini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya avtoreferati. Samarqand, 2019 y. – 11-14 b.
9. Amonboyev M., Xalilov S.Sh.. Milliy turizm tarmog‘ini rivojlantirishda kiruvchi turistik oqimning o‘zgarish tendensiyalari. / “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr, 6/2021 (№ 00056) yil, -B. 402-413. http://iqtisodiyot.tsue.uz
10. Usmanova Z.I. Turistik-rekratsion korxonalardagi raqobatbardoshlikni ta’minlovchi tizimli ko‘rsatkichlar. /“Экономика и социум” Электронное научно-практическое периодическое международное издание. №6(109)-2 2023. -С. 1053-1057.
11. Fayziyev O.R., Xalikov S.A. O‘zbekistonning sayyohlik salohiyati va uni rivojlantirish imkoniyatlari / Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi. – Xorazm Ma’mun akademiyasi, 2024-y. −№1/2 – B. 117-119.
12. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasi ma’lumotlari (https://uzbektourism.uz/research/statistics)
13. https://lex.uz/docs/4428097
14. https://lex.uz/docs/5841063
15. https://lex.uz/docs/6423204
16. https://lex.uz/docs/6445145
17. https://lex.uz/docs/6257288
18. https://lex.uz/docs/6531531
19. https://lex.uz/docs/6704048
20. https://president.uz/uz/lists/view/6974
21. https://president.uz/uz/lists/view/6765
22. https://uza.uz/uz/posts/samarqand-2023-yilda-butunzhahon-turizm-poytaxti_423962
23. https://uza.uz/uz/posts/ozbekistonga-49-million-nafar-xorizhlik-sayyoh-kelgan_554168
24. https://uz24.uz/uz/articles/tourism-1-9
25. https://qalampir.uz/news/sha%D2%B3risabz-sha%D2%B3ri-2024-yilgi-i%D2%B3t-turizm-poytakhti-etib-tanlandi-74074
26. https://qalampir.uz/news/bukhoro-islom-madaniyati-poytakhti-deb-e-lon-k-ilindi-8525
27. Vikipediya ochiq ensiklopediyasi - https://uz.wiktionary.org/wiki/turist#Sinonimlari
28. Qomus.info онлайн энциклопедияси - https://qomus.info/
29. https://www.xabar.uz/mahalliy/bir-sayyohning-ozbekistonga-ortacha-qancha-mabl
30. https://gujum.uz/turizm/turizm-va-sportni-rivojlantirish-masalalari-muhokama-qilindi/
31. https://kun.uz/79188325
32. https://m.kun.uz/news/2023/10/16/ozbekistonda-turizm-sohasi-2017-2023-yillarda-islohotlar-qanday-natijalarga-olib-keldi

SANOAT KLASTERLARINI SHAKLLANISHINING SIMULYATSIYA MODELINI YARATISH

Xakimov Ziyodulla Axmadovich
TDIU, Marketing kafedrasi dotsenti, DSc

Axmedova Rayxona Jasurbek qizi
TDIU, Marketing kafedrasi tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqola sanoat klasterlarini shakllanishining simulyatsiya modeli yaratishga qaratilgan. Klaster strategiyasi uzoq muddatli strategiya hisoblanganligi uchun iqtisodiy samaraga tezroq erishish mumkin emas. Shunga ko‘ra maqolada sanoat klasterlari ishtirokchilarning o‘zaro munosabatlarini nafaqat qonuniy balki manfaatli munosabatlarni ta’minlaydigan metodologik yondashuvlar taklif etilgan. Klasterlarni shakllantirish uchun rivojlanish sikliga monand ravishda samaradorligini ta’minlovchi omillarni aniqlangan. Mazkur omillarning ta’sirida sanoat klasterlarining shakllanishi, rivojlanishi va samaradorligiga ta’sir etuvchi omillar dinamik tizim harakatini 50 yillik istiqbolli simulyatsiyasi modeli yaratilgan.

Kalit so‘zlar: sanoat klasterlari, iqtisodiy samara, simulyatsiya modeli, dinamik tizim, ishchi kuchi, texnologiya, moliya, investitsiya, marketing.

Abstract: This article aims to create a simulation model of the formation of industrial clusters. Since the cluster strategy is considered a long-term strategy, it is not possible to achieve economic results faster. Accordingly, the article proposes methodological approaches that ensure not only legal, but also beneficial relations between the participants of industrial clusters. Factors ensuring the effectiveness of the development cycle for the formation of clusters have been determined. Under the influence of these factors, a 50-year prospective simulation model of dynamic system behavior of factors affecting the formation, development and efficiency of industrial clusters was created.

Key words: industrial clusters, economic efficiency, simulation model, dynamic system, workforce, technology, finance, investment, marketing.

Аннотация: Целью данной статьи является создание имитационной модели формирования промышленных кластеров. Поскольку кластерная стратегия считается долгосрочной стратегией, быстрее достичь экономических результатов не представляется возможным. Соответственно, в статье предлагаются методические подходы, обеспечивающие не только правовые, но и взаимовыгодные отношения между участниками промышленных кластеров. Определены факторы, обеспечивающие эффективность цикла развития формирования кластеров. Под воздействием этих факторов создана 50-летняя перспективная имитационная модель поведения динамической системы факторов, влияющих на формирование, развитие и эффективность промышленных кластеров.

Ключевые слова: промышленные кластеры, экономическая эффективность, имитационная модель, динамическая система, рабочая сила, технологии, финансы, инвестиции, маркетинг.

KIRISH

O‘zbekistonda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta’minlash, milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash va raqobatbardoshligini oshirishda yetakchi sanoat tarmoqlari salohiyatidan samarali foydalanishga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatida xom-ashyoni to‘liq qayta ishlash sikliga ega bo‘lgan 140 dan ortiq paxta-to‘qimachilik klasterlari shaklidagi korxonalar faoliyat yuritmoqda va ularda 250 ming aholi ish bilan band. Bugungi kunda klasterlarning asosiy maqsadlari ishlab chiqarishni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, paxta xom-ashyosini qayta ishlash sanoatini samarali rivojlantirishga yo‘naltirilgan an’anaviy modelga xos bo‘lib, uni global qiymat zanjirida samarali faoliyatni ta’minlash, innovatsiya va raqamli texnologiyalarga asoslangan Sanoat 4.0. konsepsiyasiga asoslangan xo‘jalik yuritishga imkon beruvchi modelga transformatsiyalash bu boradagi muhim vazifalardan hisoblanadi.

Mazkur vazifalarni samarali hal etish, o‘z navbatida mamlakatda shakllanayotgan sanoat klasterlarini xalqaro integratsiyalashuvi, qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratish, innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishga asoslangan klaster strategiyasidan foydalanish, samaradorligiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash asosid rivojlantirish bo‘yicha istiqbol parametrlari va prognoz ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish muxim tadqiqot yo‘nalishi hisoblanadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Sanoat klasterlari faoliyatini muvofiqlashtirish, ularda yuzaga kelayotgan tizimli muammolarni bartaraf etish va klaster tuzilmalarini samarali boshqarish mexanizmlari yaratish borasida tizimli ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmagan. Shuningdek, paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyati samaradorligini yanada oshirish, paxta xom ashyosini chuqur qayta ishlash quvvatlarini ko‘paytirish, ushbu jarayonga ilmiy asoslangan usullar va intensiv texnologiyalarni keng joriy etish, yuzaga kelayotgan muammolarni o‘z vaqtida bartaraf etish, ularning manfaatlarini davlat hokimiyati boshqaruv organlarida himoya qilish tizimini yo‘lga qo‘yish dolzarb vazifalar sifatida qaralmoqda. [1]

Klaster strategiyasi uzoq muddatli strategiya hisoblanadi. Shuning uchun iqtisodiy samaraga sekinroq erishadi. Bunda asosiy to‘siq klaster ishtirokchilari o‘rtasidagi hamkorlikni qonuniy va manfaatli ta’minlaydigan yondashuvlar zarur. Kuchli klaster deganda o‘zini o‘zini-o‘zi ta’minlaydigan, tashqi muhit va raqobatbardoshlikka chidamli, jadal rivojlanayotgan klasterni tushuniladi. Bunday klasterlar raqobatdosh bo‘ladi. Kuchli klasterlarni yaratishda ularni rivojlanishiga mos bo‘lgan muhim omillarni aniqlash samaradorlikni ta’minlash mexanizmlari zarur. [2]

Sanoat klasterlari raqobatbardoshligini ta’minlash uchun samaradorlikka ta’sir etuvchi omillarni kuzatish imkonini beradigan dinamik tizim modellaridan foydalanish talab etiladi.

Sanoat klasterlari dinamik ya’ni harakatdagi murakkab tuzilmalar hisoblanadi. Klasterlarni rivojlanishiga esa ko‘plab omillarning ijobiy hamda salbiy ta’sirlari kuzatiladi. C.H.Lin, C.M.Tung, C.T.Huang [3] kabi olimlar tomonidan sanoat klasterlarining samaradorligini ta’minlovchi omillarning dinamik tizim harakatini aks ettiruvchi modellar tuzilgan. Mazkur tadqiqotlarda texnologik, marketing va moliyaviy omillarning klaster rivojlanishiga ta’sirining davriy sxemasi tuzilgan.

Sanoat klasterlaridagi korxonalar klaster bo‘lmaganlarga nisbatan innovatsiyalarni ko‘proq amalga oshiruvchilar hisoblanadi, sababi ularda texnologik bilimlar yaxshiroq shakllanadi. Sanoat klasterini shakllantirish shartlarida inson resurslari sifati, texnologik bilimlar, kapital, benuqson infratuzilma va texnologiyalar asosiy omil ekanligi M.Porterning [4] ko‘plab tadqiqotlarida keltirilgan. Biroq, har qanday klasterlarni rivojlanishi uchun sabab bo‘luvchi omillarni aniqlash va ularni tizimli ravishda o‘rganish muhim vazifa hisoblanadi. Shunga ko‘ra dissertatsiya doirasida dinamik tizim modeli asosida klasterlarni shakllantiruvchi omillar tizimini shakllantirish talab etiladi. Omillar tizimini shakllanishi esa klasterlarni uzoq muddatli rivojlanishining simulyatsiya modelini qurishga yordam beradi.

Dinamik tizim (DT) – bu metodologiya, vosita va tushunchadir. Ushbu yondashuv Amerikaning Massachuset Texnologiyalar Instituti olimlari tomonidan texnologiya va muhandislik sohalaridagi tadqiqotlarda keng qo‘llanilgan. Dinamik tizim – dinamik rivojlanuvchi tizimlarni aks ettiruvchi tuzilmaviy modellar sifatida ham qaraladi. Jumladan, Robert dinamik tizim boshqaruvini “tashkiliy va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlardagi o‘zaro bog‘liq tizimlarida prinsip va usullarini qo‘llash” deb ta’riflaydi. Dinamik tizimli yondashuv – axborotni qayta ishlashni, boshqarish tizimlarini loyihalashtirish va tahlil qilish, qaror qabul qilish jarayonlarini modellashtirish, simulyatsiya texnikasi va elektron ma’lumotlarga ishlov berish texnikasi kabilarda keng qo‘llaniladigan metodologik yondashuv sifatida qaralishini Forrester [5] tadqiqotlarida kuzatish mumkin.

Dinamik tizimlar (DT) – bu doimiy o‘zgarib turadigan tizimni hosil qiluvchi elementlar to‘plamidir. Dinamik tizimlarda korxonalar faoliyati funksional nuqtayi nazardan emas, tizimdagi harakatlar, oqimlar nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqadi. Tekshiriladigan oqimlar esa mazkur tizimdagi asosiy muammolarni aniqlash va tegishli qarorlar qabul qilishga yordam beradi.

Klasterlarning samaradorligiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlashda sifat tadqiqot usullarini qo‘llash lozim. Dinamik tizimlar murakkab ijtimoiy-iqtisodiy hodisalar va harakatlarni o‘zaro ta’sirlarini yanada aniqroq tushunishga yordam beradi. Dinamik tizim modellaridan sanoat klasterining shakllanishi va rivojlanish bo‘yicha omillarning ijobiy va salbiy ta’sirini aniqlash uchun simulyatsiya modellarini qurishga ham imkoniyat yaratadi. Sanoat klasterlarini rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarning dinamik tizim modelidan foydalanish orqali aniqlashga qaratilgan metodologik yondashuv 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm: Sanoat klasterlarini shakllanishining simulyatsiyasi modeli yaratish metodologiyasi [6]

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

1-rasmda keltirilgan metodologik yondashuv klasterlarni rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni 4 ta yo'nalish bo'yicha omillar ta'sirini ko'rib chiqishga qaratilgan, ular: ishchi kuchi, texnologiya va innovatsiya, investitsiya omillar va marketing omillar. Keltirib o'tilgan har bir omilning klasterlar rivojlanishiga ta'siring aniqlash bo'yicha dinamik tizim modellari quriladi. Ushbu modellar Vensim PLE simulyatsiya dasturiy vositasidan foydalangan holda amalga oshiriladi. Vensim PLE dasturiy paketi asosida olingan modellar asosida omillar ta'sirida sanoat klasterlarining 50 yillik istiqboli rivojlanish harakatini kuzatiladi va samaradorlikka ta'sir etuvchi omillar bo'yicha qaror qabul qilishga asos bo'lib xizmat qiladi.

Dinamik tizim modellari asosan menejment va boshqaruv qarorlarini qabul qilishda va uzoq muddatli rivojlanish harakatlarini vizual ko'rish imkoniyatini beradi.

Dinamik tizim metodologiyasiga ko'ra tizimni hosil qiluvchi elementlarning o'zaro bog'liqligi davriy sxema tarzida ifodalaydi. [7] Dinamik tizimning davriy diagrammasi – bu tizimning barcha elementlari va ularning o'zaro ta'sirlarini namoyon etuvchi xaritadir. Tizimning tuzilishi ma'lum bir davr mobaynida shu tizim xatti-harakatlarini aniqlashga va tegishli qarorlar qabul qilishga imkon beradi. [8] Sanoat klasterlari samaradorligini ta'minlovchi omillar bo'yicha dinamik tizim modellari klasterlarni boshqarish bo'yicha qaror qabul qilishda asos bo'lib xizmat qiladi.

Dinamik tizimni modellashtirish jarayonining ketma-ket bosqichlari quyidagilar:

- muammolarni qo'yilishi;
- muammolarni tushunish va tizimni tavsiflash;
- rasmiy modelni ishlab chiqish;
- tizimni tuzish va bog'liklarini aniqlash.
- eng yaxshi tizimni aniqlash.

Sanoat klasterlari samarali boshqarilishiga ta'sir etuvchi ajratib olingan 4 guruh omillar tasnifi quyidagicha:

1) **ishchi kuchi omili:** klasterni shakllanishi va rivojlanishi har bir sanoat tarmog'ida faoliyat yurituvchi kadrlar va ishchi kuchi bilan bog'liq. Masalan, mehnat resurslari, kadrlar tayyorlash tizimi va tezligi, malakali kadrlar soni va boshqalar sanoat klasterini shakllanishi, rivojlanishi hamda samaradorligiga ta'sir etadi.
2) **texnologiya omillar:** bu sanoatning texnologik holati, texnologiyaning tarqalishi, bilim resurslari, tadbirkorlikning texnologik darajasi va raqobatbardoshligi kabi asosiy omillar klasterlar faoliyati samaradorligini belgilab beradi.
3) **moliyaviy omillar:** bu investitsion fondlar, bank muassasalarining kreditlash tizimi, kapitalni jalb qilish qobiliyati va asosiy fondlar kabi omillarni o'z ichiga oladi.
4) **marketing omillari:** ushbu oqimlar sanoatning konsentratsiya jozibadorligi, bog'liq va qo'llab-quvvatlovchi sohalarning mavjudligi va to'liqligi, yetkazib beruvchilarning ixtisoslashuvi, bozor salohiyati, talab va taklif munosabatlarini o'z ichiga oladi.

METODOLOGIYA

Sanoat klasterlarining ishchi kuchi, texnologiya, moliya va marketing omillarining ta'sirida rivojlanish darajalarini aniqlash uchun Vensim PLE simulyatsion dasturiy vositasidan foydalangan holda sabab-oqibat bog'lanishlar diagrammasi tuziladi. Vensim PLE simulyatsiya dasturiy vositasidan foydalangan holda sabab-oqibat bog'lanishlar diagrammasini tuzish uchun keltirilgan har bir omilning kiruvchi va chiquvchi parametrlari o'rnatiladi va ta'sir chegaralari o'rnatiladi. To'qimachilik sanoati uchun shakllantiradigan omillarning ta'sirini aniqlash bo'yicha 1 foizdan 20 foizgacha bo'lgan chegaralardan foydalaniladi.

Sabab-oqibat bog'lanishlar diagrammasini tuzish uchun har bir omilning sharhlab chiqish lozim.

1-omil klasterga a'zo korxonalar hisoblanib, O'zbekiston to'qimachilik korxonalari va ularning klasterlarga qo'shilishi va klasterdan chiqish natijalari bo'yicha o'zgaruvchilarni kiritishdir. Korxonalar innovatsiya, moliya va texnologiya imkoniyatlarini oshirish maqsadida klasterlarga qo'shiladilar. Shuningdek, to'qimachilik klasterlariga yangi tashkil etilgan korxonalar ham qo'shilishi mumkin. Yangi qo'shiladigan korxonalar soni bo'yicha chegara qiymatlar belgilanadi .

2-ishchi kuchi omillari olinadigan. Ishchi kuchi klasterlarni rivojlanishining asosiy omili hisoblanadi. Ishchi kuchining kiruvchi oqimlari sifatida ishchi kuchini shakllantiruvchi oliy ta'lim muassasalari, professional ta'lim muassasalari hisoblanadi. Ularni bitirgan talabalarning ko'payishi esa tarmoqni rivojlanishiga ta'sir etadi. Oliy ta'lim va professional ta'lim muassasalarining ko'payishi ishchi kuchini ko'payishiga ta'sir etadi va klasterlarning rivojlanishiga ijobiy ta'siri mavjud. Shuning uchun, ta'lim muassasalari va professional ta'lim uchun chegara qiymatlar belgilanadi.

3-texnologik omillar. Texnologiyalarni rivojlanishi klasterlarning samaradorligi ijobiy ta'siri mavjud. Agar kiruvchi texnologik innovatsiyalar qanchalik ko'p bo'lsa klasterlar faoliyati samaradorligi shunchalik yuqori bo'ladi.

Biroq, chiquvchi texnologiyalar ham mavjud bo‘lib, ular texnologiyalarning ma’naviy eskirishi hisoblanadi. Texnologik rivojlanishga amalga oshiriladigan texnologik innovatsiyalar, marketing innovatsiyalari va jarayon innovatsiyalarning ijobiy ta’siri kuzatiladi. Klasterlar faoliyatini rivojlantirish uchun texnologiyalarni o‘zi yaratmasdan, boshqa korxonalardan sotib olinsa, bu xolda texnologik rivojlanish sekinlashadi va klasterlarning samaradorligiga salbiy ta’siri kuzatiladi. Shunga ko‘ra, tanlangan texnologik omillar bo‘yicha chegara qiymatlar belgilanadi.

4-marketing omillaridir. Marketing omillarini klasterlarda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar bozorini o‘zgarishi, talab dinamikasi raqobatbardoshlik, ta’minot zanjiri bilan bog‘liq omillar kiradi. Kiruvchi omillar sifatida talabning oshishi va chiquvchi omillar sifatida talabning tushishi bo‘lib, mazkur o‘zgarishlar klasterlarning rivojlanishiga ijobiy va salbiy ta’siri mavjud. Agar to‘qimachilik klasterlarida ishlab chiqariladigan mahsulotlarga bo‘lgan talab oshsa, klasterlarning bozor imkoniyatlari oshadi va natijada klasterlar rivojlanadi. Shuningdek, bozorlarni konsentratsiyasi, ixtisoslashuv, logistik va ta’minot tizimining samarali tashkil etilishi, raqobatbardoshlik darajasining oshishi, klasterlarda ishlab chiqariladigan mahsulotlarga bo‘lgan talabni oshiruvchi omillar sifatida tanlangan. Biroq, importga yuqori bog‘liqligi kuzatilsa, mahsulotlar raqobatbardoshligi pasayib borsa, yetkazib berish xarajatlari oshib borsa klasterlar samarasi pasayishiga olib keladi.

To‘qimachilik klasterlarini rivojlanishi va samaradorligiga ta’sir etuvchi ishchi kuchi (malakali mutaxassislarga talab, ilmiy tadqiqot markazlari, o‘qitish tizimi, inson kapital sifati, malakaviy ishchi kuchi resurslari, innovatsion qobiliyat), texnologik (texnologiyaning tarqalishi, texnik bilimlar, texnologik daraja, texnologik raqobatbardoshlik, qo‘shilgan qiymat zanjiri), moliyaviy (investitsion muhit, investitsion jozibadorlik, moliyaviy resurs imkoniyatlari, investor topish imkoniyati, mablag‘ to‘plash qobiliyati, qayta investitsiya fondlari) hamda marketing (bozorni konsentratsiyalashuv darajasi, sanoat ixtisoslashuvi darajasi, yetkazib berish tizimi, mijozni jalb qilish qobiliyati) kabi omillar ta’sirida rivojlanishining simulyatsiya modeli quriladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bog‘liq omillarning harakati ifodalovchi matematik modellar Vensim PLE 9.3. dasturidan foydalanilgan xolda tuzish talab etiladi.

Vensim PLE (Personal Learning Edition) asosan tizim dinamikasi modellarini yaratish va simulyatsiya qilish uchun mo‘ljallangan dasturiy vositadir.

Vensim PLE modellari odatda tizim dinamikasi modellari toifasiga kiradi. Ushbu modellar bir-biriga bog‘langan o‘zgaruvchilar, tenglamalar va o‘zgaruvchilarning vaqt o‘tishi bilan bir-biriga va tashqi omillarga javoban qanday o‘zgarishini tavsiflovchi teskari aloqa zanjirlarini yaratishga yordam beradi. Tizim dinamikasi modellari tizimlarning xatti-harakatlarini simulyatsiya qilish, turli o‘zgaruvchilarning ta’sirini tushunish va model natijalariga asoslangan qarorlar qabul qilish uchun ishlatiladi.

Vensim PLE modellarida quyidagi o‘zgaruvchilardan foydalanish imkoniyati mavjud

Darajali: vaqt o‘tishi bilan to‘plangan miqdorlarni yoki zaxiralarni ifodalovchi o‘zgaruvchilar.

Oqimlar: o‘zgarish sur’atlarini ifodalovchi o‘zgaruvchilar, masalan, darajalarga ta’sir qiluvchi kirish va chiqish balansi.

Konstantalar: tenglamalarda qo‘llaniladigan o‘zgarmas qiymatlar yoki parametrlar, shartli birliklar sifatida foizlarni ham qabul qilish imkoniyati beradi.

Yordamchi o‘zgaruvchilar: hisob-kitoblar uchun foydalaniladigan, lekin foydalanuvchi tomonidan bevosita boshqarilmaydigan oraliq o‘zgaruvchilar.

Mazkur o‘zgaruvchilar orasidagi munosabatlarni tavsiflovchi tenglamalarni belgilash va modelini tuzilishi va taxminlar asosida tizim vaqt o‘tishi bilan qanday rivojlanishini ko‘rish uchun simulyatsiyalarni bajarishingiz mumkin.

Vensim PLE tizim dinamikasi modellarini yaratish va simulyatsiya qilish vositasi bo‘lib, uni turli sohalardagi murakkab dinamik tizimlarni tushunish va tahlil qilishni yuqori darajada oshirishga yordam beradi.

Vensim turli tizimlarning dinamikasini qo‘lga kiritish uchun qayta aloqa zanjirlari, kechikishlar va boshqa xususiyatlar bilan ancha murakkab modellashtirish imkonini beradi. Muayyan modellashtirish ehtiyojlaringizga qarab, vaqt o‘tishi bilan zaxiralar yoki miqdorlarning to‘planishini ifodalash uchun daraja o‘zgaruvchilari bilan yanada murakkab modellarni yaratishingiz mumkin.

Simulyatsiya modeli bo‘yicha asosiy o‘zgaruvchilarning bog‘liqligini ifodalovchi darajali (levels), yordamchi (auxiliaries), chegaraviy (constatnts) o‘zgaruvchilar tanlangan.

2022-yil yakuniy iqtisodiy ko‘rsatkichlar natijalariga ko‘ra to‘qimachilik klasterining shakllanishi va rivojlanishining dinamik tizim harakati simulyatsiyasi modeli sinovdan o‘tkazilgan. Simulyatsiya modeli natijalari to‘qimachilik klasterlarini shakllanishini orqali malakali mutaxassislar salmog‘ining yuqori o‘sishiga erishish aniqlangan. Vensim PLE simulyatsiya dasturiy vositasidan foydalangan holda olingan modelning vizual ko‘rinishi 2-rasmda aks etgan.



2-rasm: To‘qimachilik klasterlari rivojlanishining dinamik tizim harakati simulyatsiyasi[1]

Simulyatsiya modeli bo‘yicha asosiy o‘zgaruvchilarning bog‘liqligini ifodalovchi darajali (levels), yordamchi (auxiliaries), chegaraviy (constatnts) o‘zgaruvchilar tanlangan. Tanlangan o‘zgaruvchilar bo‘yicha kiritilgan asosiy matematik funksiyalar 2-jadvalda aks etgan. 2022-yil yakuniy iqtisodiy ko‘rsatkichlar natijalariga ko‘ra to‘qimachilik klasterining shakllanishi va rivojlanishining dinamik tizim harakati simulyatsiyasi modeli sinovdan o‘tkazilgan. Simulyatsiya modeli natijalari to‘qimachilik klasterlarini shakllanishini orqali malakali mutaxassislar salmog‘ining yuqori o‘sishiga erishish aniqlangan.

2-jadval: To‘qimachilik klasterining shakllanishi va rivojlanishining dinamik tizim harakati simulyatsiya modelining matematik funksiyalari

O‘zgaruvchilar turi	Tanlangan o‘zgaruvchilar	O‘zgaruvchilar qiymatlarini hisoblashning matematik funksiyalari
Vaqt	Boshlang‘ich davr 1 yil, yakuniy davr -50 yil; vaqt oralig‘i – 1 va 5 yil.	
darajali “levels”	Einv-bozor muvozanati	Einv= INTEG(Ein-Eout,1615)
	Kmem-klasterlarga a’zo korxonalar	Kmem= INTEG (Kin-Kout,16600)
	Mich-maxsulot ishlab chiqarish	Mich= INTEG (Minn-Mout,1707)
	Ts-texnologik va innovatsion salohiyat	Ts= INTEG (Tin-Tout, 250)
	W-ishchilar;	W= INTEG (Win-Wout,225000)

1 Vensim PLE 9.3. dasturidan foydalanib olingan simulyatsiya modeli.

O‘zgaruvchilar turi	Tanlangan o‘zgaruvchilar	O‘zgaruvchilar qiymatlarini hisoblashning matematik funksiyalari
yordamchi “auxiliaries”	Claster-klasterlarning rivojlanishi;	Claster= LN(Einv)*LN(Kmem)*LN(Mich)*LN(Ts)*LN(W)
	Ein-taklif xajmi;	Ein=Einv/100*(Ec+Ecom+Eexp+Ei+Ej+Ekon+El)
	Eout-talab hajmi;	Eout= Einv/100*(Eimp+Ecost)
	Kin-klasterga kirish;	Kin=Kmem/100*Kenn
	Kout-klasterdan chiqish;	Kout=Kmem/100*Kenb
	Minn-daromadlar;	Minn= Mich/100*(Minv+Mk+Mmfd+Ms)
	Mout- xarajatlar;	Mout=Mich/100*(Mam+Mih+Msl)
	Tin-kiruvchi innovatsiyalar;	Tin= Ts/100*(Tjin+Tmin+Ttin)
	Tout-texnologik ma’naviy eskirish	Tout= Ts/100*Timpo
	Win-ish o‘rinlari;	Win= W/100*(Whe+Whein+Wpe+Wpein+Wrd)
	Wout-ishdan bo‘shaganlar;	Wout= W/100*(Wq+Wsal)
chegaraviy “constatnts”	Minv-investitsion jozibadorlik; Kenn-yangi korxonalar soni; Mmfd-moliyaviy resurs imkoniyatlari; Kenb- bankrot korxonalar; Mk- kreditlash siyosati; Ms-davlat subsidiyalari; Msl-soliqlar; Mih-ishlab chiqarish xarajatlari; Whe-OTMlar, texnoparklar; Mam-asosiy vositalari amortizatsiyasi; Whein-OTM bitiruvchilari; Wpe-professional ta’lim muassasalari; Wpein-professional ta’lim muassasalari bitiruvchilari Wrd-ilmiy tadqiqot muassasalari; Ec-raqobatbardoshlik; Wq- ta’lim sifati; El-logistika; Wsal-bitiruvchilarning bilim saviyasi; Ei-ixtisoslashuv; Ekon-bozorning konsentratsiya darajasi; Ej-mijozlarni jalb etish darajasi; Ecom-raqobat muhiti; Ttin-texnologik innovatsiyalar; Eimp-import; Tmin-marketing innovatsiyalari; Eexp-eksport; Tjin-jarayon innovatsiyalari; Ecost-yetkazib berish xarajatlari; Timpo-xorijiy texnologiyalarni sotib olish; Mazkur o‘zgaruvchilar bo‘yicha kiritilgan shartlar: O‘zgarish darajasi 1 % shartli, o‘zgarish chegarasi [0;20] %	

Manba: muallif ishlanmasi

Klasterlar rivojlanishiga yuqori ta’sirga ega bo‘lgan omil Innovatsiyalar hisoblanib, jarayon innovatsiyalarining bir foizga o‘zgarishi klasterlar samarasini 2,5 %ga, texnologik Innovatsiyalarning bir foizga o‘zgarishi samarani 5,6 foizga %ga, marketing innovatsiyalaring 1 foizga o‘zgarishi esa, klasterlar samarasini 3,4 foizga oshirishi aniqlangan. Klasterlarning innovatsion faoliyatining 1 foizga o‘zgarishi natijasida har besh yilda klasterlar samaradorligiga o‘zgarish dinamikasi 3-rasmda aks etgan.



3-rasm: To‘qimachilik klasterlarini rivojlanishining dinamik tizim modeli asosida olingan natijalar (2022-yil boshlang‘ich yil)[2]

Simulyatsiya modeli asosida barcha omillarning 2022-yil bo‘yicha natijalariga ko‘ra 0 foizdan 20 foizgacha bo‘lgan o‘zgarishlari asosida klasterlarning umumiy samarasini (mahsulot ishlab chiqarish, eksport ko‘lamini oshishi, sinergiya ta’siri) vizual aniqlash imkoniyatini yaratib bergan.

Dinamik tizim modellari asosida klasterlarni shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar barcha sanoat tarmoqlariga turlicha ta’siri kuzatiladi. Shunga muvofiq to‘qimachilik sanoatida klasterlarni shakllanishi va kuchli klasterlarga aylanishi bo‘yicha aniq ilmiy asoslangan strategiyalar belgilab olish muhim yo‘nalishlardan biridir.

2 Muallif tomonidan tuzilgan

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

XULOSA VA TAKLIFLAR

Sanoat klasterining shakllanishi, rivojlanishi va samaradorligi bo‘yicha to‘rtta davriy sabab-oqibat bog‘lanishlarning dinamik tizim modellarini tuzish asosida bir qator xulosalarni keltiradi:

Ham individual, ham keng qamrovli klaster samarasini yuzaga chiqaruvchi dinamik tizimlar tavsiflandi. Ularning barchasi klasterlarning rivojlanishi borasida omillarni ajratib olishga imkoniyat yaratadi.

Sanoat klasterlarining shakllanish bosqichida davlat tomonidan klasterlar uchun malakali kadrlar tayyorlashga ko‘maklashishi lozim. Rivojlanish bosqichida esa klasterlar uchun malakali kadrlar tayyorlashda o‘zlari tomonidan amalga oshirilishi lozim. Agar ilmiy tadqiqot va kadrlar tayyorlashda klasterlar davlat ko‘magiga tayansa, klaster samaradorligi pasayib boradi. Shunga qo‘ra, klasteri samarasi ilmiy tadqiqot markazlari va universitetlar faoliyati klasterlar tomonidan tashkil etishi va maqsadli moliyalashtirilishi lozim.

Sanoat klasterining texnologik omillar klaster bo‘lmagan sanoat tarmoqlariga nisbatan ijobiy samarasi kuzatiladi. Klasterlarning texnologik imkoniyatlari o‘zlari tomonidan yaratiladigan texnologiyalarga asoslangandagina yuqori samara beradi. Bunga ilmiy tadqiqot muassasalari va ta’lim muassasalari orqali erishiladi. Klasterlarning shakllanish bosqichida texnologiyalar bo‘yicha davlat ko‘magi yoki boshqa mamlakatlar texnologiyalariga asoslangan holda texnologik ta’minotni amalga oshirish mumkin. Agar bu jarayon davom etsa klasterlar samarasi pasayadi. Chunki bu qo‘llab-quvvatlovchi muhit texnologik qaramlikka olib keladi.

Sanoat klasteri investitsion imkoniyatlari klaster bo‘lmaganlarga nisbatan yuqori hisoblanadi. Investitsion jozibadorlik klasterlarning texnologik zanjirini mukammalligi va ishlab chiqarish salohiyatining yuqori ekanligi bilan bog‘liq. Klasterlar investitsiyalarni asosiy tortuvchisi hisoblanadi.

Sanoat klasterida marketing imkoniyatlari klaster bo‘lmaganlarga nisbatan samarali bo‘ladi. Chunki mijozlar bilan ishlash, iste’molchilarning barcha segmentlarida faoliyat yuritish imkoniyati keng bo‘ladi.

Sanoat klasterlarini shakllantirish orqali innovatsiyalarga asoslangan sanoat hablarini rivojlanadi. Shuningdek, klasterlar bilimlarni boshqarishni qo‘llab-quvvatlovchisi bo‘lganligi sababli korxonalarning raqobatbardosh ustunligini saqlab qolish imkoniyatlari keng hisoblanadi. Sanoat klasterlari tarmoqlarning geografik joylashuvidan kelib chiqadi. Bundan tashqari, klasterlarning yagona texnologik zanjirda faoliyat yuritishi bozorda raqobatdosh ustunlik yaratishning asosiy hisoblanadi. Shunga qaramay, sanoat klasteri samarasiga turli omillar ta’sir qiladi. Tadqiqot doirasida ko‘rib o‘tilgan ishchi kuchi, texnologiya, moliyaviy va marketing omillarini o‘z ichiga olgan to‘rtta sabab-bog‘lanishlarning dinamik tizimi sanoat klasteri samaradorligiga ta’sir etuvchi omillarini aniqlab olish imkoniyatini yaratib beradi. Shu sababli, sanoat klasteri samaradorligiga aloqador bo‘lgan murakkab munosabatlarni dinamik tizim modellari ularni rivojlanishi va samarali faoliyatini ta’minlashning metodologik yonashuvi sifatida qarash imkonini beradi.

Dinamik tizim modellari asosida klasterlarni shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar barcha sanoat tarmoqlariga turlicha ta’siri kuzatiladi. Shunga muvofiq to‘qimachilik sanoatida klasterlarni shakllanishi va kuchli klasterlarga aylanishi bo‘yicha aniq ilmiy asoslangan yo‘nalishlarni belgilab olish muhim yo‘nalishlardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-iyuldagi “Paxta-to‘qimachilik ishlab chiqarishini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 397 – sonli qarori.
2. https://iqtisodiyot. tsue.uz/sites/defaul t/files/maqolalar/23 _Z_Khakimov.pdf
3. Chin-Huang Lina, Chiu-Mei Tungb, Chih-Tai Huanga. Elucidating the industrial cluster effect from a system dynamics perspective. Technovation 26 (2006) 473–482. Elsevier Ltd. All rights reserved. doi:10.1016/j.technovation.2004.11.008.
4. Портер М. Конкурентная стратегия: Методика анализа отраслей и конкурентов. Пер. с англ. – М.: Альпина Бизнес Букс, 2005. – 454 с.
5. Forrester, J.W., 1961. Industrial Dynamics. Mass.: Productivity Press, Cambridge.
6. Chin-Huang Lina, Chiu-Mei Tungb, Chih-Tai Huanga. Elucidating the industrial cluster effect from a system dynamics perspective. Technovation 26 (2006) 473–482. Elsevier Ltd. All rights reserved. doi: 10.1016/j.technovation. 2004.11.008.
7. Sterman, John D. (2000). Business Dynamics: Systems Thinking and Modeling for a Complex World. New York: McGraw.
8. Richardson, G. P. (1986), Problems with causal-loop diagrams. Syst. Dyn. Rev., 2: 158–170. doi:10.1002/sdr.4260020207.

HUDUDLARNI IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISHNING XUSUSIYATLARI VA USTUVOR YO‘NALISHLARI

Tolibjon Qazaqov Sharifjon o‘g‘li
Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti ilmiy-izlanuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning xususiyatlari va ustuvor yo‘nalishlari, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish mexanizmi, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini reyting baholash tizimi mezonlari haqida fikir va mulohazalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: hududiy rivojlanish, innovatsiya, strotegiya, samaradorlik, hududiy yaxlitlik.

Abstract: This article presents ideas and opinions about the characteristics and priority directions of socio-economic development of regions, the mechanism of development and implementation of the strategy of socio-economic development of the region, the criteria of the rating system of socio-economic development of regions.

Key words: territorial development, innovation, strategy, efficiency, territorial integrity.

Аннотация: В данной статье представлены идеи и мнения об особенностях и приоритетных направлениях социально-экономического развития регионов, механизме разработки и реализации стратегии социально-экономического развития региона, критериях рейтинговой системы социально-экономического развития региона. развитие регионов.

Ключевые слова: территориальное развитие, инновации, стратегия, эффективность, территориальная целостность.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi hududlarining barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlash uning iqtisodiy o‘sishining muhim sharti bo‘lib, aholi bandligi va ijtimoiy himoyani ta’minlash zarurligini belgilaydi. Hududlarni rivojlantirishni strategik rejalashtirishning ustuvor yo‘nalishlari ularning tabiiy resurs, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, mehnat salohiyati, shuningdek, tovar va xizmatlari ishlab chiqarishga ixtisoslashuvining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi hududlari kadrlar salohiyati tufayli notekis rivojlanmoqda. Natijada hududiy rivojlanish va aholi turmush darajasining notekisligi sababli jamiyatda ijtimoiy tengsizlik kelib chiqadi.

Rivojlanishdagi nomutanosibliklarni bartaraf etish uchun hududlarda uzoq muddatli tendensiyalarni hisobga olgan holda aniq belgilangan, ilmiy asoslangan ijtimoiy-iqtisodiy, investitsyaiviy dasturlarni yanada kengaytirish talab etiladi.

Ijtimoiylashuv jarayonida hududlarni iqtisodiy rivojlantirishda hududiy boshqaruv tizimini eng quyi, asosiy bo‘g‘indan ya’ni, mahallabay ishlash darajasidan yuqoiga qarab o‘sishga intilmoqda. Bu jarayonda ijtimoiy rivojlanishda fuqarolar hayotiga ko‘lamli ta’sir qiladigan qarorlar qabul qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, statistik kuzatish, statistik jamlash va guruhlash, tanlanma, korrelyasion va regression tahlil, ekonometrik modellashtirish hamda prognozlash kabi usullar qo‘llanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hududiy darajada boshqaruv qarorlarini qabul qilishga hozirgi kunda globallashuv, zamonaviy jahon iqtisodiyotining megatrendlari uning axborot jamiyatiga o‘tishi, uzoq muddatli maqsadlarni belgilash, eng yangi texnologiyalardan foydalanish, xususiy sektorni rivojlantirishni jadal amalga oshirish zarur.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, hududiy darajadagi boshqaruv qarorlarini takomillashtirishning eng muhim yo'nalishi O'zbekiston Respublikasida mintaqaviy iqtisodiyotning yangi sifati haqidagi tasavvurni shakllantirish lozim. Uning mohiyati va mazmuniga, birinchi navbatda, boshqaruvni tashkil etishning quyidagi jarayonlari va omillari ta'sir qiladi:

- davlat boshqaruvida samaradorlikka erishishda markazlashtirish hisobiga emas, davlat hokimiyati va boshqaruvini ijtimoiylashtirish hisobiga erishish;
- davlat mulkini keskin qisqartirish va xususiy iqtisodiyot sektorini, xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni kengaytirish;
- kambag'allik qatlami kengroq bo'lgan hududlar, maxsus iqtisodiy zonalar va ustuvor rivojlanish hududlari, texnoparklar va boshqalarni loyihalashtirish;
- kompleks dasturlarni amalga oshirish uchun hududlar o'rtasida, ham ular doirasidagi integratsiya jarayonlarining rivojlanishiga dasturli ta'sir ko'rsatish;
- markaz, hududlar va mahalliy hamjamiyat o'rtasida yangi munosabatlarning shakllanishi, bunda hududiy hokimiyat va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining vakolatlarini sezilarli darajada oshirish;
- ekologik halokat xavfi kuchli zonalarini, xususan, qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan hududlarning iqtisodiy rivojlanish sharoitlarini institutsional o'rganish kabilar.

Yuqoridagi tahlilidan ko'rinib turibdiki, mamlakat iqtisodiyot tarmoqlarida hududiy rivojlanishni davlat tomonidan tartibga solinishi hali yetarlicha shakllanmagan va ishlab chiqilmagan.

Hududiy rivojlanishni boshqarish tizimini ishlab chiqish zarurati boshqaruv obyektining murakkabligi va uning muhim xususiyatlarining dinamik o'zgarishi bilan bog'liq. Shu bilan birga, hududiy darajadagi boshqaruv organlarining tuzilishi, funksiyalarning batafsil tavsifi va optimal boshqaruv usullarini tanlash, asosan, hududning o'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlariga - ishlab chiqarishning konsentratsiyasiga, uning ixtisoslashuviga, subyektlar soniga bog'liq.

Dasturlar qabul qilishda har bir hududning rivojlanish yo'nalishi va dinamikasi har xiligini hisobga olish zarur. Ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni modernizatsiya qilish, ichki va tashqi investisiyalarni jalb qilish, ilm-fanni talab qiluvchi ilg'or texnologiyalarni joriy etish, uskunalarni texnik qayta qurollantirish va modernizatsiya qilish, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish, aholi bandligi darajasini, uning turmush sifatini oshirish zaruriy chora-tadbirlar ishlab chiqishni talab qiladi.

Hozirgi bosqichda hududiy boshqaruvni takomillashtirishning o'ziga xosligi mintaqaviy boshqaruvning asosiy bo'g'ini (bugungi kunda bu mahalliy davlat hokimiyati organlari) darajasida tashkiliy innovatsiyalar turlarini ya'ni, yangi tarkibiy bo'linmalar, yordamchi tuzilmalar, turli sohalar va ularning ta'sir qilish usullarini ko'paytirishning indikativ tendensiyasi bilan belgilanadi.

Bu har bir hududda boshqaruv tizimlarini takomillashtirish rivojlanishning o'ziga xos shartlarini hisobga olgan holda juda aniq bo'lishi kerak degan xulosani tasdiqlaydi. Shu sababli, menejment sohasida hududiy boshqaruvning qo'llaniladigan shakllari va usullarini guruhlashtirishda ularning zaruriy xilma-xilligi va samaradorligiga mos ravishda ijtimoiy yo'naltirish o'z aksini topishi kerak.

Markaziy va mahalliy hokimiyat organlari o'rtasida boshqaruv funksiyalarini raqamlashtirish boshqaruv qarorlarini qabul qilishning asosiy samaradorligini belgilaydi. Bu boradagi muammolar orasida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- qabul qilingan qarorlarni o'z vaqtida ijrosini ta'minlash va ijro hokimiyati uni fundamental tushunish;
- Qarorlar ijosini aholiga OAVda keng yoritish;
- qarorning maqsadi va harakatlanish jarayonlarini tahlil qilish;
- Qarorlar qabul qilishda ilgari joriy qilingan qarorlardagi bandlarni takrorlamaslik;
- qarorlarni tayyorlash va qabul qilish jarayonining birinchi navbatda, tipik, takroriy texnologik kamchiliklarini bartaraf etish;
- boshqaruv obyektining turli quyi tizimlariga ma'muriy ta'sirini kamaytirish;
- qarorlarni ularning ijrochilari bilan muvofiqlashtirish;
- qaror qabul qilish jarayonining uzoq davom etmasligi, ularning "kechikishi"ning oldini olish;
- innovasion, strategik yondashuvlarning o'ziga xos salmog'ini oshirish;
- qaror qabul qilish jarayonini yetarli darajada ijtimoiy axborot bilan ta'minlash lozim.

Shunday qilib, hududiy darajadagi boshqaruv qarorlarining sifati va samaradorligini oshirish zarurligi to'g'risida xulosalar samaradorlikka asos bo'ladi.

Biroq boshqaruv samaradorligini oshirish uchun amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning kompleksligini ta'minlash muhim ahamiyatga ega, sifatsiz boshqaruvning ko'rsatilgan sabablarini batafsil bayon qilish, boshqaruv jarayonining har bir boshqaruv tizimlarini ijtimoiy-iqtisodiy ekspertizadan o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

Jahon iqtisodiyotining zamonaviy rivojlanishi har qanday milliy iqtisodiy tizimning asosiy harakatlantiruvchi kuchi hududlar ekanligini ko'rsatadi. Chunki hozirgi kunda aynan hududlar darajasida ishlab chiqaruvchi subyektlarni takror ishlab chiqarishga o'tish masalalari hal etilmoqda, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish loyihalari amalga oshirilmoqda, aholining asosiy ijtimoiy ehtiyojlari qondirilmoqda.

Aynan hudud iqtisodiyotining rivojlanish ko‘rsatkichlari butun davlatning iqtisodiy rivojlanish darajasini belgilovchi mezondir. Hududlarning rivojlanishini ta’minlashda davlatning roli tartibga solish funksiyalari bilan cheklanib qolmaydi balki, iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish, mehnat salohiyatidan oqilona foydalanish, sanoat va hududiy tizimlarda progressiv siljishlarni ta’minlash, mahsulot va xizmatlar eksportini qo‘llab-quvvatlashda ham o‘z aksini topadi.

Hududlarni rivojlantirish davlat boshqaruvining asosiy maqsadi iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, jahon bozorlarida mahalliy ishlab chiqaruvchilarni himoya qilish, fuqarolar daromadlarini huquqiy jihatdan qayta taqsimlash, mulkiy munosabatlarni uyg‘unlashtirish, mavjud tartibni mustahkamlash, boshqaruvni demokratlashtirish, davlat boshqaruvi organlarining tranzitini ta’minlashdan iborat.

Hududiy rivojlanish davlat boshqaruvi obyekti sifatida o‘ziga xos tuzilmasi, madaniyati va rivojlanish darajasiga ega bo‘lgan o‘zaro bog‘liq elementlarning murakkab tizimi bo‘lib, u davlatdagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi va uning samarali mexanizmlarini amalga oshirishga bevosita bog‘liqdir.

Hududiy iqtisodiyotda bozor o‘zgarishlarini faollashtirish, hududiy rivojlanishni davlat tomonidan boshqarish mexanizmlari va vositalarini o‘zgartirish, mahalliy hokimiyat organlarining o‘zaro hamkorligi tizimini samarali tashkil etish davlat hamda uning hududlari o‘rtasidagi sheriklik tamoyiliga asoslangan optimal boshqaruv modellarini izlashni taqozo etadi.

Bundan ko‘rinadiki, hududlarni yanada rivojlantirish yo‘nalishlaridan biri hududlarni rivojlantirishni strategik rejalashtirishning asosiy ustuvor yo‘nalishlarini innovatsiyalar asosida belgalashdir, jumladan [2]:

- hududiy iqtisodiyotni innovasion rivojlanish modeliga yo‘naltirish va inson salohiyatini rivojlantirish;
- hududlarning investision jozibadorligini oshirish va ularda innovatsion faoliyatni faollashtirish;
- ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish;
- hududning tabiiy resurslari va iqtisodiy salohiyatidan foydalanish samaradorligini, raqobatbardoshligini oshirish;

Strategik ustuvorliklarni amalga oshirish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonlarini jadallashtirishni taqozo qiladi (1-rasm).



1-rasm: Hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish mexanizmi

Taqdim etilgan mexanizm hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning maqsad va vazifalariga erishish, uni normativ-huquqiy, ilmiy-uslubiy va tashkiliy jihatdan ta’minlash konsepsiyasini tavsiflaydi. Ushbu mexanizm strategiyani ishlab chiqish va amalga oshirish bilan bog‘liq boshqaruvning umumiy tamoyillariga asoslanadi. Umuman olganda, strategik reja ishlab chiqilayotgan obyektning hozirgi holatini tahlil qilish, strategik

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

maqsadlarni shakllantirish va vazifalarni belgilash, strategiyani ishlab chiqish, uni amalga oshirish, nazorat qilish, strategiyani amalga oshirishning muvofiqligini aniqlash, belgilangan maqsad va vazifalar bilan natijalarni o‘z ichiga oladi.

Ushbu algoritmdan kelib chiqqan holda, hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tahlil qilish va baholashdan boshlanishi kerak. Bunda makroiqtisodiy vaziyatning holati va tendensiyasi, tabiiy resurs, hudud iqtisodiy rivojlanishning asosiy yo‘nalishlarini aniqlash, mehnat salohiyati hamda ularni amalga oshirish samaradorligi baholash kerak. Ushbu tadqiqotlar natijalari asosida hududni rivojlantirish strategiyasini rejalashtirishning axborot ta’minoti shakllantirilishi, shu asosda uni keyingi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari belgilanishi kerak.

Viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning strategik rejasi hududni rivojlantirish bo‘yicha vazifalarni belgilash, belgilangan maqsadlarga erishish yo‘llarini asoslash, salohiyatli imkoniyatlarni tahlil qilish, istiqbolli yo‘nalishlarni belgilashni nazarda tutuvchi hujjat ekanligini inobatga oladigan bo‘lsak, uni amalga oshirish bizga muvaffaqiyatga erishishga, tanlangan yo‘nalishlar bo‘yicha harakatni tashkil etish usullarini ishlab chiqishga, resurslardan oqilona foydalanish usullarini asoslashga, shuningdek, viloyat ma’muriyati va viloyat hamjamiyatiga birgalikda harakat qilish imkonini beradi.

Uning natijasi, hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasi, harakat yo‘nalishi, vositalar hamda usullar majmui bo‘lishi kerak, ular yordamida hudud iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishning ustuvor vazifalari hal etiladi. Albatta, buning uchun hududlarning sezilarli farqlanishini hisobga olgan holda, hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishdan avval strategik rejalashtirish amalga oshiriladi.

Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning hozirgi holatini chuqur tahlil qilishda istiqbolga yo‘naltirilgan maqsadli dasturlarni ishlab chiqish uchun ularning kompleks va mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini, tabiiy xom ashyo resurslaridan foydalanish samaradorligini, iqtisodiy va investisiyaviy salohiyatini, shuningdek, hududlarning boshqa qiyosiy ustunliklarini baholashning yagona tizimini joriy etish maqsadida, qabul qilingan “Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni reyting baholash tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi qaror bu jabhadagi ishlarni yangi bosqichda rivojlantirish, mavjud muammolarni hal etish imkonini berdi [3].



2-rasm: Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini reyting baholash tizimi mezonlari

2-rasmda keltirilgan hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini reyting baholash tizimi mezonlari doirasida, har bir hudud uchun manzilli yo‘naltirilgan ustuvor yo‘nalishlar ishlab chiqish ularning har birining o‘ziga xos imkoniyatlari va xususiyatlari mintaqani strategik rejalashtirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilashda hisobga olinishi kerak.

Strategik rejalashtirishning belgilangan ustuvor yo‘nalishlaridan kelib chiqib, hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning maqsad va vazifalari shakllantiriladi. Shu bilan birga, hududning raqobatbardoshligini oshirish va uning tabiiy resurs salohiyatini mustahkamlash, kadrlar salohiyatini rivojlantirishni ta’minlash, hududlararo hamkorlikni rivojlantirish, uni institutsional shart-sharoitlarni yaratish asosiy strategik vazifalar qatoriga qo‘yilishi lozim [4].

Hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari, maqsad va vazifalari belgilab berilgandan so‘ng ularni davlat boshqaruvi organlari bilan kelishilgan holda hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqadigan ishchi guruhlari tuziladi. Ularning asosiy vazifasi ushbu strategiyani amalga oshirish uchun moliyaviy xarajatlarni aniqlash va kutilgan natijalarni bashorat qilishdan iborat. Hududiy rivojlanish strategiyasini amalga oshirish uchun dastlab dastur-rejalashtirish va normativ hujjatlar majmuasini ishlab chiqish, xususan, strategiyani amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi, viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning yillik dasturi, manzilli hududiy dastur, viloyat ichki hududlarini rivojlantirish strategiyasi nazarda tutiladi

“2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”ning 33-34-maqsadlariga muvofiq, Hududlarni mutanosib rivojlantirish orqali hududiy iqtisodiyotni 1,4–1,6 baravarga oshirish va hududlarning muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma tizimini hamda xizmat ko‘rsatish va servis sohalarini rivojlantirish ko‘zda tutilgan bo‘lib, unda:

- 14 ta hudud bo‘yicha tuman va shaharlar kesimida ishlab chiqilgan besh yillik hududiy dasturlarni amalga oshirish;
- ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish reyting ko‘rsatkichlari “qoniqarsiz” bo‘lgan shahar va tumanlar bo‘yicha amaliy chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- hududlarda aholining yashash sharoitini yaxshilash uchun urbanizatsiya siyosatini yanada takomillashtirish. Samarqand va Namangan shaharlarini istiqbolda “millionlik shaharlar”ga aylantirish bo‘yicha choralar ko‘rish;
- 450 ming aholiga mo‘ljallangan Yangi Andijon shahrining dastlabki bir nechta mavzelarini qurib, foydalanishga topshirish. Qashqadaryo viloyatining urbanizatsiya darajasini 50 foizga yetkazish;
- “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari doirasida hududlarning “o‘sish nuqtalari”dan kelib chiqib, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma obyektlarini qurishga alohida e’tibor qaratish;
- Respublika hududlarida qariyb 80 ming kilometr magistral va taqsimlovchi elektr tarmoqlari, 20 mingdan ortiq transformator punktlari hamda 200 dan ziyod podstansiyani qurish va yangilash.
- hududlarda xizmat ko‘rsatish va servis sohalarini rivojlantirish orqali keyingi 5 yilda xizmat ko‘rsatish hajmini 3 baravarga oshirish hamda ushbu yo‘nalishda jami 3,5 million yangi ish o‘rinlarini yaratish kabi ustuvor vazifalar belgilab berilgan.

Ushbu vazifalarni ijrosi sifatida tegishli davlat maqsadli dasturlari, hududiy dastur va chora-tadbirlar ishlab chiqildi, hududlarni rivojlantirish bo‘yicha shartnomalar tuzildi, ularda budjetdan ajratiladigan mablag‘lar doirasida moliyalashtirish hajmlari ko‘zda tutildi, bu esa o‘z navbatida hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi tafovutlarni qisqartirishga, aholi turmush farovonligini oshirishga sabab bo‘ldi.

Tashkiliy, institusional va moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning barcha jihatlari hal etilishi bilan ishlab chiqilgan Strategiyani amalga oshirish boshlandi. Albatta, tanlangan yo‘nalishdan, belgilangan maqsad va vazifalardan chetlanishlarni, olingan natijalarning belgilangan ustuvor yo‘nalishlarga nomuvofiqligini o‘z vaqtida aniqlash maqsadida Strategiyaning amalga oshirilishini doimiy monitoringini olib borish, nomuvofiqliklar aniqlanganda tuzatishlar kiritish maqsadga muvofiqdir.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan chora-tadbirlar rejasi va strategiyani amalga oshirish vositalari mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish hamda amalga oshirishni tashkiliy qo‘llab-quvvatlash va muvofiqlashtirish vazifasini o‘taydi. Bunda hududiy rivojlanish to‘g‘risidagi shartnomalar, muayyan sohalarda depressiyani bartaraf etish dasturlari, davlat maqsadli dasturlari, hududiy rivojlanish strategiyalari hamda ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanish dasturlari asosiy rol o‘ynaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini strategik rejalashtirish sifati ko‘p jihatdan ushbu jarayonning ilmiy-uslubiy ta’minlanishiga bog‘liq bo‘ladi. Strategik rejalashtirishning asosliligini ta’minlash, ishlab chiqilgan Strategiyani amalga oshirish natijasida umumiy ijobiy samaraga erishish uchun ma’muriy-boshqaruv, moliya, ishlab chiqarish, ilmiy-texnikaviy sohalarni, hududning tabiiy resurslarini, insoniy, ilmiy-texnik va innovasion salohiyatini maksimal darajada jalb etish va optimallashtirish, ilmiy-axborot resurslarini rivojlantirish, mintaqaviy rivojlanishni strategik rejalashtirishning jahon hamda mahalliy tajribasini o‘rganish va isbotlash sa’y-harakatlarini barchasini birlashtirish zarur.

Bu borada, ilmiy-tadqiqot muassasalari oldida metodik vositalarni, modellashtirish usullarini ishlab chiqish va takomillashtirish, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini prognozlash kabi muhim vazifa turibdi. Bunda

avvalambor, boshqaruv kadrlarining sifatini oshirish zarur, bu esa o‘zini o‘zi boshqarish organlari xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning milliy hamda hududiy tizimini yo‘lga qo‘yish zaruratini keltirib chiqaradi.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi bosqichda hududiy rivojlanishning vazifalari va asosiy ustuvor yo‘nalishlari ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi inqirozli hodisalarni bartaraf etish, innovasion va investisiya jarayonlarini faollashtirish asosida iqtisodiyotni tiklash sur’atlarini jadallashtirishdan iborat bo‘lib, bu o‘z navbatida, milliy rivojlanish darajasini hamda mintaqaning xalqaro raqobatbardoshligi oshirishga xizmat qiladi. Ijtimoiy turmush darajasini oshirish, inson salohiyatini rivojlantirishni ta’minlashni talab etadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Осипов В.М., Пивоварчук И.Д., Парасюк И.Л., Стратегическое планирование как эффективный инструмент управления региональным развитием/[Электронный ресурс]. - Режим доступа:<http://essuir.sumdu.edu. ua/bitstream/123456789/17098/1/13.pdf >.
2. Prezidentimizning 2020-yil 1-maydagi “Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni reyting baholash tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PQ4702-son qarori. https://lex.uz/docs/4803531
3. Томарева В. В. Диспропорции сосиально-экономического развития регионов Украины и пути их снижения [Электронный ресурс] / В.В.Томарева. - Режим доступа:
4. http://www.nbuv.gov.ua/portal/Soc_Gum/Dtr_ep/2010_6/files/EC610_23.pdf.

RAQAMLI IQTISODIYOTDA ZAMONAVIY TEXNIKA VA TEXNOLOGIYALARNING XUSUSIYATLARI

УДК 657.66

Xusanov Ulugbek Nishanovich
TDIU, mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyot uchun ilg‘or texnologiyalarning xususiyatlari haqida so‘z borib, telekommunikatsiya tizimida texnika va texnologiyalar ahamiyati yoritilgan. Muallif tomonidan zamonaviy raqamli iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishi ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli texnologiyalar, iqtisodiyot, telekommunikatsiya, raqamli iqtisodiyot, telekommunikatsiya korxonalari, axborot tizimlari, savdo, xizmatlar.

Abstract: This article discusses the characteristics of advanced technologies for the digital economy. The importance of techniques and technologies in the telecommunication system is highlighted. The structural structure of the modern digital economy was developed by the author.

Key words: digital technologies, economy, telecommunications, digital economy, telecommunications enterprises, information systems, trade, services.

Аннотация: В данной статье рассматриваются характеристики передовых технологий для цифровой экономики. Подчеркнута важность техники и технологий в телекоммуникационной системе. Автором разработана структурная структура современной цифровой экономики.

Ключевые слова: цифровые технологии, экономика, телекоммуникации, цифровая экономика, предприятия связи, информационные системы, торговля, услуги.

KIRISH

Bugun dunyoda raqamli texnologiyalardan foydalanish soha va tarmoqlarga ushbu tizimning tez sur’atlarda kirib borishi hamda unda inson omilini kamaytirish orqali rivojlanishga katta e’tibor qaratilmoqda.

Iqtisodiy munosabatlarning texnoraqamli tabiati raqamli iqtisodiyotni boshqalardan ajratib turadigan asosiy belgilar hisoblanadi.

MAVZUGA DOIR ADABIYOTLAR TAHLILI

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlarga asoslangan holda, mamlakatimizda raqamli texnologiyalardan foydalanishning o‘rni beqiyos bo‘lib, turli manbalarda har xil ta’riflar keltirilgan.

Xususan, D.N.Lavrovning fikricha “Axborot xizmatining axborot ekanligini aniqlash mumkin bo‘lgan xususiyatlardan biri bu Interaktivlikning yo‘qligi yoki mavjudligi agar ikkala abonent ham Real vaqt rejimida xizmat ko‘rsatishda samarali bo‘lsa, xizmat interaktiv deb nomlanadi. Telefonda gaplashish ham interaktiv xizmatdiri faqat tarmoq orqali uzatiladigan ma’lumotlarni oladigan abonent interaktiv xizmat emas radio va televideniya xizmatlari, shuningdek, ushbu turdagi xizmatlar turli xil veb-saytlar tomonidan taqdim etiladi.

A.N.Berlinga ko‘ra “Ishbilarmonlar va tadbirkorlar uchun mijozlarning o‘zgaruvchan ehtiyojlariga o‘z vaqtida javob bera olish juda muhim, buni telekommunikatsiya kompaniyalarini ochish tajribasi ko‘rsatadi. Bularning barchasi kompaniyada doimiy nazoratni o‘rnatish, biznes jarayonlarini takomillashtirish imkoniyatlari va ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifati uchun zarurdir. Avtomatlashtirish har qanday telekommunikatsiya kompaniyasining asosiy afzalliklaridan biridir. Shu tufayli asosiy ko‘rsatkichlarni tahlil qilish va yig‘ish samaradorligi oshadi”[1].

1 Берлин А.Н. Телекоммуникационные сети и устройства М.: ИКФ “ЭКСМОС”, 2011. - 322 с.

M. M. Shakirov va S. V. Kiselyovlar ta'kidlaganidek, "mijozlarning ehtiyojlarini qondirish uchun xizmat ko'rsatish zanjirining asosiy bo'g'inlari telekommunikatsiya xizmatlarini ishlab chiqaruvchi, sotuvchi va xizmatni mavjud bo'lgan davrda qo'llab-quvvatlaydigan xizmat ko'rsatuvchi tashkilotdir"[2].

Xizmat iste'molchisi qo'shimcha ravishda konsalting, moliyaviy, marketing va sotuvchilar hamda boshqa tashkilotlar kabi turli xil atrof-muhit tuzilmalari bilan o'zaro aloqada bo'ladi. Shu bilan birga, xizmat ko'rsatish jarayonida iste'molchilar va xizmatlar ishlab chiqaruvchilari eng ko'p bo'lishi mumkin, xizmat ko'rsatuvchi tashkilot bilan tashkiliy, iqtisodiy, huquqiy, psixologik va boshqa jihatlardagi turli xil munosabatlar, keyinchalik xizmat ishlab chiqaruvchisi va xizmatning raqobatbardoshligiga ta'sir qiladi.

Bu shuni ko'rsatadiki, xizmat ko'rsatish faoliyati ma'lum bir xizmat turi sifatida telekommunikatsiya xizmatlari va shuning uchun ularni ishlab chiqaruvchi korxonalarning raqobatbardoshlik darajasini oshirishning ajralmas qismi va muhim omili hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ilmiy abstraktsiyalash, guruhlash, qiyoslash, retrospektiv va istiqbolli, empirik tahlil va boshqa uslublardan foydalanildi. Maqolada qiyosiy taqqoslash usulida jahon amaliyotida va taraqqiy etgan telekommunikatsiya korxonalari faoliyati samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning tashkiliy-huquqiy asoslarini mamlakatimizdagi mavjud asoslar bilan taqqoslab, tegishli xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Raqamli iqtisodiyotning mohiyati xuddiki yangi iqtisodiyot kabi, raqamli texnologiyalarda inqilobiy o'zgarishlar, iternetning yaratilishi va jadal rivojlanishi, Hard Ware va Soft Ware sohalardagi innovatsiyalar bilan chambarchas bog'liqlikda rivojlanishidir. Masalan, sanoat dizaynini kompyuterlashtirish va ishlab chiqarishda konstruktorlik tayyorgarligini modellashtirish kabi innovatsiyalar paydo bo'lishi murakkablik darajasi yuqori bo'lgan mahsulotlar, masalan, stanoklar, avtomobillar, poezdlar, samoletlar, binolar va h.k. loyihasini yaratish va ishlab chiqish siklini sezilarli darajada qisqartiradi.

Ko'pchilik ularni joriy qilish mehnat unumdorligini sezilarli darajada oshirishi, bu esa, o'z navbatida, iqtisodiy o'sishga olib kelishini kutgan holda kelajak texnologiyalariga (ularning kvintessensiyasi sifatida raqamli iqtisodiyotga) katta umid bog'lashga moyildir.

Yangi texnologiyalar (ishlab chiqarish, moliyaviy, boshqaruv, ijtimoiy va boshqa) paydo bo'lishi va joriy qilinishi iqtisodiyot uchun juda ko'p sonli ijobiy samaralar va natijalarga olib kelishi mumkin:

- mehnat unumdorligining ortishi;
- kapitallashuv darajasining ortishi;
- turmush sifatining yaxshilanib borishi;
- yangi bozorlar shakllantirilishi;
- resurslarni (aktivlar, kapital, vakolatlar) utilizatsiya qilish samaradorligining ortib borishi;
- raqobatbardoshlikning o'sishi;
- xavfsizlikning o'sishi;
- xalq farovonlik darajasinig strategik rivojlanish sifatini ortishi.

Hozirgi paytgacha, globallashuv jarayoni yakun topmagan ekan, barcha sanab o'tilgan samaralar shunga olib keladiki, birinchi bo'lib yangi texnologiyani o'zlashtirgan mamlakat xalqaro bozorlarda ustunlikni qo'lgan kiritadi va bu navbatdagi "bozor ko'chasini bo'lib olish"ga olib keladi.

Alohida olingan mamlakat nuqtai nazaridan bu - darhaqiqat yangi texnologiya joriy qilinishi bilan asoslanadigan iqtisodiy o'sish sifatida talqin qilinishi mumkin. Lekin jahon iqtisodiyoti ko'lamida o'sish joriy qilingan texnologiyaning "qo'shimcha" kapitallashuvi bilan chegaralangan. To'g'risini aytganda, tan olish kerakki, agarda ular sotuv salohiyatini yana bir bor o'stirishga tayyor bo'lmasa, hech qanady texnologiyalar va raqamli iqtisodiyot ekstensiv rivojlanish modelini hayotga qaytara olmaydi.

Shu munosabat bilan tan olish kerak, raqamli iqtisodiyot va texnologiyalar rivojlanishi na O'zbekiston uchun, na butun dunyo uchun har qanday falokatdan qutqaradigan vosita bo'la olmaydi. Har bir alohida mamlakat uchun bu zaruriy chora bo'lib, raqobatbardosh darajada qolishga, jahon iqtisodiyotidagi ulushlar paritetini qayta ko'rib chiqishga va suverenitetni asrashga imkon beradi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitlarida tarmoq orqali deyarli istalgan narsani – tovarlar, xizmatlar va iste'molchi uchun kerakli bo'lgan har qanday axborotni topish mumkin. Buning ustiga, yangi foydalanuvchilar bozorni yanada taqsimlash va egallab olish maqsadida o'zining iqtisodiy siyosatini yuritishi va axborot qo'shishi mumkin. "Online" rejimida ishlaydigan kompaniyalar samaradorligi, birinchi navbatda, personalning tirishqoqligi, harakat chanligi, chiqishimliligi, qarorlarning jamoaviy ravishda qabul qilinishi va tarmoqdan foydalanuvchilarga (potensial xaridorlarga) BigData texnologiyasi asosida individual yondashuv bilan ta'minlanadi.

2 Киселев С.В., Шакиров М.М. "Содержание, характеристика и классификация телекоммуникационных услуг как объекта исследования" [Текст]: Казанский национальный исследовательский технологический университет, статья в журнале - научная статья Год: 2013 Страницы: 311-316

Global elektron tarmoq paydo bo‘lishi bilan xaridorlar o‘z ehtiyojlarini qondirish uchun yangi, misli ko‘rilmagan imkoniyatlarga ega bo‘ldilar, sotuvchilar esa, o‘z navbatida, o‘sish uchun iqtisodiy kuch (salohiyat) yangi manbasini qo‘lga kiritdilar. Raqamli iqtisodiyot sharoitlarida bozorlarda sotuv sharoitlari va narxlarni “jismoniy” o‘rganish, turli magazinlarda va firmalarda narxlarni analogli taqqoslash uchun zarurat yo‘q. Muqobil variant tadqiqotlar bilan bir vaqtda tez aniqlanadi, raqobatchi esa kompyuter “sichqoni” bitta harakati bilan bartaraf qilinishi mumkin. Internet-iqtisodiyot va raqamli iqtisodiyotning muhim jihati, xususan, biznes yuritish o‘ziga xos texnologiyasi hisoblanadi. O‘ziga xos xususiyat shundaki, bitim “birga bir” tamoyili bo‘yicha va an’anaviy vositachilarsiz yoki axborot vositachilarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Shu sababli tovar va xizmatlar qiymatining axborot tarkibiy qismi tobora ortadi. Bunda sotuvchilar ushbu jarayonni tovar qiymati an’anaviy tarkibiy qismlari xarajatlarini amalga oshirishdan ko‘ra rentabelliroq hisoblaydi.

Iste’molchilar, o‘z navbatida, ularning xohish istaklariga muvofiq mahsulotga talablarini individuallashtirishga intiladi. Ta’minlachilar va iste’molchilar, sotuvchilar va xaridorlar o‘rtasida axborot almashinish borasida misli ko‘rilmagan sharoitlar yuzaga keladi. Ular uchun, bular uchun ham axborot iqtisodiy hayotning asosiy jihatiga aylanadi.



1-rasm: Raqamli iqtisodiyot uchun ilg‘or texnologiyalar[3]

Raqamli iqtisodiyotda yuqoridagi rasmda keltirilgan unsurlar juda katta o‘rin egallaydi. Insonlar turmush tarzi yaxshilanib borgan sari ularning ehtiyojlari ham ortib boradi. Ya’ni virtual reallikka asoslangan tizimlardan kengroq foydalanishi va insonlar o‘zi bajaradigan ayrim vazifalarni robotlarga o‘tkazib borishi bilan izohlash mumkin. Kelgusida ushbu texnologiyalar tizimli ravishda rivojlanib borishini mutaxassislar prognoz qilmoqda. Raqamli iqtisodiyot tovarlar va xizmatlarni yaratish, taqsimlash va iste’mol qilish uchun raqamli texnologiyalar va innovatsiyalardan foydalanish bilan tavsiflanadi. U biznes va jamiyatning turli sohalarida qo‘llaniladigan texnika va texnologiyalarga jiddiy o‘zgarishlar kiritadi.



2-rasm: Telekommunikatsiya tizimida texnika va texnologiyalarning xususiyatlari[4]

Yuqorida keltirilgan 2-rasmda raqamli iqtisodiyotda texnika va texnologiyalarning ba’zi xususiyatlari keltirib o‘tilgan.

Birinchidan, raqamli iqtisodiyotda juda ko‘p ma’lumotlar to‘planadi va tahlil qilinadi. Bunga iste’molchi ma’lumotlari, tranzaktsiyalar, xulq-atvor ma’lumotlari va boshqalar kiradi. Katta ma’lumotlarni tahlil qilish tex-

3 Muallif ishlanmasi.
4 Muallif ishlanmasi.

nologiyalaridan foydalanish tendentsiyalarni aniqlash, talabni bashorat qilish va yaxshiroq qaror qabul qilish imkonini beradi.

Ikkinchidan, raqamli iqtisodiyotda ko‘plab qurilmalar “aqlli” bo‘lib, internetga ulanadi. Bunga aqlli uylar, sanoat qurilmalari, transport vositalari va boshqa obyektlar kirishi mumkin. IoT sizga Real vaqtda ma’lumotlarni to‘plash, qurilmalarni masofadan boshqarish va jarayonlarni optimallashtirish imkonini beradi.

Uchinchidan, sun’iy intellekt algoritmlari va texnologiyalari raqamli iqtisodiyotda asosiy rol o‘ynaydi. Ular jarayonlarni avtomatlashtirish, tahlilni takomillashtirish, shaxsiylashtirilgan mahsulotlar va xizmatlarni yaratish va ma’lumotlarga asoslangan qarorlarni qabul qilish uchun qo‘llaniladi.

To‘rtinchidan, raqamli iqtisodiyot ma’lumotlarni saqlash, qayta ishlash va uzatish uchun bulutli texnologiyalardan foydalanadi. Bulutli hisoblash resurslarning kengayishi, moslashuvchanligi va mavjudligini ta’minlaydi, bu ayniqsa dinamik biznes muhitida juda muhimdir.

Beshinchidan, raqamli ma’lumotlarning ko‘payishi bilan kiberxavfsizlik ustuvor vazifaga aylanmoqda. Xavfsizlik texnologiyalari kiber tahdidlardan, shu jumladan viruslar, xakerlik hujumlari va kiber josuslikdan samarali himoya qilishi kerak.

Oltinchidan, ushbu texnologiya markazlashtirilmagan va ishonchli tranzaktsiyalarni yozib olishni ta’minlaydi. Raqamli iqtisodiyotda blockchain shaffoflik, o‘zgarishlarga chidamlilik va ma’lumotlarning haqiqiyligini tasdiqlash uchun ishlatiladi.

Yettinchidan, raqamli iqtisodiyotda ishlab chiqarish, logistika va boshqa sohalarda robotlar va avtomatlashtirilgan tizimlardan foydalanish ko‘paymoqda. Bu samaradorlikni oshirishga va muayyan vazifalar uchun xarajatlarni kamaytirishga imkon beradi.

Sakkizinchidan, raqamli ekotizimlar va onlayn platformalarni yaratish raqamli iqtisodiyotning muhim jihatiga aylanmoqda. Ushbu platformalar sotuvchilar va iste’molchilarni birlashtirib, yangi biznes modellari va o‘zaro ta’sir shakllarini ta’minlaydi.

Ushbu texnologik tendentsiyalar raqamli iqtisodiyotning o‘sishi va rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash orqali ishlab chiqarish, sog‘liqni saqlash, moliya, ta’lim va boshqalarni o‘z ichiga olgan turli sohalarga ta’sir qiladi.

Tadqiqotchilar raqamli iqtisodiyotning elektron bozorlar va iqtisodiyot tarmoqlari, vakolatlarni shakllantirish platformalari va texnologiyalari, shuningdek huquqiy tartibga solish, IT infratuzilmasi, inson resurslari va kiberxavfsizlikni o‘z ichiga olgan maxsus muhit kabi elementlarini ajratib ko‘rsatishadi.

Raqamlashtirish jarayonining yana bir aniqlovchi xususiyati uning global miqyosdagi notekisligidir. Raqamli texnologiyalar yuqori narxga ega va ularni amalga oshirish nafaqat davlat tomonidan, balki ishlab chiqaruvchilar va aholi tomonidan ham katta xarajatlarni talab qiladi. Aholining daromadi nisbatan past bo‘lgan mamlakatlar raqamli iqtisodiyotning barcha imkoniyatlarini to‘liq qo‘llash imkoniyatiga ega emaslar, bu esa ularning rivojlanishini yanada qiyinlashtiradi.



3-rasm: Zamonaviy raqamli iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishi[5]

5 Muallif ishlanmasi.

3-rasm ma’lumotlariga ko‘ra iqtisodiyotni raqamlashtirish davlat va jamiyat faoliyatining barcha sohalariga ta’sir qilishini aniq ko‘rsatib turibdi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Iqtisodiyotni raqamlashtirish o‘ziga xos tendentsiyaga ega: agar biron bir yangi texnologiya boshqaruvning biron bir yo‘nalishi doirasida o‘z samaradorligini ko‘rsatgan bo‘lsa, u boshqa barcha sohalarda qo‘llanila boshlaydi. Masalan, bugungi kunda Global Internet ishlab chiqarish va hayotning turli sohalarida turli xil muammolarni hal qilish uchun ishlatiladi; katta ma’lumotlar (big-data) bilan ishlash tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda, garchi ular dastlab xizmat ko‘rsatish sohasida qo‘llanilgan bo‘lsa ham.

Raqamli texnologiyalar rivojlanishining hozirgi bosqichida bugungi kunda sun’iy intellekt deb ataladigan texnologiyadan faol foydalanish boshlanadi. Hozircha u asosan xizmat ko‘rsatish sohasida iste’molchilarning xohish-istaklari bo‘yicha ma’lumotlarni tahlil qilish va qayta ishlash uchun, shuningdek bank sohasida ma’lumotni himoya qilish uchun qo‘llaniladi, ammo undan savdo va ishlab chiqarishda, shuningdek davlat sektorida hamda telekommunikatsiya korxonalarida ham foydalanish istiqbollari tobora rivojlanmoqda.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Xashimova D. “Zamonaviy ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanish istiqbollari” “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. −№ 3, may-iyun, −2020-yil.
2. Лавров Д.Н. Сети и системы телекоммуникаций: учебное пособие. – М.: Аспект Пресс, −2009 – 223 с.
3. Берлин А.Н. Телекоммуникационные сети и устройства. −М.: ИКФ “ЭКСМОС”, 2011. −322 с.
4. Киселев С.В., Шакиров М.М. “Содержание, характеристика и классификация телекоммуникационных услуг как объекта исследования” [Текст]: Казанский национальный исследовательский технологический университет, статья в журнале - научная статья Год: 2013. Страницы: 311-316
5. Котлер Ф. Основы маркетинга. Краткий курс. vM.: Издво Вильямс, 2007. – 656 с.
6. Ламбен Жан-Жак. Стратегический маркетинг. Европейская перспектива. СПб:“Наука”,1996. −589 с.
7. Диксон П.Р. Управление маркетингом: М.: БИНОМ, 2007. −650 с.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

BIOLOGIK AKTIVLAR VA QISHLOQ XO‘JALIGI MAHSULOTI JORIY HISOBINI TASHKIL ETISH BO‘YICHA XORIJIY TAJRIBALAR

Yusupova Mahfuza Baxtiyor qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada biologik aktivlar va qishloq xo‘jaligi mahsuloti joriy hisobini tashkil etish bo‘yicha xorijiy tajribalar yoritilgan. Tadqiqotning maqsadi IAS 41ni amaliy qo‘llashda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan to‘siqlarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo‘llarini ko‘rsatib berishdir. Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari bo‘yicha biologik aktivlar va qishloq xo‘jaligi faoliyatining joriy hisobini yuritish tartibi tahlil qilingan va respublikamizda foydalanish imkoniyatlari bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: biologik aktivlar, qishloq xo‘jaligi mahsuloti, joriy hisob, xalqaro tajriba, qiyosiy tahlil, buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari.

Abstract: This article discusses foreign experience in organizing current accounting of biological assets and agricultural products. The purpose of the study is to identify possible obstacles in the practical application of IAS 41 and show ways to overcome them. The procedure for maintaining current records of biological assets and agricultural activities in accordance with international accounting standards was analyzed and recommendations were developed for possible use in our republic.

Key words: biological assets, agricultural products, current account, international experience, comparative analysis, international accounting standards.

Аннотация: В данной статье рассмотрен зарубежный опыт организации текущего учета биологических активов и сельскохозяйственной продукции. Цель исследования - выявить возможные препятствия при практическом применении МСБУ 41 и показать пути их преодоления. Проанализирован порядок ведения текущего учета биологических активов и сельскохозяйственной деятельности по международным стандартам бухгалтерского учета и разработаны рекомендации по возможностям использования в нашей республике.

Ключевые слова: биологические активы, сельскохозяйственная продукция, текущий счет, международный опыт, сравнительный анализ, международные стандарты бухгалтерского учета.

KIRISH

Qishloq xo‘jaligi faoliyati tadbirkorlik faoliyatining boshqa turlariga nisbatan ko‘proq tabiiy va ekologik sharoitga bog‘liq, shuning uchun qishloq xo‘jaligining ixtisoslashuvi geografik joylashuvi bilan chambarchas bog‘liq. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining hajmi va sifatiga, asosan, o‘simlikchilikda sezilarli ta’sir ko‘rsatadigan yana bir fakt - bu ob-havo sharoitlariga va boshqa omillarga (zararkunandalar, kasalliklar va boshqalar) sezilarli darajada bog‘liqlikdir, bunga inson omili darajasi faqat cheklangan darajada ta’sir qilishi mumkin. Ta’sir qilib bo‘lmaydigan yana bir omil - bu qishloq xo‘jaligi faoliyatining biologik xususiyati. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining o‘ziga xos xususiyati sifatida mahsulotning bir qismini keyinchalik qishloq xo‘jaligi korxonasining o‘zi tomonidan iste’mol qilinishini keltirish mumkin. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari chorva yoki parrandalarga pichan va g‘alla boqish kabi tegishli faoliyatda ishlatilishi mumkin yoki ular to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlab chiqaruvchi tomonidan sotilishi mumkin.

ADABIYOTLAR SHARHI

Transformatsiyaning biologik xususiyatining o‘ziga xosligi, u qishloq xo‘jaligi korxonalari faoliyati to‘g‘risida hisobot berish metodologiyasida ham aks ettirilishi kerak. Xorijlik iqtisodchi olim Jaroslav SEDLÁČEK ma’lumotlariga ko‘ra, “iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari bilan solishtirganda qishloq xo‘jaligi faoliyati tegishli hisob tartib-qoidalarini talab qiluvchi muayyan faoliyat turlari bilan tavsiflanadi” [1]. Xalqaro Buxgalteriya Standart-

lari Kengashi (IASB) (2008) ma'lumotlariga ko'ra, qishloq xo'jaligi faoliyatining tabiati an'anaviy buxgalteriya modellarini qo'llashda tarixiy qiymat va realizatsiya tamoyiliga asoslangan buxgalteriya modelida noaniqlik yoki ziddiyatlarni keltirib chiqaradi, ayniqsa biologik transformatsiyalar bilan bog'liq muhim voqealarni hisobga olish qiyin, bu biologik aktivlarning tabiatini o'zgartiradi.

Tadqiqotning maqsadi IAS 41 [2] ni amaliy qo'llashda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan to'siqlarni aniqlash va ularni bartaraf etishning mumkin bo'lgan yo'llarini ko'rsatib berishdir. Tadqiqot to'rt qismdan iborat masalalarni o'z ichiga olgan. Birinchidan, nazariy asoslar doirasida hozirgi kunda amalda bo'lgan qishloq xo'jaligi qoidalarining qiyosiy tahlili o'tkazildi. Qiyosiy tahlil qilish uchun beshta buxgalteriya tizimi tanlandi - avstraliya, ingliz, amerika, frantsuz va chexiya. Avstraliya qishloq xo'jaligi faoliyati uchun maxsus qoidalar zarurligini birinchilardan bo'lib tan olgan va buni o'zining buxgalteriya qonunchiligida aks ettirgan. Shu boisdan, Avstraliyaning buxgalteriya hisobi tizimi tanlandi. Frantsiyaning buxgalteriya hisobi tizimi va qishloq xo'jaligi faoliyati uchun hisobot berish usullari maxsus tanlangan. Chexiya buxgalteriya tizimi (Czech accounting system (CAS)) ko'p jihatdan frantsuzchaga o'xshaydi. Umumiy Comptable rejasi (Plan Comptable General, PCG) va uning schyotlar rejasi Evropaning bir qator mamlakatlarida va dunyoning boshqa mamlakatlarida ham qo'llaniladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Biologik aktivlar va qishloq xo'jaligi mahsuloti joriy hisobini tashkil etishni tadqiq qilish jarayonida kuzatish, monografik tadqiq qilish, mantiqiy va qiyosiy tahlil qilish kabi usullardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

G'arbiy Afrikada PCGga asoslangan buxgalteriya tizimlari mavjud, lekin ko'pchiligida Fransuz hisobot tizimi tanlangan, chunki Frantsiya Evropada eng yirik qishloq xo'jaligi sektoriga ega bo'lib, Ch.Elad va Xerbonning fikricha, Evropa Ittifoqi qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 20 % dan ko'prog'ini tashkil qiladi [3, 4]. Buyuk Britaniya GAAP moliyaviy hisobotga anglo-sakson yondashuvini aks ettirgani uchun tanlangan. Kontinental yondashuv bilan birgalikda ular butun dunyo bo'ylab eng ko'p qo'llaniladigan moliyaviy hisobot tizimlaridir. Dunyoda buxgalteriya hisobi va hisobotiga qo'yiladigan talablar bo'yicha AQSHning tanlagani uning eng keng qamrovli va batafsil ma'lumotlarga ega ekanligi sabab bo'ldi.

Аннотация: В статье подробно освещаются тенденции развития международного туристского рынка, деятельность Всемирной туристской организации и ряда международных организаций по развитию отрасли, текущее положение Узбекистана на Международном туристском рынке, перспективы продвижения национального туристского бренда и факторы, влияющие на него.

Ключевые слова: Туризм, рынок международного туризма, Всемирная туристская организация, Всемирный совет по туризму и путешествиям (WTTC), международные туристические ярмарки, доходы от международного туризма, инфраструктура туризма, виды туризма.

KIRISH

Jahonda kechayotgan globallashuv jarayonlari kuchayib, jahon turizm bozorining raqobatbardoshligi oshib borayotgan sharoitida, pandemiyadan keyin turizm sohasi davlatlar oldiga kuchli talablarni qo‘ymoqda. Bunda barcha davlatlar o‘zi uchun qulay bo‘lgan turizm yo‘nalishini, ya’ni bozorda mavqeini egallashga, xizmatlar ko‘rsatishning har tomonlama qulay bo‘lgan yo‘nalishlarini tanlashga harakat qilmoqda. Barcha davlatlar kabi xalqaro turizm bozorida O‘zbekistonning ishtiroki, unda milliy turizm brendini ilgari surishi muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2022-yilning 19-sentyabrda o‘tkazilgan “Ichki va tashqi turizm salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari”ga bag‘ishlangan videoselektorda “Turizmda topilgan daromadning 30 foizi odamlarning qo‘liga ish haqi bo‘lib boradi, sanoatda va boshqa tarmoqlarda bu 10 foizdan oshmaydi. Turizm sohasida yaratilgan bitta ish o‘rni turdosh tarmoqlarda qo‘shimcha ikkita ish o‘rni paydo bo‘lishiga turtki beradi. Shuning uchun, ko‘p davlatlar sayyoh jalb qilishning yangi-yangi yo‘llarini izlayapti”, deb alohida ta’kidlab o‘tgan edi. Shu jihatdan davlatimiz rahbari tomonidan berilgan topshiriqning ijrosini ta’minlash alohida e’tibor talab etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Xalqaro turizmni rivojlanish tendensiyalari borasida bir qator nazariyalar berilgan. Jumladan, Ye.P.Chilova, I.M.Temkinalarning ta'kidlashicha, xalqaro turizm xalqaro iqtisodiy munosabatlarning tarkibiy qismidir. Uni tarmoq sifatida jahon savdo va xizmatlar bozorining bir bo'lagi sifatida qarash mumkin [1]. A.N.Norchayev tomonidan "Tadqiqotlarimiz natijalari bo'yicha xalqaro turizm rivojlanishini quyidagi bosqichlarga bo'lib chiqdik: birinchi bosqich 1840-1914-yillar (xalqaro turizmni tashkil qilishga ilmiy tomondan yondashildi); ikkinchi bosqichi 1920–1938-yillarni o'z ichiga oladi (birinchi jahon urushi tugashi bilan turizm qayta tiklana boshladi, turistlarga xizmat ko'rsatuvchi transport vositalari takomillashuvi, harbiy samolyotlar yo'lovchilarni tashishga moslashtirilishi natijasida turistlar harakati bir necha bor tezlashdi); uchinchi bosqichi 1950–1970-yillar (ikkinchi jahon urushi tugashi bilan qaytadan oyoqqa tura boshladi, turizmga ham integratsion jarayonlar kirib kela boshladi); to'rtinchi bosqichi 1970-1990-yillar (axborot kommunikatsion texnologiyalar, global distribyuter tizimi (Global Distribution Systemes), transmilliy kompaniya (TMK)lar turizmga kirib keldi); beshinchi bosqich 1990–2010-yillar "Zamonaviy turizm" tushunchasi qo'llanila boshlandi, turizmning jahon YAIMda ulushi keskin ravishda ortib bordi, turizmda strategik alyanslar paydo bo'la boshladi, klaster usuli turizmda qo'llanila boshladi); oltinchi bosqichi 2010-yildan hozirgacha bo'lib, turizmda raqamli innovatsion texnologiyalar joriy qilina boshladi, turistlar uchun makondan tashqarida sayohatlar (kosmik turizm) taklif qilina boshladi", deb izoh berilgan [2].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada xalqaro turizm bozorining rivojlanishi va unda O'zbekistonning ishtiroki bo'yicha mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari, xalqaro va davlat tashkilotlarining ma'lumotlari tahlil qilindi.Tadqiqot metodologiyasi sifatida nazariy tahlil va kuzatish usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xalqaro turizm bozorining rivojlanish tendensiyalariga salbiy holatlar doimo ta'sir ko'rsatib kelgan. Xususan, 2019-yilda Xitoyda boshlangan koronavirus pandemiyasi sohaga sezilarli darajada ta'sir qilganligini ko'rish mumkin. Pandemiyaga qadar dunyodagi har to'rtinchi yangi ish o'rni sayohat va turizm sohasida yaratilgan, barcha ish o'rinlarining 10,6 foizi (334 mln. kishi) va jahon YAIMning 10,4 foizi (9,2 trln. dollar) turizmga to'g'ri kelgan.

2020-yilda turizmning jahon YAIMdagi ulushi 5,5 foizni tashkil etdi, 2019-yilda bu ko'rsatkich 10,4 foizga teng bo'lgandi. Bu haqda Jahon turizm va sayohatlar kengashi (WTTC) hamda Oxford Economics hisobotida ma'lum qilindi [3]. 2020-yilda turizm sohasi qariyb 4,5 trln. dollar yo'qotdi, turizmning jahon yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 49,1 foizga kamaydi. Shuningdek, 62 mln. ish o'rni yo'qotildi. "Ish o'rinlarini yo'qotish xavfi saqlanib qolmoqda, chunki aksariyat ish o'rinlari davlat dasturlari asosida qo'llab-quvvatlanmoqda, turizm va sayohatlar sohasi to'liq tiklanmaydigan bo'lsa, ular ham yo'qotiladi", – deyiladi hisobotda. Shu bilan birga, jahon miqyosida ichki turistlarning xarajatlari 45 foiz, xorijlik turistlarning xarajatlari esa 69,4 foizga kamaygan.

Butunjahon turizm tashkilotining bergan eng oxirgi rasmiy ma'lumotlarini tahlil qiladigan bo'lsak, xalqaro turizm 2022-yilda kutilganidan ham kuchliroq natijalarga erishdi, bunga talabning ortishi va ko'plab mamlakatlarda sayohat cheklovlarining olib tashlanishi yoki yumshatilishi sabab bo'ldi [4]:

- 2022-yilda 900 milliondan ortiq turist xalqaro miqyosda sayohat qilgan, bu 2021-yildagidan ikki baravar ko'p, ammo 2019-yilga nisbatan hali ham 37 foizga kam;
- 2022-yilda xalqaro turizm pandemiyagacha bo'lgan darajani 63 foizga tikladi;
- Jahondagi eng yirik yo'nalish mintaqasi bo'lgan Yevropa 2022-yilda 585 million tashrifni qayd etdi va pandemiyagacha bo'lgan darajaning qariyb 80 foiziga yetdi (2019-yilga nisbatan 21 foiz). Yaqin Sharq 2022-yilda mintaqalar bo'yicha eng kuchli nisbiy o'sishga erishdi, kelganlar soni pandemiyadan oldingi raqamlarning 83 foiziga ko'tarildi (2019-yilga nisbatan 17 foiz);
- Afrika va Amerika mamlakatlari pandemiyadan oldingi tashrif buyuruvchilarning qariyb 65 foizini tiklagan, Osiyo va Tinch okeani mintaqasi esa pandemiya bilan bog'liq kuchli cheklovlar tufayli atiga 23 foizga yetgan;
- Submintaqalarga ko'ra, G'arbiy Yevropa (87 foiz) va Karib dengizi (84 foiz) o'zlarining pandemiyagacha bo'lgan darajasiga yaqinroq bo'lgan;
- 2022-yilda turizm xarajatlarida kuchli o'sish kuzatilgan, natijada ko'plab yo'nalishlarda pandemiyagacha bo'lgan daromadlar tiklangan.

- 2022-yilda Yaqin Sharq mintaqalar bo‘yicha eng kuchli nisbiy o‘sishga erishdi, bunda tashrif buyurganlar soni pandemiyadan oldingi raqamlarga nisbatan 83 foiziga ko‘tarildi (2019-yilga nisbatan 17 foiz). Mintaqada EXPO - Dubay ko‘rgazmasi va Qatarda bo‘lib o‘tadigan futbol bo‘yicha Jahon kubogi, shuningdek, Saudiya Arabistonida ko‘p sonli Haj ziyorati kabi yirik tadbirlar ko‘tarinkki ruhda kutib olindi.

Ko‘pgina yo‘nalishlar bo‘yicha xalqaro turistik tushumlarning sezilarli o‘sishi qayd etildi, bir qancha hollarda ularning kelish soni kutilganidan yuqori bo‘ldi. Bu turistlarning sayohat manzilida uzoqroq qolish muddati, o‘z manzilida ko‘proq pul sarflashga tayyorligi va qisman inflyatsiya tufayli yuqori sayohat xarajatlari tufayli bir turistga o‘rtacha xarajatlarning oshishi bilan qo‘llab-quvvatlandi.

2022-yil davomida bir qancha yo‘nalishlar, jumladan Turkiya (+40%), Ruminiya (+25%), Meksika (+13%), Portugaliya (+15%), Latviya (+14%), Pokiston, Marokash (ikkalasi +6%) va Fransiya (+1%) kabi davlatlarda turizmdan olingan daromadlar pandemiyagacha bo‘lgan darajadan yuqori bo‘lganini ma’lum qildi.

Qayta tiklanishni tashqi turizmda ham ko‘rish mumkin, bunda 2022-yil davomida 2019-yilga nisbatan -4% Fransiya, Germaniya (-8%), Italiya (-10) kabi yirik manba bozorlaridan kuchli xalqaro xarajatlar kuzatilgan va Amerika Qo‘shma Shtatlari (-15%) pasayish, 2019-yilga nisbatan 2022-yilda xarajatlari barqaror o‘sayotgan rivojlanayotgan bozorlar qatoriga Qatar (+29%), Hindiston (+10%) va Saudiya Arabistoni (sentyabrgacha +7%) kirgan.

Xalqaro turizm 2023-yilda, ayniqsa Osiyo va Tinch okeani mintaqasida pasaygan talab tufayli tiklanishini kuchaytirdi. Butun jahon turizm tashkilotining ssenariylariga ko‘ra, 2023-yilda xalqaro sayyohlar kelishi pandemiyadan oldingi raqamlarning 80-95 foizini tashkil qilgan. Yevropa davlatlari 2023-yilda ijobiy natijalarni keltirib chiqargan.

Butunjahon turizm tashkilotining ekspertlar guruhi tomonidan o‘tkazilgan so‘rovi natijalari shuni ko‘rsatadiki, respondentlarning 72 foizi xalqaro turizm 2024-yil yoki undan keyinroq ham 2019-yildagi darajasiga qaytmaydi, deb hisoblashadi. Butun jahon turizm tashkiloti ekspertlari ba’zi Yevropa yo‘nalishlari va submintaqalarida turizmni tiklanish uchun katta imkoniyatlar mavjudligini ta’kidlaydi.

Jahondagi davlatlarning 2022-yildagi turizm sohasi bo‘yicha faoliyati tahlil qilinib, ularning reytingi aniqlanib, bunda Fransiyaning poytaxti Parij 2022-yilda turizmdan eng ko‘p daromad ko‘rgan shahar bo‘ldi. Bunday reyting turli mamlakatlarning turizm sohasi vakillarini birlashtirgan “World Travel and Tourism Council” (WTTC) nodavlat assotsiatsiyasi tomonidan e’lon qilindi.Reytingni tuzishda, turizmning yalpi ichki mahsulotga qo‘shgan hissasi, turistlarning sarf-xarajatlari va bu sohada ish o‘rinlari yaratilishi baholangan. 2022-yilda Parijning turizm orqali iqtisodiyotga qo‘shgan hissasi qariyb 36 milliard dollarni tashkil etgan. Ikkinchi o‘rinda Pekin (33 milliard dollar), uchinchi o‘rinda Orlando (31 milliard dollar) shaharlari joylashgan. Birinchi o‘ntalikka Xitoyning yana ikkita shahri – Shanxay va Guanchjou, Amerikaning ikki shahri – Las-Vegas va Nyu-York, shuningdek, Tokio, Mexiko va London kiritilgan.

Mamlakatimizning turizm salohiyatini xalqaro turizm bozorida reklama qilish, xorijiy turistlarni jalb qilish borasida ko‘pgina ijobiy ishlar olib borilmoqda. Shu bilan birga, O‘zbekistonning xalqaro turizm bozoridagi ishtirokiga turli ijobiy omillar bilan birgalikda salbiy omillar o‘z ta’sirini ko‘rsatib kelgan, xususan koronavirus pandemiyasi ham sohaga jiddiy ta’sir ko‘rsatgan edi. 2020-yilda mamlakatimizga 7 million nafardan ortiq xorijiy sayyohlar tashrifi kutilgan bo‘lsada, biroq, ularning soni 1,5 million nafardan oshmadi. Turizm xizmatlari eksporti

261 million AQSH dollariga tushib ketdi. Turizm va unga yondosh sohalardagi tadbirkorlik subyektlari moliyaviy jihatdan qiyinchiliklarga duch keldi.

Butunjahon turizm tashkiloti tomonidan O‘zbekiston Respublikasining xalqaro turizm bozorlaridagi ishtiroki bo‘yicha berilgan yana bir eng oxirgi rasmiy ma’lumotlarni tahlil qiladigan bo‘lsak, quyidagi ma’lumotlarni ko‘rishimiz mumkin.

2023-yil 12 oy davomida mamlakatga tashrif buyurgan xorijiy turistlar soni 6,6 million nafar (yillik reja-7,0 mln nafar)ni tashkil qilib, 2022-yilga nisbatan 1,3 barobarga oshgan;

Bunda, qo‘shni davlatlardan 5,35 million nafar (umumiy turist soniga nisbatan 80,7 %); qolgan MDH davlatlaridan 763,1 ming nafar (11,5 %); boshqa davlatlardan 513,7 ming nafar (7,8 %) xorijiy turistlar tashrif buyurgan [5].

Turizm xizmatlarining eksporti ham o‘z navbatida 2019-yilga nisbatan 2020-yilda 61,6 foizga, 2021-yilda 32,7 foizga kamaygan bo‘lsa, 2022-yilga kelib bu ko‘rsatkich 9,7 ga oshganini ko‘rishimiz mumkin. Biroq ohirgi ikki yilda o‘zgarishlar ijobiy tarafga o‘zgargan, ya’ni 2021-yilda 2020-yilga nisbatan 75,4 foizga, 2022-yilda esa 2021-yilga nisbatan 179 foizga oshgan, 2023-yil davomida turizm xizmatlarining eksporti 2 mlrd. 143,5 mln. AQSH dollar (yillik reja-2,0 mlrd dollar)ni tashkil etib, 2022-yilga nisbatan 1,3 barobarga oshganligini kuzatish mumkin.

Xalqaro turizm bozorida milliy turizm salohiyatini ilgari surish maqsadida xalqaro yarmarkalarda ishtirok etish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Milliy turizm salohiyati Toshkentda har yili tashkil etib borilayotgan xalqaro turizm yarmarkasidan tashqari boshqa davlatlarda ham targ‘ib qilinmoqda. O‘zbekistonning turizm

salohiyatini jahon turizm bozorida reklama qilish va xorijiy hamkorlar bilan hamkorlik qilish maqsadida 2023 yilda ham bir qator xalqaro turizm ko‘rgazmalarida ishtirok etdi. Ispaniyaning Madrid shahridagi “FITUR-2023”, Germaniyaning Berlin shahridagi “ITB Berlin-2023”, Rossiyaning Moskva shahridagi “Puteshestviya i turizm MITT-2023”, Ozarboyjonning Boku shahridagi “AJTF-2023”, BAAning Dubay shahridagi “ATM-2023”, Koreyaning Seul shahridagi “SITIF-2023”, Malayziyaning Kuala-Lumpur shahridagi “MATTA Fair-2023”, Yaponiyaning Osaka shahridagi “Tourizm Expo Japan-2023”, Fransiyaning Parij shahridagi “IFTM Top Resa-2023”, Italiyaning Rim shahridagi “TTG Rimini -2023”, Buyuk Britaniyaning London shahridagi “World Travel Market 2023” xalqaro turizm ko‘rgazmalari shular jumlasidandir.

Butunjahon turizm tashkiloti sohaga doir xalqaro reytinglarda O‘zbekistonning o‘rnini yaxshilash maqsadida turizm tez rivojlanayotgan mamlakatlar ro‘yxati reytingida 2019-yildagi 4 o‘rindan 2026-yilda 3 o‘ringa erishish, sayyohlar uchun xavfsiz mamlakatlar reytingi (180 mamlakatlar orasida)da 2020-yildagi 46 o‘rindan 2026-yilda 20 ta eng xavfsiz mamlakatlar ro‘yxatiga kiritish, Solo Travel Safety Report reytingida yolg‘iz sayohat qiluvchi turistlar uchun xavfsiz mamlakat reytingida 2019-yildagi

80 o‘rindan 2026-yilda kamida 50 o‘ringa erishish, Global Muslim Travel Index halol turizm reytingida 2020-yildagi 7 o‘rindan 2026-yilda 3 o‘ringa erishish, Sayohat va turizmning raqobatbardoshligi indeksida O‘zbekistonni 2026-yili birinchi 50 talikka kiritish maqsad qilingan.

Bundan tashqari, Butun jahon turizm tashkiloti doirasida Yevropa mintaqaviy komissiyasiga kiruvchi davlatlar bilan turizm sohasida aloqalarni mustahkamlash hamda xalqaro ahamiyatga ega tadbirlarni O‘zbekistonda muntazam o‘tkazib borish rejalashtirilgan. Jumladan, 2023-yilda UNWTO Bosh Assambleyasi XXV sessiyasini Samarqand shahrida o‘tkazish bo‘yicha O‘zbekiston nomzodligini ilgari surish yuzasidan tegishli tashkiliy ishlar olib borildi.

O‘zbekistonning turizm salohiyati xorijiy ommaviy vositalari, ijtimoiy tarmoqlarida va xalqaro reytinglarda e’tirof etilmoqda.

Amerika Qo‘shma Shtatlarining “Time” jurnali, “Travel Lemming” va “Forbes Advisor” va “The New York Times” onlayn sayohat qo‘llanmalari, Britaniyaning mashhur “British Muslim Magazine” jurnali, “Independent”, “Rough Sides”, “Dorling Kindersley”, “Times Travel” va “Lonely Planet” onlayn nashrlari, Rossiyaning “Kursiv” nashri kabi nufuzli nashrlarda O‘zbekistonning turizm salohiyati va imkoniyatlari haqida ijobiy maqolalar chop etildi.

“Jahon musulmon sayohati indeksi” xalqaro reytingida 2023-yilda O‘zbekiston yettita pog‘ona yuqorilab yangi paydo bo‘layotgan eng kuchli islomiy sayohat destinatsiyasi sifatida alohida e’tirof etildi [6].

O‘zbekiston “Wegoplace” sayohatchilar portali tomonidan dunyoning eng xavfsiz 5 mamlakatidan biri hamda “CrescentRating” (Singapur) va “Mastercard” tashkilotlari tomonidan dunyoning ziyorat turizmi bo‘yicha eng ommabop 10 mamlakatidan biri sifatida e’tirof etildi [7].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Albatta yuqoridagi loyihalar, chora-tadbirlarning tashkil etilishi va xorij tajribalarining o‘rganilishi, O‘zbekistonning xalqaro turizm bozorida mavqeini oshishiga olib keladi.

Xalqaro turizm xizmatlari bozorining holati, xorijiy davlatlarning tajribalari asosida quyidagi rivojlanish tendensiyalari aniqlandi va O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasi vakillari uchun quyidagi jihatlarni e’tiborga olishni tavsiya qilish mumkin:

- turizm sohasini raqamlashtirish tendensiyasi kuzatilmoqda, zero rivojlangan davlatlardagi aholining kattagina qismida XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab fe’l-atvor va dunyoqarashda katta o‘zgarishlar kuzatilmoqda;
- bugungi kunda jahon turizm bozorida quyidagi maqsadli turizm ko‘rsatmalari ustun turadi: yangi taassurotlarning paydo bo‘lishi va ularning tezda o‘zgarishi, guruhli yoki ikki kishi bo‘lib dam olish, ichki sabablar tufayli yoki tashqi ta’sirlarsiz o‘z xohish- istaklarini tezda qondirishga intilish, tabiat va landshaft go‘zalligidan bahra olish.
- aholi moddiy farovonligining oshishi va turizmga ajratilgan mablag‘larning ko‘payishi;
- ijtimoiy-demografik o‘zgarishlar, sayohatlarga chiqish uchun vaqt va zarur daromadga ega bo‘lgan kishilar sonining oshganligi;
- mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy-madaniy aloqalarning mustahkamlanishi;
- shaharlashuv jarayonlarining kuchayishi, bu potensial turistlar sonini ko‘paytiradi;
- aholining ma’lumot olish darajasining oshganligi natijasida ularning bilim va axborotlar olishga nisbatan faolligini kuchayganligi;

- transport infratuzilmasining rivojlanishi va takomillashuvi;
- bojxonadagi rasmiyatchiliklarning, viza munosabatlarining soddalashtirilishi va ommaviy kommunikatsiya vositalarining rivojlanishi namoyon bo‘lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Чилова Е.П., Темкина И.М..Рынок международных туристских услуг. –М. 2010. –С. 87.
2. Norchayev A.N. Zamonaviy turizm infratuzilmasining shakllanish va rivojlanish tendensiyalari//Doctor of science dissertatsiyasi. –Toshkent. –2021-y.
3. https://wtts.org
4. World Tourizm Barometr Volume 21. issue1. –januare 2023
5. https://uzbektourism.uz/cyrl
6. http://www.uzbektourism.uz
7. http://www.unwto.org

TIJORAT BANKLARI FOND BOZORIDAGI AKSIYALAR NARXINI O‘ZGARISHINI EBO MODULI ORQALI ANIQLASHNING EKONOMETRIK TAHLILI

Yuldoshova Manzura Ollashkurovna
Toshkent amaliy fanlar universiteti Iqtisodiyot fakulteti
“Tarmoqlar iqtisodiyoti” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tijorat banklarini aksiyalari narxiga ta’sir qiluvchi ko‘rsatkichlar tahlil qilingan.EBO moduli orqali tijorat banklari aksiyalarini korrelyatsion-regression tahlili o‘tkazilgan. Tijorat banklarining EBO ko‘rsatkichlariga ta’sir qiluvchi omillarning umumiy xususiyatlari o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: EBO moduli, tijorat banklari, qimmatli qog‘oz, aksiya, fundamental tahlil, texnik tahlil, korrelyatsiya-regressiya tahlili, ROE, ROA.

Abstract: In this article, indicators affecting the price of shares of commercial banks are analyzed. Correlation-regression analysis of shares of commercial banks was conducted through the EBO module. The general characteristics of the factors affecting the EBO indicators of commercial banks are studied.

Key words: EBO module, commercial banks, stock, stock, fundamental analysis, technical analysis, correlation-regression analysis, ROE, ROA.

Аннотация: В данной статье анализируются показатели, влияющие на цену акций коммерческих банков.Корреляционно-регрессионный анализ акций коммерческих банков проводился посредством модуля EBO. Изучены общие характеристики факторов, влияющих на показатели EBO коммерческих банков.

Ключевые слова: Модуль EBO, коммерческие банки, акции, акции, фундаментальный анализ, технический анализ, корреляционно-регрессионный анализ, ROE, ROA.

KIRISH

“2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida davlat ulushiga ega tijorat banklarida transformatsiya jarayonlarini yakunlab, 2026-yil yakuniga qadar bank aktivlarida xususiy sektor ulushi 60 foizgacha chiqarish ustuvor maqsad belgilangan”[1]. Davlatimiz rahbari tomonidan yana bir muhim vazifa – samarali fond bozorini shakllantirish masalasi ko‘tarildi. “Aynan fond bozorini kuchaytirish istiqbolda tijorat banklari faoliyati rivoji uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki iqtisodiyotni moliyalashtirishda kredit va fond bozorlari o‘rtasida keskin raqobat yuzaga kelishi har ikkala sohaning raqobatda ustunlikka intilishi orqali rivojlanishni ta’minlaydi. Bundan esa milliy ishlab chiqaruvchi, kapital zarur bo‘lgan tomon arzon kapital jalb qilish imkoniga ega bo‘ladi. Shu bois, iqtisodiyotni moliyalashtirish nuqtayi nazaridan moliya bozorining birja modelini tanlagan mamlakatlarda bank tizimi ham yuqori darajada rivojlangan. Yoki aksincha, iqtisodiyotni bank vositasida moliyalashtiruvchi mamlakatlarda ham fond birjalari to‘liq raqobatchi sifatida rivojlanganini ko‘rish mumkin. Yurtimizda ayni vaqtda iqtisodiyotda davlat ishtiroki yuqoriligi emitentlarning fond bozoridagi faolligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda”[2].

Bundan tashqari banklarni fond birjasida ishtirok etishini cheklovchi bir nechta me’yoriy-huquqiy hujjatlar mavjud bo‘lib, ular bevosita banklarning fond bozorida erkin ishtirok etishini cheklaydi. Jumladan, “Banklar Markaziy bank tomonidan beriladigan bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziya asosida qonunchilik hujjatlariga muvofiq qimmatli qog‘ozlar bog‘liq bilan operatsiyalarni amalga oshirishlari mumkin. Bunda, qimmatli qog‘ozlarning ikkilamchi bozoriga joylashtirilgan aksiyalarning yigirma foizidan ortiq bo‘lmagan miqdorda fond birjasi listingiga kiritilgan aksiyadorlik jamiyatlarini aksiyalariga egalik qilishi belgilangan”[3].

1 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. “Adolat” milliy huquqiy axborot markazi, -T.:2022-y. – 152 b.
2 https://yuz.uz/news/bank-tizimi-va-fond-bozori-investitsion-jozibadorlik-nima-beradi
3 O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2023-yil 5-maydagi 10/5-son qaroriga 1-ilova (https://lex.uz/docs/6487097)

Tijorat banklarini fond birjasida emitent sifatida ishtirok etishi orqali banklar bozorida raqobatni yanada kuchaytirish mumkin. Aynan banklar bozoridagi eng sust raqobat bu banklarning fond bozoridagi ishtiroki bilan baholanadi. Shuning uchun fond bozorida ishtirok etuvchi banklarning raqobat bozoridagi ustunligini ta'minlashda ularning aksiyalari narxini barqaror bo'lishi muhim hisoblanadi.

Tijorat banklarini fond bozoridagi aksiyalar narxiga ta'sir qiluvchi omillarni korrelyatsion-regression tahlilini amalga oshirishda aynan qaysi ko'rsatkichlarni ta'siri eng yuqori bo'lishini aniqlash, bu banklarning fond bozoridagi faoliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Bugungi kunda tijorat banklari aksiyalar narxiga ta'sir qiluvchi omillarni mikro va makro jihatdan o'rganish bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, "bank sektorining moliyaviy holati bank muassasalari faoliyatiga ta'sir qiluvchi ko'plab omillarga bog'liq. Korrelyatsiya-regressiya tahlili bu omillarni aniqlash va ularning ta'sir darajasini aniqlash uchun ishlatilishi mumkin. Korrelyatsiya-regressiya tahlili bir necha bosqichlardan iborat:

1) obyektni tanlash, muammoni shakllantirish va o'zaro bog'liq ko'rsatkichlarni tanlash.
2) statistik materiallarni to'plash va uni tekshirish.
3) xususiyatlar orasidagi bog'liqlikni o'rganish.
4) regressiya modellarini qurish.
5) o'rganish natijalarini baholash va regressiya tenglamasining parametrlarini mantiqiy tahlil qilish"[4].

Ushbu tadqiqotchi fikricha tijorat banklari aksiyalari narx'ini tebranishini baholashda korrelyatsiya-regressiya tahlili orqaliamalga oshirish muhim deb hisoblaydi. Bizga ma'lumki aksiyalarni fond birjasidagi harakatini o'rganiuvchi usullarga fundamental, texnik va bozor kayfiyati muhim rol o'ynaydi. Ko'plab tadqiqotlarda aynan shu masalalarga alohida e'tibor qaratishgan.

Texnik fundamental tahlildan farqli o'laroq, u ichki omillarga qo'shimcha ravishda tashqi omillar ham zaxiralarga ta'sir qilishiga asoslanadi. Shuningdek, ushbu tahlil, qoida tariqasida, qisqa muddatli xarakterga ega bo'lgan texnik tahlildan farqli o'laroq, kelajakka qaratilgan. Fundamental tahlilda turli modellardan foydalanish mumkin: ehtimollik, ekonometrik, simulyatsiya va neyron tarmoqlar. Qimmatli qog'ozlar bozorini tahlil qilish yoki prognoz qilishning u yoki bu usulini tanlashda bozorlararo munosabatlarni, ya'ni turli bozorlar (tovar, moliyaviy va boshqalar) o'rtasidagi munosabatlarni ham hisobga olish kerak. Buning sababi shundaki, barcha faoliyat ko'rsatayotgan bozorlar bir bozordan ikkinchisiga o'tadigan investorlar kapitali uchun bir-biri bilan raqobatlashadi. "Kapitalning bu harakati kompaniya qimmatli qog'ozlari bozoridagi kotirovkalarning o'sish va pasayish tendensiyalarining shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, kapital qo'yilmalarning samaradorligi va kapital harakati firmaning adolatli va bozor qiymati o'rtasidagi farqni baholashga ta'sir qiladi"[5].

Ayrim olimlar fikricha "Tijorat bankining bozor qiymatini baholashning har bir usuli ham afzalliklarga, ham ma'lum kamchiliklarga ega. Taqqoslash asosida tijorat bankining qimmatli qog'ozlar bozorida eng katta investitsiya jozibadorligini ta'minlaydigan aksiyalarini baholash usullarini aniqlash kerak"[6] deb ta'kidlaydilar.

"... Aksiyalarning balans qiymati kompaniyaning o'z kapitali (ustav kapitali+zaxiralar+sof foyda) qiymatini muomaladagi oddiy aksiyalar soniga bo'lish yo'li bilan olinadi..."[7]. Bunda tadqiqotchi fikricha keng tahlil o'tkazish shart emas, balki oddiy usulda aniqlash mumkin deb izohlaydi.

Bizga ma'lumki korrelyatsion tahlilning asosiy vazifalari bog'lanish kuchini baholash va korrelyatsiya mavjudligi va mustahkamligi haqidagi statistik farazlarni tekshirishdan iborat. Iqtisodiy jarayonlarga ta'sir etuvchi omillarning hammasi ham tasodifiy o'zgaruvchilar emas. Shuning uchun iqtisodiy hodisalarni tahlil qilishda odatda tasodifiy va tasodifiy bo'lmagan o'zgaruvchilar o'rtasidagi munosabatlar hisobga olinadi. Bunday munosabatlar regressiya, ularni o'rganuvchi matematik statistika usuli esa regressiya tahlili deb ataladi. "Omilli tahlil usullari mavjud gipotezani tasdiqlashi yoki ko'p sonli kuzatishlar asosida yangi gipotezani shakllantirishi mumkin. Omilli tahlilini qo'llash sohasidan qat'i nazar, statistik usul sifatida ko'rib chiqish zarur"[8].

"Bank aksiyalarining bozor qiymatini baholash tashkilotning investitsiyalar nuqtayi nazaridan jozibadorligini aniqlash va aksiyaning adolatli narxini hisoblash uchun ko'paytmalarni tahlil qilishni o'z ichiga olgan fundamental tahlildan boshlanishi kerak"[9].

4 https://bstudy. net /762654/ ekonomika/ korrelyatsionno _regressionnyy_ metod_analiza_ bankovskoy _deyatelnosti? ysclid= lhitjz69yr9593081
5 Аибиэкэ, Адилицзян. Расчеты взаимосвязи рынка акций и экономического развития на основе факторного анализа / Адилицзян Аибиэкэ. – Текст : непосредственный // Молодой ученый. – 2018. – № 24 (210). – С. 112-116.
6 https://sovman.ru/article/7101/?ysclid=lhoauvhfo6325967224
7 Kilyachkov A.A., Chaldayeva L.A. Securities Market and exchange business/ Kilyachkov A. A., L. A. Chaldayeva. M.: Yurist, 2011. 704 p.
8 https://banki.bobrodobro.ru/433
9 https://nrm.uz/contentf?doc=697787_ &products=1_vse_zakonodatelstvo_ uzbekistana&ysclid= lhonjn0vw 0715732386

Olib borilgan tadqiqotlarda asaosiy e'tibor ko'proq fundamental tahlil asosida aksiyalar narxiga ta'sir qiluvchi omillarga e'tibor qaratilgan. Bizga ma'lumki fond bozorida aksiyalar narxini keskin tebranishi oqibatida turli holatlar yuzaga keladi. Ushbu holatlarni to'g'ri baholash orqali aksiyalar narxini keyingi holatiga baho berish mumkin bo'ladi.

TADQIQOT METADOLOGIYASI

Ushbu maqolada tijorat banklarining aksiyalar narxiga ta'sir qiluvchi omillarni ta'sir darajasini korrelyatsion-regression tahlilini amalga oshirishda tanlov funksiyasi sifatida EBO modulidan foydalanish orqali ularga ta'sir qiluvchi omillarga baho beriladi. Metodologik jihatdan ushbu ko'rsatkichga ta'sir qiluvchi omillardan kelib chiqib tijorat bankining aksiyasini narxini barqarorligiga baho beriladi.

Tijorat banklarining aksiyalar qiymatini aniqlash bo'yicha baholash faoliyatida ekspertlar baholash metodologiyasini tanlashda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Bu nafaqat mablag'larni jalb qilish va qo'shimcha xarajatlarning bir qismini bank bo'linmalari xarajatlariga kiritish uchun xarajatlar darajasini aniqlashning qiyinligi bilan, balki tijorat bankining bozor kapitallashuvi ko'rsatkichi bo'lganligi bilan ham izohlanadi., Bank aksiyalarining umumiy qiymati uning moliyaviy natijalariga qarab ko'tarilishi yoki kamayishi sababli, kapitallashuv uning ma'lum bir davrdagi faoliyati samaradorligini baholashga yordam beradi. Bozor kapitallashuvi barcha muomaladagi aksiyalarning bozor bahosi va ushbu aksiyalar sonining mahsuloti sifatida hisoblanadi. Kapitallashtirishning muqobil hajm mezonlariga nisbatan yana bir afzalligi bor: u bozordagi banklarning haqiqiy vaznini bir xil aksiyalarning potensial xaridoriga beradi.

Yuqorida keltirib o'tilgan modul asosida amalga oshiriladigan mexanizmni har bir bosqichiga to'xtalib o'tamiz. Buning uchun ushbu EBO modulini hisoblash metodikasi bilan tanishib chiqamiz. Uning hisoblash formulasi quyidagicha:

$$V = SK_t + \sum_{t=1}^{\infty} \frac{E[\Delta x_t]}{(1+i)^t} \quad (1)$$

Bu yerda, tijorat bankining t vaqtdagi sof kapitali, matematik kutilma qiymati, diskont stavkasi.

$$\Delta x_t = x_t - i * SK_{t-1} \quad (2)$$

Bu yerda, tijorat bankining t vaqtdagi daromadi.

Yuqorida keltirilgan formulalardan foydalangan holda tijorat bankini yillar kesimida EBO ko'rsatkichini hisoblab topamiz.

1-jadval: "O'zsanoatqurilishbankining" ko'rsatkichlari (mlrd. so'm)[10]

Yillar	Sof foyda	O'z kapitali
2005	2286231	23843703
2006	8053602	30526495
2007	11714821	47882616
2008	15106843	112709618
2009	5978624	123222616
2010	12692881	136972616
2011	16154254	161227616
2012	25529707	259550820
2013	39861753	326305625
2014	34201296	622516198
2015	75884649	706982981
2016	86554679	760300000
2017	89933654	146000000
2018	219396000	1884900000
2019	604500000	464000000
2020	806900000	464000000
2021	998200000	464000000
2022	588900000	464000000

10 Tijorat banki ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Diskont stavkasi 15 % ga teng.

$$\Delta x_{2005} = x_{2005} - i * SK_{t-1} = 2286231 - 0.15 * 30526495 = -1290324{,}45$$

$$V_{2005} = SK_t + \sum_{t=1}^{\infty} \frac{E[\Delta x_t]}{(1+i)^t} = 23843703 - \frac{1290324}{(1+0{,}15)} = 2272682$$

Xuddi shunday qolgan yillar uchun EBO ko‘rsatkichlarini hisoblab topamiz. Natijada quyidagi diagrammaga ega bo‘lamiz.

1-rasm: O‘zsanoatqurilishbankining EBO modeli orqali ko‘rsatkichlar tahlili[11]

EBO ko‘rsatkichlari asosida olingan tahlillariga ko‘ra quyidagicha xulosaga kelish mumkin. Birinchidan, EBO ko‘rsatkichlari bankning o‘z kapitali bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘lanishga ega bo‘lib, 2017-yilda eng katta qiymatga ega bo‘lgan bo‘lsa, 2019-yilga kelib qiymati keskin o‘zgarishga sabab bo‘lgan. Ikkinchidan, EBO ko‘rsatkichlarini sof foydadan ayirmasi tekshirilganda bankning ko‘rsatkichlari 2019-2022-yillar oralig‘ida salbiy ko‘rsatkichga ega bo‘lgan. Bizga ma’lumki ushbu ko‘rsatkich musbat qiymatlarida bank aksiyalari narxi barqaror hisoblanadi.



2-rasm: O‘zsanoatqurilishbankining EBO modeli ko‘rsatkichlaridan sof foyda ko‘rsatkichlari ayirmasi tahlili[12]

11 Muallif tomonidan tayyorlangan.
12 Muallif tomonidan tayyorlangan.

Bankning keyingi uch yil ichidagi ko‘rsatkichini pasayishi uning aksiyalar narxini nobarqaror ekanligidan dalolat beradi. Uchinchidan, bank ustav kapitalini keyingi uch yil ichida deyarli o‘zgarmaganligi ham ushbu ko‘rsatkichning pasayishiga sabab bo‘lgan. To‘rtinchidan, bu esa bankning banklararo raqobat bozorida ko‘rsatkichlarini pasayishiga olib kelgan.

Olingan tahlil asosida tijorat bankining aksiyalar narxiga ta’sir qiluvchi omillarini ta’sirini o‘rganishda o‘zgarmas funksiya sifatida EBO ko‘rsatkichlarini olish, bankning aksiyalar narxiga ta’sir qiluvchi omillarini aniq ifodalash imkonini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2022 yil 9 dekabrda 3400-son bilan ro‘yxatga olingan O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2022 yil 10 noyabrdagi 61-son buyrug‘iga asosan bir aksiyaga to‘g‘ri keladigan foyda - bazaviy ko‘rsatkich to‘g‘risidagi ma’lumotning maqsadi hisobot davri mobaynida bosh tashkilotning har bir oddiy aksiyasiga to‘g‘ri keladigan tashkilotning faoliyati natijasi ulushi bo‘yicha ko‘rsatkichni ta’minlashdan iborat etib belgilangan.

Tashkilot imtiyozli aksiyalarni diskont bilan sotganligi evaziga past qiymatli dastlabki dividendni yoki investorlar imtiyozli aksiyalarni premium bilan xarid qilganligi evaziga keyingi davrlarda bozor darajasiga nisbatan yuqori qiymatli dividendni ta’minlaydigan imtiyozli aksiyalar ba’zida dividend normasi o‘sib boradigan imtiyozli aksiyalar deb yuritiladi. Dividend normasi o‘sib boradigan imtiyozli aksiyalar bo‘yicha har qanday dastlabki chiqarilgan diskont yoki mukofot summasining amortizatsiyasi effektiv foiz stavkasi usuli orqali taqsimlanmagan foydada aks ettiriladi va bir aksiyaga to‘g‘ri keladigan foydani hisoblash maqsadida imtiyozli aksiyalar bo‘yicha dividend sifatida hisobga olinadi.

Davr mobaynida muomaladagi oddiy aksiyalarning o‘rtacha tortilgan miqdoridan foydalanish har qanday paytda muomalada bo‘lgan aksiyalarning miqdori ko‘proq yoki kamroq bo‘lishi natijasida davr mobaynida aksiyadorlar kapitali summasining tebranishi mumkinligini aks ettiradi. Davr mobaynida muomaladagi oddiy aksiyalarning o‘rtacha tortilgan miqdori - davr mobaynida qayta xarid qilingan yoki chiqarilgan oddiy aksiyalarning vaqt omili bo‘yicha tortilgan koeffitsiyentga ko‘paytirilgan miqdoriga tuzatilgan davr boshida muomaladagi oddiy aksiyalarning miqdori hisoblanadi. Vaqt omili bo‘yicha tortilgan koeffitsiyent aksiyalarning muomalada bo‘lgan kunlar sonining hisobot davridagi jami kunlar sonidagi ulushidir; ko‘p holatlarda ushbu o‘rtacha tortilgan qiymatning asoslangan tarzda yaxlitlangan miqdoridan foydalanish mumkin.

Davr mobaynida va taqdim etilgan barcha davrlardagi muomaladagi oddiy aksiyalarning o‘rtacha tortilgan miqdori, potensial oddiy aksiyalarni konvertatsiya qilishdan tashqari, resurslardagi tegishli o‘zgarishsiz muomaladagi oddiy aksiyalar miqdorini o‘zgartirgan hodisalarni hisobga olgan holda tuzatilgan bo‘lishi lozim.

Bir aksiyaga to‘g‘ri keladigan foyda - ko‘rsatkichini hisoblash maqsadida, chiqarilishi nazarda tutilgan oddiy aksiyalarning o‘rtacha bozor narxi davr mobaynidagi oddiy aksiyalarning o‘rtacha bozor narxi asosida hisoblanadi. Nazariy jihatdan, tashkilotning oddiy aksiyalari bo‘yicha har bir bozor operatsiyasi o‘rtacha bozor narxini aniqlashda foydalanilishi mumkin. Lekin, amaliy jihatdan, odatda haftalik yoki oylik narxlarning oddiy o‘rtachasi odatda yetarli bo‘ladi.

Umuman olganda, “o‘rtacha bozor narxini aniqlashda bozorning yopilish narxlari yetarli bo‘ladi. Lekin, narxlarning tebranishi keng bo‘lganida, eng yuqori va eng past narxlarning o‘rtachasi odatda munosibroq narxni hosil qiladi. O‘rtacha bozor narxini hisoblashda foydalanilgan usul, agar shartlar o‘zgarganligi sababli munosib bo‘lmay qolmasa, izchil ravishda foydalaniladi. Masalan, nisbiy barqaror narxlarning bir necha yillari uchun o‘rtacha bozor narxini hisoblashda bozorning yopilish narxlaridan foydalanadigan tashkilot, agar narxlar keng tebranishni boshlaganda va bozorning yopilish narxlari bundan buyon munosib o‘rtacha narxni hosil qilmasa, eng yuqori va eng past narxlarning o‘rtachasidan foydalanishi mumkin”[13].

Yuqoridagi holatlardan kelib chiqib, “O‘zsanoatqurilishbank” aksiyadorlik jamiyati ko‘rsatkichlaridan foydalangan holda ularning aksiyalari narxiga ta’sir qiluvchi omillarni korrelyatsion-regression tahlilini ko‘rib chiqamiz. Bunda aksiyadorlik jamiyatining 2005-2022-yillardagi ma’lumotlaridan foydalanamiz. Buning uchun quyidagi ko‘rsatkichlarni tanlab olamiz: u – EBO qiymati: x_1 – davr uchun foyda, x_2 – bankning sof foy CIR (umumiy rentabellik), x_3 – Sof foiz marjasi, x_4 – ROA aktivlar rentabelligi (soliq to‘languncha foydani/jami aktivlarga nisbati*100), x_5 – markaziy bankning qayta moliyalashtirish stavkasi, x_6 – inflyatsiya darajasi.

13 https://nrm.uz/ contentf?doc=697787_ &products=1_vse_zakonodatelstvo_ uzbekistana&ysclid= lhonjn0vw 0715732386

2-jadval: “O‘zsanoatqurilishbank” ko‘rsatkichlari[14]

Yillar	Ko‘rsatkichlar							
	EVO qiymati	Davr uchun foyda	CIR	Sof foiz marjasi	ROE	ROA	MB qayta moliyalashtirish stavkasi	Inflyatsiya darajasi
2005	22,7	2,2	20,1	0,11	9,59	0,7	16	5,2
2006	33,1	8,1	64,8	0,13	26,38	1,26	16	4,7
2007	50,8	11,7	26,6	3,73	24,47	1,51	14	5,1
2008	111,6	15,1	22,2	2,82	13,4	1,24	14	4,9
2009	117	5,9	8,9	2,5	4,85	0,45	14	4,7
2010	133,6	12,6	42	2,26	9,27	0,8	14	5
2011	158,2	16,1	42,8	2,45	10,02	0,63	12	4,7
2012	255,2	25,5	20,9	2,19	9,84	0,71	12	4,9
2013	323,7	39,8	26,6	2,5	12,22	0,75	12	5,2
2014	607,8	34,2	18,9	2,3	5,49	0,53	10	5
2015	700,4	75,8	34,8	2,14	10,73	1	9	4,1
2016	755,2	86,7	35	2,31	11,4	0,84	9	8,9
2017	1570,6	899,3	26,6	1,46	61,6	3,7	9	9,6
2018	1875,9	219,4	44,1	2,16	11,64	0,71	14	20,1
2019	529,7	219,4	65,1	3,23	7,7	1,98	16	13
2020	542,7	600,5	44,6	3,99	12,69	2,15	15	14,3
2021	550,3	798,2	36,8	4,7	12,1	1,92	14	11,1
2022	505,9	998,2	29,6	4,6	13,8	0,62	14	9,8

Bu yerda, CIR (umumiy rentabellik) Foyda/umumiy xarajatlarga*100, Sof foiz marjasi (foizli daromadlar-foizli xarajatlar)/jami aktivlar*100, ROE (sof foydani – o‘z kapitaliga nisbati)*100, ROA aktivlar rentabelligi (soliq to‘languncha foydani/jami aktivlarga nisbati*100) asosida hisoblab topilgan.

Olingan ma’lumotlarni ko‘p omilli korrelyatsion-regression tahlil orqali ularning bog‘liqlik jadvalini tuzib olamiz. Bu quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi.

3-jadval: “O‘zsanoatqurilishbank” aksiyalari narxiga ta’sir qiluvchi omillarning korrelsion-regression tahlili[15]

Регрессионная статистика					
Множественный R	0,973661683				
R-квадрат	0,948017073				
Нормированный R-квадрат	0,911629024				
Стандартная ошибка	152,0479102				
Наблюдения	18				
Дисперсионный анализ					
	df	SS	MS	F	Значимость F
Регрессия	7	4216152,774	602307,5392	26,05297893	1,19593E-05
Остаток	10	231185,6701	23118,56701		
Итого	17	4447338,444			

14 Ma’lumotlar muallif tomonidan internet saytlari asosida tayyorlangan (https://akhancem.uz/lat/info4.html, https://cbu.uz/oz/).
15 Muallif tahlili asosida ishlab chiqildi.

	Коэффициенты	Стандартная ошибка	t-статистика	P-Значение	Нижние 95%
Y-пересечение	1256,707057	271,5132518	4,628529358	0,00093828	651,7378317
Переменная X 1	0,024719876	0,191076025	0,12937194	0,899628513	-0,401024038
Переменная X 2	-2,842447326	3,020988939	-0,940899614	0,368929138	-9,573630152
Переменная X 3	-80,83714891	45,35377566	-1,782368672	0,105022063	-181,8916585
Переменная X 4	10,97918512	6,467493911	1,697594969	0,120433421	-3,431289335
Переменная X 5	-88,21718894	92,63282841	-0,952331808	0,36337977	-294,6159929
Переменная X 6	-106,3833941	17,36886048	-6,124949543	0,00011195	-145,0836269
Переменная X 7	109,7614941	11,30509551	9,709028459	2,08222E-06	84,57217153

Tahlil to‘plami yordamida amalga oshirilgan regressiya va korrelyatsion tahlil natijalarini 3-jadvalda ko‘rish mumkin. Regressiya tenglamasi “koeffitsiyentlar” ustunida ko‘rsatilgan ma’lumotlarga muvofiq tuziladi. “u-kesishish” chizig‘i “1260.70 erkin atamasining qiymatini va tegishli statistikani, “o‘zgaruvchan x_1– “o‘zgaruvchan x_7” satrlarini – regressiya koeffitsiyentlarining qiymatlarini va tegishli statistikani ko‘rsatadi. Regressiya tenglamasi quyidagi shaklga ega:

$$Y=1256,70+0,024719876x1 –2,842447326x2–80,83714891x3+10,97918512x4–88,21718894x5–106,3833941x6+109,7614941 x7 \quad (3)$$

Ushbu regressiya uchun ko‘p korrelyatsiya koeffitsiyenti R = 0,973 (juda yuqori), bu tanlangan omillar va bankning EBO qiymati o‘zgarishi o‘rtasidagi munosabatlarning yuqori yaqinligini ko‘rsatadi.

u funksiyasiga eng kuchli ta’sir ko‘rsatadigan asosiy omillarni tanlash kerak, chunki ko‘p sonli omillarni o‘z ichiga olgan model beqaror: u omillarning tegishli o‘zgarishlari bilan u dagi o‘zgarishlarni obyektiv aks ettirmaydi. Tanlov maxsus statistik xususiyatlarning qiymatlarini tahlil qilishga asoslangan. Asosiy omillarni tanlash tartibi quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi.

Multikollinearlik omillarini tahlil qilish va uni istisno qilish. Multikollinearlikni aniqlash y va x omillari o‘rtasidagi juftlik korrelyatsiyasi koeffitsiyentlarining qiymatlarini tahlil qilish orqali amalga oshiriladi. Agar g > 0,7 bo‘lsa, unda u va x omillari multikollineardir.

Bir biriga bog‘liq bo‘lgan korrelyatsiya koeffitsiyentlarini olish uchun korrelyatsiya matritsasini hisoblash kerak.

4-jadval: Bir biriga bog‘liq bo‘lgan korrelyatsiya koeffitsiyentlarini olish uchun korrelyatsiya matritsasi[16]

	Столбец 1	Столбец 2	Столбец 3	Столбец 4	Столбец 5	Столбец 6	Столбец 7	Столбец 8
Столбец 1	1							
Столбец 2	0,462203728	1						
Столбец 3	0,111809071	0,068694638	1					
Столбец 4	0,022237471	0,508543931	-0,027261924	1				
Столбец 5	0,402406607	0,453924006	0,039881383	-0,221273999	1			
Столбец 6	0,391548556	0,586085268	0,247134792	0,1108138	0,784810818	1		
Столбец 7	-0,40611184	-0,034311371	0,354024259	0,068303662	-0,261718973	-0,07417	1	
Столбец 8	0,728889701	0,51543314	0,40811805	0,33520572	0,060708134	0,326163	0,208387	1

Ko‘rib chiqilayotgan misolda multikollinearlik mavjud bo‘lib (ma’lumotlar bir biriga ta’sirchan): x1 va x8 omillar o‘rtasida (ular orasida bog‘langan korrelyatsiya koeffitsiyenti hisoblanadi 0.72) ga teng; x5 va x6 omillar o‘rtasida (0.78); x2 va x6 omillar o‘rtasida (0.58); x1 va xb omillar o‘rtasida (0.79); x2 va x4 omillar o‘rtasida (0.50) ga teng bo‘lgan.

Multikollinearlikni bartaraf etish uchun omillardan biri modeldan chiqarib tashlanadi. Quyidagi statistik xususiyatlarni baholash paytida chiqarib tashlanadigan omillar aniqlanadi: omil va funksiya o‘rtasidagi juft korrelyatsiya koeffitsiyenti yuqori bo‘lgan bog‘lanishlar qoldiriladi.

Omillar (x) ning qaram o‘zgaruvchi (u) bilan yaqinligini tahlil qilish uchun omil va funksiya (r) o‘rtasidagi juftlik korrelyatsiyasining qiymatlaridan foydalaniladi. r ning qiymati korrelyatsiya matritsasida ham ko‘rsatilgan.

16 Muallif tahlili asosida ishlab chiqildi.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

rxy= 0, ya'ni y bilan bog'liq bo'lmagan omillar birinchi navbatda chiqarib tashlanishi kerak. Eng past qiymatga ega bo'lgan omillar modeldan chiqarib tashlanishi mumkin. Bizning misolimizda x omil multikol-chiziqli to'rt omil bilan x2, x3, x5, xb teskari bog'liqni yuzaga keltirmoqda. Biroq, g = 0,728 bilan ulanishning eng katta yaqinligiga ega va uni keyingi tahlil qilish uchun qoldirish mumkin. Omil x4, x omillar bilan multikollinear bo'lib, u bilan kamroq bog'liq (g = 0,022), shuning uchun bu omil modeldan potensial ravishda chiqarib tashlanadi. x4 omilni olib tashlash orqali biz x2 va x4 omillari orasidagi ko'p chiziqlilikni olib tashlaymiz. x2 va xb omillar bir-biri bilan multikollinear bo'lib (g = 0,50 va g = 0,58) bilan ulanish darajasi yuqori hisoblanadi.

Keyingi bosqichda omillarni koeffitsiyentlarini tahlil qilish bo'lib, bunda qaysi omillar o'rtachakvadratik og'ish holati va regressiya koeffitsiyentlari orqali ularning koeffitsiyentlarini hisoblab topamiz. Natijada quyidagi jadvalga ega bo'lamiz.

5-jadval: Ta'sir qiluvchi omillar koeffitsiyentini hisoblash ko'rsatkichlari[17]

Кўрсаткичлар	Регрессия коэффициенти	Ўртачаквадратик оғиш	Коэффициент
Y-пересечение	1256,70706	354,36797	
Переменная X 1	0,02472	358,48018	0,02501
Переменная X 2	-2,84245	348,00469	-2,75939
Переменная X 3	-80,83715	335,56921	-77,94854
Переменная X 4	10,97919	321,55050	10,52052
Переменная X 5	-88,21719	306,56823	-84,10681
Переменная X 6	-106,38339	288,94116	-100,26656
Переменная X 7	109,76149	273,62830	103,94452

Bunda, x omillarni koeffitsiyenti orqali tahlil natijasiga ko'ra x2, x3, x5, xb omillarni chiqarib tashlaymiz.

Keyingi bosqichda regressiya koeffitsiyentlarini statistik ahamiyatga ega ekanligini tekshiramiz. Tekshirish ikki usulda amalga oshiriladi: Styudent mezoniga va Fisher mezoniga muvofiq. Bizning misolimizda bizning statistik ahamiyatini Styudent mezoniga muvofiq tekshirishga e'tibor qaratamiz:

$$t_k = \frac{a_k}{S_{a_k}} \quad (4)$$

Bu yerda, a_k – k omilning regressiya koeffitsiyenti, S_{ak} – a_k ning standart og'ishini baholash parametri. Bizning misolimizda regressiya funksiyasini bajarishda Styudentning mezoni allaqachon hisoblab chiqilgan.

O'zgaruvchilarni qaram o'zgaruvchiga ahamiyatsiz ta'siri tufayli tahlildan chiqarib tashlash to'g'risida yakuniy qaror qabul qilishdan oldin, omillarning birgalikdagi ta'sirini o'rganish amalga oshiriladi. Biz yuqorida ko'rib chiqqanimizdek bank aksiyalariga ta'sir qiluvchi omillardan faqat uchtasini tanlab oldik. Shunga asosan ularni ta'sir darajasini ko'rib chiqamiz.

6-jadval: Korxona aksiyalari narxiga ta'sir qiluvchi omillarning korrelsion-regression tahlili[18]

Регрессионная статистика					
Множественный R	0,817154582				
R-квадрат	0,66774161				
Нормированный R-квадрат	0,596543384				
Стандартная ошибка	324,8808035				
Наблюдения	18				
Дисперсионный анализ					
	df	SS	MS	F	Значимость F
Регрессия	3	2969672,934	989890,9779	9,378627024	0,001182543
Остаток	14	1477665,511	105547,5365		
Итого	17	4447338,444			

17 Muallif tahlili asosida ishlab chiqildi.
18 Muallif tadqiqoti asosida ishlab chiqildi.

	Коэффициенты	Стандартная ошибка	t-статистика	P-Значение	Нижние 95%
Y-пересечение	-396,3952871	192,5754677	-2,058389325	0,058667758	-809,4285867
Переменная X 1	-0,175886737	0,308580266	-0,56998699	0,577719449	-0,837725583
Переменная X 2	16,26555313	7,051685653	2,306619145	0,036884267	1,141191616
Переменная X 3	88,01961791	21,24466046	4,143140724	0,000994777	42,45435297

Regressiya tenglamasi quyidagi shaklga ega:

$$Y=-396,3952871-0,175886737x1+16,26555313\ x2+88,01961791\ x3 \quad (5)$$

Ushbu regressiya uchun ko‘p omilli korrelyatsiya koeffitsiyenti R = 0,817 (yuqori), bu tanlangan omillar va bankning aksiyalari narxini o‘zgarishi o‘rtasidagi munosabatlarning yuqori yaqinligini ko‘rsatadi.

Bir biriga bog‘liq bo‘lgan korrelyatsiya koeffitsiyentlarini olish uchun korrelyatsiya matritsasini hisoblash kerak.

7-jadval: Bir biriga bog‘liq bo‘lgan korrelyatsiya koeffitsiyentlarini olish uchun korrelyatsiya matritsasi[19]

	Столбец 1	Столбец 2	Столбец 3	Столбец 4
Столбец 1	1			
Столбец 2	0,462203728	1		
Столбец 3	0,402406607	0,453924006	1	
Столбец 4	0,728889701	0,51543314	0,060708134	1

Korrelyatsiya va regressiya tahlilida munosabatlarning ishonchliligini (moddiyligini) tekshirishda quyidagi formulalardan foydalaniladi[20].

$$F = \frac{(D_m - D_{m1})(n-m-1)}{(m-m1)(1-D_m)} \quad (6)$$

Bu yerda, D_m – omillar soni bo‘lgan *m* ishonchlilik diterminatsiya koeffitsiyenti, D_{m1} – omillar soni m_1 bo‘lgan diterminatsiya koeffitsiyenti, n – o‘rganilayotgan kuzatuvlar soni, m – tanlab olingan omillar soni. Biz tahlillarimizda , D_m = 0,9480, D_{m1} = 0,2786, n = 18, m = 7 ga hamda m_1 3 ga teng.

Natijalarni formulaga qo‘yib hisoblasak quyidagi ko‘rsatkichga ega bo‘lamiz:

$$F = \frac{(D_m - D_{m1})(n-m-1)}{(m-m1)(1-D_m)} = \frac{(0.9480-0.2786)(18-7-1)}{(7-3)(1-0.2786)} = 2.319735$$

Fischer taqsimotining kritik nuqtalari jadvalida biz F - mezonning α = 0,05 muhimlik darajasidagi kritik qiymatini asosida $F_{m\text{-}m1}(m_1)=F_4$ (3) erkinlik darajalari sonini topamiz, bu 6,59 ga teng. F-mezonning hisoblangan qiymati jadvaldan kichik bo‘lgani uchun F(2,319<6,94) regressiya tenglamasi muhim deb tan olinadi. Binobarin, ilgari chiqarib tashlangan omillar birgalikda u o‘zgaruvchisiga statistik jihatdan sezilarli ta’sir ko‘rsatmaydi. Endi tanlangan modelni adekvatliligini aniqlaymiz. Buning uchun quyidagi formuladan foydalanamiz:

$$F = \frac{D(n-m-1)}{m(1-D)} \quad (7)$$

Bu yerda, D diterminatsiya koeffitsiyenti bo‘lib, uning qiymati 0,527 gateng. m-tanlangan omillar soni bo‘lib, uning qiymati 3 ga teng, n – o‘rganilayotgan kuzatuvlar soni bo‘lib, u 18 ga teng.

$$F = \frac{0,527^2(18-3-1)}{3(1-0,527^2)} = 5,19$$

Fischer taqsimotining kritik nuqtalari jadvalida biz F – mezonning α = 0,05 muhimlik darajasidagi kritik qiymatini asosida F2(6) erkinlik darajalari sonini topamiz, bu 5,14 ga teng. F-mezonning hisoblangan qiymati jadvaldan katta bo‘lgani uchun F(5,19 >5,14) model adekvat deb tan olinadi.

19 Muallif tadqiqoti asosida ishlab chiqildi.
20 https://studref.com/663902/menedzhment/primer_postroeniya_mnogofaktornoy_korrelyatsionno_regressio

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

8-jadval: O‘rtacha xatolikni topish matritsasi[21]

	Qoldiq	y funksiya qiymatlari	O‘rtacha xatolikni hisoblash
y1	-932,485047	3932,485047	-23,71236091
y2	951,9847348	4448,015265	21,40246105
y3	2280,546761	5569,453239	40,94740835
y4	-1977,952108	12097,95211	-16,34947874
y5	-2490,968103	18860,9681	-13,20700024
y6	2600,892046	21043,10795	12,35982846
y7	-2486,094698	28016,0947	-8,873808874
y8	-3228,168453	31058,16845	-10,39394341
y9	5282,244867	32717,75513	16,14488783
		O‘rtacha qiymat	2,492878871
		O‘rtacha xatoli	0,024928789

Bizning misolimizda taxminiy xato ruxsat etilgan qiymatdan oshmaydi (0,024% < 5%), bu regressiya tenglamasini tanlashning juda yuqori sifatini ko‘rsatadi individual omillarning natijaviy ko‘rsatkichga ta’sirini tavsiflash uchun ishlatiladigan maxsus ko‘rsatkichlarni hisoblash – elastiklik koyeffitsiyenti, bu boshqa omillarning belgilangan qiymatlari bilan argumentning 1% ga o‘zgarishi bilan funksiyaning o‘rtacha necha foizga o‘zgarishini ko‘rsatadi. Uning hisoblash formulasi quyidagicha ko‘rinishda bo‘ladi:

$$Э_k = a_k * \frac{\overline{x_k}}{\overline{y}} \quad (8)$$

Bu yerda, $Э_k$ - k-chi ko‘rsatkichning elastiklik koeffitsiyenti.

9-jadval: Elastiklik koeffitsiyentini hisoblash matritsasi[22]

	Ўртача қийматлар	Регрессия коэффициенти	Ўртача квадратик оғиш	Эластиклик коэффициенти	Вариация коэффициенти
Y-пересечение	511,4764	508,3026257	354,36797		
Переменная X 1	342,7406	0,897155337	358,48018	0,601184255	1,045922718
Переменная X 2	12,87621	2,141892954	321,5505	0,080467454	24,97244919
Переменная X 3	4,444094	-115,4610496	273,6283	-39,85021662	61,57122239

Bizning misolimizdagi elastiklik koeffitsiyentlarining qiymatlari mos ravishda E_1 = 0,60, E_2 = 0,08 hamda E_3 = -39,85 bo‘lib chiqdi. Demak, bank foydasini 1% ga o‘zgarishi bilan funksiya 0,60% ga o‘zgaradi; ROE ning 1% ga o‘zgarganda, funksiya 0,08% ga o‘zgaradi hamda inflyatsiya darajasi 1% o‘zgarishi bilan funksiya -39,8 % ga o‘zgaradi.

21 Muallif tadqiqoti asosida ishlab chiqildi.
22 Muallif tadqiqoti asosida ishlab chiqildi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Korrelyatsiya-regressiya tahlili jarayonida ma'lum bo'ldiki, retrospektiv davrda tijorat banklarining EBO ko'rsatkichini o'zgarishini belgilovchi asosiy omillar quyidagilardir:

1. Bank risklarining diversifikatsiyalashni shaffofliligini ta'minlash tamoyili. Bank risklarini diversifikatsiyalashda mo'ljaldagi samaraga erishishda ularning shaffofligini ta'minlanganligi muhim masalalardan hisoblanadi. Bunda asosiy e'tibor banklarning faoliyatida vujudga kelishi bilan bog'liq bo'lgan risklarni e'tirof etishga qaratiladi. Biroq, xalqaro audit va reyting kompaniyalari yirik banklarning faoliyati bo'yicha qabul qilinayotgan qarorlarda yetarlicha shaffoflikni ta'minlamaganligi, shuningdek, ayrim holatlarda banklarning ichki buxgalteriya hisobotlarini yuritishda haqqoniylikga rioya etilmasligi oqibatida turli darajadagi risklarni vujudga kelishiga sabab bo'lmoqda. Bunga misol sifatida vaqti-vaqti bilan rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda yirik tijorat banklarining iqtisodiy jihatdan murakkab vaziyatga tushub qolayotganligi va ayrim holatlarda bankrotlik holatiga tushayotganligini keltirish mumkin.
2. Bank risklarini diversifikatsiyalash samaradorligini ta'minlash tamoyili. Bank risklarini diversifikatsiyalashda mo'ljaldagi samara va iqtisodiy natijaga erishilmaydigan bo'lsa, amalga oshirilgan barcha ishlar o'zining iqtisodiy ahamiyatini yo'qotadi. Shuning uchun ham bank risklarini diversifikatsiyalash yuzasidan qabul qilingan har qanday qaror bank risklarini pasaytirishda tegishli samarani ta'minlashi maqsadga muvofiq. Albatta, bunga qator omillar ta'sir qiladi. Xususan, bank risklarini diversifikatsiyalash bo'yicha bankning ichki siyosati, bank risklarini diversifikatsiyalashga jalb etilgan mutaxassislarning bilim ko'nikmalari, mamlakatda mavjud qonuniy-huquqiy asosning mavjudligi va boshqa shu kabilar bank risklarini diversifikatsiyalash samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.
3. Bank risklarini diversifikatsiyalashda mustaqillikning ta'minlanganlik tamoyili. Bu yerda gap tijorat banklari boshqaruv kengashi, tegishli boshqarma va filiallari aktivlari, asosan kreditlar yoki jalb qilinayotgan depozitlarning miqdori va foiz stavklari yuzasidan mustaqil qarorlarni qabul qilishi xususida ketmoqda. Shuni qayd etish joizki, o'tish davrini boshidan kechirayotgan ko'pchilik mamlakatlarda, shu jumladan mamlakatimiz bank tizimida ham mazkur masalalar yuzasidan qabul qilinadigan qarorlar va ularni amalga oshirishda mustaqillikning ta'minlanmaganligi holatlari kuzatiladi. Bu o'z navbatida, bank risklarini diversifikatsiyalash, ular bilan bog'liq muammolarni oldini olish yuzasidan tegishli samarali mexanizmlarni ishlab chiqish imkoniyatini bermaydi.

Bizning nazarimizda, banklarda risklarni diversifikatsiyalash bo'yicha mas'ul xodimlarni to'g'ridan to'g'ri bank aksiyadorlari kengashiga hisobdorligini belgilab qo'yish maqsadga muvofiq. Bu, ularning bank faoliyatida vujudga keladigan qarorlarni qabul qilish, shuningdek, bankning moliyaviy barqarorligiga ta'sir qiladigan operatsiyalarni bajarmaslik yuzasidan mustaqil faoliyat yuritish imkoniyatini beradi.

4. Risklarni diversifikatsiyalashning taqqoslanuvchanlik tamoyili. Bank faoliyati bilan bog'liq risklarni diversifikatsiyalashning turli tuman yo'llari mavjudki, bankning mas'ul mutaxassislari ularning eng samarali va optimal variantlarini tanlash imkoniyati mavjud bo'lishi lozim. Buning uchun ushbu jarayonda qo'llaniladigan risklarni diversifikatsiyalash bo'yicha usullar taqqoslanuvchanlik holatiga ega bo'lishi

1 Rasm muallif tomonidan tayyorlandi.

maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shu bilan birga, u yoki bu darajadagi bank riskidan kutilayotgan yo‘qotishlar miqdori bank risklari natijasida ko‘rilishi mumkin bo‘lgan zararlarni qoplash uchun tashkil etilgan zahira fondi (kapitali) ga mutanosib ravishda bo‘lishi kerak. Aks holda, riskli holatning salbiy oqibatlari yuzaga kelishi bankning daromadi yoki foydasiga ta’sir ko‘rsatish orqali bankning oldida turgan rivojlanish imkoniyatlarini pasaytiradi.

5. Risklarni diversifikatsiyalashning daromadliligi va vaqt tejamkorligini ta’minlanganligi tamoyili. Bank risklarini diversifikatsiyalash bo‘yicha qabul qilinadigan qarorlar oxir oqibatda bank uchun tegishli iqtisodiy manfaatdorligini ta’minlashi maqsadga muvofiq. Bank risklarini diversifikatsiyalash asoslari bank faoliyatidagi riskli holatlarning salbiy oqibatlari vujudga kelishi mumkin bo‘lgan hollarda ulardan qochish imkoniyatlarini izlab topish hisoblanadi. Bank tomonidan qabul qilingan risklarni diversifikatsiyalash uchun qiladigan xarajatlari miqdori esa ushbu risklarning salbiy oqibatlari natijasida yo‘qotilishi mumkin bo‘lgan qiymatdan oshmasligi lozim. Bank tomonidan amalga oshiriladigan operatsiya qanchalik uzoq muddat davom etsa ushbu operatsiya bo‘yicha uni ta’qib qiluvchi risk ham shunga muvofiq uzoq muddat yashaydi. Natijada, ushbu risklarni diversifikatsiyalashni ham uzoq muddat davomida olib borilishiga bo‘lgan zaruriyat yuzaga keladi. Bu esa risklarni diversifikatsiyalashdagi tejamkorlik mezoniga qarama-qarshi tarzda namoyon bo‘ladi.

Ba’zi qabul qilingan bank risklari bo‘yicha ularni diversifikatsiyalash imkoniyatlari mavjud bo‘lmasligi mumkin. Undan tashqari, riskli operatsiyani amalga oshirish bankning faoliyat yo‘nalishi va strategiyasida asosiy shart sifatida belgilab qo‘yilgan bo‘lishi mumkin. Bunday hollarda qabul qilingan risklarni faqatgina ularni boshqa bir sug‘urta tashkiloti yoki mazkur operatsiyadagi hamkorlarga o‘tkazib yuborish imkoniyati bo‘lgandagina bankning risk portfeliga kiritish mumkin bo‘ladi.

Iqtisodiyotda bank risklarini diversifikatsiyalash muhim ahamiyat kasb etib, ularni mikrodarajada va makrodarajada ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bank risklarini diversifikatsiyalashning mikrodarajadagi ahamiyati quyidagi rasmda keltirilgan.



2-rasm: Banklarning risklarini diversifikatsiyalashning mikrodarajadagi ahamiyati[2]

Bank risklarini diversifikatsiyalashning makrodarajadagi ahamiyati sifatida mamlakat milliy iqtisodiyotining barqarorligini ta’minlash va iqtisodiy o‘sishga bank tizimining ijobiy ta’siri, milliy valyutaning sotib olish qobiliyatini mustahkamlanishi va inflyatsiyaning me’yoriy darajasini ta’minlanganligi, mamlakat savdo va to‘lov balansida ijobiy qoldiqning vujudga kelishi kabi holatlarni keltirish mumkin.

XULOSA

Bizning nazarimizda, tijorat banklari risklarini diversifikatsiyalashning ahamiyatini mikro va makrodarajadagi jihatlari xususida yanayam kengroq to‘xtash mumkin. Biroq, mazkur masalalar maqolaning keyingi bo‘limlarida u yoki bu ko‘rinishda tadqiq etilishini e’tiborga olib, ular to‘g‘risida batafsil to‘xtalmaslikga qaror qildik.

Xulosa qilib aytganda, bank risklari va ularni diversifikatsiyalash juda ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, ushbu jarayonni samarali yo‘lga qo‘yilishi tijorat banklari moliyaviy barqarorligini ta’minlash va ularning foyda darajasini oshirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

2 Tadqiqotlar natijasiga asoslanib muallif tomonidan tuzildi.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Беляков А.В. Банковские риски: проблемы учета, управления и регулирования (2-е изд). Управленческая методическая разработка. – М: "БДЦ-пресс", 2004 г. – 256 с.
2. Райзберг Б. А., Лозовский Л. Ш., Стародубцева Е. Б. Современный экономический словарь. 5-е изд., перераб. и доп. М.: ИНФРА-М, 2006, 494 с
3. Иода Е.В. Классификация банковских рисков и их оптимизация / Е.В. Иода, Л.Л. Мешкова, Е.Н. Болотина. Под общ. ред. проф. Е.В. Иода. 2-е изд., испр., перераб. – Тамбов: Изд-во Тамб. гос. техн. ун-та. –2002. –120 с.
4. Рыхтикова Н. А. Анализ и управление рисками организации. –2 изд. М.: ФОРУМ, 2010. –240 с.
5. Поморина М.А. Управление рисками как составная часть управления активами и пассивами банка // Банковское дело. –1998. –№3. –С. 1217.
6. Петунии И.М., Поморина М.А. Методы оценки и управления процентным риском. //Банковское дело. –1999. – № 1. – С. 12-16.
7. Кисляков М. Кредитные риски коммерческого банка // Финансовый бизнес 1999. – № 4. – С. 19-22.

TARAQQIYOT PROGRESS ПРОГРЕСС

DAVLAT OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA DAROMAD VA HARAJATLARNING O'ZARO MUTANOSIBLIGI

Gafurov Anvar Bazarbayevich
PhD, Alfraganus university Iqtisodiyot kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan davlat oliy ta'lim muassasalarining tahliliga qaratilgan bo'lib, davlat OTMlar soni, tahsil olayotgan talabalar soni, faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchilar soni va davlat OTMlarni daromad hamda xarajatlarning nisbatan ko'rsatkichlari tahlili yoritilgan. Ushbu tahlilni yoritishdan maqsad davlat OTMlarida moliyaviy erkinlikni nechog'li samarali ekanligini yoritishdan iboratdir.

Kalit so'zlar: davlat, OTM, talaba, daromad, xarajat, professor, o'qituvchi.

Abstract: This article focuses on the analysis of state higher education institutions operating in the Republic of Uzbekistan, the number of state HEIs, the number of students, the number of working professors, and the analysis of the relative indicators of income and expenses of state HEIs. The purpose of this analysis is to clarify how effective financial freedom is in state HEIs.

Key words: public, HEI, student, income, cost, professor, teacher.

Аннотация: В данной статье основное внимание уделяется анализу государственных высших учебных заведений, действующих в Республике Узбекистан, количества государственных вузов, количества студентов, количества работающих профессоров, а также анализу относительных показателей доходов и расходов государственных вузов. Целью данного анализа является выяснение того, насколько эффективна финансовая свобода в государственных вузах.

Ключевые слова: государство, вуз, студент, доход, стоимость, профессор, преподаватель.

KIRISH

Hozirgi kunda ta'lim sohasidagi islohotlar iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishning muhim ko'rsatkichlaridan bo'lib hisoblanadi. Shu sababdan ham yurtumizdan amalga oshirilayotgan Yangi O'zbekistoning dastlabki islohotlari ijtimoiy sohada, xususan, ta'limda amalga oshrish boshlandi. Jumladan, 70 ga yaqin yangi maktablar qurilishi, maktabgacha qamrovni 27 foizdan 70 foizga yetkazilgani, oliy ta'lim muassasalarga qamrov darajasi 9 foizdan 38 foizga oshgani yaqol misol tariqasida ko'rishimiz mumkin. Shu bois ham Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev ta'kidlagandek, "Ta'lim sifatini oshirish – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to'g'ri yo'lidir" [1].

Ta'kidlash joizki, 2019-yilda "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish" konsepsiyasi, 2022-yilda "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi", 2023-yilda yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda 2023-yilda "O'zbekiston-2030" strategiyasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi va boshqa ko'plab normativ hujjatlarda ta'lim sifatini oshirish islohotlari asosiy mezon sifatida qabul qilingan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada keltirilgan ma'lumotlar miqdoriy metodologiyadan shakllantirilgan bo'lib, ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining ma'lumotlari asosida shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi 2024-yil 1-yanvar holatidagi ma'lumotga ko'ra, hozirgi kunda respublikamizda faoliyat yuritayotgan OTM soni 223 tani tashkil etib, shundan, 121 ta davlat, 74 ta nodavlat va 28 ta xorijiy ta'lim muassasalari faoliyat yuritib kelmoqda (1-rasm).



1-rasm: Mulkiy shakliga ko‘ra O‘zbekistondagi OTMlar soni[1]

Respublikamizda tahsil olib kelayotgan soni 1,3 mln.ni tashkil etib. Ushbu talabalarning 992 231 nafari yoki jamiga talabalaga nisbatan 74 foizi 121 ta davlat OTMlarida, 310 649 nafari yoki jamiga nisbatan 23 foizi 74 ta nodavlat OTMlarda va 34 573 nafari yoki jamiga nisbatan 3 foizi 28ta xorijiy OTMlarda tahsil olib kelishmoqda(1-jadval).

1-jadval: Mulkiy shakliga ko‘ra OTMlardagi talabalar soni[2]

№	Mulkiy shakli	Talabalar soni	Jamiga nisbatan foizda
1	Davlat	992231	74
2	Nodavlat	310649	23
3	Xorijiy	34573	3
4	Jami	1 337 453	100

Vazirlik ma’lumotiga ko‘ra, eng ko‘p talabalar soni bo‘yicha O‘zbekiston Milliy universiteti 34 633 nafar talaba bilan yakka peshqadamlikda bormoqda, ikkinchi o‘rinda esa Farg‘ona davlat universiteti (29 784), uchinchi o‘rinda esa Qoraqalpoq davlat universiteti (29201)dir (2-jadval).

2-jadval: Top-10 davlat OTMlar orasida eng ko‘p talabalar soni[3]

№	OTM nomi	Talabalar soni
1	O‘zbekiston Milliy universiteti	34633
2	Farg‘ona davlat universiteti	29784
3	Qoraqalpoq davlat universiteti	29201
4	Urganch davlat universiteti	28487
5	Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti	24166
6	Namangan davlat universiteti	24020
7	Toshkent davlat pedagogika universiteti	23006
8	Chirchiq davlat pedagogika universiteti	22814
9	O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti	22455
10	Termiz davlat universiteti	22387

Keyingi o‘rinda Urganch davlat universitetida 28 487 nafar talabalar tahsil olayotgan dargoh Urganch davlat universitetidir. Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida esa talabalar soni 24 166 nafarni tashkil etib 5-o‘rinni egallamoqda. Namangan davlat univeristetida talabalar soni Toshkent davlat iqtisodiyot universitetidan 146 nafarga kam bo‘lib, keying 6-o‘rini egallamoqda. Toshkent davlat pedagogika universitetida tahsil olayotgan

1 Muallif ishlanmasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ma’lumotlari asosida, https://stat.edu.uz/universities
2 Muallif ishlanmasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ma’lumotlari asosida, https://stat.edu.uz/students
3 Muallif ishlanmasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ma’lumotlari asosida, https://stat.edu.uz/

talabalar soni 23006 nafarni tashkil etib, Namangan davlat univeristetidan salkam 1 014 nafarga kamligini ko‘rishimiz mumkin.

Respublikamizda 121 ta davlat OTMlarida 992 231 nafar talabalar tahsil olib kelishmoqda. Ushbu talabalarga 36 490 nafar professor-o‘qituvchilar ta’lim berib kelishmoqda. Har bir davlat OTMlariga o‘rtacha 302 nafar professor-o‘qituvchilar to‘g‘ri kelmoqda. Davlat OTMlarida 29 ming o‘qituvchilar unvonsiz bo‘lib, ular 80 foizni tashkil etadi (3-jadval).

3-jadval: Davlat OTMlarida faoliyat yuritayotgan o‘qituchilar soni, unvon bo‘yicha[4]

№	Unvoni bo‘yicha	Soni	Jamiga nisbatan foizda
1	Unvonsiz	29079	80
2	Dotsent	5607	15
3	Professor	1428	4
4	Katta ilmiy xodim	376	1
5	Jami	36 490	100

Davlat OTMlarida “dotsent” unvoniga ega bo‘lganlar soni 5 607 nafarni tashkil etib, jami faoliyat yuritayotgan professor-o‘qituvchilarga nisbatan 15 foizini tashkil etmoqda. “Professor” ilmiy unvonga ega bo‘lganlari soni 1428 nafarni yoki davlat OTMlarida faoliyat yuritayotganlarga nisbatan 4 foizni tashkil etadi. “Katta ilmiy xodim” unvoniga ega o‘qituvchilar soni 376 nafar bo‘lib, jamiga nisbatan 1 foizni tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi 2024-yil 1-yanvar xolatidagi ma’lumotga ko‘ra, hozir vaqtda barcha davlat ulushi bo‘lgan OTM soni 121 tani tashkil etib, ularda 16 tasi yoki 22 foizda OTM daromadlari xarajatlarida oshib ketganini ko‘rishimiz mumkin (4-jadval).

4-jadval: Davlat OTMlar daromad va xarajatlar nisbati salbiy ko‘rinishdagi nisbati (mln. so‘m)[5]

№	OTM nomi	Daromad	Xarajat	Farqi	Foizda
1	Buxoro davlat universiteti	322 239,08	368 249,36	-46 010,28	114
2	Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti	361 092,00	399 712,80	-38 620,80	111
3	Urganch davlat universiteti	358 274,91	384 621,16	-26 346,25	107
4	Toshkent kimyo-texnologiya instituti	109 669,35	122 250,85	-12 581,50	111
5	O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti	357 621,00	368 087,44	-10 466,44	103
6	Jizzax politexnika instituti	114 888,90	125 183,30	-10 294,40	109
7	Buxoro muhandislik-texnologiya instituti	134 510,63	142 898,96	-8 388,33	106
8	Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti	91 324,90	97 676,20	-6 351,30	107
9	Samarqand davlat universiteti	326 216,80	332 566,50	-6 349,70	102
10	Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali	66 873,06	72 466,82	-5 593,76	108
11	Namangan muhandislik-qurilish instituti	109 082,20	114 585,70	-5 503,50	105
12	Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti	96 449,50	99 818,00	-3 368,50	103
13	Farg‘ona politexnika instituti	168 917,60	171 019,90	-2 102,30	101
14	Toshkent davlat texnika universiteti Qo‘qon filiali	15 982,14	17 593,01	-1 610,87	110
15	Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti	91 842,70	93 014,30	-1 171,60	101
16	Toshkent kimyo-texnologiya instituti Yangiyer filiali	31 126,30	31 227,50	-101,20	100

Davlat OTMlarida eng ko‘p xarajatlariga ega oliygoh Buxoro davlat universiteti bo‘lib, 2024-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra 322 239 mln. so‘m daromad ko‘rgan bo‘lib, lekin harajatlari 368 249 mln. so‘mni tashkil etib, tavofut qiymati 46 010 mln. so‘m yoki 114 foizni tashkil etmoqda. Ikkinchi navbatda, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti bo‘lib, daromad ko‘rsatkichi 361 092 mln. so‘mni tashkil etgan vaqtda, xarajatlari 399 712 mln. so‘mni tashkil etib, tavofut esa 38 620 mln. so‘m yoki 111 foizni tashkil etgan. Urganch davlat universitetining daromadi 358 274 mln. so‘mni tashkil etib, ushbu universitetning xarajati 384 621 mln. so‘mni tashkil etib, tavofut ko‘rsatkichi 26 346 mln. so‘m yoki 107 foizni tashkil etgan.

4 Muallif ishlanmasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ma’lumotlari asosida, https://stat.edu.uz/

5 Muallif ishlanmasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ma’lumotlari asosida, https://edu.uz/media/eebfe87b-ff02-0b31-6911-ec-76c3bb8e27.pdf

Toshkent kimyo-texnologiya institutining daromad ko‘rsatkichi 109 669 mln. so‘mni tashkil etgan vaqtda, ushbu institutning xarajat ko‘rsatkichi 122 250 mln. so‘m yoki 12 581 mln. so‘m yoki 111 foizni tashkil etmoqda. O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida daromadi 357 621 mln. so‘mni tashkil etgan vaqtda, ushbu dargohning xarajati 368 087 mln. so‘mni tashkil etib, ushbu daromad va xarajat o‘rtasidagi tavofut 10 466 mln. so‘m yoki 103 foizni tashkil etadi.

Keyingi tahlil ko‘rsatkichda, 4-jadvalda qayd etilgan OTMlarda tahsil olayotgan talabalar soni hamda respublika bo‘yicha davlat OTMlarda tahsil olayotgan talabalarga nisbatan foiz bo‘yicha amalga oshiriladi. Buxoro davlat universitetida 46 mln. so‘mlik tavofut mavjud bor holatda 21 704 nafar talabalar tahsil olishmoqda. Ushbu OTMda tahsil olayotgan talabalar soni jami respublika davlat OTMlarda tahsil olayotgan talabalarga nisbati 2,19 foizni tashkil etadi (5-jadval).

5-jadval: Davlat OTMlar daromad va xarajatlar nisbati salbiy ko‘rsatkichiga ega oliygohlardagi talabalar soni[6]

№	OTM nomi	Talabalar soni	Jami davlat OTM talabalariga nisbati foizda
1	Buxoro davlat universiteti	21 704	2,19
2	Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti	24 166	2,44
3	Urganch davlat universiteti	28 487	2,87
4	Toshkent kimyo-texnologiya instituti	8 627	0,87
5	O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti	22 455	2,26
6	Jizzax politexnika instituti	10 524	1,06
7	Buxoro muhandislik-texnologiya instituti	15 223	1,53
8	Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti	6087	0,61
9	Samarqand davlat universiteti	19 795	1,99
10	Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali	5 981	0,60
11	Namangan muhandislik-qurilish instituti	10 651	1,07
12	Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti	5 660	0,57
13	Farg‘ona politexnika instituti	16 342	1,65
14	Toshkent davlat texnika universiteti Qo‘qon filiali	1 494	0,15
15	Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti	9 365	0,94
16	Toshkent kimyo-texnologiya instituti Yangiyer filiali	3 348	0,34

Toshkent davlat iqtisodiyot unvirsitetida 24 166 nafar talaba tahsil olib, jami davlat OTMlarga nisbati 2,44 foizni tashkil etadi. Urganch davlat universitetida 28 487 nafar tahsil olib, ushbu ko‘rsatkich jami davlat OTM talabalariga nisbatan 2,87 foizni tashkil etadi. Toshkent kimyo-texnologiya institutida tahsil olayotgan talabalar soni 8 627 nafar bo‘lib, davlat OTMlarida tahsil olayotgan talabalarga nisbati 0,87 foizni tashkil etib, ushbu oliygohning daromad va xarajatlari o‘rtasidagi tavofut 111 foiz yoki 12 581 mln. so‘mni tashkil etadi.

Davlat OTMlarda daromad va xarajatlarida ijobiy ko‘rsatgichka ega oliygohlarni ko‘rib chiqadigan bo‘lsak. Namangan davlat universitetining daromadi 550 227 mln. so‘mni tashkil etib, ushbu dargohning xarajat ko‘rsatkichi 269 162 mln. so‘mni tashkil etmoqda. Ushbu ta’lim muassasining daromad va xarajat ko‘rsatkichlarida ijobiy 281 065 mln. so‘mni tashkil etmoqda. Namangan davlat universiteti xarajat ko‘rsatkichi daromadining salkam 50 foizni tashkil etgan (6-jadval).

6-jadval: Davlat OTMlar daromad va xarajatlar nisbati ijobiy ko‘rinishdagi nisbati, (mln. so‘m)[7]

№	OTM nomi	Daromad	Xarajat	Farqi	Daromad va xarajat nisbati %da
1	Namangan davlat universiteti	550 227,50	269 162,40	281 065,10	49
2	Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti	513 396,87	386 499,30	126 897,57	75
3	O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti	157 576,70	93 411,90	64 164,80	59
4	Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti	242 127,60	184 503,00	57 624,60	76

6 Muallif ishlanmasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ma’lumotlari asosida, https://edu.uz/media/eebfe87b-ff02-0b31-6911-ec-76c3bb8e27.pdf

7 Muallif ishlanmasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ma’lumotlari asosida, https://edu.uz/media/eebfe87b-ff02-0b31-6911-ec-76c3bb8e27.pdf

5	Navoiy davlat pedagogika instituti	209 970,70	169 533,10	40 437,60	81
6	Nukus davlat pedagogika instituti	255 387,11	215 309,85	40 077,26	84
7	Buxoro davlat pedagogika instituti	114 005,00	76 961,00	37 044,00	68
8	Chirchiq davlat pedagogika universiteti	265 394,70	230 609,10	34 785,60	87
9	Termiz davlat pedagogika instituti	123 045,40	93 076,10	29 969,30	76
10	Farg‘ona davlat universiteti	404 464,20	377 349,30	27 114,90	93
11	Namangan davlat pedagogika instituti	50 705,70	28 130,00	22 575,70	55
12	Andijon davlat universiteti	277 431,50	257 910,40	19 521,10	93
13	Termiz muhandislik-texnologiya instituti	89 135,13	70 922,44	18 212,69	80
14	Samarqand iqtisodiyot va servis instituti	106 914,20	88 941,90	17 972,30	83
15	Toshkent arxitektura-qurilish universiteti	131 725,70	115 064,70	16 661,00	87
16	Toshkent davlat texnika universiteti	321 540,00	304 937,40	16 602,60	95
17	Andijon davlat pedagogika instituti	102 868,55	86 514,54	16 354,01	84
18	Toshkent moliya instituti	247 505,30	231 262,90	16 242,40	93
19	Jizzax davlat pedagogika universiteti	257 467,40	244 742,00	12 725,40	95
20	Qo‘qon davlat pedagogika instituti	189 311,40	177 239,20	12 072,20	94

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetining 513 396,87 mln. so‘m qiymatida daromad ko‘rib, xarajati 386 499 mln. so‘mni tashkil etib, bu shuni anglatadiki, universitetning daromadining 25 foizi sof foyda sifatida qolganini. O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika institutining daromadidan xarajati 64 164 mln. so‘m farq qilib, bu shuni anglatmoqdagi insitutning xarajati jami daromadlarining 59 foizini tashkil etib, 41 foizi sof foyda sifatida qolayotganini. Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutida daromad ko‘rsatkichi 242 127 mln. so‘mni, xarajatlari 184 503 mln. so‘m yoki daromadning 76 foizini tashkil etgan. Demak, Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutining sof foydasi 57 624 mln. so‘mni tashkil etadi. Navoiy davlat pedagogika institutining sof foydasi 40 437 mln. so‘mni tashkil etib, daromadi va xarajatlaridan 40 077 mln. so‘mga ko‘pligini ko‘rsatadi.

Davlat OTMlarda budjet mablaglari va to‘lov shartnomalar bo‘yicha nisbiy ko‘rsatkichga ega oliygohlar tahlili olib boriladi. Statistik ma’lumotga ko‘ra, “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institut” milliy tadqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish institutiga budjet mablag‘lari bo‘yicha moliyalashtirish 23 566 mln. so‘mni tashkil etib, to‘lov shartnoma mablag‘lari bo‘yicha moliyalashtirish 22 049 mln. so‘mni tashkil etib, ushbu ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi tavofut 1 517 mln. so‘mni tashkil etadi (7-jadval).

7-jadval: Davlat OTMlar daromadlari budjet mablag‘lari va to‘lov shartnoma bo‘yicha nisbati (mln. so‘m)[8]

№	OTM nomi	Budjet mablag‘lari bo‘yicha (moliyalashtirish)	To‘lov shartnoma mablag‘lari bo‘yicha daromadlar	Farqi	Talabalar soni
1	“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institut” milliy tadqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti	23 566,60	22 049,30	-1 517,30	3876
2	Namangan to‘qimachilik sanoat instituti	7 712,25	3 397,50	-4 314,75	1675
3	Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti huziridagi Nukus konchilik instituti	9 499,78	5 785,45	-3 714,33	1259
4	O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti	26 370,20	24 514,30	-1 855,90	3887
5	“Sankt-Peterburg Davlat universiteti” Toshkent shahar filiali	670,50	349,50	-321,00	23
6	Toshkent davlat texnika universiteti Qo‘qon filiali	7 819,88	7 630,50	-189,38	1494
7	Rossiya davlat neft va gaz universitetining Toshkent shahridagi filiali	10 810,50	10 748,40	-62,10	750

8 Muallif ishlanmasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ma’lumotlari asosida, https://opendata.edu.uz/vazirlik

Namangan to‘qimachilik sanoat institutining to‘lov shartnoma mablag‘lari bo‘yicha daromadlari (3 397 mln. so‘m) budjet mablag‘lari bo‘yicha moliyalashtirish (7 712 mln. so‘m) kamligi tavofut (4 314 mln. so‘m)da ko‘rsatmoqda. Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti huzuridagi Nukus konchilik institutida ham to‘lov shartnomalar bo‘yicha moliyalashtirish manbasi, budjet mablag‘iga nisbatan kamligini ko‘rsatmoqda. O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetida 3887 nafar talabalar tahsil olishadi, lekin, budjet mablag‘idan moliyalashtirish ko‘rsatkichi yuqoriligini ko‘rsatmoqda.

XULOSA

Ushbu tadqiqotdagi statistik ma’lumotlari asosida shuni xulosa qilish mumkin. Buxoro davlat universiteti, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Urganch davlat universiteti, Toshkent kimyo-texnologiya instituti, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti va Samarqand davlat universiteti hamda Toshkent davlat sharqshunoslik universitetlarida daromadlaridan xarajatlari yuqori ko‘rsatkichga ega ekanligini, lekin 2021-yil PQ-61-sonli “Davlat oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident qarorida 35 ta davlat OTMlarga 2022-yil 1-yanvardan moliyaviy mustaqillik berilgan bo‘lib, xususan unda:

1. Ta’lim xizmatlari bozoridagi talabni inobatga olgan holda to‘lov-kontrakt asosida o‘qitish qiymatini belgilash;
2. Bo‘sh turgan bino va inshootlarda pullik xizmatlar ko‘rsatish tartibini belgilash qayd etilgan.

Lekin, vazirlikning statistik ma’lumotlariga ko‘ra 7 ta davlat OTMlarida daromad va xarajat ko‘rsatkichlarida salbiydir. Balkim, pandemiya ta’siridir, lekin unday bo‘lsa, qolgan 28ta davlat OTMlarida unday emas.

Mazkur tahlil yuqoridagi OTMlar uchun keyingi o‘quv yilida moliyaviy boshqaruvini ijobiy tomonga o‘zgarishiga xizmat qiladi.

Foydanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi, https://president.uz/oz/lists/view/5774
2. https://www.researchgate.net/publication/24078556_Improving_the_Performance_of_the_Education_Sector_The_Valuable_Challenging_and_Limited_Role_of_Random_Assignment_Evaluations.
3. https://www.researchgate.net/publication/374938753_Education_Reform_as_a_Global_Phenomenon.
4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, https://stat.edu.uz/
5. https://www.researchgate.net/publication/357226881_Discourses_of_globalisation_and_higher_education_reforms.
6. Aucoin, P. 1990. Administrative reform in public management: Paradigms, principles, paradoxes and pendulums. Governance 3(2): 115–137.
7. Florez, J.M., M.V. Lopez, and A. Lopez. 2014. Corporate governance, analysis of the top 100 universities in the Shanghai ranking. Revista de Educacio´n 364: 170–196.
8. Trakman, L. 2008. Modelling university governance. Higher Education Quarterly 62(1/2): 63–83.
9. Leitner, K.H., Elena, S., Fazlagic, J., Kalemis, K., Marinaitis, Z., Secundo, G., Sicilia, M.A., and Zaksa, K. 2014. A strategic approach for intellectual capital management in European universities. Guidelines for Implementation, UEFISCDI Blueprint Series.

TO‘G‘RIDAN TO‘G‘RI XORIJIY INVESTITSIYALARNING O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TA’SIRI: TAHLIL VA ISTIQBOLLAR

Raxmanov Bekzod Ibragimovich
O‘zbekiston Milliy universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Iqtisodchilar tomonidan to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning milliy iqtisodiyotni rivojlanishiga va aholining iqtisodiy farovonligiga ta’siri yuqori ekanligi ko‘p marotaba takidlangan. Ilmiy izlanishimizdan asosiy maqsad jahonda va O‘zbekistonda vujudga kelgan to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning dinamikasini va tarkibini o‘rganib O‘zbekiston uchun qo‘yilgan maqsadlarga erishish uchun ilmiy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: To‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar, kraudfanding, davlat-xususiy sherikchilik.

Abstract: Economists have repeatedly emphasized the high impact of foreign direct investments on the development of the national economy and the economic well-being of the population. The main goal of our scientific research is to study the dynamics and structure of foreign direct investments in the world and in Uzbekistan to give scientific proposals to achieve the goals set for our country.

Key words: Foreign direct investment, enterprises with foreign capital, crowdfunding, public-private partnership.

Аннотация: Экономисты неоднократно подчеркивали высокое влияние прямых иностранных инвестиций на развитие национальной экономики и благосостояние населения страны. Основной целью наших научных исследований является изучение динамики и структуры прямых иностранных инвестиций в мире и в Узбекистане с целью выработки научных предложений для достижения поставленных перед нашей страной целей.

Ключевые слова: Прямые иностранные инвестиции, предприятия с участием иностранного капитала, краудфандинг, государственно частное партнёрство.

KIRISH

Bugungi kunda O‘zbekiston iqtisodiyotini yanada rivojlantirish va xalqimizning turmush darajasini oshirishda to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning roli beqiyosdir.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan mamlakatimizda investitsion muhitni yaxshilashga qaratilgan bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlar natijasida O‘zbekiston xalqaro investorlar uchun tobora jozibador mamlakatga aylanmoqda. Shuni ta’kidlash joizki, O‘zbekiston Hukumati tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar va qabul qilinayotgan qonunlar xorijiy investorlarga katta imkoniyatlar yaratmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022-yildagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.08 2018 yildagi “O‘zbekiston Respublikasi investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5495-son Farmoni va boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlardagi maqsadlarga erishishda ilmiy maqola muayyan darajada xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Investitsiyaning mamlakatga jalb qilinishini bazi jihatlarini milliy olimlardan B.Mamatov, D.Xujamkulov, O.Nurbekov, A.SH.Bekmurodov, Y.A.Karriyeva, I.U.Nematov, D.H.Nabiyev va N.T.Kattayev bazi jihatlarini o‘zlarining adabiyotlarida aks ettirishgan.

B.Mamatov, D.Xujamkulov va O.Nurbekovlarning “Xorijiy investisiyalar” nomli kitobida ular xorijiy investitsiyalarga quyidagicha tarif berib o‘tadilar: “Investitsiya - iqtisodiyotni rivojlalltirish maqsadida o›z mamlakatida yoki xorijda turli tarmoqlarga, ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarga, innovatsiya, tadbirkorlik loyihalariga uzoq muddatli kapital kiritish (qo‘yish)dir” [1]. Ammo, investitsiyaga berilgan ushbu ta’rif bizning fikrimizcha investitsiyaning to‘liq mohiyatini aks ettirmaydi va uni boshqa turdagi kapital oqimlaridan ajratishimizning inkoniyatini bermaydi.

Investitsiya – bu daromad olish maqsadida qo‘yilgan aktivlardir [2]. Bu ta’rif juda qisqa bo‘lib u investitsiyalar tushunchasini to‘liq yoritib bermaydi. Yuqorida keltirilgan ikkita ta’riflarning asosiy kamchiliklari sifatida nafaqatki moddiy kapital balki intelektual mulk ham bir mamlakatdan ikkinchisiga o‘tishi mumkinligi ochib berilmaydi. Intelektual boyliklarning o‘rni mavjudligini A.SH.Bekmurodov, Y.A.Karriyeva, I.U.Nematov, D.H.Nabiyev va N.T.Kattayevlarnin bergan ta’riflarida biz uchratishimiz mumkin: “Investitsiya deyilganda barcha turdagi milliy va intellektual boyliklar tushunilib, ular tadbirkorlik faoliyati obyektlariga yo‘naltirilib daromad keltirishi yoki biror-bir ijobiy samaraga erishishi zarur. Investitsiya kiritishdan asosiy maqsad daromad olish va ijobiy ijtimoiy samaraga erishishdir degan fikr bildirishdi” [3]. Bu ta’rifda biz “ijobiy samaraga erishishi zarur” degan fikrlarini ijobiy samaraga erishish maqsadida yo‘naltiriladi deb o‘tishimiz investitsiyaning mohiyatini ko‘proq ochib beradi deb o‘ylaymiz, sababi investorlar o‘zining faoliyati jarayonida tavkkalchilik mavjudligini bilishadi va ijobiy samara olishini aniq bilmasa ham unga erishishga harakat qilishadi.

2019-yilda investitsiya va investitsiya faoliyati to‘g‘risidagi qonun chiqqan bo‘lib unga muvofiq: Investitsiyalar – investor tomonidan foyda olish maqsadida ijtimoiy soha, tadbirkorlik, ilmiy va boshqa faoliyat turlari obyektlariga tavakkalchiliklar asosida kiritiladigan moddiy va nomoddiy boyliklar hamda ularga bo‘lga nhuqular, shu jumladan intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan huquqlar, shuningdek reinvestitsiyalar bo‘lib, ular quyidagilarni o‘z ichi olishi mumkin:

- mablag‘larni, shu jumladan pul mablag‘larini (shu jumladan chet el valyutasini), maqsadli bank omonatlarini, paylarni, ulushlarni, aksiyalarni, obligatsiyalarni, veksellar va boshqa qimmatli qog‘ozlarni;
- ko‘char va ko‘chmas mulkni (binolar, inshootlar, uskunalar, mashinalar va boshqa moddiy qimmatliklarni);
- intellektual mulkka doir mulkiy huquqlarni, shu jumladan u yoki bu ishlab chiqarish turini tashkil etish uchun zarur bo‘lgan, texnik hujjatlar, ko‘nikmalar va ishlab chiqarish tajribasi tarzida rasmiylashtirilgan, patentlangan yoki patentlanmagan (nou-xau) texnik, texnologik, tijoratga oid va boshqa bilimlarni, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligida taqiqlanmagan boshqa qimmatliklarni [4].

Mazur qonunda investitsiyalarning mohiyati qolgan ta’riflarga nisbatan ko‘proq ochib berilgan degan fikrga keldik va tadqiqotimizni olib borishda ushbu ta’rifdan kelib chiqqan holda amalga oshirdik. Mazkur adabiyotlarda investitsiyaning iqtisodiy o‘sish bilan bog‘liqligi to‘g‘risida izlanishlar olib borilganligiga qaramasdan dunyodagi bir qator o‘zgarishlar, shu jumladan COVID-19 pandemiyasining kelib chiqishi va uning TTXIning oqimi va uni tarkibiga ta’siri ilmiy izlanishlarning davom ettirilishi muhim ahamiyat kasb etishini taqozo etmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada ilmiy-abstraksiya, mantiqiy fikrlash, induksiya, deduksiya, qiyosiy tahlil kabi ilmiy tadqiqot usullardan keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xorijiy investitsiyalar mamlakatning rivojlanishi uchun afzalliklari ko‘p bo‘lib ularni ajratish uchun asosan iqtisodchilar tomonidan to‘g‘ridan to‘g‘ri va moliyaviy (portfel) investitsiyalarga bo‘lib o‘rganiladi. Bunda to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar odatda korxonaga xorijiy investor tomonidan kapitalning to‘g‘ri kirib kelishini nazarda tutsa portfel investitsiyalar esa qimmatbaho qog‘ozlar orqali amalga oshiriladi. Ularning asosiy farqi shundan iboratki portfel investitsiyalarda agar investor ma’lum darajadagi salbiy ko‘rsatkichlarni korxonada vujudga kelishini kutsa u o‘zining kapitalini chiqarib boshqa korxonaga qo‘yiishi mumkin bo‘ladi. Shuning uchun ham portfel investitsiyalar o‘zining stabil emasligi bilan ajralib turadi.

Demak, to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalarga bo‘lgan etiborini mamlakat kuchaytirishi kerak. Bu turdagi investitsiya mamlakat uchun bir qator afzalliklarni olib kelishi mumkin. Shu jumladan:

1. **Texnika taraqqiyotini rivojlanishi.** Xorijiy mamlakatdan investor kirib kelganida u o‘zining nisbiy ustunligidan foydalanib oladigan foydasini maksimallashtiradi.
2. **Mamlakatdan eksport qilinadigan mahsulotlarning diversifikasiyalashuvi.** Turli xil mahsulotlar eksport qilinsa bu o‘z navbatida risklarni kamaytirishga olib keladi va mamlakatning barqarorligini oshiradi.
3. **Kadrlarning malakasini oshishi.** Yangi texnologiya kirib kelishi bilan undan kadrlarni samarali foydalanishini ta’minlash maqsadida investor kadrlarni malakasini oshirib borishi kerak bo‘ladi
4. **Raqobatning o‘sishi.** Mamlakatda milliy korxonalar agar bankrot bo‘lishni istashmasa turli xil usullar bilan kirib kelgan korxona bilan raqobat qilishga majbur bo‘ladi, buning uchun esa narxlarni pasaytirishi, yangi texnologiyalardan foydalanishi yoki boshqa turdagi strategiyalarni ishlatishi kerak bo‘ladi. Bu esa o‘z navbatida mamlakatning rivojlanishiga olib keladi.

Yuqorida xorijiy to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalarning jalb qilinishining afzalliklarini faqat bir qismigina aks ettirilgan.

O‘zbekistonga xorijiy investitsiyalar ishtirokida tashkil qilingan korxonalarning dinamikasini quyidagi chizmaga qarab o‘rganishimiz mumkin.

1-rasm: O‘zbekistonda 2017–2021-yillarda xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning sonini o‘zgarishi [5]

2017-yilda ushbu grafikda biz xorijiy kapital ishtirokiga korxonalarning soni 5517 ga yetgan ekanligini, xuddi shu yilning o‘zida 863 yangi korxonalar ro‘yxatdan o‘tganligini va faoliyatini tugatgan tashkilotlar soni faqat 354 tabo‘lganini ko‘rishimiz mumkin.

2019-yilda faoliyatini yuritib borayotgan korxonalarning soni 1382 yigit ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Xuddi shu davrning o‘zida 3330 yangi korxonalar tashkil qilingan va atigi 58ta korxona o‘zining faoliyatini tugatgan.

2020-yilda global bo‘lgan muammolarning vujudga kelishi natijasida ushbu ko‘rsatkichida bir qator o‘zgarishlarni kuzatamiz. Ammo ushbu muomalaga qirimizda o‘zbekistonda faoliyatini doimiy turit konsonalar soni 11781 taga yetgan va o‘tgan yilga nisbatan o‘sish suratini o‘zida aks ettirgan. Ushbu yilning o‘zida 1715 ta yangi korxona vujudga kelib faqat 316 tasi faoliytini to‘xtatgan.

2021-yilda COVID-19 va boshqa global muammolarning to‘xtashi natijasidao‘zbekistonda yangi tashkil etilgan korxonalar soni 2000 dan oshgan va faoliyatini yuritib borayotgan jami korxonalar soni yana ijobiy suratga ega bo‘lgan.

Yuqoridagi ma’lumotlardan biz O‘zbekistonga kirib kelayotgan xorijiy investitsiyalarning suratlarini va xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining o‘sib borayotganini ko‘rishimiz mumkin.



2-rasm: 2013–2023-yillar davomida dunyoda to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning oqimi dinamikasi [6]

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Ushbu ma'lumotlardan biz 2013–2015-yillarda investitsiya oqimining dunyodagi eng yuqori o'sish suratlariga erishilganini ko'rishimiz mumkin, bunda 2015-yilda 2 trln. AQSH dollariga yaqin miqdorda TTXIlarning oqimi amalga oshirilgan. Ammo 2015–2018-yillar davomida to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiya oqimi pasayib borgan va 2019-yilda yana os'ish suratlari boshlanganida COVID-19 pandemiyasining natijasi sifatida 2020-yilda yana bu ko'rsatkichning pasayishi kuzatilgan. 2020-yildagi TTXI oqimining surati eng minimal nuqtasiga to'g'ri kelyapti, sababi pandemiya davrida uning qancha davom etishini hech kim bilmaganida, firmalar qachon o'zining faoliyatini yana davom etishi aniq bo;lmagan sharoitda investorlar ham o'zlarining kapitalini saqlab qolishga harakat qilishgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonga to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay shart sharoitlarni yaratib berish uchun quyidagi takliflarni kiritamiz:

- **Jozibali soliq rejimini yaratish:** Strategik ahamiyatga ega bo'lgan yuqori texnologiyali sohalarga va iqtisodiyotning muhim tarmoqlariga investitsiya kiritadigan korxonalar uchun rag'batlantiruvchi soliq imtiyozlarini ishlab chiqish zarurdir.
- **Infratuzilmani rivojlantirish:** transport, aloqa va ishlab chiqarish infratuzilmasini yaxshilash xorijiy kapital korxonalarning samarali faoliyat yuritishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratib yangi investitsiyalarni jalb etishga yordam beradi.
- **Ta'lim va kadrlar tayyorlash:** ta'lim tizimiga va kasbiy tayyorgarlikka investitsiya kiritish mahalliy darajada korxonalarga malakali mutaxassislar bilan ta'minlashga yordam beradi;
- **Investitsiyalarni ustuvor sektorlarga jalb qilish:** iqtisodiyot uchun eng ko'p qo'shimcha qiymat keltiradigan sohalarga, masalan, qayta tiklanadigan energiya manbalari, farmatsevtika va boshqalarga investitsiyalarni jalb qilishga urinish kerak
- **Shaffoflik va hisobot berish:** korporativ boshqaruv prinsiplarini mustahkamlash va yuqori darajadagi shaffoflik va hisobot berishni ta'minlash korxonalarning obro'zini vanvestorlar uchun jozibadorligini oshirishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. B.Mamatov, D.Xujamkulov, O.Nurbekov. "Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. Darslik. –T.: Iqtisod-Moliya, 2014. –608 bet.
2. https://www.investopedia.com/terms/i/investment.asp
3. A.SH.Bekmurodov, Y.A.Karriyeva, I.U.Nematov, D.H.Nabiyev, N.T.Kattayev "Xorijiy investitsiyalar". O'quv qo'llanma. –T: Iqtisodiyot, 2010. –150 bet.
4. O'zbekiston Respublikasining 25.12.2019 y. O'RQ-598-son "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuni (Qonunchilik palatasi tomonidan 09.12.2019 y. qabul qilingan, Senat tomonidan 14.12.2019 y. ma'qullangan).
5. https://yuz.uz/uz/news/ozbekiston-iqtisodiyotida-xorijiy-investitsiyalar-ishtirokidagi-korxonalarning-orni-qanday.
6. https://www.oecd.org/investment/statistics.htm

ИННОВАЦИОННЫЙ И РАЗВИВАЮЩИЙ МЕНЕДЖМЕНТ В СФЕРЕ УСЛУГ

Аҳтамова Моҳигул Эркиновна
Ph D, исполняющий обязанности доцента, Самаркандского института экономики и сервиса

Аннотация: В статье показана необходимость применения инновационного управления в сфере услуг. Проанализированы основные научные подходы к инновационному управлению и выбраны подходы, наиболее рациональные для управления сферой услуг в целом и её предприятиями.

Ключевые слова: инновационный процесс, процессный подход, инновационный маркетинг, сервисная сфера.

Annotatsiya: Maqolada xizmat ko‘rsatish sohasida innovatsion boshqaruvni qo‘llash zarurligi ko‘rsatilgan. Innovatsion menejmentga asosiy ilmiy yondashuvlar tahlil qilindi va umuman xizmatlar sohasini va uning korxonalarini boshqarish uchun eng oqilona yondashuvlar tanlandi.

Kalit so‘zlar: innovatsion jarayon, jarayonga yondashuv, innovatsion marketing, xizmat ko‘rsatish sohasi.

Abstract: In article, necessity of application of innovative management for sphere of services is shown. The basic scientific approaches to innovative management are analysed and approaches, the most rational for management of sphere of services in whole and its enterprises are chosen.

Key words: innovative process, process approach, innovative marketing, service sphere.

ВВЕДЕНИЕ

В современных условиях хозяйствования одним из главных показателей развития сферы услуг является конкурентоспособность услуг, которая непосредственно связана с уровнем инновационной деятельности на каждом сервисном предприятии.

Современная экономика представляет собой сложный механизм хозяйствования, в котором взаимодействуют различные структурные элементы коммерческого, производственного, информационного и финансового характеров, для успешного функционирования которого необходимы экономические преобразования, учитывающие интересы регионов, отраслей, предприятий и общества в целом.

Результаты экономических преобразований на основе активизации инновационной деятельности и инновационного менеджмента получают реальное экономическое содержание только через систему связей с материальным производством, сопровождаемое увеличением показателей функционирования каждого предприятия сферы услуг.

Основной целью инновационной политики предприятия сферы услуг является создание и развитие базы для проведения эффективных преобразований его экономики, когда на первый план выходит инновационный бизнес как объект управления [2].

АНАЛИЗ ЛИТЕРАТУРЫ ПО ТЕМЕ

В настоящее время к освещению описания услуг в экономической литературе можно привести и другие понятия. Согласно подходу Р.Малери, “услуги – это нематериальные активы, созданные с целью продажи”.

И.С.Абдуллаев, Б.Н.Гузибоев, С.Ф.Аллайоров считает, что понятие сервиса имеет более широкий смысл, чем понятие сервиса. То есть оказание услуг – это любая деятельность, направленная на достижение какого-либо эффекта. Доказательством нашего мнения является и то, что в систему национальных счетов как отрасль экономики включена термин сфера услуг.

Существуют различные подходы к освещению сущности категории “качество” зарубежными и отечественными учеными-экономистами. Подчеркивая успех развития японской экономики, ученый Е.Деминг считает, что качество является важным звеном производственной системы. Качество должно быть направлено на максимальное удовлетворение потребностей сейчас и в будущем.

Д.Гарвин выделяет пять критериев качества:

- соответствие техническим характеристикам лучших аналогичных товаров; соответствие стандарту;
- степень соблюдения точности во всех производственных процессах; соответствие качества платежеспособному спросу;
- соответствие качества требованиям покупателей.

Согласно его подходу, никакие выбранные критерии поддержки качества не могут быть нарушены – если бренд радикально отстает, то он не может считаться качественным.

Зарубежными специалистами принято разделять сферу менеджмента качества на две группы. Согласно первому, демонстранты считают необходимым, чтобы конкурентный мир полностью отказался от методов работы и первоначальных подходов к созданию новых форм управления. Подходы второй группы ученых намного проще. Они считают, что постоянное совершенствование существующей системы подразумевает сосредоточение внимания на качестве и позволяет компаниям выживать и оставаться конкурентоспособными.

Ф.Кросби, А.Фейгенбаумы принадлежат. Д.Джуран – “американский специалист в области качества, академик Международной академии качества. Он оправдал переход от контроля качества к управлению качеством”.

МЕТОДИКА ИССЛЕДОВАНИЯ

В исследовании использованы методы прогнозирования на ближайшие годы на основе обобщения, сравнительного анализа и статистических данных для устойчивого развития управления в сфере услуг, повышения качества и эффективности деятельности сервисных предприятий и внедрения инновационных методов повышения конкурентоспособности.

АНАЛИЗ И РЕЗУЛЬТАТЫ

В качестве инновации в сервисной сфере выступает результат инновационной деятельности (услуга, технология, методы организации сервисной деятельности и управления), способствующий удовлетворению общественных потребностей. Инновационные формы обслуживания характеризуются новой сферой применения, сокращением времени обслуживания, созданием более качественных услуг, что позволяет привлечь новых потребителей [4].

Проявление инновационной деятельности обусловлено рядом факторов, к основным из которых можно отнести следующие:

- пространственная функция региона в общественном разделении труда;
- государственная и региональная политика системы поддержки малого бизнеса в сфере услуг;
- наличие конкурентных предложений по выпускаемой услуге, емкость рынка услуг;
- инновационный потенциал развития сферы услуг различной отраслевой направленности.

Инновационная деятельность как результирующая качественных изменений в экономике предприятий концентрирует в себе влияние всех факторов и подвержена изменениям в зависимости от степени участия потребителя в инновационном процессе. В связи с этим возникает необходимость формирования систем управления инновационными процессами, определения организационной структуры и функций ее подразделений.

Система инновационного процесса представляет собой совокупность инноваций, инновационного потенциала предприятия (региона) и инновационной инфраструктуры. Последняя составляющая создает конкретные финансовые, организационные, производственные и социальные условия реализации инноваций путем информационного обеспечения, материально-технического и организационного обслуживания, что непосредственно влияет на формирование на предприятии необходимого уровня инновационного потенциала [1].

Инновационный процесс как объект управления, имеет ряд объективных закономерностей, основными из которых являются: вероятностный характер освоения новшеств по срокам, затратам и результатам, затрудняющий планирование инновационных процессов в сфере услуг; ориентация на удовлетворение конкретных потребностей. В то же время инновационная деятельность в сфере услуг имеет социальную направленность, т.к. социальные потребности, способствующие повышению жизненного уровня населения, стимулируют развитие соответствующих видов деятельности, обеспечивая рост экономической и социальной сфер производства.

Инновации в сфере услуг должны удовлетворять определенные потребности как у производителей, так и потребителей сервисных услуг, обеспечивая в то же время достижение целей сервисного предприятия, повышение эффективности его функционирования, увеличение прибыльности и стабилизацию рыночных позиций. Управление инновационными процессами должно базироваться на основных научных принципах: ориентации на потребителя, системности, приоритетности, согласованности со всеми участниками инновационного процесса и т.д. Это требует разработки стратегии инновационного управления, основным элементом которой являются долгосрочные цели инновационного развития, интегрированные в систему стратегических целей предприятия сферы услуг, направленные на достижение конкурентных преимуществ и выживание в долгосрочной перспективе.

При этом большое значение в инновационном управлении предприятием сферы услуг должно придаваться маркетинговым и организационным составляющим, позволяющим анализировать рынок услуг, проводить комплексное исследование всей совокупности потребительских характеристик услуг, возможностей их распространения на другие рынки. Маркетинговая концепция инновационного управления развитием предприятия сферы услуг в своей основе представляет адаптацию к нуждам и запросам потребителей.

Активное использование маркетинговой концепции вытекает из требований рыночной ориентации управленческой деятельности в сфере услуг, определяющими признаками которой являются: ориентация на создание ценностей для потребителя услуг, формирование его потребностей; учет специфических потребностей партнеров, ориентация на микроокружение, конкурентов; мониторинг среды, анализ альтернативных изменений (технологических, организационных, социальных), определяющих благоприятные возможности для развития предприятия или угрозы; функциональная интеграция при формулировании стратегии и использование знаний для оценки потребностей и проблем потребителя.

Формулирование и развитие системы управления инновационными процессами в сфере услуг в значительной мере зависит от характеристики этапов жизненного цикла услуги, параметров внешней и внутренней среды предприятия, инновационного потенциала, финансового обеспечения инновационных преобразований.

Принято выделять пять фаз жизненного цикла услуги: создание, разработка и планирование сервисного продукта; внедрение на рынок; рост объемов реализации услуг; насыщение рынка и сокращение реализации услуг, требующее дальнейшего ее обновления, улучшения качественных параметров. Увеличение фазы жизненного цикла – роста объема продаж – возможно за счет модернизации оборудования, разработки новых приборов и приспособлений, поиска наиболее эффективных форм организации инновационного управления.

При этом стратегическая инновационная цель выступает как средство достижения приоритетных целей предприятий. По содержанию цели формируются либо наступательная инновационная стратегия, направленная на достижение лидирующего положения на рынке услуг, либо стабилизационная, направленная на удержание завоеванных позиций [3].

Среди многих научных подходов к инновационному управлению (системный, воспроизводственно-эволюционных, функциональных, маркетинговых, нормативных, процессного и др.) для сферы услуг и ее предприятий можно выделить наиболее рациональные для применения как для управления сферой услуг региона в целом, так и для предприятий сервиса, среди которых большое число малых форм. Для регионального инновационного управления сферой услуг нам представляется рациональным применение системного подхода, который, базируясь на исследовании объектов управления как систем, позволяет повысить организованность, качество и эффективность управления и эффективность управляемых объектов.

Для предприятий сферы услуг и сервиса можно рекомендовать процессный и маркетинговый подходы к инновационному менеджменту. Процессный подход рассматривает функции управления как взаимосвязанные действия по стратегическому маркетингу, планированию, организации процессов, учету и контролю, мотивации, координации [3]. Центральной функцией инновационного менеджмента в этом случае является координация, организующая взаимодействие и согласованность работы подразделений предприятия, что наиболее рационально для средних и крупных сервисных центров.

TARAQQIYOT PROGRESS

ВЫВОДЫ И ПРЕДЛОЖЕНИЯ

Маркетинговый подход к инновационному управлению предусматривает ориентацию на потребителя, когда стратегия сервисного предприятия должна осуществляться на основе анализа стратегических потребностей в определенных услугах, стратегической сегментации рынка, прогнозировании жизненного цикла услуги, анализе конкурентоспособности услуги и др. В новых условиях хозяйствования каждый потенциальный потребитель становится фактической основой технического задания на проведение маркетингового исследования, причем первостепенное значение придается проникновению (диффузии) новшеств на рынок услуг (стратегия продвижения), формированию каналов сбыта и позиционированию инноваций на рынке (оперативный инновационный маркетинг). Инновационный маркетинг является эффективным инструментом в борьбе за конкурентные преимущества, что доказано опытом развитых стран.

Применение маркетингового подхода подразумевает следующие приоритеты при выборе критериев управления:

- повышение качества услуги в соответствии с нуждами потребителя;
- экономия ресурсов у потребителей за счет повышения качества сервиса;
- экономия ресурсов и производителя услуг за счет совершенствования системы инновационного менеджмента.

Таким образом, в целях повышения конкурентоспособности предприятий сферы услуг необходимо применять инновационный менеджмент, что позволит завоевать новые рынки сбыта услуг, привлечение новых потребителей за счет использования эффективных средств, предметов труда, методов и инструментов управления, обеспечить более устойчивое функционирование предприятия в долгосрочном периоде развития.

Литература:

1. Бовин А.А. Управление инновациями в организации. –М.: “Омега-Л”, 2008. - С.415.
2. Лацоник У. Теория инновационного предприятия. – Terra economicus: сб. статей российских и зарубежных экономистов начала XXI века / М.: НаукаСпектр, 2008. - С.672.
3. Фатхутдинов Р.А. Инновационный менеджмент. – М.: “Питер”, 2003г.
4. Федцов В.Г., Федцов В.В. Предпринимательство (сфера сервиса). – М.: “Дашков и К”, 2002г.
5. Ахтамова М. Э., Уразов С. Ш. Негосударственные способы применения опыта развитых стран для повышения эффективности образовательных услуг в Узбекистане //Архивариус. – 2021. – Т. 7. – №. 4 (58). – С. 37-40.
6. Ахтамова М. Э. Основные направления повышения эффективности экотуризма на основе формирования регионального экотуристического кластера в Самаркандской области //IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2021. – Т. 1. – №. 4. – С. 76-80.
7. Ahtamova M. E. Directions of using foreign experience in the provision of ecological tourism services in the economy // The American Journal of Management and Economics Innovations. – 2021. – Т. 3. – №. 09. – С. 38-44.
8. Ахтамова М. Э. Возможности развития и совершенствования инфраструктуры экотуризма в Самаркандской области //Архивариус. – 2020. – №. 2 (47). – С. 110-113.
9. Ahtamova M. E. factors increasing the efficiency of environmental tourism services in samarkand region //World Economics and Finance Bulletin. – 2021. – Т. 3. – С. 12-15.
10. Ахтамова М. Самарқанд вилоятида экологик туризмни ривожланиш тенденциялари //Общество и инновации. – 2021. – Т. 2. – №. 9/S. – С. 308-316.
11. Ахтамова М. Э., Собирова Ш. Б. Проблемы подготовки квалифицированных кадров в сфере услуг в инновационной технологии цифровой экономики //Российская экономика: взгляд в будущее. – 2020. – С. 25-28.

ISHSIZLARNI KASB-HUNARGA O‘QITISH ASOSIDA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH

Bakiyeva Iroda Akbarovna
I.f.n., TDIU, Inson resurslarini boshqarish kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada global o‘zgarishlarning mehnat bozoriga ta’siri, ishsizlik muammolari va ishsizlarni kasb-xunarga o‘qitish asosida raqobatbardoshligini oshirish masalalari yoritilgan. Ishsizlarni zamonaviy kasb-hunarga o‘qitish zarurati nazariy jihatdan tadqiq qilinib, respublikada ishsizlik darajasi, ishsizlarni kasbga o‘qitish va ishga joylashtirish chora-tadbirlari tahlil qilingan. Ishsizlarni zamonaviy kasb-hunarga o‘qitish samaradorligini oshirish bo‘yicha umumiy xulosalar qilinib, ular asosida takliflar ishlab chiqililgan.

Kalit so‘zlar: Mehnat bozori, ishsizlik, kasb-xunarga o‘qitish, raqobatbardoshlik, ish bilan bandlik.

Abstract: This article examines the impact of global changes on the labor market and unemployment rates. The issues of training the unemployed in modern professions were theoretically studied, the unemployment rate in the republic was analyzed, and measures of vocational training and employment of the unemployed were studied. Based on the findings obtained, scientifically based proposals have been developed to increase the effectiveness of training the unemployed in modern professions.

Key words: labor market, unemployment, vocational training, competitiveness, employment.

Аннотация: В данной статье рассматривается влияние глобальных изменений на рынок труда и уровень безработицы. Теоретически исследованы вопросы обучения безработных современным профессиям, проанализированы уровень безработицы в республике, изучены меры профессиональной подготовки и трудоустройства безработных. На основе полученных выводов по повышению эффективности обучения безработных современным профессиям разработаны научно обоснованные предложения.

Ключевые слова: рынок труда, безработица, профессиональное обучение, конкурентоспособность, занятость.

KIRISH

Zamonaviy global makonda dunyo mamlakatlari o‘zining ichki siyosatini yuritishda barqarorlikka tahdid soladigan ishsizlik, iqlim o‘zgarishi, epidemiyalar, iqtisodiy inqiroz kabi muammolarni hal qilish bilan bog‘liq chora-tadbirlarni amalga oshirishlari talab qilinmoqda. So‘nggi o‘ttiz yillikda ishsizlik muammosi nafaqat rivojlanayotgan, balki rivojlangan mamlakatlarning og‘ir nuqtasiga aylanib bormoqda. Ishsizlik ommaviy qashshoqlikka, ish haqining pasayishiga olib keladi, ijtimoiy va siyosiy barqarorlikka tahdid soladi. Xalqaro Mehnat Tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, 2020-yilda dunyoda 400 million ishsiz odam borligi qayd etilgan (sayyora aholisining 5,26 foizi). Ayniqsa, ishsizlikning o‘sishi COVID-19 pandemiyasining ta’siri tufayli avjiga chiqdi [1]. XMT Bosh direktori Gay Rayder global ishsizlik kamida 2023-yil oxirigacha inqirozdan oldingi darajadan yuqori bo‘lishi kutilayotgani hamda inqirozga ikki yil bo‘lganiga qaramay, istiqbol noaniqligicha qolishi, tiklanish esa zaif bo‘lib qolayotganligini ta’kidlagan [2].

Dunyo mamlakatlari iqtisodiyotida yuz berayotgan global o‘zgarishlar O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida ham o‘z aksini topmoqda. Natijada mehnat bozorida ish beruvchilarning yollanma xodimlarga bo‘lgan talabi ortib, bu talablar xodimlarning ta’lim, kasb va malaka darajalari, amaliy tajribalari hamda shaxsiy xislatlarida aks etmoqda. Shu bilan birga, mehnat bozoridagi transformatsiyalar bo‘sh ish o‘rinlarida yangi sharoitlarni yuzaga keltirishi natijasida yollanma xodimlarning zamonaviy kasblarni egallaganligi hamda ularning malaka darajalariga qo‘yiladigan talablarni ortib borayotganligidan daololat bermoqda. Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki hozirgi davrda mehnat bozoridagi muammolar yetarli darajada o‘z yechimini topmagan va hozirgi kunda yuz berayotgan xodisalar fonida bir qancha salbiy tendensiyalar, jumladan, mamlakatda ishsizlik darajasining yuqoriligi (2023-yil boshiga 8,9 %) [9], malakali kadrlarning emmigratsiyasi (8790 nafar) [10], norasmiy ish bilan bandlikning yuqori darajasi (63 %) [11], iqtisodiyotning ayrim sohalarida ish haqi miqdorining pastligi qayd etilgan. Ushbu jarayonlarga javoban davlat ish bilan bandlikni ta’minlash sohasida choralarni ko‘radi.

Mehnat bozoridagi keskinlikni kamaytirish va mintaqalarda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash bo'yicha ishlarning eng samarali yo'nalishlaridan biri bu ishsiz aholini davlat ko'magi bilan qayta tayyorlash va qo'shimcha zamonaviy kasb-hunar ta'limini tashkil yetishi asosida raqobatbardoshligini oshirishdir.

ADABIYOTLAR SHARHI

Xorijiy va vatanimiz fani hamda amaliyotida ishsizlikni kamaytirishning turli chora-tadbirlariga doir boy nazariy salohiyat va katta amaliy tajriba to'plangan.

Akademik Q.X. Abduraxmonovning fikriga ko'ra ishsizlik – ijtimoiy-iqtisodiy voqea hisoblanib, iqtisodiy faol, mehnat qilishga layoqatli va mehnat qilishni xohlaydigan aholi muayyan qismining tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishda ish bilan band bo'lmasligidir [3].

N.R.Saidovning tadqiqotlarida mehnat bozori sharoitlarini tushunish korxonalarga o'z mahsulotlari yoki xizmatlariga bo'lgan talabni baholashga va o'z faoliyatini tegishli ravishda moslashtirishga yordam berishi, shu sababli doimiy ravishda ish bilan bandlik hamda ishsizlikni tahlil qilib borish zarurati asoslangan [4].

Rossiyalik iqtisodchi olim Yu.G.Odegov mehnat bozorida ishchi kuchi raqobatbardoshligini oshirish masalalari bo'yicha tadqiqotlarida ishsizlarning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligi ishchi kuchi sifati, shaxsning ijodiy imkoniyatlari, ish bilan bandlik va ish kuni davomiyligi kafolatlanganligi, daromad miqdori bilan belgilanishini ta'kidlab o'tgan [5].

Shu bilan birga, tadqiqotchi olimlardan Y.Sherman, R.Islam va A.Fosu o'z ilmiy tadqiqotlarida milliy iqtisodiyot uchun haqiqiy muammo ularning iqtisodiy o'sish jarayonida bandlik o'sishini ta'minlash qobiliyatining cheklanganligidir, deb ta'kidlashgan [6].

Biroq, boshqa iqtisodchi olimlarning fikricha, yaxshi bilim va malakaga ega bo'lish hamma vaqt ham yosh mutaxassislarning mehnat bozorida talab etilishini kafolatlamaydi. Buning sabablaridan biri – mehnat bozorida yosh mutaxassislar raqobatbardoshligining past darajasi [7] bilan asoslangan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy tadqiqotda iqtisodiy voqelik va jarayonlarni o'rganishning turli ilmiy usullari: iqtisodiy tizimlarni tahlil etishga nisbatan dialektik yondashuv, qiyosiy va tizimli tahlil, bazaviy hisob-kitoblar va statistik guruhlash usullari qo'llandi. Tadqiqot ishining axborot bazasi sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat statistika agentligi, O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining ma'lumotlari hamda qator ommaviy axborot vositalarining internet saytlari materiallaridan foydalanildi.

TAHLIL NATIJALARI

2023-yil 1-yanvar holatida O'zbekistondagi mehnat resurslari soni 19517,5 ming kishini tashkil etdi. Mamlakatda 1332,7 ming kishi ishga muhtoj bo'lib, ishsizlik darajasi 8,9 foizni tashkil qildi. Yoshlar orasida ishsizlik darajasi 15,1 foizni, ayollar orasida esa 13,3 foizni tashkil etdi.

Statistik ma'lumotlar asosida respublikada ishsizlik darajasining o'zgarishi dinamikasini kuzatadigan bo'lsak, o'rganilayotgan davrda uning o'sib borishidagi keskin farqlanishlarni kuzatish mumkin (1-rasm). Jumladan, 2000-yilda ishsizlik darajasi 0,4 % ni, 2010 yilga kelib 5,4 % ni, 2018-yildan boshlab ishsizlik darajasi 9,3 % ni hamda 2022-yilga kelib 8,9 % ni tashkil qilgan.



1-rasm: O'zbekiston Respublikasida ishsizlik darajasi dinamikasi , %

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida tuzilgan (www.stat.uz)

Ishsizlik darajasidagi bunday keskinlikning sababi ishsizlik darajasini aniqlashga yondashuvlarning huquqiy jihatdan takomillashib borishi va xalqaro standartlar talablari asosida hisoblashlarni amalga oshirilayotganligi bilan bog‘liq. Biroq, biz oxirgi 5 yillarda ishsizlik darajsining tabiiy darajadan ancha yuqoriroq ekanligiga diqqat e’tiborimizni qaratdik. Albatta, ishsizlik darajasining 2022-yilda nisbatan pasayganligini kuzatishimiz mumkin, ammo bu muammo hali ham respublikamiz iqtisodiyoti uchun ma’lum darajada yo‘qotishlarga sabab bo‘layotganligini ta’kidlash lozim. Viloyatlar kesimida ko‘radigan bo‘lsak, ishsizlik darajasining 9,3 % eng yuqori ko‘rsatkichi Buxoro, Jizzax, Samarqand, Sirdaryo va Surxandaryo viloyatlarida qayd etilgan [9].

So‘nggi yillarda mamlakatimizda ishga joylashishga muhtoj shaxslarni raiobatbardoshligini oshirish maisadida kasbiy tayyorlashni tashkil etish va uning metodologiyasiga nisbatan zamonaviy qarashlar yuzaga keldi. Yangi iqtisodiy-ijtimoiy sharoitda kadrlardan yuksak saviya, ijodiy tashabbus, zamonaviy iqtisodiy fikrlash, ishning yangi uslubi va ko‘nikmalarini egallash talab qilinadi. Shuning uchun respublikada ish bilan band bo‘lmagan fuqarolarni kasbga o‘qitish va malakasini oshirish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 5-apreldagi 183-son qaroriga 3-ilovada keltirilgan “Ishsiz va ish qidirayotgan shaxslarni kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirishni tashkil etish tartibi to‘g‘risida Nizom” [8] asosida huquqiy ta’minlanadi va tashkil qilinadi.

Respublikaning mahalliy mehnat organlari yordamida fuqarolarni ishga joylashtirish bilan birga, mehnat bozoridagi talab va taklifni muvofiqlashtirish, ishsiz fuqarolarni turli zamonaviy kasblarga tayyorlash bo‘yicha ko‘plab chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda (2-rasm).

2-rasm: 2018-2022-yillarda O‘zbekiston Respublikasida ishsizlar va kasb-hunarga o‘qitish maqsadida yuborilgan soni, nafar

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi hamda O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi (www.stat.uz)

Keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, 2018-2022-yillarda ishsizlar soni o‘zgaruvchan tendensiyaga ega. 2019-yilda respublikada ishsizlar soni 33300 kishi (2,49%) ga kamaygan bo‘lsa, 2020-yilda 2019-yilga nisbatan 225700 kishi (14,45%)ga ortgan. Buni COVID-19 pandemiyasi bilan izohlash mumkin. 2021-2022-yillarda ishsizlar soni mos ravishda 8.27% va 8.19%ga qisqargan. 2022-yil mamlakatdagi jami ishsizlar soni 1332700 kishiga yetgan. Tahlil etlayotgan yillarda ishsizlarni kasbga o‘qitish maqsadida yuborilganlar soni dinamikasi o‘sish tendensiyasini qayd etgan. 2019 yilda kasb-hunarga o‘qitish maqsadida yuborilgan shaxslar 2018 yilga nisbatan 44,10% yoki 16207 nafarga ortiq bo‘lgan bo‘lsa, 2020-yilda 70,38 %ga, 2021 yilda 54,75 %ga, 2022-yilda esa 20,03 %ga ortganini ko‘rish mumkin. Umuman olganda ishsiz shaxslarni kasb-hunarga o‘qitish, ularga muqobil ish topishdan ko‘ra oqilona usullardan biri sifatida ko‘riladi.

Albatta, zamonaviy kasb-hunarga o‘qitilgan fuqarolar oldida yana bir muhim vazifa mavjud bo‘ladi: ish topish va mehnat daromadiga ega bo‘lish. Bunda barcha tayyorlovdan o‘tgan ishsiz va band bo‘lmagan fuqarolar ham muvaffaqiyatga erishishmaydi. Chunki, mehnat bozorida raqobatbardoshlik ko‘rsatkichlari ham muhim hisoblanadi (3-rasm).

Respublika mehnat bozoridagi ish bilan bandlikni oshirishning faol siyosati doirasida zamonaviy kasb-hunarga o‘qitilgan ishsizlar soni 2018-2022 yillarda 7 barobarga, ularning ishga joylashishi esa 5,2 barobarga ortgan. 2018 yilda kasb-xunarga o‘qiganlarning 66,7 %i ishga joylashgan bo‘lsa, 2022-yilda faqat 49,5 % yangi kasbga o‘qiganlar o‘z ishini topgan. Qolgan tayyorlovdan o‘tgan fuqarolar esa ish topishda ma’lum bir qiyinchiliklarga uchrashgan va ko‘rib turganimizdek, yangi kasblarga o‘qigan ishsizlar sonining ortishiga qaramay, ularning ishga joylashish ulushi pasayib borgan.



3-rasm: 2018-2022-yillarda O‘zbekiston Respublikasida kasb-hunarga o‘qitish maqsadida yuborilgan va ishga joylashtirilganlar soni, nafar

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi (www.stat.uz)

XULOSA

O‘rganilayotgan muammoni tadqiq etish jarayonida respublikada ishga joylashishga muhtoj bo‘lganlar soni avvalgi davrlarga nisbatan kamayganligiga qaramay hali yetarli darajada yuqoriligi aniqlandi. Ishsizlarni mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshirish va munosib ish o‘rinlari bilan ta’minlash maqsadida ularni zamonaviy kasb-hunarlarga o‘qitish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirish zarur.

Ishsizlarni zamonaviy kasb-hunarlarga o‘qitishda, albatta, ish beruvchilarning talablarini yetarlicha o‘rganish va ishchi kuchlariga bo‘lgan ehtiyojlaridan kelib chiqib “Ishga marhamat” monomarkazi faoliyatini takomillashtirish, O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tizimidagi hududlarda joylashgan kasb-hunarga o‘qitish markazlari o‘quv dasturlarini isloh qilish, qisqa muddatli kasb-hunarga o‘qitish kurslari faoliyatida natijadorlikni oshirish hamda mahallalarda aholini kasb-hunarga o‘qitishning tashkiliy masalalarini takomillashtirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ushbu chora-tadbirlarni amalga oshirilishi natijasida ishsizlarning zamonaviy kasblarni egallashi va bitiruvchilarning ishga joylashishida muhim omil bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. В Европарламенте назвали страны ЕС с наиболее высоким уровнем безработицы среди молодёжи. russian.rt.com (20 мая 2018). https://russian.rt.com/world/news/515044-evroparlament-bezrabotica-molodyozh
2. МОТ: в 2022 году число безработных в мире составит 207 млн. https://news.un.org/ru/story/2022/01/1417012
3. Қ.Абдураҳмонов. (2019) Меҳнат иқтисодиёти: назария ва амалиёт/ Дарслик. –Т.: “FAN”, 2019. – 365 бет.
4. N.R.Saidov, Aholini ish bilan bandlik va ishsizlik holati tahlili/ http:www.laboreeconomics.uz -“Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali” ilmiy elektron jurnali, 2023-yil 2-son.
5. Одегов Ю.Г. (2015) Экономика труда: учебник – Москва : Альфа-Пресс, 2015.
6. Herman, E. (2014) Working poverty in the European Union and its main determinants: An empirical analysis. Inz. Ekon. 2014, 25, 427–436.
7. Zikriyayev Z.M. Xorijiy mamlakatlarning ishsiz yoshlar raqobatbardoshligini oshirish borasidagi tajribalari / www.iqtisodiyot.uz “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 4, iyul-avgust, 2018-yil.
8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 5-apreldagi 183-son qarori. lex.uz›ru/docs/5354947
9. www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari
10. www.mehnat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqaritish va bandlik vazirligi ma’lumotlari
11. https://bugun.uz/2023/04/08/norasmiy-sektorda-band-bolgan-aholi-hisobiga-2022-yilda-byudjetga-deyarli-33-trln-som-mablag-tushmagan-mhti

DEHQON XO‘JALIKLARIDA YETISHTIRILGAN GREK YONG‘OG‘INI ISTE’MOLCHILARGA YETKAZIB BERISH YO‘LLARI

Inobatov Abror Boshlarovich
I.f.f.d. (PhD), Renessans ta’lim universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada muallif dehqon xo‘jaliklari yong‘og‘ biznesini rivojlantirish ushbu jarayonning huquqiy konsultatsiyasini kengaytirish imkoniyatlarini baholaydi. Yong‘oqni ishlab chiqarish va istemolchilarga yetkazib berish, eksport qilish bo‘yicha keng tahlil materiallarini taqdim etadi.

Kalit so‘zlar: grek yong‘og‘i, biznes, ratsion, ixtisoslashtirish, tavakkalchilik, intensiv texnologiyalar, payvandlash, seleksiya, zamonaviy navlar, plantatsiya, vegetativ, yillik samarali harorat miqdori, tog‘li va tog‘ oldi hududlari.

Abstract: The authors in this article assess the possibilities of developing a nut business in the republic and expanding the legal consolidation of this process. They provide extensive analytical materials regarding the production and export of walnuts.

Key words: land resources, level of utility, redistribution, land market, organizational and economic mechanism, raising efficiency, economics, nut processing, walnut, specialization, risk, selection, mountainous and foothill areas, biological opportunity.

Аннотация: Авторы в данной статье оценивают возможности развития орехового бизнеса в республике и расширение правового закрепления данного процесса. Дают обширные аналитические материалы относительно производство и экспорта грецкого ореха.

Ключевые слова: земельные ресурсы, уровень полезности, перераспределение, рынок земли, организационно-экономический механизм, повышение эффективности, экономика, переработка ореха, специализация, риск, отбор, горные и предгорные районы, биологическая возможность.

KIRISH

Jahonda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash va grek yong‘og‘i yetishtirish sohasida olib borilayotgan ilmiy-tadqiqotlarda insonlarning kundalik sog‘lom oziqlanish masalasiga alohida urg‘u berilmoqda. Bunday sharoitda to‘yimli va inson organizmini muhim ozuqa elementlari bilan ta’minlaydigan mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish ilm-fan va amaliyot uchun muhim vazifalar qatoriga kiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-yanvardagi PQ-4575-son “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030 yillarga mo‘ljallagan strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2019-yil 23-avgustdagi PQ-4424-son “Respublikada o‘rmonlardan foydalanish samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2017-yil 1-iyundagi PQ-3025-son “Yong‘oq ishlab chiqaruvchilar va eksport qiluvchilar uyushmasini tuzish va uning faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Grek yong‘og‘i ishlab chiqarishni rivojlantirish, mahsulot ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligini oshirish, mahsulotning bozorgirlik xususiyatlarini yaxshilash, yong‘oq ishlab chiqarish jarayoniga investitsiyalar jalb etish, dunyoda grek yong‘og‘i yetishtirish xususiyatlari va ulardan foydalanish masalalari yuzasidan tegishli ilmiy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish xorijlik M.Konstantinova, Yu.Grinyuk, S.G.Biganova, Yu.I.Suxorukix, A.P.Lugovskoy, S.A.Nam, N.G.Petrova, Z.A.Ibragimov, O.Yurina, O.Yu.Orlova kabi olimlarning tadqiqotlarida o‘z aksini topgan. O‘zbekiston sharoitida esa grek yong‘og‘i yetishtirish sohasining iqtisodiy muammolari yechimlarini topish, sohani rivojlantirish masalalariga B.Nosirov, O.Shaymatov, H.Hamroyev, D.Yormatova, M.Abdujabborov, N.Xushmatov kabi olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda e’tibor qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotlar jarayonida qiyosiy tahlil, abstrakt fikrlash, iqtisodiy hisob-kitob, ekspert baholash, dehqon xo‘jaliklarida monografik kuzatish usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi, xususan, yong‘oqzorlar tog‘ yon-bag‘irlari yerlaridan samarali foydalanish imkonini berishi, daraxtlar ildizi esa tuproq eroziyasiga qarshi kurashda, sel yuvishining oldini olish tadbirlarini amalga oshirishda ham beqiyos ahamiyatga egaligi, boshqa ekinlar uchun ixota sifatida xizmat qilishi yong‘oqning iqtisodiy-meliorativ ahamiyatini o‘zida aks ettiradi.

Tadqiqotlar ko‘rsatishicha, tadbirkor uchun iqtisodiy jozibadorlik ichki va tashqi bozorda grek yong‘og‘iga talab doimiyligi, talabning miqdori muttasil ortib borishi bilan bog‘liq. Bunda:

- yong‘oqning ilm-fan munozarasiz ko‘rsatkichlar bilan isbotlagan insonlar ratsionidagi oziq-ovqat sifatidagi ahamiyatining jamoatchilik ongiga tobora kengroq sindirib borilishi;
- jahon bozorida yong‘oq yetishtirish hajmining bozor talabidan ancha kamligi, sifatini buzmay, hajmini kamaytirmay tashishga qulayligi;
- saqlash, tashish va tushirishning murakkab texnika talab qilmasligi uning yuqori darajadagi jozibadorligini yuzaga keltiradi.

Dehqon xo‘jaliklarida sotish uchun grek yong‘og‘ini iste’molchilarga yetkazish jarayoni samaradorligini oshirish bilan bog‘liq tadbirlarning vaqt va makon doirasidagi, ishlab chiqaruvchiga va shuningdek, sotuvchiga ortiqcha xarajatlarni tejagan holda eng ko‘p foyda olishni ta’minlaydigan ketma-ketligini tashkil qilish ahamiyatlidir. Mazkur ketma-ketlik mahsulotlarni yetkazib berishning o‘z o‘rnida har bir bo‘g‘inida mehnatni tashkil qilish, grafik ishlab chiqish, axborot tayyorlash va hodimlarga yetkazib, sifatni ta’minlash uchun hamda mehnat xavfsizligi qoidalari bo‘yicha xodimlarni o‘qitish kabi tadbirlarni o‘z ichiga olishi lozim. Sotuvga mo‘ljallangan grek yong‘og‘ini iste’molchilarga yetkazib berish jarayoni asosan, tomonlar o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlardan tashkil topgan bo‘lib, uning asosini mahsulotni sotish va xarid qilish yuzasidan tuzilgan shartnoma tashkil qiladi. Bunda hamkor tomonlarning biri bu mahsulot sotuvchi, ikkinchi tomon xaridor hisoblanadi (1-rasm).



1-rasm: Grek yong‘og‘ini iste’molchilarga yekazib berishdagi manfaatli hamkorlar tarkibi, asosiy vazifalari[1]

1 Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Dehqon xo‘jaliklari yetishtirgan grek yong‘og‘ini iste’molchilarga yetkazib berishda transport logistik xizmatlar ko‘rsatuvchi tadbirkorlik subyektlari har ikkala tomon bilan ham manfaatli shartnomalar asosida transport-logistika xizmati ko‘rsatishi mumkin. Bunday xizmatlar dehqon xo‘jaliklariga hududlarda faoliyat yurituvchi yong‘oq tayyorlovchi subyektlar ham ko‘rsatishi mumkin. Sotuvi va xaridor tomonlar turli maqomga, mahsulotdan foydalanish bo‘yicha turli iqtisodiy erkinlikka yoki mahsulot xarid qilish maqsadiga ega bo‘lishi mumkin. Ammo, mahsulotni iste’moliga yetkazish bu – mahsulotni jismoniy jihatdan bitta manzildan ikkinchisiga (xaridor omborxonasiga, savdo nuqtasiga) tashish jarayonidan iborat bo‘ladi.

Ta’kidlash lozimki, mahsulotni yetkazib berish o‘z ichiga mahsulotni tayyorlash, ortish, tushirish va tashish uchun qulay shakllarda qadoqlash, mahsulotni tashish davrida sifat nazoratni ta’minlash bilan bog‘liq ko‘plab texnologik jarayonlarni qamrab oladi. Shu boisdan mahsulotni iste’molchilarga yetkazib berish masalasini alohida logistik tizim doirasida yoki logistik xizmatlar ko‘rsatuvchi subyektlar faoliyati bilan bog‘liq holda ham qarab chiqish kerak.

Ayni paytda mahsulotning tashishga chidamliligi ichki yoki tashqi bozorga chiqishini hisobga oladigan bo‘lsak, transport turini tanlashda dehqon xo‘jaligi tashish tannarxini arzonlashtirish uchun transport turini va tashish usulini tanlash imkoniyatiga ega.

Mahsulotni yetarli miqdorda va muntazam ravishda yetkazib berish dehqon xo‘jaliklari xususiyati hamda yong‘oq yetishtirishning mavsumiyligiga mos keluvchi mobil logistik infratuzilmani taqozo etadi. Bunda quyidagi bir qator muhim tashkiliy masalalarni hal etish tavsiya etiladi (2-rasm):



2-rasm: Grek yong‘og‘ini iste’molchilarga yetkazib berish tizimida mobil logistik infratuzilma faoliyatidagi tashkiliy masalalar[2]

Yuqorida tilga olingan tashkiliy vazifalarni bajarishning sifati ko‘plab omillarga bog‘liq. Jumladan, yong‘oq bozorida konyunktura o‘zgarishi, yetishtiruvchi va iste’molchilar to‘g‘risidagi marketing axboroti bilan ta’minlash darajasi, logistik tizim faoliyati hamda xizmatlar sifatiga hamkorlar qo‘yyadigan talablar o‘zgarishi, mahsulotni iste’molichga yetkazib berish bilan bog‘liq logistik tizim faoliyatini moddiy-texnik jihatdan ta’minlash borasidagi muammolar shular jumlasidan.

Mahsulotlarni iste’molchilarga yetkazib berish tizimidagi doimiy ritm buzilishi, iste’molchilar (xaridorlar) faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, iste’molchi savdo sohasi subyektlari bo‘lsa, uzilish holati ancha sezilarli hisoblanadi. Bu holatda iste’molchi o‘z xarid qilish portfeliga o‘zgartirish kiritgan holda tavakkalchilik xavfini kamaytirish uchun uni diversifikatsiyalashga harakat qiladi. Natijada esa shartnoma intizomini muntazam buzgan holda o‘z imidjini obro‘sizlantiradigan yetkazib beruvchilar mahsulotlariga bozor talabi pasayib borishi uchun shart-sharoitlar yuzaga keladi. Bu esa o‘z o‘rnida grek yong‘og‘ini sotish tizimi izdan chiqib mahsulot saqlanib qolishi, sotishning qiyinlashishi tufayli ishlab chiqaruvchilarda iqtisodiy muammolar kelib chiqishiga sabab bo‘ladi.

2 Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Yana bir tomondan grek yong‘og‘i yetishtirishning mavsumiyligi tufayli, iste’molchilarga yetkazib beriladigan mahsulotlarning yil davomida bir maromda amalga oshirilishi uchun savdo tarmoqlarida mahsulot sotuvga chiqariladigan zaxiralarini yaratishni taqozo qiladi. Bu ayniqsa, grek yong‘og‘ining uzoq muddat saqlash uchun qulayligi ishlab chiqaruvchilar uchun ko‘proq foyda olish uchun imkoniyatlar yaratib berishi mumkin. Ya’ni dehqon xo‘jaliklari yilning mahsulotlarga baho o‘sadigan mavsumlarida (davrida) ombor zaxirasidan bozorga mahsulot taklif qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Mahsulotni iste’molchilarga yetkazib berishni, ishlab chiqaruvchi yoki transport logistika xizmati ko‘rsatuvchi (tayyorlovchi) subyektlar tomonidan amalga oshirishda, logistik modelni shakllantirish lozim. Bunda yetkazib berish maqsadi, vazifa va turlarining iste’molchi talabiga mosligini nazarda tutiladi, yetkazib berish marshruti optimallashtiriladi. Vaqt omili mahsulot sotish borasida o‘ta muhimligi e’tiborga olinadi.

Masalan, grek yong‘og‘i tashishga qulay va saqlashda murakkab jihozlangan haroratni boshqarish rejimiga ega saqlash obyektlarini talab qilmasada, yuqori harorat sharoitida saqlash grek yong‘og‘i mag‘zidagi yog‘lar tarkibida kimyoviy o‘zgarish sodir qilib, mahsulot ta’mi o‘zgarishiga olib kelishi mumkin. Shu bois grek yong‘og‘ini iste’molchilarga yetkazib berishda oldindan kelishilgan (shartnoma doirasida) muddatlarga rioya qilish o‘ta muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bu dehqon xo‘jaliklari va iste’molchi o‘rtasidagi iqtisodiy manfaatli aloqalarning barqarorligini belgilaydi. Ammo mahsulotni yetkazib berish borasidagi logistik tizim faoliyati nuqtai-nazaridan iste’molchilarni oldindan ma’lum guruhlarga bo‘lib olish taqozo etiladi.

Tadqiqotlar ko‘rsatishicha grek yong‘og‘i iste’molchilarining asosiy qismi ikkinchi guruhga kiruvchi iste’molchilar bo‘lib, ular uchun mahsulotni kelishilgan vaqtda kafolatli tarzda yetkazib berish muhim ahamiyatga egadir. Ushbu iste’molchilarning aksariyati o‘z faoliyatini barqaror ravishda yo‘lga qo‘yishgan qandolatchilik korxonalari bo‘lib, ular muntazam ravishda qondolatchilik mahsulotlari tayyorlashda xomayoshga (grek yong‘og‘i mag‘zi) muhtojlik sezishadi. Tahlillarning ko‘rsatishicha, mazkur iste’molchining mahsulot xarid qilishdagi yana bir xususiyati shundaki, iste’molchi mahsulot yetkazib beruvchilar tarkibini muntazam ravishda divesifikatsiyalab boradi. Bu tadbir o‘z o‘rnida mahsulotning kafolatli yetkazib berilishi uchun zamin tug‘diradi.

Uchinchi yo‘nalishdagi iste’molchilar qo‘llagan strategiyaning asosini mahsulotni saqlash sarf-xarajatlarini tejash maqsadi egallaydi. Bunda mahsulotlar oraliq saqlash obyektlarini aylanib o‘tgan holda bevosita iste’mol (bevosita savdoga) jarayoniga kelib tushadi. Bu jarayon saqlash xarajatlari kamayishi bilan birgalikda yetkazib berish tizimida logistik texnologiyalning atroflicha rejlashtirilishini talab qiladi.

Ammo grek yong‘og‘ini iste’molchilarga yekazib berish va uning savdosida mahsulotni saqlashga qulayligi boisdan avvaldan ko‘p miqdorda xarid qilish va mahsulotning ombor zaxirasini yaratish orqali yetkazib berish hamda tizimidagi uzilishlarning oldini olish amaliyotidan ko‘proq foydalanish lozim. Bu holda mahsulotlarni iste’molchilarga yetkazib berishning mavsumiylik xarakteri alohida ajralib turadi. Bu birinchi navbatda mahsulotni yig‘ishtirib olish bilan bog‘liq.

Kuzatishlar ko‘rsatishicha, ko‘pchilik dehqon xo‘jaliklari yig‘ishtirib olingan grek yong‘og‘ini tezroq sotish payida bo‘lishadi. Ammo saqlashga qo‘yiladigan boshqa qishloq xo‘jaligi mahsulotlari kabi grek yong‘og‘i yil davomida saqlash jarayonida ortiqcha sarf-xarajatlar (murakkab va qimmat sovutish uskunlari, elektr energiyasi kabi) talab etilmasligi boisdan, bozor bahosi saqlash xarajatlari yoki tabiiy yo‘qotishlar hisobiga keskin oshmasligi mumkin. Yoki kutilmagan holatda eksport hajmi ortishi hisobiga bozor bahosi bir necha marta oshib ketishi ham mumkin.

Grek yong‘og‘ini iste’molchilarga yekazib yerishda transport sarf- xarajatlarini tejashga yuqoridagi kabi mutlaq va nisbiy tejash nuqtayi nazardan yondashish lozim. Transport sarf-xarajatlarini mutlaq tejashda mahsulotlarni tashish jarayonidagi transport xarajatlari miqdorini kamaytirish nazarda tutilsa, nisbiy tejashda tashiladigan bir kilogramm mahsulot hisobiga (so‘m/kg yoki so‘m/tonna-km) transport sarf-xarajatlarni kamaytirish nazarda tutiladi. Agarda resupblikada grek yong‘og‘i yetishtirish hududlari geografik joylashuvi, mahsulot yetishtiruvchi subyektlar faoliyati xususiyatlari va mahsulot yetishtirish zichligini (kg/km2), bitta xo‘jalik hisobiga mahsulot hajmini hisobga oladigan bo‘lsak, transport xarajatlarini mutlaq tejashning muhim yo‘llaridan biri – bu yuk tashish hayvonlaridan keng foydalanish hisoblanadi. Bunda grek yong‘og‘i yetishtiruvchi dehqon xo‘jaliklari doirasida mahsulotni tayyorash masalasi nazarda tutilmoqda. Chunki grek yong‘og‘i bugungi kunda plantsiyalarda emas, balki asosan qishloqlar aholisi tomorqalarida yetishtirilmoqda.

Mazkur holatda grek yong‘og‘ini iste’molchilarga yetkazib berishda hududlar kesimida qo‘shimcha mobil logistik bo‘g‘inlar (asosan, tadbirkorlik subyektlari yoki yong‘oq yetishtiruvchilar kooperativlari) faoliyatini yo‘lga qo‘yish zarurati paydo bo‘ladi. Yoki logistik xizmatlar ko‘rsatuvchi kichik hajmli mobil subyektlar faoliyatini qamrab oluvchi infratuzilmani rivojlantirish orqali mazkur masalani hal etish mumkin.

Demak, yuqoridagi vaziyatlarni inobatga oladigan bo‘lsak, grek yong‘og‘ini iste’molchilarga yetkazib berish quyidagi uchta yo‘l bilan amalga oshirilishi maqsadga muvofiq (3-rasm):



3-rasm: Yetishtirish sharoitini hisobga olgan holda grek yong'og'ini iste'molchilarga yetkazishdagi samarali yo'nalishlar[3]

Uchinchi holatda esa, yuqorida tilga olingan talablardan tashqari, iste'molchi tomonidan mahsulotning saralanganligi, grek yong'og'ining navlari bo'yicha bir xilligi (ba'zan), yetkazib berish vaqti va miqdori kabi talablar ham qo'yilishi mumkin. Shu jihatdan mazkur yetkazib berish yo'nalishi qiymat yaratuvchi yo'nalish bo'lsada, dehqon xo'jaliklarining mahsulot iste'molchilari tomonidan qo'yilayotgan talablardan bir qadar uzilib qolishiga olib keladi. Shuning uchun ham tayyorlovchilar tomonidan bozorning (iste'molchining) talabini dehqon xo'jaliklariga yetkazib berish bilan ham shug'ullanishi lozim bo'ladi. Bunda yog'oqning navlariga, yong'oq mevasining katta kichikligiga, mag'zining rangi kabi sifat ko'rsakichlariga qo'yilayotgan talablar bilan birgalikda, dehqon xo'jaliklarini grek yong'og'i mevalarining zararlanishining oldini olishga e'tibor qaratgan holda mahsulot yetishtirish agrotexnikasi, ayniqsa, kasallik va zarakunandalarga qarshi kurash usul va vositalari to'g'risida ma'lumotlar yetkazish bo'yicha ham xizmatlar ko'rsatish muhim sanaladi.

Tahlillar ko'rsatishicha, faqatgina yirik logistik tuzilmalargina maxsus transport vositalari avtoparkini saqlash imkoniga ega. Demak, grek yong'og'i bozorida xizmat ko'rsatuvchi subyektlarning mobilligini ta'minlash orqali ularning faoliyati iqtisodiy samaradorligini oshirish mumkin. Masalan, xizmat ko'rsatuvchi nafaqat grek yong'og'ini iste'molchiga yetkazishda, balki boshqa mahsulotlar tashish uchun (poliz, sabzavot, mevalar, go'sht va sut, chorva mollari, qurilish mollari, yem-hashak) ham mo'ljallangan bo'lishi, uzoq qishloqlar sharoitida logistik tizim barqarorligini ta'minlaydi.

XULOSA

Bugungi kunda grek yong'og'ini iste'molchilarga yetkazib berish oldidan tayyorlovchi subyektlar ularning ixtisoslashuvi hisobiga xizmatlar sifatini oshirish imkoniyatlari kengayadi. Shu nuqtayi nazardan bizning fikrimizcha, grek yong'og'ini iste'molchilarga yetkazib berish masalalari doirasida qator tadbirlarni amalga oshirishlari maqsadga muvofiq. Jumladan:

- dehqon xo'jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan grek yong'og'ini saralash – mahsulotlarning savdoga chiqishi oldidan partiyalariga tovarlilik ko'rinishi berish va sifatini yaxshilash nuqtayi nazaridan tegishli tadbirlarni bajarish bilan bog'liq texnik imkoniyatlarni kengaytirib borish;

3 Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

- qadoqlash – grek yong‘og‘ini navlarga ajratgan holda mahsulotni bozordagi baho segmentiga moslashtirish, mahsulot qadoqlarini transportga ortish va tushirishga qulayligini oshirish nuqtayi nazaridan tegishli tadbirlarni amalga oshirish;
- tayyorlangan va iste’molchilarga chiqariladigan grek yong‘og‘i partiyalari doirasida sifat nazoratini yo‘lga qo‘yish – mahsulotning turli zamburug‘lar, ifloslantiruvchi qo‘shimchalar, chang bilan ifloslanish kabi holatlarning oldini olgan holda, gigiyenik talablarni ta’minlash va ishlab chiqaruvchi (bu yerda asosan, alohida dehqon xo‘jaligi emas, balki alohida hududlar, qishloqlar e’tiborga olinadi) imidjini yaratish (masalan, Bo‘stonliq yong‘oqlari yoki Parkent yong‘oqlari kabi) nuqtayi nazaridan amalga oshiriladigan tadbirlar;
- mahsulot qadoqlarining bozorgir (iste’molchini o‘ziga jalb qilishi) bo‘lishi bilan birgalikda, gigiyenik talablarga javob berishini ta’minlashi, oziq-ovqat mahsulotlari uchun belgilangan zamonaviy organik ishlab chiqarish normalarini e’tiborga olish;
- yong‘oq yetishtiruvchi dehqon xo‘jaliklarini qadoqlash idishlari bilan ta’minlash – xizmatlarning mobilligi va universalligini oshirish nuqtayi nazaridan tegishli tadbirlardan foydalanish talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yong‘oq ishlab chiqaruvchilar va eksport qiluvchilar uyushmasini tuzish va uning faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-3025-sonli qarori. 2017-y. www.lex.uz
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublikada o‘rmonlardan foydalanish samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4424-sonli qarori. 2019-yil 23-avgust.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallagan strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4575-sonli qarori.
4. Inobatov A.B. Grek yong‘og‘ining yetishtirishda istiqbolli navlardan foydalanish samaradorligi// “Agroiqtisodiyot”. Toshkent, 2021.
5. Inobatov A.B. Dehqon xo‘jaliklarida grek yong‘og‘ini yetishtirish imkoniyatlarini rivojlantirishning o‘rni va ahamiyati // “Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi”. Xiva, 2022.
6. Inobatov A.B. Dehqon xo‘jaliklarida grek yong‘og‘i yetishtirish samaradorligini oshirish masalalari// “Agroiqtisodiyot”. –Toshkent, 2022.
8. Xushmatov N., Inobatov A.“Dehqon xo‘jaliklarida grek yong‘og‘i yetish-tirishning iqtisodiy samaradorligini oshirish yo‘nalishlari” Monografiya. “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”. –Toshkent, 2021.
9. Khushmatov N.S., Inobatov A.B. “Resource-saving technologies in the cultivation of walnuts in terms of conomic evaluation methodological approaches” Journal of Contemporary Issues in Business and Government Vol. 27, –№1, 2021. – P-ISSN: 2204-1990; E-ISSN: 1323-6903 // https://cibg.org.au //pdf // –P. 957-968.
10. Inobatov A.B., N.S.Khushmatov “Pricing formation and market variability characteristics in walnut cultivation and its delivery to consumers” Turkish Journal of Computer and Mathematics Education Vol.12 No.7, 294-301 online: 16 April 2021. – P. 294-301.

КОМПЛАЕНС И РИСК МЕНЕДЖМЕНТ В МЕЖДУНАРОДНЫХ ГУМАНИТАРНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ

Мухамеджанов Баходир Кахрамонович
Студент Банковско-финансовой Академии, магистратура MBA General 2022-2024 гг. Группа MBA G 22-14

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы соблюдения норм и управления рисками в международных гуманитарных организациях с акцентом на использование технологий для оценки рисков и преимущества коллаборативных сетей. Освещаются вызовы, связанные с соблюдением сложных регуляций и неопределенностями гуманитарных миссий, при этом подчеркивается важность адаптивных политик и обучения для продвижения этической целостности и устойчивости организаций. Исследование подчеркивает необходимость сочетания соблюдения норм и управления рисками для повышения эффективности и подотчетности гуманитарных операций.

Ключевые слова: соблюдение норм, управление рисками, международные гуманитарные организации, технологии, коллаборативные сети, адаптивные политики, устойчивость организации.

Annotatsiya: Ushbu maqola xalqaro gumanitar tashkilotlarda risklarni baholash va hamkorlikdagi tarmoqlarning afzalliklarini baholash uchun texnologiyalardan foydalanishga e'tibor qaratgan holda muvofiqlik va risklarni boshqarishni o'rganadi. Shuningdek, tadqiqot insonparvarlik operatsiyalarining samaradorligi va javobgarligini oshirish uchun muvofiqlik va risklarni boshqarishni birlashtirish zarurligini ilgari nsuradi.

Kalit so'zlar: muvofiqlik, risklarni boshqarish, xalqaro gumanitar tashkilotlar, texnologiya, hamkorlik tarmoqlari, moslashuvchan siyosat, tashkiliy barqarorlik.

Abstract: This article examines compliance and risk management in international humanitarian organizations, with a focus on the use of technology for risk assessment and the benefits of collaborative networks. The challenges posed by compliance with complex regulations and the uncertainties of humanitarian missions are highlighted, while emphasizing the importance of adaptive policies and training to promote the ethical integrity and sustainability of organizations. The study highlights the need to combine compliance and risk management to improve the effectiveness and accountability of humanitarian operations.

Key words: compliance, risk management, international humanitarian organizations, technology, collaborative networks, adaptive policies, organizational sustainability.

ВВЕДЕНИЕ

Международные гуманитарные организации находятся на передовой линии в решении некоторых из самых актуальных проблем, с которыми сегодня сталкивается мир. Эти организации оказывают помощь и поддержку населению, пострадавшему от конфликтов, стихийных бедствий, пандемий и других кризисов, угрожающих благополучию и безопасности людей. Работая через границы и в различных культурных, правовых и социополитических контекстах, эти организации преодолевают лабиринт вызовов, включая не только операционные, но и этические, а также правовые. В этом сложном операционном ландшафте соблюдение норм и управление рисками являются критически важными столпами, поддерживающими эффективность, целостность и устойчивость гуманитарных усилий.

Соблюдение норм в контексте международных гуманитарных организаций означает следование широкому спектру законов, регламентов, стандартов и этических руководств, регулирующих их деятельность. Это включает международное гуманитарное право, местные правовые требования в странах деятельности, условия доноров, а также внутренние политики и процедуры. Сложность соблюдения норм усугубляется динамичной и часто нестабильной средой, в которой работают эти организации, где правовые и регуляторные рамки могут быть недоразвиты, подвержены изменениям или сложны для понимания.

Управление рисками, с другой стороны, включает систематическое определение, оценку и минимизацию потенциальных угроз, которые могут помешать организации достичь своих целей. Эти риски могут быть финансовыми, операционными, стратегическими, репутационными или связанными с соблюдением норм и часто требуют комплексного и тонкого подхода к управлению. Эффективное управление рисками не только о предотвращении потерь или неблагоприятных последствий, но и о способности организации принимать обоснованные решения, балансируя между риском и возможностями, что повышает ее способность оказывать помощь эффективно и результативно. Взаимодействие между соблюдением норм и управлением рисками особенно заметно в международных гуманитарных организациях из-за высоких ставок. Несоблюдение может привести к юридическим санкциям, потере финансирования от доноров и ущербу для репутации, в то время как недостаточное управление рисками может привести к неудаче гуманитарных программ, вреду для получателей помощи или персонала и неэффективному использованию ограниченных ресурсов. Таким образом, понимание и интеграция этих функций являются не просто вопросом регуляторной необходимости, но стратегическим императивом, который напрямую влияет на способность организации выполнять свою гуманитарную миссию.

ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ

Литература по вопросам соблюдения норм и управления рисками в международных гуманитарных организациях значительно развилась за последние десятилетия, отражая возрастающую сложность гуманитарных операций и растущее внимание к подотчетности и эффективности.

Одним из ключевых направлений является разработка и внедрение рамок и стандартов соблюдения норм, адаптированных к уникальным потребностям гуманитарных операций. Смит и Доу (2020) предоставляют всесторонний обзор международных правовых стандартов, регулирующих оказание гуманитарной помощи, подчеркивая роль соблюдения норм в обеспечении приверженности принципам международного гуманитарного права. Тем временем, Джонсон и др. (2019) исследуют принятие стандартов ISO в гуманитарных организациях, утверждая, что такие рамки могут повысить операционную эффективность и доверие доноров.

Литература об управлении рисками в гуманитарных организациях подчеркивает разнообразный характер рисков, с которыми сталкиваются эти субъекты, от операционных и финансовых рисков до стратегических и репутационных рисков. Браун и Грин (2021) обсуждают применение подходов к управлению корпоративными рисками (ERM), выступая за целостную стратегию, интегрирующую управление рисками на всех уровнях организации. В контрасте, Патель и Кумар (2018) сосредотачиваются на роли технологий в оценке и снижении рисков, особенно на использовании аналитики данных и искусственного интеллекта для прогнозирования и реагирования на кризисы.

Интеграция функций соблюдения норм и управления рисками является повторяющейся темой в литературе. Уайт и Блэк (2022) рассматривают кейс- стади организаций, которым успешно удалось согласовать свои усилия по соблюдению норм и управлению рисками, что привело к повышению подотчетности и операционной эффективности. Эта работа подчеркивает важность целостной организационной культуры, придающей приоритет этическому поведению и осведомленности о рисках.

Несколько исследований адресуют вызовы, с которыми сталкиваются международные гуманитарные организации при внедрении эффективных практик соблюдения норм и управления рисками. К вызовам относятся навигация в сложных регуляторных средах, управление межкультурными операциями и преодоление врожденной неопределенности кризисных ситуаций. Однако эти вызовы также представляют возможности для инноваций и улучшений. Ли и Сингх (2020) подчеркивают потенциал для сотруднических сетей среди гуманитарных организаций для обмена лучшими практиками и ресурсами в области соблюдения норм и управления рисками.

МЕТОДОЛОГИЯ ИССЛЕДОВАНИЯ

Раздел методологии очерчивает систематический подход, использованный для проведения анализа и получения результатов, представленных в исследовании соблюдения норм и управления рисками в международных гуманитарных организациях.

АНАЛИЗ И РЕЗУЛЬТАТЫ

Анализ соблюдения норм и управления рисками в международных гуманитарных организациях раскрывает сложное взаимодействие факторов, влияющих на их эффективность.

Таблица 1 представляет обзор общих стандартов соблюдения, принятых международными гуманитарными организациями, и их наблюдаемого влияния на операционную эффективность. Эти стандарты

варьируются от международного гуманитарного права и требований доноров до внутренних кодексов поведения и этических руководств.

Таблица 1: Стандарты соблюдения и их влияние на операционную эффективность

Стандарт соблюдения	Описание	Наблюдаемое влияние на операционную эффективность
Международное гуманитарное право	Правовые нормы, регулирующие гуманитарные операции в зонах конфликта.	Улучшает легитимность и доступ, но требует значительных правовых знаний
Требования доноров	Условия, установленные финансирующими организациями относительно использования средств.	Обеспечивает финансовую подотчетность, но может ограничивать гибкость в распределении ресурсов.
Внутренние кодексы поведения	Специфические для организации этические руководства и процедуры.	Способствует культуре целостности, но может требовать обширного обучения и мониторинга.

Источник: Разработано автором

Данные, представленные в Таблице 1, подчеркивают двойственную природу стандартов соблюдения как факторов, способствующих и ограничивающих операционную эффективность. Хотя соблюдение этих стандартов критически важно для поддержания легитимности, подотчетности и этической целостности, оно также накладывает определенные ограничения. Например, необходимость соблюдения широкого спектра требований доноров может ограничить организационную гибкость, делая сложным быстрое реагирование на изменяющиеся реалии на местах. Аналогично, реализация всеобъемлющих внутренних кодексов поведения требует постоянных усилий по обучению и мониторингу, что может оказывать давление на ресурсы.

Балансировка между этими конкурирующими требованиями является ключевой задачей для международных гуманитарных организаций, требующей инновационных подходов к управлению соблюдением норм, которые не ухудшают операционную эффективность.

Таблица 2 исследует влияние различных подходов к управлению рисками на устойчивость организации, сравнивая традиционные стратегии избегания рисков с более современными подходами к рискам, акцентирующими внимание на инновациях и адаптивности.

Таблица 2: Влияние подходов к управлению рисками на устойчивость организации

Подход к управлению рисками	Влияние на устойчивость организации
Избегание рисков	Ограничено; может препятствовать инновациям и адаптивности
Риск-ориентированный (рассчитанный)	Высокое; способствует инновациям и оперативности

Источник: Разработано автором

Контраст между стратегиями избегания рисков и рассчитанным принятием рисков, как показано в Таблице 2, подчеркивает ключевой сдвиг в парадигме управления рисками в международных гуманитарных организациях. Традиционные стратегии избегания рисков, хотя и минимизируют воздействие потенциальных угроз, также могут ограничивать способность организации к инновациям и адаптации к изменяющимся условиям. В отличие от этого, подход к рискам, предполагающий осознанное принятие рисков для использования возможностей для инноваций и улучшений, может значительно повысить устойчивость организации. Этот подход требует сложного понимания риска, культуры, поддерживающей обучение на ошибках, и надежных механизмов оценки и снижения рисков.

Одним из ключевых рисков, с которым сталкиваются международные гуманитарные организации (МГО), являются риски, связанные с обеспечением безопасности. Это включает в себя как безопасность персонала, так и сохранность имущества. МГО часто приходится работать в условиях повышенной опасности: в зонах военных действий или конфликтов, а также в регионах, подверженных сейсмической активности. В таких условиях сотрудники организаций подвергаются значительным рискам для жизни и здоровья.

В ответ на эти вызовы МГО обязаны строго соблюдать нормы и правила безопасности. К примеру, перемещение персонала в зонах конфликта подчиняется строгим правилам управления рисками, включая запрет на передвижение без сопровождения военного конвоя и наличие средств связи. В сейс-

TARAQQIYOT PROGRESS

мически активных зонах проводятся детальные сейсмические исследования зданий, используемых организацией, включая офисы и жилые помещения, а также строго соблюдаются меры пожарной безопасности. Для обеспечения дополнительной защиты в зданиях оборудуются безопасные комнаты, предназначенные для укрытия в случае военных атак (учитывая, что были случаи нападений на медицинские учреждения, где действовали МГО). Кроме того, для защиты от взрывной волны на окна наносится специальная защитная пленка, например, производства 3M.

Таким образом, международные гуманитарные организации принимают всеобъемлющие меры для минимизации рисков, связанных с безопасностью, обеспечивая защиту своих сотрудников и сохранность имущества в условиях, часто осложненных военными действиями, природными катастрофами и другими факторами риска.

РЕКОМЕНДАЦИИ

На основе всестороннего анализа соблюдения норм и управления рисками в международных гуманитарных организациях, этот раздел предлагает целенаправленные рекомендации, направленные на повышение эффективности, устойчивости и этической целостности этих субъектов. Эти рекомендации разработаны для решения выявленных проблем и использования возможностей для улучшения, выделенных в ходе исследования:

Укрепление рамок соблюдения норм

- **Разработка адаптивных политик соблюдения норм:** Организации должны создавать гибкие рамки соблюдения норм, которые могут быстро адаптироваться к изменяющимся правовым и операционным условиям. Это включает в себя регулярный пересмотр и обновление политик и процедур для отражения новых законов, стандартов и лучших практик.
- **Улучшение программ обучения:** Внедрение инновационных и привлекательных обучающих решений, учитывающих разнообразие стилей обучения и языков, чтобы все сотрудники понимали свои обязанности по соблюдению норм. Использование цифровых платформ для более широкого охвата и интерактивного обучения.
- **Способствование культуре целостности:** Стимулирование организационной культуры, в которой ценятся и вознаграждаются этическое поведение и соблюдение норм. Это может быть достигнуто через лидерство на примере, открытое общение и четкую позицию против несоблюдения норм.

Оптимизация стратегий управления рисками

- **Принятие проактивного подхода к оценке рисков:** Переход от реактивного к проактивному управлению рисками путем реализации регулярных оценок рисков, предвосхищающих потенциальные вызовы и уязвимости. Это включает планирование сценариев и стресс-тестирование для оценки готовности организации к непредвиденным событиям.
- **Использование технологий для мониторинга рисков:** Применение передовых технологий и аналитики данных для мониторинга рисков в реальном времени. Это включает разработку панелей управления рисками, которые предоставляют комплексный обзор рисков на всей территории организации.
- **Развитие стратегических партнерств:** Участие в партнерствах с другими гуманитарными организациями, местными сообществами и правительствами для обмена знаниями, ресурсами и лучшим практикам в области управления рисками. Совместные усилия могут привести к более устойчивым и надежным гуманитарным операциям.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Критический анализ соблюдения норм и управления рисками в международных гуманитарных организациях раскрывает ландшафт, отмеченный сложными вызовами и значительными возможностями для улучшения. По мере того как эти организации преодолевают сложности доставки помощи в разнообразных и часто нестабильных условиях, интеграция надежных рамок соблюдения норм и стратегических практик управления рисками стоит в основе операционного успеха и этического поведения.

В конечном итоге, стремление к совершенству в соблюдении норм и управлении рисками является непрерывным путешествием, требующим приверженности, ресурсов и постоянного обучения. По мере

эволюции глобального гуманитарного ландшафта, также должны эволюционировать стратегии, используемые теми, кто посвятил себя служению его наиболее уязвимым населением. Принимая эти рекомендации, международные гуманитарные организации могут гарантировать, что они останутся непоколебимыми в своей миссии, подотчетными своим заинтересованным сторонам и готовыми встретить вызовы завтрашнего дня.

Список использованной литературы:

1. Браун, Дж., & Грин, Т. (2021). Управление корпоративными рисками в международных гуманитарных организациях. Журнал управления рисками, 23(4), 301-320.
2. Джонсон, Л., Доу, С., & Смит, Р. (2019). Принятие стандартов ISO в гуманитарных организациях: Влияние на эффективность и подотчетность. Международный журнал гуманитарных исследований, 15(2), 157-175.
3. Ли, А., & Сингх, М. (2020). Сотруднические сети для соблюдения норм и управления рисками в гуманитарном секторе. Глобальный журнал гуманитарных исследований, 8(1), 45-60.
4. Патель, Р., & Кумар, А. (2018). Использование технологий для управления рисками в гуманитарных операциях. Журнал технологий в гуманитарной деятельности, 12(3), 234-249.
5. Смит, Дж., & Доу, А. (2020). Соблюдение международного гуманитарного права: Руководство для гуманитарных организаций. Обзор практики в области права и гуманитарной деятельности, 17(3), 89-112.
6. Уайт, К., & Блэк, Е. (2022). Интеграция соблюдения норм и управления рисками: Кейс-стади из гуманитарного сектора. Журнал соблюдения норм и управления рисками, 19(1), 75-92.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

IPAKCHILIK KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI BOSHQARISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Aliyeva Nodiraxon Abdumalikovna
Toshkent moliya instituti “Menejment va marketing” kafedra dotsenti

Annotatsiya: Maqolada ipakchilik tarmog‘ini rivojlantirish yo‘llari, ipakchilik klaster tizimidagi korxonalarda innovatsion faoliyatni boshqarishning o‘ziga xos xususiyatlari, innovatsion jarayonlarni tashkil etish bosqichlari bo‘yicha fikr-mulohazalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: ipakchilik, innovatsion faoliyat, innovatsion jarayon bosqichlari, boshqaruv modellari, ipakchilik klasterlari, samaradorlik.

Abstract: The article discusses and presents views on the path of development of the silk industry network, features of management of innovative activities at enterprises of the silk industry cluster system, stages of organizing innovative processes.

Key words: sericulture, innovation activity, stages of the innovation process, management models, sericulture clusters, efficiency.

Аннотация: В статье рассматривается и представлены взгляды о пути развития сети шелковой промышленности, особенности управления инновационной деятельностью на предприятиях кластерной системы шелковой промышленности, этапы организации инновационных процессов.

Ключевые слова: шелководство, инновационная деятельность, этапы инновационного процесса, модели управления, шелководческие кластеры, эффективность.

KIRISH

Jahon bozori kon’yunkturasining tez fursatlar bilan o‘zgarib borayotganligi, iste’molchilarning talablari o‘zgaruvchanligi va xorijiy bozorlarda o‘zbek ipak mahsulotlariga bo‘lgan talab oshayotganligi hisobga olgan holda, ipakchilik tarmog‘ini rivojlantirish, sifatli va yangi turdagi mahsulotlarni iste’molchilarga taqdim etish, shu orqali qishloq ayollarini ish bilan ta’minlash bugungi kun davr talabidir. Bugungi kunda, O‘zbekiston nafaqat pilla yetishtirish bo‘yicha yetakchi mamlakatlar qatorida, balki ipak mato eksportida ham dunyoda oltinchi o‘rinda bo‘lsa-da, tarmoqda 72 foizga yaqin mahsulot faqat birlamchi qayta ishlanib, eksportga yo‘naltiriladi. Eksportning eng katta qismini ipak momig‘i tashkil etib, jami eksportning 49,4 foizini tashkil etdi. Tayyor ipak mato eksporti yildan yilga oshib borsa-da, jami eksportdagi ulushi 27 foizdan iborat.

Har qanday sohani tizimli va uzluksiz taraqqiyotini ta’minlash tarmoqdagi innovatsion faollikni jadallashtirish bilan bog‘liq. Chunki innovatsiya-zamonaviy iqtisodiy nazariyalarda rivojlanish manbai sifatida tan olinadi. Mahsulotni yangilash va yangi texnologiyalarni joriy etib xarajatlarni kamaytirish, mahsulot sifatini yaxshilash, qo‘shimcha foyda olish innovatsion faoliyatning maqsadidir. Hozirgi kunda, ipakchilik tarmog‘ida klaster tizimini joriy etilishi, fan va texnika yutuqlarini joriy etgan holda, tarmoq korxonalarida innovatsion faoliyatni boshqarishni takomillashtirib borishni taqozo etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Korxonalarda innovatsion faoliyatni boshqarish masalalari ko‘plab olimlar tomonidan o‘rganilgan. Xususan, Klayna-Rozenberg, R.Rosvell, Akio Morita, Fumio Kodama, MDH mamlakatlari olimlaridan A. Ye.Ivanitskaya, A.Panfilova, S.A.Samal, A. Ye.Tyulin innovatsion faoliyatni boshqarishning ilmiy-nazariy va amaliy asoslari tadqiq etilgan. O‘zbekistonda korxonalarda innovatsion faoliyatini boshqaruv tizimini o‘rganish bo‘yicha N.Q.Yo‘ldoshev, G.A. Xamdamova, A.J.Toshboyev, I.S.Ochilovlar ilmiy tadqiqot olib borganlar. Respublikamizda ipakchilik tarmog‘ini rivojlantirish bo‘yicha Sh.O‘roqov, B.Q. Sharipov, O.Jumayev kabi olimlar ilmiy tadqiqot olib borganlar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolani yozishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlarini, ipakchilik tarmog‘idagi iqtisodiy va boshqaruv muammolari o‘rganilgan, sohani rivojlantirishda o‘z hissalarini qo‘shgan xorijlik va O‘zbekistonlik olimlarning ilmiy ishlari, o‘quv adabiyotlari tahlil qilindi. Tadqiqot metodologiyasi sifatida nazariy va statistik tahlil, kuzatish kabi usullardan foydalanildi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Ipakchilik tarmog‘ini rivojlantirishdagi asosiy vazifalardan biri sifatli pilla yetishtirish bo‘lsa, pillani qayta ishlash korxonalarining oldida turgan asosiy vazifa xom ipak va ipak mahsulotlari ishlab chiqarish sifat darajasini oshirishdan iborat. Hozirda xom ipak sifatini 4A sinf darajasiga olib chiqib, yaqin kelajakda bu ko‘rsatkichni 6A darajasigacha ko‘tarish zarur. Chunki, xalqaro bozorda 3A sinfiga mansub mahsulotning bir kilogrammi 47 dollar tursa, 4A esa 52-55 dollar atrofida, 6A sinfiga mansub mahsulotning bir kilogrammi esa 60 dollarni tashkil etadi. Xom ipak sifatini oshirish esa pillani birlamchi qayta ishlash korxonalarining daromadini oshirish imkonini beradi.

Ipakchilik tarmog‘ida innovatsiyalar asosan, 3 xil ko‘rinishda bo‘lib, bular yangi turdagi yoki takomillashgan ipak mahsulot turi, ipak mahsulotlarini ishlab chiqish jarayoniga yangi texnologiyalarni joriy etish, biznes jarayonlarni yangicha modelda tashkil etish va boshqaruvdagi tashkiliy o‘zgarishlardir. Ushbu tarmog‘da innovatsiyalarni joriy etishda iqtisodiy, texnik muammolar bilan birga qo‘yidagi muammolar ham mavjud bo‘lib, bular:

- har bir innovatsion jarayonning o‘ziga xosligi va takrorlanmasligi;
- investitsion dasturlar va innovatsion dasturlarning orasidagi tavofutni farqlay olmaslik;
- talab mavjud bo‘lmagan yo‘nalishda yangiliklarni yaratilishi;
- innovatsiyalarni ishlanmasini amaliyotda joriy etilmay qolishi;
- innovatsiya bo‘yicha samarasiz qarorlarni qabul qilinishi;
- xodim o‘zini innovatsiya bo‘yicha g‘oyalarini boshqalarga yetkazib berish usullarini bilmasligi;
- innovatsion g‘oyalarni shakllantirishda iste’molchi ehtiyojlari inobatga olinmasligi va shu kabi boshqa muammolar.

Korxona strategiyasida innovatsion rivojlanishning ustuvor yo‘nalishini aniq belgilash va rahbariyat tomonidan qo‘llab quvvatlanishi zarur. Ipakchilik tarmog‘idagi mavjud korxonalar innovatsion rivojlanishida resurslar ta’minoti nafaqat xomashyo resurslari, mehnat resurslari, moliyaviy resurslar va asosiy ishlab chiqarish texnologiyalaridan iborat bo‘lishi, balki intelektual resurs, ya’ni bilim juda muhim hisoblanadi. Korxona korporativ madaniyatida samaradorlikni oshirishga qaratilgan innovatsiyalarga qiziqishlar, tashabbuskorlik va ma’suliyatliylik ruhiyati mavjud bo‘lishi, innovatsiyalarni joriy etishga mas’ul shaxs tayinlanishi va innovatsion jarayonlarni tizimlashtirish kabi tashkiliy masalalar o‘z yechimiga ega bo‘lishi ham innovatsion rivojlanishni ta’minlaydi. Ayniqsa, innovatsion jarayon ishtirokchilarini moddiy va nomoddiy rag‘batlantirish korxonani innovatsion rivojlanishidagi muvaffaqiyat kaliti hisoblanadi. Chunki, innovatsion faoliyat har bir ishtirokchidan har doimga nisbatan bilim va e’tiborni talab etadi va bu albatta o‘zaro manfatdorlik asosida bo‘lishi maqsadga muvofiq.

Ma’lumki, innovatsion faoliyatni boshqarishda innovatsion jarayonlar bilan shug‘ullanuvchi shaxslarni boshqarish tamoyillari, usullari va shakllari tizimidan iborat. Ipakchilik tarmog‘ida innovatsion faoliyat samaradorligi, inovatsion jarayonlarni boshqarish mexanizmini shakllanganligi va mexanizmning amalga oshishi natijasida yuzaga keladi. Innovatsion faoliyatni boshqaruv mexanizmi boshqaruv vositalari va usullari yig‘indisidan iborat. Boshqaruv vositasi boshqarishni amalga oshirishga yordam beruvchi normalar, me’zonlar, talablar ko‘rinishida bo‘lib, richag sifatida hizmat qiladi.

Ipakchilik korxonalarida innovatsion faoliyatni boshqarish jarayonlarining o‘zini ikki guruhga bo‘lish mumkin. Birinchi guruh, asosiy innovatsion jarayon bo‘lib, bunda bozordagi talab va mavjud imkoniyatlardan kelib chiqqan holda g‘oyalar shakllanadi va u ilm-fan asosida innovatsion mahsulot yoki texnologiya ko‘rinishiga kelib iste’molchilarga yetib boradi. Iste’molchilarning ehtiyojlaridan kelib chiqib, bu jarayonda doimiy o‘zgarishlar bo‘ladi. Ikkinchisi, boshqaruv jarayonlari bo‘lib, bunda boshqaruvining boshqa funksiyalari ham bajariladi. Bu jarayonlarni boshqarishda innovatsion faoliyatni boshqarish usullari va tamoyillaridan foydalanish maqsadga muvofiq (1-rasm).



1-rasm: Korxonalarda innovatsion faoliyatni boshqarish

Yangi turdagi mahsulotini ishlab chiqish jarayonining hayotiylik sikli bo‘lib, u g‘oyaning paydo bo‘lishidan boshlab, iste’molchining ehtiyojini qondirishga qadar bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Bu sikl 6 ta bosqichni tashkil etib, bu bosqichlarda ipakchilik klaster rahbarlari har bir holatda muqobil qarorlar qabul qilishini talab etadi.

Birinchi bosqich, pillachilik klasterining innovatsion strategiyasi. Klaster faoliyati bo‘yicha strategik qarorlar faqat korxonalarning umumiy strategiyasi va strategik ishlab chiqarish dasturi sohasida qarorlar bilan bog‘liq holda qabul qilinishi kerak. Shu bilan birga, ular keyingi jarayonlarga oid qarorlar uchun dastlabki shartlarni oldindan belgilaydilar. Qo‘yidagi strategik qarorlar innovatsion jarayonlarni hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lib, bular qo‘llaniladigan texnologiyalarni tanlash, ishlab chiqariladigan tovarlarni tanlash, ishlab chiqarish va sotish jarayonidagi hamkorlarni tanlash hamda tovar va xizmatlarni yangilash jarayonining xajmi va tezligini belgilab beradi.

Ikkinchi bosqich, talab va ehtiyojdan kelib chiqib, g‘oyalar izlash va ularni baholash. Yangi g‘oyalarni ishlab chiqishda innovatsion menejer turli hil usullarni qo‘llay olishi hamda uni baholay olishi kerak.

Uchinchi bosqich mahsulot bo‘yicha qaror qabul qilish bo‘lib, bunda rahbar aynan shu mahsulot bozorda o‘z o‘rniga ega bo‘lishi va korxonani rivojlanishiga yordam berishiga ishonch hosil qilishi kerak.

To‘rtinchi bosqich, tadqiqot va ishlanmalar, texnologiyalar transferti. Bu bosqichda ilmiy muassasalar bilan hamkorlikda tadqiqotlar olib borish yoki mutaxasis xodimlarni ishga olish mumkin.

Beshinchi bosqich, ishlab chiqarishni joriy etish. Mahsulotni sinov tariqasida ishlab chiqarib, maqullangandan so‘ng keng ko‘lamda ishlab chiqarish jarayoni boshlash.

Boshqaruvchi uchun bu bosqichda qo‘yilgan maqsadga erishishdagi mahsus tayyorgarlik va rejalashtirish asosida ishlab chiqarishni qisqa muddatlar oralig‘ida joriy etishni ta’minlash juda muhimdir. Qisqa muddatda yangi turdagi mahsulotni ishlab chiqarishni joriy etish raqobatchilarga nisbatan bozorda afzallikka ega bo‘ladi va korxona foydasini oshirishga imkon beradi.

Oltinchi bosqich, bozorga kirib borish. Innovatsion jarayon yangilikni bozorga kirib borishi bilan yakunlanadi. Innovatsion jarayonning har bir bosqichi o‘ziga yarasha mablag‘ talab etib, boshqaruvchining vazifasi, ushbu innovatsion jarayonlarni kerakli resurslardan oqilona foydalanishni boshqarishni talab etadi.

Ipakchilik korxonalarida innovatsion faoliyatni boshqarishning asosiy maqsadlari yangi turdagi ipak mahsulotlarini ishlab chiqish, mavjudlarini takomillashtirish, korxonaning ilmiy-texnik va ishlab chiqarish faoliyatini

asosiy yo‘nalishlarini aniqlash, foydalilik darajasi yuqori bo‘lgan ishlab chiqarishni yanada modernizatsiyalash, tashqi bozorga xalqaro standartlarga mos bo‘lgan tayyor ipak mahsulotlarini olib chiqishdan iboratdir.

Ushbu maqsaddan kelib chiqqan holda, ipakchilik tarmoq korxonalarida innovatsion faoliyatni boshqarishning qo‘yidagi asosiy funksiyalarini belgilab olish mumkin:

- ipakchilik klasterlarida innovatsion maqsad va dasturlarni bozorning holati va tashqi muhit o‘zgarishiga qarab doimiy ravishda muvofiqlashtirib borish;
- ozuqa bazasini tashkil etish, pillani yetishtirish, qayta ishlash hamda tayyor mahsulot ishlab chiqarish jarayoniga innovatsiyani joriy etish;
- innovatsiyalarni yaratish va joriy etishda ilmiy tadqiqot muassasalar bilan hamkorlik qilish;
- tarmoqdagi xodimlarni bilim va malakalarini oshirishda innovatsion usullarini qo‘llash;
- pillachilik klasterining har bir bo‘g‘inida innovatsion jarayonni ta’minlash;
- innovatsion boshqaruv usullarini qo‘llash asosida, strategik boshqarish va rejalashtirish funksiyalarini joriydan istiqbolga qarab o‘zgartirib borish;
- korxonaning innovatsion faoliyatini takomillashtirishning barcha asosiy omillaridan foydalanish;
- ipakchilik tarmog‘ida ishlab chiqarilgan mahsulotlarni iste’molchilarga taqdim etishda innovatsion usullar asosida marketing faoliyatini tashkil etish;
- o‘zgarishlarni oldindan sezish va vaziyatga moslashuvchan qarorlarni qabul qilishga asoslangan boshqaruvni amalga oshirish;
- har bir boshqaruv qarorini chuqur iqtisodiy tahlil qilish.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi fikrlardan, innovatsiyalar - turli xil xususiyatlarga va boshqaruvga ega bo‘lgan ilm-fan, ishlab chiqarish, investitsiya va mahsulotni sotish sohalarini birlashtiradi degan xulosaga kelish mumkin. Ipakchilik tarmog‘ida innovatsion faoliyat faqat yangi turdagi mahsulot ishlab chiqarish emas, balki korxonalarning turli faoliyatida yangicha jarayonlarni joriy etilishi ham bo‘lishi mumkin. U nafaqat texnogogik ishlanmalar, balki korxona faoliyatini ijobiy o‘zgarishlari hamda bilim o‘rganish jarayonlarini boshqarishni ham o‘z ichiga oladi. Tarmoqda innovatsion faoliyat moddiy-texnik, mehnat va moliyaviy resurslardan samarali foydalangan holda innovatsion maqsadlarni amalga oshirishga qaratilgan faoliyat hisoblanadi.

Hozirgi kunda tashkil etilayotgan ipakchilik klasterlarida innovatsion faoliyatni boshqarish, aynan shu tarmoqni yaxlit tizim sifatida rivojlantirish imkonini berar ekan, tarmoqning har bir bo‘g‘ini aloxida va uzviy holda innovatsion jarayonlarni tashkil etish zarur. Ipakchilik klasterlarining asosiy maqsadi, tarmoqda tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish orqali qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratishdan iborat. Lekin, tarmoqdagi ishtirokchilarning moddiy manfaatini oshirish maqsadida, tarmoqning umumiy daromadini oshirishda mavjud resurslardan samarali foydalanishni yo‘lga qo‘yish xorij tajribalarida ham o‘z samarasini bergan. Buning uchun tarmoqdagi bor imkoniyatlarni ishga solib, qo‘shimcha tarmoqlarni tashkil etish kerak.

Pillachilik tarmog‘ida innovatsion rivojlanishi borasidagi muammolar o‘z yechimini topishida, birinchi navbatda tarmoqda innovatsion faoliyatni samarali boshqarish, ipak mahsulotlarning sifatini oshirish va tarmoqda raqobat muhitini yanada yaxshilash kabi chora-tadbirlarni amalga oshirish hal etuvchi ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Innovatsion faoliyat” Qonuni. O‘RQ-630 sonli 24.07.2020./lex.uz
2. Иваницкая А. Е. Функциональный подход к управлению инновационной деятельностью предприятий. Диссертация к. э.н. Владимир -2014.
3. Самаль С.А. Современные методы управления инновационной деятельностью на предприятиях// Инновационные технологии в экономике. 12.10.2016. Web:http://elibrary.miu.by/journals!/item.eiup/issue.48/article.1.html
4. Тюлин А. Е. Повышение конкурентоспособности инновационно активных предприятий на основе создания и применения ключевых компетенций. Диссертация к.э.н. –Москва 2017.
5. Ochilov I.S.Klaster tizimida innovatsion samaradorlik masallalari. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. –№2, mart-aprel, 2019-yil
6. Jumayev O.S. “O‘zbekistonda ipakchilik sanoatining rivojlanish strategiyalari samaralari”. Elektron jurnal- Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. –№8. 2023-yil.
7. “O‘zbekipaksanoat” uyushmasi ma’lumotlari.

SOLIQLARNING YIG‘ILUVCHANLIGI VA UNGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI

ORCID https://orcid.org. 0009-0001-1202-2448

Abdurasulov Alisher Abdurasulovich
TDIU tadqiqotchisi

Annotatsiya: Har qaysi soliq tizimida soliq siyosatining samaradorligini belgilovchi ko‘rsatkichlar mavjud bo‘ladi. Shulardan biri, bu soliqlarning yig‘iluvchanligi masalasidir. Soliqlarning yig‘iluvchanligi ta’minlash bir tomondan soliq ma’murchiligiga bog‘liq bo‘lsa, boshqa tomondan soliq to‘lovchilarning madaniyatiga bog‘liq bo‘ladi. Biroq bu borada ma’lum darajada ijobiy natijalarga erishilgan bo‘lsa-da, biroq, ayrim muammolar ham yo‘q emas. Mazkur maqolada ana shu masalalar keng yoritiladi.

Kalit so‘zlar: soliq, soliqqa tortish, yig‘iluvchanlik, soliq yig‘iluvchanligi, omil, soliq imtiyozlari, preferensiya, soliq qarzi, ortiqcha to‘lov, soliq siyosati, makroiqtisodiy barqarorlik, soliq tushumlari.

Abstract: In any tax system, there are indicators that determine the effectiveness of tax policy. One of them is the issue of tax collection. Ensuring tax collection depends on tax administration, on the one hand, and on the culture of taxpayers, on the other hand. However, although some positive results have been achieved in this regard, some problems still exist. This article discusses these issues in detail.

Key words: tax, taxation, collection, tax collection, factor, tax credit, preference, tax debt, overpayment, tax policy, macroeconomic stability, tax revenues.

Аннотация: В любой налоговой системе существуют показатели, определяющие эффективность налоговой политики. Одним из них является вопрос сбора налогов. Обеспечение собираемости налогов зависит от налогового администрирования, с одной стороны, и от культуры налогоплательщиков, с другой стороны. Однако, хотя в этом отношении достигнуты некоторые положительные результаты, все еще существуют некоторые проблемы. В этой статье подробно рассматриваются эти вопросы.

Ключевые слова: налог, налогообложение, сбор, сбор налогов, фактор, налоговый кредит, преференция, налоговая задолженность, переплата, налоговая политика, макроэкономическая стабильность, налоговые поступления.

KIRISH (INTRODUCTION)

Ma’lumki, Yangi O‘zbekiston sharoitida 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida hamda O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida soliq solish tizimini izchillik bilan soddalashtirish, soliq solinadigan bazani kengaytirish orqali soliq yukini pasaytirish kabi vazifalar ijrosi yuzasidan, shuningdek soliq ma’muriyatchiligining zamonaviy uslublarini joriy etish, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning yig‘iluvchanligini oshirish masalasi ustuvor masala qilib belgilanishi bejiz emas. Chunki soliqlarning yig‘iluvchanligi masalasi (muammosi) bir tomondan soliq ma’murchiligiga bog‘liq bo‘lsa, boshqa tomondan soliq to‘lovchilarning madaniyatiga bog‘liq bo‘ladi.

O‘z navbatida, soliqlarning yig‘iluvchanligi muhim soliq ko‘rsatkichi hisoblanib, uning darajasi davlat budjetidan ijtimoiy xizmatlarni moliyalashtirishga ham katta ijobiy (yoki salbiy) ta’sir qiladi. Bu ko‘rsatkichni aniqlash va uning uslubiy jihatlari soliq tizimidagi muhim elenmentlardan biri hisoblanadi. Soliqlarning yig‘iluvchanlik darajasiga juda ko‘plab omillar ta’sir qiladi, bu omillarning har birining ta’sirini tadqiq qilish kichik ilmiy tadqiqotlarni taqozo etadi.

Soliqlarning yig‘iluvchanlik masalalariga bag‘ishlangan xorijiy va mahalliy olimlarimiz tomonidan ma’lum darajada ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan, ammo, bu kabi tadqiqotlar turli davrlarni qamrab olgan bo‘lib, soliq islohotlarining ko‘lami va uning mazmuni va yo‘nalishiga qarab soliq yig‘iluvchanligiga ham ta’sir qilib boradi. Shu jihatdan olganda mazkur maqola doirasida tanlangan mavzu doirasidagi masalalarning eng muhim jihatlariga e’tibor qaratiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI (LITERATURE REVIEW)

Soliqlarning yig‘iluvchanlik muammosi soliq nazariyasining klassik iqtisodchi olimlaridan tortib, bugungi zamonaviy iqtisodchi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida asosiy obyekt sifatida tanlab olingan. Jumladan, klassik soliq nazariyachilari A.Smit, D. Rikardo, U.Petti, Dj.S.Mill, F.Kene va shu kabilarning ilmiy tadqiqotlarida davlat o‘z ehtiyojlari uchun jalb qiladigan mablag‘larning manbalari nimalar bo‘lishi bilan bir qatorda, soliqlarni yig‘ishning usullari haqida ilmiy takliflar ishlab chiqqan. Keyinchalik, bu muammo zamonaviy M.Keyns Dj., P.Samuelson, B.A.Rayzberg, D.G.Chernik., A.Perov, A.Tolkushkin, A.Pezenti, Yu.Yu.Petrunin, M.I.Panov kabilar olimlarning ilmiy tadqiqotlariga ahm mavzu sifatida tanlab, ayrim ilmiy xulosalar shaklantirildi.

Soliqlarning yig‘iluvchanlik masalasi mahalliy olimlarimizdan aksariyati tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. esa soliq siyosatining mazmuni va uning strategik muammolari bilan bog‘liq ilmiy tavsiyalar ishlab chiqqan. Jumladan, T.Malikov, N.Haydarov, A.Jo‘rayev, M.Alimardanov, N.Quziyeva, T.Toshmatov, I.Niyazmetov, S.Xudoyqulov, N.Ashurova, U.Normurzayev, A.Islomqulov, A.Toshqulov, J.Zaynalov, J.O‘rmonov kabilarning ilmiy tadqiqotlarini keltirish mumkin.

Jumladan, MDH mamlakatlari olimlari: S.V. Barulin, A.V. Makrushin, V.A. Timoshenkolarning ilmiy tadqiqotlarida mamlakatning soliq siyosatida soliq va soliqsiz tushumlarning budjetga kelib tushishining konseptual masalalari yoritilgan bo‘lsa, mahalliy olimlarimizdan, I.Niyazmetov soliq tizimida soliqlarning yig‘iluvchanligi va soliq yuki o‘rtasidagi bog‘liq masalalarni tadqiq qilgan bo‘lsa, A.Islomqulov davlat budjeti daromadlariga ta’sir qiluvchi omillarni tahlil qilgan va uning soliq yig‘iluvchanligi holatini tadqiq qilgan. U.Nomurzayev esa, soliq to‘lovchilarga berilgan imtiyozlarning soliq yig‘iluvchanligini oshirishga (kamayishga) ta’sirini uslubiy jihatdan bog‘lagan.

Shuni ham alohida qayd etish lozimki, soliqlarning yig‘iluvchanlik masalasini nafaqat yillar kesimida, balkim chorak va oylar, hattoki, kunlar kesimida tahlil qilish ijtimoiy-iqtisodiy zaruratdir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI (RESEARCH METHODOLOGY)

Soliqlarning yig‘iluvchanligiga oid tadqiqot ishlarini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo‘llaniladigan usullardan ham foydalaniladi. Soliqlarning yig‘iluvchanligining mohiyatini ochib berishda deduksion yoki induksion usullardan foydalanilgan bo‘lsa, unga ta’sir etuvchi omillarni tahlil qilishda guruhlash, sintez va tahlil usullardan samarali foydalanildi. Bundan tashqari, statistik tahlillarga asoslanib, iqtisodiy-soliq ko‘rsatkichlarining dinamik o‘zgarishlari tahlil qilindi. doirasida ko‘p qo‘llanilib kelinadigan tadqiqot usullaridan keng foydalaniladi. Shuningdek, mantiqiy va taqqoslama, abstrakt-mantiqiy fikrlash usullari ham o‘z samarasini beradi deb hisoblanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR (ANALYSIS AND RESULTS)

O‘zbekistonda hozirgi jadal ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar sharoitida budjet-soliq siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri soliqlarning yig‘iluvchanlik darajasini oshirish va shu orqali budjet daromadlarining bir maromda shakllantirishga erishishdan iborat. Soliqlarning yig‘iluvchanligi bu o‘z navbatida soliq tushumlarining prognoz ko‘rsatkichlarining bajarilishi darajasini ham ifodalaydi. Iqtisodchi olim F.Mirzayevning fikriga ko‘ra, soliq yig‘iluvchanligi darajasi soliq tizimining fiskal funksiyasini tavsiflovchi sifat ko‘rsatkichi hisoblanib, u qancha yuqori bo‘lsa, soliqlarning fiskal funksiyasi shunchalik darajada yaxshi bajarilayotganligini ko‘rsatadi. Soliq yig‘iluvchanligi darajasini oshirish soliq salohiyati bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu nuqtayi nazardan, umumdavlat miqyosida soliq yig‘iluvchanligini baholashda hududlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasini, xususan, soliq salohiyatini hisobga olish maqsadga muvofiqdir[1].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-iyuldagi “Soliq ma’muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa to‘lovlarning yig‘iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonida soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning yig‘iluvchanligini oshirish maqsadida bir qator vazifalar belgilab berildi. Jumladan, “soliq solish obyektlari va soliq solinadigan bazaning o‘z vaqtida hamda ishonchli hisobga olinishini ta’minlash, soliq majburiyatlarini bajarishda soliq to‘lovchilarga har tomonlama ko‘maklashish, soliq nazoratini amalga oshirishning zamonaviy uslublarini joriy etish, makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar dinamikasi va hududlarning soliq salohiyatini tizimli tahlil qilish orqali soliq solish obyektlarini to‘liq qamrab olishni ta’minlash va soliq solinadigan bazani kengaytirish bo‘yicha samarali chora-tadbirlarni amalga oshirish, faoliyat ko‘rsatmayotgan korxonalarning faoliyatini tiklashga har tomonlama ko‘maklashish, past rentabelli va zarar ko‘rib ishlayotgan korxonalarning moliyaviy ahvolini sog‘lomlashtirish, o‘zaro hisob-kitoblar mexanizmlarini mustahkamlash, soliq qarzi oshishiga yo‘l qo‘ymaslik orqali soliq solinadigan bazani kengaytirish, respublika va mahalliy budjetlar daromadlarini oshirishning qo‘shimcha zaxiralarini aniqlash orqali moliya organlari, manfaatdor vazirlik va idoralar,

1 F.Mirzayev. Soliq yig‘iluvchanligini hisoblashning uslubiyoti va amaliyoti. www.biznes-daily.uz/ru/birjaexpert/15687.

shuningdek mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan hamkorlikni yanada kengaytirish”[2] kabi vazifalar belgilab berildi.

Mamlakatda keng ko‘lamli islohotlar boshlanishi va yangi O‘zbekiston qurilishi bilan soliq sohasi ham tubdan o‘zgardi. O‘sha paytda amaldagi Soliq kodeksi yangi talablarga javob bermasligi hammaga ayon bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-599-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonuni bilan qabul qilingan Soliq kodeksining yangi tahriri respublika hududida amalda bo‘lgan soliqqa tortish masalalarini tartibga soluvchi barcha amaldagi norma va qoidalarni takomillashtirish va tizimlashtirish orqali to‘g‘ridan to‘g‘ri amal qiluvchi hujjat sifatida ishlab chiqilgan bo‘lib, soliq munosabatlari tizimida yagona qonunchilik bazasini yaratishga imkon berdi. Ushbu chora soliq qonunchiligi sohasidagi qonunosti normativ-huquqiy hujjatlar sonini sezilarli darajada kamaytirdi.

Yangi tahrirdagi Soliq kodeksi makroiqtisodiy vaziyatning barqarorligini, davlat budjeti va uning daromadlarini shakllantirishning barqarorligini ta’minlashga, soliq qonunchiligini soddalashtirishga, soliq munosabatlari sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlardagi qarama-qarshiliklar va to‘qnashuvlarni bartaraf etishga, vijdonli soliq to‘lovchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni kuchaytirishga qaratilgan. Soliq kodeksining yangi tahririni ishlab chiqish jarayonida soliqlar sonini ularni birlashtirish, shuningdek o‘xshash soliq bazasiga ega bo‘lgan soliqlarni birlashtirish, soliq hisobotlarini qisqartirish va soddalashtirish, operatsion xarajatlarni minimallashtirish orqali yanada optimallashtirish amalga oshirildi.

Umuman olganda, Soliq kodeksining yangi tahriri loyihasi soliqlarni undirishning amaliyotda sinalga tamoyillar va yondoshuvlar, boshqa mamlakatlarning ilg‘or tajribalariga asoslanadi. Xususan, uning ustida ishlashda MDH mamlakatlari va Yevropa Ittifoqi tajribasidan foydalanilgan.

Soliq kodeksining yangi tahrirda qabul qilinishi O‘zbekiston soliq tizimini xalqaro standartlarga yanada yaqinlashtirishga, qonunga bo‘ysunuvchi soliq to‘lovchilar huquqlarini yuqori darajada himoya qilishni ta’minlab, uni milliy va xorijiy investorlar uchun osonroq va tushunarli qilishga imkon beradi.

O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasining amaliyotga joriy etilishi natijasida mehnatga haq to‘lash jamg‘armasiga soliq yuki kamaytirildi, aylanma mablag‘lardan olinadigan soliqlar optimallashtirildi, davlat maqsadli jamg‘armalariga majburiy ajratmalarni bekor qilish va yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i stavkasini kamaytirish orqali soliq tizimi qayta ko‘rib chiqildi. Soliq tizimini yanada takomillashtirish, iqtisodiyotda xufiyona aylanmani qisqartirish va O‘zbekiston Respublikasi soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasining asosiy yo‘nalishlarini amalga oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyundagi “Soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5468-sonli Farmoni qabul qilindi va uning asosida O‘zbekiston soliq tizimida soliq ma’murchiligi yanada soddalashtirilgan holda takomillashtirildi, Soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish strategiyasi va Soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” tasdiqlandi.

1-jadval: Davlat budjetiga soliqli tushumlarning guruhlari bo‘yicha ahamiyati tahlili (mlrd so‘m)[3]

№	Кўрсаткичлар	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023 -y.*
	YAIM (Yalpi ichki mahsulot)	**424 729**	**529 391**	**602 551**	**734 588**	**888 342**	**1 066 690**
	Davlat budjeti daromadlari	**79 099**	**112 165**	**132 938**	**164 799**	**202 043**	**233 600**
Jumladan:							
1.	Bevosita soliqlar	15 437	31 677	45 207	58 930	64 447	73 300
2.	Bilvosita soliqlar	40 949	46 427	46 428	56 290	71 390	85 900
3.	Resurs soliqlari	12 663	19 681	21 257	23 036	23 913	28 300
4.	Boshqa daromadlar	10 050	14 380	20 046	26 542	42 293	46 100

* Ushbu yildagi ko‘rsatkichlar dastlabki ma’lumotlarga asoslangan, haqiqiy tushumlarda biroz ko‘payish jihatdan farq qilishi mumkin.

2023-yilda Davlat budjeti daromadlari prognoz ko‘rsatkichlariga nisbatan 100,4 foizga bajarilib, haqiqatda ijrosi 233,6 trln so‘m bo‘ldi, Bu o‘tgan yilgi daromadlarga nisbatan 31,7 mlrd so‘mga yoki 15,7 foizga ko‘p deganidir. Jumladan, Soliq qo‘mitasi tomonidan undiriladigan soliqlar orqali 167,1 trln so‘m daromadlar shakllantiriladi hamda Bojxona qo‘mitasi bo‘yicha 56,7 trln so‘m mablag‘lar budjetga undirildi.

Agar, soliq tushumlarining yig‘iluvchanlik holatini soliq guruhlari bo‘yicha tahlil qilinadigan bo‘lsak, bevosita soliqlar bo‘yicha tushumlar belgilangan prognoz ko‘rsatkichlariga nisbatan 736 mlrd so‘mga kam yoki 99,0

2 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-iyuldagi “Soliq ma’muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa to‘lovlarning yig‘iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.

3 Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

foizga bajarilib, haqiqatda ijrosi 73,3 trln so‘m bo‘lgan, bu o‘tgan yilgi daromadlarga nisbatan 8,9 trln so‘mga yoki 13,8 foizga ko‘p va 2023 yilda bevosita soliqlar Davlat budjeti daromadlarining 31,4 foizini tashkil qilgan.

Tahlilni bevosita soliq turlari bo‘yicha davom ettiradigan bo‘lsak, foyda solig‘i bo‘yicha tushumlar belgilangan prognoz ko‘rsatkichlariga nisbatan 1,9 trln so‘m kam yoki 95,5 foizga bajarilib, haqiqatda ijrosi 40,9 trln so‘m bo‘lgan holda, o‘tgan yilgi daromadlarga nisbatan 3,3 trln so‘mga yoki 8,7 foizga ko‘p. Tushumlarning pasayishi, asosan, tovarlarni (xizmatlarni) eksportga realizatsiya qilishdan olingan foydaga “0” foiz miqdoridagi soliq stavkasi belgilanishi bilan izohlanadi. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bo‘yicha tushumlar belgilangan prognoz ko‘rsatkichlariga nisbatan 1,3 trln so‘m ko‘p yoki 104,7 foizga bajarilib, haqiqatda ijrosi 29,6 trln so‘m bo‘lgan holda o‘tgan yilgi daromadlarga nisbatan 5,3 trln so‘mga yoki 21,9 foizga ko‘pdir. Aylanmadan olinadigan soliq bo‘yicha tushumlar belgilangan prognoz ko‘rsatkichlariga nisbatan 44,9 mlrd so‘m kam yoki 98,4 foizga bajarilib, haqiqatda ijrosi 2,8 trln so‘m bo‘lgan. O‘z navbatida o‘tgan yilgi daromadlarga nisbatan 267 mlrd so‘mga organligini ko‘rish mumkin.

Bilvosita soliqlar kesimidagi tahliga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, 2023-yilda bu bo‘yicha tushumlar belgilangan prognoz ko‘rsatkichlariga nisbatan 3,3 trln so‘m kam yoki 96,3 foizga bajarilib, haqiqatda ijrosi 85,9 trln so‘m bo‘lgan. O‘z navbatida qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha tushumlar belgilangan prognoz ko‘rsatkichlariga nisbatan 4,7 trln so‘m kam yoki 92,8 foizga bajarilib, haqiqatda ijrosi 60,0 trln so‘m bo‘lgan, bunda, energoresurs qazib chiqarish, qayta ishlash hajmi pasayishi hamda tariflarini ko‘rib chiqishning kechiktirilishi, dunyo bozorida paxta tolasi, don va kimyoviy o‘g‘itlar narxi pasayishi hamda noqulay ob-havo sharoitida korxonalar xarajatining oshishi soliq tushumlari yo‘qotilishiga olib kelgan. Aksiz solig‘i bo‘yicha tushumlar esa, belgilangan prognoz ko‘rsatkichlariga nisbatan 1,5 trln so‘m kam yoki 91,7 foizga bajarilib, haqiqatda ijrosi 16,4 trln so‘m bo‘lib, mazkur soliq bo‘yicha tushumlarning prognoz ko‘rsatkichlariga nisbatan kam bo‘lishi yil boshida havo haroratining keskin sovib ketishi natijasida avtomobillarga siqilgan gaz quyish shoxobchalarining faoliyati vaqtincha to‘xtatilganligi va AI-80 rusumli avtobenzin mahsuloti uchun aksiz solig‘i “nol” stavkada qo‘llanilishi bilan izohlanadi.

Agar, soliq tushumlarining yig‘iluvchanligini respublikamizda yirik soliq to‘lovchilar kesimida tahlil qiladigan bo‘lsak, uni quyidagi 2-jadval ma’lumotlari asosida ko‘rishimiz mumkin.

2-jadval: 2023 yilda tarmoqlar kesimida soliq tushumlarining yig‘iluvchanlik holati tahlili (mlrd. so‘m)[4]

№	Tarmoq (korxona)lar	Yil boshiga belgilangan prognoz ko‘rsatkichlari	Yil oxiriga* haqiqiy tushumlar	Soliqlarning belgilangan prognoz ko‘rsatkichlariga nisbatan yig‘iluvchanligi (%)da	Farqi (+; -)
Respublika bo‘yicha jami:		**163 811,0**	**165 917,5**	**101,3**	**2 106,5**
Shu jumladan:					
1	Yirik soliq to‘lovchilar	98 928,5	97 668,3	98,7	-1 260,2
Shu jumladan:					
1	“Navoiy KMK” AJ	18 556,6	24 320,0	131,1	5 763,4
2	“Olmaliq KMK” AJ	9 096,3	8 650,3	95,1	-446,1
3	O‘zbekneftegaz tarmog‘i (31 ta korxona)	8 094,8	7 212,9	89,1	-881,9
4	Transgaz AJ	5 244,5	3 279,4	62,5	-1 965,0
5	Uyali aloqa kompaniyalari (5 ta korxona)	2 809,5	2 333,3	83,0	-476,3
6	Tamaki mahsuloti ishlab chiqaruvchilar (2 ta korxona)	2 964,0	2 898,2	97,8	-65,8
7	O‘zavtosanoat AJ (21 ta korxona)	2 924,2	4 220,4	144,3	1 296,2
8	Energetika tarmog‘i (81 ta korxona)	4 078,5	3 923,0	96,2	-155,5
9	Banklar (33 ta)	6 170,8	6 375,1	103,3	204,3
10	Alkogol mahsuloti ishlab chiqaruvchilar (61 ta korxona)	2 175,1	2 342,4	107,7	167,3
11	Hududgazta’minot AJ (15 ta korxona)	3 442,4	3 233,0	93,9	-209,4
12	Lukoyl QK kompaniyasi	4 187,9	2 906,3	69,4	-1 281,6
13	O‘zkimyosanoat AJ (17 ta korxona)	1 681,4	1 536,0	91,4	-145,4

* Ushbu yildagi ko‘rsatkichlar dastlabki ma’lumotlarga asoslangan, haqiqiy tushumlarda biroz ko‘payish jihatdan farq qilishi mumkin.

4 Davlat soliq qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblab chiqilgan.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Keltirilgan 2-jadval ma'lumotlaridan xulosa qilish mumkinki, yirik soliq to'lovchilar bo'yicha 2023-yilda prognoz ko'rsatkichlari 98 928,5 mlrd so'm bo'lgan holda amaldagi soliqlarning yig'iluvchanligi 97 668,3 mlrd so'm bo'lgan holda 98,7 foizga bajarilgan holda – 1 260,2 mlrd so'mga kamaygan. Bu kamayishga O'zavtosanoat AJ, banklar, alkogol mahsuloti ishlab chiqaruvchilar hamda "Navoiy KMK" AJdan tashqari barcha tarmoq va korxonalarda soliq tushumlarining kamayishi sabab bo'lgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR (CONCLUSION/RECOMMENDATIONS)

Fikrimizcha, ushbu tarmoqlarda soliqlarning yig'iluvchanligini oshirish uchun shu bilan birga, tarmoqda iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun birinchidan, zamonaviy resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etishni, ikkinchidan, biologik eskirgan navlar o'rniga iqlim o'zgarishiga mos hosildorligi yuqori yangi navlarni kengaytirish, uchinchidan, irrigatsiya tizimida suv hisob-kitob tizimini raqamlashtirishni yo'lga qo'yish hamda suv yo'qotishlarining oldini olish uchun kanallarni betonlashtirish ishlariga alohida e'tibor qaratiladiki, buning natijasida soliq bazasi yanada oshib soliq tushumlarining yig'iluvchanligiga ijobiy ta'sir qiladi.

Bundan tashqari O'zbekiston soliq tizimida soliqlarning yig'iluvchanligini oshirish uchun quyidagi yo'nalishlardagi soliq islohotlarni kuchaytirish zarur deb hisoblaymiz:

Birinchidan, soliq to'lovchilar tomonidan elektron hisob-fakturalarni (EHF) to'g'ri rasmiylashtirish, qayta ishlash va hisobotlarga tuzatishlar kiritish jarayonini yanada takomillashtirish, ikkinchidan, soliq xizmati organlari tomonidan qo'shimcha soliq obyektlari va yer maydonlarni aniqlash mexanizmining samaradorligini oshirish, uchinchidan, soliq to'lovchi korxonalarning yil boshidagi soliq qarzlarni undirishning samarali usullaridan kengroq foydalanish, to'rtinchidan, soliq to'lovchilar faoliyatini bo'yicha soliq tekshiruvi natijasini shaffof hamda insofli soliq to'lovchilarni qullash orqali soliq tushumlarini ko'paytirish, beshinchidan, soliq to'lovchilar tomonidan shirilgan ish o'rinlari va mehnatga haq to'lash fondini legallashtirishni ta'minlash, oltinchidan, soliq to'lvochilarda Onlayn nazorat kassa mashinalarining doimiy ishlash mexanizmlarini kuchaytirish va shu kabilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. O'zbekiston Respublikasi 2019-yil 30-dekabrdagi O'RQ-599-son Qonuni bilan tasdiqlangan.
2. O'zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi. O'zbekiston Respublikasi 2013-yil 26-dekabrdagi O'RQ360son Qonuni bilan tasdiqlangan.
3. O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi "Soliq va budjet siyosatining 2023-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-812-son Qonuni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. lex.uz›docs/5841063
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyundagi PF-5468-sonli "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida"gi Farmoni. lex.uz›docs/3802378
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-iyuldagi PF-5116-sonli "Soliq ma'muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. lex.uz›docs/3271159
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-iyuldagi PQ-4389-sonli "Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori. lex.uz›ru/docs/4415356
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 31-maydagi PQ-3756-sonli "Imtiyozlar va preferensiyalar berish tartibini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. lex.uz›docs/3765550
9. O'zbekiston Respublikasining "2022-yil uchun O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti to'g'risida"gi Qonuni loyihasi va 2022-yil uchun Budjetnoma bo'yicha O'zbekiston Respublikasi hisob palatasining xulosasi. lex.uz›docs/5801127
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-iyuldagi "Soliq ma'muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa to'lovlarning yig'iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.journal.tsue.uz›index.php/archive/article/view/…
11. Vahobov A., A.Jo'rayev. Soliqlar va soliqqa tortish: Darslik. – T.: "Sharq" nashriyoti – 2009.
12. Jo'rayev, A. Davlat budjeti daromadlarini shakllantirishning samarali yo'llari: Monografiya. – T.: Fan, 2004. – 243 b.
13. Normurzayev U.X. Soliq imtiyozlarining samaradorligi: nazariya, metodologiya va amaliyot. Diss. avtoreferati. – T., 2022. – 20. B
14. O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo'mitasining axborotnomasi.
15. http://www.Soloq.uz – (Davlat soliq qo'mitasi sayti)
16. http://www.mf.uz – (Moliya vazirligi sayti)
17. http://www.stat.uz-(Davlat statistika qo'mitasi sayti)
18. http://www.lex.uz – (O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi).

SOLIQ ISLOHOTLARI: U QANDAY BO‘LISHI KERAK?

Hotamov Alisher Farxodovich
TDIU mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: O‘zbekistonda yangi soliq islohotlarini amalga oshirishga kirishilganiga yetti yillik davomida soliq to‘lovchilar zimmasidagi soliq yukini bosqichma-bosqich kamaytirish, soliq ma’murchiligining soddalashtirilishi natijasida soliq tizimining rag‘batlantiruvchilik xususiyati oshib bormoqda. Davlat budjetiga soliq tushumlari inflyatsiya ko‘rsatkichlaridan yuqori sur’atda oshib bormoqda. Shu bilan birgalikda, bu borada muayan ilmiy-amaliy ayrim muammolar ham mavjuddir. Ushbu maqolada soliq sohasining ana shu jihatlariga e’tibor beriladi.

Kalit so‘zlar: makroiqtisodiy barqarorlik, soliq tushumlari, soliq islohoti, iqtisodiy o‘sish, soliq siyosati, soliqqa tortish, soliq ma’murchiligi, soliq imtiyozlari, insofli soliq to‘lovchi, soliq to‘lashdan qochish, soliq strategiyasi, soliq siyosati taktikasi.

Abstract: Ver the seven years since new tax reforms were introduced in Uzbekistan, the tax system has become more attractive as a result of a gradual reduction in the tax burden on taxpayers and simplification of tax administration. Tax revenues to the state budget are growing faster than inflation. At the same time, there are certain scientific and practical problems in this regard. This article focuses on these aspects.

Key words: macroeconomic stability, tax revenues, tax reform, economic growth, tax policy, taxation, tax administration, tax incentives, honest taxpayer, tax evasion, tax strategy, tax policy tactics.

Аннотация: За семь лет, прошедших с момента проведения новых налоговых реформ в Узбекистане, налоговая система стала более привлекательной в результате постепенного снижения налоговой нагрузки на налогоплательщиков и упрощения налогового администрирования. Налоговые поступления в госбюджет растут быстрее инфляции. В то же время в этом отношении существуют определенные научные и практические проблемы. В данной статье основное внимание уделяется этим аспектам.

Ключевые слова: макроэкономическая стабильность, налоговые поступления, налоговая реформа, экономический рост, налоговая политика, налогообложение, налоговое администрирование, налоговые льготы, честный налогоплательщик, уклонение от уплаты налогов, налоговая стратегия, тактика налоговой политики.

KIRISH (INTRODUCTION)

Jahon mamlakatlaridagi soliq munosabatlari tizimiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, ikkinchi jahon urushidan keyingi davrlarda soliq islohotlari asosan G‘arbiyevropa davlatlarida amalga oshirilgan bo‘lib, uning asosiy yo‘nalishlari ishlab chiqarish va ilmiy-texnik faoliyat bilan shug‘ullanuvchi korxonalarni, investitsion faoliyatni soliqlar vositasida rag‘batlantirish hamda aylanmani (bu yerda asosiy urg‘u qo‘shilgan qiymat solig‘iga berilgan) soliqqa tortish tizimini isloh qilishga qaratilgan, o‘tgan asrning 80-90-yillarida AQSH, Kanada, Avstraliya, Yaponiya kabi davlatlarda o‘tkazilgan soliq islohotlarining yadrosida korporatsiyalar hamda jismoniy shaxslarning daromadlarini soliqqa tortish jarayonlari, ya’ni to‘g‘ri soliqlarni soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan. Shuni ham ta’kidlash kerakki, qayd etilgan davlatlar va boshqa davlatlarda turli davrlarda amalga oshirilgan soliq islohotlariga umumiy xususiyatlar shundan iboratki, ularning aksariyati o‘rtacha 5-6 yillar davomida amalga oshirilgan holda olingan natijalar asosida taktik yo‘nalishlarga o‘zgartirishlar kiritib

borilgan, ushbu soliq islohotlarning aksariyati qattiq siyosat (keskinlik) xarakterga ega bo‘lgan, ba’zilar esa, masalan, Buyuk Britaniyada “Past darajadagi soliqlar iqtisodiyotning samaradorligi oshiradi” shioriga asoslangan bo‘lsa, Germaniyada (GFR) “Yuqori soliq stavka va ko‘p istisnolarda ko‘ra past soliq stavkalar va kam imtiyoz yaxshiroq” mazmundagi shiorlar asnosida o‘tkazilgan.

O‘zbekistonning soliq islohotlari tadrijiy jihatdan olganda, ularning xususiyatlaridan kelib chiqib, bir necha bosqichlarga ajratilib o‘rganiladi, bu bosqichlarning oxirgisi bu 2017 yildan boshlangan va bugungi kunda izchil olib borilayotgan soliq islohotlari avvalgilaridan rag‘batlantiruvchilik xususiyati bilan ajralib turishligi bilan ahamiyatlidir. Aynan oxirgi bosqichdagi soliq islohotlarining samarasi bilan bog‘liq tadqiqotlarga bo‘lgan ehtiyoj ham kuchayib bormoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI (LITERATURE REVIEW)

Dunyo mamlakatlarida soliq islohotlarining samarasi va u bilan bog‘liq muammolari bilan bog‘liq ilmiy tadqiqotlar klassik iqtisodchi olimlaridan Sabasten De Voban, E.Seligman, E.Jirarden, E.Mene, F.Kene, Dj.S.Mill va shu kabilarning ilmiy tadqiqotlarida o‘rin olgan bo‘lsa, soliq nazariyasining keyingi zamonaviy iqtisodchi olimlari M.Keyns, P.Samuelson, S.V.Barulin, A.V.Makrushin, V.A.Timoshenko, I.V. Gorskiy, R.G.Somoyev D.G.Chernik kabilarning ilmiy tadqiqotlarining obyekti sifatida keng tadqiq qilib kelindi.

Mahallliy olimlarimiz Q.Yahyoyev, M.Alimardanov, O.Yakubboyev, N.Kuziyeva, S.Xudoyqulov, Sh.Toshmatov, A.Vaxobov, N.Haydarov, T.Malikov, A.Jo‘rayev, X.Ismatov va shu kabi olimlarimizning ilmiy tadqiqotlarida O‘zbekistondagi soliq islohotlarining turli darajadagi jarayonlari tadqiq qilingan holda tegishli ilmiy xulosalar ishlab chiqilgan.

Jumladan, I.V. Gorskiy bozor munosabatlariga o‘tish sharoitida soliq siyosatining yo‘nalishlarini iqtisodiy jihatdan baholagan bo‘lsa, D.G.Chernik va R.G.Somoyevlar o‘zlarining ilmiy va o‘quv adabiyotlarida soliq islohotlarini baholashning iqtisodiy ko‘rsatkichlarini tahlil qilgan. Shuningdek, mahalliy olimlarimizdan Q.Yahyoyev, M.Alimardanov, O.Yakubboyevlar mamlakatimizda soliq islohotlarining dastlabki (1991-1994) yillarga mo‘ljallangan davrlarini tahlil qilgan bo‘lsa, N.Kuziyeva, S.Xudoyqulov, Sh.Toshmatov, I.Niyazmetov, X.Ismatovlar Yangi O‘zbekiston sharoitidagi soliq islohotlarining samarasini ta’minlash bilan bog‘liq muammolarni tadqiq qilgan. Biroq, shuni ham ta’kidlash kerakki, yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi qabul qilingandan keyingi davrlardagi soliq islohotlarining xususiyatlarini ilmiy jihatdan tadqiq qilishga ilmiy ehtiyoj oshib bormoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI (RESEARCH METHODOLOGY)

Soliq islohotlarini amalga oshirishni ilmiy jihatdan tadqiq etish bir qator ilmiy o‘rganish usullaridan samarali foydalanishni taqozo etadi. Albatta, bu tadqiqotlarda soliq tizimining rivojlanish xususiyatlari va unga ta’sir qiluvchi omillarni tahlil qilishda dialektik usul samarali bo‘lsa, soliq islohotlarining davriy holatini tahlil qilishda esa sintez va tahlil usullarini birgalikda qo‘llashni taqozo etadi. Soliqlarning yig‘iluvchanligiga oid tadqiqot ishlarini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo‘llaniladigan usullardan ham foydalaniladi. Soliq islohotlarining rivojlanish tendensiyalarini umumiylikdan individuallikka va aksincha tartibda deduksion yoki induksion usullardan foydalanish samara bersa, abstrakt-mantiqiy fikrlash usuli esa, jarayonni tizimli tahlil qilishda ahamiyatlidir. Ilmiy tahlil jarayonida ana shu ilmiy tadqiqot usullaridan kengroq foydalaniladi.

TAHLIL VA NATIJALAR (ANALYSIS AND RESULTS)

O‘zbekistonda soliq islohotlarining boshlanishi aslida 1991-yil 15-fevralda soliqqa oid dastlabik qonun qabul qilinishidan boshlangan desak xato bo‘lmaydi. Sobiq ittifoq davrida garchi soliqlar aholini ekspluatsiya vositasi va timsoli sifatida ta’riflab kelgan bo‘lsa-da, biroq, budjetga ajratmalar, foydaning ozod qoldig‘i solig‘i, buydoqlik va yer soliqlari amalda bo‘lgan edi. Bu davrda soliq islohotlari, soliq siyosati va ularning holatini ilmiy tadqiqot qilish ijtimoiy va siyosiy jihatdan mumkin bo‘lmagan bo‘lsada, ammo, soliq siyosati mavjud bo‘lgan. Mana shu sobiq totalitar iqtisodiy tizimdan voz kechgan holda O‘zbekistonning yangi soliq tizimini shakllantirish 90 yillarning boshidagi iqtisodiy siyosatdagi asosiy masala bo‘lib yuzaga chiqdi.

Soliq islohotlarini o‘tkazishga aslida nima sabab bo‘ladi? Agar iqtisodiyot bir maromda o‘sib borish sharoitida ham soliq islohotlar qilinadimi? Soliq islohotlarini o‘tkazishdan maqsad nima bo‘ladi? Bu kabi savollarni ko‘plab keltirish mumkin, ammo, darhaqiqat soliq islohotlarini o‘tkazish ham boshqa iqtisodiy munosabatlar tizimi singari oddiy va qisqa muddatli iqtisodiy siyosat emas. Uni o‘tkazishga bo‘lgan jiddiy iqtisodiy asos va zarurat kerak bo‘ladi. Amalda bo‘lgan soliq islohotlarining samarasi o‘lchanmay turib yangidan soliq islohotlarini o‘tkazish dunyo amaliyotida aksincha holatda iqtisodiy samara berish o‘rniga mavjud barqaror iqtisodiyotni ham izdan chiqishga olib kelgan holatlar ham bo‘lgan (masalan Chilidagi soliq islohotlar kabi).



1-rasm: Soliq islohotlarini taqozo etuvchi omillar[1]

Keltirilgan 1-rasmdan ko‘rinadiki, dunyo mamlakatlaridagi soliq islohotlarining umumiy tadqiqi keltirilgan omillar asosida amalga oshiraladi. Ushbu keltirib o‘tilgan omillarning mazmuniga qaraydigan bo‘lsak, ularning har biri iqtisodiyotda o‘ziga xos ta’sir kuchiga ega bo‘ladi va ularni hal etish soliq sohasida davlatning tub burilishga asoslangan siyosatini amalga oshirishni taqozo etadi.

Soliq islohotlar soliq siyosatidan farq qiladimi? Ha, albatta, soliq islohotining soliq siyosati bilan o‘xshash va farqli jihatlarini angab olish lozim bo‘ladi. Soliq siyosati bu doimiy xarakterga ega bo‘lib, u davlatning uzluksiz faoliyatini anglatadi. Soliq siyosati har yilga, o‘rta va uzoq muddatga ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi. Soliq islohoti esa, milliy iqtisodiyotning rivojlanishiga katta to‘siq bo‘lib qolgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishda soliq tizimining ta’sirini yumshatish yoki oshirish maqsadida tizimli chora-tadbirlar va ma’lum bir muddatga mo‘ljallangan bo‘ladi. Soliq islohotlaridan bosh va taktik maqsadlar belgilab olinadi. Bu xuddi soliq siyosatida ham bo‘lgani kabi.

Soliq siyosati soliq islohotlarini amalga oshirishda muhim omil bo‘ladi, muayan muddatga mo‘ljallangan soliq islohotlarining mazmuni shu davrga mo‘ljallangan soliq siyosatining asosiy yo‘nalishlari va taktik jihatlarini ham belgilab beradi.

Ilmiy adabiyotlarda O‘zbekistondagi soliq islohotlarini bir necha bosqichlarga bo‘lib o‘rganiladi. Ammo, bizning fikrimizcha, ta’kidlaganimizdek, soliq islohotlari o‘z ichiga soliq siyosatini qamrab olsada, soliq islohotlarini tahlil qilishda soliq tizimini tubdan o‘zgartirishga oid soliq siyosatining bo‘g‘inlarini belgilab olish lozim bo‘ladi deb hisoblaymiz. Mana shu tamoyildan kelib chiqadigan bo‘lsak, O‘zbekistondagi soliq islohotlarini quyidagi bosqichlarga bo‘lish mumkin.

1 Muallif tomonidan tuzilgan.

ТАРАҚҚИЁТ ПРОГРЕСС PROGRESS

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS



2-rasm: O‘zbekistonda soliq islohotlarining bosqichlari

Biz tomonimizdan keltirilgan ushbu 2-rasmdagi O‘zbekistonda soliq islohotlarining bosqichlarining turlanishi bahsli bo‘lishi tabiiy. Ammo, yuqorida ta’kidlaganimizdek, soliq islohotlarining tub mohiyatini amaldagi soliq mexanizmini tubdan o‘zgartirish bilan bog‘liq taktik yo‘nalishlar amalga oshirilganda, ana shu qismi doirasidagi jarayonlarni shu mazmundagi soliq islohotlari, deb nomlash va tahlil qilish kerak bo‘ladi.



3-rasm: Soliq islohotlariga qo‘yiladigan talablar[2]

2 Muallif ishlanmasi.

Har qaysi islohotlar u qaysi yo‘nalishga qaratilishidan qat’iy nazar ular ma’lum bir talablarga amal qilishi lozim bo‘ladi. 3-rasmda keltirib o‘tilganidek, har qaysi iqtisodiy islohotlar, jumladan soliq islohotlari avvalo u mamlakatning umumiy ijtimoiy-iqtisodiy yo‘nalishiga mos bo‘lishi kerak bo‘ladi va ular bir biriga zid kelishi mumkin emas, bu ilmiy tilda aytganda iqtisodiy parodoks bo‘ladi, natijada iqtisodiyotni barqarorligiga salbiy ta’sir qiladi.

Soliq islohotlari puxta ishlab chiqilishi, u aniq tamoyillariga, strategik va taktik yo‘nalishlariga ega bo‘lishi kerak bo‘ladi. Shu yerda shuni ta’kidlash kerakki, soliq islohotlari dunyo klassik soliq nazariyalari va zamonaviy nazariyalarda keltirilgan tamoyillarga hamda mamlakat milliy iqtisodiyotida qo‘llaniladigan tamoyillarga mos ravishda amalga oshirilishi kerak bo‘ladi. Bu tamoyillar ichida eng muhimi adolatlilik, tizimlilik, qonuniylik tamoyillariga moslashish kerak bo‘ladi.

Soliq islohotlari moliqqa tortish tizimini yoki uning bug‘inlarini tubdan o‘zgartirishi lozim bo‘ladi, aks holda bu jarayonlarni soliq islohotlari emas, balki soliq siyosati taktikalari deb izohlash to‘g‘riroq bo‘ladi. Yuqoridagi 2-rasmda keltirilganidek, O‘zbekistonda soliq islohotlarining 2-bosqichida 1997-yildan boshlab kichik biznes subyektlari uchun alohida soliqqa tortishning soddalashtirilgan tizimining joriy qilinishi sifatida qayd qilib o‘tilgan edi.

Darhaqiqat Respublikamizda ham iqtisodiy islohotlarning dastlabki davrlaridanoq, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik davlat tomonidan har tomonlama qo‘llab-quvvatlash borasida huquqiy asoslar yaratila boshlandi, ularning moliya-kredit mexanizmlari orqali qo‘llab-quvvatlashning muhim usullaridan biri sifatida soliqlar orqali rag‘batlantirish mexanizmlari yaratildi. O‘zbekiston soliq tizimining oldiga qo‘yilgan vazifalardan biri sifatida kichik biznesning faoliyatini rag‘batlantirish vazifasi belgilandi. Respublikamizda soddalashtirilgan soliqqa tortish tartibining joriy qilinishi va uning kichik biznes subyektlariga qo‘llash asosan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yil 27-sentyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining 1997-yilgi Davlat budjeti munosabati bilan soliq islohotini chuqurlashtirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-1565-sonli Farmoniga muvofiq amalga oshirildi.

Unga ko‘ra 1997-yildan boshlab amaldagi soliqlar o‘rniga mahsulotni sotish (ishlar, xizmatlarni bajarish) dan tushgan daromadning 25 foiziga qadar miqdordagi yagona soliqni joriy etish yo‘li bilan barcha mulkchilik shaklidagi kichik korxonalar uchun soliqqa tortishning tabaqalashtirilgan soddalashtirilgan tizimi joriy qilindi. Bu davrda soliq siyosatidagi eng muhim yo‘nalishlardan biri bu kichik biznes subyektlariga nisbatan alohida tartibdagi rag‘batlantiruvchi soliqqa tortish tartiblarining qo‘llanishi bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirishni yanada rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 1998-yil 9-apreldagi PF–1987-sonli Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 15-apreldagi Soliq solishning soddalashtirilgan tizimiga o‘tgan kichik korxonalarga soliq solish tartibi to‘g‘risida”gi 159-son qaroriga[3] asosan kichik korxonalar uchun soliq solishning soddalashtirilgan tizimini qo‘llash tartibi yalpi umumdavlat soliqlarini, shuningdek, davlat hokimiyati mahalliy organlari tomonidan joriy etiladigan mahalliy soliqlar va yig‘imlarni to‘lash o‘rniga yagona soliq to‘lashni nazarda tutgan edi.

Bundan tashqari soliq islohotlari ma’lum bir iqtisodiy indikatorlar asosida baholash imkoniyati bo‘lishi lozim bo‘ladi. Masalan, soliq islohotlari davrida milliy yalpi ichki mahsulotning o‘sishiga qanchalik aniq miqdorda ta’sir qilganligini, narxlarning pasayishiga yoki oshiishiga, aholi pul daromadlarining real hajmiga qanchalik ta’sir qilgani, investitsiyalar miqdori va aholi bandligi hamda shu kabi aniq indikatorlar orqali baholash imkoniyati bo‘lish lozim bo‘ladi. Eng muhim indikatorlar sifatida davlat budjetining daromadlar qismi orqali jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga qanchalik ta’sir qilganligini ham o‘lchash imkoniyatini berish kerak bo‘ladi. Soliq islohotlari ishlab chiqilayotganda ana shu indikatorlarga ta’siri aniq ko‘rsatkichlarda dastlabki baholanishi lozim bo‘ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR (CONCLUSION/RECOMMENDATIONS)

Umumiy xulosa sifatida aytish mumkinki, Prezidentiimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan ishlab chiqilgan Yangi O‘zbekiston sharoitida 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida hamda O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida soliq solish tizimini izchillik bilan isloh qilinishi bugungi kunda uning natijalarini aniq indikatorlar bilan o‘lchash imkonini bermoqda.

Bu islohot yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi ilg‘or iqtisodiy dunyoqarashni shakllantirish, yangi iqtisodiy munosabatlarga asoslangan erkin va farovon jamiyat qurishni nazarda tutadi. Aholining tadbirkorlik tashabbusini ro‘yobga chiqarish uchun teng shart-sharoit yaratish, xalq farovonligini oshirish va barqaror taraqqiyotga xizmat qiladigan tizim barpo etish iqtisodiy sohadagi barcha o‘zgarish va innovatsiyalarning tamal toshi hisoblanadi.

Dunyoning barcha davlatlarida soliq islohotlari o‘tkazilgan deb aytish mumkin. Ammo, bu soliq islohotlari uning amalga oshirib borilishi jarayonida iqtisodiy jihatdan baholanib borilsa, ayrimlarining ta’siri iqtisodiyotga

3 Ushbu qaror O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 27-dekabrdagi 244-sonli “O‘zbekiston Respublikasining 2006-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va davlat budjeti parametrlari to‘g‘risida”gi qaroriga asosan bekor qilingan.

ma’lum bir muddat (ba’zida uzoq muddatlarda)dan keyin ta’sirini ko‘rsatadi. Shuning uchun ham fikrimizcha, soliq islohotlarini ishlab chiqishda biz tomonimizdan keltirilgan ayrim tavsiyalarga amal qilish o‘z uni ishlab chiqishda ilmiylikni oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. O‘zbekiston Respublikasi 2019-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-599-son Qonuni bilan tasdiqlangan.
2. O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi. O‘zbekiston Respublikasi 2013-yil 26-dekabrdagi O‘RQ360son Qonuni bilan tasdiqlangan.
3. O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi “Soliq va budjet siyosatining 2023-yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-812-son Qonuni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyundagi PF-5468-sonli “O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-iyuldagi PF-5116-sonli “Soliq ma’muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning yig‘iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-iyuldagi PQ-4389-sonli “Soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 31-maydagi PQ-3756-sonli “Imtiyozlar va preferensiyalar berish tartibini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.
9. O‘zbekiston Respublikasining “2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni loyihasi va 2022-yil uchun Budjetnoma bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasining Xulosasi.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-iyuldagi “Soliq ma’muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa to‘lovlarning yig‘iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.

АНАЛИЗ ОПЕРАЦИОННЫХ ПРОЦЕССОВ ЭКСПОРТО-ОРИЕНТИРОВАННЫХ ХЛОПКОВО-ТЕКСТИЛЬНЫХ КЛАСТЕРОВ

Джурабаев Отабек Джурабаевич
Доцент кафедры “Менеджмент” Ташкентского государственного экономического университета

Аннотация: В данной статье исследовано важность развития экспортоориентированных хлопково-текстильных кластеров в контексте растущего спроса на текстильные изделия в мире. В статье отмечается, что развитые страны Европы активно используют создание производственных кластеров, сотрудничество между публичным и частным секторами, а также стимулирование инноваций в своей стратегии развития экспорта текстильной продукции.

Ключевые слова: экспортоориентированные хлопково-текстильные кластеры, легкая промышленность, стратегия развития экспорта, инновационные технологии, автоматизация производства, рост объема экспорта.

Annotatsiya: Ushbu maqola jahonda to‘qimachilik mahsulotlariga talab ortib borayotgan bir sharoitda eksportga yo‘naltirilgan paxta-to‘qimachilik klasterlarini rivojlantirishning ahamiyatini o‘rganadi. Maqolada ta’kidlanganidek, rivojlangan Yevropa davlatlari to‘qimachilik eksportini rivojlantirish strategiyasida ishlab chiqarish klasterlarini yaratish, davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlik, shuningdek, innovatsiyalarni rag‘batlantirishdan faol foydalanmoqda.

Kalit so‘zlar: eksportga yo‘naltirilgan paxta-to‘qimachilik klasterlari, yengil sanoat, eksportni rivojlantirish strategiyasi, innovatsion texnologiyalar, ishlab chiqarishni avtomatlashtirish, eksport o‘sishi.

Abstract: This article explores the importance of developing export-oriented cotton-textile clusters in the context of the growing demand for textile products in the world. The article notes that developed European countries are actively using the creation of production clusters, cooperation between the public and private sectors, as well as stimulating innovation in their textile export development strategy.

Key words: export-oriented cotton-textile clusters, light industry, export development strategy, innovative technologies, production automation, export growth.

ВВЕДЕНИЕ

Увеличение численности населения по всему миру привело к росту спроса на основные товары, включая текстильные изделия. Во многих странах легкая промышленность играет ключевую роль в экономическом развитии и является главным источником удовлетворения растущего спроса. Развитые страны Европы в своей стратегии развития экспорта текстильной продукции активно используют политику создания сильных и эффективных производственных кластеров, налаживание взаимодействия между публичным и частным секторами, а также стимулирование инноваций. Влияние инновационных и цифровых технологий, автоматизации производства и распространения электронной коммерции на международном рынке текстиля становится все более значимым.

Мировой текстильный рынок представляет собой совокупность национальных рынков, включая мировой экспорт. В 2022 году объем мирового экспорта текстильной продукции составил 577,83 млрд долларов, по сравнению с 530,97 млрд долларов в 2021 году. Согласно исследованиям Всемирного Банка, к 2026 году прогнозируется дальнейший рост этого рынка до 722,32 млрд долларов при годовом темпе роста в 5,7%. Также стоит отметить возрастающую роль центрально-азиатских стран на мировой торговле текстилем, доля которых в 2022 году составила около 65%.

МЕТОДЫ

В процессе подготовки статьи использованы такие методы, как, общенаучные методы, формально-логические методы, специфические, методы исследования ситуации, системный анализ, классификация, обобщение, горизонтальный и вертикальный анализ.

ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ

Всемирный банк, Конференция ЮНКТАД по торговле и развитию (UNCTAD) и Международный Консультативный Комитет по хлопку (ICAC) активно занимаются исследованиями тенденций развития текстильной промышленности в различных странах мира. Ученые ведущих мировых университетов, таких как Harvard University, McGill University, Oxford University, Kyung Hee University, Universite de Lorraine, Indian Institute of Technology Delhi и Sabancı Üniversitesi, также изучают проблемы развития операционной стратегии хлопковых кластеров.

В результате глобальных научных исследований были получены значимые результаты и разработаны инновационные подходы. Например, Оксфордский университет разработал схему фонда модернизации технологий (TUFS), которая предоставляет финансовую поддержку текстильным и швейным предприятиям для модернизации их оборудования и повышения производительности. Такие меры позволяют отрасли усовершенствовать свои технологии и улучшить качество продукции.

Ученые из Universite de Lorraine разработали операционную стратегию производства экспортоориентированной продукции, основанную на их экспертизе в промышленных экосистемах. Это еще одно подтверждение важной роли кластерных организаций в цифровом переходе текстильной промышленности.

Со стороны ведущих мировых научно-исследовательских учреждений и высших учебных осуществляются научные исследования по разработке методик использования операционной стратегии при производстве экспортоориентированной продукции: изучаются направления государственной поддержки и перспективы развития операционной стратегии на предприятиях, определяются перспективы использования инновационных технологий и модернизации межотраслевых связей.

Эти исследования и разработки играют важную роль в совершенствовании операционной стратегии текстильной промышленности, способствуя ее инновационному прогрессу и устойчивому развитию.

АНАЛИЗ

В соответствии с официальными данными Ассоциации хлопково-текстильных кластеров Узбекистана на сегодняшний день в республике насчитывается 96 хлопково-текстильных кластеров с общей площадью около 908 тысяч гектар. В таблице 1 представлены данные по размещению ХТК по регионам Узбекистана.

Таблица 1: Количество хлопково-текстильных кластеров и площадь хлопковых полей ХТК в регионах Узбекистана

№	Регион	Количество кластеров		Площадь хлопковых полей	
		Ед.	Доля, %	Гектар	Доля, %
1.	Республика Каракалпакстан	5	5,21	48 665	5,36
2.	Андижанская область	12	12,50	79 391	8,75
3.	Бухарская область	8	8,33	97 900	10,78
4.	Джизакская область	5	5,21	69 700	7,68
5.	Кашкадарьинская область	9	9,38	111 900	12,33
6	Навоийская область	2	2,08	32 588	3,59
7.	Наманганская область	7	7,29	63 406	6,98
8.	Самаркандская область	11	11,46	75 580	8,33
9.	Сурхандарьинская область	6	6,25	60 044	6,61
10.	Сырдарьинская область	6	6,25	72 557	7,99
11.	Ташкентская область	6	6,25	55 008	6,06
12.	Ферганская область	9	9,38	63 245	6,97
13.	Хорезмская область	10	10,42	77 799	8,57
	Всего	**96**	**100,00**	**907 783**	**100,00**

Объектом монографического исследования диссертации были выбраны три хлопково-текстильных кластера из различных регионов Узбекистана: ООО “Alyorteks”, ООО “Boyovut techno cluster” и ООО “TCT Agro Cluster”.

ООО “Alyorteks” размещен в районе Жалакудук Андижанской области, общая площадь хлопковых полей составляет 6,2 тыс. га. ООО “Boyovut techno cluster” расположен в районе Боёвут Сырдарьинской области, площадь хлопковых полей составляет 10,5 тыс. га. ООО “TCT Agro Cluster” находится в Куйичирчикском районе Ташкентской области, общая площадь хлопковых полей составляет 10,0 тыс. га. ООО “Alyorteks” и ООО “Boyovut techno cluster” начали свою деятельность с 2018 г., ООО “TCT Agro Cluster” осуществляет свою деятельность с 2017 г. Для оценки деятельности выбранных кластеров проведем анализ их производственно-экономических показателей за период 2018-2023 гг.

Таблица 2: Показатели обеспеченности и эффективности использования основных фондов ООО “Alyorteks кластер” в 2018-2023 гг.

Показатели	2018 г.	2019 г.	2020 г.	2021 г.	2022 г.	2023 г.
Стоимость основных фондов и средств, млрд. сум	221,9	263,7	301,5	492,3	572,7	588,2
Численность работающих, чел.	283	318	328	371	314	338
Объем производства продукции в стоимостном выражении, млрд. сум	86,7	102,3	118,1	185,6	216,6	251,3
Объем производства продукции в физическом выражении, тыс. тонн	22,7	21,6	19,2	17,1	14,3	15,6
Фондоотдача, сум	0,39	0,39	0,39	0,38	0,38	0,37
Фондоемкость, сум	2,56	2,58	2,55	2,65	2,64	2,60
Фондовооруженность, тыс. сум	784,10	829,25	919,21	1 326,95	1 823,89	1 934,4

Эффективность производства на предприятии зависит от обеспеченности основными фондами. За период 2018-2023 гг. показатель фондовооруженности ООО “Alyorteks” увеличился, следовательно, возрастает степень вооруженности работников кластера средствами производства. Показатель фондоотдачи ООО “Alyorteks кластер” за 5 лет имел почти постоянное значение. Обратным показателем фондоотдачи является фондоемкость продукции - данный показатель в рассматриваемом кластере имел незначительную тенденцию роста (табл. 2).

Фондовооруженность ООО “Boyovut techno cluster” в 2018-2023 гг. имела тенденцию роста, что определяет наличие позитивных процессов роста степени вооруженности работников кластера средствами производства (табл. 3).

Таблица 3: Показатели обеспеченности и эффективности использования основных фондов ООО “Boyovut techno cluster” в 2018-2023 гг.

Показатели	2018 г.	2019 г.	2020 г.	2021 г.	2022 г.	2023 г.
Стоимость основных фондов и средств, млрд. сум	322,9	346,7	350,6	522,3	755,9	766,1
Численность работающих, чел.	320	359	401	449	503	515
Объем производства продукции в стоимостном выражении, млрд. сум	92,7	103,7	127,2	129,3	132,2	138,9
Объем производства продукции в физическом выражении, тыс. тонн	25,1	28,8	29,4	30,0	33,5	34,8
Фондоотдача, сум	0,29	0,30	0,36	0,25	0,17	0,16
Фондоемкость, сум	3,48	3,34	2,76	4,04	5,72	5,79
Фондовооруженность, тыс. сум	1 009,06	965,74	874,31	1 163,25	1 502,78	1 672,4

По площадям хлопковых полей, занимаемых выбранными для монографического исследования кластерами, ООО “TCT Agro Cluster” занимает промежуточное положение между двумя остальными. Примечательно, что данный кластер многократно опережает два других по численности работающих - на конец 2023 г. количество работников ООО “TCT Agro Cluster” больше количества работников ООО “Boyovut techno cluster” в 15 раз, ООО “Alyorteks” - почти в 24 раза.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Использованная нами методика анализа переменных затрат в динамике позволяет определить изменение затрат в процентном выражении относительно исходного значения (базового года). Важное значение в оценке деятельности производственного предприятия имеет анализ осуществленных переменных затрат в динамике, который показал, что наибольшее значение переменных затрат на единицу продукции приходилось в исследуемом периоде в ООО “TCT Agro Cluster”, наименьшее - в ООО “Alyorteks кластер”

В ООО “Alyorteks кластер” и ООО “Boyovut techno cluster” при этом прослеживается динамика значительного роста релевантных (переменных) затрат на единицу производимой продукции, что может выступать свидетельством роста стоимости продукции и снижения эффективности деятельности данных кластеров.

Разработка плана эффективного распределения трудовых ресурсов достигается в том числе путем увеличения выработки и использования резервов сотрудников, что, в свою очередь, приведет к повышению общей производительности и эффективности организации.

Для оценки выработки персонала расчета, а также выявления резервов с целью увеличения выработки и разработки плана эффективного распределения трудовых ресурсов рассчитаем показатели трудоемкости на исследуемых хлопково-текстильных кластеров.

Исследование показало высокий уровень трудоемкости в ООО “TCT Agro Cluster”, что означает низкую производительность и неэффективную организацию труда на предприятии. Наиболее низкие затраты на производство продукции наблюдались в ООО “Boyovut techno cluster”.

РЕЗУЛЬТАТЫ

Результаты исследования показали, что внедрение кластерных систем в хлопково-текстильной отрасли Узбекистана оказало положительное влияние на развитие отрасли. В результате использования кластерного подхода наблюдался рост объемов производства хлопка, улучшение качества текстильной продукции, привлечение инвестиций и применение инновационных технологий. Это способствовало увеличению занятости и доходов населения, а также интеграции промышленности и сельского хозяйства, повышая общую конкурентоспособность экономики страны.

Однако, обнаружены некоторые проблемы, которые ограничивают развитие хлопково-текстильных кластеров. В частности, имеется недостаточно развитая нормативно-правовая база, а также неэффективные взаимоотношения между кластерами и фермерскими хозяйствами. Также отмечается рост монополии в регионах, что затрудняет развитие отрасли.

В рамках исследования были выделены три кластера - ООО “Alyorteks”, ООО “Boyovut techno cluster” и ООО “TCT Agro Cluster”. Анализ показал их сильные и слабые стороны. Среди слабых сторон отмечается снижение фондоотдачи, возможно, вызванное неэффективным использованием основных производственных фондов. Также выявлено увеличение переменных затрат на единицу продукции, что может быть связано с повышением стоимости производства. Высокая трудоемкость указывает на неэффективную организацию производства.

В целом, кластерные системы доказали свою эффективность и целесообразность в хлопково-текстильной отрасли Узбекистана. Однако, для дальнейшего развития необходимо уделить внимание устранению выявленных проблем и созданию благоприятной инвестиционной и правовой среды.

Построенная многофакторная эконометрическая модель показала зависимость экспорта хлопково-текстильной продукции от таких факторов, как инвестиции в основной капитал, численность работников хлопково-текстильных кластеров и их заработная плата. В целях повышения экспортоориентированности ХТК следует разработать и реализовать стратегические меры по увеличению притока инвестиционных ресурсов, улучшению производственных показателей и повышению оплаты труда в хлопково-текстильной отрасли Узбекистана. Построенная эконометрическая модель показала, что для этого требуется:

- Формирование правовых механизмов, способствующих росту иностранных инвестиций в регионы республики.
- Повышение эффективности производства, создание условий для внедрения инновационных продуктов и услуг в регионах.
- Повышение качественного уровня благосостояния работников хлопково-текстильных кластеров, что призвано повысить их заинтересованность в трудоустройстве.
- Повышение конкурентоспособности, самостоятельности и рентабельности хлопково-текстильных кластеров.

Не перестает быть ключевым вопрос совершенствования экономических механизмов повышения экспортного потенциала в хлопково-текстильных кластерах, для чего особенно важно, чтобы регионы

переключились с пассивной стратегии на стратегию развития. Необходимо проведение системной работы по внедрению современных и инновационных технологий в хлопково-текстильное производство, конечная цель которых - увеличение объемов экспорта, повышение результативности производственной деятельности, что призвано повысить конкурентоспособность отрасли и национальной экономики в целом.

ВЫВОДЫ

Исходя из результатов исследования, можно сделать следующие выводы:

Внедрение кластерных систем в хлопково-текстильной отрасли Узбекистана оказало положительное влияние на развитие отрасли. Был наблюдаем рост объемов производства хлопка, улучшение качества текстильной продукции, привлечение инвестиций и применение инновационных технологий.

Внедрение кластерного подхода способствовало увеличению занятости и доходов населения, а также интеграции промышленности и сельского хозяйства, повышая общую конкурентоспособность экономики страны.

Однако, были обнаружены проблемы, которые ограничивают развитие хлопково-текстильных кластеров, такие как недостаточная развитая нормативно-правовая база, неэффективные взаимоотношения между кластерами и фермерскими хозяйствами, а также рост монополии в регионах.

Выделены три кластера - ООО “Alyorteks”, ООО “Boyovut techno cluster” и ООО “TCT Agro Cluster”, и проведен анализ их сильных и слабых сторон. Среди слабых сторон отмечается снижение фондоотдачи, увеличение переменных затрат на единицу продукции и высокая трудоемкость.

Для дальнейшего развития необходимо уделить внимание устранению выявленных проблем и созданию благоприятной инвестиционной и правовой среды. Требуется разработка программы мер по повышению фондовооруженности и фондоотдачи, увеличению объемов экспорта, снижению трудоемкости, а также увеличение численности квалифицированных сотрудников, закупка высокотехнологичного оборудования, улучшение условий труда, поиск более качественного сырья и правильное распределение задач.

Построенная многофакторная эконометрическая модель показала зависимость экспорта хлопково-текстильной продукции от инвестиций в основной капитал, численности работников кластеров и их заработной платы. Для повышения экспортоориентированности отрасли необходимо разработать стратегические меры по увеличению притока инвестиций, улучшению производственных показателей и повышению оплаты труда.

Важно совершенствовать экономические механизмы повышения экспортного потенциала в хлопково-текстильных кластерах, проводить системную работу по внедрению современных и инновационных технологий, что способствует увеличению объемов экспорта, повышению конкурентоспособности отрасли и национальной экономики в целом.

Список литературы:

1. Хайдарзода М. Формирование и развитие региональных текстильно-швейных кластеров (на материалах Центрального Таджикистана) // Автореферат на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Душанбе, 2018. – 26 с.
2. Халматжанова Г.Д., Мирзаахмадова З.М. Хлопково-текстильный кластер – приоритетное направление развития нашей страны//Евразийский союз ученых. 2021. –№ 3-3 (84). –С. 20-21.
3. Халматжанова, Г. Д. Необходимость формирования и инновационного развития сельскохозяйственного кластера в Узбекистане// Scientific progress, 2021. 2(3). –179-186.
4. Циренщиков В.С. Цифровизация экономики Европы//Современная Европа. – 2019. –№3. –с.104-113.
5. Шакирова Ю.С. Перспективы развития текстильной промышленности Узбекистана и возможности увеличения экспортного потенциала//Бюллетень науки и практики. – 2021. Т. –№12. –С. 256-263
6. Шибина М.А., Морозко Н.И. Оценка эффективности деятельности предприятия // Интернет-журнал “НАУКОВЕДЕНИЕ” Том 7. –№2 (2015) http://naukovedenie.ru/PDF/118EVN215.pdf
7. Рычихина Н.С. Цифровизация текстильного регионального кластера//Россия: тенденции и перспективы развития. 2019. –Ежегодник. Том Выпуск 14 Часть 2. Институт научной информации по общественным наукам РАН. –С.469-471.
8. Рубин А.Г. Современные подходы к управлению операционной стратегией предприятия// Фундаментальные исследования. –2015. – №5 (часть 2). – С. 438-441
9. Салмина О.И. Операционная стратегия промышленного предприятия в условиях неопределенности и риска: дисс. на соискание ученой степени канд. экон. наук, Белгород, 2013. – 200 с.

ISH BILAN BANDLIKNI SIFAT XUSUSIYATLARI ASOSIDA BAHOLASHGA ZARURAT: ILMIY-NAZARIY YONDASHUVLAR

Qurbonov Samandar Pulatovich
PhD, Mehnat bozori tadqiqotlari instituti doktoranti

Annotatsiya: Muallif ushbu maqolada respublika mehnat bozorida aholi bandligini sifat xususiyatlari asosida baholash bo‘yicha ma’lum ilmiy-nazariy yondashuvlarni tizimlashtirilgan. Maqolada aholi banligining 7 ta turi bo‘yicha firk-mulohazalar yuritilgan bo‘lib, asosan aholining unumli bandlik darajasini baholashga alohida urg‘u beralgan. Bu bilan bugungi kunda mamlakatda kambag‘allikni qisqartirishga qaratilgayotga har qanday bandlik – unumlilik tamoyillariga asoslanishi lozimligi ilmiy asoslab berilgan. Shuningdek, aholini ish bilan bandligining sifat xususiyatlariga qaratilgan tashkiliy va huquqiy istiqbolli yo‘nalishlari taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: ish bilan bandlik, ish bilan bandlikning sifat xususiyatlari, unumli bandlik, zaif bandlik, samarali bandlik, to‘liq va to‘liqsiz bandlik, oqilona bandlik, munosib mehnat tamoyillari asosida bandlik.

Abstract: In this article, the author systematizes some scientific and theoretical approaches to assessing employment in the labor market of the republic based on qualitative characteristics. The article examines 7 types of employment of the population, and mainly focuses on assessing the level of productive employment of the population. It has been scientifically proven that any employment aimed at reducing poverty in the country today must be based on the principles of productivity. Organizational and legal promising directions focused on the qualitative characteristics of employment of the population are also proposed.

Key words: employment, qualitative characteristics of employment, productive employment, weak employment, effective employment, full and part-time employment, reasonable employment, employment based on the principles of decent work.

Аннотация: В данной статье автор систематизирует некоторые научно-теоретические подходы к оценке занятости населения на рынке труда республики на основе качественных характеристик. В статье рассмотрены 7 видов занятости населения, и в основном сделан акцент на оценке уровня продуктивной занятости населения. Научно доказано, что любая занятость, направленная на сокращение бедности в стране сегодня, должна основываться на принципах производительности. Также предложены организационно-правовые перспективные направления, ориентированные на качественные характеристики занятости населения.

Ключевые слова: занятость, качественные характеристики занятости, продуктивная занятость, слабая занятость, эффективная занятость, полная и частичная занятость, разумная занятость, занятость на принципах достойного труда.

KIRISH

Aholi daromadlarining asosi – qariyb 70% ini mehnatdan keladigan daromadlar tashkil etar ekan, aholining to‘liq, unumli, mahsuldor va munosib ish bilan bandligini rag‘batlantirish har qanday mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining eng muhim makroiqtisodiy omillaridan biri hisoblanadi hamda kambag‘allikni qisqartirishda asosiy o‘rin tutadi.

Ish bilan bandlikni sifat xususiyatlariga ko‘ra baholashning ilmiy-nazariy yondashuvlari bir qancha asosiy yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi. Bular ishsizlik darajasi yoki ish o‘rinlari soni kabi bandlikning miqdoriy jihatlarini emas, balki ishdan qoniqish, mahsuldorlik va ishchilarning umumiy farovonligiga ta’sir qiluvchi ishning sifat xususiyatlarini ham baholashga qaratilgan.

Aholi bandligining ijtimoiy funksiyalari uning iqtisodiy funksiyalari kabi ko‘p tadqiq etilmagan. Ammo, shuni ta’kidlash kerakki, iqtisodiy masalalar singari, ish bilan bandlik masalalari ham ijtimoiy masalalar bilan bir xil darajada bog‘liqdir. Chunki, ular subyektlarning ijtimoiy o‘zaro aloqalari asosida paydo bo‘ladi, natijada ular va qaramog‘idagilar moddiy ehtiyojlari qondiriladi.

O‘zbekistonda 2024-yil yanvar holatiga ishsizlar soni 1,3 mln kishini tashkil etdi, ushbu yilda yana 2,4 mln kishi mehnat bozoriga qadam bosadi. Bunga javoban tegishli vazirlik va idoralar 2024-yilda 5 mln kishini ish bilan ta’minlanishini ta’kidlashmoqda[1].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ilmiy adabiyotlarda ish bilan bandlik nazariyasi turli xil yondashuvlar bilan ajralib turadi, ular turli xil iqtisodiy maktablarni o‘rganish natijalariga asoslangan.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2015-yilning sentabrida Barqaror rivojlanish bo‘yicha o‘tkazilgan sammitida qabul qilingan 70-son rezolyusiyasiga muvofiq, shuningdek, 2030-yilgacha bo‘lgan davrda BMT Global kun tartibining Barqaror rivojlanish maqsadlarini izchil amalga oshirish bo‘yicha jahon mamlakatlarida faol islohotlar olib borilmoqda. Barqaror rivojlanish maqsadlarining (BRM) barcha jihatlariga erishish uchun ko‘proq sa’y-harakatlar talab qilinadi. Xalqaro hamjamiyat maqsadlarning bajarilmasligini barcha manfaatdor tomonlar, shu jumladan korxonalar, investorlar va kelajak avlodlar uchun manfaatli bo‘lmasligi mumkinlidan ogohlikka undaydi.

Rossiya Xalqlar do‘stligi universiteti Axborotnomasida e’lon qilingan Chen Vey tadqiqot natijalariga [1] ko‘ra, aholi bandligi – ijtimoiy ishlab chiqarishning muhim tarkibiy qismi sifatida yuzaga keluvchi murakkab ijtimoiy-iqtisodiy hodisa bo‘lib, aholini ish joyi va bir vaqtning o‘zida insonni yashashi uchun zaruriy mablag‘ bilan ta’minlovchi ijtimoiy munosabatlar sifatida jamiyatning asosiy ishlab chiqarish kuchlari shakllanishini ta’minlaydi.

Rus olimi I.S.Salnikova tadqiqotida ish bilan bandlik sifati quyidagicha talqin etiladi: “shaxsning mehnat potensialining tashuvchisi sifatidagi mehnat faoliyati holati, bu unga o‘z ehtiyojlarining umumiyligini ular mehnat jarayoni orqali paydo bo‘lganda to‘liq amalga oshirishga imkon beradi, shu bilan birga jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sohalarida ijobiy ta’sir ko‘rsatadi” [2]. Ushbu talqinda ish bilan bandlik sifat xususiyatlari keltirilgan bo‘lib, sifat ko‘rsatkichlari bo‘yicha yondashuvlar ifodalanmaydi.

Taniqli rus olimi A.E.Kotlyarning fikri qo‘llab-quvvatlanishi lozim, chunki mehnatdan farqli o‘laroq, ish bilan bandlik ma’lum daromad olish hamda kundalik ehtiyojlarni qondirish uchun amalga oshiriladigan maqsadli faoliyatdir. U iqtisodiy faol aholini ishlab chiqarishning moddiy omillariga nisbatan tavsiflaydi va odamlar o‘rtasidagi ularning ijtimoiy ishlab chiqarishda ishtiroki bilan bog‘liqligini aks ettiradi” [3].

B.D.Breev o‘zining “Rossiya aholisini ish bilan ta’minlash sifati to‘g‘risida” maqolasida “mehnat bozorining bir qator umumiy xususiyatlarini o‘rganadi: ma’lum vaqt (14 yil) oralig‘ida ishsizlik darajasi dinamikasi; ma’lumoti, jinsi, yoshi kabi mezonlar bo‘yicha iqtisodiy faol va nofaol aholi tarkibi; mehnat unumdorligi; xodimlarning harakatchanligi; mamlakatdagi demografik vaziyat; band aholining asosiy ish joyidagi maqomi, faoliyat sohasi bo‘yicha taqsimlanishi” [4]. Ushbu maqolada B.D.Breev mehnat bozorida davlatning bandlik siyosati bo‘yicha tadqiqotlar bilan cheklanib, asosiy ko‘rsatkichlardan: demografik ko‘rsatkichlar, mehnat resurslari va mehnat bozori ko‘rsatkichlari bilan kifoyalangan. Shu o‘rinda, ish bilan bandlikning sifat ko‘rsatkichlariga oid manbalar qisman ochiqlangan.

Ish bilan bandlikning o‘ziga xos sifat xususiyatlarini yoritishda rus tadqiqotchi olimlari N.A.Smirnova va O.S.Krutovalar mazmunan va mohiyatan mohirona yondashishgan. N.A.Smirnova o‘z ilmiy tadqiqotida bandlik sifati mavzusini chuqurroq o‘rgangan olimlardan biri bo‘lib, u asosan “bandlik sifati belgilarini va ularning iqtisodiy faol aholi turmush sifatiga ta’sirini aniqlash; bandlik sifatini oshirishga qaratilgan ijtimoiy siyosatning yangi modelini asoslash va uni amalga oshirish yo‘nalishlari” [5] bo‘yicha faol izlanishlar olib borgan bo‘lsa, O.S.Krutova o‘z ishlarida uy xo‘jaliklarida bandlik sifatining o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan bo‘lib, u “ish bilan bandlik sifati” toifasi baholashning uchta asosiy elementi prizmasi orqali ko‘rib chiqiladi: mehnat bozori, bandlik darajasi va uy xo‘jaliklarida turmush darajasi”[6]. Ushbu xususiyatan yondashuvlar ish bilan band aholining uy xo‘jaliklari turmush darajasiga ta’sirini ifodalab qolmasdan, ish bilan bandlikning sifat xususiyatlari tarkibini ham yangilashga e’tibor qaratadi.

Ish bilan bandlikning sifat xususiyatlari bilan bir qatorda sifat ko‘rsatkichlari ham mavjud. Ish bandlikning sifat ko‘rsatkichlari bo‘yicha bir qator tadqiqotchi olimlar quyidagicha fikr-mulohazalar keltirishgan:

Rus olimlaridan M.E.Baskakova va I.V.Soboleva ish bilan bandlikning sifat ko‘rsatkichlariga “ishdan qoniqish; mehnat daromadi; mehnat shartnomasining turi; bandlik barqarorligi; yashirin ish haqining ulushi va boshqalar”ni kiritishni taklif etishadi [7];

T.Yu.Stuken esa “ta’lim darajasi va profiliga muvofiq bandlik, rasmiy va norasmiy, to‘liq va to‘liqsiz ish vaqti” [8] kabi ko‘rsatkichlarni ish bilan bandlikning sifat ko‘rsatkichlari sifatida qaraydi.

I.Chernishev “ish bilan bandlik sifati”ni ish haqi darajasi, ish soatlari soni, mehnat shartnomasining mustahkamligi va umumiy barqarorligi” [9] kabilar bilan izohlaydi va uni umumiy tarzda “mehnat sifati” deya tavsiflaydi.

Bizning fikrimizcha, ish bilan bandlik sifati “ish joyi sifati” yoki “ish jarayoni sifati”dan farq qilgan holda, ishning xolisligi, ish joyidagi erkinlik, hayajon va asabiylikni boshqarish, ish faoliyati muhitidagi o‘ziga xos miqdoriy bo‘lmagan, subyektiv jihatlar bilan tavsiflanmaydi.

1 O‘zbekistonda 2024-yilda 5 mln kishini ish bilan ta’minlash rejalashtirilmoqda. Manba: https://www.gazeta.uz/uz/2024/01/08/employment/

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda bir qator ilmiy manbalarda o‘z aksini topgan aholi bandligining 7 ta turi asosida aholi bandligi darajasini oshirish, ish o‘rni, ish bilan bandlik sifati masalalariga taaluqli empirik va konseptual tadqiqotlar o‘rganildi va ulardagi ilmiy yondashuvlar tizimlashtirildi. Shuningdek, tadqiqot ishida tizimli tahlil, mantiqiylik, qiyosiy tahlil va guruhlash usullari qo‘llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi doirasida 2022-yilda boshlangan keng ko‘lamli islohotlar barqaror rivojlanish sohasidagi maqsad va vazifalarga to‘liq mos kelishi ekspertlar tomonidan qayd etildi. Shuningdek, O‘zbekiston barqaror rivojlanish yo‘lidagi o‘zgarishlar dasturini ilgari surishda sezilarli muvaffaqiyatlarga erishgani ham e’tirof etildi [10].

Odamlarning ko‘p vaqtlari ishda o‘tkazilishini hisobga olsak, korxona va tashkilotlar o‘z xodimlarining farovonligiga bevosita va bilvosita muhim ta’sir ko‘rsatadi. O‘z xodimlarining farovonligini qo‘llab-quvvatlash orqali korxona va tashkilotlar o‘zlari va butun jamiyat manfaati uchun inklyuziv va barqaror o‘sishga hissa qo‘shishlari mumkin [11].

Aholi daromadlarining asosiy qismini mehnat daromadlari tashkil etadigan har qanday mamlakatda ish bilan bandlik sifati muhim o‘rin tutadi.

Ma’lumki, bilan bandlikning sifat ko‘rsatkichlarini o‘rganishga asosan iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan juda ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. 1970-yillarda AQShda paydo bo‘lgan ushbu mehnat sifati konsepsiyasi oradan 10 yil o‘tib, 1980-yillarda to‘liq shakllandi va unga keyinchalik rus, o‘zbek va boshqa olimlarning qiziqishlari orta boshlagan [12].

1-jadval: Xalqaro hisobotlarda ish bilan bandlikning sifat ko‘rsatkichlari tasnifi[2]

№	Xalqaro tashkilotlar	Ko‘rsatkichlar obyekti		
		Ish joyi	Ish bilan band shaxs	Ish bilan bandlik
1.	Xalqaro mehnat tashkiloti [13]	1) Qabul qilib bo‘lmaydigan ish 2) Qabul qilinadigan ish vaqti 3) Ishning barqarorligi va xavfsizligi 4) Ishda adolatli munosabat 5) Xavfsiz ish muhiti	1) Yetarli daromad va samarali mehnat 2) Ijtimoiy himoya 3) Ish joyidagi ijtimoiy muloqot va munosabatlar 4) Munosib mehnatning iqtisodiy va ijtimoiy mazmuni	1) Ishga joylashish imkoniyatlari 2) Ish va hayot muvozanati
2.	Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti [14]	1) Ish muhitining sifati 2) Mehnat bozorida xavfsizlik [15]	1) Shaxs bandlik darajasi 2) Gender ish haqi farqlari 3) Ishdagi zo‘riqish [16] 4) Ishdan qoniqish [17] 5) Daromad sifati [18]	1) Ish bilan bandlik darajasi [19] 2) Ishda, ta’limda yoki o‘qitishda bo‘lmagan yoshlar (NEET) [20]
3.	Jahon banki [21]	1) Ijtimoiy himoya 2) Ish vaqti	1) Ish va shaxsiy hayot muvozanati 2) Jismoniy salomatlik va xavfsizlik 3) Ishdan qoniqish 4) Mehnat daromadlari	1) Rasmiy ish bilan bandlik
4	Turmush va mehnat sharoitlarini yaxshilash bo‘yicha Yevropa jamg‘armasi [23]	1) Ishning sifati 2) Ish vaqti	1) Bandlik sohasidagi risklar	1) Ish va shaxsiy hayot muvozanati
5	BMTning Yevropa iqtisodiy komissiyasi [24]	1) Mehnat xavfsizligi va etikasi 2) Ijtimoiy muloqot	1) Ish vaqti davomiyligi, shva shaxsiy hayot muvozanati 2) Bandlikning barqarorligi va ijtimoiy himoya 3) Daromad va mehnat imtiyozlari	1) Malaka oshirish va kasbiy tayyorgarlik 2) Mehnat munosabatlari va mehnat motivatsiyasi

2 Muallif tomonidan tizimlashtirilgan

Based on the needs analysis, the next step is to identify the components of professional foreign language competence required for international business. The competence model proposed by a group of scientists (A. S. Komkova, E. P. Kobeleva, E. B. Taskaeva, V. G. Ishchenko) defines the knowledge, skills and abilities that should be formed in students [27]. For business students, key competences cover several aspects. The basis is communi-cative competence. According to A. S. Komkova et al. it includes linguistic skills such as vocabulary, grammar, pronunciation, as well as pragmatic skills that allow the correct use of language in context [28]. Busi-ness lexical competence, mastery of syntactic complexity and fluency in an interactive setting are prioritized. Analytical competences that enable stu-dents to interpret, evaluate and work with complex content and texts are equally important. Skills such as reading comprehension, critical thinking, summarizing, interpreting data and understanding special topics reinforce these higher-order competencies. As demonstrated in the article by A. D. Zubkov, intercultural competence requires an understanding of busi-ness norms and effective communi-cation in different languages and cultures [29].

This al-lows successful cooperation and building relationships in different global contexts. Finally, strategic competence includes metacognitive abilities that allow students to continuously improve their language skills. T. I. Gromoglasova, M. I. Kovaleva, J. V. Koshkina, and L. Hafman include strategies for learning specialized vocabulary, seeking clarification, and monitoring their own development as some of these skills [30].

This multidimensional model of competences provides a basis for focusing on the whole range of knowl-edge and skills required by students studying international business. At the same time, curricula and programs can be designed to develop communicative and professional analytical skills, as well as intercultural experience and strategic competence for continuous language develop-ment.

III. Curriculum Development

An effective curriculum for the development of professional language competence is based on the princi-ples of needs-based content selection, sequential learning and authentic-ity. According to I. S. Volegzhanina and T. S. Zaitseva, needs analysis and competence model determine which language features and profes-sional content should be prioritized [31].

Then source materials and learning tasks aimed at mastering this specific language are purposefully selected. In this case, O. V. Zinevich and E. A. Melekhina pay attention to the selection of source materials and teaching tasks aimed at mastering this specific language, as well as the fact that the sequence of training implies gradual complication of the material, starting from the basic conversational level and ending with the mastering of specialized dictionaries and advanced analytical tasks [32].

Students study the materials corresponding to their growing level of language proficiency. According to W. Liu, authenticity increases motivation and contextualization of language use. The inclusion of real business docu-ments, case studies, TED talks and scripts immerses students in the target discourse [33].

This motivates them to engage with meaningful content. The integrated approach combines general and specific learning. In the initial stages, general skills and business fundamentals are developed. At the intermediate level, industry-specific content and text genres are ex-plored. The advanced level involves the creation of advanced texts such as reports and mul-timedia presentations. The study by A. Mappiasse et al. noted that at all stages, project-based learning and authentic skill-building tasks promote meaningful language use [34].

The creation of results relevant to professional activity activates the developing abilities. This focused, sequential and authentic curriculum structure maximizes relevance and pro-motes the development of advanced professional competence. This allows students to be progressively pulled to the highest level required to work in global business.

IV. Teaching Techniques

To implement the curriculum, it is necessary to use pedagogical methods that ensure the active involvement of students and the development of professional competencies. The main methods include:

1. Project-oriented learning with authentic complex tasks reflecting the real business environment. According to a group of scholars (B. Nghia, H. T. Le, H. Jiang, Q. Phuong) they provide a meaningful context for the application of language skills [35].
2. task-based learning focused on communicative business functions such as persua-sion, negotiation, problem solving and inter-cultural co-operation. As shown in the study by A. Pratama and A. Utami, such tasks activate the strategic use of language [36].
3. technology integration through tools such as software simulations, multimodal as-signments and corpus tools. At the same time, N. Radosavlevikj believes that it promotes digital literacy along with language skills [37].
4. collaborative learning that promotes teamwork and mutual assistance through group projects, presentations and discussions. In the study by G. Wahyu and C. Ni empha-sizes that it develops the ability to interact with each other [38].
5. Full-fledged feedback and evaluation through checklists, rubrics, videoconferences, observations and portfolios. As L. Zagoumennov rightly points out, this promotes reflection and guides continuous development [39].

Foreign language teachers promote active, contextualized, professionally relevant learning. Their role is to structure tasks, model language use, support learner autonomy and provide expert guidance. This principled communicative learning engages students, gives them the opportunity to apply their developing language skills and reflects the environment in which they will work as business professionals. As a result, graduates are able to use the language they learn confidently and effectively in a global working environment.

V. Curriculum Evaluation

A comprehensive language program should include continuous evaluation of the ef-fectiveness of materials, techniques and outcomes. The work of L. Zagoumennov demon-strates that this allows for data-driven improvements over time [40]. Effective evaluation of business language teaching includes:

1. assessing language proficiency according to international standards such as CEFR or ACTFL scales. These provide a standardized measurement of language abilities in differ-ent modalities.
2. performance assessments to evaluate the ability to perform authentic communica-tive tasks such as business presentations, negotiations and case studies.
3. student surveys to provide feedback on engagement, motivation and perceived outcomes. This allows the identification of strengths and weaknesses from the learner's perspective.
4. audits of the training program by subject matter experts who review the learning objec-tives, content, materials and assessment for relevance, appropriateness and consistency.
5. Continuous monitoring of individual learners and groups over time through port-folios and projects. This allows analyzing the growth of the competences being formed.

Using these various sources of data, teachers can identify where the curriculum or teaching needs improvement in order to better develop the professional language abilities and knowledge required in the field. The ultimate goal is continuous program improvement and accountability for learning outcomes.

CONCLUSION

This article discusses the principles and methods of professional foreign language competence formation optimized for international business students. Given the complex language requirements that graduates will face in the context of globalization, specialized training is necessary to prepare them for communicative and analytical tasks in their chosen profession. Several key conclusions can be drawn.

Firstly, needs analysis is an indispensable framework to identify target language use, genres and competences.

Secondly, an inte-grated competency model should include communicative competence, higher-order think-ing skills, intercultural expertise and strategic competence.

Third, the curriculum should provide student progression through generic and specific materials using real-world tasks. Fourth, active, contextualized teaching methods effectively activate language use and build professional skills. Finally, continuous program evaluation ensures that teaching is relevant to needs and outcomes.

This targeted approach can transform general language education into specialized preparation for the global business environment. However, further research is needed to clarify the understanding of workplace needs, to test pedagogies and to track long-term results. The development of assessment tools linked to business-specific compe-tences could improve the quality of learning.

In conclusion, this article has presented theoretical foundations and principles for concep-tualizing professional foreign language teaching to meet the specific needs of international stu-dents. The practical implementation of these ideas through curriculum development, classroom research and rigorous evaluation can help to realize the full potential of language education to produce globally competent, multilingual graduates ready for successful careers in interna-tional business. The linguistic and intercultural knowledge they will acquire will be crucial for future leaders navigating an increasingly interconnected world.

References:

1. Zubkov, A. (2022). “Implementation of CLIL Approach via Moocs: Case Study of Siberian Transport University”, International Scientific Siberian Transport Forum TransSiberia – 2021, Novosibirsk, 11–14 maya 2021 goda, Springer Nature Switzerland AG, Switzerland, pp. 1002–1010. DOI: 10.1007/978-3-030-96380-4_109 (in English).
2. Kobeleva, E. P., Matvienko, E. N., & Komkova, A. S. (2022). [Fostering existential skills of students in the process of foreign language
3. learning at the university], Sovremennye problemy nauki i obrazovaniya, № 6-1, p. 6. DOI: 10.17513/spno.32126 (in Russian).
4. Gromoglasova, T. I., & Kolesnikova, T. A. (2023). “Current Foreign Language Textbook for Universities”, Sibirskij uchitel’, No. 2(147), pp. 36–41 (in English).
5. Balmasova, T. A. (2022). [From the experience of using mobile applications in teaching a second foreign language], Vestnik pedagogicheskih nauk, № 8, pp. 224–227 (in Russian).
6. Agavelyan, R. O., Kobeleva, E. P., Stuchinskaya, E. A., & Dushinina, E. V. (2022). [The use of mnemon-ics in the process of professionally oriented foreign language training of Economics majors], Sibirskij pedagog-icheskij zhurnal, № 4, pp. 38–50. DOI: 10.15293/1813-4718.2204.03 (in Russian).
7. Skibickij, E. G., Chusovlyanova, S. V., & Volegzhanina, I. S. (2011). [Pedagogical tools for developing foreign language professional communicative competence of economists], Sibirskij pedagogicheskij zhurnal, № 4, pp. 111–118 (in Russian).
8. Shpak, N. O. (2022). [The role of the teacher in teaching students teamwork in English], Sibirskij uchitel’, № 2(141), pp. 54–58 (in Russian).
9. Ávila-Cabrera, A., & Javier, J. (2021). “Reverse Subtitling in the ESP Class to Improve Written Skills in English”, Journal of Audiovisual Translation, vol. 4 (1), pp. 27–49. DOI: 10.47476/jat.v4i1.2021.22 (in English).
10. Kavlu, A. (2020). “The Effect of Project-Based Learning on First-Year Undergraduate Students in English for Specific Purposes (ESP) Courses”, International Journal of English Linguistics, vol. 10 (4), pp. 227–241. DOI: 10.5539/ijel.v10n4p227 (in English).
11. Schlight, R. (2021). “Teaching Register to EFL Writers: Formality and Deference in Written Communication”, English Teaching Forum, vol. 58 (2), pp. 89–101 (in English).
12. Arellano-Tamayo, R., & Marites, Q. (2019). “Syntactical and Structural Analysis of EFL Learners’ Narrative Reports: Basis for the Proposed Business English Subject in Higher Institution”, Asian EFL Journal, vol. 24 (4), pp. 94–105 (in English).
13. Farneste, M., & Pašinska, O. (2019). “Developing Peer Corrective Skills in Business Letter Writing in English as a Foreign Language”, Baltic Journal of English Language, Literature and Culture, vol. 9, pp. 29–45. DOI: 10.22364/bjellc.09.2019.03 (in English).
14. Lertcharoenwanich, P. (2022). “The Effect of Communicative Language Teaching in Test Preparation Course on TOEIC Score of EFL Business English Students”, Journal of Language Teaching and Research, vol. 13 (6), pp. 1188–1195. DOI: 10.17507/jltr.1306.06 (in English).
15. Mukaromah, N. H. (2020). “Implementation of Communicative and Participatory Approach in Teaching English for Business”, Culture, Language, and Literature Review, vol. 7 (2), pp. 231–244. DOI: 10.53873/culture.v7i2.229 (in English).
16. Oraif, I., & Alrashed, M. (2022). “Using English Medium Instruction to Teach a General Course in a College of Business and Management”, Frontiers in Psychology 13, vol. 4 (2), pp. 49–71. DOI: 10.3389/fpsyg.2022.984869 (in English).
17. Rungwaraphong, P. (2021). “Inductive Teaching Approaches in Business English Writing in an EFL Context: Paper-Based and Product-Based Instructions”, English Language Teaching Educational Journal, vol. 4 (1), pp. 34–51. DOI: 10.12928/eltej.v4i1.3227 (in English).
18. Saraka, M. (2022). “Teaching Entrepreneurship of English Language to EFL Students in Indonesia: A Case of Mulawarman University”, Samarinda Indonesia, Asian ESP Journal, vol. 16 (1-2), pp. 149–168 (in English).

19. Tipmontree, S., & Tasanameelarp, A. (2018). “The Effects of Role-Playing Simulation Activities on the Improvement of EFL Students’ Business English Oral Communication”, Journal of Asia TEFL, vol. 15 (3), pp. 735–749. DOI: 10.18823/asiatefl.2018.15.3.11.735 (in English).
20. Ishchenko, V. G., & Sergievskaya, E. A. (2022). “Cifrovye tekhnologii kak magistral’nye strategii v razvitii sov-remenno-go obrazovaniya” [Digital technologies as main strategies in the development of modern education], Zametki uchenogo, № 7, pp. 126–129 (in Russian).
21. Zubkov, A. D. (2023). “Discursive Approach to Foreign Language Training via Massive Open Online”, Technologies in a Multilingual Environment: XXII Professional Culture of the Specialist of the Future, St. Petersburg, Russia, 24–26 noyabrya 2023 goda, vol. 636, Springer Cham, St. Petersburg, Russia, pp. 431–439 (in English).
22. Kiryakova, O. A. (2022). “Primenenie autentichnyh videomaterialov kak sposob formirovaniya inoyazychnoj kom-munikativnoj kompetencii u studentov neyazykovogo vuza” [The use of authentic video materials as a way to de-velop foreign language communicative competence among students at a non-linguistic university], Sibirskij uchitel’, № 1(140), pp. 17–25 (in Russian).
23. Kiryakova, O. A. (2022). “E-portfolio as a means of formation of students’ professional foreign language communi-cative competence in technical higher education institutions”, Sibirskij uchitel’, № 6(145), pp. 88–92 (in English).
24. Kononyhina, O. V. (2021). “Motivaciya studentov pri distancionnom obuchenii” [Motivation of students during distance learning], Mezhdunarodnyj zhurnal gumanitarnyh i estestvennyh nauk, № 2-1(53), pp. 107–111. DOI: 10.24412/2500-1000-2021-2-1-107-111 (in Russian).
25. Flyah, A. V. (2021). “Sovershenstvovanie navyka govoreniya na anglijskom yazyke. Iz opyta raboty so studentami napravleniya “Psihologiya” [Improving English speaking skills. From the experience of working with students of the Psychology major], Zametki uchenogo, № 3-1, pp. 448–451 (in Russian).
26. Krut’ko, E. A., Komkova, A. S., Kobeleva, E. P., & Agavelyan, R. O. (2022). “Integraciya videokontenta v process obucheniya professional’no-orientirovannomu anglijskomu yazyku v vuze” [Integration of video content into the process of teaching ESP at a university], Sibirskij pedagogicheskij zhurnal, № 6, pp. 66–75. DOI: 10.15293/1813-4718.2206.06 (in Russian).
27. Zubkov, A. D. (2022). “MOOCs in competence approach to EFL Training of Transport Professionals”, X International Scientific Siberian Transport Forum - TransSiberia 2022, Novosibirsk, 02–05 marta 2022 goda, Elsevier B. V., Novo-sibirsk, pp. 1804–1809. DOI: 10.1016/j.trpro.2022.06.197 (in English).
28. Komkova, A., Kobeleva, E., Taskaeva, E., & Ishchenko, V. (2022). “Foreign Language Learning Environment: A Case Study of STU”, International Scientific Siberian Transport Forum TransSiberia – 2021. Volume 2, Novosibirsk, 11–14 maya 2021 goda, Springer Nature, Novosibirsk, pp. 429–437. DOI: 10.1007/978-3-030-96383-5_48 (in English).
29. Komkova, A. S., Kobeleva, E. P., Stuchinskaya, E. A., & Krut’ko, E. A. (2020). “Formirovanie metakompetencij studentov vuza v processe nauchno-issledovatel’skoj raboty na inostrannom yazyke” [Formation of meta-compe-tences of university students in the process of research work in a foreign language], Professional’noe obrazovanie v sovremennom mire, t. 10, № 2, pp. 3718–-3725. DOI: 10.15372/PEMW20200209 (in Russian).
30. Zubkov, A. D. (2022). “MOOCs as Resource for Content and Language Integrated Learning at University”, Integra-tion of Engineering Education and the Humanities: Global Intercultural Perspectives: Proceedings of the Conference, Saint Petersburg, 20–22 aprelya 2022 goda, vol. 499, Saint Petersburg: Springer Nature Switzerland AG, pp. 112–119. DOI: 10.1007/978-3-031-11435-9_12 (in English).
31. Gromoglasova, T. I., Kovaleva, M. I., Koshkina, Zh. V., & Huffman, L. (2022). “The Flipped Classroom in the Context of Digitization of Educational Space: A Students’ Perspective”, Journal of Siberian Federal University. Humanities and Social Sciences, vol. 15, No. 9, pp. 1296–1309. DOI: 10.17516/1997-1370-0929 (in English).
32. Volegzhanina, I. S., & Zajceva, T. S. (2021). “Organizaciya nauchno-issledovatel’skoj raboty studentov otraslevogo vuza v kontekste proektnoj deyatel’nosti” [Organization of research work of students of an industrial university in the context of project activities], Aktual’nye voprosy obrazovaniya, № 3, pp. 3–7 (in Russian).
33. Zinevich, O. V., & Melekhina, E. A. (2023). “Vysshee obrazovanie dlya global’nogo i lokal’nogo ustojchivogo razvitiya” [Higher education for global and local sustainable development], Vysshee obrazovanie v Rossii, t. 32, № 3, pp. 84–102. DOI: 10.31992/0869-3617-2023-32-3-84-102 (in Russian).
34. Liu, W. (2022). “A Study on the Integration of Business English Teaching and Intercultural Communication Skills Cultivation Model Based on Intelligent Algorithm”, Security and Communication Networks, vol. 8, pp. 1–12. DOI: 10.1155/2022/2873802 (in English).
35. Mappiasse, A., Syamsinar, S., & Bin Sihes, A. (2014). “Evaluation of English as a Foreign Language and Its Curriculum in Indonesia: A Review”, English Language Teaching, vol. 7 (10), pp. 45–59. DOI: 10.5539/elt.v7n10p113 (in English).
36. Nghia, B., Le Huu, T., Giang, H., & Phuong, Q. (2022). “Business Students’ Learning Motivations and Implications for Sustainable Implementations of At-Home Internationalized Programs: Qualitative Evidence from Vietnam”, Marketing Education Review, vol. 32 (4), pp. 329–341. DOI: 10.1080/10528008.2021.2012701 (in English).
37. Pratama, A., & Utami, A. (2022). “The Use of Google Translate in Enhancing the Students’ vocabulary”, Pustakailmu.id, vol. 2 (1), pp. 77–85 (in English).
38. Radosavlevikj, N. (2021). “Teachers’ and Students’ Perceptions and Challenges in Communicative Language Teach-ing”, Journal of Teaching English for Specific and Academic Purposes, vol. 8 (3), pp. 307–320. DOI: 10.22190/JTESAP2003307R (in English).
39. Wahyu, G. E., & Ni, C. (2021). “The Investigation of Request Strategies by EFL Learners of The International Institute of Tourism and Business Denpasar”, Humanis, vol. 25 (2), pp. 145–159. DOI: 10.24843/JH.2021.v25.i02.p03 (in English).
40. Zagoumennov, L. (2022). “Use of Information Technologies in the Development of Foreign Language Scientific Communication Competence of Students of a Non-Linguistic Higher Education Institution”, Open Education, vol. 26 (1), pp. 13–23. DOI: 10.21686/1818-4243-2022-1-13-23 (in English).

SANOAT MAHSULOTLARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION TEXNOPARKLARDAN FOYDALANISH MUVAFFAQIYATIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Sobirxonov Akbarxon Aziz-o'g'li

Annotatsiya: Ushbu maqolada sanoat mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirishda innovasion texnoparklardan foydalanish muvaffaqiyatiga ta'sir etuvchi omillar keltirilgan. Shuningdek, texnoparklar faoliyati samaradorligini baholash ko'rsatkichlarining 4 ta asosiy guruhi o'rganilgan va O'zbekiston Respublikasida innovasion tizimning "Universitet-texnopark" modelini joriy etish yo'llari taklif etiladi.

Kalit so'zlar: texnopark, texnopolis, innovasiya, sanoat mahsulotlari, raqobatbardoshlik, texnologik yuksaltirish, bandlikni ta'minlash.

Abstract: This article presents the factors affecting the success of using innovative technopractices in increasing the competitiveness of industrial products. Also, 4 main groups of indicators for evaluating the efficiency of technology parks are studied, and ways to introduce the "University-technopractice" model of the innovation system in the Republic of Uzbekistan are proposed.

Key words: technopark, technopolis, innovation, industrial products, competitiveness, technological improvement, employment provision.

Аннотация: В данной статье представлены факторы, влияющие на успех использования инновационных технопрактик в повышении конкурентоспособности промышленной продукции. Также изучены 4 основные группы показателей оценки эффективности технопарков и предложены пути внедрения модели инновационной системы "Университет-технопрактика" в Республике Узбекистан.

Ключевые слова: технопарк, технополис, инновации, промышленная продукция, конкурентоспособность, технологическое совершенствование, обеспечение занятости.

KIRISH

So'nggi etti yilda mamlakatimizda Texnoparkning barpo etilishi minglab ish o'rinlarini yaratish imkonini berdi. Buning natijasida aholining ijtimoiy darajasi yaxshilanmoqda. Texnoparklar mamlakatimiz iqtisodiyotida muhim o'rin tutadi. Uning asosiy roli shundaki, uning hududida ilmiy laboratoriya va ishlab chiqarish binolari mavjud bo'lib, ular kichik innovasion kompaniyalarga juda qulay narxlarda ijaraga beriladi, bu esa mahsulot tannarxini pasaytirish imkonini beradi. Bundan tashqari, texnoparkning vositachiligi innovasion g'oyalar va texnologiyalar bozorini tartibga soladi, bu esa ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga yordam beradi.

Mamlakatimizda yuqori texnologiyalar sohasida innovasion texnoparklarning faoliyatini tashkil etilishi iqtisodiyotning yuqori texnologiyali tarmoqlarini jadal rivojlantirish uchun intellektual va moliyaviy resurslarning hududiy konsentarsiyasini ta'minlaydi.

Shu bois, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 15-iyuldagi 589-sonli "Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari Texnologik parkining faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, oldimizga dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki faoliyatini samralari tashkil etish, yuridik shaxslarni uning rezidentlari sifatida ro'yxatdan o'tkaziish, soliq va bojxona imtiyozlarini qo'llash tartibini belgilash, "startap-loyihalarni" har tomonlamma, shu jumladan, vechur moliyalashtirish asosida qo'llab -quvvatlash maqsadi qo'yilgan. [2]

Texnoparklarni samarali rivojlantirish mamlakatimizni rivojlantirishning strategik rejasini ishlab chiqishda, shuningdek, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatini shakllantirish va asoslash, iqtisodiyotni rivojlantirishning

ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, davlat tarkibiy siyosati, davlat investision innovasion siyosati va iqtisodiyotni rivojlantirishda investisiya faoliyatini rag‘batlantirish chora-tadbirlari muhim ahamiyatga ega.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Innovasion texnoparklar raqobatdardosh bo‘lgan yuqori texnologiyali mahsulotlarni ishlab chiqish hududi sifatida qaraladi. Innovasiyalarni yaratish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish, barcha ishtirokchilarni turli profildagi xodimlar yuqori konsentrasiyali bitta ixcham saytga joylashtirish orqali tranzaksiya xarajatlarini maksimal pasaytirish innovasion infratuzilma sifatida texnoparkning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Iqtisodchi olim K.A. Sharipov “Davlatimiz rahbari mamlakatimizda zamonaviy iqtisodiyotni texnologik yuksaltirish orqaligina bandlikni ta’minlash, kambag‘allikni qisqarish va inson kapitalida o‘sish sodir bo‘lishini ilgari surib kelmoqda”, deb fikr yuritgan. [9]

Mahalliy olimlarimiz Toshqulov A.X., Sharipov K.A. “Texnopark fan, ta’lim va yuqori darajada rivojlangan ishlab chiqarishning hududiy integrasiyasidir. U ilmiy kuzatishlar asosida doimiy innovasiya davrini ta’minlaydigan ilmiy markaz atrofida to‘plangan noyob madaniy, ijtimoiy, ta’lim va ilmiy ishlab chiqarishni birlashtiradi.”– deb ilmiy asoslangan fikr bildirganlar. [3]

Shuningdek, N.Q.Yo‘ldoshevning fikriga qo‘ra “Ilmiy g‘oyalarni ishlab chiqish va uni keyinchalik materiallashtirishda yangi tashkiliy tuzilmalar-innovasion markazlar katta rol o‘ynaydilar. Bular o‘z ichiga universitetlar va ilmiy ishlab chiqarish firmalarini o‘z ichiga oluvchi yangilik kiritishlarning vujudga kelgan texnologik faol kompaniyalaridir. Bu modelda innovasion biznes keng innovasion infratuzilma ichidagi barqaror o‘zaro aloqalarni qo‘llab-quvvatlaydi, axborotlarni norasmiy almashish va yangiliklarni sotish kanallarini shakllantirining rivojlangan tarmog‘iga ega. Silikonli vodiy bunday alyansning eng mashhur varianti bo‘ladi.” [4]

Xorijiy olim L.K. Tereshenko fikricha, “Innovasion infratuzilmaga odatda texnoparklar, biznes-inkubatorlar, elektron birjalar, venchur fondlari va boshqa tuzilmalar kiradi. Innovasion infratuzilmaning “ishlashi” zarur, bu innovasiyalarga bozor “talabi”siz va tegishli qonunchilik bazasisiz amalga oshirilishi qiyin. Innovasion faoliyat uchun infratuzilmani yaratish va ulardan foydalanish masalalari murakkab xarakterga ega bo‘lib, ular ko‘p jihatdan fan va innovasiyalar sohasiga, shuningdek, kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash sohasiga ta’sir qiladi.” [5]

“Texnopark faoliyati innovasion jarayonning barcha bosqichlarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan: g‘oyani rasmiylashtirish, yangi texnologiyani ommaviy ishlab chiqarishga joriy etish, innovasion mahsulotni sotish va undan foydalanishgacha. Natijada, ular an’anaviy korxonalardan yuqori texnologiyalarni tijoratlashtirishning turli bosqichlarida bo‘lgan, shuningdek, texnoparklar bilan bog‘liq bo‘lgan yirik kompaniyalarning o‘z qobig‘ida faoliyat yurituvchi kichik innovasion korxonalarning keng doirasi bilan ajralib turadi.” – deb V.X. Tribushnaya o‘z monorafiyasida fikr bildirgan. [6]

TADQIQOT METODOLGIYASI

Tadqiqot jarayonida iqtisodiy tahlil, statistik guruhlash, tizimli va qiyosiy tahlil va boshqa usullar qo‘llanilgan.

TAHLIL VAQ NATIJALAR

Biz tadqiq qilayotgan “TEXNOPARK” MChJ 2019-yil 10-iyunda tashkil etilgan. Bundan ko‘zlangan maqsad import o‘rnini bosuvchi sanoat mahsulotlari, qurilish materiallari va maishiy texnika vositalari ishlab chiqarishni keng assortimentda tashkil etish, yangi ish o‘rinlari yaratishdan iborat.

“TEXNOPARK” MChJ O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan yuqori texnologiyali, raqobatbardosh, eksportga yo‘naltirilgan va import o‘rnini bosuvchi ishlab chiqarishlar yaratish bo‘yicha belgilangan vazifalarni amalda amalga oshirishga qaratilgan 20 ga yaqin loyihani birlashtirgan.

Ayni paytda O‘zbekiston Respublikasida Texnoparklar soni – 21 ta, Texnoparklar tarkibiga kiruvchi korxonalar soni – 1077 tani tashkil etadi.

1-jadval: 2023-yil 1-yanvar holatiga hududlar bo‘yicha EIZlar, texnoparklar va klasterlar soni

	Jami	Shu jumladan:		
		EIZ	Texnoparklar	Klasterlar
O‘zbekiston Respublikasi	**864**	**20**	**21**	**506**
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	88	1	1	75
viloyatlar:				
Andijon	59	1	1	38

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Buxoro	62	2	2	40
Jizzax	62	2	1	40
Qashqadaryo	51	-	1	33
Navoiy	69	1	1	60
Namangan	93	2	1	31
Samarqand	68	1	1	40
Surxondaryo	72	2	1	44
Sirdaryo	47	2	1	33
Toshkent	43	4	1	19
Farg‘ona	73	1	1	9
Xorazm	61	1	6	44
Toshkent shahri	10	-	2	-

Texnoparklar faoliyati samaradorligini baholashda shuni yodda tutish kerakki, ularning zamirida ushbu institusional birliklar uzoq muddatli loyihalardir. Ularning muvaffaqiyati innovasion jarayonga mavjud bo‘lgan hudud infratuzilmasini maksimal darajada jalb qilishdagi faolligi bilan belgilanadi. Texnopark rivojlangan sari o‘zi joylashgan viloyat yoki shaharning ijtimoiy-iqtisodiy hayotining markaziga aylanadi. Shu munosabat bilan texnoparklarni shakllantirish va faoliyat yuritish samaradorligining asosiy jihatlaridan biri sifatida ularning muayyan hududlarning sanoat ixtisoslashuvi bilan o‘zaro bog‘liqligi ko‘rib chiqilishi mumkin. Texnoparkning ishlash samaradorligi ko‘plab alohida omillarning ko‘p yo‘nalishli ta’sirini jamlovchi integral ko‘rsatkich shaklida baholanadi.

Texnoparklar faoliyati samaradorligini baholash ko‘rsatkichlarining 4 ta asosiy guruhi mavjud:

1. **Texnopark rezidentlarining innovasion faolligi.** Ushbu ko‘rsatkichlar guruhi texnoparkning uni yaratishning asosiy maqsadiga (innovasion kompaniyalarni yaratish va rivojlantirishni rag‘batlantirish, rezidentlarning xarajatlarini kamaytirish va ular uchun maxsus xizmatlarni yaratish) qanchalik mos kelishini baholash imkonini beradi va ikkita ko‘rsatkichni o‘z ichiga oladi:

- texnopark rezidentlari tomonidan amalga oshirilgan o‘z ishlab chiqarish, ishlar va xizmatlarning jo‘natilgan tovarlari hajmiga texnopark rezidentlarining ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalar bo‘yicha xarajatlarining solishtirma hajmi;
- texnopark rezidentlari tomonidan yil davomida yaratilgan muhofaza etiladigan intellektual mulk obyektlari soni, texnopark rezidentlari xodimlarining yil davomidagi o‘rtacha sonidan kelib chiqqan holda.

2. **Texnopark rezidentlarining iqtisodiy faoliyati.** Ushbu ko‘rsatkichlar guruhi texnoparklar rezidentlari faoliyatining samaradorligini ularning rivojlanish dinamikasi, mehnat unumdorligi, tashqi iqtisodiy faoliyat, shuningdek, investisiya faolligi nuqtai nazaridan baholash imkonini beradi va quyidagi ko‘rsatkichlarni o‘z ichiga oladi:

- mehnat unumdorligi darajasi texnoparkda texnopark rezidentlarining yillik umumiy daromadi texnopark rezidentlari xodimlarining o‘rtacha sonidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Texnopark hududidagi faoliyat rezidentlarga tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) o‘rtacha bozor qiymatiga nisbatan yuqori qo‘shilgan qiymatiga ega yuqori texnologiyali loyihalarni amalga oshirish imkonini beradi;
- texnopark rezidentlari mahsulotlari eksportining solishtirma hajmi (texnopark rezidentlari xodimlarining o‘rtacha soniga yil davomida texnopark rezidentlari mahsulotlarini eksport qilish hajmi);
- texnopark rezidentlari tomonidan soliq va bojxona to‘lovlarining solishtirma hajmi (texnopark rezidentlari tomonidan barcha darajadagi budjetlarga bir yilda texnopark rezidentlari xodimlarining o‘rtacha sonidan kelib chiqqan holda soliq va bojxona to‘lovlari hajmi);
- texnopark rezidentlarining asosiy kapitalga kiritgan investisiyalarining solishtirma hajmi (texnopark rezidentlarining yil davomidagi texnopark rezidentlari xodimlarining o‘rtacha sonidan kelib chiqqan holda asosiy kapitalga kiritgan investisiyalari hajmi).
- Texnopark rezidentlarining asosiy fondlarga kiritgan investisiyalari hajmi – bu asosiy vositalarni sotib olish, yaratish va qayta ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan, shu jumladan, yangi qurish, rekonstruksiya qilish (kengaytirish va modernizasiya qilish) bo‘yicha xarajatlar yig‘indisi bo‘lib, bu ularning ko‘payishiga olib keladi. Boshlang‘ich qiymati, mashinalar, asbob-uskunalar, transport vositalari, ishlab chiqarish va

biznes uskunalarini sotib olish, shuningdek, intellektual mulk obyektlariga investisiyalar va nomoddiy qidiruv xarajatlari;

- texnopark rezidentlari daromadlarining o‘sish sur’ati.

3. **Texnopark boshqaruv kompaniyasining samaradorligi.** Ushbu guruh rezidentlarni jalb qilish, uning rivojlanish dinamikasi, investisiyalarni jalb qilish va infratuzilmani rivojlantirish nuqtai nazaridan texnopark boshqaruv kompaniyasi samaradorligini baholaydi:

- texnoparkning ijaraga beriladigan maydoni rezidentlari tomonidan bandlik darajasi bir yildan ko‘proq vaqt amal qiladi;
- texnopark boshqaruv kompaniyasining pullik xizmatlar solishtirma hajmi (texnopark rezidentlariga boshqaruv kompaniyasi tomonidan ko‘rsatiladigan pullik xizmatlar hajmi, shu jumladan, foydalanishga topshirilgan texnopark binolarining umumiy maydonidan kelib chiqqan holda ijara haqi);
- texnopark mavjud bo‘lgan davrda to‘plangan binolar, inshootlar, infratuzilmalarni qurish, shuningdek, zarur jihozlarni sotib olish uchun jalb qilingan to‘g‘ridan-to‘g‘ri investisiyalarning solishtirma hajmi, ko‘rsatkich texnoparkning 1 m2 binolari uchun texnoparkning asosiy fondlariga budjet va budjetdan tashqari manbalardan to‘g‘ridan-to‘g‘ri investisiyalar hajmini aks ettiradi.

4. **Texnoparklarning investitsion jozibadorligi va axborot ochiqligi (rezidentlar uchun qulay sharoitlar mavjudligi, texnoparkning axborot ochiqligi, texnopark rezidentlarini xizmatlar bilan ta’minlash va boshqalar).** Asosiy xizmatlarga quyidagilar kiradi: rezidentlarga yer uchastkalarini ijaraga berish, rezidentlarga ijaraga binolar berish, aholi buyurtma qilgan tayyor binolar, inshootlar, inshootlarni qurish (xizmat ko‘rsatish), jismoniy shaxslar va mulk xavfsizligini ta’minlash xizmatlari texnoparklar, telefon xizmatlari, Internet tarmog‘iga kirish xizmatlari, buxgalteriya va yuridik xizmatlar, reklama xizmatlari, pochta xizmatlari, kotiblik xizmatlari, oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash va oziq-ovqat uchun ixtisoslashtirilgan joylarni jihozlash xizmatlari, tovarlar va yo‘lovchilarni tashish xizmatlari, transport vositalari bilan ta’minlash, viza va immigrasiyani qo‘llab-quvvatlash xizmatlari kabilar.

Ixtisoslashgan xizmatlarga quyidagilar kiradi: rezidentlarga ixtisoslashtirilgan uskunalar bilan ta’minlash, muhandislik xizmatlari, moliyaviy xizmatlar, shu jumladan, moliyaviy vositachilik xizmatlari, intellektual mulkni boshqarish sohasidagi xizmatlar, biznesni boshqarish va korxonalarni boshqarish bo‘yicha konsalting xizmatlari, marketing tadqiqotlari, ta’lim va o‘qitish xizmatlari, texnologiya xizmatlari va eksport xizmatlari.

Har bir texnoparkning integral ko‘rsatkichi yuqoridagi guruhlardan har bir ko‘rsatkich bo‘yicha texnoparkga berilgan ballarni yig‘ish yo‘li bilan hisoblanadi. Texnoparkning ishlash samaradorligi omil xususiyatlarining ahamiyati doimiy emas va ularning rivojlanishining o‘zgaruvchan tashqi va ichki sharoitlari ta’sirida o‘zgarib turadi, bu esa vaqt o‘tishi bilan ularning tarkibini o‘zgartirish zarurligini oldindan belgilab beradi.

Texnoparklarni tashkil etish va rivojlantirish bo‘yicha xorijiy tarixiy tajribani o‘rganish va tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, eng samarali texnoparklar mavjud qudratli texnik universitetlar negizida tashkil etilganlardir.

Texnoparkning asosiy ustuvor yo‘nalishlaridan biri innovasiyalar bo‘yicha menejerlarni tayyorlash (qayta tayyorlash), innovasion loyihalarni boshqarish bilan bog‘liq muammoli o‘quv dasturlari va fanlarini (1-kursdan boshlab) joriy etish, ilmiy-texnikaviy loyihalarni tijoratlashtirish va transfer qilishdan iborat bo‘lib, ishlanmalar, huquqiy himoya va intellektual mulkdan foydalanish, yangi mahsulotlar va texnologiyalarning tijorat salohiyatini baholashdir.

Ushbu modelning asosiy elementlaridan biri innovasion g‘oyalar tug‘iladigan va amalga oshiriladigan, fan, ta’lim va ishlab chiqarish o‘rtasidagi bog‘liqlik ta’minlangan o‘zaro bog‘langan markazlar zanjiri bo‘lgan innovatsion infratuzilma hisoblanadi.

Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, innovasiyalarning rivojlanishi oliy o‘quv yurtlarida va ularga yaqin joylashgan kichik innovasion tadbirkorlikning shakllanishi bilan bog‘liq. Talabalar har doim ham diplom olishmasa ham texnoparklar bir vaqtning o‘zida korporasiyalar uchun yangi texnologiyalar va kadrlarni tayyorlaydi, shuningdek, muayyan tarmoqlarni rivojlantirish va “kadrlar etishmasligi” bilan kurashish uchun ishlatilishi mumkin. Buning uchun qo‘llaniladigan mexanizmlarning ba’zilariga grantlar, soliq imtiyozlari va binolarni arzon ijaraga berish kiradi.

Universitet yaqinida texnopark tashkil etilishi ta’lim muassasasi uchun ham, talabalar uchun ham foydalidir. Bir tomondan, talabalar o‘zlarining almamaterlari yonida o‘zlarining startaplarini ochish, g‘oyani tijoratlashtirish va keyingi texnoparkdagi ofisni ijaraga olgan yirik kompaniya xodimi bo‘lish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Boshqa tomondan, universitet texnopark faoliyatida ishtirok etadi va tadqiqot va ishlanmalar natijalarini tijoratlashtirishda ishtirok etishni da’vo qila oladi, ya’ni texnoparkdagi kompaniyalar mahsulotlari va universitet bitiruvchilari evaziga daromad oladi. Talabalar va olimlar tadbirkorlik tashabbuslarini rivojlantirish uchun imtiyozlarga ega bo‘ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

1. Shunday qilib, amaliyot shuni ko‘rsatadiki, texnoparklar davlat tomonidan ilmiy-texnikaviy inqilobning rivojlanishini qo‘llab-quvvatlaydigan va iqtisodiy tizimni optimallashtirish hamda ilmiy-texnikaviy taraqqiyot yutuqlarini qabul qilish ushbu siyosatning ustuvor yo‘nalishi bo‘lgan mamlakatlarda eng muvaffaqiyatli rivojlanadi.
2. Ilmiy-sanoat parklari kelajakdagi texnopolislar – ilg‘or texnologiyalar, ilmiy tadqiqotlar va loyihalarni ishlab chiqish shaharlarining namunasidir. Aksariyat rivojlanayotgan mamlakatlar va iqtisodiyoti o‘tish davridagi mamlakatlar uchun ilmiy va sanoat parklarini ustuvor rivojlantirish strategiyasi eng yuqori texnologik darajadagi mintaqaviy markazlar tarmog‘ini rivojlantirishga asoslangan faoliyatning yangi yo‘nalishlarini ochishga xizmat qilgani biz uchun tajriba saifatida ahamiyat kasb betadi.
3. Texnoparklarning yana bir muhim funksiyasini ta’kidlash kerak – bu “aql oqimini” saqlab qolishdir. Ayni paytda xorijga o‘qish yoki shartnoma bo‘yicha ketayotgan yosh, iqtidorli olimlarning aksariyati u yerda doimiy yashash uchun qolmoqda, bu esa ilmiy-texnik salohiyatning barbod bo‘lishi, yuqori malakali olim va mutaxassislarga talabning yo‘qligi bilan bog‘liq.
4. Ilmiy va tijorat faoliyati uchun qulay sharoitlar yaratilgan texnoparklar tarmog‘ini rivojlantirish bu jarayonni sekinlashtirishi mumkin, shuningdek, G‘arbning yetakchi tadqiqot markazlarida tajriba to‘plagan va qaytgan olimlar salohiyatini ishlab chiqarishga qo‘llash uchun real imkoniyat beradi.

Xozirgi sharoitlarda mahsulot ishlab chiqarish jarayonini minimal xarajatlar bilan tez qayta qurishni ta’minlash uchun tubdan yangi avtomatlashtirish usullari zarur bo‘ldi. Natijada, “uchuvchisiz texnologiyalar” tubdan farq qiluvchi, moslashuvchan avtomatlashtirish vositalariga, kompyuterlar, kompyuter raqamli boshqaruvi bilan metallga ishlov berish uskunalari, sanoat robotlari, yangi aloqa vositalari va boshqalarni joriy etiladi.

Texnopolislar fan va ishlab chiqarish o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning istiqbolli shaklidir. Texnopolislarning faoliyati faqat yangi mahsulotlarni ommaviy ishlab chiqarish bosqichiga olib kelgan eng yangi ilmiy g‘oyalar va innovasion faoliyatning uzviy uyg‘unlashuvini ta’minlaydi. Texnopolislar fan va ishlab chiqarishning nisbiy avtonomiyasini engib, ularni manfaatdor sheriklarga aylantiradi. Shu ma’noda, texnopolislar va texnoparklarni juda istiqbolli hodisa sifatida tavsiflash mumkin, chunki bugungi kunda ishlab chiqarishni ilm-fan bilan uyg‘unlashtirmasdan turib, uni yanada rivojlantirish mumkin emasligi aniq.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi “2022-2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-165-son Farmoni. lex.uz›uz/docs/-6102462
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 15-iyuldagi 589-sonli “Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari Texnologik parkining faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. it-park.uz›uz/itpark/news/it-park-rezidenti-…
3. Тошқулов А.Х., Шарипов К.А., Эшов М.П. Новый Узбекистан: шаги социального-экономического развития. Учеб. пособ. –Т.: “Маънавият”, 2021. –стр. 792.
4. Yo‘ldoshev N.Q., Akbarxodjaeva Z.Z. Innovasion menejment. – T.: “Iqtisodiyot”, 2019. –189-b.
5. Лафитский, В.И., Терещенко, Л.К., Едкова Т.А. и др.; отв. Ред. Л.К. Терещенко. – М.: Институт законодательства и сравнительного правоведения при Правительстве РФ: 2014. – 13 с.
6. Трибушная В.Х. Инновационная инфраструктура как необходимость поддержки наукоёмкого предпринимательства: технопарки и стратегическое управление: Монография. –Ижевск, 2011. –140 с.
7. Баринова В.А. Технопарки страны мира: организация деятельности и сравнение. Издательский дом “Дело” РАНХиГС, 2012. –7 с. (Инновационная экономика: опыт).
8. https://cer.uz/en/post/publication/tehnoparki-vysokih-tehnologij
9. https://uza.uz/uz/posts/muhandislik-maktablari-zamonaviy-sanoat-tarmoqlari-rivozhiga-qay-darazhada-hissa-qoshadi_580588
10. https://stat.uz/images/miz-press-reliz-ru.pdf
11. https://review.uz/post/texnoparki-vsokix-texnologiy

OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARIDA INVESTITSION SALOHIYATNI SHAKLLANTIRISHNING MAZMUNI VA AHAMIYATI

Xamrayev Nodirbek Ravshanovich
Qarshi davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya: Maqolada oziq-ovqat sanoati korxonalarida investitsiya salohiyati ko‘rib chiqilgan. Jumladan, oziq-ovqat sanoati korxonalari tushunchasining mohiyati ochib berilgan va asosiy iqtisodiy kategoriyalardan biri bo‘lgan investitsiya salohiyati hamda investitsiya faoliyatini amalga oshiruvchi oziq-ovqat sanoati korxonalari nuqtai nazaridan har tomonlama ko‘rib chiqish zarurligi asoslangan. Investitsiya salohiyatiga ta’rif berilgan va turli olimlarning fikrlari jamlangan.

Kalit so‘zlar: oziq-ovqat sanoati korxonalari, investitsiya salohiyati, investitsiyalar resurslar, moliyaviy salohiyat, ishlab chiqarish salohiyati, mehnat salohiyati, innovatsion salohiyat, marketing salohiyati, ehtimoliy salohiyat, boshqaruv salohiyati.

Abstract: The article examines the potential of investment in enterprises of the food industry. In particular, the essence of the concept of enterprises of the food industry is revealed and the need for comprehensive consideration from the point of view of enterprises of the food industry, which carry out investment potential and investment activities, which is one of the main economic categories, is based. The definition of investment potential is given and the definitions of different scientists are summed up.

Key words: food industry enterprises, investment potential, investment resources, financial potential, production potential, labor potential, innovative potential, marketing potential, probable potential, management potential.

Аннотация: В статье рассматривается инвестиционный потенциал предприятий пищевой промышленности. В частности, раскрыта сущность понятия предприятия пищевой промышленности и обоснована необходимость всестороннего рассмотрения с точки зрения инвестиционного потенциала одной из основных экономических категорий и предприятий пищевой промышленности, осуществляющих инвестиционную деятельность. Дается определение инвестиционного потенциала и обобщаются определения различных ученых.

Ключевые слова: предприятия пищевой промышленности, инвестиционный потенциал, инвестиционные ресурсы, финансовый потенциал, производственный потенциал, трудовой потенциал, инновационный потенциал, маркетинговый потенциал, вероятностный потенциал, управленческий потенциал.

KIRISH

Hozirgi vaqtda aholini zarur oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlashda oziq-ovqat sanoati muhim o‘rin tutadi. Uning tarkibiga tayyor oziq-ovqat mahsulotlari, yarim tayyor mahsulotlar, ichimliklar va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish bilan shug‘ullanadigan keng turdagi korxonalar kiradi. Bundan tashqari, oziq-ovqat sanoati muhim iqtisodiy va ijtimoiy funktsiyalarni ham bajaradi. Avvalo, oziq-ovqat sanoati ish o‘rinlarining asosiy manbalaridan biridir. Bu butun dunyo bo‘ylab millionlab odamlarni ish bilan ta’minlaydi, jumladan fermerlar, ishlab chiqarish ishchilari, transport xodimlari, qadoqlovchilar va savdogarlar. Buning natijasida oziq-ovqat sanoati ishsizlik darajasini pasaytirish va aholi turmush darajasini oshirishga xizmat qilmoqda. Qolaversa, oziq-ovqat sanoatining rivojlanishi iqtisodiyotning o‘sishi va sarmoya jalb etilishiga xizmat qilmoqda. Oziq-ovqat sanoatida mamlakatlar o‘z mahsulotlarini xalqaro bozorga chiqarishi mumkin, bu esa eksport daromadlarini oshirish va tashqi savdo aloqalarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bundan tashqari, oziq-ovqat sanoati sohasida zamonaviy texnologiyalar va tadqiqotlarga yo‘naltirilgan sarmoyalar hosildorlik va mahsulot sifatini oshirishga yordam beradi. Shuni ta’kidlash kerakki, oziq-ovqat sanoati ham aholi salomatligi va farovonligiga ta’sir qiladi. Zamonaviy oziq-ovqat sanoati korxonalari yuqori sifat va xavfsizlik standartlariga javob beradigan mahsulotlar ishlab chiqarishga intilmoqdalar. Ular ishlab chiqarishning innovatsion usullaridan foydalanadi, qayta ishlash va qadoqlash jarayonini nazorat qiladi, shuningdek, sanitariya me’yorlari va qoidalariga rioya etilishini nazorat qiladilar. Bu infektsiyalar va kasalliklar tarqalishining oldini olish, shuningdek, aholini to‘yimli va xavfsiz oziq-

ovqat bilan ta’minlashga yordam beradi. Oziq-ovqat sanoatining oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashdagi ahamiyatini ham muhimdir. Dunyo aholisining o‘sishi va iqlim o‘zgarishlari bilan barchani etarli miqdorda oziq-ovqat bilan ta’minlash tobora qiyinlashib bormoqda. Ekinlar hosildorligini oshirish, saqlash va qayta ishlash usullarini takomillashtirish, yangi oziq-ovqat navlarini yaratishda oziq-ovqat sanoati muhim o‘rin tutadi. Umuman olganda, oziq-ovqat sanoati zamonaviy jamiyatning ajralmas qismidir. Bu aholini nafaqat oziq-ovqat bilan ta’minlash, balki iqtisodiyot, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy taraqqiyotga ham salmoqli hissa qo‘shmoqda. Shuning uchun oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash davlatlar va xalqaro tashkilotlarning ustuvor yo‘nalishi bo‘lishi lozim.

Uzoq muddatli istiqbolda iqtisodiy o‘sish imkoniyatlarini belgilovchi asosiy omillardan biri bu iqtisodiyotning investitsion faollik darajasidir. Investitsiya jarayonlarining meyoriy borishini ta’minlaydigan shart-sharoitlarni yaratish davlatning eng muhim vazifalaridan biriga aylanib, uni amalga oshirishda investitsiya faoliyatini amalga oshirishning nazariy asoslari va amaliy qoidalarini yaratish muhim o‘rin tutadi. So‘nggi paytlarda investitsiya faoliyatining ma’nosini ochib beruvchi tushunchalarning iqtisodiy mazmunini o‘rganishning dolzarbligi oshdi. Ushbu tushunchalarning aksariyati faqat bir qarashda uzoq vaqtdan beri o‘rganilgan, o‘rnatilgan terminologik tizimga o‘xshaydi. Ularning tarkibi kontseptual darajada, iqtisodchi olimlarning asarlarida va amaliyotda aniqlashtiriladi hamda boyitiladi. Shuni e’tirof etish kerakki, investitsiyalar bilan bog‘liq turli kategoriyalar va atamalarning mazmunini ochib beruvchi tushunchalarning ko‘plab ta’riflari mavjud. Shu bilan birga, bu ta’riflarni noto‘g‘ri deb hisoblash ham mumkin emas, lekin ularni to‘liq qarash ham bir muncha noto‘g‘ri, chunki iqtisodiyotdagi asosiy tushunchalar reproduktiv jarayonlarning rivojlanishi, atrof-muhitning o‘zgarishi, tarixiy va iqtisodiy rivojlanishning muayyan bosqichlari o‘zgarishi, boshqaruv shakllari va usullarning takomillashishi bilan izohlanadi. Shu munosabat bilan, investitsiya sohasida sodir bo‘layotgan jarayonlarning mohiyatini tushunish uchun dastlabki asos bo‘lgan tushunchaning iqtisodiy ma’nosi, ya’ni “investitsiya salohiyati” ta’rifini atroflicha qarab chiqish lozim. “Investitsiya salohiyati” tushunchasi mazmuniga qarashlarning umumiy xilma-xilligidan uchta yondashuvni ajratish mumkin.

1. Xarajatga asoslangan yondashuv:

- hudud yoki xo‘jalik yurituvchi subyektlarning kapital turlarini o‘zlashtirish qobiliyati sifatida tavsiflanadi.

2. Resursli yondashuv: − har qanday manbalar investitsiya salohiyati sifatida talqin qilinadi;

- barcha imkoniyatlar va mavjud resurslarni investitsiya imkoniyati sifatida qaraladi va ular omillar va shart-sharoitlarning butun tizimi ta’sirida shakllanib, investitsion oqimlar orqali amalga oshiriladi.

3. Natijaviy yondashuv:

- foydalanishdan olingan natija sifatida qaraladi;
- xo‘jalik yurituvchi subyektning iqtisodiy faoliyati natijadorligi jihatidan yondashiladi.

“Investitsiya salohiyati” tushunchasiga xos xususiyatlarni o‘rganish natijalarini umumlashtirib, ushbu kategoriyaning iqtisodiy mohiyatini aniqlashda yagona yondashuvni shakllantirish uchun uning etimologiyasi va semasiologiyasiga murojaat qilish zarur, deb hisoblaymiz. “Potensial” atamasi lotincha (potentia) so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, kuch, imkoniyat degan ma’noni anglatadi. Chet el so‘zlari lug‘atida ushbu chet tili tushunchasining qisqacha izohi “har qanday sohadagi mavjud vositalar va imkoniyatlarning yig‘indisi” deb ta’rif berilgan [1]. Sobiq Sovet ittifoqi Ensiklopediyasida salohiyat deganda “mavjud va safarbar etilishi, harakatga keltirilishi, muayyan maqsadga erishish, rejani amalga oshirish, muammoni hal qilish uchun foydalanish mumkin bo‘lgan vositalar, zaxiralar, manbalar; shaxs, jamiyat, davlatning ma’lum bir sohadagi imkoniyatlari” sifatida keltiriladi. P. Samuelson investitsiya jarayonini kapital shakllanishida joriy iste’mol uchun daromaddan foydalanishdan voz kechish va kelajakda iste’molning kutilayotgan kengayishi sifatida qaradi.. Uning yondashuvi uchta komponentning o‘zaro bog‘liqligini aks ettiradi: investitsiyalarning uzoq muddatli tabiati, kapitalni shakllantirish jarayoni va investitsiyalarning ehtiyojlarni qondirishga yo‘naltirilishi [2].

Zamonaviy bozor iqtisodiyotiga asoslangan yondashuv nuqtai nazaridan, investitsiyalarni kapital qiymatini oshirish va daromad olish maqsadida turli xil obyektlarga barcha shakllarda kapital qo‘yilmalar deb qaralishi mumkin. Muallifning fikricha, makon va vaqtda sodir bo‘ladigan investitsiya jarayonini takror ishlab chiqarish jarayoni bilan birgalikda ko‘rib chiqish kerak. Investitsiyalarning iqtisodiy mohiyatini o‘rganishda takror ishlab chiqarish yondashuvi investitsiyalarni dinamikada kapital shakllarini o‘zgartirish jarayoni, investitsiya resurslarini investitsiya qo‘yilmalariga izchil aylantirish va qo‘yilgan mablag‘larni kapital qiymatining o‘sishiga aylantirish jarayoni sifatida ko‘rib chiqadi. Bunda investitsiyalarga pul mablag‘lari, maqsadli bank depozitlari, aktsiyalar, aktsiyalar va boshqa qimmatli qog‘ozlar, texnologiyalar, texnika, asbob-uskunalar, boshqa mulklar, shuningdek, tadbirkorlik va boshqa faoliyat ob’yektlariga qo‘yilgan pul qiymatiga ega bo‘lgan mulkiy va boshqa huquqlar kiradi. investorning strategik maqsadlariga erishish, foyda yoki samaraga erishishdir [3].

Shunday qilib, “investitsiya salohiyati” atamasi vaqt o‘tishi bilan barqaror iqtisodiy daromadni ta’minlaydigan mablag‘larni aktivlarga investitsiya qilish imkoniyati darajasini aks ettiradi. Shu bilan birga, investitsiya salohiyati investitsiya faoliyatini amalga oshiruvchi xo‘jalik yurituvchi subyektning har tomonlama iqtisodiy tavsifini ifodalaydi. Muallif nuqtai nazaridan, birinchi navbatda, investitsiya maqsadlariga yo‘naltirilishi mumkin bo‘lgan investitsiya resurslari investitsiya salohiyatini aks ettiradi. Investitsiya resurslari deganda investitsiya faoliyatiga kiritilgan kapitalning shakli va miqdori tushuniladi. Investitsion resurslarga quyidagilar kiradi: pul mablag‘lari, er uchastkalari, ularga aloqador binolar va inshootlar, turli xil uskunalar, transport va suzuvchi transport vositalari, mineral xom ashyo resurslar, o‘rmon maydonlari va suv resurslari, patentlar, sanoat namunalariga bo‘lgan huquqlar. mahsulotlar, ularni ishlab chiqarishning yangi texnologiyalari, tovar belgilari va sertifikatlari va boshqalar [4].

Iqtisodiy nuqtai nazardan, barcha ko‘rib chiqiladigan kapital va resurslarni investitsiya sifatida tasniflashning asosiy mezoni ularning foydaliligi, qiymati va tannarxi, tasniflashning asosiy sharti esa real investitsiya obyektlariga investitsiyalarni amalga oshirishda foydalanish imkoniyati va iqtisodiy maqsadga muvofiqligi hisoblanadi. Huquqiy nuqtai nazardan, kapital va resurslardan foydalanish uchun investorlar ularga egalik huquqiga ega bo‘lishi kerak. Investitsion resurslarning qiymati, eskirish darajasi, shuningdek investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun foydalanish imkoniyatini hisobga olgan holda real bozor qiymati xo‘jalik yurituvchi subektning investitsiya imkoniyatlarini aks ettiradi. Bu shuni anglatadiki, investitsiya salohiyati investitsiya qilish imkoniyati darajasini aks ettiruvchi investitsiyalardir. Bu salohiyat talabni keltirib chiqaradi va kelajakdagi investitsiyalar uchun manba sifatida qaralishi mumkin. Shu nuqtai nazardan qaraganda, “investitsiya salohiyati” tushunchasi doimo obyektivdir. Xo‘jalik yurituvchi subyektlar mavjud daromadlarini jamg‘arish maqsadida yo‘naltirish niyati bo‘lmagan taqdirda ham investitsiya salohiyati obyektiv ravishda mavjud bo‘lib, real investitsiya talabiga aylanish qobiliyatiga ega hisoblanadi. Shu munosabat bilan investitsiya salohiyati va uni aniq amalga oshirish o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rish muhimdir. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning investitsiya faoliyati sohasidagi niyatlarini amalga oshirishda investitsiyalarni amalga oshirish uchun omillar, shart-sharoitlar va bevosita imkoniyatlar mavjudligi (ishchi kuchi mavjudligi, mahalliy hokimiyat organlarining tegishli ishlab chiqarishni joylashtirishga roziligi va boshqalar) hisobga olinmasligi mumkin. Shu bilan birga, investitsiyalarning samaradorligi nafaqat amalga oshirish rejalashtirilgan loyihalarning samaradorligiga, balki investitsiya salohiyatini real investitsiya jarayoniga kiritish shartlariga bog‘liq hisoblanadi.

Binobarin, investitsiya resurslari bilan birgalikda investitsiya shartlari xo‘jalik yurituvchi subyektlarning investitsiya salohiyatini belgilaydi va tavsiflaydi. “Investitsiya salohiyati” tushunchasini har tomonlama iqtisodiy tavsiflash uchun ba’zida tegishli terminologik ta’rifga ega bo‘lmagan tushunchalarni ham qarab o‘tish juda muhimdir. Investitsion salohiyat iqtisodiy subyektlarning jalb qilingan investitsiyalarni iste’mol qilish qobiliyatini aks ettiradi, ya’ni strategik istiqbolda rejalashtirilgan investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun investitsiyalarni jalb qilishning maksimal hajmini tavsiflaydi. “Investitsiya salohiyati” tushunchasi “investitsiyaga ehtiyoj” tushunchasidan farq qiladi. Investitsiyalarga bo‘lgan ehtiyoj xo‘jalik yurituvchi subyektlarning joriy investitsiya rejalarini amalga oshirish uchun olishi kerak bo‘lgan investitsiyalar miqdorini aks ettiradi. Muayyan hududlarda faoliyat yuritayotgan xo‘jalik yurituvchi subektlarning investitsiya salohiyati mamlakat va uning ma’lum hududlari investitsiya salohiyatining bir qismidir. Uning yana bir qismini tegishli byudjetlardan investitsiya maqsadlarida ajratiladigan mablag‘lar tashkil etadi. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning investitsiya imkoniyatlari va hududlardagi va umuman iqtisodiyotning investisiya imkoniyatlarini tashkil etadi.

Hududlarning va umuman respublikaning investitsiya imkoniyatlari viloyat va mahalliy byudjetlarga real soliq tushumlari hamda tadbirkorlik subyektlarining tegishli hududlardagi real investitsiyalariga muvofiq shakllantiriladi. Shu bilan birga, hududlarning va umuman iqtisodiyotning investitsion salohiyati ularning investitsion jozibadorligini tavsiflovchi omillar mavjudligini belgilaydi. Ko‘rib chiqilayotgan investitsiya salohiyati tushunchasi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni va birinchi navbatda, hududlarning ishlab chiqarish omillari bilan to‘yinganligi, aholining iste’mol talabi va boshqa ko‘rsatkichlarni o‘z ichiga oladi. U ishlab chiqarish, moliyaviy, mehnat, iste’mol, infratuzilma, innovatsion va tabiiy resurs salohiyatlarining yig‘indisi sifatida baholanadi. Muayyan salohiyatlarning har biri butun ko‘rsatkichlar guruhi bilan tavsiflanadi. Masalan, ishlab chiqarish salohiyati iqtisodiy faoliyatning muayyan natijalariga erishish imkoniyatini bildiradi. Moliyaviy salohiyat - rivojlangan bank sektori, investitsiya kompaniyalari, pay fondlari va boshqalarning mavjudligidir. Tabiiy resurs salohiyati sanoat uchun xom ashyo zaxiralari, o‘rmon resurslari va qishloq xo‘jaligi yerlarining kattaligi bilan tavsiflanadi.

Mamlakat yoki hududlar tabiiy resurslarning eng muhim turlari balans zaxiralari bilan o‘rtacha ta’minlanganligini tavsiflanadi. Uy xo‘jaliklarining daromadlari va asosiy oziq-ovqat mahsuloti tannarxlarining nisbati, aholi depozitlari miqdori va ba’zi boshqa ko‘rsatkichlar bilan tavsiflanadigan iste’mol salohiyati aholining umumiy xarid qobiliyati sifatida qarakadi. Infratuzilma salohiyati iqtisodiy-geografik joylashuvi va infratuzilma jihozlarini baholaydi. Innovatsion salohiyat yangi mashinalarning yaratilgan namunalari soni, ilmiy ishlanmalarni amalga oshiruvchi tashkilotlar soni, tadqiqotchilar soni, fanga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmi va boshqalar bilan belgilanadi. Mehnat salohiyati birinchi navbatda iqtisodiy faol aholi soni va uning ta’lim darajasi bilan tavsiflanadi (1-jadval).

1-jadval: Investitsion salohiyatni aniqlashga bo‘lgan turli yondashuvlar

Mualliflar	Investitsion salohiyatni aniqlash variantlari
N. D. Guskova	“Investitsiya salohiyati makroiqtisodiy xususiyatlarni, hududning ishlab chiqarish omillari bilan to‘yinganligini, aholining iste’mol talabini va boshqa parametrlarni hisobga oladi” [5].
L. S. Valinurova, O. B. Kazakova	Investitsion salohiyat deganda “... moddiy-texnikaviy, moliyaviy va nomoddiy aktivlarni (sanoat obyektlariga mulk huquqiga egalik qilish, foydali qazilmalarni qazib olish, ijtimoiy-iqtisodiy, bozor sohasidagi ma’lumotlarni to‘plash) o‘z ichiga olgan investitsiya resurslari yig‘indisi sifatida belgilash taklif etiladi” [6].
R. A. Karmov	“Investitsiya salohiyati - bu, birinchi navbatda, jamg‘arish uchun mo‘ljallangan va ulardan foydalanishda kutilgan natijaga erishish imkonini beruvchi o‘z resurslari yig‘indisidir. Investitsion salohiyat xo‘jalik yurituvchi subyektning qarz kapitalidan foydalanmasdan ma’lum bir investitsiya loyihasini mustaqil ravishda amalga oshirish qobiliyatini tavsiflaydi [7].
R. N. Malyshev	“Investitsiya salohiyati tarmoqning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari – asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalar tarkibi, asosiy kapitalga qo‘yilgan investitsiyalar fizik hajmi indeksi, investitsion salohiyat investitsiyalar boshidagi asosiy fondlar mavjudligi tarkibidagi ulushini hisobga olishi kerak. davri, asosiy fondlarning amortizatsiya darajasi, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar tarkibi, aktivlar rentabelligi, konsentratsiyalar va boshqalar” [8].
V. Y. Katasonov	Investitsiya salohiyati – bu oldingi iqtisodiy faoliyat natijasida to‘plangan barcha o‘z resurslarining (moliyaviy, moddiy, ilmiy-texnikaviy, inson resurslari) maksimal mumkin bo‘lgan yig‘indisi” deb ta’riflanishi taklif etiladi va shu bilan birga iqtisodiy subyektning joriy iqtisodiy faoliyatini buzmasdan investitsiya faoliyatini (kapital qo‘yilmalar shaklida) qo‘llab-quvvatlash uchun ishlatilishi mumkin bo‘lgan faoliyatidir” [9].
F. S. Tumusov	Investitsion salohiyat deganda ... to‘plangan kapitalning investitsiya bozorida salohiyat talabi ko‘rinishida taqdim etiladigan, real investitsiya talabiga aylanish qobiliyatiga ega va imkoniyatiga ega bo‘lgan qismini tashkil etuvchi salohiyati, investitsiya resurslari yig‘indisidir [10].

“Investitsiya salohiyati” kategoriyasi mazmuniga o‘ziga xos yondashuv haligacha mavjud emas, va shu bilan birga boshqa har qanday iqtisodiy kategoriya singari, ushbu ko‘rsatkichni baholashning umumiy qabul qilingan usuli ham mavjud emas. Shunga ko‘ra, investitsiya salohiyatini aniqlash va baholashga yondashuvlarni tahlil qilish va “korxonaning investitsiya salohiyati” kategoriyasini aniqlash uchun mazmuni jihatdan eng mos ta’rifni aniqlash zarurati paydo bo‘ladi.

Aksariyat olimlar investitsiya salohiyatini ma’lum sharoitlarda investitsiya resurslariga aylantirilishi mumkin bo‘lgan moliyaviy resurslar yig‘indisi sifatida qaraydilar. Ayrim mualliflar investitsion salohiyat ko‘rsatkichlari ro‘yxatiga korxonaning tashqi manbalardan investitsiya resurslarini jalb qilish bo‘yicha salohiyat imkoniyatlarini belgilovchi investitsion jozibadorlik ko‘rsatkichini ham kiritadilar.

Quyida keltirilgan jadvalda investitsiya salohiyatini aniqlash bo‘yicha mavjud yondashuvlarning qiyosiy tahlili keltirilgan.

Mualliflar tomonidan olib borilgan tahlillarga asoslanib, korxonaning investitsiya salohiyatini moddiy, texnik va moliyaviy resurslar, shuningdek, investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan nomoddiy resurslar yig‘indisi sifatida tavsiflash mumkin.

Korxonalarning investitsion salohiyatini tadqiq etishda iqtisodchi olim L.A.Tolstolesov investitsiyaviy resurslar to‘plami sifatida talqin qilgan va uning tarkibiga investitsiyalarni jalb qilishning zaruriy sharti bo‘lgan hududning imkoniyatlarini kiritgan [11]. L.A. Tolstolesov moliyaviy va investitsion salohiyatni tadqiq etishda salohiyat manbalarini alohida o‘rgangan, investitsiya salohiyatini shakllantirishda esa an’anaviy ravishda hisobga olinadigan moddiy, moliyaviy, intellektual va boshqa resurslar to‘plamini shu bilan birga kapital egalari va investitsiya obektlarini kiritgan [11].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada oziq-ovqat sanoatini korxonalarida innovatsion salohiyatni shakllantirishning ahamiyatini va sohadagi mavjud muammolarni ilmiy jihatdan o‘rganish, qiyosiy solishtirish, statistik ma’lumotlarni o‘rganish va iqtisodiy jihatdan taqqoslash va tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiyalash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yuqoridagilardan xulosa qilgan holda aytish mumkinki, oziq-ovqat samoati korxonalari investitsion salohiyatini quyida keltirilgan moliyaviy, ishlab chiqarish, mehnat, innovatsion, marketing, ehtimoliy va boshqaruv salohiyati turlariga ajratishimiz mumkin (1-rasm).



1-rasm: Oziq-ovqat sanoati korxona investitsion salohiyatiga ta'sir etuvchi omillar[12]

Oziq-ovqat sanoati korxonalari investitsion salohiyatini shakllantirishda tashqi omillarning o'rni muhim bo'lib korxonalarga bevosita bog'liq bo'lmagan omillar bo'lib hisoblanadi. Aytishimiz mumkinki, oziq-ovqat sanoati korxonalari investitsion salohiyatiga ta'sir etuvchi omillarni tashqi va ishchi omillarga ajratishimiz mumkin bo'ladi. Tashqi omillarga korxona faoliyatiga ta'sir etuvchi davlat boshqaruv organlari, jamoatchilik institutlari, ommaviy axborot vositalari, aksiyadorlar, investorlar, banklar hamda tashqi hamkorlarni, jumladan ishlab chiqaruvchi va iste'molchilarni keltirishmiz mumkin bo'ladi.

O'z navbatida ichki omillar deganda korxona faoliyatini tashkil etishda ichki imkoniyatlar, to'siq va muammolar nazarda tutiladi. Ushbu omillar sifatida korxonaning buxgalteriya siyosati, asosiy fondlar va ulardan foydalanish darajasi, korxona moliyaviy aktivlari tarkibi va tuzilishi, kadrlar siyosati, boshqaruv salohiyati va shu kabilar kiradi.

Bundan tashqari korxonaning investitsion salohiyatiga ta'sir etuvchi omillar ichki va tashqi omillar sifatida quyidagicha ta'riflash mumkin.

Ichki omillarga quyidagilar kiradi:

- korxona tomonidan nazorat qilinadigan resurslar (intellektual, texnik, xom ashyo va boshqalar);
- iste'mol va tovar bozorlariga chiqish;
- raqobatning ta'siri;
- xorijdan investitsiya resurslaridan foydalanish imkoniyati va xorij kapitalining iqtisodiyotda mavjudligining umumiy darajasi;
- korxonalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat siyosatining mavjudligi.

Tashqi omillar:

- mamlakatdagi aholi jamg‘armalarining tabiati (hajmi, tarkibi, dinamikasi);
- aholining inflyatsiya kutilmalari darajasi;
- investitsiya resurslari egalarining mamlakatning qayta taqsimlash sektoriga (banklar, qo‘shma investitsiya institutlari, sug‘urta kompaniyalari) ishonchi;
- investitsiya faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy bazaning holati;
- boshqa shaffoflik omillari va mamlakatda biznes yuritishdagi to‘siqlar majmuasi (korruptsiya darajasi, byurokratizatsiya, jinoiy vaziyat va boshqalar).

Korxonaning investitsion salohiyati - bu korxonaning strategik va joriy maqsadlariga erishish uchun barqaror rivojlanishini ta’minlashga qodir bo‘lgan investitsiya loyihalari va resurslari majmui [13].

Shunday qilib, yuqorida keltirilgan ta’riflarning barchasi “investitsion salohiyat” tushunchasini aniqlash bo‘yicha klassik qarashlarni inobatga olgan holda, oziq-ovqat sanoati korxonasining investitsion salohiyati tushunchasiga quyidagicha ta’rif berishni taklif etamiz. Bizningcha, korxonaning investitsion salohiyati – bu barcha mavjud salohiyat turlari, jumladan ishlab chiqarish, moliyaviy, mehnat, marketing, boshqaruv va innovatsion salohiyatlarning umumiy qobiliyatlari yig‘indisidir. Bu esa oziq-ovqat sanoati korxonasi tashqi muhitga bog‘liq holda o‘zaro ta’sir jarayonida tayyor oziq-ovqat mahsulotlariga (xizmatlariga) bo‘lgan bozor ehtiyojlarini aniqlash va qondirish, mavjud resurslardan samarali foydalanish asosida korxonaning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta’minlash qobiliyatidir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, uslubiy yondashuvga ko‘ra faqat mavjud imkoniyat va qobiliyatlar yig‘indisi sifatida talqin qilinuvchi “investitsion salohiyat” tushunchasining mazmuni ehtimoliy salohiyatning mavjudligi ham hisobga olingan holda, oziq-ovqat sanoati korxonasiga tatbiqan faoliyat samaradorligi va rivojlanishi tavsifi, tahlil obektining retrospektiv va perspektiv analitik ko‘rsatkichlarini baholash mezonlari tizimi, barcha mavjud salohiyat turlari umumiy qobiliyatlari yig‘indisi sifatida qaralishi lozim.

Investorlarning investitsiya faoliyatida loyihalarni amalga oshirish uchun iqtisodiy muhit bevosita ta’sir ko‘rsatadi, xususan, soliq muhiti, erlardan foydalanish tizimi, har xil turdagi imtiyozlar berish tizimi va boshqalar. Jami investitsiya imkoniyatlari tegishli resurslar va ishlab chiqarish omillarining mavjudligi, shuningdek, investitsiyalar uchun iqtisodiy shart-sharoitlar, investitsiya faoliyatini amalga oshirish uchun iqtisodiy muhit va xo‘jalik yurituvchi subyektlarning ishlashi bilan belgilanadigan turli darajadagi xo‘jalik yurituvchi subyektlar va umuman davlatning investitsiya salohiyatini belgilaydi. Investitsion salohiyatning hajmi va dinamikasi iqtisodiy salohiyat bilan o‘zaro ta’sirga ega. Bir tomondan, ular to‘g‘ridan-to‘g‘ri unga bog‘liq bo‘lsa, ikkinchidan, ular ikkinchisining rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Iqtisodiy salohiyat deganda, odatda, iqtisodiyotning barcha tarmoqlari ishlab chiqarish bazasi, o‘zlashtirilgan tabiiy resurslar hajmi va tarkibi, ilmiy-texnikaviy va intellektual salohiyati, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmalarning rivojlanish darajasi miqdor va sifat ko‘rsatkichlari tushuniladi. Iqtisodiy salohiyat mintaqa va mamlakat iqtisodiyotining barcha tarmoqlari va ijtimoiy sohalarini barqaror, dinamik va samarali rivojlantirish qobiliyatini belgilovchi omillar va shart-sharoitlar majmui bilan belgilanadi. Iqtisodiy adabiyotlarda investitsion salohiyat ko‘pincha investitsiya muhitining ajralmas tavsifi sifatida ko‘rib chiqiladi. Shu bilan birga, investitsiya muhiti iqtisodiy va investitsiya salohiyatini, shuningdek, boshqa omillar majmuini o‘zida mujassam etgan keng qamrovli tushunchadir. Investitsion muhitni mamlakat iqtisodiyotining ajralmas xususiyati sifatida ko‘rsatar ekanmiz, uning investitsiyalar tushunchasi bilan bog‘liqligini ta’kidlamaslik mumkin emas.

Ichki va tashqi investorlar uchun investitsiya qarorlarini qabul qilishda eng muhim omil bu risk hisoblanadi. Investitsion risk - bu investitsiyalar va ulardan daromadlarni yo‘qotish ehtimolidir. Investitsion risk darajasi mamlakatdagi siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, jinoyatchilik holati, shuningdek, investitsiya faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy bazaning holati bilan belgilanadi. Shunday qilib, investitsiya risklari investitsiya muhitining ikkinchi muhim xususiyati hisoblanadi. Shunday ekan, investitsiya muhiti umumiy investitsiya salohiyati va investitsiyalarni amalga oshirishda yuzaga keladigan xavflarning nisbati bilan belgilanadi. Investitsion muhit = Investitsion salohiyat - Investitsion risklar. Yuqoridagi formuladan ko‘rinib turibdiki, investitsiya muhitining asosiy xususiyati investitsiya salohiyatidir. Investitsion salohiyati esa investitsion muhit va investitsion risklar yig‘indisidan iborat. “Investitsiya salohiyati” tushunchasining ilmiy talqini nafaqat nazariy, balki investitsiya jarayonlarining faoliyat yuritishi va amalga oshirilishi muammolarini tadqiq qilish uchun metodologik asos hamdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Словарь иностранных слов: 11-е изд. –М.: Рус. яз., 1984.
2. Samuelson P. Iqtisodiyot. –M.: 1992-yil.
3. Ensiklopedik lug‘at. Zamonaviy bozor iqtisodiyoti: ed. V. I. Kushlina, V. P. Chichkanova. –M.: RAGS, 2004-yil.
4. Laxmetkina N.I.Investitsion strategiyani oldindan qabul qilish: darslik. nafaqa. –M.: KNORUS, 2010-yil.
5. Гуськова Н.Д., Краковская И.Н., Слушкина Ю.Ю. Инвестиционный менеджмент. М.: КНОРУС, 2016. –438 с.
6. Валинурова Л.С., Казакова О.Б. Инвестирование. М.: Волтерс Клувер, 2010. 448 с.
7. Кармов Р.А. Инвестиционный потенциал и социально-экономические условия его реализации в трансформируемой экономике: автореф. дис. ... канд. экон. наук. –М., 2007. 146 с.
8. Малышев Р.Н. Инвестиционный потенциал государства в экономике современной России: автореф. дис. ... канд. экон. наук. Тамбов, 2007. –144 с.
9. Катасонов В.Ю. Инвестиционный потенциал экономики: механизмы формирования и использования. М.: Анкил, 2005. –328 с.
10. Тумусов Ф.С. Инвестиционный потенциал региона: теория, проблемы, практика. М.: Экономика, 1999. –272 с.
11. Толстолесова Л.А. Финансово-инвестиционный потенциал сырьевых регионов и стратегия его реализации // Вестник Тюменского государственного университета. 2011. № 11. –С. 120-126.
12. Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.
13. А.А.Тафеева. Оценка инвестиционной привлекательности предприятия в условиях инновационного развития. Автореферат диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук по специальности 08.00.05 – Экономика и управление народным хозяйством: экономика, организация и управление предприятиями, отраслями, комплексами (промышленность)- Санкт-Петербург – 2011.
14. Саидов М.С. Ўзбекистонда табиий монопол ташкилотларни бошқариш ва тартибга солишнинг иқтисодий ва ҳуқуқий жиҳатлари // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. –№ 3, may-iyun, 2021-yil. https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/11_Saidov.pdf
15. Saidov M.S. Globallashuv sharoitida tabiiy monopol tashkilotlar faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishning institutsional xususiyatlari // “Ta’lim – tarbiya jarayoniga innovatsion yondashuvlar, muammo va yechimlar” mavzusidagi respublika ilmiy – amaliy konferensiyasi. –Toshkent 2022-y. 197-203 b. https://zenodo.org/records/6585036
16. Saidov M.S. Tabiiy monopol tashkilotlarni boshqarishning nazariy-uslubiy jihatlari // Iqtisodiyot va ta’lim / 2021yil 2-son. https://journal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/3104/816
17. Saidov M.S. Tabiiy monopol tashkilotlarni boshqarishda raqobat muhitini rivojlantirish // Iqtisodiyot va ta’lim / 2021yil 4-son.https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/view/125/121
18. Saidov M.S. Tabiiy monopoliyalarni boshqarish va tartibga solishning xorij tajribasi // Iqtisodiyot va ta’lim / 2021yil, 5-son. https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/view/209/256
19. Saidov M.S. Challenges and solutions of formation of competitive environment in regulation of natural monopolies // International Journal of Advanced Research in IT and Engineering. №11 2021. 45-58 ISSN: 2278-6244 https://garph.co.uk/IJARIE/Nov2021/G-6.pdf
20. Saidov M.S. Renewable Energy Sources and Ways of their Implementation in the Republic of Uzbekistan // INTERNATIONAL JOURNAL ON ECONOMICS, FINANCE AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT ISSN (electronic): 2620 - 6269/ ISSN (printed): 2615 – 4021 Vol. 5 No. 1 | January 2023. P. 38-52. https://journals.researchparks.org/index.php/IJEFSD/article/view/3879/3668
21. Saidov M.S. Ways of introduction of modern manajement mechanisms in the electric power sector of Uzbekistan // International Journal of Business Diplomacy and Economy Volume 2, No 1 | Jan–2023. –P. 98-110. https://inter-publishing.com/index.php/ijbde/article/view/977/843

O‘ZBEKISTONNING MOLIYAVIY SIYOSATI: TARKIBIY TUZILISHI VA TAHLILI

Jabborova Dilafruz Sodiq qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tayanch doktaranti

Annotatsiya: Bugungi kunda rivojlanayotgan mamlakatlar qatori O‘zbekistonda barqaror biznesni rivojlantirish borasida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Bunga erishish uchun esa mamlakatda olib borilayotgan moliyaviy siyosatning oqilona yo‘lga qo‘yilishi va uning katta qismini barqaror biznesni rivojlantirishga, aholi turmush darajasini yaxshilashga, tashqi savdoni oshirishga, mamlakatda kichik va o‘rta biznesni rivojlantirishga yo‘naltirish lozim.

Ushbu maqolada O‘zbekistonning moliyaviy siyosati: tarkibiy tuzilishi va tahlili, uning asosiy quroli va tarkibiy qismlari haqida so‘z yurutilgan va 2023-yil yakunlari bo‘yicha davlat budjeti daromadlari va xarajatlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston, moliyaviy siyosat, davlat budjeti, davlat budjeti parametrlari, davlat xarajatlari, monetar siyosat, pul kredit siyosati, kichik biznes, o‘rta biznes, yashil moliyalash, tarraqqiyot strategiyasi.

Abstract: Today, in Uzbekistan, as in every other country, a number of activities are being carried out to develop sustainable business. In order to achieve this, it is necessary to rationally implement the financial policy in the country and direct a large part of it to the development of sustainable business, improving the living standards of the population, increasing foreign trade, and developing small and medium-sized businesses in the country.

This article talks about the financial policy of Uzbekistan: structural structure and analysis, its main weapon and components, and analyzes the income and expenses of the state budget by the end of 2023.

Key words: Uzbekistan, financial policy, state budget, state budget parameters, state expenditures, monetary policy, money credit policy, small business, medium business, green financing, development strategy.

Аннотация: Сегодня в Узбекистане, как и в любой другой стране, проводится ряд мероприятий по развитию устойчивого бизнеса. Для достижения этой цели необходимо рационально реализовать финансовую политику в стране и направить значительную ее часть на развитие устойчивого бизнеса, повышение уровня жизни населения, увеличение внешней торговли, развитие малого и среднего бизнеса. крупного бизнеса в стране.

В данной статье рассказывается о финансовой политике Узбекистана: структурная структура и анализ, ее основное оружие и составляющие, а также анализируются доходы и расходы государственного бюджета до конца 2023 года.

Ключевые слова: Узбекистан, финансовая политика, государственный бюджет, параметры государственного бюджета, государственные расходы, денежно-кредитная политика, денежно-кредитная политика, малый бизнес, средний бизнес, зеленое финансирование, стратегия развития.

KIRISH

Hech kimga sir emaski, mamlakatimizning so‘nggi yillardagi iqtisodiy ko‘rsatkichlari sezilarni darajada oshib bormoqda. Buning eng katta sabablaridan biri tashqi iqtisodiy aloqlarning yaxshilanganligi va eksport darajasini oshganligida. Bu jarayonda moliyaviy siyosat borasida ham bir qator o‘zgarishlar bosqichma bosqich amalga oshirilmoqda. Yangi O‘zbekistonning yaratilish debochasi sifatida iqtisodiy sohalarda islohotlarning boshlanishida O‘zbekiston Repsublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli “O‘zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” [1] Farmoni muhim ahamiyat kasb etdi. Ushbu harakatlar strategiyasining bitta ustuvor yo‘nalishi “Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo‘nalishlari” sifatida alohida e’tibor berildi.

Ushbu harakatlarning izchil davomi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanavrdagi “202–2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” [2] Farmonini

imzolashi ham mamlakatimizda ortda qolayotgan har bir sohani rivojlantirishga asos bo‘ldi. Ushbu taraqqiyot strategiyasida aytib o‘tilgan yuzta yo‘nalishlardan aynan 27-maqsad “Iqtisodiyotda moliyaviy resurslarni ko‘paytirish maqsadida, kelgusi 5 yilda fond bozori aylanmasini 200 million AQSh dollaridan 7 milliard AQSh dollariga yetkazish”, [2] deb belgilanganligi ham moliyaviy siyosatning muhim ekanligini yana bir bor ko‘rsatib bermoqda. Mamlakatimizda kapital harakatini bosqichma-bosqich erkinlashtirish, yirik korxonalarni va ulardagi ulushlarni (aksiyalarni), shu jumladan, fond birjasi orqali xususiylashtirish. Davlat ulushiga ega tijorat banklarida transformatsiya jarayonlarini yakunlab, 2026-yil yakuniga qadar bank aktivlarida xususiy sektor ulushini 60 foizgacha yetkazish nazarda tutilgan.

Moliya siyosati ta’sir ko‘rsatadigan asosiy obyektlar – aholining turli qatlamlari, davlat institutlari (tashkilotlari), sanoat va xo‘jalikning boshqa sohalari, mintaqalar va mamlakatlarning umumiy hududlarini aytib o‘tishimiz mumkun. Moliya siyosatining asosiy quroli va tarkibiy qismi davlat budjeti daromadlari va harajatlari, soliq imtiyozlaridir. Davlat tomonidan tanlangan iqtisodiy siyosatga va maqsadlarga qarab ayrim bandlar bo‘yicha harajatlarni ko‘paytirish yoki kamaytirish orqali mamlakat hayotining u yoki bu tomonlariga, davlat institutlariga, iqtisodiyot tarmoqlariga, harbiy harajatlarni yoki ilmiy texnik taraqqiyot uchun harajatlarni ko‘paytirib yoki kamaytirib, faol ta’sir etish mumkin.

Davlat daromadlar, ularning miqdori, soliqlar tizimi orqali iqtisodiy usish sur’atiga, aholi farovonligiga ta’sir ko‘rsatishi, inflyatsiya jarayonlarini boshqarishi mumkin. Doimiy daromadlardan olinadigan moliyaviy resurslar yetishmagan hollarda transfer to‘lovlari qo‘llaniladi, ularning hajmi va ularga xizmat ko‘rsatish tartibi ham iqtisodiyot holatiga ta’sir ko‘rsatadi. Soliq imtiyozlari Moliya siyosatining muhim usullaridan biri hisoblanadi, ularning yordami bilan davlat iqtisodiyotning muhim tarmoqlari taraqqiyotini tezlashtirishi, aholining ayrim qatlamlari yoki toifalarining daromadiga bilvosita ta’sir etishi mumkin. Moliyaviy siyosatning o‘ziga xos bo‘lgan eng asosiy xususiyati shundan iboratki, bu siyosat mamlakat ishlab chiqaruvchi kuchlarining rivojlanishiga va iqtisodiy muvaffaqiyatlarga uzluksiz ravishda ta’sir ko‘rsatib turishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak. Bunday siyosat aholining turmush farovonligi ta’minlab va davlat daromadlarining manbaini ko‘paytirib, moliyaviy xo‘jalikka nisbatan eng yuqori natijalarni berishi mumkin. Moliyaviy siyosatning ana shunga yo‘naltirilganligi orqali uning quyidagi eng asosiy maqsadini aniqlash mumkin: jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, aholi turmushining darajasi va sifatini oshirish uchun moliyaviy sharoitlarni yaratish moliyaviy siyosatning eng asosiy maqsadidir.

ADABIYOTLAR SHARHI

Aytib o‘tish joizki, har bir mamlakatda moliya tizimining ahamiyati juda katta. Shuning uchun ham moliyaviy siyosatning mazmuni, uning asosiy yo‘nalishlari jamiyat taraqqiyotida davlatning roli to‘g‘risida, iqtisodiyotni boshqarishda davlat ishtirokining darajasini aniqlaydigan tegishli nazariy kontseptsiyalarga, moliyaviy siyosatni amalga oshirishning alohida instrumentlaridan foydalanishda, ya’ni moliyaviy munosabatlarni tashkil etishning aniq shakllarini namoyon bo‘yicha bir qator iqtisodchi olimlar izlanishlar olib borishgan. Yigirmanchi yuz yillikda jamiyatning taraqqiyotida davlatning roli to‘g‘risidagi masala bo‘yicha moliya nazariyasining asosiy yo‘nalishlari mumtoz burjuaziya siyosiy iqtisodchilari A.Smit (1723-1780) va D.Rikardo (1772-1823) hamda ingliz iqtisodchisi J.Keyns (1883-1946) va ularning izdoshlari tomonidan turli hil nazariyalar aytib o‘tilgan.

Mumtoz siyosiy iqtisod asoschilari bo‘lgan A.Smit va D.Rikardolar kontseptsiyalarining mohiyati shundan iboratki, davlat iqtisodiyotga aralashmasdan erkin konkurentsiyani (raqobatni) saqlamog‘i lozim va jamiyat xo‘jalik hayotini tartibga solishda asosiy rol bozor mexanizmlariga ajratilishi (berilishi) kerak. Ana shu printsiplarni inobatga olgan holda yigirmanchi yuz yillikning 20-yillari oxiriga qadar moliyaviy siyosat davlat xarajatlari va soliqlarni cheklashga, davlatning muvozanatli (balans-lashtirilgan) budjetini ta’minlashga qaratildi. Shu maqsadlarga muvofiq ravishda moliyaviy munosabatlarni tashkil etish, asosan, harbiy, boshqaruv va davlat qarzini qaytarish hamda unga xizmat qilish xarajatlarini budjetdan moliyalashtirish orqali davlat funktsiyalarining amalga oshirilishini ta’minladi. Budjet daromadlari esa, asosan, egri (bilvosita) soliqlar yordamida (hisobidan) shakllantirildi.

XX asrning 20-yillari oxirlaridan boshlab keynschilik nazariy kontseptsiyasi ustunlik qila boshlab, unga ko‘ra iqtisodiyot taraqqiyotida davlatning rolini takror ishlab chiqarish jarayonining tsiklik rivojlanishiga aralashish va uni tartibga solish orqali kuchaytirish zarurligi asoslandi. Bunday moliyaviy siyosatni amalga oshirishning asosiy instrumenti sifatida yangi ish joylarini yaratishga yo‘naltirilgan davlat xarajatlari maydonga chiqdiki, bu narsa bir vaqtning o‘zida bir necha iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarning yechilishiga imkon berdi.

Moliyaviy siyosat ko‘p o‘lchamli tushuncha hisoblanadi. Agar umumiy holda uning sohasi jamiyat taraqqiyotining alohida bosqichlarida hukmronlik qilgan nazariy kontseptsiyalardan kelib chiqqan holda iqtisodiy va ijtimoiy sohalarni boshqarishda davlatning ishtirok etish parametrlari bilan aniqlansa, uning qiymat munosabatlarining elementlari bo‘yicha differentsiatsiya qilinishi moliya tizimining rivojlanganligiga va uning ayrim bo‘g‘inlarining mustaqilligiga bog‘liq bo‘ladi.

METADOLOGIYA

Ushbu maqolada statistik ma'lumotlarni tahlil qilish orqali O'zbekistonning moliyaviy siyosati: tarkibiy tuzilishi va tahlili amalga oshirilgan. Maqolada sintez va ilmiy abstraksiya kabi ilmiy usullardan ham foydalanilgan. Maqolada moliyaviy siyosati: tarkibiy tuzilishi va tahlili hamda uning jozibadorligini oshirishga e'tibor qaratilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarning moliyaviy tizimini olib qaraydigan bo'lsak, moliyaviy siyosatning har bir sohasi barqaror iqtisodiy o'sish suratlariga ega ekanlgini ko'rishimiz mumkun. Misol uchun Germaniyada moliyaviy resurslar oqimining katta qismi qayta ishlash sanoatiga yo'naltirilgan va buning natijasi o'laroq toza mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda, tabiatga zarar ko'rsatmaydigan, shuningdek, ularning tovarlariga bozorda talab ham o'sish suratlari yuqori. Yuqorida aytib o'tganimizdek, moliyaviy siyosatning tarkibiy qismlari quyidagi grafikda to'liq yoritib berilgan



1-rasm: Moliyaviy siyosatning tarkibiy qismlari [3]

Yuqoridagi rasmdan shu narsa ayonki, moliya siyosatining asosini davlat budjeti daromadlari siyoasti hamda davlat byudejti xarajatlari tashkil qilar ekan. Bunga asosiy sabab soliq tizimining asosiy vazifasi davlat budjetini qisman bo'lsa ham qayt qoplash, bu budjetning daromadlari hisoblanadi uni to'g'ri taqsimlash esa budjet xarajatlari siyosati hisoblanib uni amalga oshirish yo'nalishlari sifatida kredit siyosatini, investitsion siyosatni, ijtimoiy moliyaviy siyosatlarni aytib o'tishimiz mumkun. O'z navbatida, moliyaviy siyosat davlatning iqtisodiy va ijtimoiy siyosatini amalga oshirishning vositasi bo'lib hisoblanadi va shu ma'noda yordamchi rolni o'ynaydi.

Moliyaviy siyosatni faollashtirish maqsadida moliyaviy resurslarni qayta taqsimlash amaliyotini tubdan o'zgartirish katta ahamiyatga ega. Budjet vositasida, shuningdek, yuqori tashkilotlar orqali amalga oshiriladigan "vertikal" uslubga qarama-qarshi moliyaviy resurslarni moliya bozori orqali "gorizantal" qayta taqsimlash ham borgan sari yanada keng rivoj topadi. Mablag'larning o'tkazib turilishi esa moliyaviy resurslardan talab va taklifdan kelib chiqqan holda foydalanishni nazarda tutadi [4]. Moliya bozorining rivojlanishi munosabati bilan milliy iqtisodiyotni rivojlantirish va umumdavlat ehtiyojlarini qondirish uchun aholi, korxona va tashkilotlarning pul daromadlari va jamg'armalarini jalb etish zarur. Shu munosabat bilan Davlat obligatsiyalari va xazina biletlarini chiqarish ham davlat resurslarining hajmini ko'paytiradi. Moliyaviy siyosat real moliyaviy imkoniyatlarni hisobga olgan holda ishlab chiqilishi va tatbiq etilishi zarur. Sarflar (xarajatlar) moliya resurslarining ko'payganidagina o'sishi mumkin. Bu, eng avvalo, ishlab chiqarishni moliyalashtirishni bildiradi. Iqtisodiy va moliyaviy siyosatning hamma tadbirlari, bir tomondan, aholiga o'z daromadlarini oshirish imkoniyatini berish, ikkinchi tomondan esa tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirpsh uchun maqbul sharoitlarni yaratishga qaratilishi kerak. Moliyaviy siyosatning tubdan o'zgarishiga mos ravishda moliya mexanizmi ham qayta qurilmog'i lozim. Moliya mexanizmini qayta qurishning maqsadi bozor munosabatlari asosida ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligiga uning ta'sirini

kuchaytirish, moliya resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishni ta'minlashdir. Moliya mexanizmini qayta qurish negizida korxona, tashkilotlar ishining yakuniy natijalarini yaxshilash uchun xo'jalik tashabbuskorligi va mas'uliyatini butun choralar bilan kuchaytirish talab qilinadi.

Jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni va mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda keyingi yillarda "Inson qadri uchun" tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so'zsiz ta'minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilash maqsadida taraqqiyot strategiyasida ham moliyaviy siyosatga alohida e'tibor qaratilgan. Moliyaviy siyosatning asosini davlat budjeti daromadlari va davlat budjeti xarajatlari tashkil qiladi. Mamlakatning iqtisodiy o'sishining asosiy ko'rsatkichlaridan tashqi savdoning o'sishi, YaIM ning kishi boshiga to'g'ri kelish ko'rsatkichlari, davlat budjetida daromadlarning xarajatlardan yuqori ekanligi ko'rsatib beradi.

1-jadval: 2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasi konsolidatsiyalashgan budjetining jamlanma parametrlari (mlrd so'mda) [5]

№	Ko'rsatkichlar	2024-yil uchun prognoz
I.	Konsolidatsiyalashgan budjet daromadlari	375 030,5
1.	Davlat budjeti daromadlari	270 403,1
2.	Davlat maqsadli jamg'armalari daromadlari	55 253,3
3.	O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasiga tushumlar	18 871,7
4.	Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg'armalariga tushumlar	30 502,3
II.	Konsolidatsiyalashgan budjet xarajatlari	427 640,3
1.	Davlat budjeti xarajatlari	280 725,4
2.	Davlat maqsadli jamg'armalari xarajatlari	85 813,9
3.	O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'larining sarflanishi	18 848,7
4.	Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg'armalari mablag'larining sarflanishi	30 502,3
5.	Tashqi qarz hisobidan davlat dasturlariga xarajatlar	11 750,0
III.	Davlat maqsadli jamg'armalariga transfertlar	32 195,4
IV.	Davlat budjetiga transfertlar	10 300,0
V.	Konsolidatsiyalashgan budjet saldosi	-52 609,9
VI.	Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari saldosi	-40 882,9
VII.	Davlat qarzlarini so'ndirish	32 271,0

Konsolidatsiyalashgan budjet [7] – O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan moliya yili yakunlari bo'yicha tahliliy maqsadlar uchun hamda budjet tizimi budjetlarining barcha tushumlari va xarajatlarini hamda O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining mablag'larini, ular o'rtasidagi transfertlarni hisobga olmagan holda hisobga olib borish uchun tuziladigan budjet tizimidir.

Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot [7] – budjet hisobotlari hamda Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining daromadlari va xarajatlari ijrosi to'g'risidagi hisobotdan foydalangan holda Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan tuziladigan hisobot bo'lib yil davomida kutilayotgan moliyaviy ko'rsatkichlarni o'zida mujassam qiladi. Birinchi jadvaldan ko'rinib turibdiki bugungi kunda davlat budjeti parametlari asosan davlat budjeti daromadlariga, davlat budjeti xarajatlariga, transfer to'lovlariga hamda davlat qarzlarini so'ndirishga yo'naltirilgan bo'ladi. 2024-yil uchun davlat budjeti daromadlari umumiy qiymati 375 030,5 mlrd so'ni tashkil qilishi kutilmoqda, shundan, Davlat budjeti daromadlari 270 403,1 mlrd so'mni, Davlat maqsadli jamg'armalari daromadlari 55 253,3 mlrd so'mni, O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasiga tushumlar 18 871,7 mlrd so'mni hamda Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg'armalariga tushumlar 30 502,3 mlrd so'mni tashkil etmoqda.

Davlat budjeti xarajatlari esa o'z navbatida 5 ta asosiy sohaga yo'naltirilganligini ko'rishimiz mumkun. Davlat budjeti xarajatlarining umumiy qiymati 427 640,3 mlrd so'mni tashkil etganligini ko'rishimiz mumkun. Bu shuni anglatadiki, davlat budjeti 2024-yil yakunlariga ko'ra saldosi – 52 609,9 mlrd so'mni tashkil etilishi kutilmoqda.

2-jadval: 2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi

№	Ko‘rsatkichlar	2024-yil uchun prognoz
1.	Yalpi ichki mahsulot, mlrd so‘m	1 301 759
2.	Yalpi ichki mahsulotning o‘sish sur’ati, foizda	5,6-5,8
3.	Iste’mol narxlari indeksi, o‘tgan yilning dekabr oyiga nisbatan, foizda	8-10
4.	Sanoat mahsulotlarining o‘sish sur’ati, foizda	6,0
5.	Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaliklarida ishlab chiqarishning o‘sish sur’ati, foizda	4,0
6.	Xizmatlar ko‘rsatishning o‘sish sur’ati, foizda	6,1

Ikkinchi jadvalda 2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi ko‘rsatib o‘tilgan. Yalpi ichki mahsulot ulushi 1 301 759 mlrd so‘mni tashkil etishi kutilmoqda, foizda o‘sish surati esa 5,6–5,8 tashkil etishi kutilmoqda, istemol narxlar indeksi esa o‘tgan yildagi dekabr oyiga nisabatan 8-10 foizni tashkil etmoqda. Sanoat mahsulotlarining o‘sish sura’tlari 6 foizni, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaliklarida ishlab chiqarishning o‘sish sura’ti 4 fozini, xizmatlar ko‘rsatishning o‘sish sur’ati 6,1 foizni tashkil etmoqda. O‘tgan yilgi ko‘rsatkichlarga nisbatan solishtiriladigan bo‘lsa, Yalpi ichki mahsulot 1 068 044 mlrd so‘mni tashkil qilgan edi, Yalpi ichki mahsulotning o‘sish sur’ati 5,3 fozini tashkil etgan edi, 2024-yilda esa 5,6-5,8 foizni tashkil etmoqda va o‘sganligini ko‘rishimiz mumkun. Ammo xizmatlar ko‘rsatishning o‘sish sur’ati pasayganligini ko‘rishimiz mumkun, ya’ni 2023-yilda 6,7 foizni 2024-yil yakunlari bo‘yicha 6,1 foizni tashkil etmoqda [6].

3-jadval: 2024-yil uchun Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjetining, viloyatlar hamda Toshkent shahar mahalliy budjetlarining daromadlari va xarajatlari prognozlari (mlrd so‘mda)

№	Hududlar nomi	Daromadlar*	Xarajatlar**
1.	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	3 069,3	5 147,3
2.	Andijon viloyati	4 087,3	6 001,1
3.	Buxoro viloyati	4 232,4	4 593,5
4.	Jizzax viloyati	2 415,6	3 304,2
5.	Qashqadaryo viloyati	4 879,1	5 806,2
6.	Navoiy viloyati	2 904,1	3 086,6
7.	Namangan viloyati	3 564,7	5 548,7
8.	Samarqand viloyati	5 191,7	6 780,2
9.	Surxondaryo viloyati	3 104,5	4 937,3
10.	Sirdaryo viloyati***	1 502,1	2 403,9
11.	Toshkent viloyati	5 668,0	6 185,3
12.	Farg‘ona viloyati	5 399,0	7 342,6
13.	Xorazm viloyati***	2 879,0	4 082,8
14.	Toshkent shahri***	9 163,3	9 677,2
	Jami	**58 060,1**	**74 896,7**

* Tamaki, alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo (import qilingan mahsulotlardan tashqari) hamda mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig‘i bo‘yicha transfertlarni inobatga olmagan holda.

** Mahalliy budjetlar hisobidan so‘ndiriladigan davlat qarziga xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq xarajatlarni inobatga olgan holda.

*** Davlat tibbiy sug‘urta jamg‘armasiga transfertlar – 2 848,3 mlrd so‘m (shundan Sirdaryo viloyati – 842,4 mlrd so‘m, Xorazm viloyati – 4,2 mlrd so‘m, Toshkent shahri – 2 001,7 mlrd so‘m).

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki, 2024-yilda mahalliy budjetning daromadlaridan harajatlari yuqori ekanligini ko‘rishimiz mumkun. 2024-yilda ja’mi mahalliy budjetning daromadlari 58 060,1 mlrd so‘mni tashkil etib xarajatlar esa 74 896,7 mlrd so‘mni tashkil etmoqda. Mahalliy budjet hisobidan eng yuqori daromadlarga ega bo‘lgan viloyatlar Toshkent viloyati 5 668,0 mlrd so‘m, Farg‘ona viloyati 5 399,0 mlrd so‘m hamda Toshkent shahri 9 163,3 mlrd so‘mni tashkil etganligini ko‘rishimiz mumkun. Mahalliy budjet hisobidan eng yuqori xarajatlarga ega bo‘lgan viloyatlar esa Farg‘ona viloyati 7 342,6 mlrd so‘mni, Samarqand viloyati 6 780,2 mlrd so‘mni hamda Toshkent shahri esa 9 677,2 mlrd so‘mni tashkil etmoqda.



2-rasm: 2024-yil uchun Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjetining, viloyatlar hamda Toshkent shahar mahalliy budjetlarining daromadlari va xarajatlari prognozlari gistogrammasi

Mahalliy budjet hisobidan eng kam daromadga ega bo‘lgan viloyat Sirdaryo viloyati hisoblanib 1 502,1 so‘mni tashkil etmoqda hamda 2 403,9 mlrd so‘m mahalliy budjet xarajatlari bilan eng kam ko‘rsatkichni qayd etmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Moliyaviy siyosat mamlakatning iqtisodiy o‘sishida, aholini turmush farovonligini yaxshilashda, YaIM ning aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan miqdorini oshirishda, mahalliy budjet daromadlarini oshirishda hamda mahalliy budjet xarajatlarini kamaytirishda muhim o‘rin tutadigan asosiy soha hisoblanadi.

Bugungi kunda har bir mamlakat oldida tabiiy resurslar zahirasining kamayishi ekologik muammolar, yashil iqtisodiyotga o‘tish va barqaror biznesni ta’minlash bo‘yicha moliyaviy texnalogiyalarni ham ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Tadqiqotda ishlab chiqilgan amaliy taklif va tavsiyalar moliya tizimining amal qilish mexanizmini yaxshilashda keng foydalanilishi mumkin.

Ilmiy ishning asosiy yangiliklari quyidagilardan iborat:

- moliya tizimining amal qilish mexanizmi va uning umumnazariy asoslari o‘rganildi;
- moliya tizimining mazmuni, mexanizmining asosiy jihatlari o‘rganildi;
- moliya tizimining asosiy sohasi va faoliyat yuritish yo‘nalishlari o‘rganildi;
- moliya tizimining institutsional asoslari o‘rganildi;
- moliya tizimini amal qilish mexanizmini amaldagi holati tahlil etildi;
- O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjeti holati tahlil etildi;
- moliya tizimini amal qilinishini ta’minlashda mamlakat byudjet-soliq siyosati tahlil etildi;
- moliyaviy tizimini barqaror rivojlanishini ta’minlashda bank tizimining natijalari tahlil etildi;
- moliya tizimi mexanizmini takomillashtirish yo‘llari bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi;
- davlat va munitsipial byudjet holatini takomillashtirish yo‘nalishlari bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi;
- O‘zbekiston Respublikasida moliya tizimini mustahkamlashda soliq yukini pasaytirish yo‘llari bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 son Farmoni. standart.uz›news/view?id=1032
2. “2022–2026-YILLARGA mo‘ljallangan yangi o‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi o‘zbekiston respublikasi prezidenti Farmoni. lex.uz›uz/docs/-5841063
3. The role of budgeting in realizing a green economy and economic growth. S N Hidayati, J Suyono and D D Hartomo. 9th International Conference on Sustainable Agriculture and Environment.
4. Sabirin A, Budi A A, Adhiyaksa F D, Aurelya B C, Ridwan S, Lesmana J R, Alifta F D 2022 KnE Social Sciences 3rd INCLAR
5. 2024-yil uchun o‘zbekiston respublikasining davlat budjeti to‘g‘risida. Qonunchilik palatasi tomonidan 2023-yil 21-noyabrda qabul qilingan, Senat tomonidan 2023-yil 20-dekabrda ma’qullangan.
6. 2023-yil uchun o‘zbekiston respublikasining davlat budjeti to‘g‘risida. Qonunchilik palatasi tomonidan 2022-yil 22-dekabrda qabul qilingan, Senat tomonidan 2022-yil 27-dekabrda ma’qullangan.
7. O‘zbekiston Respublikasining konsolidatsiyalashgan budjeti tarkibiga kiritiladigan davlat maqsadli jamg‘armalarining ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 19.11.2019 yildagi 917-son.

Internet saytlari

8. www.unep.org
9. www.oecd.org
10. https://unfccc.int/
11. www.worldbank.org
12. https://www.wto.org/english/tratop_e/dispu_e/dispu_subjects_index_e.htm
13. https://www.stat.uz/uz/
14. https://lex.uz/

INSTITUTSIONAL ISLOHOTLARNI CHUQURLASHTIRISH SHAROITIDA LIZING INVESTITSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-USLUBIY JIHATLARI

Axmediyeva Aliya Toxtarovna

DSc, Makroiqtisodiy tahlil va prognozlashtirish kafedrasi professori v.b.

Annotatsiya: Ushbu maqolada lizing asosida investitsiya kiritish mexanizmini tashkil etish va amalga oshirish tamoyillari yoritib berilgan, lizing munosabatlarini rivojlantirish asosida asosiy kapitalni ko‘paytirishda investitsion qo‘llab-quvvatlashning o‘ziga xos xususiyatlari yoritilgan, O‘zbekistonda lizing faoliyatini tartibga solishning institutsional asoslari o‘rganib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: tamoyillar, strategiya, investitsiya, institutsional, kapital, mexanizm, lizing, xorijiy tajriba, uslubiyat, nazariya.

Abstract: Analysis of the experience of foreign countries allows us to identify common trends and features that contribute to the successful development of regional economies and social structures. The study provides a basis for the development and implementation of effective strategies for the socio-economic development of national territories.

Key words: socio-economic development, strategy, territorial transformation, foreign experience, methodology, practical, theory.

Аннотация: Анализ опыта зарубежных государств позволяет выделить общие тенденции и особенности, способствующие успешному развитию региональных экономик и социальных структур. Исследование предоставляет основу для разработки и внедрения эффективных стратегий социально-экономического развития национальных территорий.

Ключевые слова: социально-экономическое развитие, стратегия, территориальное преобразование, зарубежный опыт, методология, практика, теория.

KIRISH

Jahonda lizing investitsiyalash mexanizmlariniishlab chiqish, mulkka egalik qilishning ikki tomonlamaligi va lizing munosabatlarida mulk bir vaqtning o‘zida barcha ishtirokchi subyektlarga tegishli bo‘ladi. Jahondagi obyektiv iqtisodiy beqarorlik sharoitida xalqaro investitsiyalar oqimining kamayishi investitsiya loyihalarini amalga oshirish jarayonini sekinlashtirishga olib keldi. “To‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalar oqimi 2020-yilda 35 foizga kamayib, 1 trln. AQSH dollarini tashkil etdi. Yevropada jami to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalaroqimi 80 foizga kamayib, 73 milliard AQSH dollarini tashkil qildi. Bu ko‘rsatkich Buyuk Britaniyada 57 foiz, Fransiyada 47 foiz va Germaniyada 34 foizga kamaydi. AQSHda investitsiyalar oqimi qayta investitsiya qilingan daromadlarning kamayishi hisobiga 40 foizga kamayib, 156 milliard AQSH dollarini tashkil qilgan”[1].

Bugungi kunda taraqqiy etgan mamlakatlarda lizingli investitsiyalash mexanizmini takomilashtirishning makroiqtisodiy jihatlari tadqiq etilganiga qaramay, lizing kompaniyalari tomonidan investitsiyalashning yangicha mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb masala hisoblanmoqda. Jahonda lizingli investitsiyalash mexanizmini takomillashtirishning makroiqtisodiy jihatlarini tadqiq etishda asosiy kapitalga investitsiyalar ko‘rinishidagi moliyaviy oqimlarni iqtisodiyotning real sektoriga yo‘naltirish va lizing bozori subyektlari o‘rtasida barqaror iqtisodiy aloqalarni o‘rnatish muhimligiga e’tibor qaratilmoqda. Lizing bozorining imkoniyatlari va salohiyatidan samarali foydalanish o‘rta muddatli istiqbolda milliy iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyasining ustuvor yo‘nalishlarini amalga oshirishga ta’sir ko‘rsatadi.

Mahalliy va xorijiy iqtisodchilarning lizing munosabatlari mexanizmlarini ishlab chiqishga qo‘shgan salmoqli hissasiga qaramay, to‘liq o‘rganilmagan bir qator muammolar mavjud.

1 World Investment Report-2021: Investing in sustainable recover. UNCTAD/WIR/2021.https://unctad.org/system/ files/official-document/wir2021_en.pdf.

ADABIYOT SHARHI

Milliy iqtisodiyot darajasida investitsiya resurslarining harakati milliy jamg‘arma va iste’mol ko‘rsatkichlari, xususiy investitsiyalar, bank sektori va fond bozorining rivojlanishi, kapitalning transchegaraviy harakati va davlat iqtisodiy siyosati bilan belgilanadi. Bu jihatdan investitsiya resurslarini ko‘rib chiqish ishlab chiqarish omillari va kengaytirilgan takror ishlab chiqarish samaradorligi haqidagi zamonaviy g‘oyalarga asossolgan J.Sey, A.Smit, D.Rikardo va J.Keyns kabi iqtisodiy fikr asoschilarining asarlariga borib taqaladi[2].

Iqtisodiy adabiyotlarda investitsiyalar nazariy jihatlarining turli xil talqinlari ko‘rib chiqiladi: investitsiya resurslarining investitsion faoliyati, investitsiya resurslarining mohiyatini aniqlashga yondashuvning turli ishlari tahlili hamda investitsiya jarayoni amalga oshiriladi, investitsiyalarning xususiyatlari aniqlanadi va tasniflari ishlab chiqiladi: mulkchilik shakllari bo‘yicha, investitsiya resurslari bo‘yicha, korxona mablag‘lari va resurslarini investitsiya qilish sohalari bo‘yicha. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning investitsion faoliyatining muhim elementi sifatida lizingning afzalliklari asoslab berilgan, lizing faoliyatining O‘zbekiston uchun ta’siri aniqlangan: ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish; lizingga mashina va uskunalar sotib olish orqali ularni modernizatsiya qilish vaqtini qisqartirish; kapitalni qarzga olingan mablag‘dan faoliyatga o‘tkazish jarayonini tezlashtirish.

Lizing tushunchasi, lizing investitsiyalari mexanizmini tashkil etish va amalga oshirish tamoyillari, turli mualliflarning asarlarida ko‘rib chiqiladi, to‘lash va qaytarish asosida lizingning tabiati o‘rganiladi, lizingni samarali boshqarishning maqsadli yo‘nalishlari taklif etiladi. Lizingning ishlab chiqarish, sotish, investitsiya va rag‘batlantirish kabi funksiyalari asoslanadi va aniqlanadi hamda lizing ta’rifining turli me’yoriy talqinlari o‘rganiladi.

J.Keyns „jamg‘arma va investitsiyalar bir-biriga teng bo‘lishi kerak, chunki ularning har biri daromadning iste’moldan oshib ketishiga teng”[3]. J.Keyns, shuningdek, iqtisodiy o‘sish uchun asos bo‘lgan yalpi talab va investitsiyalarni rag‘batlantirishni ta’kidlaydi.

Lizingdan ishlab chiqarishni texnik qayta jihozlashda investitsiyalar manbai sifatida foydalanish tegishli daromad olish uchun maqsadli investitsiyalarni amalga oshirishga imkon beradi, bu esa, o‘z navbatida, kapitalni oshirish manbai va investitsiyalarning harakatlantiruvchi rag‘bat hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarda investitsiya lizingi iste’molchining tadbirkorlik imkoniyatlarini kengaytirish va bir martalik kapital xarajatlarni kamaytirish maqsadida moliyalashtirish, deb ta’riflanadi[4].

F.Fabotssining so‘zlariga ko‘ra, investitsiya jarayoniga lizing mexanizmlarini kiritish odatiy holdir, ularning bosqichlari: moliyaviy imkoniyatlarni baholash, investitsiya maqsadlari va hajmlarini aniqlashni o‘z ichiga olgan investitsiya siyosatini tanlash; aktivlarni tanlash; investitsiya samaradorligini baholash, investitsiya qarorini shakllantirish va boshqarish uni amalga oshirishdan iborat[5].

M.Leshenkoning so‘zlariga ko‘ra, keng ma’noda lizing deganda mulkni sotib olish va keyinchalik uzoq muddatli ijaraga berish asosida vaqtincha foydalanishga berish bilan bog‘liq paydo bo‘lgan mulkiy munosabatlarning butun majmuasi tushunilishi kerak[6].

Aynan shu talqinda lizing qo‘llanila boshlandi va xorijiy va mahalliy nazariya va amaliyotda qo‘llaniladi.

V.Mironenkoning fikricha, investor – bu lizing bitimini moliyalashtirishda ishtirok etadigan shaxs (moliya institutlari – banklar, investitsiya fondlari, sug‘urta kompaniyalari va boshqalar)[7].

V.Goremikin o‘z ishida lizing funksiyalarining eng yirik ro‘yxatini beradi va o‘n uchta funksiyani ta’kidlaydi, ulardan to‘rttasi Ye.Chekmarevoy tomonidan taklif qilingan funksiyalarga to‘liq mos keladi. Qolgan to‘qqiztasi quyidagilar: mablag‘larning biznes zonasini kengaytirish, raqobatbardosh munosabatlarni rivojlantirish, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish, mulk qiymatini qoplash, mulk egasi va foydalanuvchisini tabaqalashtirish, xususiy mulkdorni ko‘paytirish, umumiy mulkchilikning ikkilanishini bartaraf etish, mulkni tabaqalashtirish[8].

Shuni ta’kidlash kerakki, dunyoda lizing munosabatlarining katta tajribasiga qaramay, lizingning mohiyati to‘g‘risida kelishuv mavjud emas, hozirgi vaqtda turli xil talqinlar qo‘llanilmoqda:

2 Ж.Кейнс Общая теория занятости, процента и денег. М., 2011. С. 98. Smithies, A. Forecasting Postwar Demand: I / A. Smithies // Econometrica. – 1945. – Vol. 13. – No. 1. – P. 1–14. Жан Батист Сэй (1828-1830). “Трактат политической экономии, или простое изложение способа, которым образуются, распределяются и потребляются богатства”. Давид Рикардо “Начала политической экономии и налогового обложения” (1817).

3 Ж.Кейнс Общая теория занятости, процента и денег. Избранное / Дж.М. Кейнс; вступ. статья Н.А. Макашевой. – М.: Эксмо, 2007. – с. 89

4 Андрійчук В. Методологічні і методичні засади обгрунтування параметрів угоди фінансового лізингу в аграрному секторі / В. Андрійчук, О. Радіоненко // Економіка України. – 2002. – № 10. – С. 56-64., Рошило В.І. Джерела фінансування інноваційного розвитку: моногр. / В.І. Рошило. – Чернівці: Книги – XXI, 2006. – 272 с.

5 Ф.Фабоцци Управление инвестициями. – М.: Инфра -М, 2000. 932 с, Шарп У. Ф., Александер Г. Дж., Бэйли Дж. В. Инвестиции. – М.: Инфра – М, 1999. – 1055 сю

6 Лещенко М.И. Основы лизинга: Учебное пособие / М.И. Лещенко. – Финансы и статистика, 2015. –С. 14.

7 Мироненко В. О. Понятие, сущность и виды лизинга/ В. О. Мироненко. - Текст: непосредственный, электронный// Проблемы и перспективы экономики и управления: материалы VI Междунар. науч. конф. Санкт-Петербург: Свое издательство, 2017. - С. 70.

8 Горемыкин В. Основы технологии лизинговых операций: – М.: Ось. – 89, 2000г. – 16 с., – 220 с.

- lizing vaqtincha bo‘sh yoki jalb qilingan moliyaviy resurslarni investitsiya kreditlash shakllaridan biri sifatida qaraladi (M.Djovanoli)[9];
- lizing o‘zaro bog‘liq, iqtisodiy va huquqiy, qarz olishga asoslangan ijara munosabatlarining maxsus turi vositachiligida, shu jumladan, moliya-kredit munosabatlari majmui sifatida qaraladi (D.Gazibekov)[10];
- lizing mulkchilik munosabatlarini amalga oshirish usuli sifatida belgilanadi: lizing beruvchida qolgan ijaraga olingan aktivni tasarruf etish huquqini davriy to‘lovlar evaziga lizing oluvchiga o‘tadigan mulk huquqi va foydalanish huquqidan ajratish (Ye.Chekmareva)[11].

ASOSIY QISM (METODOLOGIYA, NATIJALAR)

Lizing mexanizmi o‘zi bilan xo‘jalik yurituvchi subyektlar investitsion faoliyatining muhim elementini ifodalashi, lizing faolligini rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlash choralari ko‘plab xorijiy davlatlarning investitsiya siyosatiga kiritilganligi ko‘rsatib berilgan. European Federation of Equipment Leasing Company Association (Leaseurope) fikriga ko‘ra, lizingning ommalashuvi va uning faollashish xususiyati mamlakatda iqtisodiy rivojlanish darajasi ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi[12].

Yuqorida bayon etilganlardan kelib chiqqan holda, muallifning fikriga ko‘ra, bozorda raqobat kuchayishi sharoitida yuzaga keluvchi cheklangan moliyaviy resurslar tadbirkorlarni muqobil manbalardan investitsiyalarni jalb etish orqali texnologik jarayonlarni takomillashtirishga undaydi. Shu tariqa, lizing sohasidagi iqtisodiy munosabatlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, soliqqa tortish, moliya-kredit siyosati, institutlar va infratuzilmani rivojlantirish, sug‘urtalash va boshqa mexanizmlar orqali tartibga soluvchi yangi makroiqtisodiy muhit yuzaga keladi (1-rasm).



1-rasm: O‘zbekiston Respublikasida lizing xizmatlari bozorining makroiqtisodiy muhiti[13]

9 M. Giovanoli. Le credit-bail (leasing) en Europe : developpement and nature juridique. – P., 1980, P.
10 Газибеков Д.Г., Сабиров О.Ш. Лизинг и его развитие в Узбекистане. – Ташкент, 2001. – с 131.
11 Чекмарева Е. Лизинговый бизнес. – М.: Экономика, 1994г. с.5.– с.17-24.
12 Rapport sur le contract de credit-bail (leasing).UNIDROIT. 1975. EtudeLIX – Doc. 1. P. 17.
13 Muallif ishlanmasi.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

“Lizing faoliyatini qo‘llab-quvvatlash maxsus jamg‘armasi”ni tashkil etish lizing munosabatlarini yanada takomillashtirish, lizing subyektlari faoliyatini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni va kafolatlashni ta’minlash, ularni davlat tomonidan tartibga solishning yangi mexanizmlarini joriy qilish, lizing kompaniyalarining kredit resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatini kengaytirish va shu asosda ishlab chiqarish jarayonlarini zamonaviylashtirishga va yangi ish o‘rinlarini tashkil etishga xizmat qiladi.

Maxsus jamg‘arma vazifalari sifatida quyidagilar taklif qilinadi:

- lizing kompaniyalariga xorijiy kredit liniyalarini jalb qilish hisobiga milliy va xorijiy valyutadagi resurslarni jalb qilish imkoniyatini berish;
- lizing kompaniyalariga tijorat banklari tomonidan berilayotgan kreditlar bo‘yicha kafil bo‘lish;
- lizing kompaniyalariga jamg‘arma tomonidan tijorat banklari kreditlari foizlari bo‘yicha 50% miqdorida kompensatsiya berish shaklida moliyaviy yordam ko‘rsatish.

Mazkur kontekstda, lizing-ijara, lizing-kredit, lizing-bo‘lib-bo‘lib to‘lash tushunchalarini qiyosiy tahlil qilish asosida, shuningdek, lizing munosabatlarini rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari va jahon tendensiyalarini hisobga olgan holda, muallif tomonidan “lizing investitsiyalari” ta’rifining yangi talqini taklif etilgan. Yuqorida keltirilgan ta’riflarni umumlashtirish va tizimlashtirish asosida quyidagi ta’rif asoslangan: “lizing investitsiyalari – innovatsion jarayonlarni jadallashtirishni hisobga olgan holda iqtisodiyotning real sektorini modernizatsiya qilish va asosiy ishlab chiqarish fondlarini yangilash maqsadida lizing kompaniyalarining o‘z mablag‘lari yoki jalb qilingan mablag‘lari hisobiga asosiy kapitalga investitsiya kiritish mexanizmi”.

Rivojlangan mamlakatlarning lizing bozorini tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, lizingning asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalardagi ulushi qator yillar davomida AQSHda 29-31 foizni, Buyuk Britaniyada – 24,8 foizni, Italiyada – 19,2 foizni, Germaniyada – 18,6 foizni tashkil etgan[14].

2017–2022-yillarda respublikada lizing xizmatlari bozorini rivojlantirish, lizing xizmatlari ko‘rsatuvchi tashkilotlar faoliyatini tartibga solish va rag‘batlantirish, lizing amaliyotlarini o‘tkazishni takomillashtirish, tadbirkorlik subyektlarining bu turdagi investitsiya xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish bo‘yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirildi (2-rasm).



2-rasm: Yangi lizing amaliyotlari hajmi, soni va portfelining o‘sish suratlari (mlrd. so‘m)[15]

Respublikada lizing munosabatlarini rivojlantirish tendensiyalarining keng qamrovli tahlili shuni ko‘rsatdiki, lizing amaliyotlari hajmining o‘sish sur’ati 2022-yilda 2017-yilga nisbatan lizing portfelini xajmi 2,3 martda oshgan, yoki 2684 mlrd so‘mdan 6182 mlrd so‘mgacha. Yangi lizing operatsiyalarini soni 7729 tadan 9443 tagacha oshdi) ni tashkil etdi, bunga bozorda Fincom kompaniyasining paydo bo‘lishi xam sabab bo‘ldi[16]. 2020-yildagi COVID-19 oqibatlarini hisobga olgan holda lizing amaliyotlari soni mos ravishda 47,1 foizga kamayib, 5875 (dona) ni tashkil etdi.

Lizingli investitsiyalash mexanizmining mohiyatini tushunish uning imkoniyatlarini kengaytirish imkonini beradi va lizing operatsiyalarida bir vaqtning o‘zida barcha ishtirokchi xo‘jalik yurituvchi subyektlarga tegishli mulkka egalik qilishning ikki tomonlamaligi institutsional asosni takomillashtirishni talab etadi[17].

14 White Clarke Group Global Leasing Report 2020.

15 O‘zbekiston lizing beruvchilar assotsiatsiyasining “2022-yil yakunlari bo‘yicha O‘zbekistonda lizing xizmatlari sektor sharhi” ma’lumotlari bo‘yicha muallifishlanmasi.

16 На рынок Узбекистана вошла новая международная компания FINCOM group – группа компаний, объединившая лучших специалистов и консультантов – юристов, аудиторов, бухгалтеров и специалистов в сфере налогового планирования, адвокатов, специалистов в сфере сопровождения процедур банкротства и HR, которая имеет географию лизинговой деятельности на территории России, Израиля, и США.

17 Muallif tomonidan aniqlangan.

Milliy qonunchilikda lizing munosabatlari moliyaviy faoliyat turi sifatida taqdim etilgan bo‘lib, u investitsiya jarayonining bir qismi sifatida lizingning mohiyati va o‘ziga xos xususiyatlarini to‘liq ochib bermaydi. O‘tkazilgan tahlil shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekiston Respublikasida mavjud bo‘lgan me’yoriy-huquqiy hujjatlar lizing kompaniyalari faoliyatini rivojlantirish uchun zarur institutsional asoslarni yaratdi. Shu bilan birga, mavjud qonun hujjatlarining ayrim qoidalari asosiy fondlarni yangilashni, shuningdek, milliy iqtisodiyotning real sektorini modernizatsiyaashni investitsiyalar bilan qo‘llab-quvvatlash masalasida lizing munosabatlari imkoniyatlarini cheklaydi (1-jadval).

1-jadval: O‘zbekiston Respublikasining “Lizing to‘g‘risida”gi qonuniga taklif etilayotgan o‘zgartirishlar[18]

Mavjud qoida	Taklif
8-modda. Lizing faoliyati	
Lizing faoliyati – lizing beruvchi tomonidan lizing obyektini o‘z va (yoki) jalb etilgan mablag‘lari hisobidan sotib olish va uni lizing oluvchiga topshirish bo‘yicha investitsiya faoliyati turi	Lizing – lizing beruvchi tomonidan o‘z va (yoki) jalb etilgan mablag‘lar hisobiga lizing obyektini sotib olish va lizing shartnomasi bo‘yicha jismoniy va yuridik shaxslarga (lizing oluvchiga) berish bo‘yicha investitsiya faoliyati turi
2-modda. Lizing tushunchasi	
Lizing – moliyaviy ijaraning alohida turi bo‘lib, unda bir taraf (lizing beruvchi) ikkinchi tarafning (lizing oluvchining) topshirig‘iga binoan uchinchi tarafdan (sotuvchidan) lizing shartnomasida shartlashilgan mol-mulkni (lizing obyektini) mulk qilib oladi va uni lizing oluvchiga shu shartnomada belgilangan shartlarda haq evaziga egalik qilish va foydalanish uchun o‘n ikki oydan ortiq muddatga beradi.	Lizing – investitsiya mexanizmi bo‘lib, unda bir taraf (lizing beruvchi) boshqa tarafning (lizing oluvchining) topshirig‘iga ko‘ra uchinchi shaxsdan (sotuvchidan) lizing shartnomasida kelishib olingan mulkni (lizing obyektini) egaligiga oladi va uni lizing oluvchiga o‘n ikki oydan ortiq muddatga egalik qilish va foydalanish uchun mazkur shartnomada belgilab qo‘yilgan shartlar bo‘yicha haq evaziga beradi
O‘zbekiston Respublikasining “Lizing to‘g‘risida”gi Qonuni 9-modda.	
Lizing obyektini oldi-sotdi shartnomasi bilan sotib olishni cheklaydi	Taraflar qanday turdagi shartnoma tuzishni va taraflar soni qancha bo‘lishini mustaqil ravishda hal qilish huquqiga ega bo‘lishi kerak. “Oldi-sotdi shartnomasi” iborasini “xarid qilish shartnomasi”ga almashtirish maqsadga muvofiq
O‘zbekiston Respublikasining “Lizing to‘g‘risida”gi Qonuni, 3-modda	
Tadbirkorlik faoliyati uchun foydalaniladigan iste’mol qilinmaydigan har qanday ashyolar, shu jumladan korxonalar, mulkiy komplekslar, binolar, inshootlar, uskunalar, transport vositalari hamda boshqa ko‘char va ko‘chmas mulk lizing obyektlari bo‘lishi mumkin. (lizing oluvchilar, masalan, jismoniy shaxslar, innovatsion va ijtimoiy loyihalar, startaplar, yakka tartibdagi tadbirkorlik va boshq. tarkibini cheklaydi)	“Tadbirkorlik faoliyati uchun foydalaniladi” degan so‘zlarni olib tashlagan holda, “Agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib o‘rnatilmagan bo‘lsa, lizing obyekti bo‘lib har qanday iste’mol qilinmaydigan ashyolar hisoblanishi mumkin”, (ushbu qoidalar avtotransport vositalari, iste’mol, qaytariluvchi, tezkor, leverij, intellektual mulk obyektlari va boshq. lizing rivojini sekinlashtiradi)

Lizing munosabatlarining qonun hujjatlari bazasini takomillashtirish zarurati quyidagi qoidalarni amalga oshirish bilan bog‘liq:

- asosiy kapitalga investitsiya kiritishda lizing mexanizmi ulushini oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish;
- ishlab chiqarishni texnologik modernizatsiya qilish, shu jumladan moliyaviy imkoniyatlari cheklangan tadbirkorlar uchun investitsiya manbalarini kengaytirish;
- moliya institutlari o‘rtasida raqobatni rivojlantirishga, iqtisodiyotning real sektori subyektlari uchun investitsiya manbalarini kengaytirishga yordam beradi;
- qo‘shimcha garovni talab etmaydi, lizing oluvchining talablariga muvofiq uskunalar bilan ta’minlaydi, shuningdek investitsiya loyihalariga servis xizmatini ko‘rsatib boradi;
- O‘zbekiston Respublikasining “Uskunaning xalqaro ijarasi to‘g‘risida”gi konvensiyada (Ottava, 1988-yil 28-may) ishtirok etishi umumiy lizing rejasi bo‘yicha uskunalar yetkazib beruvchilarning xalqaro bozoriga chiqish imkonini beradi.

Davlat tomonidan tartibga solishning joriy etilishi lizing bozorini tashkil etishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, bu borada o‘rganishlar quyidagilarni asoslaydi:

- investitsiya dasturlarini amalga oshirishda lizingni tartibga solish funksiyalarini O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy rivojlanish va kambag‘allikni qisqartirish vazirligiga, nazorat funksiyalari esa O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga o‘tkazish mumkin;

18 Muallif ishlanmasi.

- lizing faoliyatining o‘z-o‘zini tartibga solish (SRO) konsepsiyasi ilgari surilmoqda. O‘z-o‘zini tartibga soluvchi tashkilot lizing amaliyotlarini o‘tkazish mezonlari va qoidalarini ishlab chiqishi va ularning barcha a’zolar tomonidan bajarilishini ta’minlashi, shuningdek, lizing xizmatlari iste’molchilarining huquq va manfaatlarini himoya qilish tizimini yaratishi va qo‘llab-quvvatlashi kerak (O‘zbekiston Lizing beruvchilar assotsiatsiyasi);
- lizing kompaniyalarining o‘z mablag‘lari miqdori masalasi yuzaga keluvchi, o‘z kapitalining yetarlilik mezoni bo‘yicha lizing kompaniyalari reyestrini joriy etish zarurati taklif etiladi. Lizing kompaniyalari kapitalining yetarliligi me’yorlarining joriy etilishi investor va kredit beruvchilar uchun lizing kompaniyalari faoliyatining ochiqligi va shaffofligini oshirish imkonini beradi.

Shunday qilib, lizing xizmatlari bozorining yuqori darajada rivojlanganligi iqtisodiy o‘sish sur’atlarini jadallashtirish hisobiga mamlakatning uzoq muddatli makroiqtisodiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, kapital jamg‘arilishiga xizmat qiladi.

TADQIQOTNING XULOSALARI VA KEYINGI ISTIQBOLLARI

Jahon tendensiyalariga tayangan holda, lizing investitsiyalari siyosatining samarali vositasi ekanligi, ishlab chiqarishni rivojlantirishda muhim o‘rin tutishi aniqlandi. Faoliyatning ushbu turi kredit, investitsion va moliyaviy amaliyotlar tarkibiy qismlarini o‘zida mujassam etgan o‘ziga xos iqtisodiy tabiati tufayli haqiqatan iqtisodiy o‘sishga hissa qo‘shishi mumkin.

Rivojlanish instituti sifatida lizing investitsiyalarining iqtisodiy toifasi izohlab berilgan va lizing-ijara, lizing-kredit, lizing-bo‘lib-bo‘lib to‘lash tushunchalarining qiyosiy tahlili, lizingning investitsiyalarni moliyalashtirish mexanizmi sifatidagi funksiyalarini belgilash orqali amalga oshiriladi.

Investitsiyalarning nazariy jihatlari, iqtisodiy adabiyotlardagi turli talqinlar: investitsiya resurslarining investitsion faoliyati, investitsiya resurslarining ahamiyatini aniqlashga turli yondashuvlar tahlili, investitsiya jarayoni amalga oshirirish va investitsiyalarning klassifikatsiyalari ishlab chiqish: mulkchilik shakllari bo‘yicha, korxonaning mablag‘lari va resurslarini investitsiyalash sohalari bo‘yicha.

Tadbirkorlik subyektlari investitsiya faoliyatining muhim elementi sifatida lizingning afzalliklari asoslab berildi, lizing faoliyatining O‘zbekistonga ta’siri aniqlandi: ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish; ijaraga mashina va uskunalar sotib olish yo‘lida ularni modernizatsiya qilish vaqtini qisqartirish; qarzga olingan kapitaldan operatsion kapitalga o‘tishni tezlashtirish, bu esa biznes sektoridan investitsiyaviy talabni rag‘batlantiradi.

Lizing investitsiya mexanizmini tashkil etish va amalga oshirish tamoyillari, turli mualliflarning ishlarida “lizing” tushunchasi ko‘rib chiqildi, lizingning dolzarbligi, to‘lov va qaytarishlar asosida amalga oshirilishining mohiyati o‘rganildi, lizingni samarali boshqarish bo‘yicha maqsadli ko‘rsatmalar taklif etildi. Ishlab chiqarish, sotish, investitsiyalar va rag‘batlantirish kabi lizingning vazifalari asoslandi va belgilandi, ijarani belgilovchi turli mamlakatlarning me’yoriy-huquqiy talqini o‘rganildi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Андрійчук В. Методологічні і методичні засади обгрунтування параметрів угоди фінансового лізингу в аграрному секторі / В. Андрійчук, О. Радіоненко // Економіка України. – 2002. – № 10. – С. 56-64., Рошило В.І. Джерела фінансування інноваційного розвитку: моногр. / В.І. Рошило. – Чернівці: Книги – XXI, 2006. – 272 с.
2. Горемыкин В. Основы технологии лизинговых операций: – М.: Ось - 89, 2000 г. – 16с., – 220 с.
3. M. Giovanoli. Le credit-bail (leasing) en Europe : developpement and nature juridique. – P., 1980, P.
4. Газибеков Д.Г., Сабиров О.Ш. Лизинг и его развитие в Узбекистане. – Ташкент, 2001. – с 131.
5. Ж.Кейнс Общая теория занятости, процента и денег. М., 2011. С. 98. Smithies, A. Forecasting Postwar Demand: I / A. Smithies // Econometrica. – 1945. –Vol. 13. –№. 1. – P. 1–14. Жан Батист Сэй (1828-1830). “Трактат политической экономии, или простое изложение способа, которым образуются, распределяются и потребляются богатства”. Давид Рикардо “Начала политической экономии и налогового обложения” (1817).
6. Ж.Кейнс Общая теория занятости, процента и денег. Избранное / Дж.М. Кейнс; вступ. статья Н.А. Макашевой. – М.: Эксмо, 2007. – с. 89.
7. Лещенко М.И. Основы лизинга: Учебное пособие / М.И. Лещенко. – Финансы и статистика, 2015. –С. 14.
8. Мироненко В. О. Понятие, сущность и виды лизинга/ В. О. Мироненко. - Текст: непосредственный, электронный// Проблемы и перспективы экономики и управления: материалы VI Междунар. науч. конф. – Санкт-Петербург: Свое издательство, 2017. – С. 70.
9. Ф.Фабоцци Управление инвестициями. – М.: Инфра -М, 2000. 932 с, Шарп У. Ф., Александер Г. Дж., Бэйли Дж. В. Инвестиции. – М.: Инфра – М, 1999. – 1055 с.
10. Чекмарева Е. Лизинговый бизнес. – М.: Экономика, 1994г. – с.5, – с.17-24.
11. Rapport sur le contract de credit-bail (leasing).UNIDROIT. 1975. EtudeLIX – Doc. 1. – P. 17.
12. O‘zbekiston lizing beruvchilar assotsiatsiyasining “2022-yil yakunlari bo‘yicha O‘zbekistonda lizing xizmatlari sektor sharhi” ma’lumotlari bo‘yicha muallifishlanmasi.
13. World Investment Report-2021: Investing in sustainable recover. UNCTAD/WIR/2021.https://unctad.org/system/ files/official-document/wir2021_en.pdf.

HUDUDLAR RIVOJLANISHINI TA'MINLASHDA ERKIN IQTISODIY ZONALARNING AHAMIYATI

Salomat Norova
PhD, Buxoro muhandislik-texnologiya instituti dotsenti

Annotatsiya: Maqolada hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalalari tadqiq etilgan. Hududlar rivojlanishini ta'minlashda erkin iqtisodiy hududlarning o'rni va ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, erkin iqtisodiy hududlar faoliyatini takomillashtirish yuzasidan ilmiy xulosa va takliflar keltirilgan.

Kalit so'zlar: hudud, investitsiya, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, erkin iqtisodiy zona, innovatsiya.

Abstract: The article explores issues of socio-economic development of Regions. The role and importance of free economic regions in ensuring the development of Regions is highlighted. Scientific conclusions and proposals on improving the activities of free economic regions are also presented.

Key words: territory, investment, socio-economic development, Free economic zone, innovation.

Аннотация: В статье исследуются вопросы социально-экономического развития регионов. Освещается роль и значение свободных экономических регионов в обеспечении развития регионов. Также представлены научные выводы и предложения по совершенствованию деятельности свободных экономических регионов.

Ключевые слова: территория, инвестиции, социально-экономическое развитие, свободная экономическая зона, инновация.

KIRISH

Jahonda hududlarni barqaror va mutanosib rivojlantirish, mavjud imkoniyatlardan samarali va oqilona foydalanish iqtisodiy o'sishning muhim omili sifatida qaralmoqda. Buning asosiy sabablaridan biri hududlar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutning kuchayib borayotganligidir.

Xorijiy mamlakatlar va xalqaro tashkilotlarda investitsiya salohiyatini oshirish orqali mintaqalar iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishga erishish imkoniyatlari tobora muhim ahamiyat kasb etayotganligi qayd etilmoqda.

Har qanday davlatning iqtisodiy rivojlanishi investitsiyalarni uzluksiz amalga oshirishni talab qiladi. Milliy iqtisodiyotning jadal rivojlanishini hamda hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashda investitsion jozibadorlikni oshirish zarur. Bunda erkin iqtisodiy zonalarning o'rni nihoyatda beqiyos.

Bugungi zamonaviy sharoitlarda dunyo mamlakatlari iqtisodiy jihatdan rivojlanmagan xududlarini xorijiy kapital hisobiga rivojlantirish, ulardagi ishsizlikni bartaraf etish, ishlab chiqarish ulushini oshirish, raqamli texnologiyalarni o'zida aks ettirgan yirik loyihalarni amaliyotga tatbiq etish orqali "Hududiy rivojlantirish siyosati"ni olib borishmoqda. Rivojlantirish siyosatining asosi esa, erkin iqtisodiy zonalar hisoblanadi.

Mamlakatimizda investitsion muhit jozibadorligini oshirishda hududlarning investitsiyaviy salohiyatidan oqilona foydalanish samaradorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Investitsion muhit jozibadorligini boshqarish va maxsus iqtisodiy zonalarni tashkil etish har qanday mamlakat iqtisodiyotiga yuqori malakali ishchi kuchi jalb qilishni va istiqbolli infratuzilma loyihalarini amalga oshirish orqali hudud investitsion salohiyatidan samarali foydalanishni ta'minlaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Mavzuga oid adabiyotlarda keltirilishicha, erkin iqtisodiy hududlar – davlatlararo kelishuvlarga yoki maxsus qonunlarga muvofiq, xo'jalik va tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanish uchun imtiyozli soliq, moliya, huquqiy sharoitlar joriy qilinadigan muayyan hududlardir. Ushbu hududlar xorijiy va mahalliy investorlar hamda tadbirkorlarni jalb etish maqsadlarida tashkil etiladi va ularda zarur ishlab chiqarish hamda ish yuritish infratuzilmasi barpo etiladi. Erkin iqtisodiy zonalar ko'p hollarda davlatlararo tutash hududlarda (bir necha davlatlarning che-

garalari tutashgan hudud), xalqaro aeroportlar, port shaharlarda yoki transport yo‘llari tutashgan hududlarda tashkil etiladi.

Shuningdek, Avdokushin Ye.F. hamda Y. Gorbunovalar o‘zlarining ilmiy ishlarida erkin iqtisodiy hududlarni “Maxsus iqtisodiy hudud” sifatida ta’riflashib, bunday hududlar boshqa hududlarga nisbatan davlat aralashuvining kamayishi va iqtisodiy erkinligining ortishi ekanligi asoslab berilgan [3].

Farole T. va Dobrogonov F. o‘zlarining ilmiy tadqiqot ishlarida Erkin iqtisodiy hududlarning amaliy jihatini ta’kidlab, “Mazkur tuzilmalar rivojlanayotgan davlatlar uchun qo‘shimcha iste’mol bozorlarini egallash imkoniyatini yaratib beradi hamda davlatlarning eksport salohiyatini yuksaltiradi. Ayni bir vaqtda ushbu iqtisodiy tuzilmalar mintaqaviy iqtisodiy integratsiya jarayonlarini kuchaytirish vositasi sifatida ham xizmat qiladi, deya ta’kidlaydi [4].

Janubiy Koreyalik olim Kim, erkin iqtisodiy zonalarni xorijiy davlatlar, korxona va firmalar uchun maxsus tashkil etilgan hududlar bo‘lib, bu erda ularning korxonalari va ishchi xodimlari hukumat tomonidan berilgan imtiyozlar tufayli o‘z navbatida mavjud qonun-qoidalarga bo‘ysungan holda daromad olishi mumkin bo‘lgan zonalar deya ta’riflagan. Shuningdek, ular davlatning erkin iqtisodiy zonalarni yaratishdan maqsadi bunday zonalarda boshqa erlarga qaraganda ko‘proq iqtisodiy shaffof muhit mavjudligi va bu orqali investitsiya oqimini va raqobatbardosh sanoat hamda savdo-sotiq xususiyatlarini shakllantirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yishini qayd etishadi” [5].

Mamlaktimiz iqtisodchi olimlaridan A.V.Vaxabov, Sh.X.Xajibakiyev, N.G.Muminovlarning ta’kidlashicha, Erkin iktisodiy zonalar – shunday geografik hududki, unda mamlakatda qabul qilingan xo‘jalik faoliyati tartibiga qaraganda imtiyozli soliq to‘lash tartibi joriy etiladi. Boshqacha so‘z bilan aytganda, ushbu hududda davlatning iqtisodiy jarayonlarga aralashuvi kamaytiriladi va bu milliy iqtisodiy makonning bir qismi bo‘lib, mamlakatning boshqa hududlarida qo‘llanilmaydigan ma’lum imtiyozlar tizimi joriy etiladi [6].

TAHLIL VA NATIJALAR

Erkin iqtisodiy zonalarni yaratish maqsadlarini to‘rt turga bo‘lishimiz mumkin:

1. **Savdoni rivojlantirish.** Uni reeksport savdosi va transchegaraviy savdoga bo‘lish mumkin. Birinchisi dengiz portiga bog‘liq, ikkinchisi esa faqat ikki mamlakat o‘rtasidagi chegara hududida joylashgan bo‘ladi.
2. **Sanoatni rivojlantirish.** Qishloq xo‘jaligini yoki eksportni qayta ishlash sanoatini rivojlantirish, eksport mahsulotlarini qayta ishlash va tashqi savdoni rivojlantirish orqali ish o‘rinlari yaratish va valyuta hajmini ko‘paytirish maqsadiga erishish mumkin. Bunday erkin iqtisodiy zonalar mamlakat ichida, qirg‘oq yoki dengiz portlari yaqinida va chegaralarda yaratiladi.
3. **Texnologiyani rivojlantirish.** Ya’ni ilmiy-ishlab chiqarish parki yuqori texnologik mahsulotlarni tadqiq etish va rivojlantirishga, shuningdek, yuqori texnologiyali iste’dodlarni joriy etish va o‘qitishga qaratilgan.
4. **Mintaqaviy rivojlanish.** U rivojlanish salohiyatiga ega bo‘lgan hududlarni iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan, shuning uchun u rivojlanish salohiyatiga ega bo‘lgan ichki yoki qirg‘oqbo‘yi hududlarda joylashgan bo‘lishi mumkin.

Erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etishning asosiy maqsadi esa mamlakatdagi resurs imkoniyatlari mavjud, biroq yetarli darajada iqtisodiy rivojlanish darajasi past bo‘lgan hudud yoki tarmoqlarni iqtisodiy o‘sishini rag‘batlantirish, shuningdek raqobat muhitini shakllanishiga ko‘maklashish bo‘lib hisoblanadi.

Erkin iqtisodiy hududlarning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud bo‘lib, mazkur xususiyatlar ularning imkoniyatlarini yaqqol namoyon etadi (1-rasm).

Bugungi kunda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish maqsadida erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etishga katta e’tibor qaratilmoqda. “Ayni vaqtda dunyoda 5400 dan ortiq erkin iqtisodiy hududlar mavjud bo‘lib, erkin iqtisodiy hududlarda dunyo yalpi mahsulotining deyarli 500 mlrd. AQSH dollardan ortiq qismi yaratilib, ularda qariyb 70 millionga yaqin kishi faoliyat olib bormoqda”. Xalqaro tajribada mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni rivojlantirishda erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etish samarali yo‘llardan biri sifatida e’tirof etib kelinmoqda.

Mamlakatimizda ham erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini tartibga soladigan mustahkam qonunchilik va me’yoriy baza yaratildi, ularni rivojlantirish uchun xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etishga ko‘maklashadigan keng ko‘lamli soliq va bojxona imtiyozlari hamda preferensiyalar tizimi shakllantirildi.

Faoliyat ko‘rsatayotgan erkin iqtisodiy zonalar, texnoparklar va kichik sanoat zonalari faoliyatini umumiy tartibga solish nuqtayi nazaridan O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 17-fevralda “Maxsus iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 26-oktyabrdagi “Erkin iqti-

sodiy zonalar faoliyatini faollashtirish va kengaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-4853-son Farmoni asosida barcha erkin iqtisodiy zonalar maqomi, imtiyozlari tenglashtirildi.



1-rasm: Erkin iqtisodiy hududlarning o‘ziga xos xususiyatlari

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 12-yanvar kuni 4 ta erkin iqtisodiy zonalar tashkil etish to‘g‘risidagi farmoni imzolandi. Samarqad viloyatining Urgut tumanida, Buxoro viloyatining G‘ijduvon tumanida, Farg‘ona viloyatining Qo‘qon shahrida va Xorazm viloyatining Xazorasp tumanida, 2019-yil 13-sentyabrda “Chiroqchi” erkin iqtisodiy zona, 2019-yil 11-noyabrda “Nukus” erkin iqtisodiy zona, 2021-yil 22-fevralda “Qoraqalpoq-agro” erkin iqtisodiy zonasilar tashkil qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-maydagi “Nukus-farm”, “Zomin-farm”, “Kosonsoy-farm”, “Sirdaryo-farm”, “Boysun-farm”, “Bo‘stonliq-farm” va “Parkent-farm” erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish to‘g‘risida”gi PF-5032-son Farmoni bilan farmatsevtikaga ixtisoslashgan va sohani rivojlantirishga qaratilgan 7 ta erkin iqtisodiy zonalar tashkil etildi. Umuman 2016-yildan buyon erkin iqtisodiy zonalar faoliyatiga doir 10 dan farmon va qarorlar qabul qilindi.

Erkin iqtisodiy hududlar faoliyatining taraqqiy etib borishi, ularga xorijiy investorlarn jalb etish, rezidentlarni ichki investitsiya salohiyatini erkin iqtisodiy zonalar uchun yo‘naltirish, erkin iqtisodiy hududlarning faoliyat samaradorligini uzluksiz ta’minlash – mamlakatning investitsiyaviy salohiyatiga ta’sir etuvchi asosiy masalalardan biri bo‘lib qolmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xalqaro tajribaga ko‘ra mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni hamda hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etish samarali yo‘llardan biridir. Zero, erkin iqtisodiy hududlar investitsion jozibadorlikni oshirish, hududiy ishsizlikning oldini olish, xalqaro tovar ayriboshlashni jadallashtirish, iqtisodiyot tarmoqlarini to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar orqali modernizatsiya qilishning asossi bo‘lib xizmat qiladi.

Shu bilan birga, erkin iqtisodiy hududlarni rivojlantirish bo‘yicha quyidagi yo‘nalishdagi ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- erkin iqtisodiy hududlar faoliyat samaradorligini oshirish uchun salohiyatli kadrlarni tayyorlash va ularni erkin iqtisodiy zonalarga jalb etish;
- erkin iqtisodiy hududlar investitsion loyihalarni tanlashning aniq mezonlarini ishlab chiqish, shuningdek investorlar uchun taqdim etiladigan imtiyozlarni erkin raqobat muhitiga ta’sir qilmaydigan etib belgilash;
- erkin iqtisodiy hududlarda investorlar uchun qulay infratuzilmaviy shart-sharoitlarni yaratish, ijtimoiy obyektlarni xalqaro andozalardan kelib chiqib faoliyatini yo‘lga qo‘yish;
- erkin iqtisodiy hududlarda tashkil etiladigan xizmat turlarini kengaytirish va boshqalar.

Yuqorida ko‘rsatilgan yo‘nalishlarda vazifalarning amalga oshirilishi natijasida erkin iqtisodiy hududlar faoliyati takomillashib, investitsion loyihalarni amalga oshirish jarayonlari tezlashib, raqobatbardosh iqtisodiyot shakllanishiga yordam beradi.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 17-fevraldagi "Maxsus iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 26-oktyabrdagi "Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini faollashtirish va kengaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-4853-son Farmoni.
3. Авдокушин Е.Ф Свободные (специальные)экономические зоны. М.1993. 46 с.
4. Dobrogonov F., Farole T. An economic integration zone for the East African community: exploiting regional potential and addressing commitment challenges. World bank policy research working paper 5967. Washington, DC: World Bank.
5. Kim Young Rae. (2009). The study on issues related between limits of land development and total control restriction system in the actual conditions within capital region, Seoul National University of Technology, 8-75.
6. Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.X., Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma. –T.: Moliya, 2010. 180-b.
7. Karimqulov J.I., Umirzoqov J.A. Erkin iqtisodiy hududlar rivojlanishining nazariyasi va amaliyoti. // Monografiya. – Toshkent. Vneshnoinvestprom, 2019. 187 b.
8. Bozarov S.S. O'zbekiston Respublikasi erkin iqtisodiy zonalarida tadbirkorlik faoliyatini huquqiy tartibga solishni takomillashtirish. Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent – 2018. 23-b.
9. Mirzaliyeva S.S.Erkin iqtisodiy zonalarni rivojlantirishning xorij tajribasi: I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya Avtoreferati. Toshkent. TDIU, 2001. 8-b.
10. Mustafaqulov Sh.I. Investitsion muhit jozibadorligi: nazariya, metodologiya va amaliyot. Monografiya Toshkent. 2017-y. "Iqtisod-Moliya". 326-b.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

YO‘LOVCHI TASHISH XIZMATLARI SOHASIDA KORXONA FAOLIYATINI STRATEGIK REJALASHTIRISHGA TA’SIR ETUVCHI OMILLARI TAHLILI

Abarov Mashxurbek Ismonaliyevich
Toshkent dalvat transport universiteti
“Korporativ boshqaruv” kafedrasi dotsenti

Pulatova Gulchexra Erkinovna
Toshkent dalvat transport universiteti “Korporativ boshqaruv” kafedrasi mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Toshkent shahrining yo‘lovchi tashish sohasidagi mavjud kamchilik va muammolari o‘rganilgan. Hozirgi kunda jamoat transporti xizmatlariga bevosita va bilvosita ta’sir etuvchi omillar tahlil etilgan. Jamoat transporti xizmatlari foydalanuvchilari sonini oshirishda korxona faoliyatini strategik rejalashtirish va samarali foydalanish yo‘nalishlari taklif etilgan. Shuningdek, mavjud aholi tarkibini o‘zgarish dinamikasi, Toshkent shahridagi mavjud korxonalar soni va ularning joylashuvi tahlil etilgan bo‘lib, bu korxona faoliyatini strategik rejalashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: transport korxonalari, jamoat transporti, strategik rejalashtirish, samarali boshqaruv.

Abstract: This article examines the existing shortcomings and problems in the field of passenger transportation of Tashkent city. Currently, factors directly and indirectly affecting public transport services are analyzed. Directions for strategic planning and effective use of the enterprise’s activities in increasing the number of users of public transport services are proposed. Also, the dynamics of changes in the composition of the existing population, the number of existing enterprises in the city of Tashkent and their location are analyzed, which is of great importance in the strategic planning of the enterprise.

Key words: transport enterprises, public transport, strategic planning, effective management.

Аннотация: В данной статье рассматриваются существующие недостатки и проблемы в сфере пассажирских перевозок города Ташкента. В настоящее время анализируются факторы, прямо и косвенно влияющие на услуги общественного транспорта. Предложены направления стратегического планирования и эффективного использования деятельности предприятия в увеличении количества пользователей услугами общественного транспорта. Также анализируется динамика изменения состава существующего населения, количества действующих предприятий в городе Ташкенте и их местонахождения, что имеет большое значение при стратегическом планировании предприятия.

Ключевые слова: транспортные предприятия, общественный транспорт, стратегическое планирование, эффективное управление.

KIRISH

Urbanizatsiya jarayoni va katta shaharlarni tub aholisining oshishi transportga bo‘lgan ehtiyojni ortishiga olib kelmoqda. Xususan, O‘zbekiston statistika agentligi ma’lumotiga ko‘ra 2021-yilda Toshkent shahri bo‘yicha jismoniy shaxslarga tegishli avtotransport vositalari 525 028 donani tashkil etgan va 2017-yilga nisbatan avtomobillar soniga nisbatan 178 499 donaga oshgan, ya’ni o‘sish surati 51,5 %ni tashkil etgan.

Keyingi o‘rinlarda Toshkent viloyatida 116 266, Samarqand viloyatida 114 955 hamda Qashqadaryo viloyatida 94 713 donaga avtotransport vositalari soni oshgan[1]. Shaxsiy avtomobillarni ortib borishi harakatlanishga bo‘lgan talabni qondirish bilan birga, yo‘llardagi tirbandliklarni, ekologiyani buzilishiga hamda iqtisodiy muammolar ya’ni turli qo‘shimcha turli xarajatlarni keltirib chiqarmoqda. Bu muammolarni bartaraf etish yo‘llaridan biri shaxsiy avtomobil foydalanuvchilarga harakatlanishga bo‘lgan ehtiyojini qondirishga boshqa maqbul variant taklif etishdir. Buning eng maqbul yo‘llaridan biri jamoat transportini takomillashtirish orqali, uning jozibadorligini oshirishdir. Jamoat transportini rivojlantirish aholini harakatchanligi bilan bog‘liq muammolarni hal qilishidan tashqari, shaharni iqtisodiy rivojlanish darajasini ham belgilab beradi[2].

Jamoat transportini takomillashtirishda eng muhim savollardan biri, uni faoliyatini uzoq muddatga mo‘ljallangan strategik rejalashtirishdir. Yuqoridagi bobda ta’kidlab o‘tganimizdek (I-bob), har qanday korxona faoliyatini strategik rejalashtirishga kirishdan oldin uni faoliyatiga ta’mir etuvchi omillarni tahlil qilish lozim.

ADABIYOTLAR SHARHI

Jamoat transporti, jumladan shaharlarda avtobuslarda yo‘lovchi tashishini samarali tashkil qilishga ko‘plab omillar ta’sir ko‘rsatadi. Ispaniyalik olimlar Christian Wehner, Luis Miguel López-Bonillalar ilmiy ishlarida jamoat transportidan foydalanuvchi yo‘lovchilar xulq-atvori juda ham turlicha ekanligi amalda bu farqlarni qisqartirishda marketing strategiyalaridan samarali foydalanish zarurligiga katta e’tibor qaratishadi. Qolaversa marketing dasturlarida yo‘lovchilar ehtiyojini sifatli qondirish va yo‘lovchilarning sodiqligi oshirishga qaratilgan nazariy modelni taklif etishgan[3].

Portugaliyalik olimlar Anna Ibrayeva va João Figueira de Sousalar jamoat transportida axborot ta’minoti aholining jamoat transporti turlaridan foydalanishiga yordam beradigan yana bir muhim omil ekanligini ilgari surishdi. Ko‘pincha potensial foydalanuvchilar marshrutlar va jadvallar haqidagi ma’lumotlarning yetishmasligi sababli jamoat transportidan foydalanmaydilar, shuning uchun ularga tegishli ma’lumotlarni ko‘rsatadigan foydalanish oson bo‘lgan ilovalarni taqdim etish zarur hisoblashadi. Bundan tashqari internetning rivojlanishi bilan jamoat transporti korxonalari uchun ma’lumot tarqatish vositalari ancha kengaydi. Ulardan izchil foydalanish korxonaga bo‘lgan ishonch darajasini oshirishi va shu bilan yo‘lovchilarni jamoat transporti xizmatlariga sadoqatini oshirishi mumkin, degan nazariyani ilgari surishdi[4].

Yevropaning yetakchi olimlaridan biri Fransiyalik Sophie Hasiak o‘z ilmiy ishlarida, megapolis shaharlarda jamoat transportining, xususan, temir yo‘l tizimining samarali tashkil etilganligi shaharda joylashgan turar joylar jozibadorligiga ijobiy ta’sir etishini ilmiy asoslagan[5].

Mahalliy olimlardan Z.N.Raxmatov va A.M.Tuychiyevlar ilmiy ishlarida Toshkent shahrining yo‘lovchi tashish sohasidagi mavjud kamchilik va muammolar o‘rgangan holda Toshkent metropoliteni xizmatlarining bozordagi ulushini oshirishda marketing kommunikatsiyalaridan qanday to‘g‘ri va samarali foydalanish yo‘nalishlari taklif etgan. Shuningdek, mavjud aholi tarkibini segmentlarga ajratgan holda maqsadli segment guruhlariga mos marketing kommunikatsiya dasturlaridan foydalanish ular samaradorligini oshirishi ekonometrik tahlillar orqali ilmiy asoslab o‘tilgan[6].

Xorijiy va mahalliy olimlarning jamoat transportiga bag‘ishlangan ishlarini tahlil qilgan holda shahar jamoat transportida quyidagi omillar bevosita va bilvosita ta’sir ko‘rsatadi, deb hisoblaymiz:

- Xizmat ko‘rsatilayotgan shaharni masshtabi;
- Xizmat ko‘rsatilayotgan shaharda ko‘chalarni joylashuvi;
- Shaharda yashovchi aholi soni va uni tarkibi;

1 https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/24314-5-yil-davomida-poytaxtda-jismoniy-shaxslarga-tegishli-avtotransport-vositalari-qanchaga-oshgan

2 Бабиский Д.М. и др. Общественный транспорт Беларуси: состояние и пути развития. / Фонд им. Фридриха Эберта. - Минск.: И. П. Логвинов, 2010. – 82 с.

3 Christian Wehner, Luis Miguel López-Bonilla // Consumer behaviour in air transportation: Comparison between Spanish and German passengers. Heliyon8(2022)e11814. www.cell.com/heliyon

4 Anna Ibraeva, João Figueira de Sousa // Marketing of public transport and public transport information provision. Procedia –Social and Behavioral Sciences 162 (2014) 121–128.

5 Sophie Hasiak // Promoting The Attractiveness Of Peri-urban Residential Areas Through Public Transport Services – The Strategy Of French Real Estate Professionals. Transportation Research Procedia 72 (2023) 1499–1506.

6 Raxmatov Z.N. Tuychiyev A.M. // Yo‘lovchilarning jamoat transporti xizmatlariga sadoqatini oshirishda marketing dasturlarining ahamiyati. “Transportda resurs tejamkor texnologiyalar” xalqaro ilmiy-texnikaviy anjumani. 2023-yil, 107–113-betlar.

- Shaharda tura-joylar bilan ishxonalar joylashuvi;
- Shahar transport tizimini rivojlanganlik darajasi;
- Shahar aholisining madaniy hayot darajasi;
- Shaharning ijtimoiy va iqtisodiy holati;
- Shaharda tirbandlik darajasi;
- Shaharda yo‘lovchi tashish bo‘yicha raqobat darajasi;
- Yo‘nalish marshrutlarini zichligi va avtotransport vositalarini harakatlanish intifsivligi;
- Avtotransport vositalarini komfortlik darajasi;
- Yo‘lovchilarni ko‘rsatilayotgan xizmatlar bo‘yicha axborot bilan ta’minlanganligi;
- Tariflarni barqarorligi;
- Yo‘lovchi tashish jarayonida ishtirok etuvchilarni harakat xavfsizligi.

Yuqorida keltirilgan omillarni ayrimlarini umumiylashtirgan holda batafsil to‘xtalib o‘tsak.

Xizmat ko‘rsatilayotgan shaharni masshtabi va ko‘chalari

Xizmat ko‘rsatilayotgan shahar rejasi va uning masshtabi jamoat transportini faoliyatini tashkil etishda eng asosiy omillardan biri hisoblanadi. Chunki shaharda turar-joy, savdo, sanoat va dam olish joylari kabi hududlarni mavjud. Shu bilan birga, shahar hududida yashovchi aholini ta’lim, sog‘liqni saqlash, jamoat joylari, ko‘ngil ochar joylari kabi ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish uchun aholida harakatlanishga bo‘lgan talab yuzaga keladi. Ushbu talablarni qondirishda bu hududlarni joylashuvi jamoat transportni qatnovlarni optimal tashkil etishga katta ta’sir ko‘rsatadi.

Respublikamizda eng katta shaharlardan biri Toshkent shahri xuddi 2022-yil 1-iyul holatiga ko‘ra 438.49 km^2 ni tashkil etadi[7], unda 12ta tuman joylashgan (1-rasm).



1-rasm: Toshkent shahar tumanlari joylashuvi

Toshkent shahrining eng katta tumani Mirzo Ulug‘bek tumani bo‘lib, maydoni 59.42 km^2 ni tashkil etadi, 318 min kishi istiqomat qiladi. Aholi soni bo‘yicha tumanlar ichida 4 o‘rinda turadi. Eng ko‘p aholiga ega tuman Olmozor tumani bo‘lib, aholi soni 390 ming kishini tashkil etsa, xududi 33.79 km^2 dir. Hudud bo‘yicha tumanlar ichida 6 o‘rinni egallaydi. 1-rasmdan ko‘rinib turibdiki Toshkent shahri tumanlari hudud va aholi soni bo‘yicha notekis taqsimotga ega. Toshkent shahri tumanlarda aholi zichligi ko‘radigan bo‘lsak, eng past ko‘rsatkich Bektemir tumaniga to‘g‘ri keladi (1,7 kishi/km^2), eng yuqori ko‘rsatkich esa Shayxontohur tumaniga to‘g‘ri keladi (13,2 kishi/km^2). Bektemir tumani esa shahar markazidan eng uzoqda joylashgan tumanlarning biri hisobladi. Toshkent shahri bo‘yicha aholi zichligi 6.7 kishi/km^2 tashkil etadi (2-rasm).

7 https://www.tashkent.uz/uz/menu/rajony-



2-rasm: Toshkent shahri aholi zichligi (kishi/km^2)

Toshkent shaharida 4 mingdan ortiq ko‘cha mavjud bo‘lib, ularning uzunligi 5 900 km tashkil etadi, shundan, avtomagistrallar – 462 km, asosiy ko‘chalar – 445 km, shoh ko‘chalar – 464 km, halqa ko‘chalar 1 481 km, ishlab chiqarish hududlaridagi ko‘chalar – 145 km va mahalliy ahamiyatdagi ko‘chalar – 2 896 kilometrni tashkil etadi[8].

Bunday holatda umman transport harakatini tashkil etish, jumladan, jamoat transportini tashkil etish o‘ziga yarasha qiyinchiliklarni keltirib qiradi. Shu sababli, Toshkent shahrida jamoat transportida, jumladan, avtobuslarda yo‘lovchi tashishlarni tashkil etish o‘ziga xos xosiyatga ega bo‘lib, murakkab tizimini tashkil etadi.

Shaharda yashovchi aholi soni va uni tarkibi

Yo‘lovchi tashish hajmiga eng avvalo, o‘sha hududda istiqomat qiluvchi aholi soni ta’sir ko‘rsatadi. So‘nggi yillardagi Toshkent shahrining doimiy aholi soni hamda shaharga kirib kelayotgan kunlik yo‘lovchilar sonining ortishi jamoat transporti xizmatlariga bo‘lgan talabni ham orttirmoqda. 2014-yilda Toshkent shahrining doimiy aholi soni 2,3 mln. kishini tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yil so‘nggiga kelib qarib 3 mln. kishini tashkil etgan (3-rasm)[9].



3-rasm: Toshkent shahar aholisi sonining o‘zgarish dinamikasi (ming. kishi)

8 M. Darabov, and S. K. Xudaybergenov. “Shahar yo‘lovchi transportining harakatlanish sharoiti va holatining tahlili” Academic research in educational sciences, vol. 3, no. TSTU Conference 1, 2022, pp. 383-386.

9 https://www.toshstat.uz/uz/?preview=1&option=com_dropfiles&format=&task=frontfile.download&catid=308&id=3522&Itemid=1000000000000

Kunlik ijtimoiy faol aholi soni 2023-yildagi 2.2 mln.ga yetdi. Qolaversa, boshqa viloyatlardan kirib keluvchi kunlik ijtimoiy faol aholi soni 2023-yil yakunida taxminan 1,6 mln. kishini tashkil etdi. Buning natijasida shaharda 3,8 mln. kunlik harakatlanuvchi ijtimoiy faol aholi qatlami vujudga kelmoqda.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, Toshkent shaharida 4 mingdan ortiq ko'cha (umumiy uzunligi 5 900 km), 3,8 mln. kunlik harakatlanuvchi ijtimoiy faol aholi mavjud. Ushbu aholini harakatchanligini yuzaga keltiruvchi ko'plab obyektlar mavjud. Jumladan, Toshkent shahrida 107 082 ta turli shaklidagi korxona va tashkilotlar bor (4-rasm).



4-rasm: Toshkent shahrida mavjud korxona va tashkilotlar[10]

Bu obyektlarga aholi ishga, o'qishga, xarid va dam olish maqsadlarida tashrif buyurishi, aholi harakatchanligi hamda uning transportga bo'lgan ehtiyoji yuqoriligini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Jamoat transporti faoliyatini strategik rejalashtirish transport korxonalari uchun o'z xizmatlarini ilgari surishda istiqbolini ifodalaydi, lekin bundan tashqari, u iste'molchilarga ham ma'lum ijobiy ta'sir ko'rsatadi, chunki u korxona imijini yaratadi. Ushbu korxona zamonaviy, sifatli xizmat ko'rsatuvchi sifatida qaralsa, undan foydalanadigan yo'lovchilar soni ortadi. Xizmatlarga tegishli xususiyatlar yo'lovchilarga bevosita ta'sir qiladi. Agar xizmatlar xavfli va faqat kam ta'minlangan aholi uchun mo'ljallangan deya qaralsa, aholida avtomobil sotib olishga imkoniyat paydo bo'lsa avtomobildan foydalanish istagi kuchayadi. Shaxsiy avtomobil vositalarini reklama qilishda ishlaydigan mexanizmlar jamoat transporti reklamasida ham yaxshi ishlaydi, shuning uchun xizmat ko'rsatish sifati yoki imiji yaxshi bo'lsa, aholida jamoat transportidan foydalanish ishtiyoqi ortib boradi. Biroq, aksariyat hollarda jamoat transporti ko'rsatuvchi korxonalar ijobiy imijga ega emaslar, bu yo'lovchilar uchun jozibador bo'lib ko'rinmaydi, ayniqsa, transport korxonalari o'z faoliyatini strategik rejalashtirishda yetarlicha harakat qilmasalar. Darhaqiqat, jamoat transporti targ'ib qilinishi mumkin bo'lgan ko'plab ijobiy tomonlarga ega: u barqaror, ba'zan tirbandlik tufayli mashinadan tezroq va vaqtni qadrlaydigan va uni avtomobildan afzal ko'radigan aqlli odamning mustaqil tanlovi sifatida ifodalanishi mumkin. Jamoat transporti ko'pincha mashina sotib olishga qodir bo'lmaganlar uchun transport turi sifatida qabul qilinadi va bu tushunchani o'zgartirish va jamoat transportini shaxsiy transport vositalariga munosib alternativ sifatida ko'rsatish muhimdir. Biroq bu juda qiyin vazifa, chunki shaxsiy avtomobil shaharda harakatlanishda juda qulay transport vositasi bo'lib qolmoqda va jamoat transporti qulaylik darajasidagi farqni qisqartirish uchun sifatli xizmat ko'rsatishi zarur bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abduraxmanov O.K. Akbarov I.M. // Железнодорожный транспорт: актуалные задачи и инноватсии, –T.:2021. –№4.
2. Anna Ibraeva, João Figueira de Sousa // Marketing of public transport and public transport information provision. Procedia – Social and Behavioral Sciences 162 (2014) 121–128;
3. Christian Wehner, Luis Miguel López-Bonilla // Consumer behaviour in air transportation: Comparison between Spanish and German passengers. Heliyon8(2022)e11814. www.cell.com/heliyon;
4. https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/24314-5-yil-davomida-poytaxtda-jismoniy-shaxslarga-tegishli-avtotransport-vositalari-qanchaga-oshgan;

10 https://www.toshstat.uz/uz/?preview=1&option=com_dropfiles&format=&task=frontfile.download&catid=307&id=3845&Itemid=1000000000000

5. https://www.tashkent.uz/uz/menu/rajony-;
6. https://www.toshstat.uz/uz/?preview=1&option=com_dropfiles&format=&task=frontfile.download&catid=308&id=3522&Itemid=1000000000000;
7. https://www.toshstat.uz/uz/?preview=1&option=com_dropfiles&format=&task=frontfile.download&catid=307&id=3845&Itemid=1000000000000;
8. M. Darabov, and S. K. Xudaybergenov. “Shahar yo‘lovchi transportining harakatlanish sharoiti va holatining tahlili” Academic research in educational sciences, vol. 3, no. –TSTU Conference 1, 2022, pp. –383-386.
9. Raxmatov Z.N. Tuychiyev A.M. // Yo‘lovchilarning jamoat transporti xizmatlariga sadoqatini oshirishda marketing dasturlarining ahamiyati. “TRANSPORTDA RESURS TEJAMKOR TEXNOLOGIYALAR” xalqaro ilmiy-texnikaviy anjumani. –2023-yil. –107-113 betlar.
10. Sophie Hasiak // Promoting The Attractiveness Of Peri-urban Residential Areas Through Public Transport Services – The Strategy Of French Real Estate Professionals. Transportation Research Procedia 72 (2023) 1499–1506.
11. Бабиский Д.М. и др. Общественный транспорт Беларуси: состояние и пути развития. / Фонд им. Фридриха Эберта. –Минск.: И. П. Логвинов, 2010. – 82 с.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

ANDERRAYTING XIZMATINING AQSH SUG‘URTA BOZORIDA TUTGAN O‘RNI

Qarshiyev Daniyar Eshpulatovich
Iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (PhD), ISFT Instituti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada AQSHda sug‘urta anderraytingining sug‘urta faoliyatidagi o‘rni tahlil qilingan. Sug‘urtada anderrayting xizmatini o‘rni va uni takomillashtirish zarurligi asoslangan. Sug‘urta kompaniyalarini moliyaviy barqarorlik omillari ichida sug‘urta anderrayting xizmatining muhimligi o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: sug‘urta faoliyati, sug‘urta kompaniyasi, sug‘urta anderraytingi, sug‘urtada anderrayting funksiyalari,anderrayter vazifalari, anderrayter huquqi.

Abstract: This article analyzes the role of underwriting in the US insurance industry. The role of underwriting services in insurance and the need for its improvement are substantiated. The importance of insurance underwriting services among the factors of financial stability of insurance companies has been studied.

Key words: insurance activity, insurance company, insurance underwriting, underwriting functions in insurance, responsibilities of the underwriter, rights of the underwriter.

Аннотация: В данной статье анализируется роль андеррайтинга в страховой отрасли США. Обоснована роль андеррайтинговой услуги в страховании и необходимость ее совершенствования. Изучено значение страховых андеррайтинговых услуг среди факторов финансовой устойчивости страховых компаний.

Ключевые слова: страховая деятельность, страховая компания, страховое андеррайтинг, андеррайтинговые функции в страховании, обязанности андеррайтера, права андеррайтера.

KIRISH

Jahonda yuz berayotgan globallashuv jarayonida mamlakatlar iqtisodiy taraqqiyotida sug‘urta sohasining ahamiyati muhim hisoblanadi. Mamlakat sug‘urta bozorida faoliyat yurituvchi sug‘urta kompaniyalarini moliyaviy barqarorligi sug‘urtalanuvchilarni risklardan himoyalanish tizimini takomillashtirib, sug‘urta ta’rif stavkalarini quyi chegaralaridan foydalanish imkoniyatlarini oshiradi. Jaxonda yuz berayotgan iqlim o‘zgarishlarining ta’siri natijasida dunyoning barcha hududlarida ekologik va tabiiy stixiyali xavf-xatarlar ortmoqda va albatta bu xavf-xatarlarni ortishi sug‘urta xizmatlarini narxini oshishiga ta’sir etmoqda. Xalqaro sug‘urta bozorining eng yirik ishtirokchisi sanalmish AQSH sug‘urta bozorida dunyo bo‘ylab sug‘urta xavf-xatarlarini ortishi va sug‘urta ta’rif stavkalarini yuqorilashi fonida sug‘urta kompaniyalarini moliyaviy barqarorligiga ijobiy ta’sir etuvchi anderrayting xizmatining ahamiyati oshmoqda va bu jarayonlar AQSH sug‘urta bozorida ta’rif siyosatiga ijobiy ta’sir etmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Sug‘urta sohasida anderrayting xizmatini tashkil etish va uning mohiyatini kengaytirish, sug‘urta anderrayterlari uchun belgilangan meyorlarni belgilash, sug‘urtada anderrayting siyosatini amalga oshirish, anderrayting strategiyasi kabi muammolarni nazariy va amaliy jarayonlarni o‘rganish bo‘yicha A.P.Arxipov, K.G.Voliy, S.A.Osenko, O.N.Kozlov, V.V.Shaxov, S.L.Yefimov, A.Siganov, N.S.Yaroshenko va boshqalar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan bo‘lib biz bu boradagi ilmiy ishlarni tahlil qildik.

TAHLIL VA NATIJALAR

Dunyodagi global o‘zgarishlar ishlab chiqarish va iste’mol jarayonlaridan tortib ushbu iqtisodiy faoliyatni tashkil qilish va amalga oshirish jarayonlaridagi turli xavf-xatarlardan sug‘urtaviy himoyani mukammal darajada tashkil etishni talab qilmoqda. Insoniyat yaralibdiki uni o‘rab turgan atrof muhitdagi turli xodisalar unga salbiy va ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi. Salbiy ta’sir insoniyatni turli ko‘rinishdagi moliyaviy yo‘qotishlari bilan xarakterlanadi. Ushbu moliyaviy yo‘qotishlardan himoyalanish maqsadida dastlab o‘zaro sug‘urtalash jamiyatlari tashkil etilgan bo‘lib, insoniyat taraqqiy etgan sari zamonaviy sug‘urta jamiyatlari shakllana boshladi. Sug‘urta faoliyatini amalga oshirishni asosiy maqsadi xavf-xatarni baholash va boshqarish hisoblanadi. Sug‘urta xizmatini tashkil etishda xavf-xatarni yuz berish ehtimolligini o‘rganuvchi aktuariylar xizmati bilan paralel ravishda anderrayting xizmati ham mavjud bo‘lib, ushbu xizmat orqali xavf-xatar sug‘urtaga yoki qabul qilinadi yoki qabul qilinmaydi. Sug‘urta faoliyatida anderrayting xizmati muhim ahamiyat kasb etib sug‘urta xizmatiga talabgor bo‘lgan har qanday subyekt sug‘urta agenti uchun moliyaviy manfaat hisoblanadi lekin sug‘urta anderrayteri uchun bu moliyaviy manfaat hisoblanmaydi chunki sug‘urta portfelini muvozanatini saqlash maqsadida sug‘urta anderrayteri sug‘urta xizmatiga talabgor bo‘lgan subyektni qabul qilish yoki qilmaslik qarorini chiqaradi. Rossiyalik olim A.P.Arxipov “Sug‘urta anderraytingi sug‘urtaning kvintessensiyasi ya’ni asosiy mag‘izidir”1 - degan fikrlarni berib o‘tgan. Sug‘urtaga qabul qilinadigan xavf-xatarni sodir bo‘lish ehtimolligi aktuariylar tomonidan berilgan xulosaga asosan shakllanib, aktuariy xulosasi sug‘urta ta’rif stavkasini quyi va yuqori chegaralarini belgilab beradi. Sug‘urtaga xavf-xatarni qabul qilish bo‘yicha qarorni sug‘urta kompaniyasini moliyaviy ahvolidan va sug‘urtalovchilar o‘rtasidagi raqobat omilidan kelib chiqib sug‘urta anderrayterlari qabul qiladi. Aynan sug‘urta anderraytingi orqali sug‘urtaning iqtisodiy mohiyati va xavf-xatar funksiyasi ifodalanadi.

Sug‘urta xizmatlarini qanchalik mukammal rivojlanganligi o‘sha mamlakat sug‘urta bozorining xalqaro sug‘urta bozordagi ulushi bilan aniqlashtirish mumkin. Sug‘urta bozori ishtirokchilari hisoblanuvchi sug‘urta kompaniyalarini moliyaviy barqarorligi va ularni xalqaro sug‘urta bozoridagi o‘rni mamlakat sug‘urta bozoriga baho berishga ta’sir etuvchi omillardan biridir. Sug‘urta bozoridagi sug‘urta kompaniyalari sug‘urta xizmatlarini takomillashtirishlari uchun zamonaviy instrumentlaradan foydalanmoqda. AQSH Yaponiya Xitoy kabi rivojlangan iqtisodiyotga ega bo‘lgan davlatlarni sug‘urta bozorida sug‘urtani takomillashtiruvchi instrumentlardan keng foydalanilmoqda. Zamonaviy sug‘urta instrumentlari sifatida biz sug‘urtada anderrayting xizmatini, aktuariylar xizmatini va “insurtech” sug‘urta texnologiyalarini tushinishimiz mumkin. Sug‘urta faoliyatida sug‘urta anderrayterlari, sug‘urta aktuariylari va sug‘urta texnologiyalarini ahamiyati oshib borayotganligini mamlakat sug‘urta bozorining dunyo sug‘urta bozoridagi ulushi bilan o‘lchashimiz mumkin. Dunyo sug‘urta bozorida ulushi yuqori bo‘lgan mamlakatlardan biri Xitoyda sug‘urta texnologiyalari muhim rivojlanish omili bo‘lib, so‘nggi yillarda sezilarli o‘sishni qayd etgan “moliyaviy texnologiyalar” sektori bilan bir qatorda jadal rivojlanmoqda. “Alibaba Ant Group” va “Tencent” kabi texnologiya gigantlari milliarddan ortiq iste’molchilarga moliyaviy xizmatlar ko‘rsatadi va sug‘urta mahsulotlari ushbu mahsulot portfelining bir qismi hisoblanadi. Sug‘urtaning barcha asosiy turlari orasida onlayn sug‘urta mukofotlarining qiymati oshmoqda va sezilarli darajada o‘sish sur’atlariga ega.

Sug‘urta texnologiyalari sug‘urta xarajatlarini kamaytirib, iste’molchilar uchun kirish to‘siqlarini ham yo‘qotishga xizmat qiladi. Katta ma’lumotlar va sun’iy intellekt texnologiyasidan foydalangan holda, sug‘urta provayderlari iste’molchilarning shaxsiy xavf-xatarlarini baholashga asoslangan shaxsiy sug‘urta polislarini inson ishtirokisiz taklif qilishlari mumkin.

So‘nggi yillarda dunyo bo‘ylab yig‘ilayotgan sug‘urta mukofatlari ulushi asosan 20 ta davlatning hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

O‘rni	Mamlakat nomi	Dunyo bo‘yicha ulush foizlarda	
		2023-yil	2022-yil
1	AQSH	40,6%	39,6%
2	Xitoy	10,1%	10,4%
3	Yaponiya	5,9%	6,6%
4	Buyuk Britaniya	5,8%	5,4%
5	Fransiya	4,3%	3,8%

1 А.П.Архипов “Страховой андеррайтинг” Учебник.Москва. Юрайт. 2014 год

6	Germaniya	4,0%	4,1%
7	Janubiy Koreya	2,8%	3,0%
8	Italiya	2,8%	2,7%
9	Kanada	2,4%	2,2%
10	Hindiston	1,9%	1,8%
11	Tayvan	1,7%	1,8%
12	Niderlandiya	1,4%	1,4%
13	Ispaniya	1,1%	1,1%
14	Avstraliya	1,1%	1,0%
15	Gonkong	1,1%	1,2%
16	Irlandiya	0,9%	0,8%
17	Braziliya	0,9%	0,9%
18	Shveysariya	0,8%	0,9%
19	Janubiy Afrika	0,7%	0,7%
20	Luksemburg	0,7%	0,6%
	Top 20 ta sug‘urta bozor.	**90,0%**	**90,4%**

Manba: Swiss Re Institute[2]

Yuqoridagi jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki AQSH sug‘urta bozorida butun dunyoda yig‘ilayotgan jami mukofatlarni qariyib 39-40 foizi yig‘ilmoqda. Xitoy va Yaponiyada yig‘ilgan sug‘urta mukofatlari qariyib 16 foizni tashkil etmoqda. AQSH dunyodagi eng yirik sug‘urta bozori hisoblanib 2023-yil yakunlariga ko‘ra 2.8 trln. AQSH dollari miqdoridagi sug‘urta mukofatini yig‘gan[3]. AQSH sug‘urta bozorida sug‘urta anderrayterlarini tutgan o‘rni ham muhim hisoblanib, sug‘urta anderrayterlari boshqa mamlakatlarga nisbatan ko‘proq ish haqi olishini ko‘rishimiz mumkin.

AQSH da sug‘urta anderrayterlari ish haqi fondi[4].

2 https://www.swissre.com/institute/research/sigma-research/World-insurance series.html.
3 https://beinsure.com/top-ranking-the-worlds-largest-insurance-markets.
4 https://www.indeed.com/career/insurance-underwriter/salaries.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

AQSHda sug‘urta anderrayterlari bir yilda 80 mingdan 174 minggacha AQSH dollari miqdorida ish haqi olayotganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar tahlilidan xulosa qilib aytishimiz mumkinki sug‘urta anderrayterlari sug‘urta faoliyatida asosiy xodimlar hisoblanadi.

AQSHda anderrayterlar o‘rtasida gender tenglik quydagi foizlarda shakllangan[5].

AQSHda anderrayterlarni gender statistikasi.



Anderrayter Jinsi Nisbati

Jins	Foizlar
Ayol	61,6%
Erkak	38,4%

Hozirgi vaqtda AQSHda 105 409 dan ortiq sug‘urta anderrayterlari faoliyat yuritayotgan bo‘lib, ularning 61.6 foizini ayollar va 38.4 foizini erkaklar tashkil etadi.Anderrayterlarning o‘rtacha yoshi 44 yoshni tashkil etmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Sug‘urta faoliyatida anderrayting xizmatining asosiy vazifalaridan biri daromadli sug‘urta portfelini muvozanatli boshqarish hisoblanib, sug‘urta portfeli sug‘urta kompaniyasi tomonidan faoliyati doirasidagi sug‘urta klasslari bo‘yicha olingan umumiy javobgarlikdir. Sug‘urta portfeli muvozanati deganda sug‘urta kompaniyasi aktivlari va ustav jamg‘armasi doirasida qabul qilingan javobgarlikni sug‘urta xodisasi yuz berish ehtimolligidan kelib chiqib sug‘urta klasslari bo‘yicha uzuluksiz qabul qilish jarayonidir. Sug‘urta anderrayteri qaysi sug‘urta turi yoki klassi bo‘yicha javobgarlikni kamaytirish yoki ko‘paytirish haqidagi qarorni qabul qilishi hamda sug‘urta vositachilariga beriladigan mukofatlarni belgilab berish orqali sug‘urta tashkiloti faoliyatini amalga oshirilishiga xizmat qiluvchi subyekt hisoblanib uning qarori sug‘urta tashkilotining moliyaviy barqarorligiga ta’sir etadi. O‘rganishlar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston sug‘urta bozorini takomillashtirishda sug‘urta anderrayterlari sonini mumkin qadar oshirib borish zarur.

Xorijiy davlatlar tajribasidan kelib chiqsak sug‘urta anderrayterlari faoliyatini huquqiy asosini kengaytirish hayot sug‘urta tarmog‘ida sug‘urta anderrayterlari faoliyatini yanada oshirish orqali ushbu sug‘urta tarmog‘ini takomillashtirish zarur. Bugun dunyodagi yalpi yig‘ilayotgan sug‘urta mukofatlarini qariyib 12 foizini yig‘ayotgan Xitoy sug‘urta bozorida aynan sug‘urta anderrayterlari faoliyati kengaymoqda. Xitoy sug‘urta bozori asosan JST ga a’zo bo‘lingan 2001-yildan so‘ng tezroq rivojlana boshlaganligi hamda qisman transmilliy sug‘urta kompaniyalarni ichki sug‘urta bozoriga bosqichma - bosqich kirib kelishi bo‘yicha imkoniyatlar yaratilganligi tajribasidan kelib chiqib O‘zbekiston sug‘urta bozoriga ham qisman transmilliy sug‘urta kompaniyalarini kirib kelishiga imkoniyat yaratilishi milliy sug‘urta kompaniyalarini ba’zi tomondan, ayniqsa sug‘urtalanuvchilarni naflantirish bo‘yicha tizimli faoliyatini kengayishiga sabab bo‘ladi, shuningdek sug‘urta anderrayterlari faoliyatiga sun’iy intellektdan foydalangan holda anderrayting xizmatlarini tashkil etish kerak.

Sug‘urta kompaniyalarida anderraytingni eng katta vazifasi sug‘urta xavf-xatarlarini baholashdan iborat bo‘lishi bo‘lishi kerak, ushbu vazifani anderrayter zimmasiga qonuniy yuklash va sug‘urta hodisalarini chuqur tahlil qilish hamda ekspertizani xulosalarini hisobga olish zarur jarayon hisoblanadi. Agar anderrayterni xulosa qoniqtirmasa qaytadan ekspertiza belgilash huquqini berish kompaniyaga katta foyda keltiradi deb hisoblaymiz.

5 https://www.zippia.com/underwriter-jobs/demographics.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. А.П.Архипов “Страховой андеррайтинг” Учебник.Москва. Юрайт. 2014 год
2. Федотов М. А. Андеррайтинг в страховании //Финансы и кредит. – 2009. – №. 43 (379). – С. 63-67.
3. Qo‘ldoshev Q.M. O‘zbekistonda o‘zaro sug‘urtalashning metodologik asoslarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: 2019. – 75 b.
4 Павлюченко Т. Н. Страховой андеррайтинг как объект бухгалтерского учета //Актуальные вопросы экономических наук. – 2009. – №. 7. – С. 175-180.
5. Джолдасбаева Г. К., Абжалелова Ш. Р., Утекова Л. А. Андеррайтинг в страховании: сущность, современные подходы, пути развития //Вестник НИЦ МИСИ: актуальные вопросы современной науки. – 2018. – №. 13. – С. 15-20.
6. Kihwan K. “The Korean Economy: Past Performance, Current Reforms and Future Prospects” // Korean Development Institute. 2015.
7. WTO Secretariat, “Trade Policy Review: Singapore”, 2018 / URL: www.wto.org/english/ tratop_e/tpr_e/tp_rep_e.htm#bycountry.
8. https://www.indeed.com/career/insurance-underwriter/salaries.
9. https://www.zippia.com/underwriter-jobs/demographics.
10. https://www.swissre.com/institute/research/sigma-research/World-insurance series.html.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

KONSOLIDATSIYALASHGAN MOLIYAVIY HISOBOTLARNI TAYYORLASHDA AKTIVLARNI QADRSIZLANISHIGA OID TEKSHIRISH

Tojiyev Behzod Bekmurod o‘g‘li
Toshkent moliya instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Iqtisodiyotmizda yirik korxonalarning o‘rni beqiyosdir, ularning tashkiliy tuzilmasida mavjud shu’ba, qaram korxonalari bilan birgalikda moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar asosida tuzish konsolidatsiyalashgan umumiy ko‘rinishdagi hisobotlarni yaratish talablarini inobatga olishni taqozo etadi. Shu jumladan, aktivlarning qadrsizlanishi va unga yaratiladigan rezervlar hisob-kitobiga qo‘yiladigan talablarni ham chetlab o‘tmaydi.

Kalit so‘zlar: nazorat, hisobot davri, konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot, investitsiya obyekti, aktivlarning qadrsizlanishi.

Abstract: The role of large enterprises in our economy is incomparable, the preparation of financial statements according to international standards together with their subsidiaries and affiliates in their organizational structure requires taking into account the requirements for the creation of consolidated general reports. This does not exclude the requirements for calculating the impairment of assets and the provisions created for it.

Key words: control, reporting period, consolidated financial statements, investment object, impairment of assets.

Аннотация: Роль крупных предприятий в нашей экономике несравнима, подготовка финансовой отчетности по международным стандартам совместно с их дочерними и зависимыми предприятиями в их организационной структуре требует учета требований по созданию сводных общих отчетов. Это не исключает требований по расчету обесценения активов и создаваемых под него резервов.

Ключевые слова: контроль, отчетный период, консолидированная финансовая отчетность, объект инвестирования, обесценение активов.

KIRISH

Rivojlangan davlatlar singari mamlakatimizda ham tashqi iqtisodiy munosabatlarda umume’tirof etilgan me’yoriy-normativ hujjatlarni tan olish ratifikatsiya qilish rivojlanishning dastagi sifatida qaralmoqda. Shu o‘rinda ma’lumotlardan tashqi foydalanuvchilarni ishonchli axborot bilan ta’minlash, jahon bozorlariga chiqish, xorijiy investorlarni keng jalb etish maqsadida Hukumatning bir qator qaror va farmonlari qabul qilinmoqda.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4611-sonli qaroriga muvofiq, aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, sug‘urta tashkilotlari va yirik soliq to‘lovchilar toifasiga kiritilgan yuridik shaxslar – 2021-yil 1-yanvardan boshlab, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida buxgalteriya hisobi yuritilishini tashkil etadi va 2021-yil yakunlaridan boshlab moliyaviy hisobotni moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida tayyorlanishi belgilangan.

Shuningdek, davlat ishtirokidagi korxonalarni xususiylashtirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-oktyabrdagi “Davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilishni jadallashtirish hamda davlat aktivlarini xususiylashtirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6096-sonli Farmoni bilan transformatsiya qilinadigan yirik davlat korxonalari va xo‘jalik birlashmalarining ro‘yxati e’lon qilindi.

Bugungi kunga kelib, O‘zbekiston Respublikasi hududida qo‘llash uchun moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining buyrug‘i 2022-yil 9-dekabr kuni 3400-son bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazildi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Konsolidatsiyalashgan Moliyaviy hisobotlarni tuzish va aktivlarning qadrsizlanishiga oid tekshirish bo‘yicha bir qator mamlakatimiz va xorijiy mutaxassislar fikr-mulohazalarini keltirib o‘tmoqchiman.

O‘zbekiston iqtisodiyotining integratsiyalashuvi va moliyaviy hisobotlarni umumqabul qilingan shaklda taqdim etish jarayonida prof. Z.N.Qurbanov va A.K.Akramovlarning fikricha “Respublikamizda buxgalteriya hisobini bosqichma-bosqich moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida tashkil etish va moliyaviy hisobotlarni tuzish jahon integratsiyasiga yanada kengroq kirib borish imkoniyatini beradi. Bu esa Respublikamizda buxgalteriya hisobini isloh etish va modernizatsiya qilishning yangi bosqichi bo‘lib qoladi”.

Xorijiy olimlardan A.M.Markovichning ta’kidlashicha: “Har bir mamlakatda xalqaro standartlarni joriy etish o‘ziga xos xususiyatlardan kelib chiqib amalga oshiriladi, jumladan, buxgalteriya hisobi obyektlarini tan olish va baholash mezonlari ham muhim ahamiyatga egadir” [1, B.1].

Bundan tashqari, prof. V.S.Plotnikov va O.V. Plotnikovalarning fikricha “Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot konsepsiyasining muammoli masalalaridan biri bu − buxgalteriya hisobining nomoddiy obyekti sifatida gudvilni aks ettirishni uslubiy jihatdan ta’minlash va shu bilan bog‘liq bo‘lgan gudvilning qadrsizlanishidan zararlarni qoplash jarayonlaridir” [2, B.1].

Mazkur mavzudan kelib chiqib, zaruriy tahlil ko‘rsatqichlari va ularni moliyaviy hisobotlarda aks ettirish jarayonlari bilan atroflicha tanishib chiqamiz.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatimizda Qimmatli-qog‘ozlar markaziy depozitariysi davlat unitar korxonasining 2023-yil 20-fevraldagi ma’lumotlariga asosan jami 629 dan ortiq aksionerlik jamiyatlari faoliyat yuritmoqda. Mazkur ro‘yxatga 60 dan ortiq banklar va 40 ga yakin sug‘urta tashkilotlari, iqtisodiyotning yirik tarmoq hamda xo‘jalik boshqaruvi tashkilotlari kiritilgan.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilgan Hukumatimiz qaror va farmonlarida belgilangan vazifalar qatorida mazkur yirik soliq to‘lovchi tashkilotlar moliyaviy hisobotlarini xalqaro standartlar asosida tuzishadi va bu hisobotlarni Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlar, deb atashadi.

1-sonli “Moliyaviy hisobotni taqdim etish” buxgalteriya hisobining xalqaro standartiga ko‘ra moliyaviy hisobotning to‘liq to‘plami quyidagilarni qamrab oladi:

- hisobot davri oxiriga moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobot;
- hisobot davri uchun foyda yoki zarar va boshqa umumlashgan daromad to‘g‘risidagi hisobot;
- hisobot davri uchun xususiy kapitaldagi o‘zgarishlar to‘g‘risidagi hisobot;
- hisobot davri uchun pul mablag‘lari harakati to‘g‘risidagi hisobot;
- ahamiyatli hisob siyosati va boshqa tushuntirish ma’lumotlaridan iborat izohlar [3, B.4].

Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarda bosh tashkilot ya’ni iqtisodchilar tilida aytadigan bo‘lsak investorlar o‘zlarining shu’ba, qaram tashkilotlarining moliyaviy hisobotlarini jamlanma ko‘rinishga aynan bir hisobot sanasi yoki davriga tuzish maqsadida bir qator baholashlarni amalga oshirishadi.

Investor biron-bir tashkilot (investitsiya obyekti)da ishtiroki xarakteridan qat’iy nazar, investitsiya obyekti ustidan nazoratga egaligini baholab, o‘zining bosh tashkilot hisoblanishini aniqlashi lozim.

Investor, agar investitsiya obyektidagi ishtirokidan daromadlar o‘zgarishi riskiga moyil bo‘lsa yoki bunday daromadlarni olish huquqiga ega bo‘lsa, shuningdek, ushbu daromadlarga investitsiya obyektiga bo‘lgan vakolatlarini amalga oshirish natijasida ta’sir ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘lsa, investitsiya obyektini nazorat qiladi.

Shunday qilib, investor investitsiya obyektini faqat va faqat quyidagi barcha shartlar bajarilganda nazorat qiladi:

- investitsiya obyektiga nisbatan vakolatlarga ega bo‘lsa;
- investitsiya obyektida ishtirok etishdan daromadlar o‘zgarishi riskiga moyil bo‘lsa yoki uni olishga nisbatan huquqga ega bo‘lsa;
- investorning daromadlari miqdoriga ta’sir ko‘rsatish maqsadida investitsiya obyektiga nisbatan o‘z vakolatlarini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘lsa [4, B.2].

Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni tuzishda hisobotning har bir elementiga xususan aktivlarga katta e’tibor qaratiladi, konseptual asoslarga ko‘ra tashkilot aktivlarni hisobotlarda orttirib, majburiyatlarni esa kamaytirib ko‘rsatishi mumkin emas.

Aynan aktivlarni moliyaviy hisobotlarda aks ettirish bo‘yicha 20 ga yaqin xalqaro moliyaviy hisobotlar hozirgi kungacha amalda qo‘llanib kelinmoqda.

Shulardan biri 36-sonli “Aktivlarning qadrsizlanishi” moliyaviy hisobotning xalqaro standarti talablari ham konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni tuzishda keng qo‘llanuvchi standartlardan hisoblanadi. Mazkur standartning qisqacha qo‘llanilishi va tatbiq etilmaydigan jihatlari to‘g‘risida mulohaza qilamiz.

Standartning maqsadi tashkilot tomonidan aktivlarning balans qiymati ularning qoplanadigan qiymatidan ortiq bo‘lmasligini ta’minlash bilan bog‘liq tartiblarni belgilashdan iborat. Agar aktivning balans qiymati undan foydalanish yoki uni sotish orqali qoplanadigan summadan ortiq bo‘lsa, aktiv o‘zining qoplanadigan qiymatidan ortiq summada hisobga olingan hisoblanadi. Agar ushbu holat yuz bersa, aktiv qadrsizlangan, deb hisoblanadi va tashkilotdan qadrsizlanishdan zararni tan olishni talab etiladi. Shuningdek, standart qadrsizlanishdan zararni qaysi payt qayta tiklanishi lozimligini va tashkilot tomonidan yoritib berilishi lozim bo‘lgan ma’lumotlarni belgilaydi.



1-rasm: Aktivlarning qadrsizlanishi standartidan tashqari o‘zining me’yoriy talablaridan kelib qadrsizlanish darajalarini hisobga oluvchi buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari

Mazkur rasmda keltirilgan xalqaro standartlar 36-sonli “Aktivlarning qadrsizlanishi” standarti talablariga mos holda emas balki, aktivlarni o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib qadrsizlanishga tekshirib boriladi.

Misol tariqasida mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan konsolidatsiyalashgan hisobotlarni tuzuvchi “Kapitalbank”ning 2020-2021-yillar uchun tuzilgan hisobotlarini tahlil qilib ko‘ramiz.

1-jadval: “Kapitalbank” ATBning 2021-yil uchun Konsolidatsiyalashgan foyda yoki zararlar va boshqa umumlashgan daromadlar to‘g‘risidagi hisoboti, mln.so‘mda[1]

	2021-yil	2020-yil
Samarali foiz usulidan foydalangan holda hisoblangan foiz daromadi	1,112,984	571,545
Boshqa foiz daromadlari	1,083	1,127
Foiz xarajatlari	(501,247)	(307,881)
Sof foiz foydasi	612,820	264,791
Mijozlarga berilgan kredit bo‘yicha kutilayotgan zararlar uchun yaratilgan zaxira (rezerv)	(89,151)	(63,929)
Foiz hisoblanadigan mijozlarga berilgan kredit bo‘yicha yaratilgan zaxira (rezerv)dan so‘ng	523,669	200,862
Sof foiz foydasi	403,765	285,943
Komission daromadlar	(147,853)	(71,769)
Jorijiy valyuta operatsiyalaridan sof foyda	139,724	28,099
Boshqa moliyaviy aktivlarning qadrsizlanishidan zarar va shartli majburiyatlar bo‘yicha turli rezervlar	(22,736)	(2,286)
Boshqa daromadlar	9,201	7,400
Xodimlar bo‘yicha va boshqa operatsion xarajatlar	(466,943)	(294,867)
Foyda solig‘i to‘langunga qadar foyda	438,827	153,382
Foyda solig‘i bo‘yicha xarajatlar	(74,328)	(32,766)
Yil sof foydasi	364,499	120,616

1 www.kapitlabank.uz ma’lumotlariga asoslanib muallif tomonidan tayyorlandi.

“Kapitalbank” ATBning 2021-yil uchun tuzilgan konsolidatsiyalashgan foyda yoki zararlar va boshqa umumlashgan daromadlar to‘g‘risidagi moliyaviy hisobotida Boshqa moliyaviy aktivlarning qadrsizlanishidan zarar va shartli majburiyatlar bo‘yicha turli rezervlar 2020-yilning shu davriga nisbatan o‘n barobarga ko‘p hisoblangani moliyaviy aktivlarning qadrsizlanish darajasi o‘sgani yoki qo‘shimcha aktivlarni paydo qilishidan rezerv hisobkitobi ortgani bilan baholasak bo‘ladi.

Diqqat bilan e’tibor qaratadigan bo‘lsak, xalqaro standartlar asosida moliyaviy hisobot tuzishda hisobotlarda moliya yilining ko‘rsatichlari hisobotning chap tarafida aks etuvchi raqamlar bilan ifodalangan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, iqtisodiyotning har bir mustaqil tarmoqlarida aktivlarning tasniflanishi turlicha bo‘lishiga qaramasdan ularning harakati qadri va qiymati bir-biriga mos keluvchi mezonlardan tashkil topadi.

O‘rganishlar natijasida quyidagi tavsiyalarni ilgari surmoqchimiz:

- faoliyat sohalaridan kelib chiqib korxonalarda mavjud aktivlarning bozor qiymatini aniq belgilab beruvchi va ularning yagona ma’lumotlar bazasini tashkil etuvchi ko‘p tarmoqli axborot markazini tashkil etish, bu orqali korxonalar o‘z mablag‘lari hisobidan aktivlarining qadrsizlanishini tekshirish uchun yuqori miqdordagi sarf-xarajatlarni tejash imkoniyatiga ega bo‘ladilar;
- har yili korxonalarda aktivlar qadrsizlanishi ko‘rsatkichlari moliyaviy hisobotlarda aks ettirilib borishi orqali makro darajadagi sohalar kesimida aktivlarning kimmatlilik miqdori aniqlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. А.М.Маркович “Методология признания убытков от обесценения нефинансовых активов”, 2018 г. −8 с.
2. В.С.Плотников, О.В.Плотникова “Оценка обесценения гудвилла и возмещение потерь от обесценения в консолидированной финансовой отчетности”, 2015 г. −13 с.
3. 1-sonli “Moliyaviy hisobotni taqdim etish” Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti. −26 B.
4. 10-sonli “Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot” Moliyaviy hisobotning xalqaro standarti. −42 B.
5. www.kapitalbank.uz

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH – MUHIM YO‘NALISH

Dushaboyev Mirjalol
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tayanch doktaranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada iqtisodiyotning yetakchi soha va tarmoqlarida kichik tadbirkorlik ulushining oshishi iqtisodiy o‘sish va ijtimoiy barqarorlik ta’minlanishi bo‘yicha fikr yuritilgan va kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlantirish yo‘llari tahlil qilingan. Shu bilan birga, tadbirkorlik – bu tashabbus va faollikni o‘z qo‘liga olgan holda, kelgusida yuz berishi mumkin bo‘lgan turli xatar (risk)larni hisobga olib, o‘zining mas’uliyati va javobgarligi asosida amalga oshiriluvchi iqtisodiy faoliyat ekanligiga urg‘u berilgan.

Kalit so‘zlar: iqtisodiyot, kon’yunkturaviy, iste’molchi, yalpi ichki mahsulot, o‘sish tendensiyasi, monopoliya, taklif muvozanati, ishsizlik, startap, innovatsiya, daromad.

Abstract: In this article, an increase in the share of small businesses in the leading sectors and sectors of the economy is considered to ensure economic growth and social stability, and ways of developing small business and private entrepreneurship are analyzed. At the same time, it is emphasized that entrepreneurship is an economic activity carried out on the basis of one’s own responsibility and responsibility, taking initiative and activity into one’s own hands, taking into account various risks that may occur in the future. it is given.

Key words: economy, cyclical, consumer, gross domestic product, growth trend, monopoly, equilibrium of supply, unemployment, start-up, innovation, income.

Аннотация: В данной статье рассматривается увеличение доли малого бизнеса в ведущих отраслях и секторах экономики для обеспечения экономического роста и социальной стабильности, анализируются пути развития малого бизнеса и частного предпринимательства. При этом подчеркивается, что предпринимательство – это экономическая деятельность, осуществляемая на основе собственной ответственности и ответственности, взятия инициативы и активности в свои руки, с учетом различных рисков, которые могут возникнуть в будущем.

Ключевые слова: экономика, цикличность, потребитель, валовой внутренний продукт, тенденция роста, монополия, равновесие предложения, безработица, стартап, инновации, доход.

KIRISH

Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan tub islohotlar va yangilanishlar natijasida iqtisodiyotimizda miqdor va sifat o‘zgarishlari qamrovi tobora kengayib, zamonaviy tarmoq va sohalarning salmog‘i jadal ravishda oshib bormoqda. Aholining daromadlari ahamiyatli ravishda o‘sib, buning natijasida turmush darajasida sezilarli o‘zgarishlar ko‘zga tashlanmoqda. Jumladan, statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2022-yilda aholining umumiy daromadlari 22.5% nominal, 10.8% real o‘sgan. Xalqaro valyuta fondi ma’lumotlariga ko‘ra, aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan yalpi ichki mahsulot hajmi bo‘yicha O‘zbekiston dunyo reytingida 2017-yildagi 134-o‘rindan 2020-yilda 121-o‘ringa ko‘tarildi. Shuningdek, 2021-yil 26-mayda o‘tkazilgan Xalqaro reytinglar va indekslar bilan ishlash bo‘yicha Respublika Kengashining navbatdagi yig‘ilishida Global innovatsion indeksda O‘zbekiston 2015-yilga nisbatan o‘z o‘rnini 29 pog‘onaga yaxshilab, 131 ta mamlakat orasida 93-o‘rinni, Markaziy va Janubiy Osiyo davlatlari orasida esa 4-o‘rinni qayd etgani ta’kidlandi. Bu kabi muvaffaqiyatlarning asosiy omillaridan biri – davlatimiz tomonidan olib borilayotgan samarali iqtisodiy siyosat bo‘lib, uning tarkibidan o‘rin olgan chora va tadbirlar yo‘nalishlarining to‘g‘ri shakllantirilganligi ijobiy natijalar garovi hisoblanadi. Ayniqsa, O‘zbekiston taraqqiyotining yangi davrida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga iqtisodiy siyosatning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tibor qaratilmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

A. Smitning qayd qilishicha, bozor jamiyat sotib olishni xohlagan va kerakli miqdordagi tovarlarni ishlab chiqaradi. Shu bilan birga, A.Smit bozorning qudratli kuch ekanligini, u jamiyatni zarur tovarlar bilan doimo ta'minlashi va bu tizim o'z-o'zini muvofiqlashtirishini ko'rsatib berdi. Uning fikricha, o'z-o'ziga qo'yib berilgan bozor tizimi rivojlanadi va bunday tizimi bor xalqning boyligi ortaveradi.

XIX–XX asrlar chegaralarida tadbirkorlik institutining ahamiyati va rolini ko'pchilik anglay boshladi. Fransuz iqtisodchisi Andre Marshall birinchi bo'lib ishlab chiqarishning uchta omiliga (yer, kapital, mehnat) to'rtinchi tashkillashtirish omilini qo'shdi. Shu vaqtdan boshlab, tadbirkorlik tushunchasi va shu sohada olib boriladigan ishlar ko'lami kengayib bormoqda.

Amerikalik iqtisodchi J.B.Klark J.B.Seyning "uchlik formulasiga" biroz o'zgartirish kiritdi. Uning fikricha, ishlab chiqarishda doim to'rt omil ishtirok etadi:

1) kapital;
2) ishlab chiqarish vositalari va yer;
3) tadbirkorlik faoliyati;
4) ishchining mehnati.

Har bir omil ishlab chiqarishdan olinayotgan o'ziga xos foydani aks ettiradi: kapitaldan kapitalist qo'shimcha foiz oladi; yer renta beradi; kapitalistning ishbilarmonlik faoliyati daromad keltiradi; ishchining mehnati uni maosh bilan ta'minlaydi. Boshqacha qilib, J.B. Klark so'zi bilan aytganda: "Erkin raqobat mehnatga mehnatdan kelgan narsani beradi, kapitalistlarga kapital yaratgan narsa tegadi, tadbirkorlar muvofiqlashtirish faoliyatidan kelgan narsani oladi". Tadbirkorlik faoliyatini u ana shunday tushungan.

Ularning g'oyalarida kichik biznes va tadbirkorlik bo'yicha xorij iqtisodchi olimlari tomonidan ilgari surilgan nazariya va maktablaning vujudga kelishi va taraqqiy topishi, kichik biznes va tadbirkorlik tushunchalari, ularning iqtisodiyotda tutgan o'rni, respublikada kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari, kichik biznes va tadbirkorlikning tashkiliy-huquqiy asoslari va ularni davlat tomonidan qo'llab quvvatlash masalalari keng yoritilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada iqtisodiy tahlilning analiz va sintez, induksiya va deduksiya, taqqoslama kabi an'anaviy usullardan foydalanildi. Iqtisodchi olimlarning turizmda tadbirkorlikni rivojlantirishga doir ilmiy-amaliy qarashlari tahlil qilindi va natijalari asosida xulosalar shakllantirilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ma'lumki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik jahon mamlakatlari tajribasida o'zining yuksak natija va muvaffaqiyatlari bilan mustahkam o'rin olgan. Ko'plab rivojlangan mamlakatlarda kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 60-70 foizni tashkil etadi. Kichik biznesning rivojlanishi iqtisodiyotdagi jo'shqinlik va samarali raqobat muhiti uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish, iste'mol sektorini kengaytirish orqali talabni rag'batlantirish, iste'mol bozorini tovar va xizmatlar bilan to'ldirish, atrof-muhitni muhofaza qilish, budjet tushumlarini kengaytirish uchun imkon yaratadi. Shunga ko'ra, aksariyat rivojlangan mamlakatlar kichik biznes faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlashga harakat qiladilar. Bu borada, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil uchun mo'ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida "Haqiqatan ham, biz faqat faol tadbirkorlik, tinimsiz mehnat va intilish orqali taraqqiyotga, farovon hayotga erisha olamiz" deb belgilab berishi o'ziga xos dasturulamal hisoblanadi.

Shu o'rinda savol tug'ilishi tabiiy: aynan O'zbekiston iqtisodiyoti uchun kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ahamiyati nimalarda namoyon bo'lmoqda?

Ushbu savolga bir maqola doirasida to'liq va tugal javob berib bo'lmasada, biroq bu boradagi asosiy jihatlarni ko'rsatib o'tish hamda muayyan mulohazalar bildirish, xulosalar chiqarish mumkin bo'ladi.

Tadbirkorlik erkinligi, ijodkorligi hamda raqobat muhiti uyg'unlikda juda katta bunyodkorlik kuchini hosil qiladi. Ayniqsa, o'zining faoliyat ko'lami jihatidan nisbatan ixcham bo'lgan kichik tadbirkorlik iqtisodiyotdagi kon'yunkturaviy o'zgarishlarga tezlik bilan moslasha olish, iste'molchining did va qiziqishlarini to'liq anglash va e'tiborga olish, ichki imkoniyatlardan to'liq foydalanish, raqobat muhitini kuchaytirgan holda iqtisodiyotga jo'shqinlik baxsh etish kabi xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Mamlakatimizda kichik tadbirkorlik subyektlarining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati, iqtisodiy o'sish va barqarorlikni ta'minlashdagi rolini hisobga olgan holda davlatimiz tomonidan yaratilgan shart-sharoitlar hamda qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida yalpi ichki mahsulotda ahamiyatli ulushga ega bo'lib kelmoqda (1-rasm).



1-rasm: Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, foiz

Ushbu ko‘rsatkichning salmog‘ini tasavvur etish uchun eslatib o‘tish joizki, u 1991-yilda atigi 1,5 foizni, 2000-yilda 31 foizni tashkil etgan edi. Ayniqsa, mamlakatimiz taraqqiyotining yangi bosqichi sifatida e’tirof etilgan 2016-yilda mazkur sohaning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi o‘zining eng yuqori marrasiga, ya’ni 64,9 foizga, 2018-yilda yesa 62,4 foizga, 2022-yilda 51,8% ga yetgan. Mamlakatimizda taraqqiyotning yangi bosqichida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni deyarli 2 baravar o‘sib, 2016-yildagi 210,6 ming birlikdan 2020-yilda 424,3 ming, 2023-yilda 548,4 ming birlikka yetdi, umumiy korxona va tashkilotlar tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 2016-yildagi 78,5 foizdan 2020-yilda 86,5 foizga qadar o‘sdi.

Shuningdek, keyingi yillarda mazkur ulushdagi bir oz pasayish holatlarini kuzatish mumkin. Bu o‘rinda, kichik tadbirkorlik subyektlarining YaIMdagi ulushining qisqarishi asosan mamlakatimizdagi yirik sanoat obyektlarining ishga tushirilishi tufayli yirik korxonalar ulushining nisbatan tezroq o‘sishi bilan izohlanadi. Ya’ni, 2017-yildan boshlab mamlakatimizning yirik sanoat obyektlariga juda katta hajmda xorijiy investitsiya va kredit mablag‘lari jalb etilishi natijasida ulardagi ishlab chiqarish hajmi keskin o‘sa boshladi. Jumladan, buning ifodasini kichik biznesni sanoatdagi ulushining 2017-yildagi 41,2 foizdan 2022-yilda 26 foizga qadar qisqarishi orqali ham ko‘rish mumkin. Shu bilan birga, e’tiborga olish kerakki, so‘nggi ikki yil mobaynida jahonda ro‘y berayotgan koronavirus pandemiyasining iqtisodiyotga salbiy ta’sirlari mazkur ko‘rsatkichning ma’lum darajada pasayishiga olib keldi. Chunki, mamlakatimizda joriy etilgan karantin munosabati bilan ayrim ommaviy tadbirlar, aholi harakatining cheklanishi bilan bog‘liq holatlar birinchi navbatda kichik biznes subyektlari faoliyatiga o‘z ta’sirini ko‘rsatdi.

Agar majoziy ma’noda iqtisodiyotdagi yirik korxona va birlashmalarni iqtisodiyot organizmining suyak (skelet) qismi deb hisoblansa, u holda kichik biznes ushbu qismga qayishqoqlik, moslashuvchanlik baxsh etuvchi, uning bir maromdagi harakatini ta’minlovchi mushak-to‘qima qismini tashkil etadi. Kichik biznesning iqtisodiyotga qayishqoqlik, moslashuvchanlik baxsh etuvchi xususiyati yangi korxonalarning tashkil topishi jarayoni orqali ta’minlanadi. Ya’ni, kichik biznes korxonalari iqtisodiyotdagi talab jadallik bilan o‘sib borayotgan tarmoq va sohalarga javoban yangi ishlab chiqarishni tashkil etadi (2-rasm).



2-rasm: Yangidan tashkil etilgan korxonalar to‘g‘risida ma’lumot, ming birlikda[1]

1 Ma’lumot muallif tomonidan stat.uz saytidan olingan

Ma’lumotlardan ko‘rinadiki, 2017–2022-yillar mobaynida mamlakatimizda jami 484 mingdan ortiq korxonalar tashkil etilgan. Shundan 14,8 mingtasi (jami korxonalarning 5,1 foizi) yirik korxonalar, 273,2 mingtasi (94,9 foizi) kichik biznes korxonalari hisoblanadi. E’tiborli jihati shundaki, nisbatan uzoq muddatli talabni e’tiborga olgan holda tashkil etiluvchi yirik korxonalar dinamikasida beqarorlik, aniqrog‘i, oxirgi yillarda pasayish kuzatilmoqda. Kichik biznes korxonalarida esa barqaror o‘sish tendensiyasi saqlanib qolmoqda.

Taraqqiyotning yangi bosqichida mamlakatimizda kichik biznes faoliyat ko‘lamining tobora kengayib borayotganligini har 1000 nafar aholiga to‘g‘ri keluvchi faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni orqali ham kuzatish mumkin. Ushbu ko‘rsatkich 2017 yilda - 12,2 birlik, 2018-yilda - 13,2 birlik, 2019-yilda - 13,3 birlik, 2020 - 15,6 birlik, 2023 yilda - 15,2 birlikni tashkil etgan. Holbuki, bu davrda respublikamiz aholisining soni har yili 1,7 - 2 foiz atrofida oshib bormoqda. E’tiborlisi shundaki, kichik tadbirkorlik subyektlari sonining eng katta o‘sishi iqtisodiyotga pandemiyaning salbiy ta’siri sharoitida ro‘y bermoqda.

Kichik biznesga xuddi iqtisodiyotga yangi kuch, yangi quvvat baxsh etuvchi soha sifatida qarash mumkin. Iqtisodiyotda yangidan tashkil etiluvchi korxonalar keyingi paytda vujudga kelgan talabni, so‘nggi texnologik yangilik va yutuqlarni ma’lum darajada o‘zida jamlaydi va amaliyotga joriy etadi. Ularning soni ko‘payishi iqtisodiyotga katta xissa qo‘shadi(1-jadval).

1-jadval: O‘zbekistonda faoliyat ko‘rsatayotgan va yangi tashkil etilgan korxonalar to‘g‘risida ma’lumot, ming birlik

Yil	Jami korxonalar		Yirik korxonalar		Kichik biznes korxonalari	
	Faoliyat ko‘rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan	Faoliyat ko‘rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan	Faoliyat ko‘rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan
2019	398,1	96,7	63,3	3,8	334,8	92,9
2020	475,2	95,3	64	2,1	411,2	93,2
2021	323,5	102,8	60,6	3,9	262,9	98,9
2022	398,1	93,6	63,3	3,4	334,8	90,2
2023	475,2	88,8	64	2,8	411,2	86

Eng muhimi, kichik tadbirkorlik subyektlari qandaydir ko‘rsatma yoki undovlar ostida emas, balki iqtisodiyotdagi kon’yunkturani hisobga olgan holda erkin va mustaqil tashkil etiladi. Aynan shu holat iqtisodiyot tarmoqlarining umumiy ko‘lamiga o‘ziga xos tuzatishlar kiritadi. Jumladan, 2019–2023-yillar davomida yangidan tashkil etilgan kichik biznes korxonalarining 2023-yil bo‘yicha eng katta salmog‘i savdo (jami korxonalarning 38,9 foizi), sanoat (16,4 foizi), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi (10,9 foizi), yashash va ovqatlanish (6,9 foizi), qurilish (5,6 foizi) tarmoqlariga to‘g‘ri keladi. Bu esa mamlakatimiz yetakchi tarmoq va sohalari o‘rtasidagi maqbul nisbatning shakllanishiga xizmat qiladi.

Kichik tadbirkorlik iqtisodiyotda raqobat muhitini shakllantirish, uning moslashuvchanligini ta’minlashning muhim omili hisoblanadi. Iqtisodiyotdagi raqobat muhiti – bu turli mahsulot va xizmatlarning ishlab chiqaruvchilari va iste’molchilari o‘rtasida qulay sharoitga erishish hamda erishishi ko‘zda tutilayotgan foyda yoki iqtisodiy nafni maksimallashtirish maqsadidagi iqtisodiy bellashuv (kurash)dir. Iqtisodiyotda monopoliyalarning paydo bo‘lishi va amal qilishi – bu obyektiv jarayon. Monopoliyalarni butunlay bartaraf etish imkoniyatdan tashqari holat hisoblanadi. Ayrim holatlarda davlatning monopoliyaga qarshi kurashi ham darhol o‘zining yetarli samarasini bermasligi mumkin. Shu o‘rinda yana kichik biznes subyektlari yordamga keladi. Yangidan yangi kichik ishlab chiqarish subyektlarini tashkil etish va ularning rivojlanishi uchun yetarli shart-sharoitlarni yaratib berish orqali bozordagi monopoliya darajasini pasaytirish mumkin.

Shuningdek, mazkur soha iste’mol bozoridagi talab va taklif muvozanatini tiklash va ta’minlashda asosiy tomonlardan biridir. Hozirda mamlakatimizda biron bir mahsulotning, xoh u oziq-ovqat tovarlari bo‘lsin, xoh kiyim-kechak yoki uy-ro‘zg‘or buyumlari bo‘lsin, kuchli taqchilligining vujudga kelishidan xavfsirash holatlari mavjud emas. Chunki, o‘z faoliyat xususiyatiga ko‘ra iste’moldagi ahamiyatsiz o‘zgarishga ham o‘ta sezgirlik bilan e’tibor qaratuvchi kichik tadbirkorlar qisqa muddat ichida bozordagi har qanday taqchillikka o‘z munosabatlarini bildiradilar: taqchilligi ortidan narxi ko‘tarilgan mahsulotni dastlab boshqa hudud yoki chet mamlakatlardan olib kelish, o‘rta yoki uzoq muddatli davrda esa uning milliy ishlab chiqarishini yo‘lga qo‘yish orqali bozordagi talab va taklif muvozanatini tiklashga harakat qiladilar.

Kichik biznesning yangi ish o‘rinlarini yaratish, aholini ish bilan bandlik darajasini oshirishdagi faolligi uning mamlakatimiz iqtisodiyotidagi yana bir ahamiyatli jihatini namoyon etadi. O‘zbekiston mustaqillikka erishgunga qadar va uning dastlabki pallasida iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlar, milliy ishlab chiqarishning tashqi va ichki talabga mos kelmasligi oqibatida mamlakatimizda muayyan darajada ishsizlik vujudga kelgan edi. Shunisi e’tiborliki, mustaqil taraqqiyotning dastlabki pallasida mazkur holat iqtisodiyotdagi ahamiyatli pasayish oqibatida kelib chiqqan siklik ishsizlik ko‘rinishida namoyon bo‘lsa, hozirga kelib uning asosiy qismi mazmunan ishchi kuchiga bo‘lgan talab va taklifning tarkiban nomuvofiqligini ifodalovchi tarkibiy ishsizlik hisoblanadi. Holbuki, mamlakatda ish o‘rinlari yetishmovchiligi to‘g‘risida so‘z borgan bir vaqtda, tegishli malakadagi ishchilar yetishmayotgan sohalar ham mavjudligi namoyon bo‘lmoqda. Prezidentimiz tomonidan shu yilning 16-iyunidagi oliy ta’limni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan yig‘ilishda bugungi kunda xizmat ko‘rsatish sohasida 40 mingta, sanoatda 38 mingta, qurilishda 12 mingta, qishloq xo‘jaligida 10 mingta, aloqa va axborot texnologiyalarida 4 mingta oliy ma’lumot talab etadigan bo‘sh ish o‘rinlari borligi, lekin bitiruvchilar son jihatidan ham, malaka bo‘yicha ham bu talabni qondira olmasligi ta’kidlandi.

Shunga ko‘ra, ishchi kuchiga bo‘lgan talab va taklifni o‘zaro muvofiqlashtirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish orqali ish bilan bandlik darajasini oshirishda kichik tadbirkorlik subyektlarining salohiyatidan keng foydalanilmoqda (3-rasm).



3-rasm: Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda bandlarning iqtisodiyotdagi jami bandlar soniga nisbatan ulushi, foizda.

Ma’lumotlardan ko‘rinadiki, 2018–2022-yillarda mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotdagi jami bandlarning ¾ qismidan ko‘prog‘ini qamrab olgan bo‘lib, bu hattoki jahondagi bir qator rivojlangan mamlakatlar ko‘rsatkichlaridan ham yuqori hisoblanadi. Mazkur ko‘rsatkichning keyingi yillardagi bir oz pasayishi esa, yuqoriga o‘rinlarda ta’kidlab o‘tilganidek, keyingi yillarda iqtisodiyotning yirik sektoridagi bandlikning nisbatan kengayishi hamda koronavirus pendemiyasining kichik tadbirkorlikdagi bandlikka salbiy ta’siri natijasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yangi ish o‘rinlari yaratish borasidagi imkoniyat va salohiyati uning harakatchanligi, ko‘lam jihatidan ixchamligi va yo‘nalishni tez o‘zgartira olishi kabi xususiyatlari orqali namoyon bo‘ladi. To‘g‘ri, mantiqan alohida olingan yirik korxona kichik korxonaga nisbatan bir necha o‘nlab, yuzlab, hattoki minglab marta ko‘proq ishchilarni yollash orqali mutlaq ustunlikka ega bo‘lishi mumkin. Biroq, masalaning boshqa bir jihati mavjudki, bu yirik korxona o‘z xodimlari tarkibini bir marta to‘ldirgandan so‘ng, uning yangi ish o‘rin yaratish imkoniyati keskin qisqaradi yoki tugaydi. Kichik tadbirkorlik subyektlari esa, yaxlit soha sifatida, ozgina qo‘shimcha daromad olish imkoniyati paydo bo‘lgan joyda uzluksiz tarzda va tezlik bilan yangidan yangi ish o‘rinlarini yaratishga harakat qiladi.

Ayniqsa, mamlakatimizda bu borada mahalla instituti imkoniyatlaridan kengroq foydalanishga e’tibor qaratilmoqda. 2021-yilning boshida Prezidentimiz tomonidan iqtisodiy o‘sishning qo‘shimcha zaxiralarini topish va safarbar qilish borasida “mahallabay” tizimini yo‘lga qo‘yish, har bir mahalladagi o‘ziga xos “o‘sish nuqtalari”ni aniqlab, ularni rivojlantirish vazifasi belgilab berildi. Jumladan, tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanish istagini bildirgan aholiga tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yishda har tomonlama amaliy yordam ko‘rsatish, bo‘sh bino va yer uchastkalarini aniqlab, ulardan samarali foydalanish choralarini ko‘rish, mahallalardagi band bo‘lmagan aholini kasb-hunar va tadbirkorlik ko‘nikmalariga o‘rgatishni tashkil etish orqali ularning bandligiga ko‘maklashish, band bo‘lmagan aholini tadbirkorlikka va o‘zini o‘zi band qilib ishlash faoliyatiga jalb qilish, yoshlarning tadbirkorlik tashabbuslari va startap g‘oyalarini yanada quvvatlash, ustoz-shogird an’anasi asosida band bo‘lmagan aholini ular yashayotgan tuman (shahar) va mahallada faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar hamda hunarmandlarga biriktirish vazifalari qo‘yildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 28-apreldagi “2021-yilda yangi ish o‘rinlarini tashkil etish va aholi bandligiga ko‘maklashish bo‘yicha davlat dasturi to‘g‘risida”gi PQ-5094-son qaroriga ko‘ra 2021-yilda doimiy yangi ish o‘rinlarini tashkil etishning yig‘ma prognoz ko‘rsatkichlariga binoan, jami tashkil etiladigan 457 127 nafar yangi ish o‘rinlarining 209 507 nafari (deyarli 46 foizi) kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hisobiga yaratiladi. Shundan, 121 038 nafari (57,8 foizi) yangi kichik korxona va mikrofirmalar tashkil etish hisobiga, 88469 nafari (42,2 foizi) yakka tartibdagi tadbirkorlikni, shu jumladan hunarmandchilikni rivojlantirish hisobiga tashkil etiladi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yangi ish o‘rinlari yaratish borasidagi imkoniyat va salohiyatini yanada kengaytiruvchi jihatlaridan biri – bu ikkilamchi bandlikni tashkil etish hisoblanadi. Bunda, bir tomondan, ishchi kuchidan yanada samaraliroq foydalanish, boshqa tomondan esa, ijtimoiy jihatdan yordamga muhtoj aholi guruhlari (masalan, ayollar, o‘quvchilar, nogironlar, pensionerlar va h.k.) mehnatidan foydalanish ta’minlanadi. Ya’ni, asosiy ish vaqtidan bo‘sh aholi qo‘shimcha daromad olish maqsadida kichik ko‘lamdagi ishlab chiqarishni tashkil etishning uy mehnati, kasanachilik, o‘zini o‘zi band qilish (frilanserlik) kabi shakllari orqali ikkilamchi tarzda band bo‘lishi mumkin. Qolaversa, kichik korxonalardagi mehnatni tashkil etishning moslashuvchan tartibi ayollar, o‘quvchilar, nogironlar, pensionerlarning ham qo‘shimcha bandligini ta’minlab, mamlakatdagi umumiy bandlik darajasini oshiradi. Ayniqsa, bugungi kunda jahondagi deyarli barcha mamlakatlar aziyat chekayotgan koronavirus pandemiyasi sharoitida ijtimoiy bandlikning tarkibida, uning mazmunida tub o‘zgarishlar yuz berdi. Insonlarning an’anaviy turmush tarzi o‘zgardi: masofadan turib ishlash, ijtimoiy ihotalanish, xizmat ko‘rsatishning yakka tartibini kuchaytirish talablari oilaviy tadbirkorlik, frilanserlik, mahsulotlarni yetkazib berish xizmati kabi shakllarining paydo bo‘lishi va rivojlanishiga turtki berdi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimizda aholi daromadlarini oshirish hamda o‘rta mulkdorlar qatlamini tarkib toptirishda yetakchi rol o‘ynamoqda. Odatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatdagi bandlik darajasini oshirish orqali aholi daromadlari darajasini oshirishga bevosita va bilvosita ta’sir ko‘rsatadi. Jumladan, kichik tadbirkorlik subyektlarining xususiy daromadlari hamda ular tomonidan yollanma ishchilar mehnatiga haq to‘lash orqali aholi daromadlari bevosita oshirilsa, mustaqil ravishda band bo‘lishga imkon yaratish va rag‘batlantirish, mol-mulkdan olingan daromadlar hamda ijtimoiy transfertlardan olinadigan daromadlar uchun manba yaratishda ishtirok etish orqali aholi daromadlari oshishiga bilvosita ta’sir ko‘rsatadi.

Yuqoridagi singari ta’sir omillari natijasida mamlakatimizda aholi daromadlarining sezilarli o‘sib borishi kuzatilmoqda. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, aholining nominal umumiy daromadlari 2018-yildagi 300,7 trln. so‘mdan 2023-yilda 728.8 trln. so‘mga qadar oshgan. Buning natijasida aholi jon boshiga nominal umumiy daromadlar, tegishli ravishda 9,1 mln. so‘mdan 20 mln. so‘mga qadar oshgan.

Ayniqsa, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi aholi umumiy daromadlari hajmida kichik tadbirkorlikdan olingan daromadlarning ulushiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi (4-rasm).



4-rasm: 2022 yilda aholi umumiy daromadlari hajmida kichik tadbirkorlikdan olingan daromadlarning ulushi, foizda[2]

2 Ma’lumot muallif tomonidan stat.uz saytidan olingan

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Ma'lumotlardan ko'rinadiki, 2022-yilda aholi umumiy daromadlari hajmida kichik tadbirkorlikdan olingan daromadlarning ulushi Jizzax (umumiy daromadlarning 66,2 foizi), Namangan (59,8 foiz), Samarqand (59,4 foiz) viloyatlarida eng yuqori darajani tashkil etgan. Qoraqalpog'iston Respublikasi (56,2 foiz), Farg'ona (57,5 foiz), Navoiy viloyatlari (49 foiz) hamda Toshkent shahrida (45,8 foiz) yirik sanoat korxonalari va tashkilotlardagi ish haqi ko'rinishidagi daromadlarning salmog'i yuqoriligi sababli, tadbirkorlikdan olingan daromadlarning ulushi nisbatan past darajada bo'lmoqda.

Tadbirkorlikdan olingan daromadlarning xususiyatli jihatlaridan biri jamiyatda o'rta mulkdorlar qatlamining shakllanishi va rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. O'rta mulkdorlar qatlami mustahkam asosga ega bo'lgan jamiyat esa doimiy barqarorlik va rivojlanishga, mamlakatda tinchlik va osoyishtalikning ta'minlanishiga moyil bo'ladi.

Mamlakatimizdagi innovatsiya jarayonlarini jadallashtirishda kichik biznes korxonalarining o'rni beqiyos. Ayniqsa, taraqqiyotning yangi bosqichida innovatsion o'sish markazlarini yaratish jarayonlari faollashib, erkin iqtisodiy zonalar, kichik sanoat zonalari, ishlab chiqarish klasterlari, texnoparklar va innovatsion biznesning boshqa shakllari paydo bo'lishi bilan mazkur vazifaning ahamiyati yanada oshdi.

Tadbirkorlikning muhim tarkibiy elementlaridan biri – bu innovatsiyalar hisoblanadi. Innovatsiya – bu ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish jarayoniga mahsulot yoki xizmatning iste'mol xususiyatlarini oshiruvchi biron bir yangilikning kiritib borilishidir. O'z ko'lamiga ko'ra kichik bo'lgan korxonalarda yangi texnika va texnologiyalar nisbatan jadallik bilan joriy etiladi, ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalaniladi. Kichik tadbirkorlik sohasi o'z ichiga juda katta inson salohiyatini, bir-biridan qiziqarli va foydali bo'lgan tadbirkorlik g'oyalarini, tashabbuskor va g'ayratli insonlarni oladi. Ushbu salohiyatning keng ro'yobga chiqarilishi pirovardida iqtisodiyotdagi tub islohotlar va muhim sifat o'zgarishlariga olib keladi.

Mamlakatimiz kichik biznes korxonalaridagi innovatsion jarayonlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, agar 2016-yilda joriy qilingan innovatsiyalar soni 818 birlikni tashkil etgan bo'lsa, 2019-yilda bu ko'rsatkich 4083 birlikka yetgan, ya'ni 5 baravar oshgan. Natijada, bu davrda ishlab chiqarilgan innovatsion tovarlar 1671,9 mlrd. so'mdan 8455,4 mlrd. so'mga qadar, ya'ni 5,1 baravar o'sgan.

Shu o'rinda mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish borasida hali foydalanish mumkin bo'lgan ko'plab imkoniyat va salohiyat mavjudligini ta'kidlash lozim. Mazkur imkoniyatlarni jadal va izchil ravishda ishga tushirish mexanizmlarining yaratilishi sohaning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni yanada jadallashtirishdagi ishtirokini oshiradi.

Fikrimizcha, mamlakatimizdagi har 1000 nafar aholiga to'g'ri keluvchi kichik biznes subyektlari sonini xalqaro hamda hududlar bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichlarga yetkazish orqali soha imkoniyatlarini sezilarli kengaytirish mumkin. Bunda, eng avvalo, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning salohiyatidan samarali foydalanishda ushbu ko'rsatkichdan eng muhim indikator sifatida foydalanish maqsadga muvofiq. Chunki, bugungi kunda hududlar bo'yicha tahlil qilinganda, mazkur ko'rsatkich bo'yicha juda keskin tabaqalanishni ko'rish mumkin. Viloyatlar kesimida olganda, eng yuqori ko'rsatkich Toshkent shahrida (32,5 birlik), Navoiy (19,6 birlik), yuqori ko'rsatkichlar Sirdaryo (15,5 birlik), Toshkent (14,9 birlik), Buxoro (13,9 birlik), Jizzax (13,3 birlik) viloyatlarida tarkib topgan. Aksincha, Namangan (9,7 birlik), Qashqadaryo (9,05 birlik) va Surxondaryo (8,8 birlik) viloyatlarida eng past ko'rsatkichlar vujudga kelgan. Ushbu indikator mamlakatdagi ishbilarmonlik muhiti, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash darajasi, tadbirkorlik uchun qulay shart-sharoitlar, imtiyoz va yengilliklarning yaratilishi kabi ko'plab tahlil qilish va reyting baholash ko'rsatkichlarning barchasi uchun qisqa va lo'nda, lekin haqiqiy va aniq holdagi bahoni ifoda etadi. Agar ushbu ko'rsatkichning viloyatlar kesimidagi o'rtachadan past darajadagi (Surxondaryo, Namangan, Samarqand, Xorazm, Andijon, Qashqadaryo, Farg'ona viloyatlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi) qiymatlarini o'rtacha darajaga yetkazilsa (yuqori darajadagi ko'rsatkichlar o'zgarmagani holda), u holda mamlakat bo'yicha kichik biznes korxonalari sonini taxminan 13 foizga qadar o'stirish va buning natijasida har 1000 nafar aholiga to'g'ri keluvchi korxonalar soni 17,6 birlikka qadar oshirish imkoni qo'lga kiritiladi. Agar xorijiy mamlakatlar, jumladan, Yevropa Ittifoqiga a'zo mamlakatlardagi eng quyi ko'rsatkich – 30 birlikka yetkazilsa, ya'ni hozirgi darajasiga nisbatan 2 baravarga oshirilsa, u holda kichik biznes korxonalari soni 800 mingdan oshadi.

Shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning innovatsion jarayonlarning katalizatori sifatidagi rolini kuchaytirish kerak. Buning uchun innovatsion tavsifdagi tadbirkorlik faoliyati uchun rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash choralarini kengaytirish lozim. Yuqorida ta'kidlanganidek, 2016–2019-yillarda joriy qilingan innovatsiyalar soni va ishlab chiqarilgan innovatsion tovarlar qiymati 5 baravar o'sgan. Biroq, xuddi shu davrda texnologik, marketing va tashkiliy innovatsiyalarga qilingan xarajatlar 9 baravardan yuqori bo'lgan. Bu esa, innovatsion jarayonlar natijalariga salbiy ta'sir ko'rsatib, aksariyat kichik biznes subyektlarining ushbu jarayonlarda ishtirok etishga bo'lgan qiziqishni kamaytiradi. Shunga ko'ra, innovatsion tavsifdagi kichik biznes faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish jarayonlarining muntazam monitoringini yo'lga qo'yish hamda, dastlabki bosqichda, ularning moliyaviy ta'minotini subsidiyalash orqali iqtisodiyotdagi mustahkam bazasini shakllantirish muhim hisoblanadi.

Yana bir jihat, kichik biznesning tashqi iqtisodiy faoliyatdagi ishtirokini faollashtirish hisoblanadi. Bu borada sohaning 2022-yilda jami eksportdagi ulushi 29,6% ni tashkil etgani holda, jami importdagi ulushi 49,4%ni tashkil etgan. Hozirda mamlakatimizda eksport bilan shug‘ullanuvchi kichik tadbirkorlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash borasida chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Biroq, shunga qaramasdan, ko‘p holatlarda kichik eksportyor korxonalar favqulodda holatlarga, turli muammolarga duch kelmoqdalar. Fikrimizcha, kichik biznes korxonalari tashqi savdo faoliyatining maxsus infratuzilmasini talab darajasida rivojlantirish mazkur masalalarning ijobiy yechimi hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o‘rnida ta’kidlash lozimki, mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta’minlashning muhim yo‘nalishi sifatida e’tibor qaratilib, sohani yanada rivojlantirish bo‘yicha manzilli va ta’sirchan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O‘z navbatida, bunga javoban mazkur soha ham iqtisodiyotimizning turli jabhalarida o‘zining bunyodkorlik va yaratuvchanlik, faollik va jo‘shqinlik baxsh etuvchi xususiyatlarini namoyon etib, yangi O‘zbekistonning taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ж. Б. Кнар Р аспредление богаства. – М ., 1994. – 40-6.
2. Kichik biznes va tadbirkorlik: M.R. Boltaboyev (va boshq.); 0 ‘zR Oliy va o‘rta-maxsus ta’lim vazirligi. – T.: Noshir, 2011. – 280 b.
3. “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni. T.: O‘zbekiston, 2012.
4. Малый бизнес: Учебное пособие / кол. Авторов; под ред. В.Я. Горфинкеля. - М.: КНОРУС, 2009. – 336 с.
5. Березин И. С. Маркетинговый анализ. Рынок. Фирма. Товар. Продвижение. М.: Вершина, 2008. – 480 с.
6. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi rasmiy veb sayti, www.stat.uz.
7. https://data.imf.org/?sk=4c514d48-b6ba-49ed-8ab9-52b0c1a0179b&sid=1409151240976

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

RECREATIONAL POTENTIAL OF UZBEKISTAN AND PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF WELLNESS TOURISM IN THE COUNTRY

Amonboyev M.
Ph.D., associate professor, International Nordic University Vice Rector for Academic Affairs

Shaymanova Nigora Yusupovna
PhD student of Tashkent State University of Economics

Abstract: This article analyses the recreational potential of Uzbekistan. The concepts of medical tourism and wellness tourism have been studied. The results of the Social Survey conducted on the topic were analyzed. Proposals and recommendations for the further development of medical-health tourism in the country have been made.

Key words: recreation, medical tourism, wellness tourism, tourism resources, health tourism, leisure tourism, social survey.

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonning turizm salohiyati tahlil qilinadi. Tibbiyot turizmi va sog‘lomlashtirish turizmi tushunchalari o‘rganildi. Mavzu bo‘yicha o‘tkazilgan ijtimoiy so‘rov natijalari tahlil qilindi. Mamlakatimizda tibbiy-sog‘lomlashtirish turizmini yanada rivojlantirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar bildirildi.

Kalit so‘zlar: dam olish, tibbiy turizm, turizm, turizm resurslari, sog‘lomlashtirish turizmi, dam olish turizmi, ijtimoiy so‘rov.

Аннотация: В данной статье анализируется рекреационный потенциал Узбекистана. Изучены понятия медицинского туризма и оздоровительного туризма. Проанализированы результаты социального опроса, проведенного по данной теме. Сделаны предложения и рекомендации по дальнейшему развитию лечебно-оздоровительного туризма в стране.

Ключевые слова: рекреация, медицинский туризм, оздоровительный туризм, туристические ресурсы, оздоровительный туризм, развлекательный туризм, социальный опрос.

INTRODUCTION

The field of tourism in Uzbekistan is distinguished by its wide potential and, even though it is young compared to other developing fields, it is making significant progress. Our country is a region where almost all types of tourism can be developed due to the abundance of tourist resources. The uniqueness of the climate and the beautiful nature provide ample opportunities for the development of one of the most important areas of tourism in the country - recreation tourism. Recreational tourism differs from other types of tourism in that it has health benefits.

The attention and legal support given by our state create conditions for the further development of health tourism. It is worth noting that the health of the nation is formed by the health of each person, which is characterized by working ability and an active lifestyle. Thus, people’s physical and mental health is a priority strategic monitoring object for the state. The overall health of the nation directly affects the economic and political situation in the country, as well as the development of the state in general.

LITERATURE REVIEW

The importance of health tourism is that it is the most effective means of strengthening the body, recreation, and physical and mental strength. Although medical and wellness tourism is one common concept, the tasks of medical tourism and wellness tourism are separate. According to the definition given by the Medical Tourism Association, “Medical tourism is the travel of people living in one country to another country to receive medical, dental and surgical care. At the same time, they receive care equal to or better than the medical treat-

ment in their home country. “Domestic medical tourism” is when people living in one country travel to another city, region, or state to receive medical, dental, or surgical care while receiving the same, or more, access to health care than they would in their home city. improve, or travel for medical care because of the high level of quality of medical care.” [1]

Medical tourism specialist Dr According to the definition given by Prem Jagyi: “Medical tourism is the travel of people, often over long distances or across borders, for the direct or indirect use of medical services for leisure, business or other purposes. is a complex of trips.” [2]

Health tourism was promoted by Dr P. Jagyasi: “Wellness tourism is the process by which a traveller pursues a special trip to improve or promote their health and well-being. Tourists stay at a destination where they are offered a variety of healthful physical activities, recreational activities and a full range of nutritious food. As more and more people actively seek to improve their health, the health tourism industry has seen rapid growth.” [3]

Summarizing the above points, medical and health tourism can be defined as follows: both of these types of tourism offer health care solutions. Wellness tourism can serve as a continuation of medical tourism after a complete recovery has occurred.

RESEARCH METHODOLOGY

Scientific works of scientists were studied in the research work. The recreational potential of Uzbekistan was analyzed. The population’s needs for recreation were studied with the help of a questionnaire.

ANALYSIS AND RESULTS

The wealth of recreational resources such as the beautiful landscape, unique and magnificent mountains, beautiful and charming waterfalls, and climate of our country makes this place extremely attractive and allows for the development of any type of tourism. The presence of recreation centres, medical treatment centres, and rehabilitation centres for local and foreign tourists to improve and restore their health is evidence of the state’s support for the development of the tourism industry in our country. It is worth noting that effective work is being done by representatives of the field to develop medical infrastructure and services in Uzbekistan. Due to the development of healthcare institutions, the country has the opportunity to develop medical tourism. Specialised clinics and health resorts contribute more to the development of medical tourism.

Currently, more than 100 sanatoriums and children’s camps are operating in our country. Operating sanatoriums accept vacationers according to their speciality. They differ in their speciality, treatment methods, and services they offer. (Table 1)

Table 1: Types of sanatoriums according to specialisation. Author’s development based on Internet data

Balneological	Treatment with mineral waters. Patients take various baths, and procedures and drink mineral water. Such sanatoriums are usually located near mineral water sources.
Mud therapy	The main focus here is mud treatment. Peloids (healing clay) are used in the form of wraps or baths.
Climatic	In such places, the unique features of the local climate are used: sea, mountain, and forest air. Staying in a certain climate zone can have a positive effect on the body.
Physiotherapy	They offer treatment using physical factors: ultrasound, laser, magnets, currents, etc
Prophylactic	These institutions are aimed at prevention of diseases, recovery from diseases and promotion of health.
Specialised	These are institutions aimed at the treatment of certain diseases or a group of diseases, for example, sanatoriums for the treatment of cardiovascular, respiratory, and musculoskeletal diseases, etc.
Children’s recreation centres	Specially adapted for the treatment and recreation of children. Here attention is paid not only to medical but also to entertainment and educational aspects.

The main goal of sanatorium-resort treatment is to improve the protective mechanism of the human body and prevent diseases - prevention, or the post-disease stage - the rehabilitation process.

In recent years, the demand of the population for the recreation type of tourism in Uzbekistan has been increasing. To study their needs and interests in recreation, a social survey was conducted among the citizens. 105 (50.5%) men and 103 (49.5%) women participated in the survey. The participants consisted of representatives of various fields, that is, teachers, doctors, students, entrepreneurs, retired people and other fields. To

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

find out which regions of the population rested in the sanatoriums, the % indicators were added to the question asked in the questionnaire:



Diagram 1: A social survey was conducted by the author on the topic "Prospects for the development of recreational tourism in Uzbekistan".

According to the answers given by the survey participants, it can be seen that the demand for sanatoriums and recreation centres in the Tashkent region is much higher than others. Sanatoriums in the Fergana Valley have a low percentage in the survey, but they are in the leading positions in the list of the best sanatoriums in the republic. In addition, regions such as Tashkent and the Fergana Valley have a long tradition of sanatoriums and spas. The development of modern health facilities can attract local and international tourists who want relaxation and rehabilitation services after medical treatments. In the next places, the "Zomin" sanatorium of the Jizzakh region and the "Miraki" recreation centres of the Kashkadarya region are in high demand.

If we analyze the next diagram taking into account the age indicators of the survey participants, 67.5% of the respondents preferred to rest in entertainment centres organized on the mountain slopes. 19.2% of the participants said that they prefer to rest in sanatoriums. It can be seen from this that the activities of entertainment resorts organized in mountainous regions are well-established and in high demand.



Diagram 2: A social survey was conducted by the author on the topic "Prospects for the development of recreational tourism in Uzbekistan".

CONCLUSIONS AND SUGGESTIONS

Uzbekistan has a rich history of folk medicine, including herbal remedies. Integrating traditional medical practices with modern medical facilities can make the country a holistic healthcare destination.

Establishing rehabilitation centres focused on medical tourism can help people who want to recover after surgery or injuries in a peaceful environment.

To further improve the service quality of sanatoriums operating in Uzbekistan and to constantly advertise information about their activities in mass media and social networks.

List of used literature:

1. http://www.medicaltourismassociation.com/en/medical-tourism-faq-s.html.
2. Prem Jagyasi, “Defining Medical Tourism – Another Approach,” Medical Tourism Magazine, July 15, 2008, http://www.medicaltourismmag.com/issue-detail.
3. Dr. Prem Jagyi, Wellness Tourism Guidebook, http://www.drprem.com/wellness-tourism-guide/what-is-wellness-tourism.html.
4. https://www.goldenpages.uz/uz/rubrics/?Id=1665
5. Очилова Х. Ф., Амонбоев М., Дехконов Б. Р. Развитие внутреннего туризма для восстановления отрасли после пандемии //Заметки ученого. – 2020. – №. 12. – С. 242-247.
6. Rustamovich D. B. Quality and safety of public catering services in Uzbekistan //European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630)(2021/5/23). – С. 19-23.
7. Rustamovich D. B. Financing Domestic Tourists And Export Of Tourism Services //fan, ta’lim, madaniyat va innovatsiya jurnali| Journal of science, education, culture and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. 3. – С. 35-37.
8. Kazakov, S. and Oyner, O. (2021), “Wellness tourism: a perspective article”, Tourism Review, Vol. 76 No. 1, pp. 58-63. https://doi.org/10.1108/TR-05-2019-0154
9. Amonboev, M., & Khalilov, S. S. (2019). Main directions and prospects for the development of the tourism industry. Economics and Innovative Technologies, 2019
10. Marta Peris-Ortiz, José Álvarez-García DOI https://doi.org/10.1007/978-3-319-11490.
11. Amonboev, M. (2020). Prospects of tourism industry development.
12. Ochilova, Khilola Farmonovna, Mukhamadsidik Amonboev, and Burkhan Rustamovich Dekhkonov. “Развитие внутреннего туризм для восстановления отрасли после пандемии.” Заметки ученого, 12 (2020): 242–247.
13. Shaymanova Nigora Yusupovna. Recreational tourism in the countries of Central Asia. Green economy and development. Electronic publication. 714 pages, October 30, 2023.

YASHIL MARKETING: TUSHUNCHASI, MOHIYATI, KELIB CHIQISHI, MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI

G‘anieva Madina Bunyodali qizi
TDIU magistranti

Ziyayeva Muhtasar Mansurdjanovna
TDIU Marketing kafedrasi v. v. b. professori

Annotatsiya: Globallashgan davrda, iste’molchilarning ehtiyojlarini tobora ortib borayotgan xilma hil mahsulot va xizmatlar bilan qondirish barobarida atrof-muhitni muhofaza qilish muhum hisoblanadi. Bundan tashqari, iste’molchilar ana’naviy mahsulotlardan ko‘ra atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan ekologik toza mahsulotlarga nisbatan xohish-istaklari o‘zgargan. Shu sababli barqaror rivojlanishning universal maqsadi bo‘lgan yashil marketingning ahamiyati ortib bormoqda. Ushbu ilmiy maqolada yashil marketingning tushunchasi, konsepsiyasi, evalyutsiyasi, duch keladigan muammolari va kelajak istiqbollari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: yashil marketing, barqarorlik, yashil marketing evalyutsiyasi, yashil marketing mikslari.

Abstract: In the era of globalization, it is important to protect the environment while meeting the needs of consumers with an increasing variety of products and services. In addition, consumers’ preferences for environmentally friendly products, which do not harm the environment, have changed. Therefore, the importance of green marketing, which is a universal goal of sustainable development, is increasing. This research paper examines the concept, concept, evaluation, challenges and future prospects of green marketing.

Key words: green marketing, sustainability, green marketing evaluation, green marketing mix.

Аннотация: В эпоху глобализации важно защищать окружающую среду, одновременно удовлетворяя потребности потребителей с помощью растущего разнообразия продуктов и услуг. Кроме того, изменились предпочтения потребителей в отношении экологически чистой продукции, не наносящей вреда окружающей среде. Поэтому важность зеленого маркетинга, который является универсальной целью устойчивого развития, возрастает. В этом исследовательском документе рассматриваются концепция, концепция, оценка, проблемы и будущие перспективы зеленого маркетинга.

Ключевые слова: зеленый маркетинг, устойчивость, оценка зеленого маркетинга, комплекс зеленого маркетинга.

KIRISH

XX asrda turli ekologik muammolar, jumladan, dunyoning global isishi, tabiiy resurslardan noto‘g‘ri foydalanish, havo ва suvning ifloslanishi, o‘rmonlarning qisqarishi, ozon qatlamining yemirilishi va boshqa muammolar avj olib borayotgan bir paytda, tadqiqotchilar va olimlar ushbu muammolarni bartaraf etish bilan birgalikda iste’molchilarning talabini atrof-muhitga minimal tasiri orqali qondirish usullarini o‘rganishga ahamiyat qaratilgan. Natijada 1980-yillar oxiri 1990-yillarning boshida “yashil” marketing, deb nomlangan yangi konsepsiya paydo bo‘lgan. Yashil marketing bu ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish, uni rag‘batlantirish, ekologik toza mahsulotlarni taqsimlash va asosiysi atrof-muhitni salbiy ekologik ta’sirlardan asrash kabi faoliyatlarni o‘z ichiga oladi. Ana’naviy marketing ko‘proq foyda olishga qaratilgan bo‘lsa, yashil marketingda ijtimoiy yo‘naltirilganlik ustunlik qiladi. 21 asrga kelib iste’molchilarning eko mahsulotga bo‘lgan tushunchalari kengayib, ana’naviy mahsulotlardan ko‘ra ko‘proq eko mahsulotlarga nisbatan talab darajasi oshib borishi kuzatilgan.

ADABIYOTLAR SHARHI

Yashil marketing iqlim o‘zgarishi muammosiga qarshi kurashish uchun amalga oshishi aniq bo‘lgan strategiyaga aylanib borayotgani innovatsiya [1]. Barqaror taraqqiyot atamasi 21-asrda asosiy mavzu sifatida paydo bo‘lishi bilan yashil marketing uzoq muddatda marketing strategiyasi va amaliyotiga ta’sir qilishda davom etishi kutilmoqda [2]. Korporativ darajada kompaniyalar o‘z bozorlarini kengaytirish, bozor ulushini oshirish va dastlabki muvaffaqiyatli yashil brendlarning ijobiy imidjidan foydalanish maqsadida global yashil marketing strategiyalarini boshlashlamoqda. Shuningdek, global isish, iqlim o‘zgarishi va yashil iste’molchilik tendentsiyasi ekologiyaga qiziqishni kuchaytirishi va yashil marketing amaliyotlarini uyg‘unlashtirishga qaratilgan sa’y-harakatlarni davom ettirishi nazarda tutilgan [3]. Bundan tashqari, yashil marketing konsepsiyasi yashil iqtisodiyotga o‘tishi kutilayotgan megatrend bo‘lib, global iqtisodiy tizimlarning kelajakdagi ko‘rinishini o‘zgartirishi kutilmoqda [4]. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit bo‘yicha dasturi (UNEP) yashil iqtisodiyotni iqtisodiy o‘sish va ijtimoiy tenglikni yaxshilash, shu bilan birga, ekologik xavflarni sezilarli darajada kamaytiruvchi omil sifatida aniqladi. Yashil iqtisodiyot yashil ish o‘rinlarini yaratish orqali iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishi va global iqtisodiyotni ekologik muvozanatga yo‘naltirishi rejalashtirilgan [5]. Umuman olganda, kelgusi o‘n yillikda yashil marketing dolzarb bo‘lib qoladi.

METODOLOGIYA

Ilmiy adabiyotlarda keltirib o‘tilgan holatlarni inobatga olgan holda, ushbu maqola yashil marketing tushunchasiga bo‘lgan ilmiy kategoriyalar va yondashuvchilar ko‘rib chiqiladi. Yashil marketing evalyutsion rivojlanishini zamonaviy marketing konsepsiyalari bilan uyg‘un holda aks etganligini asoslanaidi. Evolyutsion bosqichlarni nazarda tutgan holda yashil marketing strategiyalarini ishlab chiqish bo‘yicha uslubiy yondashuvlar o‘rganiladi va o‘ziga xos jihatlari aniqlanadi. So‘nggi bosqichda esa yashil marketing strategiyalaridan foydalanish bo‘yicha ilmiy takliflar beriladi.

1-rasm: Metodologik asos[1]

TAHLIL VA NATIJALAR

Yashil marketing tushunchasi

Yashil marketing mavzusi butun dunyo bo‘ylab dolzarb bo‘lib borayotganligi va keng qo‘llanilishiga qaramay, uni tasvirlaydigan aniq bir atama mavjud emas. Shu sababli ushbu atamani har tomonlama tushunish uchun boshqa tadqiqotchilarning yashil marketingga bergan tariflarini ko‘rib chiqish muhimdir.

Jumladan, Amerika marketing assotsiatsiyasi tomonidan berilgan ta’rifga ko‘ra, yashil marketing bu – ekologik xavfsiz mahsulotlar va xizmatlar marketingidir. Maykl Polonsky Jay tomonidan “Yashil marketingga − inson ehtiyojlari va xohishlarini tabiiy muhitga minimal salbiy ta’sir orqali qondirishga qaratilgan har qanday ayriboshlashni yuzaga keltiradigan va unga ko‘maklashadigan barcha faoliyatlarni o‘z ichiga oladi”, degan ta’rif berilgan [6].

1 Muallif ishlanmasi

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Boshqa adabiyotlarda yana bir bor Maykl Polonsky Jay tomonidan “Yashil marketing tushunchasiga “atrof-muhitni muhofaza qilishga yordam beradigan tarzda mahsulotlarni ishlab chiqarish, targ‘ib qilish, narxlash va taqsimlash bo‘yicha korxonalar tomonidan bajariladigan harakatlar majmuidir”, deb ta’riflangan [7].

Dr. Karolos-Konstantinos Papadas va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqiotlarda “Yashil marketing” tushunchasiga yaxlit boshqaruv jarayoni sifatida yondashib, tahlil, bashorat qilish, shu bilan birga, iste’molchilar ehtiyojlarini jamiyat uchun barqaror va foyda keltiradigan yo‘li orqali qondirishga qaratilgan faoliyat sifatida ta’riflagan [8].

1- jadval: Ana’naviy marketing va yashil marketing prinsiplari[2]

№	Ana’naviy marketing	Yashil marketing
1.	Iste’molchilarni har qanday yo‘l bilan bo‘lsa ham jalb qilish	Mahsulot-xizmat, atrof-muhit uchun xavfsiz bo‘lishi kerak
2.	Atrof-muhit muammolarini rad etgan holda biznes firma uchun ko‘proq foyda olish.	Ishlab chiqarish, rag‘batlantirish, tovarlarni taqsimlashga qaratilgan marketing strategiyalari atrof-muhitga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak.

Yashil marketing konsepsiyasi evolyutsiyasi

Yashil marketingning zamonaviy konsepsiyalarini ishlab chiqish uchun uning evalyutsiyasini tizimli tahlil qilish maqsadga muvofiq. Marketing bo‘yicha Amerikalik professor Ken Peattie yashil marketing evalyutsiyasini uch davrga bo‘lgan.

1-davr. “Ekologik yashil marketing” (“Ecological green marketing”). Atrof-muhit muammolari bilan aloqador bo‘lgan va ekologik muammolarni hal qilish chora-tadbirlarni qamrab olgan soha yashil marketing hisoblanadi. Ekologik marketingni kelib chiqishi 60-yillar oxiri va 70-yillarning boshlarida yuzaga kelgan ijtimoiy va ekologik muammolarga bog‘liq. Butun insoniyat qaram bo‘lgan cheklangan tabiiy resurslarni yirik savdo va xizmat ko‘rsatish sanoat tarmog‘lari tomonidan nazoratsiz isrof qilingani “Ekologik yashil marketing” konsepsiyalarini yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan. Ushbu bosqichda havoning ifloslanishi, neft zaxiralari iste’molini ortishi, neft chiqindilari va sintetik pestidsidlarning ta’siri kabi ekologik muammolarni keltirib chiqaruvchilarni yashil mahsulotlarga o‘tkazishga asosiy e’tibor qaratilgan [9,10].

2-davr. “Atrof-muhit yashil marketingi” (“Environmental green marketing”). Atrof-muhitga ijobiy ta’siriga ega eko mahsulotlar ishlab chiqarish va chiqindilar bilan bog‘liq muammolarni hal qilishga qaratilgan yashil marketing konsepsiyasidir. Yashil marketingning ushbu bosqichi 1980−1990-yillarni qamrab olgan bo‘lib, bu davr yashil marketing evolyutsiyasi uchun muhum hisoblanadi. Bu davrda sodir bo‘lgan tabiiy ofatlar va ularning butun dunyo bo‘ylab salbiy natijalari iste’molchilarni kelajak avlod uchun tabiatni saqlash haqida o‘ylashga undadi. Jumladan, 1984-yilda bo‘lgan Bhopal falokati jahon tarixidagi eng katta kimyoviy falokat sifatida aniqlangan. 1986-yildagi Chernobil halokati, 1989-yilda Exxon Valdes tanker tomonidan neftning to‘kilishi va 1995-yilda kuzatilgan ozon qatlamining yemirilishi, bularning barchasi iste’molchilarning atrof-muhit haqidagi tasavvurlari va xatti-harakatlarida tub o‘zgarishlarga olib keldi [11,12].

Ekologik yashil marketing bosqichi sotuvchilar uchun va marketingning o‘zi uchun ham muhim. Chunki asosiy e’tibor nafaqat sanoat sohalari va ular tomonidan yetkazilgan zararga, balki uyda ishlatiladigan mahsulotlarning (tozalovchi mahsulotlar, qog‘oz, kosmetika) atrof-muhitga ta’siriga ham qaratilishi lozim. Shuning uchun, yashil marketingning ikkinchi bosqichi iste’molchilar xulq-atvoridagi o‘zgarishlar va ekologik toza mahsulotlar bozorini kengaytirish uchun juda muhim bo‘lgan.

3-davr. “Barqaror yashil marketing” (“Sustainable Green marketing”). Barqaror yashil marketing 2000-yillardan keyin paydo bo‘lgan. Mazkur konsepsiyada tabiy resurslardan oqilona foydalanish tushunilinadi. 2000-yilda, Fuller birnchi bo‘lib “Barqaror yashil marketing” atamasini rejalashtirish jarayoni, amalga oshirish, nazorat qilish va narxni belgilash sifatida aniqladi. Mahsulotlarni uchta mezon bo‘yicha taqsimlagan, bular: iste’molchilar ehtiyojlarini qondiruvchi, tashkilotning maqsadlariga erishuvchi va butun jarayonni atrof-muhitni asragan holda rivojlantiradigan vositalar [13].

Mazkur konsepsiyalar yashil marketing strategiyalarini ishlab chiqish va strategik dastaklarni aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu konsepsiyalar doirasida shakllangan marketing strategiyalari mijozlar xulq-atvorini yashilikka va barqarorlikka o‘zgartirishga qaratilgan.

2 Muallif ishlanmasi

Yashil marketing strategiyalari

Yashil marketing miksi ana'naviy marketing miksidan uslubiyati va qay tarzda amalga oshirilishi jihatidan farq qiladi. Yashil marketing barcha marketing faoliyatlarini va jarayonlarini atrof-muhitni muhofaza qilish va ijtimoiy natijalarga ko'proq yo'naltiradi, jumladan: yashil mahsulot (Green product); yashil narx (Green price); yashil joy (Green place); yashil rag'batlantirish (Green promotion).

Yashil mahsulot - Marketing 4P miksining birinchi tarkibiy qismidir. Yashil mahsulot – "eko mahsulot" (green product) va "ekologik toza mahsulot" (Environmentally friendly product) kabi terminlar bilan nomlangan bo'lib, bu terminlar energiyani va resurslarni tejash, ifloslanish va chiqindilar kabi zararli omillarni kamaytirish orqali tabiiy atrof-muhitni himoya qilish nazarda tutiladi. Yashil mahsulot – suvni, havoni, tabiiy resurslarni asrashga qaratilgan bo'ladi. Ekologik toza mahsulotni (green product) ishlab chiqarish, taqsimlash va sotishning o'ziga hos xususiyatlari mavjud:

- Atmosferaga zararli bo'lmagan, biologik tez parchalanadigan yoki tabiiy materiallardan va qayta tiklanadigan manbalardan mahsulotlar ishlab chiqarish;
- Ishlab chiqarish jarayonida hosil bo'lgan chiqindilar miqdorining minimal darajaga tushurish yoki umuman yo'qotish;
- Mahsulot tarqatish jarayonida CO_2 emissiyasining minimal bo'lishi;
- Eko markali bo'lishi;
- Kam energiya ishlatadigan va hamyonbop bo'lishi;
- Ifloslanishni kamaytirishga yordam beradigan, ekologik toza qadoqlarga ega mahsulotlar ishlab chiqarish;
- Resurslardan oqilona foydalangan holda ishlab chiqarilgan mahsulotlar;
- Barqarorlik shartlariga tayangan mahsulotlar.

Goyal va boshqa tadqiqotchilarning yashil mahsuloti (mahsulotni qadoqlash) 3R konsepsiyasiga muvofiq bo'lishi kerak. Kamaytirish, qayta foydalanish, qayta ishlash − iloji boricha kamroq material sarflash, qayta ishlanadigan va qayta foydalaniladigan bo'lishligi (2-jadval)

2-jadval: Yashil mahsulotning 3R konsepsiyasi [14]

3R konsepsiyasi	Ta'rifi
Kamaytirish (Reduce)	Mahsulot ishlab chiqarish davomida zaharli moddalarni va qayta tiklanmaydigan resurslarni iste'molini kamaytirish.
Qayta foydalanish (Reuse)	Mahsulot dizaynini takomillashtirish orqali qayta foydalanish.
Qayta ishlash (Recycle)	Foydalanish va qayta foydalanish uchun chiqindilarni yangi mahsulotlarga aylantirish maqsadida qayta ishlash.

Yashil marketingda narx − yashil marketingda boshqa komponentlarga qaraganda narx (Green price) eng muhim hisoblanadi. Ekologik toza mahsulot ishlab chiqarilayotganda, mahsulotning narxi iste'molchilar uchun hamyonbop va oqilona bo'lishligi va xaridorni sotib olayotgan mahsuloti asosliligiga ishontira olishi kerak bo'ladi. Yashil marketingda narxning maqsadi samaradorlikni oshirish, kampaniya uchun foyda keltirish bilan birgalaikda, odamlar va sayyora haqida ham qayg'urishi kerak.

Yashil marketingda joy (green place) − barqaror marketingda joy e'tiborga olinishi kerak bo'lgan muhum omil. Yashil marketinda joy (place) – logistika boshqaruvidagi transport emissiyasi va uglerod izlarini kamaytirishni maqsad qiladi. Iste'molchilar qiynalmay sotib olishlari uchun global bozorlarda ekologik toza mahsulotlar doimiy mavjud bolishi kerak.

Yashil marketingda rag'batlantirish (green promotion) − yashil marketingda targ'ibot ishlari (siljitish, rag'batlantirish) ko'pincha atrof-muhitga e'tiborli iste'molchilarning ehtiyojlariga qaratila taqdim etilgan reklamalar bilan bog'liq bo'ladi. Yashil reklamalarni reklama vositalaridan foydalanadigan marketing sifatida belgilanadi, jumladan, ekologik tozalikka asoslangan materiallar, belgilar, kitoblar, veb-saytlar, jamoatchilik bilan aloqalar (PR), savdo tashviqotlari, to'g'ridan to'g'ri marketing, reklama kompaniyalari va videolar.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

1- jadval: Ana'naviy marketing va yashil marketing mikslari orasidagi farqlar [15,16]

4:00 TK	Ana'naviy marketing	Yashil marketing
Mahsulot	Mahsulot va uning xususiyatlari majmui iste'molchilarning ehtiyojlarini qondirish uchun ishlab chiqiladi va takomillashtiriladi.	Atrof-muhitga minimal zarar bilan ishlab chiqiladigan mahsulot va uning xususiyatlari to'plami iste'molchilarning ehtiyojlarini qondirish uchun 3R konsepsiyasiga mos keladi.
Narx	Narxlar mahsulot qiymatiga, Ana'naviy mahsulotni ishlab chiqarish bilan bog'liq xarajatlarga va iste'molchining belgilangan narxni to'lash qobiliyatiga asoslanadi.	Narxni aniqlash mahsulot qiymatiga, ekologik toza mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq xarajatlarga va iste'molchilarning belgilangan narxni to'lashga tayyorligiga asoslanadi.
Joy	Mahsulot sotib olinsa bo'ladigan joy bo'lishligi, instensiv taqsimlash yani mahsulotni ishlab chiqaruvchidan iste'molchiga uzatish.	Mahsulotni sotib olish mumkin bo'lgan joy- mahsulot ishlab chiqariladigan joyda ham, mahsulotni ishlab chiqaruvchidan iste'molchiga yetkazishda ham atrof-muhitning ifloslanishini yo'qligini ta'minlaydigan joy bo'lishligi.
Targ'ib qilish	Iste'molchilarga mahsulot haqida habar berishga, sotib olishni rag'batlantiruvchi va bozorda mahsulot imidjini shakillantirishka qaratilgan aloqa vositalari.	Ekologik toza mahsulotlar haqida xabardorlikni oshiruvchi, iste'molchi xhatti-harakatini atrof-muhitga e'tiborli bo'lishiga va ekologik toza mahsulotlarni tanlashka targ'ib qiluvchi va taqdim etuvchi aloqa vositalari.

Yashil marketingdagi muammolar

Yashil marketing yangi tushuncha. Shuning sababli nafaqat O'zbekiston balki dunyo bo'yicha ko'plab iste'molchilarni eko mahsulot haqida batafsil tushunchaga ega emas. Yangi yashil tushunchalar odamlar anglashi va farqlashi uchun vaqt va harakat talab qiladi.

Standartlashtirish uchun zarurat. Aniqlanishicha, eko kompaniyalar marketingining faqatgina 5% to'liqligicha to'g'ri va mahsulotning ekologik toza ekanligini isbotlovchi standartlashtirishning yetishmasligi mavjud. Hozirgi vaqtda, mahsulotni organik mahsulot sifatida ko'rsatuvchi sertifikatlar ishonchsizligi ham yashil marketingning asosiy muammolaridan biri hisoblanadi. Agar nazorat qiluvchi organlar sertifikatlarni taqdim etishda mas'uliyatli ishtirok etmasa, ishonchli vositalar bo'lmaydi. Bunday markalash va litsenziyalash uchun standart sifat nazorati kengashi mavjud bo'lishi kerak [17].

Xarajat omillari. Yashil marketing eko mahsulot va xizmatlarni, eko texnalogiyalarni, yashil energiyalarni o'z ichiga olibgina qolmay, tadqiqot va ishlanma dasturlarga ko'p pul sarflashni talab qiladigan marketing hisoblanib, bu esa xarajatlarning oshishiga olib keladi.

Mijozlarni ko'ndirish. Iste'molchilar kompaniyaning yashil marketing strategiysiga ishonmasliklari mumkin. Shu sababli, kompaniya mijozlarni yashil mahsulotiga mijozlarni ishontirishi anglatishi uchun barcha mumkun bo'lgan choralarni ko'rishlari kerak bo'ladi [18].

Barqarorlik. Qayta tiklanadigan mahsulotlar va eko texnalogiyalar qimmat bo'lib dastlabki yutuqlar minimal bo'lishi kuzatiladi. Yashil marketing faqatgina uzoq mudatda muvaffaqiyatli bo'la oladi. Shuning uchun, biznes kompaniya qisqa muddatli strategiya va qisqa muddatli axloqiy bo'lmagan usullar oraqali foyda olishdan ko'ra uzoq muddatli halol foyda olish strategiyalarini rejalashtirishi va tayyorgarlik ko'rishi kerak [19].

Yashil marketingning afzalliklari

Yashil marketing atrof-muhitdagi raqobatni oshiradi va barqaror rivojlanish bilan birga uzoq muddatli barqaror o'sishni taminlaydi.

Yashil marketing uzoq mudatda pulni va vaqtni tejaydi.

Yashil marketingda ishlab chiqaruvchilar atrof-muhitni degradatsiya qilmagan holda, iste'molchilarga tabiatan ekologik toza mahsulot taqdim etadilar.

Yashil marketing resurslardan oqilona foydalanishga va kelajak avlod uchun resurslarni tejashga yordam beradi.

Yashil marketing mahsulotlarni kelajakda ishlatilinishi mumkin bo'lgan boshqa shakldagi yangi mahsulotga aylantiradi [20].

Yashil marketingni korxonalar tomonidan qo'llanilishining sabablari

Tashkilot va korxonalar yashil marketingni maqsadlariga erishish uchun foydalanish mumkin bo'lgan imkoniyat, deb bilishadi. Ko'plab iste'milchilar ham individual ham sanoat, atrof-muhit uchun ko'proq qayg'uradilar. 1992-yilda 16 mamlakatda o'tkazilgan tadqiqotda Singapurdan tashqari har bir mamlakatdagi iste'molchilarning 50% dan ortig'i atrof-muhit haqida qayg'urishlarini ta'kidlagan. [Ottman 1993]. 1994-yilda

Avstraliyada o‘tkazilgan tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, namunadagilarning 84,6 foizi atrof-muhitga g‘amxo‘rlik qilish mas’uliyati borligiga ishonishadi. Ushbu namunaning yana 80% atrof-muhit sabablari tufayli ular o‘zlarining xatti-harakatlarini, shu jumladan, xarid qilish xatti-harakatlarini o‘zgartirganliklarini ko‘rsatdilar. Talablar o‘zgarganda, ko‘plab firmalar bu o‘zgarishlarni foydalanish imkoniyati sifatida ko‘radi. O‘z navbatida, bu ekologik toza mahsulotlarni sotadigan kompaniyalar boshqa kompaniyalarga nisbatan raqobatbardosh ustunlikka ega bo‘lishini anglatadi [21,22].

Raqobatchilarning ekologik faoliyati firmalarga marketing faoliyatini ekologik marketing faoliyatiga o‘zgartirishga bosim o‘tkazadi. Raqobat bosimi tufayli ko‘plab kompaniyalar atrof-muhit muammolariga e’tibor berishga majbur bo‘lmoqdalar, chunki iste’molchilar avvalgidan ko‘ra ko‘proq xabardor va ma’lumotlidir. Firmalar raqobatchilarning atrof-muhitga nisbatan xatti-harakatlarini targ‘ib qilayotganlarini va bu xatti-harakatlarga taqlid qilishga harakat qilayotganini kuzatishimz mumkun. Ba’zi hollarda, bu raqobat bosimi butun sanoatni o‘zgartirishga va shu bilan uning zararli ekologik xatti-harakatlarini kamaytirishga olib keldi.

Chiqindilarni yo‘q qilish bilan bog‘liq xarajat omillari yoki materiallardan foydalanishning qisqarishi firmalarni o‘z xatti-harakatlarini o‘zgartirishga majbur qiladi. Kompaniyalar xarajat va foyda bilan bog‘liq muammolarni hal qilishlari mumkun bo‘ladi, bu esa ularni yashillikka olib keladi. Kompaniyalar zararli chiqindilarni kamaytirishi mumkin bo‘lgan xarajatlarni sezilarli darajada tejashlari mumkin. Chiqindilarni minimallashtirishga harakat qilganda, firmalar ko‘pincha ishlab chiqarish jarayonlarini qayta ko‘rib chiqishga majbur bo‘lishadi. Bunday hollarda ular ko‘pincha chiqindilarni kamaytiradigan, balki ba’zi xom ashyolarga bo‘lgan ehtiyojni kamaytiradigan yanada samarali ishlab chiqarish jarayonlarini ishlab chiqadilar.

Ijtimoiy mas’uliyat sifatida yashil marketingning ahamiyati katta. Korxonalar atrof-muhitga do‘stona bo‘lish uchun tashabbus ko‘rsatmoqda. Ba’zan u marketing vositasi sifatida ham ishlaydi. Misol uchun, Coca cola kompaniyasi atrof-muhitga o‘z ta’sirini minimallashtirish uchun. turli xil qayta ishlash tadbirlariga katta miqdorda mablag ‘sarflaydi va coca cola siropini plastik idishlarga emas, to‘g‘ridan to‘g‘ri bochkalarga quyadi. Macdonald restoranining salfetkalari va paketlari qayta ishlangan qog‘ozlardan tayyorlanayotgani ham bunga misol bo‘ladi.

4-jadval: Yashil marketingning kelajakdagi yo‘nalishlariga ta’sir qiluvchi omillar [23]

Omillar	Sharhi
Aholining o‘sishi	2050-yilga kelib, dunyo aholisi 9 milliardga yetishi, atrof-muhitga ko‘proq salbiy ta’siri kutilmoqda.
Ishsizlik	Dunyo bo‘ylab taxminan 1,3 milliard odam atrof-muhit bilan bog‘liq sohalarda ishlaydi qishloq xo‘jaligi va baliqchilik kabi ish joylari atrof-muhitning buzilishi, qurg‘oqchilik va iqlim o‘zgarishi natijasida ish joylarini yo‘qotishi mumkin.
Salomatlik	Salomatlik hayot sifatining asosiy ko‘rsatgichi. Shu sababli, organik mahsulotga bo‘lgan talab o‘sishi kutilmoqda.
Ekotizimga zararlar	Atrof-muhit degradatsiyasining kuchayishi, agar hal etilmasa, kelajak avlodlar farovonligi ta’sir qiladi.
Oziq ovqat tanqisligi	Iqlim o‘zgarishi rivojlanayotgan mamlakatlarda oziq-ovqat ishlab chiqarishni 16 foizgacha qisqartirishi mumkin, natijada oziq-ovqat taqchilligi global oziq-ovqat narxlarining oshishiga olib keladi.
Yoqilg‘i narxlari	Qazib olinadigan yoqilg‘ining kamayishi iqtisodiy o‘sishni cheklaydi.

XULOSA

Yashil marketing tabiiy resurslar tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish uchun muqobil energiya manbalaridan foydalanish orqali kelajak avlod uchun atrof-muhitni muhofaza qilish vositasidir. Yashil marketing har qanday kompaniya va biznes firmalar tomonidan qo‘llanilidigan oson tushuncha emas. Yashil marketing strategiyalari ana’naviy marketing strategiyalaridan farqli ravishda strategiya maqsadlariga uzoq muddatda erishadi. Ammo muhum tarafi shundaki uzoq muddatda u atrof-muhitga, shuningdek, biznes firmalari va jamiyatga ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi. Atrof-muhitning yomonlashishi, resurslardan noto‘g‘ri foydalanish, global isish va iqlim o‘zgarishi kabi ekologik muammolarning kuchayishi bilan kompaniya jamiyat manfaati uchun yashil turmush tarzini qabul qilishi kerak bo‘ladi. Yashil marketingni qo‘llash zarurati bor, chunki mijozlarning yashil mahsulotlarga munosabati va afzalliklari o‘zgargan va mijozlar ko‘proq yashil mahsulotlarga talabchan. Tabiiy resurslarni saqlash va ekologik muammolarni hal qilish uchun yashil strategiyani qabul qilish zarur. Yashil marketing barqaror rivojlanish uchun yechimdir.

O‘zbekiston sanoati barobarida, balki yashil marketing strategiyalari butun dunyoda qo‘llanilishi kerak. Yuqoridagi tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, yashil marketing global bozorga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Foyalanilgan adabiyotlar:

1. FuiYeng W., Yazdanifard R. Green marketing: A study of consumers' buying behavior in relation to green products // Global Journal of Management and Business Research: E Marketing. – 2015. – T. 15. – №. 5. – C. 16-23.
2. Ottman R. et al. Comorbidities of epilepsy: results from the Epilepsy Comorbidities and Health (EPIC) survey //Epilepsia. – 2011. – T. 52. – №. 2. – C. 308-315.
3. Lee et al.,2013. PRIOR RESEARCH ON GREEN MARKETING AND GREEN MARKETING STRATEGY: CRITICAL ANALYSIS
4. Belz F. M., Peattie K. Sustainability marketing: A global perspective. – John Wiley & Sons, 2012.
5. Belz F. M., Peattie K. Sustainability marketing: A global perspective. – John Wiley & Sons, 2012
6. Lee et al.,2013 PRIOR RESEARCH ON GREEN MARKETING AND GREEN MARKETING STRATEGY: CRITICAL ANALYSIS
7. GREEN MARKETING "IT'S IMPACT ON GLOBAL MARKET" Pragati Singh1 Dr. Anjani Kumar Research Scholar Assistant Professor. International Journal of Novel Research and Development (www.ijnrd.org). 49 page.
8. Analysis of the Conceptual Frameworks of Green Marketing. Deimena Kiyak and Rasa Grigoliene. page 5.
9. Analysis of the Conceptual Frameworks of Green Marketing. Deimena Kiyak and Rasa Grigoliene. page 5.
10. GREEN MARKETING "IT'S IMPACT ON GLOBAL MARKET" Pragati Singh1 Dr. Anjani Kumar Research Scholar Assistant Professor. International Journal of Novel Research and Development (www.ijnrd.org). 50.
11. Analysis of the Conceptual Frameworks of Green Marketing. Deimena Kiyak and Rasa Grigoliene. 3.
12. GREEN MARKETING "IT'S IMPACT ON GLOBAL MARKET" Pragati Singh1 Dr. Anjani Kumar Research Scholar Assistant Professor. International Journal of Novel Research and Development (www.ijnrd.org). 50.
13. Analysis of the Conceptual Frameworks of Green Marketing. Deimena Kiyak and Rasa Grigoliene. 4
14. GREEN MARKETING "IT'S IMPACT ON GLOBAL MARKET" Pragati Singh1 Dr. Anjani Kumar Research Scholar Assistant Professor. International Journal of Novel Research and Development (www.ijnrd.org). 51.
15. Goyal, S.; Esposito, M.; Kapoor, A. Circular economy business models in developing economies: Lessons from India on reduce, recycle, and reuse paradigms. Thunderbird Int. Bus. Rev. 2018, 60, 729–740. [CrossRef]
16. Thabit, T.H.; Raewf, M.B. The Evaluation of Marketing Mix Elements: A Case Study. Int. J. Soc. Sci. Educ. Stud. 2018, 4, 100–109.
17. Lahtinen, V.; Dietrich, T.; Rundle-Thiele, S. Long live the marketing mix. Testing the effectiveness of the commercial marketing mix in a social marketing context. J. Soc. Mark. 2020, 10, 357–375. [CrossRef]
18. GREEN MARKETING IN INDIA: CHALLENGES AND OPPORTUNITIES. Article · May 2022. hiv Jaggarwal Amity University Raipur. 402.
19. Green Marketing: Benefits and Challenges. European Journal of Molecular & Clinical Medicine ISSN 2515-8260 Volume 7, Issue 11, 2020. Mrs. P.Anitha, Dr.C.Vijai. 3018.
20. The relevance of green marketing in the present world Ashok Kumar Sahoo PhD. Scholar in Commerce, Gangadhar Meher University, Sambalpur, Odisha, India International Journal of Academic Research and Development. ISSN: 2455-4197
21. Prospects of Green Marketing Strategies for Sustainable Development in India. Chief Editor Dr.. Mallikarjun, M. Maradi
22. GREEN MARKETING "IT'S IMPACT ON GLOBAL MARKET" Pragati Singh1 Dr. Anjani Kumar Research Scholar Assistant Professor. International Journal of Novel Research and Development (www.ijnrd.org). 52

INNOVATSION MENEJMENT VA RAQAMLI TRANSFORMATSIYALARNI JORIY ETISHNING METODOLOGIK ASOSLARI

Quldoshev Asliddin Tursunovich
PhD., dotsent, Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti
“Ijtimoiy va tabiiy fanlar” kafedrasi mudiri

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarni innovatsiya menejmentidagi rolini oshirish o‘rganildi. Innovatsion menejmentni sanoati rivojlangan xorijiy mamlakatlardagi yirik sanoat korxonalarida joriy etilishi borasidagi tajribalar bayon qilindi. Raqamli texnologiyalar innovatsion menejmentni joriy etishning samarali yo‘llaridan biri ekanligi borasida “tashkiliy javobgarlik va axborot texnologiya”, “raqobat strategiyasi va axborot texnologiya”, “raqobat strategiya”, “xalqaro aloqalar va AT”, “axborot texnologiya va etika”, “zamonaviy korxonalarni boshqarish” umumiy choralar ishlab chiqilgan. Shuningdek, raqamli transformatsiyalarni rivojlantirish orqali innovatsion menejmentni samarali joriy etish bo‘yicha uslubiy asoslar bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli transformatsiya, innovatsiya, texnologik modernizatsiya, innovatsion menejment, axborot tizimlar infratuzilmasi, tashkiliy javobgarlik, raqobat strategiyasi.

Abstract: In this article, the role of digital technologies in innovation management in the development of our country’s economy was studied. The experiences of introducing innovative management in large industrial enterprises in industrially developed foreign countries were described. “Organizational responsibility and information technology”, “competitive strategy and information technology”, “competitive strategy”, “international relations and IT”, “information technology and ethics”, “modern “business management” general measures have been developed. Also, scientific and practical proposals were developed on the methodological basis for the effective introduction of innovative management through the development of digital transformations.

Key words: digital transformation, innovation, technological modernization, innovative management, information systems infrastructure, organizational responsibility, competitive strategy.

Аннотация: В данной статье изучена роль цифровых технологий в инновационном управлении в развитии экономики нашей страны. Описан опыт внедрения инновационного менеджмента на крупных промышленных предприятиях промышленно развитых зарубежных стран. Разработаны общие меры “Организационная ответственность и информационные технологии”, “Конкурентная стратегия и информационные технологии”, “Конкурентная стратегия”, “Международные отношения и информационные технологии”, “Информационные технологии и этика”, “Современное управление бизнесом”. Также разработаны научно-практические предложения по методологической основе эффективного внедрения инновационного управления посредством развития цифровых преобразований.

Ключевые слова: цифровая трансформация, инновации, технологическая модернизация, инновационный менеджмент, инфраструктура информационных систем, организационная ответственность, конкурентная стратегия.

KIRISH

Bilamizki, dunyo tez suratda o‘zgarib bormoqda. Bu o‘zgarishlar ilm-fan, ijtimoiy-siyosiy, ba’zilari esa ekologiyaga bog‘liqdir. Texnologiya, ayniqsa, axborot va kommunikatsion texnologiyalari bu innovatsiya o‘zgarishlarida katta ahamiyat kasb etmoqda.

Kompyuter tizimlaridagi ijobiy o‘zgarishlar tibbiyot, harbiy kuchlar, global miqyosda axborotlarni to‘plash va tarqatish, zamonaviy korxonalarni boshqarishda ham o‘z aksini topdi. Kompyuter tarkibiy qismlari va dasturlarining doimiy rivojlanishi korxonalar faoliyatining tubdan o‘zgarishiga yo‘l ochib berdi: innovatsiya mahsuloti va xizmati turlari vujudga keldi, yangi sanoat tarmoqlari paydo bo‘ldi, eski korxona va yo‘nalishlar yo‘q bo‘lib ketdi. Qayd etilgan o‘zgarishlar bilan bir qatorda texnologiyalar ham iarkib va sifat jihatdan muntazam o‘zgarib bormoqda.

Bugungi jamiyatning faol qatnashchisi bo‘lish uchun siz innovatsiya o‘zgarishlaridan ogoh bo‘lishingiz va qatnashishingiz talab etiladi. Shaxsiy hayotingizda ham, jamiyat bilan munosabatlarda ham yangi yo‘llardan foydalashingiz lozim bo‘ladi. Lekin, shu bilan birga, axborot texnologiyalari yangi turdagi ish faoliyatlari va kasbiy malakani oshirish uchun yaxshi imkoniyatlar yaratmoqda. Bugungi kunda texnologiyalarga oid o‘zgarishlar har daqiqa va soniyada vujudga kelmoqda. Bu o‘zgarishlardan foydalanish uchun biz ularni tushunishimiz va qabul qilishimiz lozim. Shu maqsadda biz axborot texnologiyasini innovatsiya menejmentidagi rolini aniqlash uchun rasmiy ta’rifda emas, balki sodda qilib tushuntirishga xarakat qilamiz.

METODOLOGIYA

Axborot texnologiyasining innovatsiya jarayonlariga ta’sirini yanada yaxshiroq tushunishdan avval bugungi kundagi korxona va shaxsiy faoliyatlarni ko‘rib chiqaylik. Bir shaxsning katta korxonada o‘rta meyordagi menejer sifatida ishlashi mumkin bo‘lgan kunlar o‘tib ketdi. Korxonalarda endi faqat xodimlarni boshqarib axborotni yuqoriga yetkazib berish bilangina shug‘ullanadigan shaxslarga ish qolmadi. Aslida ko‘p korxonalar yaxshi tashkil etilgan tashkiliy tarkibga ehtiyojini yo‘qotdi, chunki ular uzluksiz ravishda tashkiliy kommunikatsiya orqali bog‘langan. Yuqori darajadagi raqobat korxonalarni imkoni boricha daromadliroq ishlashga da’vat etmoqda. Raqobatchingiz siz chiqaradigan mahsulotni xuddi o‘zini chiqarib 20% arzon narxda sotsa, siz ham narxlarni tushirishga majbur bo‘lasiz va xaridorlaringizning ko‘ngliga qaraysiz, bo‘lmasa, biznesingiz sinadi va to‘xtaydi. Bir yil juda tez rivojlangan korxona ikkinchi yil yo‘q bo‘lib ketishi mumkin. Shuning uchun ko‘proq ishga qabul qilish qarorlari juda puxta o‘ylab qilinishi lozim, chunki ishchi kuchi juda qimmatli vosita hisoblanadi. Ko‘p korxonalar mahsulot narxini tushirish maqsadida juda ko‘p ishchilarni va boshqaruv pog‘onalarini kamaytirishga majbur bo‘lgan. “Kseroks Dokument” kompaniyasi 1985−1995-yillar davomida 125000 dan 90000 gacha xodimlar sonini kamaytirishga majbur bo‘lgan, xuddi shu davr mobaynida “IBM” xodimlari soni 400000 dan 200000 ga tushdi. “AT&T”, “Delta Airlines”, “American Express”, “Allied Signal” va boshqa bir qator kompaniyalar ham o‘z ishchilar sonini kamaytirdi, qolganlar o‘z faoliyatini yanada yaxshilashga erishdilar.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xo‘sh, kompaniyalar qanday qilib bunday samaradorlikka erishgan? Ko‘p holatlarda bunga doimiy ravishda ta’sir etuvchi quyidagi ikki omilni atroflicha puxta o‘rganish asosida aniq tadbirlar amalga oshirilgan:

- Ishchilarning mas’uliyat darajasini oshirish.
- Ishchilarga zarur bo‘ladigan axborotlarni yetkazib berishda qo‘llanadigan axborot texnologiyasining infratuzilmasini takomillashtirish orqali erishilgan.

Axborot tizimlar infratuzilmasi bu kompyuterlar, tizimlar, dasturlar va ma’lumot bazalari birlashmasi bo‘lib, ular ma’lumotlarni qayta ishlash va tarqatishda foydalaniladi. Axborot tizimlari ishchilar o‘z vazifasini bajarishi uchun kerak bo‘ladigan ma’lumotlarni yetkazib berishda katta rol o‘ynaydi.

Axborot texnologiya bizning vaqt va makon tushunchalarimizni ham o‘zgartirib yubordi. Biznes kelishuvlar bugunda “yuzma-yuz” makonda (muhitda), birinchi biznes-xamkor Yaponiyada, ikkinchisi Germaniyada bo‘lsa ham amalga oshirilmoqda.

Tashkiliy javobgarlik va axborot texnologiyasi. “Pan Amerikan Eyrlayns”, “Amerikan Motors”, “Sobiq ittifoq” va “Osborn Kompyuters”larning qanday o‘xshashliklari bor. Ular barchasi yo‘q bo‘lib ketdi. Nima uchun? Ularning hech biri o‘zlari yashab turgan muhitga moslasha olmadi. Bizning o‘zgarishlarga bo‘lgan qarashlarimizdan shuni aniqlash mumkinki, o‘zgarishlar doimo va har zamon mavjuddir. Tabiiy muhit, xaridor didi, texnologiya, qoidalar, ijtimoiy meyorlar va hokazolar doimiy o‘zgarishda bo‘ladi. Shuning uchun ularga moslashish yashab qolishning asosiy qoidasidir.

Tashkiliy javobgarlik korxonani nafaqat muhitga moslashishi, balki bo‘lgan o‘zgarishlarga nisbatan biron-bir tashkiliy xatti-harakatni bajarishni bildiradi.

Ayrim korxonalar axborot texnologiyasidan doimiy ravishda foydalanib, raqobatchilar, davlat muassasalari va boshqa tashqi omillar ta’sirida vujudga kelgan o‘zgarishlardan xabardor bo‘lish uchun foydalanadi. Bunda asosiy tamoyillardan biri bu tashqi muhitni doimiy ravishda kuzatishdir. Shunga ko‘ra o‘zgarishlarga mos faoliyat ko‘rsatilsa, korxonani yashab qolish imkoniyatlari oshadi.

Raqobat strategiyasi va axborot texnologiyasi. Tadbirkorlikning (bozorning) tamoyillariga ko‘ra xaridor cheklangan zaxiraga ega va ular nima sotib olish kerakligi haqida o‘zlari qaror qabul qiladi. Monopoliyalarning miqdori kamayib va bir turdagi mahsulotni bir nechta kompaniyalar bozorga taqdim qilar ekan, korxonalar xaridorlarni o‘z mahsulotini sotib olishga undashi lozim. Iqtisodiyotning globallashuvi va xaridorlar butun dunyodan mahsulot sotib olishi imkoniyatiga ega bo‘lishi raqobatni juda ham yuqori darajaga ko‘tarib yubordi. Raqobat faqatgina sanoat korxonalarida emas, balki noishlab-chiqarish tashkilotlari orasida ham mavjud. Masalan, institutlar bilimli talabalar uchun davlat tashkilotlari budjetidan ko‘proq ajratmalar olish uchun raqobatlashadi.

Korxonalar raqobatida ikki tahdid mavjud. Bu shunda bilinadiki, yangi texnologiya korxona mahsulotini keraksiz qilib qo‘yadi yoki unga bo‘lgan talabni tushirib yuboradi. Masalan, telegraf otlarda xat tashishdan foydalanishni kamaytirdi. Elektron pochta esa faksning o‘rnini bosib kelayotganini ko‘rish mumkin.

Ikkinchi tahdid bu raqobatbardoshlikni yo‘qotish va bozordan chiqib ketishdir. Korxonaning istiqboli uning dastlabki mahsulot va xizmatlariga bog‘liq. Chunki korxona dastlab mahsulot ishlab chiqarib uni sotadi va undan kelib tushgan daromadga o‘z istiqbolini belgilaydi.

Raqobatning tahlilidan shuni bilish mumkinki, raqobatda g‘olib chiqish uchun xaridor talabini qondirish asosiy maqsad bo‘lishi kerak.

Raqobat strategiyasi. Bu korxonani raqobat muhitida tutgan faoliyat turidir. Eng taniqli raqobat strategiyasining namoyandalaridan biri bu Maykl Porterdir. Uning ta’kidlashicha, 1970-yillar oxiri va 1980-yillar boshida korxonalar quyidagi strategiyalarni qo‘llashi mumkin edi:

- Past narxda mahsulot ishlab-chiqarish.
- Yangi mahsulot va xizmatlar turlarini ko‘paytirish.
- Bozorning kattaroq qismini egallash.

Korxonalarni boshqarish nazariyalari o‘zgargani kabi tashkiliy strategiyalar ham o‘zgaradi. Ayrim korxonalar sifatli mahsulotni past narxda sotishga qoniqmaydi: shuning uchun ular mahsus xaridor talabiga mos, ya’ni buyurtma bo‘yicha mahsulotlar ishlab-chiqarishga kirishadilar. Buyurtma asosida ishlash mahsulotni xuddi xaridorga kerak bo‘ladigan tuzilishda va shaklda yaratishdir, vaholanki ko‘p korxonalar xaridorni allaqachon yaratilib bo‘lingan mahsulotdan tanlashga majbur qiladilar.

Misol uchun mashina sotib olishni olaylik. Agar sizga biron bir tez yuradigani kerak bo‘lsa, bozorga borib dilerdan o‘zingizga yoqqanini sotib olishingiz mumkin, agar u sizga yoqadigan mashina topolmasa (notabiiy rangli, kuchli motorli), u holda siz uni zavoddan mahsus buyurtma qilishingiz mumkin. Lekin bu bir oz vaqt talab qiladi. Juda ko‘p katta avtomobil kompaniyalari standart bo‘lgan ko‘p miqdordagi avtomobillarni ishlab chiqaradi. Mahsus avtomobil ishlab chiqaruvchi korxonaga misol qilib “General motors” kompaniyasining “Saturn” bo‘limini olish mumkin. U orqali buyurtma berilgan mashina 3 xafta ichida istalgandek tayyorlab beriladi.

“GM Uzbekiston” QK ham bu yo‘nalishda ishlashga kirishi kerak, qachongacha chet el avtomobillari raqobatidan bojxona to‘lovlarini oshirish orqali saqlanish mumkin.

Qanday qilib “Saturn” va boshqalar bunga erishmoqda? Albatta, bunda IT (axborot texnologiyasi)ning katta o‘rni bor. Chunki xaridordan buyurtma kelishi bilan, u kerakli ma’lumotlar bazasiga kiritilib, ishlab-chiqarish jarayoniga to‘g‘ridan to‘g‘ri jo‘natiladi. Shu bilan birga IT to‘lov turiga ham ta’sir ko‘rsatadi (masalan VISA yoki Master Card nomeri, hisob raqami egasi, xaridor balansidan cheklanishlar va h.k.). IT xaridor talabini aniqlashda va o‘zgartirishlarni tezkor amalga oshirishda yordam beradi. IT korxona ichki operatsiyalarini bajarishda, narxlarni tushirishda va qaror qabul qilishda qo‘l keladi. Qisqacha aytganda, IT dan juda ko‘p hollarda foydalanish mumkin.

Lekin korxonalarning barchasi ham IT dan foyda ko‘rayotgani yo‘q. Ko‘p hollarda IT ning noto‘g‘ri ishlashi va buzilishi kuzatilmoqda. IT rivojlangan sari korxonalar unga bog‘liq bo‘lib qolmoqda.

Xalqaro aloqalar va IT. Siz Xitoy yoki Argentinani o‘zingiz yashab turgan dunyoning bir qismi sifatida tasavvur qila olasizmi? IT ko‘pchilik shaxslar va kompaniyalarning dunyodagi o‘rnining o‘zgarishiga olib keldi. Ba’zi korxonalar nafaqat mahalliy raqobatchilar bilan, balki xalqaro miqyosidagilar bilan ham bellashayotgani sir emas. Yana shunday kompaniyalar paydo bo‘ldiki, ularning aniq bir mamlakatda “bosh ofisi” yo‘q bo‘lib, ularni maxsus milliy qarashlar va daromad olish imkoniyatlari birlashtirib turadi.

Biz korxonalarning tashqi muhitni o‘rganishi lozimligini ta’kidlar ekanmiz, ular nazarini mahalliydan xalqaro miqyosga o‘zgarishini ham aytib o‘tishimiz lozim.

Bugungi kunda ayrim rivojlanayotgan davlatlar rivojlangan davlatlardan o‘tishga xarakat qilib, IT va kommunikatsiyalarga katta xarajatlar qilmoqda. Rivojlangan davlatlar, masalan, AQShda barcha mis simlarni yangi optik tolali simlarga almashtirish juda murakkab va ko‘p vaqt talab qiladi. Rivojlanayotgan, cheklangan telefon tarmoqlariga ega bo‘lgan davlat uchun esa bu uncha qiyin ish emas. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi ham keyingi davlatlar qatoriga kiradi.

Axborot texnologiya va etika. IT qo‘llanilishi natijasida ayrim shaxslar o‘zlarini kompyuterlashgan kuzatuv obyekti sifatida o‘ylashga majbur bo‘lmoqda. Fizik joylashuvni aniqlovchi, elektron pochtani kuzatib turuvchi tizimlar borgan sari ommaviylashib bormoqda. Bu tizimlar turli noroziliklarni keltirmoqda (masalan: shaxsiy mulk va huquqlarning buzilishi).

ITning yangi imkoniyatlari (masalan: ishchilar kompyuteridagi o‘yinlarni o‘chirib tashlash yoki sotib olingan filmlar ro‘yxatini saqlash) mavjud bo‘lgan qonunlarni va ijtimoiy huquqlarni kamsitmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, yangi qonun-qoidalarning ishlab chiqilishi kerakligini ko‘rsatmoqda.

ITning etikani buzayotganligini yana shunda ko‘rish mumkinki, bu intellektual mulkni himoya qilishda uning juda ko‘p kamchiliklari mavjudligidir. Kompyuter dasturlari juda osonlikcha ko‘chirib olinishi mumkin. Shu tufayli Xitoyda 90%ga yaqin dasturlar noqonuniy tarzda ko‘chirib olingan. O‘zbekiston ham bundan mustasno emas. 1-jadvalda ko‘rib chiqilgan ITning innovatsion menejmentdagi umumiy mohiyati ko‘rsatilgan.

Shunga ko‘ra ko‘pchiligimiz axloqiy jihatdan to‘g‘ri qaror qabul qilishimiz kerakligini aytib o‘tishimiz lozim. AT imkoniyatlari oshgan sayin, bu masalalarga ko‘proq duch kelinmoqda. Bizning maqsad ham xuddi shu axloqiy qoidalarga rioya qilishlikni ta’kidlashdir.

1-jadval: Axborot texnologiyalaning innovatson menejmentdagi asosiy mazmuni[1]

Mazmun	Axborot texnologiyaning munosabati
Tashkiliy javobgarlik va o‘zgarishlarga tayyor turish	Tashkilot hamelionga o‘xshab tashqi muhit o‘zgarishlariga moslashishi kerak. Axborot texnologiya mavjud o‘zgarishlarga turli hollarda moslashishni yengillashtiradi.
Raqobat strategiyasi	Raqobattashkilot faoliyatidagi mavjud voqelikdir. Ko‘pchilik harajatlarni kamaytirish, turli mahsulot va xizmatlar taklif qilish strategiyasini qo‘llab, bozorda ustunlikka erishadi. IT vositalari samarali va doimo ishlatilishi natijasida tashkilot strategiyasi amalga oshiriladi.
Xalqaro munosabatlar	Axborot va kommunikatsion texnologiyalar bozor integrasiyasini osonlashtiradi. Yetkazib beruvchi xaridor, va raqobatchilar o‘rtasidagi tashkiliy va xalqaro chegaralarni kichraytiradi.
Etik muammolar	IT imkoniyatlari etik bezovtalanishlar hosil qilib, mavjud qonun va jamiyat meyorlarini o‘zgartiradi. Masalan, shaxsiy sirni saqlash qiyinligi, shaxsiy intellektul mulklarning o‘g‘irlanishi.

Zamonaviy korxonalarni boshqarish. Hozirgi zamon korxonalarini boshqarishning ko‘rinishi qanday? Menejment iborasi korxonaning tirik va faoliyat ko‘rsatuvchi shaklda saqlanishini anglatadi. Umuman olganda, korxona boshqaruvsiz, o‘zidan-o‘zi faoliyat ko‘rsata olmaydi. Bundan tashqari, korxona bu bir maqsad yo‘lida bir qancha shaxslardan tashkil topadi. Innovatsion menejment bir qator taktik va strategik maqsadlarni ko‘zlab, yangilikka intiluvchi shaxslarni birlashtirib ish yuritishdir. Innovatsiya to‘g‘risida boshqaruvning bir nechta nazariyalari mavjud va ular tez o‘z mohiyatini o‘zgartirmoqda[2]. Shu bilan birga, innovatsiya menejmentining tendensiyalari mavjud bo‘lib, ulardan birinchisi bu – iyerarxik tuzilmadan jarayonlashtirilgan tuzilmalarga o‘tishdir. Buni yana vazifaga asoslangan menejment, deb ham yuritiladi. Odatda tashkiliy tuzilma funksional irearxiya bo‘lib, unda bir nechta malakali va mas’uliyat yuklangan shaxslar guruhlarga bo‘lingan. Masalan, marketologlar guruhi, marketing bo‘limi boshlig‘iga, u o‘z navbatida, marketing bo‘yicha direktor o‘rinbosariga va h.k. axborot beradilar.

Vazifaga asoslangan menejmentda korxonalar turli kasbdagi shaxslarni bir ishchi guruhga birlashtiradi. Bu ishchi guruh bir yoki bir nechta asosiy faoliyatlarga javobgar qilib belgilanadi. Boshqa guruhlar bir vazifani bajarish uchun birlashtirilib, so‘ng yana bo‘linishi mumkin. Bu bir qator kamchiliklarga ega bo‘lsada, lekin bitta yutug‘i bir nechta turli sohadagi malakali ishchilardan, odatiy kommunikativ qiyinchiliklarsiz foydalana olishdir.

Faoliyatni yanada yaxshilash uchun bugungi menejment falsafasi butun korxonani 6-8 kishidan iborat bo‘lgan bir nechta guruhga bo‘lishni tavsiya etadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, agar bundan ko‘proq kishi bo‘lsa, guruh yaxshi ishlay olmaydi. Chunki guruh kattalashgan sari guruh a’zolari ko‘p vaqtini bahslashishga sarflaydi, ishga esa kam vaqt qoladi. Agar vazifa ko‘p kishilik guruhni talab qilsa, bu guruhga ham bir qancha vazifalar yuklatilib, guruhlarga ajratish mumkin. Eng yirik shaxsiy kompyuterlar uchun dastur ishlab chiqaruvchi “Microsoft” kompaniyasi ham xuddi shu usulni qo‘llab ish yuritmoqda.

Ikkinchi tendensiya bu eng yangi o‘zgarish bo‘lib, u xaridor talabini qondirishga asoslangan biznes strategiyasidir. Tarixan ko‘p tashkilotlar bir mahsulot ishlab chiqarib, so‘ng uni marketing va sotish texnikalaridan foydalanib, iloji boricha ko‘p xaridorlarga sotishga intiladilar. Albatta o‘sha vaqtda ham xaridorni maqsad markazi deb bilgan korxonalar ham bo‘lgan, xuddi shular asosida xozir ko‘p tashkilotlar xaridor orqali boshqariluvchi hisoblanadi. Bu tendensiya bozor klassik falsafasining aksini bildiradi: avval sizning xaridoringiz kim va unga nima kerakligini aniqlash, so‘ng imkon boricha eng sifatli, eng arzon va tez vaqt orasida unga kerak bo‘lgan mahsulot ishlab-chiqarishdir.

Ayrim korxonalar eng qiyin xaridorni aniqlab, uning talabini qondirish strategiyasini taklif etishadi. Maqsad shuki, agar siz eng qiyin xaridorni ehtiyojini qondira olsangiz, qolgan xaridorlarning ehtiyojini qondirish oson kechadi.

Uchinchi menejment tendensiyasi bu tashkilotlararo (asosan xaridorlar, ta’minotchilar va xatto raqobatchilar) faoliyatini birlashtirishdir va bu hamkorlikda faoliyat, deb yuritiladi. Lekin shuni ta’kidlash lozimki tashkilot ichki aloqalari kabi tashqi aloqalari ham juda muhimdir. Ammo korxonalar ayrim bozorlarda hamkorlik qilsa, ikkinchi bozorda raqobatlashishi ham mumkin.

To‘rtinchi va oxirgi tendensiya bu ma’lumotlarni tashkilotlararo tez va keng miqyosda yetkazishdir. Bu odatiy holatlarga teskari bo‘lib, axborotlarni to‘plab so‘ng tarqatishdan ko‘ra, axborotlarni bevosita tezkor ravishda yetkazish ijobiy natija berishini ko‘rsatadi.

1 Muallif tadqiqoti asosida tuzilgan.

2 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 1-apreldagi “Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo‘yicha davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-6198 sonli Farmoni.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib shuni ytish mumkinki, Axborot texnologiya jamiyatda keng ko‘lamda foydalanib kelinmoqda. Axborot texnologiya insonlarning aloqa qilish, ta’lim olish, ishlash jarayonlariga o‘z ta’sirini o‘tkazmoqda. U yana bizning dam olish, bozor qilish (xarid qilish) usullarimizni o‘zgartirmoqda. Bu ayniqsa, innovatsion biznes sohasiga juda ko‘p imkoniyatlar yaratmoqda. Lekin axborot texnologiya imkoniyatlari oshgan sari, u bir qator etik qarshiliklarga uchramoqda. Global va xalqaro miqyosda, geografik va vaqt masofalari tobora muhimsizlashib bormoqda.

Korxonalarni boshqarish falsafasi ham o‘zgarmoqda. Ko‘p istiqbolni ko‘zlovchi menejerlar ishchilarni bir yoki bir nechta guruhga bo‘lib, vazifa atrofiga to‘plab ish yuritmoqda.

Korxonalar juda kuchli raqobat muhitida faoliyat yuritmoqda va eng muhim maqsad raqobatbardosh bo‘lishdir. Buning uchta usuli mavjud. Eng kam narx qo‘yish, mahsulot turini ko‘paytirish, bozorni egallash. Ayrim korxonalar bu uchala usulni qo‘llab ko‘rmoqchi bo‘ldi, lekin bu kutilgan natijani bermadi.

Uzoq davr ishlash va o‘sish doimo xaridorning barcha talablarini qondirishni talab qiladi. Axborot texnologiya korxona ichki faoliyatida katta ahamiyat kasb etib, o‘zgarishlarga tez javob berish va xaridor talabini qondirishga juda qo‘l keladi. Axborot texnologiyani qo‘llash natijasida olinadigan foyda juda kattadir. Lekin bu imkoniyatlardan foydalanishda avval uning shaxslarga, korxonalarga va jamiyatga ta’siri natijasida yuz beradigan o‘zgarishlarni anglash lozim. Korxonalar axborot texnologiyaga qanchalik bog‘liq bo‘lib qolsa, ular shunchalik uning xatolari, buzilishlalaridan ko‘p zarar ko‘radilar. Har qanday kuchli vosita kabi axborot texnologiyadan ehtiyotkorlik bilan foydalanish lozim. Axborot texnologiya samarali ishlashi uchun vaqt, mablag‘ zarur va innovatsion boshqaruvning eng asosiy vositasi bo‘lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Al-Husseini, S., El Beltagi, I., & Moizer, J. (2019). Transformational leadership and innovation: the mediating role of knowledge sharing amongst higher education faculty. International Journal of Leadership in Education, 1-24.
2. Alonderiene, R., & Majauskaite, M. (2016). 2.Leadership style and job satisfaction in higher education institutions. International Journal of Educational Management, 30, 140-164.
3. To‘ychiyeva N. Elektron Ta ‘lim Tizimining Afzalliklari Va Kamchiliklari //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. –2022. –T. 1. –No. 1. –C. 40-41.
4. Nizametdinov A., Ahmedova H. Elektron ta ‘lim metodologiyasi rivojlantirishning usullari //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. –2022. –T. 1. –No. 1. –C. 29-31.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

LIZING MUNOSABATLARINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARI

Yusupova Feruza Yo‘ldoshevna
PhD, Ma'mun universiteti NTM

Annotatsiya: Hozirgi kunda barcha samarali faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarning asosiy tarkibiy qismi raqamli marketing hisoblanadi. Korxonalar globallashuv sharoitida raqamli marketing strategiyalarini amalga oshirishi, o‘z mijozlarini jalb etish va raqobatli ustunliklarni ushlab turish uchun turli raqamli vositalar va usullardan foydalanishlari, o‘z raqobatchilaridan bir qadam oldinda yurishlari, raqamli marketingning ilg‘or yondashuv va strategiyalarini taklif etishlari juda muhim. Maqolada lizing munosabatlarini rivojlantirishda raqamli marketing strategiyasiga qo‘yiladigan ba’zi talablar ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Marketing, raqamli marketing, strategiya, marketing strategiyasi, lizing munosabatlari.

Abstract: Nowadays, digital marketing is a key component of all successful businesses. It is very important for businesses to implement digital marketing strategies in the context of globalization, use various digital tools and methods to attract their customers and maintain competitive advantages, stay one step ahead of their competitors, and offer advanced digital marketing approaches and strategies. The article examines some of the requirements for a digital marketing strategy in developing a leasing relationship.

Key words: Marketing, digital marketing, strategy, marketing strategy, leasing relationship.

Аннотация: Настоящее время цифровой маркетинг является ключевым компонентом любого успешного бизнеса. Для бизнеса очень важно реализовывать стратегии цифрового маркетинга в условиях глобализации, использовать различные цифровые инструменты и методы для привлечения своих клиентов и поддержания конкурентных преимуществ, оставаться на шаг впереди своих конкурентов и предлагать передовые подходы и стратегии цифрового маркетинга. В статье рассматриваются некоторые требования к стратегии цифрового маркетинга при развитии лизинговых отношений.

Ключевые слова: Маркетинг, цифровой маркетинг, стратегия, маркетинговая стратегия, арендные отношения.

KIRISH

Lizing munosabatlarini rivojlantirishda raqamli marketing strategiyalari o‘z ichiga ijtimoiy tarmoqlarda faol bo‘lgan kompaniyalar shu jumladan mashxur insonlar bilan xamkorlik munosabatlarini o‘rnatish, potensial mijozlarni jalb qilish uchun onlayn qo‘llanmadan foydalanishni nazarda tutuvchi kontent marketing strategiyasi yoki mijozlar qo‘nimsizligini kamaytirish uchun elektron pochta yoki ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishni ifodalovchi marketing o‘sish strategiyasi muhim o‘rin tutadi. Lizing munosabatlarida raqamli marketing strategiyalari – ijtimoiy tarmoqlarni o‘zida mujassamlashtiruvchi internet tarmoqlari yordamida lizing korxonalari marketing maqsadlariga erishish imkoniyatlarini ifodalovchi reja hisoblanadi. Mamlakatimiz Prezidenti tomonidan ilgari surilgan Raqamli O‘zbekiston−2030 strategiyasida “qishloq xo‘jaligi korxonalariga lizing asosida yetkazib beriladigan texnikalar uchun mobil ilova dasturini yaratish” [1] vazifalari belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni samarali amalga oshirish orqali mamlakatimizda lizing munosabatlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Lizing munosabatlarini amalga oshirishda internet tarmoqlaridan, raqamli marketingning taktik rejalaridan foydalanishni va strategik rejalarga qancha mablag‘ ajratilishi, uning samaradorlik darajasini chuqur tahli qilish zarurati tug‘ilmoqda. Lizing munosabatlarini rivojlantirish uchun raqamli marketing strategiyalarini yaratish eng muhim qadam hisoblanib, ushbu strategiyalarni yaratishda texnoparklar, ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish korxonalar raqobatbardoshligini oshirish va daromad hamda mijozlar sonini ko‘paytirishga imkoniyat yaratadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli marketing strategiyasi − bu sizning buyuk g‘oyalaringizni, hamda jamoangiz va biznesingiz g‘oyalarini mustahkam, kelishilgan va biznesingizga mos keladigan yagona strategiyada birlashuvini ifodalovchi tushuncha hisoblanadi. Ushbu strategiya ko‘zda tutilayotgan maqsadlarni amalga oshirishda yuqori ishonch, aniq shakllantirilgan reja sifatida faoliyat yurituvchi bir qancha bosqichlardan o‘tishi lozim. Raqamli marketing strategiyasini amalga oshirishda quyidagi sohalarga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq: mavjud imkoniyatni anglab olish; o‘z biznesingizni mukammal bilish; mijoz hulq atvorini o‘rganish; to‘qnashish mumkin bo‘lgan potensial muammolarga oldindan tayyorgarlik ko‘rish; muqobillikni ta’minlash; mos raqamli kanallar imkoniyatlarini aniqlash; strategiyani taxlil qilish va rivojlantirish va boshqalar [2].

Raqamli marketing – bu internetda istalgan reklama shakli yoki tovar harakati usuli hisoblanadi. Bu raqamli bannerdagi reklama, Facebook ijtimoiy tarmog‘i yangiliklar tasmasida ko‘rsatiladigan ma’lumotlar yoki internetda kompaniya kontentida iste’molchilarni o‘z mahsuloti bilan tanishtiruv yo‘llari ko‘rinishida namoyon bo‘ladi [3]. Har kuni ertalab istalgan kompaniyalar mijozlarining 66 foizi o‘zining elektron pochtasini ko‘zdan kechirishadi. To‘g‘ridan to‘g‘ri marketing vositalari investitsiyalar rentabelligi 4400 foizni tashkil qiladi, ya’ni marketing munosabatlari uchun ajratilgan har bir dollar xarajat evaziga 44 dollar ishlab topish imkoniyati mavjud [4]. Lizing munosabatlarini rivojlantirishda rentabellik masalasiga alohida urg‘u berilishidan asosiy maqsad innovatsiyalarning shiddat bilan tarqalayotgan bir sharoitda ma’naviy eskirish xavfidan qisman saqlab qolish imkoniyatini berishdan iborat. Texnika va texnologiyalarning ma’naviy eskirishi lizing munosabatlari ishtirokchilari oldida turgan dolzarb muammo hisoblanadi. Shu munosabat bilan raqamli marketing strategiyalarini lizing munosabatlarida foydalanish barcha tomonlar uchun o‘z vaqtida daromad olish va yuqori rentabellikka erishishi imkonini beruvchi asosiy mexanizm hisoblanadi.

Shuningdek, Chix-Ven Vu, Dolores Botella-Karrubi va Kristina Blanko-Gonzalez-Tejero korxonalar raqamli marketing strategiyasidan foydalanish, ularning moliyaviy ko‘rsatkichlarini oshirishi mumkinligini, ushbu nazariya uchun asosli bo‘lganraqamli marketing strategisining tashkilot faoliyatiga va innovatsionlikni raraqamli marketing strategiyasiga ijobiy ta’sirlari takliflarni keltirishadi [5].

Raqamli marketing strategiyalari kompaniyalarga mijozlar ehtiyojlarini to‘liq anglash va qondirishda muhim ahamiyat kasb etadi [6]. Raqamli marketing startegiyalari Italiyaning vino biznesida ijobiy qabul qilinib, ayniqsa mayda vino ishlab chiqaruvchilarning mahsulotlari to‘g‘risida turli xil ma’lumotlar berilishi an’anaviy marketing strategiyalariga nisbatan ancha samarali va jahon bozoriga chiqish imkonini beradi [7].

Fikrimizcha, raqamli maketing strategiyasidan foydalanish korxona uchun yangi imkoniyatlarning ochilishiga va strategik qarorlar qabul qilinishida raqobatbardoshlilikni oshirishga ijobiy ta’sir qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda guruhlash, abstrakt-mantiqiy fikrlash, monografik, taqqoslash, solishtirma tahlil, ekspert baholash, so‘rovnoma, iqtisodiy-matematik, statistik, klaster tahlil, STEP tahlil usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Raqamli marketing strategiyalaridan lizing munosabatlarida foydalanmaslik oqibatida yangi mijozlarini jalb qilinishi, lizing mahsulotlari to‘g‘risida ma’lumotlarning keng yoyilishiga to‘sqinlik qilish hamda daromad olish imkoniyatlari boy berilishi mumkin. Raqamli texnologiyalar biznesning ajralmas qismiga aylangan bir jamiyatda lizing munosabatlarini takomillashtirishda o‘ziga xos raqamli marketing strategiyalarini tanlash va doimiy ravishda yangilab borish lizing kompaniyalari olidiga turgan dolzarb masala bo‘lib qoladi.

Raqamli marketing strategiyalaridan foydalanish orqali lizing munosabatlari oldida turgan yuksak maqsadlarga erishish uchun yo‘l xaritalarini ishlab chiqishning imkoni yo‘q. Lizing korxonalari oldida turgan vazifalar aniq bo‘lsa ham ularni amalga oshiruvchi mexanizm yo‘qligi lizing munosabatlarini takomillashtirishdagi asosiy to‘siqlardan biri hisoblanadi. Lizing munosabatlarini rivojlantirishda yaratiladigan raqamli marketingga sarmoya kiritishdan oldin, barcha jabhalarni qamrab oluvchi optimal raqamli marketing rejasini ishlab chiqish talab qilinadi.

Lizing munosabatlarini rivojlantirishda raqamli marketing startegiyalarini yaratish quyidagi 8 ta bosqichdan iborat

1. **Lizing brendini yaratish.** Lizing munosabatlarini rivojlantirish bevosita lizing korxonasining brendini shakllantirishdan boshlanib, bunda eng e’tiborli jihati brend shakli va jozibadorligi muhim jihat hisoblanadi. Bundan tashqari brend kompaniyalarni tajribalarini puxta o‘rganish va ularning brend yo‘riqnomalari bilan tanishib, korxona brend yo‘riqnomasini shakllantirish va unga qat’iy amal qilinishini ta’minlashda sustkashlikka yo‘l qo‘ymaslik lozim. Lizing brendiga beriladigan baholar va takliflarni o‘z vaqtida o‘rganib borish va raqamli savdo nuqtalari (digital selling points (DSPs)) haqida chuqur fikr yuritish va ushbu nuqtalardan doimiy ravishda sotuvni tashkil qilish masalalariga e’tibor qaratish zarur.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

2. **Lizing mahsulotlari va xizmatlarining xaridorlarini shakllantirib olish.** Lizing munosabatlarini rivojlantirishda xaridorlarning segmentini yaratish lizing korxonasi tomonidan qamrab olinuvchi xaridorlar guruhini aniqlash uchun mexanizm sifatida foydalanish tavsiya qilinadi. Bunda foydalanuvchilarning demografik xususiyatlari hamda lizing kompaniyasi mahsulot va xizmatlarini tanlashga undovchi motivlar to‘g‘risida oldindan fikr yuritilishi maqsadga muvofiq.
3. **SMART maqsadlarni ishlab chiqish.** Lizing munosabatlarini rivojlantirishda raqamli marketing strategiyasini amalga oshirish uchun maxsus (specific), o‘lchovli (measurable), muvafaqqiyatga erishtiruvchi (achievable), haqqoniy (realistic) va o‘z vaqtida (timely) amalga oshiriluvchi maqsadlarni ishlab chiqish kelajakda lizing korxonasining barqaror rivojlanishiga xizmat qiluvchi omil sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda lizing korxonasining qisqa va uzoq muddatli maqsadlarini ajratib olgan holda lizing munosabatlarida raqamli marketing strategiyalarini qo‘llab korxonaning moliyaviy barqarorlgini oshirishni ko‘zda tutadi.
4. **Raqamli marketing strategiyasini tanlash.** Lizing munosabatlarini rivojlantirishda eng optimal raqamli marketing strategiyasini tanlovi masalasi lizing korxonasi oldida turgan vazifalardan biri hisoblanadi. Bunda zamonaviy strategiyaga emas balki lizing korxonalari uchun yuqori daromad keltiruvchi usullariga e’tibor qaratgan ma’qul.
5. **Raqamli marketing budjetini shakllantirish.** Lizing munosabatlarini rivojlantirishda raqamli marketingdan samarali foydalanish bevosita unga ajratiladigan xarajatlarni optimal hisob-kitobini amalga oshirishni taqozo etadi.
6. **Strategiya uchun aqliy hujum.** Lizing munosabatlarini rivojlantirish uchun mo‘ljallangan strategiyani rejalashtirish yo‘li bilan ushbu strategiyani muvafaqqiyatga yo‘naltirish mumkin. Agar lizing mahsulotlar va xizmatlarini reklama qilishni maqsad qilinsa, avvalo reklama xarajatlarini hisoblab chiqish zarur.
7. **Lizing kompaniyasini ishga tushirish.** Rejalashtirilgan jarayonlar asosida lizing mahsulotlarini raqamli kanallar orqali sotish tizimi faliyatini boshlash lozim. Bu bosqichda barcha raqamli sotuv kanallariga tegishli bo‘lgan kuzatuv va nazoratni amalga oshiruvchi bo‘g‘in yoki dastur ishlab chiqilishi talab qilinadi. Misol sifatida lizing korxonasi rasmiy veb saytida Google Analytics bo‘yicha kuzatuv kodi joylashtirilganligi asosida ham kuzatib borish imkoni mavjud.
8. **Natijalarni kuzatib borish.** Lizing munosabatlarini rivojlantirishda doimiy kuzatib borish orqali raqamli marketing strategiyalari samaradorligini nazorat va o‘lchovini amalga oshirib borish talab qilinadi. Buning uchun Google Analytics, Google Search Console va Google Ads ilovalaridan foydalanish raqamli marketing strategiyalarini oson kuzatib borish va investitsiyalar rentabelligini (ROI) hisoblab borishga katta imkoniyat yaratiladi.

3.1-rasm: Lizing munosabatlarini rivojlantirishda foydalaniladigan raqamli marketing strategiyalar turlari1

Yuqorida keltirilgan sakkizta bosqich lizing munosabatlarini rivojlantirishda dastlabki raqamli marketing strategiyasini tanlovini amalga oshirish uchun qo‘llanma hisoblanadi. Bundan tashqari ishchan raqamli marketing strategiyasini ishlab chiqish uchun onlayn marketing xizmatlarini ko‘rsatuvchi firmalarga murojaat qilish mumkin.

Lizing munosabatlarida eng samarali raqamli marketing startegiyalari ichida muqobil qidiruv tizimi (SEO) hisoblanadi. SEO - bu lizing korxonasi veb saytini takomillashtirish jarayoni hisoblanib, lizing munosabatlariga tegishli asosiy kalit so‘zlar va iboralar asosida qidiruv natijalarini yuqori samaradorligini ta’minlashga xizmat qiladi. Lizing munosabatlarini ifodalab beruvchi kalit so‘zlardan foydalanish orqali lizing korxonasi reytingi ortib, faoliyatga qiziquvchilar sizning veb saytingizga tashrif buyurib to‘g‘ridan to‘g‘ri ma’lumotlar olish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

1 Muallif ishlanmasi.

SEOning asosiy maqsadi lizing munosabatlarini rivojlantirishda ishtirok qiluvchi tomonlar uchun veb-sayt tezligini yo‘naltirishdan iborat. Bular lizing iste’molchilari hisoblanib, lizing mahsulotlari va xizmatlarini faol ravishda izlayotganlar hamda eng ko‘p veb saytdan foydalanuvchilardir.

Lizing munosabatlarini rivojlantirishda raqamli marketing strategiyalaridan foydalanish to‘g‘risida fikr yuritilsa, bevosita SEO zaruriy talab sifatida qaralishi maqsadga muvofiq, chunki SEO sotuv tarmog‘ining istalgan qismida joylashgan har bir maqsadli iste’molchilar guruhi a’zolarini, ularning qayerda va qanday holatda bo‘lishidan qat’iy nazar qamrab olish ikonini yaratadi. Buning asosiy sababi, har qanday foydalanuvchi yangi lizing mahsulotlari va xizmatlarini qidiruv tizimlari orqali izlab boshlaydi.

Dunyoda 80 foiz iste’molchilar o‘ziga kerakli mahsulot va xizmatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni internetdan oladilar. Qidiruv natijasida ushbu foydalanuvchilarning 50 foizidan ortig‘i yangi korxonalar va mahsulotlarini topadilar. Agar SEO lizing munosabatlari raqamli marketing strategiyasiga aylansa, bunda ushbu biznes bevosita yuqori daromadli yo‘nalish sifatida e’tirof qilinadi.

SEOni lizing munosabatlarini rivojlantirishda raqamli marketing strategisi sifatida tanlash uchun quyidagi ikkita asosiy yo‘nalishni keltirib o‘tish maqsadgna muvofiq deb hisoblaymiz:

- foydalanuvchilarning 10 foizdan kamrog‘i qidiruv natijalarining ikkinchi varag‘ini ko‘rib chiqadilar.
- foydalanuvchilarning 30 foizdan ko‘prog‘i qidiruv natijalari ro‘yxatidagi birinchi natijadan o‘ziga kerakli mahsulot yoki xizmatni topib oladilar.

Shunday qilib, SEOdan lizing munosabatlarini rivojlantirish uchun foydalanishda, aosiy iste’molchilar guruhini jalb qiluvchi hamda potensial iste’molchilar uchun jozibador kalit so‘zlar va iboralarni veb saytda ko‘proq ishlatilishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

PPC – bu kim oshdi savdosi tizimga asoslangan reklamaning pulli shakli hisoblanadi. Bitta tugmada to‘lovda (PPC) lizing kompaniyalari reklamalarini ko‘rsatilishini istagan kalit so‘zlar bo‘yicha taklif kiritishadi. Agar foydalanuvchi qidiruvida reklamada ko‘rsatilgan kalit so‘z ishtirok qilsa, lizing taklifi bo‘yicha reklama qidiruv varag‘ining ro‘yxatidan joy oladi. Shundan so‘ng foydalanuvchi sizning reklamangizni tugmasini bosadigan bo‘lsa, lizing kompaniyasi ushbu tugma uchun pul to‘laydi. Boshqacha qilib aytganda lizing beruvchi, reklamani joylashgan joy uchun emas balki har bir bosilgan tugma uchun to‘lovni amalga oshiradi.

Lizing munosabatlarida ko‘proq lizing takliflarini beruvchi tomon o‘zining lizing mahsulotlarini reklama qilishida kalit so‘zlarni tanlashda noodatiy usullardan foydalanish ya’ni ko‘proq iste’molchilar o‘rtasida so‘rovnomalar, aqliy hujum, ekspert tahlillar o‘tkazish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Lizing munosabatlarini rivojlantirishda PPC dan foydalanish bevosita qilingan investitsiya qaytimi (ROI) tezligi yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin. PPC qidiruv tizimlaridagi, ijtimoiy tarmoqlardagi va boshqa raqamli platformalardagi reklamalarni ham o‘z ichiga oladi. Lizing beruvchi Telegram, Mail agent, Line, WeShat va boshqa o‘zaro axborot almashinuvni tashkil qiluvchi ilovalarda ham reklama berib, lizing mahsulotlarini sotuvini tashkil qilishi ham PPC tizimi orqali amalga oshirish imkoniyati mavjud. PPC foydalanuvchilarni tanlov asosida o‘ziga jalb qilishga asoslanib, bundan asosiy maqsad iste’molchilarni lizing mahsulotlari va xizmatlarini sotib olishga tayyorlash hisoblanadi. Foydalanuvchi reklama tugmasini bosishi bilan lizing kompaniyasi rasmiy saytiga o‘tadilar va harkatlanishga chaqiruvni (sall-to-action) ko‘radilar. Keyingi bosqichlarda lizing mahsulotlari sotib olish, yangiliklardan bo‘lish uchun a’zolik va boshqa amallarni bajarish jarayonlari amalga oshiriladi.

PPC orqali reklama – pullik reklamaning eng samarali usullaridan biri hsiblanadi. Bugungi kunda lizing munosabatlarini rivojlantirishda faqat raqamli marketing strategiyalaridan foydalanish lizing kompaniyasining yuqori sur’atda o‘sishini ta’minlashda PPC reklamasidan keng foydalanish eng samarali yo‘nalish ekanligini anglab olish lozim.Agar lizing kompaniyasi ma’lumotlari qidiruv tizimlarida oxirgi varaqlarda joylashdigan holatda ushbu usul foydalanish asosida kompaniyasi veb-saytini qidiruv tizimlari natijalarida eng yuqori o‘ringa ko‘ratilishiga yordam beradi.

Lizing kompaniyasi tomonidan PPCdan raqamli marketing strategiyasi sifatida foydalanadigan bo‘lsa, Google Ads uchun qilingan har bir dollar investitsiya hisobiga 8 dollar ishlab topish imkoniyati paydo bo‘ladi. Google qidiruv tizimi tomonidan 1 sekundda 60 000 dan ziyod, bir yil davomida esa 2 trilliondan ortiq qidiruv so‘rovnomalarini amalga oshiradi, bu jarayonda lizing munosabatlarini rivojlantirish uchun bevosita PPC raqamli marketing strategiyasi lizing kompaniyalari uchun eng maqbul platforma ekanligidan dalolat beradi. Shundan kelib chiqib Google Ads tizimida reklamaga katta mablag‘larni yo‘naltirish natijasida yuqori investitsiya rentabelligiga erishish mumkin.

Raqamli savdo tahlillari asosida PPC bo‘yicha tayyorlagan reklama tugmasini bosuvchi foydalanuvchilarning 50 foizi ushbu mahsulotlarni sotib olishi aniqlangan. PPC reklamalarida kalit so‘zlar tanlov xususiyatiga ega ekanligidan kelib chiqib, lizing munosabatlarini rivojlantirishda lizing mahsulotlari va xizmatlarini foydalanuvchilar tomonidan sotib olinishi odatiy hol hisoblanadi. Bu esa raqamli marketing strategiyalari tarkibida ajralmas tarkibiy qism sifatida PPCning o‘ziga xos o‘ringa ega ekanligini bildiradi.

Agar lizing mahsulotlarini kalit so‘zlar bo‘yicha qidiruv tizimi natijalarida birinchi o‘rinni egallagan bo‘lsa ham, PPC reklamasi ushbu jarayonda ham sotishni yanada optimallashtirish uchun xizmat qilishini tushunib olish yuqori sur’atlarda o‘sishni ta’minlaydi deb hisoblaymiz.

Lizing munosabatlarini rivojlantirishda kontent marketingdan foydalanish orqali tomonlar bilan aloqalar o‘rnatish va ularni jalb qilish va qamrovini kengaytirish kontentga asoslanib tashkil qilinadi. Bunday kontent video materiallar, bloglarda yoritiladigan xabarlar, infografika va boshqa raqamli materiallarni o‘z ichiga olib, bevosita foydalanuvchilar uchun qiziqish uyg‘otishdan iborat. Bunda alohida e’tiborli jihati berilgan ma’lumotlar tijorat maqsadida emas balki ma’lumot berish tarzida amalga oshiriladi.

Kontent marketingning raqamli marketing strategiyasi sifatidagi asosiy maqsadi – lizing munosabatlarini rivojlantirishda ishtirok qiluvchi tomonlarga zaruriy ma’lumotlarni taqdim qilish hisoblanadi. Buning natijasida berilgan ma’lumotlarga asosida veb-saytga tashrif buyuruvchilar soni ko‘payib, daromad hajmi keskin ravishda oshishiga erishiladi. Texnik nuqtayi nazardan kontent marketing qidiriuv tizimlarida lizing kompaniyasi kontentini optimallashtirishga yo‘naltirilib, qidiruv natijalarida kompaniya virtual ko‘rinishini takomillashtirish hisoblanadi.

Elektron pochta marketingi lizing munosabatlarini rivojlantirishda doimiy mijozlarni saqlab qolish va yangilarini jalb qilishga asoslanadi. Bu lizing kompaniyasi haqida ma’lumotlarga ega bo‘lishning eng samarli usuli hisoblanib, doimiy ravishda e’tibor markazida bo‘lish va lizing munosabatlarini davomiyligni ta’minlashda muhim o‘rin tutadi.

Lizing munosabatlarini rivojlantirishda mijozlarning doimo e’tibor markazida bo‘lish raqamli marketing strategiyasi sifatida elektron pochta marketingning asosiy maqsadi bo‘lib hisoblanadi. Bunda tashqari moliyaviy munosabatlarda ya’ni mavjud kapitalni saqlab qolish yoki ko‘paytirish foaliyati bilan shug‘ullanuvchi biznes vakillariga zaruriy ma’lumotlarni yetkazish ya’ni soha faoliyatiga doir yangiliklar, yangi lizing mahsulotlari va kuponlar tarqatish va boshqa samarali yo‘llar bilan mijozlar soni ko‘paytirishdan iborat.

Lizing munosabatlarini rivojlantirishda ijtimoiy tarmoq marketingi lizing kompaniyalari to‘g‘risida ma’lumotlarga ega bo‘lish yangi lizing mahsulotlarini ijtimoiy tarmoqlaridagi platformalarida yoritib borish mo‘ljallangan. Lizing kompaniyalari ijtimoiy tarmoqlarda doimiy faolligi kompaniya obro‘sining oshishiga to‘g‘ridan to‘g‘ri ta’sir qiladi.

Ijtimoiy tarmoq marketingining asosiy maqsadi – lizing mahsulotlari va yangiliklardan xabardorlik darajasini oshirish hamda lizing kompaniyasi obro‘sini shakllantirish va doimiy ravishda oshirib borishdan iborat. Bundan tashqari ijtimoiy tarmoqlarda tekin reklamalar tarqatish va yangi ma’lumotlarni berib borish hamda turli hil platformalardagi foydalanuvchilar bilan ham o‘zaro munosabatlarga kirishish imkonini beradi.

Bugungi kunda dunyoning barcha mamlakatlarida yashovchi aholi tomonidan smartfonlardan foydalanish jarayonlari kechmoqda. Shu munosabat bilan ovozli qidiruv yangi va ommalashgan usulga aylanib ulgurdi. Natijada ushbu raqamli marketing strategiyasidan lizing munosabatlarida keng foydalanish lizing kompaniyalari uchun yangi imkoniyatlar taqdim qiladi. Ovozli qidiruvni optimallashtirishning asosiy maqsadi – lizing munosabatlarini rivojlantirish uchun asos bo‘ladigan kalit so‘zlarning ayrim qismlarini ommalashtirilish ta’minlab yuqori o‘sish darajalariga erishishga yordam berish hisoblanadi. Bunda agar lizing munosabatlari eng oxirgi o‘rinlarni egallagan bo‘lsa ham, ovozli qidiruv yordamida internetdan foydalanuvchilar o‘rtasida eng yuqori o‘ringa ko‘rtarilib olish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Lizing munosabatlarini rivojlantirishda video marketingdan foydalanish orqali sotuv hajmini, qamrov hajmini va daromadlarni oshirish hamda foaliyat doirasini kengaytirish mumkin. Ushbu raqamli strategiyaning asosiy quroli bo‘lib jozibador video-roliklar tayyorlash va internet sahifalariga, ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirish hisoblanadi. Videomarketingning asosiy maqsadi lizing mahsulotlari va xizmatlaridan xabardorlik darajasini oshirish, savdo hajmini ko‘tarish va daromadni maksimallashtirishdan iborat. Ushbu maqsadlarga qimmatli vidoyekontenlarni yaratish va foydalanuvchilarga taqdim qilish orqali erishiish mumkin. Bunday raqamli marketing strategiyadan foydalanish iste’molchilarning joriy hulq atvorini o‘zgartirishga va lizing munosabatlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Lizing munosabatlarini rivojlantirishda foydalaniladigan raqamli marketing strategiyasining navbatdagi turi hamkorlik marketinggi hisoblanadi. Bunda har bir hamkor o‘zining sa’yi-harakatlari natijasida jalb qilgan mizojlari ya’ni, bu ijtimoiy tarmoqlar, elektron pochta, Youtube kanallari oqali obuna qilingan hamda lizing mahsulotlari va xizmatlariga qiziqish bildirishida o‘zining hissasini qo‘shganligi uchun olingan daromaddan lizing munosabatlarida ishtirokiga qarab mukofot belgilanadi. Lizing munosabatlarini rivojlantirishda innovatsion marketingdan foydalanish bu yuqorida sanab o‘tilgan barcha raqamli marketing strategiyalarining xos xususiyatlarni o‘zida aks ettrishi bilan ajralib turadi. Ushbu raqamli marketing strategiyasidan dunyo mamlakatlarining ko‘zga ko‘ringan brend kompaniyalarida ya’ni Instagram, Netflix va L'Oreal kompaniyalari amaliyotida keng foydalanib kelinayotganligi to‘g‘risida ma’lumotlar berilgan.

Lizing munosabatlarida innovatsion marketingdan foydalanish yangi xizmat va mahsulotlarning yaratilish uchun lizing kompaniyalariga asosiy turtki beradi. Innovatsion marketing orqali ijtimoiy tarmoqlarda doimo faol bo‘lish, yangi virtual geografik sotuv hududlarni izlash, oldin marketing munosbatlari mavjud bo‘lgan xaridorlarni

jalb qilish, onlayn konferensiyalar tashkil qilish va boshqa raqamli marketing vositalaridan kompaniya uchun zaruriylarini tanlab olib daromadni oshirish imkoniyati mavjud. Qisqa qilib aytganda innovatsion marketing - raqamli marketing strategiyalari integratsiyasi asosida vujudga keladi deb hisoblaymiz.

XULOSA VA TAKLIFLAR

1. Lizing munosabatlarini rivojlantirishda raqamli marketing strategiyalari lizing kompaniyalari uchun eng zaruriy vosita ekanligi, har bir raqamli marketing startegiyasining daromadni oshirishga xizmat qilishi hamda lizing munosabatlari ishtirokchilariing kelgusi faoliyatini optimal tashkil qilinishi uchun asosiy mexanizm vositasini bajaradi.
2. Lizing munosabatlari, ayniqsa, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari faoliyatini yo‘lga qo‘yish uchun texnika va texnologiyalar bilan ta’minlashda muhim o‘rin tutadi.
3. Lizing munosabatlarini rivojlantirishda raqamli marketing startegiyalarining tahlil qilingan turlaridan keng foydalanish asosida tomonlar o‘rtasida kelgusida duch kelinadigan xavf darajalarini yumshatish imkoni mavjud.Lizing munosabatlarini rivojlantirish nafaqat ishlab chiqaruvchi yoki lizing kompaniyalari uchun balki butun aholi turmush faoliyatida zaruriy bo‘lgan mahsulotlarni ishlab chiqish va xizmatlar ko‘rsatish hamda pirovardida aholi turmush farovonligini oshirishga olib keladi.
4. Raqamli marketing strategiyalari asosida lizing munosabatlarini rivojlantirish lizing kompaniyalari va unda ishtirok qiladigan barcha tomonlar uchun minimal xarajatlar asosida maksimal daromad olish va rentabellikni oshirish masalalari ijobiy hal qilinadi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati

1. “Raqamli O‘zbekiston–2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, PF-6079-son 05.10.2020.
2. Digital marketing strategy: an integrated approach to online marketing / Simon Kingsnorth. −2016.
3. Kannan P. K. H.“A.” Li Digital marketing: A framework, review and research agenda // International Journal of Research in Marketing. −2017. −№ 34. −C. 22-45,
4. Kapoor N., Jain M., Prasad R. Digital Marketing Strategies and the Behaviour of Millennials // International Journal of Economic Research. 2017. № 14(16). C. 109–118.,
5. Chih-Wen Wu, Dolores Botella-Carrubi, Cristina Blanco-González-Tejero, The empirical study of digital marketing strategy and performance in small and medium-sized enterprises (SMEs), Technological Forecasting & Social Change 2024.
6. Lockett, A. Online marketing strategies for increasing sales revenues of small retail businesses. Walden Dissertations and Doctoral Studies. − 2018.
7. Finotto, V., & Mauracher, C. Digital marketing strategies in the Italian wine sector. International Journal of Globalization and Small Business, 2020. −11 (4), 373-390.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

ANALYSIS OF THE TRANSFORMATION AND DEVELOPMENT TRENDS OF THE HIGHER EDUCATION SYSTEM IN UZBEKISTAN

Zufarova Nozima Gulamiddinovna
PhD, associate professor,
Dean of the Faculty of International Tourism,
Tashkent State University of Economics

Abstract: This paper investigates the dynamic transformation and developmental trajectory of the higher education system in Uzbekistan. Utilizing a comprehensive analytical framework, it delves into the multifaceted dimensions shaping the evolution of higher education within the country. Drawing upon a synthesis of primary data sources, including government policies, institutional reforms, and educational statistics, alongside secondary scholarly literature, the study offers a nuanced understanding of the contemporary landscape of higher education in Uzbekistan. The analysis reveals a significant shift in policy paradigms towards fostering a knowledge-based economy and enhancing global competitiveness through higher education. Key drivers of change include initiatives to modernize curricula, upgrade infrastructure, and promote research and innovation. Moreover, the paper explores the impact of socio-economic factors, such as demographic trends and labor market demands, on shaping the strategic direction of higher education policies. Furthermore, the study elucidates the challenges and opportunities inherent in the ongoing transformation process. These range from addressing quality assurance mechanisms and ensuring inclusivity to enhancing international collaboration and fostering a culture of academic excellence. By critically assessing these dynamics, the paper contributes to the scholarly discourse on higher education development in transitional societies.

Key words: Higher education, Transformation, Development trends, Uzbekistan, Policy implications, Quality assurance, Internationalization.

Annotatsiya: Ushbu maqola O‘zbekiston oliy ta’lim tizimining dinamik o‘zgarishi va rivojlanish trayektoriyasini o‘rganadi. Keng qamrovli tahliliy asosdan foydalangan holda, u mamlakatdagi oliy ta’lim evolyutsiyasini shakllantiruvchi ko‘p qirrali o‘lchovlarni tahlil qiladi. Ilmiy adabiyotlar bilan bir qatorda, birlamchi ma’lumotlar manbalari, jumladan, hukumat siyosati, institutsional islohotlar va ta’lim statistikasi sinteziga tayangan holda, tadqiqot O‘zbekistondagi oliy ta’limning zamonaviy islohotlari haqida tushuncha beradi. Tahlil bilimga asoslangan iqtisodiyotni rivojlantirish va oliy ta’lim orqali global raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilgan siyosat paradigmalarida sezilarli o‘zgarishlarni ko‘rsatadi. O‘zgarishlarning asosiy omillari qatoriga o‘quv dasturlarini modernizatsiya qilish, infratuzilmani yangilash, tadqiqot va innovatsiyalarni ilgari surish tashabbuslari kiradi. Bundan tashqari, maqola demografik tendentsiyalar va mehnat bozori talablari kabi ijtimoiy-iqtisodiy omillarning oliy ta’lim siyosatining strategik yo‘nalishini shakllantirishga ta’sirini o‘rganadi. Bundan tashqari, tadqiqot jadal amalga oshirilayotgan transformatsiya jarayoniga xos bo‘lgan qiyinchiliklar va imkoniyatlarni ochib beradi. Bular sifatni ta’minlash mexanizmlarini ko‘rib chiqish va inklyuzivlikni ta’minlashdan xalqaro hamkorlikni kuchaytirish va akademik mukammallikni rivojlantirish, tanqidiy baholash orqali maqola o‘tish davridagi jamiyatlarda oliy ta’limni rivojlantirish bo‘yicha ilmiy munozaraga hissa qo‘shadi.

Kalit so‘zlar: Oliy ta’lim, Transformatsiya, Rivojlanish tendentsiyalari, O‘zbekiston, Siyosat oqibatlari, Sifatni ta’minlash, Xalqarolashuv.

Аннотация: В данной статье исследуются динамическая трансформация и траектория развития системы высшего образования в Узбекистане. Используя комплексную аналитическую основу, он углубляется в многогранные аспекты, определяющие эволюцию высшего образования в стране. Опираясь на синтез первичных источников данных, включая государственную политику, институциональные реформы и статистику образования, а также научную литературу, исследование предлагает детальное понимание современной ситуации в сфере высшего образования в Узбекистане. Анализ показывает значительный сдвиг в политических парадигмах в сторону развития экономики, основанной на знаниях, и повышения глобальной конкурентоспособности посредством высшего образования. Ключевые движущие силы перемен включают инициативы по модернизации учебных программ, модернизации инфраструктуры и содействию исследованиям и инновациям. Кроме того, в статье исследуется влияние социально-экономических факторов, таких как демографические тенденции и требования рынка труда, на формирование стратегического направления политики высшего образования. Кроме того, исследование освещает проблемы и возможности, присущие продолжающемуся процессу трансформации. Они варьируются от рассмотрения механизмов обеспечения качества и обеспечения инклюзивности до расширения международного сотрудничества и развития культуры академического превосходства. Критически оценивая эту динамику, статья вносит вклад в научный дискурс о развитии высшего образования в переходных обществах.

Ключевые слова: Высшее образование, Трансформация, Тенденции развития, Узбекистан, Последствия для политики, Обеспечение качества, Интернационализация.

1. INTRODUCTION

In recent decades, Uzbekistan has embarked on a comprehensive journey of transformation across various sectors, including higher education, driven by the imperatives of globalization, economic modernization, and social development. This transformation, deeply rooted in historical legacies and contemporary challenges, underscores the pivotal role of higher education in shaping the nation's future trajectory [1].

Higher education in Uzbekistan has historically been characterized by a centralized Soviet-style system, marked by rigid structures and a focus on ideological indoctrination rather than fostering critical thinking and innovation [2]. However, since gaining independence in 1991, Uzbekistan has undertaken significant reforms aimed at aligning its higher education system with global standards and the imperatives of the knowledge economy [3]. These reforms have sought to decentralize governance structures, enhance academic autonomy, and promote quality assurance mechanisms [4].

Amidst these reforms, the Government of Uzbekistan has articulated a clear vision for higher education, emphasizing its role as a driver of economic growth, social mobility, and national development [5]. This vision is encapsulated in strategic documents such as the National Program for Personnel Training, which outlines ambitious targets for increasing enrollment, improving teaching quality, and fostering research and innovation [6].

Moreover, the transformation of higher education in Uzbekistan is situated within the broader context of regional and global dynamics, including the rise of knowledge societies, the proliferation of digital technologies, and the growing demand for skilled labor in emerging industries [7]. As such, understanding the trends and challenges shaping higher education in Uzbekistan is not only of intrinsic importance but also holds broader implications for the nation's socio-economic development and global engagement [8].

This paper aims to critically analyze the transformation and development trends of the higher education system in Uzbekistan, drawing upon a multidimensional framework that integrates policy analysis, institutional dynamics, and socio-economic considerations. By examining key drivers, challenges, and opportunities, the study seeks to contribute to the scholarly discourse on higher education development in transitional societies, offering insights for policymakers, educators, and researchers alike.

Following this introduction, the paper proceeds with a comprehensive literature review, wherein key theoretical frameworks and empirical studies pertaining to higher education transformation in transitional contexts are synthesized. Subsequently, this is followed by a presentation of the empirical findings regarding the transformation and development trends within the higher education system. The paper then engages in a critical discussion of these findings, addressing the challenges, opportunities, and implications for policy and practice. Finally, the conclusion offers a synthesis of the key insights and suggests avenues for future research in this critical area.

2. LITERATURE REVIEW

The transformation of higher education systems in transitional contexts is a complex phenomenon influenced by historical legacies, socio-economic dynamics, and global imperatives. This section synthesizes key theoretical frameworks and empirical studies to provide a comprehensive understanding of the factors driving higher education transformation in Uzbekistan and similar transitional societies.

Scholars have highlighted the role of globalization as a primary driver of higher education reform in transitional contexts [9]. Globalization has intensified competition among nations, leading to increased emphasis on knowledge production, innovation, and human capital development [10]. As such, countries like Uzbekistan have been compelled to align their higher education systems with global standards to enhance competitiveness and foster sustainable development [11].

Moreover, the literature underscores the significance of policy reforms in shaping the trajectory of higher education transformation. Policy frameworks play a crucial role in delineating the vision, objectives, and strategies for higher education development [12]. In Uzbekistan, for instance, the National Program for Personnel Training has provided a strategic roadmap for modernizing higher education and aligning it with the needs of the knowledge economy [13].

Furthermore, scholars have highlighted the importance of institutional autonomy and governance structures in facilitating higher education reform [14]. Decentralization efforts aimed at empowering universities, promoting academic freedom, and enhancing accountability have been instrumental in fostering innovation and responsiveness within the higher education sector [15].

Empirical studies offer insights into the specific challenges and opportunities encountered in the process of higher education transformation. Research indicates that while reforms have led to improvements in access and infrastructure, issues related to quality assurance, relevance of curricula, and employability remain critical

concerns [16]. Moreover, the integration of technology-enabled learning and internationalization efforts have emerged as key strategies for enhancing the quality and global relevance of higher education provision [17].

In conclusion, the literature review highlights the multifaceted nature of higher education transformation in transitional contexts, emphasizing the interplay between global forces, policy frameworks, institutional dynamics, and socio-economic factors. By synthesizing theoretical perspectives and empirical evidence, this review provides a solid foundation for the subsequent analysis of higher education trends in Uzbekistan.

3. EMPIRICAL FINDINGS

The empirical analysis delves into the transformation and development trends within the higher education system in Uzbekistan, shedding light on key dynamics and outcomes. Drawing upon a variety of data sources, including government reports, institutional records, and statistical surveys, this section presents a detailed examination of the following aspects:

Enrollment Trends: The analysis begins by examining enrollment patterns in higher education institutions across Uzbekistan. It explores trends in enrollment rates, demographic shifts among student populations, and disparities in access based on geographical location, socio-economic status, and gender.

Table 1: Enrollment Trends in Higher Education Institutions

Year	Total Enrollment	Enrollment by Gender (Male/ Female)	Enrollment by Region (Tashkent/Samarkand/ Ferghana)	Enrollment by Field of Study (Engineering/Law/Medicine/Arts)
2016	500,000	55% / 45%	30% / 25% / 20%	15% / 20% / 25% / 40%
2017	520,000	54% / 46%	31% / 24% / 21%	14% / 21% / 26% / 39%
2018	540,000	53% / 47%	32% / 23% / 22%	13% / 22% / 27% / 38%
2019	560,000	52% / 48%	33% / 22% / 23%	12% / 23% / 28% / 37%
2020	580,000	51% / 49%	34% / 21% / 24%	11% / 24% / 29% / 36%

- **Curricular Reforms:** This section investigates the implementation and impact of curricular reforms aimed at enhancing the relevance and quality of higher education programs. It assesses the integration of modern pedagogical approaches, alignment with industry needs, and the incorporation of interdisciplinary perspectives.
- **Infrastructure Development:** The empirical findings also scrutinize investments in infrastructure development within higher education institutions. This includes the expansion of physical facilities, modernization of laboratories and libraries, and the integration of Information and Communication Technology (ICT) infrastructure to support teaching and learning activities.
- **Research and Innovation:** An analysis of research and innovation trends within the higher education sector elucidates efforts to promote knowledge creation, technology transfer, and entrepreneurship. It examines institutional support mechanisms for research activities, collaboration with industry partners, and the commercialization of research outcomes.

Table 2: Research Output in Higher Education Institutions

Year	Number of Research Publications	Number of Patents Granted	Research Funding (in millions of USD)	Collaboration with Industry Partners (Number of Projects)
2016	1000	50	10	30
2017	1100	55	12	35
2018	1200	60	15	40
2019	1300	65	18	45
2020	1400	70	20	50

- **Quality Assurance Mechanisms:** This section explores the implementation of quality assurance mechanisms to uphold academic standards and enhance institutional accountability. It assesses the effectiveness of accreditation processes, student assessment practices, and faculty development initiatives in ensuring educational quality.



Table 2: Research Output in Higher Education Institutions

Table 3: Quality Assurance Mechanisms in Higher Education Institutions

Aspect	Description
Accreditation Processes	Accreditation conducted by the Ministry of Higher and Secondary Specialized Education ensures compliance with educational standards and criteria. Institutions undergo periodic evaluations to maintain accreditation status.
Student Assessment	Institutions employ a variety of assessment methods, including examinations, projects, and presentations, to evaluate student learning outcomes. Emphasis is placed on aligning assessments with program objectives and promoting critical thinking.
Faculty Development	Continuous professional development programs are offered to faculty members to enhance teaching skills, incorporate innovative pedagogical approaches, and stay updated with advancements in their respective fields.
Facilities and Resources	Institutions invest in modern facilities, laboratories, and libraries to support teaching, research, and learning activities. Access to state-of-the-art resources is essential for promoting academic excellence and student success.

Internationalization Efforts: Finally, the empirical analysis examines strategies for internationalization within the higher education system. This includes efforts to attract international students and faculty, establish partnerships with foreign universities, and participate in international research networks and exchange programs.

Through a systematic presentation of empirical findings, this section provides insights into the dynamics of transformation and development within the higher education system in Uzbekistan. It elucidates the progress made, challenges encountered, and opportunities for further enhancement, contributing to a nuanced understanding of the evolving landscape of higher education in the country.

4. DISCUSSION

The critical discussion section delves into the implications of the empirical findings presented earlier, highlighting the challenges, opportunities, and policy implications for the higher education system in Uzbekistan.

Despite the increase in enrollment, disparities in educational quality persist among regions and fields of study. Rural areas often lack access to advanced facilities and qualified faculty, leading to unequal educational opportunities.

The curriculum reforms, while commendable, may not fully address the evolving needs of the labor market. There is a growing demand for skills in emerging industries such as technology and entrepreneurship, necessitating a more agile and responsive curriculum framework.

While there has been a notable increase in research output, Uzbekistan still lags behind in terms of research capacity and innovation. Limited funding, inadequate infrastructure, and a lack of collaboration between academia and industry hinder the country's ability to generate impactful research outcomes.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

The internationalization efforts present significant opportunities for enhancing the global relevance and competitiveness of Uzbekistan's higher education system. Collaborative partnerships with renowned universities, exchange programs, and joint research initiatives can facilitate knowledge exchange and capacity building.

The integration of ICT infrastructure and online learning platforms opens up new avenues for expanding access to higher education, particularly in remote areas. Leveraging technology-enabled learning can improve educational outcomes and bridge the digital divide.

Strengthening the innovation ecosystem through targeted investments, industry-academia collaborations, and entrepreneurship support programs can foster a culture of innovation and drive economic growth. Encouraging interdisciplinary research and fostering a conducive environment for startups can unleash the creative potential of students and faculty.

Policymakers should prioritize increased funding for higher education, particularly for research and development initiatives. Adequate resources are essential for upgrading infrastructure, recruiting qualified faculty, and fostering a vibrant research culture.

Policy reforms should focus on enhancing curricular flexibility to align with industry demands and promote interdisciplinary learning. Regular curriculum reviews, industry consultations, and experiential learning opportunities can ensure graduates are equipped with relevant skills and knowledge.

Strengthening quality assurance mechanisms is crucial for maintaining educational standards and enhancing institutional accountability. Continuous monitoring, peer reviews, and accreditation processes should be transparent, rigorous, and aligned with international benchmarks.

In conclusion, addressing the challenges while capitalizing on the opportunities outlined above requires concerted efforts from policymakers, educational institutions, and stakeholders across sectors. By adopting a holistic approach to higher education reform, Uzbekistan can harness its demographic dividend and human capital potential to drive sustainable development and innovation in the 21st century.

5. CONCLUSION

In conclusion, the transformation and development trends within the higher education system in Uzbekistan reflect a complex interplay of challenges, opportunities, and policy imperatives. The empirical analysis has provided valuable insights into enrollment patterns, research output, and quality assurance mechanisms, shedding light on both progress made and areas for improvement.

Synthesizing the key insights, it is evident that while significant strides have been made in expanding access to higher education and enhancing research productivity, critical challenges persist. Disparities in educational quality, gaps in curriculum relevance, and limitations in research capacity pose formidable obstacles to realizing the full potential of the higher education sector in Uzbekistan.

Nevertheless, there are promising opportunities on the horizon. The country's commitment to internationalization, digital transformation, and fostering an innovation ecosystem presents avenues for enhancing the global competitiveness and relevance of its higher education institutions. By leveraging these opportunities, Uzbekistan can position itself as a hub of knowledge creation, talent development, and socio-economic advancement in the region.

Looking ahead, future research endeavors should focus on several key areas to advance our understanding and inform evidence-based policy interventions. Research examining the effectiveness of specific policy reforms, such as curriculum restructuring and quality assurance mechanisms, would provide valuable insights into their impact on educational outcomes and institutional performance. Furthermore, investigations into the socio-economic drivers of higher education transformation, including labor market demands and demographic trends, can inform strategic planning and resource allocation.

Moreover, longitudinal studies tracking the trajectory of enrollment patterns, research productivity, and employment outcomes over time would offer valuable insights into the sustainability and efficacy of ongoing reforms. Additionally, comparative analyses with other transitional societies could provide valuable lessons and best practices for higher education development in Uzbekistan.

In conclusion, addressing the multifaceted challenges while capitalizing on emerging opportunities requires a collaborative effort from policymakers, educational institutions, and stakeholders. By fostering a culture of innovation, excellence, and inclusivity, Uzbekistan can chart a path towards a vibrant higher education landscape that contributes significantly to national development and global engagement in the years to come.

References:

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 1-sentabrdagi "Oliy ta'limning kelajak yo'nalishlari" mavzusidagi ma'ruzasi.
2. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 15-maydagi "Oliy ta'lim yaxshilashning ilg'or yo'llari" (Oliy ta'lim tizimini takomillashtirishning samarali yo'llari) nutqi

3. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 10-noyabrdagi “Fuqarolarning intellektual va adabiy-ma’rifatni belgilashga oid qonun taslifi” (Fuqarolarning intellektual va madaniy ta’limini oshirish to‘g‘risida”gi qonun loyihasi” mavzusidagi ma’ruzasi.
4. Prezident Shavkat Mirziyoyev, 2018-yil 20-mart kuni “Respublika oliy ta’lim faoliyati samaradorligini boshqarish” mavzusidagi nutqi.
5. Kholmuminov, S., & Wright, R. E. (2017). Cost efficiency analysis of public higher education institutions in Uzbekistan.
6. Kholmuminov, S., Kholmuminov, S., & Wright, R. E. (2019). Resource dependence theory analysis of higher education institutions in Uzbekistan. Higher Education, 77(1), 59-79.
7. Uralov, O. S. (2020). Internationalization of higher education in Uzbekistan. Social Sciences & Humanities Open, 2(1), 100015.
8. Shaturaev, J. (2021). A Comparative Analysis of Public Education System of Indonesia and Uzbekistan. Bioscience Biotechnology Research Communications, 14(5), 89-92.
9. Cytlak, I., & Mamadaminova, N. (2021). Higher education during the pandemic. An overview of the higher education system in Uzbekistan. Culture-Society-Education, 19(1), 19-36.
10. Krouglov, A. (2017). Transforming Higher Education in Uzbekistan: From Quality Control to Quality Assurance Culture. In The rise of quality assurance in Asian higher education (pp. 173-189). Chandos Publishing.
11. Khimmataliyev, D. O., Abdijalilova, S. A., Elmurzaeva, N. K., Turaev, M. F., Allayorova, S. B., & Janbayeva, M. S. (2022). Formation Of A Cluster System In The Sphere Of Education In Uzbekistan: Problems And Prospects. Journal of Pharmaceutical Negative Results, 5634-5638.
12. Rezaev, A. V., & Starikov, V. S. (2017). The transformation of higher education systems in six post-Soviet countries: Causes and consequences of organizational change. Comparative Sociology, 16(1), 127-146.
13. Хасанова, Г. Х. (2020). General and professional education systems of Uzbekistan and Japan: a comparative analysis. Иностранные языки в Узбекистане, (1), 83-97.
14. Rakhimov, T., & Mukhamediev, M. (2022). Peculiarities of the implementation of the principles of the education of the future analysis of the main dilemmas. Futurity Education, 2(3), 4-14.
15. Allayarova, S. N. (2019). Implementation of modern information communication technologies (ICT) in higher education sector: International experience and the example of Uzbekistan. International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering, 9(1), 386-392.
16. Allayarova, S. N. (2019). Implementation of modern information communication technologies (ICT) in higher education sector: International experience and the example of Uzbekistan. International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering, 9(1), 386-392.
17. Kuldosheva, G. (2021). Challenges and opportunities of digital transformation in the public sector in transition economies: Examination of the case of Uzbekistan.

O‘ZBEKISTON INVESTITSIYA MUHITINI YANADA YAXSHILASH VA UNING JOZIBADORLIGINI OSHIRISH

Oybek Elmuratov
O‘zbekiston Respublikasi investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi huzuridagi Xorijiy investitsiyalarni jalb etish agentligi direktori o‘rinbosari

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekistonning investitsion jozibadorligini oshirish imkoniyatlari, investitsiya muhitiga ijobiy va salbiy ta’sir etuvchi omillar o‘rganilgan hamda oxirgi yillarda erishilgan natijalar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Investitsiya, investor, investitsiya muhiti, investitsion jozibadorlik, soliq, bank, xususiylashtirish, yashil iqtisodiyot, davlat-xususiy sherikchilik, texnologiya.

Abstract: The article examines the possibilities of improving the investment attractiveness of Uzbekistan, positive and negative factors influencing the investment environment and the results achieved in recent years.

Key words: Investments, investor, investment climate, investment attractiveness, taxation, bank, privatization, green economy, public-private partnership, technology.

Аннотация: В статье исследуются возможности улучшения инвестиционной привлекательности Узбекистана, положительные и отрицательные факторы, влияющие на инвестиционную среду и результаты, достигнутые за последние годы.

Ключевые слова: Инвестиции, инвестор, инвестиционный климат, инвестиционная привлекательность, налогообложение, банк, приватизация, зеленая экономика, государственно-частное партнерство, технологии.

KIRISH

Har qanday davlat iqtisodiyoti uchun investitsiyalar, ayniqsa, xorijiy investitsiyalar kirib kelishi nafaqat sarmoya balki yangi texnika va texnologiyalar, bilimlar, zamonaviy tajribalar kirib kelishiga katta hissa qo‘shadi. Shu sababli nafaqat iqtisodiyoti rivojlangan davlatlar, unga intilayotgan davlatlar ham investorlar uchun ishonchli makon yaratishga intiladi.

Bizga ma’lumki, xorijiy investitsiyalarning erkin kirib kelishi va undan samarali foydalanish uchun mamlakatda investitsion muhit talab darajasida bo‘lishi zarur. Har qanday investor o‘z investitsion qarorini qabul qilishda mamlakatning investitsion muhitini tahlil etadi va yakuniy qarorga keladi.

Oxirgi yetti yil davomida olib borilgan keng qamrovli iqtisodiy islohotlar: Prezident huzurida “Xorijiy investorlar Kengashi” ish boshlashi, milliy valyutamiz erkin konvertatsiyasining yo‘lga qo‘yilishi, soliq yukining pasayishi va soliq ma’murchiligidagi ijobiy o‘zgarishlar, yirik davlat korxonalarida boshlangan xususiylashtirish jarayonlari, “Yagona darcha” tamoyili asosida ko‘rsatiladigan davlat xizmatlari sonining 591 taga yetkanligi, hukumatning tadbirkorlik faoliyatini tartibga solish bilan bog‘liq 500 dan ortiq funksiyalari bekor qilinganligi, 130 dan ortiq tadbirkorlik faoliyati turlarining litsenziya va ruxsatnomalardan ozod qilingani, O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunning yangi taxrirda qabul qilinishi, hukumat va investorlar o‘rtasidagi munosabatlar tartibga solinishi natijasida mamlakatning investitsion jozibadorligi keskin yaxshilandi va salohiyatli investorlarda ishonch oshishiga xizmat qildi.

Ushbu amalga oshirilgan ijobiy ishlar bilan birgalikda mamlakatimizda investitsion muhitni yaxshilash bilan bog‘liq bir qator muammolar ham mavjud bo‘lib, mazkur maqolaning maqsadi ham mamlakatimizda investitsion muhitni yanada yaxshilash bo‘yicha ilmiy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

MAVZU BO‘YICHA QISQACHA ADABIYOTLAR TAHLILI

O‘zbekistonda qulay investitsiya muhitini shakllantirish, mamlakatning investitsion jozibodorligini oshirish masalalari har doim iqtisodchi olimlarning va tadqiqotchilarning nigohida bo‘lishgan.

Investitsiya muhiti masalasasi xorijlik iqtisodchi-olimlardan A.Blank, V.Bocharev, J.Altman, P.Vaxrin, A.Neshitoy, V.Popov, V.Kovalev, P.Samuelson, D.Lorens, L.Gitman, U. Sharp kabi olimlarning ilmiy ishlarida keng tadqiq qilingan.

O‘zbekistonlik olimlardan A. V. Vahobov, D.G‘ozibekov, N.G‘. Karimov, N.Jumayev, A.Jo‘rayev, M.Angelidi, N.Xaydarov, Sh. Mustafaqulov, N.Qo‘ziyeva, E.Nosirov, U.Burxanov va boshqalarning ilmiy asarlarida investitsiya muhitini yaxshilash muammolari tadqiq qilingan.

Xorijiy va mamlakatimiz olimlari tomonidan investitsiya muhitiga ta’sir etuvchi omillarning tahlili amalga oshirilib, investitsion jozibodorlik muammolarini hal etishga qaratilgan qator tadqiqotlar o‘tkazilgan bo‘lsa-da, mazkur mavzu bugungi kunda ham o‘ta dolzarb hisoblanadi. Chunki hozirda davom etayotgan turli ziddiyatlar va global inqirozning barcha xavf-xatar va oqibatlarini inobatga olgan holda investitsiyalarni jalb qilishni rag‘batlantirishning zamonaviy shakl va usullari, investitsion loyihalarni iqtisodiy samaradorligini baholash usullari va undagi mavjud muammolari hamda boshqa jihatlari to‘liq tahlil etishi maqsadga muvofiqdir.

TADQIQOTDA QO‘LLANILGAN USLUBLAR

Ushbu maqolada muallif mavzuga oid asosiy me’yoriy-huquqiy hujjatlarni tahlil qilib, mamlakatimizdagi investitsiya jarayonlari va investitsion muhitga tegishli statistik va analitik malumotlarga asoslanilgan tadqiqotni olib borgan. Shuningdek, ishda baholash, guruhlash, tarkibiy, qiyosiy, omilli va trendli tahlil usullaridan keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

So‘nggi yillarda mamlakatimizda davlat kafolatisiz jalb qilingan to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar oqimi 2017-yildagi 3,4 mlrd. AQSH dollaridan 2023-yilda 19,5 mlrd. AQSH dollarga yetdi va o‘tgan yetti yil davomida o‘zlashtirilgan investitsiyalarning umumiy qiymati 60,9 mlrd. AQSH dollarini tashkil qildi. Ahamiyatli jihati shundaki, mazkur investitsiyalarning 54 foizidan ko‘proq qismining sanoat sohasiga yo‘naltirilganligi yaqin kelajakda mamlakatimiz iqtisodiyoti raqobatbardoshligiga o‘zining ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi.

Oxirgi yillarda infratuzilma obyektlarini yaratish, jumladan, energetika sohasida “yashil” energetika yo‘nalishidagi yirik loyihalarni amalga oshirishda davlat-xususiy sherikchilik (DXSH) mexanizmi orqali xorijiy investitsiyalarning jalb qilinayotgani o‘zining samarasini bermoqda.

O‘zbekistonning 2021-yilda GSP+ umumiy preferensiyalar doirasida benefitsiar davlat maqomini qo‘lga kiritgani 6200 ta tovar pozitsiyalari bo‘yicha Yevropa Ittifoqi davlatlariga imtiyozli shartlarda yoki umuman boj to‘lovlarini to‘lamasdan eksport qilish imkonini berdi va ushbu davlatlarga eksportimiz hajmini 46 foizga oshishiga omil yaratdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston–2030” Strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni asosida qabul qilingan “O‘zbekiston-2030” stategiyasi iqtisodiyotimizning boshqa muhim yo‘nalishlari qatorida investitsiya maqsadlarini ham belgilab beruvchi dastur hisoblanadi. Mazkur strategiyaga asosan keyingi yetti yil davomida iqtisodiyotimizga umumiy hisobda 250 mlrd. AQSH dollari, shundan xorijiy sarmoyadorlar hisobidan 110 mlrd. dollari va “Davlat-xususiy sherikchilik” dasturlari orqali 40 mlrd. AQSH dollari miqdorida investitsiyalar jalb qilinishining belgilanishi xorijiy investorlar uchun muhim “mesage” yoki signal bo‘ldi deyish mumkin.

Ma’lumki mamlakatimiz oltin, uran, kumush, mis kabi ko‘plab muhim foydali qazilmalar zahiralari bo‘yicha dunyoning birinchi o‘nta davlatlari qatoriga kirishi, yiliga 100 tonnadan ortiq oltin va 150 ming tonnaga yaqin mis ishlab chiqarilishi, ayniqsa bilimli, mahoratli inson kapitali O‘zbekistonning yaqin kelajakdagi eng asosiy investitsiya jozibadorligini ta’minlovchi omillar hisoblanadi.

Markaziy Osiyoning qariyb yarim aholisi yashaydigan va aholi tarkibida 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar 50 foizni, savodxonlik darajasi 100 foizni tashkil qiladigan mamlakatimizda, bir milliondan ortiq yoshlar tahsil olayotgan 209 ta oliy ta’lim muassasalari faoliyat yuritmoqda va ularning qabul qamrovi oxirgi 7 yilda 9 foizdan 38 foizga yetdi. Yuqorida ta’kidlangan, investitsiya muhitini belgilovchi omillar taqdimotini samarali amalga oshirish tizimi yaratilsa, yaqin va uzoq kelajakda investorlar yurtimizni investitsiya manzili sifatida tanlashlariga shubha yo‘q.

Keltirilgan ijobiy omillar bilan bir qatorda yechimini kutayotgan muammolarimiz ham yo‘q emas, albatta, masalan mamlakatimizda mavjud korrupsiya illatining yuqoriligi xorijiy investitsiyalar oqimiga eng katta to‘sqin bo‘lmoqda. Trasparensi interneshnl reytingiga kirgan 180 ta davlat ichida O‘zbekiston 2017-yilda 157-o‘rindan, 2023-yilda 121-o‘ringacha ko‘tarilgan bo‘lsa-da, bu ko‘rsaktkich jozibador investitsiya muhiti uchun yetarli emas. Bundan tashqari, qonunchilikdaga ayrim noaniqliklar, kerakli ma’lumotlar yetarlimasligi, xususiy mulk daxlsizligidagi ayrim kamchiliklar, kapital bozorining rivojlanmanganligi, iqtisodiyotda davlat ulushining kattaligi kabi muammolar yurtimizga xorijiy investitsiyalar oqimini keskin ko‘paytirish imkonini bermayapdi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqotlar asosida xulosa qilishimiz mumkinki, mamlakatimizda investitsion muhitni yaxshilash bo‘yicha yuqorida keltirilgan ijobiy ko‘rsatkichlar bilan bir qatorda, ayrim salbiy holatlar ham mavjuddir. Shu munosabat bilan mamlakatimiz investitsion jozibadorligini yanada yaxshilashga xizmat qiladigan quyidagi takliflarni shakllantirdik:

1. Bugungi kunda jahonda yuzaga kelgan, geosiyosiy to‘qnashuvlar, kapital harakatining cheklanishi, moliyaviy sanksiyalar sharoitida xorijiy investitsiyalarni rag‘batlantiruvchi huquqiy bazani mazkur o‘zgarishlarga muvofiqlashtirib borish;
2. Xorijiy investitsiyalarning davlatlar va mulkchilik shakliga ko‘ra diversifikatsiyasini kengaytirish, ularga bo‘lgan mulkiy huquqning himoyasini mustahkamlash maqsadida xususiy va intellektual mulklar himoyasini ta’minlovchi qonunchilikni kuchaytirish;
3. Davlat xaridlarida shaffoflikni ta’minlovchi tizimlar ishlab chiqish va joriy etish orqali korrupsiya holatlarini cheklash natijasida markazlashgan investitsiyalar ishtirokidagi loyihalarga xususiy investorlarni jalb qilishni oshirish;
4. Tahliliy ma’lumotlarga asosan “Davlat-xususiy sheriklik”ka asoslangan investitsiya loyihalari samaradorligi yuqoriligidan kelib chiqib, ushbu hamkorlik doirasida, sarmoya jalb qilish qiyin sohalarda amalga oshiriladigan loyihalar sonini ko‘paytirish;
5. Investitsiyalar yo‘nalishida izlanish va tadqiqotlar o‘tkazadigan markazlar faoliyatini yo‘lga qo‘yish;
6. Davlat ishtirokidagi tijorat banklarini xususiylashtirish jarayonlarini jadallashtirish maqsadida bank tizimiga xorijiy investitsiyalarning jalb qilinishi bo‘yicha o‘rnatilgan me’yorlarni yumshatish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;
7. Murakkab ekologik vaziyatda “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish va raqamlashtirishga qaratilgan loyihalar ko‘lamini kengaytirish, ularga jalb qilinadigan investitsiyalar uchun alohida rag‘batlantiruvchi rejim joriy etish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida” Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 9-dekabrda qabul qilingan, Senat tomonidan 2019-yil 14-dekabrda ma’qullangan.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son Farmoni “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida, Toshkent sh., 2023-yil 11-sentyabr.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 1-avgustdagi PF-5495-son Farmoni “O‘zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”, Toshkent sh., 2018-yil 1-avgust.
4. Axmedova Yu.S. “Faol investitsion muhit – O‘zbekiston iqtisodiyotining muhim omili sifatida” Jizzax politexnika instituti “Iqtisodiyot va menejment” kafedrasi, “Ekonomika i sotsium” №1(104)-2 2023 www.iupr.ru.
5. Бланк А. Инвестиции. – М.: Дело, 2008. – 260 с.
6. Karimov N.G‘. “Iqtisodiy integratsiyalashuv sharoitida investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning bozor mexanizmlarini joriy etish masalalari” Toshkent – “Fan va texnologiyalar” nashriyoti 2007 yil.
7. Qosimov A.A., Yuldashev G.T., Qurbonov U.F. “Iqtisodiy rivojlanishga investitsion muhit ta’siri va unga bog‘liq omillar tahlili, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy-elektron urnali. № 5, sentyabr-oktyabr, 2021-yil.
8. Шарп У. Инвестиции. Пер. с анг. – М.: ИНФРА-М, 2006. – 744 с.
9. G‘ozibekov D.G‘. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. – Toshkent: Moliya, 2003. – 332 b.
10. https://invest.gov.uz/ O‘zbekiston Respublikasi investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi huzuridagi Xorijiy investitsiyalarni jalb etish agentligi sayti ma’lumotlari.

SIFATLI TA'LIM UCHINCHI RENESSANSNING POYDEVORI SIFATIDA: XORIJIY TAJRIBA VA TAVSIYALAR

Zafar Jumayev Ikromiddinovich
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi Buxoro viloyat filiali rahbari

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston ta'lim tizimidagi islohotlar, jahon ta'lim tizimi tajribalari, jumladan, Yaponiya, Germaniya va Singapur ta'lim tizimi haqida ma'lumotlar berilgan. Ushbu davlatlardagi ta'lim tizimi, ularning o'ziga xos jihatlari, rivojlanish mexanizmlari o'rganilgan va O'zbekistonda raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash maqsadida ilg'or xorijiy tajribalar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: kadr, ta'lim, ta'lim tizimi, Yaponiya, Germaniya, Singapur, maktab, renessans, akademik, texnik maktab,oliy ta'lim, natija.

Abstract: This article provides information on reforms in the education system of Uzbekistan, based on the experience of the world education system, including the education system of Japan, Germany and Singapore. The education systems in these countries, their features, development mechanisms were studied and advanced foreign experience was analyzed for preparing of competitive personnel in Uzbekistan.

Key words: education, education system, Japan, Germany, Singapore, preschool, school, renaissance, academic, technical school, higher education, personnel, result.

Аннотация: В данной статье представлена информация о реформах в системе образования Узбекистана, на основе опыта мировой системы образования, в том числе системы образования Японии, Германии и Сингапура. Были изучены системы образования в этих странах, их особенности, механизмы развития и проанализирован передовой зарубежный опыт для подготовки конкурентоспособных кадров в Узбекистане.

Ключевые слова: образование, система образования, Япония, Германия, Сингапур, дошкольное учреждение, школа, ренессанс, академическое, техническое училище, высшее образование, кадр результат.

KIRISH

Bugungi kunda O'zbekiston demokratik, ijtimoiy-iqtisodiy jadal o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanib bormoqda. Davlatimiz o'z oldiga aniq maqsadlar qo'yib, unga erishish yo'lida jadallik bilan keng qamrovli ishlarni olib bormoqda. "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da davlatimizning ushbu yillarga mo'ljallangan aniq maqsadli vazifalari hamda erishilishi lozim bo'lgan ko'rsatkichlari belgilab berilgan. Bu davlat boshqaruv tizimini takomillashtirish, ijtimoiy sohani rivojlantirish, yuqori iqtisodiy o'sishni ta'minlash, energetika sohasini isloh qilish bo'lmasin barchasi aslida inson resurslarini rivojlantirish orqali amalga oshiriladi [1].

Hozirgi murakkab va shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamonda inson kapitaliga bo'lgan talab oshib boraveradi. Inson kapitalini rivojlantirmasdan turib, hech bir sohada yuksak maqsadlarga erishib bo'lmasligini bugungi jarayonlar yaqqol ko'rsatib turibdi. Inson kapitalini shakllantirish va rivojlantirish bevosita ta'lim tizimini rivojlantirish, isloh qilish orqali amalga oshiriladi.

Bugungi keskin raqobatchilik va iqtisodiy globallashuv sharoitida oliy ta'lim tizimida tayyorlanayotgan kadrlarning tayyorgarlik sifati, ularning salohiyati va raqobatbardoshligini oshirish kabi masalalar o'tkir muammoga aylanmoqda. Buning ustiga, mamlakatimiz ta'lim tizimida kadrlar tayyorlashning erishilgan darajasi xalqaro maydonda e'tirof etildi, degan fikr-mulohazalar bilan chegaralanib qolmasdan, uning sifat jihatlarini yanada oshirish yo'lida to'xtab qolmasligimiz, bu boradagi ishlarimizni yanada yangi bosqichga ko'tarishimiz lozimdir. Mazkur masalalar bugungi kunda oliy ma'lumotli kadrlarga nisbatan mehnat bozorida yuzaga kelgan vaziyat, xalqaro globallashuv jarayonlari kuchayishi natijasida innovatsion iqtisodiyotni barpo etish yo'lida bajarilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlar natijasida o'ta muhim ahamiyat kasb etadi.

METODOLOGIYA

Ta’lim tizimini boshqarish jarayonida “Kelajakning raqamli sanoatini yaratish” − inson kapitalini rivojlantirish darajasini oshirish orqali mamlakatni raqamli transformatsiyasini ishga tushirishni, ta’limda tezkor sur’atlarda raqamli o‘zgartirishni talab qiladi. Shu bilan birga, ta’lim jarayonida tadqiqotga asoslangan yondashuvdan faol foydalanish lozim va bu bilan ilmiy tadqiqotda talabalarning ko‘nikmalarini rivojlantirish va kreativ qobiliyatlarini va ijodiy fikrlashlarini shakllantirish mumkin [8].

Mamlakatimiz tarixidan ma’lumki O‘zbekiston zamini qadimda ikki buyuk uyg‘onish davriga − birinchi (ma’rifiy – IX-XII asrlar) va ikkinchi (Temuriylar – XIV-XV asrlar) renessansga beshik bo‘lgan. Har ikki davrda ham siyosiy barqarorlik ilm-fanning rivojlanishiga imkoniyat yaratgan. Ushbu davrlarda buyuk ajdodlarimiz diniy va dunyoviy yo‘nalishlarda katta ishlarni amalga oshirdilar. Ularning me’rosidan hozirgi kunga qadar dunyo ilm-fanida foydalanishlari bejizga emas. Bu sohada “2022−2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”ning ham IV yo‘nalishi “Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish”, deb nomlanib, ushbu yo‘nalishda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan vazifalar va asosiy ko‘rsatkichlar ko‘rsatib berilgan.

Shuningdek, mamlakatimizda ta’limni rivojlantirish borasida bir qator yirik ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2020-yil 23-sentyabrda O‘zbekistonning yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilinib, mazkur Qonun jahon standartlaridan kelib chiqqan holda sohadagi keng qamrovli munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan. Ayni paytda, aytish joizki, har qanday davlatda ta’limni rivojlantirmay turib davlatni rivojlantirib bo‘lmaydi. Bu borada har ikki yo‘nalish bir-biriga uzviy bog‘liq hisoblanadi.

Ta’lim tizimini xalqaro qamrovda ko‘radigan bo‘lsak, ushbu soha hozirda jahon amaliyotida ham jadallik bilan rivojlanib bormoqda. Ta’lim nafaqat nazariy bilimlar berishi bilan, balki har bir o‘quvchining iqtidorini yuzaga chiqarishga, ularda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish kabi yo‘nalishlarda o‘zgarib bormoqda. Zero, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev bizga miqdor emas sifat kerak, bunga erishish uchun esa xorij tajribasini yaxshilab o‘rganish zarur. Qaysi davlat kadrlar tayyorlashga alohida e’tibor qaratsa, o‘sha yutadi, ilmiy asoslangan tajriba asosida kadrlar tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish eng muhim vazifamizdir, deya ta’kidlab o‘tdilar. Bu borada bir qancha xorijiy davlatlar tajribalaridan misollar keltirish mumkin [3].

TADQIQOT NATIJASI

Rivojlangan davlatlar orasida Yaponiya ta’lim tizimi o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Yaponiya ta’lim tizimida “iqtidorli o‘quvchi” tushunchasi mavjud emas, chunki har bir o‘quvchining qaysidir sohada iqtidori mavjud. Yaponiya ta’lim tizimi maktabgacha ta’lim, boshlang‘ich maktab, kichik o‘rta maktab, yuqori o‘rta maktab hamda oliy ta’limni qamrab oladi. Yaponiyada 6 yoshdan 15 yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun ta’lim majburiy hisoblanadi. Yana eng e’tiborli jihatlaridan biri boshlang‘ich maktablarda o‘qituvchilar bolalarni tanqidga, o‘z xulqining yomon jihatlarini, maktabdagi kamchiliklarni tanqid qilishga o‘rgatishadi. Bundan ko‘rinib turibdiki o‘qituvchi faqat ta’lim berish bilan cheklanib qolmasdan, bolaning har tomonlama rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Yana bir e’tibor qaratidan jihatlaridan biri Yaponiyada oliy ta’limga o‘qishga kirish 2 bosqichda amalga oshiriladi. Dastlabki bosqichda yapon tili, matematika, fizika, kimyo, jamiyatshunoslik va tarix fanlaridan imtihon topshirishadi. Bunda eng asosiy fanlar ya’ni, matematika, fizika, va kimyo fanlarining qamrab olinishi, fikrimcha, yaponlardan kelajakda katta-katta ixtirolar qilinishi hamda “Nobel” mukofoti laureatlarining yetishib chiqishida asos bo‘lib xizmat qiladi.

Shuningdek, Yaponiyada bolalar tarbiyasida onalarning roli va mas’uliyati juda kattadir. Ular farzandlarining aqlli, dono va mehnatsevar bo‘lib o‘sishlari uchun oila sulolasi va va davlat oldida o‘zlarini mas’ul, deb hisoblashadi. Onalar uchun oilada tarbiya berishlariga yordamlashish maqsadida metodik qo‘llanmalar va tavsiyanomalar hatto nashr etilgan.

Yaponiya ta’lim tizimi eng ilg‘or AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya kabi davlatlarning ta’lim tizimining ijobiy jihatlaridan ijodiy o‘zlashtirgan holda shakllantirilgan. Shu bilan birga, yapon xalqining milliy xarakterini ham qamrab olganligi sababli hozirda eng ilg‘or ta’lim tizimiga ega davlatlardan biri hisoblanadi.

Jahon ma’rifat va ma’naviyat o‘choqlaridan biri bo‘lgan Germaniyada har bir fuqaro o‘z shaxsini erkin rivojlantirish, o‘z iqtidori, moyilligi va qobiliyatiga qarab maktab, o‘qish joyi va kasb tanlash huquqiga ega. Bu mamlakat ildizi asrlarga borib taqaluvchi ilmiy maktablari, Gyote, Gegel, Betxovet, Nitsshe, Eynshteyn singari olim va ijodkorlari bilan dunyoga mashhur. Nemislarga xos temir intizom, birso‘zlilik xislatlari aynan ta’lim dargohlarida shakllanadi.

Germaniyada maktab ta’limi boshlang‘ich maktab, yo‘nalish maktablari, asosiy maktab, real maktab, gimnaziya, umumiy maktab, maxsus maktab kabi maktab tiplariga bo‘linadi. Boshlang‘ich maktab ta’lim tizimining poydevori hisoblanadi. Boshlang‘ich maktab va yo‘nalish maktablarini tugatgan o‘quvchilar asosiy maktab, real maktab yoki gimnaziyaga o‘qishga qabul qilinadi. Asosiy maktabga real maktab va gimnaziyaga bormagan

barcha o‘quvchilar qamrab olinadi. Bu o‘quvchilar fanlardan yomon o‘zlashtirishlariga qaramasdan kasbiy ta’lim olishga majbur bo‘lishadi, ya’ni kasbga o‘rgatiladi. Real maktablarda yuqori darajali kengaytirilgan umumiy ta’lim beriladi va o‘quvchilarni mustaqil fikrlash, mas’uliyatni his etish, insonlarga rahbarlik qilish ko‘nikmalariga yuqori talab qo‘yiladigan kasb egalari bo‘lishlari uchun tayyorlanadi. Gimnaziyalarda gumanitar, tabiiy fanlar va xorijiy tillar chuqur o‘rgatiladi. Gimnaziya − oliy ta’limga tayyorgarlikning hal qiluvchi bosqichidir. Gimnaziyani imtiyozli shahodatnoma bilan tugatgan o‘quvchilar oliy ta’limga imtihonsiz qabul qilinadilar. Ammo imtiyozli shahodatnoma olish oson emas. Bundan ko‘rinib turibdiki barcha fanlardan a’lo darajada o‘qish talab etiladi [6].

Jahon ta’lim tizimida yetakchiga aylanib borayotgan Singapurda ta’lim tizimi bir qancha o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Bu davlatda ta’limni hayotga tayyorlash emas, balki hayotning o‘zi, deb qaraladi. Singapurdagi ta’limning o‘ziga xos jihatlaridan yana biri mamlakatda ta’lim tili xitoy tili bilan bir vaqtda ingliz tilida ham olib boriladi. Mamlakatning sobiq bosh vaziri Li Kuan Yu mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashishi oson kechishi uchun kundalik muloqotda ingliz tilidan foydalanishni taklif qilganidan keyin ta’lim tizimida ham bu o‘zining ta’sirini ko‘rsatdi.

Singapur ta’lim tizimi bunday yuksalish darajasiga kelgunga qadar uchta ta bosqichni bosib o‘tgan. Dastlabki bosqich 1959-1979-yillarni o‘z ichiga olib, bu davrda barcha ta’lim dasturlari standartlashtirildi, maktablarda ingliz tili asosiy o‘qitish tili sifatida tanlandi. Shu davrda mamlakatda 83 ta yangi maktablar qurildi, oliy ta’limni rivojlantirishga e’tibor qaratildi. 1979−1997-yillarni o‘z ichiga olgan ikkinchi bosqichda ta’limning sifatiga e’tibor qaratildi. Maktablarda sinflar bolalarning qobiliyatiga qarab ixtisoslashtirila boshlandi. Texnik ta’limga e’tibor qaratilib, maktablarda texnik fanlar joriy etilib, texnik ta’lim instituti tashkil etildi.

1997-yildan ta’lim tizimidagi mavjud imkoniyatlarni “pullash” davri boshlandi. Ko‘proq mablag‘ evaziga yaxshiroq ta’lim olish imkoniyati yaratildi. Shuningdek, 2008-yildan maktablardagi ommaviy ta’lim bekor qilinib, fuqarolar butun hayoti davomida ta’lim olishi mumkin bo‘lgan individual ta’lim dasturlariga yo‘l ochildi. Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun o‘qish pulini to‘liq qoplaydigan “Edusave” ta’lim grantlari tizimi joriy etildi. Bir so‘z bilan aytganda, Sipgapurda do‘stona (ingliz va xitoy tillarida o‘qitish), yosh avlodga puxta bilim berish, aholining barcha qatlamlari uchun davlat tomonidan kafolatlangan ta’limni joriy etish hamda har bir o‘quvchiga alohida e’tibor qaratish kabi omillar asosida zamonaviy ta’lim tizimi shakllantirildi [4].

Singapurda barcha o‘quv muassasalari Xalq ta’limi vazirligi tomonidan nazorat qilinadi. Singapurda xususiy maktablar ham mavjud bo‘lib, ushbu maktablarning faoliyatini ham Xalq ta’limi vazirligi nazorat qiladi. Singapurda davlat budjetining 20 foizga yaqin qismi ta’lim tizimiga ajratiladi. Buning natijasida davlat ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonlari sifatli tashkil etiladi. Shuning uchun mahalliy aholi o‘z farzandlarini ko‘p ham xususiy maktablarga qo‘yavermay, aksincha farzandini barcha sharoitlarga ega davlat maktablarida o‘qitishni afzal ko‘rishadi.

Singapurda ta’lim tizimida e’tibor qaratish mumkin bo‘lgan yana bir jihat shuki, ta’lim vazirligi o‘rta maktab bitiruvchilari orasida eng iqtidorlilarini o‘qituvchilikka tanlab oladi. Ular talabaligidayoq o‘qituvchi oyligining 60 foizi miqdoridagi stipendiya olishadi. Shuningdek, Singapur maktablarida yangi, yosh pedagoglar tajribali o‘qituvchilarga biriktirilib, tom ma’noda ustoz-shogird tizimi yo‘lga qo‘yilgan. Eng muhimi o‘qituvchilarga davlat xizmatchisi, davlatning eng ishongan, suyangan kishisi sifatida qaraladi.

Singapur 1995-yildan buyon matematika va tabiiy fanlar TIMSS bo‘yicha xalqaro bilimlar imtihonida dunyodagi eng yaxshi natijalarni ko‘rsatib kelmoqda. Shuningdek, PIRLS tadqiqotida (Ifodali o‘qish yutuqlarini o‘rganuvchi tadqiqot) Singapur aholisining savodxonligi dunyodagi eng yuqori ko‘rsatkichlarni qayd etmoqda. Ushbu natijalar bevosita Singapur davlatchiligining rivojiga o‘zining katta ijobiy ta’sirini ko‘rsatmoqda.

TAHLIL

Ta’lim tizimini rivojlantirishga, uni zamonaviy tendensiyalar asosida tashkil etishga e’tibor qaratgan davlatlarda iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish jadallik bilan amalga oshadi. Ta’lim tizimi rivojlanmagan davlatlarda esa har tomonlama rivojlanish sekinlik bilan bo‘ladi. Bunga misol sifatida bir xil imkoniyatlarga ega biz yuqorida o‘rgangan Singapur hamda Filippin davlatlarini keltirish mumkin.

XULOSA

O‘zbekistonda ham ta’lim tizimini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilyapti. Xususan, 2023 yil davlatimiz rahbari tomonidan “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”, deb e’lon qilinishi bu boradagi ishlarni yanada jadallashtirilishini anglatadi. Davlat ta’limi tizimini rivojlantirish maqsadida yangi darsliklar ustida ishlar olib borilyapti, Prezident maktablari va boshqa ixtisoslashgan maktablarning tashkil etilishi bu sohaga katta e’tibor qaratilayotganligiga yaqqol namunasi hisoblanadi.

Shuning bilan birga biz yurtimizda “Uchinchi renessans”ga poydevor qilishimiz uchun ensiklopedist olimlarni yetishtirib chiqarishimiz zarur. Buning uchun maktablarda va oliy ta’lim muassasalarida aniq fanlar

va tabiiy fanlarga katta e'tibor qaratish zarur, deb bilaman. Shuning bilan birga yuqorida ko'rib o'tgan davlatlarda texnik fanlarga ham alohida yo'nalish sifatida qaralgani alohida e'tiborga olinishi zarur. Har bir yangilikni yaratish uchun ham barcha fan yo'nalishlarini mukammal egallagan, ularni bir-biri bilan bog'lay oladigan eng yaxshi mutaxassislar, olimlar amalga oshirishi mumkin. Faqatgina bir tomonlama rivojlanish orqali yangiliklarni yaratish juda ham qiyin bo'lishi mumkin.

Ta'lim tizimini amaliyot bilan kengroq bog'lanishini ta'minlash lozim. Germaniyada har bir maktabda fanlar amaliyot bilan bog'lab o'rganiladi. Nazariyot amaliyot bilan bog'langanda ishlab chiqarishdagi muammolar fan yutuqlari orqali yechilish tizimi yaratiladi.

Eng muhim tomonlaridan yana biri davlat xizmatiga ham sifatli kadrlar kirib kelishi ta'minlanadi hamda o'zaro bog'liq ravishda davlatning rivojlanishida o'zining ijobiy natijasini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2019-yil 23-avgust kuni xalq ta'limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma'naviyatini yuksaltirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishidagi nutqidan.
2. Anvar Xo'jayev, Singapur ta'lim tizimi: jahon maorifida yetakchi brendga aylangan, Ma'rifat gazetasi, 11.01.2019.
3. Вулфсон Б.Ф. Сравнительная педагогика.− М.: "Просвещение", 2003 г.
4. Friedrich Scheuermann and Francesc Pedty "Assessing the effects of ICT in education "Indicators, criteria and benchmarks for international comparisons". Retrieved 20.01.2016 from http://www.csu.edu.au
5. Ikromov A.B., Maxmudov S.Y., Anorqulova G.M. Germaniya: Ta'lim, ilm-fan (metodik qo'llanma) Kasb mahorati jurnali. −2004-yil. −2 son.
6. A.Nosirov. Fransiyada ta'limsifatiqanday nazorat qilinadi? "Boshlang'ich ta'lim" jurnali. −2019-yil. −12-son.
7. PISA. http://www.education-medelle.com (Xalkaro monitoring tizimining PISA dasturi). −Retrieved 18.09.2016.
8. Самиева Ш., Нарзуллоева Ф. Oliy Talimda Strategik Fikrlash Va Kreativ Boshqarish Asosida Talimni Tashkil Etishning Muhim Yonalishlari: Samiyeva Shaxnoz Xikmatovna, pedagogika fanlari nomzodi, Buxoro muhandislik-texnologiya instituti dotsenti Narzulloyeva Feruza Fatulloyevna, Buxoro muhandislik-texnologiya instituti mustaqil tadqiqotchisi // Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2022. – №. 1. – С. 163-177.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОЛОГИИ “ЗЕЛЕНОГО” УЧЁТА В ФИНАНСОВОМ МЕНЕДЖМЕНТЕ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ КОМПАНИЙ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ В УЗБЕКИСТАНЕ

Глазова Марина Викторовна
кандидат экономических наук,
экономист ООО “ЛУКОЙЛ-Энергосервис” Москва,
Российская Федерация

Аннотация: Целью статьи является определение перспективы и разработку рекомендаций для совершенствования методологии “зеленого” учёта в финансовом менеджменте устойчивого развития компаний энергетической отрасли в Узбекистане. Для ее достижения проводится мониторинг активности “зеленого” учёта и результативности финансового менеджмента устойчивого развития компаний энергетической отрасли в Узбекистане и на основе данных за 2010-2022 гг. Главный вывод состоит в том, что для наиболее полного раскрытия потенциала устойчивого развития экономики Узбекистана необходимо совершенствование финансового менеджмента компаний энергетической отрасли, для чего требуется модернизация методологии их “зеленого” учета. Фундаментальная значимость полученных в статье результатов состоит в том, что они сформировали теоретическую базу для перехода к новому подходу к управлению энергетической отраслью в поддержку устойчивого развития, в котором будет активно осуществляться корпоративное управление. Для этого в качестве хозяйственной практики корпоративного управления, вносящей значимый вклад в устойчивое развитие компаний энергетической отрасли в Узбекистане, обоснован “зеленый” учет. Прикладная значимость статьи связана с тем, что разработанная усовершенствованная методология обеспечит необходимую модернизацию “зеленого” учёта и тем самым позволит воплотить на практике имеющиеся перспективы повышения эффективности финансового менеджмента устойчивого развития компаний энергетической отрасли в Узбекистане в период до 2026 г.

Ключевые слова: методология “зеленого” учёта, финансовый менеджмент, устойчивое развитие, компании энергетической отрасли, Узбекистан.

Annotatsiya: Maqolaning maqsadi O‘zbekiston energetika sanoati korxonalarining barqaror rivojlanishini moliyaviy boshqarishda “yashil” buxgalteriya hisobi metodologiyasini takomillashtirish istiqbollarini aniqlash va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Bunga erishish uchun O‘zbekistonda “yashil” buxgalteriya hisobi faoliyati va energetika sanoati korxonalarining barqaror rivojlanishini moliyaviy boshqarish samaradorligi monitoringi olib borilmoqda va 2010−2022-yillarga mo‘ljallangan ma’lumotlarga asoslanadi. Asosiy xulosa shundan iboratki, O‘zbekiston iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish salohiyatini to‘liq ochish uchun energetika sohasidagi kompaniyalarning moliyaviy boshqaruvini takomillashtirish zarur, bu esa ularning “yashil” hisobini yuritish metodologiyasini modernizatsiya qilishni talab qiladi. Maqolada erishilgan natijalarning fundamental ahamiyati shundaki, ular korporativ boshqaruv faol amalga oshiriladigan barqaror rivojlanishni qo‘llab-quvvatlashda energetika sanoatini boshqarishning yangicha yondashuviga o‘tishning nazariy asosini tashkil etdi. Shu maqsadda “yashil” buxgalteriya hisobi O‘zbekistonda energetika sohasidagi kompaniyalarning barqaror rivojlanishiga salmoqli hissa qo‘shadigan korporativ boshqaruvning biznes amaliyoti sifatida asoslanadi. Maqolaning amaliy ahamiyati shundan iboratki, ishlab chiqilgan takomillashtirilgan metodologiya “yashil” buxgalteriya hisobini zarur modernizatsiya qilishni ta’minlaydi va shu orqali 2026-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekistondagi sanoat kompaniyalari energiyaning barqaror rivojlanishini moliyaviy boshqarish samaradorligini oshirishning mavjud istiqbollarini amalda qo‘llash imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: yashil buxgalteriya metodologiyasi, moliyaviy menejment, barqaror rivojlanish, energetika sanoati kompaniyalari, O‘zbekiston.

Abstract: The purpose of the article is to determine the prospects and develop recommendations for improving the methodology of “green” accounting in the financial management of sustainable development of companies in the energy industry in Uzbekistan. To achieve it, monitoring of the activity of “green” accounting and the effectiveness of financial management of sustainable development of energy industry companies in Uzbekistan is carried out and is based on data for 2010-2022. The main conclusion is that to fully unlock the potential for sustainable development of the economy of Uzbekistan, it is necessary to improve the financial management of companies in the energy industry, which requires modernizing the methodology of their “green” accounting. The fundamental significance of the results obtained in the article is that they formed a theoretical basis for the transition to a new approach to managing the energy industry in support of sustainable development, in which corporate governance will be actively implemented. For this purpose, “green” accounting is justified as a business practice of corporate governance that makes a significant contribution to the sustainable development of companies in the energy industry in Uzbekistan. The applied significance of the article is due to the fact that the developed improved methodology will provide the necessary modernization of “green” accounting and thereby make it possible to put into practice the existing prospects for increasing the efficiency of financial management of sustainable development of energy industry companies in Uzbekistan in the period until 2026.

Key words: green accounting methodology, financial management, sustainable development, energy industry companies, Uzbekistan.

ВВЕДЕНИЕ

В Узбекистане в текущей “Пятилетней стратегии развития Узбекистана”, утвержденная ЕБРР [5] большое внимание уделено вопросам устойчивого развития, включая декарбонизацию, создание новых и развитие существующих “зеленых” городов. Ядром инструментария реализации данной стратегии является переход на возобновляемую энергию, которая к 2026 г. должна достичь четверти всей генерируемой энергии в Узбекистане.

Среди наиболее очевидных и нашедших широкое отражение в существующей литературе хозяйственных практик в энергетической отрасли, вносящих вклад в устойчивое развитие Узбекистана, практика государственного нормирования (включая квоты на выбросы углерода и добычу топливно-энергетических природных ресурсов) и экологической стандартизации. Также к их числу относится практика экологического налогообложения, включая климатическое налогообложение. Среди рассматриваемых практик также субсидирование экологических инноваций компаниями энергетической отрасли.

Как можно заметить, известные и получившие научное подтверждение хозяйственные практики в энергетической отрасли, вносящие вклад в устойчивое развитие Узбекистана, относятся к области государственного регулирования данной отрасли. Из-за этого деятельность непосредственно самих энергетических компаний в Узбекистане воспринимается как второстепенная при развитии энергетической отрасли в поддержку устойчивого развития экономики.

Эта деятельность узбекских энергетических компаний связывается с выполнением требований государственных регуляторов и с проявлением корпоративной экологической ответственности. В связи с этим сложившийся подход к управлению энергетической отраслью в поддержку устойчивого развития в Узбекистане опирается на государственное управление и соответственно возлагает основную ответственность за успешность данного развития на государственные регуляторы.

В существующем подходе ограниченный вклад энергетических компаний в устойчивое развитие экономики Узбекистана трактуется как “провал рынка”. Недостатком сложившегося подхода является то, что он не учитывает ни завершенность рыночных реформ и сформированность высокоэффективных рыночных отношений хозяйствующих субъектов в Узбекистане, центральным субъектом которых является частный бизнес, ни прогрессивность и динамичное развитие корпоративной экологической культуры в Узбекистане.

Основываясь на опыте прошлых лет, сложившийся подход сегодня сдерживает экологические инициативы компаний энергетической отрасли в Узбекистане. В связи с этим актуальность представляет научная проработка возможностей перехода к новому подходу к управлению энергетической отраслью в поддержку устойчивого развития, в котором будет активно осуществляться корпоративное управление.

Для разработки этого подхода требуется определение хозяйственных практик корпоративного управления, вносящих значимый вклад в устойчивое развитие компаний энергетической отрасли в Узбекистане. В качестве одной из таких практик в этой статье изучается “зеленый” учет. Целью статьи является определение перспективы и разработку рекомендаций для совершенствования методологии “зеленого” учёта в финансовом менеджменте устойчивого развития компаний энергетической отрасли в Узбекистане.

Для достижения сформулированной цели в статье преследуются следующие задачи. Первая задача состоит в проведении мониторинга активности “зеленого” учёта и результативности финансового менеджмента устойчивого развития компаний энергетической отрасли в Узбекистане. Четвертой

задачей является совершенствование методологии “зеленого” учёта в финансовом менеджменте устойчивого развития компаний энергетической отрасли в Узбекистане

ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ

Методологические аспекты “зеленого” учёта компаний энергетической отрасли в Узбекистане раскрыты в трудах [9; 12; 13]. В соответствии с существующей методологией, в качестве ключевой области “зеленого” учета, по которой ведется наиболее подробный учет, выступают “зеленые” инвестиции [4; 8]. При ведении “зеленого” учёта компаний энергетической отрасли в Узбекистане применяются международные стандарты финансового учета (МСФО) в поддержку “зеленой” торговли [2; 10; 11].

В некоторых источниках литературы, в частности, в трудах [1; 6], также отмечается целесообразность отражения “зеленой” занятости при ведении “зеленого” учета компаний энергетической отрасли. В качестве отражаемого в “зеленом” учете целевого результата менеджмента устойчивого развития компаний энергетической отрасли в Узбекистане выступает производство и потребление возобновляемой энергии [3; 14].

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ

Статистическую основу этого исследования сформировали данные Global Green Growth Institute [7] о “зеленом” росте экономики Узбекистана в 2010-2022 гг. В качестве первой задачи этого исследования выступает проведение мониторинга активности “зеленого” учёта и результативности финансового менеджмента устойчивого развития компаний энергетической отрасли в Узбекистане.

Для этого строятся диаграммы и оценивается степень приближенности фактических значений показателей, наблюдаемых в Узбекистане в 2022 г., к максимально возможным и наилучшим значениям (100 баллом). Методом трендового анализа определяется темп роста значения показателей в 2022 г. по сравнению с 2010 г.

В качестве четвертой задачи этого исследования выступает разработка авторских рекомендаций для совершенствования методологии “зеленого” учёта в финансовом менеджменте устойчивого развития компаний энергетической отрасли в Узбекистане. Усовершенствованная методология представляется в виде схемы с помощью графического метода, а также сопоставляется с существующей методологией с помощью метода сравнительного анализа.

РЕЗУЛЬТАТЫ

Мониторинг активности “зеленого” учёта и результативности финансового менеджмента устойчивого развития компаний энергетической отрасли в Узбекистане

Для решения первой задачи этого исследования проведен мониторинга активности “зеленого” учёта и результативности финансового менеджмента устойчивого развития компаний энергетической отрасли в Узбекистане. Для этого построены диаграммы и оценена степень приближенности фактических значений показателей, наблюдаемых в Узбекистане в 2022 г., к максимально возможным и наилучшим значениям (100 баллом). Также проведен трендовый анализ данных – оценен темп роста всех изучаемых показателей в 2022 г. по сравнению с 2010 г. (рис. 1-3).



Рисунок 1: Достижения “зеленого” учета в финансовом менеджменте компаний энергетической отрасли Узбекистана, баллы 1-100

Из рис. 1 видно, что наиболее выдающимся достижением компаний энергетической отрасли Узбекистана в области “зеленого” учета в финансовом менеджменте является значительный поток “зеленых” инвестиций, который оценен в 2022 г. 63,59 баллов из 100 возможных. Поток “зеленых” инвестиций в экономику Узбекистана в 2022 г. увеличился на 60,62% по сравнению с 2010 г., когда он оценивался в 39,59 баллов.

“Зеленая” занятость в Узбекистане умеренно распространена и оценена в 2022 г. в 25,41 баллов. Она сократилась на 27,15% по сравнению с 2010 г., когда ее уровень в Узбекистане оценивался в 34,88 баллов. “Зеленая” торговля в Узбекистане слабо распространена и оценена в 2022 г. в 2,08 баллов. Она сократилась на 96,10% по сравнению с 2010 г., когда ее уровень в Узбекистане оценивался в 53,36 баллов.



Рисунок 2: Достигнутые результаты менеджмента устойчивого развития компаний энергетической отрасли Узбекистана, баллы 1-100

Из рис. 2 видно, что наиболее выдающимся результатом менеджмента устойчивого развития компаний энергетической отрасли Узбекистана является низкая энергоемкость первичной энергии, то есть высокая энергетическая эффективность деятельности компаний энергетической отрасли. Она оценена в 2022 г. 51,34 баллов и возросла на 249,01% по сравнению с 2010 г., когда она оценивалась в 14,71 баллов.

Эффективность распределения и использования энергии в Узбекистане в 2022 г. является умеренной и в 2022 г. оценивается в 22,28 баллов. Она возросла на 50,44% по сравнению с 2010 г., когда ее уровень в Узбекистане оценивался в 14,81 баллов. Потребление возобновляемой энергии в Узбекистане является низким. В 2022 г. оно оценивается в 2,98 баллов. Оно сократилось на 17,22% по сравнению с 2010 г., когда его активность в Узбекистане оценивалась в 3,60 баллов.



Рисунок 3: Достигнутые преимущества в области устойчивого развития экономики Узбекистана, баллы 1-100

Из рис. 3 видно, что наиболее выдающимся достигнутым преимуществом в области устойчивого развития экономики Узбекистана является благоприятное состояние окружающей среды, которое в 2022 г. оценено в 89,10 баллов. Оно улучшилось на 4,30% по сравнению с 2010 г., когда состояние окружающей среды в Узбекистане оценивалось в 85,43 баллов. Также в Узбекистане наблюдается достаточно высокий уровень экологической культуры и "зеленых" сообществ, который в 2022 г. оценен в 69,31 баллов. Он увеличился на 14,43% по сравнению с 2010 г., когда ее уровень в Узбекистане оценивался в 60,57 баллов.

Объем выбросов углерода в Узбекистане умеренный, успешность его сокращения в 2022 г. достаточно высоко оценена: в 61,71 балл. Она возросла на 6,51% по сравнению с 2010 г., когда ее уровень в Узбекистане оценивался в 57,94 баллов. Активность сохранения биоразнообразия и рост защищенности экосистем в Узбекистане Умеренная, в 2022 г. оценивается в 28,31 баллов. Она увеличилась на 7,72% по сравнению с 2010 г., когда ее уровень в Узбекистане оценивался в 26,28 баллов.

Таким образом, проведенный мониторинг выявил заметные результаты финансового менеджмента устойчивого развития компаний энергетической отрасли в Узбекистане, но также значительный потенциал их наращения. Также проведенный мониторинг показал, что существует значительный потенциал роста активности "зеленого" учёта в Узбекистане.

Усовершенствованная методология "зеленого" учёта в финансовом менеджменте устойчивого развития компаний энергетической отрасли в Узбекистане

Для решения четвертой задачи этого исследования и предложения перспективного способа совершенствования методологии "зеленого" учёта в финансовом менеджменте устойчивого развития компаний энергетической отрасли в Узбекистане разработаны авторские рекомендации. Усовершенствованная методология представлена в виде схемы на рис. 4.

Рисунок 4: Усовершенствованная методология "зеленого" учёта в финансовом менеджменте устойчивого развития компаний энергетической отрасли в Узбекистане

Источник: рассчитано и составлено автором.

В соответствии с рис. 4, для совершенствования методологии "зеленого" учёта в финансовом менеджменте устойчивого развития компаний энергетической отрасли в Узбекистане предлагается комплекс следующих авторских рекомендаций. Во-первых, ориентация "зеленого" учета узбекских компаний энергетических отрасли на национальные стандарты "зеленого" учета Узбекистана, применяемые в данной отрасли.

Во-вторых, реструктуризация “зеленого” учета, в котором в качестве основной области должна выступать “зеленая” занятость, а в качестве дополнительной области – “зеленые” инвестиции. В-третьих, включение в состав отражаемых в “зеленом” учете целевых результатов менеджмента устойчивого развития компаний энергетической отрасли: 1) эффективности распределение и использования энергии; 2) энергоемкости первичной энергии как показатель энергетической эффективности деятельности компаний энергетической отрасли.

ОБСУЖДЕНИЕ

Статья продолжает и поддерживает научную дискуссию [9; 12; 13] по вопросам методологии “зеленого” учёта компаний энергетической отрасли в Узбекистане. Сравнительный анализ существующей и усовершенствованной методологии “зеленого” учёта в финансовом менеджменте устойчивого развития компаний энергетической отрасли в Узбекистане проведен в табл. 1.

Таблица 1: Сравнительный анализ существующей и усовершенствованной методологии “зеленого” учёта в финансовом менеджменте устойчивого развития компаний энергетической отрасли в Узбекистане

Области сравнения	Существующая методология	Усовершенствованная методология
Ключевая область “зеленого” учета, по которой ведется наиболее подробный учет	“зеленые” инвестиции [4; 8]	“зеленая” занятость
Применяемые стандарты “зеленого” учета	международные стандарты финансового учета (МСФО) в поддержку “зеленой” торговли [2; 10; 11]	национальные стандарты “зеленого” учета
Отражаемые в “зеленом” учете целевые результаты менеджмента устойчивого развития компаний энергетической отрасли	производство и потребление возобновляемой энергии [3; 14]	эффективность распределение и использования энергии; энергоемкость первичной энергии как показатель энергетической эффективности деятельности самих компаний энергетической отрасли.

Источник: разработано и составлено автором.

В соответствии с табл. 1, ключевой областью “зеленого” учета, по которой ведется наиболее подробный учет, в его усовершенствованной методологии выступают “зеленая” занятость, в то время как “зеленые” инвестиции , являющиеся ключевыми в существующей методологии, отходят на второй план (в отличие от [4; 8]). В отличие от существующей методологии в усовершенствованной методологии применяются не международные стандарты финансового учета (МСФО) в поддержку “зеленой” торговли (в отличие от [2; 10; 11]), а национальные стандарты “зеленого” учета.

Отражаемыми в “зеленом” учете целевые результаты менеджмента устойчивого развития компаний энергетической отрасли в усовершенствованной методологии являются эффективность распределение и использования энергии; и энергоемкость первичной энергии как показатель энергетической эффективности деятельности самих компаний энергетической отрасли, в то время как ведение учета производства и потребления возобновляемой энергии не предполагается (в отличие от [3; 14]).

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Главный авторский вывод состоит в том, что для наиболее полного раскрытия потенциала устойчивого развития экономики Узбекистана необходимо совершенствование финансового менеджмента компаний энергетической отрасли, для чего требуется модернизация методологии их “зеленого” учета.

Фундаментальная значимость полученных в статье результатов состоит в том, что они сформировали теоретическую базу для перехода к новому подходу к управлению энергетической отраслью в поддержку устойчивого развития, в котором будет активно осуществляться корпоративное управление. Для этого в качестве хозяйственной практики корпоративного управления, вносящей значимый вклад в устойчивое развитие компаний энергетической отрасли в Узбекистане, обоснован “зеленый” учет.

Прикладная значимость статьи связана с тем, что разработанная усовершенствованная методология обеспечит необходимую модернизацию “зеленого” учёта и тем самым позволит воплотить на практике имеющиеся перспективы повышения эффективности финансового менеджмента устойчивого развития компаний энергетической отрасли в Узбекистане в период до 2026 г.

Список литературы:

1. Abdurakhmanov, K.K, Umurzakov, B.K, Zokirova, N.K, Ugli, T.N.B., Abdurakhmanova, G.K Impact of demographic processes on the labor market of Uzbekistan. International Journal of Recent Technology and Engineering, 8(3 Special Issue), 572-576, 2019. DOI: 10.35940/ijrte.C1115.1083S19.
2. Burkhanov, A.U., Tursunov, B., Uktamov, K., Usmonov, B. Econometric analysis of factors affecting economic stability of chemical industry enterprises in digital era: in case of Uzbekistan. ACM International Conference Proceeding Series, 484–490, 2022.
3. Campos, C.F.C., de Sá Machado, V.A., Soares, L.O., Boloy, R.A.M. Techno-economic analysis and eco-efficiency indicators of a biomass-solar hybrid renewable energy system for João Pinheiro City. Discover Sustainability, 5(1), 41, 2024. DOI: 10.1007/s43621-024-00221-6.
4. Dye, C.-Y., Hsieh, T.-P. A sustainable dynamic optimization model of pricing and advertising in the presence of green innovation investment. European Journal of Operational Research, 315(2), 654–667, 2024. DOI: 10.1016/j.ejor.2024.01.007.
5. EBRD. Пятилетняя стратегия развития Узбекистана. Available at: https://www.ebrd.com/documents/osg/am22-uzbekistan-r.pdf (data accessed: 18.03.2024).
6. Ergasheva, S.T., Mannapova, R.A. & Yuldashev, E.I. Accounting-A system for managing economic information in agriculture. New Institutions for Socio-Economic Development: The Change of Paradigm from Rationality and Stability to Responsibility and Dynamism, 173-181, 2021. DOI: 10.1515/9783110699869-018.
7. Global Green Growth Institute. Global Green Growth Index: Uzbekostan 2010-2022. Available at https://ggindex-simtool.gggi.org/SimulationDashBoard/country-profile (data accessed: 18.03.2024).
8. Huang, L. Green bonds and ESG investments: Catalysts for sustainable finance and green economic growth in resource-abundant economies. Resources Policy, 91, 104806, 2024. DOI: 10.1016/j.resourpol.2024.104806.
9. Kadesnikova, O.V., Kadesnikov, S.A., Safina, R.R., Kireyeva, O.A., Kholbekov, R.O. Russian Practice of Ensuring the Economic Security of Production Enterprise on the Basis of Corporate Accounting System. Studies in Big Data, 124, 133-143, 2023. DOI: 10.1007/978-3-031-29489-1_16.
10. Karbekova, A.B., Makhkamova, S.G., Inkova, N.A., Pakhomova, O.K. Automation based on datasets and ai of corporate accounting and sustainability reporting in quality management in industry 4.0. Proceedings on Engineering Sciences, 5(S2), 265-278, 2023. DOI: 10.24874/PES.SI.02.007.
11. Kozimjonov, A., Problems with Accounting of Borrowing Costs Capitalized in Compliance with the IFRS and the Ways to Solve them. ACM International Conference Proceeding Series, 366, 369, 2021. DOI: 10.1145/3508072.3508137.
12. Salahodjaev, R., Djalilov, B., Kobiljonov, I., Otajonov, S. & Kasimova, N., Industrialization and CO2 Emissions: Accounting for the role of Renewable Energy in OIC Member States. International Journal of Energy Economics and Policy, 13(5), 37-43, 2023. DOI: 10.32479/ijeep.12544.
13. Tran, T., Bui, H., Vo, A.T., Vo, D.H. The role of renewable energy in the energy–growth–emission nexus in the ASEAN region. Energy, Sustainability and Society, 14(1), 17, 2024. DOI: 10.1186/s13705-024-00446-3.

YANGI O‘ZBEKISTON STRATEGIYASIDA INSTITUTSIONAL ISLOHOTLARNI YANADA CHUQURLASHTIRISH VA KO‘P FUNKSIYALI RAQAMLASHTIRISHNING ILMIY ASOSLARI

Berkinov B. B.
I.f.d., TDIU “Makroiqtisodiy tahlil va prognozlashtirish” kafedrasi professori, “Institutsional va iqtisodiy tadqiqotlar markazi” direktori

Annotatsiya: Maqolada institutsional islohotlarni yanada chuqurlashtirish va uni raqamlashtirishning ilmiy-metodologik jihatlari ishlab chiqilgan. Unda institutsional islohotlarni chuqurlashtirish konsepsiyasi, yangi institutlarni shakllantirish, ular tamoillari va jozibadorligini oshirish yo‘llari hamda raqamlashtirish modellari taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: iqtisodiyotni institutsional tuzilishi, institutsional islohotlar, inklyuziv institutlar, islohotlar tamoyillari, transaksiya munosabatlari, jozibadorlik, mahalla institutlari, raqamlashtirish, samaradorlik omillari.

Abstract: The article reveals the scientific and methodological aspects of further deepening institutional reforms and their digitalization. It proposes a concept for deepening institutional reforms and the formation of new institutions, principles and ways to increase their attractiveness, as well as digitalization models.

Key words: institutional structure of the economy, institutional reforms, inclusive institutions, principles of theology, transactional relationships, attractiveness, mahalla institutions, digitalization, efficiency factors.

Аннотация: В статье раскрыты научно-методологические аспекты дальнейшего углубления институциональных реформ и их цифровизации. В ней предложены концепция углубления институциональных реформ и формирования новых институтов, принципы и пути повышения их привлекательности, а также модели цифровизации.

Ключевые слова: институциональная структура экономики, институциональные реформы, инклюзивные институты, принципы теологии, транзакционные отношения, привлекательность, институты махалли, цифровизация, факторы эффективности.

KIRISH

O‘zbekistonda tarixan qisqa davr mobaynida davlat va jamiyat qurilishini tartibga soluvchi bozor tamoillariga asoslangan tubdan yangi institutlar va shunga mos institutsional muhit shakllantirildi. Uning negizini xalqimiz turmush tarzini, urf-odatlarini, diniy e’tiqodlarini hisobga oluvchi O‘zbekiston Respublikasining yangi Konstitutsiyasi, shuningdek, mamlakatimiz qonunlari, normativ-huquqiy hujjatlar tashkil etadi. Shulardan kelib chiqib, biz O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti institutsional tuzilishini asosladik (1-rasm).

Bu jamiyatda davlat va biznes tuzilmalarini boshqarish, mulkchilik, ishlab chiqarish va taqsimot munosabatlariga, bozor islohotlari chuqurlashuviga, tabiiy va mehnat resurslaridan samarali foydalanishga kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Shu bilan birga, Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasini ta’minlovchi institutlar va ular normalarini rivojlantirish yo‘nalishlarida hal etilishi lozim bo‘lgan ko‘plab muammolar, amalda o‘z yechimini kutayotgan ustuvor vazifalar mavjud.

Gap shundaki, har qanday davlat va jamiyat, uning iqtisodiy agentlari ma’lum bir institutlar doirasida faoliyat yuritadi va rivojlanib boradi. Vaqt o‘tishi bilan institutlar rivojlanishning ichki talablari va tashqi omillari ta’siri ostida taraqqiyotga to‘siq bo‘lib qoladi. Bunday vaziyatlarda mavjud institutlar va institutsional muhitni takomillashtirish yoki ular o‘rniga yangilarini amalga kiritish talab etiladi.



1-rasm: O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining institutsional tuzilishi

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, institutlar va institutsional normalarning mamlakat iqtisodiy rivojlanishidagi roli nima bilan izohlanishi, xususan, nima uchun bozorlar yoki mulkchilik munosabatlari ishlaydi yoki ishlamaydi, iqtisodiyotda olib borilayotgan siyosatning u yoki bu tadbirlari nima uchun samarali yoki samarasiz bo'ladi, iqtisodiy-ijtimoiy sohadagi qaysi o'zgarishlar ichki sabablarga ko'ra yoxud hukumatning u yoki bu qarori tufayli yuzaga keladi, nega ayrim davlatlar boy, ayrimlari kambag'al, degan savollarga javob topish hozirgi kunda "O'zbekiston–2030" strategiyasida institutsional islohotlarni chuqurlashtirishda asosiy o'rin egallaydi. Shularni hisobga olganda, "O'zbekiston–2030" strategiyasining ustuvor yo'nalishlari, maqsadlari va vazifalari doirasida institutsional islohotlarni yanada chuqurlashtirish va uni ko'p funksiyali raqamlashtirish jarayonlarida foydalaniladigan ilmiy konsepsiya, usul va modellarni ishlab chiqish hozirgi kunning zaruriy fundamental va amaliy tadqiqotlari qatoriga kiradi.

Bu Yangi O'zbekiston rivojlanishida Harakatlar strategiyasidan – taraqqiyot strategiyasiga o'tishda inklyuziv institutlarning paydo bo'lishi va ular rivojlanishini har tomonlama rag'batlantirish, iqtisodiyot tarmoqlari nufuzini oshirish, ijtimoiy sohani, aholini qo'llab-quvvatlashni faollashtirish hamda himoya qilishning institutsional normalarini hayotga keng kirib kelishini ta'minlaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Institutlar va institutsional islohotlarni chuqurlashtirish muammolariga ko'plab xorijiy va mamlakatimiz olimlarining ilmiy ishlari bag'ishlangan. Institutlar va hozirgi zamon institutsional iqtisodiyoti rivojlanishiga D.Nort, R.Kouz, T.Eggertson va boshqalar tadqiqotlari katta hissa qo'shgan. Daron Ajemo'g'li, Saymon Jonson va Jeyms Robinson va boshqalar institutsional munosabatlarni chuqur tahlil qilgan va ular tadqiqotlarida inklyuziv va ekstrativ institutlarning amaliy jihatlarini ochib bergan.

Rossiyalik olimlar A.N.Oleynik, R.M.Nureyev, A.Ye.Shastitko, A.V.Sicheyeva va boshqalar ishlarida institutsional iqtisodiyotning yangi yo'nalishlari asoslangan.

Mamlakatimizda X.P.Abilqosimov, R.X.Toshmatov, A.A.Xoshimov, A.M.Qodirov va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida mulk huquqi, institutsional islohotlar, transaksiyalar, shartnomalar, norasmiy iqtisodiyot nazariyasi va amaliyot bilan bog'liq masalalar yoritilgan.

Tahlil qilingan ilmiy ishlarda yangi institutlar hamda institutsional muhit shakllanishi, bugungi kunda institutsional islohotlarni yanada chuqurlashtirish hamda raqamlashtirish, ular modellarini ishlab chiqish yo'nalishlari yetarlicha o'rganilmagan. Shularni inobatga olib, biz institutsional nazariya asoschilari tadqiqotlariga tayangan holda yangi O'zbekiston strategiyasida institutsional islohotlarni chuqurlashtirish va raqamlashtirishning konseptual qoidalarini taklif qilishga harakat qildik.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasini O‘zbekiston Respublikasining yangilangan Konstitutsiyasi, islohotlar tamoillari, mamlakatimizda qabul qilingan “O‘zbekiston–2030” strategiyasining barqaror iqtisodiy o‘sishini ta’minlash me’zonlari, raqamlashtirish usullari hamda modellari tashkil etadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Institutsional islohotlarni chuqurlashtirish konsepsiyasi. O‘zbekistonda institutlar rivojlanishi va vaqt o‘tishi bilan o‘zgarib borishi, ularning o‘zaro bog‘liqlik qonuniyatlari to‘g‘risidagi bilimlar faol shakllanish bosqichiga o‘tmoqda. Shu bilan bir qatorda, mamlakatimizda institutsional iqtisodiyot fani doirasida ma’lum ilmiy – amaliy natijalar qo‘lga qiritilgan bo‘lsada, institutsional islohotlarni izchil amalga oshirish uchun bular yetarli emas. Ushbu yo‘nalishda TDIU tarkibidagi “Institutsional va iqtisodiy tadqiqotlar markazi” 2009-2023-yillarda 4 ta grant loyihalari ijrochilari boshqa ilmiy hamda OTM markazlar bilan hamkorlikda tadqiqot ishlari olib bormoqda. Shularni etiborga olganda, ushbu sohada institutlar va institutsional muhit normalarini, Yangi O‘zbekiston strategiyasini samarali amalga oshirishning nazariy qoidalarini ishlab chiqish talab etiladi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, biz Yangi O‘zbekiston iqtisodiyotida institutsional islohotlarni yanada chuqurlashtirish konsepsiyasini asoslashga harakat qildik (2-rasm). Uning asosini bir – birini birlashtiruvchi quyidagi uchta g‘oya tashkil etadi:

- inklyuziv institutlarni rivojlantirish;
- inklyuziv iqtisodiy o‘sishni ta’minlash;
- institutsional muhit jozibadorligini oshirish.



2-rasm: Yangi O‘zbekiston iqtisodiyotida institutsional islohotlarni amalga oshirishning ilmiy-nazariy asoslari

Iqtisodiyotda inklyuziv va ekstraktiv institutlar mavjud. Inklyuziv institutlar – mamlakat iqtisodiyotiga va uning barqaror o‘sishiga sarmoya kiritishga qaratilgan institutlar bo‘lib, ular inklyuziv o‘sishning afzalliklarini kengroq e’tirof etadi. Shuning uchun butun jamiyat va uning alohida guruhlari ham, ushbu iqtisodiy o‘sishdan manfaatdor bo‘lib, mulk huquqlarini himoya qilishga, raqobatga, iqtisodiyot agentlari o‘rtasidagi shartnomalarni bajarishga qaratilgan siyosatni qo‘llab-quvvatlaydi.

Ekstraktiv institutlar– ozchilik guruh (elita) uchun iqtisodiyotdan foyda “olish”ga e’tibor qaratadi. Bunday jamiyatda barqarorlik ancha past bo‘lib, ijtimoiy birdamlik mavjud bo‘lmaydi. Bugun mamlakatmizda amalga oshirilayotgan tadbirlar ekstraktiv institutlarni cheklashga qaratilgan. Masalan, korrupsi yani cheklash va uni yo‘qotish.

Inklyuziv institutlar innovatsiyalar va yangi texnologiyalarni ishlab chiqaradigan inson kapitalini yaratish hamda samarali qo‘llash davrini ishga tushiradi va bu o‘z navbatida ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga, faolroq iqtisodiy o‘sishga va ijtimoiy farovonlikning oshishiga olib keladi (3-rasm).

Shu bois iqtisodiyot subyektlari o‘rtasida o‘zaro munosabatlarda mavjud inklyuziv institutlarni doimiy ravishda qayta ko‘rib chiqish va takomillashtirish davlatni iqtisodiy boyishiga va farovonlikka olib boradi, ekstrativ institutlar esa asta-sekin qashshoqlashuvga sabab bo‘ladi.



3-rasm: Inklyuziv institutlar va aholi farovonligini oshirish

Ushbu holatlardan kelib chiqib, biz barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlovchi inklyuziv institutlar tizimini asosladik. Ular qatoriga quyidagi iqtisodiy institutlar to‘plamlarini kiritdik: talab institutlari; iste’mol institutlari; taqsimlash institutlari; almashish va ijtimoiy shartnomalar instituti; ishlab chiqarish (xizmat ko‘rsatish) institutlari; boshqarish institutlari; institutlarni ko‘paytirish va o‘zgartirish institutlari; davlat institutlari.

“Eski” institutlar to‘plamlari institutsional normalarni transformatsiyalash va uning normalarini o‘zgartirish - yangi inklyuziv institutlar shakllanishiga olib kelishi mumkin (4-rasm).



4-rasm: Yangi institutlarni shakllantirish

Keyingi yillarda aksariyat mamlakatlarda, shu jumladan, O‘zbekistonda ham barqaror iqtisodiy o‘sish to‘g‘risida gap ketganda iqtisodchilar institutsional islohotlarga ko‘proq e’tibor qaratmoqda. Umuman olganda olimlar iqtisodiyotda institutlar farovonlikka yagona yoki eng muhim izoh ekanligini ta’kidlashadi. Shularni inobatga olib, biz tadqiqotlarimizda “institut” o‘zi nima?, degan tushunchaga ko‘proq e’tibor qaratdik.

1. Institut – bu ijtimoiy tuzilma. U kishilar o‘rtasidagi ijtimoiy aloqa mavjudligini bildiradi. Biz o‘zimizning birgalikda yashash va ishlashimiz orqali institutni yaratamiz.
2. Institut – bu tartibga soluvchi kuch, odamlar tanlovini va xo‘jalik yuritishni chegaralaydi. Jamiyat insonlarga institut orqali ta’sir ko‘rsatadi.
3. Institut – odamlar o‘zaro aloqadorligining ma’lum bir tarkibiy tuzilmasini yaratadi. Shunday qilib, institutga insonlar o‘rtasidagi xatti-harakatni tarkiblashtiradigan ijtimoiy nazorat mexanizmi sifatida qarash mumkin.
4. Institut – bu qoida, insonlar yakka harakati yoki ular guruhining o‘zaro harakatining ma’lum bir chegarasi, qoidalar tizimi.
5. Institut – bu ta’sir qiluvchi kuch. Institut bu faqatgina rasmiy qoidalar emas, norasmiy chegaralarni ham o‘zida mujassam etadi.
6. Institut – nazorat bo‘yicha harakat yoki hokimiyatdir. Qisqacha aytganda, institut – bu harakat, ushbu harakat mazmuni esa – hokimiyat (nazorat)dir.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

7. Institut – bu real xulq-atvor (o‘zini tuta bilishlik) yoki harakatdagi qoidadir.
8. Institut – bu ijtimoiy tartibdir. Amaldagi institutlar (qoidalar) va xatti – harakatning real ketma-ketligi asosida ma’lum bir ijtimoiy tartib shakllanadi.
9. Institut – bu tashkilotdir. Kishilar faoliyatini yo‘naltiruvchi va bo‘ysundiruvchi hamda ijtimoiy xatti-harakatlarni tarkiblashtiruvchi omillar.

Institutsional islohotlar tamoyillari va bosqichlari. Institutsional islohotlar ma’lum bir yo‘nalishda aniq maqsad va vazifalar doirasida boshqaruv funksiyalari hamda tamoyillariga asoslanib amalga oshiriladi. Ular quyidagilar:

1. Institutlar va institutsional islohotlar funksiyalari:
a) tashqi va ichki muhitdan axborotlar qabul qilish;
b) manfaatlar muvozanatini saqlashni tartibga solish;
d) islohotlar o‘zgarishi darajalarini va bosqichlarini muvofiqlashtirish.
2. Bir-birini to‘ldiruvchi islohotlar tamoyili:
a) joriy bosqichda islohotlarni amalga oshirishning yangi shartlarini o‘z vaqtida aks ettirish;
b) manfaatlar balansi buzilganda islohotlarni amalga oshirishni cheklash;
d) islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirishga imkoniyat yaratish.
3. Islohotlarning innovatsionligi tamoyili:
a) islohotlar subyektlarini innovatsion aktivligini rag‘batlantirish;
b) katta hajmdagi institutsional innovatsiyalar manfaatlar balansini ta’minlashi;
d) institutsional innovatsiyalar inson kapitali samaradorligini oshirishi
4. Islohotlar subyektlari o‘rtasida axborot oqimlari ochiqligi va ko‘p funksiyali raqamlashtirish tamoyili:
a) institutsional islohotlar axborotlar oqimini raqamlashtirish funksiyalarini amalga oshirish bilan kuchli bog‘liqligi;
b) axborot ochiqligi funksiyasini amalga kiritish institutlar va institutsional islohotlar samaradorligini oshirish;
d) axborotlar ochiqligi iqtisodiyot subyektlariga o‘z vaqtida islohot loyihalariga o‘zgartirishlar kiritish imkoniyatini beradi.

Ushbu funksiya va tamoyillar yangi inklyuziv institutlarni shakllanishini hamda iqtisodiyot subyektlari faoliyatini institutsional isloh qilishni amalga oshirish bosqichlarini belgilab olishni ta’minlaydi (5-rasm).



5-rasm: Institutsional islohotlarni amalga oshirish bosqichlari

Yangi O‘zbekiston strategiyasida amalga oshirilayotgan yangi institutlar va rasmiy normalar, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi yangi Konstitutsiyasi dastlabki bosqichida 155 ta modda (institutlar) hamda 434 ta institutsional normalar o‘rin olgan. “Harakatlar strategiya”sida 2017-2022 yillarda davlat, jamiyat va iqtisodiyot tizimlarini isloh qilish yo‘nalishlarida 7 ta yangi qonun qabul qilindi, 15 ta amaldagi qonun va qonunchilik hujjatlari hamda 120 dan ortiq institutsional normalarga o‘zgartirishlar kiritilgan. Shuningdek, “O‘zbekiston - 2030” strategiyasini amalga oshirishda “Barqaror iqtisodiy o‘sish orqali aholi farovonligini ta’minlash” yo‘nalishi bo‘yicha 24 yangi institutlar va 40 dan ortiq rasmiy institutsional normalar kiritish ko‘zda tutilgan.

Institutsional islohotlarni chuqurlashtirish muammolari.

1. Strategik islohotlarning hozirgi bosqichida O‘zbekiston iqtisodiyotining institutsional tarkibi va uning inklyuziv iqtisodiy o‘sish uchun zaruriy sharoitlar yaratishdagi roli, institutlar rivojlanishiga salbiy ta’sir etayotgan institutsional cheklovlarni (nomutanosib institutlarni) aniqlash muhim hisoblanadi. Shuni hisobga olib kichik biznes hamda yirik korporativ tuzilmalar (korxonalar) faoliyatida institutsional islohotlar samaradorligini baholash orqali institutsional cheklovlarni bartaraf etishning ilmiy asoslari va yo‘nalishlarini ishlab chiqish zarur.
2. Raqobat sharoitida iqtisodiy o‘sish va korxonalar samaradorligini oshirish ko‘p jihatdan transaksiyalar (shartnomalar) bajarilishiga va ular uchun sarflanayotgan xarajatlar darajasiga bog‘liq. Ushbu muammo yuzasidan amalga oshirilayotgan tadqiqotlar hozirgacha nazariy tasnifga ega bo‘lib, ularda iqtisodiy rivojlanishning transaksiya xarajatlarini pasayishining amaliy jihatlari hisobga olinmayapti. Shu nuqtayi nazardan, bozor munosabatlari sharoitida transaksiya xarajatlarini optimallashtirish va raqamlashtirishning usul va mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb muammolar qatoriga kiradi (6-rasm).



6-rasm: Transaksiya munosabatlari va ular bilan bog‘liq xarajatlar turlari

3. Yangi O‘zbekistonni barpo etish strategiyasida iqtisodiyotning inklyuziv rivojlanishida mikro, kichik, o‘rta va yakka tadbirkorlik faoliyati ustuvor mavqega ega bo‘lishi e’tirof etilgan. Shuni hisobga olib, mahalla muhitida oilaviy tadbirkorlik shakllari samaradorligini oshirish hamda ularni istiqbolda inklyuziv iqtisodiy o‘sishini ta’minlovchi institutlar va institutsional mexanizmlarni takomillashtirish yuzasidan ilmiy tadqiqotlarini kengaytirish islohotlar samaradorligini oshiradi.
4. O‘zbekistonda shakllangan institutsional muhitning hozirgi holati, uning tarkibiy tuzilishi hamda inklyuziv iqtisodiy o‘sish sur’atlarining kutilgan darajadan ortda qolishining institutsional sabablarini aniqlash, shuningdek, yangi qiymat yaratishga yo‘naltiriladigan investitsiyalar oqimining o‘sish sur’atlari va samaradorligini raqamlashtirish modellarida institutsional omillarni hisobga olish zarur. Shu bilan bir vaqtda, ijtimoiy – iqtisodiy tizimning barqaror inklyuziv rivojlanishining asosiy omili sifatida inson kapitali

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

o‘sishini ta’minlash, undan institutsional islohotlar bosqichlarida yangi texnologiyalar va innovatsiyalarni yaratishda samarali foydalanish, hududlarda “Yashil” iqtisodiyotga o‘tishni tezlashtirish, davlat-xususiy sheriklik, maxsus iqtisodiy zonalarni hamda ta’lim institutlarini rivojlantirish usullarini ishlab chiqish bo‘yicha tadqiqotlarni yana davom ettirish muhim natijalarga olib keladi.

Institutsional muhit jozibadorligini oshirish yo‘llari. Bizning tadqiqotlarimizda asoslanganidek, quyidagi yo‘nalishlarda inklyuziv iqtisodiy o‘sish institutsional muhit jozibadorligini yanada oshiradi va bu O‘zbekiston–2030 strategiyasini amalga oshirishni tezlashtiradi. Buning uchun quyidagilar taklif etiladi:

Birinchidan, inklyuziv institutlarning iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishidagi rolini kuchaytirish, xususiy mulkchilik va mulkdorlar huquqlarini himoya qilishning institutsional normalarini xorijiy tajribalardan foydalanib yanada takomillashtirish.

Ikkinchidan, iqtisodiy munosabatlarda tuzilgan shartnoma jarayonlarida yuzaga keladigan transaksiya xarajatlarini kamaytirish usullarini amaliyotga keng joriy qilish.

Uchinchidan, mahalla institutining aholi daromadlarini oshirishga qaratilgan tadbirkorlik faoliyatining institutsional-huquqiy normalarini hamda oilaning inson kapitalini asrash va uni rivojlantirish funksiyalarining yangi mezonlarini joriy etish.

To‘rtinchidan, iqtisodiyotni innovatsion rivojlanish va innovatsiyalar yaratuvchi institutlarni ko‘paytirish va keng qo‘llab-quvvatlash.

Beshinchidan, Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida ijtimoiy davlatning institutsional normalarini taomiliga yetkazish bo‘yicha keng ijtimoiy-iqtisodiy tadqiqotlarni amalga oshirish.

Institutsional islohotlarni amalga oshirishni raqamlashtirish modellari. Mamlakatimizda institutsional islohotlarni amalga oshirish samaradorligi, ushbu jarayon subyektlari faoliyatini raqamlashtirishga bog‘liq hisoblanadi. Ushbu tadqiqotimizda institutlarning umumiy modellari ishlab chiqilgan va ular 3 guruhni tashkil qiladi.

Institutning umumlashtirilgan modeli

$$I = \{(N_0, D_0, R_0\}, (N_1, D_1, R_1\},\ldots, (N_k, D_k, R_k)\}$$

Bu yerda: I – institut; S = {I} – normalar; N_0 – asosiy norma; N_1.....N_k – qo‘llab-quvvatlash normalarni; D_k, R_k – mos ravishda yangi va mavjud i–chi normalarni saqlovchilar, i = 0,1,…k.

2. Mahalla institutida ishlab chiqarish kooperatsiyasini tashkil etish modeli (A)



3. Mahallada oilaviy tadbirkorlik institutlarini ko‘p funksiyali raqamlashtirish modeli (B)



Mahallada yakka tartibdagi va kooperatsiyaga kiruvchi mikro, kichik, o‘rta va yirik korxonalar tarkibiga mos institutlar va ularga bog‘liq institutsional normalar, raqamlashtirish uchun axborot bazaga kiritiladi. Shu orqali institutsional islohotlarni amalga oshirish loyihalari ishlab chiqiladi. Loyihada foydalaniladigan modellar tizimi 6-rasmda keltirilgan.



7-rasm: Institutsional islohotlarni ko'p funksiyali raqamlashtirishda foydalaniladigan modellar tizimi

XULOSA VA TAKLIFLAR

1. Institutlar va institutsional muhit takomillashuvi iqtisodiyot subyektlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tezlashtiradi va ular daromadi (foyda) darajasini oshishiga olib keladi, transaksiya xarajatlarini kamaytiradi.
2. Ijtimoiy institutlar normalari va ular ishlash mexanizmlarini yaxshilanishi aholi farovonligini yangi pog'onaga olib chiqadi.
3. Iqtisodiy va siyosiy institutlarning formal va abstraksiyalarga qarshi turishi samarali rivojlanishni ta'minlaydi.
4. Inklyuziv institutlar inson kapitali rivojlanishi, innovatsiyalar va yangi texnologiyalar iqtisodiy o'sishni hamda aholi farovonligini ta'minlaydi.
5. O'zbekistonda 2022-yilda ishlab chiqarilgan 888,3 trillion so'm yalpi ichki mahsulotning qariyb 4,5 foizi yoki 40,0 trillion so'mi institutlar va institutsional normalar takomillashuvi hisobiga olingan, prognozlarga ko'ra, 2023-2030-yillarda ushbu ko'rsatkich 4,5 foizdan 9,0 foizgacha yoki 80 trillion so'mdan qariyb 160 trillion so'mgacha oshishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston Strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. –464 bet.
2. Норт Д. Институты, институциональная изменения и функционирование экономики. – М.: Фонд экономической книги "Начало" , 1997
3. Кауз Р. Фирма, рынок и право. – М.: Дело 1993
4. Эггертсон Т. Экономическое поведение и институты. – М.: Дело, 2001. –18-19 б.
5. Ajemo'g'li, Daron. Robinson, Jeyms A. Mamlakatlar tanazzuli sabablari: qudrat, farovonlik va kambag'allik manbalari. Toshkent.: "Ofset-Print" MCHJ, "Nihol" nashriyoti. 2021. –672 bet.
6. Олейник А.Н. Институциональная экономика // Вопросы экономики. 1999. №1.–С. 138.
7. Нуреев Р.М. Институционализм: прошлое, настоящее, будущее // Вопросы экономики. –1999. –№ 1. –С. 125-147.
8. Шаститко А.Е. Новая Институциональная экономическая теория. –М., 2003. – С. 128.
9. Сычеева А.В. и др. Институциональная экономика [электронный ресурс]: учебно-методический пособие. – Волжский, 2017. – Режим доступа: http://lib.volpi.ru
10. Berkinov B.B., Abilqosimov X.P. va boshqalar. Institutsional iqtisodiyot. Darslik. –Toshkent: 2020 y. –430 bet.
11. Tashmatov R.X. Qishloq xo'jaligini rivojlantirishning institutsional mexanizmlarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. Toshkent: – 2023 y. –80 bet.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

O‘RTA TA’LIM TIZIMIDA “O‘QITUVCHI IMIJI”NI RIVOJLANISH GENEZISI

Odilova Sitora Sayfitdin qizi
I.f.f.d. (PhD), Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Marketing” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimizda o‘rta ta’lim tizimida “o‘qituvchi imiji”ni rivojlanishi tarixiy jihatlari keltirilib, zamonaviy maktablarning rivojlanish tendensiyalari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: o‘rta ta’lim, imij, maktab, xususiy maktab, ta’lim, xizmat, ajdodlar, renessans.

Abstract: In this paper have been presented the historical aspects of the development of the “teacher’s image” in the secondary education system in our country, and analyzes the development trends of modern schools.

Key words: secondary education, image, school, private school, education, service, ancestors, renaissance.

Аннотация: В данной статье представлены исторические аспекты развития “образа учителя” в системе среднего образования нашей страны, а также проанализированы тенденции развития современной школы.

Ключевые слова: среднее образование, имидж, школа, частная школа, образование, служба, предки, ренессанс.

1. KIRISH

Tarixan mamlakatimizda yoshlarni o‘qitish va bolalikdan ilm berish azal-azaldan mavjud bo‘lgan. Bunga Ikkinchi Renessans davridagi ajdodlarimiz yaqqol namoyon bo‘la oladi. Ushu maqolada restrospektiv hamda iqtisodiy tahlil qilishga urindik.

2. ADABIYOTLAR SHARHI

Mahalliy tadqiqotchi-olim Djurayev Dusmurod Uralovich o‘z maqolasida maktablarni 19 asr oxiri va 20 asr boshlaridagi maktablar faoliyatini tadqiq etgan.

1878-yilda 3 oy Farg‘ona vodiysida safarda bo‘lgan akademik A.Middendorf Turkiston o‘lkasida o‘quv maktablarni tadqiq etgan bo‘lsa [2], uning izdoshi K.Ye.Bendrikov chor Rossiyasi boshqaruvidagi Turkiston mahalliy aholisi savodxonligi bo‘yicha izlanishlarni davom ettirgan.

Mavjud maktablar soni bilan xalq savodxonligi o‘rtasidagi nomutanosibliklar natijasidagi anglash fikrlar Yevropa davlatla-rida ham uchrab to‘rgan. Masalan, fransuz tarixchilari Fransiyada 1789-yil inkilobidan oldin aholining ommaviy savodsizligidan kelib chiqib, inqilobga qadar Fransiya qishloqlarida xalq maktablari juda kam bo‘lganligini ta’kidlab kelganlar. Ammo arxiv materiallari o‘rganilishi natijasida bu davrda Fransiya qishloqlarida xalq ta’lim maskanlari, maktablar soni juda ko‘p bo‘lganligi aniqlangan. Bu kabi “anglashilmovchiliklarni” o‘z davrda olib borilgan siyosat bilan bog‘lab, tarixni soxtalashtirishga urinish, deb baholash mumkin. Albatta, yangi “tartib” o‘rnatgan inqilobchilar o‘zlarining tuzumi afzal ekanligi, ularga qadar hamma savodsiz bo‘lganligini uqtirganliklari tabiiy.

Tarixchi olimlarning fikricha, XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib Turkiston xonliklarida mavjud xalq ta’limi jarayonida maktablar soni bilan u yerda beriladigan ta’lim sifati, savodlilar soni o‘rtasida bog‘liklik mavjud bo‘lmagan. Uning ustiga XIX asr oxiriga kelib chor amaldorlari tomonidan o‘lka xalqi ta’limini tashkil etish va boshqarishdan o‘z manfaatlari yo‘lida foydalanishga urinishlari natijasida xalq ta’limi jarayonida maktablar soni

bilan o‘qitish sifati va savodlilar soni o‘rtasidagi bog‘liklik to‘liq izdan chiqdi”, degan xulosaga keladi [1]. Bunda o‘qituvchi imiji o‘ziga xos tarzda bo‘lib, zamonaviy o‘qituvchi obrazidan sezilarli farq qilgan deyishimiz mumkin.

3. TAHLIL VA NATIJALAR

Ma’lumotlarda XX asrning boshlariga kelib chor Rossiyasi boshqaruvidagi Turkistonda maktablar soni keskin oshganligi haqida gapiriladi. Olim Djurayev D.U. ning fikricha, bunga sabab o‘lkada xalq ta’limini tashkil etish va boshqarish tizimining yo‘qotilganligi, aniqrog‘i e’tiborsiz koldirilganligi, xalqning savodxonlik darajasini oshirish va tashkil etish o‘z xoliga tashlab qo‘yilganligiga qaramasdan, birinchidan, mahalliy aholining farzandlari bilim olishlariga bo‘lgan e’tibori so‘nmaganligi bo‘lsa, ikkinchidan, chor amaldorlari o‘lkada olib borgan siyosat natijasida har kim har joyda (ko‘proq o‘z xonadonlarida) e’tibordan chetda koldirilgan, nazoratsiz “ta’lim maskan”lari tashkil etish holatlari ko‘payishi oqibatida maktablar soni keskin ko‘payganligi qayd etiladi. Halq maktablarini tashkil etish bo‘yicha mutaxassis, o‘lka xalq maktablari 3-inspektori V.P.Nalivkinning ta’kidlashicha, 1890-yilning boshida Turkistonda maktablar soni rasman 5000 tani tashkil etgan bo‘lsa, norasman ularning soni 10000 taga yaqin bo‘lgan. Ammo mazkur maktablarda o‘quv jarayonining tashkil etilishi, beriladigan ta’limning sifati, bosqichlar o‘rtasidagi bog‘liqlik, dars jarayonining davomiyligi haqidagi tahliliy ma’lumotlar kam berilgan.

Tadqiqotchi olim Djurayev D.U. ning ilmiy maqolasida keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, xalq ta’limi jonkuyarlaridan biri A.Avloniy ham xalq savodxonligini oshirish jarayonida faol ishtirok etadi. U tomonidan tashkil etilgan “Turon” gazetasi 1917-yildan chiqa boshlab, uning sahifalarida xalq maktablari ochish, o‘qituvchi kadrlar tayyorlash va darsliklar nashr etish masalalaridan tashqari o‘zbek qizlarini o‘qitish va tarbiyalash, ular uchun maktablar ochish masalalariga alohida e’tibor berildi [1].

Tadqiqotchi olim D.U.Djurayev ning fikricha, Turkiston general-gubernatori K.P. fon Kaufman hamda uning izdoshi general-leytenant N.O. Rozenbax mahalliy aholini “ruslashtirish”ga qaratilgan g‘oyaga asoslanib, ibtidoiy turdagi yangi maktablar – rus-tuzem maktablari tarmog‘ini yaratish loyihasini ishlab chiqdi. Tarixiy manbaalarga ko‘ra, 1884-y. 19-dekabrda Toshkentda birinchi rus-tuzem maktabi ochilgan bo‘lib, o‘quvchilar soni 41 nafarni tashkil qilgan. 1891-yili Xivada, 1894-y. Buxoroda ham ochilgan. Ularning soni 19-asr oxirida 100 dan oshgan.

Tadqiqotchi olim D.U. Djurayev o‘z ilmiy maqolasida ushbu ma’lumotlarni keltiradi: “Rus-tuzem maktablarida ta’lim muddati 4 yil bo‘lgan. Rus-tuzem maktablari ruscha va mahalliy sinflarga bo‘lingan. Rus tili, o‘qish, yozish, hisob, geometriya, tarix, boshlang‘ich o‘zbek tili, arab tili va islom dini asoslari o‘qitilgan. Rus tili, hisob, yozuv, geometriya, tarix darslarini rus o‘qituvchisi, o‘zbek tili, arab tili, islom dini asoslarini o‘zbek muallimi o‘qitgan. Saidrasul Saidazizovning “Ustodi avval” (1902), Aliasqar Kalininning “Muallimi soniy” (1903), S.M. Gramenitskiyning 3 qismdan iborat o‘qish kitoblari Rus-tuzem maktablari o‘quvchilarining asosiy darsliklari bo‘lgan. Ayrim Rus-tuzem maktablari qoshida kattalar uchun (rus grammatikasi asosini o‘rgatish maqsadida) kechki maktablar, ko‘chmanchi aholi uchun esa internatlar tashkil kilingan. Keyinchalik 2 yillik va ayollar uchun ham Rus-tuzem maktablari ochilgan.

XIX asrning oxirida ularning soni yuzdan oshib ketdi. Bunday maktablarda o‘quv kuni ikki qismdan iborat bo‘lib, dastlabki mashg‘ulotlarni rus o‘qituvchisi (o‘quv, yozuv, hisob), ikkinchi qismida esa o‘zbek domlasi olib borar edi.”

Bunda o‘qituvchi imiji avvalgi “madrasa imomi”, “qori” hamda “rusiyzabon” obrazlarida bo‘lganligini ko‘rish mumkin.

Tarix fanlari doktori, professor Dilorom A’zamovna Alimovaning jadidchilar tomonidan tashkil etilgan maktablarga doir tarixiy materiallarni yig‘ib, tahlil qilgan. Olimaning fikrlarigcha ko‘ra: “1917-yilda Turkistonda 100 ta jadidlar maktabi bo‘lgan va albatta, ulardagi o‘qitish mullalar va musulmon ruhoniylari qarshiligiga uchrab to‘rgan. Avvalboshdanoq bu maktablar Yevropa maktablariga yaqin va ta’limni rivojlantirishga yordam beradi, deb qaralgan, lekin tez orada bunday yangi maktablar omma ongiga yangiliklar olib kirayotgani va yoshlarning savollari ko‘payib ketayotgani, jumladan, milliy ong uyg‘onayotgani fahmlangan. Va navbati bilan yopila boshlagan. Bunday maktablar juda ko‘p narsa berayotgan edi. Albatta, aholi asta-sekin ota-ona savod chiqarish uchun farzandini 40 kun o‘qitishi kerakligini tushuna boshladi, oddiy maktabda esa bola 10 yil o‘tiradi, madrasada esa 10–15 yil o‘qiydi va faqat Qur’onni yod oladi. Yana maktabda xivich bilan savalash tizimi mavjud edi. Albatta, ular ayni maktablarni ustuvor ahamiyat berishi zarur bo‘lgan muassasa, deb tushungan, lekin aytib qo‘yishim joizki, jadidlar harakatini keng miqyosli bo‘lgan deyish xatodan boshqa narsa emas, chunki aholining aksariyat qismi musulmon ruhoniylari ta’sirida bo‘lgan, jadidlar maktablarida tafakkuri rivojlangan va bu maktablarning istiqbolini tushungan kishilar farzandlari ta’lim olgan. Jadidlar maktablarini Yevropa maktablariga bevosita o‘xshash bo‘lgan, deyish qiyin, lekin ularda o‘sha maktablarning dastlabki namunalari (proobraz) bor edi. Birinchidan, ular partalar bilan jihozlangan, bu maktablardagi bolalar musulmon maktablaridagi singari yerda o‘tirmagan va o‘qituvchilar ularning boshi ustida kaltak o‘ynatib turmagan. Jadidlar maktablarida kitoblar, keyinchalik esa xaritalar bo‘lgan.

Bu o‘rinda darsliklar nashr qilishda Mahmudxo‘ja Behbudiy va Munavvarqorining xizmatlarini alohida e’tirof etish joiz. Dastlab darsliklar bo‘lmagan. Ular Rossiyadan olib kelingan va tatar maktablariga mo‘ljallangan bo‘lgan. Ismoil Gasprinskiy bu masalada katta yordam ko‘rsatgan. Jadidlar so‘ngra o‘zi darsliklar chop qilishga o‘tgan. Munavvarqori va Behbudiy juda ko‘p darsliklar yozgan. Masalan, “Kitobi avval” yoki matematika, adabiyot, geografiya bo‘yicha darsliklarni olaylik. Albatta, ular qaysidir darajada Rossiya darsliklaridan o‘zlashtirilgan bo‘lishi mumkin, lekin shunga qaramay, bu juda katta olg‘a siljish edi. Jadid maktablari sinflarida globuslar to‘rgan. Bu eski miqyoslar bilan solishtirganda, butunlay yangi narsa edi va albatta, ajoyib natijalar bergan”, deb ta’kidlaydi [3].

Ta’limning eng muhim vazifalaridan biri bu uning tarbiya ufunksiyasidir. Chunonchi, ta’lim va tarbiya yaxlitlikda otalar va farzandlarning aloqa vositasini ifodalaydi. Aqliy mehnat sohasi uchun ta’lim bosqichi professional mutaxassisning shakllanishi jarayonida eng muhim va yetakchi o‘rinni egallaydi. Aynan shu tufayli uchun o‘rta asrlarda bir kasbdagi hunarmandlar uyushmalari o‘z davrining ijtimoiy tuzilmasi asosida vujudga kelgan, ularning asosiy vazifasi intellektual va hunarmandlarning “reproduksiyasi”, ya’ni yangi kadrlarni o‘qitish va tayyorlashga qaratilgan. O‘rta asrlar vaqf institutlari ta’limni harakatlantiruvchi va moddiy jihatdan ta’minotining bosh tarkibiy qismi hisoblanib, ular aholining xayr-ehsonlarini ta’lim muassasalari foydasiga ajratganlar.

Olimaning fikricha, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida O‘rta Osiyo ta’lim tizimi jiddiy tranformatsiyaga uchradi, uning asosiy komponenti bo‘lgan o‘quv-ta’lim jarayonlarining institutsional tashkillashtirilishi, ta’limning shakl va usullarida plyuralizmning shakllanishi, gender yondashuvidagi o‘zgarishlar shular jumlasidandir.

Professor D.A.Alimova o‘z monografiyasida shunday deb yozadi: “ta’kidlangan o‘zgarishlar bir tomondan, burilish davrida jamiyatdagi ijtimoiy siyosiy diskurslarning oqibati va mahsuli hisoblanib, taraqqiyotning asosiy vektorini tanlash zaruriyati bilan to‘qnash keldi. Boshqa tomondan, ta’lim tizimi jamiyatning intellektual muhitini shakllanishiga ta’sir ko‘rsatdi va ma’lum ma’noda, o‘lkadagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning kelgusi yo‘lini belgilab berdi. Shu bilan birga, mazkur davrda o‘quv-ta’lim jarayonlariga tatbiq etilgan – dunyoviy fanlarning joriy qilinishi, o‘g‘il va qiz bolalarning birgalikda o‘qitilishi, tan jazosi tizimining bekor qilinishi, uslubiy va didaktik qo‘llanmalar va darsliklarni ishlab chiqilishi kabi yo‘nalishlar XX asr davomida o‘lkadagi ta’lim tizimi evolyutsiyasida u yoki bu ma’noda rivojlantirildi. Sobiq ittifoq davrida O‘zbekistonga joriy qilingan bolsheviklarning ta’lim tizimi o‘z mohiyatiga ko‘ra zarbdor, ekspansion xususiyatga ega bo‘ldi hamda mahalliy an’analar va islomga bog‘liq bo‘lgan barcha sohalarga qarshi g‘oyaviy kurash olib bordi.

XX asrning 20–50 yillari intellektual hayot, xususan ta’lim tizimida rivojlanish davri bo‘lsa-da, biroq u bir tomondan, stalin qatag‘onlari, to‘xtovsiz fojealar, boshqa tomondan sovet hukumatining o‘ylanmagan iqtisodiy islohotlari bilan olib borildi. Intellektual hayot va ta’lim tizimidagi yutuqlar, mantiqqa zid bo‘lishiga qaramay, turg‘unlikning kengayishi va chuqurlashuvi bilan birgalikda kechdi.

XX asrning 80-yillaridagi islohotlar nafaqat ijtimoiy-madaniy jarayonlarni murakkablashtirdi”.

O‘zbekistonning davlat mustaqilligini qo‘lga kiritishi mam-lakat ta’lim tizimi evolyutsiyasida yangi va muhim bosqich bo‘ldi. Bu davrda sohaga, bir tomondan jahon ta’lim jarayonlarining eng yaxshi natijalari joriy etilgan bo‘lsa, boshqa tarafdan, ko‘p asrlik va milliy xususiyatlar inobatga olingan tajribalar qo‘llanila boshladi. Bu borada 1997-yilda qabul qilingan Kadrlar tayyorlash milliy dasturi muhim qadam bo‘lib, ta’limning barcha bosqichlariga tatbiq etildi va yuqori xalqaro standartlariga javob bermoqda [4].

O‘zbekiston Respublikasida 2021−2022-o‘quv yili boshiga jami umumta’lim muassasalari soni 10289 tani tashkil etib, ulardan 6368 tasi (61,9%) qishloq joylarida, 3821 tasi (38,1%) shaharlarda joylashgan. O‘tgan yilning mos davriga nisbatan umumta’lim muassasalari soni 1,1% ga oshdi (108 ta). O‘zbekiston Respublikasida umumta’lim muassasalari uch turga bo‘linadi: boshlang‘ich, umumiy o‘rta va boshqalar. 2021−2022-o‘quv yili boshiga umumta’lim muassasalarining umumiy sonidan 10144 tasi umumiy o‘rta ta’lim maktablari, 56 tasi boshlang‘ich maktablar va 89 tasi boshqa muassasalar. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida 6272,3 ming o‘quvchi, boshlang‘ich ta’lim muassasalarida 7,6 ming o‘quvchi va boshqa ta’lim muassasalarida 21,8 ming o‘quvchi ta’lim olmoqda. 2021−2022-o‘quv yilining boshiga O‘zbekiston Respublikasida 827 ta boshlang‘ich, o‘rta va o‘rta maxsus professional ta’limi muassasalari soni va 86 ta akademik litseylar faoliyat yuritmoqda. Kasb-hunar maktablar soni 342 tani, kollejlar soni 184 tani va texnikumlar soni 215 tani tashkil etdi.

2021−2022-o‘quv yili boshiga oliy ta’lim tashkilotlarida 808,4 ming nafar talaba tahsil olmoqda, ulardan 369,0 ming nafarini qizlar tashkil etadi. Talabalarning 14,8 % davlat grantlari asosida, 85,2 % to‘lov-shartnoma asosida tahsil olgan.

2020-yil 1-yanvar holatiga Respublika bo‘yicha (14 hudud 201ta tuman va shaharlar) umumta’lim muassasalar soni 9 691 ta bo‘lib, shulardan 6 tasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tasarrufidagi maktablardir. Maktablarda barcha o‘qitish tillari bo‘yicha sinflar soni 227 325 tani tashkil etadi.

1-jadval: Ta'lim umumta'lim muassasalari 2021-yildagi asosiy ko'rsatkichlari

	Xususiy muassasalar soni	Xususiy muassasalarda o'quvchilar soni	Xususiy muassasalarda o'qituvchilar soni	Xususiy muassasalarda 9-sinfni bitirgan o'quvchilar soni, kishi	Xususiy muassasalarda 11-sinfni bitirgan o'quvchilar soni, kishi
O'zbekiston Respublikasi	**135**	**30553**	**3578**	**1074**	**694**
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2	176	27	-	-
viloyatlar					
Andijonlar	16	2532	309	33	-
Buxoro	14	1897	268	60	58
Jizzax	5	1083	133	40	61
Qashqadaryo	2	670	60	26	-
Navoiy	1	184	34	-	-
Namangan	12	1320	109	15	-
Samarqand	13	1951	253	7	10
Surxondaryo	2	409	41	-	-
Sirdaryo	1	359	44	-	-
Toshkent	3	845	62	67	-
Farg'ona	23	4982	486	295	240
Xorazm	10	1088	142	88	147
Toshkent sh.	31	13057	1610	443	178

Mamlakatimiz hududlarida eng ko'p xususiy muassasalar soni Toshkent sh.(31), Farg'ona (23), Andijon (16), Buxoro (14), Samarqand (13) va Namangan (12) viloyatlariga to'g'ri keladi. Xususiy muassasalarda o'quvchilar soni ham mutanosib ravishda Toshkent sh., Farg'ona, Andijon, Buxoro, Samarqand va Namangan viloyatlari tashkil qiladi. Ushbu xususiy muassasalarda o'qituvchilar soniga nisbatan o'quvchilar soni qo'yidagicha bo'lganligini ko'rishimiz mumkin: Namangan – 8,3, Farg'ona – 9,7 kishi, Andijon – 12,2 kishi, Toshkent sh. – 12,3 kishi, Samarqand – 12,9 hamda Buxoro – 14,1 kishi to'g'ri kelmoqda. Demak, aynan Namangan va Farg'ona viloyatlarida kichik guruhlarda mashg'ulotlar olib boriladi, ushbu viloyatlardagi xususiy maktablarda o'quvchilarga ko'proq o'qituvchilar biriktirilib, individual yondoshuv mavjud degan xulosaga kelishimiz mumkin.

4. XULOSA

XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib Turkiston xonliklarida mavjud xalq ta'limi jarayonida maktablar soni bilan u yerda beriladigan ta'lim sifati, savodlilar soni o'rtasida bog'liklik mavjud bo'lmagan.

O'qituvchi imiji har bir davrga kelib tub o'zgarishlarga boy bo'lganligini tarixiy manbaalardan ko'rish mumkin.

O'zbekistonning davlat mustaqilligini qo'lga kiritishi mam-lakat ta'lim tizimini tubdan rivojlantishiga turtki bo'ldi, bu davrda sohaga, bir tomondan jahon ta'lim jarayonlarining eng yaxshi natijalari joriy etilgan bo'lsa, boshqa tarafdan, ko'p asrlik va milliy xususiyatlar inobatga olingan tajribalar qo'l-lanila boshladi.

Xususiy ta'lim muassasalari soni yildan yilga oshib bormoqda, xususan 2021-yilda Toshkent sh.(31), Farg'ona (23), Andijon (16), Buxoro (14), Samarqand (13) va Namangan (12) viloyatlarida eng ko'p xususiy muassasalar soni faoliyat yuritgan.

Biroq ushbu tadqiqotning cheklanganligi birlamchi statistik ma'lumotlarni yetarli emasligi bilan izohlanadi, aynan shu sabab ushbu mavzuni davom ettirishda o'qituvchi ijiji va xususiy maktablar ijobiy imiji, xususiy maktablar brendini shakllanish bosqichlari bo'yicha tadqiqotlari olib borish mumkin.

Adabiyotlar:

1. https://cyberleninka.ru/article/n/turkiston-ananaviy-maktablari-faoliyati-tarihidan-hih-asr-ikkinchi-yarmi
2. Курбанов Ш.Э., Сейтхалилов Э.А. Непрерывное образование в Национальной модели по подготовке кадров. − Т.: "Шарк", 2000.
3. https://www.uzanalytics.com/tarix/10076/
4. D.A.Alimova. O'zbekistonda ta'lim tarixi va tarixshunosligi. − Monografiya. − "Tafakkur qanoti", 2015 y. ISBN 978-9943-382-68-8

РОЛЬ ИНВЕСТИЦИЙ В СИТЕМЕ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПРТА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

Акбарова Лайло Упашевна
Ташкентский Государственный Транспортный Университет, старший преподаватель

Аннотация: В статье рассмотрены современные тенденции процесса инвестирования железнодорожного транспорта в условиях трансформации экономики.

Ключевые слова: цифровизация, транспортные средства, инвестиционные процессы, инвестиции, перевооружение, технические средства.

Annotatsiya: Maqolada iqtisodiy o‘zgarishlar sharoitida temir yo‘l transportiga investitsiya qilish jarayonining hozirgi tendentsiyalari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: raqamlashtirish, transport vositalari, investitsiya jarayonlari, investitsiyalar, qayta jihozlash, texnik vositalar.

Abstract: The article examines current trends in the process of investing in railway transport in the context of economic transformation.

Key words: digitalization, vehicles, investment processes, investments, re-equipment, technical means.

ВВЕДЕНИЕ

Долгосрочная перспектива современного предприятия в условиях цифровизации зависит от ее эффективной деятельности. Соответственно, обеспечение высоких темпов развития эффективной деятельности определяется инвестиционной историей и уровнем настоящей инвестиционной деятельности предприятия.

АНАЛИЗ ЛИТЕРАТУРНЫХ ИСТОЧНИКОВ

В статье методологической основой были научные исследования таких современных отечественных ученых, как Г.П. Бублик,Гуламов А.А., Саматов А.А., Файзуллаев Ж.А., М.Н.Абдуллаева, Н.А. Ходжаева, Р.А. Рахманбаева, С.А. Юлдашева, а также ученных ближнего и дальнего зарубежья такие как: Т.В. Авдиенко, А.Н. Дмитриевский, , которые рассматривают современное состояние роли инвестиций в услових цифровизации экономики.

МЕТОДОЛОГИЯ ИССЛЕДОВАНИЯ

Современное развитие социально-экономических систем каждой страны невозможно представить без глубоких технологических и институциональных преобразований, которые сопровождают модернизацию. Данные мероприятия реализуются в связи с адаптацией этих систем для более эффективной деятельности, с учетом специфики отраслей экономики и сложности условий функционирования ее предприятий.

Кроме того, конкурентоспособность и устойчивость каждого предприятия определяется уровнем обновления производственных мощностей, т.е. производственных фондов. Обновление основных фондов невозможно представить без термина “капитальное вложение”. “Капитальное вложение” является синонимом термину “инвестиции”.

В соответствии с Законом Республики Узбекистан “Об инвестиционной деятельности”[1], инвестиции определяются как материальные и нематериальные блага, а также права на собственность и владение ими. Инвестиции вкладываются в объекты деятельности предприятия той или иной форме. В свою очередь, термин “Инвестиционная деятельность” представляет собой деятельность, связанные с совершением инвестиционных операций со стороны субъектов инвестиционных отношений. Особенностью инвестиционной деятельности является капитальное вложение, которые направляются на развитие материальных и нематериальных форм благ, в целях создания или воспроизводства объектов основного фонда.

Согласно многих стран СНГ, в частности в России[2], капитальное вложение – это “инвестиции в основной капитал (основные средства), в том числе затраты на новое строительство, расширение, реконструкцию и техническое перевооружение действующих предприятий, приобретение машин, оборудования, инструмента инвентаря, проектно-изыскательские работы и другие затраты”.

АНАЛИЗ РЕЗУЛЬТАТОВ ИССЛЕДОВАНИЯ

Важнейшее свойство капитала определяется возможностью приносить прибыль инвестору. Одной из форм использования этой возможности является долгосрочное вложение капитала или инвестирование. Термин “инвестирование” в экономической литературе в трудах Силаева Н.И. имеет двойное значение[3].

Во-первых, под инвестициями понимается вложение средств в финансовые активы (ценные бумаги), то есть портфельное инвестирование. Во-вторых, инвестирование – это вложение капитала в неликвидные активы (капиталообразующие), которые обеспечивают создание и воспроизводство фондов. Мы будем использовать термин “инвестирование” во втором значении.

Суть инвестирования с точки зрения инвестора заключается в том, что инвестор отказывается от получения прибыли “сегодня”, чтобы получить более высокую прибыль “завтра”. При управлении инвестициями внимание обращается на двойственный характер решения, связанного с капиталовложением. Конечная цель инвестиционной деятельности - доход, который может быть получен в будущем, то есть имеет место своего рода коммерческий риск, поскольку ожидаемый доход может быть не получен.

Рис. 1: Роль инвестиций в развитии предприятия[4]

1 Закон Республики Узбекистан № 719-I от 24.12.1998 г. “Об Инвестиционной Деятельности” (с изменениями в соответствии с Законом РУз №ЗРУ-380 от 09.12.2014 г.); Закон Республики Узбекистан №ЗРУ-598 от 25.12.2019 г. “Об инвестициях и инвестиционной деятельности”.

2 Закон Российской Федерации “Об инвестиционной деятельности в Российской Федерации, осуществляемой в форме капитальных вложений” №39-ФЗ от 25 февраля 1999 г.

3 Силаев, Н.И. Финансовый менеджмент железнодорожного транспорта: учебник для вузов // Н.И. Силаева. – Ташкент: ТашИИТ, 2006. – 300 с.

4 Составлен автором

TARAQQIYOT PROGRESS

М.И. Ример отмечает, что в условиях рыночной экономики, инвестиции – это вложение капитала в объекты предпринимательской и иной деятельности с целью получения положительного социального и материального эффекта[5], т.е. сочетания таких аспектов как затрат капитала и конечного результата.

Согласно предложенной Н.И. Силаевым и В.А. Чженом трактовке данного термина, инвестиции – это вложение средств в деятельность предприятия на длительный период. В данном контексте предприятия должно быть юридически самостоятельным. Основной целью вложения капитала является получение дополнительных материальных благ, приобретения влияния на данную предприятию, а также выгодное вложение по сравнению с альтернативными предложениями.

Трактовка термина “инвестиции” по мнению автора – это вложение всех форм капитала в объекты хозяйственной деятельности предприятия для получения эффекта разного масштаба на основе свободных рыночных принципов с учетом внешних и внутренних факторов влияния. Принцип данного определения представлен на рис. 1.

Вместе с тем, более подробную формулировку по изученным материалам представляет автор исследования. В свою очередь, автор подтверждает, что “инвестиции” - вложения капитала в целях достижение стратегических целей инвестора в объекты предпринимательской деятельности в виде материальных и нематериальных благ, имеющих денежную оценку.

Для детального изучения инвестирования технического перевооружения следует подробно рассмотреть формы реального инвестирования. Обобщая трактовок вышеуказанных авторов, предлагается схематическая иллюстрация форм инвестирования, которые указаны на рис.2. и рис.3.

Рис. 2: Формы реального инвестирования по И.А. Бланк[6]

Рис. 3: Формы реального инвестирования по Е.А. Кучарину[7]

5 Экономическая оценка инвестиций. 2-е изд. / Под общ.ред. М.И. Римера. – СПб.: Питер, 2008. – 480 с.

6 Бланк И.А. Основы инвестиционного менеджмента. Т. 1-2-е изд., перераб. и доп. -К.:Эльга, Ника-Центр, 2004.- 672с. ISBN: 5-901620-57-7

7 Кучарина Е.А. Инвестиционный анализ.Краткий курс - СПб.: Питер, 2006. – 160 с.

В свою очередь, изученных материалах по рассмотрению вопроса форм реального инвестирования недостаточно уделяется внимание на техническое перевооружение предприятия.

В современной литературе по экономике железнодорожного транспорта “инвестиции” имущественные и неимущественные ценности, которые направляются в объекты предпринимательской деятельности в виде имущество, финансовые средства, интеллектуальные ценности, а также прав на пользования разновидных природных ресурсов.

Важной задачей при оценке роли инвестиций выявляется необходимостью определения сферы ее вложения, в частности, определением направления на производственные и непроизводственные сферы вложения[8].

Для инвестирования технического перевооружения на предприятиях, особенно на железнодорожном транспорте, изучается и осуществляется тщательный подход к техническому перевооружению.

Исходя из вышесказанного, автор предлагает рассматривать инвестирование технического перевооружения в железнодорожной отрасли как отдельную форму реального инвестирования, которая рассматривается следующим образом:

- инвестиции для обеспечения развития и совершенствования предприятия железнодорожной отрасли в перспективе;
- научно-исследовательская деятельность;
- строительство новых линий, предприятий и объектов железнодорожного транспорта;
- техническое перевооружение объектов инфраструктуры, подвижного состава и других производственно-промышленных единиц железнодорожного транспорта.

Спрос на постоянное обновление/наращивание объектов основного фонда железнодорожного транспорта подчёркивает особенность инвестирования в данную деятельность, в т.ч. направление капитальных вложений на техническое перевооружение, а также выявляет следующие цели:

- Создание в рыночных условиях основы для социального и экономического развития страны в целом;
- Обновление технического оснащения и повышение производительности организаций и предприятий;
- Повышение качества оказания транспортных услуг;
- Снижение влияния негативных факторов для экономики.

В настоящее время глубокие преобразования экономики происходит в соответствии с переходом к инновационной модели мирового хозяйства. Данные предпосылки прежде всего связаны с повышением уровня износа не только в экономике, но и в транспортной, особенно железнодорожной сфере, которые не соответствуют современным требованиям9. В данной ситуации самым верным решением по мнению автора является направление средств на техническое перевооружение.

В некоторых случаях требования к техническому перевооружения сопровождаются с изменениями структуры спроса. С помощью технического перевооружения предприятие или отрасль переходит или приближается к новому уровню сферы услуг не только во внутреннем рынке, но и международной арене.

Вышесказанные предположения становиться реальным при разработке стратегических решений о вложении средств на проекты в сфере железнодорожного транспорта. Реализация проектов железных дорог, в части финансирования проектов технического перевооружения возможны после принятия подобных стратегических решений.

Основные принципы по формированию принимаемых инвестиционных стратегий в железнодорожной отрасли были озвучены в научных трудах некоторых зарубежных авторов как авторов как Гиляровская Л.Т., Ендовницкий Д.А., Бухонова С.М. и И.Ансофф10 в следующем порядке:

8 Терешина Н.П., Галабурда В.Г., Трихунков М.Ф. и др. Экономика железнодорожного транспорта: Учеб. Для вузов ж/д транспорта / Н.П. Терешина, В.Г. Галабурда, М.Ф. Трихунков и др.; Под ред. Н.П. Терешиной, Б.М. Лапидуса, М.Ф. Трихункова. – М.: УМЦ ЖДТ, 2006. 801 с.; Лякина, М.А. Финансы предприятия железнодорожного транспорта: учебное пособие / М.А. Лякина – СПб.: ПГУПС, 2008. – 80 с.

9 Лякина, М.А. Финансы предприятия железнодорожного транспорта: учебное пособие / М.А. Лякина – СПб.: ПГУПС, 2008. – 80 с.

10 Ансофф, И. Стратегический менеджмент. Классическое издание / И. Ансофф. – СПб.: Питер, 2009. – 344 с.; Гиляровская, Л.Т. Финансово-инвестиционный анализ и аудит коммерческих организаций / Л.Т. Гиляровская, Ендовницкий Д.А. – Воронеж: Изд-во ВорГУ, 1997. – 336 с.; Бухонова, С.М. Организация и планирование инвестиционного рынка региона / С.М. Бухонова. – СПб.: Химия, 1998. – 229 с.

TARAQQIYOT PROGRESS

- проекты направленные на развитие деятельности и усиление конкурентоспособности предприятий в сфере железных дорог;
- капитальные вложения на инвестиционные проекты с применениям последних достижений научно-технического процесса (оригинальные проекты);
- выделение средств на объекты научно-исследовательских и опытно-конструкторских разработок, при этом, остерегаться от вложений в неэффективные проекты;
- оставить возможность заменить вид деятельности и быть адаптированным к изменениям деятельности в другие отрасли.

Изыскание финансовых источников развития предприятия, определение направлений наиболее эффективного инвестирования денежных средств в условиях рыночной экономики приобретают особо важное значение[11].

ВЫВОДЫ И ПРЕДЛОЖЕНИЯ

По мнению автора инвестиции – это двигатель экономики, который обеспечивает ее движение вперед. Каждое государство в первую очередь должно прилагать усилия для привлечения локальных и иностранных инвесторов в экономику. В связи с тем, разрабатывается и реализуется инвестиционная политика, а также формируется соответствующий инвестиционный климат.

В нормативно-правовом и законодательном уровне инвестиция – это капитальное вложение в основной капитал (новое строительство, реконструкцию и техническое перевооружение, модернизация и др.).

Таким образом, изученные материалы и научные труды местных и зарубежных авторов подчёркивают важность транспортной сферы, в частности железных дорог, которые зависят от уровня технического перевооружения. Определение приоритетных направлений станет решением вопроса разрушения технического потенциала отрасли.

Литература:

1. Емельянов Н.В. “Цифровизация экономики как фактор обеспечения национальной безопасности России”. Журнал “Экономический рост: проблемы, закономерности, перспективы”, 2019. −№5. −с. 89-93.
2. Schwer K., Hitz C., Wyss R., Wirz D., Minonne C. “Digital maturity variables and their impact on the enterprise architecture layers”. Журнал “Problems and Perspectives in Management”, 2018. −№16(4), −с. 141-154. DOI:10.21511/ppm.16(4).2018.13.
3. Кодиров Туйгун Узокович. Цифровые технологии как фактор повышения конкурентоспособности транспортных услуг // Проблемы науки. −2021. −№5 (64). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/tsifrovye-tehnologii-kak-faktor-povysheniya-konkurentosposobnosti-transportnyh-uslug (дата обращения: 27.08.2023).
4. Коряков А.Г. “Цифровизация российской экономики как актуальная задача государственного управления”. Журнал “Актуальные проблемы развития экономики в современных условиях”, 2018. −№4. −с. 119-125.
5. Ларин О.Н, Куприяновский В.П. “Вопросы трансформации рынка транспортно-логистических услуг в условиях цифровизации экономики”. Журнал “International Journal of Open Information Technologies”, 2018. −№5. −с. 31-35.
6. Меренков А.О. “Цифровая экономика: управление на транспорте и интеллектуальные транспортные системы”. Журнал “E-Management”, 2018, №1. −с. 11-19.

11 Силаев Н.И. Финансы железнодорожного транспорта: Учебник/ Под ред. Н.И. Силаева. – Ташкент: Академия, 2003. – 346 с.

MINTAQANING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISH MAQSADIDA INNOVATSION MARKETING TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Ahmedov Alim Babaniyazovich
Termiz davlat universiteti Raqamli iqtisodiyot,
biznes boshqaruvi va ekonometrika kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimiz korxonalarining rivojlanish potensialini shakllantirishda innovatsion marketingning o‘rni va mohiyati atroflicha ko‘rib chiqilgan. Bundan tashqari, Respublikamizda investitsion muhitni yanada yaxshilash uchun muhim sanalgan omillar va ularga eltuvchi samarali yo‘llar ishonchli argumentlar orqali ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: milliy iqtisodiyot, investitsion muhit, umumiy iqtisodiy rivojlanish, raqobatbardosh mahsulot, daromad, modernizatsiya, resurslar.

Abstract: In this article, the role and essence of innovative marketing in shaping the development potential of our country’s enterprises is considered in detail. In addition, factors considered important for further improvement of the investment environment in our Republic and effective ways leading to them are shown through convincing arguments.

Key words: national economy, investment environment, general economic development, competitive product, income, modernization, resources.

Аннотация: В данной статье подробно рассмотрены роль и сущность инновационного маркетинга в формировании потенциала развития предприятий нашей страны. Кроме того, убедительно аргументированно показаны факторы, считающиеся важными для дальнейшего улучшения инвестиционной среды в нашей республике, и эффективные пути, ведущие к ним.

Ключевые слова: национальная экономика, инвестиционная среда, общеэкономическое развитие, конкурентоспособный продукт, доходы, модернизация, ресурсы.

KIRISH

Jahon mamlakatlarining iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi, uning taraqqiyotini ta’minlovchi va yuksak darajada taraqqiy etishida hal qiluvchi drayver sifatida investitsion siyosatni boshqarish muhim ahamiyat kasb etadi. Barqaror rivojlanish asoslarini shakllantirish uchun jahon hamjamiyatiga O‘zbekiston Respublikasining qo‘shilishi bilan mamlakatimiz o‘zgarish jarayonini boshladi, bu o‘z rivojlanish istiqbollari va imkoniyatlarini uchta komponentning kombinatsiyasida, xususan: “yashil” iqtisodiyot, ekologiya va samarali jamiyatda maxsus qarashga asoslanadi va davlatning iqtisodiy faoliyatini tashkil etish va uni amalga oshirishdan har tomonlama ijtimoiy samaraga erishishga yo‘naltirish imkonini beradi. Ko‘rinib turibdiki, iqtisodiy maqsadlarning ekologik imkoniyatlar va ijtimoiy kutishlar bilan o‘zaro bog‘liqligining bunday darajasi milliy iqtisodiy tizimning barqaror rivojlanishi manfaatlariga mos keladigan “iqtisodiy individualizmdan ijtimoiy jamiyatgacha” meta-prinsipini shakllantirishni talab qiladi. Bu esa ichki iqtisodiyotning innovatsion yo‘nalishi, uning texnik va texnologik tarkibiy qismlarini ko‘paytirish hisobiga resurs xarajatlarini kamaytirishning ustun tamoyillariga asoslanadi va shuning uchun O‘zbekiston Respublikasida “bilimlar iqtisodiyoti”ga asoslangan jamiyatni qurishga o‘tishning dastlabki bosqichida katta moliyaviy investitsiyalar talab qiladi.

Olib borilgan tadqiqotlarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishning turli vositalaridan foydalanish masalalari keng yoritib berilgan. Jumladan, investitsiyalarni jalb etishning venchurli, konsessiya hamda franchayzing usullariga alohida e’tibor qaratilgan. Ammo hududlar iqtisodiy salohiyatidan kelib chiqqan holda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni maqsadli yo‘naltirish masalalari ilmiy tadqiqotlarda atroflicha o‘rganilmagan. O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda hududlar roli nihoyatda muhim hisoblanadi. Milliy iqtisodiyotda xorijiy investitsiyalarni jalb etishning asosiy muommolaridan biri, hududlarda ularni to‘g‘ri taqsimlash muammosidir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

N.Chuxray o‘z tadqiqotida “Innovatsion marketingni innovatsiyalar bozorida talab va ehtiyojlarni maksimal darajada qondirish maqsadida talabni shakllantirish yoki aniqlashga qaratilgan faoliyat”[1] - deb ta’riflaydilar va eng ko‘p hissa qo‘shadigan tovarlar, xizmatlar va texnologiyalarga oid yangi g‘oyalardan foydalanishga asoslanadi.

Sh.Mustafaqulovning ta’kidlashicha, “Mamlakatning integral investitsion jozibadorligi – bu mamlakatning xo‘jalik rivojlanish sharoitlarini tavsiflovchi va undagi investitsion faollikning shakllanishiga ijobiy yoki salbiy ta’sir ko‘rsatadigan obyektiv ijtimoiy-iqtisodiy, tabiiy-geografik va ekologik ko‘rsatkichlarning umumiy darajasidir”.

Bu borada, Y.M.Bajal: Asosiy innovatsiyalar (yangi tarmoqlarni yaratishni ta’minlaydigan) bugungi kunda takomillashtiruvchilardan (aniq tarmoqlarni tubdan yaxshilash) alohida mavjud bo‘lishi mumkin emas, balki faqat unga qo‘shiladigan infratuzilma tarmoqlaridagi tegishli o‘zgarishlar sharoitida mumkin bo‘ladi[2] - deb, ta’kidlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada iqtisodiy tahlilning analiz va sintez, induksiya va deduksiya, taqqoslama kabi an’anaviy usullardan foydalanildi. Iqtisodchi olimlarning turizmda tadbirkorlikni rivojlantirishga doir ilmiy-amaliy qarashlari tahlil qilindi va natijalari asosida xulosalar shakllantirilgan

TAHLIL VA NATIJALAR

XXI asr boshlariga kelib, mamlakatlar iqtisodiyotida investitsiyalarni jalb etish, o‘zaro tovar ayirboshlanishi uchun turli xildagi iqtisodiy ittifoqlarga qo‘shilish, mehnat va kapitalning erkin harakatini ta’minlashga qaratilgan iqtisodiy siyosatlar ommalashib bordi. Yirik hududiy markazlar hissasiga jahon YaIMning 81 foizi, eksportining 62 foizi, investitsiyalarning 83 foizi to‘g‘ri kelmoqda. Investitsiya siyosati har qanday mamlakatlarning iqtisodiy taraqqiyotini berilgan va unda sanoatni rivojlanish eng asosiy yo‘nalish hisoblanadi. Milliy iqtisodiyotni kompleks rivojlantirishda investitsion jozibadorlikni boshqarish investitsiya siyosatini samarali yurgizishni talab etadi hamda iqtisodiy tarmoqlarning tarkibiy o‘zgarishlari amalga oshirishni ta’minlaydi. Iqtisodiyotning real sektor tarmoqlariga investitsiyalar oqimini jalb qilish iqtisodiy rivojlanishning yangi bosqichini boshlab beradigan asosiy omildir. Investitsiyalar har qanday iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi, uning taraqqiyotini ta’minlovchi, ish o‘rinlarini yaratuvchi, aholining daromad manbaini shakllanishiga hissa qo‘shuvchi kuch ekan, demak barcha imkoniyatlarni ishga solib iqtisodiyotga yo‘naltiriladigan investitsiyalar hajmini oshirish lozim.

Iqtisodiy adabiyotlarda investitsiya muhiti va uni hisoblash usullarini ta’riflashning keng sohasi keltirilgan. Uning quyidagi ta’rifiga to‘xtalish maqsadga muvofiq: investitsiya muhiti – investitsiya jarayonlari kechadigan muhitdir. U mintaqada investitsiya faoliyati sharoitlarini va investitsiya riski darajasini belgilaydigan siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, ijtimoiy va boshqa omillar ta’sirida shakllanadi. O‘zbekiston – bu, eng avvalo, siyosiy barqarorlik, ertangi kunga bo‘lgan ishonch, ijtimoiy va siyosiy hayotning barcha sohalaridagi islohotlarning bosqichma-bosqich borishligiga asoslangan davlatdir. O‘zbekiston jahonning yuzdan ortiq millat vakillari va o‘nlab diniy konfessiyalar kelishib yashayotgan davlatdir. O‘zbekitonning rivojlanishida asos bo‘layotgan qator islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi tufayli bugungi kunda mamlakatimizda quyidagilarga erishish ta’minlanyapti:

- makroiqtisodiy barqarorlik, iqtisodiyotning ichki va tashqi sektorlarining muvozanatlashganligi, valyuta jamg‘armalarining o‘sishi;
- yillik iqtisodiy o‘sishning barqaror yuqori sur’atlarini ko‘proq ichki omillar hisobiga o‘rtacha 8% darajasida ushlab turish uchun sharoitlar yaratilishi;
- jami soliq yuklamasini oxirgi yillarda deyarli uch baravarga pasaytirish, bunda davlat tomonidan eksporter korxonalar, kichik biznes subyektlari va investitsiyalarni amalga oshirayotgan va yangi turdagi mahsulotlarni o‘zlashtirayotgan korxonalarga qo‘shimcha imtiyozlar taqdim etildi;
- bank nazorati Bazel tamoyillariga qat’iy rioya qilinadigan barqaror bankmoliya tizimining yaratilishi. Xususan, bank kapitalining yetarliligi darajasi 23%dan ortiqroqni tashkil qiladi, bu xalqaro standartlardan deyarli 3 marta yuqoridir;
- faol investitsiya siyosati, sanoat tarmoqlari va ishlab chiqarish infratuzilmasini texnik modernizatsiyalash hisobiga yangi yuqori texnologik tarmoqlarni rivojlantirish.

1 Чухрай Н.І. Формування інноваційного потенціалу підприємства: маркетингове і логістичне забезпечення. Монографія. – Л.: Вид-во Національного університету “Львівська політехніка”, 2002. – 315 с.

2 Бажал Ю.М. Экономическая теория технологических изменений: Учеб. пособие. – М.: Завет, 1996. – 240 с

O‘zbekistonda investitsion muhit jozibadorligini boshqarish masalalari bo‘yicha ilmiy-nazariy, uslubiy va amaliy jihatlari borasida mustaqil tadqiqotlar olib borish yetarli darajada emas. Iqtisodiy adabiyotlarda investitsion muhit jozibadorligi sifatida turli tushunchalar talqin qilinmoqda. Mamlakatimizda investitsion muhit jozibadorligi iqtisodchi-olimlar tomonidan kam o‘rganilgan mavzulardan biri ekanligi bilan birga, ushbu masalaga hozirda yangicha yondashuv zarurligini taqozo etmoqda.

Mintaqaning investitsion jozibadorligini uning ma’lum bir xususiyati sifatida xo‘jalik yurituvchi subyektlar - alohida korxonalarning raqobatbardoshligini tahlil qilishdan tashqarida ko‘rib chiqish mumkin. Bu yoki boshqa yo‘l bilan mintaqani mahsulot yoki uning hududida joylashgan korxonalar brendlarining kelib chiqish hududi sifatida ko‘rsatishga imkon beruvchi mintaqaviy brending vositasini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Barqaror rivojlanish asoslarini shakllantirish kontekstida brending boshqaruv organlariga hududlarning qiymatini sezilarli darajada oshirish, investitsiya resurslarini jalb qilish, joriy iste’molni, ishlab chiqarish hajmini va tabiiy resurslardan foydalanishni oshirishga imkon beradi. Barqarorlik asosida mintaqaviy rivojlanishni ta’minlash uchun ushbu vositadan foydalanish faqat iqtisodiy sohani rivojlantirishdan ko‘ra muhimroq natija va ijtimoiy samara berishi mumkin. Ushbu yondashuvga ko‘ra, mintaqaning, iqtisodiyot tarmog‘ining, umuman davlatning investitsion jozibadorligi ko‘rsatkichi alohida korxonalar yoki hududlarning investitsion jozibadorligi belgilaridan iborat (1-rasm).



1-rasm: Mintaqa va davlatning investitsion jozibadorligining tarkibiy va mazmuniy tavsiflari

Mintaqaning investitsion jozibadorligini shakllantirishga “qattiq” omillar, ya’ni boshqaruv organlarining qisqa vaqt ichida ta’sirini o‘zgartirish qiyin yoki imkonsiz bo‘lgan omillar ta’sir ko‘rsatadi. Ulardan eng muhimlari sifatida: geografik joylashuvi, tabiiy resurs salohiyati, iqlim sharoiti, mehnat resurslari, intellektual kapital, ichki bozor sig‘imini keltirish mumkin. Hududni rivojlantirishga investitsiya kiritish to‘g‘risida qaror qabul qilishda ushbu omillarning ta’sir darajasi investor faoliyatining sohasi, maqsadlari va yo‘nalishlariga bog‘liq. Hududlarning investitsion jozibadorligi ishbilarmonlik muhiti, biznesni tashkil etish tartib-taomillarining murakkabligi, hukumatning ochiqligi, investitsion rivojlanish darajasi kabi “yumshoq” omillarning (infratuzilmaning rivojlanish darajasi) ta’siriga ham bog‘liq[3].

Ushbu omillarning obyektiv va subyektiv umumlashmalari to‘plami mintaqaning investitsion imidjini shakllantiradi, bu esa, shunga ko‘ra, ijobiy va salbiy belgilarga ega bo‘lishi mumkin. Davlat boshqaruvi nuqtai nazaridan mintaqaning investitsiya imidji va mintaqaviy brend tushunchalari bir-biri bilan chambarchas bog‘liq,

3 Мидлер Е.А., Ованесян Н.М. Инвестиции в аспекте маркетинга: рыночная природа, спецыфика маркетингових решений [Електронний ресурс] // Журнал «Наука и образование: хазяйство и экономика; предпринимательство; право и управление». – 2013. - Режим доступу до журн.: http://www.journal-nio.com/ index.php?option=com_content&view=frontpage&Itemid=1

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

chunki mintaqa imidji uning noyob brendi haqidagi g‘oyalardan iborat. O‘z navbatida, mintaqaviy brending mintaqa brendini (yoki uning hududidan kelib chiqadigan alohida mahsulot brendlarini) tashqi bozorda reklama qilish vositasi sifatida ishlaydi.

Ushbu vosita mintaqalar va butun mamlakatlarning investitsion jozibadorligini oshirish maqsadida global boshqaruv amaliyotida keng qo‘llaniladi. Raqobatbardosh mahsulot brendlarini shakllantirish va ularni xalqaro bozorlarga olib chiqishda marketing texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha yetakchi davlat bo‘lgan AQSh misolida biz davlatning milliy raqobatdosh pozitsiyalarini shakllantirish uchun milliy iqtisodiy tizim rivojlanishining barqarorligini ta’minlash sharoitida ishlab chiqaruvchi brending imkoniyatlarini ko‘rsatamiz (1-jadval).

1-jadval: 2022-yilda S&P Dow Jones barqarorlik indeksi bo‘yicha yetakchi korxonalar va tarmoqlar

№	Kompaniya nomi	Iqtisodiy faoliyat sohasi	№	Kompaniya nomi	Iqtisodiy faoliyat sohasi
1.	Aptiv PLC	Avtomobillar va butlovchi qismlar	6.	Walgreens Boots Alliance, Inc.	Oziq-ovqat va asosiy mahsulotlar chakana savdosi
2.	General Motors Company	Avtomobillar va butlovchi qismlar	7.	PepsiCo, Inc.	Oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki
3.	Bank of America Corporation	Bank, moliyaviy faoliyat	8.	Becton, Dickinson and Company	Sog‘liqni saqlash uskunalari va xizmatlari
4.	Caterpillar Inc	Kapital tovarlar	9.	The Walt Disney Company	Media va o‘yin-kulgi
5.	ConocoPhillips	Energiya	10.	Agilent Technologies, Inc.	Farmasevtika, biotexnologiya va hayot fanlari

1-jadvalda keltirilgan korxonalar va tarmoqlarning barchasi dunyoga mashhur AQSh brendlari. Bunday shon-shuhrat va ularning tovarlarining tan olinishi ishlab chiqaruvchi mamlakatni noyob biznes brendlari portfelining egasi sifatida joylashtirishga, uning biznes yuritish va investitsiyalarni rivojlantirish uchun qulay sharoitlarni yaratuvchi mamlakat sifatida ijobiy imidjini shakllantirish, xususan, sanoat ishlab chiqarishi, kimyo, aerokosmik, mudofaa sanoati kabi ishlab chiqarish tamoqlarini kengaytirishga imkon beradi. Shunga qaramay, sifat, innovatsiyalar va qiymat xususiyatlari to‘plami bo‘yicha ushbu ishlab chiqaruvchilarning mahsulotlari bozorda noyob va almashtirib bo‘lmaydigan bo‘lishi shart emas.

Ta’kidlash joizki, bu xususiyatlardan birortasining yetishmasligi ishlab chiqaruvchining brendi va uning kelib chiqqan mamlakatining shuhrati, xaridorlarning tanlovini belgilaydigan ijobiy imidji bilan qoplanadi. Bundan tashqari, milliy rivojlanish jarayonlarining barqarorligi ham butun dunyoga hududiy rivojlanishning iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy tarkibiy qismlarini muvozanatlash qobiliyati bilan tanilgan mamlakat brendidir, bu esa ijobiy investitsiya imidjini shakllantirish imkonini beradi.

Umuman olganda, dunyoning istalgan mamlakatining har bir mintaqasi nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi sharoitida, balki ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning kengayishi sharoitida ham shakllanadigan o‘ziga xos tasavvurga ega bo‘lgan yoki ifoda etilmagan obro‘si yoki milliy ishlab chiqaruvchilar mahsulotlarini tashqi bozorlarga kompleks marketing targ‘ibotini tashkil etish bo‘yicha aloqalari tarmog‘iga ega bo‘lishi mumkin.

Shuning uchun tasvir sifati nafaqat mahsulotning xususiyatlariga, balki mahsulot ishlab chiqaruvchilari va boshqaruv organlarining o‘z mahsulotini ilgari surish hamda qulay joylashtirish bo‘yicha marketing chora-tadbirlari majmuasini shakllantirish bozorda, uning ijobiy imidjini yaratish va mahsulot haqida ma’lumot tarqatish bo‘yicha sa’y-harakatlarining maqsadga muvofiqligiga bog‘liq.

Investor uchun mamlakatning investitsion jozibadorligini baholash, uning imkoniyatlarini hisobga olish muhim masala sanaladi. Bugungi kunda O‘zbekistonda qulay investitsiya muhitini muntazam ravishda yaxshilab borishni ta’minlash ustuvor vazifadir. Bunda davlatning asosiy vazifasi kapital jalb qilish uchun qulay investitsiya muhitini yaratish va uning jozibadorligini oshirish bilan izohlanadi. Xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga jalb etishdan manfaatdorlik har qanday davlatning o‘z investitsiya siyosatini ishlab chiqishini talab etadi. Bu siyosat xorijiy investitsiyalarni jalb etishning o‘ziga xos yo‘nalishini, shuningdek, ularni jalb etishni rag‘batlantirish tizimini aniqlab beradi va investitsiya faoliyatining huquqiy tartibini belgilaydi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida: “Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritgan bo‘lsa, o‘z iqtisodiyotining barqaror o‘sishiga erishgan. Shu sababli ham investitsiya – bu iqtisodiyot drayveri, o‘zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Biz faqat investitsiyalarni faol jalb qilish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish hisobidan iqtisodiyotimizni jadal rivojlantirishga erishamiz. Iqtisodiyotdagi ijobiy natijalar esa ijtimoiy sohada to‘planib qolgan muammolarni tizimli hal etish imkonini yaratadi. Buni hammamiz chuqur tushunib olishimiz va

ishimizni shu asosda tashkil etishimiz shart. Xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish uchun mamlakatimizning investitsiya salohiyatini to‘la namoyon etish choralarini ko‘rishimiz kundalik hayotimizdan joy olgan eng dolzarb masalalardan biri bo‘lmog‘i lozim”, deb ta’kidlab, xorijiy investitsiyalarning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi g‘oyat muhim ahamiyatini va uni jalb qilishning dolzarbligini e’tirof etadi.

Jahon hamjamiyatida globalizatsiya jarayoni kechmoqda. Globalizatsiya jarayoniga qo‘shilish bu dunyoning yetakchi davlatlari bilan hamkorlikda bo‘lish, iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy sohadagi davlat siyosatining o‘zaro manfaatli asosda bu davlatlar siyosatiga mos kelishidir. Shu nuqtai-nazardan O‘zbekiston jahon hamjamiyati oldida bugungi kunda o‘zining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, dunyo xaritasida geografik joylanishi, tabiiy resurslarining tarkibi va zaxirasi, hukumat olib borayotgan investitsiya siyosati va boshqalar bilan muhim rol o‘ynaydi. Bu esa, o‘z navbatida, xorijiy investitsiyalarning kirib kelishi uchun qulay investitsiya muhiti barpo etish zaruriyatini ko‘rsatadi. Shu maqsadda mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan investitsion muhitning jozibadorligini oshirish maqsadida “O‘zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni 2018-yil 2-avgustda e’lon qilindi. Ushbu farmonga ko‘ra:

- O‘zbekiston Respublikasiga investitsiya kiritgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarga ko‘p martalik uch yillik viza olish va uning amal qilish muddatini O‘zbekiston Respublikasi hududidan chiqish zaruratisiz cheklanmagan miqdorda uzaytirish huquqi berildi;
- chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar ustav fondidagi xorijiy investitsiyalar ulushining eng kam miqdori 30 foizdan 15 foizgacha kamaytirildi;
- chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonaning ishtirokchisi sifatida xorijiy yuridik shaxs qatnashishi shartligi to‘g‘risidagi talab ham bekor qilindi;
- chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar ustav fondining eng kam miqdori 600 million so‘mdan (kamida 76 ming dollar) 400 million so‘mgacha (50 ming dollarga) kamaytirildi;
- O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi mamlakat iqtisodiyotining ustuvor sohalariga katta miqdorda investitsiya kiritgan chet el fuqarolariga “Faxriy fuqaro” maqomini berish tartibini joriy etish bo‘yicha takliflar kiritishi talab qilindi;
- qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkasini 50 yilgacha muddatga, lekin arizada ko‘rsatilganidan kam bo‘lmagan muddatga investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun uzoq muddatli ijaraga berish;
- ko‘chmas mulk obyektlarini (mehmonxonalar, savdo obyektlari, madaniy-ko‘ngilochar majmualar, maishiy xizmat ko‘rsatish obyektlari, ta’lim va tibbiyot tashkilotlari, yo‘l infratuzilmasi va boshqalar) qurish uchun yer uchastkalariga doimiy egalik qilish huquqini auksion orqali sotish.

Bundan tashqari “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi qonunida o‘z aksini topgan O‘zbekistonda investorlar uchun soliq og‘irligini pasaytirish va soliqqa tortish tizimini soddalashtirish, sog‘lom raqobat muhitini qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan soliq siyosati va soliq-tarif boshqaruvi islohotlari jadal sur’atlarda amalga oshirilmoqda . Rivojlangan mamlakatlarda to‘plangan boy tajribalar, amalga oshirilgan islohotlar, qabul qilingan qarorlar va chora-tadbirlarning tub mohiyatini o‘rganish, yutuq va kamchiliklarini ilmiy jihatdan tanqidiy tahlil qilish milliy iqtisodiyotimizning taraqqiyoti uchun har tomonlama dastak vazifasini o‘taydi. Binobarin, xalqaro maydonda mavjud bo‘lgan boy tajribalar, zamonaviy tendensiyalar yildan-yilga takomillashib, o‘zgarib bormoqda. Xususan, investitsiyalarni jalb etish, ularni ekport va import qilish, investorlarning manfaatlarini himoya qilish, investitsion faollik va raqobatbardoshlikni oshirish bilan bog‘liq masalalar shular jumlasiga kiradi.

So‘nggi bir necha yil ichida O‘zbekiston jadal iqtisodiy o‘zgarishlarni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda biznes va investitsiyalar uchun turli xil to‘siqlarini bartaraf etishda ochiqlik, yangilanish va qat’iyatlilik ramzlaridan biri sifatida tobora ko‘proq namoyon bo‘lmoqda.O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunini samarali ijro etilishi uchun investorlar bilan Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, hokimliklar, xorijdagi diplomatik vakolatxonalar va tijorat banklari rahbarlari o‘rinbosarlaridan iborat bo‘lgan davlat hokimiyat organlari hamkorligining 4 bosqichli mexanizmi muvaffaqiyatli yo‘lga qo‘yilgan. Ushbu mexanizm investorlarning barcha so‘rovlariga tezkor javob qaytarish va qonunda nazarda tutilgan chora-tadbirlar amalga oshirilishining samaradorligini kerakli tarzda nazorat qilish imkonini beradi.

Shu nuqtai nazardan, Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining ko‘magi bilan tuzilgan, Respublikada faoliyat yuritayotgan investorlar bilan bevosita muloqotni ta’minlaydigan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xorijiy investorlar kengashining rolini ta’kidlash muhim ahamiyatga ega.Xalqaro hakamlik sudlari institutining rivojlanishi ham faol qo‘llab-quvvatlanmoqda. O‘z navbatida, bu mamlakat investitsiya muhitining muhim va tizim tashkil etuvchi tarkibiy qismi bo‘lgan qonun ustuvorligini hamda davlat va mahalliy investorlar zimmasidagi majburiyatlarning to‘g‘ri bajarilishini ta’minlaydi.Shu bilan birga, jahon amaliyoti va tajribasi shuni

ko‘rsatadiki, biznesning investitsiya va innovatsion faoliyatiga to‘sqinlik qilayotgan muammolarni endi oddiy vositalar bilan, ya’ni imtiyozlar berish yoki yangi deklarativ me’yorlarni nashr etish bilan hal qilishning imkoni yo‘q.

Xususiy investitsiyalarni faollashtirish uchun tadbirkorlik faoliyatini erkinlashtirish talab etiladi. Biznes bilan doimiy muloqot, muayyan sektorlarning rivojlanishiga to‘sqinlik qiladigan to‘siqlarni aniqlash va yengib o‘tish bo‘yicha astoydil ish olib borish kerak. Shu munosabat bilan quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha faol ish olib borilmoqda.

Birinchidan, iqtisodiy o‘sishning bir maromdagi yuqori va barqaror sur’atlarini saqlab qolish uchun mamlakat iqtisodiyotining barqaror va raqobatbardosh, bank tizimi aktivlarining katta qismi xususiy investorlar qo‘lida bo‘lgan modelini shakllantirish zarur.

Ikkinchidan, investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish va barqaror iqtisodiy o‘sishning asosiy omillaridan biri bo‘lgan infratuzilmaga yo‘naltirilgan investitsiyalarining jadal o‘sishini ta’minlash maqsadida davlat-xususiy sheriklik va loyihalarni moliyalashtirish vositalarini rivojlantirish orqali investitsiyaviy faoliyatni rag‘batlantirish ham faol tarzda olib borilmoqda.

Uchinchidan, raqamlashtirish va davlat xizmatlarini masofaviy taqdim etish orqali investitsiya loyihalarini amalga oshirishda byurokratik to‘siqlar va cheklovlarni to‘liq bartaraf etish uchun investorlar va davlat o‘rtasidagi munosabatlar optimallashtirilmoqda. Shaffoflikni maksimal darajada ta’minlash va korrupsiyaning oldini olish uchun xorijiy investorlarning murojaatlari va so‘rovlari bilan ishlashni tashkil etish sifati yaxshilanmoqda.

To‘rtinchidan, ish kuchi va kapitalning iqtisodiyotning qonuniy sektorlaridan yashirin iqtisodiyotga oqib ketishiga olib keladigan tranzaksiya xarajatlarining kamayishi kuzatilmoqda.

Beshinchidan, kelgusida texnologik yutuqlarga erishish nuqtasiga aylanishi va keyingi 20-30 yil davomida mamlakat ishlab chiqarish quvvatlarini rivojlanishi uchun zamin yaratishi mumkin bo‘lgan O‘zbekistonning eng istiqbolli sohalariga yo‘naltirilgan investitsiya siyosati strategiyasi ishlab chiqilmoqda.

Investitsiya muhiti mamlakatdagi barcha faoliyat sohalariga ta’sir ko‘rsatishini inobatga olgan holda, islohotlar ko‘lami iqtisodiy, institutsional, ta’lim, sog‘liqni saqlash, qishloq xo‘jaligi, suv ta’minoti, energetika, transport va boshqa yo‘nalishlarni qamrab oldi. Shuningdek, tadbirkorlarni va investitsiya loyihalari tashabbuskorlarini amaliy qo‘llab-quvvatlashga katta e’tibor qaratilmoqda. Ushbu yo‘nalishdagi eng yorqin misol - bu 2020-yilda tuzilgan eksport va investitsiyalarni rivojlantirish masalalari bo‘yicha Hukumat komissiyasining faoliyati bo‘lib, uning vazifalariga tadbirkorlar va eksportchilar bilan yaqin hamkorlik qilish, pandemiya tufayli yuzaga kelgan cheklovlar bilan bog‘liq muammolarni taxlil qilish, shuningdek, har bir tadbirkorlik subyektining muammosini hal qilishda individual yondashuv asosida tezkor va samarali yechimlarni ishlab chiqish va amalga oshirish kiradi.

XULOSA

Bugungi kunda O‘zbekistonga xorijiy investitsiyalarning investitsion mablag‘larini jalb etish bo‘yicha bir qator masala va muammolarning haligacha ochiq qolayotganligini ta’kidlash lozim bo‘ladi. Iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb etishda davom etib kelayotgan past ko‘rsatkichning sabablarini aniqlash maqsadida Tashqi ishlar vazirligi (TIV) O‘zbekistonda ishlash tajribasiga ega xorijiy sarmoyadorlar, biznesmenlar va moliya tashkilotlarining ekspertlari o‘rtasida so‘rovnoma o‘tkazgan. Ular O‘zbekistonga sarmoya oqimini to‘xtatib qo‘yayotgan qator omil va sharoitlarning ba’zilari sifatida quyidagilarni sanab o‘tishgan:

- bank-kredit tizimining takomillashmagani;
- sarmoyadorlar huquqlarining zaif himoyasi va yetarli darajada samarali bo‘lmagan sud tizimi;
- ma’muriy-byurokratik to‘siqlar (ko‘plab xorijiy kompaniyalar o‘z faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziya va ruxsat olish tartib-qoidalaridan norozi);
- past investitsiya reytingi.

O‘zbekistonda qulay investitsiya iqlimi yaratilishi uchun keng harakat qilinmoqda, bu borada xorijiy investorlarga turlicha moliyaviy imtiyozlar va huquqlar berilgan, bozor infratuzilmasi shakllantirilmoqda. Shuning bilan birgalikda quyidagi tadbirlar investitsiya iqlimini yanada yaxshilash imkoniyatini beradi:

- so‘mning qadrini ko‘tarish;
- mulk dahlsizligini ta’minlash,
- investorlar haq huquqini himoyalashni yanada oshirish,

- bank foizi stavkalarini barqarorlashtirish; islohotlarning bosqichma-bosqich amalga oshirilishini hisobga olgan holda soliq tizimini ilmiy asoslangan holda takomillashtirish;
- ma'muriy buyruqbozlik holatlariga chek qo'yish;
- O'zbekistondagi aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyasi nufuzini va uning likvidliligini oshirish, xorijiy investorlarni ularga jalb eta bilish, qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish.

Rivojlangan mamlakatlarning tajribasi, bosib o'tgan yo'li, iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash yo'lida mamlakatning investitsion muhitni sog'lomlashtirish borasida qabul qilgan qonunlari, ishlab chiqqan qarorlarini o'rganish, investitsiyalari kengroq jalb etish bo'yicha ishlab chiqqan usul va uslublarining kerakli jihatlarini O'zbekiston sharoitiga tatbiq etish muhim masalalardan hisoblanadi. Zero, to'plangan tajribalarni mamlakatning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda tatbiq etilishi, tavakkalchilikni pasaytirishga, mavhumlikni oldi olinishiga, yuqori samaradorlikning ta'min etilishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mustafakulov Sh.I. Investitsion muhit jozibadorligi. Ilmiy-amaliy qo'llanma. –Toshkent:Baktria press, 2017.-320 b
2. .Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.X., Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma. – T.: "Moliya", 2010. – B. 153.
3. Vahabov A.V., Tadjibayeva D.A., Xajibakiyev Sh.X. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar: darslik. -T.: Baktria press, 2015. -584 b.
4. Асаул А.Н., Денисова И.В. Состояние инвестиционного климата Петербургского региона. // Сб. докладов межд. науч.-практ. конф. "Реконструкция – Санкт-Петербург – 2003". Ч. 3. – СПб.: СПбГАСУ, 2002.
5. Асаул А.Н., Денисова И.В. О влиянии инвестиционного климата в СанктПетербурге и Ленинградской области на развитие инвестиционно-строительного комплекса. // Инвестиционно-строительная деятельность в условиях становления рыночных отношений. Сб. науч. тр. – СПб.: СПбГАСУ, 2001.
6. World Investment Report 2020. International Production Beyond the Pandemic. United Nations, Geneva, 2020.
7. Liu Yu-Hong, Jiang I-Ming. Optimal proportion decisionmaking for two stages investment- North American Journal of Economics and Finance 48(2019) 776-785, www.elsevier.com/ locate/najef.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

INSON RESURSLARINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY KOMPANIYALARNING TAJRIBASINI O‘RGANISH METODOLOGIYASI

Narzullayeva Gulchehra Salimovna
Buxoro davlat universiteti Iqtisodiyot va turizm fakulteti Iqtisodiyot kafedrasi katta o‘qituvchisi

Shadiyeva Madina Djaloliddin qizi
3-1IQT-22 guruhi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola xorijiy transmilliy kompaniyalarda kredo, uning ahamiyati, kompaniyalar kredosida inson resurslarini rivojlantirishning alohida xususiyatlari, inson resurslari komponenti bo‘yicha amalga oshiriladigan missiya, uning alohida afzalliklari va kamchiliklarini ikkita yirik kompaniya Jonson & Jonson hamda P&G tomonidan qo‘llaniladigan modellari misolida tahlil qilishga doir tahliliy ma’lumotlar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Kredo, korporativ boshqaruv, inson resurslari, missiya, strategik yondashuv, inson resurslarini boshqarish modellari.

Abstract: This article analyzes the credo of foreign transnational companies, its importance, peculiarities of human resources development in the credo of companies, the mission carried out by the human resources component, its special advantages and disadvantages on the example of models used by two large companies, analytical data of Johnson & Johnson and P&G are given companies.

Key words: Credo, corporate governance, human resources, mission, strategic approach, models of human resource management.

Аннотация: В данной статье анализируется кредо зарубежных транснациональных компаний, его значение, особенности развития человеческих ресурсов в кредо компаний, миссия, выполняемая кадровой составляющей, ее особые преимущества и недостатки на примере моделей, используемых двумя крупными компаниями. компаний, приводятся аналитические данные Johnson & Johnson и P&G.

Ключевые слова: Кредо, корпоративное управление, человеческие ресурсы, миссия, стратегический подход, модели управления человеческими ресурсами.

Inson resurslarini boshqarish – bu tashkilotning faqat o‘z xodimlariga qaratilgan biznesdagi funksiyasi hisoblanadi. Bu biznes tashkilotlarining eng qimmatli subyekti, uning odamlari ustidan nazorat qilishning strategik yondashuvidir. Shunday qilib, inson resurslarini boshqarish – bu ishchi kuchini ta’minlash, xodimlarning iste’dod va qobiliyatlarini rivojlantirish konsepsiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan boshqaruv roli bo‘lib, asosiy e’tibor rahbariyat va xodimlar o‘rtasidagi o‘zaro va qoniqarli munosabatlarni rivojlantirishga qaratilgan bo‘ladi.

Korporativ boshqaruv turli manfaatdor tomonlar o‘rtasidagi munosabatlar saqlanib qolishini belgilaydi. Buni ta’minlash uchun har bir bo‘lim bir-birining yonida muammosiz ishlaydi.1

Ushbu maqola dunyo darajasidagi ikkita yirik kompaniya Jonson & Jonson2 va P&G3 tomonidan qo‘llaniladigan inson resurslarini boshqarish modellarini tahlil qilishga harakat qildik.

Johnson & Johnsonda kompaniyaning missiyasi va maqsadlari korxona kredosi orqali ifodalanadi. Ushbu hujjat kompaniya tomonidan oltmish yil davomida ishlab chiqilgan. Hujjat kompaniyaning o‘z xodimlari, mijozlari, manfaatdor tomonlari va umuman jamiyat oldidagi mas’uliyatini bajarish bo‘yicha yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadigan oddiy, bir sahifali hujjat bo‘lib hisoblanadi.

Inson resurslari komponenti bo‘yicha missiya kredoda mavjud bo‘lib, unda quqyidagilar bayon etilgan:

1. Kompaniya o‘z xodimlari oldida javobgardir
2. Har bir xodim shaxs sifatida ko‘rib chiqilishi va unga huquqiy tartibda munosabatda bo‘lish kerak.
3. Biz ularning odob-axloqini hurmat qilishimiz bilan birga qadrini ham tan olishimiz kerak.
4. Xodimlar o‘z ishlarida xavfsizlik hissi bo‘lishi kerak.
5. Mukofotlar tizimi to‘g‘ri va adekvat bo‘lishi kerak.
6. Kompaniya o‘z xodimlariga o‘z majburiyatlarini bajarishda yordam beradigan vositalarni hisobga olishi kerak.
7. Kompaniya ijodkorlikni rag‘batlantiradi, xodimlar takliflar berishlari va shikoyat qilishlari mumkin.
8. Kompaniya qobiliyatli boshqaruvchini ish bilan ta’minlashi kerak.

Ushbu kredolar kompaniyaning inson resurslarini boshqarish yondashuvini umumlashtiradi, bunda xodim tashkilot maqsadlarini amalga oshirishda asosiy rol o‘ynaydi[4].

1-jadval: Jonson & Jonson kompaniyasida inson resurslarini boshqarish modellari va alohida xususiyatlari: afzalliklar va kamchiliklar

Jonson & Jonson kompaniyasida inson resurslarini boshqarishdagi alohida afzalliklar	Jonson & Jonson kompaniyasida inson resurslarini boshqarishdagi alohida kamchiliklar
Kompaniyada kredoning mavjudligi	Kompaniya rahbariyati tadbirkorlik xususiyatiga ega, lekin yuqori darajada markazlashtirilmagan
Kompaniyada ijodkorlikni rag‘batlantirish	Korxonada budjetlashtirish tizimidagi noqulay rejalashtirish tizimining mavjudligi
Kompaniyaning o‘z xodimlari oldida mas’ul ekanligi	Qaror qabul qilishdagi muammolarning mavjudligi
Kompaniya rahbariyatining tadbirkorlik xususiyati	Inson resurslarini boshqarishda menejment va kompetentlik muammolarining mavjudligi
Kompaniyaning turli mijozlar segmentlariga mahalliy ta’sir ko‘rsatishi	Kompaniyada turli xil tillar madaniyatlar o‘rtasidagi ziddiyatli muammolarning mavjudligi

Kompaniya o‘z xodimlari oldida mas’ul ekanini tan oladi, ularning qadr-qimmatini hurmat qiladi, shuningdek, erishilgan yutuqlarda ularning xizmatlarini tan oladi. Kompaniya rahbariyati tadbirkorlik xususiyatiga ega, yuqori darajada markazlashtirilmagan bo‘lib, mijozning ehtiyojlarini oldindan ko‘ra oladi va muammolarga sifatli yechimlarni taqdim etishni biladi. Kompaniya dunyoning turli burchaklarida keng tarqalgan filiallarga ham ega.

Bu kompaniyaga turli mijozlar segmentlariga mahalliy ta’sir ko‘rsatishni ta’minlaydi. Boshqaruv yondashuvi mijozlarning ehtiyojlarini qondirish, ilmiy bilimlarni rivojlantirish va vaqt o‘tishi bilan yangi texnologiyalarni qo‘llash zarurligini o‘z ichiga oladi.

Johnson & Johnson kompaniyasida qaror qabul qilish yondashuvi yuqori darajada markazlashtirilmagan bo‘lib, uning har bir sho‘ba korxonasi mustaqil ishlaydi. Har bir birlik boshqa sharoitda ishlayotgan bo‘lsa-da, u katta tashkilotning texnik nou-xau va resurslaridan cheksiz foydalanish imkoniyatiga ega. Sho‘ba korxonalar strategik sheriklar sifatida faoliyat yuritadi va bir-biri bilan doimiy aloqada bo‘ladi.

P&G kompaniyasida inson resurslarini rivojlantirish darajasi dunyodagi eng yuqori darajadagi ko‘rsatkich sifatida e’tirof etiladi. Kompaniyaning muvaffaqiyati birinchilardan bo‘lib biznesga yo‘naltirilgan inson resurslari rolini o‘z zimmasiga olgan chora-tadbirlar ishlab chiqqanligi orqali ko‘rish mumkin. Ular 70 dan ortiq mamlakatlardagi 95 000 dan ortiq xodimlarining ehtiyojlarini, muvaffaqiyatlari va rivojlanish yo‘llarini himoya qiladi.

P&G kompaniyasining kredosida quyidagilar aks ettirilgan:

1. Kompaniya rahbarlari bilan birgalikda inson resurslari, tashkilotlar, tizimlar va madaniyatlar yaratish.

1 https://service.ivypanda.com/
2 https://ru.wikipedia.org/wiki/Johnson_%26_Johnson
3 https://us.pg.com/
4 https://service.ivypanda.com/

2. Kompaniyaning yanada o‘sishi va raqobatdosh ustunligini uchun sharoit yaratish va qo‘llab-quvvatlanish.
3. Kompaniya o‘z jamoasini dunyoning barcha burchaklarida HR siyosati orqali nazorat qiladi va rag‘batlantiradi.
4. Bu xodimlar va mehnat munosabatlari, xodimlarni jalb qilish, xilma-xillik va inklyuzivlik, o‘rganish va rivojlanish va boshqalarni anglatadi.
5. Proctor and Gamble kompaniyasi tomonidan inson resurslari jamoasining bir qismi bo‘lish malakali mehnat resurslarini jalb qilish, mavjud xodimlarni mukofotlash va rag‘batlantirishga yo‘naltirilgan tizimlari va vositalari ishlab chiqilgan.
6. Kompaniya inson resurslarining samaradorlik, innovatsiyalar va innovatsiyalarni rag‘batlantirish uchun o‘z xodimlarni sinovdan o‘tkazish mas’uliyatini o‘z ichiga oladi.

2-jadval: P & G kompaniyasida inson resurslarini boshqarish modellari va alohida xususiyatlari: afzalliklar va kamchiliklar

P&G kompaniyasida inson resurslarini boshqarishdagi alohida afzalliklar	P&G kompaniyasida inson resurslarini boshqarishdagi alohida kamchiliklar
Biznes bilan integratsiyalashgan hamkorlikning mavjudligi	P&G, turli sohalar uchun yetakchi bo‘lgan bir nechta brendlarni boshqaradi. Bu esa turli sohalarda ishlayotgan insonlarning turli xususiyatlari orasidagi muammolarni mavjudligini ko‘rsatadi.
Manfaatdor tomonlar bilan maslahatlashuv	Turli tillarda, madaniyatlarda va iqtisodiyat tizimlarida faoliyat yurituvchi xodimlar orasida kommunikatsiya, tadbirkorlikni o‘rganish va joriy etish bo‘yicha muammolarining mavjudligi.
Xizmatni etkazib berish uchun zarur bo‘lgan ko‘p variantlarning mavjudligi	Yuqori malakali mutaxassislar, tajribali va mahoratli xodimlarni tanlash uchun samarali rekrutment usullarini amalga oshirishdagi muammolarning mavjudligi.
Kompaniyada rol va majburiyatlarning kelishilganligi	Kompaniyada turli madaniyat va millatlardan kelgan xodimlar orasidagi o‘zaro munosabatlarni rivojlantirish hamda o‘zaro adolatni saqlash muammosining mavjudligi.
Kompaniya tomonidan korporativ strategiya modelidan foydalanish	P&G keng ko‘lamda xalqaro bozorda faoliyat ko‘rsatadi, shu jarayonda bir qator muammolar yuzaga chiqishi mumkin. Masalan mamlakatlardagi iqtisodiy, itimoiy, siyosiy, madaniy jabhalardagi muammolarning mavjudligi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, biz dunyodagi 2 ta yirik transmilliy kompaniya tomonidan inson resurslarini rivojlantirishga alohida xususiyatlar, afzalliklar va kamchiliklar bilan tanishib chiqdik. Shu jarayonda har bir kompaniyaga xos bo‘lgan kamchiliklar ham ko‘zga tashlandi. Yuqoridagi tahlil natijalardan kelib chiqib kompaniyalardagi HR ni rivojlantirish uchun quyidagi innovatsion modelni faoliyatga qo‘llashni tavsiya etamiz.

Inson resurslarini strategik rejalashtirish modeli

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Embrey, D. (2000). Perfomance Influencing Factors (PIFs). Introduction to PIF’s, Human Reliability Associates Ltd. Web.
2. KPMG. (2000). Understanding ERM-An emerging model for building shareholder value. Web.
3. NERAM. (2009). Basic frameworks for risk management. Web.
4. Triant Flouris, A. K. (2010). The Risk Management Framework to Strategic Human Resource Management. International Research Journal of Finances and Economics , 13.
5. Saleh M. A. H. Themes and topics of research in marketing: A content analysis of the articles published in three marketing journals //International Journal of Business Administration. – 2016. – T. 7. – №. 1. – C. 12.
6. Todorova G. Marketing communication mix //Trakia Journal of sciences. – 2015. – T. 13. – №. 1. – C. 368-374.
7. Narzullayeva G. S., Bakayeva M. A. Creative Management: Creative Opportunities In Business Process Management //American Journal Of Social And Humanitarian Research. – 2022. – T. 3. – №. 12. – C. 58-63.
8. Gulchehra N. Role Of Marketing Strategies In Increasing Company Competitiveness: Role Of Marketing Strategies In Increasing Company Competitiveness //Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz). – 2020. – T. 1. – №. 1.
9. Gulchehra N. Creative Management: Creative Opportunities In Business Process Management //Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz). – 2023. – T. 37. – №. 37.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 2

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.